



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**



TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**ZAMONAVIY BOSHLANG‘ICH TA‘LIM:
INNOVATSIYALAR, MUAMMOLAR VA
RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

**СОВРЕМЕННОЕ НАЧАЛЬНОЕ
ОБРАЗОВАНИЕ: ИННОВАЦИИ, ПРОБЛЕМЫ
И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ**

**MODERN PRIMARY EDUCATION:
INNOVATIONS, PROBLEMS AND
DEVELOPMENT PROSPECTS**

**mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
materiallari to‘plami**

19-20-may 2023-yil

II QISM

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIM:
INNOVATSIYALAR, MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**СОВРЕМЕННОЕ НАЧАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ:
ИННОВАЦИИ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ
РАЗВИТИЯ**

**MODERN PRIMARY EDUCATION: INNOVATIONS,
PROBLEMS AND DEVELOPMENT PROSPECTS**

**mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
materiallari to'plami**

19-20-may 2023-yil

II QISM



Termiz-2023

Mazkur konferensiya to'plami Termiz davlat Pedagogika instituti Kengashining 2023-yil 24-apreldagi № 8/4.7-sonli yig'ilishi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Tahrir hay'ati raisi:

Xasanov I.T.- Termiz davlat pedagogika instituti rektori v. v/b, professor.

Tahrir hay'ati:

- Kadirova O.X. - Termiz davlat pedagogika instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.
- Tojiyev P.J. - Termiz davlat pedagogika instituti. O'quv ishlari bo'yicha prorektor, texnika fanlari doktori, dotsent
- Imanov B.B. - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, Termiz davlat pedagogika instituti Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i
- Norbo'tayev X.B. - pedagogika fanlari doktori, dotsent, Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani
- Qodirov Q.B. - pedagogika fanlari doktori, dotsent, Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika va san'at fakulteti dekani
- Qosimov Sh. - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim fakulteti dekani
- Samiev A.S. - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Termiz davlat pedagogika instituti O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i
- Dusyarov X.Ch. - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Termiz davlat pedagogika instituti Texnologik ta'lim kafedrasini mudiri
- Shabbazova D.R. - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v/b, Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasini mudiri
- Muxtarova L.A. - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v/b, Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini mudiri
- Berdiyeva M.M. - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim nazariyasi kafedrasini mudiri
- Turamurotov U. - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v/b, Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasini mudiri
- Norboyeva S.M. - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasini doktaranti

Muharrirlar:
Shabbazova D.R.
Muxtarova L.A.

Texnik muxarrir:
Ollolqulova F.U.

Dizayner:
Xaydarova M.X.

Manzil: 190111, Termiz shahar, Islom Karimov ko'chasi, 288^B-uy
Telefon: +998 76 221 93 71, Faks: (376) 221-93-71
web: <http://terdupi.uz/>. e-mail: info@terdimi.

SO'Z BOSHI

XXI asrda jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan Xalqaro ta'lim konsepsiyasida sifatli ta'lim olish va ijodiy qobiliyatni rag'batlantirish dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Unda ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblangan boshlang'ich ta'limda fanlarni innovatsiya va zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish, o'quvchilarda integratsiyalashgan ta'limni rivojlantirish, ularda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik tizimning imkoniyatlarini kengaytirishni taqozo qiladi. Bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va o'quv materiallarini fanlararo aloqadorlik tamoyillari asosida egallashda kasbiy kompetentlikni orttirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo ta'lim tizimlarining xalqarolashuvi jarayonlari milliy ta'lim tizimi oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo'ymoqda. Jumladan, hozirgi kunda maktablarning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda dunyoga yaxlit, o'zaro aloqador bo'lgan birlik sifatida qarash, uning global muammolari hamda bu muammolar yechimini ko'ra va tushuna bilishni shakllantirishdan iborat. Shu bilan birga, ilg'or xorijiy tajribalarni integratsiyalash orqali jahon innovatsion-integrativ ta'lim muhitini kengaytirish, akmeologik yondashuv asosida innovatsion-kasbiy o'sish dinamikasini maqbullashtirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat.

O'zbekistonda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar ta'lim tizimini to'liq axborotlashtirishni, o'qitish mazmuni va sifatini qayta ko'rib chiqish, o'quv fanlarini integratsiyalash, o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan o'rinli va samarali foydalanish asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. "Maktab o'qituvchilarini belgilangan xalqaro standartlar asosida bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo'lishini ta'minlash ta'lim muassasalari faoliyati sifati va samaradorligini oshirish ustuvor vazifa etib belgilangan". Bu o'z navbatida ta'lim muassasasida yagona o'quv-me'yoriy hujjatlarni fanlar integratsiyasi asosida takomillashtiri zaruriyatini yaratib beradi.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, ilmiy kadrlar tayyorlashni zamon talablari darajasiga ko'tarish, iqtidorli yoshlarning ilmiy dunyo qarashini shakllantirishda integratsiyalashgan ta'limni keng qamrovda yo'lga qo'yish sohasida keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ta'lim va fan sohasida innovatsiyalarni rivojlantirish, xususan, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlarini inobatga olgan holda, malakali

kadrlar tayyorlash siyosatini tizimli amalga oshirish” ustuvor vazifa sifatida belgilanib, ta’limning bosh bo’g’ini, bu fan va uning doimiy rivojlanishidir.

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari tobora chuqurlashib borayotgan transformatsiya davrida ta’lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etmoqda. Ta’limni globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlariga moslashtirishda rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida o’quvchi yoshlarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning mobil va ta’sirchan modellarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur dolzarb masalani qamrab olgan o’quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, jamiyat siyosiy iqtisodiy-ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishini ta’minlashga yo’naltirilgan islohotlar, innovatsion, integratsiyalashgan ilmiy loyihalar, xalqaro tadqiqotlar keng miqyosda amalga oshirib kelinmoqda.

Mazkur to’plamda boshlang’ich sinf o’quvchilarida ilmiy dunyoqarashni fanlararo integratsiyalash asosida takomillashtirish muammosiga doir milliy va xorijiy tajribalarning tizimlashtirilganligi, ularda mantiqiy, tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirish, hozirgi holati, pedagogik shart-sharoitlari, zamonaviy ta’lim texnologiyalariga asoslangan metodlardan foydalanish orqali o’quvchilarning o’zlashtirgan nazariy bilimi, amaliy ko’nikma, malaka va kompetensiyalarni yangi vaziyatlarda qo’llash orqali o’quv materialini ongli o’zlashtirishga erishish variantlari havola qilingan. Shuningdek, bo’lajak pedagoglarda kompetentlikni shakllantirishning nazariy-metodologik masalalariga bag’ishlangan.

Rektor v.v.b. I. T.Xasanov

2022

III SHO‘BA. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

LINGVISTIK KOMPETENSIYANING TILNI O‘ZLASHTIRISHDAGI O‘RNI

Aytbayev Dilshodhuja Temirbayevich
Toshkent davlat pedagogika universiteti professori,
filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: Mazkur maqolada lingvistik kompetensiya tilni o‘zlashtirish bilan chambarchas bog‘liq ekanligi va diskursga kiritilgan matnlar so‘zlovchida matnning mantiqiy va semantik tuzilishini tushunish ko‘nikma va malakalarni shakllantirish imkonini berishi haqida fikrlar ketiriladi.

Kalit sozlar: lingvistik kompetensiya, dikurs, dialog, lingvistik aloqa, leksik va grammatik amallar, ijtimoiy-madaniy kontekst.

Аннотация: В данной статье обсуждается тот факт, что лингвистическая компетенция тесно связана с овладением языком и что тексты, включенные в дискурс, позволяют говорящему понять логическую и семантическую структуру текста и сформировать навыки и компетенции.

Ключевые слова: языковая компетенция, дискурс, диалог, языковая коммуникация, лексико-грамматические операции, социокультурный контекст.

Abstract: This article discusses the fact that linguistic competence is closely related to language acquisition and that the texts included in the discourse allow the speaker to understand the logical and semantic structure of the text and to form skills and competencies.

Key words: linguistic competence, discourse, dialogue, linguistic communication, lexical and grammatical operations, sociocultural context.

Lingvistik kompetensiya tilni o‘zlashtirish bilan chambarchas bog‘liq. Bu diskursni qo‘llash orqali aloqa muammolarini hal qilishni anglatadi. Til va nutqiy kompetensiyalarga ega bo‘lish lingvistik kompetentsiyaga qadamdir. Tilni o‘zlash-tirish, muloqot jarayonida dialogik diskurslardan foydalanishda mamlakatshunoslik tushunchalarini kiritish maqsadida tilda amalga oshiriladi. Shaxslararo muloqot o‘quvchida nutq faoliyatining barcha turlarida ko‘plab nutqiy harakatlarni bajarish qobiliyatini rivojlantirishi mumkin. Lingvistik aloqa kompetensiyasi turli darajadagi niyatlar orqali amalga oshiriladi. Ularning yordami bilan o‘quvchi dialogga olib kelgan harakat maqsadini va dialogda har bir sherik tomonidan qo‘llaniladigan talaffuz tuzilmalari munosabatlarini solishtirishi mumkin. Suhbatli muloqot so‘zlovchiga ham,

tinglovchiga ham kerak bo'lganda yuzaga keladi. Demak, tilni o'zlashtirish til o'rganuvchining kommunikativ vazifani hal qilish qobiliyatidir.

Diskursga kiritilgan matnlar so'zlovchida quyidagi ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkonini beradi:

- matnning mantiqiy va semantik tuzilishini tushunish;
- matnning kompozitsion tomonini ta'minlash (kirish, asosiy qism va xulosaning mavjudligi);
- har xil turdagi rejalar tuza olish;
- bayon qilish usulini aniqlay olish (tavsif, muloqot, mulohaza yuritish va hokazo);
- bayon qilish usullaridan foydalanib matn turlarini tuza olish;
- bayon qilish usulini (deduktiv, induktiv; deduktiv-induktiv; induktiv-deduktiv) tushuna olish;
- ma'lum bir bayon qilish usuliga muvofiq matn tuza olish;
- leksik va grammatik amallardan foydalana olish;
- turli matnlar va ularning alohida qismlari uchun stilistik yondashuvlardan foydalana olish;
- bog'lovchi so'zlarni aniqlay olish va ulardan to'g'ri foydalana olish.

Har qanday diskurs muayyan ijtimoiy-madaniy kontekstda va lingvomadaniy jamoada paydo bo'ladi va u erda dolzarb ekanligi ko'rinadi. Shu munosabat bilan diskurs turlari hamda matn mazmuni va ma'nosi faqat lingvokognitiv fon bilim va til madaniyati asosida shakllanadi. Masalan, quyidagi shartlar bajarilsa, matn to'g'ri, adekvat tushunish mumkin bo'ladi:

- so'zlovchi matn manbasi (gazeta, jurnal, kitob va boshqalar) bilan tanish bo'lganda;
- muammodan xabardor (aniq hodisa, uning sabablari, rivojlanish dinamikasi va boshqalar) bo'lganda;
- muallif haqida ma'lumot mavjud bo'lganda (uning ijtimoiy roli, qarashlari, fikrlari va boshqalar).

Etnomarker birliklaridan tashkil topgan dialogik diskurs namunalari keltiriladi. Bu esa til o'rganayotgan xalqning madaniyatini aks ettiradi. Boshqa millat vakillaridan ham shunday munosabatni kutishini anglatadi. Aholi xulq-atvorini belgilovchi bu individual xususiyatlar til o'rganuvchilarning xulq-atvori, odobi va atrof-muhitga munosabatiga ta'sir qilishi muqarrar. Kommunikativ kompeten-siyaning tarkibiy qismlaridan biri sifatida diskursiv kompetentsiyani shakllantirish va rivojlantirishning o'ziga xos yo'llari va shartlari borligi qayd etildi.

Madaniyatlararo muloqotni amalga oshirishda diskursni tashkil etish usullari, vaziyatlarni, muammolarni aniqlash, kommunikativ maqsadlarga erishish vositalarini aniqlash, har bir til o'rganuvchining muloqotga nisbatan holati va fazifalarini aks ettirish, shuningdek, rasmiy va norasmiy muloqotlarni tashkil etiladi.

Til o'rgatishda qo'llaniladigan yangi texnologiyalar o'rganishni insonparvar-lashtirish, til o'rganuvchilarning o'z-o'zini aniqlashi va

rivojlanishi, eng muhimi, o'z-o'zini tarbiyalovchi shaxs sifatida shakllanishi uchun sharoit yaratishi shubhasiz. Shu asosda til o'rganuvchi faol, maqsad sari intiluvchan, o'z-o'zini izlovchi va ijodkor bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aytbayev D.T. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (Ijtsrd) International Science journal. Wydawnictwo Naukowe "Science". Polsha. 2021-yil;

2. Belyaeva, I.V. Nutqni manipulyatsiya qilish hodisasi: lingvistik va huquqiy jihatlar. Monografiya. – Rostov/ND.: SKAGS, 2008. – 243 str;

3. Nuradilova A.D. Nutqiy savodxonlikni rivojlantirishda leksik birliklar semantikasining o'rne. Muqallim xam uzliksiz bilimlendiuriy. №3/2-2022 yil, -B. 10-13;

4. Karasik V.I. Til tugmalari. - Volgograd: Paradigma, 2007. – 520;

5. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград, 2002;

6. Смағұлова Г., Күркебаев К., Жұмағұлова Ә. Шешендік сөздердің дискурсы. – Алматы: Арыс, 2008. – 184 б.

SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH

*QarshiDU "Pedagogika" kafedrasi dotsenti v.b. Z.Murodova
ShDPI "Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi"
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti G.Qurbonova*

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida yosh avlodning har tomonlama rivojlangan barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishi ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, ta'lim, tarbiya, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, axloq, pedagogik texnologiya, metod.

Mamlakatimiz nufuzining rivojida yosh avlodning uzluksiz ta'limni to'laqonli egallashi muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh avlod qachonki uzluksiz ta'lim jarayonining xaqiqiy egasi sifatida ta'lim mazmunini o'zi uchun katta ehtiyoj sifatida qabul qilib, his etsa shundagina ular nafaqat shaxsiy hayotda, balki ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarda ham faol ishtirokchiga aylanadi, o'z o'rne va mavqeini mustahkamlaydi. Savol tug'iladi, o'quvchi qachon ta'lim jarayonining egasi bo'ladi. Qachon u ta'limni hayotiy ehtiyoj sifatida qabul qiladi? Bu savollarning amaliy yechimi shaxsga yo'naltirilgan ta'limga ta'rif va uning mohiyatini anglash bilan bog'liqdir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'z nomi bilan ta'lim-tarbiya jarayoni markazida bola – o'quvchi ekani bilan tavsiflanadi. Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida bola shaxsining har tomonlama, ya'ni ham huquqiy, ham ma'naviy, ham ijtimoiy himoyasi ta'minlanadi. Bolaning ta'limi, tarbiyasi, jismoniy, ma'naviy va ruhiy kamolini

ta'minlash kabi umummilliy maqsadning ro'yobga chiqishida uniing ta'limga qiziqishini oshirish asosiy omil hisoblanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim joriy etilgan muassasa o'quvchi uchun quvonch maskanidir. Chunki, unda:

- bolaning turfa imkoniyatlarga yo'naltirilgan, uning qiziqish istaklari bilan optimal darajada hisoblashadigan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish;

- ta'lim jarayonida har bir o'quvchini tushunish va unga ishonish;

- o'quvchi va ta'lim beruvchi o'rtasida o'zaro faol do'stona munosabat o'rnatilishini ta'minlash;

- ta'lim jarayoni zamonaviy yondashuvlardan, faol usullardan, axborot texnologiyalardan keng foydalanish kabi vazifalar ustuvor hisoblanib, vaqt, inson, moddiy resurslarning barcha imkoniyatlari shunga yo'naltiriladi.

Demak, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra, yosh avlodning tez o'zgarayotgan murakkab zamonga mos, davlat va jamiyat rivojlanishi uchun ko'p qirrali, har tomonlama rivojlangan barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini ko'zda tutadi.

Rivojlangan mamlakatlar tizimida shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlovchi yetakchi omil sifatida ta'lim jarayoni e'tirof etilsa biz shaxsning shakllanishida ta'lim hamda tarbiya jarayoni birdek ahamiyatga ega ekanligiga urg'u beramiz. Aksariyat hollarda esa tarbiya jarayonlari bu borada ustuvor bo'lishi lozim, chunki, o'zida axloqiy hislatlarni namoyon eta olgan shaxsgina ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida ular mazmunining ijobiy xususiyat kasb etishini ta'minlaydi, axloqli insongina ta'lim (bilim) ni qadrlay oladi, zero, axloqning asosiy kategoriyalaridan biri ham bilimlilik sanaladi, degan g'oyani ilgari suramiz. Bilim insonning intellektual salohiyatini oshiradi keng dunyoqarashni shakllantiradi. Shunday ekan bu o'rinda " pedagogik texnologiya " tushunchasining qo'llanishi, shuningdek, asosiy etiborni faqat ta'lim jarayonini samarali tashkil etishgagina qaratmay, balki ham ta'lim, ham tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashga birdek qaratish lozimdir.

O'qituvchini samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasidan farqli o'laroq ta'lim texnologiyasi o'quvchilar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u o'quvchilarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarning yaratishga xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi o'quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat. Zamonaviy ta'lim texnologiyasi o'quvchining ta'lim jarayonidagi yetakchilik rolini yoqlayotgan bo'lsada, tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi asosiy mavqeini egallay olmaydi. Chunki, unda xarakter, dunyoqarash yetarlicha shakllanmagan bo'lib, u bu borada tarbiyachining yordamiga ehtiyoj sezadi. Shu bois tarbiya texnologiyasi ham mantiqiy, ham tarkibiy jihatdan ta'lim texnologiyasidan farq qiladi.

Tarbiya jarayoning mohiyati, qonuniyatlari hamda o'ziga xos jihatlari xususidagi mavjud nazariy va amaliy g'oyalarga, pedagogik bilimlarga

tayangan holda tarbiya texnologiyasini tarkibiy qismlarini quyidagicha belgiladik:

- 1) Tarbiya jarayonining umumiy loyihasi;
- 2) Tarbiyani tashkil etishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj (rag'bat);
- 3) Tarbiya maqsadi;
- 4) Tarbiya mazmuni (shakl, metod, usul va texnik vositalar);
- 5) O'qituvchi (tarbiyachi) faoliyati;
- 6) O'quvchi (tarbiyalanuvchi) faoliyati;
- 7) Tarbiya samarasi (natija);

Pedagogik texnologiya o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:

1) Pedagogik texnologiya pedagogik jarayonni takomillashtirish, optimallashtirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni qondirish omili sanaladi.

2) Pedagogik texnologiya didaktik hamda tarbiyaviy xarakterdagi, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali, mahoratli tarzda tashkil etish borasidagi nazariy hamda amaliy bilimlar majmui, metodologik fan sifatida namoyon bo'ladi.

3) Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi yaxlit jarayondir.

4) Pedagogik texnologiya yo'naltiruvchanlik vazifasini bajaradi, ya'ni, u shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash, shakllantirish uchun xizmat qiladi.

5) Pedagogik texnologiya shaxsiylik xususiyatiga ega bo'lib, ta'lim - tarbiya jarayonida qo'llashga nisbatan yagona, qat'iy, me'yoriy talablar qo'yilmaydi. Har bir pedagog u faoliyat yuritayotgan ta'lim-tarbiya muhitining xususiyatlari mavjud ichki va tashqi shart-sharoitlarni inobatga olgan holda muayyan texnologik yondashuvni amalga oshirish imkoniyatiga ega.

6) Pedagogik texnologiya o'zida ta'lim, tarbiya va shaxs taraqqiyoti (kamoloti), birligini ifoda etadi.

Demak, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining maqsadi barkamol shaxsni shakllantirish uchun poydevor bo'lgan pedagogik jarayonni takomillashtirish, insonparvarlashtirish, o'quvchining mustaqilligini ta'minlash, o'qitish jarayonida texnik vositalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishga erishishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'quvchilarning milliy ma'naviyatini shakllantirishda boshlang'ich ta'limning o'rni" mavzusuga bag'ishlangan ilmiy maqolalar to'plami. Nizomiy nomidagi TDPU. Toshkent. 2010 y.

2. N.N. Azizxo'jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. Nizomiy nomidagi TDPU. 2006 y.

3. Madyarova S. A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009 y.

4. Муродова, З. К. Развитие научного и профессионального творчества у будущих учителей. Бюллетень науки и практики, 7(4), 416-421. (2021).

BOSHLANG'ICH TA'LIM FANLARI ALOQADORLIGINI O'RNATISHDA INTEGRATIV YONDASHUV IMKONIYATLARI

Lobar Abdimannabovna Muxtarova
TerDPI Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi mudiri,
p.f.f.d., dotsent v.b.

Fanlararo aloqadorlik asosida ekologik mazmundagi mavzularni o'rganishda ekologik xavfsizlikka oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni yuksak darajada egallash va samarali qo'llay olish, tabaqalashtirilgan ta'lim mazmuniga mos ravishda fanlararo aloqadorlik alohida soha doirasida o'rganiladigan o'quv materialining eng maqbul va natijaviylik munosabatlarining o'rnatilishi, fanlar integratsiyasi asosi-ga birlashtira oladigan asosiy farazni oydinlashtirish kompetentsiyasiga ega bo'lishlik muhim, alalxusus, bu vaziyatda fanlararo aloqadorlikdan foydalanish o'qitishning ijobiy samarasini oshirish uchun turfa imko-niyatlar eshigini ochadi, zero bir biriga yaqin, aloqador fanlar asnosida o'quvchilar ulkan, chuqur bilimlarni o'zlashtiradilar.

Tadqiqotchi N.Yusupovanning fikricha: "Fanlararo aloqadorlik tashkiliy metodik aloqadorliklardan iborat". Olima o'z tadqiqotlarida fanlararo aloqadorlikning bir necha ko'rinishlarda tasniflaydi:

- bilimdagi bog'lanishlar bo'yicha: reproduktiv, izlanish, ijodiy;
- amalga oshirish bo'yicha: sinflararo, turkum ichida, turkumlararo, izchil, birgalikda, istiqboldagi;
- o'zaro fanlar bog'lanishiga ko'ra: bir, ikki va ko'ptomonlama;
- davomiyligiga ko'ra: epizodik, doimiy, tizimli;
- maqsadiga ko'ra: sinf va sinfdan tashqari;
- shakliga ko'ra: yakka, guruhda, jamoada.

Professor B.S.Abdullayeva fanlararo aloqadorlikni dolzarb pedagogik muammo ekanligi metodologik-didaktik jihatdan asoslab, uning mazmunli; operatsion; metodik; tashkiliy shakllarini ajratsa, A.A.Xasanov fanlararo aloqalarning mazmunini ilmiy-nazariy jihatlarini tasniflab, quyidagi turlarga ajratadi: real bog'lanish (turli o'rganiladigan fanlarning umumiy g'oyalari va nazariyalarini tasdiqlovchi va yorituvchi dalillarni o'rnatish); nazariy dolzarblik (bu fanning ma'lum bir sohasiga oid ilmiy tushunchalar tizimi bo'lib, unda dalillar, qonunlar, oqibatlar, asosiy qoidalarni aks ettiradi).

N.M.Ahmedova o'z tadqiqot ishlarida integratsiya ob'ektlarining o'zaro joylashuviga ko'ra ular yangi integratsion tuzilmaning asosi sifatida ma'lum tuzilishiga: integratsiya ob'ektlari zanjir bo'g'inlari kabi ketma-ket joylashishi; bitta ob'ekt boshqalari uchun aloqa vositasi bo'lib xizmat qilishi; bir ob'ekt boshqalarini o'z ichiga olishini ko'rsatadi.

F.T.Otabayeva ta'limda integratsiya muammosini o'rganib, fanlararo aloqadorlikning amaliy jihatlarini quyidagi turlarga ajratadi:

- o'quv dasturlaridagi integratsiya (mavzulararo uyg'unlik);

- modullashgan integratsiya (turdosh o'quv fanlariga oid bilim va tushunchalarni tizimlashtirgan holda taqdim etish);
- integrativ dasturlar (dasturlarda bir necha o'quv fani yoki o'quv fanlariga oid mavzularni uyg'unlashtirgan holda taqdim etish);
- mavzulararo integratsiya (ayni bir sinf doirasida beriladigan o'quv materiallarini boshqa bir sinf o'quv materiali bilan uyg'unlashtirish);
- mavzularni ketma-ket bayon etish asosidagi integratsiya (o'quv materialini bayon etishdagi kontsentrizm tamoyili, ya'ni oldingi o'quv materialining keyingisini mazmunan to'ldirishi);
- axborot texnologiyalari asosidagi integratsiya (o'quv fanlarini kompyuter texnologiyalari asosida o'qitish kabi integratsiyaning turli darajalaridan foydalanish mumkinligini e'tirof etadi. Ekologiya ta'limi tizimini takomillashtirish dasturiy o'quv rejada ifodalangan tabiatshunoslik va uni o'qitish jarayonida integratsiyalashgan yondashuvni amalga oshirish ushbu tizim yaxlitligini belgilashda muhim o'rin tutadi.

L.N.Vavilova "Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari aloqadorligini o'rnatishda fanlararo integrativ darsning imkoniyatlarini ochish, eng samarali o'qitish jarayonini ta'minlash, uni tashkil etish uchun zarur elementlarni izlash, o'quv faoliyatining metodlari va tuzilishini takomillashtirish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish zarur" deb hisoblasa, metodist olim T.P.Lakonenina qayd qilganidek: "Boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda fanlararo aloqadorlikning imkoniyatlari nihoyatda kengligi o'quv-bilish jarayonini qayta ko'rib chiqish kerakligini va uni takomillashtirish zarur"ligini keltiradi. L.N.Vavilova hamda T.P.Lakoneninaning mulohazalarini tahliliy solishtirakanmiz, fanlar integratsiyasi ob'ektining imkoniyatlari nihoyatda kengligi, mavzulararo aloqadorlikning ichki qatlamiga kirib borishi g'oyat mukammallashtirilganligini ko'ramiz. Ular tomondan keltirilgan mulohaza o'ziga xos metodga ega bo'lib, yanada qat'iylashganligini sezamiz.

Biz T.P.Lakonenina fikrlarini quvvatlagan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik xavfsizlik madaniyatini fanlararo takomil-lashtirishda DTS, o'quv dastur, o'quv reja va darsliklarni qayta ko'rib chiqish va ularni optimallashtirish zarurligini ko'rsatib o'tmoqchimiz. CHunonchi, dasturda fanlar integratsiyasi elementlarini o'rnatish uchun qulay bo'lgan tushunchalar, ob'ektlar o'z ifodasini topib, "predmet haqidagi tushunchalarini, faoliyatlarini kengaytirish, ularning erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash ko'nikma va malakalarini egallashlariga erishish" boshlang'ich ta'limining asosiy maqsadi sifatida qayd etilgan.

Y.G'.Mahmudov, X.B.Norbo'tayevlar fanlararo ekologik mazmundagi topishmoqli masalalarni bajarishda o'quvchilar qiziqishi va kuzatuvchanligining ortib borishi, fanlararo tafakkur rivoji va kelgusida fanlararo masalalarni yechishda murakkab matematik hisoblashlarga o'rin qolmasligini ta'kidlab o'tganlar.

A.A.Xasanov ta'kidlab yozadi, "O'quv mavzularini o'rganishda takrorlashning yo'qolishi turfa imkoniyatlarni keltirishini izohlab, alohida

masalalarni o'rganishda muddatni belgilash imkoniyati, ilmiy tushuncha tavsifidagi o'xshashlik, izchillik, o'ziga xoslik hamda ular orasidagi aloqadorlik muhim pedagogik vazifalarni hal etadi". Muallif o'z mulohazalarida asosli ta'kidanganidek, fanlararo aloqadorlik kontsentrizm tamoyiliga mos ravishda takroriylikning imkoniyatini cheklaydi hamda ichki va tashqi to'g'onoqlarni bartaraf etadi.

Fanlararo aloqadorlikning didaktik asosi boshlang'ich maktab o'quv dasturlarida tasvir vositalarini birlashtirib, mavzulararo turdosh manbalar yaqinligi-yu rang-barangligini ifodalovchi manbalar zanjirini hosil qiluvchi yaxlit bilimlar shakllanishini inkor etmaydi. CHunonchi, boshlang'ich sinf o'quv dasturi va fanlari bir-biriga yaqinligi jihatidan, o'quv fanlarini o'zlashtirish asnosida to'plangan kontent-bilimlarni fanlararo aloqadorlik maqsadiga ko'ra boshqasiga ko'chirishda foydalanish usuli o'quvchilarda ekologik xavfsizlik madaniyatini fanlararo takomillashtirish metodikasi samaradorligining zaruriy didaktik sharti hisoblanadi.

Bizningcha, boshlang'ich sinfda fanlararo aloqadorlik maqsadlariga erishish uchun tabiatshunoslik, tarbiya, ona tili va o'kish savodxonligi fanlari o'quv dasturlari, mavzularida didaktik aloqalar izchilligi o'rnatilishi muhim.

1. O'quvchilarda xavfli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish ko'nikma va malakalarni egallash, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, faol fuqaro sifatida ekologik xavfsizlik bilan bog'liq muammolarni hal qila olish qobiliyatlarini rivojlantirish.

2. O'quvchilarga atrof-muhitdagi hodisalar mazmun-mohiyatini ilmiy jihatdan tushuntirish, tavsiflash, qiyoslash, taqqoslash, umumlashtirish, bilimlarni yangi vaziyatga o'tkazish kabi ijodkorlik sifatlarini shakllantirish. O'quvchilarni ijodiy fikrlashga yo'naltirish, erkin raqobat asosida muhim.

3. O'quvchilarda olamning yaxlit manzarasi haqidagi ma'lumot va dalillarni ilmiy jihatdan majmuaviy talqin qilish, idrok va tasavvurlarini boyitish, o'z-o'zini anglash, mustaqil faoliyatini tashkil etish faoliyatiga yo'naltirish zarur.


4. Ekologik madaniyatni yuksaltirishda motivatsion, kognitiv, amaliy-faoliyatli, ijodiy-refleksiv komponentlarni aniqlash lozim.

Dars – ta'lim tashkil etishning asosiy shakli. Darsda har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olinadi, barcha o'quvchilarning sinfda o'rganiladigan fan asoslarini o'zlashtirishlari, ularning bilim qobiliyatlari va madaniy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalash va rivoj-lantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

Tabiatshunoslik fanida bu yondashuv atrof-muhit, olam va odam, umuman, borliqni qamrab olgan holda birmuncha to'liq ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab oladi. Ona tili, matematika, o'qish, tasviriy san'at va musiqa fanlari mazmuniga bevosita tabiatga daxldorlikni singdirish, keltirilgan badiiy asar namunalardagi tabiat tasviri va undagi go'zallikni his ettira olish, asar qahramonlarining tabiatni e'zozlash ruhidagi yoki aksincha, qarashlarini tahlil qilish, ularni chizgilarda aks ettirish kabi holatlarga e'tibor qaratish lozim

bo'ladi. SHuningdek, boshqa fanlar mazmuniga ham ushbu tushunchalar mohiyatini singdirib borish irodasi kuchli hamda ruhan sog'lom fikrlovchi barkamol shaxsni voyaga yetkazishdek mas'uliyatli vazifani ado etishga yordam beradi.

Fanlar integratsiyasi asosidagi darslarning shakli nostandart, mazmunli va juda qiziqarli. Dars davomida turli xil faoliyat turlaridan foydalanish o'quvchilar diqqatini yuqori darajada ushlab turadi, bu esa darslarning etarli darajada samaradorligi haqida gapirishga imkon beradi. Integratsiyalashgan yondashuvdan foydalangan holda darslar muhim pedagogik imkoniyatlarni ochib beradi, kognitiv qiziqishni sezilarli darajada oshiradi, tasavvur, e'tibor, fikrlash, nutq va xotirani rivojlantirishga xizmat qiladi. Fanlararo aloqadorlik asosidagi darslarni tashkil etish blok-sxemasi 1-rasmda o'z ifodasini topdi.



1-rasm. Fanlararo aloqadorlik asosidagi darslarni tashkil etish blok-sxemasi.

Har bir darsning maqsadi oldindan aniqlanishi lozim. Fanlararo aloqadorlik talablaridan kelib chiqib, turlicha emas ta'lim berish maqsadiga mos keluvchi o'rganilayotgan ob'ektga oid katta hajmdagi ma'lumotlarda keltirilgan material ilmiy, to'g'ri, tizimlashtirilgan, tushunarli va oson o'zlashtirilishi, o'rganilayotgan materialning ketma-ketligi va aloqadorligi bilan tavsiflanadi.

Fanlararo aloqadorlik nazariyasining taraqqiyotida tabaqalashtirilgan holat hukm sursa ham amaliyotda integratsiya, o'zaro aloqadorlik fanning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi. Boshlang'ich maktabda integratsiyani amalga oshiruvchi bo'g'in vazifasini o'qituvchining o'zi amalga oshiradi. Pedagogik faoliyati jarayonida u o'quvchilarni savod va chiroyli yozuv, arifmetik amallarni bajarish, tabiiy-ilmiy tushunchalarni o'zlashtirish bilan birga kreativ fikrlashga o'rgatadi. O'z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi.

Boshlang'ich sinflarda bir o'qituvchining dars berishini, integratsiyaning bir usuli deb hisoblasak ham bo'ladi. Muammoning bunday qo'yilishi integratsiyaning turli ta'lim pog'onalarida turli xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Boshlang'ich maktabda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin

fanlarni birlashtirish asosida ko'rish maqsadga muvofiq. Ta'limning keyingi pog'onalaridan u asosiy fanlarning chegaralarini birlashtirishga harakat qiladi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunga qadar boshlang'ich ta'lim bo'yicha metodik adabiyotlarda yagona tizimga birlashtirilgan ta'lim faoliyatining murakkab, yaxlit va fanlararo integratsiyalashgan turlari va xususiyatlarining aniq ta'rifi mavjud emasligini hisobga olgan holda integratsiyalashgan o'qitish usulini o'quv faoliyati jarayonida an'anaviy o'qitish metodi bilan solishtirib ular o'rtasidagi farq sezilarli ekanligi, tajriba-sinov natijalari fanlararo integratsiyalashgan sinflarni tashkil etish samaradorligi darajasi yuqoriligini ko'rsatib turibdi. Fanlararo bog'langan dars o'quvchilarning fan bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni egallashi, ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, intellektual rivojlanishi, shaxsini kamol toptirish, ekologik tafakkurini rivojlantirish orqali atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Muxtarova, L. A. (2021). Use of multimedia technologies in the educational process. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1781-1785.

2. Muxtarova, L. A. (2021). Ways of formation of ecological culture in children of primary age. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 648-652.

3. Abdimannabovna, M. L. (2021). Formation of the Ecological Culture of Schoolchildren in the Study of Natural Science. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 1(6), 73-76.

4. Мухтарова, Л. А. (2018). ПУТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ МУЛЬТИМЕДИА В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА И ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКОВ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Научные горизонты*, (11-1), 247-252.

5. Мухтарова, Л. А. (2018). РАЗВИТИЕ И ФОРМИРОВАНИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ШКОЛЬНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Гуманитарный трактат*, (24), 13-14.

6. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH SINFLARDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. *Апробация*, (2), 93-94.

7. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. In *НАУЧНЫЙ ПОИСК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ* (pp. 119-120).

8. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERNET VA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. In *Современные проблемы и перспективы развития педагогики и психологии* (pp. 47-49).

9. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие творческого мышления у школьников начальных классов. *Гуманитарный трактат*, (24), 9-10.

БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВНИНГ ЗАРУРИЯТИ

Бердиева Шахноза Набижонова
Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
катта ўқитувчи ТерДПИ

Аннотация: Назария ва методология таълимида, ахборот технологияларидан, масофадан бошқариш педагогика йўналтирилган университетларда маълумотларни кўриб чиқиш ва ўрганиш вазифалари кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: информатика, ахборот технологиялари, масофадан ўқитиш тизимлари, ўқитиш назарияси ва методикаси.

Ўзбекистон жамияти hozirgi bosqichi haetning barча soxalarida tub ўzgarishlar bilan tavsiflanadi: iqtisodiy, siёсий, taъlim, ilmий, ijtimoiy, ахборот, касбий ва бошқалар.

Жахонда илмий-техник жараённинг юқори ривожланиши, жамиятни имкониятлари ва усуллари кенгайиши, глобал муаммоларнинг пайдо бўлганлиги боис асосий билимларга мунособат, унинг шароитдаги роли мураккаблашди.

Ўзбекистон жамияти энг муҳим муаммоларни мустақил равишда ҳал қиладиган, жавобгарликни ўз зиммасига оладиган, оқибатларини башорат қиладиган, муаммони ҳал қилишнинг тегишли усуллари, воситалари ва усулларини танлайдиган ўқимишли, ташаббускор, ҳар томонлама “билимдон”, янги авлод мутахассисларига мухтож.

Шу мунособат билан, ёш авлодга йуналтирилган замонавий ўзбек таълим тизимида қўйдаги муаммолар кескин белгиланди:

- таълим сифатини ошириш зарурати;
- муаммолар жамиятнинг долзарб эhtiёжларини тўлиқ қондириш учун мўжалланган турли фанларни ўқитишда янги ёндашувларни излаш ва жорий этиш.

Ушбу муаммоларнинг ечимини биз таълим парадигмасининг фаолиятга ўтиш аспектига ўтишида кўрамиз; таълим жараёнига компетенцияга асосланган ёндашувни оқилона амалга оширишда.

Белгиланган қойдалар, шубхасиз, қўйдагиларга олиб келиши керак:

- таълим мазмунидаги сезиларли ўзгаришларни, унинг яқуний натижаси;
- ўқув жараёнини ташкил этиш ва баҳолаш учун янги технологиялар ва усулларни ишлаб чиқиш.

Мақтаб фанларини ўқитишда бундай ёндашув қўйдагиларга қаратилган:

- илмий билимларни эгалаш ва улардан амалий фаолиятда юзага келадиган аниқ вазифалар ва муаммоли вазиятларни ҳал қилиш

жараёнида амалий фойдаланишни бирлаштирган холда асосий компетенцияларни шакиллантириш ва ривожлантириш;

- мактаб ўқувчиларини фаолиятнинг ҳар қандай соҳасида янги билимларни мустақил эгаллаш, ўзгартириш ва ривожлантиришга хисса қўшадиган самарали фаолият усуллари билан қуроллантириш

Этибор беринг, педагогика фанида умуман таълим тизимида ва хусусан бошланғич тизимида компетенцияга асосланган ёндашувни жорий этиш бўйича ишлар фаол олиб борилмоқда. Ушбу ёндашувни асосий хусусиятлари кўриб чиқилади, асосий принциплар аниқланади, бу маҳаллий психологлар, ўқитувчилар, методистларнинг асарларига акс этади.

Ушбу ёндашувнинг асосий хусусиятлари кўриб чиқилмоқда, асосий принциплар аниқланмоқда, бу маҳаллий психологлар, ўқитувчилар, методистларнинг асарларида акс этилиб бориляпти. (Қодиров Қ.Б., Норбўтаев Х.Б., Шаббазова Д.Р.)

Таълим тизимида, шу жумладан бошланғич таълимга компетенцияга асосланган ёндашувнинг жорий этиш муаммоси бўйича психологик ва педагогик адабиётларни таҳлил қилиш “компетенция” тушунчасини ўрганиш субъектининг олинган ўқув билимлари, кўникмалари ва амалий кўникмаларидан муаммоларини хал қилишда фойдаланишга тайёрлиги (қобилияти) сифатида аниқлашга имкон берди. Этибор беринг, бошланғич мактаб бутун узлуксиз таълим тизимининг ажралмас қисми, кейинги таълимнинг асоси бўлиб, унда:

- бошланғич мактаб ўқувчиларини тизимли ўқитиш бошланади;
- уларнинг ташқи дунё билан ўзаро муносабатлари доираси кенгаяди;

Шундай қилиб, бошланғич мактабида ўқиш даврида ўқув фаолият асослари, когнитив қизиқишлар ва когнитив мотивация шаклланади, бошланғич мактаб ўқувчисининг ўзини ўзи англаш ва ўзини ўзи қадрлаш шаклланади.

Шу сабабли, ўқув жараёнининг дастлабки босқичида компетенцияга асосланган ёндашувнинг жорий этиш, унинг асосида фан компетенцияларини шакллантириш ва ривожлантириш муаммоси долзарбдир. “Мавзу компетенциялари, бизнинг фикримизча, маълум бир фан соҳасидаги муайян ҳаракати самарали бажариш учун зарур бўлган ва юқори ихтисослашган билимларни, махсус фан кўникмаларини, фикрлаш усулларини ўз ичига олган ўзига хос қобилиятдир” [1, 128].

Бошланғич мактаб ўқитувчиларнинг ишини кузатиш, пелагогика интститутидаги иш тажрибасини таҳлил қилиш қўйидаги сабаларга кўра бошланғич таълим тизимини компетенция моделига ўтказиш зарурлигини тақозо этади:

- анъанавий ўқитиш усуллари билан бошланғич таълимнинг замонавий сифатини юқори даражага кўтариш иложи ёқлиги (ҳаёт

талаблари мактаб ва педагогика университетининг ўқув натижалари ўртасидаги зиддият);

- ахборот хажми ёш ўқувчининг ички ижодий салоҳиятини ривожлантиришга, унинг ахборот билан тўйинган маконда самарали ҳаётнинг замонавий шароитларига мослашишига ҳисса қўшмайди;

- компетенцияга асосланган ёндашув талабаларнинг атрофдаги дунёни билиш имкониятларини кенгайтиради, расмий таълим доирасидан ташқарига чиқади ва муайян ҳаётий вазиятларда ўқув фаолиятини амалга оширишга имкон беради.

Ушбу ёндашув талабанинг таълим жараёнининг гуманистик ва шахсга йўналтирилган йўналишни таъминлайди.

Ҳозирги вақтда ўқув жараёнига компетенцияга асосланган ёндашувнинг жорий этиш зарурлигини қабул қилиш тенденцияси аниқ кузатилмоқда.

Бошланғич мактаб ўқитувчиларнинг ўқитиш жараёнида уларнинг асосий фан компетенцияларини шакллантириш мақсадига мувофиқдир, бу шубҳасиз қўйдагиларга ёрдам беради:

1. Ўқувчилар томонидан ўқув материални онгли равишда тушуниш;
2. Шахснинг ижодий салоҳиятини ривожлантириш;
3. Таълим мазмунини танлашда тор мавзунини олдини олиш;
4. Дунёнинг турли томонларини ўрганишда интеграцияни таъминлаш.

Таълим мазмунидаги асосий компетенцияларни ажратиб кўрсатиш учун Европа ва маҳаллий вариантларни асос қилиб олиб, биз бошланғич мактаб ўқувчилари томонидан ҳар бир фанни ўрганиш жараёнида таълимнинг бошланғич босқичига мослаштирилган асосий компетенциялар рўйхатини тузишим жоиздир [2, 23].

Бошланғич мактаб ўқувчиларнинг табиий қизиқувчанлигига, атрофдаги дунёни мустақил билиш зарурлигига, когнитив фаоллик ва ташаббускорликка таяниб, бошланғич мактабда таълимнинг фаол шакллари рағбатлантирадиган таълим муҳитини яратади (кузатиш, тажриба, турли кўникмаларни муҳокама қилиш, тахминлар, ўқув суҳбати ва бошқалар).

Ёш талабага ютуқларини баҳолаш, фаолият натижасини мақсад билан боғлаш, билим ва жоҳиллигини аниқлаш қобилиятини ривожлантириш учун шароитлар берилиши керак. Ёш ўқувчиларга мустақил фаолият учун кўпроқ имкониятлар бериш ва вазифани ҳал қилишни танлаш учун шахсий жавобгарликни намойён этиш имкониятларини яратиб бериш жоиздир.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

(Таржима мақола муаллифи томонидан қилинган)

1. Государственные образовательные стандарты в системе общего образования. Теория и практика / под ред. В.С. Леднёва, Н.Д. Никандрова, М.В. Рыжакова. М.: Воронеж, 2002. 28 с. 3.

2. Кузнецова Е.Д. Компетентностный подход как направление обновления образования в школе // Проблемы подготовки учителя «новой школы»: мат-лы регион. науч.-практ. конф. Армавир, 2010.

(Таржима мақола муаллифи томонидан қилинган)

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TABIAT ESTETIKASIGA QIZIQISHINI RIVOJLANTIRISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI MEROSIDAN FOYDALANISH

Temirova Matluba Karim Qizi

TerDPI Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Quyidagi maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiat estetikasiga qiziqishini rivojlantirishda sharq mutafakkirlari merosidan foydalanish, o'quvchilarni atrof-muhitni sevishga o'rgatishda mutafakkirlarning fikrlaridan o'rinli foydalanish, o'quvchilarning estetik qarashlarini, qiziqishlarini, hatti-harakatlarini ibrat namunasi sifatida o'rgatish.

Tayanch so'zlar: Tabiat, atrof-muhit, estetik ong, Sharq mutafakkirlari, dars, innovatsion pedagogik texnologiyalar, tabiiy fanlar, samaradorlik, boshlang'ich sinf, jamiyat, estetik tarbiya, inson va tabiat.

Mustaqillik yillarida estetik tarbiyaning milliy asoslarini tiklash shu milliy madaniy meros hamda qadriyatlardan samarali foydalanishga bo'lgan ehtiyoj kuchayib, O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoillaridan biri darajasiga ko'tariladi.

Ma'naviyat odamning ruhiy milliy olamining majmuidir. U jamiyat, millat yoki ayrim bir kishining hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini nmujassamlashtiruvchi tushunchadir. Ma'naviyat keng manoda ma'rifat, madaniyat tushunchalarini o'z ichiga qamrab oladi. Axloq, xulq va atvor so'zlari ham ma'naviyatning tub mazmunidan kelib chiqqan arabcha so'z bo'lib, ular o'zbek tilida ham o'z ma'nosida ishlatiladi. [2.13;72-b.]. Axloq bizning hayotimiz va ongimizga faol tasir etadi, kishilik suhbat tomonidan yaxshilik-yomonlik, adolat-adolatsizlik, mehr bilan zulm o'rtasidagi insoniy munosabatlardagi maqbul va nomaqbul, man etilmaydigan va man etiladigan hatti-harakatlarni belgilab beradi.

Biz, o'qituvchilar yosh avlodni tarbiyalashda muhim rol o'ynaymiz. Har bir millat o'zining buyuk kelajagini yosh avlodni barkamol etib voyaga yetkazish bilan taminlaydi. Buning uchun har bir shaxs o'zini anglab etishi, kamolot yo'lini, merosimizning dunyo ahamiyatiga molik ohanglarni bilishlari, tasavvurga ega bo'lishlari, bahs yuritishlari, ma'naviy ehtiyojlarimizning zarur omili ekanligini chuqur anglashlari hozirgi davr talabidir.

Darhaqiqat, tabiiyot hodisalarining takkomillashib, evalutsion tarzda rivojlanib borishidagi tushuncha va ta'limotlar, Al Xorazimiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin

Muxammad Bobur kabi allomalarimizning asarlarida o'z ifodasini topgan. Bu mutafakkirlarning asarlari astranomiya, matematika, geologiya, mantiq, musiqa, metralogiya, axloq, tibbiyot va tabiiyot kabi fanlarning rivojlanishiga ilmiy asos bo'ldi.

Abu Abdulloh al-Xorazmiy (783-850 yy.) Abu Abdullo Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy jahon matematika fanining asoschilaridan bo'lgan O'rta Osiyo olimlaridan hisoblanadi. Al Xorazmiy IX asr boshlarida Bag'dodda O'rta osiyolik olimlar Al Ahmad Ibn Kasir al-Farg'oniy, Abbas ibn Javhariy bilan "Ma'mun akademiyasi" (Bayt ul hikmat)ni boshqara boshlaydi.

Bag'dod xalifasi Ma'mun al-Xorazmiyga "Yer va Osmon xaritasi"ni tuzish ishini boshqarishni topshirdi. Xarita ustida olimlar 84 yil davomida tadqiqot ishlarini olib borishdi. Xorazmiy bu tadqiqotlarni umumlashtirib "Yerning tasviri" nomli asarini yozib, geografiya faniga asos soldi. Bu asar butun dunyo, qit'alar, okeanlar, qutblar, ekvator, sahrolar, ko'llar, o'rmonu barcha mamlakatlar, o'lkalar, u yerdagi hayvonot va o'simliklar dunyosi, boshqa tabiiy xom ashyolar, aholi, ularning tarqalish xususiyatlari, urf-odatlar, hunarlari, zichligi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

Xorazmiy dunyodagi birinchi geografik atlas (xaritalar majmuasi)ni tuzishga katta hissa qo'shgan. Xorazmiy astronomiya sohasida ham anchagina ishlar qilgan. U kuzatishlar asosida hindlarning astronomiya jadvallarini har tomonlama tahlil qilib, yangi astronomik jadvallar tuzdi. Unda Yer kurrasining kattaligini aniqlash maqsadida Yer meridianining bir gradusi o'lchab chiqilgan. Xorazmiyning astronomiyaga oid asari, Yerning o'lchami haqidagi fikrlari, O'rta Sharq, Yevropada astronomiya fanining rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shilgan.

Mashhur o'zbek matematigi Muso al-Xorazmiy hozirgi zamon algebra fani va "Algoritm" sohasining "otasi" hisoblanadi. "Algebra" "Al jabr" asaridan, "Algoritm" esa uning nomi al-Xorazmiydan olingan.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048 yy.) Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy buyuk o'zbek qomusiy olimi, o'rta asrlar va undan keyingi davrlarning yetuk mutafakkiridir.

Beruniy 973- yili Xorazmning Qiyot (hozirgi Beruniy shahrida) tug'ilgan. Beruniy 1004- yilda Qobus ibn Vushmagirgabag'ishlangan "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" deb nomlangan asarini yozadi.

Beruniy asarlariga tabiatga oid juda ko'p ma'lumotlar kiritilgan. Masalan, O'rta Osiyo, Hindiston va Afg'onistondagi qazilma boylik (dorivor o'simliklar, hayvon)lar, ularning foydali xislatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Beruniyning ilmiy qarashlari "Mineralogiya", "Hindiston", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Geodeziya", "Mas'ud qonuni" kabi asarlarida keng yoritilgan.

"Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida Beruniy Eron shimolida keng tarqalgan tropik o'simliklar va hayvonot dunyosini ta'riflaydi. Beruniyning "Kitob as-Saydana-fit-tibbi" ("Tabiatda dorishunoslik") asari 1927- yilda Turkiyaning Bursa shahridagi kutubxonalarining biridan topilgan.

Bu kitobda 250 dan ortiq tabib, dorishunos, kimyogar, tabiatshunos, tarixchi, faylasuf, sayyohlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Beraniyning tabiiy va sun'iy tanlanish haqidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Agar Yer yuzini bir xil daraxt yoki bir xil hayvon butunlay qoplab olsa, bu holda hayvon va daraxtlarning ko'payishiga, daraxtning o'sishiga o'rin qolmaydi, - deya ta'kidlagan edi alloma.

Beraniyning "Tabiatda dorishunoslik" asarida dorivor o'simliklar tasnifi ham berilgan. Beraniy o'z asarlari bilan tabiat fani tarixiga asos solgan.

Abu Abbas al-Farg'oniy. Astronom, geograf, matematika, sferik geometriya asoschilaridan biri, Bog'dod va Damashq rasadxonalari qurilishida rahbarlik qilgan buyuk mutafakkir olim, quyosh tutilishini oldindan hisoblab chiqqan, yerning sharsimon ekanligini ilmiy asosda isbotlagan, meridian uzunligini hisoblagan, Nil daryosini suvini o'lchash uchun asbob yasagan.

Abu Ali ibn Sino (980-1037 yy). Jahon ilmiy tafakkuri rivojiga katta hissa qo'shgan buyuk alloma Abu Ali Ibn Sino juda katta ilmiy meros qoldirgan. U o'zidan oldin o'tgan Sharq mutafakkirlarining asarlarini chuqur o'rganish bilan birga, qadimgi yunon tibbiy-ilmiy va falsafiy merosini, xususan, Aristotel, Ptolomey, Galen, Gippokrat, Pifagor kabilarning asarlarini qunt bilan o'rgandi. Ibn Sinoning "Kitob al-qonun fittib" (Tib qonunlari) kitobi beshta katta kitobdan iborat bo'lib, 1956 va 1962-yillarda rus va o'zbek tillarida to'liq nashr etilgan. Bu kitoblarda odam anatomiyasi, fiziologiyasi va gigiyena kabi tibbiyotning nazariy fanlariga hamda ichki kasalliklar, jarrohlik, dorishunoslik, yuqumli kasalliklarga ta'alluqli bilimlar bayon etilgan. Bu kitob 600 yil davomida butun jahon shifokorlari uchun asosiy qo'llanma bo'lib keldi, undagi ko'pgina ma'lumotlar hozir ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. U 36 marta qayta nashr etilgan. Ibn Sino turli yuqumli kasalliklarning kelib chiqishi va tarqalishida ifloslangan suv va havoning roli katta ekanini uqtirib, suvni qaynatib yoki filtrlab iste'mol qilishni tavsiya etgan. U tashqi muhitdagi turli tabiiy narsalar havo, suv orqali kasallik tarqatuvchi ko'zga ko'rinmaydigan "mayda hayvonlar" ya'ni mikroblar haqida L.Pasterdan 800 yil ilgari o'z fikrini bildirgan. U kasalliklarning oldini olishda tashqi muhofaza qilish, shaxsiy va ijtimoiy gigiyena qoidalariga amal qilish zarurligi haqidagi fikrlarini bundan 1000 yil ilgari aytgan edi.

Abu Nasr al-Forobiy (873-950yy). Abu Nasr ibn Uzlug' ibn Tarxon Forobiy 873- yili Toshkentning shimoli-g'arbida joylashgan, keyinchalik tarixda O'tror nomi bilan shuhrat qozongan Farobda xizmatchi oilasida tug'ildi. Forobiy o'z zamonasining yirik tibbiyot nazariyotchisi edi. U bu sohada o'nlab ilmiy asarlar yaratdi. Asarlarining umumiy miqdori 160 dan ortiq bo'lib, ular astronomiya, falsafa, tarix, mantiq, psixologiya, musiqa, tabi-atshunoslik, tibbiyot, kimyo sohalarini qamrab oladi.

Forobiyning tabiatshunoslikka doir asarlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularda inson va hayvonlar tana a'zolari, ular faoliyatining bir-biriga o'xshash tomonlari va boshqa qator ilmiy jihatlar keng yoritilgan.

Inson organizmi, uning faoliyatini Forobiy bir butun va yaxlit tizimdan iboratligini, kasalliklar asosan ovqatlanishning buzilishi bilan bog'liqligini ko'rsatib o'tgan.

Forobiy Yevropa olimlari, xususan, rus fiziologi I.M.Sechenovdan 1000 yillar avval fiziologiya fanining fundamental asosi bo'lgan birlamchi va ikkilamchi signal sistemasining rivojiga ilmiy asos solgan. Forobiy o'z asarlarida sun'iy (inson yordamida) turlarning vujudga kelishi singari tabiiy ravishda (inson aralashuvisiz) o'simlik va hayvonlar turlarining paydo bo'lishini ham dunyoda birinchi bo'lib ta'riflab, bu masalani Ch.Darvindan 1000 yil avval hal qilgan edi.

Amir Temur (1336-1405 yy). Soxibqiron Amir Temur turli sohalarda bo'lgani kabi tabiatga munosabat borasida ham o'zining qat'iy pozitsiyasiga ega bo'lganligi tarixiy manbalarda qayd etiladi. Ammo Temurning tabiat boyligini avaylash, uni ko'paytirish to'g'risidagi g'amxo'rliqi soxibqiron tashabbusi va sai harakati evaziga Samarqand yaqinida barpo etilgan o'n to'rta bog' misolida namoyon bo'ladi. Bog'i Shamol, Bog'i Bexisht, Bog'i Davlatbog', Bog'i Zogon, Bog'i Chinor, Bog'i Dilkusho, Bog'i Jaxonnoma, Bog'i Amirzoda Shoxrux, Bog'i Maydon kabi bog'lar tarixini o'rganish ularning dehqonchilik, ilm fan estetik va falsafiy bilimlarning natijasi sifatida yaratilganligini ko'rsatadi. Mazkur bog'larning ta'rifi uzoq yurtlarga yoyilgan. Ular to'g'risidagi ma'lumotlar ispan qirolining Samarqanddagi elchisi Lui Gonzalis De Klavixonning mashxur estaliklarida bayon etilganligi tufayli Yevropaga xam tarqalgandir.

Amir Temur umr bo'yi obodonchilik ishlari bilan band bo'lgan. Qadami yetgan joylarda bog'-bo'stonlar, qal'a qasrlar, yo'llar, go'zal go'shalar barpo etgan. Temurning dilida go'zallik va bunyodkorlikka, ilm-fan, ma'daniyat-ma'rifatga, mehr-muxabbat kuchli bo'lgan. Bunga uning davrida yaratgan san'at va me'moriy obidalar dalildir. Bunga Jaxongirning "Qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga o'n g'isht qo'ydim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'nta ko'chat ektirdim",- deganso'zlar dalildir.

"Kimki biron sahroni obod qilsa, yoki qursa yo biron bog' ko'kartirsa, yohudi biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yil undan xech narsa olmaganlar",- deb o'qtiradi. Bu esa soxibqironning obodonchilik ishlarini rivojlantirishiga qaratilgan o'tkir siyosatidan darak beradi. Albata, og'ir va sababli ishni amalga oshirgan inson o'zining mashaqatli mehnati evaziga muayyan moddiy va ma'naviy rag'batga ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyojning qondirilishi esa, uningqilgan mehnatiga jamiyat tomonidan bildirilgan minnatdorchilik kabi qabul qilinadi. Inson tabiatini yaxshi o'rgangan yo'l boshchi sifatida Amir Temur mehnat evaziga rag'batlantirishning o'ziga hos usullarini qonun yo'li bilan mustahkamlashga e'tibor bergan. Amir Temurning tabiatga nisbatan mehr-muhabbati haqidagi qiziqarli hikoya e'tiborga molikdir.

Mirzo Ulug'bek (1394-1449 yy). XV asrda O'rta Osiyoning buyuk olimlari dunyoning tuzilishi to'g'risida to'g'ri fikr yuritgan ajoyib mutafakkirlar

bo'libgina qolmay, balki mashhur mushohadachilar ham edilar. XV asrda Ulug'bek boshliq samarqandlik astronomlarning osmon jismlarini kuzatish sohasidagi ilmiy ishlari, ayniqsa, mashhurdir. Jumladan, Samarqand hokimi Mirzo Ulug'bek astronom olim, ma'rifat-parvar davlat arbobi ham edi. U o'z mamlakatida fanni rivojlantirish uchun doimo g'amxo'rlik qilib keldi.

Ulug'bek Samarqandga turli joylardan olimlar olib kelib, ularning ishlashi uchun sharoit yaratdi. U Samarqandda ulkan rasadxona qurdirdi. Tepalikdagi ana shu rasadxona binosi ulug'vorligi bilan zamondoshlarini hayratda qoldirgan. Rasadxona o'sha zamondagi eng yaxshi, mukammal asboblardan jihatlangan edi.

Ulug'bek rasadxonasida olingan ma'lumotlar eng aniq ma'lumotlar hisoblanib, bir yarim asr mobaynida butun dunyo olimlariga xizmat qilib kelgan. Rasadxonada koinot xaritalari va globuslar bo'lgan. Yer o'qining orbita tekisligiga nisbatan necha daraja og'ganligi Ulug'bek rasadxonasida aniqlangan.

Ulug'bek hokim bo'lish bilan birga O'rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini dunyo fanining oldingi safiga olib chiqqan olimlardan biridir. Uning rasadxonasida "Yangi astronomiya jadvallari" ("Ziji Ko'ragoniy") yaratiladi. Ulug'bek "Ziji Ko'ragoniy" asari bilan butun dunyoda samoviy jismlarni tadqiq etuvchi olim sifatida shuhrat topdi. Ulug'bek omma orasida ma'rifat tarqatish to'g'risida ko'p qayg'urgan. U Samarqand va boshqa shaharlarda o'quv yurtlari - madrasalar ochgan.

Ulug'bek singari ko'plab o'zbek olimlarining asarlari dunyoga keng tarqalib, astronomiya, geografiya kabi fanlar taraqqiyotiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530 yy). Zahiriddin Muhammad Bobur 1483- yili Farg'ona hokimi Umarshayx oilasida dunyoga keladi. U Amur Temur avlodidan bo'lib, otasi vafotidan (1494) keyin 12 yoshida podsho etib tayinlanadi. Bobur tadbirkor podsho bo'libgina qolmay, o'ta ma'lumotli olim ham edi. Uning "Boburnoma" asari tabiatshunoslikning rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

"Boburnoma" O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindistonning tabiiy geografik joylashishi, o'simliklar va hayvonot dunyosi haqidagi biografiya asar hamdir. Asarda Bobur har bir joyning xarakterli jihatlari, o'simlik va u yerda tarqalgan hayvonlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida qimmatli materiallarni bayon etgan. Bobur asarlaridagi tabiat maskanlari va hodisalari, o'lkaga oid geografik ma'lumotlar, tasvirlar tabiatni o'rganishda yosh tabiatshunoslar va o'lkashunoslarga dastur bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, XIX va XX asrlarning birinchi yarimida O'zbekistonda tabiatshunoslik fani oldiga qo'yilgan muammolarni yechishda matematik olim, O'zbekiston fanlar akademiyasining birinchi prezidenti, elementar va oliy matematika bo'yicha o'zbek tilidagi birinchi darslik muallifi Qori Niyoziy Toshmuhammad (1897-1970) ning hissasi beqiyos.

Bu ma'lumotlarning barchasi tabiatshunoslik fani boshqa fanlar singari qadimdan rivoj topganligi va uning rivoji hozirgi kunda ham davom etayotganligidan dalolat beradi.

Millatimizni dunyoga mashhur qilgan adabiy va ilmiy meroslar sirasiga "Avesto", Imom al-Buxoriyning "Al-jome' as-sahih", Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Beruniyning "Osor al-Baqiya", ibn Sinoning "Tib qonunlari", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari, Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk", Amir Temurning "Temur to'zuklari", Alisher Navoiyning "Hamsa", "Lisonut tayr", "Mahbub-ul-qulub", Boburning "Boburnoma", Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" kabi noyob asarlarini kiritish mumkin.

Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan odob - o'g'itlar, pand - nasixatnomalar, diniy-falsafiy kitoblarda vatanga e'tiqod qilishga keng o'rin berilgan. Keyingi yillarda yurtimizda bo'layotgan o'zgarishlar tufayli bu manbalarni o'rganishga va ta'lim - tarbiya jarayoniga tatbiq etishga e'tibor kuchaydi. Ayniqsa, asrlarga tengdosh yozma bitiklar va xalq og'zaki ijodida, ya'ni afsonalar, ertaklar, rivoyatlar, maqollarda yuksak insoniy tuyg'ular ulug'lanadi. Bu manbalarning yosh avlodni vatanga e'tiqod ruhida tarbiyalashda ahamiyati nihoyatda kattadir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni milliy tarixiy asoslarini o'rganib chiqar ekanmiz, eng avvalo, "Avesto"ning asrlar davomida insonlarni poklik, ilm egallash, mehnatsevarlik, tabiatni asrash kabi insonparvarlik g'oyalariga da'vat etib kelganligiga guvoh bo'lamiz. Bu bitikda vatanni sevish, o'zlari yashab turgan zaminni asrab-avaylash, unga e'tiborli bo'lish, vatanga e'tiqod haqidagi g'oyalar ham mavjudki, shubhasiz, bu g'oyalar o'smir yoshdagi o'quvchilarda vatanga e'tiqodni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. "Avesto"da ona zamin, oila, vatan tushunchalari muqaddas sanalgan, shuningdek, ular zaminni sof saqlash uchun murdalarni yerga ko'mishni qattiq qoralaganlar. Ular murdalarni maxsus mis idishlarda dafn qilishni yo'lga qo'yishgan. Shubhasiz, bu kabi qoidalarga ajdodlarimiz rioya qilganlar, ona yerni muqaddas deb bilganlar va uni ifloslanishdan asraganlar.

"Avesto"da vatan deb o'zlari yashab turgan zamin, qabila, oila va chorva tushunilgan: "Bunday joy Ashavon uy tiklagan makondir. O'sha uyda ro'zg'or tebratadi. Sigirlar galasi va uy bekasi, farzandlar va suruvlar yashaydi bu uyda. Sigirlar galasi yaxshi parvarish qilinadi. Tevalar xo'raki farovon, yaxshi itlarning rizqi serob, uy bekasi baxtiyor, farzandlar shodmon. Hamisha olov gurillab turadi. Tiriklikning go'zal har bir hodisasi yaxshilikka qovushadi".

Bundan ko'rinib turibdiki, bu yozma bitikda inson oila bo'lib yashashi, farzandlar tarbiyalab voyaga yetkazishi, rizq va nasiba hisoblanmish sigir saqlashi, shu oilani qo'riqchisi itlarni parvarish qilish kabi oila an'analarini davom ettirish g'oyalari ilgari suriladi. Demak, "Avesto"da oila muqaddas sanalgan, oila esa vatan demakdir, vatandagina insonlar baxtiyor yashaydilar. "Avesto"ning bugungi davrimiz uchun qadriyat hisoblanishining boisi ham undagi g'oyalarning insonparvarligidadir, shu jumladan, o'smir

yoshdagi o'quvchilarda vatanga e'tiqodni tarbiyalovchi manbalardan biri hamdir.

Binobarin, dinning xalqimiz ma'naviyati, ruhiyatiga o'tkazayotgan ijobiy ta'siri nihoyatda kattadir, chunki islom dini doimo barcha millat xalqlarini chin e'tiqod, ezgulik, ahloqiy poklik va ma'naviy yetuklikka da'vat etadi.

O'zbek xalqi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ajdodlarimiz orasidan yetishib chiqqan haqiqiy vatanga e'tiqodli insonlarning siymosini ko'ramiz. Masalan, To'maris va Shiroq, Muqanna, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, ikkinchi jahon urushi yillarida halok bo'lgan ko'plab yigitlarning nomlarini keltirish mumkin. Bugungi kunda mustaqillik sharofati tufayli, ularning nomlarini g'urur va iftixor ila tilga olmoqdamiz, o'zbek xalqi ozodligi yo'lida chekkan zahmatlarini yuksak qadrlamoqdamiz. Bugun biz qadriga eta boshlagan vatanimizni otabobolarimiz, jahonga mashhur sarkardalar, ma'rifatparvar kishilar ko'z qorachig'iday asrashgan, millat sha'ni va or-nomusi uchun jang qilishgan. Shuning uchun ularning unutilmas nomlari tarixda qolib, og'izdan-og'izga o'tib, afsonaga aylangan bo'lsa ajab emas.

Yuqorida e'tirof etganimizdek, Shayh Najmiddin Kubro, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy va Bobur singari mutafakkirlarimizning vatanga e'tiqod, vatanparvarlik haqidagi ko'plab fikr-mulohazalari, vatan taraqqiyoti uchun qilgan ezgu ishlari bugungi kunda har bir vatandoshimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Millat taqdiri bilan yashash, vatanga e'tiqod, adolat, insoniylik tuyg'usi yuksak darajada shakllangan, milliy g'urur va iftixorimizga aylangan buyuk bobokalonlarimizning o'gitlarida o'z aksini topdi. Buni biz haqiqiy vatanga e'tiqodli yurtdoshlarimizdan biri Shayh Najmiddin Kubrofaoliyatida ko'rishimiz mumkin. Shayh Najmiddin Kubro yoshlarning vatanga muhabbatini oshirish bilan birgalikda, bir-birlariga mehr - oqibatli bo'lishga undadi. U haqiqiy vatanga e'tiqodli, el va xalqini ardoqlovchi, butun Xorazm xalqini o'zining jigarbandlari qatorida ko'ruvchi inson edi. Shayh Najmiddin Kubro hayoti va asos solgan "Kubroviya" tariqati orqali uning vatan, millat qadriyatlariga naqadar sodiq inson ekanligiga guvoh bo'lamiz.

O'z vatani ozodligi yo'lida qo'lga qilich olib, dushmanga qaqshatqich zarbalar keltira olgan Xorazmning mard o'g'loni Jaloliddin Manguberdidir. Jaloliddin Manguberdining hayoti va vatanga e'tiqod yo'lidagi faoliyatini chuqur tahlil asosida o'rganish o'smir yoshdagi o'quvchilarning vatanga e'tiqod, ona-Vatanga cheksiz muhabbat, g'urur va iftixor, vatan va xalq tinchligi yo'lida jon fido etish, insonparvarlik kabi qarashlarini tarkib toptirish va takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jaloliddin Manguberdi butun hayoti davomida o'z xalqi vavatanini sevdi, tarixi va madaniyatini yuksak qadrladi, onatabiat go'zalliklarini qalban his qildi, ardoqladi. Rivoyat qilishlaricha, Jaloliddin hayqirib oqayotgan Jayhonga kesak otgan ukasining chakkasiga tarsaki qo'yib yuboradi, -suvga kesak otmoq, tuproqqa tupurmoq gunohi azim, sen Xorazmni onang o'rnida ko'r! -

deb xitob qiladi. Bu rivoyat orqali Jaloliddin Manguberding vatan, ona zaminga bo'lgan mehri, e'tiqodi yuksak ekanligi ko'rinib turibdi. Jaloliddin bolaligiga xos yuqorida keltirilgan hulq-atvor, odob, ahloq ko'rinishlari, go'zal fazilatlari hozirgi va kelgusi avlod uchun namuna sifatida xizmat qiladi.

Uning bu kabi fazilatlari; tanlagan yo'lidan qaytmasligi, ma'rifatparvarligi, vatanni qalban sevishi, islom dini, ustozlarini qadrlagani, mardligi, halolligini targ'ibot qilish, yosh avlod uchun har tomonlama namunali inson ekanini ko'rsatish bugungi kunda o'qituvchilarning muhim vazifalaridan biridir.

Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti va xotirasi xalqimiz uchun buyuk qadriyat sanaladi. Uning ibratli hayoti, millati va vataniga bo'lgan cheksiz muhabbati, mustahkam e'tiqodi har birimiz uchun namuna va o'rnakdir. Jangovor salohiyati va lashkarboshilik mahoratini o'rganish, ularni kelgusi avlodga targ'ib etish ta'lim-tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Uning vatan ozodligi yo'lida chekkan zahmatlarini targ'ib va tashviq qilish yosh avlodni vatan, el-yurtga e'tiqod tomon etaklaydi.

O'zbek millatini dunyoga tanitgan bobomiz Amir Temurdir. U nafaqat millatni dunyoga mashhur qildi, vatanning sarhadlarini kengaytirib, markazlashgan, cheksiz hududga ega bo'lgan mamlakat barpo etib, ilmu ma'rifatni rivojlantirdi, ajoyib va go'zal bog'u rog'lar, tog'lardek yuksak minora, obidalar barpo etdi. O'z millati qadriyatlarini ulug'ladi, ularning qadriga etdi. Millat taqdiri bilan yashash, vatanga e'tiqod, adolat, insoniylik uning butun hayotiy faoliyatini tashkil etdi. Shu bois Amir Temur "Kuch adolatdadir" degan hukmni chiqardi. Bu hikmat asrlar davomidaxalqimiz uchun asosiy yo'riqnoma bo'lib kelmoqda. Amir Temur o'z vasiyatini ham millat va vatan qadr-qimmatini o'ylab bayon qilgan, farzandlari, nabiralariga millat va vatan ravnaqi haqida qayg'urish, kambag'al, yo'qsillarning boshini silashni vasiyat qildi, so'nggi daqiqalarida ham o'z xalqi va vatanining taqdirini o'yladi:

"O'g'illarim, millatning ulug' martabasini, saodatini saqlamoq uchun sizlarga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi o'qing, aslo unutmang va tatbiq eting. Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo'ring, yo'qsillarni boylar zulmiga tashlamang. "Adolat va Ozodlik" dastingiz, rahbaringiz o'lsun. Men kibi o'zun saltanat surmak istasangiz, qilichingizni yaxshi o'ylab chekingiz. Bir da'fa chekkandan so'ngrada uni ustalikla qo'llangiz. Orangizga nifoq tuhumlari ekilmasligi uchun ko'p diqqat bo'ling. Ba'zi nodimlaringiz va dushmanlaringiz nifoq tuxumlari sochmakka, bundan foydalanmakka chalishajakdurlar. Faqat vasiyatimda sizga idora shaklini, uning ilkularini ko'rsatdim. Bularga sodiq qolsangiz toj boshingizdan tushmas". Amir Temur bu o'rinda millat deganda vatanni, unda yashaydigan elatlarni nazarda tutgan edi.

Shoir Alisher Navoiy vatan tushunchasini ona yurt, o'rin, tug'ilib o'sgan joy, maskan, manzil ma'nolarida qo'llagan. U o'zining "Hayrat ul-abror" dostonida vatanga bo'lgan e'tiqodini, mehr-muhabbatini namoyon etgan. Navoiy butun hayoti davomida xalq g'ami, dardi, vatanni obodonlashtirish

qayg'usi bilan yashadi, ijod qildi. Shu sabab uning barcha asarlarida vatanga muhabbat, e'tiqodning yuksak namunasini ko'rish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Адизов Б.Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишининг назарий асослари: Пед. фан. док. ...дисс. - Т.:2003. - 320 б.

2. Алуева Р.Ш. Амир Темурнинг маърифий-тарбиявий арашлари: Пед. фан. номз.... дисс. автореф. - Т.: - 2006.- 20 б.

3. Алиқулов А., Низомов Ф. Алишер Навоий асарларида табиатнинг эъзозланиши ҳақида //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар.- 1994.- 1-2-сонлар. - Б. 38 - 42.

4. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. -Тошкент: Фан, 1990. - Б. 172.

20. Аvezов Ш. Мактабда экологик тарбия. -Тошкент: Ўқитувчи, 1992.- 62 б.

5. Форобий, Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. Тузувчи: М.Маҳмудов, маъсул муҳар. М. Хайруллаев.-Т.: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1993.- 123 б.

6. Хайруллаев М.М. Буюк сиймолар: Марказий Осиёдаги машур мутафаккир ва донишмандлар. -Т.: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1996, - 120 б.

7. Тўраев С. Болаларни табиат билан таништиришда мактаб ва оила ҳамкорлиги // Халқ таълими.- 1997.- 4-сон. Б. 99-101.

INTERFAOL TA'LIM VOSITASIDA O'QUVCHILARDA MUSTAQIL FIKRLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA KOMPETENTLI YONDASHUV

*Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna,
Denov tadbirkorlik va pedagogika institut
"Boshlang'ich ta'lim metodikasi"
kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik mahorati bilan o'z individualligini yorqin namoyon etish, interfaol ta'lim vositasida mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish, uning sifatida oldindan o'quvchilarni ta'lim-tarbiya samaradorligini ko'ra bilish, Interfaol ta'lim vositasida o'quvchilarda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil qilish tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyatga ham ega bo'lishi kerak. Tarbiyaviylik ahamiyati shundaki o'quvchi o'z bilimini oshirish va mustahkamlash, turli o'quv fanlariga oid bilimlar uzviyligi va integratsiyalash mazmuni zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanib bayon qilingan.

Kalit so'zlar: interfaol ta'lim, pedagogic mahorat, interfaol ta'lim vositalari, mustaqil ta'lim, ijodiy ishlash, Kompetentsiya, Kompetentli yondashuv

Interfaol ta'lim vositasida o'quvchilarda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish. Bir qator tadqiqotchilar fikricha o'quv adabiyotlari tanqidiy mulohaza yuritishga imkoniyat yaratuvchi vosita bo'lishi kerak. Har bir fan ma'ruzalari muammoli tarzda bo'lishi bilan tanqidiy asosda o'qitilishi, o'quvchilarda o'rganishga, shuningdek tanqidiy fikr yuritilgan o'quv adabiyotlarga nisbatan qiziqishini orttiradi, ular qator fikrlar asosida o'z fikrini mustahkamlashga harakat qiladi, ma'ruza o'qigan pedagog bilan muloqot qilish uchun intiladilar, o'z fikr mulohazalarni ifoda qilish yo'llarini topadilar.

Demak, o'quvchi o'z bilimini tanqidiy fikrlar asosida oshirib boradi va har qanday holatda ham fikr-mulohaza yuritish qobiliyatini namoyon etadi. Darsliklarda berilgan matn, mashq va masalalarni illyustrativ materiallar, jadvallarni tanlashda o'quv-biluv faoliyatini boshqarish, ya'ni dars jarayoniga rahbarlik qilish, darslik materiallari vositasida o'quv-chilarning bilim, ko'nikma, malakalari, egallagan shaxsiy sifatlarini na-zorat qilish mexanizmini ishlab chiqish lozim. Xorijiy tadqiqotchilar fikricha, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, maqsadga intilish, individual va guruhviy ishlari, hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va kollejdandan tashqari ta'lim olish imkoniyatlarini ham yaratish, kasb-hunar ta'limi muassasalarining asosiy vazifasi bo'lishi kerak.

Fransuz olimi K. Allegr ta'kidlaganidek, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, maqsadga intilish, ularning individual va guruhviy ishlarini, hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ham kasb-hunar o'quv yurtlarining asosiy vazifasidir. Psixologlarning tadqiqotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarda bilimlarini shakllantirish o'qituvchi rahbarligida, maqsadli tashkil qilingan faoliyat jarayonida samarali rivojlanadi va bu pedagogik jarayonda o'z aksini topadi. Faqatgina samarali tashkil etilgan ta'lim jarayonida o'quvchida o'quv muammosini mustaqil hal qilish ko'nikmasini rivojlantirish va o'rganilayotgan bilimlar yuzasidan kelib chiqqan muammolarni ijodiy yechish imkoniyatini yaratadi.

SHuning uchun ham biz bugungi kunda zamonaviy ta'limning vazifasi, maqsadi, o'rnini va rolini yaqqol tasavvur qila olishimiz kerak. Biz hozirgi vaqtda qo'llanilayotgan o'quv-tarbiya jarayonida va pedagogik adabiyotlar va tadqiqot ishlarida, "mustaqil ta'lim", "mustaqil ish" tushunchalarining mohiyatini yoritishga harakat qildik. Ba'zan mustaqil holda o'qish va mustaqil ta'lim tushunchalari adashtiriladi. Mustaqil holda o'qish rasmiy o'quv jarayonidan tashqarida kechishi mumkin, ya'ni muayyan ta'lim muassasiga bormay turib, uyda o'zi o'quv materiallari asosida mustaqil, individual holda o'qishi va o'rganishi mumkin.

N.Muslimovning fikricha mustaqil ta'lim - bilimlarni o'zlashtirish tasavvurlarini rivojlantirish tushunchalari, ko'nikma va malakalarni hosil qilish bo'yicha o'quv jarayonining sub'ektiv maqsadiga muvofiq muntazam, mustaqil hamda avtonom faoliyatni tashkil etish demakdir.

Mustaqil ta'lim - belgilangan o'quv topshiriqlarini tahsil oluvchilarning mustaqil va ijodiy bajarishlari asosida o'tadigan o'quv faoliyatidir. Mustaqil ta'lim negizini mustaqil ishlar tashkil etadi. Biz mustaqil ta'limni pedagogik tamoyillarga asoslanib tashkil etish kerak, deb o'ylaymiz. Masalan, o'quvchilarning ongliligi va faolligi tamoyili o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda o'quvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik, o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq rivojlanadigan bo'lsin.

Masalan: Mustaqil bilim olish va o'rganishda o'quvchilar harakati guruhdagi o'quvchilar quyidagi tartibda bo'lishi mumkin:

1. O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi (odatda 3-4 ta)
2. Har bir kichik guruh o'tilgan mavzular bo'yicha bir nechta savol (yoki topshiriq)lar tuzadilar.
3. So'ngra guruhlar o'zaro savollar bilan almashadilar.
4. Guruhlar "raqib" guruh tuzgan savollarga javob beradilar va eng ko'p savolga to'g'ri javob bergan guruh muvaffaqiyat qozongan deb hisoblanadi.

Demak, kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni samarali tashkil etish o'quv jarayonining muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Mustaqil va ijodiy ishlash jarayonida o'quvchida mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishi natijasida, o'quvchida jarayonlar va hodisalar, obyektlar haqida bilimlarni tizimlashtirish ularni chuqur o'rganish hamda tegishli qarorlar qabul qilish, nazariy bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalari shakllanadi.

Nazariy va amaliy mashg'ulotlar Nazariy dars, tajriba va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish davomida o'qitish jarayonining ko'zda tutilgan ketma-ketligini saqlab qolish hamda rejalashtirilgan o'quv maqsadlariga erishishni ta'minlash lozim. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish uchun mashg'ulotlarning dars ishlanmasi hamda texnologik xaritasi ishlab chiqilishi kerak. Har bir mashg'ulot bo'yicha dars ishlanmalari va texnologik xaritalarni ishlab chiqish o'quv jarayonini to'laqonli loyihalashtirish hamda samarali tashkil etish imkonini beradi. Mustaqil ish O'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishda mustaqil ishlar-ning ahamiyati juda katta. Mustaqil ishlar o'quvchining umumiy rivojlanishiga va kasbiy mahoratini o'stirishga xizmat qilishi kerak.

SHuningdek o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil qilish tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyatga ham ega bo'lishi kerak. Tarbiyaviylik ahamiyati shundaki o'quvchi o'z bilimini oshirish va mustahkamlash uchun o'zini-o'zini tarbiyalab boradi.

Ta'limiy ahamiyati esa o'quvchi bo'sh vaqtdan samarali foydalangan holda mustaqil bilim olish jarayonining shakllanishiga olib keladi. O'quvchilarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish va boshqarish o'quv jarayonining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Mustaqil va

ijodiy ishlarning turlari, shakllarini tanlashda “oddiydan-murakkabga” hamda “umumiydan-xususiyga”, “mavhumdananiqlikka” tamoyillariga amal qilish lozim. Mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini ishlab chiqishda har bir o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlari, tushunuvchanlik, o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasi inobatga olinishi, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning ijodiy ishlashiga ahamiyat berish kerak. O‘qituvchi o‘quvchi bajaradigan mustaqil ishlarni hajmini aniqlab, bajarish uchun ularga aqliy mehnat qilish yo‘llarini o‘rgatadi hamda ishni bajarish jarayonida kelib chiqadigan kamchiliklar va xatoliklar bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi. Mashg‘ulotlarni tashkil etish shakllari. O‘quvchilarning mustaqil izlanuvchanlik faoliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar kichik guruhlarda hamda individual shaklda olib borilishi lozim. Individual shakl asosan ijodiy topshiriqlarni bajarishga yo‘naltiriladi. Har bir o‘quvchi o‘zining individual (jismoniy, psixik va b.) xususiyatlariga egaki, bu uning o‘quv faoliyatiga katta ta‘sir etadi. Pedagogning bu xususiyatlarni o‘rganishi va inobatga olishi o‘qitish sifatini oshirish hamda har bir o‘quvchining ijodiy qobiliyat-larini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Pedagog o‘quvchilarning darslardagi va tajriba mashg‘ulotlari vaqtida dars jarayonidagi ishini, mustaqil ish va topshiriqlarini bajarishini kuzatadi, ularning bilimi, nazorat ishlarini tekshiradi, maslahatlarda, darsdan tashqari vaqtlarda ular bilan ishlaydi. O‘quvchining kuchli va ojiz tomonini bilib olishga, uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, xayoliga xos bo‘lgan xususiyatlarni o‘rganishga, uning xarakteri hamda irodaviy sifatlarini yaxshi bilib olishga harakat qiladi, ularning hayotiy va mehnat tajribalarini, muassasaga kelishdan oldingi faoliyati xususiyatlarini o‘rganadi.

Kichik guruhlarda ishlash maxsus bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalar o‘rganilishi kerak bo‘lganda, shuningdek o‘quvchilarda mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qo‘llaniladi. Bir nechta o‘quvchilar birgalikda ishlagan paytda, ularning shaxsiy xususiyatlari va xarakterlari orasida o‘zaro hamkorlik vujudga keladi. Guruhli bo‘lib ishlashda ikkita holat farqlanadi: - bir xil mavzuda olib boriladigan guruh ishi; - har xil mavzuda olib boriladigan guruh ishi Bir xil mavzuda olib boriladigan guruh ishida bir necha guruhlariga bir xil topshiriqlar beriladi. Topshiriq va mashqlarni yechish sharoitlari ham bir xil bo‘ladi.

SHunday qilib har xil yechimlar guruh ishi tugaganidan so‘ng bir-biri bilan taqqoslanishi mumkin. Ko‘pincha bunday hollarda raqobat holati yuzaga keladi. Yechim topilishi vaqtida esa raqiblikka o‘xshash holatlar vujudga keladi. Bu yerda muhim narsa shuki, guruhlardagi o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari imkon qadar bir xil bo‘lishi kerak. Har xil mavzuda olib boriladigan guruh ishida beriladigan ish topshirig‘i bir necha qismlarga bo‘linadi. Faqat bu qismlar birlashtirilgandagina topshiriqning mazmuni aniq ko‘rinadi. Har bir guruh bu holda qisman topshiriq oladi va mustaqil ravishda uning ustida ishlaydi.

Bunday yondashuvda bir guruh o'quvchilari faqat o'zlariga berilgan topshiriqlarni bilishadi xolos, ya'ni boshqa guruhlar ishlari haqida deyarli xabarlar bo'lmaydi. SHuning uchun ham natijalar qisman birlashtirilishi zarur. Kichik guruhlarda ishlashda berilgan topshiriqlar puxtalik bilan o'ylab chiqilgan bo'lishi kerak, chunki ularda o'quvchilar orasida muloqot va hamkorlik qobiliyatini rivojlantirish kabi maqsadlar bor.

1) "Reja o'yini" shaklidagi guruhiy ish: "Reja o'yinlari" belgilangan vaziyatda turli xil yechimlarni sinab ko'rish imkonini beradi. O'quvchilar bunda muammoga bo'lgan har xil ta'sirlar natijaga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Buning uchun sabab va oqibat bir-biri bilan bog'liq ravishda ko'rilishi kerak. O'quvchilar o'yin jarayonida o'zaro raqobat munosabatida bo'ladilar.

2) Loyiha shaklidagi guruhiy ish: Loyihaviy ish bir loyihani aniq belgilangan chegara doirasida ishlab chiqishni talab qiladi. Loyiha shaklidagi guruhiy ish juda ham katta ahamiyatga ega, chunki bunda vazifalar topshiriqlar majmuasi bo'yicha aniq taqsimlanishi kerak bo'ladi. O'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishda elektron ta'lim resurslaridan maksimal foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'quv va didaktik materiallarga qo'shimcha tarzda tasviriy-vizual vositalar (fotosuratlar, rasmlar, chizmalar, grafiklar) ham kiradi. Ular umumiy va keng qamrovli tasavvurlarni vujudga keltirishni osonlashtiradi.

SHuningdek, tasviriy tasavvurlarni shakllantiradigan audio-vizual vositalar texnologik jarayonlar va funktsiyalar to'g'risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi. Predmet vositalari tasvir va matnlarni yozib olish, saqlash imkonini beradi. Ularga doska, flipchart, kodoskop (proektor) kamera va kompyuterlar kiradi. Tajriba ishi sohasiga tegishli kerakli tajriba uskunalari, namunalar, jihozlar va asboblarni nazariy dars yoki amaliy mashg'ulot paytida didaktik funktsiyaga ega bo'lsa, o'quv vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin.

Ushbu vositalardan foydalanishda ularni muayyan maqsad soha va usullarga mos holda tanlash muhim o'rin tutadi. O'qituvchi o'quv va ko'rsatmali vositalarni ishlata olishni, ulardan maqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak. Texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni mustaqil hal qila olishi kerak. O'quv materiallari bir paytning o'zida didaktik materiallar sifatida, ya'ni o'qitish va o'rganish uchun ishlatiladi.

Agar o'quv va didaktik materiallar yetarli bo'lmasa, u holda o'qituvchi tomonidan ularning tanlanishi hamda nazariy yoki amaliy mashg'ulotlar maqsadiga moslashtirib tayyorlanishi kerak. O'qitish jarayonida o'quvchilarni faollashtirish - shuni nazarda tutadiki, bunda o'quvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash usullarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik, o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq rivojlanadi. O'quvchilarning faolligi ularning o'quv materialni egallab olishida o'quv, tajriba xonasi sharoitlarida topshiriqlarni bajarishdagi harakatlarida

namoyon bo'ladi. Faollilik o'quvchilarning o'quv va mehnat faoliyatidagi mustaqilligini rivojlantirish bilan mustahkam bog'langan. Faol usullarini tanlash birinchidan, darsdan ko'zda tutilgan o'quv maqsadlariga bog'liq. Masalan, agar darsning maqsadi yangi bilimlarni egallashdan iborat bo'lsa, o'qituvchi bu bilimlarni o'zi bayon qiladi yoki o'quvchilarning o'quv adabiyotlari va boshqa materiallar bilan mustaqil ishlashini tashkil qiladi. Ikkinchidan, ta'lim usullarini tanlash o'rganiladigan fanning mazmuni va darsning aniq o'quv materialiga bog'liq bo'ladi. Bir mashg'ulotning o'zida bir nechta faol usullar qo'llanilishi mumkin. Uchinchidan, o'quvchilarning ilgarigi tayyorgarlik darajasiga va shaxsiy tajribasiga bog'liq.

Agar yangi o'quv materiali o'quvchilarga butunlay notanish bo'lsa, o'qituvchi buni o'zi bayon qiladi, buni didaktik vositalar va tajribalarni ko'rsatish bilan qo'shib olib boradi. Ta'lim oluvchilarning bilim olish, mustaqil ishlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning ongli faolligi, mustaqilligi hamda ijodkorligini, o'quv bilish faoliyati natijasining sifatini xarakterlaydi. Faollik-ta'lim sharoitida o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ishharakat usullarini turli ishlab chiqarish vaziyatlarida qo'llanishga imkon beradi. O'qitish jarayoni. O'quvchilarning mustaqil izlanuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar dars ishlanmalari hamda texnologik xaritalari asosida o'qitish jarayoni tashkil etiladi.

Mashg'ulotlar asosini mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini bajarish tashkil etadi. Har bir mashg'ulot o'quv maqsadiga to'la erishish uchun qo'shimcha mashg'ulotlar ham o'tkazilishi mumkin. O'quvchilarga mustaqil bilish, fikrlash va ijodiy izlanishga majbur qiladigan, muammoli hayotiy dalillarga asoslanadigan vaziyatli topshiriqlarni berish maqsadga muvofiqdir. O'quvchi topshiriqlarni ijodiy fikrlash va mustaqil ishlash orqali bajarishlari lozim. O'qituvchilar mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini bajarish bo'yicha o'quvchilarning intilishlarini olqishlashi hamda to'g'ri yo'naltira olishlari lozim. O'quvchi yakka xolda samaraliroq ishlaydimi; yoki bir necha kishidan iborat guruh bilan birgalikda ishlashni yoqtiradimi; yoki unga elek-tron darsliklardan foydalanish qulayroqmi buni o'qituvchi yaxshi bilishi kerak.

O'quvchi topshiriqni o'zi anglashi va uni bajarishga harakat qilishi, o'qituvchi esa, o'z navbatida, o'quvchilarning mustaqil izlanish olib borish ko'nikmalarini, o'tilgan materiallarni yanada chuqurroq o'zlashtirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni izlab topish qobiliyatlarini rivojlantirishga undashlari lozim. Savollar yoki topshiriqlar orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashlarni rivojlantirish, noma'lum yoki noaniq ma'lumotlar mohiyatini tushunish uchun mustaqil izlanishlarini vujudga keltiradi. Biz tomondan olib borilgan pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchining ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish, uning mustaqil bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishda mustaqil ish ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan. Lekin, auditoriyadan tashqari mustaqil ishni tashkil qilish birmuncha murakkab jarayon.

CHunki bu jarayonda o'quvchi mustaqil tarzda fanlar bo'yicha berilgan topshiriqlarni o'quv-uslubiy adabiyotlaridan foydalangan holda bajarishlari kerak. O'quvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish hamda baholash ta'lim jarayonining zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini baholash emas, balki o'qitish jarayoni davrida o'quvchilar bilim olish va mustaqil ish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir. Bilim va ko'nikmalarni tekshirish hamda baholashning ta'limiy ahamiyati shundan iboratki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilishi to'g'risida o'quvchi va o'qituvchi muayyan ma'lumotga ega bo'ladi.

O'qituvchiga o'quvchilarning qaysi o'quv materialini yaxshi o'zlashtirilganu, qaysi ish yetarli darajada o'zlashtirilmaganligi ma'lum bo'ladi. Bu esa o'quvchining o'rganish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Baholash orqali o'quvchilarning o'quv materiallarini bilish, tushunish, xotirada saqlab qolish, amalda qo'llay olish, tahlil qilish va o'zo'zini baholash darajalari aniqlanadi. Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda o'quvchilarning o'qishga qiziqishi, o'z yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, o'quv qiyinchiliklarni yengish ishtiyoqi tug'iladi. Natijalarni baholash orqali butun ta'lim jarayoni tekshirilib ko'rilishi kerak. Bu bilan ta'lim jarayonida kutilayotgan o'quv maqsadiga erishilayotganlik darajasi tekshiriladi. Ta'lim berish davomidagi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni baholash o'quvchining o'zligini anglashi uchun bir imkoniyatdir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini ham inobatga olib baholashda quyidagilarni e'tiborga olish muhimdir:

- o'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash;
- ta'lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlash;
- o'qituvchi o'z faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish;
- joriy va oraliq o'zlashtirish darajasini aniqlash;
- baholash natijalari bo'yicha ota-onalarga ma'lumot berish;
- dastlabki bilim va ko'nikmalar ta'lim natijasini baholash;
- o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash uchun.

Baholashni quyidagi uch bosqichda o'tkazish tavsiya etiladi: Boshlang'ich baholashta'lim jarayoni boshida o'quvchilarning dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Bunday baholash natijalari orqali maxsus fanni o'qitish jarayonining mazmuni, metodlari va shakllarini tanlash imkoniyati yaratiladi. Joriy (shakllantiruvchi) baholashmuntazam ravishda o'tkazib borilishi lozim. U ta'lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni, samarasini tezkor aniqlab borish, o'quv jarayonini muvofiqlashtirish hamda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi qaytar aloqani ta'minlash imkonini beradi.

Oraliq baholash maxsus fan asosiy bo'limlari yoki modullari bo'yicha mashg'ulotlar o'tib bo'lingandan keyin o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni

o'zlashtirganliklari baholanadi. Bu bilan o'quvchining bo'lim yoki model bo'yicha o'quv materialini qanchalik darajada o'zlashtirganligi haqida ma'lumotga ega bo'linadi. Lozim bo'lsa o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar olib boriladi.

Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy shakllantirish. "Kompetentsiya" atamasi keng ma'noda umumiy masalalarni hal etishda amaliy tajribalar asosida bilim va malakalarni qo'llash, muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatini bildiradi. Lotincha "campetere"-muvofiq bo'lmoq so'zidan kelib chiqqan. Hozirgi kunda "kompetentsiya" atamasi turli sohalarda qo'llaniladi: huquqshunoslik, tilshunoslik, madaniyat sohaslarida, shuningdek tashkilot, muassasa yoki kompaniyaning muhim kompetentsiyalari.

Lekin xodimlarni boshqarish nuqtai nazaridan "kompetentsiya" atamasi qiziqtiradi, shuning uchun xodimlarning kasbiy kompetentsiyasi haqida fikr yuritamiz. Amerikalik psixolog va inson motivatsiyasi tadqiqotchisi Devid Makliland tashkilot, muassasa yoki kompaniyaga kompetentli yondashuvning boshlanishida shuni ta'kidlaydiki, "Inson shaxsi o'rganilayotganda nomzod yoki xodim o'zining kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatlari haqida to'g'ri javob bermaydi, chunki odam doimo o'zining meniga yuqori baho beradi, shuning uchun kompetentli yondashuv tashkilot, muassasa yoki kompaniya administratsiyasi tomonidan qonun doirasida ishlab chiqilishi kerak Xodimlar bilan ishlashda kompetentli yondashuv xodimlarni tanlash, baholash, o'qitish va rivojlantirishga qaratilgan.

Bunda aniq xodimning tegishli kasbiy kompetentsiyaga ega ekanligi va darajasi aniqlanadi. "Kasbiy kompetentsiya" atamasi shunday izohlanadi: "bu xodimning lavozim talablariga muvofiq ishlash qobiliyatidir": Kasbiy kompetentsiyalar shaxsiy tavsiflar kabi bayon etilishi mumkin, masalan, "stressga chidamli", "komanda ishiga layoqatlilik", "kreativlilik" kompetentsiyalari, xuddi shunday egallagan malakalari kabi ko'rsatilishi ham mumkin, masalan: "muzokara olib borish", "biznes-reja tuzish" kompetentsiyalari.

Lavozim kompetentsiyasi ro'yxatini shakllantirishda quyidagi ikkita qoidani yodda tutish lozim:

- fe'l-atvori (bevosita ko'rish mumkin bo'lgan);
- aniq jihatlari (kompetentsiya darajasini aniqlashdagi asos) Kasbiy kompetentsiya namunalariidan bir nechasini keltiramiz: "Ishontira olish" kompetentsiyasi.

Aniqlash: Boshqalarga ta'sir ko'rsatib, ularni o'z qaror va harakatlariga ko'ndirish. "Tashabbuskorlik" kompetentsiyasi.

Aniqlash: harakatni boshlab berish va shaxsiy ijobiy jihatlari bilan voqeaga samarali ta'sir ko'rsata olish. Doimo izlanishda bo'lish, yangi vazifalarni, qo'shimcha ishlarni o'z zimmasiga olish Odatda har bir lavozim uchun 5-10 ta asosiy kasbiy kompetentsiya belgilanadi. Ular bayon etiladi. Bunday holatlarda rahbar tomonidan test savollari shakllantirilsa maqsad

muvofig bo'ladi. Berilayotgan test savollarining har biri ma'lum kompetentsiyaga moslashtiriladi. Test hodimlarning ushbu kompetentsiyalarni qanchalik egallanganliklarini ko'rsatadi. Test natijalariga ko'ra xodimlarning kompetentsiyani egallash darajalari aniqlanadi, masalan: Kompetentli yondashuv quyidagilarni amalga oshirish imkonini beradi:

- xodimlarning egallagan lavozimiga munosibligini baholash;
- ishga qabul qilishda yangi loyihani amalga oshirishda hodimlarni tanlash, vakant lavozimga nomzodni tanlash;
- hodimlarni ma'lum vaqtda attestatsiyadan o'tkazish, kamchilik aniqlanganda qo'shimcha o'qitish. Bundan tashqari, baholash omili sifatida kompetentsiya bilan ishlash, ishxonaning hamma uchun yagona tasdiqlangan standartlari asosida xodimlarning real tavsifnomalarini va malakalarini baholash imkonini beradi.

Xodimning ish tajribasini baholash, shuningdek og'zaki suhbat o'tkazish ko'pincha bir tomonlama amalga oshiriladi va har doim to'g'ri bo'lavermaydi. Talab etiladigan kompetentsiyalarning mavjudligiga o'tkaziladigan test quyidagi savollarga to'liq javob bera olishi lozim bo'ladi, masalan: "Xodim tashkilot, muassasa yoki kompaniyamizdagi vazifalarni biz talab qiladigan darajada bajara oladimi?" "Unda yetarli tajriba, zaruriy tayyorgarlik, alohida malaka va shu kabilar bormi?". Umuman olganda kompetentli yondashuv - bu tashkilot, muassasa yoki kompaniyaning rivojlanishi va gullab-yashnashi uchun asosiy omildir. Ish jarayonini yuqorida keltirilgan tartibda tashkil etilsa, biz jamiyat rivojlanishiga o'zimizning munosib darajada hissamizni qo'shishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. "Pedagogika" - T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010-y.
2. Yo'ldoshev J.G., S.Hasanov, M.Shirinov. "Magistrantlarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash. O'quv metodik qo'llanma. Fan va texnologiyalar. T: 2011-y. 3. Jurayev R.H., Tolipov U.Q., Sharipov Sh.S., "Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'nalitirishning ilmiy-pedagogik asoslari" T.: Fan nashriyoti, 2004- yil.
4. M.Nuritdinova. "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi" T.: O'qituvchi 2005-yil. 5. Mavlonova R.A, Sanaqulov X.R, Xodieva D.P. Mehnat va uni o'qitish metodikasi. TDPU, O'quv qo'llanma. 2007-yil.
6. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -T.: Noshir, 2009. -163 b.
7. M.Qo'ldasheva. O'quv topshiriqlarini yaratishga innovatsion yondashuv. Namangan.2020 yil 10. M.Qo'ldasheva.Tabiiy fanlardan innovatsion o'quv topshiriqlar. Namangan.2022 yil Qo'shimcha adabiyotlar: 11. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimi
15. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008.

16. Ochilov S. va Xoshimov K. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, «O'qituvchi», 2010-y

10. Geronimus T., Uchebnik malenkij master texnologiya. 1-4 klass Moskva «ASTPRESS SHKOLA» 2009 god., (www.astpress-shkola.ru)

11. Аквилева Г.Н., Клитрина З.А. «Методика преподавания естествознания». Москва, Владос. 2001. (www.pedlib.ru)

12. М.Найдаров. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining mehnat tarbiyasida xalq an'alaridan foydalanish. Toshkent "Yozuvchi" 1995 yil.

13. Шонозаова С.Р Мактаб ўқувчиларида географик тушунчаларни шакллантириш методикаси Му-аллим хем узликсиз билимлендири³ 6/1-1 - 2022 жыл "Muallim" ОАК tassarufidagi jurnal Nukus 2022. ISSN 2181-7138

14. Shonazarova S.R Principles of development of ecological education and its organization in the educational process. Web of scientist: international scientific research journal. 70-76 ISSN: 2776 0979 Volume 3, ISSUE 11, Nov., 2022

<https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/2704>

O'QUV JARAYONIGA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV HAMDA UNING TA'LIM MUVAFFAQIYATINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI

Sattarova Nodira O'tkir qizi,

Toshkent davlat pedagogika universiteti,

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi Tayanch doktoranti(PhD)

Mamlakat taraqqiyoti, uning har sohada yuqori ko'rsatkichlarga erishishi negizida bevosita ana shu jamiyatda ta'limga qaratilayotgan e'tibor hamda amalga oshirilayotgan islohotlar masalasi yotadi. Negaki ilm-fan jamiyatni yuqsak taraqqiy bosqichiga erishtiruvchi asosiy kuch ekanligi hech birimizga sir emas.

Bugungi kunda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan umumiy o'rta ta'limni yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarish, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari barqaror taraqqiyotga olib bora oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlab berish maqsadida ilg'or milliy va xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturlari talablarini inobatga olgan holda o'quv dasturlari, o'qitish metodikasi va ta'lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish vazifalari belgilab berildi [1].

Shu nuqtayi nazardan, xorijiy davlatlarning o'qitish borasidagi tajribasini o'rganish hamda ta'lim mazmuniga tatbiq etish borasida yangicha qarashlar, yangicha yondashuv, yangi fikr va mulohazalar yuzaga kelmoqda.

"Kamroq - bu ko'proq" Finlyandiya ta'lim tizimiga singib ketgan minimalizm. Ya'ni ta'limda yaxshi natijaga erishish ko'proq o'qish, nazariy bilimlarning egallanishi bilan belgilanmaydi. "Kamroq rasmiy ta'lim = ko'proq qo'shimcha imkoniyatlar" demakdir. Finlyandiya ta'lim tizimini o'rganish asosida yangi Milliy o'quv dasturi ishlab chiqildi. Uning amaldagi DTS dan farqi

shundaki, ilgari o'quvchilar 80% nazariy va 20% amaliy bilim egallashlariga e'tibor qaratilgan bo'lsa, endilikda 50% nazariy va 50% amaliy ko'nikmalarning egallanishiga ahamiyat berish ko'zda tutilgan. Shu davrgacha o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholashga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lsa, endilikda o'quvchilarning nafaqat bilimi, balki shakllantirilayotgan kompetensiyalari ham baholanishi nazarda tutilgan [2].

O'quvchilarning o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda ham qo'llay olishlari va mustaqil fikr bildira olish qobiliyatlarining o'sishiga erishish bugungi ta'limning asosiy maqsadidir. Yangi Milliy o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan yangi o'quv darsliklari ham aynan o'quvchilarda muayyan kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilishi amalda o'z ifodasini topmoqda.

Kompetensiya – u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlikdir. Kompetensiya (lot. *competo* – erishyapman, munosibman, loyiqman) – fan bo'yicha egallangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir [3].

Ta'lim jarayoniga nisbatan kompetensiyaviy yondashuv tushunchasi o'quv maqsadlari kabi eski ta'lim maqsadlariga nisbatan bir qator afzalliklarga ega bo'lib, ular quyidagilarda ham namoyon bo'ladi:

- kompetensiya bu bilim yoki ko'nikmalarning alohida elementlari emas, balki har bir o'quvchi uchun yangi muammoga muvofiq turli individual yutuqlarni muvofiqlashtirilgan qo'llashdir;

- u mavhum maktab materiallariga emas, balki doimo o'quvchining hayotiy yo'l-yo'riqlariga, "hayotda o'zini o'zi tasdiqlash" iga e'tibor qaratadi [4].

- kompetensiyaga asoslangan ta'lim mazmunga asoslangan ta'limdan ko'ra o'quvchi va ularning ta'lim talablariga ko'proq e'tibor beradi.

Kompetensiyaga hech qachon to'g'ridan-to'g'ri tashxis qo'yish va baholash mumkin emas, balki har doim uning samaradorligi nuqtai nazaridan bilvosita anglash mumkin. Zamonaviy ta'limdagi kompetensiyaga asoslangan yondashuv – olingan bilimlarni qo'llash qobiliyatiga e'tiborni qaratish usulidir. Ta'limning maqsadlari maktab o'quvchilarining yangi imkoniyatlarini aks ettiradigan, ularning shaxsiy o'sishini ifodalaydigan maxsus so'zlar bilan tavsiflanadi. Shakllangan asosiy tushunchalar ta'limning "yakuniy natijalari" sifatida qaraladi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi.

Bugungi kunga kelib, ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar o'sib kelayotgan yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, o'zaro muloqot qobiliyatiga ega, har tomonlama komil avlodni tarbiyalashga qaratilgani

shubhasiz. O'quv jarayoni asosida o'quvchilarda muayyan kompetensiyalarni shakllantira olishga erishish pedagoglardan ham yuksak tayyorgarlikni, zamon bilan hamnafas holda ta'lim yangiliklaridan boxabar bo'lishni, o'z kasbiga sadoqat hamda mashaqqatli mehnatni talab etmoqda. Zero, o'z kasbiga mas'uliyatli va jonkuyar ustozlar yurt ravnaqi uchun munosib hissa qo'sha oladigan yetuk shaxslarni kamolga yetkazishi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pardayeva M.D. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturini yaratish: tanqiddan-tahlil, tajribadan-natija, sifatdan-taraqqiyot sari. "Umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish: mazmun, metodologiya, baholash va ta'lim muhiti" xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2020-y.

2. Po'latova Z.A. Kompetensiya va o'quvchi bilimini baholash. "Молодой ученый" // Международный научный журнал, № 25 (315) / 2020.

3. Temirova K.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish. "Pedagogik mahorat" // ilmiy-nazariy va metodik jurnal, № 6/2022.

4. <http://www.cyberleninka.r>

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Izbasarova Zuxro Anatoliy qizi

Termiz davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kommunikativ qobiliyat, pedagogning kommunikativ ta'sir etish usullari. aynan pedagogik voqelikda o'z-o'zini tahlil etish ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati, ularning o'zi haqidagi tasavvurlari, qiziqishlari, motiv, ehtiyojlari tizimi, o'qituvchining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: kommunikativ qobiliyat, Jamoatchilik fikri, muloqot, uqtirish, o'z-o'zini tahlil etish, motiv.

Hozirgi vaqtda mustaqil respublikamiz dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinayotgan ekan, uning kelgusidagi rivoji, gullabyashnashi bugungi kun yoshlariga bog'liqdir. Demak, bugungiyoshlar har tomonlama rivojlangan, o'ziga, boshqa insonga, jamiyatga, tabiatga va mehnatga o'z to'g'ri munosabatini bildira oladigan, mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, ijodkor, tashabbuskor va tadbirkor bo'lmog'i lozim. O'quvchida ana shu xususiyatlarning rivojlanishi so'zsiz o'qituvchiga, uning o'quv-tarbiya jarayonini to'g'ri boshqara olishiga va o'quvchilar bilan o'rnata oladigan muomala va munosabatlariga bog'liq.

Kommunikativ qobiliyat – bu pedagogik o'zaro harakat sohasida maxsus ko'rinishga ega bo'lgan muloqotga qobiliyatlikdir. Kommunikativ qobiliyat - bu pedagogik o'zaro harakat sohasida maxsus Ko'rinishga ega bo'lgan

muloqotga ega qobiliyatlilikdir. Psixologik adabiyotlarda kommunikativ qobiliyatlarning bir qancha turlari ajratib ko'rsatiladi: 1) insonning insonni tushuna olishi insonni shaxs sifatida, uning alohida jihatlarini, motiv va ehtiyojlarini baholash, tashqi xulq-atvorini ichki olami bilan bog'liqlikda ko'rib chiqish, yuz, qo'l, gavda harakatlarini o'qish" ko'nikmasi) 2) insonni o'z-o'zini anglay olishi (o'z bilimi, qobiliyati, o'z xarakteri va boshqa qirralarini baholash, inson boshqalar tomonidan qay tarzda qabul qilinishi va atrofdagilar ko'zi bilan baholash); 3) muloqot vaziyatini to'g'ri baholay olish ko'nikmasi (mavjud holatni kuzatish, uning namoyon bo'lish belgilari haqida ko'proq axborotlarni ajarata olish, ularga e'tiborni qaratish, yuzaga kelayotgan vaziyatning ijtimoiy va psixologik mohiyatini to'g'ri idrok etish va baholash). Tahlil etish gnoseologiya, psixologiyada bilish va amaliy faoliyatga doir barcha harakatlarni o'z ichiga oladi, pedagogikada esa, tadqiq qilinayotgan narsahodisalarning alohida tarkibiy qismlarga ajratish qonuniyat va usullarini o'zida aks ettiruvchi bilish jarayoni sifatida ifoda etiladi.

O.O.Kashenkoning fikricha, o'z-o'zini tahlil etish falsafa va psixologiyada O'z-o'zini anglash, o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini baholashning tarkibiy qismi sifatida aks ettirilsa ham mustaqil kategoriya sifatida ishlatilmaydi. Biroq o'z-o'zini anglashning shakllanishi va rivojlanishi o'z-o'zini tahlil etish asosida amalga oshirishini esda tutish zarur.

Pedagogning kommunikativ ta'sir etish usullari. Aynan pedagogik voqelikda o'z-o'zini tahlil etish ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati, ularning o'zi haqidagi tasavvurlari, qiziqishlari, motiv, ehtiyojlari tizimi sifatida tushuniladigan "Men-kontseptsiyasi"ning rivojlanishiga undovchi ichki omillarning eng asosiylaridan biridir.

O'z-o'zini tahlil etish usullari quyidagilarga e'tibor qaratishni talab etadi: 1) ijtimoiylikka yo'naltirilgan o'zaro harakat vaziyatlaridan shaxsiy xulq-atvor, tarbiyalanuvchi shaxsi, uning o'ziga xosliklari, qadriyatlarini tizimi kabilarni ob'yekt sifatida ko'rib chiqish; 2) o'z xulq-atvori, shaxsiy fazilatlarini tahlil etish mezonlari tizimini aniqlash; 3) nomalumdan ma'lumni ajratib olish; 4) qarama-qarshiliklarni aniqlash.

Muloqotning ijtimoiy-psixologik nazariyasi va pedagogik tajribalarini o'rganish pedagogik ta'sir etishda ikki metod: ishontirish va uqtirishdan keng foydalanish lozimligini ko'rsatadi. Ishontirish - o'quvchilarga xatti-harakatlarning to'g'riligi va zarurligini, shuningdek, ayrim xulq-atvorlarning noto'g'riligini tushuntirish va isbotlashdir. Ishontirish jarayonida o'quvchilarda yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda axloqiy sifatlar shakllantiriladi. Bular esa o'quvchilar va ularning atrofidagilar uchun me'yor (mezon) bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchining har qanday tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi, oqibat natijada o'quvchi ruhiyatiga har tomonlama ta'sir ko'rsatishga, ya'ni o'quvchilarda ijobiy hissiyotlarni: xulq-atvor, munosabatlar, xatti-harakatlarni shakllantirish va mustahkamlashga yo'nalgan bo'ladi. Lekin ishontirish va uqtirishning texnologik mexanizmlari turlichadir. O'sib borayotgan yoshlar ijtimoiy muhit

va tabiat bilan ham o'zaro ta'sirlanadilar. Bu o'zaro ta'sir natijasida ularda ishonch, yangi bilimlar va munosabatlar, axloqiy me'yorlar majmui vujudga keladi. Ishontirish haqiqiy va soxta bo'lishi mumkin. Haqiqiy ishonch real voqelikka mos keladi va shaxsning jamiyat oldidagi qadr-qimmatini oshiradi. O'zining haqiqiy ishonchiga sodiq bo'lishi uchun kishi hatto o'limiga ham rozi bo'ladi. Masalan, Vatanga sodiqlik ruhida tarbiyalangan askarlarimizning jang maydonida ko'rsatgan matonatlari. Soxta ishonch esa, avvalo sinf jamoasi, qolaversa, jamiyat uchun zararli bo'lgan odatlarning shakllanishiga olib keladi. Soxta ishonch o'quvchilarning o'zi va atrofida ta'sirining umumlashuvi natijasida vujudga keladi. Ayrim o'quvchilarda soxta ishonch hosil bo'lishining sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin: 1) faqat a'lo bahoga o'qish - bu bilim olishda ko'r-ko'ronalik, quruq yodlashga olib boradi; 2) o'zini o'ta itoatkorona tutish - bu o'quvchi faoliyatini nihoyatda past bo'lishiga olib keladi. Me'yordagi o'quvchi o'qituvchidan ba'zan tanbeh olib turishi kerak; 3) o'qituvchini aldash - bu o'quvchini o'ta aqlli va topqirligidan dalolat beradi; 4) maktab ichki tartib-qoidasini buzish faqat kuchli xarakterga ega bo'lgan o'quvchigagina xos bo'lib, u oqituvchi tomonidan tanqid qilib turiladi; 5) haddan tashqari ko'p mehnat qilish bu kerak bo'lmagan tirishqoqlikdir. Yuqorida keltirilgan ishonchning bunday turi oquvchida shakllanib, asta-sekin boqimandalik, o'qish va mehnat faoliyatida sustkashlik kayfiyatini sodir qiladi.

Soxta ishonchni bartaraf qilish uchun o'qituvchi quyidagi uch yo'nalishda ish olib borishi kerak: 1. Sinf jamoasida sog'lom ijtimoiy fikrni shakllantirish. 2. Muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy hayotiy tajriba yaratish. 3. Soxta ishonchni asosiy tarzda inkor qilish. Soxta ishonchni o'zgartirishning quyidagi usullari mavjud: 1) o'quvchini o'zini boshqalar bilan taqqoslashga undash. Uning fikriga qarama-qarshi fikrda bo'lgan kishi bilan yaqindan tanishish (masalan, bola o'qishni xohlamaydi, lekin uning tanish o'rtog'i ko'p o'qiydi va biladi, ammo o'zining "quruq yodlovchi" yoki "o'ta bilimdon" qilib ko'rsatmaydi); 2) noto'g'ri qarashlar va ishonch oqibatda nimalarga olib kelishini ko'rsatish (masalan, ana shunday xislatlarga ega bo'lib, o'z hayotini barbod qilgan, o'z erki, g'ururi va vijdonini yo'qotgan kishilar haqida so'zlab berish. Buning uchun hayotiy misollar, badiiy asarlar, kinofilmlar va boshqalardan foydalanish mumkin); 3) soxta ishonchni yoqlab, himoya qiluvchi o'quvchi fikrini mantiqiy rivojlantirib, uni ayratga soluvchi holatga yetkazish. Masalan, barcha o'quvchilar o'qituvchilarni aldash, ichki tartib-qoidalarga rioya qilmaslik nimalarga olib borishi mumkin).

Demak, bu uning irodaviy sifatlar rivojlanmaganligini, xulq-atvor qoidalariga amal qilish malakasi tarkib topmaganligini anglatadi. Ishontirish bilimlar, qarashlar va xulq-atvor me'yorlari tizimi bo'lib qolmay, balki ularni shakllantirish usullari hamdir. Ishontirish yordamida yangi qarashlar, munosabatlar shakllanadi yoki noto'g'ri fikrlar o'zgaradi. Munozara, tortishuv, suhbat, o'qituvchi hikoyasi va uning shaxsiy ibrat namunasi ishontirish shakllari bo'lib hisoblanadi. Ishontirish o'quvchilarga ta'sir etish metodi sifatida yuqori samara berishi uchun u quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1) ishontirishning shakli va mazmuni, o'quvchilar yosh davriga mos bo'lishi lozim (kichik maktab yoshida ertak, rivoyat va fantastik hikoyalar misolida, so'ngra esa borliq dunyoni o'rganish inson ma'naviy dunyosini o'rganish); 2) ishontirish o'quvchilarning individual xususiyatlariga mos bo'lishi lozim. Buning uchun o'quvchining haqiqiy hayot tarzini organish zarur; 3) ishontirish umumiy tarzdagi qoida va prinsiplardan tashqari aniq dalil va misollarni ham o'z ichiga olishi zarur (o'qitishdan korgazmalilikka e'tibor berish); 4) ishontirish jarayonida ba'zi holatlarda barcha bir xil xabardor bo'lgan dalil va xulq-atvorni muhokama qilishga to'g'ri keladi. Bu, o'z navbatida dalilnin haqqoniyligi to'g'risidagi ikkilanishlarni yo'qqa chiqarishga va umumiy to'g'ri xulosa chiqarishga yordam beradi; 5) boshqalarni ishontirar ekan, o'qituvchi o'z fikriga qat'iy ishonishi zarur. Ishontirish jarayonini tashkil etishda o'quvchi ruhiy qiyofasining o'ziga xosligini e'tiborga olish lozim. Buning uchun pedagog o'quvchi oliy asab tizimining tipini, uning ta'lim-tarbiya va kamolotining rivojlanish doirasini bilishi zarur. Masalan: bola kuchli muvozanatlashgan (sanguinik) asab tizimi tipiga ega bo'lsin. Unda tormozlanish jarayoniga nisbatan qo'zg'alish jarayoni kuchliroq bo'ladi. Bu holda o'qituvchi ishontirish jarayonini o'quvchi asab tizimini ortiqcha qo'zg'alishiga yo'l qo'ymaydigan, qo'shimcha hissiyot sodir qilmaydigan tarzda olib borishi kerak. Fikr, sezgi va irodaviy xislatlar bir butun yaxlitlikni tashkil etgandagina ishontirish metodi haqiqiy harakatlantiruchi kuchga aylanishi mumkin. Bu metodni qo'llashda ishontirish tarkibi bilish, sezgi, hissiyot, xulq-atvorga amal qilish maqsadga muvofiq. Ishontirish natijasi o'qituvchining so'z mulkiga ham bog'liqdir.

Pedagogning so'zi va ishi ham bir bo'lishi kerak. So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazish o'qituvchining madaniy saviyasida va o'quvchi muloqotida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki insonning "aql-zakovati, fikr-tuyg'ulari, bilimi va madaniyat saviyasi, tafakkuri ma'lum darajada so'zda ifoda etiladi. Muomala madaniyatida so'z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi" (Aziz Yunusov). So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazishni amalda o'z pedagogik faoliyatida qo'llovchi o'qituvchi o'z hissiyotlarini, ijodiy ta'sirlanishini boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi va o'z his-tuyg'ularini faqat ta'lim-tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish uchun ifodalashi hamda o'quvchi qalbini noo'rin so'zlar bilan jarohatlab qo'ymasligi, so'zlarni aniq ifodalashda pedagogik takt normalaridan chiqib ketmasligi lozim. So'z qudrati haqida R.Dekartning quyidagi fikrlari o'qituvchilarga ham bevosita taalluqlidir: "So'zlarning ma'nolarini, qudratini odamlarga aniq ifodalab tushuntirib bering, shunda siz insoniyat olamini barcha anglashilmovchiliklarning yarmidan xalos qilgan bo'lasiz".

O'qituvchining imo-ishoralari va yuz harakatlari so'z bilan og'zaki ta'sir qilishni kuchaytiradi. Yuz harakatlari va imo-ishoralar nutqda ovozning balandpastligi bilan mos kelishi kerak. Ogohlantiruvchi so'zlar, notiqlik san'ati asosida ta'sir etish, vazifani ijro etishga undovchi buyruqlar, ta'qiqlangan iboralarni ishlatmaslik, hazil orqali fikrini anglatish, o'quvchining erkin mulohazalarini ma'qullash yoki nojo'ya harakatlari uchun ayblash so'zning

og'zaki ta'sir etuvchi komponentlaridir. So'z bilan imo-ishoraning va yuz harakatlarining birligi ma'lum qilinayotgan axborot hajmdorligi va ta'sirchanligini kuchaytirishi lozim. Har qanday sharoitda o'qituvchi o'quvchilar bilan sinfda uchrashishga maxsus hozirlik ko'rishi lozim. Ishontirish metodini qayta tarbiyalash, ya'ni qarash va munosabatlarni shakllantirishda qo'llash, u yoki bu xislatlarni namoyish qilish zarur bo'lgan maxsus vaziyatlar yaratish orqali amalga oshirilishi ham mumkin.

Uqtirish – kishilarning muloqot faoliyati jarayonida o'zaro ta'sir etishlari vositalaridan biridir. Uqtirishning o'ziga 'xosligi, inson ruhiyatiga uning o'ziga sezdirmasdan ta'sir etishi, shaxs psixikasi, tarkibiy tuzilishiga beixtiyor kirib borish va kundalik hayotdagi qiliqlar, intilishlar motivlar va yo'l-yo'riqlarda aks etishidir. Har qanday pedagogik ta'sir etishda uqtirish elementi mavjud bo'ladi.

To'g'ri tashkil etilgan uqtirish o'quvchilarning ongli ravishdagi faolligini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. So'z yordamida o'quvchida tetiklik yoki qo'rquv, xursandlik yoki xafalik, o'ziga ishonch va ishonmaslik, qiziquvchanlik yoki zerikish, boshqalarga ishonish yoki ulardan hadiksirash kabi sezgilarni vujudga keltirish mumkin. O'qituvchining yomon kayfiyati to'lqin kabi bir zumda o'quvchilarni qamrab olishini ham faqat uqtirish bilangina tushunish mumkin. Yoki asabiylashgan xarakterga ega bo'lgan guruh rahbari tez orada asabiy holat guruhda muloqot me'yoriga aylanib qolganligidan taajjublanadi.

O'qituvchining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari.

O'qituvchi tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'sirga ega ekanliklarini, ularning o'zaro kommunikativ munosabatlari hamda faoliyatlari o'rtasidagi bog'lanishning mavjudligi, uning samaradorligini belgilashini unutmashligi shart. O'qituvchi sinf jamoasiga va alohida tarbiyalanuvchiga pedagogik ta'sir ko'rsatishida muvaffaqiyatlarga erishishi uchun, o'quvchilar orasida o'zaro pedagogik munosabatlar tizimini oqilona rejalashtirishi va psixologik muhitni ijobiy tomonga o'zgartirishi lozim. To'g'ri tashkil etilgan va har jihatdan mukammal bo'lgan, yosh avlodning qalbi va ongini asrashga, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan pedagogik munosabatlar tizimini tashkil etish uchun o'qituvchi har biroq o'quvchi ruhiyatini chuqur bilib olishi, ularning ichki imkoniyatlaridan xabardor bo'lishi, axborot berishi, fikr almashishi, ular qayg'usini, tuyg'ularini tushunishi va hamdard bo'lishi zarur. Pedagogik munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun o'qituvchi: O'quvchilar bilan bo'lajak munosabatni modellashtira olishi; munosabatda bo'ladigan sinf jamoasi xususiyatlarini oldindan bilishi; bevosita samimiy va hamjihatlikka asoslangan munosabat o'rnata olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 23 сентябрдаги

“Таълим тўғрисида”ги Қонун”. ЎРҚ-637-сон. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон).

2. Мавлянов А., ва б.қ.лар. “Илғор педагогик технология бўйича ўқув машғулоти лойиҳалаш”. Замонавий таълим. 2016. №2. Б.25-29.
3. Мавлянов А., ва б.қ.лар. Ўқув машғулотларини ташкил этишда таълим технологиялари. Ўқув қўлланма. Тафаккур бўстони нашриёти. Тошкент, 2013. 142
4. Мавлянов А., ва б.қ.лар. Педагогик технология тамойиллари асосида
5. Bekmirzayev N. Notiqlik san’ati asoslari. – Toshkent: Yangi asr, 2008.
2. Muhiddinov A.G. O’quv jarayonida nutq faoliyati. – Toshkent: O’qituvchi, 1995.
6. Erkaboeva N. Pedagogik mahorat / O’quv qo’llanma. – Qo’qon: Qo’qon DPI nashriyoti, 2020.

**BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARINING TABIATGA OID
TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD
BOBURNING “BOBURNOMA” ASARIDAN FOYDALANISH**

Saidova Dinora

Shahrisabz davlat pedagogika institute 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Boshlang’ich sinf o’quvchilarining olam haqidagi tasavvurlarini shakllantirish jarayonida buyuk ajdodlarimiz badiiy merosidan foydalanish imkoniyatlari .

Kalit so’zlar: bola shaxsini rivojlantirishda reallik, zamonaviy tendensiyalar, adabiy ertaliklar, tabiiy-ilmiy dunyoqarash, pedagogik meros, virtual ekspeditsiya, imitasion didaktik o’yinlar, erkin topshiriqlar.

Annotation: The ability of elementary school students to take advantage of the artistic heritage of our great ancestors in shaping their perceptions of the universe .

Keywords: reality in the development of a child's personality, modern trends, literary fairy tales, natural and scientific knowledge, pedagogical heritage, virtual expedition, i committeeon didactic games, free assignments.

Zamonaviy ta’lim tizimida mavjud nazariy manbaalarni o’rganish, atrof-muhitga bo’lgan munosabatni shakllantirish jarayonida tarixiy asarlarning ham o’rni beqiyos ekanligini unutmazlik zarur. Boshlang’ich sinf o’quvchilarining olam haqidagi tasavvurlarini shakllantirish jarayonida buyuk ajdodlarimiz badiiy merosidan foydalanish zarurati yuzaga keladi.

Mamlakatimiz uzluksiz umumiy ta’lim tizimida bola shaxsini rivojlantirishda reallikni anglash-tushunish so’nggi yillarda muhim omillardan biri bo’lib qolmoqda. Inson-o’zini o’rab turgan olamning bir qismi sifatida tabiatga oid bilim, ko’nikma va malakalarni egallashi lozim. Bu jarayonni amalga oshirishda esa tabiiy-ilmiy bilimlarni egallash hamda tarixiy manbaalar orqali bugungi kun muommolariga yechim topishga intilishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7 -fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 30-sentyabrdagi PQ-4467-son "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida" qarori, 2019-yil 31-dekabrda 1059- sonli "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2020-yil 14-dekabrda 781-sonli "2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida quyidagi ko'nikmalarni shakllantirishning keng imkoniyatlari mavjud:

- tabiiy-ilmiy dunyoqarashining konseptual asosi (tabiiy ilmiy bilimlar, qarashlar, ideal) hamda ishonch va e'tiqod kabi mazmuniy komponentlari idrok, diqqat, xayol, tafakkurning individual xususiyatlariga ko'ra tavsiflanishi;

- atrof olam tabiiy-ilmiy manzarasini boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirish modeli jarayondagi yaxlitlik, uzviylik, uzluksizlik, integrativlik va ko'rgazmalilik tamoyillari hamda tabiiy-ilmiy dunyoqarashning tabiiy-ilmiy bilimlar, qarashlar, tabiiy ilmiy ideal, ishonchning mavjudligi kabi mezonlari asosida, sinf va sinfdan tashqari tadbirlar yo'nalishlarida takomillashtirilgan;

- tabiiy jarayonlar, hodisalarni yaxlit va tizimli tarzda o'zlashtirishlari uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarini atrof olam haqidagi tabiiy-ilmiy bilimlarining integrasiyalashuvi, atrof olamni tizimli o'zlashtirish harakat mexanizmidan namoyon bo'lishi virtual ekspedisiya, imitasion didaktik o'yinlar, erkin topshiriqlar tizimi mazmuniga tayangan holda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish metodikasi boyitilgan;

- o'quvchilar tabiiy-ilmiy dunyoqarashini takomillashtirish metodikasining muhim komponenti sifatida sinfdan tashqari tadbirlarning bolalar propedevtik kurslari, bolalar ekoklublari, fan to'garaklari faoliyatini tashkil etish mexanizmlari konseptuallik, integrativlik, variativlik tamoyillariga tayangan holda takomillashtirilgan

Yuqorida sanab o'tilgan vazifalarni zamonaviy tendensiyalar asosida joriy etilgan tajriba sinov ishlari natijalari orqali ham ko'rish mumkin. aksariyat maktablarning boshlang'ich sinflarida Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida tabiatga oid g'oyalar asosida ertaliklar o'tkazish juda kam, ba'zi hollarda o'tkazilmas ham ekan. Bu sohada talab va istaklarni o'rganib chiqib, boshlang'ich sinflarda bir necha marta adabiy ertaliklar

o'tkazdik. Bizningcha, adabiy ertaliklarni quyidagi tartibda o'tkazish diqqatga sazovor:

- ertalikning mavzusini tanlash va mavzu bo'yicha materiallar to'plash;
- ertalikning dasturini va tafsilotini tuzish;
- ertalikni o'tkazish uchun hay'at a'zolarini tuzish;
- o'quvchilarni tanlab olish va ularga rollarni bo'lib berish;
- ertalik o'tkaziladigan joy va uning jihozi;
- adabiy ertalikni o'tkazish va undan keyin qilinadigan ishlar.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ertalikni o'tkazish uchun avvalo mavzu tanlaydi. Bu mavzu bolalar yoshiga, bilim darajasiga mos bo'lishi lozim. Shundan keyin mavzuga oid materiallarni to'plashga kirishadi. Biz Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, faoliyati va pedagogik merosi "Boburnoma" asaridagi tabiatga oid g'oyalardan foydalanib, adabiy ertaliklar o'tkazish uchun adabiyotlar ro'yxatini tuzdik. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, biz tavsiya qilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi, bilim darajasi e'tiborga olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilandavom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-Toshkent: "O'zbekiston" NMIY, 2018.- 29 b.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. -T.: Fan, 2019. -440 b.
3. <http://uchildiz.uz/bobur-merosi-jahon-olimlari-nigohida/> "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 1 / March 202

HOZIRGI BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING "BOBURNOMA" ASARIDAGI TABIATGA OID G'OYALARDAN FOYDALANISH HOLATI

Saidova Dinora
Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Fanlarning o'zaro integratsiyasi o'quvchilar tomonidan tabiatni bir butun borliq sifatida anglanishi, ularning tafakkurida olamning yagona tabiiy-ilmiy manzarasi vujudga kelishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, fanlararo integratsiya o'quvchilarda zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotning imkoniyat va muammolari, ekologik muammolarning mohiyati, tabiatdan oqilona foydalanish yo'llari, sog'lom turmush tarziga amal qilish tamoyillari hamda moliyaviy-iqtisodiy savodxonlik asoslarini tushunish va kundalik hayotda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Kalit so'z: Integratsiyasi, zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotning imkoniyati, STEAM, (PISA, TIMSS), turdosh blok-modullar

Annotation: The integration of science sets the stage for students to realize nature as a whole and to create a single natural and scientific landscape of the universe in their thinking. At the same time, interdisciplinary integration is aimed at improving students' understanding of the possibilities and problems of modern scientific and technological development, the nature

of ecological problems, ways to use nature wisely, the principles of following a healthy lifestyle, and the basics of financial and economic literacy and the development of usage skills in everyday life.

Keyword: Integration, possibility of modern scientific and technical development, STEAM, (PISA, TIMSS), type block modules.

Tabiiy va iqtisodiy fanlar tavsifi va predmetlar integratsiyasi

“Tabiiy va iqtisodiy fanlar” blok-moduli o‘z ichiga biologiya, geografiya, fizika, kimyo, iqtisodiy bilim asoslari va tadbirkorlik asoslari o‘quv predmetlarini qamrab oladi hamda ularning o‘zaro aloqadorligini ta‘minlaydi. Blok-modul tarkibiga kiradigan o‘quv predmetlari o‘quvchilarda tabiiy-ilmiy, texnik, ekologik va iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish hamda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jonli va jonsiz tabiatda ro‘y berayotgan hodisa va jarayonlarning mohiyati, sabablari va o‘zaro bog‘liqligi, tabiatning rivojlanish bosqichlari, jumladan, tirik organizmlar evolyusiyasi, zamonaviy texnika va texnologiyaning tabiiy-ilmiy asoslari, tabiat va jamiyatning o‘zaro aloqadorligi va ta‘siri, tabiiy va boshqa iqtisodiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishning ilmiy asoslari, xo‘jalik jarayonlarini samarali yuritish va boshqarish tamoyillari, sog‘lom turmush tarzining mohiyati va ahamiyati haqida nazariy hamda amaliy bilimlar tizimini tarkib toptirish tabiiy va iqtisodiy fanlar blok-modulining asosiy vazifalarini belgilab beradi.

O‘quvchining ichki motivatsiyasi tabiiy va iqtisodiy fanlarni o‘zlashtirishga qiziqishi, ular orqali tabiiy va ijtimoiy muhit holatini tushunishi, atrof-muhit va inson muammolarini anglashi, ularga yechim topish uchun qarorlar qabul qila olishida muhim o‘rin egallaydi.

Fanlarning o‘zaro integratsiyasi o‘quvchilar tomonidan tabiatni bir butun borliq sifatida anglanishi, ularning tafakkurida olamning yagona tabiiy-ilmiy manzarasi vujudga kelishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, fanlararo integratsiya o‘quvchilarda zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotning imkoniyat va muammolari, ekologik muammolarning mohiyati, tabiatdan oqilona foydalanish yo‘llari, sog‘lom turmush tarziga amal qilish tamoyillari hamda moliyaviy-iqtisodiy savodxonlik asoslarini tushunish va kundalik hayotda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

STEAM ta‘limi asosida o‘qitish tabiiy va iqtisodiy fanlar yo‘nalishida o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quv tadqiqotlarini o‘tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo‘naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

O‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan xalqaro baholash dasturlari (**PISA, TIMSS**) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashga mo‘ljallangan amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari hamda mustaqil bajarishga va ijodiy (kreativ) fikrlashga undovchi amaliy topshiriqlar bilan ishlashni yosh avlod

ongiga singdirish o'qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri sanaladi. Z. M. Boburning "Boburnoma" asari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tabiiy va iqtisodiy fanlarni o'qitishda nafaqat ularning o'zaro ichki, balki tashqi, ya'ni turdosh blok-modullar tarkibiga kiruvchi fanlar bilan integratsiyasi ham katta ahamiyatga ega. Jumladan, quyidagi fan yo'nalishlari bilan o'zaro chambarchas aloqalari muhim hisoblanadi:

Tabiiyot va geografiya o'quv predmetlari o'quvchilarda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy obyekt, jarayon va hodisalar, Vatanimiz tabiiy sharoiti va boyliklari, aholisi va iqtisodiyoti, jamiyat va tabiatning o'zaro aloqadorligi, tabiatdan oqilona foydalanish va ishlab chiqarishni oqilona tashkil etishning global va hududiy muammolari haqida ilmiy-amaliy tushunchalarni shakllantiradi, mustaqil fikr-mulohaza yuritishni, geografik bilimlarni amalda qo'llashni o'rgatadi. Fanni o'qitish jarayonida o'quvchilarda xaritalardan foydalana olish ko'nikmalari, ekologik, iqtisodiy va geosiyosiy savodxonlikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Tabiiyot va geografiya fani o'quvchilarda tabiat, aholi va xo'jalik haqida tushunchalarni shakllantirish jarayonida fizika, astronomiya, kimyo va biologiya fanlariga oid ma'lumotlardan foydalanadi, turdosh fanlar sohasidagi bilimlarni o'z maqsad va vazifalaridan kelib chiqib mazmun- mohiyatiga singdiradi. Shu bilan birga, tabiiyot va geografiya fanini o'qitish natijasida shakllantiriladigan tushuncha va kompetensiyalar boshqa tabiiy fanlarda o'rganiladigan ob'ekt, hodisa va jarayonlar haqida kompleks tasavvurni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Su jihatdan olganda, Z. M. Boburning "Boburnoma" asari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Biologiya o'quv predmetlari o'quvchilarda jonli tabiatning ob'ekti va tizimini his etish, jonli va jonsiz tabiat o'rtasidagi aloqalarni shakllantiradi. Jonli muhit muammolarini hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar, o'quvchilarning ijtimoiylashuvi yaxshilanadi. Bir vaqtning o'zida atrofimizni o'rab turgan jonli tabiatga ijobiy munosabat, tabiiy rang- baranglikni saqlab qolish, shuningdek, javobgarlikni his kilgan holda mustahkam hayotiy faoliyat shakllanadi. Z. M. Boburning "Boburnoma" asari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

1-sinf "Tabiiy fanlar" dasturi №		Bo'lim va boblar nomi		Soatlar taqsimoti	
Jami		Nazariy	Nazorat ishi		Amaliy mashg'ulot va loyiha ishi
1	Tabiat	5	3		2
2	Tirik organizmlar xilma- xilligi	4	2		2
3	Organizmlarning tuzilishi	3	1		2
4	Hayotiy jarayonlar	3	1		2

5	Ekosistema	6	4	2	
6	Bizning sayyora	5	2	3	
7	Tabiiy boyliklar	7	3	4	
8	Ob-havo	6	3	3	
9	Yil fasllari	7	4	1	2
10	Osmon jismlari	5	2	1	2
11	Issiqlik, yorug'lik va tovush	8	4	1	3
12	Harakat	7	1	1	6
Jami:	66	30	4	32	

Ilmiy-tadqiqot ishimizning o'ziga xos xususiyatlaridan oldimizga qo'ygan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, biz o'rganayotgan muammoga boshlang'ich sinf o'qituvchilarining fikrini bilish uchun 50 nafar o'qituvchi ishtirokida anketa o'tkazdik. Savollari ilovalarda keltirilgan (1-ilovaga qarang). Quyida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining anketa savollariga bergan javoblaridan namunalari keltiramiz:

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarini o'qiganman ammo boshlang'ich sinflarda asaridagi tabiatga oid g'oyalardan foydalanish masalasini o'ylab ko'rmagan ekanman. M.Barotova. 2-sinf o'qituvchisi.

Menimcha boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalashga eng ko'p e'tibor berish kerak. boshlang'ich sinf o'qituvchilari har narsaga qiziqadi. Shu sababli ularga ertak, maqol, hikmatlardan namunalarni tabiatga oid g'oyalardan foydalanish metodikasini o'rganishni xohlayman. M.Jalolova. 4-sinf o'qituvchisi.

Menimcha boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ekologik savodxonliging oshirishda darsliklaridagi ertak, maqol, hikoya va she'rlar muhim ahamiyatga ega. Men ulardan foydalanishni xohlayman. N.Cho'liyeva. 3-4-sinf o'qituvchisi.

Yuqoridagilardan va olingan boshqa javoblardan ko'rinib turibdiki, o'qituvchilarning asosiy qismi darsliklarda berilgan hikoya, she'r, maqol va ertaklardagi tabiatga oid g'oyalarni bilishadi, Ammo, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asaridagi tabiatga oid g'oyalardan amaliyotda foydalanish holatini qoniqarli deb bo'lmaydi. Aksariyat, o'qituvchilar Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asaridagi tabiatga oid g'oyalardan amaliyotda umuman foydalanishmaydi (39 nafar). Juda kam o'qituvchilar Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asaridagi tabiatga oid g'oyalardan ozroq ma'lumotga ega (7 nafar). Faqatgina 4 nafar o'qituvchilar mustaqil, qiziqishlaridan kelib chiqib ma'lum miqdorda o'rganganlar.

Biz o'qituvchilar bilan davra suhbatlari va nazariy anjuman o'tkazgunga qadar bu savolga ular ikkilanib javob berdilar. Demak, aksariyat o'qituvchilar

uchun Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridagi tabiatga oid g`oyalari yaxshi tanish emas. Shu sababli suhbatlar o`tkazib, yaqin yillar ichida nashr qilingan badiiy-pedagogik asarlardan namunalarni, “Boburnoma”ni o`qib chiqishni tavsiya qildik.

“Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridagi tabiatga oid g`oyalardan boshlang`ich sinf o`quvchilarini tarbiyalashda foydalanish imkoniyati mavjudmi?” savoliga o`qituvchilardan 6 tasi- “ha”; 38 tasi- “aytolmayman”; 6 tasi- “mavjud bo`lsa kerak” deb javob berishdi.

Boshlang`ich sinf o`qituvchilaridan 41 nafari “Boburnoma” asaridagi tabiatga oid g`oyalardan darsliklarga kiritilishini ta`kidlashdi.

“Boshlang`ich sinf o`quvchilarini tarbiyalashda “Boburnoma” asaridagi tabiatga oid g`oyalardan foydalanishning amaliyotdagi ahvoli sizni qoniqtiradimi, nima uchun?” savoliga 2-sinf rahbari T.Sohibov bergan javob quyidagicha:

-meni umuman qoniqtirmaydi, chunki “Boburnoma” asaridagi tabiatga oid g`oyalardan boshlang`ich sinf, umuman maktab darsliklariga kiritilmagan. Shuningdek, hozirgi OTM darsliklariga, O`UMkalarga juda kam kiritilgan. Hattoki, tanlov fan ham berilmagan.

Bu savolga o`qituvchilarning barchasi “yo`q, qoniqtirmaydi” deb javob berdilar. Buning asosiy sabablari:

- darsliklarga, “Boburnoma” asaridagi g`oyalardan juda kam namunalar kiritilganligi;

-sinf va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridadan foydalanishning yo`l, usul va shakllarini ko`rsatib beruvchi metodik qo`llanma va tavsiyanomalarning kamligi.

“O`quvchilarni tabiatga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashda qaysi vositalardan ko`proq foydalanish kerak?” degan savolga o`qituvchilarning ko`pchiligi- o`zbek xalqining urf-odat, an`ana va qadriyatlarini o`zida mujassam qilgan asarlardan ko`proq foydalanish kerak. Ayniqsa, xalqimizning allomalari, ma`rifatparvarlari yozib qoldirgan boy asarlaridan namunalarni darsliklariga ko`proq kiritish kerak, deb javob berishdi.

Olingan javoblarning ko`pida yuqoridagi holni ko`rish mumkin. Anketada ishtirok etgan 50 talabadan 48 nafari xalqimizning urf-odat, an`ana va qadriyatlari haqidagi hikoya va she`rlarni ta`lim mazmuniga kiritish tarafdorlaridirlar; boshlang`ich sinf o`quvchilarini tarbiyalashda “Boburnoma” asaridagi tabiatga oid g`oyalardan tarbiya jarayonida foydalanish lozim degan o`qituvchilar 47 nafarini tashkil qildi.

“Boburnoma” asaridagi tabiatga oid g`oyalari bilimlari va pedagogik amaliyotda foydalanishlariga qarab, ularni 3 guruhga ajratdik:

I-guruh – Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, faoliyati va pedagogik merosini, “Boburnoma” asaridagi tabiatga oid g`oyalarni yaxshi biluvchi, mustaqil o`rgangan, shuningdek, tarbiyaviy ishlar jarayonida muntazam ravishda foydalanuvchi o`qituvchilar;

II-guruh – bu guruh Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, faoliyati va pedagogik merosini, “Boburnoma” asaridagi tabiatga oid g`oyalarni unchalik yaxshi bilmaydigan, mustaqil o`rganishga kirishgan, shuningdek, tarbiyaviy ishlar jarayonida kam hollarda foydalanib turuvchi o`qituvchlar;

III-guruh – bu guruhga Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, faoliyati va pedagogik merosini, “Boburnoma” asaridagi tabiatga oid g`oyalari haqida bilimga ega bo`lmagan va tarbiyaviy ishlar jarayonida foydalanmaydigan o`qituvchlar kiradi.

Savol javoblarda qatnashgan 97 ta o`qituvchlardan bor-yo`g`i 4,1 foizi – 1 guruh; 14 foizi – II guruh; 82 foizi – III guruh darajasida javob berishgan. “Boburnoma” asaridagi tabiatga oid g`oyalari haqida bilimlari va amaliyotda foydalanishlarining ahvoli talab darajasida emas.

Ilmiy-tadqiqotning maqsad, vazifalaridan kelib chiqib foydalanganliklarini o`rganish uchun darslarni, tarbiyaviy ishlarini kuzatib, tahlil qilib, quyidagi xulosalarga keldik:

- Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, faoliyati va pedagogik merosini, “Boburnoma” asaridagi tabiatga oid g`oyalari, ulardan boshlang`ich ta`lim amaliyotida foydalanish imkoniyatlari haqida yetarli bilim, ma`lumotga ega emaslar;

- o`qituvchilarni “Boburnoma” asaridagi tabiatga oid g`oyalari vositasida tarbiyalashda faqat o`quv dasturi va darsliklarda belgilab berilgan mavzulardangina foydalanmoqdalar;

- juda kam o`qituvchilar Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, faoliyati haqidagi asarlaridan foydalanib darslar va tarbiyaviy ishlarni amalga oshirmoqdalar.

O`qituvchilar uchun Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, faoliyati va pedagogik merosini, “Boburnoma” asaridagi pedagogik merosi va undan foydalanishning yo`l, usul va shakllari ko`rsatib berilgan uslubiy qo`llanma va tavsiyanomalar juda ham kamligi sababli hozirgi tarbiya jarayoniga salbiy ta`sir ko`rsatib, muammoni ijobiy ravishda hal qilishga mone`lik qilmoqda.

Yuqoridagi ko`rsatkich va mezonlardan kelib chiqib, o`qituvchilar o`rtasida o`tkazilgan anketa savollariga olingan javoblarga qarab Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, faoliyati va pedagogik merosini, “Boburnoma” asaridagi tabiatga oid g`oyalarni tushuna bilishi, ularni mazmun va mohiyatini anglash darajasida o`zgarishlarni belgilash uchun, ularni uch darajaga ajratdik:

Birinchi yuqori daraja: yuqori- Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, faoliyati va pedagogik merosini, “Boburnoma” asaridagi tabiatga oid g`oyalarni yaxshi biladigan o`qituvchlarni kiritdik.

Ikkinchi o`rta daraja: Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, faoliyati va pedagogik merosini yuzaki biladigan; “Boburnoma” asaridagi tabiatga oid g`oyalarni unchalik ham bilmaydigan o`qituvchlarni kiritdik.

Uchinchi quyi daraja: Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, faoliyati va pedagogik merosini mazmuni, mohiyatini tushunib yetmagan, "Boburnoma" asaridagi tabiatga oid g'oyalarini tushunib olmagan o'qituvchlarni kiritdik.

Tajribada qatnashgan 97 o'qituvchlarnidan bor-yo'g'i 7 foizi-yuqori daraja; 43 foizi-o'rta daraja; 50 foizi quyi daraja miqyosida javob berishdi. O'tkazilgan savol-javoblarni tahlil qilib, quyidagi xulosalarga keldik:

- o'qituvchlarni "Boburnoma" asaridagi tabiatga oid g'oyalarini ma'no, mazmuni va mohiyati haqida bilimlar berishni yanada kuchaytirish lozim;

- o'qituvchlarda "Boburnoma" asaridagi tabiatga oid g'oyalarini ma'no, mazmun va tavsiflarini bilishlari yetarli darajada deb bo'lmaydi;

- o'qituvchlarda Markaziy Osiyolik allomalarning hamda xalqimizning uzoq o'tmishiga borib taqalguvchi urf-odat, an'analari hamda buyuk donishmandlar, fozilu fuzalolar tomonidan yozib qoldirilgan asarlarni o'rganish, tarbiya jarayonida foydalanish ishtiyoqi yuqori bo'lib, bizningcha, buning asosiy sabablari:

- milliy-ma'naviy qadriyatlarni tiklanishi va milliy o'zlikni anglashning rivojlanishi;

- o'qituvchlarning "Boburnoma" asaridagi tabiatga oid g'oyalarini yetarlicha bilmasliklari;

- o'qituvchlarni tarbiyasida, ayniqsa, "Boburnoma" asaridagi tabiatga oid g'oyalardan foydalanishni qoniqarli ahvolda emasligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev. Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilandavom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-Toshkent: "O'zbekiston" NMIY, 2018.- 29 b.

2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. -T.: Fan, 2019. -440 b.

3. <http://uchildiz.uz/bobur-merosi-jahon-olimlari-nigohida/> "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 1 / March 202.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING EKOLOGIK KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Xujamurodova Xosiyat Panjievna
TerDPI Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi
(Boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi
2-bosqich magistranti*

Jahonda insoniyat ekologik ta'limning ustuvorligi global ekologik inqirozni bartaraf etishning eng muhim omillaridan biri ekanligini to'liq anglab etmoqda. Ekologik ta'limni umumta'lim va kasb-hunar ta'limi tizimidagi ta'lim muassasalarining majburiy fanlari qatoriga kiritish chora-tadbirlari faol amalga oshirilmoqda.

O'quvchilarda ekologik madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirmasdan, kognitiv qiziqish va tabiatga hurmatni shakllantirmasdan turib, o'quvchilarda ekologik ongini shakllantirish mumkin emasligi aniq. Yangi O'zbekistonni barpo etishda atrof muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasida

belgilangan “aholining ekologik madaniyatini oshirish, atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlari faoliyatining oshkorlik darajasini oshirish va fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish” muhim ahamiyatga ega.

Tabiat nihoyatda go‘zal, uning insoniyat uchun marhamati keng. Tabiat insoniyatni kiyintiradi, oziq-ovqat bilan ta‘minlaydi, nafas olish uchun kerak bo‘lgan toza havoni etkazib beradi. Tabiat tirik mavjudotlarning tirikligini davom ettirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratadi. Dunyoviy modda almashinish jarayonlari tabiiy muhitda amalga oshadi. Bu go‘zallikka rahna solishdan insoniyatni qaytarmoq, uni bu borada ma‘naviy barkamolikka undamoq, kelajakka ochiq ko‘z bilan qaramoq XXI asrning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Mamlakatning barqaror rivojlanishi manfaatlarini ko‘zlagan holda uzluksiz ekologik ta‘limning davlat tizimini yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish doirasida umumta‘lim muassasalarining yosh avlodning ekologik kompetentsiyasini shakllantirish borasidagi ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalishning ustuvorligi aniq, shuning uchun zamonaviy maktabning vazifasi zamonaviy hayotda zarur bo‘lgan kompetensiyalarga ega bo‘lgan bitiruvchini tayyorlash, ularga mustaqil hayotda ishonchni his qilish imkonini beradi.

Ta‘lim va tarbiya jarayonining asosi sifatida o‘rganish qobiliyatining asosini tashkil etuvchi asosiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydi, shu jumladan.

o‘quvchilarning ekologik kompetentsiyasini rivojlantirish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ekologik kompetentsiyasini rivojlantirish va ekologik ta‘lim texnologiyalari, vositalari, usullarini izlashini ta‘minlaydi.

Hozirgi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish asrimizning eng muhim muammolaridan biri bo‘lib turibdi. Bu muammo o‘zining insoniyatga keltirishi mumkin bo‘lgan yomon oqibatlari bo‘yicha, yadro halokatidan kam emas. Eng muhim masala-aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur.

Albatta, bunday muammolarni faqat ma‘muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muxabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin.

Eng avvalo, ekologik kompetensiyalarni samarali shakllantirish o‘quvchilarida ekologik madaniyat va tegishli kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi-tabiatda kuzatishlar, eksperimentlar o‘rnatish, tabiat va odamlar olamidagi xatti-harakatlar qoidalariga, sog‘lom turmush tarzi qoidalariga rioya qilish va boshqalar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik kompetentsiyani shakllantiradilar, bu kichik yoshdagi o‘quvchilarni ekologik tadbirlarda, loyihalarda ishtirok etish, shahsiy fazilatlarini (empatiya, tejamkorlik, maculiyat va boshqalar) rivojlantirish orqali ekologik faoliyatga jalb qilishning uzluksiz jarayoni).

Ekologik kompetensiyalarni shakllantirishning eng samarali pedagogik texnologiyasi boshlang'ich sinfda qo'llaniladi, chunki u bitta jamoa doirasida optimal sharoitlarni yaratadi. Shunday qilib, u pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilarining sa'y-harakatlarini birlashtiradi, masalan, maktab maydoni va uning atrofini axlatdan tozalashda ishtirok etish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik aspektlarining didaktik-uslubiy tuzilmasi.

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik aspektlari vositalari. - boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik aspektlari materiallar mazmuni tanlandi va o'quvchilarni ekologik tarbiyalash jarayonida axloqiy qadriyatlarga yo'naltirish zaruriyati va imkoniyatlari; - boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik aspektlarining fanlararo yondashuvga va elektron vositalarga asoslangan interfaol texnologiyalari;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik aspektlarining didaktik-uslubiy tuzilmasi taklif etildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik aspektlari bo'yicha ilgari surilgan ilmiy-nazariy g'oyalar va uslubiy ishlanmalarning amaliyotga joriy etilganligi, ekologik tarbiya texnologiyalarining bilish, hissiy-qadriyatli va faoliyatli tarkibiy qismlari amalda

ishlab chiqilganligi, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining darsdan tashqari mashg'ulotlarda tabiatga ehtiyotkorona munosabatini shakllantirishni aniqlash metodikasi taklif etilganligi, samarali ekologiya tarbiyalash texnologiyalari sinovdan o'tkazilganligi va ularning boshlang'ich sinf o'qituvchilari ish faoliyatida uslubiy qo'llanma sifatida foydalanishi hamda o'quv-tarbiya jarayonlarining ilmiy-pedagogik samarasini oshirishga xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tarbiyaviy tadbirlar vositasida ekologik tarbiyani amalga oshirish haqida fikr yuritishdan avval, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar, ularning turlari, o'zaro o'xshash jihatlari va farqlari xususida fikr yuritsak.

Maktabning o'quvchilar bilan olib boradigan o'quv mashg'ulotlaridan tashqari xilma-xil ta'lim-tarbiya ishlari sinfdan tashqari ishlar nomini olgan. Sinfdan tashqari ishlar maktab ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini yo'lga qo'yish formalaridan biridir. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga aktiv faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko'ngillilik asosida tashkil qilinadi. O'quvchilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'zlarini qiziqtiradigan mashg'ulotlarni tanlab olishadi va ularda mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi.

Ekologik kompetentsiya-bu sinfda va maktabdan tashqari ekologik tadbirlarda shakllangan va yangi vaziyatda mustaqil ravishda qo'llash qobiliyatidir. Shaxsiy natijalar-bu ularning mustaqil ravishda tanlov qilish, o'z harakatlari va ishlari uchun javobgar bo'lish, atrof-muhit holatini yaxshilash bo'yicha ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat kontekstida ekologik jihatdan barkamol xatti-harakatlar, shaxsiy o'sish va rivojlanish asoslarini rivojlantirish qobiliyatidir. Ekologik kompetentsiya natijalari-o'quv vazifasini tushunish, ularning ekologik faoliyatini rejalashtirish, hodisalar o'rtasidagi sabab-ta'sir munosabatlarini o'rnatish va fikr yuritish qobiliyatini shakllantirish. Maktab va maktabdan tashqari muassasalarning tashkiliy ishlarini, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishni talab etmoqda. Sinf va maktabdan tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun sinfdan va maktabdan tashqari, tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo'lishi lozim:

- pedagoglar va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hurmat munosabatlarini shakllanganlikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish;

- ulg'aygan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini e'tiborda tutish zarur.

Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

- a) fan to'garaklari;
- b) mohir qo'llar to'garaklari;
- v) duradgorlik to'garaklari;
- g) sport to'garagi;
- d) badiiy havaskorlik to'garagi.

O'rta umumta'lim maktablarida bu ishlarni sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi. Sinf rahbari to'garak rahbarlarig yaqindan yordam beradi. Qiziqishlari, intilishlari bir xil bo'lgan o'z o'quvchilarini biror to'garakka a'zo bo'lishga chorlaydi.

Xullas, o'quvchilarining ekologik tayyorgarligi va ta'limdagi o'rnini takomillashtirish texnologik yondashish o'qituvchilarning bu yo'nalishdagi tajribasini to'la-to'kis tashkiliy, o'quvchilarining ekologik kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik aspektlari bo'yicha ilgari surilgan ilmiy-nazariy g'oyalar va uslubiy ishlanmalarning amaliyotga joriy etilganligi, ekologik tarbiya texnologiyalarining bilish, hissiy-qadriyatli va faoliyatli tarkibiy qismlari amalda ishlab chiqilganligi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yati.

1. Djumaeva Mohigul Mamanazarovna. Specific historical geography of the factors of intellectual development in the east. Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 3march 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz.

2. R.D.Norqobilova. Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini indikatorlar asosida diagnostika qilishning o'ziga xosligi. INTERNATIONAL CONFERENCES, 564-568. 2023

3. NR Davlatovna - Functions and Principles of Pedagogical Diagnostics. Web of Synergy: International Interdisciplinary 413-416, 2023/1/31

4. P.Норкобилова -Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan iqtidorini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish. Общество и инновации. 36-41, 2023/1/25

5. Райхона Норкобилова. O'quvchilarning ona tili bo'yicha iqtidorini aniqlash va rivojlantirishning o'ziga xosligi Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. 379-384. 2022

O'QUVCHILARDA LINGVISTIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA KOMPETENSIYA TUSHUNCHASIGA OID BILIMLARNI BOYITISH

*Toshpo'latova Matluba Xoliyorovna
TerDPI 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Maqolada kompetentlik, kompetensiya tushunchalarini o'rganish, zamonaviy ta'lim - tarbiya jarayonida bo'lajak pedagoglarni kompetentlik va kompetensiyaviy bilimlarini oshirib, dars jarayonida va kundalik faoliyatida mustaqil qo'llay olishi haqidagi nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kompetentlik, kompetensiya, turlari, ta'lim- tarbiya, bilim, ko'nikma ,qarashlar, fikrlar, tahlil, mulohaza.

«Bilimlarni takrorlash –ilmning onasidir»

Davlatimizda ta'lim tizimini yaxshilash va ta'lim sifatini oshirish madsadida bir qancha qarorlar, zamonaviy ta'lim beruvchi darslik va qo'llanmalar, zamon bilan hamnafas yangi fanlar, zamonaviy axborot texnologiyalari va innovatsion metodlar joriy etilmoqda. Bu yangiliklar va imkoniyatlardan unumli foydalanib, barkamol avlodni tarbiyalash biz pedagoglardan katta mehnat va ma'suliyat talab etadi.

Mustaqilik yillarida diyorumizda talim tizimining barcha bo'g'inlari, ta'lim muassalari pedagogik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini isloh qilish borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2015 yil 12 iyunda qabul qilingan "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chara-tadbirlari to'g'risidagi " farmoni (1) oliy o'quv yurtlari professor- o'qituvchilarining kasb darajasi va malakasini doimiy oshirib borish, zamonaviy talablarga muvofiq kompetensiyasi sifatini tubdan oshirish borasida muhim poydevor bo'ldi.

So'nggi yillarda pedagogika sohasida "kompetentli", 'kompetensiya', 'kompetentlik' tushunchalaridan foydalanilmoqda. Kompetentlik

tushunchasining mohiyati - bozor munosabatlari sharoitida ustivor o'rinni egallagan kuchli raqobatga bardoshli kadr bo'lish, izchil ravishda o'z kasbiy BKM larini oshirib borishdir.

Kompetentlik tushunchasini ta'lim sohasiga psixologarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixolok nuqtai nazaridan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan xillarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikdir" ni anglatadi. 2.

Kompetentlik va kompetensiya tushunchalariga ta'riflar va izohlar, fikrlar ko'p va har xildir. Shunu aytishimiz joizki, bu tushunchalar shaxsning shaxsiy va kasbiy mahorati, qobiliyatlari, BKMLari va tajribalaridan kelib chiqib, o'z ustida doimiy ishlashi, kasbiy refleksiya-siga egaligi, umummadaniy kompetentligi shakllanganligi, zamonaviy va jahon ta'lim yangiliklari bilan hamnafas bo'luvchi, har tomonlama bilim va ilmga ega shaxsdir.

Kompetentsiya - davlat ixtiyorida bo'lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo'lib, u o'quvchi (ishchi)ning muayyan sohada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan ta'limiy (professional) tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladi.

Kompetensiya shaxsning murakkab, ta'limiy tuzilishi bo'lib, u o'zida shaxsning intellektual, irodaviy, kreativ, emotsional sifatlarini o'zida jamlaganki, ular faoliyatdan ko'zlangan maqsadga uning o'zgarib boruvchi sharoitida amalga oshuvini ta'minlaydi. Shunday qilib, kompetensiya shaxsning yuksak sifatli xislati bo'lib, uning shakllanishi ta'limning hal qiluvchi oqibat, natijasi hisoblanadi. Kompetensiya - mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati. Bizningcha, "kompetensiya" deganda, o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarda amaliy qo'llay olish layoqati tushuniladi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim - o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir.

Hozircha "kompetensiyaviy yondashuv" tushunchasini ochib beruvchi yagona ta'rif yo'q. Bu masala yuzasidan olimlar turlicha taxminlarni ilgari surmoqdalar. Kompetensiyaviy yondashuv, inson faoliyatida har tomonlama kompetentlikni shakllantirish hozirgi zamon jamiyati va ta'limining asosiy sharti bo'lib hisoblanadi. Bu talab o'qituvchi-pedagoglar faoliyatiga ham bevosita dahldordir. Bugungi kunda dunyo ta'limini yangilashning asosiy yo'nalishi ta'lim jarayonida faoliyatli yondashuv orqali dunyoni, hayotni, kasbiy faoliyatni yaxlit tizimli ko'ra olish, unda tizimli faoliyat ko'rsatish, yangi-yangi muammo va topshiriqlarni hal eta olish tajribasini

shakllantirishdan iboratdir. O'qitishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv-bu o'quvchining ijtimoiy harakatchanligini shakllantirish uchun zarur bo'lgan, o'zgaruvchan sharoitlarda faoliyatni amalga oshirish qobiliyatida namoyon bo'ladigan o'quvchilarning fazilatlari majmuasini rivojlantirishga qaratilgan o'qitish. O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar belgilangan. Bular:

Kommunikativ kompetensiya

Axborotlar bilan ishlash kompetensiya

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiya

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi

Milliy va umummadaniy kompetensiya

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi .Shu bilan birgalikda ona tiliga fanga oid nutqiy va linvistik kompetensiyalar o'quvchilarni ilm olishida asos bo'ladi.Mazkur kompetensiyalar umumta'lim fanlari orqali o'quvchilarda shakllantiriladi.

Kompetentlik va kompetensiya tushunchalar haqida tadqiqotchilar fikrlari va ilmiy izlanishlar bilan tanishamiz:

Kompetentlik bu aslida zamon bilan hamnafas bo'lgan, jamiyatda har tomonlama bilimga ega kadr bo'lib , u ko'p qirrali shaxsdir. Kompetensiya - lot. so'z bo'lib , o'zbek tilida lug'aviy ma'nosi " inson yaxshi biladigan" tajribaga ega bo'lgan kabi ma'nolarni bildiradi. Kompetensiya - lot. "kopeto - erishaman, munosibman ,loyiqman) u yo bu sohadagi bilimlar , tajribalar degan ma'noni bildiradi. (3)

Kompetentlik - bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, tajribalilik, ma'suliyatlikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish. O'z sohasining, ishining ustasi bo'lib, sohaning sirlarini har tomonlama chuqur bilish.

S.I.Ojegov bu tushunchalarni quyidagicha ifodalaydi: (4)

Kompetentlik - biror sohani chuqur bilish, ko'p narsalardan xabardorlik, o'z mutaxassisligi bo'yicha katta e'tiborga moliklik; Kompetensiya --Biror kishi juda yaxshi bilgan yo xabardor bo'lgan masalalar doirasi biror kishining vazifalari va huquqlari doirasi. Kompetensiya— biror soha bo'yicha har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lgan va shuning uchun ham fikri salmoqli, ishonchli hisoblangan kishining sifati. Rus tilidagi kompetentnost atamasidagi "nost " qo'shimchasi ma'lum sifatni egallash darajasini bildiradi , shu bois kompetentlik atamasi ma'lum sifatlarni va ularning darajalarini belgilash bilan qo'llaniladi.

Kompetentlik va kompetensiya tushunchalari BKM tushunchalaridan ko'ra kengroq ma'no anglatib, ular shaxsning yo'nalganligini uning stereoteplarini yengib, muammolarni his etish, kuzatuvchanlik, fikrlash qobiliyatini; xarakterini mustaqillik, maqsadga intiluvchanlik, irodaviy

sifatlarni qamrab oladi. Kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim amerikalik tilshunos N.Xomskiy 1965 yilda Messachutes universtetida "Kompetensiya" atamasi taklif etilib, umumiy ma'noda shakllanadi. Yevropa Kengashi dasturi bo'yicha Bren shahrida bo'lib o'tgan simpoziumida (1996 yil) boshqa tushunchalar qatoriga kiritilgan.

Yevropa davatlarining ta'lim vazirlari Bolloniya deklaratsiyasida (1999yil) ta'lim islohatlarining konseptual asoslari sifatida kompetentli yondashuv belgilandi. Aleks Mir "Kompetentlik" tushunchasiga shunday ta'rif beradi: ".....ko'p qirrali qobiliyatlar deganda, turli xil insonlar turli xil uslublar orqali yo bir inson turli xil narsalarni turli xilda o'rganishi tushuniladi." (5)

Gorvard Garder ham ko'p qirrali qobiliyat tushunchasining eng ilg'or tarafdorlaridan biridir. (1983.1993). Armstrong (1994), Xou (194, 87-92 betlar, Bentli 1998.) G.V. Nikitaning fikricha Kompetentliklar tasnifida bir necha asoslar mavjud:

- Insonning umumiy k.(matematik, ijtimoiy, kommunikativ, informatsion, ahloqiy....)
- Faoliyat turlari bo'yicha: (mehnat, o'quv, o'yin, kasbiy...)
- Faoliyat yo'nalgan obyektlari bo'yicha: (inson-inson, inson-texnika, inson-tabiati, inson-badiiy...)
- Ijtimoiy hayot sohalari bo'yicha: (maishiy, fuqoraviy, madaniy...)
- Ijtimoiy bilimlar tarmoqlari bo'yicha: (matematika, gumanitar, tishunosik...)
- Ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha: (transport, aloqa, mudofaa...)
- Qobiliyatlar bo'yicha: (pedagogika, psixologiya, ijtimoiy, ijodiy, texnika...)

Kompetentlikni shakllantirishda pedagoglarda shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirib borish, ularni tarbiyalaydi va o'z ustida ishlashni talab etadi.

O'zbekiston sharoitida ham pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan bo'lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kasbiy kompetentlikga ega bo'lishda pedagog o'z ustida ishlashi va o'z o'zini rivojlantirishi muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlaydi. Pedagogika manbalarida pedagog kompetensiyasini shakllantirish bosqichlari:

- Qobiliyatni aniqlash
- Tarbiyalash va shakllantirish
- Chiniqtirish (topshiriqar b.)
- Ishonch

OTM pedagog kadrlari o'z faoliyatarida ilm-fan, tajriba, qobiliyat va kasbiy mahoratga asoslangan holda o'zini namoyon etishi va auditoriyani boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy pedagog kompetensiyasida jarayonni boshqarishning o'ziga xos vazifalari mavjud:

- Loyihastirish

- Tashkillashtirish
- Tahlil qilish
- Nazorat qilish
- Motivatsiya berish

Pedagoglarning kasbiy kompetentligi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Pedagoglarning ish sohasi bo'yicha kompetentligi uzliksiz ta'limni o'z ichiga oladi...

- Ixtisosligi bo'yicha kom.-o'qituvchi, tarbiyachi, psixolog..
- Pedagogning faoliyati yo'naltirilgan obyekti bo'yicha-talabalar, otonalar..

Pedagogning faoliyat turi bo'yicha qiyidagi kompetentlar:

Mativatsion ,gnostik, metadologik, metodik, informatsion, kommunikativ, reflektiv, prognostik, konstruktiv, tadqiqot, texnologik, korreksion..

Kasbiy kompetensiya talablari:

- AKT dan foydalana oishi
- Ta'limga yangi kiritishi
- Motivatsiya uyg'ota olishi
- Xorijiy tillarni bilishi
- O'z fanini mukammal bilishi

UMUMMADANIY KOMPETENTSIYA:

- Madaniyatli bo'lish
- Umuminsoniy qadryatlarga egalik
- Mamlakatning ijtimoiy hayotida faol bo'lish
- Boshqa millat madaniyatlarini hurmat qilish
- Milliy madaniyatga ega bo'lish

Shaxsiy kompetentlik : Bag'rikenglik, moslashuvchanlik, sog'lom turmush tarzi, muloqatchanlik, yetakchilik, faol va tashabbuskor, insonparvar mehnatsevar, ma'suiyatlilik. O'qituvchining dunyoqarashi va tasavvuri , qadriyati bilan bog'liq tarzda namoyon bo'adi. U atrof muhitdagi voqea hodisalarni ko'ra oladi va tushunadi, bunga o'zini yo'naltiradi, pedagog sifatida buni asoslay oladi. Muammo yechimini topa oladi. Bu kompetensiya o'qituvchining o'quv va boshqa faoliyatlaridagi o'zini o'zini angash mexanizimini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda ta'limda yangi tadqiqotda bo'lgan kompetentlik yondashuvning paydo bo'lishi hamda xorijiy pedagogik va metodik manbalarda kompetentlik va kompetensiya tushunchalari 1960 yillar oxirilarida 1970 yillarning boshlarida paydo bo'ldi. O'rta va oliy ta'lim muassalarida ta'lim beruvchilarning kasbiy tayyorgarligi nazariyasi va amaliyotiga keng kirib bordi. Kompetentlik deganda shaxslarning faoliyat yuritishida umumiy qobiliyatlari va uning kasbiy tayyorgarligida namoyon bo'luvchi BKM va tajribalariga asoslangan integrallashgan sifatlar nazarda tutiladi. Darhaqiqat yangilikka intilib yashaydigan, o'z kasbiy salohiyatini oshirishga intiladigan, zamon bilan hamnafas yashaydigan, jahonning ilg'or tajribalaridan keng foydalanadigan, millatini, xalqini, o'z jamoasini manfaatlarini har tomonlama muhofaza eta oladigan kadrlar, jamiyat ravnaqini ta'minlashga qodirdirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2015 yil 12 iyunda qabul qilingan qarori.
2. Umumiy pedagogika. A. Musurmanova va boshqalar. Toshkent. 2020 yil (273-27-230 betlar)
3. Ekonin. B. D. Ponyate kompetentnosti s poziyii razvivayushego obucheniya. 2002
4. Ojegov. S. I. Sovar russkiy yazika. 1999 s-248
5. Teaching and learning. Pedagogy, Curriculum And Culture. Alle Moore. P. 146
6. Google. Kasbiy kompetentlik sifatleri. 2.02.2022
7. Isakovna, T. S., & Xaydarovna, M. N. (2022). BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI TARBIYALASHDA MEHNAT TARBIYASINING AHAMIYATI. PEDAGOGS jurnali, 23(2), 186-191.
8. Турсунова, С. И. Педагогические основы национализации школьного образования. ТГПИ. 2022 год.
9. Isakovna, T. S., & Yo'lchi, O. R. R. Z. (2022). YOSH AVLODNI VOYAGA YEKAZISHDA TARBIYANING AHAMIYATI. PEDAGOGS jurnali, 23(3), 15-22.
10. Isakovna, T. S. (2022). BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH. PEDAGOGS jurnali, 23(2), 179-185.
11. Isakovna, T. S. (2022). BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. PEDAGOGS jurnali, 23(2), 172-178.
12. Турсунова, С. (2022). Методика обучения русскому языку младших школьников. Общество и инновации, 3(8/S), 179-186.
13. Sattarova Munjoat Tokhtayevna, & S. I. Tursunova. (2023). PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF USING NATIONAL HERITAGE IN EDUCATION OF SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 11, 66-70.
14. Tursunova Saida Isakovna. (2022). The development of oral speech of younger schoolchildren in extracurricular activities. Eurasian Research Bulletin, 14, 280-286.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARSLARNI INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

*Termiz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim nazariyasi kafedrasi mudiri
Dots BERDIYEVA MUHABBAT MEYLIYEVNA*

Annotatsiya: Boshlang'ich sinflarda darslarni tashkil etishda umumiy o'rta ta'lim maktablarida bir necha usullardan foydalaniladi. Ammo, ularning tuzilishi asosan darsdan ko'zlangan maqsadga bog'liq. Ushbu maqola

boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan qanday ish olib borish va dars jarayonida nimalarga e'tibor berish to'g'risida.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, ta'lim, o'quvchi, boshlang'ich ta'lim, maktab, jarayon, innovatsiya, metod.

Аннотация: при организации уроков в начальных классах в общеобразовательных школах используется несколько методов. Однако их структура во многом зависит от поставленной цели урока. Эта статья о том, как работать с учениками начальной школы и на что обращать внимание в процессе урока.

Ключевые слова: учитель, образование, ученик, начальное образование, школа, процесс, инновация, метод.

Pedagogik nuqtai nazaridan boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan hamkorlikda ishlash mazmunining takroriy umumlashtiruvchi dars tuzilishida, birinchidan, darsning tashkiliy qismi, ikkinchidan, darsning maqsad va vazifalarini belgilab olish, uchinchidan, o'quv materiallarini umumlashtirish va tizimlashtirish, to'rtinchidan esa dars yakuni va uyga vazifalarga ahamiyat berish zarur.

Boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishning murakkab jihati shundaki, unda o'quv materiallar aniq belgilab olinishi, asosiy g'oya, tushuncha, qoida, unga mos mashq topshiriqlarini ajratib olish lozim. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, darsda nutqning ega, kesim, ikkinchi darajali bo'laklari qaytariladi. Vaqtning chegaralanganligi sababli, ularning har biriga alohida to'xtalib bo'lmaydi. Shuning uchun ham tanlangan mashq va topshiriqlarda nutqning tarkibiy qismlari o'zaro aloqador shaklda bo'lishi kerak. Qaytarish jarayonida darsning tarbiyaviy jihatiga e'tibor kuchaytiriladi. Bunda o'quv materiallari ko'proq qiziqarli hodisa, voqea va dalillar bilan bog'liq bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda pedagogik hamkorlikning mazmunini tizimlashtirish va umumlashtirish darsining o'ziga xos hususiyatlaridan biri shundaki, o'qituvchining o'zi tushunib, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqaradi. Asosan har bir o'quv predmetining materiallari boblarga, qismlarga, bo'laklarga va alohida mavzularga bo'lib o'rganiladi. Umumlashtiruvchi darslarni esa tarkibiy qismlarga bo'lib, o'rganilgan materiallarni umumlashtirishga, ular o'rtasidagi aloqadorlik va yaxlitlikni anglab yetishga yordam beradi. Bundan ko'rinib turibdiki o'quvchilarda idrok, tasavvur, mantiqiy, dunyoqarashi kengayadi, murakkab topshiriqlarni bajara olish ko'nikmalari rivojlanadi. Boshlang'ich sinf darslarini to'g'ri tashkil etishda pedagogik maqsad va vazifalarni chuqur tushungan holda didaktik qoidalarga va darsning asosiy vazifalariga rioya qilib, har bir dars jarayonida ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni amalga oshirishga qaratish asosiy o'rinni egallaydi.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar

vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

Ulug' donishmandlardan biri «... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zahirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi. Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda **«Aqliy hujum»**, **«Fikrlar hujumi»**, **«Tarmoqlar» metodi**, **«Sinkveyn»**, **«BBB»**, **«Beshinchisi**

ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o‘yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so‘zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo‘llanmoqda.

Dars mashg‘ulotlarida o‘yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O‘yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o‘quvchilarining o‘yin-topshiriqlarni bajarishga o‘rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o‘rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog‘liq bo‘lishi kerak.

Ta’limda o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglash va shu fikrni og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o‘rgatish masalasiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o‘rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o‘rganiladi. Bugungi kun o‘qituvchidan ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg‘ulotlarida interfaol metodlarni qo‘llash orqali ta’lim-tarbiya berish yo‘llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz.

O‘ylaymizki, u o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o‘quvchilarni o‘z yo‘nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko‘nikmalarini shakllantirishdek mas’uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko‘makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o‘qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar beramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qayumova N.M. “Maktabgacha pedagogika” TDPU nashriyoti-T: 2017 y
2. F.Qodirova va boshqalar “Maktabgacha pedagogika” Toshkent 2019 y
3. M.Berdiyeva ITELLECTUAL DEVELOPMENT IN PRESCHOOL EDUCATION- Applied Science, 2020- elibeary.ru
4. M.Berdiyeva S.Bo‘ronova “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda nutq o‘stirish metodi orqali bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishning samarali usullari” Science and Education 2021 y:.
5. BM Meyliyevna “Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari” Научно-практическая конференция, 2021

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNI AJDODLARIMIZ ME'ROSI ASOSIDA KASBGA YO'NALTIRISHNING MAZMUN MOHIYATI

*To'raqulova Bashorat Najmiddin qizi
TerDPI 2-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarni ajdodlarimiz merosi asosida kasbga yo'naltirishning mazmun mohiyati haqida ochib berilgan. Darhaqiqat, yoshlarni mehnat jarayoniga, kasb-hunar egallashga yo'naltirish va ushbu faoliyatlarni o'zlashtirishni takomillashtirish yo'lida olib borilayotgan tadqiqotimiz uchun sharq xalqlarining boy ma'naviy merosi va qadriyatlariga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: ajdodlar me'rosi, kasbga yo'naltirish, kasb-hunar, san'at, madaniyat, zakovati, qobiliyat, salohiyat.

Xalq hunarmandchiligi moddiy va ma'naviy merosimiz bilan hamohang ravishda rivojlanishi ko'plab mutafakkir, donishmandlarning bitik va asarlarida yuksak mahorat bilan o'z ifodasini topgan va ushbu asrlar jarayonida madaniyat xazinalaridan o'z o'rnini egallagan. Turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalarda yaratilgan hadislar, pandnoma, rivoyat, hikoyat, doston, g'azal, ruboiy, masnaviy, ertak kabi xalq og'zaki ijodi namunalari orqali insonning ta'lim-tarbiyasi va kasb-hunar o'rganishining afzalligi, halol mehnat bilan yashashning zarurligi to'g'risida fikrlar bizgacha etib kelgan. Bunday yozma manbalarga zardushtiylarning ulug' asarlari hisoblangan, eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda yaratilgan "**Avesto**"da bolalar yoshligidan daraxt ko'chati o'tqazishi, uy ro'zg'or qurollari yasashi, erga ishlov berishi kabi mehnat mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari kerakligi haqida ko'plab satrlar keltirilgan: Masalan: "Avesto"da, ta'riflangan va targ'ib etilgan eng qutlug' kasb dehqonchilikdir. "Zero bu kasb sohiblari zardushtiylarni moddiy ne'matlar bilan ta'minlaydi. Bu esa hayot taraqqiyotining asosiy omilidir"

Shuningdek, ¹"Avesto" kitobida Sirdaryo va Amudaryo sohillarida xalqlarning kasb-kori, savdo sotig'i, qo'shni xalqlar munosabatlari bayon qilingan. Har bir hunar egasining jamiyatda tutgan o'rne alohida qayd etilgan. Dehqonlar va chorvadorlar jamiyatning moddiy ne'matlarini yaratuvchisi sifatida ta'riflangan.

²Buyuk muhaddis, Islom olamida yirik muhaddis alloma sifatida Imom abu **Abdulloh Muhammad Ibn Imom al-Buxoriy**, o'zining "Al-jome' as saxix" (Ishonarli to'plam) asarida kasb-hunar o'rganish, mehnat qilish va uning afzalligi to'g'risidagi hadislarini to'plab sharhlagan. Masalan: Kirpichi mazkur hadisning 14-bobida "Kishining kasbi va o'z qo'li bilan mehnat qilishi" haqidagi hadisida shunday deydi-"Mening o'z kasbim borligini qavmimiz yaxshi bilur, men garchi musulmon ishlari bilan band bo'lsam ham, shu kasbim orqali oilamni tebraturman"-deb yozadilar. "Tikuvchi haqida", "Savdo ishlari"

¹ Hoshimpov K. Pedagogika tarixi-Toshkent A, Navoiy 2015-y 35-b

² Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T. "Sharq" 1993.

haqida alohida e'tiborga molik boblar, hadislar keltirilgan. O'rta asr mutafakkirlari dunyoqarashida barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan pedagogik ta'sir qilish majmuasi omillarida ikki tarkibiy qismni, ta'lim va tarbiyani ajratish, bunda tarbiyani ta'limga nisbatan ustivorligi aksiomatik haqiqat darajasiga ko'tarilganigini ko'rsatish lozim.

Buyuk allomalarning kasbiy mehnat ta'limi va tarbiyasini yosh avlod ta'lim va tarbiyasini tarkibiy qismi sifatida qaralganliklarini, uni aqliy, jismoniy va ma'naviy tarbiya bilan birgalikda qo'shib olib borish lozimligi to'g'risida bildirgan fikrlari diqqatga sazovordir. Qomusiy olimlar ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda bolaning moyilligini, qobiliyatini hisobga olish zarurligining tub mohiyatini ko'rsatib beradi.

Qomusiy olim **Abu Rayhon Beruniy** kishilarning baxt saodati kamoloti uning halol mehnat qilishi kasb-hunar o'rganishi deb biladi. Beruniyning "Geodeziya", "Minerologiya", "Hisdiston", Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" nomli asarlarida o'zi yashab turgan davrdagi ishlab chiqarishning rivoji va kasb - hunarga oid qimmatli ma'lumotdar bergan.

"Barcha qimmatli narsalar inson mehnati bilan yaratiladi va insonning qadr qimmati, uning avlod ajdodi kim bo'lganligi bilan emas, balki uning halol mehnati bilan ulug'lanadi, buning uchun mehnat zarur, faqat aql idrok va mehnatning jonlanishigina kishilar hayotini belgilab beradi"- deydi.

Mutafakkirlarning quyidagi hikmatlari tahsinga loyiqdir: "Har bir insonning qadr-qimmati o'z ishini qoyil qilib bajarishida". "Bugunning chorasini ko'rib, ertaga ehtiyoji qolmagan kishi aqllidir", "Asalarilar ham o'z jinsidan bo'la turib, ishlaymay o'z uyasida asalni eb yotadiganlarini o'ldirib tashlaydi".

Abu Rayhon Beruniy insonni halol mehnat qilishi va kasb-hunar egallashi tufayli aql, zakovati, qobiliyati, qudrati oshib borishiga ishonadi. Bu bilan u mehnatsevarlik, o'z kasbini ardoqlashdek fazilatlarini nihoyatda qadrlaydi.

Abu Rayhon Beruniy yoshlarni ong kichik yoshdan boshlab qobiliyatiga qarab mehnat qilishga o'rgata borish, kattalar mehnatini e'zozlaydigan qilib tarbiya berish, bolani bilim va kasbga o'rgatish, oilaning diqqat markazida bo'lishini ijobiy baholaydi. Alloma oilada boshlangan mehnat tarbiyasini maktabda ta'lim, bilim va hunar o'rgatish bilan bog'liq holda davom ettirishni alohida ta'kidladi. O'sha davrda Zandona kishlog'ida bo'z to'quvchilar (bo'zchi kasbi), Buxoro yaqinidagi katta to'qimachilik korxonasi, Samarqandda qog'oz va oyna ishlab chiqaradigan ustaxona, Toshkentda hunarmandchilikning juda katta turdagi mavjudligi erkin mehnat va qimmatbaho mehnat qurollari borligini taqozo etadi. By yutuqlarga ta'lim - tarbiyasiz erishib bo'lmasligi ayon. Shu o'rinda Beruniy ilm-ahillari, olimlar, pedagoglarning mehnati jamiyat uchun naqadar kerakli va zarurligini alohida uqtirgan. Qomusiy olim mehnat va hunar vorislik asosida avloddan avlodga meros bo'lib o'tishini sinchiklab tekshirgan va hunarmandchilikni yuqori baholagan. U biron bir katta va mashaqqatli mehnat talab etadigan o'rta asr hunarmandchiligida toshlaroshlar qimmatbaho toshlardan bezak, uy ro'zg'or buyumlari, xotin-

qizlar uchun zebu-ziynatlar yasash, sayqal ishlari, tosh-taroshlik hunari: sangtaroshliklarni batafsil yozgan.

Abu Ali ibn Sino ham bolalarning kasb-hunarga qobiliyati va qiziqishini aniqlashning muhimligini alohida ta'kidlagan.

U shundan keyingina bolani o'zi tanlagan kasb-hunar sir asrorlariga orgatish mumkii deb hisoblagan: "Har bir odamni o'zining qiziqishi va layoqati, iste'dodiga qarab o'qitish kerak, aks holda ta'lim va tarbiya ko'zlangan natijani bermaydi".

Murabbiy bolaning ta'limga, biror bir hunar va san'atga bo'lgan intilishini aniqlashi lozim, chunki ularga ega bo'lgandan so'nggina u o'zida yashash vositalari bilan ta'minlay oladi.

Malumki, sharq xalqlarining ma'naviy merosi xilma - xil ajoyib afsonaviy va tarixiy dostonlarga, masal va rivoyatlarga boy bo'lib, mavzu jihatdan bir biriga chambarchas bog'liqdir. Ularning asarlari mazmunidan kelib chiqadigan fikrlar nafaqat yoshlarni kasb-hunar o'rgatishga, ro'zgor tebratishga, oilaga tayyorlash hamda ularning tarbiyasi, oila muammolari, balki davlat ahamiyatidagi qator axloqiy, ma'rifiy, ijtimoiy muammolarini ham hal etishda muhim rol o'ynaydi. Jumladan, donishmand mutafakkirlarimiz yoshlarni komil inson qilib tarbiyalang 14 fazilatini egallash muhimligini ta'kidlab o'ttanlar. Bularga:

- riyozat (nafsni tiyish, sukut, ortiqcha va bema'ni gaplarni gapirishdan saqlanish, intizom;
- maqsad, har bir ishdan ko'zlangan maqsad aniq bo'lishi, tejam iqtisod, ya'ni tejamkorlikka rioya qilish;
- sayr va shug'ullanish, vaqt va fursatni g'animat bilish matonat, haqqoniylik to'g'rilik va adolat mo'tadillik haddan ortiqchalikdan saqlanish, nazorat, kir va ifloslikdan hazar qilish qalb huzur rohat;
- iffat odobli, sharm hayoli, nomusli bo'lish;
- tavoze o'zini kamtar tutish.

Bunday sifatlar avvalo oilada tarkib topadi, Darhaqiqat, ulug' bobolarimiz ta'kidlaganidek oila bir muqaddas qo'rg'onidir, unda ulg'ayib o'sgan bolalar ota va ona o'rtasidagi muhabbatning jonli mahsulidir.

Olimning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o'rgatmoq shart deydi. Yosh yigit biror hunar o'rgansa, uni hayotga tadbiiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani taminlaydigan bo'lsagina, otasi uni uylantirib qo'ymog'i lozim, deb hisoblaydi.

O'spirin hunar egallashi bilan birga unda nafaqat axloqiy xislar balki xarakterining irodaviy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi.

O'spirinlarda hunar egallash orqali sabr bardoshlilik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy sifatlar shakllanadi.

Ibn Sino har bir odamning mijozidan kelib chiqqan holda unga alohida e'tibor berilishi kerakligini ta'kidlashi tufayli juda katta amaliy ish qilganligiga

guvoh bo'lishimiz mumkin. Uning fikricha, har bir inson faqat unga tegishli bo'lgan xususiyatlarigagina egadir, unga o'xshagan kimsalar kamdan-kam bo'ladi.

Allomaning falsafiy psixologik qarashlari hozirgi davrda ham ijtimoiy hayotimizda o'z ahamiyatiga ega bo'lib, shaxslararo munosabatlar etikasiga mumosib hissa bo'lib qo'shiladi. Olimning falsafa, mantiq, psixologiya, siyosiy-ijtimoiy fanlar bo'yicha yozganlari bashariyat uchun hamon dasturi amal bo'lib xizmat qilib kelmokda.

XI asrning buyuk mutafakkiri **Yusuf Xos Xojib** O'zining "Qutadg'u bilig" asarida inson va uning hayotiga oid qarashlarini tahlil qilgan. U odamning Olloh tomonidan yaratilganligini hamda odamning dunyoga kelishi, ajdodi va kelib chiqishiga nisbatan munosabatlariga bog'liqligini aytib "Kimning nasli otadan boshlab toza bo'lsa, undan elga yaxshilik, ko'p manfaatlar keladi" deb hisoblaydi.

XII-XVI asrlarda yashab ijod qilgan mutafakkir allomalardan Jaloliddin Rumiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Xorazmiy va boshqalarning asarlarida, qo'llanmalarida, falsafiy-psixologik mulohazalarida turli kasblarga oid turga teng bo'lgan fikrlarni aytadi.

XX asrning etuk ma'rifat parvarlari **Abdulla Avloniyning** 1913 yilda yozilgan "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida bola tarbiyasi, uning ijtimoiy ahamiyati falsafiy pedagogik jihatdan tushuntirib berilgan. Olim ta'lim-tarbiya jarayonida oila va jamoatchilikning o'rni, ularniig o'zaro hamkorligini ulug'laydi. Uning talqiniga qaraganda, barkamol shaxsning ko'p qirrali bilimlariga ega bo'lishi, yaxshi bir kasb-korning sirlarini egallashi, ko'p jihatdan ijtimoiy muhit bilan oilaviy sharoitning uyg'unligiga bog'liqligini ta'kidlaydi.

To hozirgacha saqlanib qolayotgan qator me'moriy inshootlar, buyuk memoriy obidalar, xalq amaliy san'ati asarlari (naqqoshlik, ganchkorlik, me'morchilik) arxeologik izlanishlar tufayli topilgan hunarmandchilik buyumlari-bularning barchasi buyuk ajdodlarimizning kasb-hunar o'rganishga, yuksak iste'dodli va qobiliyat sohibi bo'lishiga oid bebaho materiallar qoldirganligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T. "Sharq" 1993.
2. Rahimov S. Abu Ali Ibn Sino. Ta'lim va tarbiya haqida. – Toshkent, O'qituvchi, 1967. – 75 b.
3. A.Navoiy Maxbub ul-qulub. Asarlar. O'n besh tomlik. 13tom, - Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti,1966. – 192-193-b.
4. A.Avloniy. Odob bo'stoni va axloq gulistoni. – Toshkent, O'qituvchi, 1994, -10-b
5. Hoshimpov K.Pedagogika tarixi-Toshkent A,Navoiy 2015-y 35-b
6. Asqarova M.O."Pedagogika"T.: Talqin 2008-y 242-b
7. Djumaeva Mohigul Mamanazarovna. Specific historical geography of the factors of intellectual development in the east. Science and innovation

8. R.D.Norqobilova. Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini indikatorlar asosida diagnostika qilishning o'ziga xosligi. INTERNATIONAL CONFERENCES, 564-568. 2023

9. NR Davlatovna - Functions and Principles of Pedagogical Diagnostics. Web of Synergy: International Interdisciplinary 413-416, 2023/1/31

10. P Норқобилова -Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan iqtidorini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish. Общество и инновации. 36-41, 2023/1/25

11. Райхона Норқобилова. O'quvchilarning ona tili bo'yicha iqtidorini aniqlash va rivojlantirishning o'ziga xosligi Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. 379-384. 2022

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING EKOLOGIK TAYYORGARLIGI VA TA'LIMDAGI O'RNINI TAKOMILLASHTIRISH

*Mustarova Dildora Eshmamatovna
Termiz davlat pedagogika instituti
2-kurs magistranti*

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilari ekologik tayyorgarligi haqida va ahlimdagi o'rnini so'z boradi, boshlang'ich ta'limda atrof-muhitga ehtibor qaratgan holda. Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga aholining ekologik madaniyatini oshirish, atrof-muhitni ehzozlash va ekologik ta'limni rivojlantirish strategiyasi shakllantirish.

Kalit so'zlar: ekologik ta'lim, xulq-atvor, Ta'lim, Ta'limdagi o'rnini, amaldagi mazmuni.

Abstract: It is about the environmental readiness of primary school students and their place in society, focusing on the environment in primary education. Formation of a strategy for the development of environmental education, enjoyment of the environment and environmental education for primary school teachers.

Key words: environmental education, behavior, education, place in education, practical content.

Аннотация: Речь идет об экологической готовности учащихся начальных классов и их месте в обществе, уделяя особое внимание окружающей среде в начальном образовании. Формирование стратегии развития экологического образования, приобщения к окружающей среде и экологического воспитания учителей начальных классов.

Ключевые слова: экологическое образование, поведение, воспитание, место в воспитании, практическое содержание.

Jahonning bugungi ekologik holati zamonaviy ilm-fan doirasida o'quvchilarda ekologik xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish va bu sohadagi nazariy fundamental, nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirishni talab qilmoqda. Xususan, tabiat resurslaridan jamiyat ehtiyojlarini qondirish maqsadida ehtiyojlarning oshishi, tabiatga antropotexnogen bosimning kuchayishi, xalqaro ekologik-siyosiy munosabatlar keskinlashuvi sharoitida ayrim o'quvchilarimiz ongida tabiatga nisbatan nigilistik kayfiyat shakllanishini, bu borada mahnaviy barkamolikka undamoq, kelajakka ochiq ko'z bilan qaramoq XXI asrning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda atrof muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasida belgilangan "aholining ekologik madaniyatini oshirish, atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlari faoliyatining oshkoralik darajasini oshirish va fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish"³ muhim ahamiyatga ega.

Inson tabiatning bir qismi bo'lishi bilan bir qatorda, o'zining hayot faoliyatida yangidan-yangi usullar bilan tabiatga tahsir qilishni davom ettirmoqda. Bu esa ekotizim holatining o'zgarishiga, ayniqsa, tabiatdagi sifat va miqdor ko'rsatkichlari buzilishiga olib kelmoqda. Bunday faoliyat natijasida Yer sayyorasining holati: atmosfera havosi (iqlimi), tuproqlar, suvlar, o'simlik va hayvonot dunyosi o'zgarib, havo, suv va tuproqlarning ifloslanishi hamda ularni himoyalash zaruriyati vujudga keldi. Agar insoniyatning tabiatga salbiy tahsiri shunday davom etadigan bo'lsa, o'z navbatida, mahalliy, mintaqaviy va global darajada ekologik inqirozlar vujudga kelishi mumkin.

Hozirgi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish asrimizning eng muhim muammolaridan biri bo'lib turibdi. Bu muammo o'zining insoniyatga keltirishi mumkin bo'lgan yomon oqibatlari bo'yicha, yadro halokatidan kam emas. Eng muxim masala - aholining ekologik madaniyatini oshirish xaqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni fakat mahmuriy yul bilan hal etib bulmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mexr-muxabbat, unga dahldorlik xissini tarbiyalash orqali erishish mumkin.⁴

Mavjud ekologik ta'lim va tarbiya tizimi samaradorligining yuqori bo'lishiga salbiy tahsir etuvchi omillar sifatida quyidagilarni atab o'tish mumkin:

- o'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berishning amaldagi mazmuni va uslubiyatlari epizodik xususiyatga ega, ularning yaxlit, sistemali ekologik tafakkurini shakllantirishga imkon berolmaydi;

- ekologik ta'lim ko'proq og'zaki o'qitish usullari bilan amalga oshirilib, o'quvchilarda tabiatni muxofaza qilish bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish bilan cheklanmoqda xolos, aksincha o'quvchilarga hayotiy zarur ekologik malakalar va ko'nikmalar yetarli darajada berilmayapti.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-son farmoni Toshkent, 2019 yil 30 oktyabr.

⁴ Mirziyoev, Shavkat Miromonovnach Milliy taraqqiyot yulimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 570 bet

Jaxonda olimlar bundan bir necha o'n yillar ilgari jamoatchilikni o'gohlantirib o'tgan ekologik muammolar yaqqol yuzaga chiqa boshladi. Boshqa olamshumul muammolar orasida hozirda ekologik muammolar oldingi o'rinlardan birinchi egallanganligi hech kimga sir emas. Shunday ekan, olamshumul ekologik muammolarning yaqin va uzoq kelajakda qay tariqada hal etilishi hozirda maktab ostonasiga qadam qo'ygan va unda saboq olayotgan o'quvchi-yoshlarda ekologik madaniyat qay yo'sinda tarbiyalanganligiga bevosita bog'liq.

O'quvchi-yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish axyon-axyonda tarbiyaviy tadbirlar orqali amalga oshiriladigan tarbiyaviy ish emas. Tadqiqotlar va pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, ekologik tarbiya o'quvchi-yoshlarda ekologik bilimlar, tabiat olamiga qimmatli munosabat, tabiat bilan oqilona ijobiy xissa munosabatlarda va uning hozirgi va kelajakdagi holatini yaxshilash bo'yicha amaliy ishlar bajarishga extiyojni tarkib toptiruvchi aniq maqsadga qaratilgan, sistematik (izchil) tarbiyaviy faoliyatdir. Demak, ekologik tarbiya maqsadli, rejali, batartib, muntazam, ijodiy, amaliy, xissiyotlar uyg'otuvchi pedagogik faoliyat bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik tayyorgarligi va ta'limdagi o'rnini takomillashtirishning ilg'or va samarali shakllari, metodlari va vositalari, mazmunini yaratish va qo'llash borasida maqtovg'a arzigulik ishlarni amalga oshirdilar. Ammo, o'quvchilar ekologik tarbiyasining hozirgi holati unga tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish nuqtai-nazaridan yangicha yondashishni taqazo etadi. Negaki, ekologik tarbiyaning anhanaviy uslubiyatlari ta'lim va tarbiya soxasidagi jamiyatdagi tub o'zgarishlarga mos yangilanishlar talablari va imkoniyatlari doirasida ortda qolyapti.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik tayyorgarligi va ta'limdagi o'rnini takomillashtirish texnologik yondashish zaruriyatini Ta'limdagi va tarbiyadagi innovatsion jarayonlarning "mevasi" deb qarash, bizningcha asossiz bo'lur edi. Negaki, anhanaviy ekologik tarbiya metodikalari aloxida o'quvchilarning va sinf raxbarlarining "pedagogik san'ati yoki maxorati" darajasi bilan cheklanib, psixologik va pedagogik qonuniyatlar talablariga har qachon ham javob bermas, qathiy belgilangan maqsadlar sari intilishga har doim ham imkon berolmas edi. Agarda ekologik tarbiya texnologiyasini metodika bilan taqqoslasak, xuddi hozirgi zamon agrosanoat texnologiyalari negizida ish yurituvchi fermer bilan faqat o'z hunarini yaxshi biladigan dehqonning ish yuritishini o'zaro qiyoslashga o'xshatishimiz mumkin.

Anhanaviy ekologik tarbiya metodikalari tarbiyaviy ish maqsadi, mazmuni, uni tashkil etishning shakllari, metodlari va vositalarini tarbiyaviy ishda muvaffaqiyatga erishishini kafolatlovchi qathiy tartibda joy-joyiga qo'yishga imkon berolmaydi. Ular epizodik tarzda o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlar yig'indisidan iboratdir. O'quvchilar atrof-muxit bilan real munosabatda (muntazam) bo'lolmaydilar. Tarbiy kompleks ravishda amalga oshirilmaydi. (Masalan: yoki ekologik tarbiyaga haddan ziyod ko'p urg'u

beriladi va aksincha, u tarbiyaning boshqa yo'llari bilan yetarlicha bog'lanmaydi).

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik tayyorgarligi va ta'limdagi o'rnini takomillashtirishga texnologik yondashish bu yo'nalishda olib borilishi kerak bo'lgan tarbiyaviy ishda quyidagicha uch darajada "qanday qilib?" degan savolga javob beradi:

- tajribali tarbiyachilarning yoshlarga nasixati darajasida;
- tarbiyaning muvaffaqiyatini shartli ravishda tahminlovchi printsiplar darajasida ("ekologik tarbiyaning oltin qoidalari");
- ekologik tarbiya berishning tipik holatlarini yechishning algoritmlari va tarbiyaviy ishning umumiy shakllarini loyixalashtirish darajasida.

Bizningcha, ekologik tarbiya darsda va sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning ekologik madaniyatini tarkib toptirishni tahminlovchi bolalar faoliyatining har xil turlari va ularning o'zaro va kattalar bilan muommalasidan iborat bo'lmog'i kerak.

Ekologik tarbiya texnologiyalari o'quvchilarda:

- atrofdagi tabiiy muxitning holatiga javobgarlikni tarbiyalashi;
- ekologik ehtiqodni tarkib toptirishi;
- tabiatni muxofaza qilish bo'yicha aktiv amaliy faoliyatini shakllantirishi va rag'batlantirishi zarur.

Ekologik tarbiya texnologiyalari ekologik tarbiya berishning formalari, metodlari, usullari va vositalarini maxsus holda tanlab olish va joy-joyiga qo'yishni aniqlovchi psixologik va pedagogik talab va qoidalarining majmuidan iborat.

Ekologik tarbiya texnologiyalari atrof tabiiy muxitini o'rganish va uni muxofaza qilishga oid tarbiyaviy materiallarni "kodlashtirish" asosida tayyorlanadi. Har qaysi material, tarbiya metodi, usuli, vositasi, shaklining pedagogik jarayonda egallagan o'z o'rnini bo'ladi. Texnologik jarayonlar amalga oshganda barcha o'quvchilar birday tarbiyalanmaydilar, ularning tarbiyalanganlik darajalarida farq bo'ladi. Ammo, ekologik tarbiya texnologiyasini o'zgarmas, bir qolipdagi, doimiy jarayon deb hisoblash noto'g'ri. Ekologik tarbiya texnologiyasi tashkiliy-mantiqiy qo'rilma bo'lib, har xil yondashishlar va munosabatlarda pedagog va bolalarning o'zaro tahsirini aniqlab beruvchi "faoliyatning o'zagi" rolini bajaradi.

Ekologik madaniyatning asosiy ko'rsatkichi va ayni paytda shart, amaliy, faoliyat. Ekologik tarbiya texnologiyalari amaliy faoliyatni uyushtiradi. Texnologiyalar qo'llanilganligida bolalarning atrof tabiiy muxitgina emas, tabiat orqali bolalarga tarbiyaviy tahsir etish imkoniyatlari kuchayadi.

Ekologik tarbiya texnologiyalari o'yin, o'qish va mehnat faoliyatini chambarchas bog'laydi. Tarbiyaning barcha yo'nalishlari, shaxs madaniyatining hamma tomonlarini (dunyoqarash, axloqiy va aqliy tarbiya, nafosat tarbiyasi, siyosiy va vatanparvarlik, fuqarolik tarbiyasi) uyg'un amalga oshirishi imkon beradi.

Xullas, o'quvchilarining ekologik tayyorgarligi va ta'limdagi o'rnini takomillashtirish texnologik yondashish o'qituvchilarning bu yo'nalishdagi tajribasini to'la-to'kis tashkiliy, boshqariladigan va ijobiy natijasini oldindan aytish mumkin bo'lgan jarayonga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 36 b.

2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, “Xalq so'zi”, 2020 yil 24 sentyabr, 202 (7704)-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5863-son farmoni Toshkent, 2019 yil 30 oktyabrg'.

4. Kuchkinov A.Yu. Technology of u'bringing school 'u'ils to 'reserve and res'ect nature // ACADEMICIA: An International Multidisci'inary Research Journal. – Vol. 10, Issue 11, November 2020 (IF: SJIF 2020 = 7.13).

5. Kuchkinov A.Yu. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiatni e'zozlash ruhida tarbiyalash. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma – T.: «Fan va texnologiya», 2012, 88 bet

6. Niyozova Safiya “Providing interdisciplinary integration in “education” lessons in primary grades”. Society and innovations Journal. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 10 (2022) / ISSN 2181-1415

7. Niyozova Safiya. . “МУСТАҲКАМИИ ТАЪЛИМИ ИБТИДОӢ НАТИҶАИ ПЕШРАВИИ ДАВЛАТУ МИЛЛАТ”. YANGI O'ZBEKISTON PEDAGOGLARI AXBOROTNOMASI , <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/12651>

8. Niyozova Safiya(2023) “АФКОРИ ТАЪЛИМИ ВА ТАРБИЯВӢ ДАР АСАРҲОИ САЪДИ ШЕРОЗӢ ВА АҲАМИЯТИ ОН ДАР ҶОМЕАИ ИМРӢЗАИ МО”. Yangi O'zbekiston pedagoglari axborotnomasi, 842-847.

9. Niyozova Safiya “IMPROVING THE PROCESS OF PROVIDING INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN "EDUCATION" LESSONS IN PRIMARY GRADES”.“ In Volume 3, Issue 10 of Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) Oct., 2022.

O'QUVCHILARNING MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA O'QISH DARSLARINING AHAMIYATI

*Raxmonova Feruza Abdumalikovna
TerDPI instituti magistranti*

*Muxtarova Lobar Abdimannabovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga e'tibor qaratiladi. O'qishning faoliyat sifatidagi mohiyati ochib beriladi. Inson hayotida kitobning qadri beqiyos.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'quvchisi, umumiy o'rta maktab, o'qituvchi, o'qish, tushunish, matn, madaniyat, shakllantirish, mustaqil fikrlash.

Jamiyat, millatning rivojlanishi, taraqqiy etish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bilimli, ma'naviyatli va ma'rifatli yoshlarining jamiyat yuksalishida o'rni beqiyos. Bunday yoshlarni barkamol etib tarbiyalovchi asosiy omillardan biri-mutolaa qilish vositasi kitob hisoblangan. Bizni yerdan ko'kka ko'taradigan, barkamollik sari yetaklaydigan, insonlar qalbiga yorug'lik va iliqlik kiritadigan, oq bilan qora, yaxshilik bilan yomonlik, vayronkorlik bilan bunyodkorlikning farqini ongli ravishda anglatishga yordam beradigan, insoniyat tomonidan yaratilgan eng noyob kashfiyot ham bu-kitobdir.

Kitob insonni ulug'laydi, Vatanni sevish, insonparvarlik, o'zi yashab turgan hayotga shukronalik hissi bilan qarash, boshqalarga mehr-muruvvatli va xushmuomala bo'lish, atrofdagi insonlarga yaxshilik ulashish kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalaydi. Kitob inson bilimining asosiy manbaidir. Bizni qiziqtirgan savolga javobni aynan kitoblardan topishimiz mumkin. Lekin bizga kerakli ma'lumotlarni ajratib olishni o'rganish, kitob bilan ishlash jarayonini o'zlashtirish juda muhim. Kitob bilan ishlashni o'rganish, eng avvalo, individual xususiyatlarni hisobga olgan holda o'quv materiallarini mustaqil o'rganishda yaxshi ko'nikma va malakalarni egallash demakdir. Boshlang'ich maktabda, ta'lim jarayonida kitob bilan ishlash murakkab aqliy faoliyat bo'lib, uning samaradorligi o'rganish va o'z-o'zini tarbiyalashning keyingi muvaffaqiyatini, shuningdek, boshqa fanlarda aqliy qobiliyatning rivojlanish darajasini belgilaydi. Adabiy o'qish nafaqat bolaning individual aqliy jarayonlariga - xotira, fikrlash, tasavvur, his-tuyg'ularga, balki umuman uning shaxsiyatiga ham ta'sir qiladi. Kitobning inson hayotidagi ahamiyati beqiyos bo'lib, u inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, har qanday vaziyatda ham hamroh bo'lguvchi sodiq do'stdir. Shu jihatlarni hisobga olgan holda, bugungi kunda yoshlar va aholi o'rtasida kitobga bo'lgan qiziqish va kitobxonlik darajasini oshirish hamda kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqd.

Buyuk bobokalonlarimiz ham bola tarbiyasida kitobning o'rni henihoya katta ekanligini, uni tafakkurning tolmas qanoti sifatida inson ma'naviy olamini boyitishi, yuksak ijodiy va yaratuvchalik vositasi sifatida nihoyatda qadrlash hamda undan samarali foydalanish zarurligini ta'kidlan o'tganlar. Mutaxassislar bola hayotining ilk yosh davrini "mo'jizalar davri" deya nomlaganlar. Bu davrda bolalarga kitob o'qishga tayyorlanadi. Bunda avval nutq malakalarini, eshitish va so'zlashishni mukammal o'rganib olishlari lozim.

Bolalarni kitobga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish jarayonini biz albatta oiladan boshlasak juda ijobiy natija berishi va undan keyin maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oila bilan hamkorlikda davom ettirsak

kutilgan natijaning yanada samarali bo'lishi mumkin. Oilada tarbiyaning barcha mezonlari shakllantirilganidek, kitobxonlik madaniyati ham sh maskandan boshlansa yaxshi samara beradi. Chunki, "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan behudaga aytilmagan.

Muqaddas maskanda ota-ona bolalarni kitobga bo'lgan qiziqishlarini orttirishda o'zlari namuna bo'lishlari va o'zlari kitob mutoola qilishlari yaxshi samara beradi. Oilada ota-ona kitobga mehr qo'ygan bo'lsa bunday oilada tarbiyalanayotgan farzand ham kitobga oshno bo'ladi, bunday bolalarning dunyoqarashi, fikrlash doirasi keng bo'ladi, xushmuomala, mehribon, boshqalarga iloji boricha yaxshilik qilishga urinadigan, har bir aytayotgan so'zi, qilayotgan ishini o'ylab bajaradigan, bir so'z bilan aytganda, o'zida barkamol shaxs xislatlarini namoyon qilishga harakat qiladigan ziyoli farzand bo'lib voyaga yetadi. Oila muhitida kitobxonlikning tizimli ravishda olib borilishi kutilayotgan natijaning samarasini yanada oshiradi.

Bolalarga yoshlikdan o'zbek xalq ertaklaridan so'zlab berish bolalarda mehnatsevarlik, samimiylik, mehmondo'stlik kabi insoniy fazilatlarini hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat va ehtirom kabi tushunchalarni tarbiyalaydi. Bundan tashqari, buyuk allomalarimiz Alisher Navoiy, Forobiy, Abdulla Avloniy, Niyoziy, Yusuf Xos Xojib, Jaloliddin Rumiy kabi mutafakkirlarimiz bilan tanishtiramiz va ularning tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan fikrlar esa bola tarbiyasida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kitobxonlikni zaruratga aylantirish kerak. Agar farzandlarimizda kitob o'qishga havas bo'lmasa, uning kitob o'qishga bo'lgan e'tiborini o'zgartirish mushkul bo'lib qoladi. Ularni o'qishga majburlash emas, balki kitob o'qishga havas uyg'otish lozim. Bu borada ota-ona, ustozu murabbiylar va kutubxona xodimlari bevosita yordam berishlari lozim bo'ladi. Bunda bolalarning yosh xususiyati, qiziqishi hisobga olinishi kerak.

Italiya yozuvchisi Seneka: «Kitoblarning soni emas, ularning yaxshisi foyda keltiradi», - deb aytgan edi. O'quvchilarni mustaqil o'qishga qiziqtirish uchun «She'riyat gulshani», «Kitob – mening do'stimsan», «Kitob mo'jizaga chorlaydi», «G'olib kitobxon», «Sinfning eng yaxshi kitobxon» kabi tanlovlarni va har xil mavzularda bahs-munozaralarni tez-tez o'tkazib turish tavsiya etiladi.

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish chora-tadbirlar dasturi loyihasi to'rtinchi tashabbus maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan. Unga ko'ra, har bir hududga 1 million donadan badiiy, tarixiy, ilmiy, ommabop mavzulardagi kitoblar yetkazib berish ko'zda tutilgan. Shuningdek, axborot-kutubxona markazlarini rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, tadbirkorlar tomonidan xalq kutubxonalari ochish ham belgilangan.

Sh.M.Mirziyoyev o'z mulohazalarida insoniyatning jaholatga qarshi birinchi muqovalangan isyoni kitob ekanligi, riyo-yu razolat, tubanlik, pastlikka qarshi odam bolalari bino etgan ilk istehkom ham kitob sanalishini aytib o'tib, "Bugungi bolalar ertangi kun xalqqa aylanadi, shuning uchun

yoshlarni kitobga qaytarishimiz kerak". Bugun axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga, ularning kitob bilan do'st bo'lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Shaxs shakllanishida kitob va kitobxonlikning ahamiyati, kitobning shaxs dunyoqarashiga ongining shakllanishiga ta'siri haqida va bugungi kunda kitobxonlikni rivojlantirish bo'yicha mamalakatimizda olib borilayotgan siyosat va amalga oshirilayotgan ishlar tahsinga loyiq ekanligini aytib o'tish kerak. Kitobni shunchaki vaqt o'tkazish uchun emas, balki har bir kitobda ilgari surilgan mazmun va g'oyani anglab yetish va uni mag'zini chaqish kerakligini, shundagina haqiqiy kitobxonga aylanish mumkinligini aytdi.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan 2017-yil 13- sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorga muvofiq, uning ijrosini taminlash borasida bir qator tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Tadbirda "Oilada kitobning o'rni", "Meni ulg'aytirgan asar", "Kitob insonni qanday yashashga o'rgatadi", "Kitob o'qishni endi o'rgandim ", "Kitob haqida yana nimalarni bilamiz?", "Kitob insonga ham do'st, ham hamrohdur", "Kutubxonachining ibratli ishlari yoki fidoiyligi" mavzularida ma'ruzalar joriy etilmoqda.

Ayni damda o'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish va turli yot g'oyalardan himoya qilish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Yoshlarni ma'naviy, har tomonlama yetuk va intellektual jihatdan tarbiyalash uchun o'qishni ommalashtirish, kitobga muhabbatni kuchaytirish zarur. Ijtimoiy, ma'naviy va ma'rifiy ishlarni yangi tizim asosida tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbusning to'rtinchi bandi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish, kitob o'qishni keng targ'ib qilishga qaratilgan bo'lib, mazkur hujjatda davlatimiz rahbari yoshlarda kitobga bo'lgan muhabbatini bolalikdan uyg'otish, mustaqil fikrlash va keng dunyoqarashni shakllantirish zarurligini ta'kidladi, bu uning fikriga ko'ra ularning hayot tarzida mustahkam poydevor bo'ladi. Chunki kitobxonlik bugungi kunda olib borilayotgan yoshlar siyosatining asosiy bir omillaridan bo'lib, u yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli va samarali o'tkazishga, jumladan ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ruhiy, vatanparvarlik va mehnatsevarlik tuyg'ularini rivojlantirishga, va eng asosiysi kelajakda to'g'ri yo'lni tanlashga va ular o'rtasida huquqbuzarliklarni qisqartirishga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Tangirova, M., & Mukhtarova, L. (2023). Ways of reading literacy development in primary school pupils. *European Scholar Journal*, 4(2), 88-89.
2. Muxtarova, L. A. (2017). Boshlang'ich sinflarda rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari. *Aprobatsiya*, (2), 93-94.

3. Muxtarova, L. A. (2017). Boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni. Nauchnyy poisk v sovremennom mire (pp. 119-120).

4. Zaynab Abdunazarova. (2022). WAYS AND METHODS OF USING ROLE-PLAYING GAMES IN MOTHER TONGUE CLASSES FOR THE SOCIALIZATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(12), 85-90.

5. Abdunazarova, Zaynab Almurod Kizi (2021). IMPORTANCE OF THE PEDAGOGICAL AND P ANGUAGE LESSONS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (11), 760-766.

6. Shabbazova, D., Abduhalimova, Y., & Abdunazarova, Z. (2022). Psychological And Pedagogical Factors Of Developing Literacy Of Primary Class Students Based On Personal Value Approach. Journal of Positive School Psychology, 6(9), 3707-3712.

EFFECTS OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS

Khurramova is the daughter of Gulnoza Sharofiddin

Termiz State Pedagogical Institute

Theory and methodology of education (primary education)

2nd stage graduate student

Annotation: The article describes the effective aspects of using modern, innovative methods in the course of the lesson, and the important and different aspects of the integrated state and innovative methods in this process. Also, the article recommends "What happened before?", "Builder", "Red and black sticks" methods.

Keywords: Primary class, innovation, method, modern, innovative methods, innovative activity, innovative environment, pedagogical activity, innovation.

Аннотция: В статье описаны эффективные аспекты использования современных, инновационных методов на уроках в начальной школе, а также состояние интеграции в тот процесс, важные и разные аспекты инновационных методов. В статье также рекомендуются «Что было раньше?», «Строитель», «Красные и черные палочки».

Key words: primary school, innovation, method, modern, innovative methods, innovative activity, innovative environment, pedagogical activity, innovation.

Problems that are recognized as one of the global problems in the world and the solution of which is important for today: fundamental reform of the education system, improvement, analysis of the education system, study of its tasks, goals and development of necessary recommendations The main task of

all educational institutions today is to pay special attention to its quality in the organization of education, to solve such issues as systematic organization of education, management and ensuring the continuity of the educational process. In today's conditions, for the sustainable development of our country, we need to increase the effectiveness of reforms in the process of modernization in all areas, which requires a systematic approach, create favorable conditions for the rapid development of society and the state, and set priorities for the modernization of our country and liberalization of all sectors. in the implementation of " Own Decree No. PF-5538 of the President of the Republic of Uzbekistan dated September 5, 2018 "On additional measures to improve the management system of public education": To achieve this, the Republic of Uzbekistan to enter the ranks of the first 30 advanced countries of the world according to the rating of PISA (The Program for International Student Assessment) by 2030" [1]. implementation is envisaged.

The role and importance of primary education in the development of innovative education, innovative methods and the process of integrated education is extremely important. The center of education is undoubtedly the teacher and the student. The teacher is an important, central issue for innovative activity. In innovative activity, its own pedagogical innovations: the creation and application of modern forms, methods and methods of teaching ensure the achievement of quality and efficiency in the organization of the educational process. Modern, innovative methods form the students' independent thinking process, increase students' passion and interest in knowledge, develop skills and abilities to master knowledge, and apply the acquired knowledge in practice. Important requirements for a primary school teacher in the organization of the primary education process : the teacher's skills, the ability to skillfully apply innovative technologies to the educational process, use new methods and methods in the educational process It is important to know, to be able to creatively use pedagogical experiences. Therefore, introducing pedagogical innovations into the educational process, using pedagogical technologies in education, using various innovative methods and methods, and being active in order to increase the effectiveness of education has become the need of today. Innovation (English innovation) is innovation. AI Prigozhin understands the purposeful changes that introduce a new, relatively stable element to a certain social unit - organization, population, community, group" [2; 51-b].

Innovative processes in pedagogy acceleration only social order and control inspections and innovation in experience because done increase will receive tools existence with depends without being pedagogic association consciousness within important it also depends on the changes ..[6; 33-p].

Small school age of students interest and abilities adaptation their artistic activity development requirement Knowledge get , artistic-life is it a problem solution to do to himself characteristic , perseverance , dexterity encourage mean is holding This attitude with baby poem and stories write, new dance

thinking find , sweet food cooking or any instrument create, from plants forms Create such as of independent creativity different the way with encouraging to go requirement will be done .[6; 21-p].

As we know, "Question-Answer", "Test", "Brainstorming", "Crossword", "Cluster", "Maruza", "Nilufar Guli", "Fish" methods are currently used to organize the educational process. However, in a democratic society, news is very important for development. "Innovation is the practical use of technical, technological inventions and achievements. It means innovation in education as a pedagogical category. Innovation is often characterized by the introduction and application of new methods, methods, tools, new concepts, new educational programs, educational methods, etc." [3; 14-b] . Having studied the processes in the educational system, using scientific literature, we recommend in the article several more innovative methods and games that serve to ensure the effectiveness and quality of the teaching process.

"What happened before?" According to the condition of this game, children have to say what happened before what was said by the teacher. For example:chick (egg), horse (mare), butterfly - (worm), etc. It is also possible to use words that have more than one meaning. For example: bread - flour - wheat, house - brick - clay, table - wood - tree - seed, shirt - cloth, thread - cotton - seed" [4; 14-b] .

The game "Builder" can be played by dividing students into groups and during the reinforcement of a new topic or a new topic in the lesson or during extracurricular time. The teacher has to prepare for the lesson in advance, makes "bricks" from paper or pieces of foam plastic, and sticks papers with questions on these "bricks". The number of "bricks" must be equal to or more than the number of students, and groups are allocated space to build a "tower" or "wall". One child from each group comes out and takes a "brick" and reads the question. If the children find the correct answer to the question, they pick a "brick" in their "field". If they answer incorrectly, the teacher will take away the "brick". The game continues in this pattern until all students take one "brick". The group of students who picked the most bricks on the "Construction site" is the winner" [4; 15-b] .

In the "What's Missing" in game, cards with the speed of several or individual items are placed on the table. Pupils will remember things by looking carefully at the table. After that, the teacher takes away one of them without informing the students. Students must find what is missing from the table. This game can be used in class and extracurricular activities. This game is especially useful in the process of learning letters during the alphabet period" [4; 16-b] .

The " Red and Black Sticks" method is mainly used in mother tongue and reading literacy classes. When summarizing the narrated text, the number of positive or negative opinions is determined based on the conclusions of the students from the story, the positive opinions are marked with red sticks, and

the negative opinions with black sticks. and teaching to distinguish evil from one another.

Small school to his student thought scope wide has been communication of art initial literacy in possession help to give important This is literacy in itself people with from communication from , (peers , older ages , small ages) in the environment events with communication cover took _ [6 ; 19-p].

In conclusion, the role of all disciplines is important in the implementation of work on the development of integrated education in improving the quality and efficiency of education, seeing the growing young generation and skilled pedagogues as well-rounded people in all respects, It is aimed to provide them with additional knowledge, taking into account their interests and create conditions for their development using advanced pedagogical technologies.

REFERENCES:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, 29.04.2019
2. NNAzizkhojayeva Pedagogical technologies and pedagogical skill. Study guide - T.: O Publishing house of the Literary Foundation of Uzbekistan Writers' Association. 2006.-160 p.
3. HT Omonov, NX Khojayev, SA Madyarova, EU Eshchanov Pedagogical technologies and pedagogical skills T.: "Economics-finance" 2009.-240 b
4. NRKarimova. Primary education pedagogy, innovation and integration-2020.-114 p.
5. RA Mavlonova , NH Rahmonkulova integrated methodology of primary education . (guide book) -T.: " ILM ZIYO " 2009.-194
6. <http://www.ziyonet.uz>
7. Хазраткулова Ш.Н. «Совершенствование методов воспитания на занятиях в начальных классах». Международной научно-практической конференции. АЭТЕРНА. УФА. 1 августа 2022 г.
8. Khazratkulova Shoira Noraliyevna. Use of modern teaching methods in education of Students in primary schools. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal. Indiya. 2022 yil fevral. (123-126-b.)
9. Xazratkulova Sh.N. "Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasb madaniyati va mutaxassis modeli" NamDU ilmiy axborotnomasi - 2022-yil 10-son. www.journal.namdu.uz
10. Xazratkulova Sh., Abdiraxmonov Sh. "KAYKOVUSNING "QOBUSNOMA" ASARNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI" International Multidisciplinary Conference Hosted from Manchester, England 25th April 2023. <https://conferencea.org>
11. Sh.N.Khazratkulova "EDUCATION DIRECTED TO STUDENTS IN TEACHING THE SCIENCE OF EDUCATION IN PRIMARY GRADES DISTINCTIVE ASPECTS" International Scientific Research Journal (WoS) April 2023. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/3767>

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Abdilhamidova Mohlaroyim Bektosh qizi
Termiz davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning zamonaviy usullari va afzalliklari haqida

Kalit so'zlar: axborot, texnologiya, pedagogika, ta'lim, islohot, tarbiya, fan.

Dunyo miqyosida shiddat bilan rivojlanayotgan axborot ko'lami, ularni o'zlashtirish va qayta ishlashga imkon beruvchi yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni yaratish, amaliyotga joriy etish ta'lim bosqichlarining barcha bo'ginlaridagi jarayonlarni kompyuterlashtirish yo'lida uchraydigan muammolarni bartaraf qilishga qaratilgan ilmiy-metodik ishlar, turli umumta'lim fanlaridan elektron darslik va pedagogik dastur vositalariga zaruriyat kundan-kunga oshib bormoqda.

Boshlang'ich sinf o'quv jarayonida ko'zda tutilgan maqsadlarga erishishning asosiy shartlari: zamonaviy ta'lim usullaridan bo'lgan ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish, eng so'nggi ta'lim vositalarini qo'llash hamda ushbu jarayon samaradorligini oshirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yuqori metodik kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishlarini ta'minlashdan iborat.

Bugungi kunda ta'limda boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitilishining tashkil etilishi va mazmuniy puxtaligi jihatdan mukammal holga keltirish, bu sohani yanada rivojlantirish uchun yangicha fikrlaydigan, o'qitishning zamonaviy metod va shakllari, usullaridan o'rinli va samarali foydalana oladigan yuqori malakali pedagog kadrlar judayam zarur.

Shu bilan bir qatorda Sh.M.Mirziyoevning «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmonida ta'lim va fan sohasini rivojlantirishning asosiy vazifalari qatorida ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini hamda yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish alohida e'tibor qaratilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash ta'lim metodlarining samaradorligini oshirishga, o'qituvchilar mehnat faoliyatining o'zgarishiga, ularning pedagogik mahoratlarini takomillashtirishga, pedagogik tizimlarning tarkibiy o'zgarishiga samarali ta'sir etadi. Bu esa pedagogik jarayonlarni axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishda o'ziga xos

vazifalarni qo'yadi. Pedagogik ta'lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish: masofaviy o'quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoa o'qituvchilar, kompyuter dasturchilari, tegishli mutaxassislarning birgalikda faoliyat olib borishini; - o'qituvchilar o'rtasida vazifalarning bir maromda to'g'ri taqsimlanishini; - ta'lim va tarbiya jarayonini yanada mukammal tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirish: monitoringini tashkil etish imkoniyatini yaratadi. [1]

Shunday ekan, o'qituvchining pedagogik faoliyatida va ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan va metodlaridan foydalangan holda o'quv jarayoni tashkil qilish bugungi kunning muhim talablaridan biriga aylandi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari asosida darslarni samarali va mazmunli tashkil etish o'qituvchilar uchun qulay va foydali vositalardan biriga aylandi. Dars jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchining pedagogik va kasbiy mahoratini oshirishda yuqori natijalarni ko'rsatmoqda.

Boshlang'ich ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida darslarni tashkil etish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik va kasbiy mahoratini oshirishda quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

1. o'qitish uslubini yanada ko'proq kengaytirish imkonini beradi;
 - dars jarayonini qulay va samarali usullar vositasida tashkillashtirish imkonini beradi;
 - video darslar, interaktiv mashqlar, online testlar va boshqa ko'plab qulay tadbirlar darslarni yanada qiziqarli qiladi va o'quvchilar uchun o'zlashtirilgan ta'lim muhiti yaratishga imkon beradi.

Dars jarayonini qiziqarli tashkil etish, unda foydalaniladigan interfaol metod hamda pedagogik texnologiyalarning samarasi o'quvchilarning dars jarayonida fikr bildirish qobiliyatining rivojlanganligi, o'qitish texnologiyasining mos ravishda tanlanganligi hamda o'quv xonasining qay darajada jihozlanganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib o'qituvchi ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalarini dars jarayonida qo'llashga intilmoqdaki, undagi kasbiga bo'lgan munosabat kundan-kunga ijobiylashib bormoqda. Bunga sabab, o'qituvchi an'anaviy ta'limdan voz kechib, ta'lim jarayoni sifat va samaradorligiga erishishda mas'uliyat yukini o'quvchilar bilan hamkorlikda teng tortishga undamoqda. Bu jarayonda u faqat dars beruvchi-o'qituvchi emas, aksincha, o'quvchida komil inson shaxsining shakllanishi, rivojlanishida muhim pozitsiyani egallab turgan ta'lim boshqaruvchisi bo'lib qoladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda interaktiv metodlarni dars jarayonida to'g'ri va o'rinli qo'llashning afzalliklari quyidagilarda ko'rinadi:

- o'qituvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda faoliyat olib boradi;

- ta'lim oluvchilarning darsga befarqligi kamayadi, ular o'zlarining mustaqil fikrlash nuqtasini topadi, tahlil qilishga qurbi yetadi, xulosa chiqarishga o'rganadi, o'z fikrini bayon qilishda erkin va mustaqil pozitsiyani belgilab oladi, uning barqarorligi ustida qayg'uradi hamda himoya qilish uchun yetarli asoslarni to'play oladi;

- o'z pozitsiyasini himoya qila olgan ta'lim oluvchilarining fanlarga bo'lgan qiziqishlari ularning liderlik pozitsiyasini egallashga turtki vazifasini o'taydi;

- o'zlashtirishi past bo'lgan ayrim o'quvchilarda ham shunday faol tengdoshlari bilan hamkorlikda ishlashlari uchun ixtiyoriy ishtiyoq paydo bo'ladi, bilim olish ko'rsatkichi o'sib boradi, bu esa ta'lim sifatining oshishiga ijobiy ta'sirini o'tkazadi.

AKTdan foydalanilganda ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish oson bo'lib qoladi. Dars jarayonida tayyor multimediyali mahsulotlari va kompyuter ta'limi dasturlaridan, o'quv va sinfdan tashqari ishlarda internet tarmog'i vositalaridan foydalanib, ta'lim dasturlari va taqdimotlar, loyihalar yaratish kerak. Axborot texnologiyalarini barcha o'quv fanlarda qo'llash mumkin. Darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanishga bog'liq. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmali-mashq, nazorat-mashqlari va test modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin. Dars jarayonida mavzular bo'yicha boy va turli-tuman materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanib borayotgan davrda o'qituvchi ham rivojlanib, o'sib borishi va darsni samaradorligi, sifatligi, qiziqarliligi va albatta dars yangi usullar bilan tushuntirib boriladi. Ta'lim jarayonini to'g'ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar zamonaviy kompyuter vositalarining o'rni beqiyos albatta. O'quv mashg'ulotlarida multimediya, slayd, animatsiya, grafika, qisqa film va boshqa metodlar darsni yanada qiziqarli bo'lishiga yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni aytish joizki, rivojlanib, yuksalib, ilgari borayotgan zamonda boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, o'quvchilarni yanada teran fikrlaydigan, hayotga o'z qarashlari bilan mustaqil fikrlashga ega bo'lgan buyuk insonlarni tarbiyalashimiz kerak. Pedagog, albatta, har tomonlama rivojlangan intellektga ega, zukko, dono, fidoiy, fan asoslarini chuqur egallagan, ma'rifatli va madaniyatli inson bo'lishi kerak albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev 2022-2026 yil taraqqiyot strategiyasi.
2. A.Xoliqov. Pedagogik mahorat. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi. Toshkent 2011. 258-sahifa.
3. Shaxina Nasrullayeva, Nasiba Ibragimberdiyeva "Boshlang'ich sinfdan axborot texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi" Science and education" jurnali 2022. 968-sahifa.

4. Muxtarova, L. A. (2021). Use of multimedia technologies in the educational process. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1781-1785.

5. Muxtarova, L. A. (2021). Ways of formation of ecological culture in children of primary age. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 648-652.

6. Abdimannabovna, M. L. (2021). Formation of the Ecological Culture of Schoolchildren in the Study of Natural Science. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 1(6), 73-76.

7. Мухтарова, Л. А. (2018). ПУТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ МУЛЬТИМЕДИА В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА И ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКОВ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Научные горизонты*, (11-1), 247-252.

8. Мухтарова, Л. А. (2018). РАЗВИТИЕ И ФОРМИРОВАНИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ШКОЛЬНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Гуманитарный трактат*, (24), 13-14.

9. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH SINFLARDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. *Апробация*, (2), 93-94.

10. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. In *НАУЧНЫЙ ПОИСК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ* (pp. 119-120).

11. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERNET VA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. In *Современные проблемы и перспективы развития педагогики и психологии* (pp. 47-49).

12. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие творческого мышления у школьников начальных классов. *Гуманитарный трактат*, (24), 9-10.

Internet resurslari

4. Ziyo.net

5. Lex.uz

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISHGA DOIR TAJRIBA-SINOV ISHLARI MAZMUNI

*Abdirashidova Maftuna Ilhomovna,
Termiz davlat universiteti Pedagogika instituti magistri*

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, mustaqil fikrlash borliqini, voqyelikni idrok etish usuli sifatida tafakkur jarayonining mahsuli - oliy natijasidir.

Kalit so'zlar: kompetensiya, mustaqil fikrlash, ta'lim, interfaol usullar, amaldagi mazmuni.

Аннотация: В статье обучение младших школьников самостоятельному мышлению на основе компетентностного подхода, самостоятельного мышления как способа познания действительности, является продуктом процесса мышления - высшим результатом.

Ключевые слова: компетентность, самостоятельное мышление, обучение, интерактивные методы, практическое содержание.

Annotation: In the article, teaching elementary school students to think independently on the basis of a competency-based approach, independent thinking as a way of perceiving reality, is the product of the process of thinking - the highest result.

Keywords: competence, independent thinking, education, interactive methods, practical content.

Muammo yuzasidan olib borilgan izlanishlar o'quvchilarning o'quv jarayoniga munosabati o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro ta'sir jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, o'quv materiallarini tanlash va tashkil qilish, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish usullariga, o'quv natijalariga qo'yiladigan baho tizimiga bog'liqligini ko'rsatdi.

Ijodkorlik va o'zaro hamkorlik bir-biriga mustahkam bog'liq. Zero, faqatgina ijodkorlik asnosida hamkorlik vujudga keladi va mana shu hamkorlikda ijodkorlik o'z ifodasini topadi. Pedagogik ijodkorlikni faqatgina yangilikka, tajribalar o'tkazishga intilish deb tushunmaslik kerak. Bu intilish sog'lom fikrning rasmiyatchilik ustidan g'alabasini ham ifoda etadi. Demokratiya, oshkoralik bo'lmagan joyda, ma'muriyatchilik va o'qituvchining irodasi bilan dars jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatiga rahna solinsa ijodiy xamkorlik barham topadi. Boshlang'ich sinflarning ona tili darslarida o'quvchilarning ijodiy fikrlash faoliyatiga xizmat qiladigan topshiriqlar ustida ishlash alohida o'rin tutadi. O'quvchi o'zi uchun qulay sharoitda hayotiy va o'quv tajribasiga tayanib og'zaki yoki yozma nutqi orqali fikrlash faoliyatini amalga oshiradi. Unda ona tilining o'zi uchun noma'lum qirralari xususida o'qituvchi bilan faol hamkorlik qilish uchun ruhiy tayyorgarlik paydo bo'ladi. U mavzu yuzasidan berilgan savollarga tegishli javob qaytarish uchun mustaqil ijodiy izlanishlarga harakat qiladi.

O'qituvchi bunday hamkorlik jarayonida o'quvchilarning nutqini o'stirish bilan birga diagnostik vazifani ham bajaradi, ya'ni o'quvchilarning so'z boyligi, qiziqish doirasini aniqlaydi, ijodiy iqtidorini chamalaydi. Ijodiy topshiriqlar ustida ishlash jarayonida bu g'oyat muhimdir.

Ona tili mashg'ulotlari jarayonida o'zaro muloqot ta'lim samaradorligini oshirishga yaqindan yordam beradi. O'quvchilar bilan muloqotda ularning qiziqishini muayyan maqsadga yo'naltirish, fikr-mulohazalarini albatta inobatga olmoq joiz. O'qituvchi shakllantiruvchi muloqot davomida faqat bir o'zi gapirmasdan o'quvchilarning fikrlarini ham eshita bilishi lozim. O'qituvchining savollari shunday shaklda berilishi lozimki, ular o'quvchini fikr bildirishga, mulohaza yuritishga da'vat etsin.

Dialogning har bir qatnashchisi uni davom ettirishdan manfaatdor bo'lishi lozim. Birinchidan, bunda fikrlarning turli-tumanligi, ikkinchidan, mavzuga baho berish va tushunishdagi har xillik, uchinchidan, til vositalarining umumiyligi samarali ta'sir ko'rsatishi mumkin. Muloqot davomida "bir tillilik" bo'lmaganda bir fikrga kelish juda qiyin. Jumladan, ayrim hollarda targ'ibotchi masalani bayon etishda murakkab va notanish atamalardan foydalanishi natijasida o'quvchilar uning fikrini tushunmaydilar. Agar ta'lim jarayonida dialog amalga oshmasa, o'qituvchi materialni o'quvchilarga yetkazishning zarur shaklini topa olmagan hisoblanadi. Demak, muloqotga kirishi qiyin bo'lgan kamgap o'quvchilar ham suhbatda ishtirok etmasa, to'laqonli hamkorlik amalga oshmaydi.

Kuzatishlarga qaraganda, ikki tomonlama hamkorlik samaradorligi o'quvchilarning fanga nisbatan qiziqishi darajasi orqali aniqlanadi. O'quvchi berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarsa hamkorlik ham oson kechadi.

Sh.A.Amonashvili fikricha, pedagog va o'quvchilarning o'rtasida insonparvar munosabatlarni o'rnatish uchun quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

Ta'lim jarayoni va o'quvchilar faoliyatini boshqarishda o'quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqish kerak.

Har bir o'quvchining imkoniyatlari va kelajagiga ishonch namoyon qilish lozim.

O'quv topshiriqlarini hal qilish jarayonida o'qituvchi o'quvchilar bilan kuch-g'ayrati va qiziqishlarini birlashtirgan holda hamkorlik qilishi lozim.

O'quvchilar bilan munosabatda axloq me'yorlariga rioya qilish, ularning yutuqlariga e'tibor berish va qo'llab-quvvatlash lozim. Bu o'quvchilar bilan munosabatlarni o'zaro ishonch asosida o'rnatish, o'rtoqlari va oilasi davrasida har bir o'quvchining obro'yini ko'tarish, jamoada o'zaro hurmatni tarkib toptirish, muomala madaniyatini shakllantirish, har bir o'quvchining qiziqishlariga e'tibor berish demakdir [22, 15].

Ona tili darslarida tovushlar va harflar, bo'g'in, so'z, gap, matn mavzusiga oid darslarda bahslashish muhiti hamkorlikning samaradorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Buning uchun muammoli vaziyatdan foydalangan ma'qul. Masalan: tovushlar va harflarga xos xususiyatlarni sanang. Bo'g'inlar harf (tovush)lardan tashkil topadi. So'z va gaplar-chi? qanday so'zlar gap o'rtasida kelsa ham bosh harf bilan yoziladi? va hokazo.

Bunday savollarga javob topish o'quvchilardan bilimdonlikni talab etadi.

Ta'lim jarayonida sub'ekt bilan sub'ekt munosabatini o'rnatish masalaning muhim omillaridan sanalib, o'quvchida bilish faoliyatini sekin-asta shaxslikka aylantirishga imkoniyat tug'iladi. Dars jarayonida o'quvchilarning mantiqiy va mustaqil fikrlash mahoratini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar orqali ularni tegishli xulosalar chiqarishga tayyorlash o'qituvchining muhim vazifalaridandir. Ayni holatda o'qituvchi diagnostik vazifalarni bajarish yordamida o'quvchilarning bilimlarni sifatli o'zlashtirishini ham nazorat qiladi.

Ona tili ta'limini o'qituvchi va o'quvchilarning teng munosabatlari asosida tashkil etish jamiyatda tub burilishlar yuz berayotgan, ilm-fan, texnika shiddat bilan rivojlanayotgan davrning muhim talablaridan biridir. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida ta'limning faol metodlaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchilar teng munosabatini shakllantirishga va aynan shu teng munosabatlar asosida o'quvchilarda ijodkorlik, yozma va og'zaki nutq, erkin va mustaqil mushohada yuritish, imlo va savodxonlik malakalarini shakllantirish uchun imkoniyatlar mavjuddir.

"Aqliy hujum". Bu usulda biror-bir muammo yuzasidan har bir ishtirokchi fikr bildiradi. Har bir fikr yozib olinadi va inobatga olinadi. Bu usulning bahslardan farqi shundaki, bahslashuvchilar ongli, asosli fikr-mulohazalar bildirsalar, bunda ishtirokchilar miyaga qanday fikr kelsa asoslamay bayon etadilar va fikrlar tanqid qilinmaydi.

R.J.Ishmuhammedov "Aqliy hujum" usulining quyidagi asosiy qoidalarini ko'rsatib o'tadi:

1. Aytilayotgan barcha g'oyalar bir-biriga nisbatan muhimlikda tengdir.
2. Kiritilayotgan g'oyalarga nisbatan tanqidning mavjud ekanligi.
3. G'oyani taqdim etayotgan paytda so'zlovchining gapini bo'lmaslik.
4. So'zlovchiga nisbatan baholovchi komponent mavjud emas [42, 24].

Bu qoidalarga rioya qilinishi usulning samaradorligini oshiradi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida bu usuldan foydalanish o'quvchilarning nutq boyligini oshiradi, o'qituvchi bilan erkin muloqotga kirishuvga va shu asosda mustaqil fikrlashga o'rgatishga yordam beradi. Masalan, o'qituvchi shunday savol bilan murojaat qiladi:

"Bahor faslida biz tabiatda qanday ranglarni uchratishimiz mumkin?"

Javoblar: ko'k, moviy rang, qizil, pushti va hokazo.

Beriladigan javoblar qisqa bo'lishi kerak va asoslanishi shart emas. Bu usul ijodiy fikrlashga, to'liq ishtirok etishga va hamjihatlikka undaydi.

"Fe'l yasovchi qo'shimchalar" mavzusini o'tganda fe'llarning boshqa so'z turkumlaridan yasalishi hisobiga ko'payishini o'quvchilarga tushuntirish, ulardan foydalanish uchun matn tuzishga undash nutq o'stirishda muhim sanaladi.

3-sinf darsligida **-la, -illa** qo'shimchasi berilgan. Undan "ko'zla", "so'zla", "qo'lla", "qarsilla", "qag'illa", "miyovla", "o'yla", "kuyla", "shapilla", "taqilla", "akilla", "laqilla" fe'llari yasab ko'rsatilgan. Bizningcha, boshlang'ich sinfda ot, sifat so'z turkumlari o'rganilishini, taqlid so'z o'rganilmasligini nazarda tutsak, fe'lning ot, sifatdan yasalgan turlarini berish lozim bo'ladi. Chunki o'zak qo'shimcha qismni ajratganda o'zakning ma'nosini o'quvchi tushunmaydi. Natijada fe'l yasalishini o'quvchiga izohlash orqali tushuntirib bo'lmaydi: shaq+illa, ak+illa.

Taqqoslang: oq+la, so'z+la

Boshlang'ich sinflarda "Fe'l yasalishi" mavzusida -la qo'shimchasini berish bilan chegaralanish ma'qul deb hisoblaymiz. Shu qo'shimcha yordamida ham ko'plab fe'llar yasash mumkin.

“Bahs-munozara”. “Bahs-munozara”larning maqsadi ishtirokchilarni o‘z fikrlarini erkin bayon qilishga, hamkorlikka va mustaqil fikrlashga chorlaydi. O‘qituvchining vazifasi - muammoni aniq belgilash va uning mohiyatini tushuntirish. Bahs-munozara boshlanishidan oldin muammoga bog‘liq nazariy ma‘lumotlar, faktlar esga tushiriladi.

“Mehmon-spikker”. Bu usulning boshqa ta‘lim usullaridan farqi shundaki, ta‘lim jarayoni teatr san‘ati bilan qo‘shib olib boriladi. O‘zaro munosabatlarni tarixiy shaxslar siymosidagi, ertak qahramonlari rolidagi yoki boshqa biror bir roldagi o‘quvchilar amalga oshiradilar. Bu usulning afzalligi auditoriya stereotipini o‘zgartiradi. O‘qituvchining vazifasi spikker bilan aloqa qilish, ularni to‘g‘ri tanishtirish va boshqarish. “Mehmon-spikker” usuli o‘quvchilar uchun qiziqarlidir. Shu bilan birga ular o‘qituvchi yoki “mehmon-spikker” bilan erkin muloqotga kirishadilar.

Biz bu usuldan tadqiqot davomida keng foydalandik va bir nechta dars ishlanmalari tuzib chiqdik. Ular haqida keyingi bandda to‘xtalib o‘tamiz.

“Hamrohingga o‘rgat”. Bu usulni doktor Fred Jons tavsiya etgan. Uni qo‘llash yo‘li quyidagicha:

1. Sinf birinchi va ikkinchi hamkor qismlarga bo‘linadi.
2. Darsni o‘tish modelidan foydalanib, birinchi hamkor ikkinchisiga, ikkinchi hamkor birinchisiga modeldagi qismni o‘rgatadi.
3. O‘qituvchi xohlovchilarga ta‘lim metodini modellashtirib avval eshitish yo‘li bilan keyin ko‘rsatib model qismlarini o‘rgatadi. Keyin o‘quvchilar o‘qituvchi aytgan va ko‘rsatganlarini aniq takrorlaydi.
4. O‘qituvchi sinfni nazorat qilish uchun o‘ziga ikkita ixtiyoriy hamkorni tanlaydi. U modelning birinchi qismini aytib, ularni bajarishni so‘raydi. Shunday yo‘l bilan o‘qituvchi hamkorlarga modelni bosqichma-bosqich o‘rgatib boradi.
5. O‘qituvchi sinfdagi hamkorlarga birinchi qism bo‘yicha bir-biriga o‘rgatishni aytadi. Bu ishning bajarilishini nazorat qilib, baholab, xatolarni bartaraf etishni ko‘rsatadi. O‘qituvchining hamkorlari esa unga sinfni nazorat qilish va baholashda yordam ko‘rsatishadi.
6. Bu ish usuli modelning boshqa qismlarini bajarishda davom ettiriladi [125, 28].

Bu usul o‘quvchilarning bir-biriga va o‘ziga talabchan bo‘lishga, o‘qituvchi bilan hamkorlikda ishlashga, mustaqil ravishda xatolarni bartaraf etishga o‘rgatadi.

Bundan tashqari, muammoli izlanish va mustaqil ishlash metodidan, didaktik o‘yinlardan foydalanish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi munosabati quyidagi talablarga mos ravishda tashkil qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- o‘qituvchi muammoli izlanish va mustaqil ishlash metodini qo‘llash jarayonida o‘quvchilar oldiga nutq o‘stirish, so‘z, gap va matn yuzasidan shunday talablar qo‘yishi kerakki, toki o‘quvchilar berilgan mashqlarni ko‘r-ko‘rona bajarmasdan mustaqil fikr yuritishga harakat qilsinlar;

- grammatik bilimlarni o'zlashtirishda muammolarni tanlash yoki muhokama uchun mavzuni faqat o'qituvchi o'rtaga tashlamay, o'quvchilarni ham mavzu va muammolar ichiga chuqurroq olib kirish lozim;

- ta'lim jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, o'quvchilar o'qituvchining fikrini to'g'ridan-to'g'ri qabul qilmasdan, uni muhokama qilib, mustaqil ravishda xulosalar chiqarishga o'rgansinlar;

- muammolarni hal etishda o'qituvchi har bir o'quvchining fikrini, munosabati va qarashlarini hurmat qilishi lozim bo'ladi;

- o'quvchilar o'qituvchi bilan erkin muloqot olib borishlari uchun qulay sharoit yaratish, ya'ni o'quvchilarning xato qilishdan qo'rqmay, o'z fikrlarini erkin bayon qilishlariga erishish zarur;

- o'quvchilarga xatolarini tuzatish uchun imkon berish ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish bilan bir qatorda bunday xatolarning qayta takrorlanmasligini ta'minlaydi;

- didaktik o'yinlardan foydalanish jarayonida o'qituvchi o'zini o'quvchilar bilan bir mavqeda tutishi, ular bilan baravar ishtirok etishi lozim;

- o'qituvchi o'quvchilar bilan shunday muomalada bo'lishi kerakki, toki ular o'rganilgan har bir mavzuni erkin muhokama qila olsinlar;

- o'qituvchi har bir o'quvchining yutug'iga sherik va muammolarini hal etishga ko'makchi bo'lish orqali ularning maslakdoshiga aylanishi zarur.

Ta'lim ma'lum bir doirada, jamiyatdan alohida tarzda amalga oshadigan jarayon bo'lmay, bir qancha tashqi omillar ta'siri ostida sodir bo'ladigan pedagogik jarayondir. Shunday ekan, ta'lim jarayonining asosi bo'lgan o'qituvchi va o'quvchi hamkorligiga qanday omillar ta'sir qiladi? quyida bir qancha omillar misol tarzida keltiriladi.

Avvalambor, umumiy ijtimoiy vaziyat haqida fikr yuritamiz. Ijtimoiy vaziyat jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, axloqiy va shu kabi voqea va hodisalar jamiyat a'zosi sifatida o'qituvchi va o'quvchi ongida aks etadi, o'z navbatida, ular o'rtasidagi munosabatlarda muhim o'rin tutadi.

O'qituvchi va o'quvchi munosabatida ular atrofidagi ota-onalari, qarindosh-urug'lari, do'stlari, hamkasblari, qo'ni-qo'shnilari va boshqalar ham muhim o'rin egallaydilar. Turli kasb va dunyoqarashdagi insonlar bilan muloqot natijasida o'qituvchi va o'quvchilarda tegishli fikr-mulohazalar tug'iladi. Ayni shu mulohazalar o'qituvchi va o'quvchi munosabatiga ijobiy yoki aksincha salbiy ta'sir qilishi mumkin.

O'qituvchining psixologiyaga oid bilimlari, pedagogik mahorati, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi bilan bog'liq yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish ularning ko'ngliga yo'l topish va shu orqali nutqini o'stirish, ijodiy tafakkurini yuksaltirishga imkon beradi.

Yuqoridagilar asosida boshlang'ich sinflar ona tili darsida mustaqil ta'lim tizimini yaratishga harakat qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, "Xalq so'zi", 2020 yil 24 sentyabr, 202 (7704)-son.

2.Hasanova A. O'quvchi yoshlar tarbiyasida rag'batlantirish va tanbeh mezoni. – T.: «O'zbekiston», 1996.

3.Nazarova H.P. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ savodxonligini ta'minlashning didaktik asoslari. Monografiya. - T.: 1999. –245 b.

4.Toirov G'. Ona tilidan mashq bajarish jarayonida o'quvchilarning bilish faolligini oshirish. Toshkent, 1991. 193 b.

5.Azimov Y.Y., Qo'ldoshev R.A.. Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari (Metodik qo'llanma) GlobeEdit, 2020, -130 b.

6. AD Usmanovna, ZA Nortazhova - Improving Technologies of Integrative Approach to Mother Language and Reading Literacy Lessons. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. 18. 167-169. 2023/3/26

7. AD Usmanovna - On the Example of Abdulla Avloni, The hero of the national Awakening period. Middle European Scientific Bulletin., 189-195 .2022/9/24

8. AD Usmanovna - Nature Relys on Children of Genius. Web of Synergy: International Interdisciplinary ..., 1.2. 2023-01-31

9. Azimova Dilfuza Usmanovna, Zakhro Alisherovna Nortazhova,- Methods of Teaching Students to Grammatical Analysis in Mother Language and ReadingLiteracyLessons.Improving Technologies of Integrative Approach to Mother Language and Reading Literacy Lessons , Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching: Vol. 18 (2023): EJLAT

10. Maxbuba Jumayeva Soatmurod qizi Azimova Dilfuza Modern methods of using folk proverbs in the process of educating elementary school studentsVolume 19| April 2023Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching

11. A Dilfuza - Eurasian Journal of Learning and Academic ..., 2023 - geniusjournals.org Modern methods of using folk proverbs in the process of educating elementary school students Page 1 Volume 19| April 2023 ISSN: 2795-739X Eurasian Journal of Learning and Academic ...

12. Maftuna Ilhomovna Abdirashidova. Dilfuza Usmanovna Azimova TEACHING PRIMARY CLASS STUDENTS TO THINK INDEPENDENTLY BASED ON THE COMPETENT APPROACH. Vol. 2 No. 4 (2023): Results of National Scientific Research International Journal Impact Factor

ТАЛАБАЛАРДА ШАХСИЙ-КРЕАТИВ КОМПИТЕНСИЯНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АСОСЛАРИ

*Алаудинова Шабнам Рустам қизи
ТерДПИ магистранти*

Аннотация: Ушбу мақола талабаларда талабаларда шахсий-креатив компетенцияларни шакллантиришда компетентли ёндашувни амалга ошириш масаласига қаратилган бўлиб, шахсий-креатив

компетенцияларни аниқлаш ва танлаш таълим натижаларининг асосий истеъмолчилари билан белгиланишини ва ҳозирги вақтда мазкур жамиятда қайси қобилиятлар ва сифатлар қадрли ҳисобланишини талқин қилади. Аммо компетентли ёндашув мантиқида жамият ривожининг ҳар бир янги босқичида у ёки бу компетенцияларни актуаллаштириш тўғрисида гап боради.

Калит сўзлар: *шахсий-креатив компетенциялар, инновация, компетентли ёндашув, қобилиятлар, инвестиция, ахлоқий талаблар*

КИРИШ. Бугунги кунда жаҳонда таълимни ривожлантириш йўлида олиб борилаётган барча ишлар келажакка қўйилган инвестиция деб баҳоланмоқда. Жамиятда талабаларда шахсий-креатив компетенцияларни ривожлантиришнинг самарадорлигини ошириш механизмларини жорий этиш барча инсонлар учун билим олиш, касб ўрганиш, мамлакат ривожига муносиб ҳисса қўшиш орқали қулай шароитда яшаш имкониятларини яратади.

Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигини қўлга киритгач, ўрта таълим муассасалари, хусусан, талабаларда шахсий-креатив компетенцияларни ривожлантириш тузилмаси ва мазмунини тубдан яхшилаш устувор аҳамият касб этмоқда. Талабаларда шахсий-креатив компетенцияларни шакллантириш масаласи ҳозирги услубий адабиётларда тил, луғат бойлиги ва нутқ маданияти ҳақида билимларга турлича ёндашувлар асосида ҳал қилинади.

Расмий ҳужжатларда янги атамадан фойдаланиш мисоллари мавжуд, масалан «Умумий таълим мазмунини модернизациялаш стратегияси» қўйидагилар ифодаланган: «талабаларнинг интеллектуал, ҳуқуқий, ахборот ва бошқа соҳалардаги шахсий-креатив компетенциялари мажмуи тўғрисида гап бормоқда». [1]. Компетенцияларга йўналганлик шунингдек асосий мезонлари билим, кўникма, малакалар (БКМ) бўлган эски таълим парадигмасидан ажратишни, бунда БКМларни таълим жараёнининг зарур элементларидан бири сифатида сақлаш билан таъминлайди.

АСОСИЙ ҚИСМ. Билдирилган фикрларни таққослаш ва уларни принципал ҳолатлар бўйича умумлаштириш асосида компетенциялар ва компетентликни аниқлашга ва улар ўртасидаги мазмунли алоқаларни ўрнатишга уч нуқтаи назарларни ажратиш мумкин.

Биринчи нуқтаи назар учун қўйидагича фикр хос: компетенция шахссиз, бу меъёр, талаблар, сифатлар тўплами, мутахассиснинг ўзига хос малакавий тавсифи. Унинг вазифаси инсон, мутахассис, талаба маълум шароитларда ва маълум жойда нима қилишни билиши кераклигини аниқлаштиришдан иборат. Унга ечиладиган муаммоларнинг ёки бажариладиган иш турларининг мураккаблигини ифодаловчи мос даражалар, тоифалар тайинланиши мумкин. Компетентлик мазкур ҳолатда ўрганилаётган компетенцияга эга бўлган

инсоннинг мавжуд сифати тариқасида у хусусий маҳаллий характерга эга бўлади.

Агар масалан, бирор-бир касбий фаолият учун бир неча компетенцияларни эгаллаш тўғрисида гап борса, унда компетентлик интегратив сифат каби хизмат қилади ва касбий компетентлик деб аталади.

Иккинчи нуқтаи назар «компетенция» тушунчасини кенгайтиради ва унинг доирасига инсоннинг ўзлаштирган функцияларига якуний талабларни, балки унда шаклланадиган психик, физиологик, аксиологик, ижтимоий, фаолиятли тузилмаларни ҳам қамраб олади. Фақат шундан кейингина компетенциялар компетентлик мавқеига эга бўлади, чунки уларнинг объектив мазмуни шахсий сифатларнинг субъектив образига айланади. Иккинчи нуқтаи назарнинг биринчисидан фарқи «компетентлик» тушунчасини кенгроқ талқин этишдангина иборат.

Учинчи нуқтаи назарга кўра компетенциялар тўғрисида фақатгина уларни хусусий масалалар ва вазифаларни ечишга тайёрлик ва қобилиятлилик билан боғлиқлиги тўғрисида айтиш мумкин, компетентлик эса инсоннинг муайян соҳадаги қатор компетенцияларни эгаллаганлиги тўғрисида гувоҳлик берувчи комплекс тавсиф сифатида қаралади. Хусусий ва маҳаллий компетентликлар тушунчаси мазкур ҳолатда маъносини йўқотади.

Кейинги ўрганишларда иккинчи нуқтаи назарга таянамиз. Унга кўра «шахсий-креатив компетенциялар» сўз бирикмаси нафақат ўринли, балки таълимий фаолиятининг мазмунини ҳам ташкил этади.

Танланган нуқтаи назар таниқли педагог А.В.Хуторскийнинг фикри билан алоқадор бўлиб, у компетентликни инсоннинг мос компетенцияга эгаллиги, олий таълимининг мақсади эса иерархик тузилишга эга бўлган компетенцияларнинг шаклланиши ва ривожланиши ҳисоблайди [2].

«Компетенция» атамасига аниқ маъноли мазмун беришга кўпгина уринишлар мавжуд. Бу борадаги муваффақиятли ва камроқ муваффақиятли фикрлар таҳлили бизни баҳсларнинг давом этиши заруратига ишонч ҳосил қилишимизга ва ўз вариантимишни таклиф этишимизга ундади.

Компетенцияни муайян синф муҳити объектлари ва жараёнларида маълум маҳсулотни олиш билан субъектнинг хабардорлиги, кўникмалари, мазмунли йўналганлик, мослашув имкониятлари, фаолият тажрибаси ва усулларининг тизимли мажмуи сифатида таърифлаймиз. Компетенция умумий ҳолатда жараён сифати ва унинг натижаларига муайян фаолиятли босқичнинг мазмунли қисми доирасидаги маълум меъёр, талаблар мажмуи сифатида тушунилади. У шахссиз ва кўп омилли. Бир томондан, у бажарилган ишнинг сифати белгиланадиган омилларнинг муайян мажмуини ифодалайди, бошқа томондан эса – ҳар бир омил учун миқдорий шкалани белгилаши мумкин.

Компетентлик маълум инсоннинг маълум компетенцияни эгаллаши даражасини ифодалайди. Компетентлик остида мос компетенцияларнинг мавжудлиги ва фаол ҳолатини тушунамиз, уларга кўра инсон маълум муаммоларни амалий ҳал этади ва буни келажакда амалга ошира олади.

Компетенциялар ва компетентлик таълимий ифодаларини таърифлаш бир қанча мураккаброқдир. Айрим муаллифлардан фарқли равишда биз мазкур тавсифларни фақатгина инсоннинг таълим муассасасидаги даврига боғламаган бўлар эдик. Узлуксиз таълим ғояси маданий меъёр шаклига эга бўлган ва янги таълим парадигмасининг асосини ташкил этган шароитларда, ўқув жараёни муайян муассасалар, қатъий муддатли чегаралар ва аниқ ажратилган ўқув даврларидоирасидан ташқарига чиқади. Оқиқ таълим модели олий таълим ўқув муассасаларига кириб келмоқда, унинг биринчи белгиси мазкур таълим босқичидаги қонуний экстернат ҳисобланади. Келтирилган фикрларнинг оқибати сифатида таълимий компетенция юқорида умумилмий «компетенция» тушунчасига айрим умумий тушунчаларни очиб беришда берилган ифодаси билан белгиланади.

Натижада қуйидаги таърифга эга бўламиз: таълимий компетенция – талабанинг таълим соҳалари ва ўқув фанлари таркибига киритилган намунавий объектлар ва жараёнлар муҳитида маълум маҳсулотни олиш билан В.П.Беспалько шахсий асосий хусусиятларига қуйидагиларни киритган: ижтимоий, экзистенциал (тажриба), психик (интеллектуал), биологик (ирсий) [3]. Минималлик талаби ихтиёрий таълим муассасаси ва ихтиёрий талаба учун таълим жараёнини амалга ошира олишни таъминлайди. Шу билан бирга, мазкур талаб шароитлар мавжуд бўлган жойда (қобилиятли талабалар ва маҳоратли ўқитувчилар) ихтиёрий юқори ютуқларга йўлни тўсиб қўймайди. В.П.Беспалько шахснинг асосий хусусиятларига қисқа (аннотацияли) таърифни ва уларни шахс сифатлари тушунчаси орқали талқинини келтиради. Шахснинг ижтимоий хусусиятлари структурасига инсоннинг дунёқараши, ахлоқи, эстетик ва меҳнат сифатлари каби сифатлар киради. Айнан шахснинг ижтимоий хусусиятлари билан инсоннинг инсонлар орасидаги, табиатдаги энг умумий хулқи, унинг у ердаги содир бўлаётган жараёнларга муносабати ва улардаги иштироки даражаси белгиланади. Шахснинг экзистенциал хусусиятлари билан инсоннинг ҳаётга тайёрлиги даражаси, унинг инсонлар жамиятига фойдаси, ривожланаётган ижтимоий-ишлаб чиқариш жараёнларидаги унинг ўрни ва қадр-қиммати даражаси белгиланади. Бу сифатлар билан кўп жиҳатдан инсоннинг фаровонлиги ва унинг ҳаётдаги муваффақияти билан белгиланади. Шахснинг экзистенциал хусусиятлари тузилишига унинг эгалланган фаол тажрибаси, маҳорати, онглилик, шахс маданияти, унинг кундалик одатлари – ижтимоий тан олишда инсондаги қадрланадиган ва оммавий тақдирланадиган каби сифатлари киради.

Ижтимоий ҳамда экзистенциал хусусиятлар шахс томонидан фақатгина ташкил этилган ўқиш ва инсонлар билан барча мумкин бўлган алоқалар натижасида эгалланади. Улар шароитлар ва таълимга кўра ҳаёт давомида ўзгариши мумкин.

Бизнинг таклифимизда, аввало аниқ ва тушунарли методологик асосни (Олам ва инсон: алоҳида ва биргаликда) ажратдик ва ўзи ҳамда атрофдаги воқелик билан уйғунликка қобилиятлилик инсон ва жамиятга ўзаро қониқишни келтирувчи самарали ижтимоий мавжудликнинг гарови ҳисобланади. Шунинг учун бундан буён биз томонимиздан ишлаб чиқилган асосий таълимий компетенцияларга таянамиз.

Талабаларда шахсий-креатив компетенцияларни аниқлаш ва танлаш таълим натижаларининг асосий истеъмолчилари билан белгиланади ва ҳозирги вақтда мазкур жамиятда қайси қобилиятлар ва сифатлар қадрли ҳисобланишига боғлиқ. Аммо компетентли ёндашув мантиқида жамият ривожининг ҳар бир янги босқичида у ёки бу компетенцияларни актуаллаштириш тўғрисида гап боради. Таълим муассасаси шароитларида таклиф этилган шахсий-креатив компетенциялар бутун ҳаёт тарзи, унинг таълим муҳити руҳи, ўқув дастурларининг мазмуни ва талабалар таркибининг шахсий таъсири билан шаклланади. Шахсий-креатив компетенциялар методологик функцияни бажаради. Мазкур фанга оид талабларнинг кейинги батафсил тушунтиришлари умумфан ва фанга оид компетенцияларда амалга оширилади ва улар алоҳида фанлар ёки фанлараро циклларнинг ўқув дастурларини қуришнинг маълум методик базаси бўлиб хизмат қилади.

Таълим муҳити хусусиятлари таҳлилининг зарурати ҳозирги вақтда миллий таълимий муҳитда аҳамиятли ўзгаришлар содир бўлганлиги, барқарорликнинг устун хусусияти ноаниқлик хусусиятига алмашганлигига асосланади.

Таълим муҳитининг ноаниқлигига бошқа ўзаро боғлиқ муҳитлардаги ривожланиш омиллари таъсир кўрсатади: иқтисодий, сиёсий, ижтимоий, илмий, маданий ва бошқалар. Ўзбекистон таълим муҳити ноаниқлигининг таъсир этувчи омили таълим сифатида ва даражасига ўзгарувчан ижтимоий ва давлат эҳтиёжлари ҳамда таълим тизимини ислоҳ қилиш ва модернизациялашнинг узоқ муддатли жараёни ҳисобланади.

ХУЛОСА қилиб айтганда, талабаларда шахсий-креатив компетенцияларнинг кўриб чиқилган олтита мажмуи бир жиҳати билан бир-бирини эслатади, бошқаси билан эса улар фарқланади. Педагогика соҳасидаги маҳаллий ва хорижий олимлар томонидан таклиф этилган компетенциялар мажмуи таҳлили, олий таълим тизимига замонавий ижтимоий-иқтисодий талаблар мазмунида талабаларда шахсий-креатив компетенцияларни муаллифлик тўпламини ишлаб чиқишга ундади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Степанов Е. Н. Педагогу о современных подходах и концепциях воспитания / Е. Н. Степанов, Л. М. Лузина. - М. : ТЦ Сфера, 2005. -160 с.
2. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси. Пед.ф.н.диссертация. –Т.:2000. 128 б.
3. Беспалько, В. П. Образование и обучение с участием компьютеров. / В. П. Беспалько. - М. : изд-во Москов. псих.-социал. института; - Воронеж : изд-во НПО «МОДЭК», 2002. - 352 с.
4. Ҳошимов К., Нишонова С., Иномова М., Ҳасанов Р. Педагогика тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 488 б
5. R.D.Norqobilova. Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini indikatorlar asosida diagnostika qilishning o'ziga xosligi. INTERNATIONAL CONFERENCES, 564-568. 2023
6. NR Davlatovna - Functions and Principles of Pedagogical Diagnostics. Web of Synergy: International Interdisciplinary 413-416, 2023/1/31
7. P Норқобилова -Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan iqtidorini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish. Общество и инновации. 36-41, 2023/1/25
8. P Nazarova, R Norqobilova - PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF EDUCATION OF YOUNG GENERATION AT ABU RAYHAN BERUNI TEACHING. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 1908-1911. 2022/6/30
9. S Xoliyeva, R Norqobilova - EASTERN SCIENTISTS 'VIEWS ON SPEECH. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 1433-1427. 2022/6/24
10. Sevara XOLIYEVA, Rayhona NORQOBILOVA, Muhlisa-MAMATMUROTOVA THE IMPORTANCE OF PEOPLE'S ORAL CREATIVITY IN THE DEVELOPMENT OF SPEECH BY PRIMARY SCHOOL STUDENTS. 2022/6/9. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 84-87. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/2379>
11. Sumbula IBROHIMOVA, & Rayhona NORQOBILOVA. (2022). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF USING THE HERITAGE OF ASIAN THINKERS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL SCIENCE CLASSES. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 81-83. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/2378>
12. Zoirova Sevinchbonu Khurshid Kizi, Norqobilova Rayhona Davlatovna, Tajimirzayeva Buzulaykho Mahammadjon Kizi. high spiritual generation-third renaissance builders. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. 167-169. 2022
13. Райхона Норқобилова. О'қувчиларнинг она тили бо'йича иqtidorini aniqlash va rivojlantirishning o'ziga xosligi Современные тенденции

инновационного развития науки и образования в глобальном мире. 379-384. 2022

14. R.Norqobilova, M.To'rayeva Importance of talent in child development. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. ISSN: 2776-0979, VOLUME 3, ISSUE 7, July. 2022 57-61.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA DARSLIKDAGI SAVOL TOPSHIRIQLAR ASOSIDA O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

*Termiz davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti
Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqola “Boshlang’ich sinflarda ona tili va o’qish savodxonligi” darsligi asosida berilgan turli xil didaktik o’yinlar, topshiriqlar, savol-javob yordamida boshlang’ich sinf o’quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi haqida bo’lib, unda ketma-ketlik asosida mavzu yoritilgan.

Kalit so’zlar: boshlang’ich sinf, darsliklar, nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya, davlat ta’lim standartlari, ko’nikma, malaka, didaktik o’yinlar, og’zaki nutq, yozma nutq.

Yangi O’zbekiston ta’limi sohasida mislsiz o’zgarishlar kechayotgan bir jarayonda unga mos ravishda o’qitish tizimi, materiallari, uslublari ham tubdan yangilanmoqda. Ushbu yangilanishlar zahirida mamlakatimizning ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, yoshlarimizning intellektual salohiyatlari orqali davlatimiz nufuzini oshirish, ilg’or ta’limiy texnologiyalarga mos ravishda muhit hozirlash, fuqarolirimiz ongida doimiy o’zgarishlarga nisbatan xayrixohlik hissini uyg’otish kabi maqsadlar ko’zlangan.

Xususan, ushbu jarayonda boshlang’ich sinf darsliklari ham yangilanishlarga yuz tutmoqda. Boshlang’ich sinf ona tili va o’qish savodxonligi darsligi 2021-2022 o’quv yillarida tamomila yangi integratsion fan sifatida yuzaga keldi, ushbu darslik ham DTS talablariga to’la mos holda ishlab chiqilgan bo’lib, unda asosan o’quvchilarning og’zaki hamda yozma nutqini parallel va muhim ketma-ketlik asosida rivojlantirish, fikrlash ko’nikmasini darslikdagi asosan og’zaki topshiriqlar yordamida shakllantirishga urg’u berilgan.

Ushbu fikrimizni yanada asoslash maqsadida boshlang’ich sinflarda ona tili o’qitishning maqsad, vazifalariga e’tibor qaratsak:

Ona tili fanini o’qitishning asosiy maqsadi — o’z fikrini og’zaki va yozma tarzda to’g’ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o’z g’alalar fikrini anglaydigan — muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat.

Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi:

● o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish;

● ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Yuqoridagi maqsad va vazifalarga atroflicha yondashilsa, Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratilmoqda.¹

Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'quvchilarida oddiylikdan murakkablikka tomon til malakalari rivojlantirilayotganligini ko'rish mumkin, ya'ni birinchi o'rinda o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish asos qilib olinmoqda.

Nutqiy kompetensiya bu o'quvchilarning tinglab tushunish, o'qish, yozish hamda gapirish qobiliyatlarining bir vaqtning o'zida kundalik hayotda mohirlik bilan qo'llay olish hamda ulardan foydalanish faoliyatidir.

E'tiborli jihati boshlang'ich sinf o'quvchisi maktabga qadam qo'yishgacha vaqt davomida tinglab tushunish hamda gapirish qobiliyatlaridan bevosita foydalangan bo'ladi. Bu ayni muddao bo'lib, ularda nutqiy kompetensiyani shakllantirishda bir qancha ustunlik va samaradorliklar beradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining vazifasi esa yuqoridagi qobiliyatlarga o'z mahorati bilan o'qish va yozish faoliyatini kiritib, ushbu jarayonga ta'limiy obraz berishi hamda o'quvchilarning ham savod chiqarishiga ham boshqa fanlarni ham o'zlashtirishiga sababchi bo'lishidir. Ushbu jarayonda DTS pedagoglar uchun muhim dasturamal bo'lib xizmat qiladi.

Xususan, boshlang'ich sinf bitiruvchi o'quvchilari DTS talablariga oid nutqiy kompetensiya bo'yicha quyidagi malakalarga ega bo'lishi talab etiladi:

A1 darajasi uchun :

- ✓ berilgan topshiriq, sodda matnlarni tinglab tushuna oladi;
- ✓ matnni tushunib o'qiy oladi;
- ✓ og'zaki nutqda so'z va gaplar talaffuziga rioya qila oladi;
- ✓ 65 — 70 so'zdan iborat diktantni yoza oladi;
- ✓ 16 xabar, tasvir asosida 5-6 gapdan iborat matn yarata oladi, xatboshi va husnixatga amal qiladi;
- ✓ do'sti, ota-onasi, ustoziga tabriknoma

A1+ darajasi uchun :

- ✓ sodda matnning asosiy mazmunini tushunadi va tushuntira oladi;
- ✓ matn mazmunini tushunib ifodali o'qiy oladi;
- ✓ 70 — 75 so'zdan iborat diktantni yoza oladi;
- ✓ 7-8 gapdan iborat xabar yoki rasm asosida matn tuza oladi.
- ✓ Do'sti, oila a'zolari, ustoziga, shuningdek bayramlarga atab tabriknoma yoki xat yoza oladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuqoridagi malaka talablari bo'lishi uchun avvalo ularda nutqiy kompetensiyalar bilan birgalikda lingvistik kompetensiyalarni ham shakllantirish muhim hisoblanadi, chunki o'quvchilar bajarayotgan yoki o'rganayotgan topshiriqlarining mohiyatini anglashi ularda bilik, ko'nikma va mos ravishda malakani yuzaga chiqishiga turtki bo'ladi.

Shuningdek, ta'lim jarayonida o'quvchilar voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va o'qish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili va o'qish savodxonligi ta'limiga o'quv fani emas, balki, butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Shu bois ham, darsni tashkil qilishda unga integratsion va innovatsion yondashish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Yuqoridagi malaka talablariga erishish uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan quyidagilar talab etiladi:

birinchidan, "Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi" darslariga muhabbatini paydo qilish;

ikkinchidan, dars mashg'ulotlarini innovatsion tarzda tashkil etish;

uchinchidan, ularni munosib rag'batlantirish;

to'rtinchidan, ularning mustaqil ishlashlariga munosib sharoit yaratish;

beshinchidan, qo'shimcha topshiriqlar asosida ularning nutqiy kompetensiyalarini muntazam tekshirib borish talab etiladi.

Ushbu talablarni bajarish uchun, albatta, darslikda berilgan savol topshiriqlar katta ahamiyatga ega. "Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklarida berilgan topshiriqlar o'quvchilarning bevosita fikrlash qobiliyatiga ta'sir qilib, uni aqli hamda jismoniy harakatga keltiradi.

Quyida 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligidagi "Samarqand - tarix beshigi" mavzusi asosida ko'rib chiqamiz.

Darsning mavzusi: Samarqand - tarix beshigi.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: Matn mazmuni va g'oyasini aniqlash, narsa nomlarini ajrata olish, yo'riqnoma va ko'rsatmalarni tushunish, so'z oxirida kelib, og'zaki nutqda tushib qoladigan undoshlar imlosi bilan ishlash;

Og'zaki nutq (1): suhbat jarayonida ikkinchi sinf darajasiga mos mavzular yuzasidan adabiy talaffuz qoidalariga rioya qilgan holda ravon so'zlay oladi;

Tinglab tushunish (2): sinf darajasiga mos badiiy yoki informativ matnni tinglagach uning asosiy mazmunini, voqealar ketma-ketligi va g'oyasini aytib bera oladi;

O'qib tushunish (3): sinf darajasiga mos badiiy hamda informativ matnlarni ravon hamda ifodali o'qiy oladi;

Yozma nutq (4): asosiy husnixat qoidalariga amal qilgan holda yoza oladi;

Lingvistik kompetensiya (5): asosiy husnixat, imlo, bo'g'in ko'chirish hamda tinish belgilari qoidalariga amal qilgan holda ikkinchi sinf darajasiga

mos, o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan gaplar hamda kichik matnlar tuzib yoza oladi.

Tarbiyaviy: tarixiy meros va obidalarni asrab-avaylashga undash;

Og'zaki nutq (1): kichiklar, tengdoshlari hamda kattalar bilan suhbat hamda muhokama jarayonida muloqot odobiga (bir-birini hurmat qilish, so'zga chiqishni istashini hurmat bilan so'rash, mavzu yoki matn yuzasidan navbat bilan gapirish) rioya qiladi va fikrini bildiradi.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish;

Og'zaki nutq (1): suhbat yoki muhokama jarayonida ma'lumot yoki mulohazani aniqlashtirish uchun savollar bera oladi;

Tinglab tushunish (2): sinf darajasidagi og'zaki, media, reklama, badiiy hamda informativ matn haqida o'z fikrini bildiradi va asoslab bera oladi.

Darsning metodi: tushuntirish, suhbat, "Bulutlarni tarqating" didaktik o'yini, "Ajrataimiz" didaktik o'yini, Rasmi diktant.

Darsning borishi: O'quvchilarning bilimlarini tekshirish maqsadida "Bulutlarni tarqating" didaktik o'yini o'tkaziladi.

"Bulutlarni tarqating" didaktik o'yini.



O'qituvchi doskaga quyosh rasmini iladi va uni "So'zni topib ishlating" bo'limiga oid savollar yozilgan bulutchalar bilan yopib qo'yadi. Sinf jamoasi 3 guruhga bo'linadi.

O'quvchilarning qo'llariga Tarbiya faniga oid savollar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Ularga javob bera olgan o'quvchi bulutni olib, unda yozilgan savolga javob beradi. Agar qo'lidagi savolga javob bera olmasa, jamoasidan yordam olishi mumkin, ammo bulutdagi savolga o'zi javob berishi lozim. O'yin shu tariqa davom etib, hamma bulutlardagi savollarga javob berilgandan so'ng quyosh porlaydi. Qaysi guruh to'g'ri va ko'p savollarga javob bergan bo'lsa, shu guruh g'olib hisoblanadi va rag'batlantiriladi.

Yangi mavzuni e'lon qilishdan avval, o'qituvchi doskaga bittadan misol yozilgan uchta varoqlarni iladi, o'quvchilarga navbat bilan bajartiradi va birgalikda bajarilgan misollarni tekshiradi, xatosi bo'lsa, to'g'rilaydi. Shundan so'ng varoqlarning orqasini o'giradi va bugungi mavzu nomi (Samarqand - tarix beshigi) kelib chiqadi.

O'qituvchi mavzuni tushuntiradi. Bunda o'qituvchi nutqi ravon, tiniq, jozibador hamda grammatik jihatdan mukammal bo'lishi talab etiladi. O'qituvchi Samarqand haqida ma'lumotlarni o'quvchilarga chiroyli nutqi orqali yetkazgandan so'ng suhbat metodidan foydalanib, o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlaydi.

1. Samarqand shahri haqida nimalarni bilasiz?
2. "Qadimgi" deganda nimani tushunasiz? "Qadimgi shahar" deganda-chi?
3. Samarqand haqida nimalarni bilib oldingiz?

"Ajratamiz" didaktik o'yini²



"Ajratamiz" o'yini.

O'yin qoidalari:

- ✓ Har bir qatordan 5tadan o'quvchi tanlab olinadi.
- ✓ O'qituvchi doskaga quyidagi so'zlarni yozadi: Samarqand, Buxoro, Toshkent, O'zbekiston, Farg'ona, London, Nyu-York, Qozog'iston, Bishkek, Piskent, Turkmaniston, Germaniya, Turkiya, Fransiya, Parij, Berlin, Polsha, Dehli, Hindiston, Mumbay, Parkent.
- ✓ Tanlab olingan 5 tadan o'quvchi navbat bilan chiqib shu so'zlarni quyidagi jadvalga joylaydilar:

DAVLATLAR	SHAHARLAR

Darslikning 56-betida berilgan ko'rsatmalar asosida "Ajratamiz" o'yini tashkillashtiriladi. O'quvchilar o'yin shartlarini o'qib chiqadilar hamda o'qituvchi qayta tushuntirib o'tadi. Shundan keyin o'yinni o'ynash boshlanadi.

Savol-javob

"Davlatlar" deb nomlangan ustunga yozilgan so'zlarga e'tibor qarating. Ularda qanday o'xshashlikni ko'ryapsiz? Ushbu savol davlat nomlari *-iston* va *-iya* qo'shimchalari bilan tugashiga o'quvchilarning diqqatini qaratish maqsadida berilgan. O'quvchilar to'g'ri javobga yetib kela olmasalar, o'qituvchining o'zi buni tushuntirib beradi. Nega davlat nomlari shu shaklda tugashini u yerda shu millat vakillari yashashi bilan bog'lab tushuntiradi. Mavzuni mustahkamlash maqsadida "Rasmlı diktant" o'tkaziladi.

"Rasmlı diktant"

Ushbu topshiriq mashq daftariga bajariladi. Mashq daftarida *g'isht*, *musht*, *daraxt*, *poyezd*, *go'sht*, *past-baland* so'zlariga oid rasmlar berilgan. O'quvchilar shu so'zlarni yozib berishlari kerak. Ushbu topshiriqning maqsadi - so'zlar oxiridagi tovushlar ba'zan aytilmasa ham, yozilishini anglatish. Mashq tugatilgach, so'z oxirida kelib, talaffuzda tushib qoladigan, lekin yozuvda saqlanadigan undoshlar haqida nazariy ma'lumot yetkaziladi. O'quvchilar ushbu qoidani yod olishlari kerak emas. Umuman olganda, bu qoida ham emas, shunchaki bilim beruvchi ma'lumot sifatida qaralishi lozim.³



**Ba'zan ayrim so'zlarning oxirgi tovu-
shi aytilmasa ham, yoziladi:
Samarqand, baland, musht.**



Bu dars orqali o'quvchilarning Samarqand haqidagi bilimlari yanada oshsa, berilgan topshiriqlar hamda ta'limiy o'yinlar orqali esa ularning og'zaki va yozma nutqi rivojlanib, talaffuz, nutq ravonligi, fikrlarini yozma va og'zaki nutqlari yordamida bevosita ifodalash, so'z oxirida kelib, talaffuzda tushib qoladigan, lekin yozuvda saqlanadigan undoshlar haqida ko'nikmalari shakllantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bolalar ensiklopediyasi 3-nashri -T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. -664b.

2. X.G'ulomova, Sh.Yo'ldasheva, G.Mamatova, H.Boqiyeva. Husnixat va uni o'qitish metodikasi – T.: TDPU, 2009-70-bet.

3. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursunov Sh. 2-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi(1-2-qismlar) T.: Respublika ta'lim markazi, 2021. - 240 b.

3 Maftuna Shuhrat qizi Ziyaqulova, Feruza Abdullayevna Xayitova. Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning kreativ qobiliyatini shakllantirishda rasmlarning o'rni // Academic research in educational sciences. 2021. №7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/savod-o-rgatish-darslarida-o-quvchilarning-kreativ-qobiliyatini-shakllantirishda-rasmlarning-o-rni> (дата обращения: 23.02.2023).

4. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi and Feruza Hayitova Abdullayevna, "THE ROLE OF PICTURES IN THE FORMATION OF STUDENTS 'CREATIVE ABILITY IN LITERACY LESSONS", *IEJRD - International Multidisciplinary Journal*, vol. 6, no. 4, p. 3, Jul. 2021.

5. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi " Enhancing creativity in the process of developing studentso speech " *The American Journal of Social Science and education Innovations* (ISSN – 2689-100x) Published Published: June 28, 2021 | <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03> Иссые06-24 IMPACT FACTOR 2021: 11. 857 OCLC – 1121105668 Pages: 140-143 Америка

6. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi, Rakhmatova Hamida Ismatillo qizi, " Increasing Creativity by using Interactive methods in literacy teaching process" *Analytical journal of education and development Science Box In Vol.1(2021): Analytical journal of education and development 52-54-betlar* Тошкент

7. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AQLIY SALOHIYATINI HAMDA KREATIVLIGINI OSHIRISHDA MENTAL ARIFMETIKANING O'RNI. M.Ziyaqulova, S Ashurova, N Toshpulatova - *Development and innovations in science*, 2023

8. The importance of riddles in the development of students creativity in the learning process. ZMS Qizi - Asian Journal Of Multidimensional Research, 2021

9. BOSHLANGICH SINFI OQUVCHLARINING LUGATLAR BILAN ISHLASH JARAYONIDA KREATIVLIGINI OSHIRISH. MSQ Ziyaqulova, HIQ Raxmatova - ... : Innovative, educational, natural and social sciences, 2021

10. kizi, Z. M. S. . (2023). Technologies of Creative Approach to the Development of Speaking Competences of Primary Class Students. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(4), 189–192. Retrieved from <http://univerpubl.com/index.php/semantic/article/view/1138>

11. Оллокулова, Ф. (2022). Социально-педагогическое значение формирования научно-исследовательской деятельности учеников начальных классов на основе концентризма. Общество и инновации, 3(10/S), 128–134. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss10/S-pp128-134>

12. Toshpulatova Niyokhon Shavkatjonovna// A Creative Approach to Teaching Geometry in the Primary Grades//International Journal on Orange Technologies//48-53-bet

LINGVISTIK KOMPETENSIYANING TILNI O'ZLASHTIRISHDAGI O'RNI

Aytbayev Dilshodhuja Temirbayevich

*Toshkent davlat pedagogika universiteti professori,
filologiya fanlari nomzodi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada lingvistik kompetensiya tilni o'zlashtirish bilan chambarchas bog'liq ekanligi va diskursga kiritilgan matnlar so'zlovchida matnning mantiqiy va semantik tuzilishini tushunish ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkonini berishi haqida fikrlar ketiriladi.

Kalit sozlar: lingvistik kompetensiya, diskurs, dialog, lingvistik aloqa, leksik va grammatik amallar, ijtimoiy-madaniy kontekst.

Аннотация. В данной статье обсуждается тот факт, что лингвистическая компетенция тесно связана с овладением языком и что тексты, включенные в дискурс, позволяют говорящему понять логическую и семантическую структуру текста и сформировать навыки и компетенции.

Ключевые слова: языковая компетенция, дискурс, диалог, языковая коммуникация, лексико-грамматические операции, социокультурный контекст.

Abstract. This article discusses the fact that linguistic competence is closely related to language acquisition and that the texts included in the discourse allow the speaker to understand the logical and semantic structure of the text and to form skills and competencies.

Key words: linguistic competence, discourse, dialogue, linguistic communication, lexical and grammatical operations, sociocultural context.

Lingvistik kompetensiya tilni o'zlashtirish bilan chambarchas bog'liq. Bu diskursni qo'llash orqali aloqa muammolarini hal qilishni anglatadi. Til va nutqiy kompetensiyalarga ega bo'lish lingvistik kompetensiyaga qadamdir. Tilni o'zlash-tirish, muloqot jarayonida dialogik diskurslardan foydalanishda mamlakatshunoslik tushunchalarini kiritish maqsadida tilda amalga oshiriladi. Shaxslararo muloqot o'quvchida nutq faoliyatining barcha turlarida ko'plab nutqiy harakatlarni bajarish qobiliyatini rivojlantirishi mumkin. Lingvistik aloqa kompetensiyasi turli darajadagi niyatlar orqali amalga oshiriladi. Ularning yordami bilan o'quvchi dialogga olib kelgan harakat maqsadini va dialogda har bir sherik tomonidan qo'llaniladigan talaffuz tuzilmalari munosabatlarini solishtirishi mumkin. Suhbatli muloqot so'zlovchiga ham, tinglovchiga ham kerak bo'lganda yuzaga keladi. Demak, tilni o'zlashtirish til o'rganuvchining kommunikativ vazifani hal qilish qobiliyatidir.

Diskursga kiritilgan matnlar so'zlovchida quyidagi ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkonini beradi:

- matnning mantiqiy va semantik tuzilishini tushunish;
- matnning kompozitsion tomonini ta'minlash (kirish, asosiy qism va xulosaning mavjudligi);
- har xil turdagi rejalar tuza olish;
- bayon qilish usulini aniqlay olish (tavsif, muloqot, mulohaza yuritish va hokazo);
- bayon qilish usullaridan foydalanib matn turlarini tuza olish;
- bayon qilish usulini (deduktiv, induktiv; deduktiv-induktiv; induktiv-deduktiv) tushuna olish;
- ma'lum bir bayon qilish usuliga muvofiq matn tuza olish;
- leksik va grammatik amallardan foydalana olish;
- turli matnlar va ularning alohida qismlari uchun stilistik yondashuvlardan foydalana olish;
- bog'lovchi so'zlarni aniqlay olish va ulardan to'g'ri foydalana olish.

Har qanday diskurs muayyan ijtimoiy-madaniy kontekstda va lingvomadaniy jamoada paydo bo'ladi va u erda dolzarb ekanligi ko'rinadi. Shu munosabat bilan diskurs turlari hamda matn mazmuni va ma'nosi faqat lingvokognitiv fon bilim va til madaniyati asosida shakllanadi. Masalan, quyidagi shartlar bajarilsa, matn to'g'ri, adekvat tushunish mumkin bo'ladi:

- so'zlovchi matn manbasi (gazeta, jurnal, kitob va boshqalar) bilan tanish bo'lganda;
- muammodan xabardor (aniq hodisa, uning sabablari, rivojlanish dinamikasi va boshqalar) bo'lganda;
- muallif haqida ma'lumot mavjud bo'lganda (uning ijtimoiy roli, qarashlari, fikrlari va boshqalar).

Etnomarker birliklaridan tashkil topgan dialogik diskurs namunalari keltiriladi. Bu esa til o'rganayotgan xalqning madaniyatini aks ettiradi. Boshqa millat vakillaridan ham shunday munosabatni kutishini anglatadi. Aholi xulq-

atvorini belgilovchi bu individual xususiyatlar til o'rganuvchilarning xulq-atvori, odobi va atrof-muhitga munosabatiga ta'sir qilishi muqarrar. Kommunikativ kompeten-siyaning tarkibiy qismlaridan biri sifatida diskursiv kompetentsiyani shakllantirish va rivojlantirishning o'ziga xos yo'llari va shartlari borligi qayd etildi.

Madaniyatlararo muloqotni amalga oshirishda diskursni tashkil etish usullari, vaziyatlarni, muammolarni aniqlash, kommunikativ maqsadlarga erishish vositalarini aniqlash, har bir til o'rganuvchining muloqotga nisbatan holati va fazifalarini aks ettirish, shuningdek, rasmiy va norasmiy muloqotlarni tashkil etiladi.

Til o'rgatishda qo'llaniladigan yangi texnologiyalar o'rganishni insonparvar-lashtirish, til o'rganuvchilarning o'z-o'zini aniqlashi va rivojlanishi, eng muhimi, o'z-o'zini tarbiyalovchi shaxs sifatida shakllanishi uchun sharoit yaratishi shubhasiz. Shu asosda til o'rganuvchi faol, maqsad sari intiluvchan, o'z-o'zini izlovchi va ijodkor bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

2. Aytbayev D.T. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (Ijtsrd) International Science journal. Wydawnictwo Naukowe "Science". Polsha. 2021-yil;

3. Belyaeva, I.V. Nutqni manipulyatsiya qilish hodisasi: lingvistik va huquqiy jihatlar. Monografiya. – Rostov/ND.: SKAGS, 2008. – 243 str;

4. Nuradilova A.D. Nutqiy savodxonlikni rivojlantirishda leksik birliklar semantikasining o'rnini. Muqallim xam uzliksiz bilimlendiriy. №3/2-2022 yil, -B. 10-13;

5. Karasik V.I. Til tugmalari. - Volgograd: Paradigma, 2007. – 520;

6. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград, 2002;

7. Смағұлова Г., Күркебаев К., Жұмағұлова Ә. Шешендік сөздердің дискурсы. – Алматы: Арыс, 2008. – 184 б.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILIDA SODDA VA QO'SHMA OTLARDA KO'PLIK KATEGORIYALARINI O'RGATISHNING OSON USULLARI

TerDPI Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi Farxodova Durdona Mansur qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi son shakllari, sodda va qo'shma otlar hamda ularda ko'plik shakllari qanday hosil qilinishi ularni boshlang'ich sinf o'quvchilariga tushuntirishning oson va tartibli usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ot, sanaladigan, sanalmaydigan, ko'plik, birlik, sodda ot, qo'shma ot, kategoriya, qo'shimcha, o'zak, juft otlar, jamlanma otlar.

Dunyoda 7000ga yaqin tillar mavjud. Har bir til o'zining ma'lum qonun-qoidalari, yasaliş uslublariga ega. O'zbek tilshunosligida otlarda ikki xil son

shakllari mavjud. Bular: **birlik va ko'plik** shakllari hisoblanadi. Birlik kategoriyasi otlarning asos ya'ni leksema ko'rinishidagi shakli bo'lib, bunda ot tarkibida hech qanday grammatik shakl mavjud bo'lmaydi. Ko'plik kategoriyasi esa otlarda - **lar** qo'shimchasi sanalib, birlik shakldagi otlarga ushbu shakl qo'shilganda u otlarning bir emas bir nechta ekanligini ifoda etadi.

Ingliz tilida otlar **sanaladigan (countable) va sanalmaydigan (uncountable)** otlarga bo'linadi. Sanalmaydigan otlar birlik va ko'plik shakllariga ega. O'zbek tilidan farqli ravishda ingliz tilida ko'plik shakllari bir necha xil usullarda yasaladi. Aynan mana shu jihat boshlang'ich sinf o'quvchilarini til o'rganish jarayonida biroz chalg'itishi yoki mavzuni tushunishni murakkablashtirishi mumkin. Boshlang'ich sinflarda ingliz tilida otlarning ko'plik kategoriyalarini tushuntirishda dastlabki qadam, ko'plik shakllari hosil qilishning eng ko'p foydalaniladigan ko'rinishlarini aniqlab olishdir. Ingliz tilida otlarning ko'plik shakllarini hosil qilish, asosan, quyidagi ko'rinishlarda hosil qilinadi:

1. Birlikdagi ot asosiga **-s** qo'shimchasini qo'shish orqali. Ingliz tilidagi ot so'z turkumiga oid so'zlarning qariyb 70-80 foizida otlarga **-s** qo'shimchasini qo'shgan holda ko'plik shakli hosil qilinadi. Masalan: a flower (bitta gul) - some flowers (bir nechta gullar), a week (bir hafta) - six weeks (olti hafta)

Bunda **-s** quyidagicha talaffuz qilinadi

a) jarangli undosh va unlilardan so'ng [z] o'qiladi. M: beds [bedz]. B) jarangsiz undoshlardan so'ng [s] o'qiladi. M: lists [lists]

Ammo ingliz tilidagi ba'zi otlarga **-s** ko'plik qo'shimchasi hamma otlarga ham qo'shilavermaydi. Ular quyidagi hollarda **-es**, **-ies** hamda **-ves** shakllarida qo'shiladi:

a) agar ot so'z turkumidagi so'z **-s**, **-sh**, **-ch**, **-x**, **-o**, tovushlari bilan tugasa ko'plik shakli qo'shimchasi **-es** tarzida qo'shiladi.

Masalan: bus (avtobus)- buses (avtobuslar), church (cherkov)- churches (cherkovlar), box (quti)- boxes (qutilar), potato (kartoshka) - potatoes (kartoshkalar)

b) agar ot so'z turkumidagi so'z **-y** harfi bilan tugasa hamda ushbu tovushdan oldin kelgan tovush undosh tovush bo'lsa, bunday so'zlarda ko'plik kategoriyasi **-ies** qo'shimchasi orqali hosil qilinadi. Ya'ni: baby (chaqaloq), - babies (chaqaloqlar), bunda birlikdagi ot oxirida kelgan "y" tovushi "i" tovushiga almashmoqda.

Ushbu qoidani o'quvchilarga tushuntirayotganda qoidaning ikkinchi qismini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Chunki agar **-y** bilan tugagan so'zlarda ushbu tovushdan oldin keluvchi tovush unli tovush bo'lsa umumiy qoidaga asosan bu so'zlarga **-s** qo'shilib ko'plik shakli hosil qilinadi.

Masalan: day (kun)- days (kunlar), boy (bola) - boys (bolalar), Monkey (maymun) - monkeys (maymunlar) kabi.

c) agar ot so'z turkumidagi so'z **-f** va **-fe** tovushlari bilan tugasa, bunday so'zlarda ko'plik shakli **-ves** tarzida qo'shiladi. Ya'ni

Shelf (javon) - shelves (javonlar), knife (pichoq)- knives (pichoqlar)

2. Ingliz tilida shunday otlar borki ularning ko'plik shakli grammatik qo'shimcha yordamida hosil qilinmasdan **o'zakdan o'zgargan** holda yasaladi. Ular quyidagi otlardir:

Man (erkak) - men (erkaklar)
woman (ayol) - women (ayollar),
foot (oyoq)- feet (oyoqlar)
tooth(tish)-teeth(tishlar)
mouse (sichqon) - mice (sichqonlar)
child (bola) - children (bolalar)
Person (odam) - people (odamlar)

3. Ingliz tilidagi "**fish**" va "**sheep**" so'zlarining birlik va ko'plik shakllari bir xil ko'rinishda bo'ladi.

Ya'ni: a sheep (bitta qo'y) - some sheep (bir nechta qo'y), a fish (bitta baliq) - many fish (ko'p baliqlar).

4. Ba'zi ingliz tilidagi so'zlar doimiy ravishda ko'plik shaklida turadi, ulardan so'ng har doim ko'plik shaklidagi kesim keladi. Ushbu otlar **juft va jamlanma otlar** deyiladi.

Juft otlarga: scissors - qaychi,
glasses- ko'zoynak
trousers - shim,
jeans - jense,
pyjamas- pijama,
scales – tarozi
va boshqalar kiradi.

Jamlanma otlarga : goods- mollar,
slums - xarobalar
contents- mundarija,
clothes- kiyimlar,
stairs - zina

Qo'shma otlarda ko'plik shakllari

Ingliz tilida qo'shma otlar " Noun+ noun " ya'ni ot+ ot birikmasidan tashkil topadi. Mazkur holatda birinchi ot ikkinchi otning belgisini bildirishga xizmat qiladi ya'ni sifatga o'xshab ketadi. Qo'shma otdagi ikkinchi ot umumiyroq ma'noda ishlatiladi, birinchi ot esa uning qaysi tasnifga kirishini ko'rsatadi.

A milk chocolate - sutli shokolad, shokolad turi

a chocolate milk - shokoladli sut, sut turi

a horse race - ot poygasi - poyga turi

a race horse - poyga oti - ot turi

Bunday holatlarda birinchi ot odatda birlikda qo'llaniladi.

an address book (a book for addresses, not an addresses book)

a shoe shop (poyabzal do'koni)

a glass case (shisha quti)

an art festival (tasviriy san'at festival=painting, drawing, sculpture)

Qo'shma otlarning ko'plik shakli **ikkinchi otni** ko'plik shakliga aylantirish orqali yasaladi.

coal mine - coal mines

office worker - office workers

tea leaf - tea leaves

Ingliz tilida qo'shma otlar ba'zi qo'shma otlar **fe'l+ko'makchi yoki fe'l+ravish** qurilmasiga ega bo'lishi mumkin. Qiyoslaymiz :

Mansen broke out of the prison by dressing as a woman. (fe'l ibora - qochdi)

There was a major break-out from the prison last night. (fe'l+ko'makchidan iborat

qo'shma ot - qochish)

Yuqoridagi shakl bilan yasalgan qo'shma otlarda ko'plik shakl ko'makchilarga -s

qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi.

read-out(s)

push-up(s)

intake(s)

outcome(s)

Istisnolar: looker(s)-on yoki onlooker(s), runner(s)-up, passer(s)-by, hanger(s)-on

Apostrof s va ko'plik shakllarining birgalikda kelishi

Ingliz tilida apostrof belgisi ' biror narsaga egalikni ifodalashda qo'llaniladi va

o'zbek tilidagi qaratqich kelishigi bol'gan -ning yoki -niki qo'shimchalari ma'nosini

beradi. E'tiborli jihati, apostrof shaxslar va boshqa tirik jonzo'tlar uchun ishlatiladi.

Apostrof otlarga quyidagi qoida asosida qo'shiladi.

▪ birlikdagi ot+'s

my sister's car

the dog's kennel

▪ ko'plikdagi ot+'s

my sisters' cars

the dogs' kennel

* Ko'plik shakli -s qo'shimchasiz hosil qilinadigan otlarga oldin apostrophe qo'yilib,

keyin -s qo'shiladi ('s).

the children's books - bolalarning kitobi

the women's dresses – ayollar ko'ylaklari

the men's clothes – erkaklar kiyimlari

the policemen's guns – politsiyachilar miltig'i

Qo'shma otlarga apostrof qo'shilishi quyidagicha:

the mother-in-law's car

a brother-in-law's house

Bittadan ko'p bo'lgan otlarda apostrofning ishlatilishiga e'tibor bering.

Jack and Karen's children - Jek va Karenning farzandlari (farzandlar ikkalasiga ham tegishli, shuning uchun bitta apostrof qo'yilgan)

Mr and Mrs Carter's house - Mister va Missis Karterning uyi (ikkalasi ham shu uyda yaxshaydi)

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki ingliz tilida ko'plik shakllarini hosil qilishning ma'lum qolipi mavjud emas. Afsuski, ingliz tilidagi tartibsiz ko'pliklar uchun oson qoidalar ham yo'q. Ularni o'rganish va eslab qolish kerak. Berilgan qoidalarda ingliz tilidagi otlarda ko'plik shakllarini boshlang'ich sinf o'quvchilariga tushuntirishning bir muncha oson yo'llari tartibli tarzda bayon etildi. Ular asosida ko'plik shakllari o'quvchilarga yetarlicha tushuntirib beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Kristal, Devid. "Ingliz tilidagi Kembrij entsiklopediyasi." 3-nashr, Cambridge University Press, 2019 yil 24-yanvar

2. M. G'afforov R. Qosimova " Ingliz tili grammatikasi ". Toshkent. "Azmir Nash print. 2022.

3. M 96 Essential grammar in use: a self -study reference and practice book for elementary students of English/ R. Murphy.- Tashkent: " ART FLEX" Publishing house, 2020.

4. R.D.Norqobilova. Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini indikatorlar asosida diagnostika qilishning o'ziga xosligi. INTERNATIONAL CONFERENCES, 564-568. 2023

5. NR Davlatovna - Functions and Principles of Pedagogical Diagnostics. Web of Synergy: International Interdisciplinary 413-416, 2023/1/31

6. P Норқобилова -Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan iqtidorini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish. Общество и инновации. 36-41, 2023/1/25

7. P Nazarova, R Norqobilova - PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF EDUCATION OF YOUNG GENERATION AT ABU RAYHAN BERUNI TEACHING. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 1908-1911. 2022/6/30

8. S Xoliyeva, R Norqobilova - EASTERN SCIENTISTS 'VIEWS ON SPEECH. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 1433-1427. 2022/6/24

9. Sevara XOLIYEVA, Rayhona NORQOBILOVA, Muhlisa-MAMATMUROTOVA THE IMPORTANCE OF PEOPLE'S ORAL CREATIVITY IN THE DEVELOPMENT OF SPEECH BY PRIMARY SCHOOL STUDENTS. 2022/6/9. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 84-87. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/2379>

10. Sumbula IBROHIMOVA, & Rayhona NORQOBILOVA. (2022). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF USING THE HERITAGE OF ASIAN THINKERS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL SCIENCE CLASSES. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 81-83. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/2378>

11. Zoirova Sevinchbonu Khurshid Kizi, Norqobilova Rayhona Davlatovna, Tajimirzayeva Buzulaykho Mahammadjon Kizi. high spiritual generation-third renaissance builders. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. 167-169. 2022

12. Райхона Норқобилова. О'қувчиларнинг она тили бо'йича iqtidorini aniqlash va rivojlantirishning o'ziga xosligi Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. 379-384. 2022

13. R.Norqobilova, M.To'rayeva Importance of talent in child development. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. ISSN: 2776-0979, VOLUME 3, ISSUE 7, July. 2022 57-61.

14. Shabbazova, D. (2022). Content of factors determining the efficiency of primary school students. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(5), 630-636.

VALUE OF MATHEMATICS IN PRIMARY GRADES

Normurodova Hilola Bakhtiyar's daughter

TerDPI primary education student of the 2nd stage

Scientific supervisor: Norgabilova Raykhona Davlatovna

TerDPI is a teacher of the theory of primary education

Abstract: Today students have calculation skills forming, applying them in daily activities, studying and getting education the system of mathematical knowledge and skills necessary to continue formation and development of mathematics in primary education is one of the main tasks of teachers. Therefore, this article is the beginning

the importance, goals and tasks of teaching mathematics to students dedicated.

Keywords: Mathematics, geometry, arithmetic, algebraic geometric materials, quantities, fractions, subtraction, multiplication, addition, division.

Arithmetic material is the main content of the course. The main core of the elementary course consists of the arithmetic of natural numbers and basic quantities. In addition, this course integrates the basic concepts of geometry and algebra. The elementary school mathematics course is an organic part of the school mathematics course. The most basic and age-appropriate elementary concepts of mathematics taught in grades V-XI are given. In higher grades, these concepts are taught in an expanded, deepened and enriched manner. So, the content of elementary school mathematics determines the content of high school mathematics. The structure of elementary mathematics has its own characteristics:

1. Arithmetic material is the main content of the course. Arithmetic of natural numbers, basic quantities, introductory courses of elements of algebra

and geometry are taught in addition to arithmetical material without being taught in the form of a main section.

2. Primary grade material is structured concentrically. For example, if first the numbering of the first ten is taught, then the numbering within 100 and performing arithmetic operations are taught. After that, perform arithmetic operations within 1000, then multi-digit numbers. Along with teaching these, numbering, quantities, fractions, algebraic and geometrical materials are also taught.

3. Theory and practical issues are organically connected.

4. Mathematical concepts, properties, and the discovery of legal connections are interconnected in the course.

5. Each concept is explained in detail.

For example, before teaching arithmetic operations, its exact essence is revealed, then the properties of the operation, then the connection between the components, then the result of the operation, and finally the connection between the operations is given.

6. Basic concepts and resulting concepts are given in the interconnection. For example, multiplication is based on addition.

The elementary mathematics course includes parts of arithmetical, algebraic and geometrical material.

A concentric arrangement of arithmetic material is maintained in the elementary mathematics course.

However, in the current program, the number of counters is reduced: tens, hundreds, thousands, multi-digit numbers. It should also be said that the material is grouped in such a large way that the interconnected concepts, actions, and issues are viewed in time.

At the same time as studying the properties of arithmetic operations and appropriate calculation methods, connections between the results and components of arithmetic operations are revealed. (For example, if one of the addends is subtracted from the sum, the second addend is formed.) Changes in the results of arithmetic operations are observed when one of the components changes.

Elementary school is often the most important years of a school's career. In grades K-5, students acquire substantive knowledge that is defined as a foundation for the rest of their education. As with all core subjects, mathematics has set tasks that need to be solved in math classes.

At its most basic level, math involves counting, recognizing numbers, and performing simple operations such as addition and subtraction. In the elementary grades, students should be provided with many opportunities to acquire these skills. By the end of elementary school, children should be comfortable writing and identifying numbers, counting forwards and backwards, and comparing numbers and quantities. Elementary students should have a basic knowledge of facts and families. They should also be able to add, subtract, multiply and divide numbers.

In elementary grades, students should be taught to measure length, weight, and capacity. Children should be introduced to comparative language such as "shorter", "heavier" and "longer" and be able to apply these concepts when considering different objects and units of measurement. Elementary students should also learn about money and time and measure time in hours, days, months, and years. In addition to measurement, children should be taught to estimate quantities and possibilities.

Learning about shapes, symmetry, location, and direction are the main goals of elementary school math. Students should be able to identify, name and draw two- and three-dimensional shapes. Children in elementary grades also need to understand line and rotational symmetry, as well as manipulating objects in space. Additional spatial position concepts such as "above", "under", "next to" and "behind" should also be paid attention to in primary mathematics education.

Collecting, organizing, and interpreting data is an important skill taught in the elementary grades. Students should be given the opportunity to answer questions by sorting and organizing information using graphs, charts, tables and Venn diagrams. They should also learn to compare objects and data based on given criteria.

Mathematics should be used to develop critical thinking and problem solving. When presented with a problem or situation, elementary students should be able to identify the appropriate strategies needed to make inferences and perform calculations. In elementary school, students must move from using concrete objects and writing calculations to performing mental operations. Children in elementary school should also be able to identify and follow patterns, give examples and non-examples of mathematical statements, and formulate and test hypotheses.

One of the most important goals for students at this level is to develop a positive attitude toward mathematics. Students should understand and appreciate the functionality of mathematics. Elementary school students should be taught not only to appreciate mathematics, but also to use mathematics in everyday life. They should have exposure to all applications of mathematics, from calculating conversions or telling time to using angles in architecture or art.

References:

1. www.ziyonet.uz
2. Methodology of teaching mathematics in primary grades. library.adu.uz
3. Jumayev M. E., Tadjieva Z. G'. "Teaching mathematics in primary grades methodology" Tashkent, 2005
4. Tashmurodov B. "Teaching mathematics in primary grades improvement", Tashkent "Teacher", 2000
5. R.D.Norqobilova. Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini indikatorlar asosida diagnostika qilishning o'ziga xosligi. INTERNATIONAL CONFERENCES, 564-568. 2023

6. NR Davlatovna - Functions and Principles of Pedagogical Diagnostics. Web of Synergy: International Interdisciplinary 413-416, 2023/1/31
7. P Норқобилова - Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan iqtidorini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish. Общество и инновации. 36-41, 2023/1/25
8. P Nazarova, R Norqobilova - PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF EDUCATION OF YOUNG GENERATION AT ABU RAYHAN BERUNI TEACHING. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 1908-1911. 2022/6/30
9. S Xoliyeva, R Norqobilova - EASTERN SCIENTISTS 'VIEWS ON SPEECH. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 1433-1427. 2022/6/24
10. Sevara XOLIYEVA, Rayhona NORQOBILOVA, Muhlisamamatmurotova THE IMPORTANCE OF PEOPLE'S ORAL CREATIVITY IN THE DEVELOPMENT OF SPEECH BY PRIMARY SCHOOL STUDENTS. 2022/6/9. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 84-87. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/2379>
11. Sumbula IBROHIMOVA, & Rayhona NORQOBILOVA. (2022). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF USING THE HERITAGE OF ASIAN THINKERS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL SCIENCE CLASSES. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 81-83. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/2378>
12. Zoirova Sevinchbonu Khurshid Kizi, Norqobilova Rayhona Davlatovna, Tajimirzayeva Buzulaykho Mahammadjon Kizi. high spiritual generation-third renaissance builders. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. 167-169. 2022
13. Райхона Норқобилова. O'quvchilarning ona tili bo'yicha iqtidorini aniqlash va rivojlantirishning o'ziga xosligi Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. 379-384. 2022
14. R.Norqobilova, M.To'rayeva Importance of talent in child development. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. ISSN: 2776-0979, VOLUME 3, ISSUE 7, July. 2022 57-61.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING O'ZIGA XOS JIHLARI

Berdiyeva Umida Meyliyevna

Termiz iqtisodiyot va Servis universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan ta'limning bir qator jihatlari ko'rib o'tilgan. Xususan kasbiy, amaliy kompetentlik turlari va ularning rivojlanish bosqichlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kompetentlik, baholash, ma'lumot, o'qituvchi, o'quvchilar, munosabat, shaxsiy, amaliy, ijtimoiy, tashabbuskor.

Аннотация: В статье рассматривается ряд аспектов образования на основе компетентных подходов. В частности, обсуждались виды профессионально-практических компетенций и этапы их развития.

Ключевые слова: компетентность, оценка, информация, учитель, ученики, отношение, личное, практическое, социальное, инициативное.

Annotation: A number of aspects of education based on competence approaches are considered in the article. In particular, the types of professional and practical competences and their development stages were discussed.

Key words: competence, assessment, information, teacher, students, attitude, personal, practical, social, initiative.

Hozirgi kunda jahonda o'quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim mazmunini fan yutuqlari bilan uyg'unlashtirish metodikasini takomillashtirish, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholashning xalqaro dasturlari (PISA, TIMSS) hamda o'quvchi kompetensiyalarining shakllanganligini tashxislash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishida umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish vazifalari belgilib berilgan. Bu ta'lim jarayonini zarur axborotlar bilan ta'minlash, ularni o'zlashtirib borishning maqbul yechimlarini topish va joriy qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarni o'zlashtirilgan axborotlarni o'quv va hayotiy faoliyat turlarining standart va nostandart vaziyatlarida qo'llay olishga tayyorlashi bilan karakterlanadi. Maktab ta'limini zamonaviy rivojlanish talablariga moslashtirish fanlardan elektron ta'lim resurslarini takomillashtirish, o'quvchilarning elektron manbalar bilan faol muloqotini ta'minlash, mustaqil ta'limni amalga oshirish va o'z-o'zini baholash, zaruriy ma'lumotni operativ izlab topish va yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda undan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan ta'lim

sifati ko'rsatkichlaridan biri kompetentlik hisoblanadi. U faqatgina bilim va ko'nikmalar yig'indisi bo'libgina qolmay, o'quvchilarning egallagan bilimlarini mobillashtirish va aniq vaziyatlarda tajribada qo'llay olishi bilan tavsiflanadi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitishning asosiy mohiyati kasbga yo'naltiruvchi fanlardan tashkil qilingan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirish sanaladi. O'quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim. O'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar uch darajaga ajratiladi: tayanch kompetensiyalar; umumiy (predmetli) kompetensiyalar; xususiy kompetensiyalar.

O'quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiya, faqat o'quv fani orqali shakllantiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi. Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablari zimmasiga ta'lim-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan. Zamonaviy yondashuvlar o'qitish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zaro integratsiyalash orqali o'quvchilarda tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuvni kasbiy ta'lim, umumta'lim fanlari standartlari mazmuniga kiritish tamoyillari, ularning pedagogik tizim bo'g'inlaridagi o'zgarishlarga ta'siri, psixologik va metodologik asoslari va xususiyatlari, mustaqil ravishda ta'lim natijalariga erishish konsepsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv talqini, shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan, ijtimoiy va ma'lum bir sohadagi faoliyatga doir kompetensiyalarga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. O'qituvchilarning kompetentligini oshirishning o'quv-metodik ta'minoti sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar, amaliy mashg'ulotlarning virtual shakllarini joriy etish, kasbga yo'naltirilgan fanlarni o'qitishdagi kompetensiyaviy yondashuvlar, fanlararo bog'liqlikni aks ettiruvchi amaliy mashg'ulotlar asosida o'qitish ta'limning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Kompetensiya so'ziga turlicha ta'riflar, yondashuvlar mavjud. Xususan, «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»da kompetensiya so'zi quyidagicha izohlanadi: kompetensiya (lot. *competo* – erishyapman, munosibman, loyiqman) – muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat

bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; u yo bu sohadagi bilimlar, tajriba. “Kompetensiya” atamasi keng ma’noda umumiy masalalarni hal etishda amaliy tajribalar asosida bilim va malakalarni qo’llash, muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatini bildiradi. Lotincha “campetere”-muvofiq bo’lmoq so’zidan kelib chiqqan. Keng ma’noda kompetensiya masalaning, shuningdek, muayyan bilim sohasining mohiyatini muvafaqqiyatli hal eishda amaliy tajribaga asoslanib, bilim va ko’nikmalarni qo’llay olish qobiliyatidir. Ta’limda kompetentlik bilan yondashuv o’quvchilarni turli ko’nikmalarni egallash, kelajakda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga yo’naltiradi. Kompetensiya – bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. U bilim mahsuli bo’lib, mutaxassis tomonidan uni amaliyotda qo’llay olish qobiliyatidir. Kompetensiyaning bilimdan farqi shundaki, vazifani amaliy bajarmasdan turib, uni aniklab ham, baxolab ham bo’lmaydi. Malaka kompetentlikning muhim mezon bo’lib, u turli holatlarda, shu qatori muammoli vaziyatlarda ham bir necha bor qo’llash natijasida namoyon bo’ladi. Amaliy kompetentlik - bilim mahsuli bo’lib, amaliyotda qo’llay bilish qobiliyati. SHuningdek, kompetensiya, bilimdan farqli, amaliy faoliyatsiz namoyan bo’lmaydi va uni baholay olish mumkin emas. Kasbiy kompetentlik – kasbiy faoliyatga oid masalalarni hal etishda bilim va ko’nikmalarni amaliy tajribada samarali qo’llay olish qobiliyatidir. Hozirgi zamon maktab o’qituvchisining kasbiy bilimdonligi va kobiliyati mezonlariga quyidagilar kiradi: ijtimoiy, uslubiy va ixtisoslik bilimdonligi hamda bilish, tushuntira olish, kuzatuvchanlik, nutq, tashkilotchilik, obro’ orttira olish, to’g’ri muomala qila olish, kelajakni ko’ra bilish va diqqatni taqsimlay olish qobiliyatlari. O’qituvchi o’zini egallab turgan lavozimi darajasida kasbiy kompetentlikka ega ekanligini his etgandagina pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etishi mumkin. Zotan uni kasbiy bilimdonlik, halollik, rostguylik, izlanuvchanlik, tinimsiz sermahsul mehnat, ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlar yuksaltiradi. Uning bilimdonligi, faolligi, mehnatkashligi, kamtarligi, ma’naviyati va madaniyati, ma’rifatligi o’quvchilari, bo’lajak kasb egalarining hurmat-ehtiromiga sazovor etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Qayumova N.M. “Maktabgacha pedagogika” TDPU nashriyoti-T: 2017 y
2. F.Qodirova va boshqalar “Maktabgacha pedagogika” Toshkent 2019 y
3. M.Berdiyeva ITELLECTUAL DEVELOPMENT IN PRESCHOOL EDUCATION- Applied Science, 2020- elibeary.ru
4. M.Berdiyeva S.Bo’ronova “Maktabgacha va boshlang’ich ta’limda nutq o’stirish metodi orqali bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishning samarali usullari” Science and Education 2021 y:
5. BM Meyliyevna “Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari” Научно-практическая конференция, 2021.
6. Xurramova, M., & Shabbazova, D. R. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINF SAVOD O’RGATISH DAVRIDA O’QUVCHILARNING YOZUV MALAKALARINI

SHAKLLANTIRISH METODIKASI. Академические исследования в современной науке, 2(9), 156-163.

7. Shabbazova, D. (2022). Content of factors determining the efficiency of primary school students. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(5), 630-636.

8. Шаббазова, Д. Р. (2020). Индивидуальные Факторы Формирования" Сообразительности" Учащихся Начальных Классов. *Евразийский Союз Ученых*, (4-8 (73)), 46-49.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH USULLARI

*Nizomiy nomidagi TDPU "Ta'lim va tarbiya nazariyasi
va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim)"1-bosqich magistranti
Shamuratova Nilufar Shokir qizi*

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga o'rgatishning turli usullarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini oshirish haqida fikr va mulohazalar aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, metod, tamoyil, intellektual salohiyat, ko'nikma, globallashuv, spiralsimon o'qitish, integrativ yondashuv.

Аннотация: Статья содержит мысли и мнения по поводу разработки различных методик обучения учащихся начальных классов творческому мышлению и повышения их эффективности.

Ключевые слова: Креативность, метод, принцип, интеллектуальный потенциал, навык, глобализация, спиральное обучение, комплексный подход.

Annotation: The article reflects ideas and opinions about the development of various methods of teaching primary school students to think creatively and increasing their effectiveness.

Keywords: Creativity, method, principle, intellectual potential, skill, globalization, spiral learning, an integrative approach.

Hozirgi jadal rivojlanayotgan globallashuv jarayonida dunyoning har qarich yerida inson ongi va tafakkuri uchun jiddiy kurash ketayotgani ayni haqiqatdir. Birda oshkora, birda pinxona ko'rinishda kechayotgan bu kurashlar har birimizdan atrofga sinchkov nazar tashlash va jahonda kechayotgan turli jarayonlarni aqlan sarhisob etishga undaydi.

Ilmiy taraqqiyot davri kishilarni rivojlanishga majbur qilmoqda. Kreativ fikrlash esa yuksak darajada rivojlangan mutaxassislar uchun katta ahamiyatga ega. O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sifati, jumladan, boshlang'ich ta'limda o'qitish samaradorligini oshirish, uni malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, o'quv uslubiy ta'minotni qaror toptirishga qaratilgan bir qator islohotlar natijasida boshlang'ich sinflarda ona tili fanini integrativ yondashuv asosida tizimlashtirish, modulli ta'lim texnologiyalarini qo'llash, o'quv

materialini strukturalashtirish, ta'lim mazmunini ilmiy tashkil etishga erishilmoqda. Shu bilan bir qatorda, boshlang'inch sinf ona tili darslarida o'quvchilarda kreativ fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik jihatlarini aniqlash zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida "mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash" kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning mustaqil mushohada etish ko'nikmalarini shakllantirishda ona tili ta'limidan egallagan bilimlarini amaliy tarzda qo'llashni o'rgatishni innovatsion yondashgan holda tadbiiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Kreativlik inglizcha "create" so'zidan olingan bo'lib, yaratish ma'nosini bildiradi. Kreativlik deganda, insonning yangilik yaratish va muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish shartlari sifatida biz quyidagilarni sanab o'tamiz:

- tanqidiy fikrlash;
- sifatni tahlil qilish qobiliyati;
- mantiqiy zanjir hosil qilish qobiliyati;
- muammoga kreativ yondashuv;
- yetarli yechim topish;
- an'anaviy strukturalar, qarorlar, harakatlar bilan chegaralanib qolmaslik;
- spiralsimon o'qitishni tatbiiq qilish.

Bundan kelib chiqib, o'quvchilarni qanday qilib kreativ fikrlashga o'rgatish mumkin? Avvalo, muammoli vaziyat va masalalarni taklif etish va uni hal qilishga undash; ijodkorlik borasidagi o'z-o'ziga ishonchni orttirish; qiziquvchanlik va tadqiqotchiligini rag'batlantirish; kreativlikka ta'sir etuvchi shaxsiy va ijtimoiy omillarni ijobiy tomonga yo'naltirish.

Yuqoridagilar PISA tadqiqotlari doirasida kreativ fikrlashni tatbiiq qilish hamda baholash tamoyillari hisoblanadi. PISA baholash platformasi doirasida o'quvchilarning kreativ fikrlashlarini tekshiruvchi testlardan foydalaniladi. O'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini to'liq qamrab oladigan real dunyo haqidagi tasavvurini aks ettiradi. Shu o'rinda, o'quvchilarni birdan ortiq faoliyat sohasida ishlashga undash orqali kreativ fikrlash ko'nikmasining riojlanishidagi kamchilik va kuchli tomonlari tekshiriladi. Baholash tartiblari, o'quvchilar egallashi mumkin bo'lgan kreativ fikrlash ko'nikmalarini namoyon qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda ona tili darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirish mazmuni shuni ko'rsatdiki, kreativ yondashuv nafaqat pedagogik texnologiyani tanlashga, balki birinchi o'rinda, o'qituvchining shaxsiyatiga ham bog'liq. Qachonki o'qituvchi o'quvchilarni noodatiiq tarzda mushohada qilishga, muammoga turli tomondan qaragan holda yechim

topishga o'rgata olsagina, biz yuqorida ta'kidlab o'tgan pirovard maqsadimizga erishgan bo'lamiz. Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish doimiy ravishda badiiy asarlarni o'qish, kino, teatr, musiqa, hunarmandchilik va tasviriy san'at namunalari bilan tanishish, ularga nisbatan shaxsiy baho berish hamda amaliyotda qo'llash jarayonida rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. -T.,2022.
2. Y.G'ulomov, I.Rasulov, X.Rustamov, B.Mirzaaxmedov. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Qo'llanma. Toshkent-1975. 121-bet.
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-sinf-o-qituvchilarida-kreativ-salohiyatni-rivojlantirishning-pedagogik-xususiyatlari>.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

TerDPI Boshlang'ich ta'lim fakulteti

*2-kurs talabasi **Sultanova Tursunoy Ho'sinboy qizi***

TerDPI Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası

*o'qituvchisi **Tursunova Saida Isakovna***

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kundagi o'sib borayotgan yosh avlodni og'zaki nutqi haqida, ya'ni bunda bog'cha yoshidan boshlab, boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirish, hamda allomalarimizning bir qancha fikrlari, mulohazalari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: nutq, og'zaki nutq, yozma nutq, til, nutq o'stirish metodikasi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining eng dolzarb muammolaridan biri har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash, o'z Vatanga va xalqiga sodiq insonlarni tarbiyalash hamda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Jamiyat rivojlanishiga, asosan, yosh avlod ham o'z hissasini qo'shadi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Kelajak yoshlar qo'lidadir", deganlar. Bu ulug' maqsadni ro'yobga chiqarish uchun hozirgi kunda ta'lim sohasida bir qancha o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ta'limni rivojlantirishni biz, asosan, boshlang'ich sinf o'quvchilaridan boshlaymiz. Negaki, "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir", degan dono xalqimiz. Bugungi kunda yosh avlodning barkamol, yetuk, salohiyatli insonlar bo'lib kamolga yetishi uchun ona tilining barcha boylıklaridan, uning imkoniyatlaridan foydalanish zarur. Nutq – kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir.

Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi

uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish quolidir. Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy operatsiyalarga katta ahamiyat beriladi. Asosan boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda, ularda maktabgacha ta'lim yo'nalishidan boshlab fundamental bilim beriladi, ya'ni bunda bog'cha yoshidan boshlab o'quvchilarni og'zaki nutqini rivojlantirish yo'lga qo'yiladi. Bog'cha yoshidan boshlab o'quvchilarga she'r, hikoya, ertak, qo'shiq, multimedialardan foydalangan holda turli xil tillarda multfilmlar, qo'shiqlar va hokozalar namoyish qilinadi. Namoyish qilinib bo'lgach bolalarga o'qituvchilari tomonidan ertak, hikoyalar yanada oydinroq qilib hayotiy tajribalariga asoslanib tushuntiriladi, bundan maqsad o'sib borayotgan yosh avlodni og'zaki nutqini rivojlantirishdir. Keyinchalik bolalar mustaqil tarzda she'rlar yod olishadi.

Asta – sekin ularni atrof-muhit, hayvonot bog'lariga aylantirishadi. „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“ kabi „Nutq o'stirish dasturi“ ham ilmiy asoslarga tayanib tuzilgan. Eng avvalo, „Nutq o'stirish dasturi“ o'zining butun mazmuni bilan bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Bundan tashqari, „Nutq o'stirish dasturi“ bolalar tomonidan og'zaki nutqni o'stirish to'g'risidagi psixologiya fani ma'lumotlari, bola bilish faoliyatining xususiyatlari to'g'risidagi nazariyaga asoslangan. Shuningdek, dastur bolaning rivojlanishida nutq faoliyatining ro'li to'g'risidagi nazariy asoslarga, didaktik prinsiplarga ham tayanib tuzilgan: „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“da „Nutq o'stirish dasturi“ har bir guruhda quyidagi bo'limlardan iborat qilib tuzilgan.

Birinchi va ikkinchi kichik guruhlarda:

1. Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutq o'stirish, lug'at ustida ishlash.

2. Nutqining grammatik tuzilishini shakllantirish.

3. Nutqining tovush madaniyatini tarbiyalash.

4. So'zlashuv nutqini (dialog nutqini) shakllantirish.

5. Bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish. Bu tanishtirishdan va multimedialardagi multfilm va ertaklarni ko'rishdan maqsad o'sib borayotgan yosh avlodni og'zaki nutqini rivojlantirish va ular bilan fikr almashinishdir. Keyinchalik asta – sekin tajribalariga asoslangan holda bolalar o'rgangan narsalarini, masalan: olma mevasini oladigan bo'lsak uning qanday? rangdaligini, hajmini, qayerda? yetishtirilishini, qanday vitaminlarga boyligi va hokoza ushbu meva haqida o'z fikrlarini erkin ayta olishadi. Bolalar bog'chasida lug'at bilan ishlash dasturi mavjud bo'lib, tarbiyachi bolalarga atrofdegilar bilan tez nutqiy muloqotga kirishib olishiga yordam beradigan so'zlarni tanlab, maxsus usul va uslubiyot yordamida ular nutqiga kiritib

boradi. Bolalarni so'zlarning ma'nosini tushunishga o'rgatibgina qolmay, balki bu so'zlarni o'z nutqlarida faol ishlatishga ham odatlantirib boradi. Bolalarga bilim va tarbiya berishda so'zlashuv nutqiga (dialog) o'rgatish katta ahamiyatga egadir. ishlar. Respublikamizda maktabgacha ta'lim allaqachon davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Shu bois ta'lim tizimining ilk bo'g'iniga doir har qanday muammo davlat miqyosida hal qilinmoqda.

Bolani so'zlashuv nutqiga o'rgatish uning madaniy nutqni egallaganlik darajasiga ham bog'liqdir. Masalan, suhbatdosh bilan so'zlashayotgan vaqtda o'zining va suhbatdoshining nutqiga doimo e'tiborli bo'lish, suhbatdoshining nutqini aslo bo'lmaslik, savollarga odob bilan qo'l ko'tarib, ruxsat berilgach, javob berish, „ h a “ yoki „yo'q “ deb qisqa javob bermay, balki shoshmay, o'ylab, so'ng to'liq, to'g'ri javob qaytarishga odatlantirish lozim. So'zlashganda o'rtacha ovozda fikrni tushunarli qilib bayon etish. Nutqning yoqimli bo'lishiga e'tibor berish, shuningdek, gapirayotgan vaqtda yerga, tevarak-atrofga qaramay, balki o'rtoqlariga qarab, ikki qo'lini yonga tushirib, erkin, samimiy so'zlashishga o'rgatishi va buni har mashg'ulotda bolalardan talab qilib borish zarur. Bolalarni so'zlashuv (dialog) nutqiga o'rgatish bo'yicha dastur talabida ularni butun guruh uchun berilgan savollarga bitta-bittadan javob berishga, jamoa bo'lib so'zlashishga, suhbatda qatnashishga, o'rtoqlarining javobini qunt bilan tinglash va o'zi ham savol berishga o'rgatilishi ko'rsatilgan. Shu bilan bir qatorda, tevarak-atrofdagi kishilar bilan so'zlashganda samimiy, mazmunli gapirish kabi ijobiy xislatlar ham tarbiyalanib boriladi. Ushbu yuqoridagi fikrlarni boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars jarayonida tushuntirib borishi maqsadga muvofiqdir. Buyuk pedagogning mazkur qoidaga rioya qilishni «didaktikaning oltin qoidasi» deb atagani ham bejiz emas. Komenskiy ota-onalarga bolalar bilan muloqot qilishda narsalar nomlarini va so'zlarni buzmasdan, to'g'ri aytish, bolalarga talaffuzi qiyin bo'lgan va nisbatan uzun so'zlarni aytishni mashq qildirish va buning uchun o'yin uslubidan foydalanishni maslahat beradi. Komenskiyning xizmati shundan iboratki, u pedagoglar ichidan birinchilardan bo'lib bola nutqini rivojlantirishda, uning ona tilini butun go'zalligi va milliy xususiyatlari bilan birgalikda o'zlashtirib olishida she'riyat, ertaklar, maqollar va matallar, tez aytishlarning tutgan o'miga birinchi bo'lib e'tiborni qaratdi. Gapirishni boshlayotgan bolalar kattalar nutqini tushunishlari uchun ular so'zlovchining yuzini va uning qo'l harakatlarini ko'rishlari, uning savollarini tushunishlari va to'g'ri javob berishlari darkor, deb yozgan edi Komenskiy. Bolalar kitoblari she'riy obrazlarda bolaga jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyg'ular va munosabatlar dunyosini ochib beradi hamda tushuntiradi. Badiiy so'z bola nutqini boyitadi, uni obrazli, ifodali qiladi, jaranglayotgan ona nutqning go'zalligini tushunishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida badiiy so'zdan tashqari tasviriy san'at, bayramlar va tomoshalardan foydalaniladi. Ularning qimmatini shundaki, u ijobiy hissiyotlarni hosil qiladi, bu esa o'z navbatida tilni o'zlashtirish darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Quvonch hissi,

hayajonlanganlik, ko'tarinkilik holati, g'ayrioddiy narsani kutish bolalaming qabul qilish qobiliyatini oshiradi, materialni eslab qolishni kuchaytiradi, bolalar nutqining ifodaliligiga ta'sir ko'rsatadi. Suratlar, amaliy san'at buyumlarini tomosha qilishda bolalar ko'p savol beradilar, olgan taassurotlarini atrofdagilarga aytishga oshiqadilar. Bolalar kun bo'yi mashg'ulotlarda, o'yinlarda, xo'jalik-maishiy va mehnat faoliyatida o'z pedagoglari bilan muloqotda bo'ladilar. O'z-o'zidan maktabgacha ta'limda nutqiy muhitni rivojlantirish imkoniyatlari butunlay pedagog nutqining sifatiga bog'liq bo'ladi.

O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to'g'ri tuzishni o'rgatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqi asosan ot, fe'l, sifat, son va bog'lovchilardan iborat bo'ladi. 6-7 yoshli bola o'z jumllarini murakkab grammatik tarkib asosida tuza oladi. Tajribadan ma'lumki, bola ma'nosiz so'zlardan ko'ra ma'nodor tushunchalarni birmuncha tez va mustahkam eslab qolish xususiyatiga ega. Uning nutqi maktab ta'limiga tayyorgarlik bosqichida kattalar bilan muloqotga kirishish, kishilarning fikrini uqib olish va to'g'ri idrok qilish darajasida, nutqning tuzilishi va grammatik qoidalariga mos, mantiqan izchil, ifodali, miqdor va ko'lam jihatdan fikr almashishga yetarli bo'ladi. Boshlang'ich ta'lim metodikasida yozma nutq og'zaki nutqdan faqat uni amalga oshirish texnikasiga ko'ra farqlanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtasida o'quvchini o'qish va yozishga o'rgatish uchun uning yozma nutqini shakllantirish yetarlidir, degan fikrlar mavjud. Nutq madaniyati - bu to'g'ri so'zlay olish, ya'ni nutqiy muloqot shartlari va fikr bildirishdan ko'zlangan maqsadni hisobga olgan holda hamda barcha til vositalaridan (til vositalaridan, shu jumladan intonatsiya, leksik zaxira, grammatik shakllardan) foydalangan holda bayon qilinayotgan mazmunga mos holda gapirishdan iboratdir. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, maktabgacha, yoshdagi bolalarni jismoniy va ruhiy kamolotini tarbiyalash, unga ta'lim berish muammolarini o'rganadi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda nutqni tuza bilish darajasini ko'tarish maktabgacha ta'lim tizimi metodistlari oldidagi asosiy vazifa irdandir. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda nutqdialogik va monologik nutqni rivqrlanjirishga alohida e'tibor berish zarur bo'ladi. Nutqni o'stirish mashg'ulotlarida, shuningdek, mashg'ulotning boshqa turlarida bolalarga ta'lim berib boriladi. Nutq faoliyatining mazmuni, tilning tuzilishi, shuningdek, mashg'ulotni tashkil etish va uning qay tarzda o'tkazilishi bolalar tarbiyasiga ta'sir etadi. Bolalarda bilishga bo'lgan qiziqishni materialning qiziqarli bo'lishi bilangina emas, balki mashg'ulotning ijobiy-emotsional tarzda tashkil etilishi o'stirib boriladi.

Og'zaki nutqning o'ziga xosligi nimada? Eng avvalo, og'zaki nutq hamma vaqt so'zlovchiga ma'lum ma'noda suhbatdosh bo'lgan tinglovchilarga mo'ljallanadi. Tinglovchilarning yuz-ko'zida aks etgan hamdardlik, qiziqish yoki e'tiroz alomatlari orqali ularning so'zlovchi nutqiga munosabatini bilish bu jonli aloqa so'zlovchiga mazmunga o'zgartirish kiritish, ovoz tembri va kuchini o'ylab olish, bu o'zgarishlar tinglovchilar munosabatiga qanday ta'sir etganini kuzatish imkonini beradi. Zamonaviy maktabda o'qituvchining jonli nutqiga texnik vositalar yordamga keladi. Ular nutq ifodaligini oshiradi, hissiy ta'sirini kuchaytiradi. O'qituvchi nutqi bu holda go'yo birlashtiruvchi bo'lib qoladi: u kinokadr, musiqa, foto ishlanma bilan birga idrok etiladi. O'qituvchi so'zi alohida tasviriy- ifodaviy sifatlarini ham aks ettiradi. Toki og'zaki nutq uni idrok etish jarayonida zudlik bilan tushunishni talab qilar ekan, o'ziga xos leksik-grammatik xususiyat ham kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama rivojlantirish uning insoniyat tajribasi, bilimlari, qobiliyati va madaniyatining saqlovchisi bo'lgan kattalar bilan muloqoti tufayli insoniyatning ko'p asrlik tajribasini o'zlashtirish asosidagina amalga oshiriladi. Bu tajribani faqat insoniy muloqotning eng muhim vositasi - til orqaligina berish mumkin. Til - hayotimizning ajralmas qismi bo'lib, biz unga o'z-o'zidan bo'lishi shart bo'lgan narsa sifatida qaraymiz. Tilning o'zi nima, biz unda qanday so'zlayapmiz, biz qanday qilib so'zlashni o'rganishimiz haqida esa unchalik ko'p o'ylab ham o'tirmaymiz. Bilimni uyushtiruvchi boshlang'ich bosqich sifatida chiqadigan nazariya tilda shakllanadi, bu esa bilish jarayonida tilga alohida o'rin beradi va shu bilan til haqidagi fan oldida yangi ilmiy ufqlarni ochadi, uni o'zining gumanitar mohiyati haqida orzu-xayollarga berilgan holda doimo tinch-osuda va jimgina o'tiradigan burchagidan chiqishga majbur qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq rivojining tarbiyasi individual uslubining haqiqiy shaxsiy xususiyatlarini o'rganish va o'quvchilar nutqining ravonligini rivojlantirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqning o'sishini mustaqil tahlil qilish, o'zaro har tomonlama tavsifnomalar, o'qituvchining kuzatishlari asosida amalga oshadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida nutq muomalasi haqida, "Men boshqa kishilar bilan muomalada qandayman?" mavzusida suhbat o'tkazish.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda dars jarayonlarida ularning erkin fikrlarini aniqlashi zarur. Har bir o'quvchi dars mobaynida o'z fikrni aytishga qodir. Birinchi prezidentimiz shuni ta'kidlab o'tganlarki "Bizning asosiy maqsadimiz - yoshlarning sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishiga erishish, ularning o'z qobiliyatli va iste'dodini ro'yobga chiqarish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishdan iborat". Shunday ekan biz pedagoglar boshlang'ich sinf o'quvchilaridan boshlab ularga sifatli ta'lim berish, ijodkorliklarini yuzaga chiqarish, dars jarayonida aytgan fikrlarini inobatga olib, ularni eshitishi, og'zaki nutqini rivojlantirishi, darsga oid bo'lgan kichik tanlovlar o'tkazishi va hokoza darsning samaradorligini oshirishi talab etiladi.

Foydalangan adabiyotlar :

- 1.D.R. Babayeva. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi.(Darslik). – T.: «Barkamol fayz media», 2018, - 432 b.
- 2.G‘ulomov A, Qobilova B Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari- T “O‘qituvchi” 1995
- 3.Mardonova. ”Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim-tarbiyani takomillashtirish”. “Sharq” 1998.
4. Isakovna, T. S., & Xaydarovna, M. N. (2022). BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINI TARBIYALASHDA MEHNAT TARBIYASINING AHAMIYATI. PEDAGOGS jurnali, 23(2), 186-191.
5. Турсунова, С. И. Педагогические основы национализации школьного образования. ТГПИ. 2022 год.
6. Isakovna, T. S., & Yo‘lchi, O. R. R. Z. (2022). YOSH AVLODNI VOYAGA YEKAZISHDA TARBIYANING AHAMIYATI. PEDAGOGS jurnali, 23(3), 15-22.
9. Isakovna, T. S. (2022). BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH. PEDAGOGS jurnali, 23(2), 179-185.
10. Isakovna, T. S. (2022). BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. PEDAGOGS jurnali, 23(2), 172-178.
11. Турсунова, С. (2022). Методика обучения русскому языку младших школьников. Общество и инновации, 3(8/S), 179-186.
12. Sattarova Munjoat Tokhtayevna, & S. I. Tursunova. (2023). PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF USING NATIONAL HERITAGE IN EDUCATION OF SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 11, 66-70.
13. Tursunova Saida Isakovna. (2022). The development of oral speech of younger schoolchildren in extracurricular activities. Eurasian Research Bulletin, 14, 280-286.
14. Шаббазова, Д. Р. (2020). Индивидуальные Факторы Формирования" Сообразительности" Учащихся Начальных Классов. Евразийский Союз Ученых, (4-8 (73)), 46-49.

SINFDAN TASHQARI O‘QISH DARSLARI ORQALI BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

*X.Beknazarova,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
boshlang‘ich ta‘lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
M.Tursunova,
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘tkaziladigan sinfdan tashqari o‘qish darslarining maqsadi, sinfdan tashqari o‘qish

bosqichlari va o'quvchilarda kitobxonlikka bo'lgan havasni orttirishdagi ahamiyati haqida fikrlar bayon qilingan.

Jamiyat axborotlashuvining zamonaviy sharoitlarida o'smirlar mutolaasi sohasidagi vaziyat ancha o'zgarmoqda. Yosh avlod hayotida mediamuhit rolining ortib borishi kitob o'qishga bo'lgan munosabatni o'zgartirib yubordi. Bugun o'quvchilarning mutolaasi bosma nashrlar: kitoblar, jurnallar, gazetalar, risolalargina emas, balki kompyuter savodxonligi bilan bog'liq tarzda kechmoqda. Ekran madaniyati o'smirlarning mutolaasiga kuchli ta'sir etib, ularni kitobxonlik ustuvorliklarini ma'lum darajada belgilab bermoqda. Yoshlarning kitobxonlik odatlarining tubdan o'zgarish jarayoni jadal kechmoqda, bolalar kitob o'qishiga xos tavsiflarning barchasi amalda o'zgarmoqda:

Maktabdagi tarbiya ishlari, avvalo ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. O'qituvchi o'quvchilarga ta'lim berishda faqat ma'lum bilimlarnigina berish bilan cheklanmay, ularda kuchli e'tiqod, iroda va xarakter sifatlarini ham tarkib toptirishi, qobiliyat va iste'dodlarini o'stirishi kerak.

Maktab o'quvchini o'qish malakasi bilan tanishtirish bilan bir qatorda kitobni mustaqil o'qiy oladigan, uni tushunadigan, ma'lum bir mavzuga oid kitoblarni tanlay oladigan, gazeta va jurnallarni ham mustaqil o'qiydigan faol kitobxonni tarbiyalaydi. Shu jihatdan sinfdan tashqari o'qish tarbiyaning asosiy quroli sifatida xizmat qiladi, ko'p narsani bilishga havasni orttiradi.

O'quvchilarning har tomonlama aqliy rivojlanishlari, tevarak-atrof bilan tanishish, bolalar shoir va yozuvchilari tomonidan yaratilgan asarlarni o'rganish, xalq og'zaki ijodi bilan tanishish, asosan kitobxonlikka havas uyg'otishda sinfdan tashqari o'qish darslarining ahamiyati katta. Bu mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish uchun avvalo sinfda sinf kutubxonasi tashkil qilinadi.

Sinfdan tashqari o'qishning asosiy maqsadi, o'quvchilarni kitoblarga, badiiy asarlarga qiziqishlarini oshirish, bilimlari asosida kitob ustida ishlash yuzasidan ko'nikma va malakalar hosil qilish, dunyoqarashi va nutqlarini o'stirish hamda kutubxonada mustaqil ishlash tajribalarini paydo qilishdan iboratdir. Boshlang'ich ta'lim va nutq o'stirish dasturida sinfdan tashqari o'qishning maqsadi o'quvchilarning bilimlarini kengaytirish, kitobga va bilim olishga havasini tarbiyalash, kitob bilan mustaqil ishlash malakasini takomillashtirish, ularning kitob o'qishga qiziqishlarini oshirishdir.

Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun yosh kitobxonlarda kitobni mustaqil o'qishga havas uyg'otish; yosh xususiyatlariga mos bo'lgan adabiyotlar va ularning turlari bilan o'quvchilarni tanishtirish, mustaqil o'qish uchun kitob tanlash, tanlangan kitoblarni ongli ravishda o'qib, o'qilganlarning mazmunini idrok etish, fikrlash, mulohaza yuritishga o'rgatish talab etiladi. Sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlashda uning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor beriladi.

Sinfdan tashqari o'qish sinfdagidek dars shaklida emas, balki suhbat, ertalik, mustaqil o'qish kabi turli ko'rinishlarda amalga oshiriladi. Ammo, o'qish dasturidagi talablar asosida, sinfdagi dars mashg'ulotlari bilan bog'liq holda o'quvchilar bilimini kengaytirish, o'qish ko'nikma va malakalarini o'stirish maqsadida guruh tartibida olib boriladi.

Sinfdan tashqari o'qish uchun o'zbek xalq og'zaki ijodi materiallari, o'zbek bolalar yozuvchilari asarlari va O'zbekiston tabiati manzaralari asos qilib olinadi. Sinfdan tashqari o'qish bolaning sinfda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi. O'quvchi maktabga qadam qo'ygan kundan boshlab kitobni mustaqil o'qish malakalari shakllantiriladi va bosqichli amalga oshirib boriladi.

Boshlang'ich ta'lim bolalarini har tomonlama kamol toptirishga asos solishi, tez, ongli, ifodali o'qish, hisoblash, savodli yozish, rivojlangan nutq, madaniy xulq-atvorning mustahkam ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlashi lozim. O'quvchilarning tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini va nutqlarini o'stirishda sinfdan tashqari o'qishning ahamiyati kattadir.

Sinfdan tashqari o'qishning muhim vazifalaridan biri o'quvchilarni mustaqil kitobxonlikka qiziqtirish, kitob bilan ishlash yuzasidan dastlabki elementar tushunchalar berishdan iborat. Kitob bilan amaliy ishlash jarayonida o'quvchilar kitob va uning muallifi haqida dastlabki tushunchaga ega bo'ladilar.

STO' darslari 3 bosqichda tashkil etiladi:

1. Tayyorlov bosqichi. Bu 1-sinfning savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Uning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, o'qituvchi asarni o'zi tanlaydi, asarning kichik hajmda bo'lishiga va boshqa kitob tanlash tamoyillariga e'tibor beradi. O'quvchilar asarni eshitishga, eshitganlarini idrok etishga, ularga soddagina baho berishga, asar mazmuni bilan sarlavhasining mosligini aniqlashga, asar mazmunini hikoya qilib berishga o'rgatiladi. Bu bosqichda o'quvchilar o'qish gigiyenasi va kitobga qanday munosabatda bo'lish bilan tanishadilar.

2. Boshlang'ich bosqich. Bu 1-sinfning 2-yarim yilligiga to'g'ri keladi. Unga darsning bir qismi 17-20 daqiqasi ajratilgani uchun "STO' mashg'uloti" deb yuritiladi. Asarni o'qishdan oldin o'quvchilar asar nomi va uning muallifi bilan tanishadilar, rasmlarini tomosha qiladilar, daftarlariga u haqda soddagina qilib asar muallifini va nomini yozadilar. Asar elementar tarzda tahlil qilinadi. Tanlangan asar (kitob) yaxshi o'qiydigan o'quvchiga maxsus tayyorgarlikdan so'ng o'qitiladi. Asarning oson o'qiladigan o'rinlarini bo'sh o'qiydigan o'quvchilarga o'qitish ham mumkin. Bu ularda o'qishga qiziqish uyg'otadi. Bu bosqichda o'quvchilar har xil tezlikda bo'g'inlab o'qiydilar. Shuning uchun o'qituvchi bu jarayonda har bir o'quvchiga individual yondashishi, kichik kitobxonni kitobni mustaqil o'qishga o'rgatish lozim.

3. Asosiy bosqich. Bu bosqich 2-4-sinflarga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilarning o'qish malakalari mustahkamlanadi. Bunda o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qiganlari baholanadi. Baholashda dastur talablariga asoslaniladi: o'qigan kitoblarning sifat o'zlashtirishiga, miqdoriga, o'qigan

kitobiga munosabat bildira olishiga e'tibor beriladi. Bunda o'quvchilar muayyan mavzuga doir bir necha asarlarni o'qib keladilar, ularning ayrim o'rinlarini ifodali o'qib beradilar, o'qigan asarlarini o'zaro taqqoslaydilar.

STO'ning bosqichlari, dastur talablari, tarbiyaviy vazifalari o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi. Masalan, tayyorlov bosqichida kichik hajmdagi asarni o'qituvchi o'qib bersa, o'qilganlar yuzasidan suhbat, qayta hikoyalash o'tkazilsa, boshlang'ich bosqichda butun sinf o'quvchilari bir xil kitob bilan ta'minlanadi, barcha o'quvchilar bitta matn ustida ishlaydilar. Bunda bitta yozuvchi yoki bir mavzudagi asarlar ko'rgazmasi tashkil qilinadi. Asar ichda o'qishga topshirilishi, albomlar tayyorlanishi, kinofilm va diafilmlardan parchalar ko'rsatilishi, musiqiy daqiqalar o'tkazilishi hamda asar mazmuni yuzasidan ijodiy rasmlar chizdirilishi ham mumkin. Bu jarayonda kitobni saqlash maqsadida uni yamash, o'rash o'rgatiladi, "Ertaklar bayrami", "Ifodali o'qish tanlovi" o'tkaziladi.

Asosiy bosqich yakunida kichik yoshdagi o'quvchilar faol kitobxon uchun zarur bo'lgan yaxshi o'qish ko'nikma va malakalarini egallashlari, eng muhimi, ularning kitob hamda mustaqil o'qishni yaxshi ko'rishlariga erishish juda muhimdir.

Umuman, sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari va darslari yuqorida tavsiya etilgan tartibga ijodiy yondoshgan holda tashkil etilsa, o'quvchilarning kitobxonlik qobiliyatlari o'sib boradi. Tasavvur va tushunchalari kengayadi hamda asar qahramonlari misolida tarbiyaviy ozuqa oladi.

Sinfdan tashqari o'qish kichik yoshdagi o'quvchilarni ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlash omili sifatida talqin etiladi. Maqsad, kichik yoshdagi o'quvchilarni bolalar adabiyoti va xalq og'zaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishdir.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida" 2017-yil 12-yanvar

2. Nurmuhammedov O', Turdiyev B, Abdullayeva T Sinfdan tashqari o'qish. I-IV sinflar uchun. – Toshkent. Ibn Sino, 1993.

BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA INTEGRATSIYALASH TEXNOLOGIYASINING DIDAKTIK TAMOYILLARI

*D.Baxritdinova,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim kafedراسi katta o'qituvchisi
N.Raximberganov,
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida integratsiyalash texnologiyasining didaktik tamoyillari, boshlang'ich sinflarda amalga oshiriladigan ta'lim jarayonida o'quv fanlariaro aloqadorlikni

ta'minlash, o'quvchilarning bilimlarini tizimlashtirish, ularning mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalarini shakllantirishdagi ahamiyati haqida fikrlar bayon qilingan.

Boshlang'ich sinflarda amalga oshiriladigan ta'lim jarayonida o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash o'quvchilarning bilimlarini tizimlashtirishga, ularning mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalarini shakllantirishga, ta'limning quyi bosqichlarida egallagan bilimlarini chuqurlashtirishga yordam beradi.

Didaktik tamoyillar ta'lim jarayoni qonuniyatlari, mazmuni va metodlarini belgilab beruvchi o'qitish prinsiplaridir. M.N.Skatkinning ta'kidlashicha, "o'qitish tamoyili o'qituvchi va o'quvchining bir maqsadga yo'naltirilgan hamkorligi hamda shu hamkorlik natijasida ko'zlangan maqsadga erishishi"dir. O'qituvchining kasb mahorati, o'quvchining o'rganuvchan faoliyatini bir qolipga solib, maqsadga erishishini ta'minlaydigan qoidalar ta'lim jarayonida didaktik tamoyillar mohiyatini tashkil etadi.

Har qanday o'quv fani ijtimoiy borliqdagi mavjud hodisa va jarayonlarning obyektiv qonuniyatlarni ochib berish bilan shug'ullanadi. Bu esa insonlarga tabiat va ijtimoiy hayotning rivojlanish mohiyatini tushunishga yordam beradi. O'quv faoliyati jarayonida muayyan fan asoslarining o'rganilishi uchun o'qituvchini amaliy faoliyatga yo'llovchi o'qitish tamoyillari ishlab chiqiladi. Bu tamoyillar butun bir pedagogik faoliyatning asosi, boshlang'ich holatini belgilab beradi. Ushbu tamoyillar boshlang'ich ta'lim maqsadi va faoliyati mazmunini ham oydinlashtiradi. O'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali didaktik jarayonni tashkil etishga imkoniyat yaratadi, ta'lim-tarbiya maqsadini muayyanlashtirishga ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan bir qatorda didaktik tamoyillar o'z tarkibi, qonuniyatlari va tasnifini hech qachon bir xilda saqlab qololmaydi. Ular har bir davrga mos tarzda, jamiyatning rivojlanishi, ta'lim tizimiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar asosida o'zgarib, shakllanib boradi. Vaqt o'tishi bilan ayrim tamoyillar o'z ahamiyatini yo'qotadi, ba'zilar yanada takomillashib, yangilanib boradi. Demak, didaktik tamoyillar o'quv fanlarining rivojlanib, mukammallashib borishi bilan barobar jamiyat talablariga mos holda yangilanadi. Ayni paytda didaktik tamoyillar jamiyatning boshlang'ich ta'lim oldiga qo'ygan vazifalarini qamrab oladi, o'qitishni tashkil etish xususiyatlarini qanoatlantiradi. O'quv-biluv jarayonida mazmun, metod, shakl birligini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda Milliy dasturini amaliyotga tatbiq etish asosida ta'lim tizimini yanada rivojlantirish umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini davr talablariga mos tarzda takomillashtirish va ta'lim mazmunini yangilab borish, o'quvchilar o'quv faoliyatini muntazam rivojlantirib borishga bog'liq.

Shunga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv fanlari mazmunini belgilashda o'quvchining o'quv materialini idrok etish faoliyatini

jadallashtirishga imkon beradigan didaktik tamoyillarga tayanish zarur. Boshlang'ich ta'lim mazmunida fanlararo aloqadorlikni ta'minlashga muhim didaktik tamoyil sifatida asoslanish orqali ta'lim natijasining sifati oshiriladi.

Boshlang'ich sinflarda matematik tushunchalarni ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlari tarkibiga singdirish natijasida ta'lim jarayonining sifati va samaradorligi ta'minlanadi. Boshlang'ich sinflarda o'quv fanlariaro aloqadorliklarni ta'minlash uchun pedagogikada ma'lum bo'lgan, quyidagi asosiy didaktik tamoyillarga tayaniladi:

1. O'qitishning ilmiyligi;
2. Nazariya va amaliyotning birligi;
3. O'qitish va tarbiyalashning muntazamliligi;
4. O'qitishda tarixiylik tamoyili;
5. O'quv jarayonini jadallashtirish tamoyili;

O'quv fanlariaro aloqadorlikning barcha imkoniyatlaridan didaktik tamoyillarga tayangan holda amaliy mashg'ulotlarni maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish o'quvchilarning nazariy-amaliy faoliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda didaktik tamoyillar amaliy topshiriqlarini bajarish, o'rganilayotgan nazariy hodisani to'liq tasavvur qilish imkonini beradi. Bu didaktik tamoyillar o'quv predmeti mazmuni haqida ko'rgazmali tasavvurni shakllantirishda asos hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda bu tasavvurlar o'rganilayotgan haqqoniy vaziyat, uning modelini o'rganish davomida yuzaga keladigan tasavvur kabidir. Didaktik tamoyillarga tayangan holda o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash lozim. Ko'pchilik hollarda dars jarayonida o'quvchilarning o'zlari haqqoniy hayotiy vaziyatlar modellarini qurishadi. Ba'zi tushunchalarning mavhumligini tushunish uchun o'quvchilarda haqqoniy vaziyatlarni shakllantirish, modellarni yaratish bo'yicha ko'nikma va malakalarini muntazam, maqsadga muvofiq tarzda rivojlantirish zarur. Didaktik tamoyillar o'quvchilarda o'rganilayotgan muammoning muhim holatlarini ajratib olish, mantiqiy ma'lumotlarni to'liq tahlil qilish, ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlariga xos atamalarni fanlararo aloqadorlik asosida o'zlashtirish, hodisaning qiziqarli jihatlarini aniq va ravshan ifodalash, ularning anglash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Falsafiy, umumpedagogik, didaktik, psixologik va uslubiy adabiyotlarning tahlili hamda malakali o'qituvchilarning ish tajribalarini umumlashtirib, biz boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv fanlarini o'zaro bog'lab o'rganish asosida ularning bilish faoliyati, darslarni o'zlashtirish samaradorligini rivojlantirishda o'quv fanlariaro aloqadorlikning quyidagi funksiyalarini ajratib ko'rsatishni lozim topdik:

- Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarining ilmiy asoslarini o'quvchilar ongiga yetkazishda ular mazmunida matematik tushunchalarning umumlashtirgan holda fanlararo aloqadorlikni tizimlashtirish funksiyasi;

- Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlari asosini o'zlashtirish orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish;

Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarini matematik tushunchalar asosida o'zlashtirishning ilmiy jihatdan asoslangan

- tizimini yaratish;
- turli o'quv predmetlarini o'rganish asosida o'quvchilarning ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlaridan o'zlashtirgan bilimlari izchilligini ta'minlash;
- matematik tushunchalar asosida ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv fanlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish yordamida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini tezlashtirish;
- o'quv fanlariaro aloqadorlikni ta'minlash asosida o'quvchilarda milliy-ma'naviy qadriyatlar, ilmiy-falsafiy dunyoqarashni rivojlantirish.

Muntazam tarzda tatbiq qilinadigan o'quv fanlariaro aloqadorlik turli sohaga oid bilimlarni o'zlashtirish, ulardan doimiy foydalanish o'quvchilar egallagan ko'nikma, malakalarini mustahkamlashga ham katta yordam beradi.

O'quv fanlariaro aloqadorlik o'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini shakllantirib, rivojlantirib borish asos sifatida belgilab olingan o'quv fani g'oyalari va metodlariga tayangan holda amalga oshiriladi. O'quv fanlariaro aloqadorlik o'quvchilarning o'zlashtirish qobilyatlarini jadal shakllantiradi va o'quv fanini ilmiylik asosida qurishga xizmat qiladigan umumiy tamoyillarni ochib beradi. Ta'lim sohalari mazmunini masalan, adabiyot, biologiya, matematika o'quv fanlari o'rtasidagi aloqadorlikni hisobga olmasdan aniqlab bo'lmaydi. Shuning uchun o'quv fanlariaro aloqadorlik alohida o'quv predmetlari bo'yicha ta'lim mazmunini tanlash manbai bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayidaxmedov N.S. Oliy pedagogik ta'limda integral texnologiyalar.
2. Ochilov M. Ynngi pedagogik texnologiyalar. Qarshi, 2000 yil
3. Yo'ldoshev J. "Horijda ta'lim" Integratsiyalashgan va maxsus kurslar.
4. O'. Asqarova G. G.Egamberdieva "Boshlang'ich ta'limda integratsiya".
5. R.A. Mavlonova, N.H. Rahmonqulova "Boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan pedagogika" ILM ZIYO 2016 y.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH

*TerDPI Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi
Allaberganova Yulduz Umrbek qizi
TerDPI Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasi
o'qituvchisi Tursunova Saida Isakovna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga milliy qadriyatlarni singdirish, ularda milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmat hissini uyg'otish, ajdodlarimiz merosidan oqilona foydalanish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, inson komoloti, ma'naviy meros, umuminsoniy qadriyatlar, oila, insoniy fazilatlar, urf-odatlar, an'analar, milliy mafkura, milliylik, asrab-avaylash.

Xalqimizning madaniy-ma'naviy boyliklari va milliy qadriyatlarini to'la, oqilona egallash va rivojlantirish hozirgi avlodning vazifasidir. Gap o'tmish madaniy-ma'naviy boyliklariga ega bo'lishdagina emas, balki uni chuqur egallab, yangi yuksak bosqichga ko'tara bilishdadir.

Totalitar, ma'muriy buyruqbozlik boshqaruvi yillarida xalqimiz o'tmishiga hadeb tosh otish, uni butkul qoralash sobiq sovet mafkurasiga xos holat edi. Bu ashaddiy madaniyatsizlik va siyosiy kaltabinlik, odob-axloqsizlikdan boshqa narsa emas edi. Buni boshqacha ta'riflab ham, tavsiflab ham bo'lmaydi. Birinchi Yurtboshimiz aytganlaridek, ba'zi bir bo'sh, siyosiy irodadan mahrum bo'lgan, o'z xalqi or-nomusi, qadr-qimmati va g'ururini himoya qilishga jur'at eta bilmagan mahalliy rahbarlar amal pillapoyasidan ko'tarilishga umidvor bo'lib, o'z ajdod-avlodlarining urf-odatlari va ma'naviy qadriyatlarini mensimadilar. Xalqning urf-odatlari, an'analari, madaniyatini obdon oyoq osti qilinishiga yo'l qo'yib berdilar va o'zlari bunga hattoki bosh-qosh ham bo'ldilar. Qadriyatlar har bir millatning o'tmishi, buguni va kelajagini oynadek ko'rsatib turuvchi eng muhim omillardan biri. Olimlar qadriyatlarni milliy, diniy, mahalliy, mintaqaviy va umuminsoniy kabi bir qator turlarga shartli bo'ladilar.

Milliy qadriyatlar mahalliy va diniy qadriyatlarga, umuminsoniy qadriyatlar esa ko'plab milliy qadriyatlarga tayanib shakllanadi va asrlar osha takomillashib boraveradi. Ammo bugungi tezkor globallashuv sharoitida ham o'z milliy moddiy va ma'naviy boyliklarini asrab-avaylayotgan, boyitib rivojlantirayotgan har qanday millat o'ziga xos an'analari, urf-odatlari va o'lmas qadriyatlari bilan boshqa millatlardan ajralib turadi.

Milliy, madaniy-ma'naviy, axloqiy, tarixiy qadriyatlarga bo'lgan munosabat masalasida ham jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yildi. O'zlarini ilmning hamma sohasini yakkayu yagona bilag'oni deb atagan kommunistik mafkura targ'ibotchilari o'z faoliyatlarida o'tmishdan qolgan barcha madaniy merosni butunlay inkor etish yo'lga o'tib oldilar. Navoiy, Bobur, Ulug'bek, Yassaviy, Mashrab, Nodirabegim singari ulug' insonlar feodalizm davri namoyondalari, deb e'lon qilinishi oqibatida, ularning meroslarini o'rganish, unga to'la, xolisani baho berish imkoniyati cheklandi. Milliy qadriyatlarimizga nisbatan bo'lgan bunday adolatsiz munosabat O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgunga qadar davom etdi. Milliy va diniy qadriyatlarimizda ota-onaning qadr-qimmati ko'klarga ko'tarilganligini hech kim inkor eta olmaydi. Ammo ayrim tanbal farzandlar ota-onasiga g'amxo'rlik qilish o'rniga, rahmdilroqlari yolg'iz qolgan keksa otasi yoki onasini "Saxovat uyi"ga eltib tashlamoqda, razilroqlari esa ota-onasidan tezroq qutilish uchun ularga qo'l ko'tarmoqda, ma'naviy va jismoniy zulm qilmoqda, hatto tavqila'natli "padarkush"ga aylanib qolmoqdalar. Nega? Farzand ota-onaning

dilbandi, ota-onaga ularsiz hayot rang-barangligining bir daqiqasi ham tatimaydi. Ammo bugungi kunga kelib ota deyishga ham til bormaydigan ayrim “otachalar” xotinini xiyonatda ayblab, “bu mening farzandim emas”, deb o'z pushti kamaridan bo'lgan bolasidan sharmandalarcha voz kechyapti, farzandlarini qon-qaqshatib, oilasini tashlab ketyapti, ro'zg'oridagi bor budini bir shisha aroqqa almashib, guldek farzandlari, xotini hayotini zindon azobiga aylantirmoqda.

Har qanday qirg'in-barot urushlar, yillab davom etgan ocharchilik, qahatchilik, taqchillik, tanqislik, zulm-istibdod avj olgan davrlarda ham ayollarimiz o'z onalik sha'ni, ayollik iffati, hayo-ibosini, islomiy iymon-e'tiqodini yo'qotmagan, sotmagan edi. Endi-chi? Ustida yal-yal yonadigan atlasu kimxob liboslar, turq-u tarovati binoyidek kelishgan yosh juvonlarning qaerlardadir erkak ovlashi, oilasi, yurtdoshlari obro'-e'tibori, nomus-u orini yerga bukib, ularning ta'na-dashnomlarini bir chaqaga ham olmasligi qaysi qadriyatga mos keladi? Ayrimlari esa kasofat qilmishlari tufayli ona bo'lishdek ulug' baxtdan mosuvo bo'lib, nikohsiz orttirgan farzandini o'zi bo'g'ib yoki sellofan xaltaga solib o'ldiryapti, chaqalog'ining ko'ksiga tosh bog'lab anhorga cho'ktiryapti, hojatxonaga, ko'cha-ko'y, xiyobonlarga tiriklay tashlab kketyapt. Erishilgan mustaqillik xalqimiz madaniy-ma'naviy taraqqiyotiga keng yo'l ochib berdi. O'zbekistonda hozir madaniy merosimizga alohida e'tibor bilan qaralmoqda, juda ko'plab ilmiy, badiiy, tarixiy, falsafiy asarlar, qadimiy qo'lyozmalar ketma-ket nashr qilinmoqda. Xalqimizning asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga – Vatanga muhabbat, ajdodlar xotirasiga sadoqat, mehmonga, o'zidan kattalarga ehtirom, o'zidan kichiklarga izzat-ikrom, ayniqsa ota-ona, qarindosh-urug'larga doimiy beg'araz hurmat va xizmat ko'rsatish, birovning haqiga, ayniqsa, yetim-yesirlarning, qo'ni-qo'shnilarning, ojiz-notavonlarning haqiga xiyonat qilmaslik, orttirgan mol-dunyosidan xayr-ehson qilish, har qanday sharoitda ham hayo va andisha saqlash, ahli ayoli – oilasini asrab-avaylash singari juda ko'plab insoniy fazilatlar milliy qadriyatlarimizning asosini tashkil etadi. Afsuski, xalqimiz asrlar davomida e'zozlab kelgan bir qator qadriyatlarni keyingi bir asrdan ko'proq vaqt ichida jamiyat hayotidan quvg'in, xalq xotirasidan o'chirishga harakat qilindi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach zahmatkash xalqimizning tarixiy xotirasini, qadimgi urf-odatlarini, an'analari, qadriyatlarini tiklash va e'zozlash, muqaddas qadamjolarini asl holiga qaytarish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirila boshlandi. Bu jarayonda faqat tubjoy aholisininggina tili, dini va qadriyatlarini tiklash, rivojlantirish bilan cheklanilmasdan, shu yurtda istiqomat qiluvchi yuzdan ortiq millat va elatlarning ham nodir qadriyatlari kamol topishiga e'tibor qaratildi. Har to'kisda bir ayb yoki guruch kurmaksiz bo'lmaydi, deganlaridek, qadriyatlarimizni qo'llab-quvvatlash, ularga qat'iy rioya etish borasida ham suiiste'molliklarga yo'l qo'yilyapti. Respublikamizda ilm-fan, madaniyat, xalq ta'limi, maorif, adabiyot va san'atni rivojlantirish, tarixiy obidalarni ta'mirlash, asliga keltirish, qariyb unutilayozgan xalq

hunarmandchiligini tiklash masalalari bo'yicha Prezident farmonlari e'lon qilindi, bir necha qarorlar qabul qilindi va ularning ijrosi ta'minlanmoqda.

O'zbek xalqida dunyo tan berib kelayotgan ajoyib insoniy fazilatlar, nodir urf-odatlar mavjud. Oila a'zolarining barchasi to'planmaguncha ovqat yemay turish, oila boshlig'ini odob saqlab kutish, ota-onani o'rnidan turib kutib olish, ularga har doim iltifot ko'rsatish, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr-shafqat, ulug'-ajdodlarga, qo'ni-qo'shnilarga, xesh-aqrabolarga, mahalladoshlarga, tanish-bilishlardan yordamni ayamasklik va boshqalar bunga misol bo'la odi. Birovlar bilan muomalada odob-axloq qoidalariga qat'iy amal qilish, o'zidan kattalar, yoshi ulug'lar bilan hayo, odob-andisha asosida so'zlashish, ularga nojoiz so'zlarni aytmaslik, betgachoparlik qilmaslik, odob-axloq, andishani qo'ldan bermaslik -bularning hammasi xalqimizda chinakam lutfu nazokat hisoblanadi va yuksak darajada e'zozlanadi. O'zidan kattalarni, birinchi galda keksa bobolaru otalarni, nuroniy onalarni buvilarni hurmat qilish, e'zozlash, ular uchun qo'ldan kelgan yordamni ayamasklik o'zbek xalqining an'anaviy qoidasi bo'lib, ular o'zbek oilalarida yoshlikdan bolalar ongiga, qon-qoniga, vujud-vujudiga chuqur singdirib boriladi. Ota-bobolarimiz an'alariga ko'ra, yoshlar o'zidan kattalarni ko'rganda tanish-tanimasligidan, millati va jinsidan qat'i nazar salom berishlari, ro'baro' kelganda birinchi bo'lib yo'l berishi, ular bilan samimiy munosabatda bo'lishlari, iltifotlarini ayamaskliklari lozim.

O'zbek oilalarida o'tadigan bironta ham marosim, to'y-tomosh, hashar keksalarning maslahatisiz va ishtirokisiz o'tmaydi. Keksalarning turmush tajribalari, bilim - boyliklari, bosib o'tgan yo'llari, yo'l-yo'riqlari, maslahatlari, saboqlari - yoshlar uchun eng katta boylik, bitmas-tuganmas xazinalar konidir. Keksasi, qarisi bo'lgan xonadonda fayz-baraka bo'ladi, degan mazmunda aytilgan qanchadan-qancha matallar, maqollar, afsonayu rivoyatlarimiz borligini ham aytib o'tish mumkin.

O'zbek xalqining eng qadimiy davrlardan boshlab hozirga qadar davom etib kelayotgan, o'z ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan ajoyib qadriyatlaridan yana biri ota-onani yuksak darajada e'zozlash, izzat-ikromi, hurmatini joyiga qo'yishdan iboratdir. Farzand uchun dunyoda ota-onadan ko'ra mehribon, aziz va mo'tabar zot yo'q. Ota-ona farzandning suyanchig'i, bitmas-tuganmas boyligidir. Hech ikkilanmasdan shuni aytish kerakki, ota-ona farzand uchun hech narsani ayamaydi. Ularning tabiat ato etgan buyukliklari ham ana shunda. O'zbek xalqi odob-axloq qoidasi bo'yicha, keksalarning, ota-onaning oldidan salom bermasdan o'tish gunoh hisoblangan.

Respublikamizda umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatimizni asoslarini e'tiborga olib ta'lim-tarbiya mazmunini va milliy mafkurani shakllantirib boorish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bunga xalq og'zaki ijodi, pedogogikasi, mutafakkir, ma'rifatparvar pedagog va olimlarning tarbiyaga axloq-odobga doir g'oyalarini o'rgatib komil insonni ishlari amalga oshmoqda."Kelajak bugundan boshlanadi"³ deydi dono xalqimiz. Yosh avlodni kelgusi hayoti uni inson qilib ko'rsatuvchi ruhiy va ma'naviy jarayonning

mezonini belgilaydi. Bu borada ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish ta'limni ilg'or tajribalar asosida boyitib borish, yangi pedagogic tajribalar asosida olib boorish ayniqsa muhimdir. Xalq musiqasi og'zaki ijodiyoti, an'analari, urf-odatlarini asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish ularni ko'proq o'z millatini sevishga g'ururlanishga shorqano g'oya va ta'limotlarni o'rganib ularni kelajakka tadbiq etishga zamin yaratiladi. Mustaqil Respublikamizda milliy madaniyatimizni o'ziga xosligini tiklash, umumta'lim maktablarida o'quvchilarni badiiy, axloqiy tarbiyalash va kamol toptirish hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Ma'naviy yetuk millat qadriyatlarini to'g'ri baholashga va uni yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Demak, jamiyat ma'naviyatining o'sishi qadriyatlardan keng foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaratib, qadriyatlarni yanada rivojlantirishga zamin hozirlaydi. Qadriyatlar ta'rifidan kelib chiqib, umuminsoniy qadriyatlarni quyidagicha ta'riflash mumkin. Umuminsoniy qadriyatlar-millat uchun muhim axamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq holdagi qadriyat shaklidir.

Alla, lapar, terma qo'shiqlar vositasida o'quvchilarda badiiy ijodkorlik qobiliyatlari o'sib boradi. Musiqa ohanglari lad va ritm tiyg'usi usullari asosida o'rgatiladi. Musiqa ta'limining milliy asosini tarkib toptirishda pianino cholg'u asbob bilan birgalikda o'zbek milliy cholg'u asboblaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa doira chertib, qo'shiq kuylash, milliy raqs elementlarini ijro etish, ijodkorlik bilan shug'ullanish o'quvchilarni sehrli musiqa olamiga oshufta etadi. O'quvchilar bu jarayonda o'zbek xalq musiqasi madaniyatini ijobiy an'analarini bevosita idrok etadilar. Maktabda o'quvchilar musiqiy estetik tarbiyani xalq musiqasi na'munalari orqali o'rganadilar. Hozirgi kunda barcha umumta'lim maktablarida bolalarni xalq musiqasi bilan tanishtirish DTS musiqa dasturi asosida olib borilmoqda. Ta'limni milliy ruhda rivojlantirish maqsadida birinchi sinfdan boshlab o'zbek xalq musiqasi bilan tanishtirib boriladi. Bunga misol qilib, I dasturida tinglash uchun birinchi "Dutor bayoti", "Andijon polkasi", "Farg'onacha", "Olmacha anor", "Allama yorim" kabi kuy-qo'shiqlarni keltirishimiz mumkin. Xalq musiqasi bolalar ongiga tez yetib boradi, ularni zavqlantiradi. Ijodiy kechinmalar uyg'otadi. Chunki xalq musiqasi o'ziga xos badiiy tilga egdir. Unda milliy musiqa san'atimizning eng yorqin na'munalari o'z aksini topgan. Xalq musiqasi eng soda eng ixcham ravon yorqin ohangda ijro etiladi.

Hozirgi davrda shaxs ma'naviyatini tarbiyalash vazifasi maktabda musiqa ta'lim tarbiyasi ishlarini sifatli bosqichga ko'tarishni taqozo etadi. Bugungi kunda musiqa, ta'lim tarbiyasining maqsadi va vazifalari nihoyatda muhim. Musiqa ta'lim tarbiyasining maqsadi va yosh avlodni musiqa merosimizga vorislik qila oladigan yosh qadrlaydigan madaniy inson sifatida voyaga yetkazishdan iborat. Buning uchun har bir o'quvchining musiqaga bo'lgan iqtidorlarini rivojlantirib, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish musiqadan zaruriy bilim va amaliy malakalar doirasini tarkib toptirish, iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shart-

sharoitlar yaratib berish maktab musiqa darslariga bevosita bog'liq. Musiqa ta'lim tarbiyasining maqsad va vazifalarini amalga oshirish maktabdagi musiqa darslariga bevosita bog'liq misol qilib, I dasturida tinglash uchun birinchi "Dutor bayoti", "Andijon polkasi",

"Farg'onacha", "Olmacha anor", "Allama yorim" kabi kuy-qo'shiqlarni keltirishimiz mumkin. Xalq musiqasi bolalar ongiga tez yetib boradi, ularni zavqlantiradi. Ijodiy kechinmalar uyg'otadi. Chunki xalq musiqasi o'ziga xos badiiy tilga egdir. Unda milliy musiqa san'atimizning eng yorqin na'munalari o'z aksini topgan. Xalq musiqasi eng soda eng ixcham ravon yorqin ohangda ijro etiladi. Shuning ushuncha ham beshikda yotgan go'dak alla qo'shig'ini eshitishi bilan orom olib uxlab qoladi. Chunki, bu ohangda so'z, kuy, mutanosibligi og'zaki ijro etiladi. Shuning uchun ham ohanglar bir-biriga payvastdir. Asrlar davomida o'zbek kuy-qo'shiqlari xalqimiz orasida mehnat, to'y-marosim, kurash bayramlarida insonlar uchun ilhom manbai bo'lib kelgan. Biz musiqa madaniyati darslarida boshlang'ich sinfdan boshlab o'zbek xalq musiqasining ommaviy janrlarini bolalarga tushunarli, tez va ifodali qilib yetkazish uchun turli metodlardan va innovatsion texnologiyalardan foydalanishimiz zarur. Musiqa san'ati boshqa san'at turlariga qaraganda insonlarga yaqin bo'lgan muhim san'at turidir. Xalqimiz azal-azaldan boy musiqa merosiga ega bo'lgan. Bebaho qadriyatlarimiz, boqiy merosimiz jahonni xayratga slogan mumtoz musiqa san'atimiz mavjud. Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida tarbiyaning mazmunli va yo'nalishi umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi asosida belgilangan. Aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat, milliy ma'sulyat tuyg'usini anglaydigan o'quvchilarni tarbiyalab voyaga yetkazish mamlakatni mustaqil va barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi. Milliy tarbiya umuminsoniy qadriyatlardan ajralgan holda rivojlana olmaydi. Ta'lim tarbiya uslubiyoti maktablari tarkib topib rivojlanib bormoqda. Hozirgi davrda shaxs ma'naviyatini tarbiyalash vazifasi maktabda musiqa ta'lim tarbiyasi ishlarini sifatli bosqichga ko'tarishni taqozo etadi. Bugungi kunda musiqa, ta'lim tarbiyasining maqsadi va vazifalari nihoyatda muhim. Musiqa ta'lim tarbiyasining maqsadi va yosh avlodni musiqa merosimizga vorislik qila oladigan yosh qadrlaydigan madaniy inson sifatida voyaga yetkazishdan iborat. Buning uchun har bir o'quvchining musiqaga bo'lgan iqtidorlarini rivojlantirib, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish musiqadan zaruriy bilim va amaliy malakalar doirasini tarkib toptirish, iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish maktab musiqa darslariga bevosita bog'liq. Musiqa ta'lim tarbiyasining maqsad va vazifalarini amalga oshirish maktabdagi musiqa darslariga bevosita bog'liq.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisidan buyuk psixolog bo'lish talab etiladi. Chunki o'quvchilarga berayitgan ma'lumotni bola tilida, soda, ravon, tushunarli qilib yetkazib berishi kerak. Ya'ni o'zi ham bola bo'ib, turli holatlarga kirib, berilayotgan ma'lumotni o'quvchining ongiga singdira olishi kerak. Xuddi shuningdek, milliy qadriyat tushunchasini, uni asrab-avaylash tuyg'usini

boshlang'ich sinf o'quvchilariga yetkaza berishi zarurdir. O'quvchining bolalikdan milliy qadriyatlarga bo'lgan muhabbatini oshirish-kelajakda barkamol avlodlar safining kengayishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, yosh avlodni tezkor zamonga mos tarzda tarbiyalab, fikrlashini kengaytirib, ma'naviy olamini boyitish yo'lida muntazam izlanmog'imiz talab etiladi. Bu ezgu niyatlar yo'ida barchaga kuch-quvvat, intilish va azm-u shijoat hamroh bo'lsin." Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala- bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim-yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta'kidladi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev- "Yoshlar tarbiyasi-eng muhim masalalardan" nomi ostida o'tazilgan tadbirdagi nutqidan .2017. 16. 06, Toshkent.

2. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari darsligi-8 sinf, Toshkent "Ma'naviyat" nashriyoti, 2015-yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Toshkent "Ma'naviyat" nashriyoti, 2008-yil.

4. Isakovna, T. S., & Xaydarovna, M. N. (2022). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TARBIYALASHDA MEHNAT TARBIYASINING AHAMIYATI. PEDAGOGS jurnali, 23(2), 186-191.

5. Турсунова, С. И. Педагогические основы национализации школьного образования. ТГПИ. 2022 год.

6. Isakovna, T. S., & Yo'lchi, O. R. R. Z. (2022). YOSH AVLODNI VOYAGA YEKAZISHDA TARBIYANING AHAMIYATI. PEDAGOGS jurnali, 23(3), 15-22.

7. Isakovna, T. S. (2022). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH. PEDAGOGS jurnali, 23(2), 179-185.

8. Isakovna, T. S. (2022). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. PEDAGOGS jurnali, 23(2), 172-178.

9. Турсунова, С. (2022). Методика обучения русскому языку младших школьников. Общество и инновации, 3(8/S), 179-186.

10. Sattarova Munojaot Tokhtayevna, & S. I. Tursunova. (2023). PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF USING NATIONAL HERITAGE IN EDUCATION OF SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 11, 66-70.

11. Tursunova Saida Isakovna. (2022). The development of oral speech of younger schoolchildren in extracurricular activities. *Eurasian Research Bulletin*, 14, 280–286.

12. Шаббазова, Д. Р. (2020). Индивидуальные Факторы Формирования " Сообразительности" Учащихся Начальных Классов. *Евразийский Союз Ученых*, (4-8 (73)), 46-49.

13. Shabbazova, D. (2022). Content of factors determining the efficiency of primary school students. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(5), 630-636.

BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARINI INTEGRATSIYALASHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR VA ULARNING AHAMIYATI

Norova Nargiza Xalmamat qizi

Nukus davlat pedagogika instituti 13.00.02- Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) I bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishda, dars davomida qo'llay olish mumkin bo'lgan metodlar haqida fikr yuritilgan, metodlardan namunalar keltirilgan. Qo'llanilgan metodlarning afzalliklari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, metod, dars, Sinektika, Freewriting, Scamper,

Fanlararo aloqadorlik innovatsiyalarni yaralishiga, ta'lim istiqbolining rivojlanishiga imkon beradi. Bugungi kunda har bir sohani integratsiyalash oldinga intilish uchun bir qadamdir. Ta'lim uchun ham katta yutuqdir. Avvalo, biz nima uchun darslarni integratsiyalashimiz zarur? Degan savolga to'xtalsak, darslarni integratsiyalashdan maqsad- o'quv maqsadi bir-biri bilan bog'liq ikki yoki undan ortiq mavzular jamlashtirish natijasida o'xshash jihatlar yoki ma'lumotlarni tanlab, orgatadigan darslar. Barcha integratsiyalashgan darslarning maqsadi o'quvchilarning bilimini kuchaytirish bo'lishi kerak. Har bir o'quvchining qiziqishi, qobiliyati va mahoratiga mos ravishda ta'lim mazmuni shakllantiriladi. Dars mazmuniga mos tarzda ishlab chiqilgan dastur asosida bilim olish osonlashadi, bir ma'lumot turli sohalaridagi ma'lumotlar asosida yoritilib, o'quvchilarga tushuntiriladi. Integratsiyalashgan darslarning maqsadi, o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni puxta egallash va uni hayotga tadbiiq eta olishdir.

Boshlang'ich sinf darslarini integratsiyalashda, mavzular kesimi aniqlab olish zarur. Qaysi mavzular bir-biriga to'g'ri keladi, qaysi mavzular ma'lumotlarni to'ldirib beradi yoki bu mavzu uchun takrorlash hisoblanadi. Darsni integratsiyalashdan maqsad jarayonni qiziqarli, bilimlarni mukammal va mustahkam qilishdan iborat. Fanlararo aloqadorlikni dars jarayonida amalga oshirishda metod tanlash juda muhim sanaladi. Tanlangan metod dars mohiyatini to'laqonli ochib berishga, berilayotgan bilimni xotirada uzoq vaqt qolishiga va amaliyotda qo'llay olishga xizmat qilishi kerak. Bunday

mashg'ulotlar asosida o'quvchilarning jamiyatdagi va o'quv faoliyatidagi ko'nikmalarni mustahkamlash, ularning diqqatini jalb qiladigan va hayajonlantiradigan yangi mavzuni oson o'zlashtirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Metodlarning asl vazifasi ham shundan iborat. Metod (yunonchadan olingan bo'lib, "metodos" – bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) – voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l-yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli [1]. Metodlardan unumli foydalangan holda bolalarni mavzuni tezroq tushunishida, ularning kelajagi uchun tayanch ustun yaratishda pedagog o'z mahoratini ko'rsatgan holda ta'lim - tarbiya beradi. Ushbu metodlar integratsiyalashgan darsni osonlashtirishda, ma'lumotlarni soddalashtirishga va o'zlashtirishlarni qiyinchiliksiz amalga oshirishga imkon beradi.

Birinchi navbatda sinfni qiziqtiradigan mavzuni tanlash kerak. Integratsiyalashgan dars rejasi ideal tarzda shakllantirilgan bo'lishi kerak. Integratsiyalashgan darslarning afzal tomoni shundaki, ularda xilma-xillik, barqarorlik va madaniyat kabi muhim mavzularni o'rgatish yo'lini ta'minlaydi.

SCAMPER- bu metod yechimlarni topishning ko'plab yo'llarini, variantlarini topishga mo'ljallangan. Bu variantlar harakatlar yoki savollar ro'yxatiga asoslangan bo'lishi mumkin va ular bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga "Bu nima uchun kerak?", "Buni qayerlarda foydalanamiz?", "Yana nima maqsadda ishlatsak bo'ladi?" degan ketma-ketlik savollar asosida o'quvchilarni o'ylashga, boshqa sohalarni ham inobatga olgan holda to'liq va to'g'ri fikrlashga o'rgatib boriladi. Scamper - harakatlar, o'zgartirishlar ro'yxati ko'rinishidagi muammolarni hal qilish usuli. Scamper - bu qisqartma so'zdir. Tarjimasi o'zgartirish, birlashtirish, moslashtirish, qo'yish, yo'q qilish, teskari kabi ma'nolarni bildiradi. Usul ko'pincha yangi g'oyalarni bilimlarni ishlab chiqish uchun ishlatiladi va muammoli vaziyatlarga o'zgartirishlar kiritish haqidagi savollarga doimiy ravishda javob berishdir. U bir savol ortidan ikkinchisini ergashtirib, aniq bir javob yoki xulosaga kelguniga qadar davom etadi. Bu orqali o'quvchilar mustaqil fikrlaydilar. Fikrlari yanada to'g'ri ekanligini his etib boradilar. Bu o'quvchilarga aniq xulosalar chiqarishga yordam beradi. O'quvchilar bilimlari takomillashadi va yangidan yangi g'oyalar ishlab chiqishga yo'naltiriladi. Scamperdan o'quvchi kundalik muammolarni, hayotiy vaziyatlarni va boshqa narsalarni hal qilish uchun ham ishlatilishi mumkin. Bu metodning afzalliklari, bolalarni tez fikrlashga va tez qaror qabul qilishga o'rgatadi.

FREEWRITING – bu o'quvchilarni yozish ijodkorligini rivojlantirish orqali fikrlarini kengaytirish maqsad qilib olingan. Bunda o'quvchi fikrlarni puxta o'ylab, bilimlarini ketma-ketlikda joylashtirib nutqda bayon qilishga qaratilgan. Bu integratsiyalashgan darslarda keng ma'lumotlar bilan ishlashda juda samarali natija beradi. Bundan tashqari yozish asosida qo'l xotirasi orqali olingan bilimlar xotirada uzoq vaqt saqlanadi. Bu metodni qo'llash uchun qalam, daftar va taymer kerak bo'ladi. Taymerni sozlab, maqsadni belgilab olish kerak. O'quvchilarga muammoni boshlang'ich nuqtasini ayting, vaqtni

boshlang. O'quvchilar fikrlarni shakllantirib, yoza boshlaydi. Ular bu varaqqa hech narsani o'ylamasdan, xatolarni to'g'irlamasdan, punktatsion xatolarga e'tibor bermasdan yozishlari zarur, negaki, o'shanda o'quvchi ongidagi fikrlari tezroq qog'ozga tushuradi. Boshqa narsalarga inobatga olaman deb asosiy g'oyadan yiroqlashib ketmaydi. Bundan o'quvchi hijolat ham bo'lmasligi shart, chunki bu qog'ozni uning o'zidan boshqa hech kim o'qimaydi. Agar fikrlarda, xulosalarda noaniqlik bo'lsa, qalamda yozilgan fikrlarni to'g'irlash mumkin. Bu metod o'quvchilarni yangi fikrlarni ishlab chiqishga o'rgatadi. Agar o'quvchida ma'lum topshiriq bo'yicha fikr yoza olmasa unga ko'maklashish maqsadida yordanchi metodlardan foydalangan maqsadga muvofiq. Misol uchun, "0 dan 100gacha" usulini qo'llash mumkin, bunda o'quvchi fikrlash jarayoni sust bo'lib, biror narsa yoza olmasa unga qog'ozga 0 dan 100gacha yozishini topshiriq bering. Hech bo'lmasa shu mashg'ulot bilan band bo'lib turadi. Bu miyani to'xtab ishlamasdan qolishini oldini oladi. Yangi fikrlar kelguncha qo'l va miya ishlab turadi. Bu asosda, yangi g'oyalar va yangi savollar paydo bo'ladi, ularni ham alohida vaqaqqa yozib qo'yish maslahat beriladi. Oxirida, o'quvchilar o'zlari yozgan fikrlarini qayta o'qib chiqish topshiriladi, bunda fikrlarning ketma-ketligi tarribbga olinadi. Fikrlar orqali yana yangi fikrlar uyg'onishi mumkin. Natijada o'quvchilarning dunyoqarashi kengayadi.

SINEKTIKA- to'g'ridan-to'g'ri o'xshashlik tamoyiliga asosan, bir-biriga o'xshash ma'lumotlarni olamiz, ularni solishtiramiz va o'rganamiz. Bu metod boshlang'ich sinf o'quvchilarining har bir fani uchun juda mos. lar o'simliklar tuzilishini o'rganishda juda qulay hisoblanadi. O'quvchi taqqoslash asosida o'xshashliklarni to'liq o'rgangandan so'ng chuqur bilimga ega bo'lish bilan bir qatorda, dars va ijtimoiy hayotda duch keladigan muammoli vaziyatlarda aniq yechim topa olishiga yo'naltiriladi.

Sinektika (boshqa yunoncha - "geterojen elementlarning kombinatsiyasi") - bu kollektiv intellektual faoliyatning ijtimoiy-psixologik motivatsiyasiga asoslangan ixtirochilik ijodkorligi usuli. Bu Artur D. Little[en]dagi ixtiro tadqiqot guruhida Jorj Prins[en] va Uilyam Gordon[en] tomonidan taklif qilingan. Bu metodni darsning barcha turlarida qo'llasa bo'ladi [2]. "Aqliy hujum" metodiga juda yaqin, analogiyaga asoslangan ijodiy fikrlash tizimidir. Bunda o'quvchi darsda qo'yiladigan muammoni hal qilish yuzasidan analogiyaga asoslangan holda o'z fikrlarini, qarashlarini olg'a suradi. Hamma narsa bir-biri bilan bog'liq va qaysidir ma'noda juda o'xshash-jismoniy, konseptual, psixologik yoki ramziy. Bu metod yangi bog'lanishlar va yaratishlar jarayoni hisoblanadi va uni mantiq, tahlil, faktlar, fantaziya va sintezning aralashmasi deyishimiz mumkin.

Integratsiyalashgan darslarning ajoyib tomoni shundaki, ular barqarorlik, xilma-xillikni o'zida mujassamlashtiradi. Bu orqali yosh bolalarning diqqatini yanada o'ziga tortadi. Qiziqish bilan qabul qilingan bilimning samarasi hamisha yuqori bo'lib kelgan va muhim mavzularni oson usul bilan o'rgatish yo'lini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xusanova D. METOD VA METODIKA HAQIDA TUSHUNCHA. Международный научный журнал № 7 (100), часть 1 «Новости образования: исследование в XXI веке» февраль, 2023 г 336.
2. https://ru.wikipedia.org/wiki/Метод_синектики.

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ КРЕАТИВ ЎҚИШ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ГЕНДЕР ЁНДАШУВДАН ФОЙДАЛАНИШ

ТерДУ ўқитувчиси Ф.А.Ҳайитова

Аннотация: ушбу мақолада ҳозирги кунда энг муҳим муаммолардан бири гендер ёндашувдан бошланғич синф ўқувчиларининг креатив ўқиш маданиятини шакллантиришда фойдаланишнинг аҳамияти, бадий асарларни қайта ҳикоя қилиш, ижодий қайта ҳикоя қилишда ўғил болаларга нисбатан қиз болалар фаол эканлиги таъкидланган

Калит сўзлар: креативлик, шахс, ўқувчи, гендер, муносабат, бадий асар, қайта ҳикоя қилиш, ўқиш.

Одатда креативлик болаларнинг фаолиятида тез-тез кўзга ташлансада, бироқ, бу ҳолат болаларнинг келгусида ижодий ютуқларни қўлга киритишларини кафолатламайди. Фақатгина улар томонидан у ёки бу ижодий кўникма, малакаларни ўзлаштиришлари зарур деган эҳтимолни ифодалайди.

Ўқувчилар ўз-ўзидан ижодкор бўлиб қолмайди. Уларнинг ижодкорлик қобилиятлари маълум вақт ичида изчил ўқиб-ўрганиш, ўз устиларида ишлаш орқали шакллантирилади ва у аста-секин такомиллашиб, ривожланиб боради. Ҳар қандай шахсда бўлгани каби бошланғич синф ўқувчиларининг креативлик қобилиятига эга бўлишлари учун таълимнинг худди шу даврида пойдевор қўйилади ва касбий фаолиятни ташкил этишда изчил ривожлантириб борилади. Бунда ўқувчиларнинг ўзини ўзи ижодий фаолиятга йўналтиришлари ва бу фаолиятни самарали ташкил эта олишлари муҳим аҳамиятга эга. Шахс ижодий фаолиятни ташкил этишда муаммоли масалаларни ечиш, муаммоли вазиятларни таҳлил қилиш, шунингдек, ижод маҳсулотларини яратишга алоҳида эътибор қаратиши зарур.

Муаммоли масала ва вазиятларни ҳал қилар экан, ўқувчининг масала ечимини топишга ижодий ёндашиши унда ҳиссий-иродавий сифатларнинг ривожланишига ёрдам беради. Ўқувчи ўз олдига муаммоли масалаларни қўйиш орқали мавжуд билимлари ва ҳаётий тажрибаларига зид бўлган далиллар билан тўқнаш келади. Бунинг натижасида ўз устида ишлаш, мустақил ўқиб ўрганишга нисбатан эҳтиёж сезади. [1]

Бошланғич синф ўқувчиларининг креатив фаоллиги ўзида янги билимларни ўзлаштиришга барқарор мотивлар ва билиш жараёнига ижобий эмоционал йўналганликнинг қарор топганлиги, ўқув вазифаларини ҳал этишда одатий ўқув ҳаракати усулларини бартараф этишга интилиш, муаммо ечимини топишнинг ностандарт метод ва усулларини излаш, ўқув-билиш фаолиятидаги қатъийлик, ижодий билиш фаолиятининг натижавийлиги билан тавсифланувчи шахс хусусиятини ўзида акс эттиради.

Бошланғич синф ўқувчиларида креативликни ривожлантириш ўз навбатида гендер ёндашувни талаб этади.

“Гендер” атамаси 1968 йилда америкалик психолог олим Столлер томонидан илмий истеъмолга киритилган бўлиб, “жинс” маъносини билдиради. Адабиётларда гендер тушунчасининг бир неча хил талқини мавжуд. Жумладан, файласуфлар уни қуйидагича тавсифлайдилар: “Гендер” инглизча сўз бўлиб, жинсга мансубликнинг ижтимоий жиҳатлари маъносини англатади. Бу тушунча эркаклар ва аёллар ўртасида нафақат биологик фарқни, балки жамиятнинг жинсий тақсимоотида ижтимоий ва маданий тавсифларнинг бутун мажмуини ҳисобга олади. Эркаклар ва аёлларга тегишли ижтимоий боғлиқлик, хулқ-атвор ва кутилган натижаларни ифодалайди”. Социологлар эса, гендер тушунчасига қуйидагича ёндашадилар: “Гендер” ижтимоий, биологик ҳолат бўлиб, эркак ва аёлнинг жинсий муносабатлари мажмуаси ҳисобланади”. Психологлар ҳам гендер тушунчасига ўзига хос тарзда ёндашганлар: “Психиканинг гендер асослари жинс ва у билан боғлиқ ижтимоий стереотиплар, шахснинг психологик кўринишидир”. Олимлар орасида бу хусусиятларнинг қайси бири туғма, қайси бири эса таълим ва тарбия жараёнида ривожланганлиги тўғрисида кескин мунозаралар бормоқда. Ўғил ва қиз болаларнинг ҳар бир халқ маданиятида ҳар хил тарбияланиши туфайли, улар мактабга келган даврдан бошлаб жинсларнинг психологик фарқлари маълум бўлади. Бу фарқлар орасида психологлар (А.Е.Тарас, 2002) қизлар ўғил болалардан математик ва визуал қобилиятлари билан устунроқ деб таъкидлашади. Ўғил болаларда қизларга қараганда ўзига ишонч ҳисси кучлироқдир. Қиз болалар бир хилликка асосланган қизиқарсиз фаолиятни енгилроқ қабул қилишади. Ўзгарувчан муҳитга тез мослашишади. Ўғил болалар ҳар бир ҳолатни умумий тарзда баҳолашса, қизлар яхшилаб текшириб, ўрганиб, кейин унга баҳо беришади”. Педагогик маънода гендер – ўғил ва қиз болаларнинг мураккаб таълимий социомаданий бирлиги бўлиб, уларнинг хатти-ҳаракати, менталитети ва эмоционал хусусиятлари, ўқув фаолиятидаги ўзаро тенг ва фарқли жиҳатларини ўз ичига олади.

Таълим-тарбия тизимида “гендер” тушунчаси фақат қизларга тааллуқли эмас, чунки у ўз хусусиятига кўра ўғил ва қиз болалар орасидаги муносабатларни тавсифлаб беради. Мазкур тушунча таълим жараёнида ўғил ва қиз болаларнинг жинсий мансублигига асосланиб

тақсимланган ўқув фаолиятининг бажарилишини ифодалайди. Педагогикада бундай ёндашувнинг қарор топиши ўғил ва қиз болаларга истиқболда – микросоциумда ижтимоий-иқтисодий, маънавий-ахлоқий жиҳатдан ўзлигини намоён қилиш имконини берадиган кўникма ва малакаларни шакллантиришдан иборатдир. Гендер педагогикасига оид тадқиқотлар ўғил ва қиз болаларга келажақда ижтимоий ҳаётда эркак ва аёл сифатида қандай мавқени эгаллаш лозимлигини ўргатишга йўналтирилиши керак. [2]

Бугунги кунда педагогика фанида эришилаётган энг муҳим ютуқлардан бири гендер тенглик ва фарқлар асосида таълим бериш имкониятларининг очилаётганлигидир. Бу ҳодиса таълимни гуманитарлаштириш нуқтаи назаридан ҳам алоҳида қимматга эга.

Гендер атамаси ўғил ва қиз болалар орасидаги фарқ тушунчасини англатади. Мазкур сўзнинг ижтимоий маъноси эса аксарият ҳолларда ўғил ва қиз болаларнинг анатомик фарқларини ифодалайди.

Антрополог Маргарет Мид гендер фарқлар ва ўхшашликларнинг биологик эмас, балки ижтимоий, психологик ҳамда педагогик жиҳатдан ҳисобга олиниши лозимлигини таъкидлаб келмоқда [2,9]. Гендер фарқлар ва ўхшашликларнинг бутун тавсифи таълим жараёнида ўзгариб, ривожланиб боради. Уни ўзгартирувчи асосий восита тарбияланувчиларнинг жинсига мос равишда дифференциациялаштирилган ақлий ҳамда жисмоний меҳнатдир. Ижтимоий-педагогик омиллар сифатида тарбияланувчининг тоифаси, ёши эътироф этилмоқда. Гендер фарқлар ва ўхшашликларни ҳисобга олган ҳолда ташкил этиладиган таълим жараёнида тарбияланувчининг ижтимоий тажрибаси аниқ ҳисобга олиниши лозим. [3]

Гендерни белгилашга нисбатан мавжуд ёндашувлар ва нуқтаи назарларнинг хилма-хиллигига қарамай, иккита концепцияни ажратиб кўрсатиш мумкин. Бу концепциялар қуйидагилардан иборат:

- 1) гендернинг ижтимоий тузилиши назарияси;
- 2) гендер тизими назарияси.

Гендерга ижтимоий жиҳатдан бўлган ёндашув қуйидагилардан иборат бўлади: биологик нуқтаи назардан жинс муайян жамиятда қарор топган жинсга хос бўлган вазифалар ва ўғил ҳамда қиз болаларнинг ўзига хос хатти-ҳаракатлари, ўзаро ҳамкорлигининг ижтимоий меъёрлари билан боғлиқ бўлган турли-туман кўринишлари. Ўғил ва қиз болаларнинг ўзаро ҳамкорлиги тушунчаси И.Гоффман томонидан киритилган бўлиб, ўғил ва қиз болаларнинг маънавий-маданий қиёфаларини ифодалайди. Ушбу ёндашувга мувофиқ равишда гендер муайян жамиятда қарор топган ижтимоий муносабатларнинг ўлчови сифатида намоён бўлади.

Таъкидлаш лозимки, гендер муносабатлар таҳлили моҳиятан жамиятнинг иқтисодий, ижтимоий, сиёсий, маънавий, маърифий

соҳалардаги жинслараро муносабатларининг аниқ манзарасини ифодалайди.

Гендер фарқлар билан бир қаторда гендер ўхшашликларни ҳам ҳисобга олган ҳолда таълим-тарбия жараёнини ташкил этиш муҳим аҳамиятга эга.

Гендер ўхшашлик – ўғил ва қиз болалар орасидаги ақлий-интеллектуал, маданий, маънавий, ижтимоий ўхшашликни ифодалайди. Қиз ва ўғил болалар орасидаги ўхшашлик уларнинг ўзаро ҳамкорлиги жараёнида вужудга келадиган умумий хусусиятларнинг педагогик-психологик интериоризациясига хизмат қилади. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, гендер жинсга боғлиқ эмас, балки таълим-тарбия, ижтимоий муҳит ёрдамида вужудга келадиган ўхшашликларга боғлиқ. [4]

Гендер фарқлар шуни ифодалайдики, унда биологик ўзига хослик ижтимоий-педагогик моҳият касб этади. Бу эса, ўз навбатида, ўқувчиларни ижтимоий-педагогик таснифлаш воситаси бўлиб хизмат қилади. Ривожланган жамиятларда анатомик жинс гендернинг асоси сифатида эътироф этилади.

Гендер соҳасидаги тадқиқотларда бир жинснинг иккинчи жинсга нисбатан иерархияси, етакчилиги ва ҳукмронлигидан воз кечиш ғояси ифодаланиши лозим. Акс ҳолда, жинслараро тенглик ва ўзига хослик педагогик жиҳатдан таъминланиши керак. Бугунги кунга келиб шу нарса тан олинганки, ҳеч қандай бошқа тадқиқот ва таълим стратегиялари Европада, жумладан Америкада академик таълим тузилмаларининг ўзгаришига бу қадар кучли таъсир кўрсата олмаган. [5]

С.Бемнинг гендер модели назарияси гендер мансубликни шакллантиришнинг ўзига хос йўлини таклиф этади: “мен” ажратиш – “мен” концепциясини гендер чизмасига ассимиляция қилиш.

Болаларда гендер ўхшашлик 7 ёшда намоён бўлади. Мутахассислар, айниқса, ўқув дастурлари ва адабиётларнинг муаллифлари бунини албатта ҳисобга олишлари лозим. К.Миллет бир ярим ёшдан бошлаб болада гендер мансублик намоён бўла бошлайди, деган ғояни илгари суради. Бу эса гендер мансублик элементларини пассив тарзда онгсиз ўзлаштириш механизмлари билан боғлиқдир, бироқ шу даврдан бошлаб болада ўзлик, яъни жинсий мансубликка асосланган “мен” қарор топа бошлайди. Боланинг хатти-ҳаракатлари, ўғил ва қиз боланинг ўзига хослиги устувор тушунчалар асосида шакллана бошлайди [6].

Таълимда гендер тенглик тамойилларининг ўйин машғулоти ва эркин фаолият кўрсатиш муҳитида амалга оширилиши таъминланади. Бунда ўзаро ҳурмат ва мулойимлик устуворлик қилади. Ўқитувчи ва ўқувчилар ўзаро ҳамкорликда ўзгаришларни режалаштирадилар, муваффақиятларни назорат қилиб рағбатлантирадилар, мавжуд муаммоларни муҳокама қилиб, уларни ҳал этиш чораларини излайдилар. Шунинг учун ҳам таълим жараёни очиқлик, мослашувчанлик, илғор

тажрибалардан фойдаланиш ва муқобил ечимларни излашни тақозо этади. Бу эса танқидий фикрлаш, ижод эркинлиги ва инсоний сифатларни қадрлашга ундайди. [7]

Ота-оналар томонидан бошланган ўғил ва қиз болаларни ижтимоий шакллантириш жараёнини, уларга хос бўлган фаолият турини қарор топтириш мактабда, биринчи навбатда, меҳнат дарсларида давом эттирилади.

Ўқувчиларда гендер тенглик ва фарқлар асосида таълим-тарбия беришда ўқитувчининг шахсий намунаси, нутқи, хатти-ҳаракатлари алоҳида аҳамиятга эга. Ўқувчилар гендернинг турли шакллари тўғрисидаги маълумотга эга бўлишлари учун мақсадга мувофиқ келадиган ахборот муҳити яратилиши зарур. Ўқув жараёнида гендер тенглик ва фарқларни ҳисобга олган ҳолда интерфаол таълим методларини қўллаш, кўرғазмалар, стендлар, плакатлар, аудио ҳамда видеовизуал воситалардан фойдаланиш имконини берадиган таълим муҳитини яратиш лозим.

Ўғил ва қизларга хос хислатлар шаклланишида ўқув жараёни муҳим аҳамиятга эга. Аниқланишича, ўқитувчилари ўғил болалар нутқи ва фикрини қизларникига нисбатан кўпроқ рағбатлантирар эканлар. Ҳатто ўқитувчилар қиз бола шикоятига кўра ўғил болалар арзига кўпроқ қулоқ тутадилар. Бунинг натижасида қизлар ижтимоий фаоллик зарурлигини ўғил болаларга нисбатан тезроқ англаб етадилар. [9]

Бошланғич синф ўқувчиларида гендер маданиятни шакллантириш муҳим аҳамиятга эга бўлиб, боланинг катта кишилар, бошқа жинс вакиллари билан муносабатларида қарор топади. Шахслараро муносабатларга киришиш, мазкур жараёнда ўзининг ўрнини билиш ўғил ва қиз болаларда индивидуалликнинг турли соҳаларини ривожлантиришда муҳим роль ўйнайди ва уларнинг гендер ижобий ёки салбий гендер ижтимоийлашуви учун шарт-шароит яратади. [9]

Тадқиқот натижалари креатив ўқиш маданиятини шакллантириш, китобхонлик воситасида бошланғич синф ўқувчиларида гендер маданиятни шакллантириш самарадорлигидан гувоҳлик беради. Ўқиш маданияти, китобхонлик (бадий асарлар, халқ оҳзаки ижоди) адабиёт ва педагогиканинг таркибий қисми сифатида бошланғич синф ўқувчиларининг креатив ўқиш маданиятини тарбиялашда муҳим ўрин тутайди. Креатив ўқиш маданиятини шакллантириш усуллари воситасида бошланғич синф ўқувчиларида гендер маданиятни шакллантириш маънавийтсизлик ва эмоционал ожизликка қарши ўзига хос иммунитет вазифасини бажаради. [6]

Таҳлиллар асосида бошланғич синф ўқувчиларида креатив ўқиш маданиятини ривожлантиришга гендер ёндашувни татбиқ этишнинг қуйидаги ўзига хосликлари аниқлаштирилди:

1. Демократлик. Ўқувчиларга таълим-тарбия бериш ва ижтимоий ҳаётда уларнинг тенг ҳуқуқлигини таъминлайди, улар бири-бирига

қарама-қарши қўйилмайди, ҳамкорлик муносабатлари асосида биргаликда ҳаракат қилишади.

2. Адабиёт билан уйғунлик. Ўғил ва қиз ўқувчиларнинг шахсий тенглиги ўқув фаолият жараёнида уларнинг бадиий ва физиологик ўзига хосликлари ва фарқларини инкор этилишини билдирмайди. Фарқларнинг қабул қилиниши ўз жинсининг вакили сифатида ижтимоий-маданий фаолиятда бошланғич синф ўқувчиларининг қобилиятларини тўлиқ намоён қилишлари учун таълимнинг турли шакл, метод ва воситаларидан фойдаланишни талаб этади;

3. Вақт меъёрларига риоя қилиш. Таълимга гендер ёндашувда ўқитувчи ва ота-оналар ҳаракатининг бирлиги муҳим аҳамият касб этади. Мазкур қоида оила билан ўзаро биргаликдаги фаолият таълим ва тарбиянинг мақсад, вазифаларига мос равишда ўқувчиларга талаб ва ҳурматнинг бирлиги, китобхон ўқувчи ҳуқуқларини ҳурмат қилишни талаб этади.[9]

Хулоса қилиб айтганда, бошланғич синф ўқувчиларининг креатив ўқиш маданиятини шакллантириш жараёнида гендер ёндашувдан фойдаланиш уларнинг ёш хусусияти, адабиётларга қизиқиши, таҳлил қилиш қобилияти, матнни оғзаки қайта баён этиш жараёнига креатив ёндашиш, мустақил фикрини эркин баён этиш, қаҳрамонларни эслаб қолиш ва асар воқеаларини ўзгартириб ҳикоя қилишда қиз болалар ўғил болаларга нисбатан фаолроқ эканликлари аниқланди.

Адабиётлар рўйхати:

1. Гончарова Е.Н. Ранние этапы приобщения детей к чтению // Воспитание школьников. – М., 2005. - № 12. - С. 45-56.

2. Nayitova, F. (2022). KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNING O'RNII. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(8), 235–242. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/3512>

3, Ҳайитова Ф. А. и др. Важность использования рисунков при описании текста работы на уроках начального класса //Фундаментальные основы инновационного развития науки и образования. – 2018. – С. 38-41.

4. Гендер тадқиқоти асослари курси хрестоматияси. Олий ўқув юртлари учун. - Тошкент: Ўзбекистон, 2003. - 411 б.

5. Хайитова Ф. А., Хуррамов Х. М. У. Педагогические идеи мыслителей о профессии учителя в обществе //Наука и образование сегодня. – 2019. – №. 6-1 (41). – С. 80-82.

6. Abdullaevna H. F., Doniyorovna R. M. Requirements for the formation of reading culture //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 5. – С. 240-245.

7. Abdullaevna H. F., Menglimamat P. J. THE IMPORTANCE OF FORMING A READING CULTURE IN THE PROCESS OF EXTRACURRICULAR ACTIVITIES

//European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 12.

8. Abdullaevna H. F., Menglimamat P. J. THE IMPORTANCE OF EXTRACURRICULAR WORK IN THE CULTIVATION OF CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS IN PRIMARY SCHOOLS //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 12.

9. Хайитова Ф. А. и др. ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РИСУНКОВ ПРИ ОПИСАНИИ ТЕКСТА РАБОТЫ НА УРОКАХ НАЧАЛЬНОГО КЛАССА //ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ. – 2018. – С. 38-41.

10. Шаббазова, Д. Р. (2018). Влияние художественных произведений на развитии личности школьника. *Гуманитарный трактат*, (24), 18-20.

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI O'RGATISHGA INTEGRATSION YONDASHUV TEXNOLOGIYALARI **(Ingliz tilini o'rgatish misolida)**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi" (boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi II bosich magistranti
Narziyeva Xabiba Xudayberdiyevna

Annotatsiya: boshlang'ich sinflar o'quvchilarini nutqini o'stirishda o'quvchilarga ingliz tili fanini o'rgatish orqali nutqiy kompetensiya qobiliyatlarini takomillashtirish va interaktiv metodlar asosida til o'rganish ko'nikmasini shakllantirish, tilga bo'lgan qiziqishni uyg'otish hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasini yaratish haqidadir.

Kalit so'zlar: nutq, kompetensiya, rivojlanish, texnologiya, boshlang'ich ta'lim, takomillashtirish, ko'nikma, bilim, kontekst, axborot texnologiyalari, audio matn, video tasvir va didaktik o'yinlar.

*So'zdirki, nishon berur o'likka jondin,
So'zdirki, berur xabar jonga jonondin.
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilki guhari sharifroq yo'q ondin.*

(A.Navoiy)

Zamonaviy boshlang'ich ta'limdagi eng asosiy va ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq, shuningdek, xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish maqsadida qaror qabul qiladi:

Ushbu qaror asosida xorijiy tillarini, asosan, ingliz tilini o'rganish umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va

grammatikani o'qitish bosqichma-bosqich boshlanadi. Qarorga ko'ra, xorijiy tillarni o'rganishni yanada rivojlantirish bo'yicha doimiy ishlaydigan muvofiqlashtiruvchi kengash boshchiligida ta'lim sohasining barcha yo'nalishlarida beqiyos ko'lamli ishlarni amalga oshirishga kirishildi. Masalan, 2013-2014 o'quv yilidan e'tiboran umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni o'yin tarzidagi mashg'ulotlar va og'zaki nutq darslari shaklida uzluksiz o'rgatish yo'lga qo'yildi.

Men bu borada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun quyidagi o'quv-trenajor dasturini ishlab chiqmoqdaman. Buning nomi "ENGLISH KIDS" dasturidir: yangi zamonaviy texnologiyaga asoslanib tuzilgan, ta'limning jahon andozalariga mos keladigan dastur va darsliklar yaratish – davr talabi.



Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar usullarni qo'llash natijasida, o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanishi, nutqi ravonlashishi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanishi, bilimga ishtiyoq uyg'otishi, darslarga puxta hozirlik ko'rishga intilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dastur ingliz tili fanidan zamonaviy fundamental bilimlar berishga mo'ljallangan bo'lib, quyidagi muhim baza tizimini o'z ichiga oladi:

Toifalangan grammatik bilimlar.

Mavzulashtirilgan yozuvli va uning audio darsliklar to'plami.

Har tugallangan bob (bo'lim) uchun maxsus dasturda tuzilgan inglizcha o'yinlar.

Barcha ma'lumotlar kataloglashtirilgan.

Uyga vazifa va qo'shimcha mashqlar.

Dastur to'liq audio formatda ishlay olish qobiliyaga egaligi. Bunda o'quvchi ixtiyoriy ravishda ovoz sozlamalarini o'zgartirish imkoniyatiga ega.

Dastur ikki tilda: inglizcha-o'zbekcha-inglizcha tizimi mavjudligi.

Ingliz tilidagi mulfilmlar, animatsion roliklar va boshqalardir.

Nutq jarayonida so'zlarni to'g'ri tanlash, nutqni tinglovchiga qulay tarzda yetkaza olish insoniy madaniyatning eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda bir nechta fanlar bilan integratsiyalashgan holda olib boriladi. Musiqa, chizmachilik, matematika, ingliz tili onatili, texnologiya, tabiiy fan kabilar orqali fanlarni o'zaro bog'lab o'rganish u yoki bu fan bo'yicha o'rganilayotgan voqea va hodisa haqida o'quvchida jonli mushohada qilish malakasini o'stiradi, bu bilan o'quvchi voqea, hodisa haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. O'qituvchi o'zbek tili fanini boshqa fanlar, zamon bilan hamnafas

uzviy bog'lagan holda ta'lim berar ekan, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlash jarayonida, shuningdek, takrorlash, umumlashtirish vaqtida u yoki bu mavzu yuzasidan o'rni bilan bog'lanishli, o'quvchilarni mantiqiy, tahliliy mushohadaga chorlovchi turli mazmunga oid matnlardan foydalanadi. Bunday matnlardan foydalanish o'quvchilarni kreativ fikrlashga, matni tushunishga, bilimi va dunyoqarashining boyishiga xizmat qiladi, bolaning dunyoqarashi o'sadi, fikrlashi boyiydi, enh muhimi, nutqi rivojlanadi. Shuning uchun har bir so'z birikma va gapni barcha qirralari bilan to'g'ri, o'rinli ishlata olish malakasini yaratish hamda o'z nutqiga nisbatan ehtiyotkorlik tuyg'usini shakllantirish boshlang'ich sinf o'qituvchilarning asosiy vazifasini bajara oladi. Hozir 2-sinf misolida nutqiy kompetensiyalarga oid fikrlar bilan tanishib chiqamiz.

Anglash (passiv nutq ko'nikmalari) - o'qib tushunish, buyumlar tasvirlangan qisqa gaplarni tushunadi, kishilar haqidagi (kimligi, hol-ahvoli, yoshi nechadaligi, qayerdanligi, qayerdaligi) qisqa gaplarni va matnlarni o'qiganda tushunadi.

Tinglab tushunish - o'ziga qarata aytilgan salomlashish va xayrlashishlarni tushunadi. O'ziqa qaratilgan oddiy savollarni (kimligi, hol-ahvoli, yoshi nechadaligi, qayerdanligi, qayerdaligi) eshitganda tushunadi, kishilar haqidagi (kimligi, yoshi nechadaligi, qayerdaligi) oddiy savollarni va gaplarni eshitganda tushunadi. Atrofidagi narsalar haqidagi (rangi, hajmi, qayerda joylashganligi) oddiy savollarni va gaplarni eshitganda tushunadi.

Faol nutq ko'nikmalari -Yozish - o'zbek alifbosidagi harflarni to'g'ri yoza oladi. O'zini (birovni) tanishtiradigan qisqa gaplar yoza oladi.

Gapirish - o'zini va o'zgani (ismi, yoshi, nechanchi sifda o'qishi, kasbini) tanishtira oladi, birovning kimligini so'ray oladi va ayta oladi, atrofidagi narsalarni so'ray oladi va ayta oladi.

Grammatika - o'zbek tilidagi tovushlarni talaffuz qila oladi, o'zbek alifbosi harflarini taniydi, kishilik olmoshlarini (men, sen, siz, u, ular) ishlata oladi.

Leksika-yaqin oila a'zolarini va do'stlarni bildiradigan so'zlarni ishlata oladi, yon-atrofidagi joylar (maktab, uy, uyning qismlari) va buyumlarni (o'quv anjomlari, o'qinchoqlar, uy johozlari, transport vositalari) bildiradigan so'zlarni ishlata oladi. Ta'limning barcha bosqichlarida zamonaviy va innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda o'zbek tili va chet tili predmeti imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ernazarov G. Boshlang'ich sinflarda ona tili oqitish metodikasi. Toshkent-Ilm Ziyo-2013.
2. Safarova R.G. va boshqalar. Boshlang'ich talim konsepsiyasi. Toshkent-2014.
3. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X.va boshqalar. Ona tili oqitish metodikasi. Toshkent – 2009.

4. Gafforova T., Shodmonov E., Gulomova X. 1-sinf oquvchilari uchun ona tili darsligi. Toshkent -2019 Sharq nashriyoti.]

5. Qosimova K., Matchonov S., Gulomova X.va boshqalar. Ona tili oqitish metodikasi. Toshkent – 2009.

ONA TILIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

Isayeva Gulhayo

Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: dotsent Normurodova Nigora

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ona tilidan sinfdan tashqari ishlarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkonini berishi haqida fikrlar ketiriladi.*

Kalit sozlar: *ona tili, sinfdan tashqari ishlar, innovatsiya, innovatsion texnologiyalar, ko'nikma, malaka.*

Абстрактный. *В данной статье приводятся представления о том, что организация внеклассной работы на родном языке на основе инновационных технологий дает возможность формирования навыков и квалификации.*

Ключевые слова: *родной язык, внеучебная деятельность, инновации, инновационные технологии, навыки, компетентность.*

Abstract. *In this article, ideas are given that the organization of out-of-class work in the mother tongue on the basis of innovative technologies enables the formation of skills and qualifications.*

Key words: *mother tongue, extracurricular activities, innovation, innovative technologies, skills, competence.*

Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish o'quv tarbiya jarayonida qo'yilgan maqsad va erishilgan natija o'rtasidagi farqidir. Ta'lim jarayonida qo'yilgan maqsad va erishilgan natija o'rtasidagi tafovvt qancha kam bo'lsa ta'lim shuncha samarali sanaladi.

Ta'lim samaradorligini oshirishning ikki xil ko'rsatkichi mavjud: samaradorlikning sifat ko'rsatkichi ma'lumot mazmuni va faoliyat usullarini egallash shartlariga muvofiq aniklanadi. Samaradorlikning sifat ko'rsatkichiga quyidagilar kiradi: o'quv-tarbiya ishlarini bolalarga eng yuqori darajadagi taraqqiyotini mo'ljallab tashkil etish: ta'lim jarayoni maqsadi bilan natijasi o'rtasidagi tafovvtu uzluksiz kamaytira boradi: ta'lim vositalarining ta'lim jarayoniga maqsadi bilan natijasi o'rtasidagi tafovvtu uzluksiz kamaytira borish: ta'lim vositalarining ta'lim jarayoniga mosligini ta'minlash o'quv materiali va taraqqiyoti o'rtasidagi farqlarga ko'ra aniqlanadi.

Sinfdan tashqari ishlar - umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biri. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish va ularni hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratadi.

Sinfdan tashqari ishlarga o'quvchilar bilan o'tkaziladigan va ularga tarbiya hamda bilim berishga qaratilgan turli xil mashg'ulotlar tizimi kiradi. Bunday mashg'ulotlar pedagogik jamoa, sinf rahbari, yoshlar tashkilotlari rahbarligi va bolalarning o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari tomonidan darsdan tashqari vaqtda uyushtiriladi. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'quvchilar saroylari, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar, yosh sayyohlar klubi va maktabdan tashqari boshqa muassasalar katta yordam beradi. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllari sifatida ommaviy ishlar (maktab klublaridagi tadbirlar, kecha, munozara va tanlovlar o'tkazish, viktorina va ko'rgazmalar uyushtirish, tabiat qo'yniga, maktab va muzeylarga ekskursiyalarga chiqish), to'garak ishlari (o'quvchilarning turli to'garaklar, sport seksiyalari, ansambllardagi qatnashishlari), mustaqil ishlar (o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishi, kolleksiya to'plashi, texnika, musiqa, tasviriy san'at, chizmachilik va sh.k. bilan mustaqil shug'ullanishi)ni ko'rsatish mumkin.

Boshlang'ich sinflar bilan ishlash jarayonida ko'p o'ylashga, yangidan yangi o'qish vositalarini izlab topishga, yod qilishga to'g'ri keladi. Buning natijasida "Hayvonot bog'ida", "Bozorda", "Sirkda", "Robinzon Kruzo tomon suzayapmiz", "Buratino bilan uchrashuv", "Koinotga parvoz" kabi sayohat o'yinlari, "Do'stinga pand berma", "kun va tun", "Kim tezroq", "Chang'ichilar", "So'zni top", "Qo'ziqorin terimi", singari qiziqarli vazifalar. Mushuk deb nomlangan jadval tayanch jadvalalar va boshqa boshqa jadvallar tuziladi. o'yinlarning jozibali nomlari bolalarning diqqatini safarbar qilishga yordam beradi. Ularni toliqtirmaydi, darsda ijobiy kayfiyatlar uyg'otadi. O'qituvchi shaxsan ularni dars o'rtasida, oxirida hattoki boshlanishida ham kiritadi, bunda mavzu o'yinning maqsadi va xarakteri hisobga olinadi. Buni sayohat o'yinlari misolida ko'rishimiz mumkin.

Sayohat o'yinlarining har biri odatda 8-12 daqiqa davom etadi. Dars uchun muayyan bir o'yin tanlar ekanmiz, avvalo quyidagi masalalarni hal qilish va savollarga javob topish kerak;

1. O'yinning maqsadi nima, uni o'tkazish jarayonida qanday malaka va ko'nikmalar tarkib topadi;

2. O'yin jarayonida qanday tarbiyaviy maqsadlar ko'zda tutiladi?

3. Qaysi fanlar o'rtasida bog'lanishga erishish talab qiladi?

4. O'quv fanlarini integrallash uchun qanday ishlar amalga oshiriladi?

5. Barcha o'quvchilar o'yinda bir xil darajada ishtirok etadimi?

6. O'yin natijalariga yakun yasash?

Zikr qilingan o'yinlar vaqti-vaqti bilan takrorlanib turadi. Ulardan faqat 1-sinfdagina emas hatto 2-va 3- sinflarda ham ona tili darslarida muvaffaqiyatli foydalaniladi. Bu o'yinlar bolalarni zeriktirmaydi, aksincha, har gal birorta sayohatga o'tlanishgan vaqtda bolalar go'yo birinchi marta chiqayotgandek quvonib ketishadi. Ularning lug'at boyligi o'z-o'zidan ortib boradi, nutq rivojlanadi, diqqat faollashadi, fikr doirasi kengayadi, ijodiy izlanish kamol topadi. Muhimi darsda katta samaradorlikka erishiladi, hech kim zerikmaydi.

Bolalar o'ynar ekanlar, beixtiyor olgan bilimlarini, o'quvchilarni bilimlarini mustahkamlaydilar va takomillashtiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: "O'zbekiston", 2016, 30-bet.

1. Abdullaeva, B., Umida, M., Khilola, B., Nigora, N., & Umida, U. (2020). Specificity of individual approach to students with low writing and reading abilities. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(5), 1983-1987.

2. Normurodova, N. A. (2021). Development of Professional and Methodical Competence of Future Primary School Teachers in Literacy Teaching. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 8945-8951.

3. Normurodova, N. (2019). DEVELOPMENT OF SPECIAL AND METHODOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).

4. Нормуродова, Н. А., & Имамкулов, Р. Р. (2019). ИНТЕГРИРОВАНИЕ ЭТНОПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ. *Научные горизонты*

5. Шаббазова, Д. Р. (2018). Влияние художественных произведений на развитии личности школьника. *Гуманитарный трактат*, (24), 18-20.

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ИЖОДИЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРУВЧИ ИННОВАЦИОН МЕТОДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Сатторова Дилшоода Джавлиевна
Термиз даавлат педагогика институти
Педагогика кафедраси катта ўқитувчиси

Бунда баркамол шахс ва малакали мутахассислар қичтайёрлашда умумий ўрта таълим мактабларининг фаолияти ва ушбу ўқув муассасаларда бошланғич синф ўқувчиларга берилаётган таълим мазмуни бойитиш кўзда тутилган. Дастлаб мактабга қадам қўйганда бола ижтимоий муҳит таъсирида ақлий томондан ривожланиб боради.

Бошланғич синф ўқувчиларига ақлий тарбия беришни тўғри ташкил этиш учун уларнинг ақлий ривожланиши қонуниятлари ва имкониятларини билиш керак. Бошланғич синфга келиб болалар теvarак-атроф тўғрисидаги каттагина ҳажмдаги оддий билим ва тушунчаларга эга бўлиб борадилар, асосий фикрлаш жараёнларини эгаллаб оладилар, нарса ва буюмлардаги, воқеалардаги муҳим ва муҳим бўлмаган томонларни ажрата оладиган, баъзи бир сабаб ва натижалардаги боғланишларни билиб оладиган бўлиб қоладилар, уларда ўқув фаолиятининг дастлабки куртаклари шаклланиб, фақат яхши ташкил этилган фаолият жараёнидагина тўлақонли ақлий ривожланиш рўй беради.

Шу сабабли педагогларнинг вазифаси болага муайян мақсадни кўзлаб, тарбиявий таъсир кўрсатиш учун керакли шароитлар яратишдир. Болаларнинг билимларни эгаллаб олишлари уларнинг ақлий фаоллигини ривожлантириш эмас мустақиллик, ақлий малака ва кўникмаларни эгаллаб олишлари уларнинг мактабда муваффақиятли ўқиши ва бўлажак меҳнат фаолиятига тайёрланишида муҳим манба бўлиб хизмат қилади.

Бошланғич синф ўқувчиларини ақлий тарбиялашнинг асосий вазифалари қуйидагилардан иборат: болаларда табиат ва жамият тўғрисидаги билимлар тизимида илмий дунёқарашни шакллантириш, билишга доир руҳий жараёнларни ривожлантириш, яъни сезги, идрок, хотира, хаёл, тафаккур, нутқ. билишга қизиқишни ва ақлий қобилиятларни, ақлий меҳнат маданиятини ривожлантириш, ақлий малака ва кўникмаларни ривожлантиришдир. Бошланғич синфда ўқитиш жараёнида бола ҳар куни ўзи учун нотаниш бўлган нарса ва ходисаларга дуч келади.

Бунда педагогнинг вазифаси болалардаги билимларни мунтазам равишда ошириб бориш, уларни тартибга солиш, ва аниқлаштиришдир. Бошланғич таълимда инновацион таълим технологияларини қўллашда муҳим талаблардан бири ортиқча руҳий ва жисмоний куч сарф этмай, қисқа вақт ичида юксак натижаларга эришишдир.

Қисқа вақт орасида муайян назарий билимларни таҳсил олувчиларга етказиб бериш, уларда маълум фаолият юзасидан кўникма ва малакаларни ҳосил қилиш, шунингдек, таҳсил олувчилар фаолиятини назорат қилиш, улар томонидан эгалланган билим, кўникма ҳамда малакалар даражасини баҳолаш ўқитувчидан юксак педагогик маҳорат ҳамда таълим жараёнига нисбатан янгича ёндошувни талаб этади. Инновацион таълим технологияларини мажбуран қўллаш орқали мақсадга эришиб бўлмайди. Аксинча, тажрибали педагоглар томонидан асосланган ёки улар томонидан қўлланилаётган илғор технологиялардан фойдаланиш билан бирга уларни ижодий ривожлантириш мақсадга мувофиқдир.

Инновацион педагогик технологиялар боғчада боланинг ривожланишида ижобий ўзгаришига олиб келади, бунда идрок этиш, ҳиссий мотивизация жараёнида улар боланинг характериға таъсир кўрсатади, бу вақтда таълим олувчини идрок этишга қизиқиши кучаяди. Инновацион технологияларидан фойдаланиш таълим олувчининг ўқув жараёнида мустақил ишлаш, ўз-ўзини тарбиялаш, ўз-ўзини ўқитиш, ўз фаоллигини ошириш, ўзи мустақил қарор қабул қилиш кўникмаларини шакллантиради. Бундан кўриниб турибдики, ўқитишнинг янги педагогик технологиялари қаторига компьютер технологиясини киритиш зарурати кундан-кунга ошиб бормоқда. Бироқ таълим жараёнида замонавий ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда дарсларни ташкил этиш учун керакли шарт-шароитлар ва техник

воситалар мавжуд бўлиши лозим. Бугунги кунда таълимни ривожлантириш, унинг самарадорлигини ошириш йўллари бўйича олимларимиз томонидан илмий изланишлар олиб борилмоқда ва таълимда янги ахборот технологияларни жорий этиш масаласи оммалашмоқда.

Бу эса ўқитувчиларнинг ўз меҳнати фаолиятига янгича ёндашувини талаб этади. Ўқув жараёнида янги технологияларнинг жорий этилиши, ўқитувчини техникавий воситалар томонидан сиқиб чиқарилишига эмас, балки ўқитувчининг вазифалари ва ролини кучайтиради. Замонавий ўқитувчи келажак бунёдкоридир, янги педагогик технологиялар, назариялар, концепцияларнинг муаллифи, ишлаб чиқарувчиси, тадқиқотчиси, фойдаланувчиси ва тарғиботчисидир.

Замонавий ўқитувчи томонидан ўқув жараёнининг ташкил этилиши жараёнида дарс мазмунидаги асосий маълумотлар ва ўқув материали шундай тақдим этилиши керакки, у ўқувчининг визуал идрок қилиш қобилиятини осонлаштиради. Зеро ўқитувчи таълим ислохотининг бош ижрочисидир. Бунда ҳар бир ўқитувчини қисқа вақт ичида жуда катта миқдордаги ахборот тўпламини ўзлаштириш, қайта ишлаш ва амалда қўллаш олишга ўргатиш муҳим аҳамиятга эга. Уни ҳал қилишда ўқитувчига ўқитишнинг анъанавий усуллари билан бирга замонавий ахборот технологиялари, жумладан, компьютерлардан фойдаланиш ёрдам беради.

Дарсда компьютердан фойдаланиш ўқитиш жараёнини қизиқарли олиб бориш, ҳар бир ўқувчига индивидуал ёндашиш имконини беради. Таълим-тарбия жараёнидаги инновациялар, илғор педагогик технологиялар, янгиликлар, дарс ўтишнинг интерфаол усуллари ўз-ўзидан таълимга кириб келмайди. Демак, ўқитувчидан билим, ижодий меҳнат ва касб маҳорати талаб қилинади. Чунки ўқитувчи фаолияти янгиланмаса таълимда самарадорликка эришиб бўлмайди.

Ўқитувчи томонидан болаларни ижодий изланиш, фаоллик, эркин фикр юритишга йўналтирувчи таълим шакли, услуб ва воситаларининг тўғри танланиши дарсларнинг қизиқарли, баҳсмунозараларга бой бўлиши, ижодий тортишувларнинг юзага келишига туртки беради. Мана шу ҳолатдагина болалар ташаббусни ўз қўлларига оладилар, ўқитувчининг зиммасида эса уларнинг фаолиятини маълум йўналишга солиб юбориш, умумий фаолиятни назорат қилиш, мураккаб вазиятларда йўл-йўриқ кўрсатиш, маслаҳатлар бериш ҳамда улар фаолиятини баҳолаш каби вазифалар қолади. Берилаётган билим оддийгина хотира ёрдамида эмас балки, боланинг ўз фикрлаш саъй-ҳаракатлари билан эгаллангандагина мустақамланади. Боланинг эркин фикрлаш, айниқса тасаввур этиш, фарз қила олиш қобилиятини ривожлантириш, кўникма ва малакаларни вужудга келтириш муҳим аҳамият касб этади.

Шунинг учун ҳар бир ўқитувчи ўз дарсларида болаларга чуқур билим бериши учун ахборот ва педагогик технологиялар, инновацион

методлардан фойдаланиши мақсадга мувофиқдир. Шундагина дарслар ўтишда замонавий педагогик технологияларни қўллаш натижасида самарали натижаларга эришади.

Шунинг учун ҳам таълим муассасаларининг ўқув-тарбиявий жараёнида замонавий ўқитиш услублари интерфаол услублар, инновацион технологияларнинг ўрни ва аҳамияти беқиёсдир.

Шу билан бирга таълим-тарбия жараёнларида янги педагогик технологияларни қўллашда алломаларимизнинг ғоя ва қарашларидан фойдаланиш ўқувчи-талабаларни ўқитиш ва тарбиялашни янада самарали бўлишига олиб келади. Хулоса, янгича фикрлаш, ўз фикрига эга, бозор шароитларида муваффақиятли иш юритадиган, юксак малакали, чуқур билимли ёшларни тарбиялаш юмуши ўқитувчиларнинг инновацион фаолиятни жадаллаштириш самараси ўлароқ ривожланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. –Тошкент.: “Ўзбекистон” нашриёти, 2017. –273 б.

2. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. Ўқув–методик қўлланма. Муслимов Н. А., Усмонбоева М. Ҳ., Сайфуров Д. М., Тўраев А. Б. – Тошкент, 2015. – 14–15 б.

3. Азизходжаева Н.Н. Ўқув жараёнининг самарадорлигини оширишда педагогик технологиялар. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. –Тошкент, 2007 й. – 48 б.

КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИКДА КРЕАТИВ СИФАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

*Артиқова К. К. Артиқова М.К
ТерДПИ ўқитувчиси*

Annotatsiya: Ўқувчиларда лаёқат, истеъдод, креативлик ҳар қанча ҳайратомуз бўлмасин, таълим-тарбиядан ташқаридаги фаолиятда камол топа олмайди. Креативликни ривожлантиришнинг энг унумли йўлларида бири барча ўқувчиларни ёшлигиданоқ маҳсул-дор ижодга ва меҳнатга ўрганиш билан машғул бўлишга жалб этиш, дарсларни ижодий тарзда ташкил қилиш, турли хил ноанъанавий дарс усулларида кенг фойдаланишдир.

Аннотация: Какими бы замечательными ни были способности, талант и творческие способности учащихся, они не могут быть усовершенствованы в деятельности вне образования. Одним из наиболее эффективных способов развития творческих способностей является привлечение всех учащихся с раннего возраста к продуктивному творчеству и обучению, творческая организация уроков, широкое использование различных нетрадиционных методов обучения.

Annotation: No matter how wonderful the ability, talent, and creativity of students are, they cannot be perfected in activities outside of education. One of the most effective ways to develop creativity is to attract all students from an early age to engage in productive creativity and learning, to organize lessons in a creative way, and to widely use various non-traditional teaching methods.

Касбий компетентлик мутахассис томонидан алоҳида билим, малакаларнинг эгалланишини эмас, балки ҳар бир мустақил йўналиш бўйича интегратив билимлар ва ҳаракатларнинг ўзлаштирилишини назарда тутди. Шунингдек, компетенция мутахассислик билимларини доимо бойитиб боришни, янги ахборотларни ўрганишни, муҳим ижтимоий талабларни англай олишни, янги маълумотларни излаб топиш, уларни қайта ишлаш ва ўз фаолиятида қўллай билишни тақозо этади. Креатив компетентлик – педагогик фаолиятга нисбатан танқидий ва ижодий ёндашиш, ўзининг ижодкорлик малакаларига эгаллигини намоиш эта олиш. Айтиш лозимки, ижтимоий-психологик нуқтаи назардан дарс жараёнида ўқитувчи ҳамда таълим олувчиларнинг ўзаро ижодий фаолиятида билим олишга қаратилган изланишни бошқариш, фақат педагогик жиҳатдан тўғри ташкил қилинган мулоқот натижасида амалга оширилади. Масалан, дарсда янги мавзунини ўқувчилар онгига сингдириш, янги материални тушунтиришда ёки муаммоли вазият ҳосил қилишда гуруҳ жамоаси билан мулоқотни тўғри ташкиллаштириш ўқитувчи учун жуда ҳам зарур. Бунинг натижасида ўқувчилар аҳил жамоа бўлиб, дарсда, билимларни ўрганишда ўзаро эркин фикр юритадилар ва изланадилар. Мулоқотда ўқитувчининг ташаббускорлиги таълим-тарбиявий ҳамда ижтимоий-психологик жиҳатдан қатор стратегик ва тактик муаммолар ечимини топиш имкониятини беради. Шунингдек, креативлик хусусияти, педагогнинг илмий-назарий асослари билан, ўқувчиларда креативликни шакллантиришда мотивациянинг аҳамияти ва интреактив методлар ёрдамида ижодий тафаккурни ривожлантириш хусусиятларини баён қилиш демакдир. Ўқувчиларда ижодий тафаккур – креативликни улар учун қулай ва қизиқарли бўлган соҳаларда намоён этиб тарбиялаш барча фан педагогларининг биринчи галдаги вазифасига киради. Креатив компетентликка эга бўлган ҳар қандай халқ таълими ходими кўпгина ҳолларда ўқувчиларнинг ноанъанавий, янги (ностандарт) ёндашилган ишини кўргач, буни фақат ўта қобилиятли ёки истеъдодли одамгина бажара олиши мумкинлиги ҳақида ўйлайди. Ҳолбуки, одамларни ҳайратга солувчи бундай ишларни ҳамма ҳам бажара олиши мумкин. Ўқувчиларда лаёқат, истеъдод, креативлик ҳар қанча ҳайратомуз бўлмасин, таълим-тарбиядан ташқаридаги фаолиятда камол топа олмайди. Креативликни ривожлантиришнинг энг унумли йўлларида бири барча ўқувчиларни ёшлигиданоқ маҳсулдор ижодга ва меҳнатга ўрганиш билан машғул бўлишга жалб этиш, дарсларни ижодий тарзда

ташкил қилиш, турли хил ноанъанавий дарс усулларида кенг фойдаланишдир. Таълим олувчиларда ижодийлик, ижодий тафаккур – креативликни, ижодий қобилият ва иқтидорни ривожлантириш учун таълим жараёнида турли хил усуллар, ривожлантирувчи технологиялар ёрдамида улар аввало кенг тафаккурни, иродавий хусусиятларни, ўзига нисбатан ишонч туйғусини, фаоллик ва фаолиятни, меҳнат қилиш кўникмаларини, мақсад сари интилиш хусусиятларини таркиб топтириш лозим. Ана шунда таълим-тарбия мақсадларига тўла маънода эришиш мумкин. Ўқувчилар бу мақсадлар йўлида ўқитувчи-устозлари билан биргаликда ўз устиларида тинмай ишлашлари, изланишлари, ижтимоий муносабатлар жараёнида фаол иштирок этишлари, ўз ички табиий имкониятларини фаол ишга солган ҳолда ижодий қобилият ва иқтидорларини амалда кенг намоён қилишлари керак. Бизнинг фикримизча, болаларда креативлик қобилиятини ўстиришнинг кўйидаги йўллари мавжуд:

1.Технология. Конструкторлик ўйинлари ва бошқотирмалар. Мазкур фаолият ўқувчилардаги табиий лаёқатни шаклланган тус олишига ва ижодий қобилиятнинг дастлабки куртакларини амалий фаолиятда намоён бўлишига хизмат қилади.

2.Тасвирий санъат. Ўқувчи мазкур фаолият билан машғул бўлиши натижасида, ундаги хаёл ва тасаввур жараёнлари ривожланади. Мазкур ривожланиш ўз навбатида тафаккурга стимул беради.Натижада, мазкур билиш жараёнларининг мувофиқлашуви ижодий қобилиятнинг кашф этиш хусусиятини юзага келтиради.

3.Муסיқа. Кўриш сезгиси одамларда етакчи ўрин тутаяди. Тўқсон фоиз ахборотни кўриш орқали қабул қиламиз. Аммо, муסיқани кўриш мумкин эмас. У эшитилади ва ҳис қилинади. Демак, муסיқа билан шуғулланиш ўқувчи руҳиятидаги “мудроқ” хусусиятларни жонланишига олиб келишини тахмин қилишимиз мумкин. Юқоридаги фаолият турлари билан ўқувчиларни ўқув машғулотида муваффақиятли иштирок этишларини таъминлаш ва улар орқали самарали натижаларни қўлга киритиш мумкин. Шунингдек, телевидения ёки компьютерда интернет орқали берилаётган таълим – фандаги энг сўнгги ғоялар ёки технологиялар (турли дизайндаги конструкторлик ишлари, рассомлар ижодидан турли тасвирлар ва манзаралар) билан танишиш орқали ўзларининг ижодий тафаккурларини янада ривожлантиришса мақсадга мувофиқ бўлар эди. Чунки бундай замонавий воситалар маълум даражада ўқувчилар руҳиятини ва ақлий фаолиятини (ақлий меҳнат) юқори даражаларга олиб келиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1.Усмонбоева М., Тўраев А. Креатив педагогика асослари. ўқув – услубий мажмуа. - Т.:ТДПУ 2016

2.Kamoldjonovna, A. K., & Pirimkulovna, P. G. (2022). PROFESSIONAL DEDICATION AND PROFESSIONAL COMPETENCE AS A SUBJECT OF STUDY OF

PSYCHOLOGY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(02), 766-772.

3. Усмонбоева М., Тўраев А. Креатив педагогика асослари. - ЎУМ. ТДПУ, 2016.

4. Ҳасанбоев Ж., Тўрақулов Х., Ҳайдаров М., Ҳасанбоева О., Усманов Н. Педагогика фанидан изоҳли луғат. - Т.: «Фан ва технологиялар», 2009.

5. Усмонбоева М., Тўраев А. Креатив педагогика асослари. ўқув - услубий мажмуа. - Т.: ТДПУ, 2016. - 43-бет

SAVOD O'RGATISH DAVRIDA O'QUVCHILARNING IJODIY TASAVVURINI RIVOJLANTIRISH

Azimova Dilfuza Usmonovna

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Boshlang'ich ta'lim har bir umumiyta'lim maktab ikkala pog'onada umumiy o'rta ta'limni amalga oshiradi. Bu boshlang'ich maktabda bitiruvchilarning to'liqligini va umumiy o'rta ta'lim tizimida uzluksizligini ta'minlaydi. Uzluksiz ta'limning asosi hisoblangan'ich sinf o'quvchilarida tasavvur va ijodkorlik bir-biri bilan chambachas bog'liq.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ijodiy tasavvur, rivojlanish, savod o'rgatish davri, kreativlik, o'quvchi, pedagogik texnologiyalar.

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan bilim va quvvatning, savadxonlik asoslarining shakllantirilishiga yo'nalgan. Birinchi sinfga bolalar 6-7 yoshdan qabul qiladi. Boshlang'ich ta'lim O'zbekistonda talabiy, bepul va barchaga taalluqli bo'ladi. Bu maktab yoshiga yetgan barcha bolalar umumiy yoki alohida (nogiron bolalar va rivojlanishdan orqada qolgan bolalar) boshlang'ich maktabga borishlarini bildiradi. Bolalarni bo'shlang'ich ta'limga qo'yish mos keluvchi yoshidagi bolalarning 100% tashkil qiling.

Bola boshlang'ich maktabni tug'at ekan, u o'qish, yozish va tadqiqot markaziga ega bo'lishi kerak. O'quvchiga nazariy fikrlash elementlari, o'rganilgan narsalarni boshqarish xususiyatlari singdiriladi. O'quvchiga nazariy fikrlash elementlari, o'rganilgan narsalarni boshqarish xususiyatlari singdiriladi. Nutq madaniyati, shaxsiy gigiena asoslari, sog'lom hayot tarzi va jamiyatda o'zini tutish bilimlari ham berilib boriladi.

O'quv fanlarining sifat va tarkibi boshlang'ich maktabda, maktab turi va o'qish asboblari bilan ta'minlanadi. O'zbekistonda boshlang'ich va o'rta ta'lim tashkil etilishi va tarkibga bir - biri bilan bog'liq bo'lgan. Har bir umumiyta'lim maktab ikkala pog'onada umumiy o'rta ta'limni amalga oshiradi. Bu boshlang'ich maktabda bitiruvchilarning to'liqligini va umumiy o'rta ta'lim tizimida uzluksizligini ta'minlaydi. Uzluksiz ta'limning asosi hisoblangan'ich sinf o'quvchilarida tasavvur va ijodkorlik bir-biri bilan chambachas bog'liq. Biroq, ular o'rtasidagi bog'liqlik hech qanday holatda tasavvurdan o'z-

o'zini ta'minlaydigan funktsiyadan kelib chiqishi va undan ijodkorlikni uning faoliyatining mahsuli sifatida olishi mumkin emas.

Tasavvur ijodiy faoliyat jarayonida shakllanishini hisobga olsak, bu borada boshlang'ich sinf darsliklarining ahamiyati beqiyosdir. Shu sababli, o'quvchilarning tasavvurining o'ziga xos turlari qancha ko'p bo'lsa uning samara ko'rsatkichi ham shakllanadi va namoyon bo'la boshlaydi. Ayniqsa, savod o'rgatish darslarida og'zaki nutq va unga tayangan ma'lumotlar bazasi ijodiy faoliyatni eng yuqori darajasini tashkil etadi. Savod o'rgatish davrida o'quvchilarning tasavvurini rivojlantirishning dastlabki bosqichlari sifatida harf elementlari va ular bilan tanishtirishning birinchi kunlaridanoq harf elementlarini ongli tushunish va mustaqil yoza olish ko'nikmalarini o'rgatish juda muhim qadam hisoblanadi. Savod o'rgatish davri o'quvchilarni asosiy muhim poydevori.

Kreativlik – bu qaysidir ma'noda yangi va foydali biror bir narsaning o'quvchilarni ijodiy yaratilishiga hissa qo'shadigan fenomen. Boshqacha qilib aytganda, yangi mavhum biror narsa (asar, musiqa, idea yoki start-up) yoki jismoniy biror kashfiyot (mashina, qurilma yoki robot) kabilar yaralishi uchun eng kerakli vosita bu kreativlikdir.

Agar o'qituvchi unga optimistik nuqtai nazardan yondashsa, o'quvchi yaxshilikka intilib, uning umidini oklaydi va aksincha o'quvchiga oldindan noshud, yalqov, tartibsiz deb qaralsa hamda, o'jarlik va terslik o'quvchining sifati hukum chiqarilsa u holda o'quvchi o'zining xuddi shunday qilib ko'rsatadi. Natijada u bu borada ham o'qituvchining umidini oqlaydi.

Bulardan ko'rinadiki, ma'lum bir bilimlarni egallash, malaka hosil qilish usuli ona tili mashg'ulotlarida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ona tili mashg'ulotlaridan kelib chiqadigan pirovard natija o'quvchilarda ma'lum bir ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir. Bu maqsadga va ko'zlangan natijaga erishishning eng samarali usuli induksiya (tahlil) usulidir. Induksiya usuli xususiylikdan umumiylikka qarab borish usuli, ya'ni mashqlar tahlilidan xulosalar, qoida va ta'riflarga qarab borish usulidir. Ona tili o'qitish metodikasida bu tushuncha o'quvchiga noma'lum bo'lgan til hodisalarini bilib olishda oldingi bilimlarga tayangan holda kuzatish, taqqoslash, guruhlarga ajratish, umumlashtirish kabi usullardap foydalanib, qoida, ta'rif va xulosalar chiqarish yo'lidir. Bu usulning mohiyati shundaki, unda o'quvchiga kat'iy qoidalar berilmaydi, o'quvchi qoida yodlash bilan bapd bo'lmaydi, balki bir qator o'xshash na noo'xshash hodisalarni saralab, ular ustida ishlaydi va o'qituvchi hamkorligida saralangan hodisalarni umumlashtiradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, yangi jamiyatga o'tishning evolyutsion rivojlanish yo'lini tanladi. Bu yo'l jamiyat a'zolarining manfaatlariga zid kelmaydigan, muayyan vaqtni talab qiladigan va pirovardida samarali bo'ladigan yo'ldir. Rivojlanishning progressiv, taraqqiyot turi (q. Taraqqiyot) bilan regressiv, tanazzul turi (q. Inqiroz) farqlanadi.

Hozirgi zamon fanida rivojlanishning maxsus ilmiy nazariyasi ishlab chiqilmoqda, unda asosan, qaytariluvchi jarayonlarni qarab chiquvchi klassik

tabiatshunoslikdan farq qilgan holda, nochiziqli, sakrashsimon o'zgarishlar bayon qilinadi.

Adabiyotlar:

1. Usmonova A. D. On the Example of Abdulla Avloni, The hero of the national Awakening period //Middle European Scientific Bulletin. – 2022.

2.Usmanovna A. D., Nortazhova Z. A. Improving Technologies of Integrative Approach to Mother Language and Reading Literacy Lessons //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – T. 18. – C. 167-169.

3.Qizi S. N. I., Usmanovna A. D. Methods of Teaching Students to Grammatical Analysis in Mother Language and Reading Literacy Lessons //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – T. 18. – C. 164-166.

4.Dilfuza A. et al. BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA AKSIOLOGIK YONDASHUV //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 11. – №. 3. – C. 136-140.

5.Usmanovna D. A. Psychological problems of children and methods of solution //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 88-90.

6. Azimova D. The main Peculiarities of web tool 2 during teaching //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 5. – C. 584-588.

7. Azimova D. U. Abdullah Avloni's Pedagogical Views And Its Essence //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. –

8. Шаббазова, Д. Р. (2018). Влияние художественных произведений на развитии личности школьника. *Гуманитарный трактат*, (24), 18-20.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA MILLIY G'URUR TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

*Abdullayev Jasur, TerDPI magistranti
Suyunov Dilshod Abdullayevich TerDPI o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda tarbiya hamda ona tili va o'qish savodxonligi fanlari orqali o'quvchilarda milliy g'urur ruhini shakllantirishni takomillashtirish, o'quvchilarda umummilliy tafakkurni takomillashtirish, o'quvchilarning faktlarni tahlil qilishlari, jarayonlarni o'rganishda milliy ong va his-tuyg'u ruhini yaratish, tarbiya fani bo'yicha avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini yangi vaziyatlarda qo'llashi orqali o'quv materialini ongli o'zlashtirish, o'zlashtirilgan bilimlar orqali o'quvchilar milliy g'urur hissini o'rganuvchi turli o'quv fanlariga oid bilimlar uzviyligini zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanib bayon qilingan.

Tayanch so'zlar: milliy g'urur, mutafakkir, ta'lim, shakl, metod, foydalanish, meros, manba, qadriyat, o'qitish, tabiat, munosabat, tushuntirish, milliy tarbiya, o'quvchi, boshlang'ich sinf.

Shaxsda milliy g'urur, milliy g'urur va o'zlikni anglash tuyg'ularini shakllantirish borasida ommaviy axborot vositalarining ham ahamiyati katta ekanligini e'tirof etish asosida respondent- o'quvchilar savolnoma tarkibidan o'rin olgan yettinchi savolga nisbatan o'z munosabatlarini bildiradilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy g'urur, g'urur va o'zlikni anglash kabi tuyg'ularni shakllantirishda ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan hamda tadqiqot muammosi mohiyatini yorituvchi jarayonning faol sub'ektlaridan biri bo'lgan pedagog xodimlarning o'zni va ahamiyati kattadir. Ularning shaxsiy namunasi, shuningdek, ular tomonidan mashg'ulotlar chog'ida o'zlashtirilayotgan mavzular negizida o'quvchilarda milliy g'urur, g'urur va o'zlikni anglash kabi tuyg'ularni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilar bilan faol muloqot o'rnata oluvchi pedagoglar ularning shaxsiy fazilatlari xususida ham yetarli darajada ma'lumotlarga ega bo'la oladilar. Shu bois, tadqiqot jarayonida olib boriladigan tajriba- sinov ishlarini yo'lga qo'yishda ularning yordamlaridan foydalanish samarali natijalar berishini nazarda tutgan holda respondent sifatida tanlanishlariga erishdik.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning milliy g'urur tuyg'usiga ega bo'lishlarini ta'minlashda bu jarayonni yaxlit tashkil etish, unda har bir samarali omildan maqsadli foydalanish, imkoniyatlarni ko'ra olish va ularning samaradorligini baholash muhim ahamiyatga ega.

Shaxsning milliy g'urur tuyg'usiga egalik darajasini aniqlash bir qadar murakkabdir. Binobarin, shaxsning namoyon bo'luvchi barcha harakatlari ham uning bu tuyg'uga egaligini ifoda etavermaydi. Shu bois asoslovchi tajriba davridayoq tajriba- sinov ishlarining to'g'ri tashkil etilishiga e'tibor qaratildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish yo'lida tajriba- sinov ishlarini olib borishda quyidagi holatlar inobatga olindi: tajriba- sinov maydonlarini belgilashda pedagogik shart- sharoitlarning mavjudligini o'rganish, tajriba ishlariga malakali pedagog- metodistlarni jalb etish, tavsiya etilayotgan metodika samaradorligini uzluksiz tahlil etib borish.

Tajriba- sinov ishlarini muvaffaqiyatli tashkil etish maqsadida bir qator kutubxonalarining shaxs ma'naviyatini shakllantiruvchi, o'quvchilar o'rtasida ma'rifiy bilimlarni yoyishga yordam beruvchi adabiyotlarga egaligi o'rganildi.

Tadqiqot muammosini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish boshlang'ich sinf o'quvchilarining aksariyati o'zlarida milliy g'urur tuyg'ucini shakllantirishga befarq ekanligi yoki bu kabi sifatlarning past darajada rivojlanganligini ko'rsatdi. Tajriba- sinov ishlarini olib borishda buning sabablari o'rganildi. O'quvchilar faoliyatini bevosita va bilvosita kuzatish, ular ishtirokida ijtimoiy so'rovlarni tashkil etish natijalari sabablarni aniqlashga yordam berdi. So'rovlar natijasida xulosaning haqqoniyligi tasdiqlandi.

Shaxs g'ururi – bu muayyan shaxsga xos bo'lgan psixologik xususiyat bo'lib, u shaxsning ijtimoiy mavqei shaxsiy xususiyatlar, turmush tarzi, kasbiy yoki ijtimoiy faoliyat, erishilgan muvaffaqiyatlardan qoniqish hosil qilish sanaladi. Milliy g'urur tuyg'usiga egalik esa ma'lum millatga mansub shaxsning ana shu millatning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni, mavqei, insoniyat taraqqiyoti va tsivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini anglash, faxrlanish va qoniqish demakdir.

SHaxsning milliy g'urur tuyg'usiga egalik darajasini aniqlash bir qadar murakkabdir. Binobarin, shaxsning namoyon bo'luvchi barcha harakatlari ham uning bu tuyg'uga egaligini ifoda etavermaydi.

Bizning nazarimizda, «g'urur» tushunchalari o'rganilayotgan ob'ekt nuqtai nazaridan ham individual, ham ijtimoiy xususiyatni namoyon eta oladi.

Dastlab boshlang'ich sinfda o'qitilishi yo'lga qo'yilgan o'quv fanlari, ayniqsa, ijtimoiy– gumanitar fanlarning imkoniyatlarini o'rganishga harakat qilindi, fanlar bo'yicha yaratilgan o'quv dasturlari asosida o'quv fanlarining o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish imkoniyati o'rganildi.

O'quv dasturlari bilan tanishish yuqorida nomlari aytib o'tilgan o'quv fanlarining tadqiqot muammosini hal etishda yetarli imkoniyatga ega ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot muammosini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish yoshlar, shu jumladan, maktab o'quvchilarining aksariyati o'zlarida milliy g'urur, milliy g'urur va milliy o'zlikni anglash tuyg'ularining shakllanishi nisbatan befarq ekanligi yoki bu kabi sifatlarning past darajada rivojlanganligini ko'rsatdi.

Asoslovchi tajriba–sinov ishlarini olib borish jarayonida o'quvchilarda milliy g'urur, g'urur va o'zlikni anglash tuyg'ulari shakllanganligining mavjud darajasini o'rganish maqsadida respondent– o'quvchi va o'qituvchilarning e'tiboriga anketa so'rovlari va test savollarini havola etdik.

Adabiyotlar

1. Arapbayeva D.K. Sharq mutafakkirlarining farzand tarbiyasi haqidagi fikrlari.Oila va maktab. 2015.

2. Andumannopov A.M. Alisher Navoiy merosi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy tushunchalarini shakllantirish (“Hayrat ul -abror” dostoni maqolotlari misolida): Ped. fanl. nomz. ... diss. avtoref. - T.:Fan, 2004.-21 b.

3. Arapbayeva D.K. Sharq mutafakkirlarining farzand tarbiyasi haqidagi fikrlari.Oila va maktab. 2015.

4.Bahodirov O. Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, alloma, adiblar). -T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1999, - 392 b.

5. Valiyev Z. O'quvchi shaxsini axloqiy shakllantirishda ekologik tarbiya // Uzluksiz ta'lim tarbiya muammolari.-T.: Nizomiy nomidagi TDPI, 1993.- 27-31 b.

6. Nosirov K.J. IX-X asrlarda Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloqiy tarbiya haqidagi g'oyalari. (Al-Buxoriy va al-Farg'oniy asarlari misolida): Ped. fan. nomz. ...diss. - T.: 2004.- 167 b.

7. Suyunov D.A. Improving the use of the heritage of central asian thinkers in forming ecological thinking in primary school students. Web of Scientist: International Scientific Research Journal ISSN: 2776-0979 Impact Factor: 7.565 volume 3, issue 3, March - 2022 -R.159-165.

8. Suyunov D.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirish vositalari // Science and innovation. International scientific journal// 2022 №5-P.43-47.

9. Turdiqulov E.O., Turdiqulov U.O. Markaziy Osiyoda ekologik ta'lim taraqqiyoti. -T.: Fan, 2005, - 309 b.

10. Xayrullayev M.M. Buyuk siymolar: Markaziy Osiyodagi mashhur mutafakkir va donishmandlar. -T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1996, - 120 b.

DIDAKTIK TA'LIMY O'YINLAR ORQALI HAMJIHATLIK TUYG'USINI SHAKILLANTIRISH

*Abdiyeva Nodira Ollonazarovna
TerDPI 2-kurs magstranti*

Annotatsiya: Didaktik ta'lim o'yinlari o'quvchilarda o'rganish paytida uyg'unlik tuyg'usini yaratish uchun kuchli vositadir. Ushbu maqolaning maqsadi DEG ning afzalliklari, ularni loyihalash va amalga oshirishda ishlatiladigan usullar va ulardan foydalanish natijalarini tushuntirishdir. Shuningdek, biz topilmalarning oqibatlarini muhokama qilamiz va degni yanada rivojlantirish va takomillashtirish yo'llarini taklif qilamiz.

Kalit so'zlar: Didaktik ta'lim o'yinlari, uyg'unlik, o'rganish, o'qitish, ta'lim, metodologiya, natijalar, munozara, xulosalar, takliflar.

Аннотация: Дидактические обучающие игры - мощный инструмент для создания у учащихся чувства гармонии во время обучения. Цель этой статьи-объяснить преимущества Дидактические обучающие игры, методы, используемые при их разработке и реализации, а также результаты их использования. Мы также обсудим последствия результатов и предложим способы дальнейшего развития и улучшения deg.

Ключевые слова: дидактические обучающие игры, гармония, обучение, воспитание, методика, результаты, обсуждение, выводы, предложения.

Anotation. Didactic Educational Games are a powerful tool for creating a sense of harmony in students while learning. The purpose of this article is to explain the benefits of Didactic Educational Games, the methods used in their design and implementation, and the results of their use. We will also discuss

the consequences of the findings and propose ways to further develop and improve the Didactic Educational Games.

Keywords: Didactic Educational Games, Harmony, Learning, Teaching, Education, methodology, results, discussion, conclusions, suggestions.

Ta'lim jarayoni ko'pincha talabalar uchun qiyin va yoqimsiz bo'lishi mumkin. Bu, ayniqsa, ular material bilan shug'ullanmaganlarida yoki o'qitilayotgan tushunchalarni tushunish uchun kurashayotganda to'g'ri keladi. Biroq, didaktik ta'lim o'yinlari yordamida o'rganish qiziqarli va qiziqarli bo'lganda, o'quvchilarda uyg'unlik va o'quv tajribasidan qoniqish hissi paydo bo'ladi. Didaktik ta'lim o'yinlari -bu aniq tushunchalar yoki ko'nikmalarni o'rgatish uchun mo'ljallangan o'yinlar, shu bilan birga o'quvchi uchun yoqimli va qiziqarli tajribani taqdim etadi. Ushbu maqolada biz Didaktik ta'lim o'yinlari yaratish uchun ishlatiladigan usullarni, ulardan foydalanish natijalarini va ushbu topilmalarning o'qitish va o'rganish uchun ta'sirini o'rganamiz.

Samarali Didaktik ta'lim o'yinlari yaratish uchun turli usullar qo'llaniladi. Birinchidan, o'qituvchilar o'z o'quvchilari o'rganishini istagan tushunchalar yoki ko'nikmalarni aniqlashlari kerak. Keyin ular ushbu tushunchalarni qiziqarli va qiziqarli tarzda o'rgatadigan o'yinni loyihalashtirishlari kerak. Bu hikoya chizig'i yoki engib o'tish kerak bo'lgan qiyinchiliklar to'plamiga ega bo'lgan o'yinni yaratishni o'z ichiga olishi mumkin. O'yin, shuningdek, talabalarga o'z taraqqiyotlarini ko'rish va strategiyalarini mos ravishda moslashtirishga imkon beradigan aniq maqsadlar va teskari aloqa mexanizmlariga ega bo'lishi kerak.

O'yin ishlab chiqilgandan so'ng, uning samaradorligini ta'minlash uchun uni bir guruh talabalar bilan sinab ko'rish kerak. Bu talabalarni jalb qilish, motivatsiya va o'quv natijalari to'g'risida ma'lumot to'plashni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu mulohazaga asoslanib, o'yin samarali deb topilmaguncha o'zgartirilishi va yana sinovdan o'tkazilishi mumkin.

Degdan foydalanish talabalarining faolligi, motivatsiyasi va o'quv natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi isbotlangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Didaktik ta'lim o'yinlaridan foydalanadigan talabalar o'rgangan ma'lumotlarini saqlab qolish ehtimoli ko'proq va bu bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llash ehtimoli ko'proq. Didaktik ta'lim o'yinlari, shuningdek, talabalarining motivatsiyasi va faolligini oshirishi ko'rsatilgan, chunki ular o'rganishning qiziqarli va yoqimli usulini taqdim etadi.

Didaktik o'quv o'yinlari o'quvchilar o'rtasida uyg'unlik tuyg'usini shakllantirish uchun kuchli vosita bo'lishi mumkin. Ham ta'limiy, ham yoqimli o'yinlar yaratish orqali o'qituvchilar o'z o'quvchilarini jalb qilishlari va hamkorlik, muloqot va hamdardlik haqida muhim saboqlarni olishlariga yordam berishlari mumkin.

Ta'lim o'yinlari orqali uyg'unlikni targ'ib qilishning bir usuli-hamkorlik va jamoaviy ishlashni talab qiladigan o'yinlarga e'tibor qaratish. Masalan, muammoni hal qilish uchun talabalardan birgalikda ishlashni talab qiladigan

jamoaviy o'yinlar ishonchni mustahkamlashga va do'stlik tuyg'usini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu o'yinlar o'quvchilarga guruhda samarali ishlash uchun zarur bo'lgan muloqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Yana bir yondashuv-empatiya va istiqbolni o'rgatish uchun o'yinlardan foydalanish. Talabalarga turli nuqtai nazarlarni boshdan kechirishga imkon beradigan rolli o'yinlar yoki simulyatsiyalar ularga boshqalarning tajribasi va his-tuyg'ularini yaxshiroq tushunishga va qadrlashga yordam beradi. Hamdardlik va tushunishni targ'ib qilish orqali ushbu o'yinlar nizolarni kamaytirishga va sinfdagi uyg'unlikni oshirishga yordam beradi va nihoyat, o'yinlardan nizolarni hal qilish ko'nikmalarini o'rgatish uchun ham foydalanish mumkin. Masalan, talabalardan muzokaralar olib borishni, murosaga kelishni va o'zaro manfaatli echimlarni topishni talab qiladigan o'yinlar ularga nizolarni konstruktiv tarzda hal qilishni o'rganishga yordam beradi. Ushbu o'yinlar, shuningdek, talabalarga o'z his-tuyg'ularini yaxshiroq tushunishga va ularni qanday qilib sog'lom tarzda ifoda etishga yordam beradi.

Umuman olganda, didaktik o'quv o'yinlari talabalar o'rtasida uyg'unlik tuyg'usini shakllantirish uchun samarali vosita bo'lishi mumkin. Hamkorlik, hamdardlik va nizolarni hal qilish ko'nikmalarini targ'ib qilish orqali o'qituvchilar har kimga foyda keltiradigan yanada ijobiy va uyg'un sinf muhitini yaratishi mumkin.

Ta'limda degdan foydalanish o'qitish va o'rganish uchun juda ko'p ta'sirga ega. Birinchidan, bu o'quvchi va o'qitilayotgan material o'rtasida uyg'unlik tuyg'usini yaratishga yordam beradi. Bu o'quvchining motivatsiyasi va faolligini oshirishi, ta'lim natijalarini yaxshilashga olib kelishi mumkin. Didaktik ta'lim o'yinlari shuningdek, turli xil tushunchalar va ko'nikmalarni o'rgatish uchun ishlatilishi mumkin, bu ularni o'qituvchilar uchun ko'p qirrali vositaga aylantiradi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, Didaktik ta'lim o'yinlari an'anaviy o'qitish usullarini almashtirish sifatida emas, balki ushbu usullarga qo'shimcha sifatida ishlatilishi kerak.

Xulosa va takliflar:

Xulosa qilib aytganda, didaktik o'quv o'yinlaridan foydalanish o'quvchilarda o'rganish paytida uyg'unlik va qoniqish hissini yaratish uchun kuchli vosita bo'lishi mumkin. Didaktik ta'lim o'yinlari turli usullar yordamida ishlab chiqilishi mumkin va talabalarning faolligi, motivatsiyasi va o'quv natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ko'rsatilgan. O'qituvchilar o'z talabalarini uchun yanada yoqimli va samarali o'rganish tajribasini yaratish uchun degni o'qitish amaliyotiga qo'shishni o'ylashlari kerak. Biroq, Didaktik ta'lim o'yinlari-ni me'yorida ishlatish va ularning o'quv maqsadlariga mos kelishini ta'minlash muhimdir. Didaktik ta'lim o'yinlari -dan talabalarning o'qishi va motivatsiyasiga uzoq muddatli ta'sirini o'rganish uchun qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.A.Zununov. N. Hotamov. J. Esonov. Maktabda adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent, "O'qituvchi" 1993.

2. Q.Yuldoshev. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent, "O'qituvchi", 1996.

3. Q.Yo'ldoshev, O.Madaev, A. Abdurrazoqov. Adabiyot o'qitish metodikasi, dasturiy qo'llanma. Toshkent, 1994

4.Yoldoshev J., Usmonov S. «Pedagogik texnologiya asoslari» T.2004

5.Ibragimov R. Boshlang'ich maktab o'quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. T -2001

6.Beruniy Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar Tanlangan asarlar 1-jild Toshkent nashr.

7. Shonazaova Sevara Rashidovna PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF FORMATION OF GEOGRAPHICAL CONCEPTS IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS Web of scientist:international scientific pesearch journal. ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 3, Mar., 2023 <https://www.oarepo.org/index.php/oa/article/view/2932>

8. Sevara Shonazaova Rashidovna HISTORICAL FOUNDATIONS OF IMPROVING GEOGRAPHICAL CONCEPTS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL) VOLUME 3 , ISSUE12, DECEMBER- 2022,ISSN: 2776-0995 <https://ejedl.academiascience.org/index.php/ejedl/article/view/421>

9. Shonazaova Sevara Rashidovna БОШЛАНҒИЧ МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИДА ГЕОГРАФИК ТУШУНЧАЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МЕТОДИКАСИ. "GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONSAND DEVELOPMENT PROSPECTS <https://www.intereuroconf.com/index.php/MSRAIDP/article/view/86>

10. Sevara Shonazaova Rashidovna PRINCIPLES OF DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL EDUCATION AND ITS ORGANIZATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Web of scientist:international scientific pesearch journal. 70-76 ISSN: 2776 0979. Volume 3,ISSUE 11, Nov.,2022 <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/2704>

11. Шоназаова С. Р. Мактаб ўқувчиларида географик тушунчаларни шакллантириш методикаси Му-аллим хем узликсиз билимлендири³ 6/1-1 - 2022 жыл "Muallim"OAK tassarufidagi jurnal Nukus 2022. ISSN 2181-7138

BOSHLANG'ICH SINFLARDA BUGUNGI TA'LIM JARAYONI VA USULLARI

*Boynazov Zafarbek Urolovich
TerDPI magistranti*

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinflarda bugungi ta'lim jarayoni va usullari o'qitishning dolzarbligi, o'quvchilarining kreativ qobiliyatini

rivojlantirishning metodik tizimi, bugungi kunda o'quvchilarning kreativ fikrlash, atrofdagi voqelikka ongli munosabatda bo'lish, daxldorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarini, tafakkurini rivojlantirish, yuksak ma'naviyatli barkamol shaxsni kamol toptirish sog'lom avlodni voyaga yetkazishning muhim omili sifatida boshlang'ich ta'lim tizimidan boshlab ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalarini keng miqyosda qo'llash zaruratini yuzaga keltirishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: tabiiy fanlar, ijodiy fikrlash, ta'lim, boshlang'ich sinf, ijodkorlik, tanqidiy, mustaqil fikrlash.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi. Ulug' donishmandlardan biri «Kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zahirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilmfan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim

ahamiyat kasb etadi. Adabiyotshunos Boqijon To'xliyev bu haqida shunday yozadi: "Ta'lim jarayonidagi barcha fanlarning asosiy maqsadi va mohiyati o'quvchilarda o'sib kelayotgan yosh avlodda muayyan sohalarga oid bilimlarning asoslarini shakllantirish, shularning negizida ularning boy ma'naviy olamini yaratishdan iboratdir". Qayd qilinganidek, darsning mohiyati o'quvchi yoshlarni yetuk, bilimli, salohiyatli qilib tarbiyalashdan iboratdir. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi.

O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «**Aqliy hujum**», «**Fikrlar hujumi**», «**Tarmoqlar**» **metodi**, «**Sinkveyn**», «**BBB**», «**Beshinchisi ortiqcha**», «**6x6x6**», «**Bahs-munozara**», «**Rolli o'yin**», **FSMU**, «**Kichik guruhlarda ishlash**», «**Yumaloqlangan qor**», «**Zigzag**», «**Oxirgi so'zni men aytay**» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratish lozim. Bugungi kunda mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Barcha fanlar umumta'limning boshlang'ich sinflarida milliy mentalitet uchun xizmat qilishi, milliy tafakkurni yuksalishiga asos bo'lishi va ularning dunyoqarashi uchun xizmat qilishi kerak. "Adabiyot o'quvchini tarbiyalash uchun uning ongi, fikrigagina emas, qalbiga, zavqiga, tuyg'ulariga ham ta'sir etishi kerak. Shunday asarlargina chinakkam san'at namunasi deb atalish huquqiga ega" deb yozadi adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov.

Haqli qayd etilganidek, har qanday badiiylik inson omili uchun xizmat qilishi kerakligini unitmaslik kerak. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi. Bu qarashlarga tayanadiga bo'lsak, endigina umumta'lim maktabiga qadam qo'ygan insonni tarbiyalashdek murakkab jarayon mavjud emas, ammo ularning tafakkuri, dunyoqarashi bugungi olamdagi o'zgarishlarni milliy ruh asosida anglashi va his etishi uchun sharoit vujudga keltirish lozim.

Dars jarayonida eng avvalo, o'qituvchining ruhi tetik, bilmi yuksak darajada bo'lsagina o'quvchilarning dars jarayoniga qiziqishi ortib boradi. "O'qituvchining dars boshidagi nutqining har bir jumlasini ravon, ta'sirchan, chiroyli bo'lsa, o'quvchilarning darsga diqqati oshadi, mavzuni tushunish darajasi ortadi".

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborot texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni asosli va unumli yuzaga chiqarishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz.

O'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda har bir o'qituvchining bilim salohiyati juda yuksak bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik darajasi va ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biri bu o'qituvchining zimmasida qoladi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha tavsiyalarimizni berishga intilamizki, bu ham o'quvchi yoshlarni mustaqil qarashlarini kengayishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishishga har bir shaxs, o'qituvchi asosli yondoshishi va shunga butun tafakkuri va bilimni sarf etishi lozim. Bugungi kunning ham bu holat asosiy vazifasiga aylanib bormoqda. Ana shunda oldimizga qo'yilgan maqsadda erisha olish imkoniyati kengayadi. O'quvchilar mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishi bilan bir qatorda, ushbu metodning ta'sirchanligini anglab etadi. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

O'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;

hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo'lmagan bitta tushunchaning o'rin olishiga erishish;

o'quvchilarga mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;

o'quvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

Mazkur metod o'quvchilardan o'rganilayotgan mavzu (yoki bo'lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi.

Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

o'qituvchi o'zaro teng nisbatda mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;

o'quvchilar mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo'lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;

o'quvchilar o'z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o'quvchilar tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin. 1-sinf darsligidagi «Oshxona jihozlari», «Qushlar», «Uy hayvonlari va parrandalar» kabi mavzularini o'rganishda yangi mavzuni mustahkamlash uchun mazkur metodni qo'llash ijobiy natija beradi. Bunda mavzuga oid to'rtta va taalluqli bo'lmagan (ortiqcha) bitta so'z (tushuncha, fikr) beriladi. O'quvchilar ana shu so'zni (tushuncha, fikr) aniqlaydilar. Masalan, 1-sinf darsligidagi 1-mashqda berilgan topshiriqni bajarishda quyidagicha qo'llash mumkin. Yozuv ekranda ko'rsatiladi. O'quvchilar ortiqcha so'zni aniqlashadi. **Uy hayvonlari:** sigir, qo'y, toshbaqa, ot, it. Uy hayvonlarini ajratib olgandan so'ng, bu so'zlarning ishtirokida sodda gaplar tuzib, uning mantiqiy mohiyatini aniqlab, tushuntirib berish vazifasi qo'yilsa, juda maqsadga muvofiq bo'lar edi. Tuzilgan gaplar asosida axloqiy tarbiya beriladi. **Namuna:** Ot - insonning eng ishonchli do'sti. O'quvchilar tomonidan tuzilgan gaplar asosida o'quvchilar qalbida ona tabiatga muhabbat uyg'otiladi, uy hayvonlariga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishga o'rgatiladi. **«Videotopishmoq» metodi.** Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibragimov R. Muammoli dars bosqichlari //Xalq ta'limi. – 1998. – 3-son. –76–78-b.
2. Yo'ldoshev Q., Yo'ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak, 2016. – 464 b.
3. Olimov Q. T., Uzoqova L. P. Muammoli vaziyatni boshqarish yo'llari.
4. Uzoqova L. P. Maxsus fanlarni muammoli o'qitish texnologiyasi. – T.: Fan, 2013. – 144 b.
5. Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. –T.: Fan, 2000. –110 b.
6. Abduvalitov E. B. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida qardosh xalqlar adabiyotini qiyosiy o'rganish (ta'lim o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq va turkman tillarida olib boriladigan maktablarning V–IX sinflari adabiyot darslari misolida). Ped... f. dokt. (DSs) diss. – T., 2020. – 245 b.
7. Qarshiyevna U. M. Linguistic Views Of Mahmud Kashgari //Central asian journal of social sciences and history. – 2022. – T. 3.– №. 12. – C. 336-340.
8. Muminova Umida Qarshiyevna . Lexical-Grammatical Characteristics of the Noun in Ancient Turkish Language International Interdisciplinary Research Journal Volume 2 Issue 1, Year 2023 ISSN: 2835-3013. P. 389-394 <https://univerpubl.com/index.php/synergy>
9. Umida Muminova Qarshiyevna. Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarining pedagogika tarixida tutgan o'rni// Tadqiqotlar jahon ilmiy –metodik jurnal. 6-son 2-to'plam, yanvar 2023, 332-335 B

10. Umida Karshievna Muminova. Phytonyms in the work "Mahbub ul-qulub". International scientific and practical conference "Trends of modern science and practice" Ankara, Turkey 2023. P 46-50

11. Sharofova Nilufar Ilhom qizi, Muminova Umida Karshiyevna. Forming Concepts of Grammar and Word Formation in Primary Grades. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(4), 164–168. Retrieved from <http://univerpubl.com/index.php/semantic/article/view/1033>

12. Chorshanbiyeva Ra'no, Muminova Umida Karshiyevna, Innovative Approach as a Condition for Improving the Educational Process in a Modern School, Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education: Vol. 2 No. 4 (2023): Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education

13. Davlatmamatovna, H. G. Qarshiyevna, M. U. . (2023). Popular Scientific Texts in Elementary School Textbooks and Methods of their Study. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(4), 125–128. Retrieved from <http://univerpubl.com/index.php/semantic/article/view/1006>

14. Шаббазова, Д. Р. (2018). Влияние художественных произведений на развитии личности школьника. *Гуманитарный трактат*, (24), 18-20.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA O'QUVCHILARNING QIZIQISHLARINI ANIQLASH YO'LLARI

*Bekmuratova Yulduz Bekmurat qizi
TerDPI 2-kurs magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish va bu texnologiyadan foydalanishning foydali tomonlari haqida so'z boradi. Bundan tashqari dars jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarador o'yinlardan ham namunalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, o'yin, bola, predmet, rol, didaktika, ijodiy faoliyat, yutuq, faol, metod.*

Bugungi zamonaviy dunyoda har bir soha va yoki har bir narsa rivojlanib, zamonaviylashib borayotgani sari yosh avlod ham shunga moslasib bormoqda. Ta'limda bugun o'zgarishlar va islohatlar avj olmoqda va o'quvchini darsga jalb qilish uning qiziqishlarini aniqlab olish va yoki uni hayron qoldirish oson bo'lmay qoldi. Eng oson va samarali usul esa bolani o'yin texnologiyalari orqali darsga jalb qilish va qiziqishlarini aniqlash.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi.[1]

O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda. Boshlang'ich ta'limda o'yin ijodiy faoliyatning bir shaklidir. Bunda o'quvchi ijtimoiy va moddiy borliqni bilish hamda anglash asosida emotsional - xissiy, intellektual-axloqiy rivojlanadi. O'yinlar, ularning inson taraqqiyotidagi o'rni haqida psixologiya, etnografiya, madaniyat, pedagogika fanlarida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. XIX asrning oxirida nemis olimi K.Gross o'yinlarni tizimli o'rganishga harakat qilgan bo'lsa, nemis psixologi K.Byuller o'yinlarni «qoniqish hosil qiluvchi» faoliyat sifatida tadqiq etadi. L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyevlar fikricha, o'yinlarni nazariy jihatdan ijtimoiy tabiatiga ko'ra ma'lum faoliyatiga yo'naltirilganligi bilan bog'lab, tadqiq etgan bo'lsalar, D.B.Elkonin shaxs xulqini boshqarishni tarkib toptirib, uni takomillashtiruvchi faoliyat sifatida talqin etadilar. Lekin o'yinlarni yagona va eng muhim asosiy xususiyati uning ta'limdagi ahamiyatidir. [2] O'yinlarda bolaning xulqi erkin shakllanadi va ijtimoiylashadi. O'yinlarning eng muxim jihati uning ikki tamonlama xarakterga egaligi bo'lib, uning dramatik san'atga ham mosligidir. Bir tamondan o'yin ishtirokchilari uni amalgam oshirishda muayyan nostandart vazifalar bilan bog'liq xaqiqiy faoliyatni bajarsalar, ikkinchi tamondan esa o'yinlar bu faoliyatning aksariyat paytlarida ma'suliyatni his etgan holda haqiqiy vaziyatlardan chetga chiquvchi shartli xususiyat ham kasb etadilar. Demak, o'yinlarning ikki tomonlama vazifani bajarishi uning rivojlanuvchi natijaga ega bo'lishiga sabab bo'ladi. O'yin faoliyati elementlaridan ta'lim jarayonida keng foydalaniladi. Ular ishbop o'yinlar, dedaktik o'yinlar, rolli o'yinlar, kompyuter o'yinlari shular jumlasidandir. Ishbop o'yinlar kasb faoliyati predmeti yoki ijtimoiy mazmunini qaytadan yaratish shakli bo'lib, amaliyotning ana shu turiga xos munosabatlar tizimini modellashtirishdir. Ishbop o'yinlarni o'tkazishda uning qatnashuvchilari faoliyatini maxsus (o'yin tarzida) imitatsiya modelida rivojlantirishdan iboratdir. O'yinlarning xarakteriga ko'ra o'quv jarayoni o'yinlari tadqiqotchilik o'yinlari, boshqaruv va attestatsiyaga doir o'yinlar turiga bo'linadi. O'quv jarayoniga doir o'yinlar o'quv predmetlar bo'yicha istiqbolda kasbiy faoliyatini to'g'ri tashkil etish va shaxsni maqsadga muvofiq shakllantirishga shart-sharoitlar yaratadi. Ana shu shart-sharoitlar natijasida olingan yangi bilimlar kelgusi kasbiy faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yishga yordam beradi. [3] Ma'lumki, ta'lim hamkorlikka asoslanib, jamoaviy xarakter kasb etadi; kasbga xos faoliyat qoidalari va jamoaning ijtimoiy qoidalariga mos holda amalga oshadi. Ana shu ma'noda ta'limning didaktik va tarbiyaviy ahamiyati o'zaro birlashib, o'yin faoliyati shaklida o'quvchilarning faolligi ortadi. Ishbop o'yinlarda tavsiya etilgan muammoli topshiriq maqsadga muvofiq dialogik muloqot asosida

ishtirokchilarni rag'batlantiradi, qiziqishlarini orttiradi, emotsional ruh paydo qiladi. Didaktik o'yinlar ta'limiy maqsadlarni amalga oshiradigan va ularga moslashtirilgan bo'ladi. Didaktik o'yinlar tizimidan birinchi marta maktabgacha jarayonida foydalanishga doir F.Fribil va M.Montisorilar ishlab chiqqan bo'lsa, boshlang'ich ta'lim uchun O.Dikroli tadqiqotlar olib borgan. 60-70 yillardan boshlab faqat boshlang'ich ta'limda emas, umumiy o'rta ta'limda ham foydalanila boshladi. 80-yillarda ayniqsa, ishbop o'yinlar keng tarqala boshlandi. Ishbop o'yinlarning asosiy xususiyati o'yin rejasining o'quv maqsadiga yo'nalganligidadir. Chunki o'quv maqsadi o'yin vazifalari doirasida etiladi. [4] Demak, o'yinlar bolalarning asosiy faoliyat turi bo'lib, u orqali kichik maktab yoshdagi o'quvchilar hayotni, borliqni, tevarak - atrofni o'rganadilar va unga moslashadilar. O'yin paydo bo'lishi uchun quydagilar muhim sanaladi: - o'yin ishtirokchilari bilan bo'lgan muloqatdan qoniqish hissining paydo bo'lishi; - tabiiylik, emotsional hissiyotning vujudga kelishi; - o'yin davomida o'yuvchilarning o'zining tabiiy ehtiyojlarini qondirishga harakat qilishi va hokazolardir. Ijtimoiy - psixologik ahamiyati jihatidan o'yinlar asosan ikkita vazifani bajaradi; - ma'lum ijtimoiy bilimlarni egallash; - zarur ijtimoiy qoidalarni shakllantirish. Shuningdek, muammo nuqtayi nazardan yondashganda, o'yinlar o'quvchining ijodiy faoliyatini faollashtirish bilan uning ijodiy qobiliyatini o'stiradi. [5] Ma'lumki, bolalar o'yining sifati va samaradorligi unda ishtirok etuvchilarning hayotiy kuzatishlari va shaxsiy tajribasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Bunda onglik, tashabbuskorlik va irodalilik kabi sifatlar ahamiyat kasb etadi. Shu sababli turli ijtimoiy-psixologik tavsifga ega o'yinlarning o'quv jarayonida foydalanish, shak-shubhasiz o'z samarasini ko'rsatadi. Aynan faol o'qitish metodlari ham ana shunday o'yinlarga tayanilgan xolda tashkil etiladi. Har bir o'yin bir necha daqiqadan tortib, undan ko'proq vaqt davom etishi mumkin va unda ikkita boladan tortib to o'n o'quvchigacha ishtirok etadi.

Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi. Ushbu jarayonlarda esa qaysi o'quvchining qaysi yo'nalishga qobiliyati borligini aniqlab olish mumkin. Kimdur aqliy o'yinlarga qobiliyatli bo'lsa kimdur jismoniy o'yinlarga yoki yana kimdur mantiqiy fikrlab topiladigan o'yinlarda faol bo'ladi. Shunga qarab bolaning qobiliyatini rivojlantirib boorish kerak. Ana o'shanda erkin fikrlovchi, katta-katta dunyoga mashhur rassom, shoir, yozuvchi, dasturchi, tikuvchi va hokazo kasb va hunarlarning eng ustasi faranglarini etishtirib tarbiyalashga turtki bo'ladi degan umiddaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dilova N.G. (2021). O'qituvchi-o'quvchi hamkorligini vujudga keltirishning pedagogik ahamiyati. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 567-576 betlar.
2. Расулова З. (2021). Технология дарсларида интерфаол таълим технологияларидан фойдаланишнинг самарали жиҳатлари. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 360-369 бетлар.
3. Dilova N.G. (2021). Formative assessment of students'knowledge-as a means of improving the quality of education. Scientific reports of Bukhara State University. 3:5, pp. 144-155.
4. Дилова Н.Г. (2018). Важность совместного обучения в повышении эффективности начального образования. International scientific review of the problems and prospects of modern science and education. С. 90-91.
5. Дилова Н.Г. (2019). Влияние технологии сотрудничества на успеваемость учащихся начальных классов. International scientific review of the problems and prospects of modern science and education. С. 63-64.
6. Дилова Н.Г. (2012). Возможности организации учебного процесса на основе педагогического сотрудничества. Молодой ученый. Т. 46, № 11, С. 409- 411

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARI DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA KITOBXONLIKNING AHAMIYATI

*Ergasheva Muxlisa Abdulla qizi
TerDPI talabasi
Norqobilova Rayxona Davlatovna
TerDPI o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi asosiy g'oya hisoblangan erkin fikr, erkin dunyoqarash, erkin nutqning rivojlanishi, dunyoqarashning bolalar hayotida tutgan o'rnini, unu rivojlantirishda kitobxonlikning ahamiyati, bolalar dunyoqarashi bugungi kun talqinida tutgan o'rnini va kitob o'qishda asosiy maqsad nima ekanligi, bolalarning asosiy vazifasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Dunyoqarash, bilim, bolalar, vazifa, ilmiylik, fikr, tafakkur, faoliyat, e'tiqot, ahamiyat, dolzarb, sarguzasht va boshqalar.

Dunyoqarash-dunyoga va insonning o'zi faoliyat olib borayotgan jamuyatdagi tutgan o'rnini, kishilarning o'z atrofidagi voqealikka va o'z g'alalar bilan bo'lgan munosabatiga bo'lgan umumiy qarashlar tizimi, aynan bu qarashlarga asoslangan odamlarning e'tiqodlari va bilish tamoyillari yig'indisidir. Dunyoqarash kishining yoshi, jamiyatda tutgan o'rnini, yashash muhiti, atrofdagi muloqatda bo'layotgan insonlarning xususiyatlari, hayotiy tajribasi, bilimi, mafkurasi bilan bog'liq. Aynan bizning jamiyatda olgan barcha bilimlarimiz, ya'ni falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy,

axloqiy, huquqiy, estetik bilimlarimiz dunyoqarashning rivojlanishida o'z aksini topadi. Biz xuddi shu barcha jamiyat a'zolari uchun ahamiyatli bo'lgan dunyoqarashning boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllanishi, paydo bo'lishi va uning rivojlanishidagi ahamiyatli bo'lgan voqeahodisalarga e'tibor qaratamiz. Barcha xususiyatlarning yoshlikda olingani, yoshlikda o'zlashtirilgani mustahkam, rivojlanish uchun eng yaxshi mezon yaratib bera oladigan poydevor vazifasini o'taydi. Dunyoqarashning yoshlikdan rivojlanishi esa ma'lum darajada boshqa xususiyatlardan farq qiladigan jarayondir. Bolalarning yashash muhitini, oilasidagi muhitni, bilimni namoyon eta oladigan predmet sifatida dunyoqarash shakllangan bo'ladi. Dunyoqarashni bolalalarda rivojlantirish jarayonida biz o'zimiz uchun asosiy qurol bo'lgan kitob orqali ularning dunyoqarashini, ilmiy dunyoqarashini, ilmiy tafakkurini shakllantira olishimiz mumkin. Kitob insoniyatning eng buyuk kashfiyoti bo'lib, unda o'quvchi kitobxon va barcha insoniyat olami uchun yangi, ajib olam kashf etilishini guvohi bo'lamiz. Sarguzash asarlar o'quvchining hayot olamini boyitsa, tarixiy asarlar o'tmishga qiziqish, ajdodlarga ehtirom, faxr-iftixor tuyg'ularining shakllanishiga zamin ho'ladi. Bolalalar, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalar yoki kichik maktab yoshidagi bolalar asosan ertak o'qishadi u kitoblarda eng avval onaga, vatanga, oilaga bo'lgan muhabbat uyg'onadi. Kitob o'qish jarayonida bolalar uning mag'zini chaqishga, tub mohiyatini anglashga harakat qilishadi: "Nima bu?", "Nega shunaqa?" "Nima uchun bu shunday dedi?", "Ular nega bormadi?", "Men bo'lganimda shunaqa qilganimda nima bo'lar edi, oyi (ustoz, opa)?" Bolalar o'qigan asarlarining mohiyatini savol berish orqali anglashi, tafakkur qilishi mumkin. Shu sababli ularning har bir savoliga dunyoqarashiga qarab to'liq javob berishga va ularning xususiyatlari bilan tushuntirishga harakat qilish lozim. O'quvchilarda, bolalar qalbida kitobga yoshlikdan mehr qo'yish, unga bo'lgan munosabatini aniqlash boladagi dunyoqarashning shakllanishida juda katta ahamiyat kasb etadi.

Bola hayot olamini boyitishda asar asosida tayyorlangan filmlar ham muhim rol o'ynaydi. Bola ko'zi bilan ko'rib, tafakkuri bilan uqib dunyoqarashini o'stiradi. Bugungi kunda rivojlangan va jahon yuzini ko'rishga tayyorlanayotgan davlatlarda asosan fikr, so'z erkinligi, fikrlash qobiliyatining ustunligi dunyoqarash orqali hosil bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Buning uchun esa har jabhada kitobxonlikni targ'ib etish lozim. Boladagi kitobxonlik talanti tug'ma emas, balki tarbiya vositasida va muhit jarayonida vujudga keladi. Bundan ko'rinadiki, aynan bolalar dunyoqarashini shakllantirish oilaning asosiy vazifasi.

Kitobxonlik haqida olimlarning ajoyib fikrlari, kitobxonlikka undovchi ajib so'zlari bor:

• Olmon olimi GYOTening quyidagi fikrlari juda o'rinlidir: "Kitobxonlikka o'rganish uchun qanchalik ko'p vaqt sarf qilinishini odamlar tasavvur

qilmaydilar, buning uchun men hayotimning 80 yilini bag'ishladim, lekin hali ham o'rgandim, deb ayta olmayman“.

•V.F.Asmus o'zining “Kitobxonlik -mehnat va ijod“ nomli maqolasida esa kitobxonlikka shunday ta'rif beradi: “Mutolaa vaqtida asar bir ko'zadan, ikkinchi ko'zaga quyilgan suv kabi kitobxon miyasiga quyilib qolmay, balki ijodkor kitobxon tomonidan qayta idrok etiladi“.

Bundan ko'rish mumkinki, har qanday kitob o'qigan bolada dunyoqarash shakllanadi deya olmaymiz. Eng asosiysi o'qigan kitobimizni, uqishimiz uni o'zimizning tafakkurimizga singdira olishimiz natijasida, bolalarga ham o'rgata olsak dunyoqarash shakllanadi. Qachonki, kitoblarni, badiiy asarlarni ko'p o'qisak shunda biz uchun kitobxonlik asosiy o'ringa chiqadi va fikrlashimiz, aynan bolalar nuqtai nazaridan nutqimiz ravonligi, ijtimoiy hayotga moslashishimiz uchun turtki bo'ladi. Buning uchun biz bolalar hayotiga kitobxonlikni o'chmas, abadiy va fan sifatida olib kirishimiz lozim.

“Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda - deb yozadi X.To'xtaboyev, - kitobxonlik fan darajasiga ko'tarilgan. Kitobxonlik kitobni targ'ib qilishgina emas, balki kitob o'qishni, o'qiladigan kitobni tanlay olishni, mag'zini chaqishni, ya'ni kitob yordamida o'zini anglashni o'rgatish hamdir“.

Dunyoqarashni eng avval bola oilada poydevorini qo'yadi ya'ni uni shakllantirib boshlaydi. Shunday ekan har bir xonadonda gazeta va jurnallar bo'lishi oila davrasida o'qilib ularning talqin qilinishi natijasida bolada kitobga va tafakkurining rivojlanishida qiziqish uyg'onadi. Badiiy asar o'quvchi shaxsiga muomala madaniyati, odo-axloqni ijtimoiy moslashishni o'rgatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, haqiqatdan ham insonning inson ekanligini uning fikrlashi, dunyoqarashi anglatib turadi. Dunyoqarashni rivojlantirish har bir oila a'zosining, pedagoglarning, tarbiyachilarning, mahalla a'zolarining vazifasi hisoblanadi. Demak, kitobxonlik insonni barkamollikka yo'llasa uni o'qimaslik johillikka ma'rifatsizlikka olib keladi natijada ma'naviy qashshoqlik yuzaga keladi. Maktabda, oilada muhim vazifa-kitobxonlikni, dunyoqarashni o'stirish mevasini, inson hayotida zaruriyatga aylantirishdan iborat. Boshlang'ich sinf deganda, asosan yurtning eng avval ulug' vatanning, jamiyatning, oilaning, ijtimoiy hayotimiz mevalarini tushunishimiz joiz. Bizning kelajagimiz, buyuk ajdodlarimiz kelajagi, albatta, bolalar, yosh avlod qo'lida. Bundan ko'rinadiki, o'quvchilarni komil inson qilib tarbiyalash, ularni har jabhada yetuklikka olib chiqish, kreativ fikr egasi qilish, ertangi kuniga ishonch uyg'otish, bugungi kunini oliy maqsadlar bilan boshlay oladigan qilib, ota-onaga, vatanga bo'lgan tuyg'ularni anglatgan holda, badiiy ijodimiz namunalari bilan ularning tafakkurini, dunyoqarashini, idrokini va fikrlash doirasini kengaytirib borishimiz lozim. Bu, albatta, bugungi kunning, rivojlangan davrning talabi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanboyeva O. U. va boshqalar “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” T.: Ilm, ziyo, 2006.
2. M.G.Davletshin ,Sh. Do ‘stmammedova ,M.Mavlonov ,S. To ‘ychiyev - “Yosh davrlari va pedagog psixologiyalar”.. O ‘quv qo ‘llanma .T.: ,2004-yil.
3. R.D.Norqobilova. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari faoliyatini indikatorlar asosida diagnostika qilishning o‘ziga xosligi. INTERNATIONAL CONFERENCES, 564-568. 2023
4. NR Davlatovna - Functions and Principles of Pedagogical Diagnostics. Web of Synergy: International Interdisciplinary 413-416, 2023/1/31
5. P Норқобилова -Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tilidan iqtidorini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish. Общество и инновации. 36-41, 2023/1/25
6. P Nazarova, R Norqobilova - PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF EDUCATION OF YOUNG GENERATION AT ABU RAYHAN BERUNI TEACHING. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 1908-1911. 2022/6/30
7. S Xoliyeva, R Norqobilova - EASTERN SCIENTISTS 'VIEWS ON SPEECH. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 1433-1427. 2022/6/24
8. Sevara XOLIYEVA, Rayhona NORQOBILOVA, Muhlisa-MAMATMUROTOVA THE IMPORTANCE OF PEOPLE'S ORAL CREATIVITY IN THE DEVELOPMENT OF SPEECH BY PRIMARY SCHOOL STUDENTS. 2022/6/9. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 84-87. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/2379>
9. Sumbula IBROHIMOVA, &Rayhona NORQOBILOVA. (2022). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF USING THE HERITAGE OF ASIAN THINKERS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL SCIENCE CLASSES. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 81-83. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/2378>
10. ZoirovaSevinchbonuKhurshidKizi, NorqobilovaRayhonaDavlatovna, TajimirzayevaBuzulaykhoMahammadjonKizi. [high spiritual generation-third renaissance builders](#). Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. 167-169. 2022
11. Райхона Норқобилова. O‘quvchilarning ona tili bo‘yicha iqtidorini aniqlash va rivojlantirishning o‘ziga xosligi Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. 379-384. 2022
12. R.Norqobilova, M.To'rayeva Importance of talent in child development. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. ISSN: 2776-0979, VOLUME 3, ISSUE 7, July. 2022 57-61.

4-SINF O'QUVCHILARINING MATNNI O'QISH VA TUSHUNISH SIFATINI XALQARO PIRLS DASTURI ASOSIDA BAHOLASH USULLARI

Majidova Hilola Eshquvat qizi
TerDPI 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi shiddat bilan o'zgarayotgan zamonda bolaning o'qish savodxonligi yetarli darajada bo'lishi uchun o'qituvchi qilinadigan ishlari qatoriga PIRLS tadqiqotida foydalanilgan materialardan samarali foydalanishi hamda matn ustida ishlashda o'quvchiga beriladigan savollarini tuzilishiga e'tibor qaratishi, o'qish savodxonligini baholashdagi tajribasining yuqoriligi tadqiqotda yaxshi natijalarga olib kelinishi nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: PISA, PIRLS, IEA (Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi), dastur, darslik, chora-tadbir.

O'zbekistonda PIRLS tadqiqotiga tayyorgarlik Prezidentimizning 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-son Farmonida keltirilgan ko'rsatmalar hamda ularning amaldagi ko'rinishi, chora-tadbirlari namoyon bo'layotgandan to shu kunlarda ham zarur harakatlar olib borilayotgani fikrimiz tasdig'idir. Yurtimiz 2021-yilda ilk marotaba PISA, PIRLS xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etadi. Mazkur jarayonga munosib tayyorgarlik ko'rish maqsadida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etilgan bo'lib, markaz tomonidan mamlakatimiz ta'lim sifatiga xalqaro darajada baho beriladigan mazkur sinovlarga munosib tayyorgarlik ko'rish bo'yicha rejali ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. O'zbekistonda PIRLS tadqiqotiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bo'yicha asosiy tashkilot bu – Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazidir. Jumladan, 2019-yil 25-yanvar kuni O'zbekiston ushbu xalqaro baholash tizimiga qatnashishi e'lon qilinib, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'i Ulug'bek Tashkenbayev hamda Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA — International Association for the Evaluation of Educational Achievement)ning Amsterdamdagi direktori Andrea Netton o'rtasida O'zbekistonning PIRLS-2021 baholash tizimida ishtirok etishi yuzasidan ilk rasmiy uchrashuv tashkil qilingan edi. Unda PIRLS dasturining 2021-yil uchun mo'ljallangan tadqiqotlarida O'zbekistonning ishtirok etishi tashabbusi IEA tashkiloti tomonidan katta olqishlar bilan qarshi olindi va tashkilot tomonidan barcha kerakli yordam va tavsiyalar berilishi ta'kidlandi. Shuningdek, yig'ilishda PIRLS-2021 tadqiqotlarida ishtirok etish bilan bog'liq tashkiliy masalalar, ya'ni ishtirok etish shartlari, tadqiqotlarni amalga oshirish bosqichlari, tadqiqotlarning samarali tashkil etishiga

qaratilgan yo'riqnomalar va boshqa ko'plab vazifalar atroflicha muhokama qilingan.

Shunga o'xshash tadbirlardan yana biri (eslatib o'tamiz mazkur masala yuzasidan ko'plab yig'ilishlar tashkil etilgan) 2019-yil 25-oktabrda kuni markazda yurtimizda PISA, PIRLS xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish borasida olib borilayotgan ishlar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Yig'ilishda markaz tomonidan PISA va PIRLS xalqaro tadqiqotlariga tayyorgarlik bo'yicha OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) va IEA (Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi) bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ishlar va istiqboldagi rejalar haqida ma'lumot berilgan. Xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha xorijiy davlatlar ilg'or tajribalaridan misollar keltirilgan. Muhokama jarayonida ushbu jarayonda mavjud muammolar va amalga oshirilishi lozim ishlar ko'rsatib o'tilgan. Xususan, o'quvchilarning kompyuter savodxonligini oshirish, maxsus trenajyor dastur yaratish, o'qituvchilarni malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, darsliklarni yaratishda xalqaro baholash dasturlari talablari darajasidagi topshiriqlarni kiritish, tadqiqotlarga tayyorlanishda maktab pedagog jamoasining motivatsiyasini kuchaytirish, ota-onalar bilan ishlash mexanizmini ishlab chiqish, metodik kunlar va tayanch maktablari imkoniyatidan samarali foydalanish, o'quvchi va o'qituvchilar uchun o'quv-metodik materiallar yaratish lozimligi ta'kidlangan edi.

Bundan tashqari mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida xalqaro baholash tizimida qatnashishga oid seminar, uchrashuv, tadbirlar vebinar tarzida tashkil etildi.

Xalqaro vebinarlar tashkil etilib yo'l-yo'riqlar, berilgan tavsiyalar o'rganildi, chet mamlakatlar tajribalari dasturulamal bo'lib xizmat qilishi hozirga kelib imkon qadar ta'minlanmoqda. Xususan, 2020-yil 24- 25- avgust kunlari PISA va PIRLSga tayyorgarlik masalalariga bag'ishlangan vebinar bo'lib o'tgan. Ushbu vebinar Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tashabbusi bilan Jahon bankining READ dasturi doirasida Xalq ta'limi vazirligi va Rossiya Ta'lim strategiyalarini rivojlantirish instituti bilan hamkorlikda "Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish – inson kapitalini rivojlantirish omilidir" mavzusida bo'lib, vebinarida Rossiya ta'lim akademiyasi Ta'limni rivojlantirish strategiyalari institutining qator malakali mutaxassislari ham qatnashib, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS tadqiqotlariga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan muhim jihatlarga to'xtalib o'tishdi. Qayd etish lozim, mazkur vebinarida olingan ma'lumotlar ishtirokchilarning XXI asrda ta'lim tizimiga qo'yiladigan talablar haqida tasavvurlarini ko'plab boyitish, 2021-yildagi xalqaro PIRLS va 2022-yildagi PISA xalqaro tadqiqotlariga munosib tayyorgarlik ko'rish, shu orqali O'zbekistonda ta'lim sifatini yanada yaxshilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Vebinarning 2-kunida PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha Rossiya tajribasi, o'qituvchilar malakasini oshirishning muhim jihatlari, baholash vositalari va o'quv-uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish, PIRLS-2021 xalqaro solishtirma

tadqiqoti doirasida o'qish savodxonligini baholashning o'ziga xos xususiyatlari, «Читающая мама» (Kitobxon ona) loyihasini amalga oshirish mexanizmi va uning o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirishdagi ahamiyati kabi masalalar muhokama qilingan. Ushbu vebinarida Rossiyalik ekspertlar ishtirok etib, o'zlarining mazmunli ma'ruzalari bilan qatnashishdi, o'z yurtlaridagi tajribalarni bayon etishdi. Xususan ekspert Kovaleva Galina Sergeyevna shunday mulohazalarni bildirdi:

“O'qish savodxonligini rivojlantirmoqchi bo'lsangiz, past va yuqori natijaga erishgan o'quvchilarga e'tibor berish kerak. Bu o'rinda faqat past natijaga erishgan o'quvchi bilan cheklanib qolish kerak emas. Bolalarning yaxshi bilim olishiga yaxshi ta'lim muhiti kerak. Bunda ota-onalar ham bolalarga jiddiy e'tibor berishi kerak. Bolalar qanday qilib oilada ololmagan bilimni va tarbiyani maktabda oladi. Shuning uchun, ota-onalar ham maktablar ham bolalarga birdek ta'lim berishda e'tiborni susaytirmaslik kerak...”⁵

Bundan tashqari 2020-yil 17-dekabrda Ta'lim inspeksiyasi, Xalq ta'limi vazirligi hamkorligi Jahon bankining READ dasturi ko'magida “Ta'lim sifatini milliy va hududiy baholashning asosiy xususiyatlari. Rossiya tajribasi” mavzusida onlayn vebinar boshlandi. Ikki kun davom etadigan mazkur vebinar milliy baholash tizimini yaratishda Rossiya Federatsiyasining tajribasi, milliy va hududiy miqyosda ta'lim sifatini baholashning o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim muassasalarda ta'lim natijalarini mustaqil baholash vositalari, Rossiya Federatsiyasining milliy baholash tizimining ilmiy-metodik asoslari bo'yicha milliy baholash tizimini yaratishda xalqaro tajribalarni o'rganish uchun munosib sharoit yaratish maqsadida tashkil etildi. Videokonferensiya formatida tashkil etilgan tadbirda 1000 nafarga yaqin soha mutaxassislari, shu jumladan, ta'lim sifatini baholash sohasida faoliyat yuritayotgan rahbar va mutaxassislar, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalari, umumta'lim maktablari rahbarlari hamda o'qituvchilari ishtirok etishdi. Tadbirni kirish so'zi bilan ochib bergan Ta'lim inspeksiyasi boshlig'i Ulug'bek Tashkenbayev hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar uchun Jahon Banki vakillariga va rossiyalik ekspertlarga minnatdorchilik bildirar ekan, O'zbekistonda ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishda mazkur aloqalar muhim rol o'ynashini alohida ta'kidladi.

O'zbekistonning PIRLS tadqiqotlarida ishtirok etishi qanday natijalar beradi?

a) Boshlang'ich ta'limni tugatuvchi o'quvchilar bilim darajasini baholash yoki monitoring qilishning “Milliy dasturi” yaratilishiga zamin hozirlaydi. Xalqaro tajribalarga tayanib shunday dastur yaratish davr talabidir.

b) Hududlar kesimida yoshlar tomonidan u yoki bu fanni o'zlashtirish darajasining sifati va sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ko'lamini belgilab borish va tegishli islohotlar o'tkazish imkoniyatini yaratadi.

⁵ <https://uza.uz/oz/posts/xalqaro-tadqiqotlarda-ishtirok-etish-inson-kapitalini-rivojl-24-08-2020>

v) Boshlang'ich ta'lim muassasalaridagi o'qitish darajasining islohotlar shiddatiga hamqadam bo'lishi, malakali kadrlar tanqisligining kelib chiqmasligiga ko'maklashadi.

g) Boshlang'ich ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya berishga mas'ul mutaxassislarning malaka talablarini takomillashtirish, sinflarda xalqaro tajribada sinalgan usullardan kelib chiqqan holda o'quvchilar sonining maksimal hamda minimal ko'rsatkichlarini belgilash mumkin bo'ladi;

d) Boshlang'ich sinflardagi iste'dodli bolalarni psixologik testlar yordamida ajratib olib, 11-12 yoshlilar uchun har bir maktabda ixtisoslashgan sinflar tashkil etish imkonini beradi.

Mamlakat va xalqaro miqyosda turli seminar, vebinar, o'quv-tajriba konferensiya, tavsiyalarga asoslangan yig'ilishlar hamda keying istiqbolli ishlarni rejalashtirish majlislarini o'tkazish barobarida PIRLS xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rish Milliy markaz (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish markazi) tomonidan quyidagi qo'llanmalar va mashq daftarlari ishlab chiqildi:

1) "Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash" nomli metodik qo'llanma;

2) "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash" nomli metodik qo'llanma;

3) O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan Axborotnomaning 1-soni;

4) O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan Axborotnomaning 2-soni;

5) O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan Axborotnomaning 3-soni;

4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha o'tkaziladigan PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorgarlik ko'rish uchun Milliy markaz tomonidan ishlab chiqilgan 8-ta mashq daftarlari hamda ularning baholash mezonlari havola qilindi. Mazkur mashq daftari o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish, o'qiganlarini tahlil, talqin qilish hamda xulosalar chiqara olish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qo'shimcha didaktik material sifatida tayyorlandi. Daftarni tayyorlashda PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) tadqiqotining ochiq manbalaridan foydalanilgan. Daftar umumiy o'rta ta'lim maktablarinig 4-sinf o'quvchilariga mo'ljallangan.

Yuqoridagi ma'lumotlar, mulohazalar, fikrlarga asoslangan holda o'quvchilarni tadqiqotga tayyorlashda o'qish darslarida matn ustida ishlashga oid metodlardan foydalanib, ishni shu asosda tashkil etish samarali degan fikrdamiz. Sababi biz tadqiqotda foydalanilgan matnlar bilan tanishib shunday xulosaga keldikki, PIRLSdagi topshiriqlar bizning o'quvchilarimizga biroz murakkablik qiladi. Chunki, tadqiqot ishimizning tajriba bosqichida shu

ma'lum bo'ldiki, o'quvchilardan olingan dastlabki sinov natijalariga ko'ra ular PIRLS matnlari bilan ishlashda biroz qiynalishgan. Shuning uchun o'qish darslaridagi matnalardan foydalangan holda topshiriqlar qatoriga matn mazmunini ochishga yordam beruvchi didaktik-ta'limiy metod va pedagogik texnologiyalardan iborat vazifalar jamlanmasini kiritish maqsadga muvofiq deb hisobladik. Har holda bu o'qish savodxonligini yaxshi bo'lishi uchun qo'shimcha vosita deb o'ylaymiz. Lekin shunga qaramay tadqiqot uchun tanlangan matnlarning asl variant bilan ishlashni ham unutmaslik kerak. Yuqoridagi mulohazarga asoslanib biz o'quvchilarni matnni o'qib tushunishlari osonroq va samarali bo'lishi uchun bir necha amaliy tavsiyalarni taqdim qildik. PIRLS tadqiqoti materiallaridan ham foydalanib, dars davomida shug'ullanib borilsa, PIRLS topshiriqlaridagi savollar aslo qiyinchilik tug'dirmaydi. e'tibor berilsa tadqiqotdagi topshiriqlar ochiq va yopiq ya'ni test va javobi yozma shakldagi ko'rinishdadir. Bizningcha o'quvchi topshiriqlarni bajarishda tez charchab, qolmasligi, unga zerikarli bo'lmasligi, matnni yaxshi tushunib bajarishi uchun shu matn topshiriqlarini o'zgartirgan holda berish ham samarali natijaga olib keladi deb o'ylaymiz.

PIRLS jarayoniga tayyorlash uchun bevosita unda foydalanilgan hikoyaga yana murojaat qilish mumkin. Faqat bu holatda biz topshiriqlarni o'zimiz tuzgan variantini taqdim qilmoqchimiz. PIRLS tadqiqotida savol va topshiriqlar yuqorida ko'rsatilgan o'qish jarayonlarini baholashga xizmat qiladi. Ya'ni savollar shunday tuziladiki, javobda o'qish jarayonlaridan biriga javob topish mumkin bo'ladi. Demak, PIRLS dasturi matnlari badiiy va axborot turidan iborat. Badiiy matn ham hikoya janrida bo'lishi talab etiladi. Metodik tajribaga ko'ra hikoya janridagi matnni o'quvchilarga darsda o'tishning o'ziga xos usuli mavjud. Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. So'roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda dalillar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi.

1) PIRLS tadqiqoti O'zbekiston uchun jahon sahnalarini zabt etishning yaxshi imkoniyati sanaladi, ushbu tadqiqotga tayyorlanish uchun bizda yetarli manbalar shakllantirildi, sharoitga qarab yana kamchiliklar bo'lsa asta-sekinlik bilan bartaraf etiladi. Sababi o'qish savodxonligi yuzasidan qilinadigan pedagogning vazifasi to'g'ri yo'naltirilsa, ishonamizki, bolalar o'qilgan matnni tushunib, amaliyotda qo'llay oladilar;

2) Yurtimiz uchun tadqiqotda yaxshi natijalarga erishgan mamlakatlarning tajribasini o'rganish, seminar, vebinarlar tashkil etilishi, tadqiqotni yaxshi tasavvur etish uchun o'tkazilgan tadbirlar, chiqarilgan ilmiy manbalar o'ylaymizki, o'zining ijobiy tomonini ko'rsatadi;

3) Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish savodxonlik darajasi yaxshi bo'lishi uchun oila, maktab hamkorlikda ishlashi juda muhimdir, oilada kitobxonlikka e'tibor bolada kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni erta shakllantiribgina qolmay, olingan axborotni hayotda kerakli paytda qo'llashni ham tashkil etadi, maktabda esa o'qish savodxonligi hamda nutq o'stirishga oid pedagogning faoliyati orqali bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirilib, nazorat qilib boriladi;

Hozirgi shiddat bilan o'zgarayotgan zamonda bolaning o'qish savodxonligi yetarli darajada bo'lishi uchun o'qituvchi qilinadigan ishlari qatoriga PIRLS tadqiqotida foydalanilgan materialardan samarali foydalanishi hamda matn ustida ishlashda o'quvchiga beriladigan savollarini tuzilishiga e'tibor qaratishi, o'qish savodxonligini baholashdagi tajribasining yuqoriligi tadqiqotda yaxshi natijalarga olib keladi degan fikrdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni. 2020-yil 23-sentabr O'RQ-637 son Qonuni.

2.G.Ochildiyeva, U.K Muminova METHODS AND MEANS OF FORMING A POSITIVE ATTITUDE OF STUDENTS TO THE ENVIRONMENT IN THE EXTRACURRICULAR PROGRESS“TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE” 1 (2), 46-50

3.Umida Muminova Qarshiyevna. Central Asian Journal of Social Sciences and History (ISSN: 2660-6836.Linguistic Views Of Mahmud Kashgari.

4.Muminova Umida Karshievna INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE” Ankara, Turkey 2023 46 PHYTONYMS IN THE WORK "MAHBUB UL -QULUB".

5.<https://uza.uz/oz/posts/xalqaro-tadqiqotlarda-ishtirok-etish-inson-kapitalini-rivojl-24-08-2020>

6.U.M.Karshiyevna. Linguistik Views of Mahmud Kashgari.CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY 3 (12), 336-340

7. M.U Qarshiyevna. Lexical-Grammatical Characteristics of the Noun in Ancient Turkish Language Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal 2 (1), 389-394

8.U.M.Karshiyevna. Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarining pedagogika tarixida tutgan o'rni.

9. U Muminova.Important problems of uzbek anonymity in the works of Kasghari.Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3 (9), 341-348

10. Шаббазова, Д. Р. (2018). Влияние художественных произведений на развитии личности школьника. *Гуманитарный трактат*, (24), 18-20.

11. Шаббазова, Д. Р. (2017). БОШЛАНГИЧ СИНФДА ЎҚУВЧИЛАР ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА АФЗАЛЛИКЛАРИ. In *Современные проблемы и перспективы развития педагогики и психологии* (pp. 73-75).

BOSHLANG`ICH SINFLARDA BADIY ASAR TAHLILI VOSITASIDA O`QUVCHILAR NUTQINI O`STIRISH

Mavlonova Dilnoza magistr

Annotatsiya: Maqolada, avvalo, o`quvchi nutqining tafakkur rivojidadagi ahamiyati ko`rsatilgan. Chunonchi, badiiy asarlarni tahlil qilish, tartiblash; PIRLS tadqiqodlari orqali isboti keltirilgan.

Kalit so`zlar: Nutq, tafakkur, PIRLS, kommunikatsiya, badiiy asar, ertak, doston, she`r, savodxonlik, funksional o`qish, grafik o`qish.

Boshlang`ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish metodikasi kichik yoshdagi o`quvchilarning badiiy asarni idrok qilishdagi psixologik jng va tafakkur bilan bog`liq bo`lgan bir nechta xususiyatlarni o`z ichiga oladi. Badiiy asar ustida ishlash va uning asosiy bosqicharini belgilashda o`qituvchi shaxsining o`rni benihoyadir. Negaki, badiiy asarning san`at asari sifatida yetkazib berish, asarning o`ziga xos xususiyatlarini yoritish o`qituvchi zimmasiga kiradi.

Badiiy asar ustida ishlash va uning bosqichlarini belgilashda o`qituvchi juda katta vazifani bajaradi. Ayniqsa, boshlang`ich sinflarda o`quvchi dunyoqarashi shakllanishida o`qituvchining o`rni beqiyos. Sababi hali turli voqea-hodisalarga o`z shaxsiy munosabatini bildirishda 7-10 yashar bola subyektiv bo`la olmasligi, asarning bosh g`oyasini to`liq tushuna olmasligi tabiiy holdir. Aynan shu vaziyatda boshlang`ich sinf o`qituvchilaridan chuqur bilim va mahorat talab qilinadi.

O`tgan asrning mashhur adiblaridan biri Herman Hessi kitob mutolaasi haqida shunday fikrlarni bildirgan edi. "Shunchaki dam olish, vaqt o`tkazishni istagan va o`qimishli bo`lishni xohlagan kitobxon kitobdagi dilni poklovchi, kishini ruhlantiruvchi qandaydir noma`lum bir kuchni u aniq tasavvur eta olmaydi. Bunday kitobxon tibbiyotdan mutlaqo bexabar tabibga o`xshaydi, ya`ni qaysi dori kerakligini bilmaydi" degan ma`noli so`zlarni bor. Badiiy asar tahlilini bilmaslik ham unga sovuqqonlik, beparvolik bilan qarash singaridir.

Darhaqiqat, o`qituvchi o`quvchilarni badiiy asar ustida ishlashga o`rgatib qolmasdan, o`quvchilarning fikrlash qobiliyati, ongi, tafakkuri, kitob o`qishga bo`lgan mehr-muhabbatini uyg`otadi desak mubolag`a bo`lmaydi. Agar o`qituvchi badiiy asarlarni tahlil qilish jarayoniga beparvolik, sovuqqonlik bilan qarasa o`quvchida nafaqat o`quvchi, o`z farzandlarida ham, bog`cha bolalarida ham kitob o`qishga ishtiyoq, kitob bilan do`stlashishni tobora yiroqlashtirib boradi. Bola yozishdan oldin o`ylaydi, fikrini jamlaydi, so`ng uni qog`ozga tushirishga kirishadi. O`z fikrini bayon qilish, yo`l qo`yilgan xato yoki biror savol yuzasidan mushohada yuritish uchun badiiy asarlar, ertak, hikoya, she`r haqida bir qancha savollar tug`ilaveradi. Bu jarayon og`zaki tarzda yuzaga keladi. Albatta, bu paytda o`qituvchi yordamga keladi.

Asar yoxud ertak, hikoya, she'r haqida tushuntirishlar beradi. O'quvchilar badiiy asarlar qahramonlaridan o'zlariga andoza olishadi. Asar qahramoni yaxshi bo'lsa xuddi shunday bo'lgisi, hatto harakatlari ham bir muncha o'xshab qolishi mumkin. Agarda badiiy asar tahlili yaxshi tushuntirilib berilsa o'quvchilarda o'z maqsadlarini belgilashda, savollarga oson javob topa olishni o'rganadilar.

Shu o'rinda shuni aytib o'tish kerakki, xalq og'zaki ijodi ham farzand tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq og'zaki ijodiyotidagi eng qiziqarli va rang-barang janr ertakdir. Biz bilamizki, ertakni bobobuvilarimiz, ota-onalarimiz farzandlarni kichkinaligidanoq hali maktab va bog'chalarga chiqmasdanoq ularga aytib berishadi. Ertak ham alla kabi kichik yoshlardanoq o'quvchilar tanishadigan xalq og'zaki ijodiyoti namunalaridan biri hisoblanadi. Ertak folklorning nasriy janrlaridan biri hisoblanib, uning maxsus ijrochisi yo'q, ya'ni istagan kishi uni aytishi mumkin. Hammamiz yoshligimizdanoq turli ertaklarni tinglab ulg'ayganmiz. Shu o'rinda, Hamid Olimjon quyidagi misralarini eslashni lozim topdik:

Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda.
Ko'p ertak eshitardim,
So'ylab berardi buvim.

Har bir ona o'z farzandiga alla, ertak aytmasdan turib uning dunoqarashini, ichki ruhiy olamini, axloqi va ma'naviyatini shakllantira olmaydi. Ertaklarning yana bir muhim xususiyati shuki, u kichik maktab yoshidagi bolalarni tabiatni sevishga, jonivorlarni asrab-avvaylashga, yaxshilik va yomonlik, mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirishga juda katta yordam beradi.

"Zumrad va Qimmat" ertagini yuqoridagi fikrlarimizning yaqqol isboti hisoblanadi. Zumradni aqlli, mehnatsevar, muloyim, chiroyli, xushfe'l hislatlarini o'quvchilarga ibrat namunasi qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Qimmatni esa aksincha tantiq, qo'pol, ochko'z, dangasa hislatlarini, bu hislatlar oxirida yomon oqibatlariga olib kelishi tushuntiriladi. Ertak so'ngida hamma ishlar yaxshilik bilan tugashi, Zumradga yaxshi hislatlari

Ertaklar zamirida har doim yaxshilik yotadi. Bu badiiy asarlarni tahlil qilish jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Buning uchun o'qituvchilardan badiiy asar tahlilini kengroq ochib berish talab qilinadi.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqodlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi chiqarilgan qaroriga asosan o'quvchilarning matni tushunish va o'qish darajasini aniqlash bo'yicha PIRLS topshiriqlarini o'tkazish orqali o'quvchilarning o'z nutqida mustaqil fikrlarini bayon etishi, ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishtiyoqining paydo bo'lishida katta ijobiy natijalarga erishish mumkin. PIRLS topshiriqlarida matn mazmunining nimaga

qaratilganligini aniqlash va uning ma'no butunligini tushunish uchun bosh mavzuning umumiy maqsadini yoki matndan kopzlangan maqsad nimaligini aniqlash lozim. Buning uchun o'quvchining o'ziga matnga sarlavha o'ylab topish, matnning umumiy ma'nosini anglatuvchi tezis tuzish, matnda ko'rsatilgan yo'l-yo'riqlar tartibini tushuntirish, grafik yoki jadvallarning asosiy tarkibiy qismi nimalardan iborat ekanligini aniqlash, karta yoki rasmning maqsadini aniqlash kabi vazifalar beriladi. Topshiriqni bajarish davomida o'quvchi ichki nutq jarayoni vositasida o'ylaydi, tarqoq fikrlarni jamlaydi va mulohazalarini bir qolipga keltirib oladi. Bu esa o'quvchi tafakkurining va tashqi nutqining rivojlanishida ham nihoyatda muhim hisoblanadi.

PIRLS topshiriqlarining qanchalik yaxshi samara berishing mohiyatini birgina topshiriq boshlanishidagi yo'riqnomalardan ham bilib olsak bo'ladi. Quyida PITLS daftarchasidagi yo'riqnomani ko'ramiz.

O'quvchi uchun yo'riqnomasi.

Hurmatli o'quvchi! Bu vazifani bajarishingiz uchun hikoyalarni o'qib chiqishingiz va o'qiganlaringiz bo'yicha savollarga javob berishingiz lozim bo'ladi. Ayrim savollar sizga osonroq, ayrimlari qiyinroq tuyulishi mumkin. Barcha savollarga, shuningdek, osonlari kabi qiyinlariga ham javob berishga harakat qilib ko'ring. Topshiriqni bajarishda har xil shakldagi savollarga javob berishingizga to'g'ri keladi. Ba'zi savollarga 4 ta javob varianti keltirilgan. Masalan:

Haftada necha kun bor?

A. 2 kun

B. 4 kun

C. 7 kun

D. 10 kun.

Agar javobingizni o'zgartirmoqchi bo'lsangiz, unda javobni o'chiring va to'g'ri deb tanlagan javobni belgilang hamda keyingi savolga o'ting.

Ba'zi topshiriqlarni bajarayotganingizda javobingizni savol tagida ajratilgan maxsus joyga yozishingiz kerak. Masalan:

Tarixiy hikoyada keltirilgan voqealarning aynan qaysi o'rnida ta'sirlandingiz?

Daftar ikki qismdan iborat. Har bir qismni bajarish uchun 40 daqiqa ajratilgan. Ular orasida tanffus ham bor. Hamma savollarga imkon qadar javob berishga harakat qiling. Agar javob bera olmasangiz, keyingi savolga o'ting.

PIRLS tadqiqodlarining savodxonlik atamasi o'quvchilarning olgan bilimlarini kundalik hayotga tatbiq qila olish mahoratini ta'kidlash uchun qo'llaniladi. Masalan, funksional o'qish (xizmatga, ishga oid) deganda o'quvchining malumot olishi va uni baholash mahorati, diogrammalarni o'qish, matndagi bog'liqlikni (aloqani) topish, izohlash, sharxlash, xulosa

chiqarish mahorati nazarda tutilgan. O'z navbatida bu mulohazalar PIRLS tadqiqodlarining nutq bilan aynan bog'liqligini ko'rsatadi. Bu topshiriqlardan tog'ri va maqsadli foydalanish bilan o'quvchilarning mustaqil fikrlash kompetensiyasini yuzaga chiqarish va nutq ko'rkamligini sezilarli ravishda oshirishi mumkin.

Umuman olganda, chiroyli so'zlashni, savodli, to'g'ri yozishni, o'z fikrini ravon va aniq bayon etishni bilmagan o'quvchi bilimlarni muvaffaqiyat bilan o'zlashtira olmaydi. Bolaning aniq, mantiqiy makonga ega bo'lgan og'zaki va yozma nutqi uning aqliy rivojlanish belgisi hisoblanadi. Shu boisdan nutqning rivojlanishi bolalarni tarbiyalashning umumiy tizimida muhim ahamiyat kasb etib, o'quv jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirishida yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet manbalar:

1. Qosimova K. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 2009.
2. Шаббазова, Д. Р. (2017). Индивидуальность подростка и развитие творческих способностей. Апробация, (2), 121-122.
3. Шаббазова, Д. Р. Развитие творческих способностей и индивидуальности подростка / Д. Р. Шаббазова // Приоритеты мировой науки: эксперимент и научная дискуссия : Сборник материалов Международной научно-практической конференции, Кемерово, 22 октября 2018 года. - Кемерово: Общество с ограниченной ответственностью "Западно-Сибирский научный центр", 2018. - С. 121-124.
4. Шаббазова, Д. Р. (2017). БОШЛАНҒИЧ СИНФДА ЎҚУВЧИЛАРИ ЖОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА АФЗАЛЛИКЛАРИ. In Современные проблемы и перспективы развития педагогики и психологии (pp. 73-75).
5. Шаббазова, Д. Р. Влияние художественных произведений на развитии личности школьника / Д. Р. Шаббазова // Гуманитарный трактат. – 2018. – № 24. – С. 18-20.
6. Шаббазова, Д. Р. РАЗВИТИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ЧЕРЕЗ ТВОРЧЕСКИЕ СПОСОБНОСТИ ЧЕЛОВЕКА. Редакционная коллегия: Главный редактор (учредитель) ИП Всяких Максим Владимирович, кандидат экономических наук, 91.
7. Dilfuza Shabbazova. (2022). MODEL OF PERSONAL VALUE FOR PRIMARY SCHOOL LITERACY LESSONS. European Scholar Journal, 3(5), 80-83.
8. Shabbazova, D. (2022). CONTENT OF FACTORS DETERMINING THE EFFICIENCY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 630-636.
9. Ziyotova, S. ., & Shabbazova, D. (2023). BOSHLANG'ICH SINFDAN O'QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARINING O'RNINI. Молодые ученые, 1(6), 34-37.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQIY KO'NIKMA VA MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH

Normatova Dilfuza Eshmurodovna
TerDPI magistr
Muxtarova Lobar Abdimannabovna
Ilmiy rahbar p.f.f.d. (PhD)

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lida xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O'zbekiston Respublikasida qo'yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida hukumat qarorining qabul qilinishi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishini misol sifatida keltirish mumkin⁶.

Yoshlarni komil insonlar qilib voyaga yetkazish jamiyatimiz ijtimoiy hayotidagi muhim vazifalardan biridir. Shu o'rinda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotmaydigan yana bir masala, bu – farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir"⁷ degan fikrlarini keltirmoqchiman. Darhaqiqat, bilim qanchalik mustahkam bo'lsa, o'quvchi dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi va kamol topadi. Hozirgi kunda o'quvchilar uchun informatsion savodxonlik ta'lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Boshlang'ich sinfda innovatsion ta'lim sharoitida nutqiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Nutqiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish ustida ishlash boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish bo'yicha o'qituvchining o'quv-uslubiy faoliyatidagi asosiy yo'nalishlardan biri sanaladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish masalasi zamonaviy metodik adabiyotlarda til, lug'at boyligi va nutq madaniyatini shakllantirishga yondashuvlarni belgilab olishni talab qiladi.

⁶Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma). Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 4-b.

⁷Sh.M.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" T., 2017 yil, 106 -b.

Nutqiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, barkamol shaxs tarbiyasi, unda ma'naviy sifat va ijodiy tafakkurni rivojlantirish, milliy o'zlikni anglash, milliy an'ana va avlodlar o'rtasidagi vorislikni asrash hamda davom ettirish jarayonida yetakchi o'rin tutadi.

O'quvchilarga tilni o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qishda, mehnat jarayonida va oilada, jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirishish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida amalga oshirish lozim bo'lgan asosiy masala ona tilisi o'zga bo'lgan o'quvchilarda o'zbek tiliga qiziqish va e'tibor hissini muntazam sur'atda o'stirib borishdan, o'zbek tilida so'zlashish, ularga tilning, urf-odatlarining, madaniyati va boy adabiy me'rosining ahamiyatini, turli mavzularda tutgan o'rnini tushuntirishdan iborat. O'qituvchi ona tili va o'qish savodxonligi fanini boshqa fanlar, zamon bilan hamnafas uzviy bog'lagan holda ta'lim berar ekan, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlash jarayonida, shuningdek, takrorlash, umumlashtirish vaqtida u yoki bu mavzu yuzasidan o'rni bilan bog'lanishli, o'quvchilarni mantiqiy, tahliliy mushohadaga chorlovchi turli mazmunga oid matnlardan foydalanadi. Bunday matnlardan foydalanish o'quvchilarni kreativ fikrlashga, matnni tushunishga, bilimi va dunyoqarashining boyishiga xizmat qiladi.

Bunda o'rganilayotgan so'z va so'z shakllarini to'g'ri talaffuz qilish hamda yozish, so'zni grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirish, so'zlarni o'rinli tanlash va sintaktik-uslubiy jihatdan to'g'ri baholay olish, jumla tuzishda va nutq ohangini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish talab etiladi. Til o'rganishda uzluksiz ta'limning boshlang'ich va umumiy o'rta bosqichlarida til ta'limining lisoniy, lingvopsixologik, sotsiopsixologik va paralingvistik xususiyatlari va, muhimi, umumdidaktik va o'ziga xos metodik xususiyatlardan kelib chiqqan holda hosil qilinadigan nutqiy-kommunikativ, grammatik va umumtarbiyaviy vazifalar belgilanadi.

Ona tili va o'qish savodxonligi fani faqat grammatik me'yorni o'rgatuvchi fan sifatida emas, balki o'quvchining ixtiyoriy mavzudagi, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunishiga, to'g'ri o'qishiga, orfoepik va orfografik me'yorlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan fan bo'lib, o'quvchi mantiqiy, tanqidiy, kreativ fikrlashi uchun o'zbek tili darslarida tinglab, ko'rib va o'qib tushunishga e'tibor qaratiladi. Ona tili va o'qish savodxonligini puxta o'zlashtirgan o'quvchi o'zbek tilida o'z fikrini belgilangan darajalar asosida mustaqil bayon eta oladi.

O'zbek tilini mukammal o'zlashtirgan o'quvchi o'zbek tilida beriladigan matnlarni o'qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy (kreativ) fikrlash orqali olgan

bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqati rivojlantiriladi. Shuningdek, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan elementlar orqali amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga singdirish o'qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri sanaladi. Bunda matni tushunish, tanqidiy, tahliliy fikrlash, munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi.

Xulosa qilib aytganda, nutqiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish orqali o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani shakllantirishga erishiladi. Shuning uchun o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalanish to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Muxtarova, L. A. (2021). Use of multimedia technologies in the educational process. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1781-1785.

2. Muxtarova, L. A. (2021). Ways of formation of ecological culture in children of primary age. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 648-652.

3. Abdimannabovna, M. L. (2021). Formation of the Ecological Culture of Schoolchildren in the Study of Natural Science. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 1(6), 73-76.

4. Мухтарова, Л. А. (2018). ПУТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ МУЛЬТИМЕДИА В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА И ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКОВ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Научные горизонты*, (11-1), 247-252.

5. Мухтарова, Л. А. (2018). РАЗВИТИЕ И ФОРМИРОВАНИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ШКОЛЬНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Гуманитарный трактат*, (24), 13-14.

6. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH SINFLARDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. *Апробация*, (2), 93-94.

7. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. In *НАУЧНЫЙ ПОИСК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ* (pp. 119-120).

8. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERNET VA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. In *Современные проблемы и перспективы развития педагогики и психологии* (pp. 47-49).

9. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие творческого мышления у школьников начальных классов. *Гуманитарный трактат*, (24), 9-10.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

*Norqobilova Feruza Norsaitovna
TerDPI 2-kurs magistranti.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi, matnni o'qib tushunish darajasini baholashga mo'ljallangan PIRLS dasturi haqida ma'lumotlar, ushbu dasturda ishtirok etish bo'yicha xalqaro tajribalardan misollar, o'qish savodxonligini rivojlantirish omillari, unga erishishda yetakchilik qilayotgan mamlakatlar tajribalari haqida fikrlar va ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro baholash dasturlari, PIRLS, o'qish savodxonligi, matnni o'qib tushunish, xalqaro tajribalar.

Abstract: This article provides information about the PIRLS program, which assesses the level of reading literacy of primary school students, examples of international experience in participating in this program, factors and factors in the development of reading literacy, the experience of leading countries in achieving it.

Keywords: international assessment programs, PIRLS, reading literacy, reading comprehension, international experiences.

O'zbekistonda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida xorijiy tajribalarni o'rganish xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muxim ahamiyatga egadir. Shuni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifati baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari tug'risida 2018-yil 8-0 dekabrda 997 sonli qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifati nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifati baholash buyicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi"⁸.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilash uchun ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) - bu dunyoning turli davlatlarida boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifati baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. PIRLS har besh yilda bir bora o'tkaziladi. 2016-yilgi PIRLS xalqaro 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish malakalarini baholash sinovalariga dunyoning 50 mamlakati qatnashdi. Har bir davlat boshlang'ich

⁸O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifati baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari tug'risida 2018- yil 8- dekabrda 997-son qaror

darajada matnni tushunishdan tortib mukammal darajada tushunish borasida turli ko'rsatkichlarni ko'rsatdi. O'rtacha hisobda, Rossiya Federatsiyasi va Singapurlik 4-sinf o'quvchilari o'qish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etishdi. Shuningdek, bu ikki mamlakatlik o'q o'quvchilarninigi to'rtidan bir qismi matnni mukammal darajada tushina olish malakasini ko'rsatishdi. Bu darajada matnni tushungan o'quvchilar hikoya sujetlari va nisbatan murakkab matnlarda berilgan ma'lumotlarni izohlash, birlashtirish, va baholash ko'nikmalariga ega. Hong Kong, Irlandiya, Finlandiya, Polsha ba Shimoliy Irlandiyalik o'quvchilarning beshdan bir qismi matnini mukammal darajada tushina olish malakasini ko'rsatishdi. Quyidagi jadvalda natijalar aniq raqamlarda aks ettirilgan: Rossiya Federatsiyasi 581 Singapur 576 Hong Kong (SAR) 569 Irlandiya 567 Finlandiya 566 Polsha 565 Shimoliy Irlandiya 565 ballarni qo'lga kiritgan. Yana shuni aytish mumkinki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, bu dastur raqamli formatga o'tish bilan birga, internet muhitida boshqariladigan ePIRLS onlayn o'qishni kompyuterda baholash kabi o'zgarishlar ham ko'zda tutilgan

“Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, sog'lom hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hech qachon o'zining dolzarbligini yo'qotmagan masala hisoblanadi”, deydi Prezident Sh.Mirziyoev.⁹

O'qish savodxonligining bu ko'rinishi konstruktiv va interaktiv jarayon sifatida ko'plab o'qish nazariyalarini aks ettiradi. O'quvchining matn bilan ishlashi jarayonida o'quvchi va matn orasidagi muloqot orqali (shuning uchun ham bu jarayon interaktiv deyiladi) o'quvchi ma'noni yaratadi (shuning uchun ham bu jarayon konstruktiv inglizcha «construct» – yaratmoq deyiladi).

O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi. PIRLS yosh o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishining ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan. Bular badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir. Bundan tashqari, PIRLS o'qish maqsadlarining har birida to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish.

O'QISH SAVODXONLIGINING MAQSADI

1. Badiiy tajriba orttirish

⁹Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. T."O'zbekiston" HMUY, 2007

2.Axborotni olish va undan foydalanish

TUSHUNISH JARAYONI.

1.Diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish

2.To'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish

3.G'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish

4.Kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish butun dunyo bo'ylab o'qish savodxonligining rivoji odamlarning nima sababdan o'qishlari bilan bevosita bog'liq.

Umuman olganda, bu sabablar zavqlanish va shaxsiy qiziqish uchun o'qishni yoki ta'lim va jamiyat hayotida munosib ishtirok etishni o'z ichiga oladi.

Ko'pgina yosh o'quvchilarning dastlabki mutolaasi aksariyat hollarda hikoya (masalan, hikoya to'plamlari yoki rasmi kitoblar) yoki o'quvchilarga atrofidagi dunyo haqida ma'lumot beradigan va savollarga javob beradigan ma'lumotli matnlardan iborat bo'ladi.Yosh o'quvchi uchun o'qish savodxonligining har ikki maqsadi ham muhim hisoblanadi. SHuning uchun PIRLS har bir o'qish turini baholashda matnlarni teng bo'lishni asosiy maqsad qilib olgan.

Badiiy tajriba orttirish. Adabiyotni tushunish va baholash uchun har bir o'quvchi tilni tushunishi va badiiy shakllarni bilishi kerak. YOsh o'quvchilar uchun adabiyot hali duch kelmagan vaziyatlar va his-tuyg'ularni o'rganish imkoniyatini taqdim etishi mumkin. Badiiy adabiyotda tasvirlangan voqealar, harakatlar vaoqibatlar o'quvchilarga haqiqiy hayotni yoritibgina qolmay, tasavvur qilishlari mumkin bo'lgan vaziyatlarni bilvosita his qilish va aks ettirishga imkon beradi.

PIRLSda ishlatiladigan badiiy matnlarning asosiy shakli – bu badiiy to'qimaga asoslangan hikoyalardir.

1.Axborot olish va undan foydalanish.

2.Axborot matnlarining maqsad va vazifalari turli xil bo'ladi.

Axborot matnining asosiy vazifasi axborotni taqdim etish bo'lsa-da, mualliflar ko'pincha o'zlari tanlagan mavzularni yoritishda turli maqsadlarni ko'zda tutadi. Ko'pgina axborot matnlarining maqsadi to'g'ridan to'g'ri ma'lumot berish, masalan, biografik ma'lumotlar yoki vazifani bajarish bosqichlarini taqdim qilishdir, shu bilan birga, ko'p hollarda matnda muallifning subyektiv qarashlari ham aks etadi. Masalan, muallif fakt yoki tushuntirishlarning qisqacha xulosasini taqdim etishi, o'z dalillariga o'quvchini ishontirishga harakat qilishi yoki turli nuqtayi nazarlarni keltirishi mumkin.

Yosh o'quvchilar ilmiy, tarixiy, geografik yoki ijtimoiy, shu jumladan, bir qator ma'lumotlarni qamrab olgan, turli shakldagi axborot matnlarini o'qishlari mumkin.

Tushunish jarayonlari.

PIRLS, odatda, 4-sinf o'quvchilarining keng qamrovli to'rtta tushunish jarayonini baholaydi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ma'lumotni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish,

uyg'unlashtirish, kontekst va matn elementlarini baholash hamda tanqid qilish jarayonlaridir.

PIRLS va ePIRLSda har bir matn parchasi (yoki parchalari) yoki matn yuzasidan beriladigan savollar to'rtta tushunish jarayonini baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilar matndan ma'no hosil qilar ekan, ular aniq tushuntirilmagan g'oyalar yoki ma'lumotlarga nisbatan tushuntirishlar beradi.

Xulosalash o'quvchilarga matndan tashqariga chiqishga imkon beradi. Ko'pgina hollarda muallif matnni o'quvchining aniq yoki bevosita xulosa chiqarishi uchun yaratadi.

O'quvchilar oddiy xulosalar bilan bir qatorda, matndagi g'oyalar va axborotlarni talqin qilishda va uyg'unlashtirishda aniq yoki umumiy ma'nolarga e'tibor berishlari yoki tafsilotlarni umumiy mavzular va g'oyalar bilan bog'lashlari mumkin.

To'liq javob berish uchun o'quvchidan barcha matnni yoki hech bo'lmaganda uning muhim qismlarini, shuningdek, matndan tashqaridagi fikrlarni yoki axborotni tushunish talab qilinadi. Matn va mazmunga oid birliklarni baholash va tanqidiy tahlil qilish. Matn mazmuni o'quvchining shaxsiy fikridan kelib chiqib, xolislik bilan baholanishi va tanqid qilinishi mumkin. Bu jarayon o'quvchidan xolis baho berish, rad etish, ma'qullash, matn mazmuniga nisbatan betaraflikni bildirish kabilarni talab qiladi. Masalan, o'quvchi matnda keltirilgan fikrlarni tasdiqlashi, e'tiroz bildirishi yoki boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar bilan matnda berilgan g'oyalarni taqqoslashi mumkin.

PIRLS tadqiqotida ishlatiladigan matnlarning xususiyatlari. Matnlar PIRLS dasturida murakkabligiga qarab, o'rtacha 500 dan 800 tagacha, o'quvchilarining o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400-500 ta, ePIRLS da esa, taxminan, 1000 ta so'zdan iborat bo'ladi.

PIRLS matnlari uchun aniqlik va izchillik muhim mezon hisoblanadi.

Matnni baholash va tanqidiy tahlil qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

XULOSA

Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Davlatimizga ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rnini to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. O'quvchilarni xalqaro PIRLS baholashning asl mohiyati o'quvchilarda tafakkur uyg'oqligi, ularni ixtirochi, ijodkorlikka o'rgatishning asosiy belgisi hisoblanadi.

O'zbekistonda ta'lim tizimiga xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o'quvchilarning bilim darajasini baholash va monitoring qilishning "Milliy dasturi"ni yaratish hozirgi kun talabiga mos keladi. Yana shuni aytish joizki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o,,zining

baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari tug'risida 2018- yil 8- dekabrda 997-son qaror

2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. "O'zbekiston" HMUY, 2007

3. Mahmudov M., Ne'matova F. (2020). Boshlang'ich ta'limni loyihalash: muammo va yechimlar

4. Нематова Ф. (2020). Problems of designing primary education. Молодой ученый. №. 49. С. 408-410.

5. Mahmudov M., Ne'matova F. (2020). Boshlang'ich ta'limni loyihalash: muammo va yechimlar. Научно-практическая онлайн-конференция «Современная наука и образование: проблема, решение, результат». Т. 2.

6. Mahmudov M.H., Ne'matova F.B. (2021). Loyihalash-ta'limning sifat va samaradorligini oshirishning muhim shartlardan biri. Научно-практическая конференция. С. 55-59.

7. Dilova N.G., Saidova M.J. (2020). Formative assessment of students' knowledge as an innovative approach to education. The American Journal of Social Science and Education Innovations. 2:12,

8. Djumaeva Mohigul Mamanazarovna. Specific historical geography of the factors of intellectual development in the east. Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 3 march 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz.

9. R.D. Norqobilova. Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini indikatorlar asosida diagnostika qilishning o'ziga xosligi. INTERNATIONAL CONFERENCES, 564-568. 2023

10. NR Davlatovna - Functions and Principles of Pedagogical Diagnostics. Web of Synergy: International Interdisciplinary 413-416, 2023/1/31

11. P. Norqobilova - Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan iqtidorini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish. Общество и инновации. 36-41, 2023/1/25

12. Райхона Норқобилова. О'қувчиларнинг она тили бо'йича иқтидорини аниқлаш ва ривожлантиришнинг о'зига хослиги. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. 379-384. 2022

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA TARQATMA MATERIALLARNI RASMLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

*Panjiyev Jo'raqul Menglimamat o'gli
TerDPI 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida mustaqil ishlarni tarqatma vositalarning turli variantlaridan foydalanib tashkil

etishning ahamiyati, o'quvchilarning qiziqishini, faolligini, kreativ fikrlashini o'stirishdagi o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tarqatma vositalar, musataqil ishlar, badiiy asar, rasmlar, kartochkalar, topshiriqlar, og'zaki, yozma, boshqotirma.

Prezidentimiz Yangi O'zbekistonni va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish borasida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar va islohotlarning maqsadi, mazmun-mohiyati hamda ustuvor yo'nalishlari, milliy taraqqiyot istiqbollari haqida fikr yuritib, "Yangi O'zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirga davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g'oyaviy-ma'naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko'lamli islohotlarimizning yaqqol ifodasidir" [1]

Mamlakatimizda boshlang'ich ta'limda o'qitishni sifat jihatdan jadal rivojlantirish, o'quvchilarni mustaqil fikrlash, atrofdagi voqelikka ongli munosabatda bo'lish, daxldorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarni, nutq va tafakkurini rivojlantirish, yuksak ma'naviyatli barkamol shaxsni kamol toptirish sog'lom avlodni voyaga etkazishning muhim omili sifatida qaralmoqda. [2]

Mustaqil O'zbekistonimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ma'naviy - axloqiy yo'nalishlarni ham keng rivojlantirishni taqazo etmoqda. Chunki bu demokratik, insonparvarlik jamiyat qurishning muhim omillaridandir. Mamlakatimizda xalq ta'limi tizimida uzluksizlik yuzaga keldi. U zamonaviy innovatsion va integratsion texnologiyalar asosida takomillashtirilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim dars jarayonini yuqori darajaga ko'tarish muhim ahamiyat kasb etayotir. Darhaqiqat, kelajagimizning taraqqiyoti ta'limning poydevori bo'lgan boshlang'ich maktabda ilm olayotgan bolalarning ma'naviy - axloqiy jihatdan mustahkam tarbiyalanishi, barkamol avlod bo'lib yetishishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Ta'lim jarayonidagi har qanday yutuq ko'p jihatdan ta'lim standartlari, soha dasturlari kabi me'yoriy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarning qay darajada amalga oshirilishi, shuningdek, darsliklar va boshqa adabiyotlar mazminining mazkur hujjatlarda ko'rsatilgan talablarga nechog'lik javob berish-bermasligi kabi omillari bilan chambarchas bog'liq.

1-4- sinflarning ona tili va o'qish savodxonligi fani dasturi ko'zdan kechirilsa, o'quvchilarni o'qishga o'rgatishdan tortib, badiiy asarni tahlil qilishgacha bo'lgan, o'zaro bir-biri bilan bog'liq jarayonlar xususida ularning yosh xususiyati, hayotiy tajribalariga mos talablar qo'yilganligini ko'rish mumkin.

"Bolalarni, - deyiladi dasturda, -o'qigan asarlarining adabiy - estetik xususiyatlarini chuqur idrok etish, ularda tasvirlangan voqea-hodisalar mag'zini chaqish, muayan xulosalar chiqarishga tayyorlash... ularda yuksak axloqiy sifatlarni va nafosat tuyg'usini shakllantirish ...zarur". [2]

"Bizning maqsadimiz,-deb yozgan Beruniy, - o'quvchini toliqtirib qo'ymaslikdir. Hadeb bir narsani o'qiy berish zerkarli bo'ladi va toqatni toq

qiladi. Agar o'quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas, boshqa bir bog' boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko'rgisi, tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa kishiga rohat bag'ishlaydi". [3]

Demak, XII asrlardayoq bolalarga saboq berishda turli ish shakllaridan foydalanish tavsiya qilingan. Ona tili o'qititish metodikasida ta'lim tarbiyaning turli usullari, jumladan mustaqil ishlarni qiziqarli, o'quvchi yoshiga mos shaklda tashkil etishga alohida e'tibor berilgan.

O'quvchilarning badiiy asarlarning adabiy-estetik xususiyatlarini chuqur idrok etishga o'rgatish, ularda "yuksak axloqiy sifatlar va nafosat tuyg'usini tarbiyalash" shubhasiz, badiiy asarlar mutolaasiga bog'liq. Boshlang'ich sinflardan mutolaa madaniyati shakllana boshlaydi. Ammo bu borada boshlang'ich ta'lim tizimidagi muammolardan biri o'quvchining maktabga turlicha tayyorgarlik bilan kelishi, shaxsiy imkoniyatlarining har xilligidir.

Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, 1-sinfda ko'proq rasmi tarqatma vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Darsning tashkiliy maqsadi, o'quv materialining mazmuni asosida tuzilgan kartochkalar ta'limni individuallashtirish, o'quvchilarni mustaqil izlanishga o'rgatish uchun xizmat qiladi.

1-sinflar uchun esa rasmi karnochkalar bilan ishlashi darsning o'tilgan mavzuni so'rash bosqichida yoki asar matni tahlili davrida o'tkazilishi mumkin.

Demak, ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarni mustaqil izlanishga o'rgatishda rasmi kartochkalar bilan ishlashning ahamiyati katta. Rasmi kartochkalarni tuzishda darslikdagi materiallardan va qo'shimcha boshqa adabiyotlardan ham foydalanadi. [4]

Rasmi kartochkalardagi to'shiriqlar og'zaki va yozma bajarilishi mumkin.

Testlar ham kartochkalar kabi mustaqil izlanishga o'rgatish vositalaridan biri hisoblanib, turli shaklda o'tkazilishi bilan ahamiyatlidir. Unda ham rasmi test va topishmoqlar qiziqariligi bilan alohida ahamiyatga ega. Testlar ko'proq o'quvchilarni har tomonlama o'ylashga, matn mazmunini chuqur o'zlashtirishga, individual yondashishga yordam beradi.

Testlar o'qituvchi uchun ham qiziqarli bo'lib, o'tilganlarni mustahkamlash va o'quvchilar bilimlarni nazorat qilishda katta ahamiyatga ega. 1-sinflarda ko'proq rasmi testlardan foydalanish juda yaxsh natija beradi. Chunki, ular ko'prok taqlidga moyil bo'lib, ko'rganlarini aytib berish qobiliyati kuchliroq boladi.

Boshlang'ich sinflarda boshqotirmalar jamoa bo'lib, guruhlarda va kichik guruhlarda ishlanadi. Qaysi shaklni tanlash boshqotirmaning murakkablik darajasiga qarab belgilanadi. O'quvchilarning individual xusisiyati, tasavvur, idrok qilish qobiliyati hisobga olingan holda tanlanadi va tayyorlanadi. Boshlang'ich sinflarda "Ertaklar olamiga sayohat", "Yo'lingni top" "Kim birinchi" kabi boshqotirmalar ma'lum savolga javob topilgandan so'ng yo'lida davom etishlarini talab etiladi. Bu esa o'quvchilarni muammoni tezroq

yechimini topib, keyingi shartga o'tishga qaratilgan ishlarni bajarishga undaydi. [6]

Kvadrat kubiklarda joylashtirilgan ertak voqealari asosida tayyorlangan rasm qirqmalaridan ertak syujetini tayyorlash. Yoki rasmi krasvord, o'quvchilar yoshiga mos savollar asosida tuzilgan boshqotirmalar ham o'quvchilarning bir jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantiradi.

Matn asosida rasm chizish esa o'qish darslarini q'ziqarli, mazmunli, ifodali, yanada ta'sirchan o'rgatishga yordam beradi. Bu jarayonning ikki turi:

- mavzu asosida rasm ishlash;
- adabiy asarlar asosida suratlar chizishdan mustaqil ish turi sifatida foydalanish o'quvchilarning tas'viriy san'at go'zalliklarini va rang-barang tabiatni chuqurroq anglashni, ba'zi bir voqealarni idrok etish, inson ichki olami, psixologiyasini ko'ra olish borasidagi sezish qobiliyatlarini o'stirishga yaqindan yordam beradi. Eng muhimi esa, mavzuni yaxshi o'zlashtirishlarini ta'minlaydi.

“Kim chaqqon?” o'yini. Bunda o'quvchilarga yoshlariga mos rasmlar aks ettirilgan biletlar beriladi. Masalan, biletda “Anor” rasmi ko'rsatilgan bo'lsin. Rasmning tagida “Anor” kabi harflari tushurib qoldirilgan so'z yoziladi. O'quvchi mevaga qarab uning nomini aytadi va tushurib qoldirilgan harfni yozadi. Kim tez va to'g'ri bajarsa g'oliblikni qo'lga kiritadi.

“So'zlardagi birinchi tovushni aniqlang” o'yini. Bolalar kartani olishadi. O'qituvchi unli, undosh tovushlar, harf va tovush tushunchalariga aniqlik kiritadi. O'qituvchi harfning ketma ketligini quyidagicha tushuntiradi:

1. So'zlardagi birinchi tovushni quloq orqali aniqlang.
2. Doirada ta'kidlangan tovushni bildiruvchi harfni yozing: agar tovush unli bo'lsa - qizil qalam, undosh undosh bo'lsa - ko'k, undosh yumshoq bo'lsa - yashil qalam.
3. Xuddi shu tovush bilan boshlangan so'zlar sonini hisoblang, harfning ostidagi tegishli raqamni yozing.[7]

Bosnqotirmaning rasmi, iurli to'shiriqli, rang-barang ertaklar olamiga sayohat asosida tashkil etilishi o'quvchilarning tasavvurlarini rivojlantirishga yordam beradi, kreativ faolligini oshiradi.

Demak, boshlang'ich sinflarda mustaqil ishlarni rasmi tarqatma materiallar vositasida tashkil etish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ko'rganlarini bayon etish, xulosa chiqarish, tasavvur qilgan narsalarini yozma va tasviriy bayon eta olish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'limning MILLIY O'QUV DASTURI. 2022-yil.
2. Qosimova.K, S.Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariev. “Ona tili o'qitish metodikasi” - T.: «NOSHIR», - 2009. 352 b.
3. Hamdamova. M, “Yoshlarni intellektual salohiyatini rivojlantirish mexanizmining pedagogik-psixologik asoslari”, Toshkent 2007.
4. J. G'. Yo'ldoshev, S. A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. — T.: “O'qituvchi”, 2004.

5. Khaitova, F. A. (2023). CREATIVE APPROACH TO FORMING A CULTURE OF LEARNING IN PRIMARY EDUCATION. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(5), 123-127.

6. Abdullaevna, H. F., & Menglimamat, P. J. (2019). THE IMPORTANCE OF FORMING A READING CULTURE IN THE PROCESS OF EXTRACURRICULAR ACTIVITIES. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).

7. Abdullaevna, H. F., & Menglimamat, P. J. (2019). THE IMPORTANCE OF EXTRACURRICULAR WORK IN THE CULTIVATION OF CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS IN PRIMARY SCHOOLS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).

8. Norbutayev H.B. Knowledge of ecological content in pupils in interdiscipline for teaching biology. *International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECS)* DOI:10.9756/INTJECSE/V14I7.110 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 07 2022.-P.1032-1040.

9. Narbutaev H.B. Improving the knowledge of ecological content in pupils in interdiscipline for teaching biology. *International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECS)* DOI:10.9756/INTJECSE/V14I7.110 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 07 2022.

10. Norbutayev H.B. Specific features of interdisciplinary integration in teaching natural subjects. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* <https://saarj.com>. Impact Factor: SJIF.Vol.11,10.5958/2249-7137. 2021.00766.7. Issue 3, March 2021.- P.1123-1128.

STEAM TEXNOLOGIYASINI HAYOTGA TADBIQ ETISHDA OILA VA MAKTAB HAMKORLIGI

***Muxtarova Lobar Abdimannabovna
Pardayeva Gulbahor Jalgashevna
Termiz davlat universiteti***

Annotatsiya: Boshlang'ich ta'limda STEAM texnologiyasining imkoniyatlari o'quvchilarning borliq haqidagi, atrof-olam haqidagi bilimlarini oshirishga yordam beradi. Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta'limni rivojlantirish, xalqaro texnologiyalarni xalq ta'limiga olib kirish takomillashmoqda. Ushbu maqola boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda STEAM texnologiyasining ahamiyatiga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: STEAM texnologiyasi, Evristik ta'lim metodi, kreativlik sifatleri, fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik, (Engineering), tasviriy san'at (Art), matematika (Math).

Аннотация: Возможности технологии STEAM в начальной школе способствует расширению знаний учащихся о бытии и окружающем мире. Сегодня совершенствуется развитие непрерывного образования в нашей стране, внедрение международных технологий в народное

образование. Эта статья посвящена важности технологии STEAM в обучении начальных классов.

Ключевые слова: технология STEAM, эвристический метод обучения, творческие качества, наука, технология, инженерия, изобразительное искусство, математика.

Annotation: The possibilities of STEAM technology in elementary school contribute to the expansion of students' knowledge about being and the world around them. Today, the development of continuous education in our country is being improved, the introduction of international technologies in public education. This article focuses on the importance of STEAM technology in teaching elementary grades.

Key words: STEAM technology, heuristic teaching method, creativity, science, technology, engineering, fine arts, mathematics.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kreativ sifatlarini rivojlantirish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

STEAM ta'limi asosida o'qitish tabiiy va iqtisodiy fanlar yo'nalishida o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

O'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari hamda mustaqil bajarishga va ijodiy (kreativ) fikrlashga undovchi amaliy topshiriqlar bilan ishlashni yosh avlod ongiga singdirish o'qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri sanaladi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi famonida ham O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy -axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsad qilingan [2].

STEAM fan bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalashgan o'qitish tizimidir. STEAM ta'limi deganda amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash tushuniladi.

STEAM ta'lim texnologiyasi maktab o'quvchilarini yangicha o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish metodikasidan farqli metodika hisoblanadi.

U o'quvchilarni bir vaqtning o'zida to'rtta – **fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik, (Engineering), tasviriy san'at (Art), matematika (Math)** bo'yicha o'qitishga mo'ljallangan. STEAM fan bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalashgan o'qitish tizimidir.

Agar ushbu qisqartmani yoysak, quyidagilarni olamiz: STEAM bu — S – science, T – technology, E – engineering, A – art va M – math. Ingliz tilida bu shunday bo'ladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika. Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelayotganini unutmang. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta'limi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan.

Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf devorlarida o'rganish tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zlari "uqib oladilar".

STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu erda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish etarli emas.

Amaliy qobiliyatga e'tibor berib, talabalar o'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi. Ushbu ko'nikmalar va bilimlar asosiy ta'lim vazifasini tashkil etadi, ya'ni. bu butun ta'lim tizimi nimaga intilishini. Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Ba'zi maktablar bitiruvchilarning martabalarini e'tiborga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM tizimi shu tarzda shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik bu erda Art qo'shildi va endi STEAM oxirigacha shakllandi. O'qituvchilar ushbu mavzular, aniqrog'i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda talabalarining yuqori malakali mutaxassis bo'lib etishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi. Oxir oqibat, bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo'llashadi [3].

STEAM ta'limi amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash tushuniladi.

Prezident maktablarida "STEAM" ta'lim dasturi asosida o'qish tashkil qilinishi, o'quvchilar o'zlarining qiziqishiga qarab ayrim fanlarni tanlash orqali individual bilim olish imkoniyatiga ham ega bo'lishi bilan umumta'lim maktablaridan tubdan farq qiladi. Chunki Prezident maktablarining asosiy vazifalaridan biri – tabiiy va aniq fanlarni chuqur o'qitish, o'quvchilarning innovatsion bilimlarni o'zlashtirishi, ularning intellektual, ilmiy-ijodiy salohiyatlarini ochib berish va rivojlantirishdan iborat.

STEAM yondashuviga oid darslik va o'quv qo'llanmalari Cambridge University Press shu jumladan Oxford University Press va Collins kabi nufuzli nashriyotlar tomonidan chop etilgan. Cambridge taklif qilayotgan o'quv dasturining asosiy afzalligi jahon mehnat bozoridagi tamoyillardan kelib chiqib, o'quvchilarda tegishli zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga urg'u berishdir [4].

O'quvchilarga mazkur fanlarni o'qitishda malakali mahalliy o'qituvchilar bilan bir qatorda, xorijlik o'qituvchilar ham hamkorlikda saboq beradilar. Yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni ishga yollashda mazkur yo'nalishda ko'p yillik tajribaga ega "Teachaway" (Kanada) va "TIC Recruitment" (Buyuk Britaniya) rekruting kompaniyalari bilan hamkorlikda ishlar amalga oshirilmoqda [5].

O'quvchilarining qiziqishlari va xususiyatlariga qarab, Prezident maktabida ta'lim o'quv jarayonini individualizatsiya qilingan holda olib boriladi.

Maktablarda «**STEAM - ta'lim**» (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – san'at, Mathematics – matematika) dasturi joriy etiladi. O'quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda sinfdan tashqari amaliy mashg'ulotlar o'tkazish nazarda tutiladi. Bitiruvchilarga belgilangan tartibda davlat tomonidan tasdiqlangan ma'lumot to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma, attestat) bilan bir qatorda xalqaro darajadagi tegishli dastur diplomi (International Baccalaureate, Advanced Placement yoki International Advanced Levels) beriladi. Bunday diplom bilan xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalariga kirish mumkin bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, umumta'lim maktablarida ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanish, ta'lim jarayonlariga STEAM texnologiyasini keng joriy etish, tahsil olayotgan yosh avlodning nazariy bilimlarinigina oshiribgina qolmasdan, ularni tezroq amaliy va kasbiy jarayonlarga kirishga undaydi. Bu esa mamlakatimiz zamonaviy ta'limining yutuqlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Umumta'lim maktablarining milliy o'quv dasturi/ Tabiiy fanlar (SCIENCE).-T.: 2021.-53-b.

2. "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi

3. Tog'ayeva G.O., Xolmirzayev F.G., Tabiiy fanlar savodxonligi bo'yicha xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun daftar. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent 2020 yil

4. U.Sharifxodjayev, D.Norboyeva. PISA tadqiqotida kreativ fikrlashni baholash doirasi (PISA 2021 Creative Thinking Framework (Third Draft))/ Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti/Xalq ta'limi vazirligi – Toshkent, 2020-yil, 76 bet.

5. Radjiyev A.B, Ismailov A.A., Narziyev J.R., Axmedov X.P., Tog'ayeva G.O. O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi, qo'llanma, Toshkent–2019 yil 62-bet

6. Bozorov Zokir Yuldosh oglu, Khabibulloyev Abbas Odil oglu, Turakhanov Jakhongir, Otaganova Umida Egamberdi qizi. General Formula for Calculation of Dimensions and Surfaces of Some Geometric Figures//INTERNATIONAL JOURNAL ON ORANGE TECHNOLOGY e-ISSN: 2615-8140 | p-ISSN: 2615-7071 Volume: 4 Issue: 6 |Jun 2022 44-46

7. Bozorov Zokir Yuldosh oglu, Khabibulloyev Abbas Odil oglu, Turakhanov Jakhongir Utkir oglu, Otaganova Umida Egamberdi qizi Planimetry as a Structural Component of Structure for Professional Training of a Future Teacher of Mathematics//International Journal on Integrated Education. e-ISSN : 26203502 p-ISSN : 26153785 Volume 5, Issue 6, Jun 2022 78-80

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Qulmo'minov O'rolboy Safar o'g'li
TerDPI o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Maqolada kreativ fikrlaydigan, iqtidorli yoshlarni ijodkorlik faoliyatiga jalb etish, ijtimoiy va shaxsiy faolligi kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalarini, innovatsion yondashuvni tizimli tarzda tashkil etishning metodologik asoslari, o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish samaradorligini oshirish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, kreativ fikrlash, ijodkorlik, ijodiy, erkin, tanqidiy, mustaqil tafakkur.

Аннотация: В статье описаны методические основы системной организации творческого мышления и одаренной молодежи в творческой деятельности, формирование и развитие социально-личностно-деятельностных компетенций, пути повышения эффективности развития творческих способностей учащихся.

Ключевые слова: креативность, творческое мышление, креативность, творческое, свободное, критическое, самостоятельное мышление.

Annotation: The article describes the methodological foundations of the systematic organization of creative thinking and talented young people in creative activities, the formation and development of social and personal activity competences, and the ways to increase the effectiveness of the development of students' creative abilities.

Key words: creativity, creative thinking, creativity, creative, free, critical, independent thinking

Kreativlik-shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Kreativlik bevosita innovatsiyalar bilan bog'liq jarayondir. Negaki o'qituvchining kreativlik faoliyat yuritishi uchun, u albatta o'zining sohasidagi eng so'nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan boxabar bo'lishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida o'rinli foydalana olishi lozim. Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchisi har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yo'lni izlab topishi va uni amaliyotga joriy qilish orqali dars jarayonini samarali tashkil etishi, boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga tez, tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir ko'rinishi deyish mumkin. O'qituvchining kreativligi, ushbu kreativlikning mohiyatini beruvchi ijodkorlik ustuvor xarakterga egadir. Bu esa bizning maqolamiz ob'ekti bo'lgan o'qituvchining kreativlik faoliyatining naqadar muhimligidan dalolat beradi. Yuqoridagi pedagog olimlar, ayniqsa olima **R.A.Mavlanova** tomonidan olib borilgan tatqiqotlar bilan tanishar ekanmiz, ularning barchasini umumlashtirgan holda **biz quyidagi fikrlarni e'tirof etmoqchimiz:**

1. Kreativlik o'qituvchilarni innovatorlikka undovchi pedagogik kategoriya hisoblanadi.

2. Kreativlik o'qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatining integratsiyasidir. Chunki tabiatan qiziquvchan, intiluvchan bo'lmas ekan, o'qituvchi hech qachon ijodkorlikni namoyon eta olmaydi.

3. Kreativlik o'qituvchilarda o'z-o'zidan paydo bo'ladigan sifat emas, u o'qituvchining yangiliklarga intilishi, yangiliklarni o'zlashtirish va o'zining pedagogik faoliyatida qo'llay olish jarayonlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yenga olishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida faol, ijodkorona foydalana olish va o'z mualliflik g'oyalariga, echimlarni (evristik) topa olishi bilan bog'liqdir.

4. O'qituvchining kreativligining shakllanishi «ehtiyotlar, yo'nalishlar va «Men» kontsepsiya»laridan kelib chiqadi. O'qituvchining kreativlik faoliyati pedagogik faoliyatning barcha turlarida namoyon bo'lishi davr talabidir.

O'qituvchining kreativlik faoliyati, avvalo, pedagogik mahorat bilan bog'liq degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Qoliplardan voz kechamiz. Inson miyasi o'z ishini "yengillashtirish", "qulaylashtirish" uchun shablon va stereotiplardan foydalanadi. Stereotiplar shu paytgacha ma'lum bo'lgan va umumqabul qilingan fikrlardir. Ular asosida fikrlash bizga hech qanday yangi g'oya bermaydi. Qoliplarning yuzaga kelishida jamiyatda ustuvor bo'lgan ijtimoiy fikr, mediamahsulotlarda taqdim etilayotgan shakl va ko'rinishlar ham yetakchi o'rin tutadi. Inson ommadan ajrab qolmaslik nuqtayi nazaridan hammaning fikriga qo'shiladi. Qolaversa, "oqim bo'ylab suzish" mustaqil fikrlashdan ko'ra oson tuyuladi. Stereotiplar orqali fikrlaganda muayyan mavzu bo'yicha inson ongiga "so'rov" berilganida odatiy ma'lumot va mulohazalar yuzaga keladi. Masalan, "yangi yil" deganda to'kin dasturxon, reklamadan tushmaydigan gazli ichimliklar, archa va hokazolarni tasavvur qilish, bobo obrazida qo'lida hassa tutgan, ko'zoynakli cholni ko'rish qolip asosida fikrlashning ko'rinishi. Kreativ fikrlovchi insonlar odatiy manzaralardan o'zgacharoq tasvirlarni ham tasavvur qilib, hech kim ilg'amagan jihatlarni payqaydi, yangilik yaratoladi.

Eng ajablanarli jihati, ta'lim-tarbiya jarayoni ham o'quvchilarni bir xil fikrlashga o'rgatib qo'yarkan. Mashhur ixtirochi va kashfiyotchilarning aynan maktabdagi ta'lim jarayonidagi bir xillikka ko'nikolmagani, qoliplarga sig'maganini ko'rish mumkin. Masalan, Albert Eynshteynning maktabdan haydalihi yoki Dmitriy Mendeleevning kimyo fanidan "uch" olgani bunga misol bo'ladi.

Ijodkorlikni yuzaga keltirish uchun stereotiplarning ongosti darajasida ijoddan cheklovchi funksiya, shablonlardagi to'siqni anglash, qoliplardan voz kechish zarur. Kumir, brend va modaga ergashish mustaqil fikr kushandasi hisoblanadi. Kiyinish, o'zini tutish, kasb tanlash, hatto fikrlashdagi taqlid bunyodkorlik faoliyatidan cheklashi mumkin. Shuning uchun nega aynan shu kiyimni tanladim, nima uchun shu ichimlikni xarid qilyapman, deb OAV, reklama orqali inson ongiga majburan singdirilayotgan ta'sirlardan voz kechish mustaqil qaror qabul qilishga, media qurshovidan chiqishga sabab bo'ladi.

Mashqlar. Tomas Edison "Kreativlik - g'ayriixtiyoriy jarayon", deydi. Lekin har kuni ko'plab mutaxassislar muammolarga noodatiy yechim topishga zaruriyat sezadi. Ular mana shu g'ayriixtiyoriy jarayonni ixtiyoriylashtirishi mumkinmi? Tabiatda yangi fikrlarni yuzaga keltiruvchi "sehrli tayoqcha" yo'q, biroq har qanday mutaxassisning kreativ o'ylashiga ko'maklashadigan ko'plab usullar mavjud. Buning uchun ijodiy fikrlashga vaqt ajratish, ijodiy salohiyatni anglash lozim. Jorj Bernard Shou hazillashib shunday deydi: "Ko'pchilik yiliga ikki-uch marta o'ylaydi. Mening butun dunyoga mashhurligim sababi - haftada bir yoki ikki marta o'ylaganim". Demak, xayolga kelgan yangi fikrlarni e'tiborsiz qoldirmaslik, o'ylash uchun imkon yaratish muhim. Ijodkorlik chegarasini belgilang. Muammoli masalaga duch kelgan paytingizda ijodkorlik chegaralarini belgilang. O'zingizdan "Eng oddiy yechim nimada?" deb so'rang.

Keyin “muammoni hal qilishning aql bovar qilmas varianti” nitasavvur qiling. Oddiy va hayratlanarli yechim o’rtasida sizga ijodiy maydon paydo bo’ldi. Endi yangi g’oya mavhum emas, uning chegaralari mavjud. Bu ijod jarayonidagi psixologik bosimni yengillashtiradi.

“Olti shlyapa” usuli. Edvard de Bono taklif etgan “Olti rangli shlyapa usuli”da biror mavzu tanlanadi. Navbatma-navbat shapkalar kiyiladi: oq - diqqat bilan, hech qanday emotsiyasiz barcha faktlar tekshiriladi; qora - kamchiliklar aniqlanadi; sariq - mavjud holat tahlil etiladi; yashil - yana yangi bir necha g’oyalar qo’shiladi; qizil - emotsional munosabat bildiriladi; ko’k - ish xotimalanadi. Masalan, ta’lim tizimiga oid qonunchilikni takomillashtirish mavzusi ko’rilayotgan bo’lsa, mavjud qonunchilik o’rganiladi, kamchilik va bo’shliqlar aniqlanadi. Qonuniy me’yorlarning real holat bilan mosligi yoki qarama-qarshiligi o’rganiladi. Ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi takliflar beriladi, ular amalga ohsa, qanday samara berishi izohlanadi. Taklif loyiha shaklida rasmiylashtiriladi.

Uolt Disneyning kreativ fikrlash nazariyasi. Uolt Disney ko’ngilochar sohada o’z sanoatini yaratgan, animatsion multfilmlari bilan butun dunyoga tanilgan shaxs. U dunyoga mashhur personajlarini yaratishda kreativlikning uch fazasi — xayolparast, realist, tanqidchi obrazidan foydalanadi. Ya’ni, xayolparast rovida hech qanday chegarasiz xayol suradi, fantaziya yaratadi. Bu jarayonda u Baxning “Tokkata, fuga re minar” musiqasini eshitishini aytgan. Xayolida obrazlar yaratilgandan keyin uni reallik bilan uyg’unlashtiradi. Personaj qanday harakatlanadi, qanday gapiradi - barchasini konstruktor sifatida jonlantiradi, reallashtiradi. Shundan keyin xayolparast va realist ishini tanqidchi ko’rib chiqadi. Tanqidchi “filtr” vazifasini bajaradi. Uolt Disneyning yutug’i xayolparast, realist, tanqidchini bitta shaxsda jamlay olganidir. Odatiy fikrlovchilarda ularning bittasi ustuvorlik qiladi.

Tasodiflarga befarq bo’lmang. Juda ko’plab ixtirolar favqulodda va tasodifiy holatlarda amalga oshirilgan. Ya’ni, taqdirning o’zi insonga nozik ishoralar beradi. Bu Isaak Nyutonning boshiga tushgan olma, antibiotikni kashf etgan olim Aleksandr Flemingning yuvilmay qolib, mog’orlagan laboratoriya idishlari ko’rinishida bo’lishi mumkin.

Bir-biriga bog’liq bo’lmagan narsalarni bog’lash. Mobil telefon va kompyuter imkoniyatlarini birlashtirish orqali planshet, yuk mashinasiga antenna o’rnatilib ko’chma stansiya, qayiqqa osib qo’yilgan mato tufayli yelkanli kemalar paydo bo’lgan. Shotlandiyalik shifokor J.Danlopning o’g’li tosh yo’ldan velosipedda yurib qiynalar edi. Danlop bog’ini shlang bilan sug’ora turib, uning yengil prujinasimon sakrashiga e’tibor berdi. Natijada birinchi bo’lib shinani kashf etdi.

Shuningdek, kreativlikning mikro va makrosignallarini anglash, uning inson fiziologiyasi bilan bog’liq jihatlari, ya’ni qanday holatlarda inson xayoliga yangi fikrlar kelishini bilish ham muhimdir.

Xalqaro PISA dasturida o’quvchilarning kreativ fikrlash ko’nikmalarini baholash PISA 2022 da ilk marotaba o’tkazilayotgan bo’lib, PISA tadqiqotida

kreativ fikrlash termini o'quvchilarning tasavvurlarni ta'sirchan tarzda ifodalash, bilim olishni rag'batlantiruvchi, original va samarali yechim topishga yo'naltiruvchi g'oyalarni shakllantirish, baholash va takomillashtirishda faol ishtirok etish kompetensiyasi sifatida ta'riflangan. Bu ta'limning barcha turida tahsil oluvchi o'quvchilarning g'oyalar yaratish jarayonida qay darajada ishtirok etishi, g'oyalarning ahamiyati va yangiligini inobatga olib, ularga nisbatan o'z munosabatlarini qay tartibda bildirishini va o'zlari kutgan natijaga erishmagunga qadar g'oyalarni yaratishda davom etishini anglatadi. Kreativ natijalarga erishish kreativ fikrlay olish qobiliyatini taqozo etadi, shu bilan birga u iqtidor, bilim sohasi yoki badiiy qobiliyat kabi bundan ham kengroq va ixtisoslashgan xususiyatlar va ko'nikmalarni ham talab etadi. Masalan, texnologik yangiliklar yoki san'at durdonalari bilan bog'langan "Katta kreativlik" ko'nikmasi kreativ fikrlash, muayyan iqtidor, yuqori darajadagi mutaxassislik, muayyan sohani chuqur egallaganlik hamda jamiyat e'tiborida bo'lish bilan uyg'unlashuvini talab etadi. Shunga qaramasdan, "Kichik kreativlik" yoki kundalik oddiy ijodkorlik (masalan, oilaviy rasmlarni ma'lum tartibda tuzib chiqish, qolgan mahsulotlardan mazali taom tayyorlash yoki ishdagi to'planib qolgan muammolarga ijodiy yechim topish kreativ fikrlashga qodir bo'lgan deyarli barcha odamning qo'lidan kelishi mumkin.

Kreativ fikrlash jamiyat miqyosidagi ta'sir doirasiga ega bo'lgan o'ziga xos soha hisoblanishi bilan birgalikda, biror kim ishonishi mumkin bo'lganidanda universal va umumlashgan hodisadir. Ya'ni, keng yoki nisbatan tor ma'noda olib qaralganda, har bir inson kreativ fikrlash imkoniyatiga egadir (OECD, 2017[3]). Bundan tashqari, psixologlar va o'qituvchilar orasida keng tarqalgan umumiy tushunchaga ko'ra, ijodkorlik bilan chambarchas bog'langan va fikrlash jarayonlarida ishtirok etish deb tushuniladigan kreativ fikrlash boshqa alohida bir qator fikrlash qobiliyatlarini takomillashtiradi. Jumladan, metakognitiv qobiliyatlarni o'zaro va shaxsiy muammoni yechish ko'nikmalarini, tenglik tushunchasini rivojlantirilishini, fanlarning o'zlashtirilishini, kelajakda kasbiy muvaffaqiyatlarga erishishni va jamiyat bilan uyg'unlashuvini yaxshilaydi (Begetto, 2010[4]; Pluker, Begetto va Dau, 2004[5]; Smit 2010[6]; Torrans, 1959[7]; Ijodiy va madaniy ta'lim bo'yicha milliy maslahat qo'mitasi, 1999[8]; Spenser va Lukas, 2018[9]; Long va Pluker, 2015[10]; Barbot, Lubart va Besankon, 2016[11]; Barbot va Hyuzer, 2017[12]; Gajda, Karvovski va Begetto, 2017[13]) (Higgins va boshq., 2005[14]).

Ta'limning asosiy roli o'quvchilarni jamiyatda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar bilan ta'minlashdan iborat. Lukas va Spenserning fikricha: "Kreativ fikrlash bugungi yoshlarning rivojlanishlari uchun kerakli kompetensiya hisoblanadi.

Bu ularga globallashuv sharoitida jadallik bilan o'zgarib borayotgan, savodxonlik va raqamlash ilgari surilgan hamda "21-asr" ko'nikmalariga ega moslashuvchan ishchilarni talab qiladigan dunyoga moslashishga yordam beradi. Kreativ fikrlashni o'rgatish bugungi kun o'quvchilari va yoshlariga dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalardan foydalangan

holda hali yaratib ulgurilmagan sektorlarda yoki vazifalarda ishlash, shu bilan birga mashinalar bajara olmaydigan ishlarni osonlikcha amalga oshira olish hamda murakkab mahalliy va global muammolarning yechimini topish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlikni shakllantirish - nachal
HYPERLINK

"https://kopilkaurokov.ru/nachalniyeKlassi/prochee/boshlangich_sinf_oqituvchilarida_kreativlikni_shakllantirish?ysclid=181fftyhjn31120251" Ыные классы, prochee (kopilkaurokov.ru)

2. Sanobar JUMANOVA. Noodatiy fikrlash mahorati yoxud kreativlik qanday shakllantiriladi? - Ma'rifat – Uchitel' Uzbekistana (marifat.uz) 5 / 07 / 2019

3. Imailov A. [va boshq.]. Kreativ fikrlashni baholash. Qo'llanma[Matn]: o'qituvchilar va o'quvchilar uchun/ Toshkent: "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi", 2021-yil. – 92 bet.

4. Ismailov A. [va boshq.]. Kreativ fikrlashni baholash. Qo'llanma[Matn]: o'qituvchilar va o'quvchilar uchun/tuzuvchilar guruhi Toshkent: "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi", 2021-yil. – 92 bet.

5. Lucas, B. and E. Spencer (2017), Teaching Creative Thinking: Developing Learners Who Generate Ideas and Can Think Critically., Crown House Publishing, https://bookshop.canterbury.ac.uk/Teaching-Creative-Thinking-Developing-learners-who-generate-ideas-andcan-think-critically_9781785832369 (accessed on 26 March 2018).

6. Kreativ fikrlashni baholash. Qo'llanma[Matn]: o'qituvchilar va o'quvchilar uchun/tuzuvchilar guruhi A. Ismailov [va boshq.]. Toshkent: "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi", 2021-yil. – 92 bet.

7. Umida Muminova Qarshiyevna. Central Asian Journal of Social Sciences and History (ISSN: 2660-6836. Linguistic Views Of Mahmud Kashgari.

8. Muminova Umida Karshievna INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE" Ankara, Turkey 2023 46 PHYTONYMS IN THE WORK "MAHBUB UL -QULUB".

9. U.M. Karshiyevna. Linguistic Views of Mahmud Kashgari. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY 3 (12), 336-340

10. M.U. Qarshiyevna. Lexical-Grammatical Characteristics of the Noun in Ancient Turkish Language Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal 2 (1), 389-394

11. U.M. Karshiyevna. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarining pedagogika tarixida tutgan o'rni.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MANTIQUIY FIKRLASH QOBILYATINI SHAKLLANTIRISHDA MATEMATIKA FANINING AHAMIYATI

*Ibodot Tursunova. TerDPI talabasi
Abbos Xabibulloyev. TerDPI o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy fikrlashga o'rgatish va bu borada matematika fanining o'рни hamda o'quvchilarning ko'proq masalalar ishlash natijasida tanqidiy fikrlashining o'sishi va mustaqillikka erisha olishi haqida.

Kalit so'zlar: Matematika, boshlan'ich ta'lim, o'quvchi, matematik masalalar, mantiqiy fikrlash, qonun, milliy o'quv dasturi, erkin fikrlash, aniq fanlar, maktab, shakllar,

Hozirgi davrda mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim maktablarida, ayniqsa boshlang'ich ta'lim tizimida o'z o'рни va ko'lami jihatidan qaraladigan bo'lsa nihoyatta katta o'zgarishlar amalga oshirilganini ko'rish mumkin.

So'nggi yillarda ta'lim sohasining barcha bo'g'inlarini zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda tashkil etish bo'yicha qator, farmon va qonunlar qilinmoqda. Bularning barchasiga sabab bo'lgan eng katta omillardan biri bizning milliy o'quv dasturimiz xalqaro talablarga va chet elning e'tiborga tushgan ta'lim jarayonlarining natijalariga tenglasha olmasligi edi. Bugungi rivojlanayotgan davrda maktab darsliklarida bolalarni mantiqiy hamda tanqidiy fikrlashga chorlovchi rasmlar asosida tuzilgan misol va masalalar bilan boyitish ayni paytda amalga oshirilayotgan jarayonlarning biri bo'lib kelmoqda. Muhtaram prizidentimiz Shavkat Mirziyoyevning matematika haqidagi fikrlari ham juda chiroyli keltirilgan. "Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni bilgan bola aqilli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi". Rostdan ham matematikani bilgan bola qolgan fanlarni ham be'malol o'zlashtira oladi. Ma'lumki, matematika fani inson aqlini charxlaydi, diqqatni to'plashga yordam beradi, hayotda ko'zlangan maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalaydi. Algoritmik tarzda tartib-intizomga o'rgatadi va eng muhimi bolani fikr mulohaza yuritishga undaydi uning dunyoqarashini yanada kengaytirishda katta ta'sir ko'rsatadi. Matematik ong bog'cha davridan shakllangan bo'ladi. Bola gapirishni boshlar boshlamasdan undan yoshing nechada deb so'raymiz. Bola bo'lsa, barmoqchalari orqali bizga yoshini aytishga harakat qila boshlaydi uning matematika bilan tanishuvi shu tariqa yuzaga keladi va uni butun hayoti davomida matematika tark etmaydi. Shu o'rinda Matematikaga shunday ta'rif berib o'tsak bo'ladi, matematika-raqamlar fazoviy jismlar turli ko'rinishdagi shakllar hamda sonli munosabatlar

haqidagi fandır. Matematika qadimgi grekcha soʻzdan olingan boʻlib fanlarni bilish deb ham yuritiladi. "Matematikani oʻrganish taʼlim tizimida katta rol oʻynaydi, insonning kognitiv qobiliyatlarini, shu qatorda mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi...". Bularning barchasi hozirgi rivojlanayotgan bir paytda nafaqat yaxshi maʼlumotga ega va keng fikrlaydigan mutaxassislarining mavjudligini nazarda tutadi. Mantiqiy savodxonlik, boshqacha qilib aytganda har qanday intellektual faoliyatda zarur boʻlgan maʼlum bir minimal mantiqiy koʻnikma va bilimdir.

Boshlangʻich sinf oʻqituvchilari balki boshqa oʻqituvchilar ham oʻquvchiga nafaqat bilim, koʻnikma balki tajribalarini ham ular bilan ulashib hayotda ularni qay oʻrinda qoʻllay olishni oʻrgata bilishi kerak. Agarda oʻquvchilarning yosh xususiyatiga moslab mantiqiy masalalar berilsa, ularda ijodkorlik, hayotiylik, maqsadga intilish, mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Taʼlim sohasida aynan birxillikdan birovga taqlid qilishdan voz kechish lozim. Aynan boshlangʻich maktab yoshida psixologlarning tadqiqotlari natijasida oʻxshashlikdan voz kechgan holda nostandart yondashish kerakligini taʼkidlab oʻtganlar. Boshlangʻich sinfda asosan aqliy faoliyatni rivojlantirish ustuvor ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunda matematika fanining oʻrni beʼqiyosdir.

Boshlangʻich maktabda matematika taʼlimi oʻquvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga. Oʻz fikrlarini mustaqil bayon qila olish. Egallagan bilimlarini hayotga tadbiq qilish hamda taʼlimning ikkinchi bosqichida oʻqishni davom ettirish uchun matematik tayyorgarlikni taʼminlashga xizmat qiladi. Matematikani oʻqitishning tarkibiy qismi bu masalalar yechishdir. Masalalarni yechmasdan matematikani tasavvur qilib boʻlmaydi. Matematika darsida asosan masalalarni yechish ularni amaliyotda yaʼni tajribada qoʻllay olish bu oʻquvchidan anchagina aqliy mehnat talab qiladi, lekin oʻquvchining mantiqiy fikrlashi kengayishiga katta taʼsir koʻrsatadi. Matematikada quruq nazariy bilimlar, uning tadbiqlarisiz uzoqqa bora olmaydi. Sodda va murakkab masalalar bilimlarni oʻzlashtirishga va yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Matematik masalalar bilan bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish foydali usul hisoblanib, odatda oʻz ichiga "yashirin informatsiya"ni oladi. Bu oʻrtaga qoʻyilgan muammoni hal etishda masala yechuvchidan taklif, tahlil va sentiz mustaqil murojat qilish faktlarni taqqoslash va ularni bir joyga umumlashtirish va hakazolarni talab qiladi. Bolalarda masalalarni yechishga yanada qiziqish ortadi va mustaqillik, maqsadga intilish, talabchanlik, mehnatsevarlik kabi xislatlarni rivojlantiradi. Matematikada bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda yuqorida koʻrib chiqqanimiz kabi masalalar katta ahamiyat kasb etarkan oʻquvchilarning fikr doirasi kengayishiga ham yordam berar ekan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki matematika oʻqitishning birinchi vazifasi oʻquvchilarda fikrlashda faollikni oshirish, hayot yoʻllarida

uchraydigan xilma xil masalarni yechishda to'siqlardan o'ta olish, bu masalarni yechishda yanada yangi usullar yarata olishlikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. SOROS xalqaro ochiq jamiyatining „Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari“

2. M.Jumayev, Z. Tadjiyeva „ Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" . Toshkent 2005

A. Qo'chqorov, Sh. Ismailov „ Mantiqiy masalalar". Toshkent 2008

3. Olloqulova F. U. TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TAVSIFI. Tadqiqotlar, 6 (2), 336-339. – 2023.

4. Olloqulova F. U. Ulasheva A., Olloqulova F.

5. TA'LIMIDA TIZIMIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI //Models and methods in modern science. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 40-44.– 2023.

6. Bosimova M., Olloqulova F. MUAMMOLI METODLAR VOSITASIDA O 'QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH //Models and methods in modern science. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 11-13

7. Оллоқулова Ф. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadqiqotchilik faoliyatini konsentrizm asosida shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 10/S. – C. 128-134.

8. Bozorov Zokir Yuldosh oglu, Khabibulloyev Abbas Odil oglu, Turakhanov Jakhongir, Otaganova Umida Egamberdi qizi. General Formula for Calculation of Dimensions and Surfaces of Some Geometric Figures//INTERNATIONAL JOURNAL ON ORANGE TECHNOLOGY e-ISSN: 2615-8140 | p-ISSN: 2615-7071 Volume: 4 Issue: 6 |Jun 2022 44-46

9. Bozorov Zokir Yuldosh oglu, Khabibulloyev Abbas Odil oglu, Turakhanov Jakhongir Utkir oglu, Otaganova Umida Egamberdi qizi

10. Planimetry as a Structural Component of Structure for Professional Training of a Future Teacher of Mathematics//International Journal on Integrated Education. e-ISSN : 26203502 p-ISSN : 26153785 Volume 5, Issue 6, Jun 2022 78-80

2022

MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR IJTIMOIYLASHUVINING NAZARIY ASOSLARI

TerDPI o'qituvchisi
Abdunazarova ZaynabAlmurod qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilar ijtimoiylashuvining nazariy asoslari va jamoaviy munosabatlarda ijtimoiy xulq-atvor madaniyatini shakllantirish haqida fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: jamoa, ijobiy fazilat, jamiyat, salbiy munosabat, ta'lim, tarbiya, xulq-atvor, faoliyat, odob-axloq.

Ta'lim muassasalarida yosh avlodni tarbiyalash muayyan harakatlar majmui yoki katta avloddan yosh avlodga tajribani bir tomonlama yo'naltirish sifatida ko'rib chiqilishi mumkin emas, balki u kattalar va bolalarning birgalikdagi hayoti sohasidagi o'zaro munosabati va hamkorligi sifatida qaralishi muhimdir. Bu o'z davridagi boshqa odamlar orasida alohida hayot kechirayotgan bolalar va kattalarning yaxlit manzarasida aks ettirilgan faoliyatdir. Insonga o'zining yaxlitligi, kosmo-bio-ijtimoiy-madaniy, tarixiy aniq, ma'naviy faol mavjudot sifatida qarash tendensiyalari mavjud. Bunday sharoitda esa pedagogik voqelik tobora murakkablashib boradi, uning doirasida har bir kishining eng muhim kundalik vaziyatlarda ustunligini ta'minlaydigan shunday tarbiyaviy ta'sir zarur.

Ijtimoiy-madaniy nuqtai nazardan yosh avlodni tarbiyalash muammosiga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar turlichadir.

Pedagogika konsepsiyasiga muvofiq, pedagogik qo'llab-quvvatlash bola bilan birgalikda to'siqlarni yengib, uning qiziqishlari va imkoniyatlarini belgilaydi. Pedagogik qo'llab-quvvatlash deganda, ichki erkinlik, ijodkorlik, demokratiya va kattalar-bolalar munosabatlarining insonparvarligiga asoslangan ta'lim madaniyati tushuniladi. Ba'zi mualliflar bu jarayonni ijtimoiylashuv bilan cheklab, uni yo'naltirilgan harakatlar sifatida, odamlar ongli ravishda kerakli fazilatlarini va xususiyatlarini singdirishga harakat qiladilar deb belgilaydilar. Boshqalar esa shaxs tarbiyasini "sub'yektivlikka ko'tarilish" sifatida ko'rishadi.

Ba'zida biz odamlarning jamiyatga tashqi moslashuvi haqida gapiramiz, ko'pincha shaxsning zaruriy imkoniyatlarini amalga oshirish, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi gumanistik munosabatlar turini taklif qilishdir. Ba'zi pedagoglar uchun bola bilan ishlash ko'plab o'quv vazifalarini hal qilish jarayoni bo'lsa, boshqalari uchun shaxsni rivojlantirishdir.

Ushbu holatlarni inobatga olgan holda, biz shaxsni jamoaviy tarbiyalashni madaniy-tarixiy jarayonning bir qismi sifatida umuminsoniy qadriyatlar va madaniyat ideallariga ko'tarilishining ta'minlanishini ko'rib chiqamiz. Bunday holda madaniyatshunoslik orqali yondashuv talab etiladi. Mazkur yondashuv shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishga qodir bo'lgan sub'yektga ta'lim berishini ta'minlaydigan yetakchi tendensiyaga aylanishi kerak.

Aytilganlar asosida shaxsning ijtimoiy-madaniy rivojlanishining asosiy shartlari bizning tushunchamizga ko'ra ta'lim-tarbiyaning maqsad, vazifalarida mujassamlashgan g'oyalar va qadriyatlar pedagogik hodisalarni tahlil qilishda asosiy bo'g'inlardan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida aks ettirilganlar uning mohiyati va tavsifi haqida fikr yuritishga imkon beradi. O'z navbatida, ijtimoiy va qadriyat mo'ljallari uning umumiy yo'nalishini ko'rishga imkon beradi. Qadriyatli yondashuv ta'lim muammolarini pedagogik jarayonni insonparvarlashtirish vazifalari pozitsiyasidan va avlodlar o'rtasidagi chinakam insoniy munosabatlarning xususiyatlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqishga imkon beradi. Bolalikka kelsak, idealni shakllantirishning tugallangan jarayoni haqida gapirish mumkin. Bu yoshda ular endi shakllana boshlaydilar, ular

shakllanish jarayonida bo'ladilar. Shu bilan birga, kichik maktab yoshida shaxsning asosi, poydevori shakllanadi. Ushbu muammoning murakkabligiga qaramay, bolalar o'zlarining his-tuyg'ularining chuqurligi, axloqiy g'oyalar va tushunchalarni tushunishi bilan barchani hayratda qoldirishdan to'xtamaydilar. Nazariya va amaliyot shuni ko'rsatadiki, bolalarning potentsiali ularga jamiyatning ma'naviy madaniyati va tarbiya jarayoni o'rtasidagi munosabatni belgilaydigan axloqiy me'yorlarni tushunishga hamda qabul qilishga imkon beradi. Bugungi kunda ushbu me'yorlar bolalarning insonparvarlik, vatanparvarlik va fuqarolik tamoyillari, ekologik madaniyat, jamoachilik, do'stlik, o'zaro yordam va boshqa axloqiy holatlar haqidagi tasavvurlarini aniqlaydi.

Bolalarning idealga intilishlarini aniqlash kelajakka bo'lgan munosabatdir, garchi kelajakning tasviri nafaqat ideallarni, balki bolaning atrofdagi voqelikni idrok etishini aks ettirsa, unda uning hozirgi va ertangi kun qadriyatlarini, ehtiyojlari, umidlari diqqat markazida bo'ladi. Kelajak haqidagi tasavvur yosh avlod tomonidan qilinadigan ijtimoiy bashoratdir. Ushbu bashorat tahlili shundan dalolat beradiki, ijtimoiy-madaniy vaziyatning rivojlanishi har bir kishining bolaligidan tarbiyalanishi kerak bo'lgan shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Bolada bag'rikenglikni tarbiyalash – boshqa kishining turmush tarzi, xatti-harakati, his-tuyg'ulari, qarashlari, g'oyalariga nisbatan bag'rikenglikni tavsiflovchi umuminsoniy sifatdir. Bag'rikenglik o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, shaxsga ma'lum bir jamoaga mansubligini anglashga yordam beradi, milliy madaniyat qadriyatlarini (til, urf-odatlar, adabiyot, san'at, din), shuningdek, boshqa millatlarning madaniy qadriyatlarini o'zlashtirishga imkon beradi. Ushbu fazilat odamga umume'tirof etilgan faoliyat usullarini, muloqotni egallashga yordam berib, o'zi va boshqa odamlarning tajribalarini, intilishlarini, ehtiyojlarini munosib aks ettiradi. Masalan, tajovuzga tajovuz bilan javob bermasdan, balki o'zaro tushunishni, murosaga kelgan holda nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishga harakat qilishlikdir.

Shaxsning bag'rikengligi – boshqa odamni tinglash va eshitish qobiliyati jarayonida, kelishilgan yoki e'tiroz bildirish, bir xil masala bo'yicha turli nuqtai nazarlarning mavjudligini e'tirof etish orqali rivojlanadi. Bag'rikenglikni rivojlantirishning usullaridan biri muloqotdir. Mualliflar tomonidan ko'rib chiqilgan muloqot pedagogikasi istalmagan xatti-harakatlarning oldini olish, vaqtni kechiktirish, qanday qilsa yaxshiroq bo'lishi haqidagi tinch muhokamani o'z ichiga oladi. Kattalarning asosiy vazifasi bolalarning erkin va xavfsiz xatti-harakatlari uchun sharoit yaratishdir.

Ong va hayotiy faoliyatning kollegialligi. Kollegiallik – zamonaviy tinchlikparvarlik aspektlaridan biri bo'lib, biz uni shaxs va jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi sharoitida ko'rib chiqamiz. Kollegiallikning mohiyatini aks ettiradigan izlanishlarda g'oyalar faqat odamlarning yaqin birligida erishilgan tinchlik va muhabbat sintezidan iborat. Xususan, V.V.Zenkovskiy kollegiallikni ruhiy birlikdagi ma'lum bir ijtimoiy birlik sifatida

ochib beradi. Kollegiallik, uning fikricha, odamlarni jamoaviy ongining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan yangi voqelik, jamoaviy ma'naviy tamoyilning paydo bo'lishidir. Kollegiallikning tabiiy shakli sifatida jamoa, oila, sheriklik, mehnat jamoalari va boshqa birlashmalar beriladi. Masalan, oila – muhabbat va bir-birini tushunish hukmronlik qiladigan kollegializmning tabiiy shaklidir. Xuddi shunday oilalar ma'naviy kuch, o'ziga xos voqelik shaklida jamiyatning paydo bo'lishi bilan belgilanadi, bu odamni boshqalardan ajratib bo'lmaydigan, ammo aksincha, u yoki bu ma'noda ularga bog'liq bo'lgan ma'nolarni ochib beradi.

Kollegializmning vujudga kelishi, O. Solnsevaning fikriga ko'ra, shaxslarni yangi ijtimoiy birlashishga qo'shilish muammosi faqat muhabbat va o'zaro tushunishda bo'ladi. Shuning uchun oila kollegiallikning tabiiy shakldagi ko'rinishidir.

Axloqiy qadriyatlar – adolat va sheriklik munosabatlariga asoslangan haqiqiy jamoa, ma'lum ma'noda yaxshi oila vazifasini bajaradi, chunki u har bir kishini qadrlaydi, har bir kishining o'ziga xosligini hisobga oladi, uning shaxsiyatini hisobga oladi. Bola shaxs sifatida yaxlitning bir qismidir, u asta-sekin rivojlanib, ijtimoiy axloqiy qadriyatlarni o'zlashtiradi, kattalarning yo'naltirilgan rahbarligi ostida do'stlik, o'zaro yordam va o'zaro tushunish tamoyillariga asoslangan jamoaga, bolalar uyushmasiga aylanishi mumkin bo'lgan jamoalarga qo'shiladi.

Ijodkorlik. V. A. Suxomlinskiy ijodkorlik biror yangi narsa yaratadigan kishining qandaydir faoliyatidir, deb aniqlagan. Bunday qarash ijodkorlikning shaxsga xos xususiyat sifatida tavsiflaydi, u shaxsdan tashqarida bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatadi. Shaxsning o'ziga xosligi, originalligi ijodkorlikda namoyon bo'ladi, uning bilish va rivojlanishiga yo'l ochadi. Muammo, fikrimizcha, tushunarsiz tabiatda biron-bir ijodiy moyillik mavjudligida emas, balki unda nima yotganligini aniqlash uchun qanday shartlar mavjudligidadir. Agar individuallik insonda ijodiy kuch sifatida mavjud bo'lsa, o'ziga to'liq ishonchni sezsa, unda haqiqatan ham ijodning yashirin kuchi mudroq bo'lgani holda ruhiy rivojlanishda faol harakatlantiruvchi vosita bo'lmasligi mumkin. Darhaqiqat, ko'pincha shaxslarning ijodiy kuchlarini hayotga jalb qilishda qiyinchiliklarga duch kelinadi, chunki ular o'zlarini u yoki bu sababga ko'ra namoyish etmaydilar, bu ularda hech qanday qiziqishning yo'qligi natijasidir. Amaliyotda shunday holatlar mavjudki, kutilmagan bolalar tomonidan kelajakda olamshumul kashfiyotlar qilinganligi haqidagi dalillar mavjud.

Oddiy odamning rivojlangan shaxsga aylanish istiqbollari hech kimga sir emas. Aslida har bir inson hayotdagi asl original hodisadir, chunki u takrorlanmas yo'li orqali o'z ma'naviy va axloqiy tajribasini tushunadi va uni xuddi shu tarzda o'zgartiradi. Bir bola yaxshi chizadi, boshqasi she'r o'qiydi, uchinchi bolalar bilan do'stona o'yin tashkil qiladi, kimdir o'z ishtiyoqi, tashkilotchilik qobiliyatini boshqalarga yuqtiradi. Har bir shaxs o'zining individual xususiyatlarini aniqlagan holda faoliyat, munosabatlardagi o'ziga xosligini ochib beradi. Pedagog uchun shaxsni anglash nostandart vaziyatlarni

tashkil qilishda va unda ta'lim oluvchini diqqat bilan kuzatish orqali ochiladi. Biror kishining umumiy ishga shaxsiy ijodiy hissasini qo'shishi uning ijtimoiy rivojlanishdagi holatini o'zgartiradi, ayni shaxsning rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'rinova F.O'. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda nutq madaniyatini rivojlantirish pedagogik asoslari.: Avtoref. dis. ... ped. fan. nom. – T.: O'zPFITI, 2007. – 22 b.

2. Qosimova Z. Ta'lim texnologiyalari. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – T.: Tafakkur qanoti, 2014. – 208 b

3. Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti,

4. 4.Дахин А.Н. Педагогическое моделирование и компетентность участников образованиуа // Школьные технологии. – Москва, 2007. – № 6. – С. 64-73.

5. Zaynab Abdunazarova. (2022). WAYS AND METHODS OF USING ROLE-PLAYING GAMES IN MOTHER TONGUE CLASSES FOR THE SOCIALIZATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(12), 85–90.

6. Abdunazarova, Zaynab Almurod Kizi (2021). IMPORTANCE OF THE PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL USE OF STORY ROLE-PLAYS IN PRIMARY SCHOOL AT NATIVE LANGUAGE LESSONS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (11), 760-766.

7. Z.A.Abdunazarova. THE PLOT- THE ESSENCE OF ROLE-PLAYING GAMES AND THEIR ROLE IN TEACHING MOTHER TONGUE LESSONS In Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) May, 2022/5/26 1239-1244Vol 3 No 5 (2022): wos

8. Shabbazova, D., Abduhalimova, Y., & Abdunazarova, Z. (2022). Psychological And Pedagogical Factors Of Developing Literacy Of Primary Class Students Based On Personal Value Approach. Journal of Positive School Psychology, 6(9), 3707-3712.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGINI O'RGATISHNING MAZMUNI VA VAZIFALARI

*Almanova Dilafruz Tojinorovna
TerDPI talabasi*

Annotatsiya: Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarda mavzularga oid topshiriqlar tizimini tashkil etishdan iborat. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ona tili va o'qish savodxonligini o'rgatishning mazmuni va vazifalari eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi yuqidagi maqolada shular haqida qisqacha bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: ona tili va o'qish savodxonligi, o'quvchilar yozma nutqini rivojlantirish yo'llari, metodikasi, o'quvchilar faolligini oshirish,

mashqlar tahlili, belgilangan talablar, ta'lim sifati, boshlang'ich sinf o'quvchilari.

Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ularda mantiqiy, tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek jamiyatda doimo yuqori ma'lumotli, ijodkor, tashabbuskor, yangicha fikrlash qobiliyatiga ega, mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir insonlarga muhtoj. Umumiy ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash sifatini oshirish bo'yicha jiddiy vazifalar turibdi. Maktabning asosiy vazifalaridan biri – boshlang'ich sinf o'quvchilarning har tomonlama bilimli, ravon nutqli, ongli, savodli va xulq-atvorli qilib tarbiyalash hamda o'quvchilarning dunyoga yaxlit, o'zaro bog'liq bo'lgan qarashlarini shakllantirishdan iborat.

Insoniy kamolotni ta'minlashda o'quvchilarning o'z ishtiroki ularning bilim olish va tarbiyalanish yo'lida bevosita qatnashishi masalasi yangilanayotgan milliy pedagogikada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buning uchun ta'lim va tarbiya jarayonida qatnashayotgan har bir bolaning ongli ehtiyoji va ichki qiziqishini uyg'otish talab qilinadi. Boshlang'ich ta'lim tizimi o'quvchilarida mustaqil ishlashni shakllantirish bobida ona tili va o'qish savodxonligi darslari barcha o'quv fanlari orasida o'ziga xos o'rin tutadi. Yosh avlodning ma'naviy kamoloti ko'p jihatdan ularni mustaqil ishlashga o'rgatish jarayonining samaradorligiga bog'liq.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida ko'proq o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularga yangi tushuncha, ya'ni Davlat Ta'lim Standartlaridagi birinchi komponent bilim berishga e'tibor berilmoqda. Shu yo'nalishga qaratilgan turli xil zamonaviy usullardan foydalanish shakllari tavsiya etilmoqda. Davlat ta'lim standartini bajarish O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan mulkchilik shakli va irodaviy bo'ysunishidan qat'iy nazar barcha ta'lim muassasalari uchun muhimdir. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartining o'quv rejasi – Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tayanch o'quv rejasi davlat ta'lim standartining tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim sohalarini me'yorlashga hamda maktabning moliyaviy ta'minotini belgilashga asos bo'ladigan davlat hujjatidir. Tayanch o'quv rejasi o'quv predmeti bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini o'quvchiga etkazib, ajratilgan o'quv soatlarining minimum hajmdagi miqdorini ifodalaydi. U har bir soatda muayyan o'quv predmeti bo'yicha davlat ta'lim standartiga muvofiq beriladigan ta'lim mazmunini aniqlashga asos bo'ladi.

Ta'lim-tarbiyada bu jarayonning mustaqillik darajasini nazorat qilish, uni farqlash hamda rivojlantirish-o'qituvchining vazifasi. Buning uchun o'qituvchidan ziyraklik, ta'lim jarayonining har bir bosqichida har bir o'quvchi shaxsi, intellektual salohiyati, intilish va qiziqishlarini bilish talab qilinadi.

Yulduz Anorqulovanning "Boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida o'zbek tili orqali milliylikni shakllantirish" mavzusida yozgan magistrlik dissertatsiyasida aynan o'zbek tili orqali milliylikni shakllantirish orqali boshlang'ich sinf

o'quvchilarda axloq-odob tushunchalari ham singdirib boriladi. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'rganayotgan matnlar orqali bevosita axloq-odob tushunchalari bilan to'qnash keladilar. Butun o'quv yili davomida ko'plab insoniy fazilatlarni farqlab oladilar va ushbu fazilatlarni o'zlarida mujassam etishga harakat qiladilar. Ko'plab maqol va matallarning mazmun-mohiyatini o'zlashtirib oladilar. Darslikda berilgan mashqlar, topshiriqlar, nasriy va she'riy asarlar bilan tanishadilar, ularda ko'tarilgan g'oyalar, insoniy fazilatlarni ulug'lovchi hikmatlar, hadislarini o'qiydilar, o'rganadilar.

Tilni o'rganish jarayonida o'quvchilarda boshqa ko'pgina o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan ko'nikmalar (predmetlararo ko'nikmalar)ni hosil qilish ustida ham ish olib boriladi. Pedagogikada bunday predmetlararo ko'nikmalarga analiz, sintez, abstraklashtirish (til hodisalarini fikran tasavvur etish), umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash kabilar kiradi. Ushbu ko'nikmalarni o'quvchilarda shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash ularning o'quv faoliyatini faollashtirishga, bilimlarini muvaffaqiyatli egallashlariga imkoniyat yaratadi. Ona tili kursidan hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar bilan predmetlararo ko'nikmalar, bir-biridan ajratilmagan holda o'quv-tarbiyaviy jarayonda shakllantiriladi. Beriladigan bilim va o'quvchilarda hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar maktab dasturlari va davlat ta'lim standartida qayd etilgan.

Boshlang'ich sinflarda o'rganish uchun tilni ongli egallashga va o'quvchilarda grafik va imloviy malakalarni shakllantirishga zamin bo'ladigan bilimlar tanlangan. Fonetika va grafika sohasida o'quvchilar so'zning tovush tarkibini, unli va undosh tovushlarning o'ziga xos xususiyatlarini, so'zda tovushning ma'noni farqlashdagi ahamiyatini to'g'ri tushunishga imkon beradigan bilimlarni o'zlashtiradilar, shuningdek, ularga so'zning tovush va grafik shakli o'rtasidagi nisbat (bog'lanish)ni ongli aniqlash, so'zni to'g'ri yozish imkoniyati yaratiladi.

Morfologiya sohasidan ham so'zni ongli o'zlashtirish, uni to'g'ri ishlatish uchun katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan bilimlar tanlangan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari 1-sinfdan boshlab so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe'l)ni har xil saviyada o'rganadilar. Sintaksisdan dasturga nutq birligi sifatida gap haqidagi, gapda so'zlamning bog'lanishi, bosh va ikkinchi darajali bo'laklar haqidagi bilimlar kiritilgan. So'zning morfemik tarkibi yuzasidan har bir morfemaning muhim belgilarini, ularning ahamiyati va so'zda bir-biriga ta'sirini boshlang'ich sinf o'quvchilari tushunadigan va so'zlarni to'g'ri yozishda foydalanishlari uchun zarur bo'lgan hajmda ma'lumot berilgan.

Dasturning „Grammatika, imlo va nutq o'stirish“ bo'limi har bir sinfdan quyidagicha qismlarni o'z ichiga oladi: „Tovushlar va harflar“, „So'z“, „Gap“, „Bog'lanishli nutq“. Asosiy mavzular bosqichli izchillik tamoyiliga asoslanib, har to'rt sinfdan o'rganiladi. Har bir sinfdan yetakchi mavzular ajratiladi. 1—2-sinfdan fonetika va grafikaga oid mavzularni o'rganishga katta o'rin beriladi,

chunki o'quvchilar o'qish va yozish jarayonini egallaydilar. 3-sinfda so'zning morfemik tarkibi va gapni o'rganish muhim hisoblanadi. So'z yasalishiga doir bilimlar asosida o'quvchilarda so'zning leksik ma'nosiga, undan nutqda foydalanishga ongli munosabat o'sadi. 4-sinfda so'z turkumlarini o'rganish birinchi o'ringa qo'yiladi (morfologik bilim chuqurlashtiriladi, otlam ing egalik va kelishik qo'shim chalarini, fe'llarning tuslovchi qo'shimchalarini to'g'ri yozish malakalari shakllantiriladi).

Bog'lanishli nutq ustida to'rt yil davomida grammatik va orfografik

materiallarni o'rganish bilan bog'liq holda reja asosida ish olib boriladi. Ona tili darslarida til hodisalari ma'nosi (semantikasi), qurilishi, vazifasi jihatidan o'rganiladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab

jam iyatni isloh qilish siyosatini kun tartibiga qo'ydi. Barcha sohalardagi kabi ta'lim sohasini isloh qilish siyosati ham izchillik bilan amalga oshirila boshlandi.

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standart ham mustaqillik davridagi tajribalar natijasi sifatida maydonga keldi. U boshlang'ich ta'lim darsliklari va metodik qo'llanmalarining yangi avlodini yaratishda dasturulamal vazifasini o'tamoqda

Xulosa o'rnida ta'kidlab o'tish mumkinki, boshlang'ich sinf ona tili mazmuni metodist olimlarning ko'p yillik kuzatishlari, tajribalari, tajriba natijalarining tahlili asosida takomillashtirilib kelinmoqda. Ayniqsa, ona tili o'qitishning amaliy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr O'RQ-637 son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi PQ-4623-sonli-Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risidagi qarori.
7. Behling O., Eckel N.L. Making sense out of intuition // Acad. Of Manag Executive. 1991. V. 5. № 1. P. 46-54.
3. Mitchell, P.D. The impact of educational technology: a radical reappraisal of research methods. [Электронный ресурс] / P.D. Mitchell. - Режимдоступа: <http://www.uwp.co.uk/bookdesc/mitchell.pdf>.
4. Shabbazova, D. (2022). CONTENT OF FACTORS DETERMINING THE EFFICIENCY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 630-636.
5. Dilfuza Shabbazova. (2022). MODEL OF PERSONAL VALUE FOR PRIMARY SCHOOL LITERACY LESSONS. European Scholar Journal, 3(5), 80-83. Retrieved from
6. Shavkatjonovna T. N. A Creative Approach to Teaching Geometry in the Primary Grades // International Journal on Orange Technologies. - 2021. - T. 3. - №. 9. - C. 48-53.

7.Ziyaqulova M., Ashurova S., Toshpulatova N. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING AQLIY SALOHİYATINI HAMDA KREATIVLIGINI OSHIRISHDA MENTAL ARIFMETIKANING O'RNI //Development and innovations in science. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 92-98.

8. Toshpulatova N., Almanova D. THE CONTENT AND TASKS OF TEACHING MOTHER TONGUE AND READING LITERACY TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 391-393.

9.Toshpulatova N. BOSHLANG 'ICH SINFLARDA O 'QUVCHILAR ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH TURLARI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – T. 2. – №. 8. – C. 77-83.

10.Ollokulova F. U. Value relationships in young people and the uniqueness of their decision making //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 9. – C. 373-376.

11.Olloqulova F. U. TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TAVSIFI. Tadqiqotlar, 6 (2), 336–339. – 2023.

12.Olloqulova F. U. TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TAVSIFI. – 2023.

13.Olloqulova F. U. Shodiyev. RD Qadriyatli munosabatlar va ularni ta'lim-tarbiya jarayonida shakllantirishdagi yondashuv tamoyillar //Jurnal nomi: QarDU xabarlar ilmiy, nazariy, uslubiy jurnal. – 2017.

14.Оллокулова Ф. Boshlang'ich sinf o 'quvchilarida tadqiqotchilik faoliyatini konsentrizm asosida shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati //Общество и инновации. – 2022. – T. 3. – №. 10/S. – C. 128-134.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA BUGUNGI KUNDA MATEMATIK SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH

*Boynazarova Nilufar Tilovmurod qizi
TerDPI 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikadan samarali ta'lim berilishi uchun o'qituvchi boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasini egallab, chuqur o'zlashtirib olmag'i lozim.

Kalit so'zlar: texnologiya, "matematik savodxonlik", , matematik reallikni, TIMMS

Respublikamizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab jamiyatni isloh qilish va yangilash jarayonining eng muhim bo'g'ini jamiyatdagi demokratik o'zgarishlarning, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning, respublikaning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining zarur va majburiy sharti sifatida ta'lim sohasini isloh qilish siyosati izchillik bilan

amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlodga uzluksiz ta'lim berish va uni tarbiyalash jarayonini yaxlit qamrab oladigan yagona ta'lim tizimi hisoblanadi. Ta'lim tizimining har bir bo'g'ini alohida o'ringa ega. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, „Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatlarga erisha oladi.“

1 Matematik savodxonlik nafaqat matematika darslarida, balki texnologiya, tabiiy fanlar, ingliz tili kabi boshqa o'quv fanlarini o'rganishda ham shakllanadi. Bizning maqolamizda biz o'z tajribamizni baham ko'rishga harakat qilamiz. Boshlang'ich sinflarda matematika darslari va boshqa fan yo'nalishlari orqali matematik savodxonlikni shakllantirish. O'quvchilarning funksional savodxonligini shakllantirish yangilangan ta'lim mazmunining asosiy vazifalaridan biri bo'lib, matematik savodxonlik esa umumiy funksional savodxonlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Vaqt “matematik savodxonlik” kompetensiyasiga ega bo'lgan maktab o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalashda yangicha yondashuvlarni izlashni taqozo etmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchisi savollarga javob olishi kerak: nima uchun menga matematika kerak? Ushbu bilimdan haqiqiy hayotda qanday foydalanishim mumkin? Shunday qilib, matematik savodxonlik - bu boshlang'ich sinf o'quvchisining matematikaning dunyodagi rolini aniqlash va tushunish qobiliyati; kundalik hayotda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun matematik bilimlarni qo'llash qobiliyati. Matematik savodxonlik nafaqat matematika darslarida, balki texnologiya, atrofimizdagi dunyo, ingliz tili kabi boshqa o'quv fanlarini o'rganishda ham shakllanadi. Bizning maqolamizda biz o'z tajribamizni baham ko'rishga harakat qilamiz. Matematika darslarida biz amalda o'zini isbotlagan allaqachon ma'lum bo'lgan texnika va texnologiyalardan faol foydalanamiz. Ammo matematika darsining turli bosqichlarida qoida muvaffaqiyatli ishlaydi: matematikaga chuqur yondoshish kerak, chunki boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar asosan sezgir (kublar yordamida qo'shish, ayirish, bo'lish). O'quvchilar modelga yondoshsin, matematikaga kirsin. Bu o'z natijasini beradi. Matematika darslarining asosiy vazifasi bolaning intellektual rivojlanishi bo'lib, uning muhim tarkibiy qismi og'zaki va mantiqiy fikrlashdir. Biz har kuni o'quvchilarga "To'plash uchun muammolar" ni taklif qilamiz: mantiqiy zanjirlar, sehrli kvadratlar, she'rlardagi vazifalar, jumboqlar, matematik topishmoqlar, krossvordlar, hisoblash tayoqlari bilan geometrik vazifalar. Bundan tashqari, ta'limiy yutuqlarni baholash xalqaro uyushmasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan TIMMS - matematika va tabiiy fanlar ta'lim sifatining xalqaro monitoring dasturini ham keltirish mumkin. Ushbu tadqiqot o'quvchilarning turli davlatlarda matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasi va sifatini solishtirishga hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga ko'maklashadi.

2 O'quvchilarning matematika bo'yicha savodxonligini oshirish ularga atamalar, tushunchalar, ko'nikma va tasavvurlar o'rtasida bog'lanishni o'rnatishga yordam beradi, matematika savodxonligini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Matematika darsining o'ziga xos

tomonlari, eng avvalo, bu o`quv predmetining xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bu xususiyatdan biri shundan iboratki, unda arifmetik material bilan bir vaqtda algebra geometriya elementlari ham o`rganiladi. Matematika boshlang`ich kursining boshqa o`ziga xos tomoni nazariy amaliy masalalarning birgalikda qaralishidir. Shuning uchun har bir darsda yangi bilimlar berilishi bilan unga doir amaliy o`quv malakalar singdiriladi. Taniqli olim J.Ikromov o`zining "Язык обучения математики" kitobida "Maktab o`quvchilarining matematik madaniyati shakllanishi bir necha davrga bo`linadi",-deb ta`kidlaydi. Birinchi navbatda ular ob`yektiv tushunchalarning birgalikda tashkil etadigan mazmuni —matematik reallikni aniqlab oladilar. Bunda ob`yektlarning aniqlik xususiyatlari bilan tarixiy jihatlar o`rtasidagi bog`liqlik alohida ahamiyat kasb etadi. Kundan kunga ma`lumot oshib borayotgan bilan tushunarli bo`ladiki bugungi o`quvchilarga kerak bo`ladigan narsalarni hammasini o`rgatib bo`lmaydi. O`zlashtirilgan ma`lumot juda tez eskirib qolmoqda, chunki har kuni yangi ma`lumotlar chiqmoqda. Fanda o`qitish nazariyasi ushbu fanni o`qitish bo`yicha metodik tizimlarning faoliyat qonunini ochib beradi. Metodika ularni tadbqiqini, texnologiya esa ushbu modelni amalga oshirish usullarini ishlab chiqadi.

"Individning turli kontekstlarda matematikani shakllantirish, qo'llash va sharhlash qobiliyati. Bu matematik fikrlash va hodisalarni tasvirlash, tushuntirish va bashorat qilish uchun matematik tushunchalar, protseduralar, faktlar va vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu shaxslarga matematikaning rolini tushunishga yordam beradi. dunyo va konstruktiv, faol va mulohazakor fuqarolar uchun zarur bo'lgan asosli qarorlar va qarorlarni qabul qilish."3 Talabalar professional matematiklar kabi muloqot qilishni o'rganishlari kerak va men ular javobning to'g'ri mohiyatidan qutula olmaydi deb o'ylayman, Biz ularning maktabni kollejdagi yoki o'z kareralarida professional matematiklar bilan to'g'ri muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'lishlarini xohlashimiz kerak. Aniq matematik tilni o'rganish qiyin va ba'zan zerikarli bo'lsa-da, bu juda foydali bo'lishi mumkin. Matematik tilni yaxshi biladigan o'quvchi uchun teoremlar ma'noga to'la. O'quvchilar so'zlarning paragraflari bilan ovora bo'lmasdan, undan ko'p narsani tushunishlari mumkin. Aniqlik bu sohada har bir kishi tomonidan tushunilishi mumkin bo'lgan qisqa mantiqiy dalillarni keltirish imkonini beradi. Chunki "savodxonlik ma'lum bir amaliyot 3 ." (OECD, 2018, 67-bet) 20 Murakkab ko'p bosqichli vazifa alohida vazifalar zanjiriga bo'linadi, ularning har birida bola muammoni hal qilish uchun qadam qo'yadi. Bunday vazifalar bolani muammo bilan ishlashning barcha bosqichlarida uni matematika tilida shakllantirishdan tortib, talqin qilishgacha bo'lgan yo'l-yo'riqni ko'rsatadi. Tizim har bir bosqichni etakchi savol bilan yakunlashga yordam beradi, turli variantlarni taklif qiladi yoki vizualizatsiyadan foydalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4387-sonli Qarori 2020-yil 7-may

2. Abdurahmonova N. Jumayev M, O'rinboyeva M. Boshlang'ich sinflar uchun matematikadan didaktik materiallar. O'quvchilar uchun metodik qo'llanma – Toshkent. Istiqol 2004-yil 152-bet 3. " (OECD, 2018, 67-bet

3. Muxtarova, L. A. (2021). Use of multimedia technologies in the educational process. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1781-1785.

4. Muxtarova, L. A. (2021). Ways of formation of ecological culture in children of primary age. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 648-652.

5. Abdimannabovna, M. L. (2021). Formation of the Ecological Culture of Schoolchildren in the Study of Natural Science. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 1(6), 73-76.

6. Мухтарова, Л. А. (2018). ПУТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ МУЛЬТИМЕДИА В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА И ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКОВ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Научные горизонты*, (11-1), 247-252.

7. Мухтарова, Л. А. (2018). РАЗВИТИЕ И ФОРМИРОВАНИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ШКОЛЬНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Гуманитарный трактат*, (24), 13-14.

8. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH SINFLARDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. *Апробация*, (2), 93-94.

9. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. In *НАУЧНЫЙ ПОИСК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ* (pp. 119-120).

10. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERNET VA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. In *Современные проблемы и перспективы развития педагогики и психологии* (pp. 47-49).

11. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие творческого мышления у школьников начальных классов. *Гуманитарный трактат*, (24), 9-10.

BOSHLANG'ICH SINF DARSLIKHLARI YARATISHNING JAHON HAMJAMIYATIDA SINALGAN KONSEPTUAL ASOSLARI

*Choriyeva Zulfiya Bahodirovna
TerDPI 2-bosqich magistrant*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan darsliklarimiz jahon andozalariga mos, darslik yaratish sohasida Davlat ta'lim standarti talablariga javob beradi, o'quvchining yosh xususiyatlarini, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini takomillashtirish, bilim va ko'nikma bilan qurollantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar:Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun darslik yaratishda darslikning ichki tuzilishi o'quv rejasi va boshqa turli me'yoriy hujjatlar talablariga mos kelishini ta'minlash uchun maxsus mezonlarni ishlab chiqish.

Boshlang'ich sinf darsliklari yaratishning xalqaro standartlari va asosiy mezonlari 4 guruhga bo'lib o'rganiladi:

1. Darsliklarni tayyorlash va nashr qilish.
2. Darsliklarni tanlab olish.
3. Darsliklarning o'quvchilarga taqsimlanish shart-sharoitlari.
4. Darsliklardan ta'limda foydalanish.

1959- yil Jenevada -Primary textbook¹⁰ mavzusida o'tkazilgan XXII xalqaro konferensiyada jahonning 69 davlati ishtirok etgan va har bir davlat o'zining boshlang'ich sinf darsliklarini yuqoridagi mezonlar asosida tavsiflab bergan. Unga ko'ra konferensiya tashkilotchilari unda qatnashayotgan 69 davlatning Xalq ta'limi vazirliklariga quyidagi savolnoma bilan murojaat qilgan.

Darsliklarni tayyorlash va nashr qilish bo'yicha:

1. Darsliklar kim tomonidan tuziladi? (yakka muallif tomonidanmi yoki saylanma organ? Ular ta'lim vazirligi tomonidan tayinlanadimi, yoki o'zlarining shaxsiy tashabbuslari sabab bu ishga kirishadimi?)

2. Maktab o'quvchilari foydalanishlari uchun yaratilayotgan darsliklarning nashr etilishini nazorat qiluvchi Nizom bormi?

3. Darsliklarni kim nashr qiladi? (davlatmi, ta'lim vazirligimi, xususiy nashriyotlarmi yoki boshqa tashkilotlarmi?) Davlat hisobidanmi, yoki mustaqil moliyaviy asosga egami?

4. Darslik mualliflari yoki ularni nashr qiluvchi nashriyotlar o'rtasida darslik tarkibini yaxshilash bo'yicha raqobat ko'zga tashlanadimi?

5. Darsliklar o'quvchilarning hududiy an'analari asoslangan holda o'z ona tilida yaratiladimi?

6. Darsliklarda xalqaro, diniy, irqiy va ijtimoiy tushunchalarga zarar yetkazuvchi har qanday elementlarni kiritishni oldini olish uchun qanday ehtiyot choralari ko'rilgan?

7. Darsliklarda bugungi kun holati va ilm-fan taraqqiyotini to'laqonli aks ettirishi uchun yetarli darajada tezlikda qayta ko'rib chiqish uchun qanday qadamlar qo'yilgan?

8. Darsliklar o'rtacha hisobda qancha muddatda qayta nashr qilinadi?

9. Darslikning ichki tuzilishi o'quv reja talablari va boshqa turli xildagi me'yoriy hujjatlarga mos kelishini ta'minlash uchun maxsus mezonlar ishlab chiqilganmi?

10. Darslikdagi shakl va illustratsiyalarning bevosita ta'lim jarayoni mazmuni va o'quvchilarning yoshiga mos kelishini ta'minlash masalasida qanday ishlar olib borilgan?

¹⁰ XXIInd INTERNATIONAL CONFERENCE ON PUBLIC EDUCATION. GENEVA – 1959.

11. Estetik nuqtayi nazardan darslik yaratishda foydalaniladigan printer tipi, illustratsiya va prezentatsiyalarga muayyan bir rasmiy talablar qo'yilganmi?

12. Har bir fan uchun alohida darslik yaratilganmi yoki bitta darslik hamma fan mazmunini o'zida aks ettiradimi?

13. Darslik oxirgi nashrga berish oldidan sinov maktablarida tajribadan o'tkaziladimi?

Ushbu savolnoma yuzasidan to'plangan ma'lumotlarni statistik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, dunyoning taxminan 2/3 qismidagi davlatlarda boshlang'ich sinf darsliklari yakka va jamoaviy ishlaydigan xususiy mualliflar tomonidan o'zlarining tashabbusi asosida tuziladi. Shuningdek, dunyo mamlakatlarning chorak qismida yangi darslik yaratish tashabbusi ta'lim vazirliklari yoki boshqarmalari zimmasiga tushadi va yangi darslik tuzishga ehtiyoj tug'ilganda ushbu vakolatli davlat ta'lim tashkilotlari yangi darsliklar yaratishni o'zining maxsus qo'mitalari yoki soha mutaxassislaridan tuzilgan guruhga topshiradi hamda shu orqali darslik yaratish tizimini boshqaradi.

Dunyoning uchdan bir qismidan kamroq mamlakatlarda esa yuqoridagi ikki usul aralash holatda kuzatiladi.

Bu savollarni berishdan maqsad, darsliklar tizimini yaxshilash uchun biz avvalo, hamma uchun umumiy bo'lgan ushbu savollarga javob topishimiz kerak.

Buning uchun o'z darsliklarimizni jahon standartlariga mos kelish-kelmasligi, darslik yaratish sohasida biz e'tibor bermayotgan jihatlar nimada ekanligini chuqur tahlil qilib chiqishimiz darkor. Ta'lim tizimimizni rivojlantirish malakali mutaxassis va sifatli darslikka bog'liq ekanligini hisobga olsak, sifatli o'qituvchi tayyorlashdan ko'ra, sifatli darslik yaratish osonroq ish ekanligi¹¹ni tan olishimiz kerak. Va albatta, maqsadga erishish uchun faqatgina balandparvoz gap bo'lib qolayotgan - sohaga yetuk kadrlar tayyorlaymiz|| masalasini bir chetga surib, bundan osonroq bo'lgan usul - sifatli darslik yaratish ustida bosh qotirish bizni marraga tezroq yetkazishi haqida o'ylab ko'rishimiz kerak. Biz sifatli darslik yarataylik, o'qituvchilarning o'zi o'sha darslikdan foydalanish uchun ham o'z ustida ishlaydi. Qolaversa, agar darslik biz kutgan darajada sifatli bo'lsa, uni o'rganish uchun o'qituvchiga muhtojlik sezilmaydi, o'qituvchilarning o'zida ham ushbu darsliklar bilan mustaqil ishlash imkoniyati paydo bo'ladi. Zero, jahon darsliklari bo'yicha yetuk mutaxassis, avstriyalik doktor Richard Bamberger aytganidek: - We cannot change the attitudes and ways of one hundred teachers overnight. However, you can change one million textbooks||.¹²Bu jumlaning O'zbek tiliga tarjima qilsak, quyidagi ma'no kelib chiqadi: - Biz yuzta o'qituvchining (ta'lim berish) usullari

¹¹ ARNO REINTS, Iartem board member. Member's word. IARTEM (International Association for Research on Textbooks and Educational Media) 1991-2016. 25YEARS DEVELOPING TEXTBOOK AND EDUCATIONAL MEDIA RESEARCH. France – 2019. 56 – 410.

¹² Jesús Rodríguez Rodríguez, Tânia Braga Garcia, Eric Bruillard. IARTEM (International Association for Research on Textbooks and Educational Media) 1991-2016. 25YEARS DEVELOPING TEXTBOOK AND EDUCATIONAL MEDIA RESEARCH. France – 2019. 21 – 10.

va (ta'limga) munosabatini birdaniga o'zgartira olmasligimiz mumkin, lekin siz millionlab darsliklarni o'zgartira olasiz!||

Shu o'rinda Milliy darsliklarimizning qanday yaratilishi haqidagi savolga javob berib o'tsak. Darslik va o'quv-metodik qo'llanmalarni nashr qilish jarayoni bir qancha hujjatlar asosida tartibga solinadi. Jumladan:

1. Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 22-noyabrdagi 548-sonli qarori¹³ bilan tasdiqlangan darsliklar va mualliflar tarkibini tanlab olish to'g'risidagi nizom;

2. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 5-apreldagi 281-sonli qarori¹⁴ bilan tasdiqlangan muqobil darsliklar to'g'risidagi nizom;

3. Xalq ta'limi vazirining 2018 yil 26 noyabrdagi 291-sonli «Davlat o'rta umumta'lim maktablari uchun darsliklar va o'quv-metodik adabiyotlarni nashr qilish tartiblarini takomillashtirish to'g'risida"gi buyrug'iga asoslanadi.

Darsliklarni tanlab olish jumladan:

Ta'limda foydalanish uchun darsliklarni tanlab olishning butun jahonda e'tirof etilgan shunday umumiy kriteriyalari mavjudki, muayyan bir davlatning ushbu tizimini o'rganishni maqsad qilgan tadqiqotchi avvalo, ushbu savolnomani o'rganib chiqishi lozim.

1. Darsliklarni tanlab olishga kim javobgar? Mas'ul mutassaddilar darsliklarni tanlab olishda nimalarga e'tibor berishadi? Qanday mezonlarga asoslanadi? Bajaradigan ish tartibi nimalardan iborat?

2. Darsliklarni tanlab olish muayyan hududning o'qituvchilari, xalq ta'limi bo'limining vakillari yoki hududdagi maktablar ma'muriyatining vakolatiga kiradimi? Agar shunday bo'lsa, ushbu mas'ul shaxslar xohlagan kitoblarni darslik sifatida tanlab ola oladimi? Yoki ularning tanlovi muayyan rasmiy ro'yxat asosida cheklanganmi?

3. Agar tanlov uchun o'quv qo'llanmalari va darsliklarning tasdiqlangan rasmiy ro'yxati bor bo'lsa, ushbu ro'yxat qaysidir rasmiy vakolatli organ tomonidan (Xalq ta'limi vazirligi yoki boshqarmasi) tuziladimi? Ushbu ro'yxatni ituzish qanday mezonlarga asoslanadi?

4. Davlat va xususiy maktablar uchun yaratilgan darsliklar orasida farq bormi, agar bor bo'lsa ular qaysilar?

Darslik tanlab olish mas'uliyati ulkan tajriba talab qiladi. 1959-yilgi konferensiya materiallariga asoslanadigan bo'lsak, dunyoning yarmidan ko'p davlatlari ta'lim tizimida yuqori turuvchi tashkilotlar maktablar uchun darsliklarni saralab olishga mas'ul bo'lishi va maktablar o'sha tanlangan ishlardan foydalanishga majbur ekanligiga guvoh bo'lamiz. Undagi ma'lumotlarga ko'ra, agar bitta fan uchun bir nechta darslik tanlab olingan bo'lsa, ta'lim vazirligi albatta, tanlangan ishlar ro'yxatini e'lon qiladi va bu bilan ular maktablarni alternativ tanlov bilan ta'minlaydi.

10 ta davlatda hukumat darsliklarning rasmiy ro'yxatini tayyorlamagan, hattoki tavsiya etish uchun ham.

¹³ <https://lex.uz/docs/373342>

¹⁴ <https://lex.uz/docs/4273357>

Jahon miqyosidagi xususiy maktablar mavjud bo'lgan davlatlarning yarmidan ko'pida, xususiy va davlat maktablari darsliklarida umumiy farqliliklar kuzatilmaydi. Dunyo mamlakatlarining chorak qismida xususiy va davlat maktablari uchun darsliklarni mustaqil tanlash huquqi berilgan. Bitta davlatda har bir xususiy maktab o'zini o'zi darslik bilan ta'minlashi aytib o'tilgan.

Bugungi kunga kelib, bu an'ana keng tus olgan bo'lib, bu hattoki xususiy maktab darsliklari orasidagi sog'lom va kuchli raqobat yuzaga kelishini va bu orqali mukammal darsliklar yaratilishini ta'minlaydi.

Ta'lim medialari va darsliklarni o'rganish xalqaro assotsiyatsiyasi (IARTEM)ning bergan ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyo mamlakatlarining qariyb 60 foizida maktablar uchun darslik tanlab olish huquqi o'sha darslik asosida ta'lim beruvchi o'qituvchining o'zigagina berilgan bo'lib, bunday davlatlar qatoriga AQSH, Angliya, Fransiya va shu kabi qator rivojlangan davlatlar kiradi. Bunga sabab bu davlatlarda xususiy maktablarning ko'pligi va ularning o'qitish tizimini nazorat qilish davlat ixtiyorida emasligidir. Har bir xususiy maktab o'zining xususiy o'quv rejasi va darsligiga ega. Bu maktablarda muayyan bir fan yuzasidan darslik tanlab olish shu fan o'qituvchisi tavsiyasiga ko'ra maktab qarori asosida amalga oshiriladi. 2014-yil Braziliya maktablarida o'tkazilgan taqdiqot natijalariga ko'ra o'qituvchilarning darslik tanlash borasidagi eng asosiy e'tibor beradigan jihatlari quyidagilar:¹⁵

- darslikda berilgan matn va lug'at boyligining hajmi;
- maktab o'quv rejasi bilan taqqoslanishi;
- rasm sifati, matn o'lchami va faoliyat turlari.

Sikorova (2002) esa darsliklarni tanlab olishda quyidagi jihatlarni hisobga olish kerak degan fikrga keldi:¹⁶

- darslikda berilgan mashq va savollarning yetarliligi;
- darslikda berilgan matn va mashqlarning xilma-xilligi.

Bu fikrlar albatta, xususiy deyishingiz mumkin. Lekin jahondagi deyarli har bir darslik tanlashga mas'ul shaxslarning umumiy fikri ham mavjud:

2. Darsliklar avvalo, o'quvchiga bilim olish uchun motivatsiya bera oladigan bo'lishi shart||.¹⁷

Ushbu ma'lumotlarni o'rganar ekanmiz, qiziq statistik ma'lumotga ham duch keldik. Unga ko'ra, erkak o'qituvchilar asosan, darsliklarning ilmiyligiga, tajribalarga boyligiga e'tibor berar va darsliklarning induktiv modelini afzal ko'rar ekan. Ayol o'qituvchilar esa, ko'proq darsliklarda berilgan illustratsiyalarning ko'pligi va xilma-xilligi, shuningdek undagi

¹⁵ Braga Garcia, Tânia Maria. 2014. Criteria used by Teachers in Brazilian Public Elementary Schools in the Process of Textbook Selection. *Orbis Scholae* 8 (2), 9-23

¹⁶ Sikorova, Z. 2002. Evaluating Textbooks as Teacher's Activity. In Mikk, J., Meisalo, V., Kukemelk, H., Horsley, M. *Learning and Educational Media Tartu: University of Tartu*, 84-92.

¹⁷ Jesús Rodríguez Rodríguez, Tânia Braga Garcia, Eric Bruillard. IARTEM (International Association for Research on Textbooks and Educational Media) 1991-2016. 25 YEARS DEVELOPING TEXTBOOK AND EDUCATIONAL MEDIA RESEARCH. France -2019. 103 -410.

matnlarning bahs-munozaraga chorlovchi xarakterda bo'lishini ma'qul ko'rishar ekan.¹⁸

Darsliklarning o'quvchilarga taqsimlanish shart-sharoitlari ;1. O'quvchilar darsliklar bilan bepul ta'minlanadimi? Agar bepul bo'lsa,ular barcha o'quvchilar uchunmi yoki ma'lum bir toifa vakillari uchunmi? Bepul darsliklar ta'minoti bilan kim shug'ullanadi?

2. Bepul tarqatilgan darsliklar o'quvchilar ixtiyorida qoladimi yoki ijara asosida foydalaniladimi?

3. Har bir o'quvchi uchun alohida kitob beriladimi? Agar bunda biror mezon yo'q bo'lsa, unda bepul tarqatiladigan darsliklar soni va sinfdagi o'quvchilar miqdori orasida qanday proporsiya mavjud bo'lishi kerak?

4. Darsliklar ijarasi narxini belgilovchi huquqiy mezon bormi? Ular qanday mezonlar?

O'rganish uchun olingan davlatlarning taxminan, 50 foizida boshlang'ich sinf o'quvchilari darsliklar bilan bepul ta'minlanadi. Uchdan ikki qismida ijara tizimi asosida va bir qismida esa o'quvchilar darsliklarni o'z hisobidan sotib oladi. Narxlar markaziy hukumat tomonidan belgilanadi. Ba'zi davlatlarda esa narxlarning belgilanishi viloyat, tuman va mahalliy hukumat tomonidan nazorat qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие творческого мышления у школьников начальных классов. Гуманитарный трактат, (24), 9-10.

2. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERNET VA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. In Современные проблемы и перспективы развития педагогики и психологии (pp. 47-49).

3. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. In НАУЧНЫЙ ПОИСК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ (pp. 119-120).

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING TIL O'RGANISH KO'NIKIMLARINI DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI VA AHAMIYATI

*Gulbayeva Gulxayyo Bahodirovna,
TerDPI 2-kurs magistranti.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirish uchun didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarni fikrlashga, izlashga, g'oyalarni to'plashga, uyg'unlashtirishga, ko'nikma va odatlarni hayotda qo'llashga o'rgatuvchi va tarbiyalovchi kuchli

¹⁸ Exarhos, Ionnis 2005. Greek primary teachers' preferences for and characteristics of science textbooks. In: Eric Bruillard, Bente Aamotsbakken, Susanne V. Knudsen & Mike Horsley: Caught in the Web or Lost in the Textbook? Caen: IARTEM/STEF/IUFM

faoliyat turlaridan biri bo'lishi uchun didaktik o'yinlardan foydalanishga to'xtalib o'tamiz.

Kalitso'zlar: boshlang'ich sinflar, usul, dialogik, kognitiv, innovatsiya, didaktika o'yin, ta'lim zamonaviy innovatsion metodlar, qiziqarli o'yinlar

Maktab o'quvchilarining til o'rganishiga oid ko'nikmalarini rivojlantirish borasida keyingi yillarda bir qator ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, Sh.Yusupova va N.Yuldasheva kabilar uz tadqiqotlarida ona tilini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishni targ'ib qilgan. ATulomov, M.Saidov va N.Alavuddinovalar esa, ona tili o'qitish orkali mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borgan.

O'quvchilarni tarbiyalash va o'qitish uchun didaktik o'yinlardan foydalanish olimlarning asarlarida va ko'plab o'qituvchilarning amaliy faoliyatida o'z aksini topgan. Darhaqiqat, maktab ta'limning har bir pedagogik tizimida didaktik o'yinlar alohida o'rinni egallagan va hozir ham egallab kelmokda. F.Frebel o'quvchilar bog'chasida tarbiya va tarbiya ishining asosi bo'lgan didaktik o'yinlar tizimini ishlab chiqdi. U boshlang'ich ta'limning vazifasi oddiy ma'noda o'rganish emas, balki o'yinni tashkil etish ekanligini ta'kidladi, u pedagogika tarixida birinchi marta maktab yoshdagi o'quvchilarni rivojlantirish uchun zarur bulgan maxsus vosita sifatida uyinni ajratib kursatdi.

“Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi”ni tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yildagi qarori loyihasida “Mamlakatimizda yuksalish davri boshlandi. Yangi davr shiddati ta'lim-tarbiyaga o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'ymoqda. Ta'lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma'naviy sharoitini tubdan yaxshilash, ta'lim sifatini oshirishning xorijiy texnologiyalari joriy qilinmoqda. Tarbiya ta'lim bilan uyg'un, ammo o'ziga xos shart-sharoitni, uzluksizlikni talab qiluvchi soha. Ta'lim – bilimdon yoshlarni, tarbiya – irodasi kuchli, vatanga sodiq, tadbirkor, mehr-oqibatli yoshlarni yetishtirib beradi. Bu esa O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini yangilangan milliy g'oya negizida, milliyzamonaviy, ilmiy-texnologik asosda isloh qilishni taqozo qilmoqda” deb ta'kidlangan.

Maktab inson tiliga umumbashariy vosita va bilim ob'ekti sifatida munosabatda bo'lishi kerak. Maktab o'quvchilarining o'yin ehtiyojlari va o'ynash istagi ma'lum ta'lim muammolarini hal qilish uchun ishlatilishi va yo'naltirilishi kerak. Agar o'yin yaxlit pedagogik jarayonga kirsa, ta'lim vositasi bo'ladi. O'yinda o'quvchi yangi bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni egallaydi. Qabul qilish, e'tibor, xotira, fikrlash, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga hissa qo'shadigan o'yinlar umuman maktab yoshdagi o'quvchini aqliy rivojlanishiga qaratilgan. Ya'ni tilni o'rgatuvchi interaktiv materiallar, internet platformasi va mobil ilovalari yaratilib, maktab va bog'chalarda ommabop videodarslardan keng foydalanish yo'lga qo'yiladi. Agar tillarni ham o'yinga qorishtirgan holda o'rgatilsa, bu til ko'nikmalarining o'zlashtirish samaradorligini bir necha

barobarga oshiradi. O'yin o'quvchining nafaqat jismoniy faolligini oshiradi shuningdek ruhiy tetiklikni ham shakllantirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida esa, tillarni o'zlashtirish uchun samarali metodlar, interfaol usullar ishlab chiqilmoqda.

Metod aslida yunoncha "metodos" so'zidan olingan bo'lib, "bilish va tadqiqot yo'li", "nazariya", "ta'limot" kabi ma'nolarni bildiradi. Metodika (yun. "methodike") biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig'indisi yoki o'qitish usullari haqidagi ta'limot- ta'lim berish metodlari, yo'llari va vositalari haqidagi fandır.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fani quyidagi bo'limlarga bo'lingan:

1. Savod o'rgatish metodikasi, ya'ni boshlang'ich o'qish va yozishni o'rgatish.

2. Metodologiyani o'rganish. Boshlang'ich sinflarda o'quv predmeti o'quvchilarni tez (o'rtacha), aniq, ongli va ifodali o'qish qobiliyatlari bilan qurollantirishdir.

3. Grammatika, fonetika, imlo va so'z yasalishini o'rganish metodikasi. Bu bo'lim asosiy imlo va grammatikani o'rgatadi, ya'ni grammatik tushunchalar va asosiy imlo ko'nikmalarini shakllantirish.

4. Nutqni rivojlantirish metodikasi. Boshlang'ich maktabda bu bo'lim alohida. O'quvchilar, birinchi navbatda, til va nutq fanlari mavzusidir ular nimani xohlashlarini, nafaqat qiziqarli, balki zarur bo'lgan narsani tushunishadi.

Shular jumlasidan, zamonaviy pedagogika uchun o'quvchi-yoshlarning tillarni o'rganishda lingvistik didaktik o'yinlar muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

O'qitish jarayoni, uni rivojlantirish va o'zgartirish o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi ochiq muloqot va ishonch sharoitida samarali bo'ladi. Dars jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanilsa, o'quvchilarning ona tili darslariga qiziqishi ortadi, nutqiy malakasi oshadi. Dars jarayonida qo'llanilgan o'yinlar qisqa muddatda ishlab chiqilgan bo'lib, ular orqali o'quvchilar guruhlarda mashq qilishga ko'nikdi. O'yinlar yordamida kichik guruhlarning faolligi oshadi, ta'lim ishtirokchilarining e'tibori to'liq ishga (o'quv jarayoniga) jalb qilinadi.

"O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da belgilab berilgan "mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" vazifasi shaxsning intellektual salohiyatini shakllantirishga, jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga zamin yaratadi.

Didaktik o'yinlar - o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash maqsadida pedagogika tomonidan maxsus yaratilgan qoidalarga ega o'yin turlaridir. Ular o'quvchilarni o'qitishning o'ziga xos muammolarini hal qilishga qaratilgan,

ammo shu bilan birga, ular tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ta'sir kursatadi. Maktab o'quvchilarining bilim faolligini oshirishning samarali usullaridan biri bu didaktik uyin. O'yin davomida o'quvchilikning ajoyib dunyosi o'quvchilar kiradigan ajoyib fan dunyosi bilan bog'lik buladi. O'yinni dunyoning sakkizinchi mo'jizasi deb atash mumkin, chunki u juda katta ta'lim, va rivojlanish imkoniyatlariga ega. O'yin jarayonida o'quvchilar atrofdagi narsalar va xodisalar tug'risida turli xil bilimlarga ega buladilar. O'yin o'quvchilarning kuzatuvchanligini va narsalarning xususiyatlarini aniqlash, ularning muhim tomonlarini aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Ma'lumki, didaktik o'yinlarning xususiyati ta'limga, o'qitish va o'qishga alokador masalalarni dars jarayonida o'yin asosida, uning qoidalariga muvofiq olib borishdan iborat. Shuning uchun xam o'tmishdagi va hozirgi zamon psixolog, pedagog olimlari uzlarining ilmiy tadkikotlarida didaktik uyinlardan foydalanish masalasiga jiddiy e'tibor berganlar. O'quvchilarning o'yin faoliyatida didaktik o'yinlarning tutgan o'rniga psixologlar va pedagoglar tomonidan shu qadar yuqori baho berilishiga qaramay, bu o'yinlardan qanday foydalanish hakida umumiy to'xtamga kelingan emas. Pedagogik tadqiqotlarda didaktik o'yinlarga munosabat turlicha. Bunga o'yinlarning murakkabligi va ko'p qirrali ekanligi asosiy sababdir. Ayrim mualliflar didaktik o'yinlarni o'quvchilarning mustakil o'quv-bilish faoliyati sifatida baholaydilar, boshqalari metod, keyingilari esa ta'limning shakli, deb xisoblaydilar.

O'zbek tilining izohli lug'atida «O'yin kungil ochar, dam olish maqsadida qilinadigan erkin harakat yoki mashg'ulot. Boshqalar bilan musobaqa qilish uchun ma'lum qoidalar asosida o'tkaziladigan mashg'ulot», deb ta'riflagan. Ensiklopedik lug'atda esa «o'quvchilar tarbiyasi, ta'limi hamda rivojlanishida ularni kelgusi hayotga psixologik jihatdan tayyorlash vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega», deb yozilgan .

Bular o'yin hakidagi umumiy ta'riflar bulib, didaktik o'yinlarning mohiyati hakida didaktik atamalar lu'atida quyidagicha ta'rif bergan. “Didaktik o'yin-o'rganilayotgan obekt hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turidir”.

Pedagogik atamalar lug'atida esa, “didaktik o'yinlar-ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus ta'limiy o'yinlardir”

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish orqali o'quvchilar faoliyatining ikki asosiy turi: o'quv va o'yin faoliyati birlashtiriladi.

Buning natijasida o'quvchilarga ta'lim berish ishlari osonlashib, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va o'quv dasturi talablarini hisobga olish imkoniyatlari yaratiladi. “O'yin ko'p qirrali vosita, uning xususiyatlari hakida juda oz bilamiz. Lekin ishonch bilan aytish mumkinki, bu shaxsning har tomonlama rivojlanishiga imkon beruvchi mustaqil faoliyat, jamoani uyushtiruvchi va birlashtiruvchi vosita, faoliyatning boshqa turlarini tashkil etish metodi, zavklanish omili va fikr olishuv yo'lidir”. Demak, o'yin ham

faoliyat, ham vosita, ham metod, ham omil, ham yo'l sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5712-son farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097 son farmoni.

3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining roli // . – T.: O'zbekiston, 2017. – 48 b.

4. Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilar tafakkurini o'stirishning ilmiy-metodik asoslari.– Ped. fanlari d-ri... diss.. – T.: TAI, 2005.– 264 b

6. Bobomurodova A.Ya. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin topishmoqlardan foydalanish. Ped. fan. nomz. diss. avtoref. – T.: 1997. – 20 b.

7. Saidov M. O'zbek maktablarining 5-sinfida ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi. Ped. fanl. nom. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. –T.: 2000. -147 b
G'aniev T.T. Ona tilidan mashq bajarish jarayonida o'quvchilarning bilish faolligini oshirish. Ped. fanl. nomz. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. –T.: 1991. -194 b.

8. Hamroev A.R. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilm. darajasini olish uchun yozilgan diss. –T.: 2020. – 251 b.

9. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva SH., Sariyev SH. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: Noshir, 2009. – 424 b.

10. Yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish tarbiya texnologiyasini faoliyatli bosqichiii loyixalash va amalga oshirish. N.M.Egamberdieva. Nukus «Bilim» nashriyoti: 2010 y. 40 b.

11. Sharofova Nilufar Ilhom qizi, Muminova Umida Karshiyevna. Forming Concepts of Grammar and Word Formation in Primary Grades. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(4), 164–168. Retrieved from <http://univerpubl.com/index.php/semantic/article/view/1033>

12. Chorshanbiyeva Ra'no, Muminova Umida Karshiyevna, Innovative Approach as a Condition for Improving the Educational Process in a Modern School , Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education: Vol. 2 No. 4 (2023): Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education

13. Davlatmamatovna, H. G. Qarshiyevna, M. U. . (2023). Popular Scientific Texts in Elementary School Textbooks and Methods of their Study. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(4), 125–128. Retrieved from <http://univerpubl.com/index.php/semantic/article/view/1006>

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI
DARSLARIDA PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURINI
TAKOMILLASHTIRISH**

*Hasanova Sabohat Komil qizi
TerDPI talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada PIRLS xalqaro baholash dasturining ona tili va o'qish savodxonligi darslarida qo'llashning mazmuni va ahamiyati haqida to'xtab o'tilgan.

Kalit so'zlar: PIRLS, badiiy, axborot, anglash, tushunish, diqqat.

Abstract: This article discusses the content and importance of using the PIRLS international assessment program in mother tongue and reading literacy classes.

Key words: PIRLS, art, information, awareness, understanding, attention.

Аннотация: В данной статье рассматривается содержание и важность использования международной программы оценивания PIRLS на занятиях по родному языку и грамотности чтения.

Ключевые слова: PIRLS , искусство, информация, осознание, понимание, внимание.

PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti mazkur dastur doirasidagi 2001, 2006, 2011 va 2016-yillarda o'tkazilgan tadqiqotlarning davomi hisoblangan beshinchi davriylik sanaladi. Har bir o'tkaziladigan PIRLS tadqiqotida ishtirok etuvchi mamlakatlar soni ortib bormoqda. PIRLS 2021 xalqaro tadqiqotida taxminan 70 ga yaqin mamlakatlar ishtirokchi sifatida qatnashadigan hamda 2001-yildan buyon avvalgi sikllarda ishtirok etgan ko'pgina boshqa mamlakatlar qatnashishi kutilmoqda. PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti 2001-yildan buyon qatnashib, natija ko'rsatib kelayotgan mamlakatlar bilan beshinchi bor 20 yil mobaynida ushbu yo'nalishda to'plangan yutuqlarini baham ko'radi. [1]

2001-yilda IEA xalqaro assotsiatsiyasining o'qish savodxonligini baholash tadqiqotida qatnashgan mamlakatlar yangicha baholash tadqiqotini yaratish borasida IEA xalqaro assotsiatsiyasi va Boston kolleji bilan hamkorlik qilish istagini bildirdi. Bu esa PIRLS xalqaro tadqiqotiga o'quvchilarning matnni o'qib tushunish darajasini takomillashtirishlarida ularning ta'lim olish jarayonlari haqida ma'lumotlar to'plash imkonini berdi. 2001-yildan buyon PIRLS xalqaro tadqiqoti so'rovnomalarining asosiy tarkibi sifatida o'quvchilarning ota-onalari yoki vasiylari tomonidan to'ldiriladigan o'qishni o'rganish so'rovnomalari kiritildi. Shuningdek, har bir baholash davriyligi tarkibida PIRLS ensiklopediyasi ham mavjud bo'lib, u ishtirokchi mamlakatlar, jumladan har bir ishtirokchi mamlakat tomonidan ularning o'qish fani bo'yicha tuzilgan o'quv dasturlari va tadqiqot doirasidagi yo'riqnomalarini yoritib beruvchi bo'limga oid qiyosiy-tizimli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. [2]

PIRLS xalqaro tadqiqoti 2001-yildan boshlab ishtirokchi mamlakatlar va IEA xalqaro assotsiatsiyasining TIMSS hamda PIRLS xalqaro tadqiqot markazlari bilan hamkorlik qilib kelmoqda. PIRLS xalqaro tadqiqotida ishtirok etayotgan barcha mamlakatlar, tashkilotlar va agentliklar mazkur dasturni takomillashtirishga o'z hissalarini qo'shib, o'quvchilarning o'qib tushunish darajasini baholashda qo'llaniladigan eng sodda va innovatsion mezonlarni ishlab chiqmoqda. 2006-yilda PIRLS xalqaro tadqiqoti badiiy va axborot olish ko'nikmasiga qo'shimcha ravishda o'quvchilarning o'qib tushunish jarayonlari asosida olingan natijalarni tahlil qilish maqsadida dastur doirasida berib boriladigan matnlar sonini 8 tadan 10 taga ko'paytirdi.

2011-yilda TIMSS va PIRLS baholash sikllari hamkorlikda ishlab, ishtirokchi mamlakatlarga boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish, matematika va tabiiy fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari haqida ma'lumotlar olish imkonini yaratdi. Shuningdek, so'rovnomalarni yangilash va ularni PIRLS va TIMSS dasturlariga muvofiqlashtirish bo'yicha ham qator ishlar olib borildi. Bundan tashqari, 2011-yilda IEA xalqaro assotsiatsiyasi ishtirokchi mamlakatlarga boshlang'ich sinflarda ta'lim olayotgan o'quvchilarning o'qish savodxonligi bo'yicha olgan fundamental bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida PIRLS baholash qamrov doirasini kengaytirdi. PIRLS 2016 xalqaro tadqiqotining ikkinchi baholash doirasidagi PIRLS o'qish savodxonligi bo'yicha yana 20 ta matn kiritildi. Ushbu matnlar o'zining murakkablik darajasiga ko'ra PIRLS baholash qamrov doirasida talab etilganidan osonroqdir. Shuningdek, 2016-yilda muqobil tanlov sifatida ePIRLS tadqiqoti ham joriy etildi. ePIRLS tadqiqotida hozirda tobora ahamiyati oshib borayotgan onlayn o'qish savodxonligiga e'tibor qaratiladi. Ma'lumki, internet o'quvchilarning ma'lumotlarni olishlari hamda maktab fanlari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazishda asosiy vosita sanaladi. ePIRLS tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiiy va ijtimoiy sohalarga tegishli mavzularni o'z ichiga olgan, maktabda o'qitiladigan fanlar bo'yicha beriladigan mashg'ulotlarga yaqinlashtirilgan qiziqarli innovatsion imkoniyatlarni o'z ichiga oladi. [3]

Ma'lumki, o'qish savodxonligi insonlarning o'qishdan ko'zlagan maqsadlari bilan bevosita bog'liqdir. Masalaga yanada kengroq yondashadigan bo'lsak, mazkur sabab yoki maqsadlarga zavqlanish uchun, shaxsiy qiziqish tufayli o'rganish va jamiyatda ishtirok etish kabilar kiradi. Ko'pgina yosh o'quvchilar endigina o'qishni boshlaganlarida asosan hikoyali matnlar (masalan, hikoyalar yoki suratli kitoblar) yoki o'quvchilarga o'zlarini o'rab turgan dunyo haqida axborot beruvchi va savollariga javob beruvchi ma'lumotlarga boy matnlarni o'qiydilar. Yosh o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirib, tadqiqotga ko'ra mazkur savodxonlik o'quvchilarning o'rganishlari uchun o'qishlari kerakligini talab qilgani tufayli kitob va boshqa bosma materiallardan ma'lumot olish uchun o'qish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Badiiy tajriba orttirish uchun o'qish . Badiiy kitoblarni o'qishda o'quvchilar voqealar, voqea joylari, obrazlar, oqibatlar, personajlar, asar muhiti, hissiyotlar va g'oyalar bilan yo'g'rilgan matnni o'qiydi va matn tilidan huzurlanadi. Adabiyotni tushunish va uni qadrlash uchun, har bir o'quvchi matnda (asarda) sodir bo'ladigan voqealar, hissiyotlar, tildan foydalanish san'ati hamda badiiy shakl haqida bilimni o'z hayolidan o'tkazishi kerak. Adabiyot yosh o'quvchilar uchun o'zlari hali boshidan kechirmagan holatlar va hissiyotlarni kashf etish imkoniyatini beradi.

Axborotni olish va undan foydalanish uchun o'qish. Axborot beruvchi matnlar qator vazifalardan kelib chiqib yoziladi va o'qiladi. Binobarin, axborot beruvchi matnlarning asosiy vazifasi ma'lumot berishdan iborat bo'lgani sababli, odatda yozuvchilar o'zlari yortimoqchi bo'lgan mavzuga turli maqsad bilan yondoshadi. Ko'p axborot beruvchi matnlarda faktlar biror topshiriqni bajarish bosqichlari yoki biografik tafsilotlar kabi to'g'ridan-to'g'ri bayon etiladi. Shunga qaramasdan, ayrim axborot beruvchi matnlar subyektiv xususiyatga ega. Masalan, mualliflar izohlovchi mulohazalar, undash xususiyatli insholar toki puxta o'ylab chiqilgan mulohazalar orqali izohlar va faktlarni o'quvchiga yetkazib berishi mumkin. O'quvchi o'z dunyoqarashini shakllantirish uchun mazkur matnlarga tanqidiy yondashishi kerak.

Tushunish jarayonlari .Turli o'qish tarzi o'quvchilardan matn mazmunini turli xil usulda shakllantirishni taqozo etadi. Shuning uchun, PIRLS tadqiqoti odatda boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan qo'llaniladigan to'rt tushunish jarayonini baholaydi. Bu to'rtala tushunish jarayonlariga diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotni topish; to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish; kontent, til va matn elementlarini tekshirish va baholash; g'oyalar va ma'lumotni talqin qilish va uyg'unlashtirish kiradi. Mazkur jarayonlar chegarasidan o'qib, o'quvchilarga o'qib tushunish ko'nikmasini tekshirish va o'z qarashlarini o'zgartirish imkonini beradigan tushunish jarayonlari va strategiyalarini o'zlashtiradi. Bundan tashqari, o'quvchilarni o'qib tushunishlari uchun kerak bo'ladigan bilim va birlamchi tajribalari ularga tilni, matnlarni, dunyoni tushunishlariga yordam berib, ular bu bilim va ko'nikmalaridan foydalanib, biror material (yoki ma'lumot) haqidagi tushunchalarini tahlil qiladi.

Diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotni topish. O'quvchilar matnda aniq bayon qilingan ma'lumotlarga turlicha diqqat-e'tibor bilan qaraydilar. Matnda bildirilgan ayrim fikr-mulohazalar o'quvchilarning diqqat-e'tiborlarini jalb etadi, ba'zilari esa ularda hech qanday qiziqish uyg'otmaydi. Masalan, agar matndagi fikr-mulohazalar o'quvchilar matn mazmuni yoki o'qishdan ko'zlagan umumiy maqsadiga oid fikr-mulohazalariga zid yoki ularni tasdiqlasa, o'quvchilar ayni shunday fikrlarga ko'proq e'tibor qaratadi. Bundan tashqari, o'quvchilar odatda o'qish bo'yicha berilgan savolga javob berish yoki matnning ayrim jihatlari qay daraja tushunganliklarini tekshirish uchun undagi ma'lumotlarni qidirib topishga harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'quvchilarni ona tili va o'qish savodxonligi fanidan baholash bo'yicha mashq daftari №1 TSBBXTAOMM 2021
2. O'quvchilarni ona tili va o'qish savodxonligi fanidan baholash bo'yicha mashq daftari №2 TSBBXTAOMM 2021
3. O'quvchilarni ona tili va o'qish savodxonligi fanidan baholash bo'yicha mashq daftari №3 TSBBXTAOMM 2021
4. O'quvchilarni ona tili va o'qish savodxonligi fanidan baholash bo'yicha mashq daftari №4 TSBBXTAOMM 2021
5. PIRLS 2021 Baholash qamrov doirasi SBBXTAOMM 2021
6. Tahliliy hisobot PISA, PIRLS, TIMSS 2022
7. Muxtarova, L. A. (2021). Use of multimedia technologies in the educational process. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1781-1785.
8. Muxtarova, L. A. (2021). Ways of formation of ecological culture in children of primary age. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 648-652.
9. Abdimannabovna, M. L. (2021). Formation of the Ecological Culture of Schoolchildren in the Study of Natural Science. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 1(6), 73-76.
10. Мухтарова, Л. А. (2018). ПУТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ МУЛЬТИМЕДИА В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА И ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКОВ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Научные горизонты*, (11-1), 247-252.
11. Мухтарова, Л. А. (2018). РАЗВИТИЕ И ФОРМИРОВАНИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ШКОЛЬНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Гуманитарный трактат*, (24), 13-14.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA TA'LIM TARBIYA BERISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI MEROSDAN FOYDALANISH

*Husenova Moxinur
TerDPI talabasi*

2022

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf oquvchilariga ta'lim tarbiya berishda sharq mutafakkirlari merosidan foydalanishga oid bilimlarni manbalar asosida tahlil qilishga bag'ishlanadi.

Kalit sozlar: mutafakkirlar, ta'lim, tarbiya.

Darhaqiqat, muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Karimov jamiyatda ta'limning yangi usullarini ishlab chiqishda, har bir shaxsni erkin, mustaqil fikrlashga undovchi bir kuch, ya'ni yol bolishi kerak degan fikrlari hozirgi kundagi davlatimiz siyosatining ustuvor g'oyasidan biri desak hech ham adashmaymiz. Bugungi kunda boshlang'ich sinf oquvchilarini har tomonlama yetuk, ajdodlarga mos avlod qilish uchun avvalo, sharq mutafakkirlari kim

ekanligini, ular qanday ishlar qilganini, osha davr hayoti va undagi g'oyalarni erkin va toliq, ilmiy asoslab tushuntirib bersak Nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

Bola o'zining ko'chma ma'nodagi hayotini maktabdan boshlaydi . Boshlangan hayotini yana ham mazmunli bolishida pedagoglarning, ya'ni o'qituvchilarning orni va roli beqiyosdir. Bilim – barcha kulfatlarga qalqon. (Rudakiy)/.

Yosh- avlodni tarbiyalashda ajdodlar merosidan foydalanish, osib kelayotgan bolalar ongini yanada ostirishga, fikrlash, dunyoqarashini va zehnini kamol topishiga turtki bo'ladi. Oquvchilar ongida ta'lim tarbiya, bilim, ilm nima ekanligini, ularning kuchi qanday ekanligini singdirish biz pedagoglarning uchun ham qarz, ham farz hisoblanadi. Al- Farobiy, Abu Rayhon Beruiy, Abu Ali ibn Sino asarlarida ong va fan uzviyligi ilgari suriladi.

Behbudiy ham ta'lim tarbiyada yoshlar ongiga dunyoqarashini singdirib borishga alohida e'tibor berdi. Behbudiy oz pedagogik qarashlarida ilm ahlining hayotida sodir boladigan zaruriy yangiliklarga aql-idrok bilan yondashishga da'vat etadi.

Yusuf Xos Hojibning fikricha, insonning ' aql-idrok, sozlash qobiliyati, bilim, uquv, hunarga egaligidadir. Shoirning nazarida, bilim bir boshbog yoki jilov kabidir. U kishini har xil no- qulayliklardan asraydi. Shu xususiyati tufayli bilim aziz va mo'tabardir, -deb aytganlar. Ilmni aziz, motabar qiladigan ham uni yerga urib toptaydigan ham insonlardir. Inson oz ustida ishlabgina ilmdan bir pogonani egallagan boladi. Ilmni sof vijdon, mehr, sadoqat, muhabbat bilan, o'rganish kerak chunki, yoshlikda egallangan bilim toshga oyib yozilgan naqsh singari bo'ladi . Ilm, bilim o'rganish degan bilan ish bitmaydi. Ularni egallash uchun avvalo yaxshi tarbiya ham kerak. Tarbiya bor joyga ta'lim ham bo'ladi. Qachonki insoning ilmi yuksak darajaga yetgan bo'lsa, demak uning tarbiyasi yaxshi bo'lgan hisoblanadi. Etni tirnoqdan ajratib bo'lmaganidek ta'limni tarbiyadan ajratib bo'lmaydi.

Aslida, tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi . Demak, tarbiya ijtimoiy hodisa bo'lib , insonning shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy va ma'naviy qadriyatdir. Hatto, Termuriylar naslidan bo'lgan, Amir Temurning suyukli nabirasi bo'lmish Mirzo Ulugbek ham shunday deydi: Mudarris, avvalombor, o'zini tarbiyalashi, bilim va malakani egallashi lozim . Ulugbek yosh avlodning erkin va har tomonlama rivojlanishiga bo'lgan huquqlarini himoya qilib, mudarrislarni yetuklikka, faol, bilimdon va saviyali insonlarni tarbiyalashga undadi. Tarbiyani qadimiy va abadiy ma'naviyat i ham o'ziga xos tomoni bor . Chunki, tarbiya kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgan atama emas . U yillar davomida o'zini yuksak darajada namoyan etib kelayotgan faoliyatning bir turidir. Abu Nasr Forobiy ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, o'dob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb o'qtiradi. Bular tarbiyachilar va murabbiylar tomonidan turli

metodlar yordamida amalga oshiriladi. Forobiy ta'lim-tarbiya ishlarini nazariy yo'l bilan amalga oshi-rishga ko'proq e'tibor beradi Manbalarda yozilishicha, u 70 dan ortiq tilni bilgan. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. Uning fikricha, ta'lim oluvchilarga ta'lim berishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- ta'lim oluvchilarni zeriktirmaslik; bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik kerak – bu dars jadvaliga qo'yilgan talablardan biri;

Uzviylik va izchillik;

Tahlil qilish va taqqoslash;

Takrorlash;

Materialni ko'rgazmali bayon etish va shu kabilar.

Abu Ali ibn Sino ta'lim oluvchilarni jamoa qilib o'qitishni ta'kidlaydi. U ta'lim oluvchilarni o'qitishda ularni birdaniga kitob bilan band qilib qo'ymaslik kerak, deb o'qtiradi. Shuningdek, olimning fikricha, olib boriladigan o'quv mashg'ulotlarning mazmun-mohiyati ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlariga ham mos kelishi va unda turli xil ta'lim metodlari va shakllaridan foydalanish zarur. Bu orqali ta'lim oluvchilaridagi zerikishning oldi olinadi. Ibn Sino ta'limoti bo'yicha bilishda qaysi metodlardan foydalanilmasin-u og'zaki ifodalash, bilimlarni tushuntirish, turli ko'rinisdagi suhbatni tashkil etish, tajribalarni uyushtirish bo'ladimi; baribir, ta'lim oluvchida haqiqiy bilim hosil qilish, mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarni amaliyotga tadbiiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad bolgan.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Каримов И.А. “Буюк мақсад йўлидан оғишмайлик” Ўзб.Рес. Олий Кенгаши XII сессиясидаги нутқи 1993 й.

2. Абу Райхон Беруний. “Танланган асарлар” 1 том Тошкент Фан 1968 й 151-б

3. Каримов И.А. “Буюк мақсад йўлидан оғишмайлик” Ўзб.Рес. Олий Кенгаши XII сессиясидаги нутқи 1993 й.

4. Абу Райхон Беруний. “Танланган асарлар” 1 том Тошкент Фан 1968 й 151

5. R.D.Norqobilova. Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini indikatorlar asosida diagnostika qilishning o'ziga xosligi. INTERNATIONAL CONFERENCES, 564-568. 2023

6. NR Davlatovna - Functions and Principles of Pedagogical Diagnostics. Web of Synergy: International Interdisciplinary 413-416, 2023/1/31

12. P Норқобилова -Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan iqtidorini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish. Общество и инновации. 36-41, 2023/1/25

13. P Nazarova, R Norqobilova - PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF EDUCATION OF YOUNG GENERATION AT ABU RAYHAN BERUNI TEACHING. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 1908-1911. 2022/6/30

14. S Xoliyeva, R Norqobilova - EASTERN SCIENTISTS 'VIEWS ON SPEECH. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 1433-1427. 2022/6/24

15. Sevara XOLIYEVA, Rayhona NORQOBILOVA, MuhlisamAMATMUROTOVA THE IMPORTANCE OF PEOPLE'S ORAL CREATIVITY IN THE DEVELOPMENT OF SPEECH BY PRIMARY SCHOOL STUDENTS. 2022/6/9. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 84-87. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/2379>

16. Sumbula IBROHIMOVA, & Rayhona NORQOBILOVA. (2022). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF USING THE HERITAGE OF ASIAN THINKERS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL SCIENCE CLASSES. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 81-83. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/2378>

17. Zoirova Sevinchbonu Khurshid Kizi, Norqobilova Rayhona Davlatovna, Tajimirzayeva Buzulaykho Mahammadjon Kizi. high spiritual generation-third renaissance builders. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. 167-169. 2022

18. Райхона Норқобилова. О'қувчиларнинг она тили бо'йича иқтидорини аниқлаш ва ривожлантиришнинг о'зига хослиги Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. 379-384. 2022

19. R.Norqobilova, M.To'rayeva Importance of talent in child development. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. ISSN: 2776-0979, VOLUME 3, ISSUE 7, July. 2022 57-61.

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA OG'ZAKI NUTQNI
RIVOJLANTIRISH, TILSHUNOSLIK USLUBIY MUAMMO SIFATIDA**

*Ismatova Narzioy Tolibjon qizi
TerDPI talabasi*

**2022* S.I.Tursunova TerDPI o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan va boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqidagi nuqsonlarni bartaraf qilish yo'llari, bolada nutq buzilishi mavjudligining sabalari kabi masalalar to'liq ochib berilgan.

Annotation: This article is intended for elementary school students and includes the development of oral speech of elementary school students, ways to eliminate speech defects of elementary school students, and the causes of speech disorders in children. issues are fully disclosed.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf o'quvchilari, o'quvchilarda nutq, aqliy tarbiya, intellektual tarbiya, og'zaki muloqot, analiz, sintez, taqqoslash, og'zaki o'yin, hikoya, maqol, ertaklar, hikoya syujeti, bolaning psixik rivojlanishi.

Key words: Primary school students, students' speech, intellectual education, intellectual education, oral communication, analysis, synthesis, comparison, oral game, story, proverb, fairy tales, story plot, mental development of the child.

Inson yetuk shaxs bo'lib yetishishda nutq jarayoni shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq uni rivojlanishi insonlar aro turlicha bosqichlarda umr bo'yi davom etadi. Vaholanki, o'quvchilarda nutq jarayonini rivojlantirishning bir qancha sinovdan o'tgan usullari mavjud. Bular asosan rivojlangan davlatlar metodikalarni o'z ichiga olgan. Hozirgi vaqtda ko'proq bolalar nutqida buzilishlarga duch kelmoqdalar. Ko'pgina ota-onalar mutaxassisning yordamiga murojaat qilmasdan „Nutq xatolarini tuzatish mumkinmi“, - degan savolga qiziqish bildirmoqda.

Bolaning jismoniy, aqliy va intellektual tarbiyasi erta bolalikdan boshlanadi. Barcha ko'nikmalar, jumladan, to'g'ri gapirish qobiliyati oilada o'zlashtiriladi. Bolaning nutqi qarindoshlari, yaqin odamlari misolida shakllanadi. „Bola nutqining tovush chiqaruvchi tomoni kattalarning alohida ta'siri va yordamisiz mustaqil ravishda rivojlanadi“, - degan fikr noto'g'ri hisoblanadi. Aslida, bolalar nutqini shakllantirish jarayoniga aralashmaslik deyarli har doim rivojlanishning kechikishini anglatadi. Bolalikda ildiz otgan nutq nuqsonlari keyingi yillarda katta qiyinchilik bilan bartaraf etiladi. Bolaning erta yoshdan boshlab to'g'ri aniq nutqni eshitishi juda muhim, uning namunasi o'zinikidir. Bolada aniq nutq buzilishlarining mavjudligi odatda uning butun aqliy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Bunday holda, bolaning aqliy rivojlanishining umumiy yo'nalishi, albatta, sekinlashadi, bu muqarrar ravishda uning butun maktab ta'limiga va keyingi hayotiga ta'sir qiladi. Ko'p muammolar, shuningdek, ko'pincha nutq xatosiga reaksiya sifatida paydo bo'ladigan ikkilamchi ruhiy tushkunliklardan kelib chiqadi. Bunday aqliy tabaqalanishning paydo bo'lishi bolaning og'zaki muloqot paytida boshdan kechiradigan takroriy muvaffaqiyatsizliklari, shuningdek, boshqalarning nutq xatosiga (masxara, mimika) noto'g'ri munosabati natijasidir. Aynan ikkilamchi ruhiy qatlamlar tufayli, ba'zida bu kamchiliklardan aziyat chekadigan nisbatan kichik nutq xatolari ham haqiqiy baxtsizlik sifatida qabul qilinadi, ayniqsa bu yosh bilan ortib boradi.

Ma'lumki, boshlang'ich sinflarda o'quvchi nutq o'stirish ona tili predmetining asosiy vazifasi hisoblanadi. Biroq bu vazifa boshqa o'quv predmetlari doirasida ham amalga oshiriladi. Jumladan, o'qish darslari jarayonida o'quvchilar nutqini o'stirish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud. Ya'ni, o'qish kitobidagi matnlarni o'rganish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zi uchun notanish bo'lgan ko'plab so'zlar va ularning ma'nosini o'rganadi, ya'ni ularning so'z boyligi oshadi. O'qituvchi bunday so'zlarni

izohlash bilan kifoyalanmay, o'quvchilarga ular ishtirokida so'z birikmasi, gap ham tuzdirsa, yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday qilinsa, yangi so'zlar o'quvchilarning faol lug'atiga kiradi. Nutq o'stirish boshlang'ich ta'lim pedagogikasining tarixi va nazariyasini ham, muomala madaniyatini o'rgatish uslubiyotini ham o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi, avvalo, o'quvchilariga umumiy estetik tarbiya berish vazifalarini tushunib olishi lozim. Bu vazifalar faqatgina yaxshi muomala qilishni o'rgatishdangina iborat bo'lib qolmasligi kerak. Bunda, eng muhimi, bolaga nutq madaniyatini o'rgatish va unda har bir mashg'ulotlarga qiziqish uyg'otish, so'z, gap yordamida nutqiy faoliyatga ehtiyoj hosil qilish, shuningdek, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishdir. Nutq ikki ko'rinishga ega - og'zaki, va yozma nutq. Bular o'zaro uzviy bog'langan bo'lsa ham, har birining o'ziga xos xususiyati bor. Og'zaki nutqda tovushlar, so'zlar nutq orqali talaffuz qilinsa, eshitish a'zolari orqali qabul qilinadi. Shuning uchun o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishida, avvalo ularning nutqidagi kamchiliklar sabablarini aniqlash, uni bartaraf etish yo'llarini izlab topishimiz kerak. Chiroyli so'zlashni, savodli, to'g'ri yozishni, o'z fikrini ravon va aniq bayon etishni bilmagan yoki etolmagan o'quvchi bilimlarni muvafaqqiyat bilan o'zlashtira olmaydi. Har bir insonning nutqi chiroyli, mukammal, talaffuzi aniq, ravon bo'lsa, fikrlash doirasi keng, idrok qilishi ham teran bo'ladi. Nutq orqasli odamzot o'zining ichki hissiyotlarini ham bayon qiladi, nutq esa barcha insonlarda ham bir xilda-to'la rivojlangan yoki shakillangan bo'lavermaydi. Ba'zi bolalar tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilibgina qolmay, ularni bir-biridan farqlay hamolmaydilar. Nutqdagi bunday kamchiliklar darslarni o'zlashtirishda bolalar uchun sezilarli qiyinchiliklarni tug'diradi. Bunday hollarda logoped mashg'ulotlar yordamiga muxtoj bo'ladilar.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf oquvchilarining nutqlaridagi nuqsonlarni bartaraf etish o'quvchilar va logopedlar zimmasiga yuklanadi. Talaffuzdagi kamchiliklarni aniqlashda bolaning nutqini tekshirib ko'rish, nutq buzulish sabablarini o'rganish lozim. Buning uchun har bir bola nutqini tekshirish varaqasi to'ldirilib, qaysi tovushlar to'g'ri yoki noto'g'ri talaffuz qilayotgani belgilab boriladi. Nutq ostirish-ongli o'qishni, so'zlash va yozishga o'rgatishni, til haqida o'quvchilarning yoshi va tushunchasiga mos bo'lgan bilim berishni, ularning lug'at boyligini oshirishni, boshqalarning nutqiga e'tibor va qiziqishni o'stirish, kitob o'qishga muhabbat uyg'otishni ko'zda tutadi. Og'zaki nutqqa o'rgatishning ilk davrida daktiologiya (qo'l alifbosi) dan foydalaniladi. Bu narsa bolalarning tovushlarni talaffuz qilib, o'zlashtirib borganlari sari faqat yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida olib boriladigan barcha mashg'ulotlarning yetakchi o'rni nutq o'stirish bo'lib, u savod o'rgatish, chiroyli yozish ko'nikmalarini shakillantirish va fikrlash doirasini kengaytirish vazifalarini o'z ichiga oladi. Bu darslarda ko'proq amaliy maqsadlarni ko'zlash, til boylıklaridan nutqda foydalanish malakalarini shakillantirish, ijodiy fikrlash, o'quvchilarning til sezgirligini tarbiyalash lozim. Ularning og'zaki nutqini muntazam o'stirib borish bog'anishli nutq, matn

tuzishlarda amaliy yordam beradi. Ma'lumki, bu vazifalarni amalga oshirish yo'llari xilma-xildir. Savod o'rgatish darslarida amaliy mashg'ulatlarga keng o'rin berish va malakalarni singdirishda qiziqarli va jonli narsalardan, texnika vositalaridan, turli o'yin va o'yin turidagi mashqlardan foydalanish samarali natijalar beradi. Darslikka doir hikoyalar, ertaklar, she'r va maqollardagi notanish so'zlar o'qib yoki eshittirib tushuntiriladi. Shunday qilib, har bir darsda, u qaysi predmet bo'lishidan qat'iy - nazar, birinchi galdagi vazifamiz o'quvchilarning ongli, ravon, to'g'ri va ifodali o'qishiga erishishimiz, nutqini o'stirishga harakat qilmog'imiz lozim.

Ma'lumki, nutq tafakkur bilan bog'liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy bog'liq holda o'stiriladi. Darsda o'qilgan asarni o'quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g'oyasini anglab yetishi uchun analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi logik priyomlar qo'llanadi. O'qilgan asarni analiz qilishda har xil ish usullaridan foydalaniladi. Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish vositalaridan biri to'g'ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to'liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matnни to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o'qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o'qituvchining savoli o'quvchilarni hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o'rtasidagi bog'lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar syujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning xatti-harakati asosiy rol o'ynaydi. Bolalar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti -harakati, harakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab etadilar. O'qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakatlari qaerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so'zlab berishga, voqealarning izchil bayon qilinishiga va o'zaro bog'liqlikni yoritishga yo'naltirilishi lozim. O'quvchi o'qilgan asar mazmunini o'qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalanadi: ayrim faktlarni o'zaro bog'laydi (sintezlaydi), bir-biriga taqqoslaydi, ular yuzasidan muhokama yuritadi va xulosa chiqaradi. Ko'pincha boshlang'ich sinf o'quvchilari qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, ba'zan noto'g'ri yoki yuzasi tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab etmaydilar. Shuning uchun ham o'qituvchi savolni juda o'ylab tuzishi, u bolani fikrlashga, o'ylashga majbur etadigan, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati, voqealarning bog'lanishi yuzasidan muhokama yuritadigan, ularni o'zaro qiyoslashga, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan bo'lishi lozim. O'quvchi asarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini qanchalik aniq ko'z oldigan keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi. O'qilgan asar mazmunini izchil ravishda qayta hikoyalash uning rejasini tuzishga yordam beradi. Reja tuzishda o'quvchi hikoyani tarkibiy qismlarga bo'ladi va har qaysi qismdagi asosiy fikrni aniqlaydi. Bularning hammasi analitik ish hisoblanadi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida reja

tuzish jarayonida o'qilgan hikoyaning har bir qismida bosh va ikkinchi darajali masala nimalardan iboratligi haqida, qanday qilib fikrni qisqa va aniq ifodalash haqida o'ylaydilar.

Sarlavha topish ustida ishlash, o'quvchilar topgan sarlavhani jamoa bo'lib muhokama qilish, reja tuzish jarayonining o'zi bolaning fikrlash qobiliyatini faollashtirishi, unda o'z mulohazasini isbotlash, asoslash odatlarini tarbiyalashi lozim.. Qisqartirib hikoyalash uchun 2-3 qismga bo'linadigan, bu bo'limlar yaqqol ajralib turadigan, mazmuni sodda asarlar tanlanadi. Qisqartirib hikoyalashga o'rgatish quyidagicha uyushtiriladi: o'qituvchi hikoyaning oldindan belgilab qo'yilgan birinchi qismini o'qiydi va o'quvchilar bilan birgalikda eng muhim, asosiy fikr aniqlanadi. Bunda o'quvchilar ba'zan asardagi so'zlardan foydalanadilar. Bu o'quvchilarga qiyinlik qilsa, bo'limdagi asosiy fikrni o'z so'zlari bilan aytib berishlari mumkin. Keyin o'quvchilar o'qituvchi bilan bu qismni qisqartirib hikoyalashda nimalar haqida gapirmaslik kerakligini, qaysilar ikkinchi darajali yoki kam ahamiyatli fikr ekanini aniqlaydilar. Asarning boshqa qismlari yuzasidan ham shunday ish olib boriladi va o'quvchilar asarni qisqartirib qayta hikoya qiladilar. O'qilgan asarni qisqartirib hikoya qilishga 3 -sinf dan boshlab o'rgatiladi. Tanlab hikoyalash ham bolalarning tafakkuri va nutqini o'stirish vositalaridan biridir. Tanlab hikoyalashda o'quvchi:

1) o'qigan matndan bir qismini, uning chegarasini ongli ravishda ajratib so'zlab beradi;

2) hikoyadan faqat bir voqeani aytib beradi;

3) hikoya mazmunini faqat bir syujet yo'nalishida so'zlab beradi.

Bolalar tanlab qayta hikoyalash malakasini hosil qilishga boshlang'ich sinf izohli o'qish darsida keng qo'llanadigan metodik usullar yordam beradi:

1) hikoya qismiga chizilgan rasm asosida hikoyalash;

2) hikoyadagi bir voqeani tasvirlovchi rasm asosida hikoyalash;

3) tanlab qayta hikoyalashni talab etadigan savollarga javob berish.

O'quvchi tanlab hikoya qilishga tayyorlanganda o'qilgan matnni tahlil qiladi. Bunday tahlil bolalar tafakkurini, ular nutqidagi mustaqillikni o'stiradi va o'qilgan matn mazmunini o'zlashtirishga yordam beradi.

Hikoyani o'qish bilan bog'liq holda o'tkaziladigan ijodiy ishlar ham o'quvchilar nutqini, tafakkurini o'stiradi. Bular:

1) ijodiy qayta hikoyalash;

2) inssenirovka qilish;

3) o'qilgan asarga rasm chizish; hikoyani davom ettirish.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish kerakki, nutq o'stirish mashg'ulotlarida, ayniqsa, bolalarning badiiy asarlarni o'qib, hikoya qilib berishlariga katta ahamiyat beriladi. Badiiy asarlarni qayta hikoya qilib berishga o'rgatish va ularni sahnalashtirish, she'rni yod oldirish o'qituvchiga katta mahorat va mas'uliyat yuklaydi. Muallif tomonidan badiiy asar mazmuni qanchalik yorqin ifodalangan bo'lsa, unda ishtirok etuvchilarning nutqlari (gaplari) bolalarga ifodali, mazmunli yetkazilsa, u bolalarni hayajonlantiradi,

his-tuyg'ularining rivojlanishiga, asar qahramonlari bilan bo'ladigan voqealarning uzoq esda saqlanishiga, lug'atining boyishiga hamda nutqning grammatik jihatdan to'g'ri shakllanib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalar hech qanday qiyinchiliksiz o'qituvchining asar yuzasidan bergan savollariga javob bera oladilar, ayrim so'zlarni, jumalarni takrorlaydilar, qahramonlarning ijobiy va salbiy tomonlarini xarakterlab beradilar, o'qituvchiga taqlid qilib, ularning ovozini o'xshatishga harakat qiladilar.

Har bir mamlakatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma'naviy yuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishi - bilimli, yuqori intellektual salohiyatli, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarni mujassamlagan yoshlarga bog'liq hisoblanib, har jihatdan yetuk va barkamol, Vatan taqdiri uchun sidqi dildan xizmat qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o'qitishni sifatli va mazmun jihatdan yuqori pog'onalariga olib chiqish avvalo o'qituvchi va tarbiyachi murabbiylar zimmasiga sharafli va ayni paytda mas'uliyatli vazifani yuklaydi. Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so'zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o'zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo'l ochadi. Umuman, shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.) ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o'rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo'yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala shiddat bilan sakrash tarzida ro'y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dilova N.G. (2021). Ajdodlarimiz merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarga ta'lim-tarbiya berishning ahamiyati. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 515-523 betlar.

2. Dilova N.G. (2021). O'quvchilarning shaxsiy sifatlari - pedagogik hamkorlikning dastlabki tamoyili. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 558-566 betlar.

3. Dilova N.G. (2021). O'qituvchi-o'quvchi hamkorligini vujudga keltirishning pedagogik ahamiyati. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 567-576 betlar.

4. Расулова З. (2021). Замонавий ахборот-коммуникация технологиялари укув жараёнларини ривожлантиришнинг муҳим омили сифатида. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 349-359 бетлар.

5. Isakovna, T. S., & Xaydarovna, M. N. (2022). BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI TARBIYALASHDA MEHNAT TARBIYASINING AHAMIYATI. PEDAGOGS jurnali, 23(2), 186-191.

6. Турсунова, С. И. Педагогические основы национализации школьного образования. ТГПИ. 2022 год.

7. Isakovna, T. S., & Yo'lchi, O. R. R. Z. (2022). YOSH AVLODNI VOYAGA YEKAZISHDA TARBIYANING AHAMIYATI. PEDAGOGS jurnali, 23(3), 15-22.

8. Isakovna, T. S. (2022). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH. PEDAGOGS jurnali, 23(2), 179-185.

9. Isakovna, T. S. (2022). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. PEDAGOGS jurnali, 23(2), 172-178.

10. Турсунова, С. (2022). Методика обучения русскому языку младших школьников. Общество и инновации, 3(8/5), 179-186.

11. Sattarova Munjoat Tokhtayevna, & S. I. Tursunova. (2023). PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF USING NATIONAL HERITAGE IN EDUCATION OF SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 11, 66-70.

12. Tursunova Saida Isakovna. (2022). The development of oral speech of younger schoolchildren in extracurricular activities. Eurasian Research Bulletin, 14, 280-286.

O'QUVCHILARDA FUQAROLIK BURCHI TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOYIY- PEDAGOGIK OMILLARI VA VOSITALARI

*Jovliyeva Gulira`no G`afurovna
TerDPI 2-kurs magistranti*

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o`quvchilarida fuqarolik burch tuyg`usini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik omillarini o`rganish hamda uning o`quvchilar faoliyatidagi ahamiyati haqida so`z boradi.

O`sib borayotgan shaxsning fuqarolik burchi tuyg`usini shakllantirish pedagogika fani va amaliyotining dolzarb vazifasidir. Ushbu muammo ko'pqirrali bo'lgani sababli uni yosh psixologiyasi, sotsiologiya, milliy, istiqlol g'oyasi, dinshunoslik, pedagogika, ma'naviyat asoslari, falsafa kabi turli fanlar o`rganib kelmoqda. Mustaqillik yillarida yangicha mazmun kasb etgan o'zbek pedagogikasi oldida fuqarolik burchini anglagan shaxsni shakllantirish vazifasi turibdi. Inson o'zi yashayotgan jamiyat o'zgarishlarining faol ishtirokchisi ekan, uning faoliyatini mumkin qadar muayyan g'oyalarga asoslangan burch va ishonch boshqaradi. Shu sababli fuqarolik tarbiyasi shaxs hayotining bolalik chog'ida boshlanishi maqsadga muvofiq. Zero, shaxsni boshqalardan ajratib turuvchi bosh ko'rsatkichlardan biri uning burch hamda majburiyatidir.

Ta'lim jarayoniga qo'yilgan davlat talablari, turli tarbiyaviy tadbirlar, jumladan, an'analar orqali bolaning yoshiga mos ravishda milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurani shakllantirish zarur. O'quvchilarning ijtimoiy xususiyatlari (ma'lumoti, yoshi, jinsi va boshqalar)ni hisobga olgan holda milliy g'oya va fuqarolik burchi tuyg`usini shakllantirishning samarali yo'llarini ilmiy tadqiq etish lozim.

Barkamol shaxsni shakllantirish va uni turli tahdidlarga qarshi aqliy, g'oyaviy, mafkuraviy tayyorligini ta'minlash muammosi ilmiy tadqiq etilmog'i kerak. Fuqarolik burchi tuyg'usining shakllanishida va targ'ib qilinishida madaniyat va uning tarkibiy qismlari - ilmu fan, ma'rifat, adabiyot, san'at, din, axloq va an'analar mazmunidagi eng ezgu, xalqchil fikr, g'oyalar saralanadi, ular umumlashib, uyg'unlashib fuqarolik burchi tuyg'usining rivojlanishiga poydevor bo'ladi.

Insonning insonligi, uning jamiyatdagi o'rne va nufuzi ham ma'lum ma'noda uning huquq va burchlarini anglashi bilan shakllanadi¹⁹ va bu bizningcha:

- Vatanga bo'lgan muhabbatda;
- o'zgalarga ziyon keltiruvchi amallarni qilmaslikda;
- foydali ish bilan shug'ullanishda;
- bir ishni bajarish uchun butun kuchi va iqtidorini safarbar qilishda;
- boshlagan ishni oxiriga yetkazishda;
- qilayotgan ishining foyda-zararini yaxshi bilishda;
- ilmga intilishda;
- aniq maqsad bilan yashashda;
- doimo barkamollikka intilishda;
- yaxshilarga oshno bo'lishda;
- o'zidan oilasiga, farzandlariga, insoniyatga nimadir qoldirishni istab yashashda;
- shaxsdagi jur'at, mardlik, fidoyilik, iroda, vijdon, qat'iyat, halollik, insoniylik, vatanparvarlik kabi fazilatlarda namoyon bo'ladi.

Kishilarning o'z burchlarini anglashi ulardagi bir qator insoniy fazilatlarda namoyon bo'ladi. Misol tariqasida Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" qomusiy asaridagi bir dialogni keltirish mumkin.

Unda alloma to'g'rilik va zakovatni hozirgi ma'nosida talqin qiladi.

"Oyto'ldining Eligga savoli:

- Odamni yorug'likka olib chiquvchi to'g'rilik belgilarini aytib ber. Nimaga to'g'rilik yo'li deyiladi, to'g'rilikning asosi qanaqa bo'ladi? Eligning Oyto'ldiga javobi: Elig aytdi:

-To'g'rilikning tili bilan dili bir bo'ladi. Ularning ichlari sirtidek va sirtlari ichidek bo'ladi, to'g'rilikning belgilari mana shunday bo'ladi. Odam qimmat emas, odamgarchilik qimmat. Zakovati to'g'ri, chin odamlar ardoqlanadi²⁰.

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsdan tashqari mashg'ulotlarda ekologik tarbiyalash, boshlang'ich maktab o'quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari, o'zbek xalq ertaklari

¹⁹Abdullayev.O. Yoshlarda mafkuraviy e'tiqodni shakllantirish // Milliy istiqloq g'oyasi targ'ibotining ilmiy asoslari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2002. –B. 140-141.

²⁰ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig: – Toshkent: Fan, 1971. –B. 235-236.

vositasida kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida do'stlik, o'rtoqlik hissini tarbiyalash masalalari ishlab chiqildi²¹.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fuqarolik burchi tuyg'usini tarbiyalashda oila va oila a'zolarining roli yetakchilik qiladi. Shu sababli biz kichik yoshli o'quvchilarda fuqarolik burchi tuyg'usini tarbiyalashning eng muhim omil sifatida e'tirof etamiz. Xalqimiz qadim-qadimdan oilani muqaddas dargoh, yangi avlod tarbiya qilinadigan asosiy tarbiya o'chog'i, deb biladi. Farzand tarbiyasida oilaning o'rni katta ekani xalqimizning «Qush uyasida ko'rganini qiladi» degan hikmatida ham o'z ifodasini topgan.

Bu Alisher Navoiyning quyidagi misralarida ham namoyon bo'lgan:

«Onalar oyog'i ostidadur ravzai jannati jinon bog'i.

Jannat bog'in istar ersang, bo'l onaning oyog'i tuprog'i²²».

Ayni paytda, otaga nisbatan hurmat-e'tibor ham yuksak fazilat hisoblanadi. Zero, islom dini: «Alloh taoloning rozi bo'lishi otaning rozi bo'lishiga va uning g'azabi ham otaning g'azabiga bog'liqdir²³», deb ta'lim beradi.

Fuqarolik burchi tuyg'usini targ'ib qilishda ota-onalarga xizmat ko'rsatuvchi madaniyat muassasalari, jumladan, kutubxonalar, klublar, madaniyat uylari, san'at saroylari, muzeylar, konsert zallari kabilarning imkoniyatlaridan keng foydalanish mumkin.

Fuqarolik burchi tuyg'usining shakllanishi va taraqqiy etishi, eng avvalo, ziyolilarga, jumladan, olimlar, yozuvchilar, san'atkorlar, ijodkorlar, tarbiyachilar, ma'rifatchilarga ham bog'liq. Jamiyatni ezgu maqsad sari yetaklovchi milliy g'oyani shakllantirish va rivojlantirish ziyolilarning muhim vazifasi ekan, bugungi kunda davlat ularning faoliyatlarini qo'llab-quvvatlab turayotgani, moddiy va ma'naviy sharoit, qulayliklar yaratayotgani katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytish mumkinki, XXI asrda milliy g'oyamiz o'z tarixiy tomirlaridan kuch olib, gullab-yashnab, ajdodlarimiz tajribasiga tayanib, jahon darajasiga chiqib, umuminsoniyat sivilizatsiyasini boyitishga yanada samarali xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev. O. Yoshlarda mafkuraviy e'tiqodni shakllantirish // Milliy istiqloq g'oyasi targ'ibotining ilmiy asoslari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2002. –B. 140-141.

2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig: – Toshkent: Fan, 1971. –B. 235-236.

3. Rahimqulova M.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ekologik qadriyatlar asosida tarbiyalash. – Ped. fan. nomz. ... dis. avtoref. – T.: O'zPFITI, 2000. – 20 b.; Ibragimov R. Boshlang'ich maktab o'quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. – Ped. fan.

²¹ .Rahimqulova M.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ekologik qadriyatlar asosida tarbiyalash. – Ped. fan. nomz. ... dis. avtoref. – T.: O'zPFITI, 2000. – 20 b.

²² Alisher Navoiy. Arbain. – Toshkent: Yozuvchi, 1991. –B. 40.

²³ .Imom Buxoriy. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). – Toshkent: Movarounnahr, 2006. –B. 48.

- nomz. ... dis. avtoref. – Toshkent: O‘zPFITI, 2002. – 41 b.; Bozorova M. Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida do‘stlik, o‘rtoqlik hissini tarbiyalashda o‘zbek xalq an‘analaridan foydalanish (o‘zbek xalq ertaklari misolida). – Ped. fan. nomz. ... dis. avtoref. – Toshkent: ToshDPI, 1994.-20b
4. Alisher Navoiy. Arbain. – Toshkent: Yozuvchi, 1991. –B. 40.
5. Imom Buxoriy. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). – Toshkent: Movarounnahr, 2006. –B. 48.
6. Хазраткулова Ш.Н. «Совершенствование методов воспитания на занятиях в начальных классах». Международной научно-практической конференции. АЭТЕРНА. УФА. 1 августа 2022 г.
7. Khazratkulova Shoira Noraliyevna. Use of modern teaching methods in education of Students in primary schools. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal. Indiya. 2022 yil fevral. (123-126-b.)
8. Xazratkulova Sh.N. “Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisining kasb madaniyati va mutaxassis modeli” NamDU ilmiy axborotnomasi – 2022-yil 10-son. www.journal.namdu.uz
9. Xazratkulova Sh., Abdiraxmonov Sh. “KAYKOVUSNING “QOBUSNOMA” ASARNING TA‘LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI” International Multidisciplinary Conference Hosted from Manchester, England 25th April 2023. <https://conferencea.org>
10. Sh.N.Khazratkulova “EDUCATION DIRECTED TO STUDENTS IN TEACHING THE SCIENCE OF EDUCATION IN PRIMARY GRADES DISTINCTIVE ASPECTS” International Scientific Research Journal (WoS) April 2023. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/3767>

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI

*Keldiyorova Manzura Temur qizi
TerDPI talabasi
Norqobilova Rayxona Davlatovna
TerDPI o‘qtuvchisi*

2022

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik yosh bolalar psixologikasi va yoshlik davrida maktab va o‘tish davrlaridagi muammolar pedagogik muammolar asosan bola tarbiyasi jarayonidagi pedagogik qarashlar va tarbiya masalasi to‘g‘risida ma‘lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Bolalar psixologiyasi, bolalar psixologiyasi fanining predmeti, L.S.Vigotskiyning fikrlari, bola taraqqiyoti, pedagogik psixologiyaning muammolari va yechimlari. o‘yin texnologiyalari, samaradorlik, boshlang‘ich ta‘lim, o‘yin faoliyati, qiziqish, dunyoqarash.

Bolalar psixologiyasi – psixologiya fanining alohida tarmog‘i bo‘lib, u turli yosh davrlarda bola psixik taraqqiyotining qonuniyatlarini shuningdek bir yosh bosqichidan boshqa yosh bosqichlariga o‘tish qonuniyatlarini o‘rganadi.

Bolalar psixologiyasi fanining asosiy e'tibori tug'ilgandan yetuklik davrigacha inson psixikasi va ongining qanday rivojlanishiga qaratilgan. D.B.Elkonin yozganidek, bola jamiyat a'zosi va shaxs sifatida shakllanib borar ekan, bolaning psixikasi rivojlanib, olamni aks ettirish qobiliyati go'daklikdan yetuklik davrigacha muruakkablashib va takomillashib boradi. Ushbu jarayonning o'ziga xos xususiyatlari, uning qonuniyatlarini bolalar psixologiyasi tadqiq etadi. Bola rivojlanishining turli tomonlarini har xil fanlar - anatomiya, fiziologiya, oliy nerv faoliyati fiziologiyasi, gigiyena, etnografiya va boshqalar o'rganadi. Tug'ilgandan yetuklik davrigacha bola psixik taraqqiyotini o'rganish esa psixologik bilimlarning maxsus sohasi - bolalar psixologiyasining zimmasidadir. Chunki bolalar psixologiyasi bola psixik taraqqiyotining qonuniyatlari, rivojlanishning turli bosqichlarida bola psixikasiga xos xususiyatlar haqidagi fandır.

L.F. Obuxova ta'kidlaganidek, bolalar psixologiyasi fanining predmeti tarixan o'zgarib borgan. Bugungi kunda bolalar psixologiyasi fanining predmeti ontogenezdagi psixik taraqqiyotning umumiy qonuniyatlarini, yosh davrlarini, bir yosh davridan boshqasiga o'tish sabablarini aniqlashdan iborat. Agar pediatr bolalarning jismoniy salomatligi bilan shug'ullansa, bolalar psixologi bola psixikasining qanchalik to'g'ri rivojlanayotgani va faoliyat ko'rsatayotganini, bordiyu, bir sohada kamchilik bo'lsa, uni nimaning hisobiga kompetensiyalash mumkinligini o'rganadi. Hozirgi kunda bolalar psixologiyasi fani predmetining kengayib borishi kuzatilib bormoqda. Bu hodisa bolaning homila davridagi rivojlanishini tobora chuqurroq o'rganish natijasida ro'y bermoqda.

Bolalik - ontogenezninig dastlabki davrlarini belgilash uchun (tug'ilgandan o'smirlikgacha bo'lgan davrni belgilash uchun) qo'llanadigan tushuncha. Yosh davrlarining an'anaviy tasnifiga ko'ra bolalik -- go'daklik (tug'lgandan 1 yoshgacha), ilk boldik (1 yoshdan 3 yoshgacha), maktabgacha yosh (3 yoshdan 6-7 yoshgacha) va kichik maktab yoshi (6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha) davrlarni o'z ichiga oladi. Bolada bu jadal psixik taraqqiyot davridir,

L.S. Vigotskiy (1896-1934) eng mashhur rus psixologi va faylasuflaridan biridir. Olim o'z ilmiy qarashlarida ilgari surgani ko'plab g'oyalar bevosita bolalarning psixik taraqqiyotiga oiddir. L.S. Vigotskiyning oliy psixik funksiyalar shakllanishi haqidagi qonuni bolalar tarbiyasi va ta'limini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Psixolog ilmiy qiziqishlarining markazida bolaning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti masalasi turadi. L.S. Vigotskiyning izlanishlari oliy psixik funksiyalar, ya'ni ixtiyoriy xotira va diqqat, tafakkur, irodaviy harakatlarni bevosita miyaning faoliyati bilan tushuntirib bo'lmasligini, ushbu funksiyalarning mohiyatini tushunish uchun ularning ildizlarini organizmdan tashqaridagi ijtimoiy muhitdan izlash lozimligini ko'rsatdi, Aynan L.S. Vigotskiyning ilmiy qarashlari ijtimoiy muhit ahamiyatini aniqlashtirishda muhim poydevor bo'lib hizmat qildi.

L.S.Vigotskiyning fikricha, psixik taraqqiyotning harakatlimtiruvchi kuchi ta'limdir. Ta'lim psixik taraqqiyotni o'z ortidan tortadi va uni tezlashtiradi. U kutilgan natijani berishi uchun taraqqiyotdan oldin bo'lishi, ya'ni rivojlanishning eng yaqin zonasiga mo'ljal olishi lozim. L.S.Vigotskiy o'z konsepsiyasida bola psixik taraqqiyotining 4 asosiy qonunini ta'riflab berdi. Bu qonunlar quyidagilardan iborat:

1. Bola taraqqiyot ritmlarining farqlanish qonuni. Bu qonunga ko'ra bolaning rivojlanishi o'z sur'atlariga ega, bu sur'atlar vaqt ritmiga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun chaqaloqlikdagi hayotning 1 yili o'smirlikdagi 1 yilga teng bo'lmaydi;

2. Bola taraqqiyot idagi metamorfoza qonuni. Bu qonunga ko'ra, rivojlanish sifat o'zgarishlarning zanjiridan iborat. Bola kamroq biladigan, qo'lidan kamroq narsa keladigan odam emas, balki psixikasi sifat jihatdan kattalar psixikadan farqlanuvchi mavjudotdir;

3. Bola taraqqiyotining notekislik qonuni. Bu qonunga ko'ra, bola psixikasining har bir tomoni o'z taraqqiyotining optimal davriga ega bo'ladi, har xil psixik funksiyalar notekis, noproportional rivojlanadi;

4. Oliy psixik funksiyalarning shakllanish qonuni. Bu qonunga ko'ra, har qanday oliy psixik funksiya avval bolaning atrofdagilar bilan bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi, keyinchalik u individual sohaga ko'chadi. Shuningdek, L.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha, bola taraqqiyotida barqaror davrlar inqiroz davrlar bilan almashadi. Inqirozlar ikki yosh davri tutashgan joyda, bola psixikasi va xulq atvoridagi eski xususiyatlarning yo'qolib, yangilari shakllanishi davrida ro'y beradi. Demak, L.S.Vigotskiy psixologiyada madaniy-tarixiy yondoshuvga asos solgan. Mazkur yondashuv bolalair psixologiyasidagi nazariy va amaliy muammolarni hal qilishda ham katta ahamiyatga egadir.

Pedagogik psixologiyaning muammolari va yechimlari.

1. Bolaga ongli tashkil etilgan pedagogik ta'sir va uning psixologik taraqqiyoti orasidagi bog'lanish muammosi. Bolaga ta'lim va tarbiya ta'sir etadimi, yoki bola faqat bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lib, intellektual va axloqiy rivojlanishga ta'sir qilmaydimi? Har qanday ta'lim bolaning rivojlanishiga ta'sir qiladimi yoki faqat muammoli va rivojlantiruvchi ta'limmi?

2. Ta'lim va tarbiyaning umumiy va yosh muammolari. Bola hayotining har bir aniq davrida ta'limga yoki tarbiyaga urg'u berish kerakmi?

3. Bolaning pedagogik qarovsizligi muammosi.

Yuqorida keltirilgan psixologik-pedagogik muammolarni hal qilish o'qituvchilardan yuqori kasbiy mahoratni, psixologik bilim, ko'nikma va malakalarni talab qiladi

Bu muammolarni yechishda asosan har bir bolaning yoshidan kelib chiqqan holda ota on ava ta'lim muassasasi yordamida tashillashtirishimiz kerak. Har qanday ta'lim bolaga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bolaga har bir yosh davridan tarbiyani kuchliroq berib borish kerak yoshligidan ilm olishga qiziqtirish kerak. Bolalar hayoting ko'p qismini o'yinqarorlik bilan o'tkazadi. Katta bo'lgan o'qishga boshida qiziqadi so'ng o'qishdan soviydi,

chunki yoshlikdan erkin katta bo'lgan bola birdan maktab davrida har xil muhitdagi odamlarga duch keladi. Bola tarbiyasiga e'tibor yaxshi qaratilishi kerak. Bolaning pedagogik qarovsizligi bu juda yomon ahvol o'sib keladigan bolani pedagogik yaxshi ta'lim tarbiya berib o'z qiziqqan yo'nalishga boshlamasa bola kelajakda loqayd inson bo'lib chiqishi mumkin shu o'rinda donishmandlarimiz aytganidek“ Dushmanlardan qo'rqma — nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlardan qo'rqma — nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Loqayd odamlardan qo'rq — ular seni o'ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi” shunday ekan biz kelajak avlodni yurt uchun xalq uchun komil inson bo'lib yetishi uchun tarbiyani uzviy holda berishimiz lozim.

O'sib va rivojlanib kelayotgan inson tarbiya obyekti hisoblanadi. Insonning hayoti davomida rivojlanish jarayoni davom etadi. Inson turli o'zgarishlarni jismoniy-psixik miqdor va sifat o'zgarishlarni o'z hayoti davomida kechirib boradi. Odamzodda bo'ladigan jismoniy o'zgarishlarga uning bo'yining o'sishi, vaznining og'irlashib borishi, suyak va mushak tizimlari, ichki organlari, shu bilan birga asab tizimlarining o'zgarishi kiradi, Irsiyat - bu genetik dasturda berilgan sifatlar va xususiyatlarning otalardan bolalarga o'tishidir. Muhit deganda kishiga ta'sir etadigan tashqi voqealarning yig'indisini tushunamiz. Bunga tabiiy muhit (geografik), ijtimoiy muhit, oila muhiti va boshqalar kiradi. Ular bolalarning rivojlanishiga alohida ta'sir etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R.Mavlonova “Umumiy pedagogika nazaryasi va amaliyoti”.
2. B.Mamurova “Umumiy pedagogika”.
3. N.Asqarova va boshqalar. “Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish”
4. R.D.Norqobilova. Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini indikatorlar asosida diagnostika qilishning o'ziga xosligi. INTERNATIONAL CONFERENCES, 564-568. 2023
5. NR Davlatovna - Functions and Principles of Pedagogical Diagnostics. Web of Synergy: International Interdisciplinary 413-416, 2023/1/31
6. P Норқобилова -Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan iqtidorini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish. Общество и инновации. 36-41, 2023/1/25
7. P Nazarova, R Norqobilova - PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF EDUCATION OF YOUNG GENERATION AT ABU RAYHAN BERUNI TEACHING. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 1908-1911. 2022/6/30
8. S Xoliyeva, R Norqobilova - EASTERN SCIENTISTS 'VIEWS ON SPEECH. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 1433-1427. 2022/6/24
9. Sevara XOLIYEVA, Rayhona NORQOBILOVA, Muhlisa-MAMATMUROTOVA THE IMPORTANCE OF PEOPLE'S ORAL CREATIVITY IN

THE DEVELOPMENT OF SPEECH BY PRIMARY SCHOOL STUDENTS. 2022/6/9. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 84-87. Retrieved from

<https://www.scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/2379>

10. Sumbula IBROHIMOVA, & Rayhona NORQOBILOVA. (2022). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF USING THE HERITAGE OF ASIAN THINKERS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL SCIENCE CLASSES. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 81-83. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/2378>

11. Zoirova Sevinchbonu Khurshid Kizi, Norqobilova Rayhona Davlatovna, Tajimirzayeva Buzulaykho Mahammadjon Kizi. high spiritual generation-third renaissance builders. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. 167-169. 2022

12. Райхона Норқобилова. О'қувчиларнинг она тили бо'йича иқтидорини аниқлаш ва ривожлантиришнинг о'зига хослиги Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. 379-384. 2022

13. R.Norqobilova, M.To'rayeva Importance of talent in child development. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. ISSN: 2776-0979, VOLUME 3, ISSUE 7, July. 2022 57-61.

TA'LIM SIFATI: ISLOHOTLAR, MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLARI HAQIDA FIKR VA MULOHAZALAR

Mahmudova Kamola

TerDPI talabasi

Холиқова Парвина Абдумалик қизи

TerDPI o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish yo 'lidagi muammolar, ularni bartaraf etish hamda istiqbolini belgilash yo 'lidagi fikr va mulohazalar, jumladan, o'quv mashg'ulotlarini loyihalash, ilmiy tadqiqot ishlarini davr talablari asosida tashkil etish, bu borada xorij tajribalaridan foydalanish, ta'lim oluvchilarning kasbiy sifatlari hamda mantiqiy fikrlash operatsiyalarni rivojlantirish kabilar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: fan va texnika, ta'lim, tarbiya, o'quv dasturi, davlat ta'lim standarti, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, kasbiy sifat, mantiqiy fikrlash, metod, texnologiya va b.q.

Ma'lumki, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shadigan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta'lim tizimining rivojiga bog'liq bo'lib, bu borada mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, tadbirkor, tashabbuskor shaxsni voyaga yetkazish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu vazifalar respublikamiz Prezidentining qator farmon va qarorlarida o'z aksini topgan.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida zamonaviy bilim va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Shu bois, ta'lim sifatini oshirishda o'quv jarayonini davr talablariga mos holda tashkil etish, davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarini takomillashtirish, yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish, zamonaviy innovasion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, mavjud muammolarni bartaraf qilish ertangi istiqboldagi yutuqlarimiz kafolatidir. Fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko'plab ilmiy bilim, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib boradi. Bu, bir tomondan, fan texnikaning yangi sohalari rivojlanishi tufayli uning differentsiallashtirishini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayoni vujudga keladi. Bunday sharoitda malakali pedagoglarga bo'lgan talab ortib, fanning fundamental asoslari, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuqori bo'lgan hamda zamonaviy innovasion pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo'llay oladigan ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida pedagogik innovatsiyalardan foydalanish jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Bu o'z navbatida, mamlakatda modernizatsiya jarayonining tez sur'atlarda rivojlanayotganligi sababli ayni davrda ta'lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Ammo, bu sohaga o'qitishning yangi mazmun, shakl, metod va vositalarini joriy etish bo'yicha pedagogik ilmiy-tadqiqotlarning joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo'lmaydi. Darhaqiqat, yangilangan ta'lim tizimini joriy etishda har bir pedagog ta'limga oid yangiliklarni muntazam o'rganib, ularni o'z mehnat faoliyatida izchil qo'llay bilish mahoratiga ega bo'lishi muhim. Bugun fan va texnika sohasidagi yangiliklarni o'quv dasturi mazmuniga tez kiritish talab etiladi va bu orqali zamonaviy bilimlarni shakllantirishga zamin hozirlanadi. Bundan tashqari zamonaviy o'qitish texnologiyalari, ular bilan bog'liq metodik yondashuvlar bo'lajak pedagoglarda zaruriy bilim, muhim qonuniyat va ko'plab fundamental tushunchalarni chuqur va mustahkam shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Ta'limning sifatini oshirishda pedagoglar bilim va kasbiy mahoratining davr talablariga mosligi, o'qitishda innovasion ta'lim texnologiyalaridan oqilona foydalanishi, tashkil etilayotgan darslarning samaradorligi, ta'lim oluvchi yaxshi o'zlashtirishi uchun har bir mavzuning pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llagan holda o'tilishini ta'minlash talab etiladi. O'qitishda kompetensiyaviy yondashuvga soslangan ta'limni amaliyotga joriy etish, ta'lim oluvchilarda egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish, kasb tanlash, mustaqil ta'lim olish, o'quv bilish kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir. Bugungi kunda respublikamizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'qitishning innovatsion texnologiyalarini joriy etish, mustaqillik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik kabi kasbiy sifatlarga ega yoshlarni tayyorlash hamda pedagoglarni rag'batlantirish maqsadida katta ahamiyatga ega, sazovor ishlar amalga oshirilmoqda.

Buning uchun zamonaviy o'qitish texnologiyalari imkoniyatlari va usullaridan foydalanish zarur. Jumladan: mashg'ulotda muammoli, modulli, loyihalash, evristik hamda hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan foydalanish ta'lim oluvchilarni ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, mustaqilligini oshirish, ularda o'z qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Bu texnologiyalar ularning berilgan topshiriqlarni sifatli bajarishga, o'quv materiallarini puxta o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi. Bugungi kunda o'quv mashg'ulotlari sifatini oshirish masalasiga yangicha yondashish, bajarilgan ishlar bilan cheklanmasdan, uni muntazam ravishda takomillashtirish, yangi uslub va shakllarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish muhim hisoblanadi. Har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha:

- o'quv mashg'ulotining mantiqiy-tuzilish shaklini (o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda ketma-ketlik) aniqlash, ularni bevosita hayot talablariga moslashtirish;

- muammoli topshiriqlarni tuzish, ular asosida uslubiy tavsiyalar va ko'rsatmalarni tayyorlash;

- pedagogik texnologiyalarning zamonaviy turlarini qo'llash, tajribadan o'tkazish, natijalariga qarab, o'quv jarayoniga joriy etish;

- shu tariqa ta'lim oluvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishga erishish;

- pedagoglar faoliyatini rag'batlantirishda barchaga bir xil yondashish tamoyillaridan voz kechish, uning o'rniga faolligiga hamda mashg'ulotlar sifatini oshirishga taalluqli bo'lgan muayyan ishining sifati, hajmiga qarab rag'batlantirish lozim.

O'quv mashg'ulotining asosiy maqsad va vazifalarini amalga oshirishda - asosiy e'tiborni maqsad va vazifalarni aniqlashga qaratish, pedagog va ta'lim oluvchilarning samarali hamkorligini yo'lga qo'yish, ilg'or pedagogik texnologiya va ular asosida yaratilgan interfaol usullardan foydalanish, natijalarini baholash tizimini takomillashtirish, uning barcha shakllarini yangi texnika va texnologiya yutuqlarini hisobga olgan holda tashkil etish va amalga oshirish, ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyat hamda kasbiy mahoratlarini zamon talablari darajasida shakllantirish, o'quv mashg'ulotini noan'anaviy o'qish va ilmiy-tadqiqot ishlari bilan uzluksiz aloqasini yaratish, kasbiy, iqtisodiy qiziqishlarni uyg'otish, mustaqil tarzda kerakli ma'lumotlarni yig'ish, muammoni aniqlash, yechimlarini topish, olingan bilim, malaka va ko'nikmalarni tanqidiy tahlil etish va ularni yangi vazifalarni hal etishda qo'llashga tizimli va ijodiy yondashishga qaratish lozim.

Shu bilan bir qatorda:

- pedagoglar o'z kasbiy faoliyati bo'shliqlarni to'ldirish ustida izlansin, o'z ustida muntazam ishlasin;

- ta'lim oluvchilar bilan Internet tarmoqlari yoki telegramm orqali bog'lanib tursin, o'z fani yuzasidan ularga muammoli vazifalarni taklif etib borsin hamda ularning bajarilishini nazorat qilsin;

- hayotiy, turmush, fan, texnika va ishlab chiqarish bilan bog'liq muammolarni hal etishga bag'ishlangan ma'lumotlardan ularni ko'proq xabardor qilsin;

- bugungi kunda televidenie orqali efirga uzatilayotgan darslarni kuzatib borsin, ulardan tajriba olsin, ularni ko'rishni ta'lim oluvchilariga ham taklif etsin;

- ma'ruzalar slaydini yaratsin, ularda loyihalash va modellashtirishga e'tiborni qaratsin, bu o'z navbatida ta'lim oluvchilarning bilimlarni puxta egallashlariga, yaxshi tushunishlariga, kelajakda kerakli ekanligini tasavvur etishlariga xizmat qiladi;

- bugungi kunda o'qitish shakllari, metodlari, vositalari va texnologiyalarini qanday takomillashtirish kerakligi haqida o'ylasin, bu o'z navbatida ta'lim oluvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirada, pedagogga bo'lgan hurmat kuchayadi, o'zaro ijobiy munosabat va hamkorlik vujudga keladi;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ular asosida yaratilgan interfaol usullarni yaxshilab o'rgansing, chunki ayrim pedagoglarimiz pedagogik texnologiyalarning maqsad va vazifalarini, uning tamoyillarini, qonuniyatlarini, darsga kiritish mexanizmlarini hanuzgacha bilishmaydi yoki ulardan pala-partish foydalanishadi, bu esa o'z navbatida ta'lim oluvchilar bilimining susayishiga olib keladi;

- bugungi kunda ta'lim oluvchilarning kasbiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan - muammoli o'qitish, loyihalash, evristik, modellashtirish, modulli o'qitish texnologiyalaridan ko'proq foydalanishga hamda o'z faoliyatiga joriy etishga harakat qilsin, ularni yaxshilab tushunib olsin;

- ta'lim oluvchilarga kelajakda yaxshi mutaxassis bo'lib yetishishlarida mavjud tajriba va mahoratini ayamasin, xo'ja ko'rsinga dars o'tishdan voz kechsin, chunki yoshlarimizni kelajak kutyapti, Prezidentimiz ularga katta ishonch bildiryapti, qolaversa bu pedagogning obro'si;

- men zo'rman deyishdan o'zini asrasin, tajriba almashsin, bilmaganlarini boshqalardan so'rasin, bilganlarini boshqalarga o'rgatsin, aytishadi-ku so'rab o'rgangan olim, so'ramagan o'ziga zolim deb.

Demak, ilg'or xorij tajribalaridan foydalangan holda o'zimizning tizimlashtirilgan ta'lim sifati borasidagi amalga oshiriladigan ishlarni umumlashtirish va hayotda qo'llash bugungi kunda juda dolzarb. Shu maqsadda, keyingi paytlarda o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim dasturlari va o'quv-metodik materiallarni keng joriy etish muhim vazifalar etib belgilandi. Bu o'z navbatida ta'lim muassasalarida o'qitiladigan barcha fanlardan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va ular asosida ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy talablarga, pedagogik va axborot texnologiyalariga alohida e'tibor qaratish lozimligini taqozo etadi hamda

ta'lim oluvchilarning hayotiy tajribasi, ehtiyoji, qiziqishi hamda imkoniyatlariga tayaniladi.

Xulosa qilib aytganda bu vazifalarni amalga oshirish orqali malakali mutaxassislarni tayyorlashda xorij tajribalaridan samarali foydalanish, uning asosida o'quv mashg'ulotini tashkil etishga ta'lim muassasalarida yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Chunki, o'quv mashg'uloti jarayoni pedagogik ijodkorlikning asosiy maydoni bo'lib, uni tashkil qilish va boshqarishga to'g'ri, innovasion yondashuv ta'lim oluvchilarni bilim olishga, mustaqillikka, ijodkorlikka, tashabbuskorlikka, hamkorlikda ishlashga, kasbiy kompetensiyalarni chuqurlashtirish orqali ta'lim sifatiga e'tibor berishga jalb qiladi. Ta'lim sifatini oshirishdagi mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish, bu yo'ldagi maqsad va vazifalarni aniq belgilash, buning uchun jahonda tan olingan tajribalardan foydalanish, axborot texnologiyalarini pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda qo'llash bo'lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy tayyorgarlik sifatini yaxshilashga xizmat qiladi, bu jarayon samaradorligini oshiradi. Ta'lim maqsadlarini oydinlashtirish, o'qitish va o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan turli texnologiya va usullardan foydalanish, mazmunga e'tiborni qaratish ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son Qarori. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son).

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 06/20/6108/1483-son).

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'limtarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son Qarori. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 07/20/4884/1484-son).

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 23 сентябрдаги "Таълим тўғрисида"ги Қонун". ЎРҚ-637-сон. (Қонун

хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон).

7. Мавлянов А., ва б.қлар. Педагогик технология тамойиллари асосида машғулот машғулотларини олиб бориш технологияси. Ўқув-услубий кўлланма.

8. Khalikova Parvina “Peculiarities of the pedagogical possibilities of using the uzbek national spiritual heritage in the activation of primary school students”. Web of Scientific Research Journal. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 10, Oct 2022

9. Parvina Kholikova Abdumalik kizi. (2022). “THE SIGNIFICANCE AND PLACE OF USING NATIONAL VALUES IN THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION”. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11) 2022, 391–396. Retrieved from <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/2793> Parvina Kholikova Abdumalik kizi. (2022).

10. Холиқова П.А.(2023) “Миллий-маънавий меросни эъзозлаш ва унинг мазмун моҳиятини ёшлар онгига сингдириш”. *Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari, Xalqaro simpozium materiallari*, 842-847. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2023-2-842-847>

11. Xoliqova Parvina Abdumalik qizi “Бошланғич синф ўқувчиларига миллий маънавий меросимиз ва буюк мутафаккирларимиз ҳақида маълумот бериш”. “Образование и наука в XXI веке” международный научно-образовательный электронный журнал.- Россия,19.02. 2023 obr m pcareer@mail.ru <http://mpcareer.ru>

12. Xoliqova Parvina Abdumalik qizi FOR PARTICIPATION AND PUBLICATION OF THE PAPER ENTITLED “OILA TINCHLIGI – JAMIYAT FAROVONLIGI ASOSI” In an International Multidisciplinary Conference “14th International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education”, Published with Conferencea International Database, hosted online from New York, USA on May 28th 2023.

13. Холиқова П.А. “Таълиму тарбия, роли таълиму тарбия дар жамъият, эътибор аз тарафи роҳбари давлатамон ба соҳаи таълиму тарбия,конуни нав дар бораи таълим” O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI INNOVATSION AKADEMIYA MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI «Innovative Academy RSC» MChJ Platforma guvohnoma raqami: 1415-son № № CAJEI2303-00084

PAST O‘ZLASHTIRUVCHI O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI

***Mamatmurotova Muhlisa Kamol qizi -TerDPI talabasi
Norqobilova Rayxona Davlatovna -TerDPI o‘qituvchisi***

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning kelib chiqish sabablari, ularning faolligini oshirish yo‘llari, ularda bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarning

shakllantirilishi, rivojlantirilishiga xizmat qiladigan ta'lim usullarini qo'llash tajribalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, past o'zlashtiruvchi, qo'shimcha dars mashg'uloti, ko'nikma, kompetensiya, interfaol metod.

O'sib kelayotgan yosh avlodning bilimi va ularning kelajakda qanday kasb-hunar egallashlariga qarab mamlakatimiz kelajagini tasavvur qilishimiz mumkin. Yoshlar farovon hayot me'zonidir. Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish har bir ota-onaning, o'qituvchi-pedagogning vatan oldidagi muqaddas burchidir.

Kelajakda buyuk "davlatni sog'lom mafkurali, ma'naviy barkamol avlod barpo eta olishini nazarda tutib, komil insonni tarbiyalash borasidagi izlanishlarni istiqbolda ham davlat siyosati darajasida uzluksiz kuchaytirib borish va umumxalq harakatiga aylantirish"[1] avj olgan hozirgi tarixiy sharoitda bolalikning ilk pog'onalaridayoq bolalarda o'qish va o'rganishga nisbatan ehtiyojni kuchaytirish, ularni ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilaridan faol sub'ektlariga aylantirish dolzarb muammo bo'lib kelmoqda.

Bilamizki, boshlang'ich ta'lim keyingi ta'lim bosqichlari uchun asosiy poydevor hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan yondashsak, boshlang'ich ta'limga alohida e'tiborni qaratishimiz zarur.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'limda o'z yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Shulardan biri past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash muammosidir. O'quvchi maktabga kelgan kundanoq o'qishga havas qo'yishi, savodli o'qishi, dastlabki amallarni to'g'ri bajarishga o'rgatilishi kerak. O'qish inson hayotida muxim ahamiyatga ega. O'qishni bilmagan insonning ko'rdan farqi yo'q. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qitishda ularning rivojlanishi va psixologiyasini hisobga olish zarur. Bolalarning bu davrda diqqatlari beqaror bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda bola xotirasida ham o'zgarishlar ro'y beradi. O'quvchi xotirasini mustahkamlash uchun o'z-o'zini doimo nazorat qilib borish kerak.

Ular har bir sinfda o'ziga xos bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi va biror fanga, darsga nisbatan qiziqish yuzaga keladi. Dars vaqtida o'quvchi faoliyatiga qo'yiladigan baxolar ularda ruhiy tetiklik, shodlik, iftixor kabi hissiy kechinmalar tug'diradi. Ammo o'quvchilar orasida fanlardan orqada qolish past baholanadiganlari ham uchrab turadi. Muvaffaqiyatsizlikni bartaraf etish uchun vositani topish uchun uni keltirib chiqaradigan sabablarni bilish kerak. Bu bolaning aqliy faoliyatining past sifati, uning ta'limotga bo'lgan motivatsiyasi yo'qligi, o'quv jarayonini tashkil etishning nomutanosibliigi va boshqalar bo'lishi mumkin. Bundan tashqari o'quvchilarning past o'zlashtirishga quyidagi holatlarning biri yoki bir nechtasi ham sabab bo'lishi mumkin.

* O'quv materialining umuman yoki qisman tushunmasligi.

*O'qituvchining mahorati yetishmasligi.

*O'quvchining sinfda o'zini juda yomon his qilishi.

- * O'quvchi davomatining pastligi.
- * oilaviy muammolar.
- * O'rtoqlari oldida kamsitilishi.
- * O'quvchining o'yinqaroqligi, dangasaligi hamda xayolparastligi tufayli diqqatini jamlay olmasligi.
- * O'quvchining sog'ligi va psixikasi bilan bog'liq holatlar.

Past o'zlashtirish muammosi kattalarni ham kichiklarni ham tashvishlantiradi. Psixologik sog'lom bo'lgan bolaning hech biri yomon o'qishni, past baho olishni, tengdoshlaridan orqada qolishni xohlamasligi ravshan. O'quvchi maktabga kelganidan a'lo baholarga o'qishni istaydi. A'lo baholarga o'qish orzusi birinchi "ikki" baho olganda yo'qoladi, o'qish istagi pasayadi keyinchalik esa darslarni qoldira boshlaydi. Natijada, o'quvchining o'zlashtirishi yomonlashadi, bilimi pasayadi va u "og'ir" o'quvchiga aylanadi. Eng avvalo pedagog o'quvchini to'la-to'kis va har tomonlama o'rganishi kerak. Yuqorida keltirilgan holatlarni qaysi biri ta'sirida bola past o'zlashtirayotganligi tahlil qilishi hamda holatning asl sababini aniqlashi lozim bo'ladi

Bunda o'qituvchidan yuqori malaka, psixologik tajriba va texnologik bilimlarni bilish ham talab etiladi. O'qitish tizimida pedagogik texnologiyalarini samarali qo'llash pedagogning kasbiy kompetentligiga ham bog'liq. Shu sababli pedagogik texnologiyalarning samaradorligini pedagog tomonidan ularning qo'llanilishiga ko'ra ham baholash mumkin. Kreativ pedagogikaning maqsadi - shaxs (o'quvchi)ni o'qishga, ta'lim olishga ijodiy yondashishga, o'zining va o'z kelajagining yaratuvchisi bo'lishga o'rgatishdan iborat.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni zo'riqish va turli psixologik ta'sirlardan asrash, qiziqarli o'yinlar orqali bilimlarni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash o'qituvchidan juda katta mas'uliyat talab qiladi. Bu toifa bolalar bilan ishlashda avvalo yakkama-yakka suhbat o'tkazib ularning qiziqishlarini aniqlash lozim. Shuningdek maxsus jurnal tutib, bolalarning o'zlashtirishini muntazam monitoring qilib borish, qiynalayotgan fanlariga alohida mashg'ulot daftari tuttirish kabi usullar samarali hisoblanadi.

Hozirgi zamonaviy ta'limda barcha o'quvchilarni darsga qiziqtirish va dars samaradorligiga erishish uchun turli xil merodlardan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish maqsadida interfaol ta'lim metodlardan, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. Interfaol metodlar deganda - ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining

deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun hozirda turli namunalari bor. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib, tegishli qo'llash mumkin. Agar o'quvchida dangasalik, o'yinqaroqlik sezilsa, mavzuga qiziqmasa, diqqatni darsga jalb etolmasa u holda bu toifadagi o'quvchilar uchun sinfda musobaqa tashkil etib har bir savol, topshiriqni to'g'ri, aniq bajarishga jalb qilib, uni rag'batlantirib borish yaxshi natija beradi. Masalan: ona tili va o'qish savodxonligi, tabiiy fanlar va boshqa fanlardan "Ertak", "Egizaklar", "Auksion", "Zanjir" kabi o'yinlar orqali bu toifa o'quvchilarga dars mavzusini tushuntirish mumkin. Kim bu ballni qo'lga kiritisa, o'qituvchidan sezilarli rag'bat olsa va o'zi ham nimagadir qodir ekanligini his qilsa eng o'yinqaroq, past o'zlashtiruvchi o'quvchi shu onda eng faol o'quvchiga aylanadi. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish uchun ularning mustaqil fikrlash qobilyatini hamda nutqini rivojlantirish kerak. Bunda turli ertaklar, hikoyalardan foydalanish mumkin. Baddiy adabiyot o'quvchining nutq boyligini oshirib, dunyoqarashini kengaytiradi. O'qituvchi dars o'tar ekan har doim bolaning aqliy imkoniyati, qobilyati va albatta qiziqishlarini inobatga olishi zarur. 40-45 daqiqalik dars faqat faol, iqtidorli o'quvchilarni qondira oladi. O'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilar esa bu vaqtda to'liq ulgura olishmaydi. Shuning uchun dars mashg'ulotlaridan tashqari sinf fanlariga oid qo'shimcha darslar tashkil qilish samarali natija beradi.

Fanga oid qo'shimcha dars o'quvchilar uchun quyidagicha tashkil qilinadi:

1. O'quvchining qiziqishiga qarab.
2. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun.
3. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash maqsadida.

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qo'shimcha darslar tashkil qilishdan oldin, past o'zlashtirish sababi o'rganiladi. Dars qoldirish, ma'lumotlarni qabul qilishni istamasligi o'yinqaroqligi, oilaviy ahvoli kabilar. Bunday o'quvchilar bilan haftada 2 kun 1 soatdan vaqt ajratib, mashg'ulotlarni boshidan boshlamoq kerak. Past o'zlashtirishni bartaraf etishda o'qituvchi o'quvchi, psixolog va ota-onalar hamkorligida ish olib borishlari muhim. Yuqorida keltirilgan usullar orqali o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilarni rivojlantirish va past o'zlashtirishni bartaraf etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: O'zbekiston, 2017. -104 b.
2. Musurmonov A. "Ta'lim-tarbiyada xalq og'zaki ijodidan foydalanish". T.: O'qituvchi, 1993.
3. Suvonov O. va boshqalar. "Pedagogik texnologiyalarni qo'llash davr taqozosi". "Xalq ta'limi", 2004 yil, № 5.
4. R.D.Norqobilova. Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini indikatorlar asosida diagnostika qilishning o'ziga xosligi. INTERNATIONAL CONFERENCES, 564-568. 2023

5. NR Davlatovna - Functions and Principles of Pedagogical Diagnostics. Web of Synergy: International Interdisciplinary 413-416, 2023/1/31
6. P Норқобилова - Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan iqtidorini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish. Общество и
7. P Nazarova, R Norqobilova - PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF EDUCATION OF YOUNG GENERATION AT ABU RAYHAN BERUNI TEACHING. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 1908-1911. 2022/6/30
8. S Xoliyeva, R Norqobilova - EASTERN SCIENTISTS 'VIEWS ON SPEECH. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 1433-1427. 2022/6/24
9. Sevara XOLIYEVA, Rayhona NORQOBILOVA, Muhlisa- M
10. AMATMUROTOVA THE IMPORTANCE OF PEOPLE'S ORAL CREATIVITY IN THE DEVELOPMENT OF SPEECH BY PRIMARY SCHOOL STUDENTS. 2022/6/9. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 84-87. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/2379>
11. Sumbula IBROHIMOVA, & Rayhona NORQOBILOVA. (2022). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF USING THE HERITAGE OF ASIAN THINKERS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL SCIENCE CLASSES. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 81-83. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/2378>
12. Zoirova Sevinchbonu Khurshid Kizi, Norqobilova Rayhona Davlatovna, Tajimirzayeva Buzulaykho Mahammadjon Kizi. [high spiritual generation-third renaissance builders](#). Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. 167-169. 2022
13. Райхона Норқобилова. О'quvchilarning ona tili bo'yicha iqtidorini aniqlash va rivojlantirishning o'ziga xosligi Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. 379-384. 2022
14. R.Norqobilova, M.To'rayeva Importance of talent in child development. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. ISSN: 2776-0979, VOLUME 3, ISSUE 7, July. 2022 57-61.

**MATEMATIKA FANI ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA
KREATIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI, SHAKL VA
METODLARI**

*Maxmudova Mashhura Zokir qizi
TerDPI 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirish, kreativlik ko'nikmalarini yuzaga chiqarishda matematika fanining ahamiyati, matematik didaktik o'yinlardan foydalanish,

zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda interfaol metodlar va ulardan foydalangan holda darsni samarali tashkil etish mazmuni bayon etilgan. Unda asosiy e'tiborni kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ qobiliyatlarni rivojlanganligini aniqlash mezonlari va mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, o'quvchi kreativligi, qobiliyat, kreativ yondashuv, interfaol metodlar, ijodkorlik, texnologiyalar, mezonlar,

Annotation: This article describes the importance of mathematics in the development of creative activities of elementary school students, the development of creativity skills, the use of mathematical didactic games, modern pedagogical technologies and interactive methods, and the content of effective lesson organization using them. It focuses on improving the criteria and mechanisms for determining the development of creative abilities in elementary school students based on the competency approach.

Key words: creativity, student creativity, ability, creative approach, interactive methods, creativity, technologies, criteria.

Аннотация: В данной статье описывается значение математики в развитии творческой деятельности учащихся начальной школы, развитие навыков творчества, использование математических дидактических игр, современных педагогических технологий и интерактивных методов, содержание эффективной организации урока с их использованием. Основное внимание уделяется совершенствованию критериев и механизмов определения развития творческих способностей учащихся начальных классов на основе компетентностного подхода.

Ключевые слова: креативность, креативность учащихся, способности, творческий подход, интерактивные методы, креативность, технологии, критерии.

Ulug' donishmandlardan biri «... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya sohasida islohotlar chin ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan jarayon emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, hozirgi kunda olib borayotgan islohotlari zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi. Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Mustaqil o'ylay oladigan tafakkur yuritib to'g'ri, ma'qul va maqbul ish tuta oladigan vatanparvar shaxslarni shakllantirish va tarbiyalash kerak" deb ta'kidlaydi hurmatli yurtboshimiz o'z nutqlarida.

Kreativ yondashuv hamda yutuqlar butun dunyo bo'ylab fan-texnikadan tortib, to falsafa, ijtimoiy fanlar va san'at kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Kreativ fikrlash bu shunchaki tasodifiy g'oyalar berishdanda kattaroq narsa hisoblanadi. U insonga ba'zan murakkab

sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko'nikmadir. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqda, bu esa, o'z navbatida, innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Kreativ fikrlash ta'siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega, ya'ni har qanday shaxs u yoki bu darajada kreativ fikrlash qobiliyatiga ega.

Bugungi kunda muhim va murakkab jarayon bir xil xillikdan, bir qolipda fikrlashdan qochish, o'quvchi ongini rivojlantirish, zamon talablariga javob beruvchi yangicha fikrlash metodlari va shakllarini izlashdan iborat.

Ijodkorlikni tashkil qilishda, ikki o'zaro bog'liq vazifani e'tiborga olish lozim. Birinchidan, dars davomida o'quvchilarning ijodkorlik faoliyati davomida o'z mustaqil fikrlashini rivojlantirish, bilimlarni egallashdagi intiluvchanligi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirilishi bilan, ikkinchidan, o'zlashtirilgan bilimlarni ta'limda va amaliy faoliyatda mustaqil qo'llay olishga o'rgatish bilan belgilanadi.

Bizga ma'lumki 1-sinfga qabul qilinib, maktab dargohiga ilk qadam qo'ygan bolaning faoliyatiga o'yin asosiy o'rinni egallaydi. O'yin ularning eng sevimli mashg'uloti bo'lib, ular har qanday mashg'ulotni o'yin bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirishda hamda aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalangan holda tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilar kreativ faoliyati oshishiga, zehni o'stirishga, tez hisoblash ko'nikmalarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktik o'yinlar jarayonida o'quvchilar o'yin qoidalariga qat'iy rioya qilishga o'rganadilar, inoqlik his - tuyg'ulari, dunyoqarashlari shakllanib boradi. Dars jarayonida didaktik o'yinlar o'quvchilarning yosh xususiyatiga ko'ra tashkil etilishi lozim. Bu esa ularga bilim berishni yengillashtirishga, ko'rgazmalilikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarni zeriktirmaslik, toliqtirmaslik imkonini yaratadi. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar 2 xil tasnifga egadir. 1.Mazmuniga ko'ra:

- a) Tinch o'yinlar;
- b) Harakatli o'yinlar;
- s) Aralash turdagi o'yinlar.

2. Amalga oshirish shakliga ko'ra:

- a) Musobaqali o'yinlar;
- b) Sahnali o'yinlar.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida didaktik o'yinlarni xilma - xil tarzlarda tashkil qilish mumkin. Qo'g'irchoqlar, o'yinchoqlar, rasmlar va tarqatmalar, turli geometrik shakllardan ham foydalanish darsning yanada samarali bo'lishiga yordam beradi. Didaktik o'yinlar maqsadiga ko'ra 4 omilni o'z ichiga oladi: 1.O'yinning vazifasi. 2. O'yinning harakati. 3. O'yinning qoidasi.

4. O'yinning yakuni. Har bir didaktik o'yinni boshlashdan oldin o'quvchilarga o'yinning qoidasi, mazmuni, yakuni, nimadan iborat ekanini o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi. O'quvchilar uni tushunib, anglab, shu asosda harakat qiladilar. Masalan, ishoralar o'yini. O'yinning maqsadi: Bir amalli masalalarni og'zaki yechish ko'nikmalarini rivojlantirish. O'yinning jihozi: "+", "-" belgilari. O'yinning borishi: O'qituvchi masalani o'qiydi, o'quvchilar esa masalani qaysi amal bilan yechish kerak bo'lsa, o'sha ishorani ko'rsatadilar.

1. Anvarning 4 ta ko'k va 6 ta qizil qalami bor. Jami nechta qalam borligini qaysi amaldan foydalanib topamiz?

2. Matematik Qobilda 7 ta daftar bor edi. 4 tasini akasi rassom Boburga berdi. Qobilda nechta daftar qoldi?

Mustahkamlash: O'qituvchi "+", "-" qo'shish, ayirish belgilari qachon qo'shilishini so'rab, ularning bilimni mustahkamlaydi. Yuqoridagi fikrlardan so'ng, boshlang'ich sinflarda matematika darolarida o'tkaziladigan ayrim didaktik o'yinlardan namunalarni ko'rib chiqamiz.

"Zukkolar" o'yini. O'yinning maqsadi - ko'paytirish va bo'lishga doir amallar yechish malakalarini mustahkamlash hisoblanadi. O'yin jihozi esa 3 ta bayroqcha. O'yinning borishi: Qatorlar orasida o'tkaziladi. Qatorlar nomi doskaga yoziladi va o'quvchilar soniga teng bo'linadi. O'qituvchi har bir qatorning oxirida o'tirgan o'quvchiga bayroqchani beradi. O'qituvchi son aytadi. Masalan, 1-qatorida 5 soni, 2-qatorida 6 soni, 3 qatorga 4 soni. Bayroqchani olgan o'quvchi $6 \cdot 1 = 6$ deb bayroqchani oldingi partadagi o'quvchiga uzatadi. $12 \cdot 3 = 36$, $36 : 4 = 9$, $9 \cdot 5 = 45$, $45 : 3 = 15$. O'quvchilar natija qaysi son bilan tugasa, shu son bilan boshlanadigan ifoda tuzishi kerak bo'ladi. Bayroqcha 1-partaga kelganda oxirgi o'quvchi 6 soni hosil bo'ladigan ifoda bilan o'yinni yakunlashi kerak bo'ladi. Qaysi qatorning bayroqchasi birinchi partaga tez yetib kelsa, o'sha qator g'olib bo'ladi. G'olib qatorning nomi yozilgan joyda bayroqchalar yozib qo'yiladi.

"Olma terish" o'yini. Kerakli jihozlar: yozuv taxtasi, magnit taxta, olma daraxtining rasmi, qalin qog'ozdan yasalgan olma mevasining shakllari va savatchalar, olma mevalarining soni sinfdagi o'quvchilar soniga, savatchalar esa qatorlar yoki guruhlar soniga teng bo'ladi. Magnit taxtasiga qistirish uchun olma rasmi chizilgan plakat yoki olma mevalarining orqa tomoniga magnit plastinkasi yelimlanadi. O'yinda 3 ta guruh bo'ladi. Har bir guruhga bitta savatcha berishadi. Har bir guruhdan 1 tadan o'quvchi chiqib misollarni yechadi. Kim ko'p misol yechsa shu guruh g'olib bo'ladi.

Biz yuqorida ko'rib o'tgan didaktik o'yinlarni boshlang'ich sinf matematika darolarida qo'llash orqali o'quvchilarning kreativ faoliyatini rivojlanishiga erishamiz hamda dunyoqarshi kengayishiga va mantiqiy fikrlash ko'nikmalari shakllanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Халқ сўзи газетаси-Т.: 14.01.2017 й
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi: Nasaf, 2000.
3. Sulaymanova G.A. Pedagogik mahorat. -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

4. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. -T.: OPI, 2003.

5. Djumaeva Mohigul Mamanazarovna. Specific historical geography of the factors of intellectual development in the east. Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 3march 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz.

6. R.D.Norqobilova. Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini indikatorlar asosida diagnostika qilishning o'ziga xosligi. INTERNATIONAL CONFERENCES, 564-568. 2023

7. NR Davlatovna - Functions and Principles of Pedagogical Diagnostics. Web of Synergy: International Interdisciplinary 413-416, 2023/1/31

8. P Норкобилова -Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan iqtidorini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish. Общество и инновации. 36-41, 2023/1/25

9. Райхона Норкобилова. O'quvchilarning ona tili bo'yicha iqtidorini aniqlash va rivojlantirishning o'ziga xosligi Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. 379-384. 2022

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA GRAMMATIK O'YINLARNI AMALGA OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART - SHAROITLARI
Murotaliyev Shamshidin Norbekovich
TerDPI Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim)yo'nalishi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim tizimini modernizatsiyalashda axborot texnologiyalari yutuqlarini keng joriy etish ham muhim omil sanalganligi, boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi ekanligi, ta'lim jarayonida ularni pedagogik innovatsion texnologiyaga qiziqishini shakllantirish shakllari asosida axloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaralganligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: modernizatsiya, axborot texnologiya, pedagogik innovatsiya, axloqiy-estetik tarbiyalash.*

Axborot texnologiyalari yutuqlari ayni paytda o'quvchilarni zamonaviy madaniyatga oshno etish vositasi bo'lib xizmat qiladi, axborotlashgan jamiyat sharoitida bu alohida dolzarblik kasb etadi. Ayniqsa, ona tili darslarida o'rganiladigan mavzularni o'rganishda axborot texnologiyalari juda qo'l keladi. Darsning aniqligi va ichki mantiqiyliigi, uning maqsadga yo'naltirilganligi juda muhimdir. Agar dars grammatik bilimlarni mustahkamlash, orfografik ko'nikmalarni shakllantirish maqsadini o'z oldiga qo'ysa, darsning mantiqiy shartlari asta murakkablashtirib borilgan mashqlar tizimini aks ettiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari biror imlo qoidasini yaxshilab bilib, o'rganib olishlari uchun bir-ikki mashq jamoaviy ravishda bajariladi. O'quvchilar tajribasi oshgach, mashqni mustaqil ishlaydilar. Darsda

bajarilgan mashqlar o'rtasidagi bog'lanishni shakllantiradigan ko'nikmaning xususiyati ham sabab bo'ladi. Darsda foydalaniladigan barcha o'quv materiallari darsning maqsadiga mos bo'lishi zarur. O'quvchilarning ona tili darslarida grammatik o'yinlardan foydalanishni shakllantirish shart-sharoitlari deganda, avvalo ana shu shart-sharoitlarning paydo bo'lishi, amalga oshishi hamda rivojlanishi jaraeni tushiniladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilar ona tili darslarida innovatsion texnologiyaga qiziqish faoliyatni shakllantirishda ularning bu borada egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari.

2. O'quvchilar ona tili darslarini innovatsion texnologiyaga qiziqish faoliyatni shakllantirishda nazariy bilimlar bilan amaliётning aloqadorligi.

3. O'quvchilar ona tili darslarini shakllantirishga doir mashg'ulotlar evristika muammoli vaziyatlar yaratish.

4. O'quvchilarning ona tili darslarini ijodiy faoliyatini shakllantirishga texnologik yondashuvning mavjudligi.

Bu shart-sharoitlar quyidagicha amalga oshadi: O'quvchilarning ona tili darslarida grammatik o'yinlardan foydalanishni shakllantirishda ular egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalarga quyidagi talablar qo'yiladi.

- dastur materiallarni qay darajada o'zlashtirganligi;
- mavzularga doir asosiy tushuncha va qoidalarni o'zlashtirganligi;
- tanlagan mavzu bo'yicha topshiriqlarni mustaqil bajara olishi;
- o'rganilayotgan mavzulardagi asosiy muammolarni anglab olishi;
- topshiriqlarni bajarishda o'quv ashyolari va texnika vositalar, axborot texnologiyasidan foydalana olishi;
- o'z qobiliyatini namoyon etishi va uni rivojlantira olishi ;
- mavzu bo'yicha o'z oldiga erishiladigan maqsadlarni qo'ya olishi, rejalar tuzishi va natijalarni baholay olishi va hokazolar.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida grammatik o'yinlardan foydalanishda o'yin harakatlarini bajarish, natijalarga erishish va g'alaba qozonish imkoniyati jalb qiladi. Ammo, agar o'yin ishtirokchisi o'quv vazifalari va o'yin harakatlarining murakkabligini oshirish prinsipiga muvofiq qat'iy ravishda ketma - ket joylashtirilgan turli o'yinchoqlar va materiallardan iborat grammatik o'yinlarni o'z ichiga oladi. Nutq malakalari til materialini muloqot paytida qo'llash jarayonida rivojlanadi va takomillashadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili va o'qish savodxonligi o'qitishning asosiy vazifasi bo'lmish nutqiy malakalarni singdirish chog'ida ularga mos keladigan umuminsoniy ko'nikmalarni ham o'zlashtirishdan iboratdir.

Grammatik o'yin o'ziga xos tuzilishga ega bo'lib, u bir necha komponentlarni o'z ichiga oladi. Grammatik o'yinlar taqqoslash, tasniflash, muammolarni hal qilishda ketma - ketlikni o'rnatish masalalarini hal qiladi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'xshash mazmundagi grammatik o'yinlardan foydalanib, o'quvchilarning mustaqil o'yinlarga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi. Grammatik o'yinlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarga muayyan

vazifalar beriladi, ularni hal qilishda diqqat, e'tibor, aqliy harakat, qoidalarni tushunish, harakatlar ketma - ketligi va qiyinchiliklarni yengish talab etiladi. Grammatik o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarga muayyan aqliy va amaliy muammolarni hal qilishning turli xil iqtisodiy va oqilona usullarini o'rgatish imkonini beradi. Grammatik o'yin axloqiy tarbiya vazifalarini hal etishga, boshlang'ich sinf o'quvchilarda muloqotni rivojlantirishga yordam beradi. Grammatik o'yinlarni muvaffaqiyatli boshqarish, birinchi navbatda, ularning tarkibini tanlash va o'ylashni, vazifalarni aniq belgilashni, yaxlit o'quv jarayonidagi o'rni va rolini aniqlashni, boshqa o'yinlar va ta'lim shakllari bilan o'zaro aloqani o'z ichiga oladi. Bu boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilim faolligini, mustaqilligi va tashabbuskorligini rivojlantirish va rag'batlantirishga, ularning grammatik o'yin muammolarini hal qilishning turli usullaridan foydalanishga qaratilgan bo'lishi kerak. Grammatik o'yinning mazmuni va vazifalari, o'yin harakatlari va qoidalari bo'yicha murakkablashadigan o'yinlar ketma - ketligini belgilaydi. Shuning uchun darsda va grammatik o'yinda ta'limning o'zaro ta'sirini aniq belgilash zarur. Grammatik o'yinni boshqarib, o'qituvchi bolalarni tashkil qilishning turli shakllaridan foydalanadi. Grammatik o'yinda, o'quvchilar ko'rsatgan tashabbus, savollar va takliflar bilan bog'liq holda, uning konsepsiyasini kutilmaganda kengaytirish va boyitish imkoniyati doimo mavjud. Grammatik o'yinni belgilangan vaqtda ushlab turish - katta mahorat. Aniqlik, tavsiflar, hikoyalar, izohlarning qisqa bo'lishi o'yinning muvaffaqiyatli rivojlanishi va hal qilinadigan vazifalarning bajarilishining shartidir. O'qitish shakllaridan biri sifatida grammatik o'yin sinfga ajratilgan vaqt davomida o'tkaziladi. O'yin darslar bilan almashinishi mumkin, bunda o'quvchilarning mustaqil faolligini mustahkamlash, o'rganilganlarni o'yin faoliyatida qo'llashni tashkil etish, darsda o'rganilgan materialni umumlashtirish lozim. Grammatik o'yin mustaqil o'yin faoliyati sifatida. Mustaqil o'yin faoliyati, agar o'quvchilar o'yinga, uning qoidalari va harakatlariga qiziqish bildirsalar, bu qoidalarni ular o'zlashtirgan taqdirdagina amalga oshiriladi. O'quvchilar o'yinlarni yaxshi ko'radilar. Ammo grammatik o'yinda mustaqillikni rivojlantirish uchun kengroq imkoniyat o'quvchilarga ajratilgan o'yin soatlarida taqdim etiladi.

Grammatik o'yinlarda quyidagi qoidalarga amal qilinishi kerak:

1. Navbatma-navbat ta'sir etish.
2. So'ralganda javob berish.
3. Sinfdoshlari fikrini eshita olish
4. O'yin jarayonida boshqalarga xalaqit bermaslik.
5. O'yin qoidasini bajarish.
6. O'z xatosini tan olish.

Grammatik o'yinlarda o'quvchilarning yosh, individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. O'yinda o'yin tempi va ritmi katta rol o'ynaydi, juda sekin va bir tekisdagi temp o'quvchini ko'p kuttiradi, juda tez temp esa o'quvchilarni hayajonga soladi, turli bahs-munozaralarga olib keladi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlashning

ajralmas qismi, ta'lim jarayonida ularni pedagogik innovatsion texnologiyaga qiziqishini shakllantirish shakllari asosida axloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinf ona tili darslarida grammatik o'yinlardan foydalanishda ularning intellektual anglash malakalarini shakllantirishda ta'limning an'anaviy tizimidan farqli ravishda pedagogik innovatsion texnologiyalar asosida ona tili darslarining har bir jarayonida o'quvchining faolligiga asoslangan, mustaqil faoliyati, o'zlashtirish qobiliyatini hisobga olgan holda, ta'lim jarayoniga to'liq jalb etilishida quyidagi xulosalarga keldik.

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona tili darslarini o'qitishda turli texnologiyalari pedagogik o'yinlar, qiziqarli boshqotirmalar, rasmlar ko'rinishda foydalanish o'quvchilarda ona tili darslariga qiziqishlarini orttirish, mavzuni o'zlashtirish darajasini oshiradi va fikrini mustaqil bayon qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

2. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida grammatik o'yinlardan foydalanishda pedagogik innovatsion texnologiyalar orqali axbortni o'quvchilarga tez aniq tushunarli tarzda yetkazib berishidan iborat.

3. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida grammatik o'yinlardan foydalanishda ona tili darslarining samaradorligini oshirish uchun o'quvchilarda ham ezgulikka muhabbat, adabiy-estetik tafakkurni yuksaltirishga imkoniyatlar ochib beradi.

4. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida grammatik o'yinlardan foydalanishda innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan darslarda o'quvchiga erkinlik muhitini yaratib berishida ko'rinadi. Bu imkoniyat o'quvchiga hech qanday tayziq o'tkazmasdan uning shaxsiyatiga tegmasdan savollar berish orqali do'stona munosabatdagi o'quv muhitini yaratishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U.M. Karshiyevna. Linguistic Views of Mahmud Kashgari. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY 3 (12), 336-340

2. M.U. Qarshiyevna. Lexical-Grammatical Characteristics of the Noun in Ancient Turkish Language Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal 2 (1), 389-394

3. U.M. Karshiyevna. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarining pedagogika tarixida tutgan o'rni.

4. G. Ochildiyeva, U.K. Muminova METHODS AND MEANS OF FORMING A POSITIVE ATTITUDE OF STUDENTS TO THE ENVIRONMENT IN THE EXTRACURRICULAR PROGRESS "TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE" 1 (2), 46-50

5. U. Muminova. Important problems of uzbek anonymity in the works of Kashgari. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3 (9), 341-348

6. Muminova Umida Karshievna INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE " Ankara, Turkey 2023

7. PHYTONYMS IN THE WORK "MAHBUB UL -QULUB". UK Muminova "TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE" 1 (2), 46-50

8. Umida Muminova Qarshiyevna. Central Asian Journal of Social Sciences and History (ISSN: 2660-6836. Linguistic Views Of Mahmud Kashgari.

9. Khalikova Parvina "Peculiarities of the pedagogical possibilities of using the Uzbek national spiritual heritage in the activation of primary school students. Web of Scientific Research Journal. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 10, Oct 2022

BIRINCHI SINIF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH USULLARI

*Mamatraimova Dilshoda Chorshanbievna
TerDPI 2-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ona tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunda har bir o'qituvchi yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lmog'i lozim. Quyidagi maqolada ayrim misollar orqali ona tili darslarida nutq o'stirishning ayrim usullaridan misollar keltiriladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy texnologiya, nutq o'stirish, til, adabiyot, muhokama matni, ijodiy matn, tasviriy matn, nazariy bilim.

Yangi zamonaviy texnologiyalarga asoslanib tuzilgan, ta'limning jahon andozalariga mos keladigan dastur va darsliklar yaratish – davr talabi. Hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishining ilmiy talqinlari ham lug'aviy-grammatik munosabatlar tizimi, o'quvchi va o'qituvchi munosabatlari tizimi ham yangilandi va rivojlantirildi. Ona tilining yangilangan yo'nalishidan asosiy maqsad o'quvchilarning o'z ona tilida fikrini to'g'ri, aniq, ravon va go'zal ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

So'zlarni to'g'ri tanlash, nutqni tinglovchiga qulay tarzda yetkaza olish insoniy madaniyatning eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun har bir so'z, birikma va gapni barcha qirralari bilan to'g'ri, o'rinli ishlata olishni o'rgatish, o'z nutqiga nisbatan ehtiyotkorlik tuyg'usini shakllantirish ona tili darslarining asosiy vazifasi sanaladi.

Boshlang'ich ta'lim maktablarida bolalarni har tomonlama rivojlantirishga oid tadqiqotlar o'zbekistonlik pedagog, psixolog va faylasuflar: O'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlash texnologiyasi X.Yusupova, nutqning shakllanishi va so'zni egallashning ilk bosqichi muommosi H.Saidraximova, M.Qurbonov, G'.G'oziev ishlarida, G'.Abdurahmonov, S.Ziyaev, S.Narziqulova, S.Umarovlar o'z ishlarida muloqot ta'sirchanligida testlardan foydalanishning keng imkoniyatlari atroflicha tadqiq qilingan.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarini tashkil etishni takomillashtirish masalalari U.Masharipova, savod o'rgatish masalalari A.G'ulomov, K.Qosimova, S.Matjonov, Sh.Sariev, Q.Abdullaevalar tomonidan tadqiq qilingan.

Bola nutqini rivojlantirishning ahamiyati, nutqni muloqot usuli sifatida, uning kommunikativ funksiyasini rivojlantirish haqida turli mualliflarning ko'plab asarlarida (A.A.Badalev, A.A.Bueva, S.Vigotskiy, A.A.Leontev, M.I.Lisina va boshq.) tomonidan o'rganilgan.

Darslikning tuzuvchilari Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursunovlar tomonidan o'quvchilar nutqini o'stirish bo'yicha topshiriqlar ham ishlab chiqilgan.

Ma'lumki, til jamiyat a'zolari o'rtasida aloqa - aralashuv vositasi, insonning fikrlash va fikr mahsulini og'zaki hamda yozma ravishda berishi, o'z ichki kechinmalarini bayon qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Hazrat Alisher Navoiy til kishilarning o'zaro aloqa vositasi sifatida jamiyat taraqqiyotida katta o'rin egallashini, u insonni hayvondan ajratuvchi asosiy belgilardan biri ekanligini alohida ta'kidlab, bunday yozgan edi:

So'zdirki, nishon berur o'likka jondin,

So'zdirki, berur xabar jonga jonondin.

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,

Bilki guhari sharifroq yo'q ondin.

Ona tilini o'qitishdan maqsad tilning jamiyat a'zolari o'rtasida bajaradigan ana shu vazifasi - o'quvchilarni fikr bayon qilish faoliyatiga tayyorlash vazifasidan kelib chiqadi. Chunki kishilar o'z faoliyatlarining barcha sohalarida bir-birlari bilan faol munosabatda bo'ladilar. Ular doimo o'zlarini o'rab olgan moddiy borliqdagi narsabuyumlar va voqea-hodisalar to'g'risida fikr yuritadilar va o'z fikrlarini bir-birlariga ma'lum qiladilar.

Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tilidan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi.

Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilarning tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi.

Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi:

1) so'z ustida ishlash;

2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash;

3) bog'lanishli nutq ustida ishlash.

Ko'rsatilgan uch yo'nalish parallel olib boriladi: lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi. O'z navbatida bog'lanishli nutq hikoya va insho lug'atini boyitish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Bolalar maktabda o'qish davomida 750 dan ziyod har xil grammatik tushuncha va ta'riflarga duch keladilar, 6500-7000 atrofida turli hajm va murakkablikdagi topshiriqlarni bajaradilar, ammo ularning nutqida sezilarli o'zgarishlar ko'zga tashlanyapti. Ko'pchilik o'quvchilar ijodiy fikrlash , fikr

mahsuli og'zaki va yozma ravishda to'g'ri ifodalashga qiynaladilar; o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlarini nutqiy jarayonlarda qo'llay olmaydilar.

Buning sabablarini aniqlash uchun bolalarning nutqiy taraqqiyotini belgilovchi omillar: ularning so'z boyligi, so'z va so'z birikmalaridan gapda o'rinli foydalanish mahorati, gapni grammatik jihatdan to'g'ri qurish malakalari, fikrni turli nutq uslublarida to'g'ri, ixcham, ravon, tushunarli bayon qilish ko'nikmalari kabilarni alohida-alohida tahlil qilishga to'g'ri keladi.

O'quvchi nutqining muhim ko'rsatkichlaridan biri uning so'z boyligidir. Pedagogik adabiyotlarda berilgan ilmiy ma'lumotlarga qaraganda, 2 yoshli bolalar 30dan 100 gacha, 4 yoshli bolalar 1000dan 4000 gacha, 7 yoshli bolalar 3000dan 7000gacha, 10-11 yoshli bolalar 8000dan 15000gacha, 14-15 yoshdagilar 11000 dan 18000 gacha so'zni bilishlari lozim.

Ammo, afsuski, ona tili mashg'ulotlarida fikrni og'zaki va yozma shaklda bayon qilish zaruriyati tug'ilganda o'quvchilardagi so'z qashshoqligi darrov sezilib qoladi. Nutqda so'zlarni takroriy qo'llash, berilgan so'zni uning ma'nodoshi, uyadoshi va qarama-qarshi ma'noligi bilan almashtira olmaslik, ma'lum bir sohaga qarashli so'zlar lug'atini tuzishda uchraydigan qiyinchiliklar, shubhasiz, o'quvchilarning so'z boyligi yetarli emasligidan dalolat beradi.

Xullas, o'quvchi nutqini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, unga monelik qilayotgan omillar ham faqat ta'lim mazmuni yoki o'qituvchigagina bog'liq emas. Barcha imkoniyatlar to'laligicha ishga solinsagina fikrni og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatish jarayoni oson kechadi. O'quvchi nutqini rivojlantirishga keng yo'l ochadi.

Bizga ma'lumki, o'quvchilar bir xillikdan zerikadi. Shuning uchun ularni nutqini o'stirishda doimo har xil metod va o'yinlardan foydalanish lozim. Quyida shulardan ba'zilarini misol tariqasida keltiraman.

"Hikoya"

O'qituvchi xattaxtaga bir nechta so'z yozib qo'yadi. Masalan: Nafisa, soat, yomg'ir, kitob kabi. O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'zlar ishtirokida hikoya tuzadilar.

"O'zaro bog'liqlik"

O'quvchilarga rasmi kartochkalar tarqatiladi. Ular kartochkalar bilan tanishib chiqqach, o'quvchi rasmdagi predmet haqida gapirib beradi.

Masalan: "Bu olma. Olma bog'da o'sadi va mevalarga kiradi. Uni o'quvchilar juda yaxshi ko'rishadi". Keyin ikkinchi bola ham o'zidagi predmet haqida gapiradi va o'zidagi predmet bilan birinchi o'quvchidagi predmetni o'zaro bog'liqligini aytishi kerak.

Masalan: "Bu quyosh. Quyosh chiqsa havo isiydi. Uni o'quvchilar yaxshi ko'rishadi. Quyosh isitib tursa, olma va boshqa mevalar pishadi". Keyin uchinchi o'quvchi o'zidagi predmet haqida gapiradi va ikkinchi boladagi predmet bilan o'zidagi predmet orasidagi bog'liqlikni topishi kerak. O'yin shu tartibda davom etadi.

"Umumiylikni izlash"

O'quvchilar aylana qurib o'tiradilar. Olib boruvchi o'quvchilardan biriga to'pni otayotib, bir-biri bilan bog'lanmagan ikkita so'zni aytadi. Masalan: maktab va o'quvchi, kitob va javon, quyosh va gul...

To'pni tutib olgan o'quvchi so'z juftligi orasidan umumiy belgini aytib to'pni qaytaradi.

“Safar”

O'quvchilarga maktabdan yoki uylaridan ma'lum bir joygacha bo'lgan yo'lini tasvirlash topshirig'i beriladi. O'quvchilar bir necha kun davomida “obekt”ni mustaqil kuzatadilar va uni og'zaki tasvirlab beradilar. Sinchkovlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, atrof-muhitga diqqat-e'tibor talab etiladigan bu o'yin vositasida Vatanni sevish, tabiatga muhabbat, chor-atrofga e'tiborli bo'lish hislarini tarbiyalash mumkin. Bundan tashqari, mazkur o'yinlardan foydalanganda o'quvchilarning nutqi rivojlanadi, lug'at boyligi yanada ortadi, mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan ta'limiy o'yinlar o'quvchilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o'stirishga yo'naltirilgan har bir mashg'ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi.

Jamiyatimizni erkinlashtirish g'oyasi bevosita ta'lim jarayonida o'z ifodasini topib, uni yangidan tashkil qilish va mazmunini o'zgartirish, yanada insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish va demokratlashtirish asosida ta'minlanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, “Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar - T.: “Qarshi” - 2000. 114b.
2. Hoshimov K. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 2-jild. - T.: “O'qituvchi” - 1999. 478b.
3. Hasanboev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Pedagogika fanidan izohli lug'at. - T.: “Fan va texnologiya” - 2008. 480b.
4. Ibragimov X.I., Yo'ldoshev U.A., Bobomirzaev X., Pedagogik-psixologiya (o'quv qo'llanma). - T.: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” - 2009. 490b.
5. Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova I., Pedagogika nazariyasi va tarixi (darslik) - T.: “Fan va texnologiya” - 2010. 464b.
6. Mavlonova R.A. va boshqalar. Pedagogika (darslik). T.: “O'qituvchi” - 2002. 364b.
7. Mavlonova R.A., Arabova M., Salohiddinova G'. Pedagogik texnologiya. - T.: “Fan” - 2008. 124b.
8. Mavlonova R.A. Vohidova N.X., Ijtimoiy pedagogika. - T.: “Istiqlol” - 2009. 144b.
9. Abdullayeva Q. Nutq o'stirish. - T.: O'qituvchi, 1980.66-bet

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ne'matova Diyora Baxodir qizi
TerDPI 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada «Tanqidiy fikrlash» atamasiga turli soha olimlari tomonidan berilgan tavsiflar keltirilgan. Shu bilan birga boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: tanqid, fikrlash, ko'nikma, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, pedagogika, psixologiya, falsafa, o'quvchi, mustaqil fikrlash.

Аннотация: В данной статье представлены определения термина «критическое мышление», данные учеными различных направлений. При этом обсуждались педагогико-психологические особенности формирования навыков критического мышления у учащихся начальной школы.

Ключевые слова: критика, мышление, навыки, навыки критического мышления, педагогика, психология, философия, студент, самостоятельное мышление.

Abstract: This article presents the definitions of the term "Critical thinking" given by scientists in various fields. At the same time, the pedagogical and psychological features of the formation of critical thinking skills in elementary school students were discussed.

Keywords: criticism, thinking, skills, critical thinking skills, pedagogy, psychology, philosophy, student, independent thinking.

Dunyoda tanqidiy fikrlash ko'nikmasi nafaqat, ma'lum sohada muammoning yechimini topishda, balki yangi g'oyalarni yaratishda ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, xalqaro amaliyot matematika o'rgatish jarayonida tanqidiy fikrlash ko'nikmasini kichik maktab yoshidan boshlash samarali ekanligini ko'rsatadi. Tanqidiy fikrlashga o'rgatish jarayonlarining ahamiyatligini Kaliforniya tanqidiy fikrlash markazi, Amerika falsafa assotsiatsiyasi, AQSh Milliy kengashi, Rossiya davlatining "O'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish"[1, 28] markazlarida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganligida ham ko'rish mumkin.

«Tanqidiy fikrlash» atamasiga turli soha olimlari tomonidan berilgan tavsiflar keltirilgan. «Tanqidiy fikrlash» atamasi ilk bor XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lib, yangi, tushunib bo'lingan g'oyalar tekshirilayotganda, baholanayotganda, rivojlantirilayotganda va qo'llanayotganda sodir bo'ladi»[2, 4], – deb ta'kidlaydi o'zbek olimi S.S. G'ulomov. Bir qator pedagog-psixolog olimlar (I.S. Kon, L.S. Rubinshteyn, S.S. G'ulomov, E. G'oziyev) tanqidiy fikrlash «yuqori tartibdagi» fikrlashni bildiradi (Benjamin Blum tizimiga ko'ra

o'rganish qobiliyatlarining so'nggi oliy pog'onasi), degan g'oyani ilgari surishsa, faylasuf olimlar (Z. G'ofurov, J.Tulenov, Q.Nazarov) fikrlaricha – "tanqidiy fikrlash" deganda mantiqiy fikrlash va isbotlash ko'nikmalari tushuniladi, uning yordamida o'quvchilar diqqat bilan o'qish, chuqur munozaralar yuritish va yozuvda o'z fikrlarini aniq va o'ylab ifoda etish imkonini oladilar"[4, 78]. Yoki amerikalik olim J.Dyuining fikricha: «O'quvchilar muayyan muammo bilan shug'ullana boshlasalargina, ularda tanqidiy fikrlash paydo bo'ladi. SHu sababli, o'quv jarayonining boshlang'ich nuqtasi hisoblangan, biror vaziyat yoki hodisaga tegishli bo'lgan eng muhim savol bu hodisa qanday muammoni vujudga keltirishini anglatadigan savoldir. Faqatgina muayyan muammo bilan kurashib, murakkab vaziyatdan chiqish uchun o'zining shaxsiy yo'lini izlagandagina, o'quvchi haqiqatan ham fikrlaydi"[5, 19].

Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajasini aniqlash zaruriyati mavjud. Chunki, tanqidiy fikrlash mustaqil fikrlashning tarkibiy qismidir.

O'quvchilarning tanqidiy fikrlash darajalari bir qator pedagogik metodlar orqali aniqlanadi. Masalan, Ya.Yirasek, A.Kernlar tomonidan ishlab chiqilgan yoshlarning tanqidiy fikrlashga moyilliklarini aniqlovchi testlari, D.B.Elkoninning «Grafik diktant»lari, A.L.Vengerning «Nuqtalar bo'ylab chizish», I.Shvansarning «Aqliy rivojlanishni diagnostika qilish», O.Hasanboevaning «Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning qobiliyatlarini tashxislash» kabi metodikalari shular jumlasidandir.

Bir qator olimlar (V.V.Guzeev, I.A.Zimnyaya, V.Bershadskiy, M.V.Alekseev)lar har qanday fikrlash uchun xotira muhim ekanligini ta'kidlaydilar. O'quvchining tanqidiy fikrlash jarayonini tadqiq etgan mutaxassislar (B.Blum, L.Stross, Q.Nazarov) tanqidiy fikrlashning vujudga kelishi uchun aqliy faoliyatning murakkab turlarini hosil qilish zarurligini ko'rsatib o'tadilar.

Nemis olimi M.Mauermanning ta'kidlashicha: «Tanqidiy fikrlash – bu inson uchun fikrlashning tayanch nuqtasi, g'oyalar va axborotlar bilan o'zaro munosabatga kirishishning tabiiy usulidir. U dars va darsdan tashqari jarayonlarda sodir bo'ladigan faoliyat bo'lib, o'quvchiga axborotlarni qat'iy nazorat qilish imkonini beradi»[3, 27]. Demak, bu jarayonda, o'quvchi idrok etilayotgan ma'lumotni qayta ko'rib chiqishi, uni o'ziga moslashtirishiga imkoniyat yaratiladi.

Barcha fikrlarni umumlashtirib, quyidagicha xulosaga kelindi: tanqidiy fikrlash – bilimni o'zlashtirish va mustaqil fikrlashning yuqori darajadagi tarkibiy qismi bo'lib, shaxsning voqea, hodisa, borliqni ob'ektiv idrok etish imkoniyatini kengaytiruvchi aqliy hodisadir. Tanqidiy fikrlashda g'oyalar va ularning ahamiyati ko'pfikrlilik nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi hamda ularboshqa g'oyalar bilan taqqoslanadi. Unda tahlil, taqqoslash, izohlash, yangilik kiritish, muammolarni hal qilishga alohida e'tibor beriladi hamda

o'quvchilarda bunyodkor g'oyalarning yovuz g'oyalar ustidan g'alaba qozonishiga ishonch paydo qilinadi.

Amalga oshirilgan tahlillar natijasi ushbu aqliy faoliyatda g'oya va imkoniyatlarni ijodkorlik bilan uyg'unlashtirish, konsentratsiyalash hamda axborotlarni qayta tahlil etishga zamin yaratilishini ko'rsatdi.

Bunda:

1) o'quvchilarni tanqidiy firklash ko'nikmalarini egallashga ruhan tayyorlash;

2) o'quvchilarning o'z fikrlari qat'iyligiga bo'lgan ishonchini barqarorlashtirish;

3) muayyan sinf o'quvchilarida jamoaviy tarzda tanqidiy fikr yuritishga yo'naltirilgan pedagogik vaziyatni vujudga keltirish amaliyotini tadbiiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining shakllanishi o'quvchiga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- o'quvchilarning fikrlash jarayoni jadallashadi;

- o'quvchilar o'z oldilariga aniq maqsadlar qo'ya boshlaydilar hamda ushbu maqsadga erishish yo'llarini izlaydilar;

- o'quvchilar o'zaro bir-birlari bilan faol muloqotga kirishish ko'nikmasini egallay boshlaydilar;

- o'quvchilarda bilim olish, yangi axborotlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish ortadi;

- o'quv-biluv jarayonida o'quvchilarda faollik ta'minlanadi;

- o'quvchilarda ular orasida vujudga kelgan rang-barang fikrlarni tinglash va mushohada qilish ishtiyoqi kuchayadi;

- o'quvchilarda o'z fikrlarini dadil bayon qilish ehtiyoji vujudga keladi;

- o'quvchilar egallagan bilim va tushunchalarini qayta ishlash, ular yordamida fikr ifodalash imkoniyatiga ega bo'lalilar.

Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilarini tanqidiy fikrlashga o'rgatish jarayonini tizimli tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ахмедова Л.Т., Лагай Е.А. Современные технологии преподавания русского языка и литературы. -Тошкент.: Фан ва технология. - 2016. - С.28.

2. Фуломов С. С. «Далилларни эслаб қолиш ва ғояларни исботлаш».- Т.: Ўқитувчи. 2005.-4-бет.

3. Маурман М. Развитие интеллекта и его природные качества.- М.:Торговый дом гранд, 2005.-С-27

4. Назаров Қ. Фалсафа методологияси.- Тошкент: Янги аспр авлоди, 2005.-78-бет.

5. Дьюи Дж. Индивидуализация обучения школьников. - Чикаго.,1991.-С.-19

6. Abdumannopov, M. M., Axmedov, O. U., To'Lqinboyev, T., & Azizov, M. (2022). МАКТАВ О'QUVCHILARINING DARS MASHG'ULOTLARINI

O'ZLASHTIRISHINI FAOLLASHTIRUVCHI MUHIM OMILLAR. International scientific journal of Biruni, 1(2), 165-169.

7. Shermukhammadov, B. (2022). Creativity of a Teacher in an Innovative Educational Environment. Journal of Higher Education Theory and Practice, 22(12), 127.

8. Шаббазова, Д. Р. (2017). Индивидуальность подростка и развитие творческих способностей. Апробация, (2), 121-122.

10. Шаббазова, Д. Р. Развитие творческих способностей и индивидуальности подростка / Д. Р. Шаббазова // Приоритеты мировой науки: эксперимент и научная дискуссия : Сборник материалов Международной научно-практической конференции, Кемерово, 22 октября 2018 года. - Кемерово: Общество с ограниченной ответственностью "Западно-Сибирский научный центр", 2018. - С. 121-124.

11. Шаббазова, Д. Р. (2017). БОШЛАНҒИЧ СИНФДА ЎҚУВЧИЛА RIJODIЙ FAOLIЯТИНИ ШAKЛЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА АФЗАЛЛИКЛАРИ. In Современные проблемы и перспективы развития педагогики и психологии (pp. 73-75).

12. Шаббазова, Д. Р. Влияние художественных произведений на развитии личности школьника / Д. Р. Шаббазова // Гуманитарный трактат. – 2018. – № 24. – С. 18-20.

13. Шаббазова, Д. Р. РАЗВИТИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ЧЕРЕЗ ТВОРЧЕСКИЕ СПОСОБНОСТИ ЧЕЛОВЕКА. Редакционная коллегия: Главный редактор (учредитель) ИП Всяких Максим Владимирович, кандидат экономических наук, 91.

14. Dilfuza Shabbazova. (2022). MODEL OF PERSONAL VALUE FOR PRIMARY SCHOOL LITERACY LESSONS. European Scholar Journal, 3(5), 80-83.

15. Shabbazova, D. (2022). CONTENT OF FACTORS DETERMINING THE EFFICIENCY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 630-636.

16. Ziyotova, S. ., & Shabbazova, D. (2023). BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI. Молодые ученые, 1(6), 34-37.

BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA SO'Z TURKUMLARINI O'RGANISH METODIKASI

*Dadamirzayeva Dildora Tojiddin qizining
Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: dotsent Normurodova Nigora*

Annotatsiya Mazkur maqolada boshlang'ich sinfi ona tili va o'qish savodxonligi darslarida so'z turkumlarini o'rganish metodikasi va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikrlar ketiriladi.

Kalit sozlar: ona tili va o'qish savodxonligi, so'z turkumlari, innovatsion

texnologiyalar, bilim, ko`nikma, malaka, kompetensiya

Абстрактный

В данной статье рассматривается методика изучения словосочетаний и ее особенности на уроках родного языка и читательской грамотности в начальных классах.

Ключевые слова: *родной язык и читательская грамотность, словарный запас, инновационные технологии, знания, умения, компетентность, компетенция.*

Abstract. This article discusses the methodology for studying phrases and its features in the lessons of the native language and reading literacy in primary school.

Key words: *native language and reading literacy, vocabulary, innovative technologies, knowledge, skills, competence, competence.*

So'z turkumlari ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi so'zlarning leksik-grammatik, morfologik va sintaktik belgilariga ko'ra turli guruhlariga ajratilishi, ya'ni so'z turkumlari haqidagi ilm sanaladi.²⁴ Boshlang'ich sinflar dasturi o'quvchilarni so'z turkumlari mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga bo'linishi bilan maxsus tanishtirishni ko'zda tutmaydi, ammo o'qituvchi bolalarni so'z turkumlarining belgilari bilan amaliy tanishtiradi.

Dasturga muvofiq ta'lim tizimimizda bilimlarni o'quvchilarga bosqichma bosqich, soddadan murakkabga tomon berib boriladi. Ya'ni ot so'z turkumi ilk bor boshlang'ich sinfdan o'rgatilib boriladi, 1-2-sinflarda shaxs va narsalarning nomini bildirgan so'zlar, so'ng esa 3-4-sinflarda ot so'z turkumi deya o'rgatiladi. Ilk bor ot so'z turkumiga zamin yaratuvchi jarayon bu savod o'rgatish davridan boshlanadi. O'quvchi harflarni o'rganish barobarida ulardan so'z hosil qilish, ularga so'roq berish, ana shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzishni o'rganib boradilar.

So'z turkumlarini o'rganishdagi asosiy vazifa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, lug'atini yangi ot, sifat, son, fe'llar bilan boyitish, o'quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so'zlarning ma'nosini aniq tushunishiga erishish, bog'lanishli nutqda u yoki bu so'zdan o'rinli foydalanish malakasini o'stirish hisoblanadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun so'z turkumlarini o'rganish jarayonida sinonim, antonimlar (atamalar berilmaydi, boshlang'ich sinflarda ma'nodosh so'zlar hamda qarama-qarshi so'zlar deb tanishtiriladi) ustida muntazam ish olib boriladi, o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlar, ularning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan tanishtiriladi. Bunda ta'limni o'quvchilarning shaxsiy tajribalari, bevosita ko'rganlari, radiodan eshitganlari, kitobdan bilib olganlari bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarda kuzatish, muhim narsalarni sezish ko'nikmalarini shakllantirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish bilan bir vaqtda

²⁴ Ona tili o'qitish metodikasi Q 61 (Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabarlari uchun darslik): [K. Qosimova], S.Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. — T.: «NOSHIR», - 2009, 248-bet

ularning nutqini o'stirish vazifasi ham amalga oshiriladi. "Ot" mavzusini o'rganish tizimi maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, bunda shu so'z turkumining umumlashirilgan ma'nosi va grammatik belgilari aniq izchillikda, bir-biri bilan ilmiy asoslangan bog'liqlikda o'rganiladi, shuningdek, otdan nutqda to'g'ri foydalanish va to'g'ri yozish malakasini shakllantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asta murakkablashtira boriladi. Til hodisasi sifatida otning xususiyatlari, uni o'rganish vazifalari, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir sinf uchun material hajmi, ularni o'rganish izchilligi belgilangan.

Boshlang'ich sinflarda otni o'rganish vazifalari quyidagilar:

- 1) "Ot" haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish;
- 2) *kim?* so'rog'iga javob bo'lgan (shaxs bildirgan) otlardan so'rog'iga javob bo'lgan (narsa, hayvon, jonivor va boshqalarni gan) otlarni farqlash ko'nikmasini hosil qilish;
- 3) kishilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, hayvonlarga qo'yilgan nomlar va geografik o'rin nomlarini bosh harf bilan yozish ko'nikmasini shakllantirish;
- 4) otlarda son (otning birlik va ko'plikda qo'llanishi) bilan tanishtirish;
- 5) otlarni egalik qo'shimchalari bilan to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantirish;
- 6) otlarning kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqida malaka hosil qilish;
- 7) o'quvchilar lug'atini yangi otlar bilan boyitish va ulardan nutqda aniq, o'rinli foydalanish malakasini o'stirish;
- 8) so'zlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashirishni bilish.²⁵

Bu vazifalarning har biri alohida emas, balki bir-biri bilan o'zaro bog'liq holda hal etiladi.

Shu bilan birga, „Ot“ mavzusini o'rganishning muayyan bosqichida bajarish lozim bo'lgan bir vazifani hal qilishga ko'proq ahamiyat beriladi. Masalan, 1-2-sinflarda so'z turkumi sifatida otning belgilari (nimani bildirishi, so'roqlari) o'rganiladi, 3-sinfda esa otga so'z turkumi sifatida atama beriladi, birlik va ko'plikda qo'llanishini o'zlashtirishga ahamiyat beriladi. 4-sinfda otning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi, kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishini o'rganishga e'tibor qaratiladi. O'quvchilarning nutqi va tafakkurini o'stirish vazifasi esa mavzuni o'rganishning barcha bosqichlarida hal qilinadi. Grammatik materialni o'rganish va orfografik malaka hosil qilishning butun jarayoni o'quvchilar lug'atini boyitishga, bog'lanishli nutq malakalari va fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: "O'zbekiston", 2016, 30-bet.

²⁵ Ona tili o'qitish metodikasi Q 61 (Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik): [K. Qosimova], S.Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. — T.: «NOSHIR», - 2009, 249-bet

2. Abdullaeva, B., Umida, M., Khilola, B., Nigora, N., & Umida, U. (2020). Specificity of individual approach to students with low writing and reading abilities. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(5), 1983-1987.

3. Normurodova, N. A. (2021). Development of Professional and Methodical Competence of Future Primary School Teachers in Literacy Teaching. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 8945-8951.

4. Normurodova, N. (2019). DEVELOPMENT OF SPECIAL AND METHODOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).

5. Нормуродова, Н. А., & Имамкулов, Р. Р. (2019). ИНТЕГРИРОВАНИЕ ЭТНОПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ. *Научные горизонты*

BOSHLANG`ICH SINIF ONA TILI VA O`QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O`QUVCHILAR NUTQINI O`STIRISH METODIKASI

*Faxriddinova Dildoraxon Sirojiddin qizining
Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: dotsent Normurodova Nigora*

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang`ich sinif ona tili va o`qish savodxonligi darslarida nutq o`stirish metodikasi va uning o`ziga xos xususiyatlari haqida fikrlar ketiriladi.

Kalit sozlar: ona tili va o`qish savodxonligi, nutq o`stirish, bog`lanishli nutq, ichki nutq, tashqi nutq, nutq o`stirish metodikasi

Абстрактный. В данной статье рассматривается методика развития речи и ее особенности на уроках родного языка и читательской грамотности в начальных классах.

Ключевые слова: Родной язык и грамотность чтения, развитие речи, связная речь, внутренняя речь, внешняя речь, методика развития речи.

Abstract. This article discusses the methodology of speech development and its specific features in primary school mother tongue and reading literacy classes.

Keywords: native language and reading literacy, speech development, connected speech, internal speech, external speech, speech development methodology

Savod o`rgatish davrida o`quvchilarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlari boyitiladi, nutqi o`stiriladi. Darslikda o`zlashtirilgan bilimlari multimediya ilovalari va o`quvchilarning aqliy rivojlanishiga, mantiqiy fikrlash ko`nikmalarini shakllantirishga, dunyoqarashini boyitishga, nutqini o`stirishga, qobiliyatlarini tarbiyalashga va ijodiy tasavvurini rivojlantirishga qaratilgan o`quv qo`llanmalar, elektron ta`limiy vositalar orqali mustahkamlanadi. Matn

orqali tasavvur eta olmagan so'zlarni rasmi orqali nutqiga kiritish imkoni paydo bo'ladi. Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarini savod o'rgatish davrida tovushlarni tanishga, harflarni anglashga, yozishga, ongli o'qishga o'rgatish bilan bir qatorda ularning tasavvuri ham o'stirib boriladi. Ko'rganlari, eshitganlari, his etgan narsalari haqida shakllangan tasavvurlari asta sekin rivojlanib boradi.

Ma'lumki, dars bosqichli izchillik asosida olib boriladi. Har bir amalga oshirilgan tahlil keyingi tahlil uchun zamin yaratishi, boshqacha aytganda, berilgan bilim keyingi bilimning muvaffaqiyatli egallanishini ta'minlashi lozim. Bu bizga ijodiy tasavvurni rivojlantirishni savod o'rgatish davridan boshlab olib borish orqali, kelgusida o'quvchilarni ijodiy faol, keng dunyoqarashga ega, aqliy rivojlangan, fikrlash quvvati yuqori, estetik tarbiyalangan, tafakkuri rivojlangan, qobiliyatli, mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalashga zamin yaratadi, degan xulosaga kelishimizga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf savod o'rgatish davri uchun mo'ljallangan "Alifbe" darsligida keltirilgan topshiriq va mashg'ulotlarning o'quvchilar tasavvurini o'stirishdagi ahamiyatini tahlil qilamiz.

Amaldagi "Alifbe" darsligida o'quvchilarning tasavvurini boyitishga, aqliy salohiyatini o'stirishga, hikoya va ertaklar tuzishga mo'ljallangan rasmi kompozitsiyalardan keng foydalanilgan. Bir nechta ijodiy topshiriqlar ham o'z aksini topgan. Masalan: 49-betda keltirilgan "baliq" va "qurbaqa" so'zlarini hosil qilishga qaratilgan topshiriqni ijodiy topshiriqlar qatoriga qo'shish mumkin. Lekin bunday topshiriqlar oltitani tashkil qiladi. Asosiy maqsad o'quvchilarni o'zbek tilidagi barcha tovushlar va harflar bilan tanishtirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat bo'lganligi sababli bunday topshiriqlarga ko'p vaqt ajratilmagan.

Tajribalardan ma'lumki, biror qiziqarli hayotiy hodisa yoki multfilm qahramonlarini muhokama qilinganda o'quvchilar birdan turli xildagi, atroflicha fikrlar bildira boshlaydilar. Shunday vaziyatlarda ular o'z aqliy imkoniyatlaridan ko'p narsalarni bilishi ma'lum bo'lib qoladi. Shu o'rinda savol tug'iladi: nega ular darsga oid mavzular yuzasidan gapirganlarida bunday ishtiyoq bilan so'zlamaydilar? Chunki multfilmlarni tomosha qilganlarida tasavvur yaqqol namoyon bo'ladi. Ularni qiziqtiruvchi tasviriy ifodalar, boy rang-tasvir namunalari, tasavvur qilish imkoniyati to'laligicha yoritiladi. Shularni hisobga olib, darsliklarda, dars jarayonida bolalarni xuddi shunday qiziqtiradigan, ularning ijodiy tasavvurini rivojlantiradigan, boy rang-tasvir namunalariidan foydalanilgan, tabiatiga, yosh xususiyatiga mos mavzular ko'proq berilishi, matnlar yuzasidan taqdim etilgan savol-topshiriqlarning turfa xilligi darslardagi shunday vaziyatlarning asosi bo'ladi. O'quvchilarning ruhiy muvozanatdan chiqishi esa ularni ma'naviy kamolot sari yetaklash garovidir.

Tasavvurni tarbiyalash, uni shakllantirish, rivojlantirish, ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'quvchi tasavvurini o'stirish hamisha ustozlarning zimmasidagi muhim bir vazifa ekanligi millatning ilg'or kishilari diqqat markazida bo'lgan.

Ma'lumki, bolalar maktabgacha bo'lgan davrida favqulodda ijodiy tasavvuri boy bo'ladi. 5-6 yoshda atrof muhit haqidagi tasavvurlarni o'zlashtirib oladilar, o'zlarining amaliy faoliyatlari va borliqni anglashlari uchun zarur bo'lgan har xil ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Ularning bu davrdagi taraqqiyoti muntazam o'qitish ishlarisiz, yashash tarzi jarayonida amalga oshadi. Bolalar maktab hayotiga kirib kelganlarida, ularning faoliyati dasturlar asosida tizimli bilim olishga o'tganda bir qadar o'zgaradi. O'qish-o'rgatish jarayonida tabiiylikning buzilgani, unga sun'iylikning aralashuvi tufayli sodir bo'ladi. Bola maktabga kirgach, uning mustaqilligi, o'z intellektual darajasidagi fikrlashi va ixtiyoriy faoliyati ma'lum darajada cheklanadi. Undan maktab talablariga muvofiq ish yuritish talab etiladi.

Shu o'rinda xorijiy adabiyotlarga nazar solsak, umumiy tajribalardan foydalanish imkoni paydo bo'ladi. M.I.Rozetning tadqiqotlarida "tasavvur va fikrlashdagi o'xshashlik yoki farqni hisobga olsak, muammoni hal etish katta yoki kichik noaniqlik bilan ifodalanishi mumkin. Muammoli vaziyatni tavsiflovchi turli vaziyatlarga qarab, ayni muammo xayoliy tasavvur va fikrlash yordamida hal qilinishi mumkin. Tasavvur shu paytning o'zida vaziyatning noaniqligi juda yuqori bo'lgan vaqtda ishlaydi. Ushbu funktsiya yordamida bola rasmlarda haqiqatni namoyish qilishi va muayyan muammolarni hal qilishda ularni ishlatishi mumkin"ligi e'tiborga olingan.

Bolaning yosh xususiyatini hisobga olsak, harflarni tanishga, bir-biriga bog'lab o'qishga qiynalishi tabiiy holdir. U o'qiy olmagach, rasmlar kitoblarga qiziq boshlaydi. O'qiy olmagani uchun ko'plab savollari javobsiz qoladi.

O'ylashimizcha, bugungi kunda boy tasavvurga ega bo'lgan insonda ijodkorlik, yaratuvchanlik, ijobiylik, keng fikrlilik, fantaziyaviylik va shunga o'xshash hislatlarni kuzatish mumkin. Qolaversa, boy rang-tasvir namunalari orqali o'quvchining ongiga kirib borish va shu orqali zarur bilimlarni berish yuqori samara berishi xorij tajribasidan ma'lum. Bolaning 6 yoki 7 yoshdan ta'lim olishga jalb qilinishini hisobga olsak, rasm kompozitsiyasiga asoslangan kitob orqali bolani zeriktirmay, ta'lim olishdan bezdirmay ta'lim-tarbiyaga jalb qila olish zarur ahamiyat kasb etadi.

Boshqa aqliy vazifalar singari tasavvurlar ham bolaning yoshi bilan o'zgaradi. Maktabgacha va boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarda tasavvur funktsiyasining faollashuvi kuzatiladi. Dastlab, qayta tiklash (erta yoshda ertakli tasvirlarni tasavvur qilish imkonini beradi), keyin esa ijodiy (buning natijasida asosan yangi tasvir yaratilgan) fantaziya shakllanishi uchun o'zlarining faol ishlarini xayolga bog'lashadi.

Demak, rang-tasvir namunalari orqali bolalarning ijodiy tasavvurini rivojlantirish boshqa usullarga nisbatan yuqori samara beradi. Chunki, tasvir orqali yetkazilishi mo'ljallangan bilimni yaqqol tasvirlash mumkin. Bola o'qiy olmasa-da rasm kompozitsiyalari orqali asosiy g'oyani anglab yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: "O'zbekiston", 2016, 30-bet.

1. Abdullaeva, B., Umida, M., Khilola, B., Nigora, N., & Umida, U. (2020). Specificity of individual approach to students with low writing and reading abilities. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(5), 1983-1987.

2. Normurodova, N. A. (2021). Development of Professional and Methodical Competence of Future Primary School Teachers in Literacy Teaching. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 8945-8951.

3. Normurodova, N. (2019). DEVELOPMENT OF SPECIAL AND METHODOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).

4. Нормуродова, Н. А., & Имамкулов, Р. Р. (2019). ИНТЕГРИРОВАНИЕ ЭТНОПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ. *Научные горизонты*

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI TO'G'RI O'QISHGA O'RGATISH USULLARI

Qahhorova Marjona Sobirjon qizi

TerDPI Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Norqobilova Rayxona Davlatovna

TerDPI o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'qish darslarida o'qish malakalarini oshirish ularni to'g'ri o'qishga o'rgatish usullari, o'qish darsining tarkibiy qismlari haqida fikr yuritilgan. Ifodali o'qish jarayonida qilinadigan ishlar mazmuni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: O'qish, boshlang'ich sinf, ongli o'qish, tez o'qish, to'g'ri o'qish, ifodali o'qish, o'qish tezligi.

Bizning havasqilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan buyuk ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonamanki, Xudo xohlasa, havas qilsa arziydigan kelajagimiz ham albatta bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev

Yurtimizning kelajagini yuksak darajaga ko'taradigan barkamol shaxsni yaratishda boshlang'ich ta'lim uning poydevori vazifasini bajaradi Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining asosiy maqsadi va vazifasi-o'quvchilarining bilimli, komil inson va fikrlash doirasi keng bo'lishini ta'minlab berishdir.

Bolaning ongi va uning tafakkurini shakllanib borayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan mohirona foydalanishi, ta'lim berishning yangidan yangi usullarini ishlashi juda katta ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim va tarbiya berish jarayonidagi eng asosiy vazifalardan biri - bu o'qish malakasini oshirish. Bu vazifa ko'pincha o'qish darslarida amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf, ayniqsa,

birinchi sinfda o'qish darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarda to'g'ri, ravon, tez, ongli, ifodali o'qish va harflarni bir biriga to'g'ri bo'g'inga ajratib qo'shib o'qish malakasini hosil qilishdir. O'qish darsi boshqa darslar bilan integratsiya hosil qiladi. Masalan, matematika, ona tili, atrofimizdagi olam, odobnoma va shu kabi fanlardagi mavzularda beriladigan bilimlarni mustahkam o'qishlarida juda katta ahamiyat kasb etadi, chunki o'quvchilar to'g'ri, ongli, ravon o'qisagina berilgan matn mazmunini qiynalmasdan anglab oladi. O'qish darsining mahkam bog'langan to'rtta asosiy qismibor. Bular quyidagilardan iboratdir: ifodali o'qish, ongli o'qish, to'g'ri ravon o'qish, va tez o'qish kabilardir.

Biz sanab o'tgan to'rtta qismlarning ichida eng yetakchi o'rinda turadigan o'qish turi - bu ongli o'qish turidir.

Bolani o'qishga o'rgatishni harflar bilan emas, balki tovushlar bilan boshlanishi kerak. Bolalar og'zaki nutqda so'zlardagi tovushlarni ajrata olishni, tovushlarni bog'inlarga ajratib ularni birlashtirishni o'rgangandan keyin ular uchun o'qishni o'rganish osonlashadi. Bolalar ongli o'qish jarayonida quyidagilarga erisha olishlari lozim. Bular: o'qiyotgan so'zlarni o'z va ko'chma ma'nolarini, har bir gapning oxirida o'sha gapning ma'no mazmunini aytib bera olishlari, berilgan bo'limning mazmun mohiyatini qisqacha tarzda bayon qilib berishi, o'qigan matnning to'liq mazmunini bayon qilishi, o'qigan butun matnini anglab o'z munosabatlarini bildira olishlari kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ifodali o'qish malakasini oshirish uchun, uni o'qigablarida ma'nosini tushungan holda to'xtamlarga rioya qilgan holda, so'z urg'ulariga alohida ahamiyat berib, o'etacha ovozda ta'sirli o'qishga o'rgatish talab etiladi.

-To'g'ri o'qish malakasini oshirish va o'stirish uchun bolalar shoshmasdan, harflar va qo'shimchalarni o'rnini almashtirmasdan va ularni tushirib qoldirmasdan to'liq holda ya'ni orfoepiya qoidalariga rioya qilgan holda o'qish kerak.

- Bolalarda o'qish tezligini o'stirish va oshirish uchun, ongli o'qish malakasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ongli o'qish so'zning asl ma'no mohiyati, matnning to'liq va aniq tushungan holda o'qishdir. Ongli o'qish yuzasidan qilinadigan ishlar o'quvchilar o'qiyotgan matn mazmunini chuqur anglab yetishi, ularni mantiqiy fikrlashga o'rgatadi va fikr malakalarini kengaytiradi.

- Bolalarda ongli o'qish malakasini oshirish uchun darslik matnlarining oxirida berilgan savol va topshiriqlar berilgan bo'ladi. Shu savol va topshiriqlarga to'laqonli javob berish, o'quvchilarni matn mazmunini qayta hikoya qilishga va o'qituvchi berga. savollarga to'laqonli, mustaqil fikrlab javob qaytarishga va o'z hayotiy tajribalari asosida ijodiy so'zlab berishga o'rgatadi.

- O'quvchilar o'qiyotgan matnlarini qismlarga bo'lib har bir qismlarga bo'lgan matniga alohida alohida sarlavha topishi va shu matnga mos rasmlar orqali ifodalab berishi, savollar topa olishga ham asta sekin o'rgatilib boriladi. Avval hajm jihatidan kichik va mazmuni sodda bo'lgan matnlarni, so'ng esa

hajmi katta va mazmuni ham murakkabroq bo'lgan matnlar bilan ish olib boriladi.

- O'qishning ongli bo'lishi uchun muhim ahamiyat kasb etadigan vazifalardan biri -bu to'g'ri o'qish sanaladi.

To'g'ri o'qishni ta'minlaydigan asosiy kategoriyalar quyidagilardan iboratdir. Bular: o'qiganda xato qilmay, so'zlarni buzmasdan, tovush va bo'g'inlarni tushirib qoldirmasdan yoki o'rnini almashtirmasdan, oxirgi bo'g'inlarni ya'ni qo'shimchalarni to'g'ri talaffuz etish, orfoepiya qoidalariga rioya qilgan holda o'qish.

O'qishning hamma jarayonida to'g'ri o'qish malakasi olib boriladi. O'qish ongli bo'lsa, to'g'ri va tez o'qish malakalari hosil bo'ladi va yaxshi rivojlanadi. O'qish darslarida o'quvchilarni doimo o'z-o'zini kuzatib o'qishga o'rgatish, xatosiz va tez o'qishga o'rgatish kerak. Bu jarayon birinchi sinflarda o'qish darslarida alohida ahamiyatga egadir.

Ongli o'qish, to'g'ri o'qish, tez va ravon o'qish malakasi hosil qilingandan so'ng ta'sirli o'qish malakasi ham shakllanib boraveradi. Ta'sirli o'qish o'quvchilarda voqea-hodisalarni tasavvur etishga estetik zavq bag'ishlashga, o'zida kechgan his-tuyg'ularni uyg'otishga xizmat qiladi. Ifodali o'qish jarayonida olib boriladigan ishlarning mazmuni va mohiyati to'rtta asosiy shart bilan izohlanadi:

- O'quvchi yoshlar o'qigan asarlarining ichidan nimani aytib berishi, matnni yaxshilab tushunib olishlari zarur;

- O'quvchilar o'qigan asarlaridan o'zlarining munosabatlariga ega bo'lishlari kerak;

- Asar o'qiganda o'quvchilarda ma'lum maqsadning paydo bo'lishi, asar mazmunini bayon etishdagi moyilliklarni taqazo etadi;

- Matnni o'qiyotganda eshituvchilarning diqqatini jalb qila olishi, o'quvchi fikrini tushunib bilishi talab etiladi;

Bu asosiy shartlarning barchasi ifodali o'qishning o'sib borishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabda o'qitiladigan eng muhim predmetlardan biri bu o'qish sanaladi. O'qish o'quvchilarda g'oyaviy-siyosiy, aqliy, estetik tomonlama rivojlantirish uchun katta imkoniyat desak mubolag'a bo'lmaydi albatta. Bu jarayon o'qish jarayonida tizimli va maqsadli ishlashni talab qiladi. O'quvchilarning nutqi, o'qish malakasi qanday shakllanib borishida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mahorati salmoqli o'rinni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Matchonov.S. "Kitob o'qishni bilasizmi?" -T: "O'qituvchi" 1993-yil 114 bet.

2. Muhabbat Umarova "Uchinchi sinf o'qish darslari" Toshkent 2004 "Ijod dunyosi" nashriyot uyi.

3. R.D.Norqobilova. "Methods of improving the mechanisms of diagnosing the mother language ability of primary class students". The role of science and innovation in the modern world. 139-143. 2022

4. R.D.Norqobilova. Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini indikatorlar asosida diagnostika qilishning o'ziga xosligi. INTERNATIONAL CONFERENCES, 564-568. 2023

5. RD Norqobilova. USE of diagnostic tests in foreign schools. Results of National Scientific Research International Journal. 359-364. 2023.

6. R.Norqobilova, S.Ibrohimova."Pedagogical and psychological factors of using the heritage of Asian thinkers in the formation of ecological thinking in primary school science classes". European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA). Available Online at: <https://www.scholarzest.com> .Vol. 3 No. 06, June 2022. ISSN: 2660-5589

7. NR Davlatovna - Functions and Principles of Pedagogical Diagnostics. Web of Synergy: International Interdisciplinary 413-416, 2023/1/31

8. P Норқобилова -Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan iqtidorini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish. Общество и инновации. 36-41, 2023/1/25

9. P Nazarova, R Norqobilova - PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF EDUCATION OF YOUNG GENERATION AT ABU RAYHAN BERUNI TEACHING. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 1908-1911. 2022/6/30

10. S Xoliyeva, R Norqobilova - EASTERN SCIENTISTS 'VIEWS ON SPEECH. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 1433-1427. 2022/6/24

11. Sevara XOLIYEVA, Rayhona NORQOBILOVA, Muhlisa-MAMATMUROTOVA THE IMPORTANCE OF PEOPLE'S ORAL CREATIVITY IN THE DEVELOPMENT OF SPEECH BY PRIMARY SCHOOL STUDENTS. 2022/6/9. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 84-87.

12. Sumbula IBROHIMOVA, & Rayhona NORQOBILOVA. (2022). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF USING THE HERITAGE OF ASIAN THINKERS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL SCIENCE CLASSES. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 81-83.

13. Zoirova Sevinchbonu Khurshid Kizi, Norqobilova Rayhona Davlatovna, Tajimirzayeva Buzulaykho Mahammadjon Kizi. high spiritual generation-third renaissance builders. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. 167-169. 2022

14. Райхона Норқобилова. O'quvchilarning ona tili bo'yicha iqtidorini aniqlash va rivojlantirishning o'ziga xosligi Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. 379-384. 2022.

AHLOQIY QADRIYATLARNING SHAKLLANISHIDA BILISHNING AHAMIYATI

Ashuraliyev X.O.
Termiz tumani 25-maktab direktori

Kishining jamiyatda ijobiy shaxs sifatida namoyon bo'lishida xulq-atvorning ijtimoiy nomalarga mos kelishi muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Demak, odob-ahloq eng muhim qadriyat hisoblanadi. Shaxs taraqqiyoti jarayonida boshqa ko'pgina xususiyatlar hamda tajribalarning to'planishi kabi odob-ahloqqa doir tajribalar ham bevosita ta'lim-tarbiya va muloqot tufayli shuningdek, bilish faoliyati jarayonida egallanadi. Buni tasavvur qilish uchun bilish

Bilish jarayonlari dastlab amaliy aqliy harakatlar asosida shakllanadi va rivojlanadi. Demak har bir bolaning psixik taraqqiyoti jarayonida sof nazariy faoliyat emas, balki amaliy faoliyat asos qilib olinadi. Chunki amaliy faoliyat jarayonida bolaning bilish jarayonlari o'sadi, takomillashadi, mustahkamlanadi.

Maktabgacha yosh davrda bola bilish jarayonlari ko'rgazmali-harakat asosida rivojlanadi. Masalan, qiziquvchan bolalar ko'pincha «ichida nima borligini» bilish maqsadida o'z o'yinchog'larini buzib, sindirib ko'radilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tushunchalarning taraqqiy etish jarayonida ko'rgazmalilik ikki tomonlama rol o'ynaydi. Ko'rgazmalilik tushunchalarning taraqqiy etishini yengillashtiradi va tezlashtiradi. Boladagi bilimlar taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida hissiy ko'rgazma muayyan material bilan ishlash oson kechadi.

Yuqorida qayd etilganidek fikrlash faoliyati hozirning o'zida ilgari surilgan, tarkib topgan vazifalarni hal qilish uchungina zarur emas, u vazifani qo'yilishi uchun ham, yangi muammolarni namoyon qilish va anglash uchun ham zarurdir. Muammoni topib qo'ya bilish ko'pincha uning bundan keyingi hal qilinishiga qaraganda katta aqliy zo'r berishni talab qiladi. Garchi tafakkur masala yechish vositasiga aylanmasada, uni aynan masala yechish jarayonida, ya'ni o'quvchining o'z kuchiga yarasha muammo va savollarga amaliy yondoshib, ularni ifodalab yechishi davomida tarkib toptirish juda qulay usul hisoblanadi.

«Tushunchalarning ma'nosini keltirish» mashqi. *Mashg'ulot maqsadi:* Tushunchalarning xususiyatlari va xossalari turli sohalarida ko'ra olish malakalarini boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirishdan iborat.

Mashg'ulotning borishi: O'quvchilarga biror tashuncha masalan, «odob» so'zi aytiladi. Bolalardan odob so'zining ma'nosi nimadan iborat ekanligini aytish so'raladi. Qaysi o'quvchi ushbu tushunchaning ma'nosiga mos keluvchi fikrlarni ko'proq aytsa, o'sha o'quvchi g'olib hisoblanadi. O'quvchilar «odob» tushunchasining ma'nosini aytib bo'lgach navbatma-navbat quyidagi tushunchalarning ma'nosini aytish taklif qilinadi: hurmat, yordam, salom, ozodalik, andisha. Keyingi mashg'ulot uchun o'quvchilarga o'zlari hohlagan

tushunchalardan uchtasining mazmunini yozib kelish uyga vazifa qilib beriladi. Mashg'ulotda har bir o'quvchi yozib kelgan tushuncha va uning mazmunini qolgan o'quvchilarga o'qib beriladi. Keyin qolgan o'quvchilar o'zaro hamkorlikda tahlil qilib, yutuq va kamchiliklarni alohida ta'kidlaydilar.

“Farosat” mashqi. *Mashg'ulot maqsadi:* Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy tafakkurning tezligi, o'zgaruvchanligi, o'ziga xosligini va diqqat e'tiborlilikni shakllantirish orqali ahloqiy tarbiyani amalga oshirishdan iborat.

Ushbu mashg'ulotda o'quvchilarga 203x221 xajmdagi qog'oz, qalam, ruchka berib, ularga quyidagi topshiriq beriladi: «Qo'lingizdagi qog'ozning yuqori qismiga familiyangiz, ismingiz, nechanchi sinfda o'qishingizni yozing. Sizning vazifangiz qog'ozga rasmlarda tasvirlangan voqealarda qanday kamchilik borligini aniqlab, aylanalar chizib, ularning ichiga iloji boricha ko'proq kamchiliklarni topib yozishdan iborat. Chizgan aylanangizning har biriga nom berishni unutmang». O'quvchilarga namuna sifatida aylana ichiga chizilgan axloqiy munosabatlarga doir va ayrim kamchiliklar mavjud rasmlar havola etiladi. Mashg'ulot so'ngida har bir bolaning natijalari o'zaro solishtirilib bolalar bilan birgalikda muxokama etiladi.

“Odobli va aqlli bola” mashqi. *Mashg'ulotning maqsadi:* Boshlang'ich sinf o'quvchilarida odob, axloq andozalari haqidagi ijobiy tasavvurlarni shakllantirish orqali ahloqiy tarbiyani amalga oshirishdan iborat. *Mashg'ulotning borishi:* Ushbu mashg'ulotda ham o'quvchilarga 203x221 o'lchamdagi qog'oz, qalam beriladi va quyidagi topshiriqni bajarish tavsiya etiladi: «Sizga berilgan qog'ozning tepa qismiga familiyangiz, ismingiz, nechanchi sinfda o'qishingizni yozing. Sizning vazifangiz qog'ozga kvadratlar chizib, ularning chiga iloji boricha odobli va aqlli bolaning fazilatlarini yozishdan iborat. Har bir kvadratga nom berishni unutmang. Misol tariqasida namuna havola etiladi.

Ushbu topshiriqni bajarish o'quvchidan bir qator bilish xususiyatlarini safarbar etishni talab qiladi. Jumladan diqqat, xotira, hayol, idrok, shuningdek yetarli darajada irodaviy harakatlar jalb etiladi. Ya'ni odobli va aqlli bolaga xos bo'lgan fazilatlarini eslash, ularning obrazini gavdalantirish, diqqatni yo'naltirish, qat'iy talabdagi harakatlarni bajarishni taqozo etadi.

O'quvchilar bilan ahloqiy qadriyatlarni shakllantirish hamda bilish xususiyatlarini rivojlantirish bo'yicha ishlar shu tariqa olib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N., Abdullayeva Q., Mirsoliyeva M. Pedagogik texnologiyalar fanidan o'quv metodik majmua. T.: Fan texnologiyalari, 2011. – 199 b.

2. Shabbazova, D. R. (2017). BOSHLANG'ICH SINFDAN O'QUVCHILAR IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI. In *Sovremennyye problemy i perspektivy razvitiya pedagogiki i psixologii* (pp. 73-75).

3. Shabbazova, D. R. (2018). Vliyaniye xudojestvennykh proizvedeniy na razvitiy lichnosti shkolnika. *Gumanitarnyy traktat*, (24), 18-20.

4. Shabbazova, D. R. (2020). Individualnyye Faktory Formirovaniya " Soobrazitelnosti" Uchashixsya Nachalnyx Klassov. *Yevraziyskiy Soyuz Uchenykh*, (4-8 (73)), 46-49.

5. Shabbazova, D. (2022). Content of factors determining the efficiency of primary school students. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(5), 630-636.

6. Ruzikulovna, Shabbazova D. "The Importance of Personal Value Approach Methodology in Primary School Literacy Classes." *JournalNX*, vol. 7, no. 11, 2021, pp. 78-82, doi:[10.17605/OSF.IO/Z2DAJ](https://doi.org/10.17605/OSF.IO/Z2DAJ).

7. Zarnigor, B., & Ruzikulovna, S. D. (2019). Views Of The Great Thinkers Of The East About Education And Perfection Of Human. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).

8. Ruzikulovna, S. D. (2021). Primary Education Teacher And Student Teaching Activities And System Of Personal Values. *European Scholar Journal*, 2(7), 32-33.



IV SHO'BA. UZLUKSIZ TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASH PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

ВАРИАТИВ МОДЕЛЛАШТИРИШ АСОСИДА ТАЛАБАЛАР ПЕДАГОГИК ЭЪТИҚОДИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАНБАЛАРИ

*Орипова Нодима Халиловна,
Қарши давлат университети
Мақтабгача таълим кафедраси мудири, п.ф.д.(DSc), доц.*

Аннотация: ушбу мақолада вариатив моделлаштириш асосида талабалар педагогик этиқодини шакллантиришнинг манбалари ёритилган. Чунончи, миллий қадриятлар, оилавий анъаналар, ёзма манбалар, жамиятдаги мавжуд касблар, узлуксиз таълим жараёни кабилар талабалар педагогик этиқодини шакллантириш манбалари сифатида келтириб ўтилган.

Калит сўзлар: модель, вариатив модель, компонент, талаб, педагогик этиқод.

Аннотация: в данной статье описаны источники формирования педагогических убеждений студентов на основе вариационного моделирования. Например, в качестве источников формирования педагогических убеждений студентов приводятся национальные ценности, семейные традиции, письменные источники, существующие в обществе профессии, процесс непрерывного образования и т.п.

Ключевые слова: модель, вариантная модель, компонент, требование, педагогическое убеждение.

Annotation: This article describes the sources of the formation of students' pedagogical beliefs based on variational modeling. For example, national values, family traditions, written sources, professions existing in society, the process of continuous education, etc. are given as sources for the formation of students' pedagogical beliefs.

Keywords: model, variant model, component, requirement, pedagogical conviction.

Республикамизда таълим соҳаси олдига қўйилаётган давлат ва ишлаб чиқариш талаблари уни тез суръатларда ўзгартириш, таълим сифати ва самарадорлигини оширишга қаратилмоқда. Хусусан, олий маълумотли педагог кадрларни тайёрлаш, уларнинг узлуксиз малакасини ошириш ҳамда таълим тизимида вариативлик, интегративлик, дифференциаллик тамойилларининг устуворлигини қарор топтириш, таълим соҳасида фаолият олиб бораётган педагогик кадрларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш каби ишлар тизимли ва изчил амалга оширилиб келинмоқда. Ушбу вазифаларни амалга оширишда республикамиз педагог кадрлари олдига ҳам масъулиятли

вазифалар юкланади: “Бугун ҳар бир ўқитувчи ва тарбиячи, олийгоҳ домласи таълим, илм-фан соҳасидаги энг сўнгги ижобий янгиликларни ўқув жараёнларига татбиқ эта оладиган, чуқур билим ва дунёқараш эгаси, бир сўз билан айтганда, замонамиз ва жамиятимиз энг илғор вакиллари бўлишлари керак” [1; 229]. Дарҳақиқат, ушбу вазифаларни амалга оширишда педагогик кадрларнинг педагогик эътиқодини шакллантириш муаммосининг назарий ва амалий тадқиқи жамият ва илм-фан тараққиёти учун муҳим аҳамият касб этади.

Бизнингча, талабаларда педагогик эътиқодни шакллантириш манбалари қуйидагилар ҳисобланади:

1. Миллий қадриятлар;
2. Оилавий анъаналар;
3. Ёзма манбалар;
4. Жамиятдаги мавжуд касблар;
5. Узлуксиз таълим жараёни.

Ушбу манбалар талабаларда педагогик эътиқодни шакллантиришда алоҳида аҳамиятга эга бўлиб, улар шу кунга қадар жамиятдаги шахсларнинг касб танлашида муҳим роль ўйнаб келган. Хусусан:

Миллий қадриятлар. Ҳар қайси миллат ижтимоий ҳаётида муҳим аҳамият касб этадиган эзгу ғоялар, воқеа-ҳодисалар, моддий ва маънавий бойликлардир. Улар шахс дунёқараши ва эътиқодини шакллантиришда муҳим манба вазифасини ўтайди. Миллий қадриятлар мазмунида талабалар педагогик эътиқодини шакллантиришга самарали хизмат қиладиган жиҳатлар борки, улар таъсирида асрлар силсиласида кишилар ўз ҳаёт йўлини танлаб, жамиятда фаол ҳаракатда бўлиб келмоқдалар. Айниқса, қадриятларда касб-ҳунар эгаллаш ва унда ҳалол меҳнат қилиш, касбга садоқат каби эзгу амаллар борки, уларнинг аҳамияти бугунги кунда ҳам асло камайгани йўқ. Шу боисдан доно халқимиз томонидан “Ақл кўпга етказар, ҳунар кўкка” деб бекорга айтилмаган. Мана шу каби қадриятларга амал қилган ёшлар келажакда танлаган касбига эътиқод қўяди.

Оилавий анъаналар. Оилавий анъаналар ҳар доим ҳам ёшларнинг касб эгаллаши ва касбга эътиқод қўйишида етакчи ўринда бўлиб келган. Ўзбек миллатининг ҳам касб-ҳунар эгаллаш ва шу касбда узоқ йиллар ҳалол меҳнат қилишга даъват этадиган оилавий анъаналари борки, замонлар ўзгарса ҳам улар ўз қадрини йўқотмаган. Аксинча, даврлар синовидан ўтган қадимий касб-ҳунарлар жозибадорлиги ортиб бормоқда. Оилавий анъаналар туфайли ёш авлод ота-боболари, момоларининг касбини эгаллайди. Ана шу жиҳати билан касблар ворисийлик касб этади. Жумладан: заргарлик, мисгарлик, этикдўзлик, каштачилик, сандиқчилик, наққошлик, косибчилик, чеварлик, новвойлик, гиламчилик, ганжкорлик, ўймакорлик кабилар шулар жумласидандир. Ҳозирги кунда ҳам юртимизда мазкур касблар билан шуғулланадиган сулолалар мавжуд.

Ёзма манбалар. Таълим жараёнида талабалар ёзма манбаларга жуда кўп мурожаат қиладилар. Буларга битиктошлар, диний китоблар, мутафаккир ва алломалар асарлари, бадий адабиёт, архив ҳужжатлари кабилар киради. Уларни талабаларга ўргатмасдан туриб, кишилик жамияти тараққиёти ҳақидаги тасаввурларини ҳосил қилиб бўлмайди. Хусусан, улар узоқ тарихимизда ота-боболаримизнинг қандай касб-ҳунарлар билан шуғулланганлиги, алломаларнинг шахс эътиқоди ва дунёқараши ҳақидаги фикр ва мулоҳазалари, тарихий жараёнлар, халқимизнинг диний ва ғоявий эътиқоди каби маълумотлар билан танишадилар.

Жамиятдаги мавжуд касблар. Дунёда касблар кўп, хоҳ улар қадимий, хоҳ замонавий касблар бўлсин, ҳар бирининг ҳаётда ўз ўрни, ўз аҳамияти бор. Ёшларнинг касблар ҳақидаги тасаввур ва тушунчалари болалиқдан шаклланиб боради. Аммо маълум ёшга келиб, улар ўзларига маъқул касбни танлайдилар. Ёшларнинг касб танлашида улар яшаб турган жойдаги мавжуд касблар кўпроқ муҳим роль ўйнайди.

Узлуксиз таълим жараёни. Ҳеч бир манба узлуксиз таълим жараёнидек шахс эътиқоди ва дунёқарашининг шаклланишида етакчи ролни ўйнай олмайди. Зеро, узлуксиз таълим жараёнидагина шахс баркамоллик сари қадам ташлайди ҳамда табиат ва жамият ҳақидаги билимлари тизимли равишда юксалиб боради. Шунингдек, узлуксиз таълим жараёнида шахс ўз-ўзини англайди ва ўз олдига мақсад қўйишни ўрганиб боради, ижтимоий муносабатларга киришади, ахборотларни фаол қабул қилади ва уларга муносабат билдиради. Узлуксиз таълим жараёнида шахснинг ҳуқуқий онги, ғоявий-сиёсий маданияти таркиб топади, у жамият томонидан қабул қилинган қонун ва қоидаларга риоя қилишни ўзининг фуқаролик бурчи эканлигини англаб етади. Шахс таълим олиш жараёнида фуқаролик бурчини англайди, эстетик-экологик тафаккури бойийди.

Бизга маълумки, ҳар қандай жараён маълум бир компонентлар бирлигидан ташкил топади. Худди шундай талабалар педагогик эътиқодини шакллантириш жараёни ҳам бир қанча компонентлар иштирокида амалга ошади. Улар ўз вазифасига кўра бошқарувчи, тайёрловчи, узатувчи, талаб қўювчи, назорат қилувчи, таъминловчи, сараловчи, ташувчи каби функцияларни бажаради.

Бу борада талабаларнинг педагогик эътиқодини шакллантириш жараёнини ҳаракатга келтирувчи компонентлар қуйидагилар ҳисобланади: давлат ва жамият, узлуксиз таълим, оила, ОТМ, кадрлар буюртмачиси, профессор-ўқитувчилар. Мазкур компонентлар ўзаро алоқадорликда жараённи ҳаракатга келтиради. Демак, бу жараёнда ҳар бир компонент ўз вазифасидан келиб чиққан ҳолда ташкилий-методик, бошқарув каби ишларни тўлақонли бажарсагина жараён муваффақиятли ишлайди. Қуйида жараён компонентларининг вазифаларига тўхталиб ўтамыз:

Давлат ва жамият – узлуксиз таълим, оила, кадрлар буюртмачилари, жамоат ташкилотлари олдига аниқ ва истиқболли талабларни қўяди ҳамда уларнинг бажарилишини назорат қилади. Шунингдек, таълим соҳасида фаолият олиб бораётган шахсларнинг ҳуқуқий, иқтисодий ва сиёсий муҳофазасини кафолатлайди, талаба ёшларнинг бандлигини таъминлайди. Шу билан бирга, мазкур механизм ОТМ олдига жамиятдаги ўзгаришлар, янгиликларга хос кадрлар тайёрлаш, уларнинг қизиқишларини руёбга чиқаришни ўз зиммасига олади.

Оила – давлат ва жамият учун жисмоний, маънавий-ахлоқий, руҳий соғлом авлодни тарбиялаб беради, миллий ва умуминсоний қадриятларни ворисийлик тамойили асосида ёш авлод қалбига сингдиради. Шунингдек, оила ёш авлодни соғлом турмуш асосида яшаш ва меҳнат қилишга ўргатиб беради, бирор-бир касб-хунарга йўналтирилади.

ОТМ – талабаларни касбий фаолият ва ижтимоий ҳаётга тайёрлайди, уларнинг илмий, сиёсий, ахлоқий, мафкуравий, ҳуқуқий онги ва дунёқарашини юксалтиради. Шунингдек, у талаба-ёшларни жамиятда содир бўлаётган воқеа-ҳодисалар, жараёнларга нисбатан муносабати, иштирокини таркиб топтиради. ОТМда ахборотларни излаш ва улардан фойдаланиш ҳамда энг сўнгги технологиялардан фойдаланиш кўникмасини ҳосил қилади. У талабани турли мафкуравий таҳдидлардан ҳимоя қилади ва бўш вақтини мазмунли ташкил этади.

Кадрлар буюртмачиси – битирувчиларни иш билан таъминлайди. ОТМга фан-таълим ва ишлаб чиқариш ўртасидаги интеграцияни такомиллаштириш юзасидан таклифлар беради. ОТМ талабаларнинг амалиётларини ўташлари учун қулай шарт-шароит яратади, устоз-шоғирд тизимини йўлга қўяди.

Демак, талабаларда педагогик эътиқодни шакллантириш жараёни бевосита уларнинг педагогик билимларни эгаллаши билан боғлиқ ҳисобланади. Педагогик билимларни ҳосил қилиш эса маълум бир кўринишдаги вариатив таълим шаклларида фойдаланиш натижасида ҳосил қилинади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.: Ўзбекистон, 2021, – 464 б.

2. Нуруллаева Ш.У. Моделлаштириш – илмий тадқиқот методи сифатида // Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў. №6/1 – Нөкис: 2020. 26-29-б.

3. Орипова Н.Х. Вариатив моделлаштириш асосида бўлажак ўқитувчилар касбий педагогик эътиқодини шакллантириш назарияси. Монография. Қарши: Фан ва таълим, 2022. – 132 б.

“IJTIMOIY TARMOQLARDAN TO‘G‘RI MAQSADDA FOYDALANISH ORQALI MEDIAMADANIYATNI SHAKLLANTIRISH”

*Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi.
Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi kafedrasi mudiri,
pedagogika bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Bo‘riyeva Shaxnoza Inat qizi.
Nizomiy nomidagi TDPU talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy maktab o‘quvchilariga ommaviy axborot vositalarining salbiy ta‘siri muammolari va bu salbiy ta‘sirlar o‘quvchilarning rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatayotgani masalalari ko‘rib chiqilgan. Ijtimoiy tarmoqlar haqida (Telegram, Instagram, Fesebook, Whatsapp). Shuningdek, maqolada o‘quvchilarning mediakompetentligini rivojlantirish orqali yuqorida berilgan muammolarni yechish yo‘llari haqida fikrlar berilgan. O‘quvchi yoshlarning mediamadaniyatini rivojlantirish muammosini yechish yo‘llari haqida fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: mediata‘lim, mediakompetentlik, media, internet, texnologiya, tafakkur, ijtimoiy tarmoq, axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik, kiberjinoyatchilik.

Hozirda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda o‘quvchi yoshlarning axborot texnologiyalari borasidagi bilimlarini takomillashtirish orqali mediamadaniyatni shakllantirish va rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilash lozim. Ommaviy axborot vositalari, kompyuter o‘yinlari va ko‘ngilochar dasturlarini faol istemol qilish holati kattalar tomonidan nazoratga olinmaydi va ta‘lim-tarbiya standartlari talablariga javob bermaydi. Oqibatda, nutqiy tafakkur o‘z o‘rnida rivojlanmaydi, chunki, ommaviy ko‘rsatuvlarni ko‘rish va kompyuter o‘yinlarini meyoridan ortiq o‘ynash jarayonida maktab o‘quvchilari ichki va tashqi nutqdan foydalanmaydilar. So‘z o‘rnida ta‘kidlashimiz joizki, eng avvalo yoshlarga internetdan foydalanish madaniyatini, mediamadaniyatni o‘rgatish kerak. O‘quv jarayonida ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishishning asosiy shartlari: zamonaviy ta‘lim usullaridan bo‘lgan ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish, eng so‘nggi ta‘lim vositalarini qo‘llash yoshlarni teran fikrlashga o‘rgatadi. Afsuski, mamlakatimizda maktab o‘quvchilarining mediasavodxonligiga yetarlicha e‘tibor berilmaydi, mediata‘limning joriy etilishi alohida dolzarb ahamiyatga ega. Mediata‘lim o‘quvchilarni tarbiyalashda, ta‘lim berish va madaniy rivojlantirishda katta o‘rin egallaydi. Zamonaviy maktab o‘quvchilari, odatda, kattalardan ko‘proq ommaviy axborot vositalari va kompyuter uskunalaridan foydalanishda ustunliklarga ega bo‘ladilar.

Zamonaviy maktab ta‘lim muassasalariga ommaviy axborot vositalari, interaktiv texnologiyalar, ta‘lim olishda elektron turdagi darsliklar tezkor ravishda kirib bormoqda. O‘quvchilar doimo o‘sib borayotgan axborot oqimlariga duch keladilar qidiruv malakalarini ishga solish orqali olingan

ma'lumotlarni mustaqil ravishda tanqidiy baholash jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishadi albatta. Bunday sharoitda ularga mediata'limning roli ancha ortadi. O'qituvchidan yuksak eruditsiya, ulkan ijodiy va ilmiy salohiyat tashabbuskorlik talab qiladi. Muxtaram Prizentimiz Shavkat Mirziyoyev: <<Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo'l turibdi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o'qib o'rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o'zimizni ayamadan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o'zgaradi" deya ta'kidladilar. Darhaqiqat bugungi kunda zamonaviy texnologiyalardan foydalanib bor imkoniyatlarimizni ishga solsak ertangi kunda jamiyatimizga yetuk kadrlar bo'lib yetishamiz. Ta'lim sohasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda, ilg'or xorijiy davlatlarning pedagogik tajribalari asosida darslarni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish o'quvchining mustaqil fikrlashga muammoli vaziyatlardan chiqishga xulosa qilishga o'rgatadi. Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga ta'lim ehtiyojini shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biri axborot kommunikatsion texnologiyalari o'zining ko'plab qulay jihatlari bilan muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, har qanday ko'rgazmali vosita berilgan bilimning o'quvchi ongida to'liq aks etishi, tasavvurlarini paydo qilishi, xotirasida uzoq vaqt qolishiga sabab bo'ladi. Shu bilan bir qatorda o'quvchilari mediamadaniyatini rivojlantirish globallashuv sharoitida muhim pedagogik muammo hisoblanadi. Mediamadaniyat haqida Marshall Maklyuen "Inson tom ma'noda savodli bo'lishi uchun avvalo media olamida savodli bo'lishi kerak" degan edi. Mediata'limning umumiy mohiyati yosh avlodni uning hayotida tobora mustahkam o'rin egallab, unga keng ko'lamli axborot muhitini taqdim etayotgan ommaviy axborot vositalari materiallari yordamida tarbiyalashdan iborat

Bugungi kunda O'zbekistonda "Telegram" messenger foydalanuvchilar 80% ni WhatsApp foydalanuvchilari 22% ni hamda "Fasebook" foydalanuvchilari 6%ni tashkil qiladi. O'zbekiston aholisining qariyb 70% qismi internet foydalanuvchisi hisoblanadi. O'zbekistonda foydalanuvchilar tomonidan eng ko'p "Instagram" ijtimoiy tarmog'idan foydalaniladi. Hozirgi kunda ushbu tarmoqdan foydalanuvchilar soni 4,8 milliondan ortiq hisoblanadi. Foydalanuvchilarning asosiy qismi yoshlarni tashkil etmoqda. Axborot asri insoniyatga tezkor axborot taqdim qilish bilan birgalikda undan noo'rin foydalanish tufayli ko'plab muammolarni shakllantirmoqda, bu o'z navbatida eng katta ta'sirini yoshlar o'rtasida namoyon etmoqda. Shu sababli yoshlarning axborotdan samarali foydalanishlari yoki ijtimoiy xavfli axborotlarga qarshi mediamadaniyatni shakllantirish talabi ortib bormoqda. Ta'limning ustuvor vazifalaridan biri, bu ta'lim oluvchi ongu shuurida milliy va umuminsoniy qadriyatlar qaror toptirish, unda kelajakda axborotlashgan jamiyatda o'z munosib o'rnini topishi uchun amaliy hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish bilan o'quvchi yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga faol kirishishiga zamin hozirlashdir. Ma'lumki, XX asr 90-yillaridan boshlab axborotlashtirish sohasi keskin rivojlanib ketdi. XXI asr axborotlashtirish asri

deb atalmoqda. Axborot texnologiyalari tufayli insonning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish faoliyati, uning kundalik muloqot sohasi dunyo sivilizatsiyasi ishlab chiqqan tajriba, bilimlar va ma'naviy qadriyatlarini jalb etish hisobiga chindan ham behad kengaymoqda, iqtisodiyotning o'zi esa moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish sifatida kamroq, axborot mahsulotlari, xizmatlarini yaratish va tarqatish sifatida ko'proq xususiyat kasb etmoqda. Mediata'lim xalqimizning urf-odatlariga, milliy qadriyatlariga tayangan holda, umuminsoniy qadr-qimmatlarga asoslanib tashkil etilishi kerak. Mediata'lim yoshlarimizni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan xavfsiz va samarali muloqot qilishga tayyorlaydi, ularda mediaogohlikni, mediasavodxonlikni, mediamadaniyatni va mediakompetentlikni shakllantiradi. Shuning uchun maktab o'quvchilarini mediasavodxonlikka o'qitish davlatimiz ta'lim siyosatida ustuvor yo'nalish bo'lishi kerak. Millatimizning kelajagi, aynan, zamonaviy maktab o'quvchilarining mediasavodxonligiga bog'liq bo'ladi.

Axborot olish madaniyati, ya'ni axborot savodxonligi bo'yicha xorijiy mamlakatlarga nazar solinsa, kutubxonalar uyushmasida axborot savodxonligi masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. "Axborot savodxonligi" atamasi aynan mana shu e'tibor natijasida paydo bo'lgan. Bundan tashqari, axborot savodxonligi bo'yicha milliy forumlar yaratilgan bo'lib, yigirma beshtadan ziyod turli tashkilot va muassasalarni birlashtirgan. Shuni unutmash kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan bir qarashda arziyasiz bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi glaballashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ziyon yetkazishi mumkin. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini aytib o'tish zarur: "Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz havf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin, tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'lga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim". To'g'ri, haqiqatni rad etmagan holda, shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, internet tarmoqlari ta'lim olish, dam olish yoki do'stlar bilan muloqot qilishning ajoyib vositasidir. Shu boisdan ham, internet tarmoqlaridan foydalanuvchilar soni yildan yilga oshib borayotganligini inobatga olsak, axborot manbai sifatida ommaviy axborot vositalari, internetdan axborotlar izlash kundan kunga jadallashmoqda. Bu esa qaysi sohaga oid bo'lishidan qat'iy nazar internetning milliy segmentida o'z axborotlarimizni tobora ko'paytirib borishni taqozo etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki, har qanday mafkuraviy, ma'naviy va axborot tahdidlariga qarshi kurashda muhtaram Prezidentimizning asarlari dasturulamal vazifasini bajarishi kerak. Jumladan, "Besh muhim tashabbus va Harakatlar strategiyasi" buning yorqin timsoli hisoblanadi. Shu nuqtai

nazardan, global o'zgarishlar davrida, jamiyatda axborot tahdidlariga qarshi samarali kurashish omillaridan biri aholida, ayniqsa, yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish ularni turli xil tahdidlardan asrash, ularning mediasavodxonligini shakllantirish ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda bilim va ko'nikmalar berish targ'ibot tashviqot ishlarini olib borish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мокрушина Е.В. / Воздействие политического PR на молодёжь в социальных сетях // URL:psujourn.narod.Ru/vestnik/vyp 6/moc soc. htm.
2. Qo'ng'irov I.H., Kungirova Sh.I. "Globalashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari T: 2020 yil, B-191.
3. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash, yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.:O'zbekiston, 2017. – B. 25.
4. O'zbekiston Respublikasi „Ommaviy axborot vositalari to'g'risida“gi qonun_2018 yangi tahrir;
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 7 fevralda „O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi“ to'g'risidagi farmonida_2017; PF-4947sonli
6. Ijodkor o'qituvchi ilmiy uslubiy jurnal _2022 yil 17 son Maqsudov u
7. O'quvchi yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi_2016 Toshkent.
8. Ўқувчи-ёшларда ахборот истеъмоли маданиятини ривожлантириш технологияси / Б.Ходжаев, М.Махмудова – Тошкент: «Tafakkur qanoti», 2016.
9. Очиқ ахборот тизимларида ахборот- психологик хавфсизлик: ўқув қўлланма Умаров Б., Ахмедова М. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги; Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари ун-ти : - Т. Chashma Print, 2013. .
10. Информационная культура личности: учебно-методическое пособие. - М.: Либерея-Бибинформ, 2007.
11. <http://uz.infocom.uz/2016/03/30/axborot-olish-madaniyatini-shakllantirishdaijtimoiy-meyorlarning-orni/>
12. Internet va axborot: xizmatlar, foydalanish asoslari. o`quv qo`llanma // Qudratxo`jayev Sh. Toshkent. Istiqlol, 2001

O'QUVCHILARNING TABIATDA SODIR BO'LAYOTGAN FIZIK JARAYONLARNI ANGLAB ETISHDA TAJRIBALARNING O'RNI

*TerDPI, talim sifatini nazorat qilish
bo'lim boshlig'i B.B.Imanov
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarning tabiatda sodir bo'layotgan fizik jarayonlarni tushunishlarida tajribalarning roli o'rganiladi. Tadqiqotning maqsadi o'quv jarayonidagi tajribalarning ahamiyati va fizika fanidan bilimlarni o'zlashtirishga ta'sirini aniqlashdan iborat edi. Tadqiqot davomida mavjud ishlarni tahlil qilish, adabiyotlarni ko'rib chiqish va qo'llanilgan tadqiqot usullari tavsifi amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari o'quvchilarda fizik jarayonlarni chuqur anglashni shakllantirishda tajribalar muhim rol o'ynashini tasdiqladi. Ular tanqidiy fikrlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga hissa qo'shadi. Bundan tashqari, o'quvchilarning jismoniy jarayonlarni tushunishlariga eksperimentlarning ijobiy ta'sirini tasdiqlovchi oldingi tadqiqotlar bilan kelishilgan. Xulosa qilib aytganda, maqola o'quv amaliyotida eksperimentlardan foydalanishning yangi uslublari va yondashuvlarini ishlab chiqish, shuningdek, tajribalarning bilim va rivojlanishni o'zlashtirishga uzoq muddatli ta'sirini baholash uchun ushbu sohada qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish zarurligi to'g'risida xulosa qilinadi. fizika yo'nalishi bo'yicha talabalar. Umuman olganda, maqola talabalarning fizik jarayonlarni tushunishida eksperimentlarning ahamiyati va ularning fizika fanini faollashtirish va chuqur o'rganishdagi muhim rolini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: tajribalar, tushunish, o'quvchilar, jismoniy jarayonlar, tabiat, o'quv jarayoni, bilim, rivojlanish, ta'lim, tadqiqot usullari, adabiyotlarni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, faol o'rganish, bilimlarni o'zlashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalari, mantiqiy fikrlash, oldingi tadqiqotlar, kelajakdagi tadqiqotlar, o'quv amaliyoti, tajribalarning ta'siri.

Кириш: Tabiatda sodir bo'ladigan jismoniy jarayonlar bizning atrofimizdagi dunyoning ajralmas qismidir. Ular materiyaning harakatini, jismlarning harakatini, energiyaning o'zaro ta'sirini va boshqalarni aniqlaydi. Bu jismoniy hodisalarni tushunish va tushuntirish bizning dunyomizning rivojlanishi va uni tushunishimiz uchun katta ahamiyatga ega.

Ta'lim muassasalarida fizika o'quvchilarni turli jismoniy jarayonlar va hodisalar bilan tanishtiradigan asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Biroq, fizikani sof nazariy jihatdan o'rganish o'quvchilarning tushunchalarini cheklaydi va bu jarayonlarning haqiqati va ahamiyatini tushunishga har doim ham imkon bermaydi. Bu erda tajriba o'ynaydi.

Jismoniy jarayonlarni tushunishda tajribalarning rolini ortiqcha baholab bo'lmaydi. Tajribalar o'quvchilarga boshqariladigan sharoitlarda real hodisalar va tabiat qonunlarini kuzatish, o'rganish va tahlil qilish imkonini

beradi. Ular fizikani faol va amaliy o'rganishda ishtirok etish imkoniyatini beradi, bu esa materialni chuqur tushunish va o'zlashtirishga yordam beradi.

Ko'rib chiqish: Tajribalar orqali talabalar mustaqil ravishda turli gipotezalarni sinab ko'rishlari, taxminlarni shakllantirishlari va o'z tajribalari asosida xulosalar chiqarishlari mumkin. Tajribalar o'quvchilarda kuzatish, o'lchash, ma'lumotlarni tahlil qilish va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ularni ta'lim-tarbiya jarayonida faol ishtirok etishga, ilmiy tafakkurni shakllantirishga undaydi.

Bundan tashqari, tajribalar talabalarga nazariy tushunchalar va fizika qonunlari amaliyotda qanday qo'llanilishini ko'rish imkonini beradi. Ular fizik qonunlarning real dunyoda qanday ishlashini va ulardan turli hodisalarni tushuntirish va bashorat qilish uchun qanday foydalanish mumkinligini kuzatishi mumkin. Bu talabalarga nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rishga yordam beradi, bu ularning jismoniy jarayonlarni chuqur tushunishlariga yordam beradi.

Shunday qilib, o'quvchilarning fizik jarayonlarni tushunishlarida tajribalar muhim o'rin tutadi. Ular fizikani faol va amaliy o'rganish uchun noyob imkoniyat yaratadi, kuzatish va ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rishga yordam beradi. Bu o'quvchilarda fizika fanlarini chuqurroq anglash va qiziqish uyg'otishga xizmat qiladi, bu esa ularning ilmiy rivojlanishi va shakllanishida muhim qadam hisoblanadi.

Методика “Tabiatda sodir bo'ladigan fizik jarayonlarni o'quvchilarning tushunishida tajribalarning o'rni” mavzusidagi mavjud ishlarni ko'rib chiqish:

1. “Fizika ta'limida eksperimentlarning o'rni: tadqiqotlarni ko'rib chiqish” – Ushbu maqolada fizika ta'limida eksperimentlarning o'rni bo'yicha joriy tadqiqotlarning umumiy ko'rinishi keltirilgan. Mualliflar o'quvchilarning jismoniy jarayonlarni tushunishlariga eksperimentlarning ta'sirini o'rganadigan empirik tadqiqotlarni ko'rib chiqadilar. Ish natijalari shuni ko'rsatadiki, fizika tushunchalarini faol va chuqur o'zlashtirishda tajribalar muhim rol o'ynaydi.

2. "O'quvchilarning fizika tushunchalarini tushunishlariga amaliy tajribalarning ta'siri" - bu maqolada amaliy tajribalarning o'quvchilarda fizik tushunchalarni tushunishga ta'sirini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar ko'rib chiqiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, amaliy tajribalarda ishtirok etish tushunchalarni chuqurroq va mustahkamroq tushunishga, shuningdek, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

2. Anketalar va so'rovlar: Anketalar yoki anketalardan foydalanish tajribalarda ishtirok etishdan oldin va keyin o'quvchilarning jismoniy jarayonlarni idrok etishlari, fikrlari va tushunchalari to'g'risida ma'lumotlarni to'plash imkonini berdi. Bu tushunishdagi o'zgarishlarni o'lchash va tajribalar samaradorligini baholash imkonini berdi.

3. Bilimlarni tekshirish va baholash: Tajribalarda ishtirok etishdan oldin va keyin o'quvchilarning jismoniy jarayonlarni bilish darajasini va tushunish

darajasini o'lchash uchun test va topshiriqlardan foydalanildi. Sinov natijalarini taqqoslash tajribalar bilim va tushunishni takomillashtirishga qanchalik ta'sir qilishini baholash imkonini berdi.

4. Kuzatish: Tajribalar davomida talabalarni kuzatish ularning faolligini, materiallar bilan o'zaro munosabatini va o'quv jarayonidagi ishtirokini baholash imkonini berdi. Kuzatishlar eksperimentning o'quvchilarga ta'siri haqida qimmatli ma'lumot berdi va tajribaning qaysi jihatlari eng samarali ekanligini tushunishga yordam berdi.

5. Sifatli suhbatlar: Suhbatlardan foydalanish o'quvchilarning tajribalar bilan bog'liq tasavvurlari, kechinmalari va fikrlash jarayonlarini chuqur anglash imkonini berdi. Suhbat doirasidagi ochiq savollar va dialoglar o'quvchilarning jismoniy jarayonlarni tushunishlarida eksperimentlarning rolining turli jihatlari ochib berishga yordam berdi.

Natijalar va uning muhokamasi: Tadqiqotda talabalarining ikkita guruhi taqqoslandi: amaliy tajribalarda ishtirok etgan eksperimental guruh va eksperimental komponentlarsiz an'anaviy ta'lim olgan nazorat guruhi. Tajribalarining o'quvchilarning fizik jarayonlarni tushunishlariga ta'sirini baholash uchun testlar, anketalar va kuzatishlar qo'llanildi.

Tahlil: Natijalar nazorat guruhiga nisbatan eksperimental guruh o'quvchilarining jismoniy jarayonlarni tushunishlari sezilarli darajada yaxshilanganligini ko'rsatdi. Amaliy tajribalarda ishtirok etgan o'quvchilar bilim darajasi yuqori ekanligini va fizika tushunchalarini chuqurroq anglaganliklarini namoyish etdilar.

So'rov va so'rovlar ham o'quvchilarning jismoniy jarayonlarni idrok etishiga tajribalarining ijobiy ta'sirini tasdiqladi. Eksperimental guruh talabalarining aksariyati amaliy tajribalar ularga mavhum tushunchalarni yaxshiroq tushunishga va ularni tabiatdagi real hodisalar bilan bog'lashga yordam berganligini ta'kidladilar.

Kuzatish shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhidagi o'quvchilar o'quv jarayonida faolroq ishtirok etadilar. Ular fizika tajribalariga ko'proq qiziqish bildirishdi, chuqurroq savollar berishdi va materiallar bilan faol muloqot qilishdi. Bu shuni ko'rsatadiki, tajribalar o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuga chuqurroq kirib borishiga hissa qo'shadi va ularning faolligini rag'batlantiradi.

Olingan natijalar jismoniy jarayonlarni yanada samaraliroq tushunish uchun ta'limda tajribalardan foydalanish muhimligini tasdiqlaydi. Amaliy tajribalar o'quvchilarga materiallar bilan to'g'ridan-to'g'ri munosabatda bo'lish, kuzatishlar olib borish va real natijalar olish imkoniyatini beradi, bu esa bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish va esda saqlashga yordam beradi.

Muxokama: Tajribalar orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va muammolarni hal qilish ko'nikmalari shakllanadi. Ular o'quv jarayonining faol ishtirokchilariga aylanadilar, bu ularning motivatsiyasi va fanga qiziqishini oshiradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari o'quvchilarning tabiatda sodir bo'layotgan fizik jarayonlar haqidagi tushunchalarini shakllantirishda tajribalar muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. Ularni o'quv jarayonida qo'llash ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi va o'quvchilarning fizika fanini o'rganishda faol ishtirok etishiga yordam beradi.

Joriy tadqiqot natijalari oldingi tadqiqotlar natijalarini tasdiqlaydi, bu ham tajribalarning talabalarning jismoniy jarayonlarni tushunishlariga ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Bu esa o'quv jarayonida amaliy tajribalardan foydalanish bilimlarni chuqurroq va yaxshi o'zlashtirishga xizmat qiluvchi samarali usul ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot doirasida talabalarning tabiatda sodir bo'ladigan fizik jarayonlarni tushunishlarida tajribalarning roli o'rganildi. Natijalarni tahlil qilish va oldingi tadqiqotlar bilan taqqoslash natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Tajribalar ta'limda muhim o'rin tutadi va o'quvchilar tomonidan jismoniy jarayonlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ular o'quvchilarga materiallar bilan to'g'ridan-to'g'ri munosabatda bo'lish, kuzatishlar olib borish va haqiqiy natijalarni olish imkonini beradi, bu esa bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi.

2. Ta'lim jarayonida tajribalardan foydalanish o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mantiqiy fikr yuritish va ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ular o'quv jarayonining faol ishtirokchilariga aylanadilar, bu ularning motivatsiyasi va jismoniy jarayonlarni o'rganishga qiziqishini oshiradi.

3. Tadqiqot natijalari oldingi tadqiqotlar natijalarini tasdiqlaydi, bu ham tajribalarning o'quvchilarning jismoniy jarayonlarni tushunishlariga ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijasi shuni xulosa qilish imkonini beradiki, tajribalar ta'limda muhim rol o'ynaydi va o'quvchilar tomonidan tabiatda sodir bo'ladigan jismoniy jarayonlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ularni o'quv jarayonida qo'llash ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning fizika fanini o'rganishdagi faolligini oshirish imkonini beradi.

Ushbu sohadagi keyingi tadqiqotlar eksperimentlar rolining o'ziga xos tomonlarini batafsilroq o'rganishga, o'quv amaliyotida eksperimentlardan foydalanishning yangi usullari va yondashuvlarini ishlab chiqishga, shuningdek uzoq muddatli ta'sirni baholashga qaratilgan bo'lishi mumkin. talabalar tomonidan jismoniy jarayonlarni tushunish va o'zlashtirish bo'yicha tajribalar.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot natijalari talabalarning jismoniy jarayonlarni tushunishlarida eksperimentning muhimligini tasdiqlaydi, ularning fizika sohasida faol va chuqur o'rganishni rivojlantirishdagi rolini ta'kidlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Олий таълимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора тадбирлар тўғрисида” ги 05.06.2018 йилдаги ПҚ-3775 сонли қарори.
3. Imanov B. V. Lesson and its analysis as factor of increasing the qualiyy of education //European scholar Journal. Available online at//www.scolarzest.com. – 2021. – Т. 1.
4. Иманов Б. ИЗМЕНЕНИЕ СТРУКТУРЫ ЗАНЯТИЯ, НЕ ВЛИЯЮЩЕЕ НА КАЧЕСТВО ПРЕПОДАВАНИЯ //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 2 Part 3. – С. 26-31.
5. Imanov B. V. Competences in the quality of education and their organization //ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH. – 2021. – Т. 10. – №. 5. – С. 419-424.
6. Imanov B. NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. В3. – С. 355-358.
7. Imanov B. V. Student Creativity In Performing Problem-Solving Experiments In Physics Development Through Innovative Technologies //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 05. – С. 521-525.
8. Иманов Б. ЎҚИТИШ СИФАТИНИ ОШИРИШДА ДАРС ТУЗИЛМАСИНИНГ ЎЗАРО БОҒЛИҚЛИГИ //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 803-807.
9. Иманов Б., Имонова М. Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 222-227.
10. Mahmudov Y. G., Imanov B. V. Lesson quality indicators //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 10. – С. 653-656.
11. Иманов Б., Иманова М. Б. Қ. ДАРС ТУЗИЛМАСИ ВА УНГА ТАЙЁРГАРЛИК //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 1158-1162.
12. Иманов Б. ИЗМЕНЕНИЕ СТРУКТУРЫ ЗАНЯТИЯ, НЕ ВЛИЯЮЩЕЕ НА КАЧЕСТВО ПРЕПОДАВАНИЯ //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 2 Part 3. – С. 26-31.
13. Berdievich I. V. Key And Derivative Indicators for Assessing the Quality of Lesson in Physics //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – Т. 5. – С. 318-320.
14. Ganievich M. Y., Berdievich I. V. Solution of problems of hydrostatics //World Bulletin of Social Sciences. – 2022. – Т. 9. – С. 163-167.

15. Ganievich M. Y., Berdievich I. B. SOLUTION OF QUANTITATIVE PROBLEMS ON THE SECTION OF PHYSICS “MECHANICS”.

16. Summers D. et al. MORAL DILEMMAS IN DIGITAL & FOREIGN WORLD. BULLETIN OF NATIONAL ACADEMY OF SCIENCES OF THE REPUBLIC OF KAZAKHSTAN ISSN 1991-3494 Volume 2, Number 372 (2018), 68–74.

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALAR XULQIDAGI SALBIY XISLATLARINI PSIXOLOGIK, PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Choriyeva Feruza Amrullayevna

Qarshi Davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim kafedrasini (PhD) dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar xulqidagi salbiy o'zgarishlarni korreksiyalashda pedagogik, psixologik xususiyatlari, bolalar psixologiyasi predmetining muhim tomonlaridan biri turli yoshdagi bolalarga sezish, idrok, diqqat, xotira, nutq, tafakkur, xayol, hissiyot va iroda kabi psixik jarayonlari va holatlarining namoyon bo'lishi, taraqqiy etishi hamda takomillashuvining qonuniyatlarini o'rganishlar keng tarzda yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, psixologiya, pedagogika, sezish, idrok, diqqat, xotira, nutq, tafakkur, xayol, hissiyot, iroda.

Абстрактный. В данной статье при коррекции негативных изменений в поведении детей дошкольного возраста одним из важных аспектов педагогико-психологических особенностей предмета детской психологии являются психические процессы и состояния детей разного возраста, такие как восприятия, восприятия, внимания, памяти, речи, мышления, воображения, эмоций и воли, изучения законов проявления, развития и совершенствования

Ключевые слова: образование, психология, педагогика, восприятие, восприятие, внимание, память, речь, мышление, воображение, эмоция, воля.

Abstract. In this article, when correcting negative changes in the behavior of preschool children, one of the important aspects of the pedagogical and psychological features of the subject of child psychology is the mental processes and states of children of different ages, such as perception, perception, attention, memory, speech, thinking, imagination, emotions and will, studying the laws of manifestation, development and improvement

Key words: education, psychology, pedagogy, perception, perception, attention, memory, speech, thinking, imagination, emotion, will.

Bolalar psixologiyasi – bolaning tug'ilgan vaqtidan boshlab to maktab yoshiga yetgunga qadar psixik jihatdan taraqqiy etish qonuniyatlarini va shaxsiy psixologik xususiyatlarining tarkib topishini o'rganadigan fan. Bola odam sifatida tashqi jihatdan katta yoshli odamlarga o'xshasa ham o'zining

psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik xususiyatlarining mazmuni jihatidan katta yoshli odamlardan keskin farq qiladi. Bolalarda hali turmush tajribasi deyarli yo'qligi sababli ularning sezgi va idroklari, tafakkur va xayollari, hissiyot va irodalari katta yoshli odamlardagidek bo'lmaydi. Bolalar psixologiyasi har bir taraqqiyot bosqichidagi (ya'ni go'daklik, ilk yosh va maktabgacha yoshdagi) psixik jarayonlarning rivojlanib borishini o'rganadi.

Bolalar psixologiyasi predmetining muhim tomonlaridan biri turli yoshdagi bolalarga sezish, idrok, diqqat, xotira, nutq, tafakkur, xayol, hissiyot va iroda kabi psixik jarayonlari va holat larining namoyon bo'lishi, taraqqiy etishi hamda takomillashuvining qonuniyatlarini o'rganishdan iboratdir. Bolalar psixologiyasi bola shaxsiy psixologik xususiyatlarining tarkib topishi va bolalar shaxsining tarkib topishiga faol ta'sir qiluvchi omillarni chuqur analiz qiladi.

Ma'lumki, bola shaxsi va uning shaxsiy psixologik xususiyatlari qandaydir tasodifiy omillarning tartibsiz ta'sir etishi natijasida emas, balki muayyan konkret omillarning qonuniy ta'sir etishi natijasida tarkib topadi. Ana shu muhim qonuniy tarzda ta'sir qiladigan omillarni ochish va isbotlash bilan bolalar psixologiyasi shug'ullanadi. Bolalar psixologiyasi bolalar shaxsi va shaxsiy psixologik xususiyatlarining tarkib topishi kabi muhim ilmiy tushuncha va natijalarni o'rganib, har tomonlama rivojlanishga yo'naltirilgan barkamol shaxsni tarbiyalab yetishtirish qonuniyatlarini ochib beradi.

Bolalar psixologiyasi o'zining murakkab predmetini tatbiq qilishda psixik taraqqiyotning asosiy qonuniyatlariga asoslanadi hamda bola ongining ijtimoiy-hissiy, psixofiziologik jihatdan hayotga bog'liqligini isbotlab beradi. Tabiat va jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlaridan xabardor bo'lish bolalar psixologiyasida, bolalar psixik taraqqiyotini o'rganishda va «tabiiy zot» bo'lib tug'ilgan bolaning inson ijtimoiy tajribasini egallab, shaxs bo'lib yetishishi davomida to'g'ri yo'l topishga yordam beradi.

Bolalar tarbiyasi va ta'lim olishlari, ularning qonuniy huquqlari va manfaatlari himoyasi borasida ota-onalarning o'rni va javobgarligi muhim hisoblanadi. Shunga muvofiq so'nggi yillarda «Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari» (2017-yil, 9-iyun, 5-mh son) maktabgacha ta'lim tayanch dasturi, «Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim», «Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya» kabi hujjatlarga asoslanish bola shaxsini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

«Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari» maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida har tomonlama rivojlantirish, ta'lim-tarbiya berish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha davlat talablarini belgilaydi.

Davlat talablari:

davlat maktabgacha ta'lim muassasalari;

nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari;

qisqa muddatli guruhlar;

7 yoshgacha bolalar mavjud bo'lgan mehribonlik uylari va bolalar shaharchalariga nisbatan tatbiq etiladi.

Davlat talablarining vazifalari:

bolalarni maktabda o'qishga tayyorlash;

bolalarning sog'lom va har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlash hamda unda o'qishga intilish hissini uyg'otish;

bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun integral ta'limni tashkil etish;

shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyani amalga oshirish;

bolalarni xalqimizning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;

bolalarni maktabda o'qishga tayyorlashda ularning ota-onalari bilan o'zaro hamkorlik qilish hamda ota-onalarga amaliy jihatdan ko'maklashish;

bolalarda ijtimoiy-kommunikativ, axloqiy, estetik, intellektual, jismoniy sifat va salohiyatlarni uyg'otish hamda rivojlantirish;

bolalarni sog'lom turmush tarzi bilan tanishtirish;

bolalarda mustaqillik, mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik xislatlarini shakllantirish;

bolalarga dunyo haqida tushunchalar berish va tasavvurlarini kengaytirish;

bolalarning yoshi, individual, psixologik va jismoniy xususiyatlari hamda qobiliyatini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish.

Davlat talablari quyidagi sohalar bo'yicha belgilanadi:

jismoniy rivojlantirish va madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish; ijtimoiy-kommunikativ rivojlantirish;

nutq, savod, o'qish va chet tillarini o'rgatilishga tayyorlash; – bilish jarayonini rivojlantirish;

badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish va badiiy estetik rivojlantirish.

Ijtimoiy-kommunikativ rivojlantirish sohasi quyidagi yo'nalishlarga bo'linadi:

ijtimoiylashuv, muloqot va odob-axloq qoidalarini shakllantirish;

bolaning oila va jamiyatda o'zini tutishi;

bolada mehnat tarbiyasini shakllantirish;

xavfsizlik asoslarini shakllantirish.

U maktabgacha ta'lim tizimining mohiyatini belgilaydi va maktabgacha ta'lim muassasalarini mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha bolalarning tengligi va bolalir qadriyatini saqlagan holda har bir bolaning individual rivojlanishini ta'minlashga yonaltiradi.

Bola maktabgacha ta'lim muassasasida, maktabda izchil suratda ta'lim va tarbiya oladi. Bunday uzoq muddatdagi maxsus ijtimoiy ta'lim va tarbiya bolaning psixik taraqqiyotiga ta'sir etmay qolmaydi. Shuning uchun bolaning umumiy psixik taraqqiyoti ko'p jihatdan ta'lim-tarbiyaning ta'siriga bog'liqdir.

Ma'lumki, bolaning har bir yosh davri ma'lum bilimlarni birmuncha ortiq darajada o'zlashtirishga nisbatan sezgir bo'ladi. Masalan, shunday yosh davrlari borki, bunda ta'lim-tarbiya bolaning psixik taraqqiyotiga ortiq darajada ta'sir qiladi. Ana shunday yosh davrlarini odatda psixik taraqqiyotning senzitiv davri deb yuritiladi. O'tkazilgan tajribalardan ma'lum bo'lishicha, bolaning maktabgacha ta'lim muassasasi yoshidagi davri psixik taraqqiyotga nisbatan umuman senzitiv davr hisob lanadi.

Ta'lim jarayoni bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil qilinsa, bu jarayon dasturlashtirilgan ta'limga aylanadi. Hozirgi vaqtda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish bosqichi, uning ta'lim jarayonida keng qo'llanilishida dasturlashtirilgan ta'lim katta ahamiyatga egadir. Ana shu nuqtayi nazardan olganda maktabgacha ta'lim muassasasidagi dasturlashtirilgan ta'lim bolalarda maktab ta'limi uchun kerak bo'ladigan sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Bolaning yosh belgisi uning taraqqiyoti darajasini ko'rsata olmaydi. Chunki 2 ta bir yoshdagi bola belgisi jihatidan bir xil bo'lsa ham, taraqqiyot darajasi har xil bo'lishi mumkin. Ma'lum yosh bosqichiga tegishli bolalarning faoliyatlarida ham umumiylik bordir. Masalan, chaqaloq bolalarning asosiy faoliyatlari katta odamlar bilan emotsional munosabatga kirishishdan, ilk yoshdagi bolalarning asosiy faoliyatlari esa turli narsalar bilan shug'ullanishdan va nihoyat, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyatlari o'yindan iboratdir.

Bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha yoshi bolalik davrining katta bir qismini tashkil etadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatlari rivojlanadi hamda shaxsiy individual xususiyatlari (shaxsiy fazilatlar) tarkib topa boshlaydi. Rus pedagoglaridan P.F. Lesgaftning fikricha, insonning maktabgacha yoshidagi davri shunday bir davrki, ana shu davr mobaynida kelgusida qanday xarakter xislatlari paydo bo'lishi belgilanadi va axloqiy sifatlarining asoslari yuzaga keladi. Insonning kamol topa borishida maktabgacha yoshdagi davrning ahamiyatiga doir P.F. Lesgaftning bu fikri rus pedagogi A.S. Makarenkoning quyidagi fikriga to'la mos keladi. A.S. Makarenko bolalarni juda kichik davridan boshlab tarbiyalash zarurligi haqida gapirib, tarbiyaning eng muhim asoslari bolaning besh yoshgacha bo'lgan davri mobaynida yuzaga keltiriladi. Mana shu davrda qilingan butun tarbiya, tarbiya jarayonining 90% ini tashkil etadi, degan edi.

Haqiqatan ham bolaning maktabgacha yoshidagi davri shu qadar mazmundor va faol davrdiki, bu davr bolaning kelgusi o'sishida albatta o'z aksini qoldiradi. Shuning uchun maktabgacha yoshidagi davr ta'sir o'tkazish kuchi jihatidan g'oyat mas'uliyatlidir.

Bola ilk yoshdan maktabgacha davrga o'tgach, uning butun yashash sharoitida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Birinchidan, bola bog'cha yoshiga o'tgach, uning faoliyat doirasi ancha kengayib, mustaqilligi yanada ortadi. Uning o'yinlari, xattiharakatlari ham boshqacha mazmunga ega bo'la boshlaydi. Ikkinchidan, bolaning butun faoliyatida nutqning roli orta boradi.

Uchinchidan, bola maktabgacha yoshga o'tgach, muayyan dastur asosida maxsus pedagog tomonidan tarbiyalana boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolaning yashash sharoitida yuzaga kelgan bu o'zgarishlar uning jismoniy va psixik jihatdan o'sib kamol topishniga ta'sir etmay qolmaydi.

Ana shu yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, maktabgacha yoshiga kelib organizmining ishchanlik qobiliyati ancha oshadi. Shuning uchun bog'chada va oilada ta'lim-tarbiya ishlari hamda bola faoliyati rejimini tuzishda bola ning jismoniy taraqqiyoti xususiyatlarini doimo hisobga olish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mavrulov A. Ma'anaviy barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
2. Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
3. Qodirova F., Toshpo'latova Sh., A'zamova M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2013.
4. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur sarchashmalari, 2013.
5. Roziqova M., Umarova K., Murodova N. Maktabgacha ta'lim muassasalarining tarbiyalanuvchilari uchun rivojlantiruvchi o'yinlar majmuasi. – Toshkent, 2013.
6. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2018.
7. Bolangiz maktabga tayyormi? – Toshkent, 2011.
8. Researching effective pedagogy in the eary ears. Iram Siraj-Blatchford and others. June 2002.

EKOLOGIK XAVFSIZLIK EKOLOGIK MADANIYATNING AJRALMAS TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Lobar Abdimannabovna Muxtarova
TerDPI Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini mudiri,
p.f.f.d., dotsent v.b.

Fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanishda noqulay ekologik vaziyat qamrovi jihatidan umumbashariy ahamiyatga molik ekologik xavfni yuzaga keltirmoqda. Ekologik xavfning kelib chiqish sabablari tabiat, jamiyat va texnika orasidagi fanlararo munosabatlarni muvofiqlashtirish hamda ekologik xavfga yo'l qo'ymaslik bugungi kunning asosiy muammosi bo'lib qoldi.

Ona tabiatimizga ko'rsatilayotgan tajovuzkorona munosabat oqibatida yuz berayotgan ekologik muammolarni bartaraf etishda ekologik ta'limning o'rni beqiyos. Yurtboshimiz SH.M.Mirziyoevning 5712-son farmoniga muvofiq o'quvchilarning tabiiy savodxonligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ta'lim jarayoniga o'qitishning innovatsion shakl va usullarini joriy etish maqsadida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari

belgilab berildi.

Ekologik ta'lim va tarbiya orqali o'quvchilarda koinotdagi yagona hayot mavjud bo'lgan er cayyoraci haqidagi tacavvurlar, o'z yashash muhiti to'g'ricidagi bilimlar, atrofimizdagi olam, tabiat va inconnlarni o'zaro uzviy bog'langanlik haqidagi ilmiy-nazariy dunyoqarashlar, o'z o'lkaci va vatanining ekologik tizimlari (ekotizimlari), ularning paydo bo'lishi, evolyutsion rivojlanishi, antropogen o'zgarishi, makon va maydon bo'yicha tarqalish qonuniyatlari, undan kelib chiqadigan xucuciyatlari, boyliklari, holati, kelajak ictiqbollari, milliy, regional va global miqyocdagi tabiat va jamiyat munocabatlari, amaliy ekologik ko'nikma va malakalar, er yuzaci atrof-muhitini muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat majmularini qayta tiklashga oid muammolarni anglash va ularning echimini topishga doir to'g'ri qarorlarni qabul qilish kompetentsiyaci, ularni tanlagan kacblarga qarab ekologik ta'lim va tarbiya shakllantiriladi hamda rivojlantiriladi.

“Ekologik ta'limni rivojlantirish kontseptsiyasi”da umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari mazmuni quyidagi malakalar bilan boyitilishi ta'kidlangan: o'quvchilarda ekologik mada-niyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim mazmuniga keng singdirish, o'quv fanlari doirasidagi ekologik bilimlarni amaliyotga joriy etish, ularni amaliyotda qo'llay olish imkoni-ni beruvchi amaliy topshiriqlar bilan boyitish (nazariya yoki muhokamadan amaliyotga o'tish), matematika, iqtisodiy bilim asoslari fanlari mazmuni-ni tejamkorlikka oid aniq iqtisodiy-ekologik masalalar bilan boyitish, ekologik bilim berishda “oddiydan murakkabga”, “uzviylik va uzluksizlik” kabi pedagogik tamoyillarga tayanish, ekologik madaniyat hamda tarbiyaning bosqichma-bosqich shakllanishini ta'minlaydigan maqsadli faoliyatni tashkil etishni nazarda tutadi.

Ekologik xavfsizlik madaniyatini ekologik madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qiyoslash mumkin. Demak, o'quvchining ekologik xavfsizlik madaniyatiga oid bilim konpetentsiyasini egallanganligi uning atrof-muhitdagi tabiiy xavf-xatarlardan himoyalalanish ko'nikmasini aks ettiradi.

Biz tomondan taklif etilgan modelda o'quvchilar ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish bosqichlari, didaktik tamoyillar (shaxsga yo'naltirilgan, insonparvar, individual, sub'ektiv), tabiiy savodxonlik kompetentsiyalari (kontekst, bilim, munosabat), tabiiy-ilmiy kontekstlar (shaxsiy, mahalliy, global), ilmiy bilish turlari (fan mazmuniga oid, metodologik, epistemik), ekologik bilimlarni o'zlashtirishning kognitiv darajasi (yuqori, o'rta, quyi) vizuallashgan ta'lim texnologiyalari bilan integratsiyalash asosida takomillashtirilgan mexanizm aks ettirilgan.

Taklif etmoqchi bo'lgan modelimiz uch bosqichda amalga oshirilgan. Birinchi bosqichda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining fanlararo ekologik xavfsizlik madaniyatiga doir bilimlarning shakllanganlik darajasi hamda o'quvchilarning fanlararo o'qishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish

imkoniyatlarini o'rganish.

Ikkinchi bosqichda ekologik xavfsizlik madaniyatini fanlararo takomillashtirish metodikasining samaradorligi, hamda fanlararo aloqadorlik asosida ekologik bilimlarni baholashda o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakala va kompetentsiyalari ijodiy tavsifdagi o'quv va test topshiriqlar orqali o'zlashtirish darajasini aniqlash.

Uchinchi bosqichda o'quvchilarning fanlararo o'qishga bo'lgan qiziqishlarini motivatsiyali, kognitiv, amaliy-faoliyatli va refleksiv komponentlar asosida orttirish.

Model DTS talablari asosida ishlab chiqilgan. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, baholashning mazmunli asosi tarkibiy qismlariga mos keladigan model quyidagi uchta asosiy qismlarga ajratildi: maqsadli, jarayonli va natijaviy blok.

Maqsadli blokda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik xavfsizlik madaniyatini fanlararo shakllantirish jarayoni definitsiyasi zamonaviy yondashuvlar asosida qiesiy tahlil qilindi. Ilmiy-nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida tadqiqot bosqichlari belgilandi. Tayyorlov bosqichi (tayyorgarlik ko'rish, qulay muhitni yaratish), tajriba-sinov bosqichi (diagnostik metodika, anketa so'rovnoma o'tkazish) va ma'lumotlarni qayta ishlash bosqichi (natijalarni qayta ishlash) mazmunida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi.

Jarayonli blok baholashdan o'tish bosqichlari ketma-ketligini belgilaydi hamda ekomazmundagi mavzularni fanlararo o'qitish metodikasi samaradorligi, shuningdek, ushbu bosqichda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni loyihalash, o'qitishning maqbul usul va vositalarini tanlash, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mahsuldorligini tashhislashning yorqin ifodasi kuzatiladi.

Tajriba-sinov jarayonida "Hayot qadriyatlarini", "Ekologik tasavvur", "Xavfsiz faoliyat", "Xavfsiz sog'lom ko'nikma" mazmunidagi diagnostik materiallar bilan boyitilgan metodika hamda anketa so'rovnomalardan foydalanildi. Suhbat natijasiga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining "Ekologik xavfsizlik" mazmunidagi mavzularni fanlararo aloqadorlik asosida birlashtirib o'qitish metodikasida uchraydigan murakkabliklarni aniqlash imkonini berdi. Diagnostik metodika natijalari tahlili orqali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyat mazmuni aniqlandi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan o'tkazilgan suhbatda fanlararo aloqadorlik o'rnatishda uchraydigan qiyinchiliklarni aniqlash imkonini berdi. Tajriba-sinov jarayonida fanlararo ekologik xavfsizlik madaniyati bo'yicha ma'lumotlar yig'ish hamda taklif etilayotgan metodikaning samara berishini isbotlash hamda taklif va tavsiyalar berish maqsadida olib borildi. Fanlararo ekologik xavfsizlik madaniyatini takomillashtirish jarayonida o'quvchilarda o'quv faolligining shakllanganlik darajasini o'quvchilarga tushuntirib berish muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslandi.

O'quvchilar o'rtasida ekologik xavfsizlik madaniyatini diagnostik-baholash modeli asosida yaratilgan g'oya o'quvchi uchun uni o'z vaqtida

tashxislash va shakllantirishning individual traektoriyasini qurish, ekologik muammolarning oldini olishga qaratilgan.

Bizning fikrimizcha ekologik xavfsizlik madaniyatini fanlararo shakllantirishda o'quvchining olgan ekologik bilimlari asosida egallangan biror-bir faoliyat yoki harakat yangi sharoitlarda bajarish qobiliyatiga muvofiq bo'ladi.

Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik xavfsizlik madaniyati o'quvchining atrofidagilar va ta'lim faoliyati uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan ruhiy-madaniy olamini ifodalovchi yuksak onglilik va mas'uliyatni his etgan holda ekologik javobgarlik, qadriyatlarga hurmat va ehtiromni to'liq ifodalash, hayoti va o'z salomatligi borasida qayg'urish, inson faoliyatiga tahdid soluvchi xavfli omillarni bartaraf etishning maqbul vositasi sifatida atrof-muhit muhofazasida faol qatnashish, moddiy va atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, uni e'zozlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, o'z-o'zini anglash, inson-tabiat-jamiyat birligi, atrof-muhit va kelajak avlod hayoti hamda rivojlanishi uchun muhim bo'lgan ekologik qulay shart-sharoitlarni yaratish negizida shakllanadi.

Ekologik xavfsizlik madaniyati o'quvchining hayoti davomida shakllanib, rivojlanib boradigan ekopedagogik faoliyati bo'lib, uni fanlararo aloqadorlik asosida shakllantirishda shaxsiy fazilatlar bilan bir qatorda, hosil bo'lgan ekologik bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalar asosiy rol o'ynaydi. Kulturologik-madaniy yondashuv biz tomonimizdan o'quvchining ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish mexanizmi sifatida qaraladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda ekopedagogik tashhis ikki xil yondoshuv asosida qaralishi kerak. Birinchidan, atrof-muhitning insonga qay darajada ta'sir ko'rsatishini baholash. Ikkinchidan, o'quvchi tomonidan egallangan fazilat va sifatlarining namoyon qilinishi qay darajada atrof-muhitning o'zgarishiga ta'sir etishini aniqlash.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash bugungi kunda amalga oshirilishi zarur bo'lgan ustivor vazifalardan biridir. Bizning fikrimizcha, ekologik xavfsizlik bir biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan quyidagi tarkibiy qismlar asosida qurilishi kerak: motivatsiyali, kognitiv, refleksiv, amaliy-faoliyatli komponentlar.

Motivatsiyali komponent asosida o'quvchilarda ekologik xavfsizlik tushunchasi, mazmun-mohiyatini bilishga ehtiyoj va qiziqishni shakllantirildi. Mazkur komponent o'quvchi faoliyatini rejalashtirish, qunt bilan o'qish, ehtiyoj, qiziquvchanlik va shaxsiy munosabatlar, bilim sifatini oshirishda mustakil o'qish, qadriyatlar va shaxsiy qarashlarni o'z ichiga olib jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarda shakllangan e'tiqodga asoslangan mas'uliyat, burch, vijdonlilik, zo'ravonlik qilmaslik, tabiatning yaxlitligini saqlash, har birimizni tabiatning ajralmas qismi ekanligimizni his qilish, xavf-xatarlardan va atrof-muhitdagi tahdidlardan himoyalaniish, hayotga muhabbat, kelajak avlodlar uchun tabiatni asrash kabi e'tiqodlarni tarbiyalashga

asoslanadi.

Kognitiv komponent o'quvchining ekologik mazmundagi o'quv topshiriqlarini anglash, qo'llash va mulohaza yuritish ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bilishga oid kognitiv sohada o'quvchi o'quv materialini tushunish, yodga olish, xotirlash, tasvirlash hamda hayot bilan bog'lab amaliy misollar keltirish ko'nikmalari o'stiriladi.

Qo'llashga oid kognitiv sohada o'quvchilar o'quv materialini taqqoslaydi, tasniflaydi, bog'liqlikni aniqlashtiradi, ma'lumotni talqin qiladi, izohlaydi, tabiiy modellardan samarali foydalanadi.

Mulohaza yuritishga oid kognitiv sohada o'quv materialini tahlil qilish, sintezlash, muammoli savollar qo'yish, g'oya va farazlarni ilgari surish, baholash, asoslash, xulosalash, bashoratlash, umumlashtirish, kichik tadqiqotchilik va loyihalash malaka va kompetentsiyalari shakllantiriladi. Bunda o'quvchilar uchun xavfsiz muhit va yashash sharoitlari mavjudligini ilmiy bilish, favqulodda vaziyatlarda qaror qabul qilishni o'rganishadi.

Biz inson hayoti va salomatligi xavfsizligi masalalariga qanchalik mas'uliyat bilan yondashsak, jamiyatning ijtimoiy-tabiiy muhitni asrab-avaylash borasidagi harakatlari shunchalik puxta o'ylangan bo'ladi. SHu jihatdan modelning kognitiv komponenti uslubiy yondashuvlarni: aksiologik, kulturologik (madaniy), vaziyat bilan bog'liq muammoli, faoliyatga asoslangan o'z ichiga oladi. Mazkur uslubiy yondashuvlarga mos tarzda ekopedagogik ta'lim maqsadi aniqlandi hamda o'quvchi shaxsining ekopedagogik faoliyatidan kelib chiqib aniq vazifalar belgilandi.

Fanlararo aloqadorlik asosida o'qitish o'quvchilar tomonidan o'quv materialini idrok etish samaradorligini ta'minlash uchun turli xil ta'lim shakllarini talab qiladi. Fanlararo o'qitishning mazkur shakli bu o'quv jarayonini mavjud bo'lish yo'li, uning ichki mohiyati, mantiqi va mazmuni uchun qobiq. Ushbu jarayon o'qituvchi va o'quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan o'quv-bilish faoliyatining tashqi ifodasi sifatida o'quvchi shaxsida tayanch va fanga oid kompetentsiyalari inobatga olinadi.

Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarning bilim olishdagi mustakilligini, faol fukarolik pozitsiyasini, tashabbuskorligini, o'z faoliyatida ommaviy axborot vositalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanishni, kasbiy faoliyatida sog'lom raqobatbardoshlik fazilatlarini rivojlantiradi. Bu esa inson hayotida zarur bo'lgan asosiy kompetentsiyalarni shakllantirishda tabiatshunoslikning amaliy ahamiyatini oshiradi.

Xulosa. Pedagoglar bilan o'tkazilgan suhbatda fanlararo aloqadorlik o'rnatishda uchraydigan qiyinchiliklarni aniqlash imkonini berish bilan birga fanlararo ekologik xavfsizlik madaniyati bo'yicha ma'lumotlar yig'ish hamda taklif etilayotgan metodikaning samara berishini isbotlash hamda taklif va tavsiyalar berish maqsadida olib borildi. Fanlararo ekologik xavfsizlik

madaniyatini takomillashtirish jarayonida o'quvchilarda o'quv faolligining shakllanganlik darajasini o'quvchilarga tushuntirib berish muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslandi.

O'quvchilar o'rtasida ekologik xavfsizlik madaniyatini diagnostik-baholash modeli asosida yaratilgan g'oya o'quvchi uchun uni o'z vaqtida tashxislash va shakllantirishning individual traektoriyasini qurish, ekologik muammolarning oldini olishga qaratilgan.

Bizning fikrimizcha ekologik xavfsizlik madaniyatini fanlararo shakllantirishda o'quvchining olgan ekologik bilimlari asosida egallangan biror-bir faoliyat yoki harakat yangi sharoitlarda bajarish qobiliyatiga muvofiq bo'ladi.

SHunday qilib, yuqoridagi ma'lumotlar, tahlillar yuzasidan quyidagi **xulosalarga** kelindi:

1. O'quvchilarda ekologik xavfsizlik madaniyati o'quvchining atrofida va ta'lim faoliyati uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan ruhiy-madaniy olamini ifodalovchi yuksak onglilik va mas'uliyatni his etgan holda ekologik javobgarlik, qadriyatlarga hurmat va ehtiromni to'liq ifodalash, hayoti va o'z salomatligi borasida qayg'urish, inson faoliyatiga tahdid soluvchi xavfli omillarni bartaraf etishning maqbul vositasi sifatida atrof-muhit muhofazasida faol qatnashish, moddiy va atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, uni e'zozlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, o'z-o'zini anglash, inson-tabi'at-jamiyat birligi, atrof-muhit va kelajak avlod hayoti hamda rivojlanishi uchun muhim bo'lgan ekologik qulay shart-sharoitlarni yaratish negizida shakllanadi.

2. O'quvchilarda olamning yaxlit manzarasi haqidagi ma'lumot va dalillarni ilmiy jihatdan majmuaviy talqin qilish, idrok va tasavvurlarini boyitish, o'z-o'zini anglash, mustaqil faoliyatini tashkil etish faoliyatiga yo'naltirilgan komponentlari, mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlashtirildi.

3. O'quv-tarbiya jarayonida fanlararo aloqadorlik maqsadlariga erishish uchun tarbiya, ona tili va o'qish savodxonligi, tabiiy fanlar o'quv dasturlari hamda mavzularida didaktik aloqalar izchilligi o'rnatilgan, o'quvchilarda ekologik xavfsizlik bilan bog'liq muammolarni hal qila olish qobiliyatlari shakllantirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF - 5712- sonli Farmoni. [PF-5712-son 29.04.2019. \(lex.uz\)](#)

2. Muxtarova, L. A. (2021). Use of multimedia technologies in the educational process. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1781-1785.

3. Muxtarova, L. A. (2021). Ways of formation of ecological culture in children of primary age. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 648-652.

4. Abdimannabovna, M. L. (2021). Formation of the Ecological Culture of Schoolchildren in the Study of Natural Science. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology, 1(6), 73-76.

5. Мухтарова, Л. А. (2018). ПУТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ МУЛЬТИМЕДИА В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА И ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКОВ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. Научные горизонты, (11-1), 247-252.

6. Мухтарова, Л. А. (2018). РАЗВИТИЕ И ФОРМИРОВАНИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ШКОЛЬНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. Гуманитарный трактат, (24), 13-14.

7. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH SINFLARDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. Апробация, (2), 93-94.

8. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. In НАУЧНЫЙ ПОИСК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ (pp. 119-120).

9. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERNET VA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. In Современные проблемы и перспективы развития педагогики и психологии (pp. 47-49).

10. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие творческого мышления у школьников начальных классов. Гуманитарный трактат, (24), 9-10.

ВОСТОК ВСЕГДА – ДЕЛО ТОНКОЕ: К ТЕОЛОГИИ ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ МЫСЛИ В ИЗУЧЕНИИ РЕЛИГИОЗНЫХ ИСТОЧНИКОВ

*Кадыров К.Б., доктор педагогических наук,
и/о профессора кафедры Педагогики*

Термезского государственного педагогического института

В современных условиях развития общества иногда заметен научный интерес к исламской религии. Как известно по курсам истории, в прошлом, религия иногда была подвергнута негативному обсуждению в связи с идеологической политикой.

Между тем, в настоящее время стала очевидной необходимость анализа исторических и современных постулатов ислама, теоретических предпосылок становления научной мысли, и естественно, изучения культурных, педагогических и психологических факторов развития религиозной мысли.

Педагогическая и психологическая части исламской мысли не были воссозданы схоластично, последователями религии или арабским народом, это было началом плодов так называемой до исламской культуры, отчасти свойств научной, а может и псевдонаучной мысли того, что могло принадлежать традициям восточных народностей.

Понимание вопросов воспитания в традиции восточных народов как об особом направлении, рассматривались, прежде всего, как образы

аскетизма, жизни дервишей, «устазов» (наставников или учителей) и их последователей.

В древней истории, несмотря на внешние и внутренние войны, политику, не было перерыва в передачи культурных традиций, чему свидетельствуют египетские, ассирийские формы письменности.

Например, в VIII веке крупную библиотеку по многим научным направлениям называли как «Дом мудрости». Развитие научной мысли не могло не отразиться на уровне образования общества. Арабскими народами (племенами) уже начинает осознаваться различие между человеком ученым (алимом) и образованным человеком в понимании вопросов воспитания, писателем (адибом). Как отмечают, древние источники, во многих восточных странах, скажем в Египте, государство оказывает материальную помощь науке, но труд ученых тогда ценился гораздо дешевле, чем труд чиновников.

Как отмечал академик В. Бартольд, «... в настоящее время можно считать доказанным, что главный фактор прогресса - общение между народами, что прогресс и упадок отдельных народов объясняется не столько их расовыми свойствами и религиозными верованиями, не столько даже окружающей их природой, сколько тем местом, которое они в разные периоды своей исторической жизни занимали в этом общении». (1)

Известный исламовед А.Д. Кныш смотрит на религию, как на средство, оказывающее психологическое воздействие и рассматривает феномен веры с точки зрения вопросов мистицизма. (3)

В сфере разных теологических проблем определение основных типов научной исламской мысли, выявление истоков их формирования, теоретические причины и закономерности их появления, пересмотр тенденции исторических обстоятельств и эмпирических этапов развития оказалось возможным благодаря трудам историков, философов, этнографов, психологов и др.

Отсюда возникают задачи изучения каждой отдельно взятой научной идеи, и место этой идеи в общинной жизни мусульман исторического общества. И, наконец, необходимо, проследить эволюцию основных теологических идей ислама, как принципиальную основу сложно разветвленного и разнонаправленного развития научной среды средневекового мусульманства.

Уже тогда были известны такие арабские ученые, как Ибн-аль-Хайсам, труд которого «Сокровище оптики» в XII в. был переведен на латынь, Джабир ибн Хайян, занимавшийся алхимией. Большим авторитетом в Европе был Ибн Сина (Авиценна), особенно его медицинские труды. Переведенный в XII в. на латынь «Канон медицины» стал основой в преподавании медицины вплоть до конца XVI в.

В XV в. он выдержал 16 изданий, а в XVI - 20.(5, с.4).

Вместе с тем, поскольку современная арабская культура остается в

основном определяемой религией ислама, т.е. в значительной степени религиозной, то естественно обращение к тем традициям, которые ориентировались на решение проблемы связи науки и религии, знания и веры.

Этот интерес сохраняется и в наши дни. 70-80-е гг. - годы возрастает интерес к традиционной исламской мысли. (5, с.5).

Изучая восточный мир, петербургский ученый П. А. Грязневич отмечает, что в историческом плане для исламского мира большое значение имеет смысл этико-правовая сторона жизни, как пример для подражания или осуждения. Во-вторых, этнический интерес через понимание сути событий, иногда ориентированный на воспитательное значение окружения. (2)

Известный философ Е.А. Фролова в контексте культурных традиций более широко рассматривает вопросы научной мысли: Понимание ранних этапов зарождения мысли у арабов имеет значение для выявления интеллектуальной базы, на которой возникло новое вероучение, поскольку верования арабов эпохи джахилии образуют один из элементов коранического учения и проливают свет на начало пути, на источник возникновения философской мысли в исламе.

Сирийцы, персы и другие народы уже до ислама имели свою развитую культуру и внесли значительные ее элементы в новую арабомусульманскую цивилизацию. Конечно, и в культуре аравийцев, о чем свидетельствует бедуинская поэзия, и в культуре соседних народов, поскольку в них существовали и верования и определенные формы знания, имел место также и определенный тип взаимоотношения между ними: культовое знание и знание практически-хозяйственное.

Но это взаимоотношение было еще теоретически неразвито, оно еще не было осознано и сформулировано в виде проблемы. (5, с. 13)

В то же время в изучении исламской религии пока ещё отсутствует классификация и оценка степени эффективности духовно-научных школ и соответствующих по статусу ей теоретической мысли, которая опиралась в своих подходах как на научные методы с привлечением многовекового опыта мусульманства, так и на исламское понимание сущности научных идей и взглядов.

Литература:

1. Бартольд, В. В. Культура мусульманства (публикация по изданию: Сочинения в 9 томах. Том VI. Изд. «Наука». Главная редакция восточной литературы. М., 1966.) - М., 1998. - 112.

2. Грязневич, П. А. Южная Аравия. Памятники древней истории и культуры. Вып. II. Материалы экспедиции П.А. Грязневича 1970-1971 гг. Ч. 2: Г.М. Бауэр, А.Г. Лундин. Эпиграфические памятники древнего Йемена. Ответственные редакторы: П. А. Грязневич, А. В. Коротаев, С. А. Французов.- СПб.: Центр «Петербургское Востоковедение», 1998.- 320 с.

3. Кныш, А. Д. Мусульманский мистицизм: краткая история / А. Д.

Кныш; пер. с англ. М. Г. Романов.- СПб.: «Издательство «ДИЛЯ»», 2004.- 464 с.

4. Кортаев, А. В., Клименко В. В., Прусаков Д. Б. Возникновение ислама: Социально-экологический и политико-антропологический контекст / А. В. Кортаев, В. В. Клименко, Д. Б. Прусаков. - М.: ОГИ, 2007. - 112 с. - (Нация и культура/Новые исследования: Антропология).

5. Фролова, Е.А. История средневековой арабо-исламской философии: Учебное пособие. - М., ЦОП Института философии РАН, 1995. - 175 с.

O'ZBEK MILLIY KASHTADO'ZLIGINING SPEKTRAL-VARIATIVLIGI

Shomirzayev Mahmatmurod Xurramovich
Termiz davlat universiteti
pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek milliy kashtado'zligining spektral-variativligining mazmun mohiyatini ochib berishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Kashta, milliy, do'ppi, naqsh, spektral-variativ, etnografik, hunarmandchilik.

Аннотация: В данной статье узбекская национальная вышивка посвященный раскрытию сущности спектральной переменности.

Ключевые слова: вышивка, национальная, головной убор, узор, спектрально-вариационный, этнографический, ремесленный.

Abstract: In this article, Uzbek national embroidery dedicated to revealing the essence of spectral variability.

Key words: Embroidery, national, hat, pattern, spectral-variational, ethnographic, handicraft.

Kashtalardagi o'ziga xos etnik xususiyatlarni yoritishda ijtimoiy tabadalar, turli yoshlarga xos bo'lgan kiyimlar, unga bogliq urf-odatlar, turli jinslarga oid kiyimlarga tikilgan kashtalar tahlili muhim ilmiy- nazariy ahamiyat kasb etadi. Shu bois muammolarning yechilishi ma'lum bir xalq yoki bitta etnografik mintaqada yashovchi bir nechta xalq etnik tarixi, madaniy an'analari va etnomadaniy aloqalarini tahlil etishda boy va qimmatli ma'lumotlar beradi.

Xalqimizning qadimiy milliy an'analari hisoblangan kashtado'zlik buyumlarini o'zida mujassamlashtirgan Farg'ona vodiysi kashta naqshlari o'ziga xosligi, etnografik va faktik materiallarga boyligi bilan ajralib turadi. Kashtado'zlik buyumlari tikilishiga darab, urf-odatlariga ko'ra, shuningdek, jinsiga, kiyimlarga tikilgan kashtalarga ko'ra, bosh kiyimlar kashtalari, oyoq kiyimlar kashtalari, ust kiyimlar kashtalari, kashta buyumlariga bo'lingan.

Kashtalar tikilgan kiyimlar, kashta buyumlari o'tgan davr mobaynida garchi o'zgarmagandek tuyulsa-da, birod kashta naqshlarida, tikish uchun

ishlatiladigan choklarni tikish usullarida va ularga ishlatiladigan matolarda jiddiy o'zgarishlar bo'ldi.

Farg'ona vodiysi kashtalari o'zbek kiyimlari kabi asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan. Uning shakllanish jarayoniga xalqning turmush tarzi va ijtimoiy sharoiti, qo'shni va boshqa xalqlar o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bunday o'zgarishlar Farg'ona vodiysi kashtachiligining umumiy ko'rinishida ham o'z aksini topdi, ularga yangi naqsh elementlari kiritildi. Turli ornamentlar, kashtalarga ishlatiladigan matolarning o'zgarishi milliy kashtachilikka o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu o'zgarishlarni hisobga olganda, XX asr boshlarida Markaziy Osiyo xalqlarida bo'lgani singari, Farg'ona vodiysi xalqlari kashtado'zligida xam umumiy jihatlar xosil bo'ldi.

An'anaviy xalq kashtaduzligini tarixiy-etnologik, tarbiyaviy nuqtay nazardan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, kashtalar tikish usullariga, undagi ornamentlarning xolatlariga, shakliga, joylashishiga qarab katta va kichik kashta turlariga bo'linadi.

Katta kashtalarni tikish umumiy tikish usullariga asoslangani xolda, ularning gullari bir-biridan xilma-xilligi bilan farq qilib turadi. Chunki xar bir yo'rmado'z yoki kashtachi o'z tassurotlari, o'z niyatlarini aks ettiruvchi o'nlab yangi nusxalar- ni yaratadi. Ensiz xoshiyali, o'rtasida bir necha 12 doyra rozetkali gullar tikilgan palaklar shular jumlasidan. Farg'ona vodiysi kashtachiligida an'anaviy kashta gullari, asosan, meva va o'simliklar gullari xisoblanadi.

Kashta nusxalarining oy, olma, nogoragul, shirmon, tupgul, olma, ofarin, daraxt, olti olma, bodomgul, anorgul, un ikki oylik palak kabi nomlariga qaraganda, chevarlar ularni xar xil talqin qiladilar. Tikilgan kashtalardagi tasvirlarga, kashta gullariga qarab buyum nomi belgilanadi. Masalam, olma, nog'oragul, olmagul, bodomgul, un ikki oylik palak. Doiralarni bezashda oddiy usul bilan birgalikda murakkab usul xam qo'llaniladi. Oddiy doiralarni markaziy gulsimon rozetka atrofida turli ranglardagi doiralarni jimjima chok bilan bir qatorga tikishdan iborat.

Kashta buyumlardan biri do'ppi xisoblanib, do'ppiga tikiladigan kashtalar bir-biridan xududiy jixatdan farq qilgan. Andijon do'ppilari, Namangan do'ppilari, Chust do'ppilari, Marg'ilon do'ppilari, deb nomlanadi. Bu do'ppilar ularga tikilgan kashtalar tasvirlari bilan farqlanadi. Andijon do'ppilarining tepa qismiga tikilgan qalampirgul va kizak qismidagi boldoq gullar tasviri, boshqalarnikidan kalampirgulning uch qismiga boldoq tasvirining tushirilishi va kizak qismi bol- doqgullarining kattaligi bilan farqlanadi. Bu xolat kuproq erkaklar do'ppilarida uchraydi. Chust do'ppilarida va Namangan do'ppilarida qalampirgul Andijon do'ppilaridagi qalampir- gullardan kichikroq shaklga ega bo'lib, gulning uzunligi uzunroq shaklga ega. Bu gulda boldoq shakli berilmagan. Marg'ilon do'ppilarida qalampirgul tasvirlari Andijon, Namangan, Chust do'ppilaridagi qalampirgul nusxalaridan xam kichikroq va uning shakli uzunroq joylashgan. Bu kashta gullari faqat shaklan emas, balki tikilish usullarida xam farqlanadi.

Andijon do'ppilarida suv, zanjir, yarim zanjir, ilmok, yarim ilmok, yo'rma, kandaxayol choklaridan foydalanganlar. Naman-gan va Margilon, Chuet duppilarida kalampirgul maxsus kogoz eskizidai foydalanib, kogoz eskiz ustidan yurma chokdan foy- dalanib tikilgan. Andijon duppilari eskizsiz tikiladi. Dup-pi chizadigan chizmakashlar gomonidan duppining kizak va tepa kismalaridagi gullar chizilib bozorlarda sotilgan. Do'ppi tikuvchilar do'ppi qismlari sotib olib, do'ppini tikib, maxalliy bozorlarda sotishgan. Do'ppi tikib tayyorlash jarayonida xam bir qator xududiy xususiyatlar bor. Bular, asosan, tikish va tayyorlash jarayonlaridagi usullarda quriiadi. Andijon do'ppisini tikish uchun bozordan sotib olingan do'ppi tepa va kizak qismi aloxida bir qator choklar bilan tikib chiqiladi. Bunda suv, ilmoq, zanjir, yarim zanjir, yurma, yarim ilmoq choklaridan foydalanib tepa qismidagi qalampirgul va boldoq tasviri xamda kizak qismida joylashgan boldoqchalar tikiladi.

Xulosa qilib aytganda, Farg'ona vodiysi xalqlarida kashtado'zlikning maxalliylik jihatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilarni tashkil etadi.

Birinchidan, Andijon va Namangan do'ppilarining taglik materiali qora va to'q zangori rangdagi matolar bo'lsa, Marg'ilon do'ppilari zangori rangdagi matodan tayyorlanadi.

Ikkinchidan, bu kashta buyumlarini tayyorlashda ishlatiladigan matolarda farqlanadi. Qo'qon va Farg'onada tikiladigan kashta buyumlari uchun och rangli matolar, pushti, sariq, qizil, havo rang, ok rangli matolar ishlatilgan bo'lsa, Namanganda kashta buyumlari tikishda aralash matolardan, ya'ni och rangli xamda to'q, rangli matolardan, Andijonda esa faqat to'q rangli matolardan foydalanilgan.

Uchinchidan, kashta buyumlarini tikishda ishlatiladigan choklardan foydalanishda xam o'zining maxalliylik jixatlari mavjud. Qo'qon va Farg'onada kashta tikishda bosma, yo'rma pokidan ko'p foydalaniladi. Namanganda bosma chok kam qo'llanilsa, yo'rma va bigizi choklardan ko'p foydalanilsa, Andijonda esa kashta tikishda bosma, yo'rma, ilma, zanjir, yarim zanjir, iroqi, sanoq, choklaridan ko'p foydalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbek milliy hunarmandchilikning spektral- variantiv komponentlari. o'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. "yangi nashir" 2018. 52-b.

2. Shomirzayev M.X. Milliy hunarmandchilikning shakllanishi va spektrial-variantiv rivojlanishida fanlar integrasiyasi. Toshkent. Tafakkur. 2020. – 164 b.

3. Shomirzayev M.X. O'zbek milliy hunarmandchiligining shakllanishi genezisi va rivojlanish texnologiyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. -Toshkent. "Yangi nashr", 2016. -88 b.

4. Shomirzayev M.X. Maktab texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikning spektrial-variantiv komponentlarini fanlararo takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik (DSc) diss. – Toshkent, 2021. – 219 b.

OLAMNING ILMIY MANZARASI TO'G'RSIDA TABIATSHUNOSLIK FANLARI

Berdiyev Ural Buranovich
Termiz davlat pedagogika instituti, dotsent

Annotatsiya. Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga olamning yagona ilmiy manzarasi haqidagi tasavvurlarni berish masalalari yoritilgan. Tabiatshunoslik fanlari fizika, kimyo, biologiya asosida olamning yagona ilmiy manzarasi talqin qilingan.

Kalit so'zlar: Nyuton, klassik mexanika, termodinamika, elektrodinamika, optika, yorug'lik, atom va yadro fizikasi, kvant mexanikasi.

Olamning ilmiy manzarasini chizib berishda Nyutonning klassik mexanikasi aloxida rol o'ynaydi. Tabiatdagi barcha hodisalar Nyuton qonunlariga asoslanib tushuntirishga harakat qilingan, ammo keyinchalik mikrozaralar orasidagi bog'lanishlar Nyuton qonunlari bilan asoslanmasligi aniq bo'ldi /1/. Keyinchalik atom tuzilishi aniqlanishi, radioaktivlik hodisasi elementar zarralar orasidagi bog'lanish qonuniyatlari kvant mexanikasi qonunlariga bo'ysunishi aniqlandi. Biologik tirik mavjudodlar ham kimyoviy elementlardan tashkil topganligi e'tiborga olinsa, fizika qonunlari biologiya va kimyoda ham qo'llanilishi o'rinli bo'ladi. O'quvchilarda olamning ilmiy manzarasini shakllantirishda sinfdan tashqari to'garak mashg'ulotlarida qiziqarli fizik tajribalarni ko'rsatish va tushuntirib berish xam o'ziga xos o'rin tutadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida darsda va darsdan tashkari mashg'ulotlarda o'quvchilarga olamning ilmiy manzarasi tasavvurini berish va tabiiy fanlar orasidagi bog'lanishlarni ko'rsatib berish muhim masala hisoblanadi.

Tabiatshunoslikning asosiy maqsadi nima? Butun olam yaxlitdir, uning hamma qismlari aloxida - aloxida emas, balkim birlikda mavjud. Shuning uchun bizning asosiy maqsadimiz olamni faqat birlikda o'rganishdir. Olamni birlikda, yaxlit o'rganish uning o'zgarishini kuzatish va oldindan bashorat qilish imkoniyatini beradi, fan oldindan bashorat qila olsagina fan bo'la oladi.

Tabiatshunoslikning fizikaviy asoslari, olamning tabiiy-ilmiy manzarasini asoslash uchun juda qadimgi davrlarga murojaat qilamiz.

Eramizdan oldingi 585 yilda yunon naturfilosofi Fales Quyosh tutilishini oldindan aytib berganligi bilan mashxur bo'ldi /2/. Bu vaqtda haqiqatdan ham Yunonistonda Quyosh tutilishi kuzatilgan. Eramizdan oldin VI asrda yashagan yunon olimi Pifagor arifmetikada sonlar qatorining, geometriyada tekis shakllar xususiyatlarini tekshirdi, va o'zining nomi bilan ataluvchi teoremani kashf etdi. Bu vaqtda tabib, fiziolog va faylasuf Empedokl Quyosh tutilishi hodisasini Quyosh bilan Yer orasidan Oyning o'tishi tufayli sodir bo'lishini tushuntirib berdi. U yorug'likning juda katta tezlik bilan tarqalishi sababli, biz uning tarqalish vaqtini sezmasligimizni tushunib yetdi. Qadimgi davr olimlari matematikada (Evklid, eramizdan oldingi III-asrda yashagan), astronomiyada

(Ptolomey, eramizdan oldingi II- asrda yashagan), ma'lum yutuqlarga erishganlar.

O'rta asrlarda Yevropada fan to'lasigacha din ta'limotiga bo'ysungan edi. Astrologiya, alximiya, sexrgarlik, jodugarlik va boshqa sirli bilimlar to'g'risidagi ta'limotlar bu davrga xosdir lekin bu davrda asta-sekin yangi-yangi ilmiy faktlar to'plana bordi, nazariy fikrlash mantiqi o'tkirlasha bordi.

G.Galiley va I.Nyutonlar tomonidan XVI-XVII asrlarda mexanikada inqilobiy o'zgarishlar qilindi. Galiley inersiya qonuni orqali jismning tinch holati bilan to'g'ri chiziqli tekis harakatining teng huquqli, ekanligini ko'rsatib, har qanday jism o'z tezligining yo'nalishini va qiymatini kuch ta'siridagi o'zgartirilmasligini asosladi va birinchi bo'lib mexanikani nazariy fan darajasiga olib chiqdi.

Tabiatning eng fundamental qonunlari 1687-yilda I.Nyuton tomonidan yozilgan «Natur filosofiyaning matematik boshlanishi» asarida o'zining uchta asosiy qonunlarini asoslab berdi, shuning uchun klassik mexanika Nyuton mexanikasi deb ham ataladi /3/.

Klassikmexanika qonunlari nisbatan kichik tezliklar bilan harakatlanayotgan katta massali jismlarga qo'llaniladi. Nyutonning hamma qonunlari ko'plab tajribalarda olingan faktlarni umumlashtirish natijasida vujudga kelgan.

Fizika fanida Nyuton qonunlarining mashxur bo'lib ketishi natijasida tabiatdagi barcha hodisalarni shu qonunlardan kelib chiqib tushuntirishga urinishlar boshlandi, ammo mikrozarralar orasidagi ta'sirlar va yorug'lik tezligiga yaqin harakatlar Nyuton mexanikasi qonunlariga bo'ysunmasligi aniqlandi.

Polyak astronomi N.Kopernik Quyoshni koinotning markazida turadi degan geliotsentrik nazariyani o'zining «Osmon sferasining aylanishi to'g'risida» (1543y) degan asarida yoritadi va Yer koinotning markazida turadi deb ishonitirib kelgan geotsentrik nazariyani noto'g'ri deb topadi.

Shu davrda Italiyalik olim J.Bruno koinotning markazi yo'qligini, u chegarasiz bo'lib, cheksiz yulduzlar sistemasidan iborat ekanligini isbotlaydi. N.Kopernik nazariyasini va J.Bruno g'oyalarini G.Galiley o'zi yasagan teleskop orqali tasdiqladi, u Oydagi krater va tog' tizmalarini, Somon yo'lini tashkil qiluvchi yulduzlar to'plamini, Yupiterning yo'ldoshlarini, Quyoshdagi dog'larni ko'ra bildi. Nemis astronomi I.Kepler Quyosh sistemasi planetalarining harakat qonunlarini kashf etdi. Bu kashfiyotlar Kopernik nazariyasini tasdiqladi. Natijada bu g'oyalar xalq orasida tez tarqata boshladi. Rim cherkovi N.Kopernik asarlarini ta'qiqladi. 1633-yilda Rim cherkovi inkvizitsiyasi G.Galiley ustidan sud jarayoni uyushtirib uni o'z g'oyalaridan voz kechishga majbur qilishdi. Galiley «adashganligini» tan olib, o'z goyalaridan voz kechishga majbur bo'ldi.

XVII asrning o'rtalarida tabiatshunoslikka tabiat hodisalarining evolyusion rivojlanish g'oyalari kirib kela boshladi. Bunda I.Kant, M.V.Lomonosov, P.S.Laplaslarning Quyosh sistemasining tabiiy paydo bo'lishi

to'g'risidagi gipotezalar rivojlantirilgan ilmiy ishlari katta rol o'ynadi. M.V. Lomonosov (1711-1765 y.) moddalarning saqlanish qonunini tajribada aniqlab, nazariy jihatdan asosladi va harakatning saqlanish qonuni g'oyasini berdi.

Katta guruxolimlari - N.Karno, Y.R.Mayer, G.Gelmgols, R.Klauzius, Tomson, V.Nerst va boshqalarning ilmiy ishlari bilan termodinamikaning asosiy qonunlari kashf etildi. Ulardan biri energiyaning saqlanish qonuni umumiy ilmiy qonun sifatida qabul qilindi. M.Faradey va D.K.Maksvellar "Elektromagnit maydon to'g'risida"gi ta'limotga asos soldilar. Biologiyada nazariy fikrlashni rivojlantirishga T.Shvann, M.Shleyden, Y.E.Purkinelarning "Hujayra nazariyasi", Ch.Darvinning "Evolyusion ta'limoti" alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

XIX asrning oxirigacha hamma tabiiy fanlar rivojlanishda edilar. Bunda mexanikadan so'ng nazariy fanlar safidan ximiya, termodinamika, elektr to'g'risidagi ta'limotlar joy olishdi. 1861-yilda A.M.Butlerov "Molekulalarning ximik tuzilishi to'g'risida"gi ta'limotni shakllantirdi, 1869-yilda D.M.Mendeleev "Ximik elementlar davriy sistemasi"ni kashf kildi va 70-yillarda "Atom juda kichik zarachalardan iborat" degan gipotezani ilgari surdi. Organizmlarning xujayralardan tuzilganligi nazariyasini bergan P.F.Goryapinovning biologiyaning rivojlanishidagi xizmatlari buyukdir. Fiziologiyada I.M.Sechenov "Oliy nerv faoliyati"ni kashf kildi. I.P.Pavlov (1855-1935y) tomonidan kashf etilgan "Shartli reflekslar" bu g'oyaning davomi bo'ldi. XX asr boshlarida fizikada, umuman tabiatshunoslikda, ikkinchi inqilob ro'y berdi, ya'ni dunyoning relyavistik va kvantomexanik manzarasi tan olindi. Bunga G.Gers tomonidan kashf etilgan "Elektromagnit to'lqinlar", Rentgen tomonidan "-X-nurlari", M.Bekkerel tomonidan "radioaktivlik", M.Sklodovskaya va P.Kyuri tomonidan "Radiy elementi", P.K.Lebedev tomonidan "Yorug'lik bosimi", M.Plank tomonidan "Kvant nazariyasining birinchi ta'limoti" va boshqa kashfiyotlar sabab bo'ldi /4/. Bu kashfiyotlar natijasida dunyo fizik manzarasining tarixan almashinishi ro'y berdi. Agar Maksvellgacha fizik borlik moddiy nuqtalar ko'rinishida, deb fikrlangan bo'lsa, undan keyin esa fizik borliq mexanika nuqtai nazardan tushuntirib bo'lmaydigan uzluksiz maydonlardan iborat deb qaraladigan bo'ldi. XX asrda yangi davr kirib keldi, Olamning fizik manzarasi prinsipial yangi relyavistik va kvantomexanik manzaraga aylandi.

Olamning ilmiy manzarasi falsafa fani bilan aniq fanlar nazariyalari o'rtasida bo'g'in bo'lib xizmat qiladi. Bunday manbalarning o'zaro munosabatlaridan tabiiy fanlarning yangi nazariy prinsiplari va kategoriyalari paydo bo'ladi.

Olamning ilmiy manzarasining ayrim tushunchalari undagi insonning o'rnini aniqlab beradigan ilm-fanning yutuqlarini o'z ichiga oladi. Bunda ilmiy manzara umumiy bilimlarning yig'indisini emas, balki tabiatning umumiy xususiyatlari, holati va qonuniyatlari to'g'risidagi tasavvurlarning to'liq sistemasini ko'rsatadi. Shunday qilib, olamning ilmiy manzarasi har xil ilmiy

nazariyalarning sintezi va ularning sifatii umumlashmasi bo'lib, o'ziga xos bilimlar sistemasining aloxida shaklidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гейзенберг В. Физика и философия. Часть и село. М.:, Наука, 1989. 400с.

2. Hardev Singh Virk. Classical Physics versus Quantum Physics. SGGS World University, Fatehgarh Sahib (Punjab) – 140 426, India

3. Н. Шермухаммедова. Философия и методология науки. Университет, Ташкент, 2005. 388с.

4. Berdiev U.B. NATURAL SCIENCES AND THE SCIENTIFIC PICTURE OF THE WORLD. // JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. 2022. V.8. P. 109-112.

TALABALARNI TA'LIMII QADRIYATLAR ASOSIDA PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI

*Choriyeva Surayyo Choriyevna
TerDPI Maktabgacha ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqola ta'lim qadriyatlarining ijtimoiy va shaxs omiliga yo'nalganlik xususiyatini ochib beradi. Ijtimoiy qadriyatlar, shu jumladan, ta'limii qadriyatlar ham shaxsni shakllantirishga xizmat qilishi, uning qadr-qimmatini oshirishi, pedagoglar tomonidan shaxs omilining ta'lim-tarbiya jarayonlarining yetakchi subyekti sifatida tan olishini ta'minlashi, unda erkin va mustaqil fikrlash, shuningdek, ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berishi maqsadga muvofiqdir.

Kalit so'zlar: Ta'lim, qadriyatlar, ijtimoiy omil, yo'nalganlik, xususiyat, Ijtimoiy qadriyatlar, ta'limii qadriyatlar, qadr-qimmat, pedagog, ta'lim-tarbiya jarayonlari.

Xalqimizning millii ongi, millii g'ururi, millii iftixori, ma'navii dunyosi kundan-kunga boyib bormoqda. Bu esa mustaqil davlatimizning ma'navii asosini tashkil qiladi. Demak, ma'naviyat qay darajada shakllangan bo'lsa, u shunchalik taraqqiyotga xizmat qilgan. Millii uyg'onish, millii g'urur, millii tuyg'uning tiklanishi-bu millii rivojlanish bilan uzviy bog'liq bo'lgan tabiiy qonunii jarayondir.

Millii qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimiz qayta tiklanib yanada rivojlangandagina jamiyatimizda o'tkazilayotgan islohotlar muvaffaqiyatli amalga osha oladi, chunki ma'navii barkamol, ma'rifatli, ruhan bardam, yangicha tafakkurlash qobiliyatiga ega insongina istiqlol va taraqqiyot yo'lini sharaf bilan o'ta oladi. Shunday ekan, xalqimizning madanii merosi, yuksak ma'navii qadriyatlarini chuqur va atroflicha o'rganib, ularni Respublikamizda yashovchi har bir insonning ongiga singdirib, ayniqsa, yosh avlodni ma'navii

yetuk, fidoyi kishilar etib tarbiyalash hozirgi kunda dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Ta'lim qadriyatlarining ijtimoiy va shaxs omiliga yo'nalganlik xususiyatini ochib beradi. Ijtimoiy qadriyatlar, shu jumladan, ta'limiy qadriyatlar ham shaxsni shakllantirishga xizmat qilishi, uning qadr-qimmatini oshirishi, pedagoglar tomonidan shaxs omilining ta'lim-tarbiya jarayonlarining yetakchi subyekti sifatida tan olishini ta'minlashi, unda erkin va mustaqil fikrlash, shuningdek, ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berishi maqsadga muvofiqdir. Talabalarga ta'limiy qadriyatlar ta'lim tarbiya jarayonlari muhim o'rin egallashini ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan holda quyidagi vazifalarni hal qilish lozim:

- ta'lim va tarbiya jarayonlarida talabalarga ta'limiy qadriyatlar haqida ma'lumotlar berib borish

- ta'limiy qadriyatlarini ta'lim jarayonida qo'llashda zamonaviy pedagogik texnologiyasidan unumli foydalanish zarur.

Milliy qadriyatlarni o'rganishda talabalarda milliy g'oya, milliy ong, milliy g'urur tushunchalari ketma-ketligini shakllantirish lozim. Chunki milliy g'ururi bo'lmagan inson hech qachon Vatan boyliklari qadriga yetmaydi, uni asrashni xayoliga ham keltirmaydi, ya'ni vatanparvar, fidoyi inson bo'lib yetisha olmaydi.

Qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Jumladan inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo'q joyda biron narsaning qadr - qimmatini haqida so'zlash be'manilikdir. Shuning uchun ham inson qadr-qimmatini e'zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil yetadi. Jamiyatimizda yuz berayotgan tub o'zgarishlarning, islohotlarning barchasi kishilar hayoti to'q, boy, go'zal bo'lishi, inson o'zini chinakam erkin his etishi, o'z mehnati natijasining, o'z taqdirining, o'z mamlakatining egasi bo'lishini taminlashga qaratilgandir.

Shundan kelib chiqqan holda qadriyatlarga kompleks yondashuv asosida, fikr bildirishga harakat qilamiz. Qadr - kishining jamiyatda tutgan o'rni, obro' - e'tibori, hurmati, nufuzi. Qadriyat - tevarak-atrofdagi narsalarning, kishining jamiyat uchun ijobiy yoki salbiy ahamiyatini ko'rsatuvchi tushuncha bo'lib, axloqiy tamoyildir.

Qadriyatga umuminsoniy qadriyatlar - ma'lum bir axloq me'yorlari, ilg'or, taraqqiyparvar madaniy me'roslar kiradi. Qadriyatlar moddiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy qadriyatlarga hamda ijobiy va salbiy qadriyatlarga bo'linadi. Qadriyatlar faqat o'tmish uchun qadrli bo'lmasdan, balki hozirda ham kelajak taraqqiyotida ham qadrli bo'lib, ular jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qiladi hamda kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma'naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va h.k.lar majmui tushuniladi.

Qadriyat turlari quyidagilar:

- tabiiy qadriyatlar;

- moddiy qadriyatlar;
- ma'naviy qadriyatlar;
- estetik qadriyatlar;
- milliy qadriyatlar;
- umuminsoniy qadriyatlar.

Bular o'z navbatida bir qancha xususiyatga ega.

Tabiiy qadriyatlar - insonning yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan resurslar, ya'ni yer va yer osti boyliklari, suv, havo, o'rmonlar, o'simliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar.

Moddiy qadriyatlar - insonlarning moddiy ehtiyojlarini qondirishda qadrlil bo'lgan narsa (predmet, buyum)lardir. Ular: ishlab chiqarish vositalari va qurollari, mehnat predmetlari, moddiy ne'matlar, kishi faoliyati jarayonini amalga oshirishdagi buyumlar.

Ma'naviy qadriyatlar - siyosiy, huquqiy, badiiy, diniy, estetik, falsafiy, axloqiy, ma'rifiy, madaniy qadriyatlar majmuasidir.

Estetik qadriyatlar - barcha ham shaklan, ham mazmunan go'zalliklardir (barcha tabiiy va ijtimoiy go'zalliklar).

Milliy qadriyatlar - muayyan xalq va millatlarning uzoq tarixiy davrlar asosida rivojlanib kelgan va ma'lum shakl va mazmunga ega bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuasidir.

Umuminsoniy qadriyatlar - umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan va uning sivilizatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmuasidir.

Umuminsoniy qadriyatlarning asosini kurrai zamindagi ilm-fanni taraqqiy ettirish, dunyo bo'yicha tinchlik va barqarorlikni saqlash, ekologik muammolar yechimini izlash, yadroviy qurollar poygasini to'xtatish, turli xalqaro xavflarni oldini olish, turli kasalliklarning oldini olish, tabiatni muhofaza qilish, qashshoqlik va savodsizlikka barham berish, sanoat xom ashyosi, energiya manbalarini yaxshilash, koinot va jahon okeani resurslarini o'zlashtirish va shu kabilar bilan bog'liq bo'lgan muammolar tashkil etadi. Bizning oldimizda turgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy muommolarni hal etishga to'sqinlik qiladigan hodisalar reaksiyon qadriyatlarga kiradi.

Progressiv qadriyatlarning barcha turlari insonning farovon hayot kechirishini, erkin yashashi, ma'naviy- axloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladigan vositalar hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni avaylab asrash, yuksaltirish inson shaxsiy hayotida ham, jamiyat taraqqiyotida ham katta ahamiyat kasb etadi.

XULOSA. Qadriyatlar va ulardan ijtimoiy hamda pedagogik munosabatlarni tashkil etish jarayonida foydalanish borasidagi vazifalar — ta'lim mazmuni, uning jarayoni va «pedagog - o'quvchi» tizimidagi o'zaro munosabatlarni tashkil etish asosiga kiritilishi lozim. Pedagogik munosabatlar muammolarini hal etish ham talab etiladi. "Men" konseptsiyasi negizida

qadrlash munosabatida bo'lishi bilan rivojlangan shaxsni shakllantirishga qaratilgan innovatsion o'qitishni talab etadi:

- o'quvchilarning xususiyatlari va qobiliyatlarini, ularning ichki imkoniyatlarini ochib berishga qaratilganlik;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarni pedagoglar ongiga singdirish;
- shaxs, jamiyat va atrof- muhitning munosabatlarini uyg'unlashtirish;
- munosabatlardagi qadriyatni an'analar asosida o'qituvchi va o'quvchining bir -birini hurmat qilishi;
- o'quvchilarda estetik boy dunyo qarashni, yuqori ma'naviylikni, madaniyatlik va ijodiy fikrlashni shakllantirish;
- ijodiy fikrlash, bashorat qila olish, muqobil fikrlarga imkon beruvchi shakl, metod va vositalaridan foydalanib, ijtimoiy ahamiyatli qarorlar qabul qilishga o'rgatish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdurahmonov A. Qadriyat - ma'naviy merosdir // «Ma'rifat gulshani» g. - 12 (77) 2007y. - 7-bet
2. Choriyeva.S Муғаллим хэм узликсиз билимлендири³, Tarbiya tizimida o'quvchilarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash yo'llari, 12-16 betlar, №2 2012 жыл /арнаўлы сан,
3. Choriyeva.S Ilm-fan va ta'limning rivojlanish istiqbollari, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni pedagogik qo'llab-quvvatlashning pedagogik-psixologik jihatlari, 105-107 bet 27-konferensiya to'plami 24 iyun 2022
4. Choriyeva.S, Berdiyeva.M, Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ», ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПОДДЕРЖКА ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ, 1135-1139, Выпуск №13 (том 3) (апрель, 2021)
5. Choriyeva .S."Main Directions of Teacher Training and Improving Their Quality for the Preschool Education System". Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences (IJNRAS) Volume: 01 Issue: 05 | 2022 ISSN: 2751-756X <http://innosci.org>.50-54 bet
6. Choriyeva .S.Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish, Новости образования: Исследование в XXI веке
№ 5 (100) декабрь 2022 г. 380-383 betlar
7. Choriyeva .S.Maktabgacha yoshdagi bolalarga STEAM ta'lim texnologiyasi asosida ta'lim-tarbiya berish, "Maktabgacha talimda ilg'or tajriba va zamonaviy yondashuvlar: muammolar va rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari 2022-yil 23-sentabr 99-102 betlar
8. Tulenov J.T. Qadriyatlar falsafasi.-T.: «O'zbekiston», 1993. -319 bet.

OLIV TA'LIMDA ZAMONAVIY MA'RUZANI LOYIHALASH BOSQICHLARI

*Yuldasheva Inobat Ashuraliyevna
Ipk yo`li innovatsiyalar universiteti, katta o`qituvchisi*

Zamonaviy ma'ruzalarni tashkil etish an'anaviy ma'ruzalardan o'zining maqsadi, mazmuni, tashkil etish shakli va foydalaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalari bilan farq qiladi. Eng qulay va optimal variantda zamonaviy ma'ruzalarni tashkil etishni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin: Dastlab ma'ruzada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlar tahlil qilinishi lozim. Buning uchun avvalo quyidagi savollarga javob izlash talab etiladi:

- nima uchun aynan o'quv mashg'ulotining ushbu shakli talab etildi?
- talabalar o'quv faoliyatining umumiy tarkibida aynan ushbu ma'ruzaning tutgan o'rni qanday?
- tinglovchilar kimlar va ular necha kishi?
- 1. Ma'ruza oldi vaziyatni tahlil qilish
- 2. Ma'ruzaning asosiy g'oyasini ishlab chiqish
- 3. Ma'ruza maqsadini asoslash
- 4. Mavzuni belgilash
- 5. Ma'ruza mazmunini tanlash
- 6. Ma'ruza turini tanlash
- 7. Ma'ruza shaklini tanlash
- 8. Tinglovchilarning diqqatini faollashtirish usulini loyihalash
- 9. Ma'ruzani tushunishni qo'llab-quvvatlash usullarini loyihalash
- 10. Ma'ruzada teskari aloqani tashkil etish usullarini ishlab chiqish
- 11. Ma'ruzani yakunlash shakli loyihasini yaratish ma'ruza uchun qancha vaqt ajratilgan?

-tashqi sharoitlar qanday (auditoriya, texnik vositalar ta'minoti va b.) ma'ruzachining imkoniyatlari va to'siqlar, chegaralanganlik. Ma'ruzaning asosiy tashkiliy g'oyasini ishlab chiqishda quyidagilarni e'tiborga olish tavsiya etiladi:

- shaxsiy tajriba asosida ma'ruzani tashkil etish;
- savol va javoblar asosida ma'ruzani tashkil etish;
- ma'ruza mazmuni bo'yicha mavjud adabiyotlardan mantiqiy materiallarni to'plab, an'anaviy shaklda ma'ruza o'qish;
- ushbu mavzu bo'yicha kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish va keyin umumlashtiruvchi ma'ruza o'qish;
- talabalarga videofil'm yoki keys taklif etish, muammolarni aniqlash va ajratish, keyin tahlil qilish.

Ma'ruza g'oyasini yaratish vaziyatni tahlil qilishdan boshlanadi va "Ma'ruzaning keyingi bosqichlarini qanday tashkil qilish kerak?"- degan savolga javob beradi.

Ma'ruzaning maqsadini aniqlash, “Ushbu ma'ruza nima uchun kerak, qanday natija bo'ladi, men, ta'lim jarayonini tashkil etuvchisi sifatida qanday rejalashtirishim kerak?”- degan savollardan boshlanishi lozim.

Ma'ruza maqsadi - faoliyatning kelajakdagi natijasini fikran mazmunidir. Ma'ruza maqsadini shakllantirishda quyidagi talablarni hisobga olish zarur:

ma'ruzada ko'zlangan maqsadga erishilganligini tekshirish imkonini berishi lozim;

maqsad aniq bo'lishi va qisqa izohlanishi kerak;

maqsad “talaba faoliyati tilida”, ya'ni oson va tushunarli tilda shakllantirilishi zarur;

maqsad realistik bo'lishi, ya'ni maqsadni ta'minlovchi vositalar (vaqt, ma'ruzachining qobiliyati va b.) ga ega bo'lishi lozim.

Ma'ruza maqsadini belgilashda ayrim pedagoglar quyidagi muammoli savollarga duch kelishadi:

1. Dastlab ma'ruzaning mavzusi tanlanishi kerakmi yoki maqsadi?
2. Ma'ruzaning maqsadi birlamchimi yoki mazmuni?
3. Ma'ruzaning maqsadini tanlashda ma'ruzachining faoliyati qanday o'rin tutadi?

Ko'pchilik pedagoglar oliy ta'lim tizimida fanning o'quv dasturini asos qilib olib, dastlab ma'ruza mavzusini tanlashadi. Bizning fikrimizcha dastlab ma'ruzaning maqsadi

2. Ma'ruzaning asosiy g'oyasini ishlab chiqish

tanlanishi zarur. Fanning o'quv dasturida ma'ruza mavzulari emas, balki fanning mazmuni qisqacha beriladi.

Professor-o'qituvchi ana shu mazmun doirasida fan bo'yicha ishchi dastur va kaledar reja tuzishda mavzularni tanlab oladi. Ma'ruzaning maqsadi aniq bo'lgach mavzuni tanlash oson kechadi. Mavzu ma'ruzada nima haqida fikr yuritilishi va muhokama qilinishini yaqqol aks etib turishi kerak. Mavzu ma'ruza mazmunining doirasi, chegarasi hisoblanadi.

Ko'pincha, tinglovchilar savol berishganda “Mavzu chegarasidan chiqmang, iltimos” deb ta'kidlanadi. Shuningdek, ma'ruzachi o'z fikrlarini bayon etganda ham mavzu doirasidan chiqmasligi talab etiladi. Mavzuni tanlashga qo'yiladigan talablar oddiy: mavzu aniq, qisqa, ma'ruza mazmunini anglatadigan va faoliyatli xarakter (tinglovchini o'ylashga, fikrlashga jalb etadigan) kasb etgan bo'lishi zarur.

Ma'ruzaga tayyorlanishning keyingi bosqichi –ma'ruza mazmunini tanlashda quyidagi talablarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

- ma'ruza mazmuni reja asosida bo'limlarga bo'linishi lozim, ya'ni ma'ruza rejasi

shakllantirilishi kerak;

-birinchi navbatda ma'ruzachi uchun juda yaxshi tanish bo'lgan, yaxshi o'zlashtirilgan materiallar olinishi lozim;

-materiallar ma'ruzachi tomonidan to'liq o'zlashtirilishi, mashq qilinishi boshqa pedagoglar bilan bahs va maslahatlar asosida to'liq qayta o'zlashtirilishi zarur;

-tanlangan materiallar ma'ruza maqsadi va mavzusiga mos bo'lishi shart;

-mazmun turli xil shakllarda (tushunchalar, axborotlar, tajribalar, kuzatish natijalari, hayotiy hodisalar va b.) yoritilishi mumkin;

-ma'ruza uchun ajratilgan vaqt hisobida talab etiladigan hajmga nisbatan ikki barobar ko'p hajmdagi materiallar tanlanishi kerak.

Tinglovchilar diqqatini faollashtirish maqsadida birinchi navbatda ularni ma'ruzachi bilan o'zaro faol muloqatda bo'lishlarini ta'minlash lozim. Bu quyidagi uslublar orqali amalga oshirilishi mumkin:

1. Ma'ruzachi tomonidan turli savollar berish orqali:

2. Ritorik savollar (savol bilan tushuntirilgan materiallarni tasdiqlash);

3. Tinglovchilarning savol berishlariga imkoniyat yaratish;

4. O'z tushunchalarini qayta tekshirish, savol-farazlar berish.

Ma'ruzachi tajribasi va shaxsiga appelyatsiya: ? ma'ruzachining shaxsiy amaliy tajribasidan dalillar, ma'lumotlar va misollar keltirish.

3. Birgalikda fikrlash, muammolar ustida birgalikda o'ylash uslubi:

ma'ruzachi tinglovchilarga shunday dalillar bilan murojaat qilishi kerakki, tinglovchilarda birgalikda hayajonlanish, diqqat qilish va muammo ichiga kirishib ketish holati sodir bo'lsin.

5. "Paradoks vaziyat" uslubi:

-insonda har doim kutilmagan, umuman eshitmagan ma'lumotlar, axborotlarni eshitishga ishtiyoq kuchli bo'ladi va bunday materiallarni tinglashga diqqati oshadi.

5. "Xatolardan o'rganamiz" uslubi.

-ma'ruzachi tinglovchilar duch kelishi mumkin bo'lgan xatolar, o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar va muammolarni tahlil qilib murojaat qiladi.

6. "Polifoniya" uslubi.

-bir masala yoki savolga turli xil nuqtai nazar bilan yondoshish va tinglovchilarga tanqidchi sifatida qarash imkoniyatini yaratish.

7. "Tetiklantiruvchi, jonlantiruvchi - chetga chiqish" uslubi. ? ma'ruzachi auditoriya holati va tinglovchilar saviyasi (yoshi, ma'lumoti, bilim darajasi va b.)ni hisobga olib, mavzuga oid qisqa hazillar, anekdotlar, rivoyatlar, latifalar aytib berishi mumkin.

Lekin, ma'ruzachi o'zini va auditoriyani diqqat bilan nazoratdan chetga chiqishga yo'l qo'ymasligi kerak. Ushbu uslubda uchta shartga qat'iy amal qilish talab etiladi: mazmun, vaqt va kimga hazillashishni bilish.

8. Ko'rgazmali, o'quv-vizual materiallar yordamida tinglovchilar faoliyatini faollashtirish.

9. Ma'ruza o'tishning tashqi belgilari va shakllari.

-ma'ruzachining notiqlik san'ati (nutq davomida uzoq yoki qisqa to'xtalishlar(pauza), o'z harakatini nazorat qilish, o'z auditoriyasini ko'ra olish qobiliyati va b.)

Xulosa shuki, oliy ta'limda zamonaviy ma'ruzani to'g'ri loyihalash va uni to'g'ri tashkil etilishi bugungu kunda ta'lim jarayoniga qo'yilayotgan talablarni bajarilishida muhim ahamiyatga ega.

ABU RAYHON BERUNIY ILM MA'RIFAT EGASI

***Ahmedov Temurjon Yusubbayevich –
Urganch Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti “Maktabgacha
ta'lim metodikasi” kafedrasida o'qituvchisi.
Saparova To'pajon Murotjon qizi - Urganch Davlat Universiteti
“Maktabgacha ta'lim yo'nalishi” talabasi***

Beruniy shunday serqirra olimki, o'z davrida mavjud bo'lgan ilm sohalaridan shug'ullanmagani uning shug'ullanganidan kamdir. Uning yozgan asarlari shun-chalik ko'p va serqirradi, bunga bir odamning umri kifoya qilganiga kishi hayron qoladi.

V.V.Bartold

Annotatsiya: Har qanday xalq, birinchi navbatda, fidoyi o'g'lonlari, mutafakkir zotlari, insoniyat tamadduniga ulkan hissa qo'shgan olimu-ulamolar bilan g'ururlanadi. Shu jihatdan olib qaraganda, o'zbek xalqining g'ururi, chindan-da, tog'lardan baland. Zero, bizning yurtimizda tug'ilib voyaga yetgan Abu Rayhon Beruniy nomi har birimizning qalbimizni faxru-iftixorga to'ldiradi. Alloma ensiklopedist olimdir. O'z davrida ma'lum bo'lgan barcha fanlar bo'yicha yirik asarlar yozgan.

Kalit so'zlar: Mineralogiya, o'simliklar, matematika, geodeziya, urf-odat, din, “Hindiston”, astronomiya, fizika, koinot.

Abu Rayxon Beruniy 973-yil Xorazmning qadimgi poytaxti Kat shahrida tavallud topgan. U o'spirinlik va yoshlik yillarini turli ilmlarni egallashga bag'ishlagan va olim sifatida shakllangan. Zamonasining mashhur olimi Abu Nasr Mansur ibn Iroqdan tahsil olgan va 16 yoshida ilk astronomik tajribalarini o'tkazgan. U fors, yunon, arab, sug'd, sanskrit tillarini o'rgangan. Xorazmdagi siyosiy vaziyat tufayli olim 998-yil Jurjon shahriga ketadi va shu yerda 1004-yilgacha katta izlanishlar olib boradi.

Beruniy astronomiya, tabiiy fanlar, tarix, din tarixi bilan shug'ullanadi. Olimning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari unga katta shuhrat keltiradi. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari qadimgi Xorazmda yashab o'tgan xalqlarning, qadimgi yoxudiylar, nasroniylar, majusiylar va musulmonlarning urf-odatlarini, an'analarini, bayramlari, qalandarlarini, dinlari, payg'ambarlari, muqaddas kitoblari haqida barcha kitoblari haqida barcha ma'lumotlarni o'zida to'plagan yaxlit ensiklopediya bo'lib u Yevropada “Xronologiya” nomi bilan mashhurdir. Beruniy 1004-1007 yillarda Xorazmga qaytib, Xorazmshoh Ma'mun rahbarligidagi ilmiy markazda faoliyat olib boradi. Lekin Xorazm Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olingandan keyin, u G'azna shahriga asir qilib olib ketiladi. Bu davrda Beruniy astronomiya va

geodeziyaga oid asarlar yaratadi. 1029-yili G'aznada "Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar" asarini tugatadi.

Mahmud G'aznaviyning Hindistonga qilgan yurishlari sababli Beruniy ham munajjim sifatida bir muddat Hindistonda yashaydi va sanskrit tilini mukammal o'rganib oladi. Olim hindlarning tarixi, urf-odati, madaniyati bilan yaqindan tanishadi va o'zining mashhur "Hindiston" asarini yaratadi.

1030-yil Mahmud G'aznaviy vafotidan so'ng uning o'rniga o'g'li Ma'sud o'tiradi. Olim o'zining astronomiyaga oid eng yirik asarini shu hukmdorga bag'ishlab "Ma'sud qonuni" deb atagan. 1041-1049 yillari "Mineralogiya" va "Farmakognoziya" deb nomlangan ikkita asarini yozadi. Bu asarlarning har biri mazkur sohalar bo'yicha jahon madaniyatining noyob durdonalaridan hisoblanadi. Abu Rayhon Beruniy 1048-yili G'azna shahrida vafot etadi.

Qomusiy olimning astronomiya, astrologiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, geografiya, arifmetika, tabobat, farmakognoziya, tarix, filologiya va boshqa fanlar bo'yicha yozib qoldirgan 160 dan ortiq asarlari ushbu fanlarning rivojiga ulkan hissa qo'sha oldi.

Beruniyning pedagogik qarashlari oilada bola tarbiyasi, aqliy ta'lim, axloqiy va jismoniy tarbiya, mehnat va insonparvarlik tarbiyasi kabi masalalarni qamrab olgan. Buni quyidagi misralarda ko'rish mumkin:

1. Butun kuchimni yig'ib, bor imkoniyatni ishga solib, goh eshitish goh ko'rish va qiyos qilish orqali, bilimim yetganicha, u narsalarni bayon etishga bel bog'ladim. ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari.)

2. Yaxshilik xislatlari: taqvodorlik, to'g'rilik, o'zini saqlash, odillik, insoniy kamtarlik, latofat, sobitqadamlik, ehtiyotkorlik, saxiylik, muloyimlik, siyosat va boshqarish ishlarida bilimdonlik, tadbirkorlik, to'g'ri taxmin qila olish kabi sifatlardan iboratdir. ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asaridan.)

3. Til so'zlovchi istagini eshituvchiga etkazuvchi tarjimondir. ("Hindiston" asaridan.)

4. Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir. ("Hindiston" asaridan.)

5. Fanlarning foydasi - ular yordamida oltin va kumush to'plash emas, balki kerakli narsalar hosil qilishdir. ("Maskanlar orasidagi masofalarni aniqlash uchun joylarning chegaralarini belgilash" asaridan.)

6. Inson hamisha o'zgalarning baxt-saodatlariga haqida o'ylashi kerak. Har bir insonning qadr-qimmatini o'z ishini qanday bajarayotgani bilan o'lchanadi. ("Mineralogiya" asaridan.)

7. Mehnatsiz shon-shavkatga, martabaga erishgan kishi hurmatga loyiqmi? Yuqori martabaga mehnatsiz erishgan kishi farosat va rohat soyasida yashaydi, yaxshi kiyinadi, ammo ulug'lik libosidan mahrum, yalang'ochdir. ("Mineralogiya" asaridan.)

8. Kishi tabiati bilolmagan narsani bilishga muhabbatlidir. Faqat haqiqiy bilimga ega bo'lganda, bilolmagan narsani bilishga ehtiyojli bo'lib, axtarganini topadi, bilimni chuqurlashtiradi. ("Hindiston" asaridan.)

Beruniy fizika faniga ham sezilarli hissa qo'shgan. Modda tuzilishi, jismlarning zaryadlanishi, moddalarning joylashuviga Yer massa markazining

ta'siri xususida Aristotel g'oyalarini ilmiy asoslagan. Oy krateri va Quyosh sistemasidagi 1986-yilda kashf qilingan kichik sayyoraga Beruniy nomi berilishi bobokalonimizga bo'lgan dunyo ahlining e'tirofidir.

Abu Rayhon Beruniy koinotdagi hodisalarni taraqqiyot qonunlari, narsa va hodisalarning o'zaro ta'siri bilan tushuntirishga urinadi. Olim yerdagi ba'zi hodisalarni quyoshning ta'siri orqali izohlaydi. Beruniyning fikricha, yerdagi o'simlik va hayvonot olamining yashashi uchun zarur imkoniyatlar cheklangan. Lekin o'simlik va hayvonlar doimo ko'payishga intiladi va shu maqsadda kurashadi. Beruniyning tabiatshunos sifatida quyidagicha fikrlari hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan: "Ekin va nasl qoldirish bilan dunyo to'lib boraveradi. Garchi dunyo cheklangan bo'lsada, kunlar o'tishi bilan bu ikki o'sish natijasida ko'payish cheklanmaydi. Agar o'simliklardan yoki jonivorlardan biror xilining o'sishiga sharoit bo'lmay, o'sishdan to'xtasa ham, boshqalarida bu ahvol bo'lmaydi. Ular birdaniga paydo bo'lib, birdaniga yo'qolib ketmaydi. Bordi-yu yer yuzini bir xil daraxt yoki bir xil hayvon butunlay qoplab olsa, bu holda hayvonning ko'payishiga ham, daraxtning o'sishiga ham o'rin qolmaydi. Shu sababdan dehqonlar ekinlarni o'toq qilib, keraksizini yulib tashlaydilar".

Beruniy o'zining yoshligi haqida xotirlab: "Men bir Yunonistondan kelib qolgan olimdan turli xil o'simliklarning yunonchada qanday atalishini so'rab, bir daftarchamga batafsil yozib borar edim va ularni yodlab olar edim", - deydi. Bundan ko'rinib turibdiki yosh olim bolaligidan tabiatga va o'simliklar olamiga qiziqishi katta bo'lgan.

Beruniy asarlarida o'simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi va xo'jalikdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar topish mumkin. Beruniyning ilmiy qarashlari, asosan, "Saydana", "Mineralogiya", "Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar" asarlarida o'z aksini topgan. Unda Eronning turli tropik o'simlik va hayvonlarining tashqi muhit bilan aloqasi, ularning xulq-atvori, yil fasllarining o'zgarishi bilan bog'liqligi misollar bilan tushuntirilgan. Beruniy yer yuzining o'zgarishi o'simlik va hayvonot dunyosining o'zgarishi bilan, tirik organizmlarning turli hayoti yer tarixi bilan bog'liq bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Qumni kavlab, uning orasidan chig'anoqni topish mumkin. Buning sababi, bu qumlar qachonlardir okean tubi bo'lgan, deb ta'kidlaydi alloma.

Beruniy "Saydana" degan asarida 1116 xil dori - darmonlarni tavsiflagan. Ularning 750 tasi turli o'simliklardan, 101 tasi hayvonlardan, 255 tasi esa minerallardan olinadi. Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" va "Hindiston" asarlarida o'simlik va hayvonlarning tuzilishi hamda ularning tashqi muhit bilan o'zaro aloqasi haqida ham qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. "Hindiston" asarini 1030-yilda yozib tugatgan. Bu kitobda Hindiston geografiyasi, demografiyasi, qonunlari va urf-odatlarini, dini, diniy rivoyatlari, hind yozuvlarining turlari, e'tiqod usullari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, Beruniy bu asarda sanskrit tilidagi manbalardan ham keng foydalangan. Bu til bizgacha yetib kelmagan, bu tilni esa Beruniy ming yillar

ilgari maxsus o'rgangan. Bu kitob arabcha, inglizcha, ruscha va o'zbekcha tillarda chop qilingan.

Alloma umrining oxirida "Kitob as-Saydana fit-tib" ya'ni "Dorivor o'simliklar haqida kitob" asarini yozgan. Bu asar tarixga "Saydana" (Farmakagnoziya) nomi bilan kirgan. To'liq qo'lyozmasi Turkiyadan topilgan. Bu asarda Sharqda va turkistonda o'sadigan barcha dorivor o'simliklar va ularning farmakologik xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan. Beruniy o'zining tabiiy ilmiy kuzatishlari, tajribalari asosida tabiatdagi hodisalar ma'lum tabiiy qonuniyatlar asosida boshqariladi, ularni tashqaridan ta'sir etuvchi har qanday kuch o'zgartirish qobiliyatiga ega emas, degan xulosaga keladi.

1035-1036-yillari Beruniy o'zi yozgan asarlar ro'yxatini tuzgan va mazkur ro'yxatda 113 asar nomini keltiriladi. Bu asarlardan 70 tasi astronomiyaga, 20 tasi matematikaga, 12 tasi geografiya va geodeziyga, 3 tasi mineralogiyaga, 4 tasi kartografiyaga va boshqa fanlarga oid edi. Agar olimni undan keyin yashagan 13 yil davomida yozgan 50 dan ziyod asarlarini qo'shadigan bo'lsak, ularni umumiy soni 160 dan oshadi. Ayrim manbalarda olimni asarlari soni 200 dan ziyodligi aytib o'tilganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa.

Abu Rayhon Beruniy merosi mustaqillikdan ilgari ham o'rganilgan edi, ammo u davrlarda Beruniyning tabiiy - ilmiy merosigina materialistik dunyoqarash nuqtai nazardan taqdim etilgan. Beruniy umr bo'yi ilm-ma'rifat egallash yo'lida tinimsiz mehnat qilgan. Xatto umrining so'nggi daqiqasida ham unda ilmga intilish tuyg'usi so'nmagan.

Mustaqillik davridagina Beruniy merosiga keng qamrovli yo'l ochildi. Beruniy rahbarlik qilgan Xorazmdagi "Ma'mun akademiyasi"ning 1000 yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi va bu tadbirlarda olimning xizmati yuqori darajada qayd etildi. Beruniyning jahon fani taraqqiyotiga qo'shgan hissasini ta'kidlovchi asarlar yozilmoqda, tadqiqotlar olib borilmoqda. U ijtimoiy sohaga bag'ishlab maxsus asarlar yozmagan, biroq uning barcha asarlarida ta'lim-tarbiya, odob va axloq, masalalariga doir butun bir pedagogik qarashlar sistemasiga duch kelamiz.

Beruniyning o'zi tibbiyot tadqiqotchisi sifatida mashxur bo'lishiga qaramay, uning ijtimoiy hodisalar tadqiqotiga bag'ishlangan faoliyati o'zining keng ko'lamliligi, chuqur va mantiqan izchilligi bo'lgan ko'p olimlarning hayratiga sazovor bo'lgan. Beruniy ilmiy merosida u yaratgan tabiatni o'rganish va bilish metodi katta o'rin egallaydi. Bu uning dunyoviy va ilmiy fanlarga bo'lgan munosabatini ham belgilab bergan. Uning fikricha, fan javob berolmagan bilim sohalari diniy bilimlardan izlash lozim. U sovet tuzumi davrida ba'zi tadqiqotchilar ta'kidlashganidek, hech qachon dinga qarshi bormagan, dinga e'tiqodli, chin musulmon bo'lgan.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zuxra Ro'ziyeva "Dunyoni hayratda qoldirgan buyuklar". 2021-yil
2. Ubaydulla Uvatov "Buyuk yurt allomalari". 2016-yil

3. M.J.Mutalipova “Xalq pedagogikasi”. Toshkent. 2015-yil

YOSH FUTBOLCHILARNING MASHG’ULOTLARIGA QO’YILADIGAN TALABLAR

*Alimov Tojiddin Yaxshiboyevich,
Abduraimov Shaxboz Panji o’g’li*

*Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrası o’qituvchilari,
Termiz davlat pedagogika instituti*

Mashg’ulotlarning reja asosida olib borilishi, uzoq vaqt mobaynida to’xtatilmaslgi kerak. Faqat shundagina u futbolchilar mahoratini oshirishning zo’r omili bo’lishi mumkin.

Mashg’ulot jarayonida futbolchilarda ijobiy emotsional holat vujudga keltirish uchun ularga mashg’ulot va musobaqalarning maqsadi, natijalarini tushuntirib berish zarur. Shuningdek, mashg’ulotning turli xil metodlari, formalari va vositalarini qo’llanish, sharoitni o’zgartirish, mashg’ulotga musobaqa elementlarini kiritish kerak.

Mashg’ulot va musobaqalar uchun qulay sharoitlar yaratish zarur. Shu bilan birga futbolchi musobaqada juda turli sharoitlarga duch kelishi mumkinligini unutmaslik kerak. Shuning uchun u bu sharoitlarga moslasha bilishi lozim, bunga esa maxsus mashg’ulot bilan erishiladi.

Mashg’ulot jarayonida futbolchilarning layoqati va mahorati ortib borishi uchun butun mashg’ulot davomida qat’iy ravishda pedagogik va shifokor nazoratini yo’lga qo’yish zarur. Quyidagilar mashg’ulotni maqsadga muvofiq tuzishning asosiy shartlaridir:

1. Sport yuklamalarining me’yorini belgilashda tadrijiylik.
2. Musobaqa, mashg’ulot va dam olishni to’g’ri navbatlantirish.
3. Sport faoliyatining optimal ritmi.
4. Mashqlar, mashg’ulot va musobaqalarni taqsimlashda sistemalilik va izchillik.

Sport yuklamalari umumiy ish hajmini, mashg’ulotlar jadalligi va ularning davomiyligini oshirish hisobiga asta-sekin ko’paytirib boriladi.

Bunda quyidagilarni:

A) har bir mashg’ulot va musobaqani o’tkazishda ishga sekin-asta kirishishni;

B) dam olish, kasallik, jarohatlanish va mashg’ulotdagi boshqa uzilish (ma’lum vaqtgacha mashg’ulot qilmaslik)dan keyin ishga asta-sekin kirishishni;

V) yillik sikllarning ayrim qismlari, bosqichlari, davrlarida sport yuklamalarini asta-sekin oshirib borish va kamaytirishni nazarda tutish lozim.

Har bir mashg’ulot va musobaqadan oldin chigil yozish o’tkaziladi. Uning mazmuni esa futbolchilarning holati va ularning individual xususiyatlari hamda atrof-muhit sharoitiga qarab o’zgartiriladi.

Mashg'ulotlarida uzilish bo'lgan va bu uzilish ularning ishchanlik qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan futbolchilar uchun maxsus mashg'ulot rejimi tuziladi, bu hol ularning butun gruppaning tayyorgarlik darajasiga yetib olgunlariga qadar javom etadi. Bunda mashg'ulotlarni jadallashtirish emas, balki mashg'ulot musobaqalarga asta-sekin kirishishi muhim ahamiyatga ega.

Mashg'ulot sikllari va o'yinlar oralig'idagi sikllarda musobaqalar va dam olish kunlaridan mashg'ulotlarga, o'rtacha yuklamali mashg'ulotdan katta yuklamali mashg'ulotlarga va aksincha, katta yuklamali mashg'ulotlarga asta-sekinlik bilan o'tilishiga rioya qilinadi.

Yuklamalar ikki kun dam olish oralig'ida o'zgartiriladigan, keyin esa taxminan dam olgandan keyingi tartibda davom etadigan sikl mashg'ulot qilish sikli deb ataladi. Musobaqa ham mashg'ulot vositasi hisoblanadi.

Yuklamalar ikki musobaqa oralig'ida o'zgartiriladigan, taxminan har bir musobaqadan keyingi tartibda takrorlanadigan sikl o'yinlar oralig'idagi sikl deb ataladi.

Jismoniy yuklamalarning ayrim funksiyalarga, shuningdek tiklovchi reaksiyalarga ta'siri qo'llaniladigan mashq turlari, ularni bajarish jadalligi va davomiyligi, mashqlarning qancha takrorlanishi va ular oralig'idagi pauzalarning ko'p-ozligi bilan belgilanadi.

Yuklamalar hajmiga ko'ra katta, o'rta, kichik yuklamalarga bo'linadi. Bunda maxsus mashqlardan ham (texnik-taktik mashqlar), maxsus bo'lmagan mashqlardan ham (to'psiz bajariladigan) foydalaniladi.

Turli xildagi sport yuklamalaridan keyin futbolchilar organizmidagi tiklanish jarayonlarining qonuniyatlarini bilish juda muhimdir. Tiklanish jarayonlari qanday sodir bo'lishi bir qator belgilar (qon bosimi, elektrokardiogramma ko'rsatkichlari, og'irlik, qo'lning muskul kuchini o'lchash, qon tomirlarining tonusi, yurakning qisqarish chastotasi, ko'zning elektrik sezuvchanligi: qo'shimcha yuklamalarga ko'rsatiladigan ta'sir va boshqalar) bo'yicha o'rganiladi.

Mashg'ulot va musobaqa futbolchilar organizmida charchashning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi; to'liq tiklanish uchun, ayniqsa nerv hujayralarining tiklanishi uchun organizmga yetarli bo'lgan dam olish imkoniyati berilmasa, bu charchash holdan toyishga o'tib ketishi mumkin. Dam olish - mashg'ulotning ajralmas qismi bo'lib, bu dam olish jarayonida futbolchi organizmi har bir mashg'ulot va musobaqadan keyin ortib boruvchi ishchanlik qobiliyatini saqlab qoladigan qilib tashkil etiladi.

Futbolchi faoliyatida dam olishning quyidagi formalari kuzatiladi:

1. Mashg'ulotlardagi mashqlar oralig'idagi pauzalar (mikropauzalar).
2. Har kungi dam olish (kun davomida, o'yinlardagi tanaffus vaqtida, mashg'ulotlarda, uyquda).
3. Har haftalik dam olish (har bir siklning oxirida, boshida).
4. Har yilgi dam olish.

Maqsadga muvofiq tuzilgan mashg'ulotning eng birinchi sharti - mashqlar, mashg'ulotlar va musobaqalar oralig'idagi optimal davom etadigan

dam olish intervallariga rioya qilishdir. Ular haddan tashqari uzoq davom etmasligi kerak (ayni vaqtda juda qisqa ham bo'lmashligi zarur). Organizmda tiklanish jarayonlarining muvaffaqiyatli o'tib borishiga yordam berish bilan bir vaqtda, dam olish avvalgi ishlarning izini, ya'ni mashg'ulot natijalarini yo'qotib yubormasligi lozim.

Dam olishning davom etishi va mazmuni undan oldingi o'tkazilgan mashqlar, mashg'ulotlar yoki musobaqalarning jadalligiga hamda futbolchining mashq ko'rganlik darajasiga qarab belgilanadi. Mashq ko'rganlik darajasining o'sishi bilan organizmda tiklanish jarayonlari tezroq o'tib boradi, binobarin, tiklanish uchun ham kam vaqt kerak bo'ladi, dam olish intervallari ham qisqa bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, murabbiy bilan shifokor turli xil mashg'ulotlar, musobaqalar, mashg'ulot va o'yin oralig'idagi sikllardan keyin tiklanish jarayonlari qanday o'tib borishini o'rganadilar hamda futbolchilar dam olishining optimal intervallarini aniqlaydilar. Bu sport yuklamalari yuqori bo'lgan va musobaqalar tez-tez bo'lib turadigan sharoitda organizmning toliqib qolishining oldini olishga hamda mashqlar, mashg'ulotlar va musobaqalardan futbolchilarning sport sohasidagi ishchanlik qobiliyatini oshirish va ular mahoratining o'sishi uchun yaxshiroq foydalanishga imkon beradi.

Dam olishning mazmuni qat'iy individuallashtirilgan bo'lishi kerak. Har haftalik va har yillik dam olishning tashkil etilishiga alohida e'tibor beriladi, chunki ko'pincha bunday dam olish passiv formada o'tadi, bu esa futbolchilarning ishchanlik qobiliyatini juda ham pasaytiradi.

Bundan tashqari, futbolchilar organizmida tiklanish jarayonining muvaffaqiyatli o'tib borishi uchun maxsus tiklash tadbirlari (hammom, massaj, vitaminlari ko'p bo'lgan ovqatlar iste'mol qilish) amalga oshiriladi. Shuningdek, futbolchilarning uyqu va ovqatlanish rejimiga, shaxsiy gigiyenasi va hokazolarga ham e'tibor berish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abidov Sh.U. Futbolchilar mashg'ulotlarini tashkil etishda yoshga oid xususiyatlar. Uslubiy-qo'llanma. Toshkent. «ILMIY TEXNIKA AXBOROTI-PRESS NASHRIYOTI» 2020. 154 s.

2. Achilov A.M., Akramov J.A., Goncharova O.B. Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash. Toshkent. 2009. 95 bet.

3. Axmadjonov U.M., Tolibjonov A.I., Iseyev Sh.T. Futbolchilarni jismoniy tayyorgarligi. Toshkent. «ILMIY TEXNIKA AXBOROTI-PRESS NASHRIYOTI» 2019. 135 s.

4. K.Rahimqulov. Milliy harakatli o'yinlar. O'quv qo'llanma. «TAFAKKUR-BO'STONI». Toshkent-2012. 142 s.

5. M.A.Qurbonova., M.U.Qosimova. Milliy va harakatli o'yinlar. O'quv-uslubiy qo'llanma. O'zDJTI nashriyot bo'limi, 2009 y. 65 s.

6. N.M.Yusupov, A.T.Shermuhamedov, A.A.Artiqov, O.Yo.Bektorov. Sport pedagogik mahoratini oshirish. Futbol. O'quv qo'llanma. Toshkent. «IQTISOD-MOLIYA». 2015. 362 s.

7. Nurimov R.I. «Yosh futbolchilarni texnik-taktik tayyorlash». O'quv qo'llanma. Toshkent. 2005 y. 98 s

8. Nurimov R.I. Futbol. Darslik. Toshkent. 2005 y. 158 s.

DZYUDO BO'YICHA O'QUV-MASHG'ULOT YIG'INLARINI O'TKAZISH VA TASHKIL QILISH

Amandavlatov Toshmamat Menglimurod o'g'li.

*TerDPI Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasi
o'qituvchisi*

Dzyudo sportchilardan yuqori jismoniy tayyorgarlik va texnik mahorat talab qiladigan mashhur sport turidir. Dzyudoda yuqori natijalarga erishish uchun doimiy ravishda mashq qilib, mahoratingizni oshirib borish kerak. O'quv-mashg'ulot yig'inlari sportchilar uchun o'z mahoratini oshirish va musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish uchun ajoyib imkoniyatdir. Tajribali murabbiylar dzyudo bo'yicha o'quv-mashg'ulot yig'inlarida qatnashib, sportchilarning texnika va jismoniy tayyorgarligini oshirishga yordam beradi. Bunday yig'inlar ishtirokchilarda hamjamiyat va do'stlik tuyg'ularini shakllantirishga ham xizmat qiladi, bu ayniqsa jamoaviy sport turlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, dzyudo bo'yicha o'quv-mashg'ulot yig'inlarini o'tkazish sportchilarni tayyorlashning ajralmas qismiga aylanib, ushbu sport turida muvaffaqiyatlarga erishishga xizmat qilmoqda.

Dzyudo bo'yicha o'quv-mashg'ulot yig'inlari har qanday dzyudochi tayyorlashning muhim va ajralmas elementi hisoblanadi. Ular musobaqalarga tayyorgarlik davrida ham, mahorat darajasini oshirish va texnikani takomillashtirish uchun ham o'tkaziladi.

O'quv-mashg'ulot yig'inlarini o'tkazishdan asosiy maqsad sportchilarning texnik mahoratini oshirish, shuningdek, jismoniy tayyorgarligini oshirishdan iborat. Shu munosabat bilan o'quv-mashg'ulot yig'iniga tayyorgarlik oldindan boshlanadi va nafaqat mashg'ulotlar, balki to'g'ri ovqatlanish, immunitetni mustahkamlash va hokazolarni ham o'z ichiga oladi.

Dzyudo bo'yicha o'quv-mashg'ulot yig'inlarini tashkil etish o'tkaziladigan joyni tanlashdan boshlanadi. Eng yaxshi variant - sportchilar uchun mashg'ulotlar va turar joy uchun tegishli sharoitlarga ega bo'lgan sport majmuasi. Keyin o'quv-mashg'ulot yig'ini ishtirokchilari ro'yxati tuziladi va har bir kun uchun o'quv dasturi tuziladi.

Yig'inlarda nafaqat sportchilar, balki murabbiylar, tibbiyot xodimlari, reabilitatorlar va boshqa mutaxassislar ham qatnashadi. Ular ishtirokchilarning salomatligini nazorat qiladi, texnik tayyorgarligini tahlil qiladi, natijalarni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar beradi.

Dzyudo bo'yicha o'quv-mashg'ulot yig'inlarini o'tkazish ushbu sport turi bo'yicha mahoratingizni oshirish va kelgusi musobaqalarga tayyorgarlik ko'rishning ajoyib usuli hisoblanadi. Ayniqsa, mashg'ulotlarni rejalashtirish, to'g'ri rejalashtirish, nafaqat mashg'ulotlar, balki dam olish, shuningdek, sportchilarning ovqatlanish vaqtini ham hisobga olish muhimdir. Faqat bu holatda, siz muvaffaqiyatli natija va musobaqalarda g'alaba qozonishingiz mumkin.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, dzyudo bo'yicha o'quv-mashg'ulot yig'inlari ushbu sport turi bo'yicha sportchilarni tayyorlashda muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Ular usullarni bajarish texnikasini yaxshilashga, jismoniy holatni mustahkamlashga va yorqin reaksiya va chidamlilikni rivojlantirishga imkon beradi. Bunday o'quv-mashg'ulot yig'inlarining tizimli o'tkazilishi tufayli dzyudochilar o'zlari yoqtirgan sport turi bilan maksimal samaradorlik bilan shug'ullanishlari va musobaqalarda yuqori natijalarga erishishlari mumkin. Bundan tashqari, lager yoki tog' bag'rida yig'inlarni o'tkazish jamoaviy ishlarni o'z ichiga oladi, bu esa sportchilar o'rtasida kollektivizm, do'stona munosabatlarni rivojlantirishga va o'zingizni har qanday sharoitga tayyorlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Даминов, И. (2021). Совершенствование технико-тактической и психологической подготовки юных дзюдоистов. *Общество и инновации*, 2(11/S), 175-180.
2. Ashiraliyevich, D. I. (2022). Formation and Development of Psychological Readiness of Young Sambo Fighters. *European journal of business startups and open society*, 2(7), 15-18.
3. ИА Даминов Спортивная деятельность-как фактор влияния на личность дзюдоистов. *Academic research in educational sciences*, 2021
4. Dzyudo BS Turaboyev, IA Daminov - 2014 – T
5. Kondric M, Bangsbo J, Rosenholm M, Nielsen JJ, Mijatovic N. Physiological and physical characteristics of male judokas competing in the lighter weight categories. *Journal of sports science & medicine*. 2013;12(1):190.
6. Franchini E, Del Vecchio FB, Matsushigue KA, Artioli GG. Physiological profiles of elite judo athletes. *Sports medicine*. 2011;41(2):147-66.
7. Ando S, Tenkumo T, Higashiura T, Saito T, Kagaya A. Effects of high-altitude training on judo athletes: implications for sea-level performance. *The Journal of Strength & Conditioning Research*. 2011 Feb 1;25(Supplement 1):S24-31.

JAMOADA BOLALARNI TARBIYALASHDA OILA, MAHALLA, TA'LIM MUASSASASINING TUTGAN O'RNI

Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti katta o'qituvchisi (PhD)

Axmedova Gulnoza Zoir qizi

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Ta'lim va tarbiya
nazariyasi va metodikasi "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya: Maqolada oila haqida qisqacha tushuncha, oilada ota-onalar o'rtasida kelib chiqadigan nizolarning, mojaroli vaziyatlarning bola psixikasiga ta'siri va shuning natijasida kelib chiqadigan kasalliklari, uning nima sababdan kelib chiqqani, shu bilan birgalikda ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashda oilaning, maktab jamoasidagi o'qituvchi, pedagog-psixologlarning tutgan o'rni hamda bolani qanday tarbiyalash usullari, u bilan jonli muloqot qilish yo'llari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Oila, maktab, bola, ota-ona, o'qituvchi, muloqot, avtoritar, demokratik, liberal, konsepsiya, muloqot, ishontirish, ta'sir qilish va ma'qullash.

Bola yoshlik davrida oilada olgan ta'lim-tarbiyasini butun umri davomida saqlab qoladi. Bola hayotini asosiy qismini oilada o'tkazadi, o'zining ta'sir kuchiga ko'ra hech qanday tarbiya vositasi oila bilan bellasha olmaydi. Oilada bola shaxsini asoslari tarkib topdiriladi, maktabga borganda esa bola shaxs sifatida shakllangan bo'ladi. Oila bolalarga ijobiy va salbiy ta'sir etish omili bo'lishi ham mumkin. Bola shaxsiga ijobiy ta'sir etish shundan iboratki, oilada bolaga eng yaqin insonlardan - ota-ona-buvi-buva- aka opalardan tashqari hech kim ulardek bolani yaxshi ko'rib, u haqida qayg'urmaydi. Shu bilan birga bola shaxsini shakllantirishga, ularga tarbiya berishda oila salbiy ta'sir ham ko'rsatishi mumkin. Oilani o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyatini hisobga olgan holda, oilani bolaga ijobiy ta'sirini oshirib, salbiy ta'sirini kamaytirish zarur. Buning uchun esa tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan, ichki oilaviy ijtimoiy-psixologik omillarni aniq belgilash lozim. Bolani tarbiyalashda asosiysi ota-ona bilan bola o'rtasida qalban yaqinlikka va axloqiy bog'liqlikka erishishdir. Ota-onalar hech qachon tarbiya jarayonini o'z holiga tashlab qo'ymasligi kerak, ayniqsa, katta bo'la boshlagan bolani o'z holiga tashlab qo'ymasligimiz kerak. Bola oilada birinchi hayotiy tajribani o'rganadi, kuzatadi va o'zini turli hil vaziyatlarda qanday tutish kerakligini o'rganadi. Biz bolani nimaga o'rgatsak uni aniq, hayotiy misollar bilan mustahkamlashimiz kerak, bola kattalarni aytgan gaplari amalda ham bir xil bo'lishini ko'rishi kerak (masalan: agar bola har kuni ota-onasi tomonidan yolg'on gapirish mumkin emasligini eshitsa-yu, lekin ota-ona o'zi sezmagani holda shunday qoidaga rioya qilmasalar, bola tarbiyasi darz ketadi). Har bir ota-ona farzandlarida o'zlarining davomchilarini ko'radi va albatta farzandlarining o'zlari xohlagan inson bo'lishlarini xohlaydilar. Ammo ayrim vaziyatlarda oilada nohushliklar, mojarolar hamda

nizolar kelib chiqadi va bular o'z navbatida bolaga bevosita o'zining ta'sirini ko'rsatadi. Oilaviy tarbiyadagi xatolikning turlaridan yana biri, bolalarning erka bo'lishi, ularga nisbatan biror talabning yo'qligi bilan bog'liq. Bu holda ota-onalar ba'zan bolalarning imkoniyatlariga yetarli baho berishmay va ularning ko'pgina ishlarini o'zlari bajarishadi. Natijada, bolada mustaqillik, mehnat qilish ishtiyoqi, topshirilgan ishga, mas'uliyat hissi rivojlanmaydi. Bola o'z ishini tanlay olmaydi, uni oxirigacha yetkaza olmaydi, erksiz bo'lib qoladi. Bolalarni oiladagi tarbiyasidagi xatolarning bir turi ona yoki ota, buvi, buva va boshqalar tomonidan tarbiyada yagona talabalarning yo'qligidir. Bunday oilalarda bolalar kattalarning qarama-qarshi fikrlariga moslashishga harakat qiladi. Bu esa bolada ikkiyuzlamachilik, xushomadgo'ylik va shu kabi salbiy xislatlarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Oilada bola shaxsini shakllantirishda oila boshliqlari bilan bolalarning o'zaro yaxshi munosabati, hurmat, e'tibor, oiladagi bolalarning o'zaro munosabatlari to'g'ri tarbiyalangani ota-onaning bolalar tarbiyasiga barobar jonkuyarligi, oilada o'rnatilgan to'g'ri tartib va yaxshi odatlar, ota-onaning mehnatga, ijtimoiy hayot hodisalarga to'g'ri munosabatda bo'lishlari muhimdir. Bola tarbiyasida ota-onaning bir-biriga munosabati, o'zlarini tuta bilishlari muhimdir, oilada muomalaning barcha qoidalariga amal qilinishi lozim. Kattalarga hurmat, kichiklarni avaylash, bir-biriga mehribonlik, ayniqsa, ayollarni izzat qilish odatga, qoidaga aylanib borishi kerak. Bolalarga onani hurmat qilishni, unga mehribon bo'lishni o'rgatish otaning muhim vazifasi. Odatda, o'g'il bola otasiga, qizlar esa onasiga o'xshashga, ulardagi yaxshi xislatlarni o'ziga singdirishga harakat qiladi. Ota ham ona ham, bolani tarbiyalashga o'z hissalarini qo'shadilar. Ota ham ona ham bolaning aqliy, axloqiy jismoniy kamoloti uchun baravar javobgar, chunki, ularning birdan-bir maqsadi shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir. Bola shaxsini shakllanishida sog'lom oilaviy muhit katta ahamiyatga egadir. Oilada ota-onalar o'rtasidagi o'zaro hurmat, ishonch va vafo-sadoqat bolalar quvnoq, xushchaqchaq o'sishlariga, normal tarbiyalanishlariga, xonadonda sog'lom muhit yaratilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oila a'zolari hurmatini o'rniga qo'yishlari, bir-birlari uchun jon kuydirishlari, yaxshi munosabatda bo'lishlari kerak. Oilada hamisha samimiyat va ko'tarinki ruh hukmron bo'lsa, oila a'zolarining kayfiyatiga ijobiy ta'sir etadi. Qaysi oilada nohaqlik, qo'pollik, do'q po'pisa, asabiylik, hukmron ekan, unda halovat ham bo'lmaydi. Oiladagi arzimagan janjal ham dastavval bolalarning psixik holatiga ta'sir qiladi, ularda yomon odatlar hosil bo'lishiga olib keladi. Bolalar ulg'aygach, ular ham qush uyasida ko'rganini qiladi qabilida ish tutishadi. Ota-ona bir-birini behurmat qilmasligi, obro'larini tushirmasligi, oilaviy nizolarni bola yo'q vaqtda bartaraf etishlari shart. Bola yomon yoki yaxshi xulqli, fe'l atvorli bo'lib tug'ilishmaydi. Uning o'sib borishi jarayonida oila muhiti, ota-onaning, kishilarning, atrof-muhitdagi munosabatlarning ta'siri hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oiladagi totuvlik, hamjihatlilik, bu o'zaro hurmat va yordam, shirinsuhanlik, mehnatsevarlik va to'g'rilik bolaga ijobiy ta'sir qiladi.

Yana bir narsani unutmasligimiz kerak tarbiyada har bir bolaning xulqiga, temperamentiga qarab munosabat, muomala qilishimiz lozim. Albatta bunda bolaning yoshi, jinsi, aqli, farosati, xullas, hammasini hisobga olish darkor. U hali bola degan fikrni unutib, bola boshidan degan fikr bilan tarbiyalab borish kerak.

Shunday ekan farzandlarimizga yoshligidan katta e'tibor berishimiz lozim. Yana biz tarbiya haqida gapirar ekanmiz, bunda nafaqat ota-onaning, balki mahallaning ham o'rni muhimligini aytib o'tishimiz joizdir. Biz bilamizki hamma narsa mahalladan boshlanadi. Yoshlar tarbiyasi ular ma'naviy kamolotining samarali yo'llaridan biri davlat huquq-targ'ibot organlari, xalq ta'limi tizimi hamda mahallalarning jamoat tashkilotlarining yaqin hamkorligidir. Bo'lg'usi kelajakda jamiyatimizda komil insonni tarbiyalashga har bir oila, mahallaning ahamiyati katta. Yosh avlodni yaxshi xulqli, yurtiga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, xarakteriga alohida ahamiyat berish kerak, chunki bularsiz tarbiyada maqsadga erishib bo'lmaydi. Yosh avlodni tarbiyalashda "oila, mahalla, maktab hamkorligi" konsepsiyasi jarayonida ularning har bir vazifalari bor. Masalan: -avvalambor oilada sog'lom muhitni rivojlantirish, bir-birlariga g'amxo'r bo'lish, farzandlariga dunyoviy bilimlar berish, ma'naviyatli inson bo'lib yetishish: -bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish va vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish: -bolalarning bo'sh vaqtlarida qo'shimcha ta'lim berish: -mahalla faollari bilan bolalarning ta'lim-tarbiyasiga oid majlislar o'tkazib, muammolarni hal etish: -mahalla tomonidan o'quvchilarga ko'rik tanlovlar, bayram, sport musobaqalarni o'tkazish.

Shu o'rinda aytib o'tishimiz joizki A. Avloniyning: "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" iborasi oila, maktab, mahalla, tamoyiliga aylanishga erishildi. Hozirgi kunda bolalarning tarbiyasiga mahalla, jamoatchilik juda katta yordam ko'rsatmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodni tarbiyalashda asosiy ta'lim-tarbiya o'chog'i bu maktabdir. Maktabga turli xil oiladan turli xil xulq-atvordagi o'g'il-qizlar kelishadi. Bulara maktabning qonun va qoidalariga ko'nikma hosil qilish, jamoa bilan birga bo'lish odatini shakllantirish juda qiyin hisoblanadi. Ana shu narsa oila bilan maktab hamkorligida o'tkazilsa, bolalar xulqidagi salbiy xususiyatlarni bamaslahat hal qilishsa, tarbiyasi yomon o'quvchi bo'lmaydi.

Maktabni oila bilan bog'lovchi vosita bu o'qituvchidir. O'quvchilar bilan ishlash, ularning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ijtimoiy faolliklarini ta'minlash orqali ota-onalarga ta'sir ko'rsatish usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu borada maktab va oila aloqasini ta'minlovchi ota-onalar majlislari, bolalar tarbiyasiga aloqador muammolarni jamoa bo'lib hal etish kabilarning rolini inkor etib bo'lmaydi. Jumladan, "Bolangiz qanday o'qishini bilasizmi?", "Bolangizning odobi haqida suhbatlashaylik.", "Mustaqil hayot bo'sag'asida" kabi mavzularda olib boriladigan suhbatlar ota-onalarning

o'z bolalari haqida, ularning kelajagi haqida qayg'urishlariga sabab bo'ladi. Maktabda o'qitiladigan darslar, ularning mazmuni va eng asosiysi, shu ma'lumotni o'quvchiga etkazib beruvchi o'qituvchi xulq-atvori, kiyinishi, hattoki har bir xatti-harakati ham bola dunyoqarashi shakllanishiga ta'sir etuvchi omildir. Bola insoniy xislatlarni: ezgulik, odamiylik, yaxshilikni ham, yomonlikni ham, eng avvalo, oiladagi kattalarning, ustozlarining xatti-harakatidan o'rganadi. Ota-onalar bilan bir qatorda tarbiyachi o'qituvchilar o'z xulq-atvori bilan bolalar hurmatiga sazovor bo'lishlari, ularning hayot yo'lida o'rnak ko'rsatishlari kerak. Shunday muhitda tarbiyalangan bolagina ota onani, qolaversa o'z ustozlarini hurmat qiladigan, mahalla-ko'yda o'zidan kichikni izzatlash, kattalarni hurmatlashni o'z o'rniga qo'yadigan, xalqparvar bo'lib voyaga yetishadi. A.S.Makarenkoning fikricha, o'qituvchi muloqoti hurmat va talabchanlikka asoslangan munosabat shaklida bo'lishi lozim. V.D.Suxomlinskiy "o'qituvchining...maktab hovlisida gapirgan har bir so'zi puxta o'ylangan, aql va mulohazalarga boy, ma'lum bir tarbiyaviy maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak", - deb ta'kidlaydi. Har bir so'zi olimning fikricha, nafaqat o'quvchi qulog'iga aytiladi, balki uning qalbiga ham qaratilgan bo'lishi shart. Umuman, ilg'or o'qituvchilarning fikricha, ta'lim va tarbiya faqat o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorlik pozitsiyasi asosidagi muloqot jarayonida quriladi. Pedagog va psixolog olimlarning ko'p yillik ilmiy izlanishlari, kuzatishlari va ilmiy tajribalariga asoslangan holda o'qituvchilarning rahbar sifatida sinf jamoasini boshqarishida qo'llaydigan muloqot uslublari quyidagicha tavsiflanadi:

1. Avtoritar uslubda faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar - o'zi yakka holda guruh faoliyatining yo'nalishlarini belgilaydi; o'zi o'quvchilarga ko'rsatmalar va buyruqlar beradi; ta'lim-tarbiyaviy jarayonga javobgarlikni o'z zimmasiga oladi: o'quvchilarning unga so'zsiz bo'ysunishini da'vo qiladi; qattiq intizom asosida ish olib boradi; topshiriqlarning to'liq bajarilishini talab qiladi; gap qaytargan, fikr bildirgan o'quvchini yoqtirmaydi; aytgan tashakkuri ham buyruqdek chiqadi, so'zlari qattiq va qo'pol o'quvchilarga biror muammoni to'liq tushuntirmasdan talab qiladi. O'qituvchi muloqotining ushbu uslubda boshqarilishi sinf jamoasini tarqoqlikka, hamjihatlikning buzilishiga olib keladi.

2. Demokratik uslubda faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar. - pedagogik faoliyatida sinf jamoasining fikr-mulohazalariga tayanib ta'lim tarbiyaviy ishlarni tashkil etadi: bildirishlariga imkoniyat yaratadi; muloqot jarayonida o'quvchilar fikr-mulohazalarini inobatga olib, pedagogik faoliyatida qo'llaydi: muloqotga kirishishning asosiy shakllari: iltimos, maslahat berish, samimiy muomala.

3. Liberal uslubda faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar. - tashabbussiz, eski qolipda pedagogik faoliyat olib boradi; sinf jamoasining tarbiyaviy faoliyatiga aslo aralashmaydi; ta'lim-tarbiyaga oid muammolarga yuzaki qarab chiqadi; o'z mustaqil fikriga ega emas, javobgarlikdan o'zini olib qochadi; o'quvchilarga berilgan topshiriqlarning natijalari bilan qiziqmaydi; o'quvchilar kelajagiga,

taqdiriga e'tiborsiz, beg'am qaraydi; o'z pedagogik faoliyatiga sovuqqonlik bilan munosabatda bo'ladi. O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti samarali bo'lishi uchun suhbatdoshni o'ziga moyil qilib olish zarur. O'zaro moyillikka erishish uchun amalda qo'llanilib kelinadigan bir qator murakkab bo'lmagan pedagogik ta'sir etuvchi usullardan foydalaniladi. Ularning eng muhimlari o'quvchi ishonchini qozonish hamda ta'sir etish va ma'qullash usullaridir. Ishonchini qozonish usuli o'quvchilar bilan muloqot asosida ta'sir ko'rsatishning yuqori samara beradigan usulidir. U o'quvchi ongiga qaratilgan bo'lib, idrok qilish orqali o'quvchilar ishonchini qozonishni va ularning roziligini nazarda tutadi. Ishonchini qozonish dalillash, isbotlash orqali olib boriladi. Ishonchini qozonish usuli muloqot dasturi sifatida darsdan tashqari jarayonlarda, o'quvchi bilan yakka holda suhbatlarda, ma'naviy-tarbiyaviy soatlarda qo'llaniladi. Ishonchini qozonish usuli yordamida o'qituvchi o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantiradi, ularda o'z o'zini tarbiyalashga nisbatan javobgarlik hissini o'stiradi. Ta'sir etish va ma'qullash usuli muloqotning umumiy jarayonidir. Ikki suhbatdoshning bir-birlariga ta'sir ko'rsatishlari, tarbiyaviy maqsadni ma'qullashtirish vositasi sifatida o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ushbu usul vositasida o'qituvchi o'quvchi ruhiyatiga va xulq-atvoriga tarbiyaviy maqsadni ko'zlab sezilarsiz ravishda psixologik ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi psixikasiga nazoratsiz kiradi. Ushbu usul muloqot jarayonida o'qituvchi o'quvchilarda axloqiy-irodaviy hislatlarni faol takomillashtiradi. O'qituvchi xushmuomalaligi, mahorat odobining cheksiz qudrati bilan o'quvchilar psixikasining anglanmagan qirralariga pedagogik ta'sir etadi, o'qituvchi va o'quvchining yaqindan muloqotda bo'lishini, bir-birlariga ishonchini, topshiriqlarni ma'qullab vaqtida bajarish uchun javobgarlik hissini shakllantiradi. Biz oila ma'naviyati haqida fikr yuritar ekanmiz, xulosa o'rnida uning ehtiyoj, manfaat va mafkuraviy jarayonlar bilan bog'liq yana bir jihatini, ya'ni tarbiya jarayonida yoshlar va o'smirlarning ruhiy ehtiyojlarini inobatga olishni ham unutmazlik kerak. Ayni mana shu ehtiyojlar tufayli ya'ni, oila, maktab va mahalla bilan birgalikda olib boriladigan ishlar samarasi ancha yuqori bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. М.Т.Усмонов (2021). Вычисление предела функции с помощью ряда. «Science and Education» Scientific Journal, Том-2, 92-96.
2. М.Т.Усмонов (2021). Примеры решений произвольных тройных интегралов. Физические приложения тройного интеграла. «Science and Education» Scientific Journal, Том-2, 39-51.
3. Усмонов,М.Т. (2021). Вычисление двойного интеграла в полярной системе координат. «Science and Education» Scientific Journal, Том-2, 97-108.
4. М.Т.Усмонов (2021). Криволинейный интеграл по замкнутому контуру. Формула Грина. Работа векторного поля. «Science and Education» Scientific Journal, Том-2, 72-80.

5. М.Т.Усмонов (2021). Правило Крамера. Метод обратной матрицы. «Science and Education» Scientific Journal, Том-2, 249-255.

6. OILA PEDAGOGIKASI, (o'quv qo'llanma) (5110900-Педагогика ва психология) ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI M. ISHANOVA Andijon-2019(126-134-b)

7. TIBBIYOT PSIXOLOGIYASI, O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 5720100-«Davolash ishi yo'nalishi» bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun darslik sifatida tavsiya etilgan, Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2012 ZARIFBOY IBODULLAYEV (25-29- b) "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.567 (SJIF) November 2022 / Volume 3 Issue 11 www.openscience.uz / ISSN 2181-0842 736

8. PEDAGOGIK MAHORAT, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 21-oktyabridagi 396-sonli buyrug'iga asosan 5140800 - "Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi" ning talabalari (o'quvchilari) uchun darslik sifatida tasdiqlangan. (Guvohnoma №396-19) Toshkent «IQTISOD MOLIIYA»2011A.XOLIQOV(127-128-b)

9. OILA PSIXOLOGIYASI, Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma «SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT-2008 (B. Shoumarov, I. O. Haydarov, N. A. Sogunov, F. A. Akramova, G. Solihova, G. Niyozmetova (177-178-b)

10. OILA PEDAGOGIKASI, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan, TOSHKENT-2007 O.Hasanboyeva,D.Xoliqov...(116-121)

KASB HUNARGA YO'NALTIRISHDA UMUMIY O'RTA TA'LIMNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich

*Termiz iqtisodiyot va servis
universiteti katta o'qituvchisi p.f.f.d (PhD)*

Ma'lumki, ta'lim-tarbiyada boshlang'ich sinflar ta'limi alohida bosqich bo'lib, bu davr bola shaxsini eng jadal rivojlanish davri hisoblanadi. Chunki 5-6 yoshdagi 10-11 yoshgacha bo'lgan davrda bola shaxsi yetuklik va o'smirlik davriga zamin yaratadi. Ayni shu davr bola shaxsining ko'rish, kuzatish, idrok etish, tassavur va tafakkur qilishga o'rganish jarayonidagi eng shiddatli bosqich bo'ladi. Shu boisdan ham boshlang'ich sinq o'qituvchilari tayyorlaydigan pedagogika o'quv yurtlari o'quv rejalari va dasturlarining bugungi kun talabi darajasida bo'lishiga e'tibor qaratish lozim.

Bugungi kunda kasb-hunar maktablari o'quvchilariga o'z ixtisosliklari bo'yicha, chuqur bilim berish, pedagogik kadrlarning bilim va malakasiga bog'liq. Kasb-hunar maktablarida ta'lim berish davr talabidan kelib chiqib, pedagoglardan, ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash

zamonaviy bilim va ko'nikmalarini o'quvchilar ongida shakllantirish, o'z kasbiga fidoyi bo'lish va malakasini uzluksiz ravishda oshirib borish talab etiladi.

Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturining asosiy tamoyillari va maqsadli vazifalari sifatida maktab ta'lim tizimini tubdan yangilash; eng yuqori zamonaviy talablarga mos keladigan o'quv-moddiy bazasi va ta'lim standartlarini shakllantirish;

Yashash joyidan qat'iy nazar, qishloq va shahar maktablarining moddiy bazasi hamda ta'minlanish darajasidagi tafovutlararini bosqichma-bosqich bartaraf etish asosida bolalarni ta'lim olishi uchun tinch shart-sharoitlar yaratish, o'qituvchilarning mehnatini har tomonlama rag'batlantirish belgilab berilgan.

Kasb tanlashga yo'llashning maqsadi–bo'lajak o'qituvchilariga o'quvchilarni jamiyatning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislariga bo'lgan talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda kasbga yo'naltirishning eng samarali yo'llarini ishlab chiqish va o'rgatishdan iborat.

Kasb tanlashga yo'llashning vazifalariga:

- kasb tanlashga yo'llashning nazariy asoslari va asosiy tamoyillarini o'rganish hamda o'rgatish;
- uni amalga oshirishning shakl va usullari kasb tanlashning eng samarali yo'llarini ishlab chiqish;
- kasb tanlashga yo'llash tizimlari va bosqichlarini o'rganish;
- kasb tanlashga yo'llashda ota-onalar, o'quv yurti va ishlab chiqarish korxonalarining hamkorligi kabilar kiradi.

Oliy ta'lim davlat standartiga asosan talabalar fanni o'zlashtirish jarayonida quyidagilar haqida tushunchaga ega bo'lishi, bilim va ko'nikma hosil qilishi zarur.

- ta'lim to'g'risidagi qonunda kasb tanlashga yo'llash
- kasb tanlashga yo'llash tizimi: kasbiy maslahat, dastlabki kasbiy tanlov, kasb tanlashga yo'llash bo'yicha tashxis (diagnostika), kasbiy tarbiya va kasbga ijtimoiy moslashish.
- kasb tanlashga yo'llash bosqichlari.
- o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashda oila, mahalla, maktab, maktab psixologi, sinf rahbari, tashxis markazi, kasb-hunar maktabi, akademik litseylar hamkorligi.
- qishloq xo'jaligi tarmoqlarining asosiy yo'nalishlari bo'yicha istiqbolli kasblarga o'quvchilarni yo'llashni amalga oshirish.

Mehnat va kasbiy tayyorgarlik tizimi bevosita yoshlarning mehnat va kasb tarbiyasini kasbiy axborotlar, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshiradigan ulkan ishlardan biri bo'lib, o'z o'tmish taraqqiyotiga egadir. Xalqimizning millat, elat bo'lib shakllanishini mehnatsiz, kasblarsiz, hunarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Odamzod paydo bo'lishidan boshlab mehnat bilan shug'ullangan. Turmush buyumlari yasagan, yumushlar bajargan. Dastlab faqat kun kechirish uchun qilingan mehnat keyinchalik, kattoroq

maqsadni, moddiy manfaat ko`rish uchun amalga oshirilib hatto, X asrlarda yirik harbiy qo`shinlarni, millionlab xalqlarni buyumlar, anjomlar bilan ta'minlay oladigan ishlab chiqarish sohalari darajasigacha taraqqiy etdi.

XII-XV asrlarda Movarounnaxr va Xurosonda hunar ilmi, ko`lami rivojlanishi eng yuqori pog`onaga ko`tarildi. Har bir xalq ota-bobosidan meros bo`lib, avloddan-avlodga o`tib kelayotgan o`zining tarixiy-madaniy birligi bilan ajralib, o`ziga xos-xususiyatlarni saqlab kelgan. O`zbeklar ham shular jumlasidandir. Respublikamiz xududida o`tkazilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, hunarmandchilik bu erlarda ikki ming yillar oldin rivojlangan. Bu davrda sinfiy jamiyat paydo bo`lib, yirik mehnat taqsimoti negizida hunarmandchilik mustaqil soha bo`lib ajralib chiqqan.

IX-XII asrlarda hunarmandchilik keng rivojlanib, xalqimizning xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalari avj olgan. Ayrim manbalarda qayd etilishicha, 32 xil hunar turi mavjud bo`lgan aholi yashaydigan joyni shahar deb atashgan. 1897 yili birinchi aholi ro`yxati vaqtida katta shaharlarda aholining ko`pchilik qismi hunarmandlar hisoblangan. Masalan, Namangan aholisining 64 foizi, Qo`qonning 52 foizi, Chustning 54 foizi, Marg`ilonning 50 foizi, mustaqil kasb-hunar egasi hisoblangan.

Hunarmandchilikning qadimiy davrlarda eng ko`p tarqalgan turi temirchilik, zargarlik, misgarlik va tunukasozlik bo`lgan. Hozirgacha keng tarqalgan qadimiy kasblardan biri yog`och buyumlari yasash hunarmandchiligidir. XX asr boshlarida tikuv mashinalarini paydo bo`lishi bilan yangi hunarmandchilik kasbi - mashinachilik yuzaga keladi. O`zbeklarning eng keng tarqalgan uy kasblaridan biri do`ppido`zlikdir. Bulardan tashqari, hunarmandlar teridan har xil buyumlar yasaganlar, poyafzalchilar o`z mahsulotlarini shahar va qishloqlarda yurib aholiga sotganlar. Nonvoylik, qandolatchilik va qassoblik ham kasblardan bo`lib ularning do`konlari har qadamda uchragan. Katta to`y-ma`rakalar o`tkazish odati maxsus oshpazlik kasbini yuzaga keltirgan.

Sharqning buyuk mutafakkirlari va allomalari deyarli barcha davrlarda o`z asarlarida, she`r va g`azallarida, adabiy meroslarida halol mehnatni, kasb-hunar egallashni muqaddasligini va zarurligini ta`kidlab, ulug`lab o`tganlar.

Ulug` bobokolonimiz A.Navoiy o`z g`azallarida yoshlarni ilm-hunar egallashga chaqiradi.

Ilm kasbini qildi to joni bor,

Hunar o`rgandi onga ki imkoni bor.

X asrda yashab ijod etgan ulug` bobokolonimiz Abunasr Al-Forobiy (870-950) ham kishilarni halol mehnat qilishga va kasb-hunar egallashga chaqiradi. Forobiyning fikricha, inson - ***"Ojiz banda", "Hech narsaga qodir bo`lmagan mavjudot" emas, balki u eng oliy kamolot bo`lib "Aql-idrok ziyosiga ega, o`zi uchun zarur bo`lgan hamma narsani yaratishga qodir borliqdir"***. Forobiy mehnat va kasb - hunar ko`nikmalarini axloqiy fazilatlarini hosil qilish lozimligini ta`kidlab: "Agar kasb-hunar fazilati tug`ma bo`lganda, podshohlar ham o`zlari istab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy

ravishda muyassar boʻlgan, tabiat talab qilgan tabiiy bir majburiyat boʻlib qolar edi. Kasb-hunar fazilati tugʻma boʻlmas ekan, xalqlar va shahar ahllarida, odob-axloq, rasm-rusm, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilishi uch insondagi zoʻr kuch va qudrat talab qilinadi. Bu ikki yoʻl bilan: ya'ni ta'lim va tarbiya yoʻli bilan hosil qilinadi. Ta'lim degan soʻz xalqlar shaharlar oʻrtasida nazariy fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlari birlashtirish degan soʻzdir" degan edi .

Kasb-hunar egallashni ahamiyati toʻgʻrisida qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino (980-1037) ning asarlarida ham koʻramiz. Uning fikricha bolaga yoshligidan biror kasb-hunarni oʻrgatish lozim. Bola kasb-hunarni ma'lum darajada oʻzlashtirib boʻlgandan soʻng oʻz kasb-hunaridan hayotda foydalanish, yani halol mehnat bilan mustaqil hayot kechirishga oʻrgatish kerak. **"Yoshlarga ilm bera borib, ularga hunar oʻrgatmoq muhim ma'suliyatli ishdir. Hunar oʻrganish birla yoshlar har qanday nojo'ya hatti-harakatlardan holi bo'ladilar"**, deb ta'kidladi. Hunarli boʻlishga chorlangan nasihatlar hozirgi kunda ham muhim qimmatga ega: **Oltin olmaginu oʻrgangin hunar Hunarni oldida xasdir oltin zar.** Sharq, Markaziy Osiyolik mutafakkirlar hamda oʻzbek marifatparvar shoirlari ham kasb-hunar egallashni ahamiyati toʻgʻrisida oʻz asarlarida qimmatli maslahatlarini qoldirganlar, bu meros hozirgi kunda ham yoshlarni kasb-hunarga yoʻnaltirishda muhim ahamiyatga ega. Tabiat va jamiyat hodisalari, ishlab chiqarish jarayonlari koʻpincha shu qadar murakkabki, bularni bir ilm-fan doirasida tavsiflash mumkin emas. Maktabda oʻrganilayotgan koʻpgina fakt va qonunlar oʻzaro bogʻliq holda aniq roʻyobga chiqarilgan taqdirdagina oʻzlashtirilishi mumkin. Misol uchun kasbga yoʻnaltirish masalasini olib koʻraylik. Muammoning muhimligi yoshlarni kasbga yoʻnaltirishga oid bir qancha amaliy masalalarni shoshilinch ravishda hal qilishning zarurligi hozirgi vaqtda koʻplab mutaxassislar pedagoglar, psixologlar, vrachlar, iqtisodchilar, sotsiologlar va gʻoyat xilma-xil sohalarda ishlovchi amaliyotchi xodimlarning eʼtiborini oʻziga jalb etdi. Bu borada koʻplab mutaxassislarning ishtirok etishi va ish olib borishi muammoni toʻgʻri va kompleks tarzda hal etish uchun zamin va sharoitlar yaratib beradi, albatta. Shu bilan birga bu mutaxassislarning har biri toʻla aniq maʼlumot olgan, muayyan ish tajribasiga ega xodimlardir. Shu boisdan ular kasbga yoʻnaltirish sohasidagi oʻz faoliyatida oʻzlariga maʼlum boʻlgan metodlarga, muammoga yondashuv usullariga hamda idrok qilish uslubi va shu kabilarga tayanadilar. Bu esa baʼzan ularda tushunchalarning ayrim atamalaridan foydalanishda ziddiyatlar tugʻdiribgina qolmay, kasbga yoʻnaltirish maqsad va vazifalarining qoʻyilishida bir qancha amaliy masalalarini tushunib olishda bu borada yakdillikning buzilishiga ham olib kelmoqda. Shu sababdan ham kasbga yoʻnaltirishga oid bilimlar mazmunining yagona tizimini hamda kasbga yoʻnaltirish metodologiyasini ishlab chiqish kasbga yoʻnaltirish sohasida bundan buyon muvaffaqiyatli ish olib borishning muhim shartidir.

Maktab oʻquvchilarini kasbga yoʻnaltirish muammosiga oid eʼlon qilingan asarlarning tanqidiy tahlili va ommaviy maktablar tajribasini umumlashtirish

asosida o'quvchilarning e'tiborini yosh avlodga mehnat tarbiyasi berish va ularni kasbga yo'naltirishga doir yetarli darajada yaxshi ishlab chiqilmagan bir qancha muammolarga alohida e'tibor qaratish lozim. Bular:

a) yuqori sinflarning o'quvchilarini ishchi kasblarini hisobga olib, umumta'lim maktablari uchun kasbga yo'naltirish tadbirlarini ishlab chiqish;

b) mintaqa sharoitlarini, milliy an'analarini hisobga olib, umumta'lim maktablari uchun kasbga yo'naltirish tadbirlarini ishlab chiqish;

v) kasbga yo'naltirish vazifalarini amalga oshirish bilan 5-7; 8-9; 10-11 sinflar o'quvchilarning umumiy mehnat, politexnik yo'nalishi va kasbiy tayyorgarligi o'rtasida uzviy aloqaning yo'qligi muammolaridir.

O'rta Osiyo mintaqalari uchun yetarli darajada nazariy va amaliy jihatdan ishlab chiqilmagan ana shu muammolarni hal qilish kerak bo'ladi. Bu masalalarda mamlakatimiz paxtachilik o'lkasining mintaqa xususiyatlarini, milliy an'analarini va tarixiy tajribasini hisobga olish lozim bo'ladi. Ikkinchi tomondan esa fan-texnika taraqqiyotining hozirgi talablari asosida maktab yoshlariga mehnat tarbiyasi berish va ularni ishchi kasblarini egallashga yo'naltirish shakl va metodlarini takomillashtirishniig yangi yo'llarini qidirishga to'g'ri keladi.

Kasbga yo'naltirish ishida iqtisodiy muammolar muhim o'rin tutadi. Bular orasida xalq xo'jaligini rivojlantirish va kadr muammolari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu masalalarni kasbga yo'naltirish jihatlari bilan o'zaro bog'liq tarzda talabalarning mustaqil mashg'ulotlarida ko'rib chiqishi tavsiya etiladi.

Hozirgi fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida yosh avlodni jamiyat barpo etishda faol qatnashishga tayyorlashi lozim bo'lgan maktabning roli har qachongidan ko'ra o'sdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2016. – 56 b.

2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik–har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 104 b.

3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.

4. Turg'unov A.A. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida yuqori sinf o'quvchilarini kasb–hunarni mustaqil tanlashga tayyorlashning tashkiliy–pedagogik tizimini takomillashtirish. Ped.f.f.d. (PhD) diss. – Nukus, 2018.

5. Xolmatov P. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb–hunarga yo'llashning tavsiya etilayotgan texnologiyaci: Ped. fan. nom. ...diss. – Toshkent, 2004. – 134 b.

6. Xolmatov P.Q. O'quvchilarni kasb–hunarga yo'llash texnologiyasi. Monografiya. –Toshkent. "Fan", 2006.

7. Xolmatov P.Q., Raximov B.X. O'quvchilarni kasb–hunarga yo'llash texnologiyasi. –Toshkent: "Fan". 2006.

8. Xudoynazarov T.A. Sharq allomalarining yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish to'g'risidagi mulohazalarining bugungi kundagi o'rni. J. Maktab va hayot. 2004. №2.

9. Shomirzaev M.X. Maktab texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikning spektral-variativ komponentlarini fanlararo takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik (DSc) diss. – Toshkent, 2021. – 219 b.

10. Sharipov Sh. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti / Dis. ... ped. fan. nom. – T., 2012. –307 b.

11. Sharipov Sh. Shaxsni kasbiy-ijodiy rivojlantirish texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari // "Maktab va hayot", 2005. – №8.

PEDAGOGIK JARAYONLARDA TOLERANTLIK TUSHUNCHALARI

*Aytbaeva Gulchehra Yermekbayevna
Guliston davlat universiteti, rus tili va adabiyoti kafedrasi
qozoq tili va adabiyoti o'qituvchisi*

Annotasiya: Ushbu maqolada tolerantlik tushunchasi va uning hozirgi kunda o'ta muhim ahamiyat kasb etishi, shu bilan birga pedagogik tolerantlik o'qituvchi shaxsining kasbiy muhim sifatlaridan biri ekanligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tolerantlik, bag'rikenglik, pedagogik tolerantlik, inson manfaati, hamjihatlik.

Malakatimizda olib borilayotgan keng ko'lami islohotlar markazida, avvalo, inson manfaati, uning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadi turadi. Fuqarolar manfaatlarini faqatgina tinchlik va osoyishtalik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini yaratish orqali ta'minlash mumkin. Ma'lumki, bag'rikenglik g'oyasi – turli millat va elatlar vakilining bir zamin, bir Vatanda olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi. Qadim-qadimdan milliy qadriyatlarimiz ezgulik g'oyalariga asoslanib, yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi fazilatlarga tayanib kelgan. Odamlarni halollik, poklik, mehr-oqibat va bag'ri-kenglikka chorlagan.

Mustaqillik sharofati bilan 130-dan ortiq millat va elat vakillari yashaydigan O'zbekistonda turli millat va elat vakillari farovon yashashi, osoyishta hayot kechirishi uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Etnik munosabatlar va din sohasida olib borilayotgan izchil va oqilona siyosat tufayli mamlakatimizda millataro totuvlik, dinlar va konfessiyalararo hamkorlik qaror topdi. Konstitusiyamizda "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar" degan tamoyilning mustahkamlab qo'yishi esa, bu boradagi ishlarning qonuniy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Ko'pgina madaniyatlarda "bag'rikenglik" tushunchasi "tolerantlik" so'zining o'ziga xos sinonimi hisoblanadi: lotincha – *tolerantia*; inglizcha – *tolerance*; nemischa – *tolerance*; frantsuzcha – *tolerance*. Bundan tashqari, barcha lug'atlar bag'rikenglikning to'g'ridan-to'g'ri tolerantlik sifatida talqin qilinishini aniq ko'rsatadi.

"Tolerantlik" so'zi o'zbek tilining deyarli barcha lug'atlarida mavjud. Xususan, "O'zbek tilining izohli lug'atida" "tolerantlik" (lotincha – *tolerantia* – *sabr, toqat, chidam, bardosh*) – o'zgalarning fikr-g'oyalari, e'tiqodi, his-tuyg'ulari, turmush tarzi, his-tuyg'ulariga nisbatan sabr-toqatli bo'lish, beparvo qarash, bag'rikenlik sifatida izohlanadi.

O'zbekistonda bag'rikenglik tushunchasi XX asrning 30-yillari o'rtalaridan boshlab matbuotda qo'llanila boshlandi, u XX asrning 90-yillari boshlarida yana paydo bo'lgunga qadar siyosiy lug'atlarda o'z aksini topmadi.

"Bag'rikenglik"dan farqli ravishda zamonaviy tilda bu so'z inglizchadan olingan: "toleranse" – ijobiy tan olishga tayyorlik, boshqalarning xatti-harakatlari, e'tiqodlari va o'zingiznikidan farq qiladigan qarashlarini qabul qilishni anglatadi. Tolerantlik tushunchasi o'z tarkibiga chidam, bardosh, o'zgalarning hayot tarzi, fikrlashi, xatti-harakati, qadriyatlariga toqat qilish, ularga hurmat nazari bilan qarash, atrofdagilarni kamsitmaslik kabi tushunchalarni qamrab olgan.

O'zbekiston ko'p millatli davlat, bu erda asosiy millat o'zbeklar bilan birga o'z madaniyatiga va an'analariga ega bo'lgan yuzdan ortiq millat va elatlar yashaydi. Ana shunday sharoitda, ko'pmillatli jiplashgan davlatni barpo etishda, millataro va elatlararo bag'rikenglikka erishish siyosatining ahamiyati benihoya kattadir. 1995 yilning 16 noyabrida tolerantlikni har tomonlama qo'llab-quvatlash maqsadida YUNESKO "bag'rikenglik tamoyillari deklarasiyasi"ni qabul qilgan. Jamiyatda turli xalqlar, millatlar va dinlarning o'ziga xos xususiyatlariga nisbatan tolerantlik munosabatini O'zbekiston misolida ko'rish mumkin.

Pedagogik tolerantlik o'qituvchi shaxsining kasbiy muhim sifatlaridan biri bo'lib, u boshqa odamni qabul qilish, uni tushunish, hamdardlik bildirish qobiliyatini anglatadi va o'quvchilar hamda hamkasblar bilan ochiq va maxfiy muloqotda namoyon bo'ladi.

Tolerantlikning asosiy maqsadi o'quvchi-yoshlarga bag'rikenglik, o'zga din, millat vakillariga hurmat, ularning qadriyatlarini e'zozlash, milliy boylıklariga hurmat bilan qarash, toqatlilik, o'zgalarga hurmat nazari bilan qarash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarda tolerantlikni tarbiyalashda esa, tarbiyachining o'rni beqiyos hisoblanadi.

Pedagogik jarayonlarda tolerantlik tushunchalarini talaba-yoshlarda shakllantirish bugunning pedagogikasining oldida turgan eng birlamchi masalalaridan biri. Murojaatnomadagi fikrlarda ham bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan ishlarning sifatiga urg'i berilgan kelajak avlod tarbiyasida bag'rikenglikni kamol topdirish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tolerantlik – o‘zligini anglagan millat vakillarini boshqa millat vakillarining kamsitishiga yo‘l qo‘ymaslik, ular bilan tinch-totuv hayot kechirishdir. Tolerantlik tuyg‘usi insonning xulq atvori, odob-axloqi, siyosiy-ma’naviy pokligi, o‘z xalqiga va milliy-tarixiy qadriyatlariga munosabatini belgilab beradi. Bu xususiyatlar esa har bir insonda bag‘rikenglik, baynalmilallik tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Aytbayev D.T. Intonatsiya lisoniy faktor sifatida. Ta‘lim va innovatsion tadqiqotlar. // Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. - Buxoro. 3/2023. 92-94-betlar;
2. Aytbayev D.T. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (Ijtsrd) International Science journal. Wydawnictwo Naukowe "Science". Polsha. 2021-yil;
3. Bakiyeva H.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil ta‘lim orqali nutq va tafakkurni rivojlantirish metodikasi. Monografiyasi. Toshkent, 2020;
4. Akramova G.R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tolerantlik tushunchalarini shakllantirishning didaktik asoslari. Dissertasiya. Toshkent. 2007;
5. Madaniyatshunoslik: oliy ta‘lim va kolledj talabalari uchun darslik. Almati: Raritet, 2005. – 416 bet. <http://sabaq.kz/7485/>;
6. Nuradilova A.D. Nutqiy savodxonlikni rivojlantirishda leksik birliklar semantikasining o‘rni. Муғаллим ҳам узликсиз билимлендириў. №3/2-2022 yil, -Б. 10-13;
7. G.E.Qo‘shoqova. Yoshlarda tolerantlik tafakkurini shakllantirishning pedagogik asoslari. Monografiya. – Toshkent: 2015, -B.130;
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi”. - Toshkent. 2005.

FORMATION OF SKILLS OF TEACHERS OF DIFFICULT TO LEARN CHEMISTRY TO USE THE “MOTIVATION” METHOD

Bozorova Sh.E.

Doctoral student of Karshi State University

Annotation: In this article, the measures to ensure teacher-student harmony in order to develop the skills of teachers of concrete and technical sciences in the application of the "Motivation" method, improve their pedagogical skills, and organize the lesson process in a lively and exciting manner are described.

Keywords: integration, spiritual harmony, motivation, intelligence, emotional perception, intuition, soul frequency, enthusiasm.

Since the 80s of the 20th century, scientific works using such concepts as "integration", "reciprocity", "interaction", "synthesis" appeared in the field of pedagogy, and the problem of integration in educational work began to be relevant. Currently, the idea of an integrated approach to education is not

limited to specific subjects, but has become an issue of general pedagogical importance. The goal of pedagogy is to help teachers implement integration aimed at combining elements and parts of different subjects with one goal - tasks. Many years of observations have shown that elementary students, and later graduates, have difficulty learning one or another subject and learning other subjects, they lack the skills of independent thinking, similar to the acquired knowledge or transferring it to new situations.

Many higher education institutions, in particular, Karshi State University, Karshi Engineering and Institute of Economics, Tashkent Institute of Chemical Technologies, in the name of Mirzo Ulugbek at the National Universities of Uzbekistan "Physical chemistry", "Quantum chemistry", "Chemical technology", "Nanochemistry", "Oil and oil and gas processing" Classes of technical sciences such as observed. From the results of the analysis of the lesson, it became clear that the students and the professor during the lessons There was a lack of spiritual harmony and emotional unity between the teacher. Because he relies on the mind a professor demands intellectual superiority from the student. Maulana Rumi said about this: "Intelligence is unable to solve the most important problems of life." The professor could not solve the most important problem of "Spiritual harmony" in the course of the lesson. This has a significant negative impact on student activity and mastery, as well as on the quality of lessons.

What is spiritual harmony? True mastery, that is, the realization of the absolute truth, requires that the person becomes one with the body. In the course of the lesson Spiritual harmony is the emotional union of the teacher with the students. We proposed the "Motivation" method in securing such heartfelt union. But a professor is necessary to use this method must have skills. That is, in order to inspire students, the professor himself must have an inspiring soul. After all, how can we expect musical sounds from a soul that is not familiar with art?

In order for the professor to connect with the students in the course of the lesson, first of all, the professor's heart should feel the connection with the being. Music, art, and literature can ensure harmony with this being. That is, the professor himself should be a master of music, philosophy and art. Only then can the professor feel the music and the heart of the student. His Holiness Rumi said about this: "Nothing in the world can reveal the hidden powers of the human spirit like music and dance. Scientific debates separate people from each other, but dance and music unite them.

The language of love is as mysterious as the language of rubab,
It is the same for Turkish, Greek and Arabic".

In his speeches, President Sh.M. Mirziyoyev regrettably emphasized that Uzbekistan's scientists are not producing Nobel Prize laureates. Now let's analyze the main reason for the achievements of international Nobel laureates in science. What did these scientists have that we didn't have?

Representatives of the famous natural sciences of the 20th century - Albert Einstein, Max Planck, Niels Bohr, Werner Karl Heisenberg, Erwin Schrödinger, Max von Laue, Ilya Prigogine (all Nobel Prize winners) and others the need for humanitarian knowledge, philosophy, literature and art was an axiom for them. For example, Einstein loved classical music and playing the violin. He performed the works of Mozart, Bach, Handel. Another Nobel laureate, Max Plank, was seriously engaged in music and philosophy. Although he chose physics, he continued to practice music and even taught music theory. Another Nobel laureate in physics, Erwin Schrödinger, the author of a number of philosophical works, paid great attention to ancient Indian and Chinese philosophy, was interested in lyricism, and wrote poems. Alexander Borodin, the famous composer of the 19th century, the author of the opera "Prince Igor", was a doctor of medicine and a famous organic chemist. It is not known to everyone that Ilya Prigozhin, winner of the Nobel Prize in Chemistry, one of the founders of the science of synergetics, was a historian, art connoisseur, and pianist. The list can be continued for a long time. The weight of examples is so great that this not a coincidence: because for mathematicians, chemists, physicists, applied humanities and arts were the essence of life. But that's the reason what?

M.S. Norbekov, doctor of pedagogy and psychology said: "The mind divides us, and the heart unites us." It is known from modern quantum physics that music, dance, other types of art, literature, lyrics and any kind of creativity increase the frequencies of the human soul. A person with an increased heart frequency can easily understand the truth of things and this leads to making universal discoveries in science. A person with an increased heart frequency can easily understand the truth of things and this leads to making universal discoveries in science.

In conclusion, it can be said that universal discoveries are never specialized in a narrow field. The life path of great scientists shows that all of them were distinguished by a broad outlook, enthusiasm for activities not directly related to their specialty. Human thinking is logical, rational, systematic and conscious on the one hand, and intuitive, emotional and figurative on the other. In the true creative process it is both side are integrally connected to each other. Today, it has been proven that before the creation of a logical, mathematical or physical formula for solving the great problems of science, intuitive, integrated images have always been formed. Figurative thinking, the depth of imagination is enhanced by getting to know the world of literature and art.

Only a professor with an intuitive, emotional and figurative character can organize a lively, high-quality lesson and give something to students. After all, people can learn something only from the person they love. Maulana Rumi also emphasizes the futility of trying to understand with the intellect, the need to understand with the soul, the need to understand with the heart. From this point of view, if conditions are created for professors of higher education

institutions to express themselves in a wide range, free from pressures related to their field and the Ministry of Higher Education, the retraining of the leaders of the Higher Education Organization and the Pedagogical staff and their qualification it would be expedient if the institutes showed enthusiasm together. This can lead not only to an increase in the quality of education, but also to great success of professors and students as mature individuals.

References:

1. Зорников И. Н, Волкова Л. П. Проблемы и перспективы международной интеграции высшего образования. -Воронеж, 2009.
2. Radio Fish "Jalaluddin Rumi" Tashkent: Generation of the New Century - 2021.
3. Valery Khan "Do we need Einsteins?" gazeta.uz - 2020.
4. Norbekov S.M. "The way to find a million free tips" Tashkent: Literary Sparks – 2015
5. Azizkhojayeva N.N. Tashkent: Pedagogical technologies and pedagogical skills, 2006

BOLALAR MAVSUMIY QO'SHIQLARIDA POETIK JARANGDORLIK

Ilhom Shoymardonov Alixonovich

Termiz davlat universiteti o'qituvchi

Annotatsiya: Badiiy tasvir vositalarini “badiiy san’atlar”, “tasvir vositalari”, “she’r san’atlari” deb, ularning sifatlash, o’xshatish, mubolag’a kabi o’nlab turlari mavjud. Aslini olganda, har bir badiiy san’at namunasi ham o’ziga xos kashfiyot hisoblanadi. Bolaning so’z boyligini oshiradi, eshitganlarini qayta-qayta aytib berishga, boshqalar bilan o’rtoqlashishga qiziqish uyg’otadi. Shuni aytib o’tish kerakki, bolalar yaxshi tushunib olgan narsalarigina xotiralarida yaxshi saqlaydilar.

Kalit so’zlar: “Laylak keldi, yoz bo’ldi” mavsum qo’shiq, chumchuq, laylak, tulki, qaldirg’och, bug’doy, arpa, tariq.

Odamlar qadimgi davrlardan boshlab atrof muhitda, tabiatda ro’y berayotgan voqea-hodisalarga o’z munosabatini bildirib kelishgan. Bu munosabat, avvalo, turli harakatlar, tovushlar, ehtiroslar orqali amalga oshgan. Asta-sekin his-tuyg’ularni so’zlar va yuz-ko’zlari orqali ifodalaganlar. Shu tariqa odamlar o’zlaricha hayvonlar, o’simliklar, tog’lar, suvlarning paydo bo’lishi haqida to’qima hikoyalar o’ylab topib, yigitlar, qizlar muhabbat qo’shiqlarini kuylashgan.

O’zbek bolalar o’yin folklori bolalarning yosh xususiyatlari, o’g’il yoki qiz bola ekanligini hisobga olishi kerak. Negaki o’yin folklori namunalari ishtirokchilarga ko’ra uch turga bo’linadi:

Faqat o’g’il bolalar o’ynaydigan o’yinlar;

Faqat qiz bolalar o’ynaydigan o’yinlar;

O’g’il va qiz bolalar o’ynaydigan o’yinlar.

O'zbek xalqi ijodiyoti boyliklari ichida kattalardan bolalarga meros qoladigan qo'shiqlarning salmoqli turi mehnat qo'shiqlaridir. Xususan qadimdan bobo kasbi hisoblangan dehqonchilik bilan bog' qo'shiqlardir. Masalan, qushchi qo'shiqlari hajman kichik, aytishga asos:

Oq sigir, Ko'k sigir.

Qani tezkor bo'l, sigir.

Doni menga,

Somoni menga,

Xo'p, To'p.

Bola bu satrlarni bug'doy, arpa, tariq yanchayotgan xo'kizning yonida katta- katta odim tashlab, xo'kizni tashlab xo'kizni haydab, oftobda qorayib qora terga botib, xo'kizga ham bolasiga ham Bola qushchi otasi aytgan qo'shiqlarining hammasini yodlab qoladi. Keyinchalik mustaqil qo'sh haydab xirmon ko'tara boshlaganda uni o'zi ayta boshlaydi. Shunday qilib kattalar ishidan xati-harakatidan nusxa ko'chiruvchilar bolalarning aytib yurgan yod olib yurgan qo'shiqlari mehnatga kasb- hunarga aloqador she'riy lavhalardan iborat.

Masalan, poda kelishida quydagicha qo'shiq aytiladi:

Podalar kelar bosh-bosh,

Oyog'ida chag'ir tosh.

Chag'ir toshni olaylik,

Oyog'iga kishan uraylik.

Bolalar bahor havosining musaffoligi, tabiatining chiroyi, yomg'irlarning o'ynoqiligi, kamalakning serjilo va maftunkorligi hamda bahorga aloqador narsa-hodisalarni bolalar bemalol o'z tasavvurida umumlashtira oladi. Bolalarida poetik jarangdorlikni o'zida mujassamlashtirgan "Boychechek" qo'shig'i ham bor.

Boychechagim boylandi,

Qozon to'la ayrondi,

Ayrog'ingdan bermasang

Qozonlaring vayrondi.

Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,

Yumshoq yerdan yugurib chiqqan boychechak.

Boychechakni tutdilar,

Tut yog'ochga osdilar,

Qilich minan chopdilar,

Baxmal minan yopdilar.

O'rni kelganda aytish kerakki, bolalar qo'shig'ini o'yinlaridan, harakatlaridan, o'yinlarini esa qo'shiqlaridan, biror shoirona iboralardan ajratgan holda qarash mumkin emas. Masalan: qaldirg'ochga atalgan qo'shiqni bolalar ermak uchun aytadilar. Negaki, qaldirg'ochlarning havoda sho'xligini zavq bilan tomosha qiladilar, uy toqisiga qurgan guvala uylarini uzoq vaqt kuzatadilar, shu kichik "qo'rg'onning" sirli devorlaridan bosh tiqib narigi tomonni ko'rishni istaydilar.

Qaldirg'och, g'och, g'och,
Eshigingni och, och!
Eshigingni ochmasang,
Tuynugingdan tushaman,
So'k oshingni ichaman.
Kafan to'ning bichaman!

Qushlardan yana biri chumchuq. Bolalar chumchuq bilan juda yoshlikdan tanish. Uning bolalarini olib o'ynashadi, ekinlarni, uzum, olcha, gilolarini undan qo'riqlashadi–shunday munosabatlar ularni do'stlashtirgan. Shu sababli ham chumchuq haqida aytiladigan qo'shiqlar har xil-birida chumchuq yomonlansa ikkinchisida erkalaydi.

Chumchuq, chumchuq, chumchuq deng.

Labingdan uchuq, uchuq deng.

Chirillab uchsa tomlardan

Burning puchuq, puchuq deng.

Yoki:

Hay, hay chumchuq jajji qush

Shoxda turmay pastga tush...

“Laylak keldi, yoz bo'ldi” mavsum qo'shiqlaridan. Bu qo'shiq kunlarning isishidan, ekinlarning unishidan, qushlarning kelishidan, ariqlarda suvlarning to'lib oqishidan xabar berib, bola ko'nglida quvonch uyg'otadi.

Laylak keldi, yoz bo'ldi,

Qanoti qog'oz bo'ldi.

Laylak boradi toqqa,

Quloqlarida halqa

Halqasi tushib qoldi,

O'tirdi yig'lamoqqa,

Men Bobo hoji edim

Qizlarga boshchi edim.

Qizlar o'yin tushganda,

Men nog'orachi edim.

Nog'oram bir kun buzildi, *2022*

Tanoblari uzildi.

Qor buvaning dastidan

Qanotlarim suzildi.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirishda bolalar folklorining ertak, topishmoq, maqol mavsum-marosim qo'shiqlari namunalari g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, bayramlar ham o'ziga xos marosimlardan iborat. Bayramlarning oilaviy, siyosiy, internatsional, diniy kabi qator ko'rinishlari mavjud. Shu ma'noda Navro'z mavsum bilan bog'liq xalq marosimi fasl bayramidir. So'nggi yillarda matbuotda Navro'zga bag'ishlangan materillar ko'plab e'lon qilinmoqda. Ular orasida bolalar qo'shiqlari ham talaygina. Navro'zga bir necha kun ilgari tayyorgarlik ko'rishadi.

Bolalar folklorida bolalar mehnat qo'shiqlari orqali inson turmush munosabatlarini anglaganlar.

Yer yuzida qor ketdi,
Yur ho'kizim, ho'sh, ho'sh
Ekin ekar chog'i yetdi
Yur ho'kizim, ho'sh, ho'sh!

O'zbek xalqi tarixiga nazar tashlasak, bolalar ho'kiz yetalash, somon yanchish, kabi mehnatlar bilan shug'ullangan. Mehnat qo'shiqlari bolalar ruhiga yoshlikda singib, ularda mehnat va mehnat kishisiga hurmat hislarini tarbiyalagan.

Bolalar qo'shiqlaridan yana biri "Qo'riqchi qo'shig'i" bo'lib, yozda g'alla pishgan vaqtda zararkunanda qushlar himoya qilish maqsadida, dehqonlar tomonidan yog'ochdan qo'riqchi yasab, unga eski chopon va telpak kidirib, ekin dalasiga joylashtirilgan. Bolalar dalaga joylashtirilgan qo'riqchiga atab qo'shiq kuylaganlar:

Qo'riqchidan qo'rqmaydi, chirq-chirq qilib qo'ymaydi.
Kisht demasang ketmaydi, ho kish-kisho, ho kish-kish.

Chumchuq kelar tariqqa, qarqunoqlar ariqqa.

Momoginam so'riga! ho kish-kisho, ho kish-kish.

Sichqon tushdi qaymoqqa, maynalar o'ch quymoqqa.

Qarg'a kelar yong'oqqa! ho kish-kisho, ho kish-kish.

Yozda, quyoshli kunda bemahal yomg'ir yoqqanda xalqimiz qadimda- "Tulki to'y qilayapti"-deganlar. Shunga bag'ishlab bolalar, hazil qo'shiq kuylaganlar:

Tulki bolali bo'ldi-nima, nima?

O'nta xolali bo'ldi-e he...!

Cho'pon bo'ldi qo'y qildi-nima, nima?

Bolasini to'y qildi-e he...!

To'yiga yomg'ir yog'di, qozoni selga oqdi.

Havo keldi tumanlab-o, tulki qochdi to'manlab.

Xub bo'pdi, ajab bo'pdi-yo, xub bo'pdi, ajab bo'pdi.

Chodir ipi cho'zildi, tulki to'yi buzildi.

Ma'lumki, o'zbeklar hayotida necha asrlar mobaynida nazorat, xushmuomalalik va xushchaqchqlik kishilar o'rtasidagi muomala va aloqaning o'ziga xos sifatida qaror topib keldi. Bular kattalarni hurmat qilish, izzat ikromini joyiga qo'yish, itoat qilish va bo'ysunish bilan birga qo'shilib ketadi. O'zaro munosabatda ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, bolalarni atrof-muhit, tabiat bilan tanishtirishda bolalar folklorining imkoniyatlari juda katta bo'lib, bolalarda insonparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Dala yozuvi. 2019-yil ushbu o'yinning she'rlari Bandixonlik Hakim Dalliyevdan yozib olingan

2.Imomov K., Mirzayev T., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent, "O'qituvchi", 1996.

3.O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent 1990.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING LUG'AT BOYLIGINI RIVOJLANTIRISH VOSITALARI

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Baxtiyorova Sevara Elyor qizi talabasi*

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida gumanitar fanlarni o'qitishning innovatsion tajribalari taxlil qilingan va tavsiyalar taqdim etilgan.

"Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asosida barcha masalalar qatorida boshlang'ich ta'limni professional pedagog kadrlar bilan ta'minlash dolzarb bo'lib turibdi [1]. Chunki professional pedagog kadrlar zamonaviy boshlang'ich ta'lim jarayonini innovatsion rivojlantirishning muxim omili xisoblanadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda faoliyat ko'rsatadigan ingliz tili o'qituvchilarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida professional kompetensiyalarini keng rivojlantirish taqozo etiladi. Bu o'rinda e'tiboringizni boshlang'ich ta'lim ingliz tili o'qituvchilarining lug'at boyligini rivojlantirish vositalari taxliliga tortamiz.

1. **Tashkiliy tadbirlar.** Ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasida eng muxim masalalardan biri ularning lug'at boyligi xisoblanadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lug'at boyligini rivojlantirish bo'yicha tashkiliy tadbirlarni rivojlantirib borish muxim ahamiyatga ega. Ana shunday tadbirlardan biri ingliz tili ta'lim yo'nalishi kurslarida haftaning bir kuni inglizcha so'zlashuv kuni sifatida belgilash bo'lib, uning vositasida amaliy tadbirlarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki aynan so'zlashuv jarayoni to'liq o'rganishning muxim asoslaridan biri bo'lib, muloqot vositasida til o'rganuvchining lug'at boyligi rivojlanib boradi. So'zlashuv jarayonida so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, yangi so'zlarni o'zlashtirish va nutqning takomillashuviga erishish imkoniyatlari mavjud bo'ladi. Talabalarni o'zaro ingliz tilida so'zlashuvi lug'at boyligining kengayib borish omillaridan biri sifatida e'tirof etilgan [2]. Bunday tadbirlardan yana biri talabalarning taqdimot tayyorlashidir. Taqdimotlarni og'zaki tarzda o'tkazish bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lug'at boyligini kengaytiradi. Chunki taqdimot davomida savol-javoblar, o'zaro baxslar va izoxlar jarayoni mavjud bo'lib, taqdimotchining nisbatan ko'proq so'zlashiga imkoniyat tug'iladi. Xorijiy mamlakatlarda ko'p xollarda taqdimot tadbirlariga aloxida e'tibor berilishi kuzatiladi. Shu jihatdan xar oyda bir marotaba talabalarning og'zaki taqdimotlarini tashkil etish bizningcha, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki talabalar taqdimot materiallarini tayyorlashda izlanish jarayonida bo'ladi.

2. **Yangi so'zlarni o'zlashtirish.** Bizning kuzatishlarimizga ko'ra yangi so'zlarni o'zlashtirib borish bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lug'at

boyligini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Yangi so'zlarning manbalari sifatida kitoblar, Internet materiallari va tajribali o'qituvchilarning suxbatlarini ko'rsatish mumkin. Bunda imkon qadar ingliz tilidagi adabiyotlar bilan mkntazam tanishib borish amaliy samarani beradi. Chunki mutolaa jarayonida yangi so'zga duch kelinganida lug'atlar vositasida uning ma'nosi o'zlashtiriladi. Buning natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf ingliz tili o'qituvchilarining lug'at boyligi amaliy jixatdan rivojlanib boradi. Bizning tajribamizga ko'ra, lug'atlar bilan ishlash xam muhim ahamiyatga ega. Bunda ayniqsa ta'lim va tarbiya yo'nalishiga yo'naltirilgan lug'atlar bilan ishlash samarali xisoblanadi. Chunki Yevropa mamlakatlarida va AQShda texnologik rivojlanish sababli eng qadimgi ingliz tilidagi so'zlar am aliyotga kiritilmoqda. Shu sababli lug'atlar vositasida so'z boyligini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda, bo'lajak boshlang'ich sinf ingliz tili o'qituvchilarining Internet materiallaridan oqilona foydalanish malakasini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday xabarlarda ko'p xollarda shevalarga xos bo'lgan so'zlar uchraydi. Aslida ingliz tilida shevalar nisbatan kam, biroq xududlar kesimida shevalarning mavjudligi ularda lug'at boyligining ko'pligini namoyon qiladi. Misol uchun Buyuk Britaniyada ingliz tilida so'zlashish shaxar va provensiyalarda laxchalarida kechadi, bu xol lug'at boyligining kengayishiga xizmat qiladi. Shuningdek, eslatib o'tish joizki, AQShda ingliz tilining o'ziga xos dialekti amal qiladi va u Buyuk Britaniya dialektidan farq qiladi [3]. Shu sababli bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi luxat boyligi ustida ishlayotganligida bu omillarni xisobla olishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, bo'lajak ingliz tili boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bir necha dialektlarda so'zlashi ularning lug'at boyligini kengaytiradi. Ayni paytda, boshlang'ich ta'lim jarayonida sof ingliz adabiy tiliga asosan mashg'ulotlarni olib borish metodik jixatdan to'g'ri bo'lishini ta'kidlab o'tish lozim. Shu ma'noda lug'at tarkibini kengaytirishda eng avvalo ingliz adabiy tiliga asoslanishi kutilgan samarani beradi.

3. Boshlang'ich ta'lim jarayonida ingliz tilini belgilash. Bugungi kunda mamlakatimiz oliy pedagogik ta'lim muassasalari talabalari 4+2 tizimi asosida o'qitilmoqda. Shu sababli xaftaning ikki kunida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari xam bevosita maktablarda amaliyot o'taydi. Mazkur xaftalik amaliyot jarayonida xaftaning bir kunini boshlang'ich ta'limda ingliz tilida so'zlashish kuni sifatida belgilash muhim ahamiyatga ega. Bunda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lug'at boyligi kengayadi va o'quvchilarning mazkur tilni o'rganish bo'yicha imkoniyatlari rivojlanib boradi. Chunki o'zaro so'zlashuv ingliz tili bo'yicha lug'at boyligini rivojlantirishning eng muhim omillaridan biridir. Bizning kuzatishimizga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari so'zlashishga va o'z fikrini ko'pchilikka bayon qilishga qiziqishadi. Bu omildan foydalangan xolda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari va boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini kengaytirishda oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

E'tibor berilsa, bo'lajak boshlang'ich sinf ingliz tili o'qituvchilarining so'z boyligini rivojlantirish vositalari ko'p. Bunday vositalardan foydalanish talabaning o'ziga bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tish lozim.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari xar bir faoliyatini yoki ta'lim jarayonidagi ishlarni ingliz tilida qayt etishi ularning so'z boyligini rivojlantirishda xizmat qiladi. bu xol dastlabki bosqichda murakkab kechadi, keyinroq amaliy ko'nikmaga aylanib boradi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining so'z boyligini rivojlantirishda ingliz tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan ingliz tiliga so'zlarning ekvivalentini o'girish muxim ahamiyatga ega. Misol uchun, ingliz tilida ertalabki, tushlik va kechqurung'i salomlashish shakllari mavjud. O'zbek tilida esa bunday shakllar uchramaydi, biroq salomlashishning "assalomu aleykum" shakli to'liq salomlashish sifatida qabul qilingan. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf ingliz tili o'qituvchisi tilimizdagi salom, assalom kabi salomlashish shakllarini o'zlashtirgani xolda, ularni ta'lim jarayonida qo'llamasligi til madaniyati asoslaridan biri xisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda bir necha xorijiy tillar o'qitilayotganligi va o'rganilayotganligi ma'lum. Shu sababli boshlang'ich sinf ingliz tili o'qituvchilari aynan keng ko'lamlı lug'at boyligiga ega bo'lishi tillarni o'qitish va o'rganish jarayonida o'z o'rinlariga ega bo'ladi. Shuni eslatib o'tish joizki, o'qituvchi uchun so'zlar miqdori miqdori belgilangan emas. Ammo ingliz tili o'qituvchisining lug'at boyligi qanchalik keng bo'lsa, uning kasbiy faoliyatida muxim imkoniyatlar paydo bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ba'zida ingliz tili o'qituvchilari muayyan matnlarni tarjima qilishda murakkablikka duch kelishadi. Buning asosiy sababli yetarli darajada so'z boyligiga ega bo'lmaslikdir.

Shunday qilib bo'lajak boshlang'ich sinf ingliz tili o'qituvchilarining lug'at boyligini aynan oliy pedagogik ta'lim jarayonida rivojlantirish muxim ahamiyatga ega. Mazkur masala bo'yicha ta'kidlangan vositalarda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Adabiyotlar.

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022
2. *Sovremennyy angliyskiy yazyk. Kniga dlya uchiteley.* – Moskva, 2015

ИНТЕГРАТИВНЫЕ ПОДХОДЫ В ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТОВ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ИННОВАЦИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

*Миротин Олег Дмитриевич
преподаватель кафедры русского языка
и литературы Термезского государственного
педагогического института*

Аннотация: В данной статье рассмотрен опыт использования интегративных подходов и современных образовательных технологий в

преподавании предметов начального образования, а также выявлены их преимущества и перспективы.

Ключевые слова: интегративный подход, межпредметные связи, образовательные технологии, начальное образование, индивидуализация обучения.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda integrativ yondashuvlar va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish tajribasi ko'rib chiqiladi, shuningdek ularning afzalliklari va istiqbollari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: integrativ yondashuv, fanlararo aloqalar, ta'lim texnologiyalari, boshlang'ich ta'lim, ta'limni individuallashtirish.

Anotation: This article examines the experience of using integrative approaches and modern educational technologies in teaching primary education subjects, as well as their advantages and prospects.

Keywords: integrative approach, interdisciplinary connections, educational technologies, primary education, individualization of learning.

Современное образование требует постоянного развития и поиска инновационных подходов к преподаванию. Под инновациями в образовании понимается процесс совершенствования педагогических технологий, совокупности методов, приемов и средств обучения. В настоящее время инновационная педагогическая деятельность является одним из существенных компонентов образовательной деятельности любого учебного заведения [2].

Корни современных инновационных процессов в образовании лежат в исторически сформировавшихся на протяжении многих десятилетий философских концепциях, характерных для той или иной страны. Именно эти теории определяют основные направления образовательной политики, содержание реформ и модернизации образовательных систем [1]. В последние годы интегративные подходы и современные образовательные технологии стали ключевыми факторами в обеспечении качественного образования в начальной школе. Эти подходы объединяют различные предметы и применяют современные технологии для достижения глубокого понимания учебного материала, активного участия студентов и развития творческих навыков. Интегрированный подход способствует осуществлению компетентного подхода в преподавании практически всех предметов, развивает у учащихся логику, широкомасштабное развитие мышления, коммуникативных способностей и, в большей степени помогает им в формировании и развитии универсальных учебных действий [4].

Интегративные подходы в преподавании предметов начального образования включают в себя объединение различных предметов и дисциплин для создания связей и контекста обучения. Они позволяют

студентам видеть взаимосвязи между различными областями знания и применять полученные знания в реальных ситуациях. Например, вместо изучения математики и искусства отдельно, интегративный подход может предложить проект, где студенты используют математические принципы для создания и оценки художественных произведений [3].

Интегративные подходы ставят целью объединение различных предметов и дисциплин, чтобы студенты могли видеть взаимосвязи между ними. Например, изучение темы "Путешествия" может объединить предметы географии, истории, литературы и даже математики. Студенты изучают географические особенности разных стран, исторические события, связанные с путешествиями, читают литературные произведения о приключениях и могут использовать математические навыки для расчета расстояний или бюджета путешествия. Такой подход помогает студентам лучше понять и применить знания в реальной жизни.

Интегративные подходы включают использование проектной работы в учебном процессе. Проекты предоставляют студентам возможность решать комплексные задачи, которые требуют интеграции знаний из различных предметов. Например, проект по созданию экологического сада может включать изучение биологии растений, химии почвы, математического моделирования для планирования дизайна и искусства для создания элементов украшения. Это помогает студентам видеть целостность и применение знаний в реальных проектах.

Современные образовательные технологии играют важную роль в поддержке интегративных подходов. Электронные учебники, интерактивные доски, мультимедийные ресурсы и онлайн-платформы предоставляют возможности для доступа к разнообразным информационным источникам и создания интерактивных заданий. Например, студенты могут использовать веб-приложения для создания цифровых презентаций, видео или аудиороликов, чтобы продемонстрировать свои знания и исследования по теме проекта. Технологии также могут поддерживать коммуникацию и сотрудничество между студентами, что способствует развитию коммуникативных и социальных навыков.

Интегративные подходы позволяют более индивидуализировать обучение, учитывая потребности и интересы каждого студента. Педагоги могут создавать разнообразные задания и активности, предлагая студентам выбор в том, как они хотят изучать и представлять свои знания. Например, студенты могут иметь возможность выбирать проекты или исследования, которые соответствуют их личным интересам, и использовать различные методы и инструменты для демонстрации своего понимания.

Современные образовательные технологии играют важную роль в эффективной реализации интегративных подходов в начальной школе [5]. Интерактивные доски, компьютерные программы, мультимедийные ресурсы и онлайн-платформы предоставляют возможности для активного участия студентов в учебном процессе, обеспечивают доступ к разнообразным источникам информации и позволяют индивидуализировать обучение. Например, использование образовательных приложений и онлайн-курсов позволяет студентам изучать предметы в удобное для них время и темпе, учитывая их индивидуальные потребности и интересы.

Множество опытных преподавателей уже успешно применяют интегративные подходы и современные образовательные технологии в преподавании предметов начального образования. Они отмечают ряд преимуществ такого подхода, включая улучшение мотивации студентов, развитие критического мышления и решения проблем, разнообразие и интерактивность учебного процесса, а также повышение уровня усвоения материала. Интегративные подходы и современные образовательные технологии также способствуют развитию коммуникативных и коллаборативных навыков, что является важным аспектом формирования полноценной личности.

Интегративные подходы и современные образовательные технологии имеют огромный потенциал для дальнейшего развития в области начального образования. Постоянное внедрение новых инноваций и технологий позволит учителям и ученикам создавать более интерактивные и индивидуализированные учебные среды. Дальнейшее исследование и практическое применение интегративных подходов и современных образовательных технологий помогут оптимизировать учебный процесс и обеспечить более качественное образование для начальной школы.

Использование интегративных подходов и современных образовательных технологий в преподавании предметов начального образования является эффективным способом улучшить качество образования. Они помогают студентам развивать критическое мышление, применять знания в разных контекстах и развивать творческие навыки. Поэтому, внедрение интегративных подходов и современных образовательных технологий является важной задачей для современной начальной школы. Сохранение интереса учащихся, разнообразие и гибкость учебного процесса и индивидуализация обучения - все это является ключевыми аспектами достижения успеха в образовании

Список использованной литературы:

1. Аникушина Е.А., Бобина О.С., Дмитриева А.О., Егорова О.Н., Калянова Т.А., Мамонтова М.Ю., Старцева С.П., Фомин В.С. Инновационные

образовательные технологии и активные методы обучения: Методическое пособие. - Томск: В-Спектр, 2010 - 212 с.

2. Овчинникова А. Ж. Нехлопочина А. Н. Взаимодействие видов искусства как фактор эстетического развития младших школьников. Елец: Елецкий государственный университет им. А. Н. Бунина, 2014. 168 с.

3. Пальтов Е. А. Инновационные образовательные технологии: Учебное пособие. – Владим. Гос. ун-т им. А.Г. Столетовых. – Владимир : Изд-во ВлГУ, 2018 – 119 с. С. 6.

4. Сагды Ч.Т., Дамба И.Н., Куулар Р.А. ИНТЕГРИРОВАННЫЙ ПОДХОД В ИЗУЧЕНИИ ПРЕДМЕТОВ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ // Вестник ТувГУ. Педагогические науки. 2016. №4 (32). С. 72.

5. Шмакова С. А. Игры учащихся – феномен культуры [текст]. М.: Новая Москва, 1994. 240 с.

6. Щукина Г. И. Педагогические проблемы формирования познавательных интересов учащихся [Текст] / Г. И. Щукина. – М.: Педагогика, 1988.

МАКТАБ О‘QUVCHILARIDA GEOGRAFIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSION YONDASHUV

Shonazaova Sevara Rashidovna

TerDPI Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab ta‘limida o‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning mazmuni va metodlarini ochib beruvchi geografik tushunchalarni o‘zlashtirishning ahamiyati, geografiyani o‘qitishda o‘quvchilarda tabiiy mazmunidagi bilimlarni takomillashtirish, muammoli vaziyatlarni yaratish, shuningdek, umumta‘lim maktabi o‘quv rejaları va dasturlariga tabiat-jamiyat o‘rtasidagi aloqalarni uyg‘unlashtirish, atrof-muhitga jiddiy munosabatlarni fanlararo aloqadorlikda o‘rnatish masalalari, o‘quvchilarning geografik bilimlari, ularning dunyoqarashi, hatti-harakati, umumiy madaniyati, o‘qitish metodlari, yo‘llari, imkoniyatlari va vositalarini maqsadga muvofiq holda ishlab chiqish, geografiyani o‘qitishda o‘quvchilarning faktlarni tahlil qilishlari, hodisa va jarayonlarni o‘rganishda bog‘lanishlar mexanizimini yaratish, tabiiy fanlar bo‘yicha avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini yangi vaziyatlarda qo‘llashi orqali o‘quv materialini ongli o‘zlashtirish, tabiiy fanlar ta‘lim mazmuni inson va tabiat aloqadorligi atrofidagi muammolarni o‘rganuvchi turli o‘quv fanlariga oid bilimlar uzviyligi va integratsiyalash mazmuni zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan foydalanib bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: maktab, geografik tushuncha, integratsiya, tabiiy fanlar, ekologiya, tafakkur, bilim, takomillashtirish, o‘quvchilar, dars, metod, vosita, ekologik madaniyat, ko‘nikma, malaka, tabiat, jamiyat atrof-muhit, inson va tabiat.

Annotation: In this article, the importance of mastering geographic concepts that reveal the content and methods of comprehensive education of students in school education, improving students' knowledge of natural content in teaching geography, creating problem situations, as well as general education school curricula and the issues of harmonizing relations between nature and society, establishing serious relations with the environment in interdisciplinary relations, students' geographical knowledge, their worldview, behavior, general culture, teaching methods, ways, development of opportunities and tools in accordance with the purpose, students' analysis of facts in the teaching of geography, creation of a mechanism of connections in the study of events and processes, knowledge, skills, skills and competences previously acquired in natural sciences conscious mastering of educational material by using it in new situations, natural sciences The content of education is the coherence and integration of knowledge related to various academic subjects that study the problems of the relationship between man and nature, and the content is described using modern educational technologies.

Keywords: school, geographic understanding, integration, natural sciences, ecology, thinking, knowledge, improvement, students, lesson, method, tool, ecological culture, skill, skill, nature, society, environment, man and nature

Hozirgi vaqtda o'qituvchi o'z xohishiga ko'ra, u yoki bu ta'lim tizimini, biror xususiy maktabni, muqobil dasturni tanlash imkoniyatiga ega, shuning uchun geografik bilimlarning diqqatga sazovor joylarini aniq belgilash zarur. Muammoning dolzarbligi ba'zi bir nazariy va amaliy masalalarning hal qilinmaganligi bilan izohlanadi, bu esa o'qitishda muhim natijalarga erishishga, maktab o'quvchilarining o'quv jarayonida geografik tushunchalarni barqaror o'zlashtirishga imkon bermaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, ommaviy maktab ishida bu muammo hali etarlicha hal qilinmagan.

Geografik tushunchalar u bilan bog'liq fanlarning har birining o'ziga xos xususiyatlariga qarab bilim, mantiq, psixologiya, pedagogika nazariyalari tomonidan har xil nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi. Dialektik mantiq tushunchalarni tafakkur shakli sifatida ko'rib chiqadi. Rasmiy-mantiqiy tushunishda tushunchalar muammosi tushunchalarni shakllantirish mantiqiy yo'lining mazmuni, ularning mazmunini ochish yo'llari, idrok vositasi sifatida tushunchalarning ma'nosi bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Psixologiyada konsepsiya deganda ob'ektlar va hodisalarning xususiyatlarini aks ettiruvchi umumlashtirilgan bilim tushuniladi. Pedagogikada bu tushuncha narsa va hodisalardagi muhim jihatlarni aks ettiradigan va maxsus terminologik shaklida mavjud bo'lgan ilmiy bilimlar ochiladi. Ammo gap shundaki, bu fanlar tushunchani tahlil qilishga umuman "konsepsiya" nuqtai nazaridan-mantiqiy bilish kategoriyasi sifatida va bilimning tarkibiy qismi sifatida yondashadi [5].

Darhaqiqat, geografik tushunchalar ma'lum fanlar doirasida paydo bo'ladi va shakllanadi, masalan, biologik tushunchalar, matematik, geografik va

hakoza. O'rganilgan psixologik, didaktik va uslubiy adabiyotlarda biz tushunchaning geografik tarkibiga kiradigan mezonlarni aniq aniqlay olmadik. Boshqacha qilib aytganda, geografik tushunchaning aniq chegaralari yo'q.

Maktabda o'rganilgan tushunchalar barcha keyingi ta'limning eng muhim bo'g'inidir, yosh o'quvchilar dunyoqarashining dastlabki asoslarini shakllantirishga ta'sir qiladi. Shu munosabat bilan muhim, ammo kam o'rganilgan muammo bu boshlang'ich maktabda geografik tushunchalarni shakllantirish jarayonidir. Umuman olganda, u quyidagicha taqdim etilishi mumkin: haqiqiy materiallarni taqqoslashda bolalar o'xshash tashqi xususiyatlarni ta'kidlab, ularni tegishli so'zlar bilan belgilaydilar. Bilimni to'la-to'kis umumlashtirishning asosiy mezoni bu bolaning tushunchalar tashqi xususiyatlari jihatidan ushbu bilimlarga mos keladigan aniq bir misol yoki illyustratsiya berish qobiliyatidir. Bundan tashqari, belgilar muhim va ahamiyatsiz bo'linadi. Vaqt o'tishi bilan o'quvchilar tahlil va sintez orqali ilgari to'plangan g'oyalar nuqtai nazaridan umumlashtiradilar.

O'qituvchining batafsil tushuntirishlari va darslik ko'p hollarda tushunchalarni predmet materiali bilan bevosita ishlamasdan o'zlashtirish uchun etarli. Bola tafakkurining keyingi bosqichi-bu tasnif, tizimlashtirish va empirik tushuntirish idrokidir. Umumlashtirishni maktab o'quvchilari abstrakt va deduktiv fikrlash asosida amalga oshirganligi sababli, bu umumlashtirishlarni konseptual yoki elementar-konseptual deb atash mumkin.

Shunday qilib, geografik tushunchalarni shakllantirish metodikasida boshlang'ich umumlashtirish darajasiga erishish mumkin, bu talabalarni o'qitishning keyingi bosqichida birinchi qadam bo'lib, asta-sekin umumlashtirishning yuqori shakllariga olib keladi. Shu sababli, ushbu jarayonni batafsil tahlil qilish va ushbu murakkab aqliy faoliyatning barcha jihatlarini aniqlashga ehtiyoj bor. Umumta'lim maktablarida "Geografiya" fanini o'qitishning zamonaviy amaliyotini o'rganish shuni ko'rsatadiki, geografik tushunchalarni shakllantirish jarayonini faollashtirishning didaktik vositalari tizimini qo'llashga etarlicha e'tibor berilmagan.

Binobarin, zamonaviy ta'lim sharoitida uzluksizlik prinsipini amalga oshirish umumta'lim maktablarida oldida muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Davomiylik ta'limda bu asosiy vazifalarning o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan aloqalar tizimi yagona ta'limni yaratish maqsadiga intilib kelgan, vahoniyat bugungi kunga kelib, o'qitish va tarbiya usullari bola rivojlanishining muhim omili ekanligiga e'tibor qaratilmoqda.

Maktab ta'limi butun geografik bilimlarni berish uchun asosiy tushunchalarni shakllantiruvchi tizim hisoblanadi. Zamonaviy maktab geografiyani o'qitishni shakllantirishga asoslangan bo'lishi muhim va yodlashga bog'liq bo'lmagan, dunyoning jonli va xayoliy rasmini rivojlantirish statistik ma'lumotlar va nomenklatura massivlari, shuningdek, amaliy ma'lumotlarni olish hamda geografik ma'lumotlardan foydalanish ko'nikmalarini egallashlari lozim.

Aslida geografiya bilim va faoliyatning jozibali sohasiga aylanib borishi lozim va geografik bilimlarni olish-ongli va ichki motivatsion jarayonlarga bog'liq. Shu munosabat bilan geografik ta'lim konsepsiyasi yaratilishi va unda quyidagi vazifalar belgilab berilishi lozim:

- barcha darajalarda geografik ta'lim mazmunini bilan birgalikda ularning ketma-ketligini kuzatish;

- geografik ta'limning asosiy va yuqori darajalari mazmunini aniqlash o'rta maktablarda geografiyani o'qitishni kuchaytirish;

- talabalar uchun zarur bo'lgan minimal geografik ma'lumotni aniqlash, predmetni o'zlashtirish natijalariga jismoniy yukni e'tiborga olgan holda talablarni belgilash;

- qo'shimcha ishlarni tashkil etish shakllarini belgilash geografik bilimlarning aloqasini ta'minlovchi kasb-hunar ta'limini rivojlantirish, geografiyaning hayotiylikni anglashga erishish va va o'quvchilarning geografiyaga qiziqishni rivojlantirish.

Ma'lumki, geografik ta'limning tarkibi bir nechta o'zaro bog'liq bosqichlarni o'z ichiga oladi: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich umumiy ta'lim, asosiy umumiy ta'lim va o'rta umumiy ta'lim. Ularning barchasi konstruktiv xarakterga ega bo'lishi lozim.

Geografiyani o'qitishda o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning mazmuni va metodlarini ochib beruvchi tabiiy fandır. Geografiya nafaqat o'qitish jarayonini ta'riflash va tushuntirish bilan cheklanib qolmay, balki qoidalarni ham ishlab chiqadi, ularga asosan, uqituvchi shu predmet bo'yicha o'quvchilarni muvaffaqiyatli ravishda o'qitishi mumkin.

Shaxsning kamol topishi va rivojlanishi uning ayrim ishlarni, munosabatni, xarakterni o'z ichiga olgan faoliyat jarayonida boradi. Bunda u yoki bu faoliyat turining-o'qish, mehnat, o'yin, muloqotlarning dalillari (motivlari) alohida ahamiyatga egadir. Muloqot dalillari har qanday darsning tarkibiy qismi bo'lishi kerak. Uni o'qituvchi hisobga olmasa, tabiat turg'isidagi bilimlar imkoniyatini pasaytirib yuboradi. Tabiat bilan to'g'ri tashkil kilingan muloqot maktab o'quvchilarida go'zallikni his etishni boyitadi va chuqurlashtiradi, ularda o'z harakati va ishini o'zi baholay olish qobiliyati rivojlanadi, bu xislatlar xulq-atvorning odobiy xamda ahlokiy normalarini anglash, atrofdagilarga nisbatan mas'uliyat hamda burchni tarbiyalash uchun zarurdir.

Maktab geografiya kursi tabiat hodisalarining keng doirasini qamrab oladi, shu munosabat bilan ba'zan o'rganilayotgan xodisalar bilan o'zaro bog'liq holda kuzatishlar olib borish qiyin bo'ladi. Shuning uchun xam geografiyani dastlab o'rganish uchun geografik ob'ektlarni tanlashda quyidagilarni: o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, o'rganilayotgan materialning tushunarli bo'lishini, uning ta'limiy va rivojlantiruvchi ta'sirini, o'lkashunoslik materiali bo'lishini, olingan bilimlarni maktab jonli tabiat burchagi va geografiya uchastkasidagi ishlar bajarilishida foydalanish imkoniyatini hisobga olish zarur.

Ta'lim jarayonini tashkil qilishda hozirgi rivojlanish darajasiga emas, balki proksimal rivojlanish zonasiga e'tibor qaratish lozim. Hozirga qadar an'anaviy maktabda geografiyani o'qitish o'quvchilarga asosan o'quvchining aqliy faoliyatining allaqachon rivojlangan shakllari - idrok, xotira va vizual-majoziy fikrlash shakllariga yo'naltirilgan empirik bilimlarni berishga qaratilgan. Bunday trening aqliy rivojlanishning o'tgan bosqichlarini birlashtiradi, mavjudlik tamoyiliga asoslanadi.

Maktab o'quvchilari ta'lim faoliyatini shakllantirish jarayonining didaktik modeli an'anaviy ravishda o'qitishdan mazmun jihatidan tubdan farq qiladi, bu geografik materiallarning mazmunini o'zlashtirish bilan bir qatorda, o'qitishni assimilyatsiya qilish usullari o'zlashtiriladi. Shu munosabat bilan ta'lim mazmuniga biz "o'quv faoliyati" tushunchasining mazmunini ham kiritish mumkin. Ushbu tushunchani maktab o'quvchilarida shakllantirish jarayoni geografik bilimlarni o'zlashtirish bilan bir vaqtda davom etadi. Ushbu ishning eng muhim yo'nalishi o'quvchilarning o'quv faoliyatining tarkibiy elementlarini o'zlashtirganda motivatsion sohasiga maqsadli ta'sir qilishidir, ya'ni. maqsadni belgilash, rejalashtirish, rejalashtirishni amalga oshirish, o'zini o'zi boshqarish va o'zini baholash bo'yicha tarbiyaviy harakatlar.

Maktab o'quvchilarining ta'lim faoliyatini shakllantirishning texnologik jihati didaktik metodlar majmuasini, mantiqiy va evristik retseptlarni hamda darslarning texnologik xaritalarini o'z ichiga oladi. Mantiqiy-yevristik retseptlar maktab o'quvchilarining ta'lim faoliyati shakllanishining ketma-ketligini belgilaydi; umumiy metodlarni o'zlashtirishni ta'minlash uchun turli xil texnikalardan foydalanish; metodlarni kiritish va o'zlashtirish uchun maqbul bo'lgan vaqt va joyni tarkibida o'rganish. O'qitish jarayonining mantig'ini ochib beradigan va o'qituvchining o'qitish faoliyatini tashkil etadigan texnologik xaritalar ta'limni rivojlantirish muammolarini hal qilishga yordam beradi.

Maktabda o'qitish tushunchalar tizimini shakllantirish bilan bog'liq bo'lganligi sababli, ta'limni rivojlantirishning muhim jihati ta'lim faoliyati shakllanishini ta'minlaydigan konseptual apparatni qurishdir. Ilmiy va nazariy konsepsiyalarning tuzilishi an'anaviy o'qitish jarayonida qo'llaniladigan chiziqli metoddan tubdan farq qiladi, chunki o'qitish muayyan faktlar va hodisalarni ko'rib chiqishdan keyingi ta'limning yakuniy bosqichida ularni umumlashtirishgacha bo'lgan jarayon tushuniladi.

Kursning konseptual apparati biz "tabiiy kompleks" mavhum tushunchasidan konkret "geografik qobiq" ga ko'tarilish prinsipi asosida qurilgan fundamental, asosiy, konkretlashtiruvchi tushunchalarning murakkab dinamik va ierarxik jihatdan bo'ysunuvchi tizimi deb hisoblaymiz.

Ta'lim faoliyatining shakllangan tarkibiy qismlari ta'limning har bir tarkibiy qismining rivojlanishini kuzatish asosida aniqlandi, bu uch darajani ajratishga imkon berdi: past, o'rta, yuqori. Kuzatish shuni ko'rsatdiki, ta'lim faoliyati shakllanish jarayoni notekis: barcha tarkibiy qismlarda hosil bo'lgan

darajalar har xil o'quvchilar uchun farq qiladi, ammo bu jarayonning bosqichma-bosqich rivojlanish tendensiyasi mavjud.

Maktab o'quvchilarining ta'lim faoliyatini shakllantirish bo'yicha yondashuvlar samaradorligini tasdiqlagan eksperimental sinovlar ishlab chiqilgan geografik ta'lim jarayonining didaktik modelini o'qitish amaliyotiga joriy etishga imkon berdi. Ushbu modelning asosiy nazariy tomoni-bu ilmiy va nazariy tushunchalar tizimiga asoslangan ta'lim mazmuni. Bunday tarkib bilimlar yig'indisini olish uchun emas, avvalambor o'quvchilarning ta'lim faoliyati uchun qobiliyatlarini shakllantirish, ularga o'z-o'zini tarbiyalash va o'zlarini takomillashtirishni amalga oshirishga imkon berish uchun zarurdir.

Hozirgi kunda ro'y berayotgan yangi ta'lim tizimining shakllanishi pedagogik nazariya va amaliyotda, ayniqsa o'qitishda sezilarli o'zgarishlar bilan birga keladi. Bugungi kunda ta'lim sohasida e'lon qilingan o'zgaruvchanlik prinsipi nazariy o'qituvchilar va amaliyotchilarga pedagogik jarayonni tanlash va loyihalashtirish imkoniyatlarini keng modellarda taqdim etadi. Turli xil kontent variantlarini ishlab chiqishdan iborat ta'lim taraqqiyoti psixologiya fanining yutuqlari bilan faol amalga oshiriladi; yangi texnologiyalarni nazariy asoslashda zamonaviy didaktika imkoniyatlaridan foydalanish tadqiqotchilar va amaliyotchilarning mavjud va bashorat qilinadigan pedagogik tizimlarni o'rganishdagi ishlarini faollashtiradi.

Mavjud ta'lim tizimini takomillashtirish va o'quv jarayonini ratsionalizatsiya qilish muammosini o'rganishda shaxsiyatni rivojlantirish g'oyalarini ishlab chiqishga e'tibor qaratish lozim. Maktab ta'limini shu asosda qayta qurish rivojlantiruvchi ta'limga o'tish bilan bog'liq bo'lib, uning markaziy vazifasi ta'lim faoliyatini shakllantirishdir.

Rivojlantiruvchi ta'lim va an'anaviy ta'lim o'rtasidagi tub farq maktab o'quvchilarining o'quv faoliyatini tashkil etish xususiyatiga bog'liq bo'lib, bu ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishning yashirin zaxiralaridan o'quv jarayonida foydalanishga imkon beradi. Mavjud amaliyot deyarli o'qituvchining ushbu yo'nalishdagi maqsadli, tizimli ishini ta'minlamaydi va agar u (ta'lim faoliyati) o'quv jarayonida rivojlansa, unda, qoida tariqasida, o'z-o'zidan paydo bo'ladi.

O'quv va ta'lim faoliyatini rivojlantirish muammolarini hal qilishda maktab o'quvchilarining aqliy rivojlanishining muhim zaxirasi mavjud bo'lib, u shundan iboratki, predmetli bilimlarni (geografik, biologik va boshqalarni) o'zlashtirishda o'quvchi bir vaqtning o'zida o'zining ta'lim-tarbiyasini tashkil qilishi kerak. Ushbu bilimlarni o'zlashtirish uchun o'quvchining shakllanayotgan (tarbiyaviy) faoliyatga mos keladigan faoliyatiga qo'shilishi haqidagi nazariy talab va uning ta'lim jarayonidagi faoliyati xususiyati o'rtasida yuzaga keladigan ziddiyatni hal qilish uchun tarkib topishning mazmuni va texnologik tomonini ishlab chiqishdan iborat.

Umumta'lim maktablarida geografiyani o'qitish jarayonida maktab o'quvchilarining ta'lim faoliyatini yaxshilash, ushbu muammoni echishni darsliklarning tarkibini aniqlash va mazmunini aniqlashtirish va geografiya

ta'limi jarayonida rivojlantiruvchi ta'limni ta'minlaydigan faoliyatni yo'lga qo'yish nazarda tutiladi.

Ma'lumki, ta'lim faoliyatida bir-biriga bog'liq bo'lgan bir nechta tarkibiy qismlar ajratiladi: motivatsion, indikativ tarkibli, operativ, baholovchi, shu jumladan maqsadni belgilash, tarbiyaviy harakatlar, nazorat qilish harakatlari va baholash harakatlari.

Adabiy manbalarni tahlil qilish geografiyani o'rganish jarayonida maktab o'quvchilarining ta'lim faoliyati tuzilishi to'g'risida g'oyani ishlab chiqishga imkon berdi, bunda ta'lim harakatlarini ikki darajali jarayon deb hisoblash bilan farq qiladi.

Maktab geografik ta'limining mazmuni va tuzilishini qurish tamoyillarining qayta ko'rib chiqilishi tarixiy ravishda shakllangan maktab ta'limi tizimini shaxsga yo'naltirilgan asosda qayta qurish jarayoni amalga oshirilayotgan davrda ta'lim faoliyatini muvaffaqiyatli shakllantirishga yordam beradi. Ta'lim mazmuni va tuzilishi muammosi bo'yicha biz tahlil qilgan materiallar umumiy ta'lim fanlarining mazmunini belgilashda kamchiliklar mavjudligini ko'rsatadi, ularning mohiyati olingan bilimlar va tushunchalar, tizimli tashkilot o'rtasida ichki mantiqiy aloqalar yo'qligi o'quvchilarga ilmiy va nazariy tushunchalar va o'quv materialini mavhumdan konkretgacha joylashtirish o'rtasida o'zaro bog'liqlik o'rnatishga imkon beradigan tamoyillarga asoslangan mavzu mazmuni.

Geografik ta'limning tarkibi va mazmunining o'qitishga bo'lgan yondashuvdagi o'ziga xosligi uning bilimlarini maktab o'quvchilarida ta'lim faoliyatini shakllantirishga hissa qo'shadigan tamoyillar asosida tizimli ravishda tashkil etilishidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Babansky Yu.K. Pedagogik tadqiqotlar samaradorligini oshirish muammolari. M.: Pedagogika, 1982.-- 196s.

2. Verbiskiy A.A Hayotiy ta'limning metodik muammolari. // O'qitishning yangi usullari va vositalari. Uzluksiz ta'lim: metodika va amaliyot, 1990. No 4 (12). - S.3-30.

3. Yosh o'spirin yoshi va individual xususiyatlari / ed. D.B. elkonin, T.V. Dragunova. -M.: 1987.-304s.

4. Voronsov A.B. Rivojlantiruvchi ta'lim tizimidagi boshlang'ich va o'rta maktablar o'rtasidagi uzluksizlik masalalari.// "Feniks" shaxsni rivojlantirish maktablarining mintaqalararo byulleteni, v.5. M.: "Rus ensiklopediyasi" nashriyoti, 1996.- S.77-91.

5. Voronsov A.B. 6-7 sinflarda geografiya kursini qurish bo'yicha yondashuvlar D.B Elkonin, V.V.Davydova. // "Feniks" shaxsiyatni rivojlantirish maktablarining mintaqalararo byulleteni. - M.: "Shaxsiyatni rivojlantirish" CPNO, 1998. - №7-8. - S. 26-44.

6. Vigoskiy L.S. Tanlangan psixologik tadqiqotlar. M.: APN, RSFSR, 1956.- 519 b.

7. Gershunskiy B.S. XXI asr ta'lim falsafasi. Moskva: Perfect, 1988. - 608 p.

8. Norman J. Graves. Dastur sifati va geografiyani o'qitish samaradorligini baholash. // Geografiya ta'limi bo'yicha yangi qarashlar: YuNESKO qo'llanmasi: Per. ingliz tilidan / ed. V.P. Maksakovsky va L.M. Pancheshnikova . M.: Progress, 1986. - S.373-436.

9.. Gritsishin B.M. Dars sharoitida maqsadlarni belgilash. // Sovet pedagogikasi, 1985, -№2.-b. 46-50.

10. Gromseva A.K. Maktab o'quvchilarining o'z-o'zini tarbiyalashga tayyorligini shakllantirish .- M.: Ta'lim, 1983, 144s.

11. Norbutayev H.B. Specific features of interdisciplinary integration in teaching natural subjects. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com>. Impact Factor: SJIF.Vol.11,10.5958/2249-7137. 2021.00766.7. Issue 3, March 2021.- P.1123-1128.

12. Norbutayev Kh.B., Shonazarova S.R. Methodology of the development geographical concepts in school pupils. Web of Scientist: International Scientific Research Journal ISSN: 2776-0979 Impact Factor: 7.565 v olume 2, issue 12, december -2021-P. 341-34.

BO'LAJAK TARJIMON PEDAGOGLARNING YANGI O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASINI O'ZLASHTIRISHI MEXANIZMLARI

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Baxtiyorova Sevinch Elyor qizi talabasi*

Annotatsiya: maqolada bo'lajak tarjimon pedagoglarning yangi o'zbekiston konstitutsiyasini o'zlashtirishi mexanizmlari va tavsiyalar taqdim etilgan.

“Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da boshlang'ich ta'limning sifat ko'rsatkichlariga erishish uchun yangicha yondashuvlarga asoslanish vazifalari belgilangan [1]. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim jarayonida kelgusida faoliyat yuritadigan tarjimon pedagoglarning Yangi O'zbekiston konstitutsiyasini mexanizmlarini belgilab olish dolzarb bo'lib turibdi. Mazkur masalaning eng muhim jihatlari quyidagilardan iborat ekanligini eslatib o'tish joiz:

1. **Tarjimon pedagoglar tushunchasi to'g'risida.** Bizning yondashuvimizga ko'ra, kelgusida umumiy o'rta ta'lim maktablarida, jumladan, boshlang'ich ta'limda faoliyat yuritadigan ingliz tili o'qituvchilarini tarjimon pedagoglar sifatida tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Chunki tarjimon pedagoglar o'qitish jarayonini ilmiy va amaliy jihatdan keng ko'lamli amalga oshirish, o'quvchilarda tarjimonlik kasbiga bo'lgan qiziqishni tarkib toptirish va ularning xorijiy tillarni kutilgan darajada o'rganishi uchun ko'nikmalarini shakllantirish ishlarini amalga oshirishda keng imkoniyatlarga ega bo'ladi [2]. Chunki bugungi kunga qadar boshlang'ich ta'limda ingliz tili bo'yicha saboq berayotganlar o'qituvchi sifatida qabul qilinishi an'ana tusini olgan, shu jihatdan ularni oliy pedagogik ta'lim jarayonida tarjimon pedagoglar sifatida

tayyorlash ta'lim jarayonida xorijiy tillarni zamonaviy o'qitishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur masalalar bo'yicha bizning individual o'rganishlarimiz va kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'qiyotgan bo'lajak xorijiy pedagoglar o'zlarining ustida mustaqil ishlashadi va kelgusida pedagoglik faoliyatini keng ko'lamda olib borishni kasbiy maqsad sifatida belgilashgan. Shu ma'noda oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak tarjimon pedagoglarni tayyorlashda ularning kasbiy bilim ko'lamini zamonaviy talablar asosida kengaytirib borish muhim ahamiyatga ega. Ana shunday bilimlar ko'lamidan biri bo'lajak tarjimon pedagoglar tomonidan yangi O'zbekiston konstitutsiyasini pedagogik nuqtai nazardan o'zlashtirishdir. Mazkur masala bo'yicha bu o'rinda bizning individual yondashuvimizni e'tiboringizga taqdim etamiz.

2. Yangi O'zbekiston konstitutsiyasini o'zlashtirishning pedagogik mazmuni. Xalq referendumini asosida qabul qilingan yangi O'zbekiston konstitutsiyasini pedagogik nuqtai nazardan o'zlashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu ma'noda bo'lajak tarjimon pedagoglarni mazkur masala bo'yicha kasbiy bilimlarini tarkib toptirish nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Bu masalada yangi O'zbekiston konstitutsiyasini o'zlashtirishning pedagogik mazmunini belgilab olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, bu pedagogik mazmun asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

a) yangi O'zbekiston konstitutsiyasida ifodalangan huquqlar majmuini pedagogik mazmunga asosan o'zlashtirish;

b) yangi O'zbekiston konstitutsiyasida belgilangan burchlar majmuini pedagogik asoslar mazmuniga binoan o'zlashtirish;

v) yangi O'zbekiston konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan mas'uliyatlar majmuini pedagogik g'oyalar asosida o'zlashtirish.

Bunday yondashuv yangi tahrirdagi qomusimizni pedagogik nuqtai nazardan o'zlashtirish va bo'lajak tarjimon pedagoglarning kasbiy bilim kompetensiyasini yangi O'zbekiston konstitutsiyasining mohiyatini o'zlashtirish bilan boyitish imkonini beradi. Chunki aynan huquq, burch va mas'uliyat tushunchalarini pedagogik mazmunga tayangan holda o'zlashtirish bo'lajak tarjimon pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytiradi hamda ularning kelgusida o'quvchilarda ana shu tushunchalarni kutilgan darajada tarkib toptirish bo'yicha malaka bilan qurollantiradi.

3. Yangi O'zbekiston konstitutsiyasini pedagogik o'zlashtirish zaruriyati. Bo'lajak tarjimon pedagoglarni tayyorlashda ularni yangi O'zbekiston konstitutsiyasini pedagogik o'zlashtirish bilan qurollantirish bugungi kundagi yangi vazifalardan biri bo'lib turibdi. Shu jihatdan mazkur masala muhim pedagogik zaruriyat hisoblanadi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, yangi O'zbekiston konstitutsiyasini bo'lajak tarjimon pedagoglar tomonidan pedagogik nuqtai nazardan o'zlashtirish zaruriyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- a) yangi O'zbekiston konstitutsiyasida belgilangan huquqlar majmuini tarjimon pedagog sifatida chuqur bilish;
- b) yangi O'zbekiston konstitutsiyasida belgilangan burchlar majmuini tarjimon pedagog sifatida malakali darajada o'zlashtirish;
- v) yangi O'zbekiston konstitutsiyasida belgilangan mas'uliyat majmuini tarjimon pedagog sifatida amaliyotda qo'llay olish.

Bu zaruriyatlar majmui yangi qomusimizni bilish, o'zlashtirish va uni amaliy faoliyatda qo'llay olish ehtiyojlarini namoyon qiladi. Mazkur masalada ayniqsa tarjimon pedagoglarning kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishi kelgusida ularning o'quvchilarni ana shu tushunchalar vositasida yangicha asoslarda tarbiyalash imkoniyatlarini beradi.

E'tibor berilsa, bo'lajak tarjimon pedagoglarning yangi O'zbekiston konstitutsiyasini pedagogik nuqtai nazardan o'zlashtirish mexanizmlarini aniq belgilab olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib bo'lajak tarjimon pedagoglarning yangi O'zbekiston konstitutsiyasini o'zlashtirishi bo'yicha o'ziga xos pedagogik mexanizmlarini belgilab olish dolzarb masala bo'lib turibdi. Bu hol ayni paytda boshlang'ich ta'lim jarayonini ham zamonaviy rivojlantirishning o'ziga xos omillaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar.

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. // www.google.uz.
2. Baxtiyorova S.
3. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi. – Toshkent, 2023.

KOUCHINGDAN PEDAGOGIK JARAYONLARDA FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK VA TEXNOLOGIK ASOSLARI

*Abdushukurova Zebo Egamberdi qizi
TerDPI 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Kouchingdan pedagogik jarayonlarda foydalanish texnologiyalarini takomillashtirishning metodik va texnologik asoslari, dars jarayonida kouchingdan foydalanishni takomillashtirish, boshlang'ich sinflarni til bilan bog'liq bilimlari haqida kerakli ma'lumot va manbalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik jarayon, milliy dastur, lug'atlar, ma'naviy – ahloqiy sifat, ta'limning asosiy shakli.

Maktablarda ta'lim mazmunini modernizatsiyalashda, mavzu jihatidan qisman yangilashda va tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yishda xalq ta'limi tizimida keyingi vaqtlarda katta muvaffaqiyatlarga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan 2022 – 2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur (keyingi o'rinlarda – Rivojlantirish dasturi) 1 – ilovaga muvofiq tasdiqlandi.(1)

Darslik takomillashtirishga doir talab va mezonlar ishlab chiqildi. Ko'p maktablarda o'quv-tarbiya ishining turli-tuman uslublari qo'llanila boshlandi. O'quvchilarning bilimlarni egallashga faolligi va qiziqishi oshdi, jamoa va guruh bo'lib, yakka tartibda darslarni tayyorlash shakllari borgan sari ko'payib, takomillashib boryapti. O'quvchilarning mustaqil amaliy ishlari keng o'rin ola boshladi.

Kouching asosida so'z boyligini o'zida mujassamlagan lug'atlar, jumladan, imlo lug'ati, izohli lug'at, so'zlarning turli ma'no munosabatlarini aks ettirgan lingvistik lug'atlar bilan darslarda, shuningdek, uy vazifalarini bajarish jarayonida keng foydalanishni taqozo qiluvchi topshiriqlar berishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu orqali o'quvchining nutqiy savodxonligini yaxshilash, tafakkuri va dunyoqarashini o'stirish, ijodiy fikrlash va izlanishga o'rgatish yaxshi samara beradi.(2)

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining til bilish bilan bog'liq bilimlarini, qolaversa, so'z boyligini oshirishda o'qituvchi tomonidan yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish quyidagi natijalarga erishishni ta'minlaydi:

- o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishlari, dunyoqarashlarini boyitish va ma'naviy-axloqiy sifatlarini yanada rivojlantirish ehtiyojiga ega bo'lishlariga erishiladi;
- o'quvchilarda o'zga xalqlar tili va madaniyatiga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi, hayotlari va faoliyatlari uchun qadrlil bo'lgan ijtimoiy sub'ektlar yoki moddiy narsalarni yoqtirish, e'zozlash va ularni ko'paytirish istagi uyg'onadi.(3)

Shu bilan birga, o'qituvchi dars mashg'ulotlarida ko'rgazmali, tarqatma, texnik va kompyuter vositalaridan o'z o'rnida, unumli foydalana olishi, turli xil mavzularning mazmunini to'g'ri tushuntira bilishi kerak.

O'qituvchi kouching asosida darslarida o'tmish olimlarining boy pedagogik merosidan uslubiy manba sifatida foydalanishi lozim. Shuningdek, ular asosida qo'shimcha mashg'ulotlar va seminarlar o'tkazish ham mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida dars ta'limning asosiy shakli hisoblanib, har bir darsda o'quvchilarga tayyor axborotlar beriladi va ular zarur nazariy bilimlar tizimi bilan qurollantiriladi, shu bilan birgalikda o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuga qiziqishi ham orttiriladi. Biroq o'qituvchining bilimlari qanchalik keng va chuqur, pedagogik mahorati qanchalik yuksak bo'lmasin, u qaysi texnik axborot va kommunikativ vositalardan foydalanmasin, o'quvchi bilan ba'zida yakka tartibda shug'ullanish uchun imkon yaratmas ekan, o'z oldiga qo'ygan vazifalarni muvafaqqiyatli hal eta olmaydi.

O'quvchilarda til o'rganishga bo'lgan qiziqishni shakllantirishning yana bir tomoni o'qituvchining o'z ishiga bo'lgan mas'uliyatida namoyon bo'ladi.

Mas'uliyat tushunchasi muallimning faoliyati va ta'lim-tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o'z ichiga oladi. O'qituvchi zimmasiga o'quvchilar shaxsini har tomonlama kamol toptirish uchun birinchi navbatda ta'lim samaradorligini oshirish mas'uliyati yuklanganligi hech kimga sir emas. Muallim o'quvchiga chuqur nazariy bilimlar berishi, uni hayotga, muloqotga tayyorlashi lozim. Shu bilan birga, u o'quvchidagi mavjud layoqat va qobiliyatlarni rivojlantirishi, undagi ijobiy axloqiy sifatlarni avaylab o'stirishi darkor.

O'qituvchi yoki pedagog yoshlarga tillarni o'rganishda yordam qilar ekan, avvalambor so'nggi yillarda amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlardan uslubiy jarayonda to'g'ri foydalana olishi darkor.(4)

Bunda, til o'rganish uslublarini yevropaliklarga xos talqin qilishning tipologik xususiyatlariga binoan, ularni bir nechta shartli guruhga ajratish mumkin.

Til o'zlashtirish darajasi qiyin yoshlar birinchi guruhni tashkil etadi. Mazkur guruh asosan shaxsiy sifatlari bo'sh, asosan xotiralari yaxshi rivojlanmaganlardan tarkib topadi. Ko'pincha, ular o'quv maskanidagi kamchiliklarni tanqid qiladilar.

Yutuqlarni e'tirof etishni xohlamaydilar. Shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga ma'qullashni va o'z talablarini o'zgaralar so'zsiz bajarishini juda yoqtiradilar.

Ikkinchi guruh o'quvchilari til o'zlashtirishga qiziqadilar. Ularning xatti-harakatlari tasodifiy voqelikka, ta'sir kuchiga va vaziyat xususiyatiga bog'liqdir. Ular yangilikka tez beriladilar.

Uchinchi guruhga tillarni oson o'zlashtiradigan o'quvchilar kiradi. Ular shaxsiy talablari va ehtiyojlarini qondirish uchun xatti-harakatdan qaytmaydilar, hamisha yangilikka intiladilar. Eng muhimi, til o'rganish jarayonidagi xatolarini tezda anglab, shaxsan tuzatish payida bo'ladilar.

To'rtinchi guruhga til o'zlashtirishi yengil, ortiqcha qiyinchiliklarsiz kechadigan o'quvchilardan tarkib topadi. Tillarni o'zlashtirishga ular miyasining psixik jihatdan rivojlanganligi sabab bo'ladi. Ular nafaqat til, balki ko'p sohada yutuqlarga erishadilar.

Mazkur guruhlariga kiritilgan o'quvchilarning psixik holatini tahlil qilish va undan kouching asosida ta'lim berish jarayonida foydalanish o'qituvchiga yangi usullarni ishlab chiqishda qo'l kelishi mumkin.

Tadqiqot jarayonida Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi 56-maktabda o'tkazilgan dars jarayonida o'quvchilarga taklif etilgan inglizcha qo'shiq matnini 51 o'quvchidan 29 nafari (57%) tushungan. 17 nafar (33%) o'quvchi qisman anglagan, 5 nafari (10%) o'quvchi esa umuman tushunmagan.

Shu bilan bir qatorda, 2-mashg'ulot jarayonida o'quvchilarning mazkur tarkibiga (51 nafar) qo'shiq matnidan tushirib qoldirilgan so'zlarni eslab yodga olish taklif qilinganda, 23 nafari (45%) eslay olgan, 18 nafari (35%) qisman eslay olgan, 10 nafari (20%) umuman eslay olmaganlar.

Mazkur jarayonda takrorlash mashqlari o'tkazilib bo'lgach, 12 nafar (23,5%) o'quvchi qo'shiq matnini unchalik tushunmaganliklarini tan oldilar. Qo'shiqni to'liq yoki qisman tushunib, tahlil qila olish darajasiga esa 39 nafar (76,5%) o'quvchi muvaffaq bo'ldilar.

Ushbu hisoblarimizda o'quvchilar so'z boyligini oshirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarimiz, qolaversa, uslubiy ishlarimiz ijobiy samara berdi, deyishimiz mumkin.

Ushbu tahlillarimiz kouching asosida o'qitishda asosiy va qo'shimcha mashg'ulotlarni integratsiyalashtirish, o'quvchilarning bilish ehtiyojlari bilan intellektual xislatlarini uyg'unlashtirish va shular asosida mustaqil fikrlash va izlanuvchanlik qobiliyatlarini o'stirish haqidagi ilmiy va uslubiy qarashlarni, shuningdek, til ta'limining mazmuni va metodlarini takomillashtirishni qisman bo'lsa-da, to'ldirib boradi, degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son

2. Bespalko V.P. Slagayemye pedagogicheskoy texnologii / V. P. Bespalko. -M.: Pedagogika, 1991. 190 s.

3. Nenashev D.V. Kouching kak effektivnaya texnologiya formirovaniya emotsionalnoy kompetentnosti budущix menedjerov: diss. kand. ped. nauk. - Moskva, 2009. - 159 s.

4. Brod R. Kouching i nastavnichestvo v professionalnom razvitii menedjerov: problemy i vozmojnosti / R.Brod // Universitetskoye upravleniye: praktika i analiz. 2005. - № 7. - S. 57-64.

5. Xazratkulova Sh.N. «Совершенство методов воспитания на занятиях в начальных классах». Международной научно-практической конференции. АЭТЕРНА. УФА. 1 августа 2022 г.

6. Khazratkulova Shaira Noraliyevna. Use of modern teaching methods in education of Students in primary schools. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal. Indiya. 2022 yil fevral. (123-126-b.)

7. Xazratkulova Sh.N. "Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasb madaniyati va mutaxassis modeli" NamDU ilmiy axborotnomasi - 2022-yil 10-son. www.journal.namdu.uz

8. Xazratkulova Sh., Abdiraxmonov Sh. "KAYKOVUSNING "QOBUSNOMA" ASARNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI" International Multidisciplinary Conference Hosted from Manchester, England 25th April 2023. <https://conferencea.org>

9. Sh.N.Khazratkulova “EDUCATION DIRECTED TO STUDENTS IN TEACHING THE SCIENCE OF EDUCATION IN PRIMARY GRADES DISTINCTIVE ASPECTS” International Scientific Research Journal (WoS) April 2023. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/3767>

TIMSS TADQIQOTLARIDA MATEMATIK BILIM VA KO'NIKMALARNI BAHOLASH

*Daminova Dilbar Melimurodovna
TerDPI magistranti*

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik savodxonlik uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Matematik mulohazalarni yuritish, matematik tushunchalarni, usullarni, faktlarni va vositalarni qo'llash kabi matematik savodxonlik faoliyat sifatidagi mohiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: matematika, mulohaza yuritish, muammolarni hal qilish, matematik savodxonlik, kontekst, matematik tushunchalar va belgilar.

“Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” Prezident qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish, ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish va ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy qilishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi”. Matematika fani asoslarini yaratishga ulkan hissa qo'shgan Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy va Mirzo Ulug'bek kabi buyuk allomalarimizga munosib yosh avlodni tarbiyalash, zamonaviy bilimlarni o'quvchilarga yetkazish hamda mamlakatimiz yoshlarining matematika sir-asrorlaridan bahramand bo'lishlariga sharoit yaratib berish uchun ham qarz, ham farz hisoblanadi.

Matematik savodxonlik - shaxsning matematikani turli kontekstlarda formalizatsiya qilish, qo'llash va talqin qilish qobiliyatidir. U hodisalarni tushunish, tushuntirish va bashorat qilish uchun o'z ichiga matematik mulohazalarni yuritish, matematik tushunchalarni, usullarni, faktlarni va vositalarni qo'llash kabi jihatlarni olgan. Matematik savodxonlik insonlarga dunyoda matematikaning o'rnini tushunish, konstruktiv, faol va fikrlaydigan fuqaroga zarur bo'lgan mulohazalarni yuritish hamda qarorlarni qabul qilishga yordam beradi.

Matematik savodxonlikning aniqlashtirilgan ta'rifi matematik vositalar bilan ishlash ko'nikmalarini o'z ichiga olgan. Ularga ishlatilishi umume'tirof bo'lgan va kengaytirilishi davom etgan XXI-asrning texnologiyasiga mansub

fizik va raqamli qurilmalar kiradi. Ravshanki, bu ko'nikmalarga ega bo'lish sharti zamonaviy insonning muvaffaqiyatli bo'lishiga zarurdir.

Matematik savodxonlikni baholashni tashkil qilishning asosida quyidagi uchta o'zaro bog'liq jihatlar turadi:

1. Topshiriqlarda ishlatiladigan matematik tushunchalar majmui (*mazmun*),

2. Muammoni taqdim etadigan vaziyat (*kontekst*)

3. Bu kontekstda berilgan muammoni yechishga zarur bo'lgan matematika bilan bog'lash uchun o'quvchi faoliyatini tasvirlaydigan matematik aqliy *jarayonlar*.

Matematik savodxonlik tushunchasi turli yillardagi tadqiqotlarda turlicha talqin qilingan. Oxirgi tadqiqot natijalariga ko'ra unga quyidagicha ta'rif berish mumkin: tanqidiy fikrlash; ijodkorlik, kreativlik; tadqiqot va tahlil qilish; mustaqillik, tashabbuskorlik va qat'iylik; ma'lumotlardan foydalanish; tizimli fikrlash; muloqot qilish; mulohaza yuritish.

Matematik savodxonlik – bu shaxsning turli hayotiy vaziyatlar (kontekstlar) va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo'lay olish va olingan natijalardan muammoning yechimini talqin qilish va baholashda foydalana olish qobiliyatidir. U hodisalarni tavsiflash, tushuntirish va oldindan aytib berish uchun tushunchalar, algoritmlar, faktlar va vositalarni o'z ichiga oladi. U insonlarga matematikaning olamdagi o'rnini tushunishga hamda yaratuvchan, qiziquvchan va o'zini o'zi tahlil qiladigan XXI asr fuqarolariga zarur bo'lgan asoslangan hukm va qarorlar qabul qilishga yordam beradi [2].

Matematik savodxonlik har bir kishiga matematika olamini tushunishga, uning inson hayotida tutgan o'rni va ahamiyatini anglashga, faol, mulohazali va ishning ko'zini biladigan (konstruktiv) XXI asr fuqarosi uchun zarur bo'lgan, asosli mulohazalar yuritish orqali maqbul qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini o'zida shakllantirishga yordam beradi [3].

Ta'limiy yutuqlarni baholash xalqaro uyushmasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan TIMSS – matematika va tabiiy fanlar ta'lim sifatining xalqaro monitoring dasturini ham keltirish mumkin. Ushbu tadqiqot o'quvchilarning turli davlatlarda matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasi hamda sifatini solishtirishga, milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga ko'maklashadi.

IEA tomonidan 1995 yilgacha o'tkazilgan matematik va tabiatshunoslik ta'limi sohasidagi barcha tadqiqotlar bir xil kesimda o'tkazilgan. 1995 TIMSS tadqiqoti bitta kesimda emas, balki ketma-ketdagi ikkita 3-4 va 7-8-sinflar kesimida o'tkazilgan. Ushbu yondashuv muhim afzalliklarga ega edi. U ma'lum bir yosh guruhidagi o'quvchilarni qamrab olish va o'quv yutuqlarini baholashga imkon berdi. Masalan, 1995 yilda TIMSS tadqiqotida o'rganilgan ettinchi va sakkizinchi sinf o'quvchilari soni o'n uch yoshdagi o'quvchilarning deyarli ko'p qismini qamrab olgan. Shu bilan birga, alohida yoshdagi o'quvchilarni o'quv yutuqlaridagi o'zgarishlarni taqqoslash, kuzatish va tahlil

qilish imkoniyati tug'ildi. Masalan, sakkizinchi sinf o'quvchilarining 13,5 yoshdagi o'quv yutuqlari va 12,5 yoshdagi ettinchi sinf o'quvchilarining o'quv yutuqlari bilan taqqoslash amalga oshirildi va shu tariqa bir yillik o'qishning o'quv samaradorligi aniqlandi [4].

Shuni ham ta'kidlash kerakki, 1995 TIMSS tadqiqotida vazifa maktabdagi turli bosqichdagi o'quvchilarning o'quv yutuqlarini taqqoslash edi, shuning uchun uchta guruh o'quvchilari tanlangan. Tanlashda bittasi boshlang'ich sinflardan (3-4) iborat bo'lib, unda to'qqiz yoshli o'quvchilar ko'pchilikni tashkil etgan. Ikkinchi guruhda o'n uch yoshdagi asosiy maktabning ikkita sinfini (7-8) o'quvchilari qatnashgan. Uchinchi guruhga o'rta maktablarning bitiruvchi o'quvchilari kiritilgan.

Shaxsiy hayot bilan bog'liq kontekstlar odatda o'quvchi, oilasi, do'stlari va tengdoshlarining kundalik hayotiy bilan bog'liq (urtoqlari bilan muloqot, sport mashg'ulotlari, do'konlarda savdo-sotiq, dam olish, uy yumushlari).

Ta'lim/Kasbiy faoliyatga doir kontekstlarda berilgan masalalarda maktab hayoti yoki mehnat faoliyat bilan bog'liq. Ular o'lchash, narxni hisoblash, qurilish uchun materiallarni harid qilish (masalan, maktab matematika kabinetiga kitob javonini yasash uchun), buyurtma bo'yicha to'lash, muayyan ishni bajarish.

Ijtimoiy hayotga oid kontekstlar jamiyatning (mahalliy, milliy yoki umuminsoniy) hayoti bilan bog'liq. Maxalliy jamiyat bilan bog'liq vaziyatlar o'quvchi atrofida vujudga kelgan muammolarga (masalan, valyuta ayirboshlash, bankka omonat qo'yish) bag'ishlangan. Kengroq jamiyatda vujudga kelgan muammolar sifatida saylov tizimlari va saylov natijalari bilan bog'liq muammolarga (masalan, prezident saylovlari natijalarini bashorat qilish), transport, hukumat qarorlari, demografik muammolar, milliy statistika va iqtisodiyot masalalari qaralishi.

Ilmiy faoliyatga oid kontekstlar odatda matematikani fan va texnologiyaga, fizik hodisalarga bag'ishlangan (masalan, mavjud statistik ma'lumotlar asosida zilzila ro'y berish-bermasligi to'g'risida hulosa chiqarish). Bu kontekstlarda ob-havo yoki iqlim, ekologiya va tibbiyot, koinot, genetika muammolari qaralishi mumkin. Ularda nazariy savollar (masalan, aholining turli taqsimotlari) yoki bevosita real hayotga bog'liq bo'lmagan sof matematik masalalar (masalan, uchburchakning ikki tomoni berilganda uchinchi tomonni topish).

Hammamiz farzandlarimizning matematikada muvaffaqiyat qozonishini xohlaymiz. Ko'pincha matematikadan sinovga tayyorgarlik materiallariga haddan tashqari ishonish o'quv vaqtini o'g'iraydi, shu bilan birga, o'rganish va motivatsiyaga zarar yetkazadi. Darslik hamda o'quv metodik qo'llanmani yaratishda xalqaro davlatlarning ilg'or tajribalari o'rganildi. Xalqaro tashkilotlar ekspertlarining tavsiyalari inobatga olindi. Darslikda mavzular sodda, tushunarli tilda, hayotiy masalalar yordamida yoritilgan va rang-barang rasmlar bilan bezatilgan. Fanlararo integrasiya ta'minlangan. Darslik asosan o'quvchilarda matematik bilim, tasavvur,

tafakkur, mantiqiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ularning imkoniyatlari, yoshi, individual xususiyatlari, XXI asr ko'nikmalariga ega bo'lishlarini inobatga olgan holda yozilgan. Topshiriqlar soddadan murakkabga tomon spiralsimon tarzda rivojlanib boradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PF-4708-sonli "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori

2. Maxmudova D.M. Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar Pedagogical Education Cluster: Problems and Solutions Кластер педагогического образования: проблемы и решения International Conference "PISA" xalqaro dasturida matematik savodxonlik. Chirchik, Uzbekistan 1476-1480 bet.

3. "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash" "Sharq" NMAK Toshkent 2019.

4. TIMSS Monograph No.2. Research Questions and Study Design. General editor, David F. Robitaille.

5. Z.A.Abdunazarova. THE PLOT- THE ESSENCE OF ROLE-PLAYING GAMES AND THEIR ROLE IN TEACHING MOTHER TONGUE LESSONS In Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) May, 2022/5/26 1239-1244 Vol 3 No 5 (2022): wos

6. Shabbazova, D., Abduhalimova, Y., & Abdunazarova, Z. (2022). Psychological And Pedagogical Factors Of Developing Literacy Of Primary Class Students Based On Personal Value Approach. Journal of Positive School Psychology, 6(9), 3707-3712.

МЕТОДҲОИ УМУМИИ ТАРБИЯ ШАКЛҲО ВА ВОСИТАҲОИ ТАРБИЯ

Шанбиев Нурбек

Донишҷӯи институти давлатии педагогии Термиз

Роҳбари илмӣ: Ниёзова Саффия Букаевна

Омӯзгори институти давлатии педагогии Термиз

Аннотатсия: Дар ин мақолаи мазкур дар бораи мафҳуми тарбия, усулҳои тарбия, воситаҳои тарбия, усулҳои ташаккули шуури иҷтимоӣ, усулҳои машқ ва омузонидан, усулҳои худтарбиякунӣ, усулҳои рағбатнок кардан ва ҷазо додан маълумотҳо дода шудааст.

Мафҳумҳои асосӣ: Метод, воситаҳои тарбия, фаҳмонидан, омузонидан, одат кунидан, машқ кунидан, намуна, панду насихат додан, маҳкумкунӣ ва ҷазодихӣ.

Тарбиятгарон молики донишу тарбия буда, тарбиятшавандагон жавононе мебошанд, ки донишу тарбия меомузанд. Вале тарбиятшавандагон ба дараҷаи муайян фаъолият нишон надиханд, донишу таҷриба омукта наметавонанд. Аз ин вачҳ, усули тарбия- ин

усули фаъолияти ҳамкори ва таъсири мутакобилаи тарбиятгару тарбиятшаванда мебошад. Дар адабиёти илми усулҳои тарбия бо истилоҳи методҳои тарбия низ ба кор бурда мешавад.

Калимаи “**метод**” юнони буда, маънои роҳу равиш, усулро мефаҳмонад. Чун усулҳои таълим усулҳои тарбия низ ба қисмҳои ҷудогона тақсим мешаванд. Воситаҳои тарбия барои мувофиқи мақсад, таъби дил ҳал кардани ин ё он масъалаи тарбияви истифода мешаванд (аёнӣ, китобҳо, радио, телевизион). Ба ғайр аз ин, навъу хелҳои фаъолияти, ки ба он хонандагон ҷалб карда шудаанд — кинофилмҳо, асарҳои санъат, суҳбати зиндаи хонанда, бозихҳои бачагона, варзиш, маҳфилҳои бадеии ҳаваскорон ва монанди ин хелҳои фаъолият метавонанд воситаҳои тарбия шаванд.

Ҳамин тавр, дар ҷараёни тарбия муаллим бо назардошти манфиати як нафар хонанда ва ё ҷамъаи синф, ҳалли ягон масъалаи тарбияви синну соли хонандагон ва маҳдудияти индивидуали, дараҷаи тарбиятёфтаи онҳоро, хусусияти вазъияти педагогиро, ҳулас, бо назардошти маҷмуи шаклҳои таъсиррасони кор барад, ки ин ҳамаро *методи тарбия* мегуянд.

Тарбия ҷараёни ниҳоят мураккаб буда, ҳаёти иҷтимоию сиёсии ҳар қадам давра дар худ акс мекунад. Усулҳои он, восита ва шаклҳои он дар давоми ҷаҳон аср ташаккулёфта мукамал мегардад, ҳамон урфу одатҳои, ки ба рӯзгори мардум соҳор омадаанд, ба анъана мубаддал мегарданд. Аз ин рӯ дар тарбия урфу одат ва расму русуми ҳар як халқ, ки таърихан ташаккул ёфтааст ва ё дар амал ҷаҳонбиниву ҷаҳоншиносии у аз санҷиш гузаштааст, воситаҳои тарбия шуда метавонанд. Барои ҳамин тарбия аз ҷаҳони милли ва таърихи набояд ҷаҳонӣ шавад.

Тавсифи усулҳои тарбия

Ҷи тавре, ки дар бобҳои гузашта таъкид намудем, педагогикаи халқи ахлоқу одоб ва ҷаҳони ҷаҳонӣ тарбияҳои миллиро таҷассум кардааст. Дар педагогикаи халқи аз хелҳои гуногуни усул ва воситаҳои тарбия истифода бурда мешавад ва ин усулу воситаҳои ниҳоят гуногуну рангин буда, бисёр ҷаҳонӣ он аз педагогикаи илми бартаридорад. Зеро усулҳои маҷмур барои ташаккули педагогикаи илми низ таъсири ҳудро гузаштааст.

Дар педагогикаи халқи усулҳои гуногуни тарбия ба кор бурда шудаанд, ба тарзи умумӣ ҷунин тасниф мешаванд:

1. Фаҳмонидан (омузонидан, одат кунонидан машқ кунонидан).
2. Намуна овардан (маслиҳат додан, узр пурсидан, бобати хубию некуи ғап задан, намунаи ибрат шудан).
3. Панду насиҳат додан (даҳолат кардан, рози кунонидан, илтимос кардан, таваллою тазарруъ намудан, изҳори орзуву хошиш намудан, маъқул кардан, раҳмату ташаккурғуфтан, дуо кардан, роҳи сафед талабидан ва монанди инҳо).

4. Махкумкунӣ ва чазодихӣ (манъ кардан, таъна задан, гилаву гузор кардан, танбех додан, мачбур кардан, кохиш намудан, айбдор намудан, шарм дорондан, тарсонидан, бо нафрат нигоҳ кардан, савганд додан ва ҳоказо).

Агар эътибор диҳед, чаҳор усули зикршуда як чизи яклухту томро ифода мекунад. Пеш аз ҳама ба бача манзараи умуми фаҳмонида дода мешавад. Дар сурати ба моҳияти чизу чора ва ходисаҳо сарфаҳм нарафтани бачагон, тарбиятгар воситаи намунаро ба кор мебарад, яъне ба мушоҳидакории мустақили бачаҳо эътибор дода мешавад. Дарин маврид нафаҳмидагон туфайли панду насихати калонсолон ба моҳияти чизу нора ва ходисаҳо сарфаҳм мерафтаги мешаванд. Фараз кардем, ин дафъа ҳам бача нафаҳмад ва ё фаҳмиданро нахоҳад, дар чунин ҳол аз усулҳои махкум кардан ва чазо додан истифода карда мешавад. Вале ин чораю тадбири охири аст, ки халқ, онро хуб сарфаҳм рафтааст. Педагогикаи илмӣ замони ҳозира махкум кардану чазо доданро чораи охири доништааст, кушодатар карда гуем, он чораест, ки самараш ночиз буда, ба исбот ҳам расидааст.

Намунаҳои нодири педагогикаи халқӣ, усулҳои тарбиява кувваи таъсиррасонии тарбия бо воситаҳои муайян баамал бароварда шудаанд. Интизори қабули меҳмон будан, ба меҳмони рафтани чараёнҳои гуногуни меҳнат, ҳашарҳо, ҳама гуна чамъомадҳо (чойхона, маросимҳои тӯӣ), сайлҳо, кайд кардани ҳама гуна тадбир, маросимҳои гуногун ва монанди инҳо вазифаҳои тарбиявиро иҷро мекунанд.

Барои омӯзиши усулҳои тарбия, таҳлили онҳо, истифодаи онҳо дар раванди фаъолияти педагоги, осон намудани фарогирии одату малакаҳо, онҳоро ба таври шартӣ ба чанд гуруҳ тақсим мекунем: усулҳои, ки шуури иҷтимоиро ташаккул медиҳанд, усулҳои ташаккул додани ахлоқи чамъияти ва таҷриба; усулҳои худтарбиякуни, инчунин усулҳои рағбатнок кунонидану чазо додан.

Усулҳои ташаккули шуури иҷтимоӣ

Ба нияти ташаккул додани ҷаҳонбинии илмӣ, эътиқоди шахси, гоҷаҳои маънавию сиёсии хонандагон, мебоистуслухоеро дохил кард, ки ба шуур, эҳсосот ва ирода таъсир расонад. Моҳияти усулҳои ин гуруҳ аз ин иборат аст, ки чамъият назди шуури хонандагон чи гуна талабҳо мегузорад. Барои ёри расонидан ба ташаккули ҷаҳонбинии, сарфаҳм рафтани мазмуни зиндагии ҷавонон, бояд усулҳои истифода шаванд, ки шуури иҷтимоиро ташаккул би-диҳанд.

Фаҳмонидан. Дар хонандагон тарбия кардани шуурнокии сиёсӣ, фаъолиятмандии иҷтимоӣ зарур аст, яъне онҳосиёсати дохиливу хориҷии давлатро бифаҳманд ва идрокбикунанд. Фаҳмонда додан усулҳои, ки барои ташаккул додани шуури иҷтимоӣ бисёр кор фармуда мешавад. Вазифаҳои фаҳмонида додан ин аст, ки хонандагон дорой маданияти олий, соҳиби ғуруру ифтихори миллӣ

бошанд.Ва фахмонида додан ба хамин кори амри хайр бояд мададрасонад.

Сухбат. Сухани зиндаи муаллим барои ташаккул додани хислатҳои гояви ва ахлоқи хонанда усули пуртаъсир ба ҳисоб меравад. Хангоми интихоби мавзуи сухбат(барои ин ё онсинф) ахамияти хоса доштани мавзуъ, дархонандагон барангехтани боварии ахлоқи ва натиҷаҳои дилхохи онро бояд ба ҳисоб гирад.Сухбатро дар мавзуҳои гуногун ташкил додан мумкин: мавзуҳои ахлоку одоб (меъёри ахлоқи одамон дар жамъият, қоидаҳои ҳуддори), мавзуҳои эстетика (зебои табиат, муносибатҳои байни мардум, зебои ва хушхулки инсон) мавзуҳои сиёси (сиёсати дохили ва беруни давлат, рӯйдодҳои ҷаҳон), мавзуҳои оиди таълиму тарбия сарфаҳм рафтан ба моҳияти ҳодисаҳо (қайҳон, олами ҳайвонот).

Ҳикоя. Одатан хонандаҳо ба ҳикояҳои мароқзохир мекунад, ки онҳо ҳаёти бошанд, образҳои ибратбахш дошта бошанд. Ба мактабии оиди принсиҳои ҷудоғона ахлоқ, меъёри ахлоқ, қонуниятҳои таърих, сарватҳои табиӣ Ватан, одамони наҷиб, оиди таърих, адабиёт, санъатмаълумот хоҳад дод. Адабиёти бадеӣ, радио, телевизион, мақолаҳои ба газетаву маҷаллаҳо дарҷшуда низ маводипурарзишанд. Чи сухбату чи ҳикоя дар мавзуҳои муносиби синну соли хонанда интихоб гардида, ба забони таҳсил бояд гузаронида шавад.

Намунаи шудан. Он чизе нисоят муҳим аст, ки хонандаҳо дар одамони гирду атроф сифатҳои хуби ахлоқиро дида, аз он намунаи ибрат гиранд. Шахсан намуна шудани муаллим, алаҳқусус ба ҷавонон таъсири қалон мерасонад. Онҳо ҳуддори муаллими хангоми дарсдиҳӣ байни ҷомеа, бо одамони гирду атроф, дар ҷи гуна муомилаву муносибат будан, ба қадом тарзи иҷроии вазифа қардани эшонро ба мушоҳида мегиранд.

Омили асосии рушду қамолот, ҳудмуайянкунии баҷа-ин фаъолият мебошад. Қоидаи аз нуқтаи назари фаъолият наздик шудан мағз андар мағзи тамоми ҷабҳаҳои таълиму тарбия ҷойгир шудааст.

Фаъолият хонандагонро водор менамояд, ки донишхоро ба таври мушакл фаро гиранд, барои аниқ қардан майли онҳо ба ихтисос, мусоидат мекунад. Аз он ҷиҳати мерасонад, ки ҷи гуна таҷрибаҳои фаъолияти эҷодӣ, арзишҳои ба эҳсосот алоқамандро аз худ кунанд.

Аз синфи яқум оғоз намуда ба он ноил гардидан лозим аст, ки хонандаҳо бо меҳнати ғоиданок машғул шаванд. Ҷунин меҳнат дар он сурат натиҷаи хуб хоҳад дод, ки вай аз тарафи ақсар одамон, ҷомеа ба иҷро расад.

Усулҳои машқ ва омӯзонидан

Машқ, одат қунондан, ин фаъолияти баҷахоро оқилона, бо ҷаҷми қордонӣ ба як мақсад ниғаронида ва боҳамҷиҳати ташаккул дода мешавад, онхоро ба риояи мезони ахлоқ ва иҷроии қоидаҳои ҳулку

атвор рахнамун месозад. Одатхо дар бачаги таркиб ёфта, сипас мустахкамшуда мераванд.

Муаллимон, падару модарон дар бачахо шакл гирифтани одатҳои мусбиро бояд зеро назорат бигиранд. Хонандахо одатҳоро дар натижаи мулоқоти бардавом бо касониназдик, тақлид кардан ба кирдори онхо, тавассути тарбия ҳосил мекунанд. Ва дар натижа одат ба эҳтиёҷ табдил меёбад.

Машқ такрори бисёрдафъинаи ҳаракати муайянро дарбар мегирад. Барой хонанда машқ, ва одат кунонидан чараёни бошуури эҷод аст. Дар натижаи машқ малака, одат, донишҳои нав ба нав тавлид меёбад, истеъдоди ақлии хонанда ривҷ меёбад, таҷрибаи ахлоқии у васеъ мешавад. Тарбияи беодат ба бинои бепойдевор монанд аст, одат бошад ба туфайли машқи пайдарҳам мустахкам мегардад.

Омузонидан аз мачмуи чандин ҳаракати пайдарҳамиборат аст. Муаллим вазифадор аст, ки ин ҳаракатҳоронишон бидихад, фаҳмонида диҳад, ба мушоҳида гирад. Дар амалиёти тарбия хелҳои гуногуни машқ, кардан вучуддорад: *машқ дар фаъолият; машқҳои рузмарра, машқҳои махсус.*

Супориш. Ба таври ҷамоа иҷро кардани супоришҳои мекхати дар хонандагон таҷрибаҳои ахлоқиро ташаккулмедихад ва ин ҳол ба аҳамияти ҷудогона молик аст. Хонандагон ба он одат мекунанд, ки қувват ва неруи худро ба кори умум сарф кунанд, дар назди ҷамоа масъулиятро ҳис намоянд. Мекхат ҳаракати бачаро ташаккул медихад, мустахкам мегардонад.

Талаби педагоги. Талаби педагоги яке аз усулҳои басомухими тарбия мебошад. Талаб метавонад ҳар хел шавад: иҷрои вазифаҳои гуногун аз ҷониби хонанда; ифодаи меъёри феълӣ атвор, ахлоқу одоби иҷтимоӣ; дар ин ё он фаъолият иштирок карда, хангоми иҷрои он ба сифати вазифадори мушаххас намоён гаштан; ба ҳаракатҳои оқилонадалолат кардан.

Усулҳои худтарбиякунӣ

Агар дар ниҳоду сирини хонанда эҳтиёҷоти худтарбиякунӣ, яъне аз паи тақомулоти худ бошууруна кор бурдан пайдо шавад, дар он сурат чараёни тарбияро самаранок ҳисобидан мумкин мешавад. Хонандагон, алаҳусусмактабиёни синну соли миёна ва калонсолро ба он рахнамун сохтан лозим аст, ки онхо дониш ва малакаи худро мустақилона афзоянд. Худтарбиякунӣ маънои онро дорад, ки хонандагон дар фаъолияти худидоракуни иштирок кунанд, ин бошад воситаи пуртаъсир, ташаккул додани мавқеъ дар фаъолияти иҷтимоӣ мебошад. Хонандагон дар хониш, тарбия, вақти истироҳат, аз усулҳои худротарбия кардан истифода мебаранд, худро тарбия кардан бошад касро ба ташаббускори ва мустақил амал кардан мебаранд.

Сифатҳои худтарбиякунӣ дар вақте пайдо мешавад, ки бача бо ҳисси вазифашиносии рафтор карда, худро хамчун шахс ба идрок

кардан сарфахм равад, дар корҳои амалисохибистикдол буданаширо нишон диҳад

Ба худ баҳо додан. Ба он мусоидат кардан зарур аст, кикобилияти хонанда бо қувваи у ба зухур пайванданд. Бакори худ баҳо додан мушкилихо дорад, вале хонандаро баин бояду шояд тайёр кардан мумкин. Аз ин сабаб хонандабоирода бошад, вазифаи худро сарфахм равад, барои тахсилу тарбияи у сабабхову мотивхо чун асос хизмат кунанд, яъне у хошиши тарбия гирифтано дошта, худро азидгохи рафиқону касони наздик арзёби карда, барои тақомулоти худ кушиш ба харч диҳад.

Ба худ баҳо додан ба он ёрманди мерасонад, ки хонанда имкониятҳои хешро ҳисобу китоб карда бинад, инчунин мусоидат кунад, ки у баҳои ҳолисонаи худро бевосита аз берун гирифта, ин тарафи масъала дар у ҳисси кано-атмандиро ба вучуд оварад.

Усулҳои рағбатнок кардан ва ҷазо додан

Бачаҳои мактабхон ҳаминро бояд ҳис кунанд, ки харкадоме аз онҳо рушду камол меёбанд ва аз ин хурсанд ҳам мешаванд. Танҳо дар чунин ҳолат бача пешравии худро дида метавонад, ба қувваи худ бовари ҳосил мекунад. Иззату ҳурмати бачаро бажо меоранд, ба вай бовари изҳорнамуда, ба суханаш гуш меандозанд, вай чун фарди ба ҷамоа даркори аст, муаллим низ ба у марок, зоҳир мекунад. Барой ноил шудан ба ин, аз усули рағбатнок гардонидан истифода кардан лозим. Зеро рағбатнок кунониданба эътирофи қуввае асос ёфтааст, ки калонсолон ба бачабовар мекунанд, тавлиди қобилият ва фазилатхоро ҳамчун ҳодисаи мусбӣ арзёби менамоянд. Рағбатнок кунонидан, дили хонандаро мебардорад, уро шавку завқ, мебахшад, мусоидат мекунад, бар ин, ки хонанда боз ҳам хушхулку хушодоб шавад. Дар таҷрибаи мактабҳо хелҳои зерини рағбатнокунони истифода мешаванд.

1. Қувва ва имконияти хонандаро ба ҳисоб гирифта, басупоридани вазифаи масъулиятнок ба у бовари кардан; дар ин маврид хонанда бо кадрӣ қиммати худ мефаҳрад.

2. Таърифу тавсиф кардан (дар назди падару модарон, ҷамоаи бачагон).

3. Додани тухфаҳои хотирави (китоб, ручка, аёнӣ ва монанди инҳо)

4. Додани Ифтихорномаҳо.

5. Бо стипендия тақдир намудан.

6. Фотосурати уро ба лавҳаи ҳурмат гузоштан.

7. Дастгириву ҷонибдори кардан.

8. Масъулият ва изҳори миннатдории ҷомеа.

9. Дар саф дар кӯатори яқум истодан.

10. Дар мусобикдҳо бардоштани байрак;

11. Эълону иттилоот дар рузнома, радио ва монанди

инҳо.

Жазо додан ин баҳои манфиест дар ҳақиқи феълӣ атвор, гуфтору кирдор ва фаъолияти тарбиятгиранда.

Жазо усули охири тарбия буда, ба манфиати хонандава тамоми синф нигаронида мешавад. Хангоми истифодабарии усули чазо, чазои ҷисмонӣ додан, задан, калтаккори кардан мумкин нест, тарсонидан ва даргазаб кунонидани бача низ натиҷаи хуб нахоҳад дод, зеро хонанда аз бими тарс ба дуругуи одат мекунад, мунофику дуруя мешавад. Ба чораҳои чазо, ки дар мактабҳо то дараҷаи имконпазир истифода мекунад, инҳо дохил мешавад:

— *Танбех додан*; навъи хеле сабуки чазо мебошад. Муаллим ба бача рӯбару истода танбех медиҳад ва ин танбехро дар рӯзнома нависта мондан мумкин.

— *Огоҳонидан* барои пешгири кардани амалиёти номаъқул истифода карда мешавад.

— *Ҳайфи ту додан*. Агар танбеҳу огоҳонидан натиҷаи ҷамърасро надихаду хонанда интизоми муқарраршударо вайрон кардан гирад, дараҷаи айбу иллат ва вайроншавии интизоми уро ба инобат гирифта ба хонанда ҳайфи ту эълон кардан мумкин.

— *Шармсор кардан*. Яке аз эҳсосоти нозуки одамизод шарм, орномус, ҳаёст. Одатан, дар инсон иззати нафс, одамгари ҷи андоза кави бошад, пеш аз ҳама иззату ҳурмати хешро ба ҷо орад, дар ҷунин шахс ору номус, шарму ҳаё ҳамон қадар пурқувват мешавад. Хангоми тарбияи бачаҳо ҳамин гуна ҳислатҳоро бо эҳтиёткори ривоч додан даркор, вале бардавом ва ҳамеша шарм дорондану сурхусафед кардан нашоёд. Аз усули шарм дорондан бо эҳтиёткори ва дар мавқеи худ истифода карда шавад, дар он сурат ба натиҷаи мусбат умед бастан мумкин аст.

Хулоса, усулҳои умумии тарбияе, ки таърифаш дар болодода шуд, тамоми соҳаҳои таъсиррасонии педагогиро фарогирифта наметавонад. Фанни педагогика ва амалиёти он ҳамеша ривоч меёбад, аз ин вачҳ ҷараёни педагогӣ ҳаммуқаммал мегардад.

Муваффақият ва қомебиҳои тарбия ба тарзи истифодаи он, дараҷаи ҷойгиркунии он дар системаи тарбия, қибарои ҷамъаи синф пешбини шудааст, инҷунин ба воситаи усулҳои истифодашаванда алоқаманд аст. Дар сурати муваффақият иҷро гардидани вазифа, ноил шудан ба мақсади дар пеш гузошташуда, тарбия ҷавобдеҳи талаботи имруза шуда метавонад.

АДАБИЁТҲО.

1. Педагогика. Дарсӣ. Мунавваров А. Т., 1996, с. 74-86. китобхонаи www.ziyouz.com

2. Иброҳимов Х.И., Абдуллоева Ш.А. Педагогика. Дарсӣ. Т., «Илм», 2005, с. 67-74.

3. Розиков О. ва дигарон. Дидактика. Китоби дарсӣ. Т., «Илм», 1997, с. 147-164.

4. Турсунов И.Й., Нишоналиев У. Курси педагоги. Т., «Муаллим», 1997, с. 49-57

5. Мунавваров А. – Т., 1996, с. 74-86. 4. Розиков О. ва дигарон. Дидактика. Китоби дарсӣ. Т., «Илм», 1997, с. 147-164.

6. Турсунов И.Й., Нишоналиев У. Курси педагоги. Т., «Муаллим», 1997, с. 49-57.

7. Мусоев У. ва дигарон. Китоби дарсӣ-дониш, маълумот ва иттилоот // «Маърифатгазетаси», 2003, 26 феврал. Марҳилаҳои истиқлолият Марҳилаи 1: Ба мувоҳисаи хурд оид ба вазифаҳои Қонуни Ҷумҳурии Ўзбекистон «Дар бораи маориф» омода шавед.

8. Niyozova Safiya "Providing interdisciplinary integration in "education" lessons in primary grades". Society and innovations Journal. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 10 (2022) / ISSN 2181-1415

9. Niyozova Safiya. . "МУСТАҲКАМИИ ТАЪЛИМИ ИБТИДОӢ НАТИҶАИ ПЕШРАВИИ ДАВЛАТУ МИЛЛАТ". YANGI O'ZBEKISTON PEDAGOGLARI AXBOROTNOMASI, <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/12651>

10. Niyozova Safiya(2023) "АҲКОРИ ТАЪЛИМИ ВА ТАРБИЯВӢ ДАР АСАРҲОИ САЪДИ ШЕРОЗӢ ВА АҲАМИЯТИ ОН ДАР ҶОМЕАИ ИМРӢЗАИ МО". Yangi O'zbekiston pedagoglari axborotnomasi, 842-847.

11. Niyozova Safiya "IMPROVING THE PROCESS OF PROVIDING INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN "EDUCATION" LESSONS IN PRIMARY GRADES". In Volume 3, Issue 10 of Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) Oct., 2022.

PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA

*Bosimova Mahliyo Dilshod qizi
TerDPI 1-bosqich talabasi*

Annotasiya: Ushbu maqola pedagogika fan sifatida vujudga kelishi, pedagogik g'oyalarning tarqalishida mashhur faylasuflarning fikrlari va o'z faoliyatida o'qitish hamda tarbiyalash vazifalariga mos tarzda ishlab chiqilgan nazariyalar haqida bo'lib, pedagogika fanining obyekt, predmeti va tuzilishini ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: pedagogika, bilim malaka, ko'nikma, pedagogika tuzulishi, pedagogika tarmoqlari, tarbiya, o'qitish

Insoniyatning shaxs sifatida shakllanishi uning jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi, jismoniy, ma'naviy salohiyati bilan belgilanadi. Bola dunyoga kelar ekan ilk kunlardan jamiyatga moslashish, atrof muhitni o'rganishga bo'lgan

harakatlar faollasha boshlaydi. Uning tarbiyasi oila, mahalla va ta'lim muassasalarida shakllanadi va bu pedagogika fanining bosh masalasi sanaladi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati-uni o'qitish va tarbiyalash uning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Pedagogika bu tarbiya haqidagi fandır. "Pedagogika" grekcha so'z bo'lib, "peydogogos"- "bola yetaklovchi" ma'nosini anglatadi. Pedagogikaning asosiy masalasi bu tarbiyadir. Tarbiya bu jamiyatning rivojlanishi uchun asosiy tushuncha hisoblanadi. Tarbiya orqali barkamol, komil, jamiyat rivojlanishi uchun o'z hissasini qo'shadigan insonni voyaga yetkazish mumkin. Bu esa Pedagogika fanining asosiy vazifasi. Pedagogika fanining obyekt-yaxlit pedagogik jarayon, predmeti esa ta'lim tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalaridir. Pedagogika fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- Sharq va G'arb xalqlari og'zaki ijodiyoti, pedagogikasi, mutafakkir, ma'rifatparvar, pedagog va olimlarning tarbiyashunoslikka doir ilg'or g'oyalarini tahlil qilib, komil inson tarbiyalash jarayonini o'rganish;

- komil insonni tarkib toptirishning qonuniyat, qoida va zarur sifatlarini aniqlash;

- pedagogika-tarbiyashunoslikdagi ta'lim va tarbiya nazariyasini hozirgi davr xususiy metodikasi bilan uzviy muammolarini ishlab chiqish va yangi pedagogik texnologiya tamoyillariga amal qilish;

- ta'lim-tarbiya nazariyasidagi qoida, qonun, tamoyil, metod va usullarni maktab amaliy hayoti bilan bog'lab bo'lajak o'qituvchilarga o'rgatish;

- xalq ta'limini boshqarish va rahbarlik masalalarini chuqur o'rganib bo'lajak o'qituvchilarni qayta tayyorlash muammolarini hal qilish

Pedagogika fanining mana shunday vazifalari va maqsadlari o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmagan. Bu nazariyalarni ishlab chiqqan va o'z faoliyatida qo'llagan, nazariyalarini isbotlab, pedagogika faniga oid asarlar yaratgan mashhur Yunon faylasuflariga Suqrot, Aflotun, Arastu, Demokratik va boshqalarni misol qilib keltirishimiz mumkin. O'rta Osiyolik buyuk ajdodlarimizdan esa Mahmud Qoshg'ariy, Ibn Sino, Beruniy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy va boshqalarni keltirishimiz mumkin.

Qadimgi Yunon faylasufi Suqrot o'zining pedagogik qarashlarida mehnat tarbiyasiga alohida e'tibir beradi. U mehnatni kishining axloqiy go'zalligi deb hisoblaydi. Suqrotning axloq xususidagi ta'limotiga ko'ra, ezgulik-bilim, donishmandlik-yaxshilikni biluvchiga yaxshilik qilishdir. Aristotelning ta'kidlashicha esa, bola 5 yoshidan boshlab 7 yoshgacha kelajakda o'rganishi kerak bo'lgan fanlar bo'yicha darslarga qatnashi kerakligini aytadi. Tarbiyaning bosh maqsadi bolani bo'sh vaqtini ongli ravishda unumli o'tkazishga o'rgatish ekanligini ta'kidlaydi. Yunonistonda pedagogikaning rivojlanishidagi ulkan hissa qo'shgan mutafakkir olimlardan biri Demokrit esa bolalarga namuna bo'lish, so'z orqali ta'sir ko'rsatish, ishontirish va dalillar bilan tarbiyalashga, ularni mehnat qilishga o'rgatishga alohida ahamiyat

bergan. Demokrit jamiyat oldidagi burchiga sadoqatli, ijtimoiy va siyosiy hayotda faol ishtirok etuvchi kishini axloqli inson deb hisoblagan.

O'rta Osiyolik ajdodlarimiz qarashlariga keladigan bo'lsak Ibn Sino tarbiya jarayoni aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik, va mehnat (hunar o'rgatish) tarbiyalarining bir butunligini tashkil etadi, deb ko'rsatgan edi. Yana u bilim olishda bolalarni jamoa bo'lib maktabda o'qitish zarurligini ko'rsatadi va ta'limda quyidagilarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

1. Bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'yimaslik.
2. Ta'limda yengildan qiyinga sari o'rgatish.
3. Olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos kelishi.
4. O'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish.
5. Bilim berishda bolalarni mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish.
6. O'qitishni jismoniy bilimlar bilan qo'shib olib borish.

Oilada ota-onaning o'rnini alohida ko'rsatish zarur. Ular bola tug'ilgach, ota unga yaxshi nom qo'yishi va yaxshi tarbiya berishi lozim. Bu Ibn Sinoni qarashlarida ham mavjuddir. Chunki tarbiya avvalo mana shu ishlardan boshlanadi. Ibn Sino "Kitob-al qonuni fit-tib" ("Tib qonuni"), "Donishnoma", "Hayy ib yaqzon" qissasi, "Hidoyat", "Klunj", "Risolatul tayr", "Tadbiri manozil" va boshqa asarlarida pedagogikaga doir qarashlari bayon etilgan asarlari mavjud. Yana bir allomamiz Abu Nasr Farobiy birinchi bo'lib ta'lim va tarbiyaga ta'rif bergan olimdir: "Ta'lim-so'z va o'rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya esa amaliyot, ish-tajriba bilan amalga oshiriladi",- deb ta'kidlab o'tgan. Mana shunday ko'plab allomalarimizni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ularning barchasi pedagogika fanining yaratilishi uchun o'z hissasini qo'shishgan va unga asos tayyorlab berishgan shaxslardir.

"Kelajak bugundan boshlanadi",- deydi dona xalqimiz. Yosh avlodni kelgusi hayotda tayyorlash, ruhiy va ma'naviy jarayonining qay maqsadga yo'nalganligi aniqlash va uni maqsad sari tarbiyalash pedagogika fanining vazifalaridan hisoblanadi. Pedagogika fanining maqsadi ham o'qituvchilarning o'z oldiga aniq maqsad qo'yib, o'z ustida ishlashi, izlanishi, intilishi va tarbiyachilik san'atiga tayyorlashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni/ Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T: "Sharq" nashriyot- matbaa kontserni-1998-yil

2. Pedagogika. Toxtaxodjaeva M.X va boshqalar-Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatlari, 2010.

3. Pedagogika nazariyasi va tarixi .R.Mavlonova va boshqalar.- Toshkent, fan va texnologiya. 2010.

5. Ollokulova F. U. Value relationships in young people and the uniqueness of their decision making //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 9. – C. 373-376.

6. Olloqulova F. U. TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TAVSIFI. Tadqiqotlar, 6 (2), 336–339. – 2023.

7. qizi Bosimova M. D., Olloqulova F. U. TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA UMUMMADANIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 692-695.

8. Olloqulova F. U. Shodiyev. RD Qadriyatli munosabatlar va ularni ta'lim-tarbiya jarayonida shakllantirishdagi yondashuv tamoyillar //Jurnal nomi: QarDU xabarlaril ilmiy, nazariy, uslubiy jurnal. – 2017.

9. Ulasheva A., Olloqulova F. TA'LIMIDA TIZIMIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI //Models and methods in modern science. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 40-44.

10. Xusanov R., Olloqulova F. SHAXS SHAKLLANISHIDA SHARQ MUTAFFAKIRLARI QARASHLARI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI //Models and methods in modern science. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 34-39.

11. Bosimova M., Olloqulova F. MUAMMOLI METODLAR VOSITASIDA O 'QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH //Models and methods in modern science. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 11-13.

12. Оллокулова Ф. Boshlang'ich sinf o 'quvchilarida tadqiqotchilik faoliyatini konsentrizm asosida shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 10/S. – С. 128-134.

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI TIZIMLI YANGILASHDA MODELLASHTIRISHNING O'RNI

Davlatova E'tibor Abdunazarovna
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini modellashtirish haqida fikrlar keltirilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini modellashtirishda o'quvchilarning ijodiy fikrlashi rivojlanishining mazmun-mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ona tili va o'qish savodxonligi, o'quv-bilish faoliyati, ijodiy fikr, modellashtirish.

Respublikamizda xozirgi kunda boshlang'ich ta'limga juda katta e'tibor qaratilyapti. Xususan, sifatli ta'limni tashkil etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarini tizimli ravishda yangilashda, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishda, ularni ijodiy fikrlashga o'rgatishda, har bir topshiriqqa kreativ yondashishga o'rgatishda o'quvchilarning o'quv-bilsh faoliyatini modellashtirishning o'rneq beqiyosdir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta'lim sohasi haqida quyidagi fikrlarni ta'kidlaganlar. "Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek:

"Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi,
Bilim bor joyda buyuklik bo'ladi".

Shuning uchun ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta'lim dargohlariga borib, o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, o'quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish bo'yicha ular qo'ygan masalalarni birgalikda hal etishimiz kerak.

Biz kelgusi yil Davlat dasturiga xalqimiz ko'targan barcha masalalarni aniq yechimlari bilan kiritamiz. Ushbu jarayonlarda deputat va senatorlar, mahalla vakillari, ziyolilar, yoshlar, tadbirkorlar va keng jamoatchiligimizdan faol bo'lishlarini, yangi-yangi taklif va tashabbuslar bildirishlarini so'rayman"[1].

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosi didaktika, shuningdek, metodika fanlari sohasidagi yangi, zamonaviy yo'nalish bo'lib, o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosini tadqiq qilish an'anaviy mavzularni o'rganishga nisbatan murakkab kechadi. An'anaviy mavzularda ilmiy tadqiqot o'tkazish yo'llari, vositalari, ilmiy jamoatchilik tan olgan printsiplar ma'lum darajada aniqlangan, sayqallangan bo'lsa, ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirishda qo'llaniladigan tadqiqot usullari va vositalari tadqiqot ob'ekti sifatida yetarli o'rganilmagan, ularni aniqlash tamoyillari tahlil qilinmagan. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosida – bilimlarni, empirik qarashlarni "ta'lim", "ijodiy faoliyat", "loyiha", "loyihalashtirish" kabi kategoriyalar vositasida bayon qilish "mohiyatdan voqelikka", "voqelikdan mohiyatga" o'tishni taqozo qiladi. Mohiyatdan voqelikka o'tish – bu o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish bo'yicha mavjud bilimlar, faoliyatda ishlatiladigan tajribalardan yangi bilimlarga, o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirishning takomillashgan tajribasiga qarab borishni anglatadi. Voqelikdan – biz taklif qilayotgan ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish texnologiyasidan mohiyatga o'tish – bu yangi tajriba xususiyatlari, ishlatilgan usul, vosita, rioya qilingan printsiplar asosida ta'limni loyihalashtirish muammosining rivojlangan shaklidir [2].

Modellashtirish mavhumlashtirish va ideallashtirish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular yordamida modellashtiriladigan ob'ektning modelda aks etadigan tomonlari ajratiladi. Modellashtirish yordamida o'rganiladigan jarayonni yaqqol namoyish etish, u to'g'risida bilimlarni tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish, yaxlit tasniflashlarni ishlab chiqish, komponentlar o'rtasida aloqalarni detallashtirish imkoni beriladi [3;114-b.].

Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi dars jarayonlarida modellashtirishni qo'llash orqali ko'rgazmalilik va modellashtirishning o'zaro nisbatlari borasidagi masala vujudga keladi. Ta'lim jarayonida ko'rgazmalilik

bilan modellashtirishning o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar haqida aniq va yorqin tushunchaga, muayyan tasavvurga ega bo'lish uchun qiyosiy tahlil o'tkaziladi. Modellashtirishni ko'rgazmalilik bilan taqqoslaganda namoyon bo'ladigan o'ziga xos tomoni shundan iboratki, o'rganish obyekti bevosita emas, balki o'sha obyektни tadqiq etish yo'li bilan o'rganiladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchi orfografik (ilmiy) ko'nikmalarga ega bo'ladi. Bu muhim masalani hal etishda imlo va u bilan bog'liq tushunchalarni modellashtirish usuli eng samarali va maqbul deb hisoblanadi. Darsni sxema (model)lar qurish vositasida o'qitish orqali uslubiy innovatsiyalarga, shaxsga yo'naltirganlik tomondan yondashuv muammosini hal etish mumkin. Bu esa o'z navbatida dars jarayonlarida ham bir o'quvchining faolligini ta'minlaydi. Dars o'tishning bu shakl va uslubida asosiy e'tibor o'quv faniga xos tushuncha va qoidalari amaliy muloqotga ko'chira bilishiga qaratiladi va ayni vaqtda har bir tushuncha hamda atamaning ta'rifini "Qoriyod" qilish tartibi o'z-o'zidan ahamiyatini yo'qotadi. O'quvchi modul texnologiyasi asosida o'qir ekan unda bilim, ko'nikma, malaka va yangicha kompetentsiyaga ega bo'lish imkoniyati oshadi [4].

Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitishda model dasturiga asoslangan darslarda nutqiy kompetentsiyalarga quyidagilar kiradi: modellashtirish (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish), o'qituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarni tinglab tushuna oladi; rasmlar asosida va o'qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi, mashq matnidagi so'zlarni qo'shib o'qiy oladi, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o'qiy oladi, x va h tovushli so'zlarni to'g'ri yoza oladi, bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi, mash'al, ma'qul, ta'lim, Jur'-at, ta'-zim kabi tutuq belgili so'zlarni bo'g'inga bo'lib yoza oladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi dars jarayonlarida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini modellashtirishda o'quvchilar berilgan barcha topshiriqlarni bajarib, dasturda ko'zda tutilgan materiallarni to'liq o'zlashtiradilar. Shuningdek, boshqa turdosh fanlarning murakkablashib borishiga tayyor turadi. Barcha fanlardan dars jarayoni modellashtirish asosida tashkil etilsa, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlari oshadi va jamiyatda o'z o'rnini topishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022
2. Kamroev A. STUDENTS'CREATIVE ACTIVITIES IN DESIGNING MOTHER TONGUE EDUCATION //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 7. – С. 285-296.
3. Сейтхалилов Э.А., Тожиев М. Педагогическая технология: опыт практического применения и системно-содержательного анализа. Учебное пособие . Изд.-во «Tafakkur- bostoni». Т.: 2012.-256 с.

4. Abdusamadov A.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv-bilish faoliyatini modellashtirish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Qarshi. 2023. - 126 b.

5. Makhliyo Haydarova. MODEL AND PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS CONDUCIVE TO THE FORMATION OF MANAGERIAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 7 No. 11, 2019 ISSN 2056-5852.

6. XAYDAROVA MAHLIYO XABIBULLAYEVNA. THE NEED TO TEACH THE SUBJECT OF EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL. International Conference on Advances in Education, Social and Applied Sciences. July 9th, 2022.

7. XAYDAROVA MAHLIYO XABIBULLAYEVNA. THEORETICAL BASES OF PREPARATION OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR TEACHING THE SUBJECT OF EDUCATION. International Conference on Advances in Education, Social and Applied Sciences. July 9th, 2022.

8. Haydarova Makhliyo Khabibullayevna. Scientific - Theoretical Fundamentals Of Improving The Methodological Training Of Future Primary School Teachers To Teach The Subject Of Education. Turkish Online Journal of Qualitative inquiry (TOJQI). Issue 10. 786-792

9. MH Khaydarova. DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMMUNICATION COMPEPENCIES IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. Восточно-европейский научный журнал. 37-39. 5-6 (57). 2020.

BOSHLANG'ICH TA'LIM FANLARINI O'QITILISH JARAYONIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI MEROSIDAN FOYDALANISH.

*TerDPI 1-bosqich talabasi
Donayeva Ashuroy Ollanazar qizi*

Anotatsiya: Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda sharq mutafakkirlarining ilmiy ma'naviy merosidan foydalanish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bitta fanning o'z tarixi vujudga kelishi bor. Shunday ekan ushbu maqolamda esa sharq mutafakkirlari merosidan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar berilgan. *2022*

Kalit so'zlar: Ma'naviy ozuqa, bilim, ehtiyoj, sezgi organlari, jamiyat, yetuk shaxs.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy axloqiy jihatdan barkamol ilmi inson qilib tarbiyalash vazifasi ko'p jihatdan boshlang'ich sinflarda ta'limni to'g'ri berish, xususan, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularning nutqini talab darajasida o'stirish bilan o'zaro bog'liqdir. Insoniyat yaratilgandan buyon butun hayoti davomida rivojlanishga, yangilikka, o'zining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga harakat qilib keladi. Insonlarning doim ehtiyot sezadigan muhim omillaridan biri bu- ma'naviy ozuqadir. Inson qorni ochganda yegulik qidirgani kabi, miyadagi boshliqlarni to'ldirish uchun ham ilm tomon intiladi. Bilimlar hajmi kengaya boshlagan sari

muallimlarga ehtiyoj tug'ila boshlaydi. Boshlang'ich sinfda olingan ma'naviy, axloqiy ta'lim bolani yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga asqotadi. Bejizga "Yoshlikda olingan bilim, toshda o'yilgan naqsh kabidir" deyilmagan. Bu maqolning tag zamirida ibratli, ma'noli fikr yashiringanini yaqqol bilsak bo'ladi. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda sharq mutafakkirlarining ilmiy, ma'naviy merosidan foydalanish ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, ajdodlar merosi o'zligimiz, ma'naviyatimiz, aslimizdir. Xalqimizning tayanchi ma'naviy merosning o'zi bir katta xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanishimiz zarur. Tarbiya muammolari komillik va inson kamoloti masalalarini o'z asarlarida dasturilamal qilgan ajdodlar ijodiga to'xtalsak.

Jumladan, sharq mutafakkirlarimizdan: Imom al-Buxoriy, Mir Alisher Navoiy, Abu Nasr Farobiy, Abu

Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino hamda Amir Temur kabi buyuk allomalarimiz bor. Biz sharq mutafakkirlarimizning ilmiy- ma'naviy merosini o'rganish asosida allomalarimizning, barkamol komil insonni tarbiyalash xususidagi qarashlari bilan tanishib chiqib, undagi ilgari surilgan g'oyalar bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlod uchun naqadar zarurligini bilib olamiz. Komil inson tarbiyasida o'zidan o'lmas meros qoldirgan ajdodlar xazinasidan foydalanish bugungi kunning vazifalaridandir.

Chunonchi, hadisshunos olimlar ichida eng kuchlisi Imom al-Buxoridir. Uning 20 dan ortiq katta va kichik kitoblari mavjud bo'lib, ular orasidan "Al-jome as-saxix" alohida o'rinda turadi. Bu shoh asar ahamiyati jihatidan Qur'ondan keyingi ikkinchi diniy manba deb e'lon qilingan. Imom al-Buxoriy o'z asarlarida odob axloq haqida fikr yuritarkan, odamlarni, ota-onani e'zozlashga, ular oldidagi o'z burchlarini mukammal ado etishga da'vat etadi. Inson sifatlari haqidagi qarashlarida jaholat kishiga o'lim keltiruvchi fojia deb qaraladi. U odamlarni to'g'ri so'zli bo'lishiga, va'daga vafo qilishga chorlaydi. U insonning kuch-qudratini jismonan paxlavonlikda emas, balki jahil chiqqanda o'zini tuta olishda deb hisoblaydi. Oilaviy muhitning barqaror tinch oila a'zolarining sog'-salomat, to'q bo'lishi kichiklarga izzatda kattalarga hurmatda bo'lish kabi umuminsoniy axloqiy qadriyatlar uning asarlarida aks ettirilgan.

Abu Nasr Farobiy esa komillikning asosiy mezonini jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonning asosiy sifatlarini tuzib chiqqan. Farobiy fikricha insonning eng yuksak xususiyati uning baxtga erishganligidir. Baxtga esa deydi alloma: "Faqat foydali bilimlarni o'zida jamlash orqali erishish mumkin. Chunki inson dil rohatining eng yuqori cho'qqisi-bilim olish jarayonidir". Insonning deyarli barcha ijtimoiy sifatlari tashqi ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi. Shuning uchun kishining insoniy fazilatlarini shakllantirishda maqsadga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya hamda tarbiyalanuvchining erkin tanlovi yetakchi o'rin egallaydi, deydi Farobiy.

Qomuschi olim Abu Rayhon Beruniy ta'limotida bilim oluvchilarga qalbingni yomon illatlardan inson o'zi sezishi mumkin bo'lmagan holatlardan, qotib qolgan urf-odatlardan hirsdan, ochko'zlikdan va shon shuhratdan saqlashi lozimligini aytadi. U barcha illatlarning asosiy sababi bilimsizlikda deb bilgan. Beruniy nazarida inson kamolga yetishining muhim omillari ko'p bilimga ega bo'lish va yuksak ahloqiylikdir.

Abu Ali ibn Sino boshqa mutafakkirlar kabi o'zining komil inson to'g'risidagi qarashlarini falsafiy, ijtimoiy fikrlari bilan bog'liq holda ifodalangan. Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezonini sanalgan bilimlarga erishishni da'vat etadi. Buning sababi shundaki, ilm-fan tabiat va jamiyat qonuniyatlarini ochib avlodlarga yetkazadi. Bu maqsadga yetishish uchun inson duch kelinadigan qiyinchiliklardan qo'rqmasligi zarur deydi. Ibn Sino insonning shakllanishida uning atrofini o'rab turgan muhit alohida ahamiyat kasb etishini, ana shu muhit insonning atrof dunyoni bilishigina emas, balki uning xulqida ijobiy yoki salbiy jihatlarning tarkib topishiga ham ta'sir etishini uqtiradi. Shu bois ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo'lish, ularni yomon ijtimoiy muhitdan uzoqroq saqlash zarur deb hisoblaydi.

XULOSA:

Bugungi kunda yangilanayotgan O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish va maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha ta'lim islohotlari olib borilyapti. O'zbekistonda islohotlar va yangilanish jarayonlari tezkor sur'atlarda amalga oshirilmogda. Mamlakatimizning istiqboli bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan jamiyat qurish sohasidagi ishlarning samarasi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liq. Birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va hayotga tatbiq etilgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risidagi qonun" shuningdek, "Ta'lim tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish barkamol avlodni voyaga yetkazish terisida" gi farmoni ana shu maqsadni ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim -tarbiya, ilm-fan, kasb -hunarga o'rgatish sohalarini isloh qilishga nihoyatda katta zarurat seza boshlandi. Shuni ta'kidlash joizki, ma'rifat xalqimiz millatimiz qonidadir. An'anaviy sharqona qarashga ko'ra ma'rifatlilik faqat bilim va malaka emas ayni paytda chuqur ma'naviyat va go'zal axloq degani hamdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sariyev Sh. Ma'naviyat ko'zgusi. O'quvchilarning milliy ma'naviyatini shakllantirishda Boshlang'ich ta'limning roli -T."TDPU" 2009.-250bet.
2. Abu Rayhon Beruniy "Tanlagan asarlar" Toshkent fan 1968-yil 151-bet
3. Ergasheva D. 2002-yil. Barkamol avlodni ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashda boshlang'ich ta'limning o'rni.
4. O'zbek pedagogikasi antologiyasi (Ikkinchi jild) Toshkent 1999-yil.
5. Isakovna, T. S., & Xaydarovna, M. N. (2022). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TARBIYALASHDA MEHNAT TARBIYASINING AHAMIYATI. PEDAGOGS jurnali, 23(2), 186-191.

6. Турсунова, С. И. Педагогические основы национализации школьного образования. ТГПИ. 2022 год.

7. Isakovna, T. S., & Yo'lchi, O. R. R. Z. (2022). YOSH AVLODNI VOYAGA YEKAZISHDA TARBIYANING AHAMIYATI. PEDAGOGS jurnali, 23(3), 15-22.

8. Isakovna, T. S. (2022). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH. PEDAGOGS jurnali, 23(2), 179-185.

9. Isakovna, T. S. (2022). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. PEDAGOGS jurnali, 23(2), 172-178.

10. Турсунова, С. (2022). Методика обучения русскому языку младших школьников. Общество и инновации, 3(8/S), 179-186.

11. Sattarova Munjoat Tokhtayevna, & S. I. Tursunova. (2023). PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF USING NATIONAL HERITAGE IN EDUCATION OF SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 11, 66-70.

12. Tursunova Saida Isakovna. (2022). The development of oral speech of younger schoolchildren in extracurricular activities. Eurasian Research Bulletin, 14, 280-286.

O'ZBEK XALQ O'YINLARINING TASNIFI

*Termiz davlat universiteti
Sport faoliyati va boshqaruvi fakulteti
Sport boshqaruvi kafedrasi o'qituvchisi
Dusyarov Salimjon Xudaymuratovich*

Annotatsiya: Ushbu maqolada sog'liqni mustahkamlash hamda yuqori sport natijalariga erishish avvalo, yoshlikdan boshlab umumiy jismoniy sifatlari rivojlantirish muhimligiga e'tibor qaratilgan. Aksariyat olimlarning ta'kidlashicha, muayyan sport turi bo'yicha muntazam o'tkazib boriladigan hamda hajm, shiddat va mazmun jihatdan to'g'ri tashkil qilingan mashg'ulotlar bolalar va o'smirlar organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatilganligi haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek xalq, millat qadriyati, xalq o'yinlar, sport masalalari, sog'lom muhit, jismoniy madaniyat,

Uzoq o'tmish tarixiy taraqqiyotining mutlaq zanjiri bolgan inson sivilizatsiyasining shunday ustunlari va tamal toshlari borki, ularda o'tmish, hozirgi zamon va kelajakning bir-biri bilan uyg'unligi, rivoji va davomiyligi saqlanib keladi, avlodlardan avlodlarga erishish sifatida o'tadi hamda qadriyatlar darajasiga yetadi.

O'zbek qadriyatlarda bir butun xalqning, millatning imon-e'tiqodi, ornomusi, insof-diyonati mujassam etiladi. Shuning uchun ham tarixning ma'lum bir bo'lagida, ya'ni davrida qadriyatlarni avaylash, asrash, rivojlantirish va

keyingi avlodlarga meros sifatida qoldirish ushbu ishlar uchun mas'ul shaxslar, qolaversa ziyolilar, tadqiqotchi-olimlar zimmalariga ulug' vazifalarni yuklaydi. O'zbekiston Respublikasida, ko'pgina chet mamiakatlarda jismoniy tarbiya va sport masalalarida jahon pedagogikasining ayrim dolzarb yo'nalishlarida nomlari hurmat bilan tilga olinadigan yirik olim, professor Tal'at Usmanxodjayev bir qator shogirdlari bilan bu borada ancha samarali ishlarni amalga oshirdi.

O'zbek xalq milliy harakatli o'yinlarining maqsadi — yosh avlodni zabardast polvonlar va dovyurak ajdodlarimiz kabi taibiyalash hamda ushbu xalq harakatli o'yinlarini o'zlashtirish tufayli ularni har tomonlama jismonan, ma'nan va ruhan rivojlantirish barobarida O'zbekiston tarixiga, madaniyatiga, an'analimizga qiziqish va hurmat hissini oshirishdan iboratdir. Sport — sog'lom muhitni yaratishda, yosh avlodni har tomonlama jismonan va ma'nan kamol toptirishda hal qiluvchi kuchga ega. Sababi, biz hamon taraqqiyot sari ketayotgan ekanmiz, hali yo'limizda yechilishi kerak bo'lgan ta'limiy muammolar talaygina. Masalan, shu kunlarda hayot talabi va tarbiya uslubi o'rtasida qandaydir zaiflik, bo'shliq mavjud. Binobarin, mana shu bo'shliqni to'ldirish uchun xalqimizning bebaho an'analari, noyob qadriyatlaridan hisoblanmish xalq harakatli o'yinlari, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari muhim o'rin tutadi.

Xo'sh, xalq harakatli o'yinlarining maqsadi nima? Albatta, bu o'yinlar ermak uchun o'ynalmaydi. Chunki, bu zukko xalqimizning asrlar mobaynida jamlagan ma'naviy javohirlar majmuasidir. O'zbek elining donishmandligini qarangi, har bir o'yin, avvalo, sodda, qiziqarli tuzilgan bo'lib, uning mag'ziga xalqona ohang, milliylik, mehr-oqibat, jasorat, mardlik, vatanpavarlik, fidoiylik, insoniylik kabi tuyg'ular singdirilgandir. Ta'lim va tarbiyaning bunday uyg'unligi yetuk insonni tarbiyalash uchun dasturulamal vazifasini o'taydi. O'zbek xalq harakatli o'yinlarining paydo bo'lishida va rivojlanishida shu kungacha saqlanib qolgan (yunon, rim, arab-fors mualliflarining qo'lyozmalari, turkiy bitiklar) qadimiy me'morchilik obidalari va amalga oshirilgan arxeologik qazilmalarning natijalari, shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalari (epos, doston, rivoyat, afsona, topishmoq, o'yin, raqs, musiqa va boshqalar) g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Yunon tarixchisi Pomney Trog (eramizning I asrlari) qoldirgan ma'lumotlarga qaraganda, bir vaqtlar O'rta Osiyo hududida yashagan qadimgi qabilalar mushtlashishni yaxshi biladigan mohir jangchilar, ya'ni haibiy salohiyatga ega bo'lgan kishilar bo'lgani qayd qilinadi. O'zbek xalq o'yinlari jamiyat ehtiyoji tufayli bir necha yuz yillar muqaddam vujudga kelgan. O'yinlarning yuzaga kelish tarixi mamlakatimizdagi tarix, arxeologik, etnografik, folklor, pedagogika, falsafa fanlarining, sport, teatr, raqs va sirk san'atining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek xalq o'yinlari mazmunan g'oyatda boy, xalq harakatli o'yinlari jismoniy madaniyat, yosh avlodni tarbiyalash va sog'lom turmush tarzini shakllantirishda alohida o'rin tutadi. O'rganilgan ilmiy-uslubiy va maxsus manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, ajdodlarimizning madaniy taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va

maishiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Bu esa o'yinlarning xalqimiz madaniy turmush tarsi va jismoniy madaniyati bilan uyg'unlikda taraqqiy etib kelganligidan dalolat beradi. Lekin ajdodlarimiz o'yinlarini tarixiy taraqqiyotini turli ijtimoiy tuzum davrlaridagi madaniyati, ma'rifati, tarixiy voqealari hamda an'analaridan alohida ajratib o'rganib bo'lmaydi.

Ma'lumki, har bir xalqning ulug' farzandlari o'z xalqining urfodatlarini, yashash tamoyillarini, tarixini puxta o'rganib, kelajak istiqbollarini ham ko'ra bilganlar.

O'zbek xalq o'yinlari tarixida birinchi marta milliy o'yin namunalari bayon etilishi, ulaming ta'rifi-tavsifi qomusiy allomalardan biri Mahmud Qoshg'ariy qalamiga mansubdir. Bundan 1000 yil burun, 6 yil mobaynida Turkistondan Termizgacha, Xazar va Orol sohillaridan Tangritog' etaklarigacha bo'lgan hududda yashagan turkman, o'g'iz, chigil, yag'mo, qirg'iz va boshqa turkiyzabon xalqlarning tarixi, o'lkalar jug'rofiyasi, urug', qabila, elatlarning til xususiyatlari, yozma va og'zaki adabiyoti, ko'chmanchi tuyakashlar, yilqichilar, cho'ponlar, o'troq dehqonlar, bog'bon va kosiblarning tirikchilik usullari, so'z talaffuzlari va turli so'z atamalarini teran o'rganib, „Devonu lug'otit turk“, ya'ni „Turkiy so'zlar devoni“ni tuzib chiqdi. O'z xalqi, vatanini sevgan, uning tili va madaniy-ma'naviy boyliklarini qadrlagan Mahmud Qoshg'ariy turli qabila-urug'larning bayramlari, tantanalari, urfodatlari, rasm-rusumlari, kundalik mashg'ulotlari, qo'shiq va o'yinlari, diniy e'tiqodlari bilan astoydil qiziqib, bu Benazir qadriyatlarining barchasini kelajak avlodlarga qimmatli meros sifatida yozib qoldirdi. Devonda 150 ga yaqin xalq o'yinlari tilga olinib, shulardan 20 taga yaqin o'yin turiga batafsil ta'rif berilgan. Olim kattalar va bolalarning yosh jihatlariga nisbatan mos bo'lgan o'yin turlariga alohida to'xtalib, musobaqa turlarini bayon qiladi. U o'yinlarni diqqat bilan o'rganib, ham jismoniy, ham aqliy mashg'ulotlarga ajratgan. Shundan bilsa bo'ladiki, hozirgi zamonaviy sport o'yinlarining juda ko'pchiligi o'sha davrlardayoq, ya'ni XI asrda ham mavjud bo'lgan ekan. Hozirgi paytda biz „Sport musobaqalari“ deb ishlatib yurgan ibora Mahmud Qoshg'ariy devonida „bahs“ atamasi bilan berilgan. Bunday „bahs“larning turlari ko'p bo'lganligi ham bayon qilingan. Masalan, merganlikda bahs qilmoq, o'q-yoy otib, qush va hayvonlarni ovlamoq, shuningdek, arqon, taxtali sopqonlarda tosh otmoq, balandga ilib qo'yilgan qovoqni mo'ljalga olib otmoq bahsi. Bu „Oltin qovoq“ o'yini deb atalgan. Devonda bunday bahslarning qoida va shartlari, usullari, g'oliblarga beriladigan sovrinlar, zaruriy asbob-anjomlar, maxsus atamalar batafsil bayon etilgan. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida qo'yiladigan asosiy maqsad — sog'liqni mustahkamlash hamda yuqori sport natijalariga erishish avvalo, yoshlikdan boshlab umumiy jismoniy sifatlari rivojlantirish muhimligiga e'tibor qaratadi. Aksariyat olimlarning ta'kidlashicha, muayyan sport turi bo'yicha muntazam o'tkazib boriladigan hamda hajm, shiddat va mazmun jihatdan to'g'ri tashkil qilingan mashg'ulotlar bolalar va o'smirlar organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan. Lekin, um umiy jismoniy tayyorgarlikka asoslangan

va tor doirada ixtisoslashtirilgan mashg'ulotlar salbiy oqibatlariga olib kelishi kuzatilgan. Binobarin, dastlabki o'rgatish bosqichida jismoniy va texnik-taktik mashqlar nisbatini to'g'ri rejalashtirish bolalar sog'lig'i va ularning harakat mahoratini samarali shakllantirish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.X.Lazizov. "Belbog'li Turkiston kurashi". Toshkent, O'qituvchi, 1998, 7-8 betlar;
2. "Olimpiya shon-shuhrati muzeyini tashkil qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. // Xalq so'zi.- 1996.- 19 avgust.
3. "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // Xalq so'zi. - 2002. - 25 oktyabr.
4. «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi Qonun// O'zbekistonning yangi qonunlari. №23. - T.: Adolat, 2001. - B. 211-223.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 1997-yil 29 avgust.
6. Usmonxodjaev T.S., Xo'jayev F. 1001 uyin. - T.: Ibn-Sino, 1990 yil 350 .b
7. Usmonxo'jaev T.S., Xo'jaev F. Harakatli o'yinlar.- T.:O'qituvchi, 1992. -80

KASB - HUNARGA YO'LLASH ISHLARINI TASHKIL QILISHDA SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR MAZMUNINI TANLASHNING MEZONLARI

*Dusyarov Xudoymurod Chorshanbiyevich
TerDPI texnologik ta'lim kafedrasi mudiri*

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasb - hunarga yo'llash ishlarini tashkil qilishda sinfdan tashqari mashg'ulotlar mazmunini tanlashning mezonlari bo'yicha o'quv materiallari bayon qilingan.

Tayanch so'zlar: Kasb, hunar, tashkil qilish, sinf, mashg'ulotlar, mazmun, tanlash, mezonlar.

Mustaqil O'zbekistonning davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida asosiy bugun hisoblangan umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatining muhim vazifalaridan biri o'quvchilarni hayotga tayyorlash va kasb tanlashga yo'naltirishdan iboratdir. Bu jarayon to'g'ri tashkil etilganida shaxsning bo'lg'usi kasbiy faoliyat subyekti sifatida shakllanishi ta'minlanadi, kelajakda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga tezroq moslashishi uchun sharoit yaratiladi. Pedagogika nazariyasi taraqqiyotining barcha davrlarida ta'lim mazmunini tanlash muammosi dolzarb masala bo'lib kelgan, chunki jamiyatning kelajagi hisoblangan yosh avlodga nimani o'rgatish kerak degan savolga javob aynan ta'lim mazmunida o'z ifodasini topadi.

Pedagogikada va o'qitish metodikasida shuningdek, kasb - hunarga yo'llash ishlarini tashkil qilishda darsdan tashqari mashg'ulotlar mazmunini

tanlab olish va tizimlashtirish masalasi nisbatan yetarli darajada ishlanmagandir. Hozirgi kunda kasbga yo'naltirishdan maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni kasbni ongli ravishda tanlashga tayyorlashdir. Kasbga yo'naltirishga yoshlarning kasbni erkin va mustaqil tanlashining ilmiy-amaliy tizimi sifatida qarash lozim. U har bir shaxsning ham individual xususiyatlarini, xam xalq xo'jaligi manfaatlari nuqtai nazaridan mexnat resurslarini to'laqonli taminlash zaruratini hisobga olishi kerak.

Shaxsda kasbga yo'naltirish jarayoni maxsus ilmiy - amaliy faoliyat orqali amalga oshiriladi. O'quvchining shaxs sifatida shakllanish bosqichdarida shaxs va jamiyat yagona bir tizim sifatida qaraladi, o'tish davrining bozor iqtisodiyoti munosabatlari talablari inobatga olinadi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning maqsad va vazifalariga ko'ra o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishining mazmunini tanlashda biz pedagoglar amalga oshirgan ilmiy izlanish va tajriba - sinov ishlarimiz natijasida quydagi keltirilgan mezonlarni belgilab oldik. Amalga oshirgan tadqiqotlarimizda kasbga yo'naltirish mashg'ulotlari mazmunini keltirilgan mezonlar asosida tanlab olish manbai va uning o'quvchilarga mosligini aniqlash negizi bo'lib amaliyot xizmat qildi. Mashg'ulotlar mazmuni kasb tanlash ishiga qo'yilgan jamiyatning ayni paytdagi va istiqbol talablariga binoan tanlab olinadi xamda pedagogik ishlov berilib davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlari, darsliklar va shu kabi didaktik materiallar mazmuniga singdirilib, mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarga yetkazib beriladi. Bu bilan u o'zining ijtimoiy buyurtma sifatida namoyon bo'lishini tasdiqlaydi. Har qanday kasb egasi o'zining amaliy faoliyatida turli xil muammolarga duch keladi. Bunday muammolarning yechimini topish uchun turli yo'nalishdagi bilim va tajribalarni ishlatish zaruriyati turiladi. Shuning uchun ham o'quv materialini majmuaviy muammo tarzida ifodalanishi mazmunan tutash o'quv fanlarni sinfdan tashqari mashg'ulotlar bilan integrasiyalab o'rganishni taqozo qiladi. Mashg'ulotlar mazmunining bu tarzda tashkil etilishi ta'lim oluvchilarning kasblar to'g'risidagi tushuncha va bilimlarini bir-birini to'ldiruvchi yaxlit tizim holatida shakllanishini ta'minlab, mantiqan to'laqonli bilim, ish - harakat usullari va shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga asos bo'ladi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishining mazmunini tanlash mezonlari			
1. O'quvchiga tushuncha berilayotgan kasblarning tiplari va nomlari bo'yicha real mavjud kasblarning miqdoriga	2. Kasb tanlash ishida mahalliy va mintaqaviy ehtiyojlar asosida kasbga yo'naltirishning ustuvorligi	3. Bo'lajak kasb turi bilan bog'liq faoliyatning mazmuni va tuzilmasini asoslash.	4. O'quvchining o'zi yo'naltirilayotgan kasblar obyektlarining xususiyatlari to'g'risida ma'lumotga ega

nisbatan optimal munosabatni saklash			bo'lishligi
--------------------------------------	--	--	-------------

Xulosa qilib aytganda yoshlarni kasb hunarga yo'naltirishdga turli tadbirlar, uchrashuvlar, kechalar, suhbatlar uyushtirish bilan birgalikda sinfdan tashqari mashg'ulotlarining mezonlarini to'g'ri tanlash muxim axamiyat kasb etadi.

Foydalanolgan adabiyotlar.

1. Uzoqov O. Kasb-hunar kollejlari sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish metodikasi. Samarqand. 2007 yil

2. Kasb tanlashga yo'llash. S. Boltaboyev, R.G. Mullaxmetov, V.N. Sattorov Toshkent 2000.

3. Magzumov P.T. O'quvchilarni mehnatga va kasb tanlashga tayyorlash. Toshkent o'qituvchi 1991-206 b.

4. Pedagogika. A.Q. Munavvarovning umumiy taxriri ostida. Toshkent o'qituvchi. 1996 -200 b.

5. Tolipov o'qituvchi Q. Sharipov Sh. S. Xolmatov Umumiy o'rta ta'lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalar to'garak raxbarlari uchun namunaviy dasturlar. Nizomiy nomidagi TDPU 2003. 21 b.

6. Sharipov Sh. Maktab o'quvchilari ijodkorlik faoliyatini tashkil qilish usullari. «Xalq ta'limi» jurnali. 2003 yil № 4.

MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARI TARBIYALANUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASH YO'LLARI

*Muhammadiyeva Feruza To'raikulovna
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Xulq-atvor madaniyati asoslarini shakllantirish bola hayotining dastlabki yillaridan boshlanadi. U kattalarga taqlid qilib, muloqotning asosiy me'yorlarini o'zlashtira boshlaydi.

Kalit so'zlar: Xulq-atvor, bola, tarbiyalanuvchi, axloq, me'yor.

Maktabgacha yoshdagi bolalik - bu shaxsning axloqiy rivojlanishidagi eng muhim davr. Bolaning axloqiy rivojlanishidagi yo'nalishlardan biri bu xulq-atvor madaniyatini tarbiyalashdir. Xulq-atvor madaniyatini shakllantirish muammosi bilan shug'ullanadigan ko'plab olimlar bu masalaga etarlicha e'tibor berilmayapti, deb ta'kidlaydilar. Sababi, kattalarning o'zlari "xulq-atvor madaniyati" tushunchasining ahamiyatini hali to'liq anglamaganga o'xshaydi, ayniqsa hozir, axloqiy tarbiyaning asosiy tarkibiy qismlari ba'zi o'zgarishlarga duchor bo'lgan o'tish davrida. Muvofiqlik.

Ijtimoiy va oilaviy ta'limning qulay sharoitlarida katta maktabgacha yoshdagi bola tengdoshlariga, o'qituvchiga, bolalar bog'chasiga bog'liqlik hissini aniq namoyon qiladi. Bolalar boshqalar bilan do'stona munosabatda

bo'lishadi, muloqotga oson kirishadilar, mehribon, sezgir, kattalarning sharhlariga diqqatli, ularni keskin ravishda kesib tashlashga qodir. Ular o'z harakatlarining ma'qullanishini quvonch bilan qabul qiladilar va bundan ham yaxshiroq qilishga tayyor ekanliklarini bildiradilar. Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalar uchun xarakterli xususiyat ularning paydo bo'ladigan ijtimoiy yo'nalishidir. Bu bolalarning haqiqiy munosabatlarida va ularning bayonotlarida, tengdoshlarning harakatlarini baholashda va bolalar jamoasining barcha a'zolarining birgalikdagi faoliyatining umumiy yo'nalishida o'zini namoyon qiladi. Bu yoshdagi bolalarda ijtimoiy fikr shakllana boshlaydi, bu fikrga ma'lum darajada tarbiyachi qasamyod qilishi mumkin.

Shunday qilib, madaniyat har safar shaxsni insonparvarlashtirish mexanizmi, tayyor, "oldindan topilgan" tuzilma (tarbiya, ta'lim va rivojlanish tizimi) sifatida ishlaydi, uning harakati ma'lum bir natijaga olib keladi - uning shakllanishi. inson jamoasi o'zining to'liq va to'liq a'zosini tan olishga tayyor bo'lgan mavjudot. Madaniyat inson mavjudligining sun'iy-tabiiy ("ikkilamchi") muhitidir, ammo u shunchalik tashkil etilganki, u ko'payish mexanizmining ulkan majburlash kuchiga ega bo'lib, asosiy narsada bir-biriga o'xshash millionlab takroriy odamlarni shakllantirishga qodir - dunyo tartibi haqidagi tasavvurlarida (dunyo va undagi shaxs haqida). Madaniyatning bu dunyoni tushuntirish funktsiyasi "universallar" deb nomlangan vositalar to'plami bilan ta'minlanadi, ularning tavsifi avvalgisiga bag'ishlangan.

Kollektiv hayotning o'rnatilgan shakllarini oddiy takrorlash amalga oshiriladigan madaniyat mexanizmi an'ana deb ataladi. Madaniyatdagi an'analar mexanizmining ishlashi hayvonlarda genetik xotira funktsiyasiga o'xshaydi. Ikkala holatda ham biz xatti-harakatlarning o'zi haqida emas, balki turli xil hayvonlar turlarining genetik mexanizmiga, shuningdek, inson guruhlarining madaniy (ijtimoiy) xotirasiga kiritilgan qurilish sxemalari, xatti-harakatlar dasturlari haqida bormoqda. xulq-atvorni shakllantirish uchun mos keladi, ammo avloddan-avlodga barqaror, takrorlanadigan sharoitlarda An'ananing asosi taqliddir.

Birgalikdagi faoliyat jarayonida merosxo'r (talaba) bevosita ishtirokida tashuvchidan o'z ko'nikma va qobiliyatlarini oladi, qo'ldan-qo'lga bu erda an'analar, "formulalar", stereotiplar (gr. stereosdan - qattiq +) bilan mustahkamlangan texnikalarni takrorlaydi. matbaa xatolari - uy xo'jaligi, mehnat, marosim xatti-harakatlari. Maktabgacha tarbiyachining madaniyati tushunchasini kundalik hayotda, muloqotda, turli xil faoliyatda jamiyat uchun foydali bo'lgan kundalik xatti-harakatlarning barqaror shakllari to'plami sifatida aniqlash mumkin.

Faoliyat madaniyati bolaning darsdagi xatti-harakatlarida, o'yinlarda, mehnat topshiriqlarini bajarishda namoyon bo'ladi. Bolada faoliyat madaniyatini shakllantirish - uni ishlayotgan, o'qiydigan, o'ynaydigan joyni tartibga solish qobiliyatiga o'rgatish; boshlangan ishni tugatish odati, o'yinchoqlar, narsalar, kitoblar haqida g'amxo'rlik qilish. O'rta yoshdagi va

ayniqsa katta maktabgacha yoshdagi bolalar darslar, ish uchun zarur bo'lgan hamma narsani tayyorlashni va o'yin rejasiga muvofiq o'yinchoqlarni tanlashni o'rganishlari kerak. Faoliyat madaniyatining muhim ko'rsatkichi - bu qiziqarli, mazmunli faoliyatga tabiiy intilish, vaqtni qadrlash qobiliyatidir.

Katta maktabgacha yoshda bola dam olish vaqtida o'z faoliyatini tartibga solishni, gigiena protseduralarini tez va uyushqoqlik bilan bajarishni o'rganadi va hokazo. Bu uning mehnatni samarali tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish uchun yaxshi asos bo'ladi. Mehnat faoliyati madaniyatining erishilgan tarbiyasini aniqlash uchun bolaning ishlash qobiliyati va istagi, bajarilgan ishga qiziqish, uning maqsadi va oqilona ma'nosini tushunish kabi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin; faollik, mustaqillik; kerakli natijaga erishishda kuchli irodali sa'y-harakatlarning namoyon bo'lishi; jamoaviy ishda o'zaro yordam.

Muloqot madaniyati - bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilishda hurmat va xayrixohlik asosida, tegishli lug'at va murojaat me'yorlaridan foydalanish, shuningdek, jamoat joylarida, kundalik hayotda xushmuomalalik bilan muomala qilish normalarini amalga oshirishni ta'minlaydi. Muloqot madaniyati nafaqat to'g'ri ish qilish, balki muayyan vaziyatda nomaqbul harakatlar va so'zlardan voz kechishni ham o'z ichiga oladi.

Bolani boshqa odamlarning holatini sezishga o'rgatish kerak. Hayotning birinchi yillaridan boshlab, bola qachon yugurish mumkinligini va qachon istaklarni sekinlashtirish kerakligini tushunishi kerak, chunki ma'lum bir vaqtda, ma'lum bir muhitda bunday xatti-harakatlar qabul qilinishi mumkin emas, ya'ni. Boshqalarni hurmat qilish tuyg'usi asosida harakat qilish, gapirish va o'z his-tuyg'ularini ko'rsatishda oddiy tabiiylik bilan uyg'unlashib, bolaning muloqotchanlik kabi muhim sifatini tavsiflaydi.

Muloqot madaniyati, albatta, nutq madaniyatini nazarda tutadi. Nutq madaniyati maktabgacha yoshdagi bolaning etarli lug'atga ega ekanligini, xushmuomalalik bilan gapirish, xotirjam ohangni saqlash qobiliyatini nazarda tutadi. Nutq madaniyatini o'zlashtirish bolalarning birgalikdagi o'yinlarda faol muloqot qilishiga yordam beradi, ular o'rtasidagi ziddiyatlarning oldini oladi. Inson ijtimoiy mavjudot sifatida doimo boshqa odamlar bilan muloqotda bo'ladi. U eng xilma-xil aloqalarga muhtoj: oila ichidagi, ijtimoiy, ishlab chiqarish va boshqalar. har qanday muloqot insondan axloqiy me'yorlar tufayli umumiy qabul qilingan xatti-harakatlar qoidalariga rioya qilishni talab qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning muloqoti, birinchi navbatda, oilada sodir bo'ladi. Bolalar bog'chasiga kirgan bola uchun ijtimoiy doira kengayadi - tengdoshlar, o'qituvchi va maktabgacha ta'lim muassasasining boshqa xodimlari bilan muloqot qo'shiladi.

Ota-onalar va pedagoglarning vazifasi bolani muloqot madaniyati bilan tarbiyalashdir. Farzandlarimizda qanday axloqiy fazilatlarini ko'rishni xohlaymiz? Xushmuomalalik - Bu odamni bezatadi, uni jozibali qiladi, boshqalarda hamdardlik tuyg'usini uyg'otadi. "Hech narsa xushmuomalalik

kabi arzon va qadrlı emas. Busiz insoniy munosabatlarni tasavvur qilib bo'lmaydi. Bolalarning xushmuomalaligi samimiylik, xayrixohlik, boshqalarga hurmatga asoslangan bo'lishi kerak.

Xushmuomalalik, agar u bola tomonidan yurakning xohishi bilan namoyon bo'lsa, o'z bahosini oladi. Noziklik - xushmuomalalikning singlisi. Bunday xususiyatga ega bo'lgan odam hech qachon boshqalarga noqulaylik tug'dirmaydi, o'z harakatlari bilan o'zining ustunligini his qilish uchun asos bermaydi. Noziklikni yaratish chuqur bolalikdan keladi. Xushmuomalalik - bolalarda xushmuomalalik, e'tibor, boshqalarga yordam berish yaxshi niyatdan namoyon bo'lishiga erishish kerak.

Muloqot - bu yaxshi niyat, boshqalarga do'stona munosabat elementlariga asoslanadi - bolalarda munosabatlar madaniyatini rivojlantirishning ajralmas shartlari. Tengdoshlari bilan muloqot qilishdan xursand bo'lgan bola o'yinchoqni do'stiga bemalol berib qo'yadi, shunchaki unga yaqin bo'ladi, chunki u beadablik, qo'pollikdan ko'ra yaxshi niyat ko'rsatish tabiiyroqdir. Bu ko'rinishlarda odamlarga hurmatning kelib chiqishi bor. Do'stona bola tezda bolalar bog'chasida joy topadi. Bolaning har tomonlama rivojlanishining zarur sharti - bu yangi shaxsning xususiyatlari shakllanadigan bolalar jamiyatining mavjudligi: kollektivizm, do'stlik, o'zaro yordam, vazminlik, ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari.

Tengdoshlar bilan muloqot qilish, bola ishlashni, shug'ullanishni, maqsadga erishishni o'rganadi. Bola bolalar o'rtasidagi muloqot natijasida yuzaga keladigan hayotiy vaziyatlarda tarbiyalanadi. Bolani kattalar orasida hayotga tayyorlash uning tengdoshlari bilan munosabatlarini qurish qobiliyatidan boshlanadi: boshidan, bolalar bog'chasi va maktabda, keyin alohida bolalarda va tegishli ko'rinishlar - olib ketish, surish va hokazo. Bola yonida o'ziga o'xshagan bolalar borligini, uning xohish-istaklari boshqalarning xohish-istaklari bilan mutanosib bo'lishi kerakligini anglay boshlasa, unda zarur muloqot shakllarini o'zlashtirish uchun axloqiy asos vujudga keladi.

Muloqot madaniyatini tarbiyalash bolalarda kollektivizm ko'nikmalarini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi. Bolaning muloqot qilish istagini shakllantirish, kattalar hatto bir-biri bilan o'ynashga bo'lgan eng ahamiyatsiz urinishlarni ham rag'batlantirishlari kerak. Bolalarni birgalikda quvontiradigan, qutqaradigan, qoniqish hissini his qiladigan, xayrixohlik ko'rsatadigan narsalar atrofida birlashtirish foydalidir. Qiziqarli, voqealarga boy hayotda bolalarning muloqoti alohida cheklovga ega bo'ladi. O'qituvchi bolalarning kundalik hayotini diversifikatsiya qilishga yordam beradigan turli usullardan foydalanadi. Masalan: ertalab ularni do'stona tabassum bilan kutib olish uchun ularni qiziqarli o'yinchoq bilan o'ziga jalb qilishga harakat qiling.

Xulq-atvor madaniyatini shakllantirish bo'yicha bir qator vazifalarni ajratib ko'rsatilgan

1. Bolalarda xulq-atvor madaniyati, atrofdagi odamlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishni aniqlash. Tengdoshlar bilan ongli o'zaro xayrixoh munosabatlarni rivojlantirish va rivojlantirish.

2. Kattalarga ism va otasining ismi bilan murojaat qilish qobiliyatini rivojlantirish, bevosita murojaatni quvonch ifodasi bilan birlashtirish.

3. An'anaviy salomlashishni joriy qilish, telefonda muloyim suhbatlashish ko'nikmalarini shakllantirish, yomon odatlardan xalos bo'lish va yaxshi odatlarning shakllanishiga yordam berish, bolalar o'rtasida yaxshi, iliq munosabatlarni rivojlantirish.

4. Kundalik hayotda xulq-atvor madaniyati ko'nikmalarini shakllantirish. Xulq-atvor madaniyati qoidalarini amalga oshirish haqida o'z fikringizni bildirishni o'rganing. Haqiqiy odamlarning xatti-harakatlarini baholash uchun ta'riflarni toping. Boshqalarga ehtiyotkorlik va sabr-toqat bilan munosabatda bo'lishni o'rganing

5. O'z harakatlari bilan kattalar harakati o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rishga o'rgatish. Insonlarning bir-birlari bilan o'zaro munosabatlari qoidalari bilan tanishing.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. TURAKULOVNA M. F., QIZI M. M. M. COMPETENCE OF THE EDUCATOR IN THE ORGANIZATION OF VISUAL ACTIVITIES //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2021. – T. 1. – №. 2. – C. 100-103.

2. Muhammadiyeva F. THE ROLE OF PEDAGOGICAL WORKERS OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION IN SOCIAL ACTIVITIES WITH CHILDREN //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2023. – T. 3. – №. 4. – C. 94-96.

3. Muhammadiyeva F. THE ROLE OF EDUCATORS OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION IN SOCIAL ACTIVITIES WITH CHILDREN //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2022. – T. 2. – №. 10. – C. 225-227.

4. Feruza M. BADIY ADABIYOT VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA: Muxammadiyeva Feruza, maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi, Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti //Научно-практическая конференция. – 2022. – C. 1112-1115.

5. Turakulovna M. F. MAKTABGACHA TA'LIMDA TEXNOLOGIYA TA'LIMI: BOLALARGA ARTEFAKTLARDAN FOYDALANISH VA YARATISH IMKONIYATLARINI TA'MINLASH: Muxammadiyeva Feruza Turakulovna, Termiz davlat pedagogika instituti, maktabgacha ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 2. – C. 180-182.

6. Muhammadiyeva Feruza. (2023). AS A FACTOR OF EDUCATION-SOCIALIZATION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 4(04), 453–456. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/KYV5X>

7. Uralovich T. F. Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – Т. 6. – С. 3-3.

8. Toshpulatov F. USE OF GEOMETRIC PATTERNS AND THEIR TYPES FROM ELIMINATIONS OF DRAWING AND APPLIED ART IN ARCHITECTURAL FACILITIES //Физико-технологического образование. – 2022. – Т. 1. – №. 1.

9. Baratovna T. R., Abdurakhmanova S. LEGAL AND REGULATORY BASIS OF ORGANIZING ACTIVITY CENTERS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS //E Global Congress. – 2023. – Т. 2. – С. 65-68.

10. Турапова Р. Developing dialogic speech of pre-school children on the basis of a variative approach //Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. – 2022. – Т. 1. – №. 4.

11. Urolovich T. F. et al. TASVIRIY SAN AT DARSLARIDA TASVIRNI TO G RI CHIZISHDA PERSPEKTIV POZITSION VA METRIK MASALALARDAN AMALDA TO GRI FOYDALANISH //Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects. – 2022. – С. 41-44.

12. Baratovna T. R. Developing Dialogic Speech of Pre-School Children on the Basis of a Variative Approach //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 272-275.

13. Urolovich T. F. et al. CHIZMA GEOMETRIYA TA'LIMI JARAYONIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 279-283.

14. Toshpulatov F. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA CHIZMACHILIK FANINI O 'QITISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI //Физико-технологического образование. – 2022. – №. 4.

15. Toshpulatov F. CHIZMACHILIK FANINI TABIIY HODISALAR BILAN AMALIY BOG'LIQLIGI //Физико-технологического образование. – 2022. – Т. 1. – №. 1.

SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA KASB - HUNARGA YO'NALTIRISH ISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH.

*Gadaymuratov Shuhrat Mamayusupovich
Termiz davlat Pedagogika instituti
Texnologik ta'lim kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada sinfdan tashqari mashg'ulotlarda kasb - hunarga yo'naltirish ishlarini takomillashtirishga oid o'quv materiallari bayon qilingan.

Tayanch so'zlar: Sinflar, mashg'ulotlar, kasb, xunar, kasbga yo'naltirish, qonun va farmoishlar, takomillashtirish.

Mamlakatimizda yoshlarga juda katta e'tibor berilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinfdan tashqari mashg'ulotlarda kasb xunar yo'naltirish

ishlaridan shakllantiriladigan barkamol shaxsning mustaqil va ijodiy fikrlash sifatlarini tarbiyalash umumiy o'rta ta'lim muassasalarining muxim vazifalaridan biri xisoblanadi. Bu borada o'quvchilarning darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarini samarali tashkil qilish muxim axamiyat kasb etadi.

O'quvchilarning hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan dars mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, undan oqilona foydalanishda ularga yordam berish zarur. Barcha shakllardagi darsdan va maktabdan tashqari ishlarining chuqur ichki mohiyati o'quvchilarni ijtimoiy foydali faoliyatga faol jalb qilish, ularning tashabbusi va mustaqilligini rag'batlantirish, individual qiziqishlari, mayl va qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. O'quvchilarning o'qishdan tashqari ishlariga pedagogik rahbarlikning xususiyati ularga faqat dars mashg'ulotlarida emas, balki ijtimoiy tashkilotlar, sinfdan va maktabdan tashqari xar xil tadbirlar, o'quvchilarni texnik ijodkorlik va qishloq xo'jalik tajribachiligiga bevosita jalb etish orqali xam tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishni amalga oshirishdir.

Maktabda texnik ijodkorlik va qishloq xo'jalik tajribachiligining rivojlanishi o'quvchilarning g'oyaviy - siyosiy, mexnat, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyasi birligi xamda ularni milliy mafkuramiz asosida tarbiyalashga yordam berishi lozim.

Maktab va kasb hunar maktabi pedagogika kengashi va o'quvchilarning o'zini o'zi boshqarish organlari orqali ilmiy - texnik, tajribachilik, izlanish ishlarini rivojlantirishga umumiy raxbarlikni amalga oshiradi.

Texnologiya va kasb ta'limi o'qituvchilari ota - onalar va o'quvchilar faollari bilan xamkorlikda maktabda to'garaklar, maktab ixtirochilar va rasionalizatorlar jamiyati, maktab ilmiy jamiyatining va o'quvchilar mexnat birlashmalarining uyushmalarini tashkil qiladi. U sinf raxbarlari yordamida fan, texnika va ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlariga ko'proq qiziqadigan o'quvchilarni aniqlaydi xamda ularga tumanda, shaxarda joylashgan maktabdan tashqari muassasalardagi o'ziga mos to'garakni topishda yordamlashadi. Texnologiya fani o'qituvchisi o'quvchilarni maktab fan, texnika va ishlab chiqarish xaftaligini, mamlakatimiz fani va texnikasi taraqqiyotidagi tarixiy kunlarga bag'ishlangan maktab kechalarini tayyorlash va o'tkazishga jalb qiladi.

Kuzatish va taxlillarimizdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi an'anaviy tizimdagi kasbga yo'naltirish ishlari jarayonida sinfdan tashqari mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim, metodlari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari talablari asosida tashkil etish qiyinchilik bilan amalgam oshirilmoqda. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun metodik va uslubiy qo'llanmalar yetishmaydi va mavjudlari ham hozirgi zamon talablariga javob bermaydi.

Kasbga yo'naltirish ishlarini respublikamiz ta'lim islohotlari talabi darajasida yo'lga qo'yish, respublikamiz va rivojlangan xorijiy davlatlarda bu borada to'plangan ilg'or tajribalarni tadbiiq qilib, ijodiy tadbiiq qilish davr taqozosi hisoblanadi. Tadqiqotimizni olib borishda Surxondaryo viloyat termiz

saxar tumanidagi 11-o'rta umumiy ta'lim maktabida sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilishda kasbga yo'naltirish mashg'ulotlarining quyidagi shakllari bo'yicha tajriba – sinov ishlarini o'tkazdik.

Sinfdan tashqari ishlar:

- a) turli sohalar bo'yicha tashkil etiladigan to'garaklar;
- b) o'quv ustaxonasidagi amaliy ishlab chiqarish mashg'ulotlari;
- v) ishlab chiqarish sayohatlari;
- g) maktab o'quv-tajriba yer maydonida ishlash;
- d) jonli burchak tashkil etish hamda issiqxonalaridagi faoliyat;
- yo) sinfdan, sinflararo, maktablararo, tuman, viloyat, respublika miqyosida o'tkaziladigan ko'rik musobaqalarda ishtirok etish;
- j) turli ommaviy tadbirlarda qatnashish kabilar.

Maktabdan tashqari ishlar:

- a) guruhli va ijara pudratida ishlash;
- b) qo'shma, xususiy va davlat korxonalarida faoliyatida ishtirok etish;
- v) oilaviy mehnat, kasb - hunar, hunarmandchilik;
- g) ishlab chiqarish sayohatlarini tashkil etish;
- d) mavsumiy ishlarda ishtirok etish;
- y) xomiy va otaliq korxonalarida bilan shartnomalar asosida buyurtmalarni bajarish.

Tadqiqot davomida o'quvchilarni kasb - hunarga yo'llashga oid sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda o'quvchilarning qiziqishlari va mayllari, ushbu soxani o'rganishning umumiy holati, sifat darajasi bilan tanishish va tahlil qilishga harakat qilamiz. Bu ishlarni olib borish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar hamda talabalar bilan test, so'rovnoma, suxbat, kuzatish kabi metodlar orqali tadqiqot ishimizning dastlabki tasdiqlovchi bosqichini olib bordik.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasb - hunarga yo'llashga asoslangan sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilishda o'quvchilarning yoshi, ruxni, individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ular mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirishda o'simliklarni parvarish qilish, hunarmandchilik jihoz (material) lari bilan tanishtirish va ishlov berishda mehnat ko'nikma va malakalari shakllantirilib borildi. Shu bilan birga, ularning qiziqish va moyilliklariga ko'ra o'zini-o'zi kasbiy jixatdan aniqlash, kasb-hunar turlarini tanlashi, hunarmandchilik soxalari va ularda ishlatiladigan asbob-uskuna, yangi texnika, ilg'or texnologiyalarni o'rganib borishlari hamda mehnat faoliyatida ishtirok etishlari ta'minlandi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda kasb - hunarga yo'llash ishlarining keyingi vaqtda kam e'tibor berilayotgan ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuv, suhbat, bahs, sayohat, ko'rik musobaqa, mehnat amaliyoti, o'quvchilar mehnat uyushmasi kabi shakllarni mazmuni va tuzilmasi qayta ko'rib chiqilib, zamon ruhiga moslashtirilishi pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolardan xisoblanadi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar shakllarini samarali ravishda amalga oshirish, umumiy o'rta ta'lim maktablari, oila, mahala - jamoatchilik, ishlab chiqarish korxonalari, xalk hunarmandlari, ustalarining ish tajribalari o'quv jarayonida foydali mehnat mahsulotlarini tayyorlab, ta'lim muassasalarining bozor iqtisodiyotini amalga oshirishda qatnashishi va moddiy jihatdan kafolatlanishiga yordam beruvchi omillardan biri hisoblanadi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar shakllarini tashkil etish, jumladan, to'garaklar, ko'rik, musobaqa; munozarali baxs; uchrashuv; xar xil turdagi o'yin; ko'rgazmali chiqish; sayohat va shu kabilardan foydalanish ta'limni samarali amalga oshirishning muhim shakllaridan hisoblanadi. Darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning fanlardan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaxkamlaydi, dunyoqarashini shakllantiradi va bu taassurotlar ularning ijodiy qobiliyatlarini ustiradi hamda badiiy estetik didini oshirishda muxim omil bo'lib xizmat qiladi. O'z vaqtida rejali, tartibli o'tkazilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning har bir tadbirlarga bo'lgan qiziqish va xavaslarini yanada oshiradi, ma'naviy, mafkuraviy tasavvurlarini boyitadi.

Texnik ijodkorlik va qishloq xo'jalik tajribachiligini rivojlantirish ishlarining tashkiliy shakllari ham har xil:

individual, guruxiy (to'garaklar, jamiyatlar, seksiyalar va hokazolar), ommaviy (musobaqalar, tanlovlar, ilmiy - amaliy anjumanlar va boshqa) ishlardan iboratdir.

O'quvchilarning u yoki bu turdagi amaliy faoliyatga qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirishning dastlabki pog'onasida o'qituvchi individual ish olib boradi, suhbatlashadi, adabiyotlarni tavsiya etadi, o'quvchini to'lqinlantirgan ishni muxokama qiladi, qiziqarli fan va texnika kechalarini, fan va texnika tarixidagi atoqli kunlarga bag'ishlangan kechalarni tayyorlash va hokazolar bo'yicha individual topshiriqlar beradi. Shundan keyin, o'qituvchi ana shu o'quvchilarni to'garakka birlashtiradi. Bunda ular jamoa topshiriqlarini ham bajara oladilar.

Xulosa qilib aytganda to'garak fan, texnika va ishlab chiqarishning muayyan tarmog'idagi amaliy ishga intiladigan yosh texniklar, tabiatshunoslar va boshqa ilmiy-texnik xavaskorlik ishqibozlari bilan ishlashning asosiy shaklidir.

U yoki bu birlashma tashkilotchilarining hamkorlikdagi faoliyati maqsadini aniqlash bolalarga ta'lim berish metodlarini izchil bilib olishda, har bir qadamda pedagogik ta'sir ko'rsatishga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilashda, to'garaklarda o'quvchilar jamoa mehnatining ma'lum shakllaridan samaraliroq foydalanishda yordam beradi.

Fodalaniladigan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirish. -T.: Fan nashriyoti, 2004. -130 b.

2. Uzoqov O. Kasb-hunar kollejlari sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish metodikasi. Samarqand.: 2007 yil

3. Kasb tanlashga yo'llash. / S.Boltaboyev, R.G.Mullaxmetov, V.N.Sattorov. -Toshkent.: 2000.

4. Magzumov P.T. O'quvchilarni mexnatga va kasb tanlashga tayyorlash. - T.: O'qituvchi,1991.-206 b.

5. Tolipov O'.Q. Sharipov Sh.S. Xolmatov Umumiy o'rta ta'lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalar to'garak raxbarlari uchun namunaviy dasturlar. T.: Nizomiy nomidagi TDPU., 2003. 21 b.

6. Sharipov Sh.S. Maktab o'quvchilari ijodkorlik faoliyatini tashkil qilish usullari. «Xalq ta'limi» jurnali. 2003 yil № 4.

O'QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH VA FUQAROLIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH.

*Gulmurodova Diyora TerDPI
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va fuqarolik tarbiyasini shakllantirishga oid ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, tarbiya, fuqarolik, milliylik, maktab.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish va mustahkamlash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, uning qonuniy zaminlari huquqiy asoslarini takomillashtirish fuqarolarning siyosiy-huquqiy faolligiga, onglilik, bilimdonlik darajasiga uzviy aloqadorlikdadir. Buning uchun O'zbekistonning har bir fuqarosi, eng avvalo, hayotimizning Asosiy qonuni -O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, uning har bir moddasini puxta o'rganishi lozim. Konstitutsiyada inson huquqlarining davlat huquqidan ustuvorligi tamoyili qonun yo'li bilan belgilab qo'yilgan bo'lib, Prezidentimiz tomonidan ta'kidlanganidek, fuqarolar manfaati ustunligi qonuniy ravishda mustahkamlangan va kafolatlangan. Unda inson, uning hozirgi erki, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa huquq hamda erkinliklari muqaddas bo'lib, davlat himoyasida deyilgan. Yuqorida keltirilgan talab va vazifalarni amalda joriy qilish, asosan, ta'lim-tarbiya muassasalaridan boshlanadi. Ushbu ma'noda o'quvchilarda fuqarolik tarbiyasini shakllantirish uchun ularni o'tmish merosimiz va xalqimizning ming yillik qadriyatlari asosida ma'lumotlar berish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarga fuqaro sifatida o'z xulq-atvori mazmunini tahlil qilish imkonini berish lozim. Ya'ni „Bugun xalq farovonligi taraqqiyoti uchun nima qila oldim?“ tarzidagi savollarga javob topishga o'rgatish kerak.

O'quvchilarga o'qish, a'lo baholarga o'zlashtirish, o'z tafakkuri, qarashini shakllantirish, bolaga fuqarolik burchini ado etish mas'uliyatini tushuntirib borish zarur. Fidoyilik, intizomlilik, tashabbuskorlik, qat'iyat, matonat, uyushqoqlik kabi xislatlar fuqarolik tarbiyasini olib borish jarayonida yuzaga keladi.

Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish uchun ma'lum shart-sharoitlar taqozo etiladi.

Bular:

1. Maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayoni yuksak darajada uyushtirilishi kerak.
2. Fuqarolik tarbiyasi jarayonining muvaffaqiyati o'quvchilar va o'qituvchilar jamoasining saviyasiga bog'liq.
3. Tarbiyaviy ishning rejali, uzluksiz, tizimli bo'lishiga erishish katta ahamiyat kasbetadi.
4. Oila, maktab va mahallalarda o'zaro hamkorlik va hamjihatlikning yuzaga kelishi fuqarolik tarbiyasi muvaffaqiyatini ta'minlaydi.
5. O'quvchilarni axloqiy va huquqiy me'yorlarga hamda umumiy tartibga rioya qilishga o'rgatish va hokazo.

Fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda suhbat-munozara, ma'ruza, bahslardan foydalanish, mashq, test, anketa savollariga javob olish kabilar yuksak natijalarga olib keladi. Fuqarolik tarbiyasida uning natijasini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Bunda bolaning tarbiyalanganlik darajasi asos qilib olinadi. Ushbu maqsadda diagnostika (tashxis qo'yish), statistik, qiyosiy tahlilni o'tkazish lozim.

Milliy istiqlol mafkurasi mazmuni va mohiyati, demokratik huquqiy davlat qurishda adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidan dadil borayotgan mustaqil O'zbekistonda fuqarolarning huquqiy bilimlari va huquqiy madaniyatlarini yuksaltirish g'oyat muhim va dolzarb ekanligi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Milliy istiqlol mafkurasida Vatanimizning rivojlanishi va istiqboli, mamlakatimizda keng ko'lamda o'tkazilayotgan iqtisodiyot, siyosat, davlat qurilishi, huquqiy tizimini ma'naviy o'zgartirish sohasidagi islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan xalqning huquqiy ongi, bilimi va madaniyati darajasiga bog'liqligi alohida ta'kidlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish. Dunyoqarash kishilarning olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi haqidagi ilmiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy va hokazo qarashlari va tasavvurlari majmuasidan iborat. Dunyoqarash ijtimoiy borliqning in'ikosidir. Unda ijtimoiy turmush aks etadi va u muayyan tarixiy davrda insoniyat yaratgan bilimlar darajasiga hamda ijtimoiy tuzumga bog'liq bo'ladi.

Dunyoqarash faqat insongagina xos xususiyat bo'lib, hayvonot dunyosi, boshqa narsa, buyumlar va mavjudotlar uchun bu hol yotdir. Demak, dunyoqarash bu olam haqidagi yaxlit umumiy lashtirilgan bilimlar to'plamidir.

Dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishi murakkab, ko'p qirrali, ichki jihatdan bog'langan jarayon bo'lib, unda juda ko'p xilma-xil omillar qatnashadi, harakat qiladi va o'zaro bog'liq bo'ladi, inson hayotining moddiy sharoitlari, mikromuhit va makro muhit, ommaviy axborot vositalari, ta'lim va tarbiya ana shu omillar qatoriga kiradi. Bu omillarning hammasi bir kuch va samara bilan harakat qilmasligi fanga ma'lum. Shu sababli qarashlar stixiyali tarzda vujudga kelishining oldini olish hamda dunyoqarashni yo'naltirilgan tarzda shakllantirish omillarini boshqarishni o'rganib olish muhimdir.

Dunyoqarashning psixologik qurilishini bilish emotsional va irodaviy komponentlarni o'z ichiga oladi. Dunyoqarashning bilishga oid komponentlari „dunyoni idrok etish, dunyoni mu- shohada qilish“, „dunyoni tushunish“ singari terminlar bilan ataladi.

Dunyoqarash tarkibiga kishilarning olamni bilish va baholashga oid bo'lgan ishonch va e'tiqodlari, niyat va maqsadlari, ideallari, orzu-umidlari, ular faoliyatiga ma'lum yo'nalish beruvchi barcha qadriyatlar ham kiradi. Demak, dunyoqarash o'z ichiga dunyoni his qilish, dunyoni tushunish jarayonlarida hosil bo'ladigan iroda, idrok, kayfiyatlarni ham qamrab oladigan tushunchadir.

Dunyoqarashning ikkita darajasi mavjud. Uning birinchisini kishilarning kundalik hayotiy amaliy tajribasi hamda kasbiy faoliyati asosida to'plangan bilimlar, tasavvurlar, qarashlar tashkil qilsa, ikkinchisini ilm-fan tufayli to'plangan nazariy bilimlar, g'oyalar yig'indisi tashkil etadi. Ularning ikkalasi bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Dunyoqarash qotib qolgan, hech qachon o'zgaraydigan o'lik g'oyalar yig'indisi emas. Jamiyatning o'zgarishi bilan bir qatorda u ham doimo rivojlanib, mazmunan o'zgarib turadi. Buni biz o'z jamiyatimiz hayotidan yaqqol ko'rib turibmiz. Mustaqillik tufayli endilikda umuminsoniy va milliy qadriyatlarimizga asoslangan, hozirgi davr talabiga javob beradigan yangi mafkura yaratilmoqda va uning asosida kishilarda yangicha tafakkur, dunyoqarash shakllanib, rivojlanmoqda. Faylasuf olimlarimiz dunyoqarashning mifologik, diniy, falsafiy kabi turlarini farqlaydilar.

Mifologik dunyoqarash (yunoncha „mifos“ — *naql, rivoyat*, „logos“ — *tushuncha, ta'limot*) — ijtimoiy taraqqiyotning eng boshlang'ich davriga xos bo'lgan xalq og'zaki ijodi — naql va afsonalarda gavdalantirilgan ijtimoiy ongning asosiy shaklidir. Mifologik dunyoqarash ilm-fan taraqqiy etmagan vaziyatda keng tarqalgan ijtimoiy ongning shakli bo'lib, uning kelib chiqish sababining asosini insonning o'zini qurshab turgan olamdan ajralib qarashga o'ziga tashkil etadi. Shuning uchun ham mifologik dunyoqarashda jamiyat bilan tabiat, jonli bilan jonsiz narsalar bir xil tarzda ifodalanadi. Diniy dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati shundaki, u tabiiy va ijtimoiy hodisalar mohiyatini ularning o'zidan emas, balki Xudoning qudrati bilan tushuntiradi. U hamma narsada va har qayerda ilohiy kuchlarning ta'siri, mo'jizaviy kuchi bor, deb uqtiradi. Diniy dunyoqarashning mohiyati dindorlar uchun muqaddas bo'lib hisoblangan adabiyotlarda o'z aksini topgan. Falsafiy dunyoqarash — bu olam haqidagi yaxlit va sistemalashtirilgan bilimlar yig'indisidir. Mifologik va diniy dunyoqarash hissiy a'zolarimiz orqali erishilgan ma'lumotlar asosida shakllansa, falsafiy dunyoqarash hissiy va aqliy a'zolarimiz tufayli ilm-fan yordamida to'plangan bilimlar yig'indisidir.

Ta'lim jarayonida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Yosh avlodda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamma davrlarda millatning ilg'or kishilari diqqat markazida bo'lgan. Ilmiy dunyoqarash ijtimoiy tarixiy hodisa sifatida doim vorislik asosida rivojlanadi. O'tmish dunyoqarashlari yangi davr

dunyoqarashining ildizini tashkil etib, uni hayotbaxsh oziqa bilan ta'minlab turadi. Ilmiy dunyoqarashni amalga oshirishda kishi narsa va buyumning, voqea va hodisalarning ko'rinib turgan ifodasiga, shakliga qarab emas, balki ularning ichki mohiyatiga, mazmuniga qarab baho berishi kerak. Inson ongini, tafakkurini faylasuflar tabiat — materiya rivojlanishining mahsuli deb hisoblaydilar. Odamlar tabiat va ijtimoiy turmush hodisalariga ilmiy nuqtayi nazardan qarashga asoslanib, bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini vujudga keltiradilar, shu asosda odam o'zini o'zi bilib oladi. O'qituvchi o'quv jarayonida ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Odam o'zining butun umri davomida ham dunyoqarashga doir yangidan-yangi masalalarni hal qilish bilan shug'ullanaveradi.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda badiiy adabiyot — xalq og'zaki ijodi, ertaklar, hikoya va qissalarning ahamiyati beqiyos. Masalan, „Kalila va Dimna“, „Qobusnoma“, „Ming bir kecha“ kabi durdona asarlarda qissa va mantiqiy bilishga tegishli matallar, ertaklar, hikoyalar baytlar ko'p bo'lib, bu ma'naviy javohirlar yoshlarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. O'quvchilar maktabda ta'lim-tarbiya olish davrida tabiat fanlarining asoslarini o'rganish bilan obyektiv dunyodagi predmet va hodisalarning rivojlanishi, ularning o'zaro bog'lanishi, harakati haqida bilimga ega bo'ladilar. O'quvchilar bu bilimlar asosida asta-sekin tabiat qonunlarini bilib oladilar. O'qitish jarayonida turli tajribalar qilish va nazariy bilimning amaliy ishlar bilan bog'lab borilishi natijasida tabiat qonunlarini bilib, anglab oladilar. Boshlang'ich sinflarda „Atrofimizdagi olam“, „Tabiatshunoslik“ fanlarini o'qitish jarayonida, shuningdek, maktab tajriba yer maydonlaridagi amaliy ishlar mobaynida o'quvchilar tabiat qonunlari, hodisalari bilan ham nazariy, ham amaliy tanishadilar. 1- sinf o'quvchilari tabiatda ro'y berayotgan hodisalarning fasllarga bog'liq ekanligini o'rganadilar, tabiat hodisalarining o'zaro bog'liqligi haqida elementar bilim va tushunchaga ega bo'ladilar. Masalan, ular tabiatni kuzatish orqali kuz kelishi bilan kunlar sovishini, xazonrezgilikni, hasharotlarning uyquga kirishini, qushlarning issiq mamlakatlarga uchib ketishini bilib oladilar. Shuningdek, qishlab qoladigan qushlarni o'rganish orqali ularning sovuqda yashashga qanday moslashganliklarini, nimalar bilan ovqatlanishini bilib oladilar. Ana shu bilimlar asosida bolalar dunyoning moddiyligini bilib oladilar. Suv, havo, qattiq jismlarni o'rganish, ularni o'zaro taqqoslab ko'rish orqali bolalar tabiatdagi hamma moddalarning bo'shliqda ma'lum o'rni va o'z vazni borligini, har bir modda bizning sezgi organlarimizga ta'sir etishini o'rganadilar.

Bular bolaga dunyoni anglashni o'rgatadi, uning haqiqatan ham mavjudligini asta-sekin anglab olishga yordam beradi. Olimlarimiz tabiatni doimiy rivojlanishda va o'zgarishda ekanligini uqtiradilar. Bu ilmiy dunyoqarashning muhim belgisidir. Buni tushuntirish uchun o'quvchilar bilan turli kuzatishlar olib boriladi. Masalan, I — II sinfda ob-havo kalendari yuritish, fasllar almashinishi bilan tabiat manzarasining o'zgarishi, qurbaqa tuxumidan itbaliqning paydo bo'lishi, avval uning oldingi oyoqlari chiqishi,

so'ng vaqt o'tishi bilan orqa oyoqlari paydo bo'lib, dumi yo'qolib va nihoyat kichkina baqachaning paydo bo'lishini kuzatadilar. Bu faktlar orqali o'quvchilar tabiatda hamma narsa o'zgaradi, bu o'zgarishlar tabiiy sabablarga ko'ra vujudga keladi, degan xulosaga keladilar. O'qituvchi tabiatdagi bu o'zgarish va taraqqiyot faqat tirik organizmgagina xos bo'lmay, balki jonsiz tabiatdagi moddalar o'zgarishiga ham taalluqli ekanligini ko'rsatishi lozim. Masalan, suv sovuqda muzlaydi, muz issiqda eriydi va suvga aylanadi, suv isitilsa, qaynaydi va bug'ga aylanadi, bunday o'zgarish tabiatdagi boshqa moddalarga ham, chunonchi: mis, temir, qo'rg'oshin, qalay va boshqa metallarga ham taalluqli bo'lib, ular ham xuddi shunday o'zgaradi, ya'ni eritilsa, suuqlikka aylanadi, sovitilsa, yana qattiq holatga qaytadi, degan tushunchalar orqali IV sinfdab tabiatdagi moddalarning uch holati haqida umumiy xulosaga keladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanboyeva O., Djamilova N. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi. – T.: 2008.

2. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2010 y.

3. I.A. Kolosnikova, N.M. Воротко и др. Воспитательная деятельность педагога. Учебное пособие. М.: Академия, 2006 – 333 s.

4. Подласыу I.P. Педагогика 2-ya chast – М.: VLADOS, 2003 g.

5. Niyozova Safiya "Providing interdisciplinary integration in "education" lessons in primary grades". Society and innovations Journal. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 10 (2022) / ISSN 2181-1415

6. Niyozova Safiya. . "МУСТАҲКАМИИ ТАЪЛИМИ ИБТИДОӢ НАТИҶАИ ПЕШРАВИИ ДАВЛАТУ МИЛЛАТ". YANGI O'ZBEKISTON PEDAGOGLARI AXBOROTNOMASI , <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/12651>

7. Niyozova Safiya(2023) "АФКОРИ ТАЪЛИМИ ВА ТАРБИЯВӢ ДАР АСАРҶОИ САЪДИ ШЕРОЗӢ ВА АҲАМИЯТИ ОН ДАР ҶОМЕАИ ИМРӢЗАИ МО". Yangi O'zbekiston pedagoglari axborotnomasi, 842-847.

8. Niyozova Safiya "IMPROVING THE PROCESS OF PROVIDING INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN "EDUCATION" LESSONS IN PRIMARY GRADES". " In Volume 3, Issue 10 of Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) Oct., 2022.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH KITOBLARIDA ILMIY-OMMABOP MATNLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

*Hasanova Gulbahor Davlatmamatovna
TerDPI 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada asosan boshlang'ich sinf darsliklarida kiritilgan ilmiy matnlar hamda ularni o'quvchilarning yoshiga qarab tanlanishi

lozimligi haqida boradi. Shuning bilan birga darsni zamonaviy texnologiyalar asosida olib boorish ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: fan-texnika, ilmiy-ommabop matnlar, psixologik, urf-odat, hunarmandchilik, . ijtimoiyvoqelik, san'at, ta'lim, dars, darslik, maqola, matbuot, ilm, ijod, yosh, ma'rifat, san'at.

Mustaqillikdan so'ng "O'qish kitobi" darsliklari tubdan tahrir qilindi. Undan milliy hayotimizni, e'tiqod va tushunchalarimizni, urf-odatlarimizni, ruhiyatimiz va asriy orzu- istaklarimizni namoyon etuvchi ma'naviy yuksak asarlar o'rin oldi. Zotan, boshlang'ich sinf o'qish kitoblari shiddat bilan rivojlanayotgan, uzluksiz taraqqiy etib borayotgan yangi – uchinchi ming yillik o'quvchisining talab va ehtiyojlariga monand tobora takomillashib bormoqda. Xususan, 3-sinf o'qish kitobi matnlar va ilmiy-ommabop namunalarning mavzu-mundariyasi, dolzarb ahamiyati, ulug' ajdodlarimiz hamda buyuk mutafakkirlar hayotining keng yoritilishi diqqatga sazovor. Dilfuza Kamoljonovanning "Bayramingiz qutlug' bo'lsin" ilmiy-ommabop maqolasida mustaqillik tushunchasi va hodisasiga ixcham ta'rif berilgan: "Mustaqillik–bu avlod-ajdodlarimiz ko'p yillar osha kutgan erkinlik, hurlik degani. Mustaqillik–bu erkin fikrlash, mustaqil harakat qilishdir." O'quvchilarga tarixiy 1991-yil, 31-avgust sanasi haqida, Mustaqillik kuni va uning umumxalq bayrami sifatida nishonlanishi uqdirilgach, uning mohiyati anglatiladi. "Yurt mustaqil bo'lishi uchun o'zining davlat ramzlari–bayrog'i, gerbi, madhiyasi, maydoni, mustahkam chegaralari, armiyasi bo'lishi kerak." Shu tariqa, O'zbekiston shunday mustaqil davlat ekanligi, uni dunyo tan olgani, o'z o'rni, obro'-e'tiborga egaligi matn nihoyasida ayon bo'ladi.

Muhabbat Hamidovanning "Ona-Vatan" ilmiy-ommabop maqolasi o'z mavzusi bilan ajralib turadi. Unda O'zbekistonning bugungi qiyofasi, o'zgarishlar, yangi qad ko'targan muhtasham binolar, Asaka shahridagi ulkan avtomobil zavodi va u yerdan chiqayotgan turli rusumdagi masalan, "Matiz", "Damas", "Neksiya", "Lasetti", "Epika", "Kaptiva" kabi yengil avtomobillar, Samarqanddagi SamAvto zavodidan esa mikroavtobuslar ishlab chiqarilishi sanab o'tilgan. Umuman, maqolada, avvalo Vatan saxovati va uning ona kabi muqaddasligi ta'rif-tavsif etiladi

"Unutilmas bayram" maqolasi o'z mavzusiga ko'ra boshlang'ich sinf o'qish kitoblarida deyarli kuzatilmagan hodisalardan. Unda nogiron bolalar hayotidan hikoya qilinib, bir umr nogironlik aravachasiga mixlangan, yoki, qaysidir a'zosi nogiron bo'lgan bolalarga ulashilgan quvonchning juda katta ijobiy ta'siri xususida so'z boradi. Bunday maqolalar, kattalarni ogohlikka, bolalar orasida ko'proq bo'lishga undasa, bolalarni sog'lig'ining qadriga yetish, bilim olish, hunar o'rganishdan charchamaslikka da'vat etadi.

Shunga o'xshash, 3-sinf o'qish kitobining "Ulug'lardan o'rganmoq–oqillik" deb nomlanuvchi 8-bo'limda o'quvchilarni o'tmishda yashab, xalqi va Vatani uchun, ma'rifat rivoji uchun xizmat qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yan allomalarning bolaliklari, yoshlikdagi qiziqishlari, jasoratlari to'g'risida fikr yuritilgan. Umuman, darslikda 18 ta ilmiy-ommabop maqolaning berilishi bu

o'qish kitobining alohida xususiyati hisoblanadi. Muhimi, ularning ko'pchiligi alohida turkumlarni tashkil qiladi. Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o'tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug' siymolar amalga oshirgan ishlar, tarixiy sanalar to'g'risida bilim beradi. O'qish darsliklaridan o'rin olgan Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bu xildagi matnlar o'quvchilarni nafaqat o'tmishimiz bilan tanishtiradi, balki ularning vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. O'quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg'usi shu tariqa shakllanadi. Tarixiy mavzuda, Vatanimiz o'tmishi haqida yozilgan ilmiy-ommabop asarlar bilan tanishtirish va ularni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo'ladilar. Jamiyat taraqqiyoti haqida qisqacha bo'lsa-da, tushuncha hosil qiladilar. Aslida ham xalq ma'naviy dunyosining shakllanishida ulug' allomalar, yozuvchi, shoirlar ta'siri katta. Boshlang'ich sinfda o'quvchining kelajakdagi taraqqiyotini belgilab beruvchi ruhiy, ta'limiy-tarbiyaviy asos yaratiladi. Bunda ilmiy-ommabop maqolalarning o'z o'rnini bor. O'quvchilar bunday maqolalar orqali ilmiy ma'lumotlardan voqif bo'lish bilan birga, tarixiy davrning muhim hodisalari to'g'risida mushohada yuritishga ko'nikma hosil qiladilar.

Shu o'rinda amaldagi 3-sinf o'qish kitobi hamda uning avvalgi (2010-y.) nashrini qiyoslash maqsadga muvofiq. Negaki, ilmiy-ommabop maqolalar darslikning avvalgi nashrida davr nafasini o'zida ko'proq aks ettirgan. O'qish kitobidagi yurt qahramonlariga bag'ishlangan ilmiy-ommabop maqolalar yosh avlod ma'naviy olamida ko'proq rol o'ynashi ayon haqiqat. Darslikning avvalgi nashridan joy olgan O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov haqidagi maqola o'quvchilarga domlaning chinakam olimlik, ustoz-u shogirdlik maktabi, ilm va hayotdagi matonatidan saboq beradi:

“Ozod Sharafiddinov,- ta'kidlanadi maqolada,- butun umri davomida Milliy universitetda ishladi. Olim minglab talabalarga bilim berdi. Uning ma'ruzalarini tinglaganlar umr bo'yi “Bizni Ozod Sharafiddinov o'qitgan” deb g'ururlanib yurishadi. Ozod Sharafiddinov ustozlarni juda hurmat qilgan. Masalan, ustoz Abdulla Qahhorga sadoqatli bo'lgan. Abdulla Qahhorni o'z davrida istiqlol yo'lida faol kurashgan o'tyuraklardan biri deb bilgan”.

Ozod Sharafiddinovning ilmdagi jasratlari haqiqatan ibratli bayon qilingan; maqoladagi ayrim detallar, masalan, u betoblighi, ikki oyog'idan ham ajralganiga qaramay, “Jahon adabiyoti” jurnalini oyoqqa turg'azgani, ko'zlari xiralashsa-da, lupa yordamida jurnal materiallarini tahrir qilgani uning matonati belgisidir. Qolaversa, olimning respublikamiz vaqtlilik matbuoti, radio-televideniyeda mustaqillikni mustahkamlashga oid ko'plab chiqishlar qilgani, bir necha kitoblar yozgani bugungi navqiron avlod uchun ibrat maktabi bo'la oladi. Natijada, o'quvchilar O.Sharafiddinov ikki yuksak orden va O'zbekiston Qahramoni unvoni bilan taqdirlanishi bejiz emasligini anglab yetadilar. Binobarin, Ozod Sharafiddinov o'z umrini, faoliyatini ilmga, o'zbek adabiyoti

rivojiga bag'ishlagan olim sifatida mustaqillik yillarida qadr topdi. Mazkur ilmiy-ommabop maqolani boshlang'ich sinf o'quvchilariga olim hayot yo'lini yorituvchi videolavhalar, jurnallarda u haqda chop etilgan ko'plab maqola va nashr etilgan kitoblar asosida o'tish mavzu mohiyatini oydinlashtirishga yordam beradi.

Xulosa bunday maqolalar ilmiy-ommabop maqolalarning yana bir xususiyatini oydinlashtiradi. Ularda real voqelik, ijtimoiy hayotdagi hozirjavoblik hissi ustunligiga ko'ra, ma'lumotlarni yangilab, to'ldirib borish maqsadga muvofiq. Aytaylik, O.Shrafiddinov fanimiz darg'alaridan hisoblanuvchi zahmatkash olim, butun O'zbekiston faxr qilishiga arzigulik matonatli va o'tkir idrokli inson. Rustamjon Qosimjonov esa inson aql-idrokini belgilovchi sport turi –shaxmat bo'yicha bir necha karra jahon chempioni. Ya'ni, ular zamonamizning haqiqiy qahramonlari. Binobarin, bu shaxslar to'g'risidagi maqolalarni boshlang'ich sinf O'qish kitobiga kiritilishi o'ziga xos ta'lim-tarbiyani tashkil etadi. Chunki, 3-sinf o'qish kitobining 2010-yilda chop etilgan nashridagi bu maqolani darslikning yangi avlodida aynan chop etish to'g'ri bo'lmaydi. O'tgan yillar davomida Rustamjon Qosimjonov yangi g'alabalarni qo'lga kiritgan bo'lishi mumkin, yoxud, bunday mavzularni o'tishdan ilgari, yangi ma'lumotlarni gazeta-jurnallardan izlash, ulardan eng muhimlarini ajratib o'la bilish lozim. Bundan tashqari, ijtimoiy hayotdagi boshqa bir dolzarb, yoki jahonshumul voqealarini yosh avlod o'qishi muhimroq hisoblanganidan, ular almashtirib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh..M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 B.

2.Abdullayeva Q., Rahmonbekova S. 2- sinfda o'qish darslari. Metodik qo'llanma. -T., 1999

3.Abdullayev Y. Mashhur ma'rifatparvarning ikki darsligi. // Boshlang'ich ta'lim j. - 1993, 1-son, 20—22-betlar; yana: Abdulla Avloniy darsliklari. // Boshlang'ich ta'lim j., -1993, 7-8-sonlar, 18-22-betlar.

4.Qosimova K., S. Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva,Sh.Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. T., "Noshir", 2009.

5.G'afforova T., G'ulomova X. O'qish darslari. 1-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. T., "Tafakkur", 2011; yana: T.G'afforova. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogic texnologiyalar. T., "Tafakkur", 2011.

6. Qarshiyevna U. M. Linguistic Views Of Mahmud Kashgari //Central asian journal of social sciences and history. – 2022. – T. 3.– №. 12. – C. 336-340.

7. Muminova Umida Qarshiyevna . Lexical-Grammatical Characteristics of the Noun in Ancient Turkish Language International Interdisciplinary Research Journal Volume 2 Issue 1, Year 2023 ISSN: 2835-3013. P. 389-394
<https://univerpubl.com/index.php/synergy>

8. Umida Muminova Qarshiyevna. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarining pedagogika tarixida tutgan o'rni// Tadqiqotlar jahon ilmiy –metodik jurnal. 6-son 2-to'plam, yanvar 2023, 332-335 B

9. Umida Karshiyevna Muminova. Phytonyms in the work "Mahbub ul-qulub". International scientific and practical conference "Trends of modern science and practice" Ankara, Turkey 2023.P 46-50

10. Sharfova Nilufar Ilhom qizi, Muminova Umida Karshiyevna. Forming Concepts of Grammar and Word Formation in Primary Grades. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(4), 164–168. Retrieved from <http://univerpubl.com/index.php/semantic/article/view/1033>

11. Chorshanbiyeva Ra'no, Muminova Umida Karshiyevna, Innovative Approach as a Condition for Improving the Educational Process in a Modern School, Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education: Vol. 2 No. 4 (2023): Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education

12. Davlatmamatovna, H. G. Qarshiyevna, M. U. . (2023). Popular Scientific Texts in Elementary School Textbooks and Methods of their Study. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(4), 125–128. Retrieved from <http://univerpubl.com/index.php/semantic/article/view/1006>

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI MA'NAVIY-MA'RIFIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING IMKONIYATLARI

*Hikmatov Ilyos Murodulloyevich,
TerDPI 2-kurs magistranti.
Tursunova Saida Isakovna,
TerDPI o'qituvchisi.*

Kalit so'zlar: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi, ma'rifat, ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligi, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat, kasbiy kompetansiya, innovatsion texnologiyalar, ma'naviyat.

Ключевые слова: будущий * учитель начальных классов, просвещение, гармония духовности и просвещения, духовно-просветительская деятельность, профессиональная компетентность, инновационные технологии, духовность.

Key words: future primary school teacher, education, harmony of spirituality and education, spiritual and educational activities, professional competence, innovative technologies, spirituality.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bo'lmish talaba-yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy kamolotini ta'minlashda munozaralar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy-ma'rifiy mavzulardagi munozaralar talabalarda muayyan holat, hodisalarga nisbatan to'g'ri baho berishga, bu borada fikr yuritishga o'rgatish hamda e'tiqodni shakllantirishga xizmat qiladi. Munozara o'y-

fikrlarni tartibga soladi, talabalarni mustaqil fikrlashga, bahs yuritishni tashkil etishga, o'rtog'ini tinglashga, o'z fikrini ilgari surish va uni obrazli tarzda himoya qilishga, ayni chog'da o'z xatolarini tan olishga o'rgatadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtasida "Mustaqillik va ta'lim-tarbiya"; "Yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi"; "Yoshlarning kitobxonlikka munosabati"; "Zamonaviy urf-odatlarida madaniyat va ma'naviyat" mavzularida bahs-munozaralar olib borildi.

Talabalarni ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalashda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish katta ahamiyatga ega. Bunda tarixiy shaxslarning tavallud kunlari, bayramlar va muhim sanalar hamda ma'naviy-ma'rifiy mavzularga bag'ishlab "Konstitutsiya – baxtimiz qomusi!", "Navro'z – yasharish bayrami!", "Ona – ulug' zot!", "Xotira muqaddas!" mavzularida tarbiyaviy tadbirlar tashkil etildi. Ushbu tarbiyaviy tadbirlarda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bo'lmish talabalarining o'zlari ishtirokchi sifatida qatnashdilar. Talabalar tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish bilan o'zlariga to'g'ri xulosa chiqarib, ularning ma'naviyati yuksaldi.

Talabalarni ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy mavzudagi suhbatlar, uchrashuvlar va bahs-munozaralar, tanlovlar va tarbiyaviy tadbirlar uyushtirish orqali ularda ijobiy ma'naviy-ma'rifiy munosabatlar rivojlantirilganligi, ma'naviy-ma'rifiy fazilatlar yuksaltirilganligi olib borilgan so'rovnomalar asosida aniqlanib, qayd etib borildi. Olib borilgan ma'naviy-ma'rifiy tarbiya natijasida talabalarda insonparvarlik, erkparvarlik, vatanparvarlik, millatparvarlik, tinchliksevarlik, adolatlilik, halollik, rostgo'ylik, xushmuomalalik, odoblilik, kamtarlik, bosiqlik, kamsuqumlik, shirinsuxanlik kabi bir qancha ijobiy fazilatlar rivojlantirildi.

Barkamol avlod shaxsida ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida milliy an'analarni chuqur tahlil qilish talabalarni xalqimizning ma'naviy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bu esa talabalarda mustaqil O'zbekistonning istiqlolini mustahkamlash va rivojlantirish, jamiyatda barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni ta'minlash tuyg'ularini tarkib toptiradi, ularning ijtimoiy faoliyatini boyitadi. Shuningdek, kasb faoliyati, mustaqillik tafakkuri ko'nikmalarini egallashi uchun zarur bilimlar berish bilan birga, ma'naviy hayot, shaxs va jamiyat ehtiyojlari, ta'limning insonparvarlik ruhi, milliy istiqlol g'oyasi, ma'naviyat kabi yo'nalishlar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Albatta, bu vazifalarni amalga oshirishda oliy o'quv yurtlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va uni boshqarish muhim ahamiyatga ega. Chunki talabalarda axloqiy ong va tafakkurni shakllantirish ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida amalga oshiriladi. Ikkinchidan, oliy o'quv yurtida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuqori darajada tashkil etish jamiyat taraqqiyoti, mamlakatning barqaror rivojlanishining muhim sharti va kafolatidir. O'sib kelayotgan yosh avlod ongida ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni rivojlantirmay turib jamiyatda yuksak tarraqiyotga erishib bo'lmaydi. Demak, bo'lajak boshlang'ich sinf

o'qituvchilarini ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyolash jarayonida quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur hisoblanadi:

- ezigulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish; [1]

- ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlarida tarbiyaviy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan videorolik, badiiy film hamda shiorlarni tayyorlash va amaliyotga tatbiq etish;

- ta'lim muassasalarida sportni qadriyat sifatida rivojlantirish, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini ommalashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish; [2]

- mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-ma'rifiy negizlarini talabalar ongiga singdirish, O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlarini talabalar o'rtasida keng targ'ib etish;

- oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, talabalar bilan olib boriladigan tadbirlarning ta'sirchanligini oshirish;

- oliy o'quv yurtlari jamoalarida barqaror ma'naviy-ma'rifiy muhitni yaratish, o'qituvchilar bilan talabalar hamkorligiga erishish;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yaxshilashga qaratilgan tadbirlar tayyorlash va ularni o'tkazishda talabalarning imkoniyatlarini, qiziqishlari va jamoat ishidagi malakalarini hisobga olish;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarning aqliy, hissiy va irodaviy tomonlariga ta'sir etish, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga doir bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash;

- ongli intizomni rivojlantirish, fan va madaniyatga bo'lgan qiziqishni tarbiyalash, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish maqsadida badiiy asarlar ro'yxatini tavsiya etish;

- talabalar uchun ustoz va shogird qoidalarini joriy qilish, talabalarning ijtimoiy foydali, unumli mehnatini tashkil etish;

- sanitariya-gigiyena ishlarini yo'lga qo'yish, guruhlarda talabalar kun tartibini belgilash;

- talabalarning mustaqil ta'lim olishi, o'z ustida ishlashi, ma'naviy aqliy darajasi, umumiy saviyasi, qiziqishlarini rivojlantirish;

- milliy istiqlol g'oyasini talabalar orasida keng targ'ib qilish, unda ommaviy, madaniy-ma'rifiy ishlarning shakl va vositalaridan samarali foydalanish;

- barkamol shaxsni shakllantirishda oliy ta'lim, oila va keng jamoatchilikning hamkorligiga erishish va boshqalar.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, talabalarni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan barcha talablarga javob beradigan, xalqimizning milliy an'alariga sadoqatli, jamiyatimizning har tamonlama mukammal fuqarosi darajasida tarbiyalash o'qituvchining bilimiga, mahoratiga bog'liq. Shu bilan birga, albatta, bunday kadrlarni tayyorlashda yuqoridagi fikrlarimizga qo'shimcha tarzda quyidagilarni ham amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz:

*Birinchi*dan, mutaxassislik fanlarini o'qitishda talabalarda ma'naviy-ma'rifiy bilimlarni shakllantirish; bo'lajak kadrlarning kasbiy bilimi, mahorati va ko'nikmalarini, ma'naviyati va madaniyati, iqtisodiy va huquqiy bilimlarini oshirish uchun pedagogik vaziyatlar, testlar, mashqlar tayyorlash; "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun asosida o'qituvchilarning axloqiy fazilatlarini haqidagi bilimlarini aniqlash metodikasini ishlab chiqish.

*Ikkinchi*dan, pedagog kadrlar tayyorlashda o'qituvchi-professorlar: ma'naviyat va ma'rifatning shaxs kamolotidagi ahamiyati; O'rta Osiyo mutafakkirlarining ma'naviyat va ma'rifat haqidagi g'oyalari va ulardan shaxs kamolotida foydalanish; mustaqil O'zbekistonning milliy pedagogikasi mazmuni; "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning ta'lim mazmunini takomillashtirishdagi ahamiyati; Sh.M.Mirziyoyevning "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning asosiy poydevoridir" asarida berilgan ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishning yo'l-yo'riqlari; ta'lim-tarbiya jarayonining ma'naviy-ma'rifiy bilimlar asosida amalga oshirilishi; ma'naviy-ma'rifiy ishlar asosida oliy ta'limni boshqarish va o'quv-tarbiya faoliyatini tashkil etish orqali talaba bilimini oshirib borishi; milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishi; o'quv-tarbiya jarayonida ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlardan foydalanish shaxs ma'naviyatini shakllantirishning asosiy omili ekanligini his qilishi; o'zbek xalqining madaniy va ma'naviy merosi, qadriyatlarining shaxs shakllanishiga ta'sirini anglab yetishi lozim.

Buning natijasida ta'lim islohotlarini ongli ravishda to'la o'zlashtirgan, ularni amalga oshirish jarayonida faol ishtirok etadigan, zamon talablariga hozirjavob, kasb mahorati yuksak, ma'naviy-ma'rifiy fazilatlarini o'zida mujassam etgan o'qituvchi kadrlar tarkibi shakllanadi. Talaba-yoshlarga ta'lim-tarbiya berish sifati yuqori darajaga ko'tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son Qarori. (www.lex.uz)

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktyabrda 558-son qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish Konsepsiyasi". (www.lex.uz)

3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. To'rtinchi nashr. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – 224 b.

4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 224 b.

5. Farsaxonova D.R., Esirgapova M.O'. Talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metod va vositalari / Journal of Innovation in Primary Education. Vol. 1, March – 2021. – Pp. 93-97. (<https://primedu.jspi.uz>)

6. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: «Fan», 2008. – 270 b.

7. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.

8. Isakovna, T. S., & Xaydarovna, M. N. (2022). BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI TARBIYALASHDA MEHNAT TARBIYASINING AHAMIYATI. PEDAGOGS jurnali, 23(2), 186-191.

9. Турсунова, С. И. Педагогические основы национализации школьного образования. ТГПИ. 2022 год.

10. Isakovna, T. S., & Yo‘lchi, O. R. R. Z. (2022). YOSH AVLODNI VOYAGA YEKAZISHDA TARBIYANING AHAMIYATI. PEDAGOGS jurnali, 23(3), 15-22.

11. Isakovna, T. S. (2022). BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH. PEDAGOGS jurnali, 23(2), 179-185.

12. Isakovna, T. S. (2022). BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. PEDAGOGS jurnali, 23(2), 172-178.

13. Турсунова, С. (2022). Методика обучения русскому языку младших школьников. Общество и инновации, 3(8/S), 179-186.

14. Sattarova Munojaot Tokhtayevna, & S. I. Tursunova. (2023). PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF USING NATIONAL HERITAGE IN EDUCATION OF SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 11, 66–70.

15. Tursunova Saida Isakovna. (2022). The development of oral speech of younger schoolchildren in extracurricular activities. Eurasian Research Bulletin, 14, 280–286.

**HARBIY PEDAGOGIKA VA HARBIY PSIXOLOGIYA FANLARINI O‘QITISH
JARAYONIDA KURSANTLARNING HARBIY QADRIYATLI
MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHNI BOSQICHMA-BOSQICH TASHKIL
ETISH TASNIFI**

***O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy aviatsiya bilim yurti
Ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar fanlar kafedrasida katta o‘qituvchisi
podpolkovnik Ibragimov Anvarjon Jahongirovich***

Annotatsiya: Ushbu maqolada Harbiy pedagogika va harbiy psixologiya fanlarini o‘qitish jarayonida qadriyatli yondashuvni ro‘yobga chiqarish orqali kursantlarning harbiy jamoalarda o‘z o‘rnini topishi, erkin faoliyat yuritishi, jamoadagi boshqaruvchanlik, birgalikda faoliyat yuritish, safdoshlarini o‘zaro qo‘llab-quvvatlash kabi fazilatlarining namoyon bo‘lishini amalyotga tadbiiq etishga bag‘ishlangan pedagogik ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar mujassam etilgan.

Kalit so‘zlar: kursant, qadriyat, o‘qituvchi, faoliyat, kursantlararo munosabat, guruh, shakllantirish, yondashuv.

Oliy harbiy bilim yurti kursantlarida Harbiy pedagogika fanini o'qitish jarayonida harbiy qadriyatli munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlar quyidagi besh bosqichda tashkil etiladi:

1-bosqich: Maqsadni aniqlashtirish va motivatsion bosqich davomiyligi (5-10 daqiqa).

Ushbu bosqichda maqsad aniqlashtirib olinadi, ya'ni umumiy maqsadga ko'ra aniq maqsadlar belgilab olinadi. Har bir maqsadga ko'ra kursantlar o'zlari bajaradigan vazifalari nuqtai nazaridan maqsadlarini aniqlashtirib oladilar. Ushbu maqsadni aniqlashtirish va vazifalarni to'liq amalga oshirish uchun o'qituvchi kursantlarga motivatsiya beradi. Har bir maqsadga erishish ular uchun ichki ehtiyojga aylantiriladi. Buning uchun esa o'qituvchi kursantlar bilan suhbat o'tkazadi, erishiladigan natijaga nisbatan qiziqish uyg'otadi. O'qituvchi kursantlarning o'z maqsadlarini belgilashlari uchun harakatlar majmui, vazifalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan zaruriy materiallar, vositalarni tanlash, vaqtdan unumli foydalanishga doir maslahatlarini berib boradi.

2-bosqich: Faoliyatni rejalashtirish davomiyligi (10-15 daqiqagacha).

Kursantlar bajarishi lozim bo'lgan vazifalar rejalashtirib olinadi. Faoliyat rejasi ishlab chiqiladi. Har bir bajariladigan ish mazmuni ochib beriladi, unga sarflanadigan vaqt va kutiladigan natijalar aniqlashtiriladi.

3-bosqich: Faoliyatni amalga oshirish (ish mazmuniga va davomiyligiga ko'ra 20-30 daqiqagacha).

O'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida faoliyatni tashkil etishga doir vazifalar amalga oshiriladi. Ushbu jarayon guruhli, kichik guruhlarda yoki yakka holda ham amalga oshirilishi mumkin. Jarayonning asosiy bosqichi bo'lgan ushbu bosqichda kursantlar turli mazmundagi vazifalarni amalga oshiradilar, treninglar o'tkaziladi, mikromashg'ulotlarni o'tkazishga doir tayyorgarlik ishlari tashkil etiladi.

Guruhli va kichik guruhlarda o'tkaziladigan tadbirlar yakunida guruh a'zolaridan biri ish yuzasidan taqdimot o'tkazadi. Ish natijasi muhokama qilinadi.

4-bosqich: Natijalarni muhokama qilish va ish monitoringi (15 daqiqa).

O'qituvchi kursantlarning bajargan ishlari monitoringini o'tkazadi. Guruhlar ishini nazorat qiladi, natijalarni qiyosiy tahlil qilinadi, xavfsizlik qoidalariga amal qilishlarini nazorat qilib boradi, belgilangan maqsadlarni amalga oshirilishi darajasini aniqlashtiriladi. Har bir guruh ish natijalari boshqa guruh a'zolari ishtirokida muhokamadan o'tkaziladi. Fikrlarning ob'ektivligi, munosabatlarning xolisligi inobatga olinadi. O'qituvchi muhokama jarayonini kuzatadi va boshqarib boradi.

5-bosqich: Baholash (10 daqiqa).

Ushbu bosqich yakuniy bosqich hisoblanadi va kursantlarning mashg'ulotda ishtiroki, bajargan ishlarining natijalariga ko'ra reytinglari aniqlanadi. G'olib bo'lgan guruh a'zolari rag'batlantiriladi va baholanadi. Har

bir guruh a'zosining javoblari, topshiriqlarni bajarishdagi ishtiroki, taqdimotni amalga oshirishdagi fikrlari inobatga olinadi.

Kursantlarda harbiy qadriyatli munosabatlarni shakllantirish jarayonini ikki yo'nalishda tashkil etishni maqsad qildik va ikki yo'nalishda tegishli metodika ishlab chiqildi:

1-yo'nalish: auditoriya mashg'ulotlarida rasmiy qadriyatli munosabatlarni shakllantirish;

2-yo'nalish: auditoriyadan tashqari tadbirlarda norasmiy qadriyatli munosabatlarni shakllantirish.

Birinchi yo'nalishdagi ishlar – auditoriyadagi mashg'ulotlar Harbiy pedagogika va Harbiy psixologiya fanlarini o'qitish jarayonida tadqiqot muammosiga aloqador bo'lgan mavzular doirasida amalga oshiriladi.

Ikkinchi yo'nalishdagi ishlar – auditoriyadan tashqari tadbirlarda ya'ni, ma'naviyat soatlari, jasorat mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim, ekskursiyalarni uyushtirish doirasida amalga oshiriladi.

Harbiy jamoadagi o'zaro munosabatlarni mustahkamlash bo'yicha faoliyat nafaqat barcha darajadagi komandirlar balki harbiy xizmatchilarning o'zlariga ham bog'liq.

Mazkur mavzular tadqiqot davomida harbiy qadriyatli munosabatlarni shakllantirish uchun tanlab olingan metodlar bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq.

t/r	Mavzu	Mashg'ulot maqsadi	Foydalaniladigan metodika	Erishiladigan natijalar
Harbiy pedagogika fani bo'yicha				
1	Tarbiya jarayonining metodologik asoslari	Tarbiya jarayonining metodologik asosi bo'lmish rasmiy harbiy qadriyatlar tizimi bilan tanishtirish.	Pedagogik modellashtirish, qiyosiy tahlil	Kursantlar turli harbiy vaziyatlarni tarbiya qonuniyatlariga ko'ra modellashtirish ko'nikmalarini egallaydilar.
2	Xavfsizlik, osoyishtalik va farovonlikning inson tarbiyasiga bog'liqligi	Harbiy faoliyatning yurtimiz tinchligini saqlashdagi o'rni, xavfsizlik va osoyishtalikni muhim harbiy qadriyat sifatida o'rganish.	Imitasion mashqlar, mikromashg'ulot	Harbiy vaziyatlarda harbiy jamoa, jamoadoshlari va yurtdoshlari xavfsizligini ta'minlash, o'zaro munosabatlarni tartibga solish ko'nikmalarini egallaydilar.
Harbiy psixologiya fani bo'yicha				
1	Guruh va harbiy jamoa haqida umumiy tushuncha. Guruh va	Kursantlarda jamoaviy munosabatlarda rasmiy va norasmiy harbiy qadriyatlarga	Situativ masala, topshiriqlar, mikromashg'ulot, "Tanishuv" treningi	Kursantlar jamoa manfaatlarini o'z manfaatlaridan yuqori qo'yishni, munosabatlarda jamoa

	jamoaning tasniflanishi	doir tushunchalar tizimini shakllantirish.		manfaatini himoya qilishga o'rganib boradilar.
2	Jamoa psixologiyasi va uni tuzilishi haqida umumiy tushuncha	Harbiy xizmatchilarda shaxs va jamoa munosabatlari tizimidagi harbiy qadriyatlar tizimini to'g'ri tushunish va unga amal qilish ko'nikmalarini shakllantirib borish.	Jamoaviy munosabatlarni aniqlash metodikasi, "Hayotdagi shiorim" treningi	Harbiy jamoada rasmiy va norasmiy harbiy qadriyatlarga asoslangan munosabatlar qaror topa boradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida quyidagi fikr va takliflarni aytishim mumkinki, harbiy jamoa – bu o'zining maxsus qonunlari bo'yicha yashovchi va rivojlanuvchi ancha murakkab organizm. Harbiy jamoa psixologiyasining xususiyatlari va rivojlanishi qonuniyatlarini bilish hamda ulardan mohirona foydalanish, komandirga jangovar shaylikni oshirish bo'yicha vazifalarni muvaffaqiyatli yechishga imkon yaratadi.

Kursant o'zaro umumiy qadriyatlar tizimiga ega bo'lgan harbiy jamoadagina o'z o'rnini topadi, o'z qadriyatlarini jamoa qadriyatlari bilan umumlashtira oladi.

Kursantlararo munosabatlarda qadriyatlarning umumiy xarakterga ega bo'lishi yoki o'xshashligi harbiy jamoa a'zolarining bir-biriga bo'lgan jangovar do'stonalik munosabatlari, simpatiyasida o'z ifodasini topadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3898-son Qarori. 2018.

2. O'zbek tilining izohli lug'ati: J.II. Ye-M/Tahrir hay'ati: T.Mirzaev va boshq.: O'zR FA Til va adabiyot instituti. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 672 b.

3. G'oziev E.G'. Muloqot psixologiyasi. T. 2001. – 134 b.

4. Nurullaeva Sh. O'qituvchilarning o'z ustida ishlashi uzluksiz kasbiy rivojlanishning asosi sifatida. Xalq ta'limi. 2022. №4. 93-98-b.

5. Nurullayeva Sh. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy moslashtirish mexanizmlari. Pedagogik akmeologiya. 2022 №1. 12-19-b.

6. Nurullaeva Sh.U. Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligi modelida pedagogning professional kompetentligini rivojlantirish yo'llari. Ta'limda uzviy kasbiy rivojlanishning jamiyat taraqqiyotidagi roli, rivojlanish masalalari: maqsad va vazifalar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Qarshi-2022.150-152 b.

7. Nurullaeva Sh. Modern pedagogical models of professional training of future teachers in Uzbekistan. Excerpts from Uzbekistan. The special

periodical journal of Uzbekistan writers and scholars held in Egypt Alexandria University. Alexandria University, 2022. P. 95-97.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI IJTIMOYILASHTIRISH MUAMMOLARI

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
Ibragimova Gulobat Raxmat qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ijtimoiylashtirish muammolari haqida so'z yuritilgan. Bolaning ijtimoiy kompetensiyalari shakllanishining pedagogik asoslari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, ijtimoiylashuv, omil, munosabat, muhit, muloqot, moslashuv.

Problems of child socialization in preschool educational organizations

Annotation: This article is about the treatment of child socialization in preschool educational organizations. The pedagogical foundations of the formation of social competencies of the child are highlighted.

Keywords: personality, socialization, factor, attitude, environment, communication, adaptation.

Hozirgi vaqtda shaxsni ijtimoiylashtirish muammosi pedagogika fani va amaliyoti uchun dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu maktabgacha ta'lim tizimiga ham tegishli. Bolalik-bu alohida davr bo'lib, uning mohiyati bolaning o'sishi, uning kattalarning ijtimoiy dunyosiga kirishi jarayonidir. Shaxsni shakllantirish omillari orasida ijtimoiy muhit ta'siri yuqori o'rinda turishi haqidagi g'oya kundan-kunga aniq isbotlanib bormoqda. Chunki muhit har bir tirik jonning yashash tarzini belgilab beradi. Ijtimoiylashuv – uzluksiz va ko'p qirrali jarayon. Bu jarayon ayniqsa, bolalik va o'smirlikda jadal kechadi. Bola ijtimoiylashish jarayoni, shaxs sifatida uning shakllanishi va rivojlanishi atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirda sodir bo'ladi.

Shaxs ijtimoiylashuvining makro (grekcha macros “katta”), mezo – (mesos “o'rta”) va mikro (micros “kichik”) omillarini farqlaydilar.

Mikroomillar – inson yashaydigan mamlakat, jamiyat, davlat hamda dunyoviy planetar jarayonlar – ekologik, demografik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va b.

Mezoomillar – etnik ko'rsatmalarni shakllantirish, shaxsning milliy hayot va etnikaro munosabatlarning u yoki bu hollarini qabul qilishi, insonlarning o'z eposi (xalqi) tarixi va hozirgi hayoti haqida qarashlari va fikrlari; bola yashaydigan va rivojlanadigan mintaqaviy shart-sharoitlarning ta'siri; yashaydigan joy turi (shahar, tuman markazi, qishloq); ommaviy kommunikatsiya vositalari va b.

Mikroomillar - yaqingina makonni va ijtimoiy muhitni tashkil qiladigan oila, ta'lim muassasalari, tengdoshlar guruhi muhitini, ya'ni bola o'sadigan

muhitni sotsium yoki mikrosotsium deb atashadi. Shuning uchun bugungi kunda maktabda har tomonlama yetuk rivojlangan bolalar qamrovini ta'minlash maqsadida maktabgacha ta'limga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki, ta'lim jarayoniga yo'naltirilmagan bolada nafaqat bilimlar hosil qilish balki, ijtimoiy xulq-atvor va jamiyatda o'zini tutish madaniyatini ham to'g'ri shakllantirish mumkin emas. Ijtimoiy hayotning madaniy, axloqiy qoidalari va qonuniyatlari o'zlashtirilishi bilan uning ijtimoiy ko'nikmalari – o'z harakatlarini baholash, boshqalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyati rivojlanadi. F.F.Ganjievning maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini o'rganishga bag'ishlangan empirik tadqiqotlari natijasiga ko'ra, ijtimoiy taraqqiyot tamoyillariga xizmat qiluvchi ijtimoiy kompetentlikning namoyon etilishi, shaxs tiplari va sotsial-psixologik kompetentlik omillariga bog'liq ekanligini ta'kidlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida muayyan darajadagi ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish dasturini qo'llash natijasida bolalardagi shaxslararo munosabat bilan bog'liq bo'lgan verbal ma'lumotlar bilan birga noverbal muloqot harakatlarini tushunish va shaxslararo munosabatda ishtirokchilarga ta'sir ko'rsatish qobiliyatlari o'sib borishini aniqlagan.

Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning hozirgi bosqichida eng muhim vazifa samarali ijtimoiy ko'nikmalarni (kompetentsiyalarni) maqsadli shakllantirish, boshqalar – kattalar va tengdoshlar bilan to'liq va samarali muloqot qilish uchun shart-sharoitlarni ta'minlashdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limi da kompetentlik yondashuvi bolaning o'suvchi shaxsini hayotga, shu jumladan, maktabga o'qishga tayyorlashni, unda ma'naviy qadriyatlar va me'yorlarni o'zlashtirish, boshqa kishilar bilan muloqot qilish, o'z menini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'ladigan faoliyat usullarini ko'zda tutadi.

Maktabga ta'lim tashkilotlari guruhlarida bolalarning ijtimoiylashgani quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi:

- muloqotda o'z fikri, hissiyotlari va tasavvurlarini namoyon etadi; guruhda va oilada tashkil etiladigan ishlarda qatnashadi;
- iltimos yoki xabarni suhbatdoshga yetkazishni biladi;
- musta'qil kattalardan nisbiy musta'qilligini namoyon etadi;
- yordam ko'rsata oladi;
- tanish insonlar bilan suhbatga oson kirishadi;
- ijtimoiy axloq qoidalari va me'yorlariga bo'ysinadi;
- boshqa bolalar bilan barqaror do'stona aloqalar o'rnatadi;
- kattalar va tengdoshlari bilan oson muloqot qiladi;
- boshqalarning hatti-harakati borasidagi o'z taassurotlarini namoyon etadi;
- boshqalarning muvaffaqiyatidan shodlanish qobiliyatini ko'rsatadi; mojarolarni hal qilish uchun bir qancha usullardan foydalanadi (yupatadi, o'z o'yinchog'ini beradi, samimiy so'zlar aytadi); o'yinlar o'ylab topadi, syujetli-

rolli o'yinlarda ishtirok etadi, turli ertaklarni sahnalashtirishda qatnashadi. Tarbiyalanuvchilarda ijtimoiylashuvini shakllantirish metodlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Turli mavzulardagi suhbatlar uyushtirish;

Tabiat va turli ob'yektlarga sayr (ekskursiya)lar tashkil qilish;

O'zaro hamkorlikka asoslanuvchi o'yinlar, musobaqalar o'tkazish;

Qahramonlar qiyofalarini gavdalantirish (rolli o'yinlar)

Birgalikda mehnat qilish;

Guruhlarda kichik loyihalar yaratish;

Muloqotga asoslangan tashkiliy chiqishlar;

Badiiy adabiyot namunalarini aytishga yo'naltirish;

Yangi uchrashuvlarni tashkil etib turish. Ushbu metodikalar orqali bolalarni ijtimoiy hayotga moslashuvini ta'minlab borish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkin: Muhimi, bolada o'zi va o'zgalar bilan muloqotda haqqoniylikni, samimiylikni va tanqidga to'g'ri munosabatni shakllantirish zarur. Agarda tarbiyachi bolalarda o'zaro to'g'ri munosabat qilishni o'rgata olsa, bunday bolalar kelajakda ijtimoiy hayotda insonlar bilan ochiq va do'stona munosabatni o'rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baxriyeva N.A., "SHAXS PSIXOLOGIYASI" o'quv-uslubiy majmua Buxoro – 2021

2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot /O'quv qo'll. – T.: Universitet, 1999.

3. Ганжиев Ф.Ф. Мактабгача таълим ташкилоти тарбиячиларида ижтимоийпсихологик компетентлик омилларининг намоён этилиши ва ривожланиши: Психол согия ... фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Бухоро, 2021.

AMALIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA UZVIYLIKNI TA'MINLASHNING MUAMMOLI YONDASHUVLARI

*Qarshi davlat universiteti,
Tasviriy san'at va muhandislik
grafikasi kafedراسi mudiri,
professor Iftixor Baxtiyorovich Kamolov*

Zamonaviy ta'limning rivojlanish jarayoni sifatli ta'lim berish tuzilishlarini optimallashtirish bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Hozirgi davrda ta'limni modernizatsiya(zamonaviylashuvi) qilish shaxsning va jamiyatning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishning hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlariga mos ravishda tarkibiy va moddiy yangilanishga qaratilgan. Bugungi kunda ta'lim jarayonining asosiy rejali maqsadi O'zbekiston Respublikasining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishi uchun asos yaratishdir. "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida" oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning

maqsadli parametrlarini Investitsiya dasturlari, hududiy va tarmoq dasturlari, vasiylik kengashlari talablari, jahon miqyosidagi texnologik o'zgarishlarni inobatga olgan holda shakllantirish, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini optimallashtirish, bunda STEAM yo'nalishlarini (aniq fanlar, texnologiya, injiniring, ijodiy san'at va matematika) rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish, jumladan talaba-yoshlarni madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish, ularning kompyuter va internet texnologiyalaridan foydalanish savodxonligini oshirish, kitobxonlikni keng targ'ib qilish, talaba-qizlarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha aniq rejalar belgilab olingan. Belgilab olingan ushbu rejalar talabalarning san'at orqali ma'naviy boyitish asosiy vazifalarini hal qilishga qaratilgan.(1)

Professor S.S.Bulatovning "O'zbek xalq amaliy bezak san'ati" nomli qo'llanmasida ijodiy loyihalarni yaratishni asosiy usuli sifatida va amaliy san'at asarlarini idrok yetish va yaratish jarayoni natijasida ijodiy faoliyat toifasiga asoslanib, talabalarni o'qitish va tarbiyalashga yaxlit yondashuv konsepsiyasini ishlab chiqdi. Ushbu konsepsiya, amaliy san'at kompozitsiyasi yaratishda tasviriy san'at ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan ijodiy yondashuvga asoslangan. Yuqorida taklif etilayotgan konsepsiya talabalarda tabiatni yaxlit holda idrok etishni samarali shakllantirish, mustaqil ijodiy jarayonni faollashtirish, amaliy san'at orqali muloqot qilishni rivojlantirish, shaxsning ma'naviy rivojlanish tamoyillarini shakllantirish imkonini beradigan amaliy san'at ta'limining zamonaviy o'quv dasturlarini ishlab chiqishga asos bo'la oladi. (4).

Shu bilan birga, tadqiqotchilar amaliy san'atni o'qitish va talabalarni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga majmuaviy yondashuvni taklif qiladi, hamda, zamonaviy badiiy va ma'naviy muhitni yaratish uchun shart-sharoitlarni yaratadi.

Barcha tahlil qilingan tadqiqot ishlar mualliflari Amaliy san'at fanlarni o'qitish jarayonining o'zi mazmun jihatidan ham, uni amaliy amalga oshirishni tashkil yetish uchun ham, pedagogik sharoitlarni yaratish nuqtai nazaridan ham yangilanishi kerak degan fikrni olg'a surishadi. Ushbu yangilanish asosan pedagogika oily ta'lim muassasalarining San'atshunoslik fakultetlarida tasviriy va amaliy san'at o'qituvchilarini tayyorlashni modernizatsiya qilish, tasviriy va amaliy san'atni o'qitishning belgilangan va yangi mazmuni, shakllari va usullarini aniqlash va yetkaza olishni ta'minlanishi mumkin. Shu bilan birga, V. N. Bannikov ta'kidlaganidek, ular ko'pincha Amaliy san'atni rivojlantirish maqsadlariga to'liq javob bermaydilar (3)

Tasviriy va amaliy san'at o'qituvchilari tayyorlashni tahlili, I. M. Vlasova, I. A. Lvova , D. A. Hvorostov va boshqa olimlar bu bizning vaqt jamiyat madaniyati texnologik va badiiy komponentlarini tobora chuqurlashtirish, talqin qilinayotgan obyektning ichki mazmunini uning tashqi ko'rinish (belgilar, belgilar, imo-ishoralar, tovushlar va boshqalarni) o'rganish orqali

tushunishga qaratilgan ilmiy bilish usullariga mos kelish zarurligini ko'rsatadi. Buning uchun esa ta'lim muassasalari bitiruvchilari o'rtasida loyihalash faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish, ularning loyihalash faoliyatini faollashtirishni shakllantirish talab etiladi. Ko'rib o'tilgan tadqiqot ishlarining mualliflari fikricha, bu nafaqat bo'lajak tasviriy va amaliy san'at o'qituvchilari orasida badiiy loyihalash faoliyatini faollashtirish bo'yicha zarur bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlaydi, balki ularning mustaqil ravishda yangi bilimlarni izlash va ularni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalarida Tasviriy va amaliy san'atni o'qitishda ta'lim jarayonlarini modernizatsiya qilishning asosiy vazifalaridan biri bu mustaqil ta'limdir. Bo'lajak o'qituvchilar birinchi navbatda ularni loyihalash va tadqiqot faoliyatiga kiritish orqali o'zlarining fikrlash, ijodiy tashabbuskorligi, iste'dodi va ijodkorligini rivojlantirishlari mumkin bo'ladi. Va buning uchun bo'lajak tasviriy va amaliy san'at o'qituvchilarini tayyorlash tarkibida loyihalash va tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan umumkasbiy fanlarni ulushini oshirish lozim va shu bilan birga ularni mutaxassislik fanlari bo'yicha tayyorlash jarayoniga alohida e'tibor qaratish zarur. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartida belgilangan kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish sharoitida talabalarning mustaqil va o'quv va ijodiy ishlar hajmining o'sish dinamikasini, ularning loyihalash va tadqiqot faoliyatini tahlil qilish, bir xil xulosalarni chiqarishga olib keladi (2).

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Tasviriy va amaliy san'at mutaxassisliklari talabalari, tasviriy va amaliy san'at o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida loyihalash va tadqiqot faoliyati ular o'rganishni talab qiladigan bir qator xususiyatlar bilan belgilanadi. Ushbu xususiyatlarni tahlil qilish pedagogika fanida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil yetishning an'anaviy ravishda ajralib turadigan yo'nalishlari: ularning loyihalash va o'quv tadqiqot faoliyati bo'yicha natijalarining o'zaro bog'liqligini o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak adabiyotlarni nazariy tahlili, amaliy san'atni tarixiy tajribasi shakllanishi va rivojlanishini o'rganish hamda mazkur ta'limdagi o'ziga xoslik, pedagogik ahamiyatining amaliy san'at ta'limidagi o'rni ochib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kamolov I. B. Creative development of students in studying composition at the professional education of future jewelers //Eastern European Scientific Journal.-2016.- №. 2.

2.Камолов И. Б. Профессиональное образование учащихся ювелирного искусства: теоретические основы //Наука и мир.- 2016.- №. 2-3.- С. 68-69.

3.Kamolov I. B. Major components and topics of disciplines according to the composition of jewelry as a pedagogical objective of the creative development of college art students //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2016. – T. 4. – №. 2.

4. Камолов И. Б. Организация занятий по изобразительному искусству на основе современных педагогических технологий для повышения эффективности //Pedagogy & Psychology. Theory and practice.-2015.- С. 50.

ИННОВАЦИЯ В ПЕДАГОГИКЕ.

*Имамкулов Расул Рахмонович, кандидат педагогических наук и.о. доцент кафедры Педагогике и социальной работы
Ахмедова Дилрабо Абдуллаевна, преподаватель кафедры Начальное образование, факультета Социальные науки, Термезского государственного университета*

Аннотация: В статье рассматривается инновационный процесс представляет собой совокупность процедур и средств, с помощью которых педагогическое открытие или идея превращаются в социальное, в том числе, образовательное нововведение, а также изучение типологии педагогических нововведений в изучение специфику и закономерности развития инновации, анализ факторов способствующие инновации. Принят ряд постановлений и законов в Узбекистане Закон Республики "Об образовании", " о науке и научной деятельности", и в том числе, об утверждении стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022-2023 годы. Изучая различные книги, исследований ряда учёных по проблемам технологии и вопросы типологии особенности инновации на уроках, факторы препятствующие нововведения, отношение педагогов к нововведениям апробировали в научно исследовательском, в учебно - воспитательном процессе в социуме.

Ключевые слова: Закон Республики Узбекистан "Об образовании", наука, педагогическая деятельность, инновация в педагогике, стратегия, нововведения, типология, развития, факторы, урок, отношение педагогов к нововведениям, рефлексия, теория, ситуация, творчество, уровень.

Актуальность исследования.

В стремительно меняющимся мире, постоянно возникают новые потребности. Изменения в разных областях жизни, сказывается на всех сферах человеческой деятельности.

На торжественном собрании ко дню учителя Президент выступил с речью о проблемах в общеобразовательных школах, о вопросах углубления реформы в системе образования и воспитания подрастающего поколения. Развитие школьного образования должно стать общенациональной целью всенародным движением

- Ведь вопрос развития школьного образования имеет жизненно важное значение -это вопрос светлого будущего нашей страны. Мы почти и не задумывались о воспитании учителей новой формации

развития педагогики, инновационных образовательных технологий, креативного подхода.

-Ведь, не изменив систему обучения в школе, нельзя изменить человека, общество [1. 2]

В законе Республики Узбекистан "О законе и научной деятельности" принято 46 статей.

В первой статье указаны цели настоящего закона.

Целью настоящего закона является Регулирование отношений в сфере науки и научной деятельности.

В статье 21. Рассматривается тесная интеграция науки и образования обеспечивается путём:

- повышения качества и эффективности образовательного процесса;
- развитие научного мышления учащихся;
- повышение научного потенциала педагогических кадров;
- укрепление школы и традиции развития науки и технологии.[2.22]

Цель исследования заключается в том, что под образованием понимается единый целенаправленный процесс воспитания и обучения, являющийся общественно значимым благом и осуществляемый в интересах человека, семьи, общества и государства, а также совокупность приобретаемых усваиваемых знаний, умений, навыков, ценностных установок, опыта деятельности и компетенции определённых объёмов и сложности в целях интеллектуального, духовно нравственного, творческого, физического (или) профессионального развития человека, удовлетворения его образовательных потребностей и интересов.

Задачи исследования проанализировать состояние источников по проблемам инновации в педагогике

- Одним из возможных путей развития образования являются инновации

- Педагогические новшества, *направленные на содержание образования, организацию и управление учебным процессом, повышение его качества, совершенствование инновационной технологии обучения, воспитание профессиональной компетентности и оценки.

Само понятие "инновация" носит междисциплинарный характер и в последнее время популярно в различных исследованиях.

Термин широко используется в разных областях науки, знаний и практической деятельности.

Происхождение этого термина трактуется двояко. В ряде словарей утверждается, что в основе лежат латинские слова: *innovatron* (обновление) и *innovare* (обновлять).

Другая часть словарей указывает на происхождение термина от английского слова *innovation*, в переводе означает- *нововведение*. Понятие "инновация" вошло в научный оборот и в начале XX века благодаря экономистам И. Шумпетеру и Г. Меншу, которые понимали его как научное открытие, воплощение в новом продукте или технологии.

Постепенно и сам термин, и сопряжённые с ними понятия стали использоваться в различных науках, тем самым приобретая статус общенаучных категорий. Среди них "инновационные теории", "инновационный процесс", "инновационный потенциал", "инновационные технологии обучения и воспитания " и другие.

В российской образовательной системе инновации и связанный с ними понятийный аппарат педагогики И.Р. Юсуфбековой. В её работах педагогическая инноватика рассматривалась как особая самостоятельная отрасль педагогической науки, имеющая собственный оригинальный объект, предмет и методы исследования, в контексте образовательной деятельности предполагающая введение нового в цели, содержание, методы и формы обучения и воспитания, организацию педагогического процесса.

По своему смыслу инновация и нововведение - это тождественные понятия. Они рассматривают нововведение (инновацию) как внедрённое (освоенное) новшество. "Если новшество - это потенциально возможное изменение, то нововведение (инновация) - это реализованное изменение, ставшее из возможного действительным"[4.77]

В изученных информационных источниках наблюдаются некоторые различия в определениях инновации.

Инновация, новшество, нововведение - трактовки этих понятий в образовательном процессе разными авторами различны и не все они могут удовлетворять научным критериям.

Рассмотрим некоторые из них." Инновации -это изменения внутри системы"[5.15]

Другое определение позволяет охарактеризовать инновации с иной стороны." Инновации -это и идеи, и процессы, и средства, и результаты, взятые в единстве качественного совершенствования педагогической системе " [5.230 -231].

"Инновация - новинка, новшество, изменение. Инновация обозначает ввод чего то нового, введение новизны " [6.15].

"Инновации - процесс изменения, связанный с созданием, признанием или внедрением новых элементов (или моделей) материальной и нематериальной культур в определенной социальной системе "[8.19].

Таким образом, преобладает мнение, что инновации означают изменения- количественные, качественные и другие.

Выделяют один из основных критериев результата. Инновационности. Это позволяет отдельным авторам вместо изменений под инновациями в образовании подразумевать новинки, то есть, то, что в действительности является чем-то новым. Но в любом случае инновации направлены на развитие, совершенствование, улучшение и повышение эффективности. Теоретическая значимость исследования источников состоит в научном обосновании, анализ педагогических инноваций, инновации в педагогике, содержание условия технологии результат образовательной деятельности.

Инновационный процесс представляет собой совокупность процедур и средств, с помощью которых педагогическое открытие или идея превращаются в социальное, в том числе, образовательное нововведение. Обоснование типологии педагогических нововведений позволяет изучать специфику и закономерности развития нововведений, выявлять и анализировать факторы, способствующие и препятствующий нововведениям.

В нашей систематике педагогические нововведения подразделяются на следующие типы и подтипы:

- По отношению к структурным элементам образовательных систем: нововведения в целеполагание, в задачах, в содержании образования и воспитания, в формах, в методах, в приёмах, в технологиях обучения и образования, в системе диагностики в контроле, в оценке результатов и т.д.

- По отношению к личностному становлению субъектов образования: в области развития определенных способностей учеников и педагогов, в сфере развития их знаний, умений, навыков, способов деятельности, компетентностей и др.

- По области педагогического применения: в учебном процессе, в учебном курсе, в образовательной области, на уровне системы обучения, на уровне системы образования, в управлении образованием.

- По типам взаимодействия участников педагогического процесса: в коллективном обучении, в групповом обучении, в тьюторстве, в репетиторстве, в семейном обучении и т.д.

- По функциональным возможностям:

Нововведения - условия (обеспечивают обновление образовательной среды, социокультурных условий и т.п.)

Нововведения - продукты (педагогические средства, проекты, технологии и т.п.)

Выделяются следующие типы и подтипы:

- по способам осуществления:

- по масштабности распространения:

- по социально - педагогической значимости:

- по объему новаторских мероприятий:

- по степени предполагаемых преобразований:

В приложенной типологии одна и та же инновация может одновременно обладать несколькими характеристиками и занимать своё место в различных блоках.

Практическая значимость определяется разработанной учёными типологии, их классификации и апробация студентами.

Понимание сущности и значение педагогических инноваций, инновация в педагогике отражается в первую очередь в их типологии. Единого подхода к их классификации не существует. Различными авторами предлагаются разные подходы к систематике педагогических инноваций.

Особенности инноваций на уроке: Урок традиционная образовательного процесса. Поскольку урок отражает всю систему обучения, включающую её философские, педагогические и дидактические основания, то принципы инноватики подходят к проектированию и реализации педагогических новшеств по отношению к уроку так же, как и к систематике образования в целом. В тоже время, урок имеет особенности, которые определяют характер инновации.

Инновационным изменениям подлежат:

- само понятие "урок", его изменение по отношению к современной ситуации: типология урока, методологические элементы урока; методические структурные элементы урока, и т.п.

Факторы, препятствующие нововведениям:

Основная проблема управления преобразованиями заключается в возникновении феномена сопротивления изменениям.

В качестве аргументов против введения новшеств часто приводят суждения, построенные как набор вариаций на тему "Да", но...."(А. И. Пригошин); и т.п.

Отношение педагогов к нововведениям:

Природа людей по отношению к нововведениям различна, одни склонны к их принятию, другие - более консервативны. Иногда в одном человеке одновременно уживаются различные проявления в отношении новаций из разных областей его деятельности.

В психологии субъектов инноваций, составленная Э. Роджерсом учёный выделяет шесть групп. Если учитель привыкает жить в полном согласии с внешне заданными нормами и правилами, его инновационные способности гаснут.

Стандартизация нововведения и внутреннего мира педагога сопровождается тем, что в его деятельности всё большее место занимают инструктивные предписания. В сознании накапливается всё больше готовых образцов педагогической деятельности. Это приводит к тому, что учитель может легче вписываться в педагогическое сообщество, но при этом снижается его творческий уровень.

В источниках представлены и другие подходы к квалификации инноваций в образовании, инновация в педагогике. В зависимости от

поставленных задач используются различные типологии педагогических нововведений, каждая из которых задаёт определённое основание для классификации инноваций.

"Однако нововведения могут и ухудшить систему" [15].

В источниках представлены и другие подходы к классификации инноваций в образовании. В зависимости от поставленных задач используются различные типологии педагогических нововведений, каждая из которых задаёт определённое основание для классификации инноваций. «Однако нововведения могут и ухудшить систему» [15].

Поэтому главный ориентир должен стать результат, выраженные в уровне качества образования.

В Узбекистане принята концепция по инновации под лозунгом.

«Инновации и научный прогресс - фундамент устойчивого развития национальной экономики и строительство третьего Ренессанса»

- В новом Узбекистане уделяется пристальное внимание стимулированию научно - исследовательских и инновационных достижений в практику, организации при высших образовательных учреждениях и научно-исследовательских институтах, научно-экспериментальных специализированных лабораторий, центров высоких технологий, технопарков. [16.2]

Янги Узбекистон Правда Востока. 9 март. 2023г.[12.2]

В концепции по инновации дано определение.

- Инновация - это результат инвестирования интеллектуального решения в разработку и получение нового знания, ранее не применявшейся идея по обновлению сфер жизни людей (технологии; изделия; организационных форм существования социума, такие как образование, управление, организация труда, обслуживание, наука.

Инновационная деятельность учителя.

- Инновационная деятельность педагога представляет собой комплексный интегративный вид педагогической деятельности, направленный на обеспечение инновационного развития и повышение качества профессионального образования за счёт разработки и применения разнообразных новшеств в процессе профессиональной подготовки будущих учителей начальных классов.

- Инновационная деятельность- это особая деятельность по согласованию возникающих в результате инновационной дезорганизаций в процессах обучения и воспитания что относится к инновационной деятельности учителя относятся прогрессивные (бездефектное) изменения педагогического процесса и его компонентов; - изменение в целях;

- изменения в содержании образования; новые средства обучения; новые идеи воспитания, новые способы и приёмы обучения, развития, воспитания и т. д.

Таким образом, несмотря на большое количество определений к

понятиям «инновации» и «инновации в образовании» можно выделить общие характеризующие черты. Инновации всегда связаны с элементами новизны, внедрением нововведений, обновлением и направлены на получение результата. Множественность в типологии инноваций в зависимости от признака, по которому они классифицируются (в том числе и в образовании) свидетельствует о широком понимании этого междисциплинарного термина.

Литературы

1. Закон Республики Узбекистан «Об образовании» Т.: 2020.09.23
2. Принят закон Республики Узбекистан «О науке и научной деятельности», и в том числе об утверждении стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы.
3. Словарь иностранных слов. – М., 1989. – С.174
4. Педагогический терминологический словарь [Электронный ресурс] URL: <http://pedagogical dictionary.academic.ru/1263> (дата обращения 02.02.2013)
5. Лазарев В. С., Мартиросян Б. П. Педагогическая инноватика: объект, предмет и основные понятия // Педагогика. 2004. № 4. С. 77.
6. Хуторской А. В. Педагогическая инноватика: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. - М., 2008. - С. 230-231.
7. Юсуфбекова Н. Р. Общие основы педагогической инноватики: опыт разработки теории инновационных процессов в образовании.-М., 1992.- С. 15.
8. Педагогический терминологический словарь [Электронный ресурс] - URL: <http://pedagogical dictionary.academic.ru/1263> (дата обращения 02.02.2013)
9. Социологический словарь [Электронный ресурс] - URL: <http://vslovar.ru/slovo/sotziologicheskii-slovar/innovatzija-novovvedenie/> (дата обращения 02.02.2013)
10. Имакаев В. Р. Педагогическое знание //Философские науки-2005.№3-С.32.
11. Хуторской А. В. Типологии педагогических нововведений. // Школьные технологии. - 2005. - № 5. - С. 10-17
12. Полонский В. М. Инновации в образовании (методологический анализ) // Инновации в образовании. - 2007. № 3. - С. 36.
13. Новый Узбекистан «Правда Востока» 9 март 2023 г 2 стр.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA MATEMATIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING KREATIVLIK USULI

Ismoilov Bobur Toxirovich

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik kompetentligini rivojlantirish usullari aniqlashtirilgan bo'lib, xususan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlik qobiliyatini rivojlantirish usuliga asosiy urg'u berilgan.

Аннотация. В статье определены методы развития математической компетентности будущих учителей начальных классов, в частности основной акцент сделан на методе развития творческих способностей будущих учителей начальных классов.

Annotation. In the article, the methods of developing the mathematical competence of future primary school teachers are defined, and in particular, the main emphasis is placed on the method of developing the creativity of future primary school teachers.

Kalit so'zlar: Kreativlik, tenglash o'yini, nostandart masala, matematik kompetentlik, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Ключевые слова: Креативность, игра на соответствие, нестандартная задача, математическая компетентность, будущий учитель начальных классов.

Key words: Creativity, matching game, non-standard problem, mathematical competence, future elementary school teacher.


Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari yuzasidan turli davrlarda B.Abdullayeva, R.Adizov, M.Djumayev, E.Yangiboyeva, N.Bikbayeva, M.Axmedov, Z.Dadanov, K.Olimov, R.Mavlonova, F.Kasimov kabi olimlarimiz tadqiqot ishlarini olib borishgan [2; 5 b].

Bizning fikrimizcha matematik kompetentlik sifatida matematikani bilish ko'lami, bilish darajasi, tushunish salohiyati, tasavvur eta olish qobiliyati, kulmanatsion nuqtasini anglashi, nazariyani amaliyotda qo'llay bilishi, zaruriyat ekanligini ko'rsata olishi, o'zini fanning bir qismi sifatida his qilishi, pedagoglik baxtini ro'yobga chiqara olishi, ijodkorlik kabilar tushuniladi.

Tadqiqot yuzasidan olib borilgan izlanishlarimizga tayanib ayta olamizki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida matematik kompetentlikni rivojlantirishning quyidagi usullari aniqlashtirildi: kreativlik qobiliyatini rivojlantirish; konstruktiv ko'nikmalarni shakllantirish; matematika fanini boshqa fanlar bilan uzviylikda o'rganish.

Quyida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik qobilayatini rivojlantirish usulini bayon etamiz.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlik qobiliyatini rivojlantirish usuli.



1-rasm. “Tenglash o‘yini” konstruksiyasi.

Tenglash o‘yini. 1-rasmda tasvirlangan o‘yinchoqda 14 ta ustun mavjud bo‘lib, juft raqamli ustunlar shar bilan to‘ldirilgan, toq raqamli ustunlar esa bo‘sh qoldirilgan.

Masala. Juft ustundagi sharlarni ikkita toq raqamli ustunlar yordamida teng taqsimlang. Olingan toq raqamli ustunlarga sig‘uvchi sharlar miqdori juft ustundagi sharlar miqdoriga teng bo‘lsin.

Shart. Shar olinayotgan ustunda shar qolmaguncha, yoki, shar qo‘yilayotgan ustun sharga to‘lmaguncha yurish davom etsa, nechta yurishda yechimga erishish mumkin?

Bizga ma‘lumki, mazkur masala “juft hajmli idishdagi suyuqlikni toq hajmli idishlar vositasida tenglash” masalisiga teng kuchli. Demak suyuqliklarga oid bo‘lgan nostandart masalalarni yechish metodikasi orqali ushbu masalaning yechimini izlaymiz.

Sharlar kattaligi hisobga olinishi kerak, ustunlar uzunliklari 1 dona shar kattaligiga nisbatan olinadi.


Hayvonlar maketi magnitli bo‘lishi o‘qituvchining doskada ishlashiga qulaylik tug‘diradi. Hayvonlarni tanlab olishda parallelepipedlarning kichrayib borishga asoslansangiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda eng kichik hayvon qolganlariga nisbatan kuchsiz bo‘lishi va ushbu holat qolgan hayvonlar uchun ham o‘rinli bo‘lishi lozim. Masalan, tanlov sifatida quyon, tulki, bo‘ri va sher olinishi mumkin. Ushbu jarayonda quyon barcha hayvondan, tulki bo‘ri va sherdan, bo‘ri esa sherdan kuchsiz.








Doskada eng yuqoridan quyonni, keyin tulkini, so‘ng bo‘rini oxirida sherni joylashtirasiz, bu yerda tag qismdagi hayvon uning tepasidagining panjasida deb tushunish mumkin.

Masala. Doskada daryoni, daryo qirg‘oqlari va daryodagi orolchani chizib olasiz. Masala shundan iboratki ustma-ust joylashtirilgan hayvonlarni (quyon, tulki, bo‘ri va sher) daryoning nargi qirg‘og‘iga huddi shu tartibda o‘tkazish kerak [3. 105].

Shart. Faqat bittadan hayvon sakrashi mumkin, hayvonlar xohlashsa nargi qirg'oqqa, maqul ko'rishsa orolga, agar istashsa qaytib bu qirg'oqqa sakrab o'tishlari mumkin. Asosiy shart kuchsiz hayvonning ustiga kuchlisi sakrab o'tolmaydi.

Yechish. Mazkur masalani "Xanoy minorasi" usulidan (hayvonlar maketlari yordamchi elelmint vazifasini o'taydi) foydalanib yechamiz.



	
8-yurish	9-yurish
	
10-yurish	11-yurish
	
12-yurish	13-yurish
	
14-yurish	15-yurish=javob

2022

Tadqiqotda bayon etilgan “*Tenglash o‘yini*” konstruksiyasi suyuqliklarga oid nostandart masalalarni yechish metodikasiga tayangan holda yaratilgan bo‘lib, mazkur yondashuv zahirida bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kreativlik qobilayati gavdalanadi. Shuningdek, tangalarni ko‘chirish masalasining sher, bo‘ri, tulki va quyon ishtirokidagi masalaga ko‘chirilishi ham ijodkorlikning yorqin namunasidir. Bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari har qanday nostandart masala yechimini o‘quvchilari yoshiga mos tarzda talqin eta olishi, ularda matematik kompetentlik rivojlanganligini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Perelman, Yakov. Qiziqarli matematika. Matematika doir hikoyalar va

jumboqlar. – T.“Sharq”, 2018. – 176 b.

2. Toshpo‘latova M.I. “Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillshtirish”: Ped.fan.dok. ...diss. – Toshkent: 2017.

3. Ismoilov B.T. Nostandart masalalarni yechish metodikasi / o‘quv qo‘llanma. – Termiz. “TerDU NMM”, 2023. – 160 b.

MATEMATIKA O‘QITISHDA INTERFAOL PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Ismoilova Mashhura Eshmamat qizi

TerDPI 3-bosqich talabasi

Norqobilova Rayxona Davlatovna

TerDPI o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarga matematikani o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarali usullari va matematikani o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanishning afzalliklari va ulardan samarali foydalanish yo‘llari haqida ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Matematikani o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish, multimediali vositalarning afzalligi, metod, usul, dars, Texsthelp, "Aqliy hujum" metodi, "6x6x6" metodi, "Klaster" metodi, "Charxpalak" metodi."Rost yolg‘on" mulohazasi

Hozirgi kunda darslarni tashkil etishda ko‘proq axborot texnologiyalari asri bo‘lganligi uchun axborot texnologiyalaridan foydalanib dars o‘tish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Hozir zamon shiddat bilan rivojlanyapti. O‘quvchilar dunyoqarashi ham kengayayapti. Shuning uchun darslarning ko‘pi integratsiyalashib ketyapti. Bunda ya‘ni integratsiyalashgan darslarda bolalarga qisqa vaqt ichida ko‘proq ma‘lumot berish nazarda tutilgan. Ya‘ni fanlarni bir-biriga bog‘lab dars o‘tiladi. Zamonaviy ta‘limni tashkil etishda qo‘yiladigan muhim tadbirlardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma‘lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda ma‘lum faoliya yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta‘lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Ta‘limni isloh qilinishi jarayonining ajralmas, muhim qismi hisoblangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar ta‘lim jarayoniga

o'zlari bilmagan holda qiziqishi bilan kirishib ketadilar. Tajriba shuni ko'rsatadiki, zamonaviy interfaol strategiyalar bo'lga bilimlarni samarali o'zlashtiradi. Chunki bugun sinflarni to'ldirib o'tirgan o'quvchilar sho'x beg'ubor bolalik gashtini surayotgan, ba'zan xayolparast bolalardir. Ular orasida hatto 45 daqiqalik dars jarayonining nihoyasini intiqlik bilan kutib, ta'limga yuzaki qaraydigan o'quvchilar ham yo'q emas.

Matematikani o'qitishda texnologiyadan foydalanishning kengaytirilganligi o'quv jarayonini yanada moslashtirishga imkon beradi. Ikkala o'quvchi bir-biriga o'xshash emasligi sababli, texnologiya individual talabalarga, ayniqsa, ularning shaxsiy ehtiyojlari uchun foydali bo'lgan tarkib va yordamlarni taqdim etishi mumkin. Bolalar darslarni, o'quv qo'llanmalarini, ekran yozuvlarini va boshqa o'quv vositalarini o'z qurilmalarida va o'zlarining tezligida ko'rishlari mumkin. Shunday qilib, agar bitta talaba hanuzgacha mavzuda adashib qolgan bo'lsa, boshqasi qo'shimcha muammolarga tayyor bo'lsa, texnologiya har biriga tegishli keyingi qadamni qo'yishga imkon beradi.

Texnologiyalar o'quvchilarga qanday imkoniyatlar yaratib berishining ajoyib namunasi - Xan akademiyasining fenomeni . Matematik darslarining yozuvlarini YouTube-da joylashtira boshlaganida Sal Xon notijorat ta'lim tashkiloti tuzishni niyat qilmagan. U uzoqdan qarindoshlariga repetitorlik qilishga yordam berishga harakat qilar edi va videolarni Maxfiy rejimga o'rnatish uchun hech qanday sabab ko'rmadi. Uning amakivachchalaridan, so'ngra uning videolarini topgan butun dunyodagi boshqa odamlardan olingan mulohazalardan u ushbu vositaning qanchalik qadrligini va darslarni tanlash, orqaga qaytarish va boshqarish imkoniyatining muhimligini tushundi.

Texnologiya o'quvchilarga matematik tushunchalarni ko'rish va ular bilan o'zaro aloqada bo'lish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Talabalar o'yinlar, simulyatsiyalar va raqamli vositalar yordamida o'rganishlari va kashfiyotlar qilishlari mumkin.

O'qituvchilar va talabalar uchun eng yaxshi platformalardan biri bu veb-grafikali kalkulyator Demos. Demos sinf faoliyati sahifasida bilan o'ynab va matematik g'oyalarini test va, shuningdek, almashish va hamkorlik talabalarni jalb qilish uchun katta boshlanish nuqtasi hisoblanadi.

Texthelp-ning STEM taklifiga yangi qo'shimchalar - EquatIO mathpace, o'quvchilar va o'qituvchilar matematik tenglamalar va formulalarni Desmos grafiklari, geometrik shakllar, manipulyativalar va qo'lda chizilgan rasmlar bilan birlashtiradigan raqamli doskani yaratadi.

Matematik ta'limga texnologiyani integratsiyalashuvi uchta muhim omil bilan bog'liqligi aniqlandi; texnologiya, o'quv faoliyati va vazifalarini loyihalash; o'qituvchining roli; va ta'lim mazmuni. O'qituvchi o'rganishni tashkil qilishi kerak, masalan, texnologiyaga boy faoliyat natijalarini sintez qilish, asbobdan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqishda yordam berish va texnologik muhitdagi tajribalarni qog'oz va qalam bilan ishlash yoki boshqa matematik mashg'ulotlar bilan bog'lash. Matematika o'qituvchilari matematik amaliyotni raqamli texnologiyalardan foydalangan holda

o'zgartirishi uchun hammualliflar va tadqiqotchilar sifatida konstruktiv jarayonning bir qismi bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi; Shunga qaramay, loyihalashtirish jarayoni juda qiyin, bu yerda: vositalarning matematik ifoda va muloqotga dialektik ta'sirini hisobga olish kerak va loyihalash va tahlil qilishning turli markazlari mavjud. O'quvchilar texnologiyani mustaqil ravishda ijobiy ta'lim yutuqlariga olib keladigan usullardan foydalanishlari ehtimoldan yiroq emas. O'qituvchilar va o'quvchilarning o'zaro ta'sirida samarali amaliyot ishlab chiqilishi va rivojlanish o'qituvchi tomonidan boshqarilishi kerak. Bunga erishish uchun o'qituvchilarning texnologik va pedagogik mazmun bilimlarini rivojlantirishni o'z ichiga olgan malaka oshirish jarayoni zarur. Va nihoyat, raqamli texnologiyalardan foydalanish izchil ta'lim kontekstiga kiritilishi kerak.

Hozirgi kunda matematika darslarida foydalaniladigan inrefoal metodlardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

"Aqliy hujum" metodi. Mazkur metod o'quvchilarning darslar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi.

"6x6x6" metodi. yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarining har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarining har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangidan shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

"Klaster" metodi. Klaster (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bimalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. "Klaster" metodi aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

"Charxpalak" metodi. "Charxpalak" texnologiyasidan o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida, dars boshi va oxirida, biror bo'lim tugatilganidan keyin, o'tilgan mavzularni o'zlashtirganlik darajasini

baholashda, takrorlash, mustahkamlash, oraliq va yakuniy nazoratlarni o'tkazishda foydalanish mumkin. Mashg'ulotlarni yakka va guruh shaklida tashkil etsa bo'ladi. Qolaversa, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamragan holda turli mazmun va xarakterga ega mavzularni o'rganishda ham asqotadi.

"Rost yolg'on" mulohazasini biz darsning o'tilgan mavzuni mustahkamlash va yangi mavzuni mustahkamlash qismida foydalanishimiz mumkin. Mulohazani yakka va guruhlarda olib borsa bo'ladi. Qolaversa og'zaki va yozma tarzda tashkillashtirsa ham bo'ladi. Qanday tashkillashtirish o'qituvchi mahoratiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Do'smurodova G.X.(2020). Matematikadan iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda uzviy tashkil etish omillari. Uzluksiz ta'lim,1,32-37.

2. Mahmudova D.M, Do'smurodova G.X. (2019). Traxtenberg metodikasiga asoslanib sonlarda kopaytirish amallari. Fizika, Matematika,5,103-110.

3. Do'smurodova G.X.(2019). Matematikadan iqtidorning shakllanishida tezkor hisoblash usullarining ahamiyati. Fizika, Matematika,5,21-25

4. Наримбетова, З. А., Сытина, Н. (2021). Учитель-нравственный пример для ученика. Academic research in educational sciences, 2(1), 1153-1159.

5. Рустамов, У. Р., Бегзатова, Ш. П., Маликов, К. Х. (2021). Нанозарраларни хосил килиш ва уларнинг магнит хоссалари. Scientific progress, 1(4).

6. Ochilov, F. I. (2020). "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish jarayonini modellashtirish. The Journal of Academic Research in Educational Sciences, 1(4), 2181-1385.

7. Izatulloevich, O. F (2020). "Atrofimizdagi olam" va "tabiatshunoslik" darslarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish jarayonini modellashtirish. Academic research in educational sciences, 7(4).

8. R.D.Norqobilova. Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini indikatorlar asosida diagnostika qilishning o'ziga xosligi. INTERNATIONAL CONFERENCES, 564-568. 2023

9. NR Davlatovna - Functions and Principles of Pedagogical Diagnostics. Web of Synergy: International Interdisciplinary413-416, 2023/1/31

10. Р Норқобилова -Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan iqtidorini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish. Общество и инновации. 36-41, 2023/1/25

11. P Nazarova, R Norqobilova - PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF EDUCATION OF YOUNG GENERATION AT ABU RAYHAN BERUNI TEACHING. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 1908-1911. 2022/6/30

12. S Xoliyeva, R Norqobilova - EASTERN SCIENTISTS 'VIEWS ON SPEECH. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 1433-1427. 2022/6/24

13. Sevara XOLIYEVA, Rayhona NORQOBILOVA, Muhlisa-MAMATMUROTOVA THE IMPORTANCE OF PEOPLE'S ORAL CREATIVITY IN THE DEVELOPMENT OF SPEECH BY PRIMARY SCHOOL STUDENTS. 2022/6/9. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 84-87. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/2379>

14. Sumbula IBROHIMOVA, & Rayhona NORQOBILOVA. (2022). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF USING THE HERITAGE OF ASIAN THINKERS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL SCIENCE CLASSES. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 81-83. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/2378>

15. Zoirova Sevinchbonu Khurshid Kizi, Norqobilova Rayhona Davlatovna, Tajimirzayeva Buzulaykho Mahammadjon Kizi. **high spiritual generation-third renaissance builders**. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. 167-169. 2022

SIYOSIY-HUQUQIY SAVODXONLIK – SIYOSIY-HUQUQIY MADANIYAT OMILI SIFATIDA

*Rasulov Hakim Mamanovich,
TerDPI falsafa va ma'naviyat asoslari kafedrasi mudiri,
siyosiy fanlar nomzodi, dotsent*

Siyosiy ma'rifatni oshirishning tayanch nuqtasi siyosiy savodxonlik va ta'lim hisoblanadi. Jamiyatda demokratik siyosiy ongning rivojlantirish orqali faol fuqarolik imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Umumiy savodxonlik jamiyat madaniy saviyasi ko'rsatkichlaridan biri sifatida, adabiy til normalariga muvofiq keladigan og'zaki va yozma nutk malakalariga egaligini, muayyan soha bo'yicha bilimga egalik darajasini ifodalaydi. «Savodxonlik» tushunchasining mazmun-mohiyati taraqqiyotining barcha davrlarida jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, ilmiy, madaniy hamda ruhiy saviyasiga bog'liq ravishda o'zgarib turadi. Tadqiqotchi F.F.Xatamov nuqtai nazariga ko'ra, «Savodxon» («savodxonlik») ushbu bilim darajasining shaxs ongida, qarashlarida, xatti-harakatlarida qay darajada namoyon bo'lishini anglatadigan tushunchadir²⁶. Shu ma'noda siyosiy-huquqiy savodxonlik Davlat va jamiyat hayotidagi hodisalarga oid siyosiy va huquqiy bilimlarga ega bo'lishlik hamda siyosiy-huquqiy voqelikka asoslangan axborotlarga munosabatlarning ifodasidir. Siyosiy-huquqiy savodxonlik jamiyat taraqqiyoti

²⁶ Хатамов Ф.Ф. Ҳуқуқий саводхонлик фалсафий тадқиқот объекти сифатида (ижтимоий бошқарув институтлари ходимлари мисолида)// Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати Самарқанд – 2019. 13-бет.

jarayonida shakllanadi. Siyosiy-huquqiy savodxonlik faqatgina siyosiy voqelikdan, ma'lum bir huquqiy normalardan, me'yoriy huquqiy hujjatlardan xabardorlikni anglatmasdan balki, siyosiy-huquqiy vaziyatga faol munosabatda bo'lishga undashi bilan ahamiyatlidir²⁷.

Mamlakatimizda fuqarolarning siyosiy-huquqiy bilimlarni oshirishga qaratilgan tizimli chora tadbirlar yo'lga qo'yilmaganligi jamiyat siyosiy-huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasizligiga olib keladi. Bu jarayon fuqarolarning mamlakatdagi siyosiy jarayonlariga munosabati va ishtirokining darajasi hamda jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash bilan bog'liq muammolarning mavjudligida namoyon bo'lmoqda. Fuqarolarning siyosiy-huquqiy bilimlari yetarli emasligi, «shuningdek, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalanmasligi, mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi holatlarining vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda»²⁸.

Darhaqiqat, huquqiy demokratik davlatning muhim talablaridan biri fuqarolarning ham siyosiy ham huquqiy jihatdan savodxonligi hisoblanadi. Siyosiy-huquqiy bilimlar fuqarolarining nafaqat huquqlari va erkinlarini ro'yobga chiqarish balki mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etish imkoniyatini ham yaratadi²⁹. Fuqarolarning siyosiy-huquqiy bilimlari ongi va madaniyati yuksak darajada bo'lsagina, ular jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlarga faol munosabatda bo'lish bilan birga uning to'laqonli ishtirokchisi, real vaziyatga shaxsiy fikrlarini bildirgan holda, jamiyat taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shishi mumkin bo'ladi. «Fuqarolarning siyosiy faoliyatiga asosan ta'lim ta'sir qiladi, chunki, fuqarolar bilim darajasining o'sishi bilan jamiyatda siyosiy faollik oshadi»³⁰. Boshqacha aytganda, siyosiy bilimlar fuqarolarda davlat va jamiyatga nisbatan daxldorlik tuyg'ularining shakllanishiga xizmat qiladi. Prezident Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, «odamlarning qonunga, qonun ustuvorligini ta'minlashga, davlatga, shu bilan birga, kelajagimizga bo'lgan munosabati, dunyoqarashi tubdan o'zgaradi»³¹.

O'zbekiston parlamentining har ikki palatasi huzurida yoshlarning faolligini, siyosiy va huquqiy savodxonligini oshirish, bu boradagi nazariy bilim hamda amaliy ko'nikmalarini boyitish, ularni qonunchilik va qonun ijodkorligi jarayonlariga jalb qilish, qabul qilinayotgan qonunlarni keng targ'ib qilish orqali parlament hayotiga daxlorligini oshirishdan iborat maqsadni ko'zlagan tuzilma «Yoshlar parlamenti» tashkil etildi. Ya'ni, jamiyatning eng yirik

²⁷ Расулов, Хақим Маманович. "Маънавий тарғиботда илғор хорижий тажрибалар" *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.10-2 (2022): 818-826.

²⁸ Хайдаров Б.Б.Фуқаролик жамияти таркибида ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни шакллантиришнинг долзарб масалалари // ILM SARCHASHMALARI №4. 2021. 140-бет.

²⁹ Mamanovich, R. H. "Civil Society: Prosperities of Decentralization in Management." *Middle European Scientific Bulletin* 18 (2021): 359-362.

³⁰ Отохонов Ф., Маҳмаджанов Ф. Сиёсий иштирок тушунчаси ва моҳияти.// Қонунчилик муаммолари ахборотномаси – Буллетень проблем законодательства – Bulletin of legislative problems' 2-сон / 2021 йил 18-бет.

³¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз –Тошкент, Ўзбекистон НМИУ. 2021, 53-бет.

qatlami bo'lgan yoshlarning siyosiy jarayonlardagi faol ishtiroki, tashabbuskorligini oshirish maqsadi ko'zda tutilgan.

Siyosiy-huquqiy ta'lim aholining ijtimoiy faolligining muhim omildir. Tadqiqotchi A.Jalilovga ko'ra, «ijtimoiy faollik siyosiy-huquqiy bilimlarni, madaniyatni talab etadi. Faqat siyosiy-huquqiy bilim va madaniyatga ega shaxsgina jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda faol qatnashadi, ijtimoiy faollikni o'zining fuqarolik burchi deb biladi»³².

Siyosiy va huquqiy bilimlar orqali siyosat va uning shakllarini, siyosiy jarayonlar va siyosiy birlashmalarni, shu jumladan, partiyalarni, siyosiy va davlat hokimiyatiga erishish vositalari, fuqarolik jamiyati, davlat va shaxsning o'zaro munosabatini o'rganamiz. Siyosiy bilimlar orqali inson siyosiy madaniyati shakllanadi va bu tizim orkali fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish o'rganiladi. Tadqiqotchi A.Jalilovga ko'ra, siyosiy madaniyat siyosiy tizimlar doirasidagi bilimlardan iboratgina bo'lmasdan jamiyatdagi xulq-atvorlarni tartibga soluvchi ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi³³.

Bugun mamlakatimizda siyosiy-huquqiy ta'lim tizimining oldida bir tomondan sohada kadrlar tayyorlashning samaradorligini oshirish, milliy davlatchilikning siyosiy-huquqiy asoslarini mustahkamlash, fuqarolik jamiyatini shakllanishi va rivojlantirish bilan bog'liq tizimli tadqiqotlar olib borish, ikkinchi tomondan esa, global o'zgarishlar sharoitida mamlakat ichki va tashqi siyosatining strategiyalarini aniqlash va shu asosda amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish ilmiy asoslangan dasturlarni ishlab chiqish kabi masalalar turibdi³⁴. Prezident Sh.Mirziyoev ta'kidalganidek, «izchil siyosiy va hukuqiy yo'nalishdagi yangilanish va islohotlardan eng asosiy maqsadimiz – O'zbekistonni dunyoning davlat boshqaruvi sifati yuqori darajada bo'lgan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etilgan rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishini ta'minlashdir»³⁵.

Siyosiy-huquqiy ong va madaniyatga asoslangan savodxonlik millat yetukligi va inson barkamolligining eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Fuqarolar mamlakatda qabul qilingan qonunlar, mavjud siyosiy tizim va huquqiy mezonlarni bilmasdan turib, ma'naviy-axloqiy yetuklikka erisha olmaydilar³⁶.

Ilmiy tadqiqotlarda siyosiy-huquqiy bilimlarni oshirish jarayoni unga ta'sir qiluvchi omillari sifatida a) shaxsning hayotiy tajribasi; b) shaxslararo siyosiy-huquqiy aloqalar; v) ijtimoiy guruhlar siyosiy-huquqiy tajribalarini

³² Жалилов А. Ўзбекистонда ёшлар сиёсий маданиятининг ривожланиш жараёнлари // Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Тошкент-2020. 119 -Б.

³³ Жалилов А. Ўзбекистонда ёшлар сиёсий маданиятининг ривожланиш жараёнлари// сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. 2020, 19-бет.

³⁴ Расулов Х. М. Шарқ ва ғарб: сиёсий ва ҳуқуқий маданият компонентлари уйғунлиги //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2020. – №. SI-1№ 3.

³⁵ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси –Тошкент, Ўзбекистон НМИУ. 2021, 123-бет.

³⁶ Сагдуллаева Д.Ш. Жамият демократлашуви шароитида фуқаролар ҳуқуқий маданиятини такомиллаштиришнинг ижтимоий-фалсафий асослари// фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Тошкент – 2010. 5-бет.

tarqatuvchi jamiyat institutlari (maktab, partiya tashkilotlari, ijtimoiy-siyosiy birlashma, diniy muassasa va boshqalar); g) inson hayotining barcha yo'nalishlarida shakllangan siyosiy-huquqiy bilimlarni ommalashtirishda muayyan shaxslarning tajribasidan foydalanish imkonini beruvchi ommaviy axborot vositalarini ajratib ko'rsatish mumkin³⁷.

Xulosa qilib aytganda, aholining siyosiy va huquqiy savodxonlik darajasi ortib borar ekan, o'z o'rnida, jamiyatda qonun ustuvorligi tamoyiliga so'zsiz rioya etilishiga, belgilangan huquq va majburiyatlar o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishiga imkoniyat paydo bo'ladi.

ОМИЛҲО ВА РОҲҲОИ ПАЙДОИШИ ВОЖАҲОИ ТАБУЙ ВА ЭВФЕМИСТӢ ДАР ЗАБОНИ ТОЧИКӢ

*Самиева Сурайё Ориповна,
устоди Донишгоҳи давлатии Тирмиз
кафедраи филологияи тоҷик ва забонҳои шарқ*

Аннотатсия. Дар мақолаи мазкур оиди корбасти маънои эвфемии калимаҳо дар забони тоҷикӣ сухан меравад. Дар забони тоҷикӣ хусусиятҳои луғавию маъноӣ, тобишҳои услубӣ ва фардии воҳидҳои луғавии эвфемизмҳо имкон медиҳад, ки нутқи адабӣ фаҳмову раво, нарму ғушнавоз ва ифоданок садо диҳад. Воситаҳои луғавии эфемистӣ ба сифати воситаҳои услубии баёни нутқ дар бехтару самимитар намудани муносибату муоширати аъзои ҷамъият кор бурда мешавад.

Вожаҳои калидӣ: эвфемизм, дисфемизм, лингвистика, услубшиносӣ, сотсиолингвистика, жаргон, вожа.

Эвфемизм яке аз баҳши муҳими лексикология ва услубшиносӣ ба шумор меравад. Эвфемизмҳо (аз калимаи юнонии euphemia - ҳуддорӣ қардан аз истифодаи калимаҳои дурушт) яке аз воситаҳои муҳими нутқи шифоҳӣ (суханронӣ) ва хаттӣ мебошад. Омӯхтан ва донистани хусусиятҳои луғавию маъноӣ, тобишҳои услубӣ ва фардии воҳидҳои луғавии эвфемизмҳо имкон медиҳад, ки нутқи адабӣ фаҳмову раво, нарму ғушнавоз ва ифоданок садо диҳад. Воситаҳои луғавии эфемистӣ ба сифати воситаҳои услубии баёни нутқ дар бехтару самимитар намудани муносибату муоширати аъзои ҷамъият дар гузаштаи имрӯз саҳми арзанда доранд.

Таҳлили васеи воситаҳои услубӣ ва муайян намудани муносибатҳои луғавию семантикии калимаҳо дар тарбияи маънавии инсонӣ комил ва ҳушахлоқу соҳибмаърифат саҳми босазо дошта метавонад. Эвфемизм як воситаи муҳими тақомул ва равоқии таркиби луғавии забонамон мансуб меёбанд. Агар дар нутқи худ мо аз ҷунин воҳидҳои луғавӣ сарфи назар

³⁷ Усмонова Б.З. Ўқувчи-ёшларда сиёсий-ҳуқуқий фаолликни шакллантиришда оммавий ахборот воситаларининг ўрни //Замонавий таълим. 2017, №1. 19-бет. (жами 18-23-бетлар)

кунем, нутқи мо аз хусну малоҳат ва муассирию ҷозибӣ мегардад, ки он боиси костагии маданияти гуфтор шуда метавонад.

Таълимотҳое, ки дар онҳо умумияти назар ба мушоҳида мерасад, дар заминаи инкишофи босуръати соҳаҳои гуногуни забоншиносӣ, аз ҷумла, сотсиолингвистика, ба вучуд омадаанд. Умуман, эвфемизмҳоро ҳамчун бахшҳои мураккаби забон аз рӯи се омили ба ҳам алоқаманд аз назар гузаронидан лозим аст:

1) омили иҷтимоӣ, ки асоси онро эвфемизмҳои иҷтимоӣ ташкил медиҳанд ва аҳамияти ахлоқию динӣ доранд. Дар заминаи онҳо маъноҳои аслии ашёву ҳаводис ба таври манфӣ маънидод карда мешаванд, ки дар натиҷа талаффузашон аз доираи одоб берун ифода ёфта, зарурияти иваз намудани онҳо бо калимаҳои дигар ба миён меояд;

2) омили психикӣ, яъне зимни он далели нармгуфторӣ ва ифодаи мулоим фаҳмида мешавад, ҳиссиёти манфӣ - тарсу ваҳм, шарму ҳаё ва нафратро дар кас бедор месозад ва вожаҳое, ки бар ивази ин қабил калимаро корбаст мешаванд, эҳсосоти манфиро бартараф мекунанд;

3) омили хусусӣ-лингвистӣ. Зимни ин омил ду аломат ё нишонаи эвфемизмро фарқ бояд кард. Аломати аввал - руйпуш намудани маъноӣ дар муддати муайяни вақт, ки ин амал аз натиҷаи муносибати манфӣ нисбат ба номи ашёву ҳодисот ба амал омадааст. Аломати дуввум - Барои эвфемизм шудан, калимаи нав бояд дар шуури гӯянда ва шунаванда нисбат ба ашё ва ҳодиса тасаввурот ба амал оварда тавонад. Аз ин рӯ, воситае мебошанд, ки барои гуфтори нарму малех, мусоидат мекунанд. Эвфемизмҳо ивазкунандаи номҳоеанд, ки ба забон оварданашон натиҷаи даҳшатбори шармсорӣ ва бадахлоқӣ буда, аз талқиноту таъинот ва дастурҳои ахлоқию динӣ ва мазҳабӣ бармеоянд.

Табу ва эвфемизм аз зумраи фаслҳои муҳими лексикология ва услубшиносӣ ба шумор меравад. Вожаи табу (аз забони полинезӣ) калима, ибора ё ифодае, ки гуфтаниаш манъ аст ва ё дар асоси таъсири хурофот, урфу одатҳои динӣ ва ғайра маҳдуд карда шудааст. Табу ҳодисаи этнографиест, ки дар заминаи ба ҳукми қонун даровардани баъзе ҷиҳатҳои қору рафтори одамон, фаъолияти динӣ ё хурофотие. Ки ба гардиши ошқорӣ ашёву амал ва калима маҳдудияти мамониат эҷод мекунанд. Омӯхтан ва дониستاني хусусиятҳои луғавию маъноӣ, тобишҳои услубӣ ва фардии воҳидҳои луғавии табу ва эвфемизмҳо имкон медиҳад, ки нутқи адабӣ фаҳмову нишонрас, нарму гӯшнавоз ва ифоданок садо диҳад. Ба мавзӯи табу ва эвфемизм муҳаққиқони тоҷик танҳо зимни баррасии забон ва услуби асарҳои бадеӣ ва ба таърифи расонидани китобҳои дарсӣ ишораҳо кардаанд. Доир ба вожаҳои табуӣ ва эвфемистӣ дар забоншиносии русу халқҳои дигар тадқиқотҳо ба анҷом расидааст, бахусус асарҳои А.М.Катсев, А.Ларин, С.Видлак, Н.Исматуллоев, Ҳ.Маҷидов, Т.Мақсудов, Ф.Зикриёев, Х.Ҷалилов ва ғайраро номбар кардан мумкин аст.

Дар забоншиносии дунё омӯзиши масъалаи табу ва эвфемизм аз охирҳои асри XIX шурӯъ шудааст. Г.Паул хосиятҳои забони табу ва эвфемизмро дар забонҳои қадима таҳқиқ намуда, ҳамчун тағйирёбии семантикии калимаҳо баҳо додааст.(11,123-124).

Зухуроти табу ҳамеша тавлидгари эвфемия вучуд дошта метавонад, вале вожаҳои малеҳ бе онҳо мавриди истифода қарор намегиранд. Табу ҳодисаи этнографӣ буда, маънояш манъ кардан аст. Др ибтидо ҳодисаю воқеаҳо ва номи ашё барои он табу карда мешуд, ки одамон ба нақлу ривоятҳои асотирӣ бовар доштанд. Онҳо боварӣ доштанд, ки дар байни ном, мафҳум ва ҳуди ашёу ҳодисаҳо, ки он ифода мекунад, алоқамандӣ вучуд дорад. Ба гурӯҳи эвфемизмҳои, ки бо табу алоқамандӣ доранд, инҳо дохил мешаванд:

а)Эвфемизмҳои, ки ба ҷои мавҷудоти фантастиکیю тасаввурӣ корбаст мешаванд.

Дар лаҳҷаҳои забони тоҷикӣ зимни ифодаи мафҳумҳои табуӣ чунин вожаҳо истифода бурда мешаванд: **чиз, чизе, дев, парӣ-зиён, сиёҳӣ-чин,бало-ғул, дегдон(суқи бад расидан) чашми бадрасида; аз ақл бегона шудан(девона) ва ғайра.** Ҳатто аз таъсири ин дар байни мардум мақолҳои зиёд пайдо шудааст: Гапи дев задам, дев расид (1, 269).

Мӯйсафедро бало задагӣ барин, як тарафи рӯяш сип-сиёҳ (2, 2.10.2004).

Зиён-зара, осеб-ба касалии саръ дучор шудан: Ин бачаро зиён зер кардааст. Мулло чилёсин, хонад. Худо хоҳад, дуруст мешавад (3, 22).

Дар дини ислом низ бо мақсади риояи эҳтиром ва посдорӣ нисбат ба номи худо-Аллоҳ чандин унвонҳои эҳтиромӣ зам карда шудааст:

Раб-Худованд-мураббӣ, тарбиягари оламиён аст:

Ки нигоҳ дор оби моро аз хасон,

Ё раб, он гавҳар бад – он даре расон.(Румӣ)

Раббуллоламин:

Ў миён басту биёмад то замин,

То гузорад амри раббуллоламин.(Румӣ)

Сонеъ:

Чунки сонеъ хост эҷоди башар,

Аз барои ибтидои хайру шар(Румӣ)

Раҳмон-бахшанда, раҳмкунанда:

Он чӣ ба дастурии Раҳмон диҳанд,

Кай зи пайи ғорати шайтон диҳанд (Хусрави Деҳлавӣ)

Ҷаббор-соҳиби тавоноӣ ва қудрат; Худо

Холиқ-халқкунанда, офаринанда;

Додор-адолатпеша, маҷозан Худо.

Анъанаи табу гардонидани номи Худо ва рӯҳ ҳоло ҳам дар миёни қабилаҳои тоҷикӣ, африқоӣ ҷой дорад.

б)Эвфемизмҳои ҳашароти зараровар

Дар миёни мардум аз қадим тааммулест, дар натиҷаи ба забон овардани номи ҷонварони газанда худи онҳо пайдо мешаванд ва зарарашон ба одамон мерасад: гумном(ғунда, мор, каждум), беном(ҳамаи ҷонварони зараррасон захрнок), газанда(газандае, ки барои инсон марговар аст).

Ҳа гумном газид туро магар, ин қадар доду фиғон дорӣ (3,17)

в) Эвфемизми даррандаҳо

Дар байни мардumi Осиёи Миёна то ҳанӯз аз ба забон овардани номи гург, шағол, рӯбоҳ, хирс ҳазар карда, ба ҷои ин вожаҳои ҷондор(гург, шағол), дузди думдароз (рӯбоҳ), полвон(хирс), қачпо(хирс)-ро ба забон мегиранд.

Чаро овози хурӯс ин саҳар набаромада монд, боз онро дузди думдароз(рӯбоҳ) набурда бошад (4,46).

Кӣ бо ин паҳлавони қачпо гӯштин мегирад (3,48)

г) Эвфемизми бемориҳо

Дар тиб ва дар миёни мардум анъанаест, ки номи бемориҳоро ба забон намегиранд ва ба ҷои он вожаи эвфемистӣ мавриди истифода қарор мегирад. Дар ғӯиши мардумӣ ба ҷои бемории сурхча, ки пешгирӣ накардани он боиси бемории шадиди чигар мегардад, вожаи туркӣ-ӯзбекии “қазомуқ” истифода мешавад. Ба ҷои бемориҳои гулӯзиндонак(ангина)-гулӯдard; ба ҷои пес-сафед; ба ҷои кал-одамсар, тоссар; ба ҷои чӯлоқ-маъюб; ба ҷои зарпарвин- парвин ё зарда; ба ҷои девона-ноқилсулақл; ба ҷои хафакон-нафасгир ва монанди инҳо дар нутқи гуфтугӯӣ дар истеъмол мебошад.

Хафакон бисёр азоб дод ин кӯдаки бечораро.

ғ) Эвфемизмҳои зановодагӣ

Дар бисёр маҳалҳо бо таҷозои маданияти шарқ ва таъсири дини ислом тоҷикон ва халқҳои Осиёи Марказӣ зан номи шавҳарро ва шавҳар номи занро бевосита ба забон намеоваранд. Риояи ин анъана дар хузури фарзандон, хешу таборон ва фарзандон хеле нозукона сурат мегирифт: мардак, занак, очаи бачаҳо, кампир, дадеш, дадош, отеш, онеш, бувеш, оим, апеш ва ғайра. Агар дар оила фарзанд бошад ҳатман волидайн бо ҳамдигар бо нахустфарзанд хитоб мекарданд: дадои Фарҳод (отаи Малика). Ҳамчунин мафҳуми мазкур дар нутқи адабӣ дар шакли ҳамболин, ҳамбистар, ба як болишт сар мондан, ҳамқадами ҳаёт, рафиқи ҳаётӣ ва ғайра. Мисол:

Ман туро ҳамболинам, бехтарин рафиқи ҳаётиам, мепиндоштам, вале афсус! (3, 14).

Хӯчин дар хона нестан, пагоҳ биёед! (3, 9).

Бист сол мешавад, ки онҳо дар як болин сар мемонад(3, 41).

е) Эвфемизмҳои хонаводагӣ

Дар нутқи занҳо бештар калима ва ибораҳои махсус кор фармуда мешавад, ки онҳо нисбат ба хешу табори ёзан, модар, падар, бародару хоҳар корбаст мегардад: **хусур** (падари домоду падари арӯс), **хушдоман**

(модари домоду модари арӯс) **қайнӣ** (бродари домод), **қайсингил** (хоҳари домод), **авсун** (зани бародари домод), **боҷа** (шавҳари қайсингил). Мисол:

Ин авсуни ман сояи маро аз девор тарошида гаштааст (3,17).

Гов кунчораро боҷабоҷаро дӯст медорад (мақоли халқӣ).

Дар адабиёти илмии соҳаи забоншиносӣ нисбат ба масоили табу ва эвфемия бархӯрди ҷанбаи сотсиолингвистӣ ба мушоҳида мерасад. Аммо дар фарҳангномаҳои эвфемистӣ ба масъалаи инкишофи маъноии калимаҳои табуӣ ва хушоҳанг вобаста ба тағироти иҷтимоӣ ва сиёсию фарҳангии, ки дар ҷомеа ба вуқӯъ меоянд, камтар тавҷӯҳ ба мушоҳида мерасад. Эвфемизмҳоро як сарчашмаи пайдоиши синонимҳо низ номидаанд ва беҳуда нест, ки онҳо бо истилоҳи синоним-эвфемизм номгузорӣ шудаанд ва онҳо барои табодули маъноии вожаҳои қабех мавриди қорбурд қарор гирифтаанд. Ин гуна калимаҳо ба ҷои жаргону луғатҳои табуӣ истифода бурда мешавад.

Д.Фрезер ишора мекунад, ки таъсири беҳадзиеде. Ки низоми қадимаи табу дар хурофотпарастӣ ба ақлу тафаккури инсон дошт, дар тамоми замонҳо ва дар аксари мамолик арзи вуҷуд доштааст. (5, 17,18).

Л.А.Булаховский қайд мекунад, ки “шаклҳои гуногуни ифодаёбии табу аз қавмҳои хеле хурофоти полинезиягӣ шурӯъ карда, то вожаҳои табуии замони мо дар заминаи тарсу ваҳм аз он ки “чашм нарасад” ба вуҷуд омадааст” (6, 50).

Д.Н.Шмелёв таъкид кардааст, ки табу на танҳо ба халқҳои ҷомеаи ибтидоӣ, балки ба ҷомеаи муттамаддини муосир низ хос аст, вале тафовут дар он аст, характери мамнӯъгӯӣ тағйир ёфтааст (7, 57).

Хулоса, мафҳумҳои фаромӯшшудаи воситаи табуиро насли оянда бо ёрии луғати этимологикӣ ёки табуӣ ва эвфемикӣ муайян кардан лозим меояд.

1. Мардумгиёҳ // Маҷмӯаи мақолаҳо. Серияи филологӣ.№ 14.- Душанбе.1991.

2. Маҷаллаи Адабиёт ва санъат, 2.10.2004.

3. Ҷ. Икромӣ. Асарҳои мунтахаб. Ҷилди 2. -Душанбе: Адиб. 1987.- 448с.

4. Зеленин Д.К. Табуических слов у народов Северной Европы и Северной Азии.-М.: Высшая школа, 1929.

5.Кацев А.М. Эвфемизмы в современном английском языке.-Л., 1977.- 52с.

6.Булаховский Л.А. Введение и языкознание. -М.: Наука, 1953.-216с.

7. Шмелёв Д.Н. Очерки по семасиологии русского языка. - М.:Просвещение.-1997.-335с.

8. Маҷидов Х. - Фразеологияи забони ҳозираи тоҷикӣ.- Душанбе: Маориф, 1983.

9. Фарҳанги забони тоҷикӣ. Ҷилди 1,- М: Советская энциклопедия, 1969

10. Фарҳанги забони тоҷикӣ. Ҷилди 2. -М: Высшая школа, 1969.
11. Паулх Г. Принципы история языка. – М.: Иностранная литература. 1960.-500с.

**TARIX TILSIMI, QADRIYATLAR BESHIGI BO'LGAN MUZEYLARNING
YOSHLARNI MA'NAVIV-AXLOQIY TARBIYASIDAGI O'RNI**

Istamova Shahzoda Islom qizi
Termiz Davlat Universiteti Milliy libos va san'at fakulteti
Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish
yo'nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: p.f.n (PhD) Muratova Saboxat Choriyevna

Kalit so'zlar: Muzeyshunoslik, muzey etikasi, muzeylarning tarbiyaviy ahamiyati, qiziqarli suhbat va ekskursiyalar, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, psixologik ta'sir, qadriyatlar, tarix, muzey va jamiyat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizning tarixi, urf-odatlarini, an'analarini aks ettirishda muzeylarning o'rni, tarixiy xotira va merosning bir avloddan ikkinchi avlodga o'tishidagi roli beqiyos bo'lgan tarixiy tilsim hisoblanmish muzeylar faoliyati va ularning yoshlar hayotida tutgan o'rni, ularning shaxs ma'naviyatini rivojlantirishi to'g'risidagi fikr va mulohazalar yuritiladi. Prezidentimizning muzeylar faoliyatini isloh etish to'g'risidagi qaror va fikrlari bilan boyitiladi.

KIRISH: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev boshchiligidagi mamlakatda mavjud ulkan turizm saloyihatdan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy, madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda ziyorat qilish, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turlarini jadal rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Turizmning ustuvorlik kasb etayotgani ham muzeylar faoliyati va muzey ishi tizimli tashkil qilinishini taqozo etadi. 2017-yil 11-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida" qaror qabul qilindi. Mamlakatimizda 350 dan ziyod muzey faoliyat yuritib, o'zining eksponatlari- ashyoiy dalillari bilan yosh avlodni tarixga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilayotgani ham malakali mutaxassislariga bo'lgan talabni dolzarblashtiradi. Hozirgacha olib borilgan ilmiy izlanishlarga tayanib, muzeyshunoslik- ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni to'plash, saqlash jarayonlari, bilim va ma'lum hissiyotlarni muzey ashyolari orqali yetqazib berishni, muzey ishini, muzeyni ijtimoiy institut sifatidagi maqomini, vazifalarini hamda turli ijtimoiy- iqtisodiy sharoitlarda ularning amalga oshirish shakllarini o'rganadigan fandır, deb belgilash mumkin. Ushbu maqola muzeylarning kelib chiqishini, tarixini, uning

ijtimoiy hayotdagi o'rne, shuningdek, ularning klassifikatsiyasi va tipologiyasini tadqiq qiladi.

ASOSIY QISM: Muzeylar- jonli tarix, o'tmishdan guvohlik beruvchi muassasalardir. Ularda xalqimizning tarixi, urf-odatlarini, an'analari o'z aksini topgan moddiy va ma'naviy yodgorliklar saqlanadi. Muzeylarning madaniyatimizda tutgan o'rne benihoya katta, bu avvalo, ularning tarixiy xotira va merosning bir avloddan ikkinchi avlodga o'tishidagi roli bilan belgilanadi. Boshqa tomondan, muzeylardagi eksponatlar orqali tariximizni dunyo xalqlariga tanishtirish vazifasi ham turadi. Zero, muzeylar va muzey ishi turizm sohasi bilan aloqador bo'lib, bu o'z navbatida respublikamiz iqtisodiyotining muayyan yo'nalishlari rivojiga ham ta'sir ko'rsatadi. Muzey- bu sotsial axborotlarni tarixan o'zaro bog'lovchi ko'p funksiyali ijtimoiy institut bo'lib, uning faoliyati madaniy-tarixiy hamda tabiiy- ilmiy boyliklarni saqlash, ma'lumotlarni to'plash va muzey ashyolari orqali tarqatishga mo'ljallangandir. Muzey turli jarayonlarni, tabiat va jamiyat hodisalarini hujjatlashtiradi. Shuningdek muzeylar ma'rifiy, tarbiyaviy va targ'ibot maqsadlarida foydalaniladi. Muzey etikasi muzeyshunoslikning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Muzeylarda uzoq asrlardan buyon saqlanib kelayotgan osori atiqalarga bo'lgan munosabat, muzeylarga tashrif buyurish odo- muzey etikasi deyiladi. Bolalarning muzeyga tashrifini ularning ruhiyatiga to'g'ri keluvchi muloqot ekskursiyalari orqali tashki etish zarur. Muzey o'quvchilarga nafaqat turli hodisa va voqealarning sabablari hamda tartiblari haqida bilimlarni berish, balki uni xotirada saqlash bilan bir qatorda, o'z oldilariga qo'yilgan savollarga mustaqil ravishda javob topishga o'rgatishi lozim. Avvalambor, muzeyda maktab yoshigacha bo'lgan bolalarning psixologik holati, ularning axborotni qabul qilish darajalarini o'rganishda, asosan bolalarda atrof-muhitni anglash, fikrlash va eslab qolish qobiliyatlari hisobga olinadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga esa muzeyga tashrif jarayonida dastlab ekspozitsiyadagi ashyolarning insoniyat taraqqiyotidagi ahamiyati haqida suhbat o'tkaziladi. Qiziqarli suhbat orqali ekskursiyalar o'tqazishda ularning shakllanayotgan psixologik jarayonlarini o'rganib, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va bu borada bolalarga zamonaviy texnologiyalardan (sensor kiosklar, plazma panellardan) foydalanish imkoniyatini yaratish zarur. Ushbu maqolada kichik yoshdagi tashrif buyuruvchilar bilan ishlashning turli shakllari: viktorina, rebus va musobaqalar tarzida tashkil etishni tavsiya qilinadi. Muzeylar tarixiy va madaniy faktlar, mashhur nomlar, har bir davrning o'ziga xos xususiyatlari nafaqat bolalarning qalbida, balki xotirasida bir umrga qoladi. Muzeylar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mustaqil fikr yuritish, voqea va hodisalarga befarq qaramaslik, eng asosiysi o'z moddiy madaniy merosini asrash tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu g'oyalar bolalarga o'yin, ijod va muloqot uyg'unligida singdirib boriladi. Bolalar muzeylar va ular faoliyati bilan tanishib chiqqanlaridan keyin o'zi yashayotgan zamonaviy muhit bilan tarixiy davrlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar haqidagi tushunchasi

tarixiy va madaniy yodgorliklar orqali shakllanadi, estetik did va hayratlanish qobiliyati rivojlanadi, boshqa madaniyatga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish hissi qaror topadi, turli davr va xalqlarning madaniy merosini mustaqil ravishda o'rganishga ishtiyoqi o'sadi. Muzeyning bolalar tarbiyasidagi o'rni madaniyat va san'atga bo'lgan qiziqishlarini rag'batlantirish bilan ham belgilanadi. Muzey bolalarning kuzatuvchanligini oshirib, tasavvurni kengaytirish va ma'lum ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Jumladan, bolalar muzey ahamiyatiga molik ashyolarni bog'chada, ko'chada, tanishlarining uyida yoki tashqi muhitda ko'ra olish, shuningdek, muzeyda o'zini tutish, ko'rgazmada ashyolarni ko'rish kabi madaniy meros bilan muloqotga kirishish kabi ko'nikmalarga ega bo'lib borishadi. Natijada, bolalar muzeylarga- madaniyatning noyob muassasasi sifatida qiziqqa boshlashadi. Asosiysi, yo'qolib borayotgan madaniyat, an'analar va ularning ahamiyati bolalarda alohida qadr-qimmat kasb etadi. Muzey xazinasi ularga bebaho va noyob tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Bir so'z bilan aytganda, muzeylar maktab, o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining tafakkuriga tarixiy xotirani shakllantirish va rivojlantirishni qo'llab- quvvatlashdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning Toshkent shahridagi Amir Temur xiyobonining ochilish marosimidagi, "Kimki o'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, shu asosa kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak" degan nutqi ham yurtimizda muzeylar faoliyati uchun alohida e'tibor qaratilganining dalilidir.

XULOSA: Moddiy va ma'naviy merosni saqlashda muzeylarning o'rni beqiyos bo'lib, ayniqsa, yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ta'siri, yoshlarni o'tmish bilan hamnafas yashashlariga yanada turtki beradi. Yurtimizda ko'plab zamonaviy muzeylarning faoliyat yuritishi avvalgi davrlardan farq qiladi. Zamonaviy muzeylar madaniy merosning yangi qirralarini ochar ekan, nafaqat yurtimiz aholisi va yoshlari orasida, balki, millatlararo do'stlik va hamjihatlik tamoyillariga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Chunki bu sa'y- harakatlar boshqa xalqlarning ham yoshlarida ham madaniyatiga nisbatan hurmat tuyg'ularini uyg'otishda muhim ahamiyatga ega. Tarixiy- madaniy merosni saqlash, uni avloddan-avlodga yetqazishda, shuningdek, yoshlarni vatanparvarlik, tarixiy- madaniy qadriyatlarga urmat bilan qarash ruhida tarbiyalashda muzeylarning o'rnini alohida e'tirof etish zarur. Ayni vaqtda muzey jamiyatning o'z tarixi va madaniyatiga bo'lgan munosabatini aks ettiruvchi ko'zgu hisoblanadi. Shu sababli muzeylar zamon bilan, jamiyat bilan hamnafas bo'lib, jamiyatning bir bo'lagi bo'lgan holda yangicha usulda faoliyat ko'rsatishi bugungi kunning dolzarb masalasiga aylandi. Hozirda, butun jahon muzeylari oldida, "XXI asr muzeyi qanday bo'lishi va tashrif buyuruvchilarni qanday jalb qilish kerak?"- degan muammoli masala turmoqda. Muzey ashyolarini endilikda nafaqat moddiy jihatdan namoyish etish, balki ularni zamonaviy texnologiyalar uyg'unligi yordamida turli uslublarda targ'ib etish imkoni tug'ildi. Muzeyga kelgan yoshlar, xalq inson tarbiyaviy ta'sir obyekti

emas, balki teng huquqli suhbatdoshdir. Ular har bir eksponat bilan, har bir ashyo bilan suhbat qura olish imkoniga egalar, aniqrog'i, muzey bu- insonlar va tarixni bog'lab turuvchi uzilmas bir vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish tog'risida"gi PF-1913 son farmoni//O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisning Axborotnomasi.-1998.1-son.31-modda.

2.O'ljayeva Sh.M> Muzeyshunoslik. O'quv qo'llanma.-T:Universitet,2002.

3.Шляхтина Л.М. Фокин С.В. Основы музейного дела.-СПБ62002.

4. Шляхтина Л.М. Основы музейного дела: теория и практика.-2005.

5.Carbonell В.М. Museum studies: an anthology of sontexts.-Oxford: Blacwell, 2004.

6.МаcLeod S. Museum Architecture : A New Biography.-London; Newyork: Routledge,2013

7.Muзейshunoslik-Tarix o'qitish metodikasi. // Toshkent"Turon-Iqbol":2018.

O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARIGA MUVOFIQ BO'LGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING TAVSIFI

Juraqulova Surayyo Mamanazar qizi

TerDPI 2-kurs magistranti

Ilmiy maslahatchi: Xabibulloyev Abbos Odil o'g'li

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'qitishning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq bo'lgan pedagogik texnologiyalar va ularning tavsifi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiya, muammoli ta'lim, tayanch signallar, qobiliyat, klassik ma'ruza, an'anaviy ta'lim, alternativ texnologiya, verbal, noverbal, audio, visual, model

Pedagogik texnologiyalar turlarga ajratiladi. Uzluksiz ta'lim turlari bo'yicha maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, tayanch ta'lim, maktabdan tashqari - qo'shimcha ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'limi pedagogik texnologiyalariga bo'linadi. Shu bilan birga, ta'lim sohalari bo'yicha ona tili, xorijiy tillar, adabiyot, ijtimoiy, tabiiy, aniq fanlar, san'at, sport, texnika, texnologiya, amaliy fanlar, kasb-hunarlar, maxsus ta'lim pedagogik texnologiyalari mavjud.

Pedagogik texnologiyalar yo'nalishlari: Pedagogik jarayonni takomillashtirish, uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar: hamkorlik pedagogikasi, ta'limning insonparvarlikka asoslangan texnologiyalari.O'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar.Muammoli ta'lim, o'yinlar, tayanch signallar konspektlari texnologiyalari va boshqalar.O'quv

materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlab chiqishga asoslangan pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalar o'rgatlayotgan bilimlarning didaktik tizimi chuqur mazmunga ega bo'lishi, bilimlarga tizimli nuqtai nazardan yondashish, o'quvchilarga bilimlarni egallashning eng maqsadga muvofiq yo'llarini o'rgatish kabi tamoyillarga asoslanadi".

O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilishga asoslangan pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalarga tabaqalashtirilgan, individuallashtirilgan, dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyalari, ta'limning jamoa usuli, guruhli, kompyuterli ta'lim texnologiyalari kabilar kiradi.

Tabiatga muvofiqlashtirilgan pedagogik texnologiyalar. Bularga o'quvchining tabiiy imkoniyatlari, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning tabiiy imkoniyatlari va boshqa tabiatga muvofiq, imkoniyatlardan to'liq foydalanishni amalga oshirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar kiradi.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari. Bularga o'quvchi shaxsining ijobiy sifatlarini, ayrim sohalardagi bilimlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari kiradi. Bulardan tashqari, xususiy (o'quv fanlari), alternativ hamda mualliflik pedagogik texnologiyalari yo'nalishlari ham mavjud.

Hozirda mavjud bo'lgan pedagogik texnologiyalarni bir qancha belgilariga qarab turlarga ajratiladi. Pedagogik texnologiya doimo kompleks xarakterga ega bo'lib, u faqat bittagina omildan, metoddan, tamoyildan foydalanmaydi. Lekin har bir pedagogik texnologiyada asosiy e'tibor ta'lim jarayonining u yoki bu tomoniga qaratilishi natijasida ularni shu belgilari bo'yicha turlarga ajratiladi.

Bilish faoliyatini boshqarish bo'yicha pedagogik texnologiyalarning quyidagi turlari ma'lum:

- klassik ma'ruza;
- texnika vositalari yordamida o'qitish;
- maslahatchilik tizimi;
- darslik bo'yicha o'qitish;
- kichik guruhlar tizimi;
- kompyuter yordamida o'qitish;
- repetitorlik tizimi;
- dasturlashtiriladigan boshqaruv.

Ta'lim oluvchiga yondashuv turi bo'yicha pedagogik texnologiyalar quyidagicha nomlanadi:

- avtoritar;
- didaktik yo'naltirilgan;
- ijtimoiy yo'naltirilgan;
- antropologik yo'naltirilgan;
- pedagogik yo'naltirilgan;
- shaxsga yo'naltirilgan;
- insonparvarlikka va shaxsga yo'naltirilgan;
- hamkorlik texnologiyalariga yo'naltirilgan;
- erkin tarbiyaga yo'naltirilgan;

- ezoterik ta`lim va tarbiyaga yo`naltirilgan.

Qo`llaniladigan asosiy metod bo`yicha pedagogik texnologiyalar quyidagi turlarga ajratiladi:

- dogmatik, reproduktiv metod;
- tushuntirish, ko`rgazmali;
- rivojlantiruvchi ta`lim;
- muammoli, izlanishli;
- ijodiy metod;
- dasturlashtirilgan ta`lim metodi;
- dialogli metod;
- o`yin metodi;
- o`z-o`zini rivojlantiruvchi ta`lim metodi;
- axborotli (kompyuterli) ta`lim metodi.

Turlari: Maktabgacha ta`lim pedagogik texnologiyasi, boshlang`ich ta`lim, tayanch ta`lim, maktabdan tashqari - qo`shimcha ta`lim, o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi, oliy ta`lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish ta`limi pedagogik texnologiyalari, ta`lim sohalari bo`yicha turlari, ayrim belgilari bo`yicha turlari.

Yo`nalishlari: hozirgi an`anaviy ta`lim, pedagogik jarayonni takomillashtirish, o`quvchi faoliyatini faollashtirish, o`quv materialini takomillashtirish, samarali boshqarish va tashkil qilish, tabiatga muvofiqlashtirish, rivojlantiruvchi ta`lim, xususiy (o`quv fanlari), alternativ, mualliflik va boshqalar.

Tarkibiy tuzilishi: modullar; algoritmlar.

Asosiy ishtirokchilari: o`quvchi, o`qituvchi (tarbiyachi), ta`lim menejeri, ta`lim texnolog, nazoratchi, ota-onalar.

Pedagogik texnologiyaning maqsadi - ommaviy ta`lim sharoitida ta`lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta`minlash va talabalar tomonidan o`qishning ko`p sinalgan natijalariga erishish kafolatidan iboratdir.

Pedagogik texnologiyaning bosh vazifasi - ommaviy ta`lim sharoitida "oddiy" pedagoglarga o`qitishning yetarli samarasiga erishishni ta`minlovchi o`quv jarayonini yaratish hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya va o`qitish texnologiyasi o`zaro bog`liq bo`lishi bilan birga farq qiluvchi tomonlari ham mavjud. Pedagogik texnologiya ta`lim-tarbiya jarayonining hamma sohalarini qamrab oluvchi yaxlit tizim bo`lsa, o`qitish texnologiyasi ma`lum fanlarni hozirgi didaktik talablar asosida o`qitishning yaxlit tizimini tashkil qiladi.

Pedagogik texnologiyalar umumpedagogik, xususiy (o`quv fanlari) va kichik texnologiyalardan iborat uchta daraja (sath)ga ajratiladi.

Umum-pedagogik texnologiya o`z hududi yoki ta`lim muassasasidagi ta`lim-tarbiyaviy maqsadlar, mazmun, vositalar, o`quv-tarbiya jarayoni ishtirokchilari faoliyatining algoritmlarni belgilaydi.

Xususiy texnologiya ta`lim-tarbiya mazmunining ayrim yo`nalishlarini amalga oshirish usullari va vositalari majmuasini o`z ichiga oluvchi pedagogik

tizimlarni qamrab oladi. Bunga ayrim fanlarni o`qitish texnologiyalari, rahbarning, o`qituvchining, tarbiyachining va o`quvchining ishlash texnologiyalari kiradi.

Xususiy (o`quv fanlari) pedagogik texnologiyalarning yo`nalishlari

Empirik - sezgi a`zolari orqali bilim olish

Kognitiv - atrofdagi olam to`g`risidagi bilimlar doirasini kengaytirish texnologiyasi

Evristik - yo`naltiruvchi savollar berish yo`li bilan ta`lim berish tizimi

Kreativ - o`quvchilarda maqsadga yo`naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi

Integrativ - axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko`p kichik qismlarning o`zaro ajralmas bog`liqligi ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to`g`ri xulosani aniqlash

Adaptiv - axborotlarni o`rganish va ulardan foydalanish jarayonini o`rganish hamda o`rganish uchun qulaylashtirish, moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish

Inversion - axborotlarni turli tomondan o`rganish, o`rnini almashtirish xususiyatiga ega bo`lib, tafakkur (fikrlash) tizimini shakllantiradi

Inklyuziv - o`qituvchi bilan o`quvchining o`zaro munosabatlarida tenglik asosida ta`lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish.

Pedagogik texnologiya va o`qitish texnologiyasi o`zaro bog`liq bo`lishi bilan birga farq qiluvchi tomonlari ham mavjud. Pedagogik texnologiya ta`lim-tarbiya jarayonining hamma sohalarini qamrab oluvchi yaxlit tizim bo`lsa, o`qitish texnologiyasi ma`lum fanlarni hozirgi didaktik talablar asosida o`qitishning yaxlit tizimini tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxodjayeva N.N. O`quv jarayonining samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar. – T.” “O`zbekiston”. - 2007. 208b.

2. Hoshimov K., Ochil S. O`zbek pedagogikasi antologiyasi. –T.: “O`qituvchi” - 2010. 478b.

3. G`aniyev Yu., Boymirov Q., Eshqorayev U., Qosimov A. Innovation ta`lim texnologiyalardan o`quv jarayonida foydalanishning metodik-didaktik asoslari T.: “Yangiyer” – 2018. 196b.

4. Tolipov O., Ro`ziyeva D. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.: “Innivatsiya-ziyo” – 2019. 275b.

5. Tojiyev M., Ziyomammedov B., O`ralova M. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.: “Tafakkur bo`stoni” – 2012. 358-b.

6. G`aniyev Yu., Boymirov Q., Eshqorayev U., Qosimov A. Innovation ta`lim texnologiyalardan o`quv jarayonida foydalanishning metodik-didaktik asoslari T.: “Yangiyer” – 2018. 196-b.

7. Ibragimov G. N. Interfaol o`qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Dissertatsiya – Toshkent – 2017. 164-b.

8. Bozorov Zokir Yuldosh o'glu, Khabibulloyev Abbas Odil o'glu, Turakhanov Jakhongir, Otaganova Umida Egamberdi qizi. General Formula for Calculation of Dimensions and Surfaces of Some Geometric Figures//INTERNATIONAL JOURNAL ON ORANGE TECHNOLOGY e-ISSN: 2615-8140 | p-ISSN: 2615-7071 Volume: 4 Issue: 6 |Jun 2022 44-46

9. Bozorov Zokir Yuldosh o'glu, Khabibulloyev Abbas Odil o'glu, Turakhanov Jakhongir Utkir o'glu, Otaganova Umida Egamberdi qizi
Planimetry as a Structural Component of Structure for Professional Training of a Future Teacher of Mathematics//International Journal on Integrated Education. e-ISSN : 26203502 p-ISSN : 26153785 Volume 5, Issue 6, Jun 2022 78-80

QADIMGI DAVRLARDA VUJUDGA KELGAN ILK CHOLG'ULAR VA ULARNING RIVOJI

*Termiz Davlat Universiteti
cholg'u ijrochiligi yo'alishi 121 guruh talabasi
Jo'rayev Azamat Yusuf o'g'li*

Annotatsiya: Mazkur maqolada "Qadimgi davrlarda vujudga kelgan ilk cholg'ular va ularning rivoji" mavzusi asosida ibtidoiy odamlar va xalqlarning madaniy hayotiga kirib kelgan musiqiy cholg'ularning yaratilishi hamda ushbu cholg'ularning takomillashuvi jarayonlari yoritildi.

Kalit so'zlar: nay, doira, safoil, qayroq, lyutnya, burg'u, ksilofon, marimba, metallofon, rezonans, baraban, shiqildoqlar, tabiiy damli cholg'u, tabiiy zarbli cholg'u.

Kirish O'zbek xalqining bebaho boyligi hisoblanmish - milliy musiqiy cholg'ularimiz o'zining betakrorligi, naqsh bezagining jozibadorligi, ovoz tarovatining rang- barangligi va ijro imkoniyatlarining beqiyosligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda alohida o'rin tutadi. Musiqiy cholg'ular azal-azaldan o'zbek xalqining ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etib, kundalik turmush tarzi bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Ular hozirgi kunda ham kishilar dunyoqarashining shakllanishida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ayniqsa, cholg'u ijrochiligi san'ati ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida noyob estetik vosita sifatida shakllanib, nafaqat musiqa ilmida, balki zamonaviy musiqa ijodiyotida ham katta qiziqish uyg'otib kelmoqda. Uning barcha o'ziga xos xususiyatlari va qirralarini o'rganish esa cholg'u ijrochiligi amaliyotini boyitishga yordam beradi.

Milliy musiqiy sozlarimiz juda qadimiy va boy tarixga ega. Musiqa san'atida dastlabki zarbli (membranofon) cholg'ular eramizdan oldingi o'n uchinchi ming yillikda paydo beriga Matalat dayd etishicha, bunday cholg'ular qadimgi mehnat qo'shiqlarining ritmik tuzilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Keyinchalik shovqinli (idiofon) cholg'ular paydo bo'ldi. Ijrochilar qarsak chalib ritmni ta'kidladilar, shovqinli cholg'ular ta'sirini kuchaytirdilar. Ijrochi

ayollarning chapak zarblari o'ziga hos takrorlanmas go'zal holatni vujudga keltirar edi. Shu sababli zarbli cholg'ular eng qadimgi cholg'u asboblari turiga kiradi. Ularning kelib dam bosishi, mehnat jarayoni, raqs harakatlari, ov va harbiy chiqishi insonning qadam yurishlari bilan bog'liq. Uzoq tarixiy rivojlanish davomida turli xalqlar musiqa amaliyotida o'zining tuzilishi, tovush hosil qilishi, ijro va ifoda imkoniyati Jihatidan xilma-xil zarbli cholg'ularing turlari shakllangan.

Adabiyotlar tahlili

O'zbek musiqiy cholg'ular olami bu xususda ma'nan va moddiy nuqtai nazardan boy hamda rang-barang ekanligini e'tirof etib o'tish lozimdir. Qolaversa, qaysiki xalqning ma'naviyati yuksak bo'lsa, uning tarixi va unga mos merosi ham ulkandir. Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalq cholg'ulari rang-barang tarzda, o'ziga xos shakllangan va musiqaning barcha tarmoqlariga mos cholg'u asboblari shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelgan. O'tmish allomalari Al-Forobiy (IX asr) o'zining «katta musiqa kitobi»da, Safiuddin Urmaviy (XII asr) musiqiy risolasida, Abdulqodir Marog'iy (XIV asr) «Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy» risolasida, Ahmadiy (XIV asr) «Sozlar munozarasi» asarida, Zaynullobiddin Husayniy (XV asr) «Risola dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy» risolasida, Abdurahmon Jomiy (XV asr) «Musiqiy risola»sida, Amuliy (XVI asr) «musiqa risola»sida, Darvesh Ali Changiy (XVII asr) «Musiqiy risola»larida musiqiy cholg'ularni o'rganib tadqiq etish masalalarining turli tomonlariga to'xtalib, o'z davrlarining musiqiy cholg'ulari tasnifotini bayon etganlar. O'tmishning zabardast shoirlari o'z asarlarida musiqiy cholg'ular nomlarini zikr etishda sozlarga takror va takror murojaat etganlar. Ayniqsa, buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy musiqa ilmining eng nafosatli va mumtoz kerakli tarmoqlariga urg'u berib o'tganliklarini asarlaridan bilib olish mumkin. XX asrga kelib Eyxgorn, Abdurauf Fitrat, Viktor Belyayev kabi olimlar musiqiy cholg'ularni o'rganish xususida samarali ish olib borganlar.

Taniqli olim T.Vizgoning ma'lumotiga ko'ra mudovara (tarelka) harbiy cholg'ular qatoridan ham o'rin olgan. Misli mudovara (sanj)lar ham meloddan uch ming yil oldin ma'lum bo'lsa-da, zamonamizgacha xuddi doyra cholg'usidek o'z shaklida etib kelgan. Zarbli cholg'ular - doyra, debu, daff, daz, dov, san), go'lachalar meloddan ikki ming yil muqaddam (nisoniylar davri) vujudga kelib, turli shakllari, tuzilish va zarblari bilan takomillashib bizgacha etib kelgan. Doyra va sanj cholg'usining tarixi ijro etish usullari haqida musiqashunos olim T.Vizgo fikr yuritib, san) cholg'usining o'rtasidan tasma o'tkazilib chalinganligini va hozirgi davrda ham xuddi shunday uslubda ijro etilishini ta'kidlaydi.

Muhokama Samarqandning Urgut tumani Mo'minobod qishlog'idan topilgan miloddan besh ming yil oldin suyakdan ishlangan va beshta qo'l bilan bosib ijro etiladigan teshikka ega bo'lgan nay qisman saqlangan bo'lib, o'sha davrda bunday tovush ko'lamiga ega bo'lgan cholg'uda qanday kuylar ijro etilganligini tasavvur qilish mumkin. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan va bizgacha to'liq cholg'u sifatida etib kelmagan bo'lsa-da, ilmiy manbalarda

tasviri tushirilgan bu cholg'ular paleolit davriga to'g'ri keladi. Shuningdek, ular aynan eng qadimiy insoniyat tarixida ilk musiqa rivojining qay tarzda ekanligidan hamda umummadaniy saviyasidan dalolat beradi.

Аннотация: Ушбу мақолада иқтидорли ўқувчилар билан ишлашнинг ижтимоий-педагогик тизими педагогик имкониятлари қандай усул ва технологиялардан фойдаланиш ҳақида ёритилган.

Калит сўзлар: Ижтимоийлашув, қадриятлар, хулқ-атвор, тажриба, педагогик тизим, жамоалашув, индивидуаллашув, интегратсион, рефлексив.

Маълумки, ижтимоийлашув шахснинг жамиятдаги қадриятларни қабул қилиши ва зарурий даражада ижтимоий, фуқаролик ва шахсий етукликка эришиши асосида жамиятга кириб боришидир [43; 43-б]. Шахснинг ижтимоийлашуви, инсон ўзини жамиятда шахс сифатида англаб бориши жараёнидир. Бу тарбия, таълим, ўз-ўзини тарбиялаш жараёнида юзага келиб, инсон қачонки, ўз мақсадларини мустақил аниқлай олганда уларга эришиш йўлларини белгилай билганида, ўз кадр-қимматини англаб етганида, жамиятдаги ўз ўрнига ишонч ҳосил қилган тақдирда амалга ошади. Бошқача айтганда, шахснинг ижтимоийлашуви – таълим-тарбия таъсирида инсон психологик функцияларининг такомиллашуви, ижтимоий-ахлоқий қадриятлар, хулқ-атвор меъёр ва қоидаларнинг ўзлаштирилиши, дунёқарашининг бойиш жараёни ва натижаси.

Ижтимоийлашувнинг муфассал тавсифини ва унинг педагогик фаолиятдаги ўрнини А.М.Столяренко қуйидагича келтириб ўтади: “Ижтимоийлашув жараёни ўзининг сифат хусусиятлари, таркиби, қонуниятлари, омиллари, шарт-шароитларига, бошқарилишига ва ижтимоийлашган инсонда намоён бўлишига (унинг хусусиятлари, сифатлари, ўзига хосликлари) кўра мураккабдир”. Ана шу сабабли у ўзида турли фанлар томонидан кўриб чиқиладиган ижтимоийлашувнинг хилма-хил – маданий, ахлоқий, ҳуқуқий, меҳнат, психологик кўринишларини акс эттиради. Педагогика ҳақида гап кетганда эса, бу соҳадаги ижтимоийлашув жараёни педагогиканинг предмети, соҳаси ва эҳтиёжларининг ўзига хослигини ҳисобга олиб, педагогик ижтимоийлашув тури сифатида алоҳида эътибор билан қараб

ўтилади. Бу инсоннинг дунёга келган вақтидан бошлаб ижтимоий белгиланган ва муҳим педагогик тажрибаларни – тарбияланганлик, таълим олганлик, маълумотлилик ва ривожланганлик ҳамда уларнинг келгусидаги бутун умри мобайнида муттасил ўзгариб бориши (мукаммаллашуви) жараёни ва юзага келиш натижасидир.

Иқтидорли ўқувчиларнинг ижтимоийлашуви мураккаб, узлуксиз ва кўплаб функцияларга эга жараён бўлиб, атроф-муҳит ва иқтидорли ўқувчи шахсига йўналтирилган фаолият, мулоқот, ўз-ўзини англаш, ўз-ўзини такомиллаштириш, ташқи муҳит билан индивиднинг ижтимоий алоқаларини кенгайтиришни талаб этувчи биологик, психологик, ижтимоий, маданий, педагогик даражалар билан боғлиқликда кўриб чиқишни тақозо этади.

Иқтидорли ўқувчиларни ижтимоийлаштириш жараёнининг асосий фарқли жиҳати ўз-ўзини ривожлантириш, ўз-ўзини такомиллаштириш ҳамда турли ҳаётий вазиятларда юзага келадиган муаммоларни ҳал этишнинг ностандарт усулларини ўзлаштириш инсонни тарбиялашда акс этади. Шу сабабли педагогик жараёнда ўзаро биргаликдаги ҳаракатда иқтидорли ўқувчида ўз устида мустақил ишлаш, эркин фикрлаш, ижодий ҳаёлот, ихтирочилик, яратувчанлик сифатларини шакллантириш муҳим аҳамият касб этади. Шунинг учун ҳам иқтидорли ўқувчиларни ижтимоийлаштириш маълум бир механизмларга асосланишни талаб этади.

Ижтимоийлашувнинг умумий механизмларига асосланган ҳолда, иқтидорли ўқувчиларни ижтимоийлаштиришнинг қуйидаги механизмларини ажратиш кўрсатиш мумкин:

анаънавий – оила ва атроф муҳит орқали иқтидорли ўқувчиларни ижтимоий фаолликка жалб этиш, фаолият ва мулоқотда мақбул шарт-шароитларни яратиш;

институционал – ижтимоий институтлар ва таълим муассасалари томонидан иқтидорли ўқувчиларнинг ривожланиши учун зарурий шарт-шароит ва имкониятларни яратиш;

шахслараро – иқтидорли ўқувчиларни ижтимоий алоқалар тизимида жалб этиш, уларда мулоқотмандлик малакаларини ривожлантириш;

рефлексив – ўз-ўзини англаш, ўз-ўзини баҳолаш, ўз-ўзини лойиҳалашни педагогик қўллаб-қувватлаш орқали индивидуал онгни тараққий эттириш.

Иқтидорли ўқувчиларни ижтимоийлаштиришнинг муҳим шарти уларда ижтимоий компетентлиликни қарор топтиришдир. Ижтимоий компетентлилик инсондан ижтимоий вазиятларга йўналганлик ва бошқариш қобилиятини талаб этувчи бошқа кишилар билан коммуникацияни йўлга қўйишда ўз ифодасини топади. Ижтимоий компетентлиликнинг асосий функцияларига мослашув, ижтимоий ориентация, шахс интеграцияси ва умумижтимоий тажрибани киритиш мумкин.

Иқтидорли ўқувчиларнинг ижтимоийлашувида “ҳамма сингари бўлиш” тамойилидан кўра, ўз-ўзини ва ўз индивидуаллигини намоён этиш эҳтиёжи устунлик қилади. Ана шу сабабли мазкур жараёнда шахс ва муҳит таъсирини уйғунлаштириш тақозо этилади.

Тажриба-синов ишларида иқтидорли ўқувчиларда ижтимоий компетентлиликни ривожлантириш муаммосининг долзарблиги ҳақида қатор хулосаларга келишга имкон берди. Ана шундай тенденциялардан бири иқтидорли ўқувчиларда ижтимоий малакалар бир хил ривожланмаган таълим муҳитининг ўзига хосликлари билан тавсифланиши кузатилди. Тажриба-синов ишларига иқтидорли ўқувчиларнинг сони тенг бўлмаган турли умумтаълим мактабларидан респондентлар иштирок этишди. Шартли равишда мазкур умумтаълим мактаблари уч гуруҳга ажратилди: умумий ўрта таълим мактаблари, умумий ўрта таълим мактабларининг айрим фанлар чуқурлаштириб ўқитиладиган синфлари ҳамда ихтисослаштирилган умумий ўрта таълим мактаблари.

Умумий ўрта таълим мактабларининг раҳбарлари, педагоглари, психологлари, ота-оналар ўртасида ўтказилган фокус-гуруҳ тадқиқот натижалари иқтидорли ўқувчиларнинг ижтимоийлашувида юзага келадиган қуйидаги муаммоларни ажратиш кўрсатиш имконини берди: умумий ўрта таълим мактабларининг стандарт синфларида таҳсил олувчи иқтидорли ўқувчилар фан олиипидаларида фаол иштирок этишади, бирор бир фанни чуқур ўрганиш билан шуғулланишади, тез-тез синф ижтимоий ҳаётидан узоқлашиб туриши кузатилади, синфдошлари билан ўзаро ишончли муносабатларни ўрнатишда қийинчиликларга дуч келишади. Бундай вазиятнинг юзага келиш сабаби мазкур турдаги мактабларда иқтидорли ўқувчиларга алоҳида педагогик диққат-эътибор қаратишда камчиликлар кўзга ташланади, педагог ва синф раҳбарларининг ўқувчининг объектив (ўқувчининг индивидуал-психологик хусусияти) ва субъектив (ўқувчининг тенгдошлари билан ўзаро биргаликда ҳаракатидаги салбий ҳолат, ўзаро алоқаларни йўлга қўйишда омадсизлик) жиҳатлари билан тавсифлануви синфда ўтказиладиган турли тадбирларда иштирок этмаётганлигига бефарқ қараши билан боғлиқ. Тажриба-синов натижалари спорт билан шуғулланишга иқтидори бор ўқувчиларнинг интеллектуал иқтидорлилардан фарқли равишда синф жамоаси томонидан ижтимоий қабул қилиниши сезиларли даражада юқори эканлигини кўрсатди. Спорт соҳасидаги ютуқлари ва имкониятлари ўқувчига синф жамоасини эркин, ортиқча қийинчиликларсиз қабул қилиш имконини беради. Шунинг учун спорт соҳасига иқтидори бор ўқувчиларнинг хулқ-атвори одатдаги болаларникидан деярли фарқ қилмайди, улар шахслараро интеграл муносабатларга фаол кириша олади, синф аъзолари билан бир хил ижтимоий малакаларга эга эканликлари билан тавсифланади.

Ихтисослаштирилган синфлар учун уюшқоқлик, гуруҳий идентификаторлик, шу билан бирга алоҳида ўқувчига нисбатан юқори даражадаги талабчанлик, ўзаро рақобатлашув тарзидаги гуруҳ ичидаги яширин низоларнинг хослиги тааллуқдир. Яна шуни ҳам қайд этиш лозимки, битта синфда ўқиётган иқтидорли ўқувчи ҳамма вақт ҳам жамоавий характерни ифода этавермайди. Лидерлик учун баҳслашиш, ўзининг устунлигини намоён этиш эҳтиёжи синф жамоасидаги муносабатларга юзаки қараш ва ўқувчиларда ижтимоий кўникмаларнинг ривожланишига тўсқинлик қилади. Яъни, ўқувчиларда шахсий ижтимоий тажрибани кенгайтириш ва социумда интеграцияни таъминлашни чеклашга олиб келади.

Ихтисослаштирилган умумий ўрта таълим мактабларида иқтидорли ўқувчиларнинг ота-оналари ва педагогик жамоа ўртасида яширин тарздаги низоларнинг мавжудлиги кўзга ташланди.

Ота-оналар ўзларининг болаларини ниҳоятда ноёб қобилиятли деб ҳисоблашган ҳолда, уларнинг билим олишлари учун энг мақбул шарт-шароитларни яратиб беришни, мактаб жамоаси томонидан турли ижтимоий тартибларнинг белгилаб қўйилмаслигини талаб этишади. Масалан, ота-оналарнинг жавобларидан шу нарса кўринадикки, улар мазкур мактабларда таҳсил олаётган болалари учун тарбиявий тадбирлар (тарбиявий соат, синфдан ва мактабдан ташқари машғулотлар)ни ўтказишга зарурият мавжуд эмас, деб ҳисоблашади. Аслида, мазкур тарбиявий тадбирларнинг асосий мақсади ўқувчиларнинг жамоа бўлиб шаклланиши, ижтимоий мақсад асосида ҳаракатланиш, ўзаро самарали мулоқотни йўлга қўйиш, бир сўз билан айтганда муваффақиятли ижтимоийлашувни таъминлаш назарда тутилади. Ана шу тариқа ота-оналар ўз болаларида ижтимоий ориентацияси учун зарурий имкониятларни чеклаб қўйишади, натижа эса, ижтимоий тузилмаларнинг барқарор тараққий этмаслигига олиб келади. Бу ўз навбатида болада ўз-ўзини адекват баҳолай олмаслик, ўзининг ижтимоий позицияси ҳақида нотўғри тасаввурларнинг шаклланишига олиб келади. *2022*

Ижтимоий тажриба иқтидорли ўқувчиларни ижтимоийлаштиришнинг интеграл натижавий тавсифини ўзида акс эттириб, фаолиятга йўналтирилган ва аксиологик ёндашувларга асосланишни талаб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 июндаги “Ёшлар – келажагимиз” Давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-5466-сон Фармони. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 15.08.2018 й., 07/18/3907/1706-сон.

Теплов Б. М. Способность и одаренность // Избранные труды: В 2 т. – М., 1985. Т.1. – 461 с.

2.Шумакова Н. Б. Одарённый ребёнок. Особенности обучения. Пособие для учителя. – М.: Просвещение, 2008. – 180 с.

Чудновский В. Э. Одаренность: дар или испытание. – М., 1990. – 140 с.

3.Хуторской А. В. Развитие одаренности школьников: Методика продуктивного обучения. Пособие для учителя.– М.: ВЛАДОС, 2000.– 320с.

4.Рензулли Дж. Модель школьного обучения // Основные современные концепции творчества и одаренности/ Под ред. Д. Б. Богоявленской. – М., 1997. – С. 214–242.

5. AD Usmanovna, ZA Nortazhova - Improving Technologies of Integrative Approach to Mother Language and Reading Literacy Lessons. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. 18. 167-169. 2023/3/26

6. AD Usmanovna - On the Example of Abdulla Avloni, The hero of the national Awakening period. Middle European Scientific Bulletin. 189-195. 2022/9/24

7. AD Usmanovna - Nature Relays on Children of Genius. Web of Synergy: International Interdisciplinary ..., 1.2. 2023-01-31

8. Azimova Dilfuza Usmanovna, Zakhro Alisherovna Nortazhova, Methods of Teaching Students to Grammatical Analysis in Mother Language and Reading Literacy Lessons. Improving Technologies of Integrative Approach to Mother Language and Reading Literacy Lessons, Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching: Vol. 18 (2023): EJLAT

9. Maxbuba Jumayeva Soatmurod qizi Azimova Dilfuza Modern methods of using folk proverbs in the process of educating elementary school students Volume 19| April 2023 Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching

10. A Dilfuza - Eurasian Journal of Learning and Academic ..., 2023 - geniusjournals.org Modern methods of using folk proverbs in the process of educating elementary school students Page 1 Volume 19| April 2023 ISSN: 2795-739X Eurasian Journal of Learning and Academic ...

11. Maftuna Ilhomovna Abdirashidova Dilfuza Usmanovna Azimova TEACHING PRIMARY CLASS STUDENTS TO THINK INDEPENDENTLY BASED ON THE COMPETENT APPROACH. Vol. 2 No. 4 (2023): Results of National Scientific Research International Journal Impact Factor

BOSHLANG'ICH SINIF "TARBIYA" DARSLARIDA ALISHER NAVOIYNING PEDAGOGIK QARASHLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.

Kazakova Marhabo Kudratovna

Qarshi DU. Boshlang'ich ta'lim kafedrasasi v.b. dotsenti

Qurbonova Sevara Sanjar qizi

Qarshi Du Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boshlang'ich sinif Tarbiya darslarining Odbnoma darslaridan farqli tomonlari, ajdodlarimiz merosidan foydalanish

imkoniyatlari va boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan

Kalit so'zlar: Tarbiya, Odobnoma, „Ijodiy faoliyat“, „Bilasizmi?“, „Odob durdonalari“, „Birgalikda bajaramiz“, „Hikmat“

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2020-yil 6-iyuldagi 422-son buyrug'iga asosan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi.

Yangi darslikning avvalgilaridan farqi nimada?

1. "Tarbiya" darsligi "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" hamda "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirdi.

2. 1-9-sinflarda 2020/2021-o'quv yilidan, 10-11-sinflarda esa 2021/2022-o'quv yilidan boshlab amaliyotga joriy etildi.

3. Darsliklarni tayyorlashda Yaponiyaning "Axloq ta'limi", Singapurning "Fe'l-atvor va fuqarolik ta'limi", Buyuk Britaniyaning "Tafakkur", "Xulq ta'limi" fanlari va darsliklari yaqindan o'rganildi.

4. Ilk marotaba darsliklarda XXI asr ko'nikmalari deb nom olgan "yumshoq ko'nikmalar" joriy qilindi. Darslik orqali o'quvchida bilim berishdan tashqari ko'nikma shakllantiriladi.

5. Yangi fan darsliklaridagi amaliyotga yo'naltirilgan mashg'ulotlar va mavzular o'quvchilarda muvaffaqiyat motivlarini uyg'otadi. Faol fuqarolik pozitsiyasi shakllantiriladi.

6. O'quv fani mohiyati 50% nazariy, 50% amaliy asosga qurilgan.

7. "Tarbiya" darsliklarida "role-model", ya'ni "namuna keltirish" zamonaviy pedagogik metodidan unumli foydalanilgan. Unda milliy va xalqaro miqyosda yuksak natijaga erishgan insonlar yutuqlari tahlil qilinadi.

8. Sinov tariqasida 1-9 sinfgacha bo'lgan darslik ustida bitta ijodiy jamoa ishlagan. Bu har bir sinf darsligi o'rtasidagi tafovut va takrorlanishlarni oldini olgan va bir butun, izchillikdagi darslik yaratilishita'minlangan.

9. Darslik yorqin, rangli, illyustratsiyalarga boy va har bir bo'limi o'ziga xos fon, milliy va umuminsoniy xulq, ijtimoiy malakani ifoda etgan rasmlar bilan ta'minlangan. Har bir darslik uchun video, audio, media materiallar jamlangan disk berilgan.

"Baxt va muvaffaqiyat sirlari" "Tarbiya" fanining epigrafi hisoblanadi. Baxt nima o'zi? Baxtning "Tarbiya" fani bilan qanday bog'liqligi bor? Baxtli bo'lish uchun insonda avvalo, ma'naviy va axloqiy yetuklik, insoniy fazilatlar, qadriyatlar, an'analarga hurmat, vatanparvarlik hislatlari shakllangan bo'lishi kerak. Yangi joriy qilingan "Tarbiya fani" milliy qadriyatlarimiz, sharqona qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlarimiz bilan chambarchas

bog'langan holda tuzilgan. Bu fan ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy me'rosga hurmat ruhini tarbiyalaydi. 2020-2021-o'quv yilida joriy qilingan 1-11-sinflar "Tarbiya" darsligi muqovasiga jadidchilik maktabining asoschisi Abdulla Avloniyning shunday fikrlari yozilgan. "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir". Bolalarimizni yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu fan rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalari va milliy, ma'naviy qadriyatlarimizning uyg'unligi asosida tuzilgan.

"Tarbiya" fanini o'qitishdan maqsad qilib quydagilardan iborat : O'quvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlash ya'ni oddiy munosabatlardan tortib, muzokaralargacha, insonlar bilan muloqotgacha, kasb tanlashgacha bo'lgan jarayonlarni o'zichiga qamrab olgan. O'quvchilarda mashqlar va maxsus topshiriqlar yordamida ijtimoiy ko'nikmalar shakllantiriladi.

XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish. Bulardan biri jamoaviylik ko'nikmasi. Darslikda berilgan loyiha ishlarini tayyorlash orqali o'quvchilar guruhlarda ishlaydi va jamoaviylik ko'nikmasi shakllanadi. Bundan tashqari hamkorlik qilish, insonlar bilan muloqot, hissiy aql, tanqidiy fikrlash, tafakkur tezligi kabi ko'nikmalarni o'zlashtiradi.

O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish. O'quvchilarda ma'naviy axloqiy fazilatlarni rivojlantirish "Tarbiya" fanining birlamchi maqsadlaridan biri hisoblanadi. Chunki, inson baxti, muvaffaqiyati, hayotdagi o'rni, taqdiri bevosita uning ma'naviy-axloqiy hayoti bilan bog'liq hisoblanadi.

Raqobatbardosh va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash.

Darslikning o'ziga xosligi: Ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan va nazariy bilimlardan qochilgan. O'quvchilarda mashqlar va amaliy mashg'ulotlar jarayonida mustaqil ishlash ko'nikmasi shakllantiriladi.

Amaliyotga yo'naltirilgan ya'ni hayotga duch keladiga vaziyatlarda o'quvchi o'zini qanday tutishi, vaziyatdan qanday chiqib ketishi turli xil vaziyatlar orqali ochib berilgan.

-Vatanparvarlik va faol fuqorolik pozitsiyasini shakllanadi;

-tanqidiy fikrlash va liderlik ko'nikmalarni shakllantiradi.

„Odabnoma“dan „Tarbiya“ ga qaratilgan yo'l. Boshlang'ich sinflarda o'tilayotgan G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi tomonidan chop etilgan "Tarbiya" darsligini yangicha yondashilgan va mukammallashtirilgan qo'llanma, desak, to'g'ri bo'ladi. Ushbu darslik chiroyli ko'rinishga egaligidan tashqari, mavzular yaxshi tanlangan. 1-2-sinf „Tarbiya“ darsligiga jamoat joylarida o'zini tutish, o'zini himoya qilish, tashqi ko'rinish va muomala odobi, ekologik madaniyat va to'g'gri ovqatlanish kabi bugungi kunga mos, dolzarb mavzular kiritilgan. 3-sinf „Tarbiya“ darsligida yuqoridagi mavzulardan

tashqari, elektron manbalardan to'g'ri foydalanish, shaxsiy gigiyena va madaniyat, insoniy fazilatlar, kasb tanlash, iqtisodiy bilimlar mavzulari ochib berilgan.

Darslikda „O'quvchilarni faollashtirish uchun savol va topshiriqlar“, „Oila davrasida“, „Ijodiy faoliyat“, „Bilasizmi?“, „Odob durdonalari“, „Birgalikda bajaramiz“, „Hikmat“ kabi sahifalar bor. Har bir mavzuni yoritishdan oldin „O'quvchilarni faollashtirish uchun savol va topshiriqlar“ sahifasida mavzuga mos savollar berilgan. Savollarga javob berish uchub, tabiiyki, o'quvchilardan fikrlash talab etiladi. Bu esa u yoki bu mavzuga tanqidiy yondashib, mulohaza yuritish, o'z shaxsiy fikrini erkin bayon etish ko'nikmasini rivojlantiradi. „Bilasizmi“ sahifasida qo'shimcha qiziqarli ma'lumotlar berib boriladi. „Odob durdonalari“ va „Hikmat“ sahifalaridan esa mavzuga oid hikmatli so'zlar joy olgan. „Ijodiy faoliyat“ sahifasida o'quvchi o'z ustida ishlash ko'nikmasiga ega bo'ladi. Bu darslikning boshqalardan asosiy farqi, yangicha yondashuv – psixologik jihatdan o'quvchilar o'z ustida ishlashi va o'zlarini anglash, nazorat qilish kabi xususiyatlarni rivojlantiruvchi topshiriqlar berilgan.

2-sinf „Tarbiya“ darsligida 18-mavzu „Yaxshi va yomon odatlar“. Bunda mavzuni ochib beruvchi hikoya keltirilga bo'lib, o'quvchilar undagi yaxshi va yomon odatlar haqida fikrini bayon etishi, hikoyaning davomini qanday bo'lishi haqida o'ylashi talab etiladi. „Ijodiy faoliyat“ sahifasi „Yomon odatlardan qanday qutilish kerak?“ nomi ostida psixologik topshiriq berilgan: Ikkita alohida varoq olib, biriga o'zingizning yaxshi odatlaringizni, ikkinchisiga yomon odatlaringizni yozing. Ikkinchi varaqni hech kimga ko'rsatmay, maydamayda bo'lakchalarga bo'ling. Shunday maydalanki, undagi yozuvni o'qib bo'lmasin. So'ngra uni hovliga olib chiqib ko'mib qo'ying. Birinchi varaqni esa „Tarbiya“ fani daftaringizga yopishtiring. Har safar siz yomon deb hisoblagan odatlarni qilmoqchi bo'lsangiz, o'zingizga „Men yomon odatlarni ko'mib qo'rganman, qaytib bu ishni qilmayman“, deb ayting. Shu tariqa yomon odatlardan qutulasiz. Bu boladagi salbiy odatlarni bartaraf etishning samarali usullaridan biri.

Bugungi kunda o'quvchilar orasida asabiylik, stress, jizzakilik kabi holatlar tez-tez kuzatilmoqda. Avval darsliklarda psixologik bilim va ko'nikmalar berilmagan. Oiladagi turli muammolarda yoki murakkab vaziyatga tushganda maktabda, ko'chada noto'g'ri harakat qilish holatlari haqida eshitib qolamiz. Tarbiya darsligida psixologik yondashuv asosida yangi mavzular kiritilishidan maqsad o'quvchi-yoshlarga bilim hamda tarbiya berishdan tashqari, psixologik ko'nikmalarni hosil qilishdan iborat. Chunki, har qanday holat vaziyatga psixologik jihatdan to'g'ri yondashilsa, murakkab vaziyatlardan chiqish o'quvchilar uchun qiyin bo'lmaydi. Bu esa o'quvchilarning bilimli bo'libgina qolmay, psixologik jihatdan vaziyatga to'g'ri baho berilishi o'quvchilar orasida salbiy vaziyatlar yuzaga kelishining oldini olish, to'g'ri fikrlashni o'rgatish uchun qo'yilgan qadamdir.

1-sinf “Tarbiya” darsligi tahlili.

Tarbiya: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinf o'quvchilari uchun darslik. 1-nashr. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 64 bet

Tuzuvchilar: Ismatova Nargiza, Ro'ziyeva Dilnoz, Islomov Zohidjon, Rahimjonov Durbek, Sattorov Shuhrat, Zamonov Zokir, Mahmudov Obiddin, Zokirova Sevara, Mamadaliyeva Sevara, Shermuhamedova Saodat, Akkulova Saodat, Mo'minova Laylo, Xolmuhamedova Nilufar.

“Odobnoma” va “Tarbiya” darsliklarining solishtirmasi:

1-jadval

Odobnoma	Tarbiya
Boblar soni	
6 ta	2 ta
Mavzular soni	
25 ta mavzu 2ta amaliy 2 ta nazorat ishi 3 ta takrorlash 1 ta yakuniy dars Jami:33 soat	20 ta mavzu 30 soatga mo'ljallangan. 2 ta takrorlash 1 ta yakuniy dars Jami:33soat
Darslikning bichimi	
70 x 90	60 x 84
Rasmlar soni	
120 ga yaqin	250 dan ortiq

1-sinf o'quvchisi darslikni o'qib tugatgandan so'ng yil yakunida egallashi kerak bo'lgan B.K.M lar quyidagilardan iborat.

- mas'uliyatni angelaydi;
- hamkorlik qila oladi;
- orzularini aniqlay oladi;
- o'rnatilgan odob me'zonlariga amal qiladi.

–2-sinf o'quvchisi darslikni o'qib tugatgandan so'ng yil yakunida egallashi kerak bo'lgan B.K.M lar quyidagilardan iborat.

- o'z oldiga maqsad qo'ya oladi;
- mas'uliyatni angelaydi;
- muomala odobiga rioya qiladi;
- tirishqoqlikni namoyon qiladi;
- takliflarini ifodalay oladi;
- o'z hatti-harakatlarini baholaydi.

–3-sinf o'quvchisi darslikni o'qib tugatgandan so'ng yil yakunida egallashi kerak bo'lgan B.K.M lar quyidagilardan iborat.

- maqsadlarini amalga oshirishga harakat qiladi;
- Oila va jamoadoshlari oldida o'zining ma'uliyatini angelaydi;
- kommunikativlik sifatlariga ega bo'ladi;
- tashqi ko'rinish etikasiga amal qiladi;

- sabr-qanoat, shukronalik, qat’iy irodali bo’lishga intiladi.
- 4-sinf o’quvchisi darslikni o’qib tugatgandan so’ng yil yakunida egallashi kerak bo’lgan B.K.M lar quyidagilardan iborat.
- Vatan haqidagi tushunchalari kengayadi;
- hayotiy maqsadlari shakllanadi;
- to’g’ri harakatlarni qo’llab quvvatlaydi;
- jamoada ishlay oladi;
- hamkorlik qila oladi;
- etika qoidalariga amal qiladi.

Ta’lim bering, rag’batlantiring, o’zgartiring!!!

Hozirgi kunda boshlang’ich sinfdanoq allomalarimizning bizga qoldirgan boy ma’naviy me’rosini o’rgatish, talim-tarbiyani shakllantirishda ularning pand nasihatlaridan foydalanishga keng ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, boshlang’ich sinf “Tarbiya” darslarida Sharqning buyuk mutafakkiri Alisher Navoiy hayoti va ijodi bilan bir qatorda hikmatli so’zlari ko’plab mavzularda keltirib o’tilgan. Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalqning turmush tajribasiga tayanib ma’lum bir saxs tomonidan yaratilgan qisqa, obrazli barqaror birikmalarga hikmatli so’zlar (aforizmlar) deyiladi. [19,91-b]

Hikmatli so’zlar (aforizmlar) barqarorlik, mazmuniy yaxlitlik, takroriylik, belgilariga ko’ra boshqa barqaror birliklar bilan umumiylik kasb etsa ham, aniq muallifining borligi bilan ulardan farq qiladi. Hikmatli so’zlarni o’rganib, xotirada saqlab, nutqda o’rinli qo’llay bilish kishining gapni o’z o’rnida qo’llay olish so’z san’atkori bo’lishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Mirziyoyev. Sh. “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to’g’risida” qarori
<http://uza.uz/oz/document/buyuk-shoir-va-mutafakkir-alisher-navoiy-tavalludining-580-y-19-10-2020>
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi “Xalq so’zi” 29.12.2018
3. Mirziyoyev. Sh. “2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha harakatlar strategiyasi”. 2017- y. 7-fevral, PF-4947 sonli qarori.
4. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent.: “Ma’naviyat” 2008. – 108 b
5. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. 13-jild. – T.: Fan, 1967, 155-bet 6. .
7. Akkulova S. va boshqalar “Tarbiya” Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 3-sinf o’quvchilari uchun darslik. 1-nashr. – T.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 71 bet
8. Ismatova N. va boshqalar “Tarbiya” Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 1-sinf o’quvchilari uchun darslik. 1-nashr. – T.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 64 bet

9. Ismatova N. va boshqalar “Tarbiya” Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 2-sinf o’quvchilari uchun darslik. 1-nashr. – T.: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 64 bet

10. Kazakova M. K. Shodiyev R.D. Scientific And Spiritual Heritage Of The Eastern Thinker Aziziddin Nasafi, The Place Of The Human Factor In It The American Journal of Social Science and Education Innovations 304 S. Jones Blvd #5245 Las Vegas, NV 89107 USA Impact Factor 5.366 Voleme 02. Crossref dio. 10.37547/tajssei 2020.31.07 -№.2. –P.264-269

11. Nishonova. S Komil inson tarbiyasi. – T.: Istiqlol, 2003

12. Zohidov. V. Ulug’ shoir ijodining qalbi. – T.: O’zbekiston, 1970, 152-bet

13. Shermuhamedova Saodat, va boshqalar “Tarbiya” Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 4-sinf o’quvchilari uchun darslik. 1-nashr. – Toshkent. “O’zbekiston” 2020.

BOSHLANG’ICH TA’LIM YO’NALISHI TALABALARDA Eko-STEAM YONDASHUVNING IMKONIYATLARI

Kuchkinov Abdumalik Yuldashovich,

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Boshlang’ich ta’lim metodikasi”
kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori, (PhD)*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o’quvchilarga ekologik ta’lim berish, Eko-STEAM ta’limi fanlararo va o’quvchilarni amaliyotga yo’naltirish Fizika, Biologiya, Geografiya, Informatika, Texnologiya, Tasviriy san’at hamda muhandislik tafakkuri, tasavvur, hamkorlik, ijodiy qobiliyatlarni namoyon qilish, sinfdan tashqari mustaqil ta’lim orqali fanlararo ekologik madaniyatini shakllantirish haqida fikr yuritilgan.*

Kirish. Yeko-STEAM yondashuvining ijtimoiy-tarixiy rivojlanishi sanoat davrida va undan keyingi davrda yekologik muammolar tufayli yuzaga kelgan yehtiyojdan kelib chiqadi. Bu davrda tabiiy resurslar tez iste’mol qilina boshladi, tabiiy muhitning ifloslanishi kuchaydi va iqlim o’zgarishi kabi salbiy tabiiy hodisalar ro’y bera boshladi.

Ushbu o’zgarishlar odamlarni tabiat bilan munosabatlarini qayta ko’rib chiqishga olib keldi va tabiiy resurslarni muhofaza qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish to’g’risida xabardorlik shakllandi. Ushbu jarayon davomida yekologik muammolarni hal qilish uchun turli xil yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Ushbu jarayonda tabiiy resurslarni muhofaza qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida yeko-STEAM yondashuvi ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuv fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani (STEAM) yekologik xabardorlik (Eko) bilan birlashtirib, talabalarga yekologik muammolarni tushunish, yechimlar yaratish va yekologik toza hayot kechirish imkonini beradi.

Yeko-STEAM yondashuvini boshlang’ich ta’lim yo’nalishi bo’yicha talabalarning yekopedagogik kompetensiyasini rivojlantirishda yeng yangi

shaklga yega bo'lgan davom yetayotgan jarayonlardan biri deb hisoblash mumkin. Ushbu yondashuv talabalarga tabiiy resurslarni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishi, yenergiya resurslari, atrof-muhitning ifloslanishi va barqaror rivojlanish to'g'risida bilim berishga qaratilgan.

Shu nuqtai nazardan, Yeko-STEAM yondashuvi talabalarga tabiatga sezgir bo'lishga va tabiiy resurslardan barqaror foydalanishga imkon beradi. Ushbu yo'nalishda yondashuv talabalarga yekologik jihatdan sezgir munosabatda bo'lishga, yekologik toza loyihalarni ishlab chiqishga va bilimlarni amaliyotga aylantirish orqali atrof-muhitga hissa qo'shishga qaratilgan.

Yeko-STEAM yondashuvi talabalarining yekopedagogik kompetensiyasini rivojlantirishda qo'ydagi g'oyalari va tushunchalaridan iborat,

- Yeko-STEAM yondashuvi talabalarga barqarorlik to'g'risida bilim olishga va kelajak avlodlar uchun o'zgarimas dunyoni tark yetish uchun yekologik toza dasturlarni ishlab chiqishga imkon berishga qaratilgan.

- Yeko-STEAM yondashuvi talabalarga yekologik toza turmush tarzini qabul qilish, tabiiy resurslarni himoya qilish va atrof-muhit ifloslanishiga qarshi kurashishga imkon beradi.

- Yeko-STEAM yondashuvi (STEAM va Yeko) (ekologik xabardorlik) tushunchalarini birlashtirib, talabalarga tabiiy resurslarni saqlash va atrof-muhit muammolari to'g'risida bilim olishga imkon beradi.

- yekologik STEAM yondashuvi talabalarga yekologik muammolarni tushunishga, yekologik toza yechimlarni ishlab chiqishga, yenergiyani tejashga va atrof-muhitni muhofaza qilishga imkon beradi.

yeko-STEAM yondashuvi talabalarga o'z ijodidan foydalangan holda yekologik toza loyihalarni ishlab chiqishga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan, talabalar texnologik vositalar, san'at va matematika kabi turli sohalarni birlashtirib, innovatsion loyihalarni ishlab chiqishlari mumkin.

Yeko-STEAM yondashuvi ijtimoiy ishtirokning ahamiyatini ko'rib chiqadi. Talabalar jamiyatda tabiiy resurslarni muhofaza qilish va atrof-muhitning ifloslanishiga qarshi kurashish to'g'risida xabardorlikni shakllantirish orqali faol rol o'ynaydi.

Ushbu g'oyalar va tushunchalar Yeko-STEAM yondashuvining asosini tashkil yetadi va talabalarga atrof-muhit muammolari to'g'risida xabardor bo'lish, yekologik toza loyihalarni ishlab chiqish va kelajakda tabiiy resurslarni muhofaza qilish bo'yicha ish olib borish imkoniyatini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yekopedagogik kompetensiyasini rivojlantirishda Yeko-STEAM yondashuvining turli mezonlari mavjud. Ushbu mezonlar qatoriga quyidagi farmonlar kiradi:

Yekologik sezgirlik: yeko-STEAM yondashuvi talabalarining yekologik sezgirlikni yaxshilaydi. Ushbu mezon talabalarga tabiiy resurslarni muhofaza qilish, yenergiyani tejash, qayta ishlash va yekologik toza turmush tarzi to'g'risida xabardorlikni berishga qaratilgan.

Hamkorlik: yeko-STEAM yondashuvi hamkorlikni rag'batlantiradi. Bu mezon talabalarga bir-biri bilan hamkorlik qilish orqali tabiatga mos loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradi.

Ijodkorlik: yeko-STEAM yondashuvi ijodkorlikni rag'batlantiradi. Ushbu mezon talabalarga yangi va ijodiy g'oyalarni ishlab chiqish orqali tabiatga mos texnologiyalarni yaratish va qo'llashga imkon berishga qaratilgan.

Bilimlarni to'plash: yeko-STEAM yondashuvi talabalarga yekologik toza texnologiyalar va innovatsiyalar qanday ishlashi haqida bilim olishga imkon beradi. Ushbu mezon talabalarining texnologiya haqida bilimga yega bo'lishlarini va texnologiyaning uning tabiatiga ta'sirini tushunishlarini ta'minlashga qaratilgan.

Kirish imkoniyati: Yeko-STEAM yondashuvi tabiiy resurslarni muhofaza qilish va yekologik jihatdan sezgir bo'lish kabi muammolarni hamma tushunadigan tarzda hal qiladi. Ushbu mezon talabalarga tabiiy resurslarni muhofaza qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida bilimlarga yega bo'lish va ularni qo'llashning oddiy usullarini o'rganishga qaratilgan.

O'ziga ishonch: yeko-STEAM yondashuvi talabalarga o'zlariga ishonish imkonini beradi. Ushbu mezon talabalarga tabiiy resurslarni muhofaza qilish va atrof-muhit masalalarida muvaffaqiyatli bo'lishlari mumkinligiga ijobiy munosabat beradi.

Ushbu mezonlar talabalarining yekopedagogik kompetensiyasini yaxshilash uchun Yeko-STEAM yondashuvi tomonidan qo'llaniladigan asosiy mezonlardir. Ushbu yondashuv talabalarga tabiatga nisbatan sezgir munosabatni namoyon yetishga, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida xabardor bo'lishga va tabiatga do'stona hayot kechirishga yordam beradi.

Yeko-STEAM yondashuvi boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quvchilarning yekopedagogik kompetensiyasini rivojlantirishda turli usul va vositalardan foydalanadi.

Yeko-STEAM yondashuvi talabalarga yekologik muammolar bilan bog'liq loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Loyihalar talabalarining tabiiy resurslarni muhofaza qilish, qayta ishlash, yenergiyani tejash va tabiatga mos hayot haqida xabardorligini oshirishga qaratilgan. Yeko-STEAM yondashuvi hamkorlikni rag'batlantiradi. Talabalar bir-biri bilan hamkorlik qilish orqali tabiatga mos loyihalarni ishlab chiqishlari va ushbu loyihalarni amalga oshirishlari ta'minlanadi. Yeko-STEAM yondashuvi talabalarga yeksperimentlar o'tkazish usulidan foydalangan holda tabiiy resurslarni muhofaza qilish va atrof-muhitga sezgirlik kabi masalalar to'g'risida tushuncha beradi. Talabalar tajribalar orqali atrof-muhitga qanday ta'sir qilishini va tabiiy resurslarni qanday himoya qilish mumkinligini o'rganadilar. Yeko-STEAM yondashuvi talabalarga texnologiyadan foydalangan holda yekologik toza loyihalarni ishlab chiqishga imkon beradi. Talabalar texnologiyadan foydalangan holda yenergiya tejash, qayta ishlash, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va atrof-muhitga sezgirlikni oshiradigan dasturlarni ishlab chiqishlari

mumkin. Yeko-STEAM yondashuvi talabalarga tabiatda faoliyat yuritish orqali tabiat bilan uyg'unlikda yashashni o'rganishga imkon beradi. Talabalar tabiat bilan o'zaro aloqada bo'lib, tabiiy hududlarga tashrif buyurishadi va atrof-muhit muammolari to'g'risida ma'lumot olishadi. Yeko-STEAM yondashuvi drama va hikoya qilish kabi ijodiy usullardan foydalangan holda talabalarning tabiiy resurslarni muhofaza qilish va atrof-muhitga nisbatan sezgirligini oshirishga qaratilgan. Talabalar drama va hikoyalar orqali atrof-muhitga sezgirlik to'g'risida bilimlarga yega bo'ladilar.

Yeko-STEAM yondashuvi talabalarning yekopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun turli usul va vositalardan foydalanadi. Ushbu yondashuv tufayli talabalar tabiiy resurslarni muhofaza qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida bilib olishadi, shu bilan birga ularning ijodidan foydalangan holda loyihalarni ishlab chiqadilar.

Yeko-STEAM yondashuvi bilan bog'liq umumiy qonunlar orasida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quvchilarning yekopedagogik kompetensiyasini rivojlantirish quyidagilardan iborat: Yeko-STEAM yondashuvi, yeko-STEAM yondashuvi, yeko-STEAM yondashuvi, Yeko-STEAM yondashuvi, yeko-STEAM yondashuvi Dec:

Shaxsiy farqlar: har bir talaba har xil va turli xil o'quv uslublariga yega. Yeko-STEAM yondashuvi talabalarga individual o'rganish uslublarini hisobga olgan holda o'rganish imkonini beradi.

O'quv faoliyati: talabalarning faol o'rganishi amalga oshirilgan o'quv faoliyati bilan ta'minlanadi. Yeko-STEAM yondashuvi talabalarga hayotiy vaziyatlarga muvofiq loyihalarni amalga oshirish va yekologik toza dasturlarni ishlab chiqish orqali o'rganishni faollashtiradi.

Hamkorlik: yeko-STEAM yondashuvi talabalarni bir-biri bilan hamkorlik qilishga undaydi. Hamkorlik talabalarga birgalikda ishlashga va bir-birlarining g'oyalari va bilimlaridan foyda olishga imkon beradi.

Ishtirok yetish: yeko-STEAM yondashuvi talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok yetishiga qaratilgan. Talabalar loyihalarni amalga oshirish va hayotiy vaziyatlarga mos misollar yaratish orqali faol o'rganadilar.

Xabardorlik: yeko-STEAM yondashuvi talabalarga tabiiy resurslarni muhofaza qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida xabardorlikni rivojlantirishga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan, u ma'lumotlarning mavjudligini oshirish va ilmiy xabardorlik darajasini oshirishga ahamiyat beradi.

Barqarorlik: yeko-STEAM yondashuvi talabalarga barqarorlik to'g'risida xabardorlikni beradi. Ushbu mezon talabalarni o'z yehtiyojlarini qondirish uchun barqaror muhitni yaratish ustida faol ishlashga va kelajakda sog'lom va barqaror dunyoni yaratish uchun zarur bo'lgan narsalarni o'rganishga yo'naltiradi.

Ushbu umumiy qonunlar talabalarning yekopedagogik kompetensiyasini rivojlantirish uchun Yeko-STEAM yondashuvi tamoyillarini tashkil yetadi. Ushbu yondashuv tufayli talabalar o'quv faoliyati orqali yekologik

xabardorlikka yega bo'ladilar va yekologik toza amaliyotlarni amalga oshirish orqali atrof-muhitga hissa qo'shadilar.

Natija: Yeko-STEAM yondashuvi bilan boshlang'ich maktab yo'nalishi bo'yicha o'quvchilarning yekopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishda kutilayotgan natijalar. Tabiiy resurslarni muhofaza qilish: yekologik STEAM yondashuvi bilan talabalarning tabiiy resurslarni muhofaza qilish, yekologik qarorlarni qabul qilish jarayonida faol ishtirok yetish. Ushbu yondashuv talabalarning ilmiy, texnologik, muhandislik va matematik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shu tarzda talabalar yekologik muammolarni hal qilish uchun tegishli ko'nikmalarga yega bo'ladilar.

Yeko-STEAM yondashuv turli xil ta'lim imkoniyatlari tufayli talabalar tadqiqot, kashfiyot va ijodiy yechimlar uchun muammolarni hal qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydilar. Yeko-STEAM yondashuvi talabalarning ijtimoiy ishtirokni yaxshi bilishlari uchun ham samaralidir. Yondashuv, birinchi navbatda, talabalarni ijtimoiy ong darajasi yuqori bo'lgan shaxslar sifatida tarbiyalash orqali atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy hissasiga hissa qo'shadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Eko-STEAM yondashuvi boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekopedagogik kompetensiyalarini takomillashtirish va STEAM, badiiy, dizayn va ekologik ta'lim sohalarida ularning mahoratini oshirish nuqtai nazaridan innovatsion yechimdir. Ushbu yondashuv talabalarga barqaror yashash uchun zarur ko'nikmalarni egallashga va kelajakdagi ekologik muammolarni bartaraf yetish uchun zarur bilim va ko'nikmalarni egallashga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. <https://lex.uz/docs/6445145>. 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy yetish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 3931-son Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-son **farmoni** Toshkent, 2019-yil 30-oktyabr.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022 yildagi PF-134-son farmoni.

5. Yuldashovich K. A. STEAM integrated yeducational technology in yenhancing yeco-learning yeffectiveness //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 11. – S. 01-05.

6. Kuchkinov AY Boshlangich sinf oquvchilarini tabiatni yezozlash ruhida tarbiyalash //Oqituvchilar uchun metodik qollanma–T.; "Fan va texnologiya. - 2012. - T. 88.

7. Sousa, D. A., & Pilecki, T. (2013). From STEM to STEAM: Using brain-compatible strategies to integrate the arts. Thousand Oaks: Corwin Press.

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI-O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA LEKSIK TUSHUNCHALAR

Mahbuba QODIROVA

Termiz davlat pedagogika instituti magistri

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf zamonaviy ona tili darslarida leksik tushunchalar haqida tasavvur hosil qilish haqida yozilgan. Maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida o'quvchilarda leksik tushunchalart tizimi haqida tasavvur hosil qilish metod va texnologiyalari asosida tashkil etishning samarali shakl va usullarini aniqlashdan iborat.

Kalit so'zlar: leksikologiya, so'z va leksika, lug'at ustida ishlash, mazmun, mohiyat, shakl, metod, vositalar.

Аннотация: Данная статья написана о формировании представления о лексических понятиях в современных классах родного языка начальной школы. Цель статьи - определить эффективные формы и методы организации на основе методов и технологий формирования представления о системе лексических понятий у учащихся на занятиях по основному языку и чтению.

Ключевые слова: лексикология, слово и лексика, работа над лексикой, содержание, сущность, форма, метод, средства.

ABSTRACT: This article is written about creating an idea about lexical concepts in modern mother tongue classes of primary school. The purpose of the article is to determine the effective forms and methods of organization based on the methods and technologies of creating an idea of the system of lexical concepts in students in the primary language and reading classes.

Keywords: lexicology, word and lexicon, work on vocabulary, content, essence, form, method, tools.

Shavkat Mirziyoyev o'zbek tilini rivojlantirish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan chora-tadbirlar to'g'risidagi farmonni imzoladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonni imzoladi. Farmonga muvofiq, 2020—2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi hamda asosiy yo'nalishlari tasdiqlandi. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida "O'zbekiston milliy qomusi" jildlarini nashr etishni bosqichma-bosqich ko'paytirib borish, 2020-yilda o'zbek tilining lug'at boyligini oshiruvchi 15 ta lingvistik, sohaviy-terminologik, izohli lug'atlar yaratish ham asosiy yo'nalishlar qatoridan o'rin olgan. Dasturiy mahsulotlarning o'zbekcha ilovalari va elektron lug'at dasturlarini yaratish, xorijliklar uchun o'zbek tilini o'rgatuvchi dasturlar yaratish farmonida asosiy yo'nalishlar qatoriga kiritilgan

Boshlang'ich ta'limni isloh qilish, o'quvchilarni kichik yoshdan boshlab mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish shart-sharoitlarini yaratish o'qituvchidanzamonaviy o'qitish texnologiyasi asoslarini bilishni, ularni amalda qo'llay olishnitalab etadi.Ayniqsa, o'quvchilarni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda lug'atlariniboyitish. Nutqini boyitish va erkin fikrlashga o'rgatish eng asosiy vazifalardan biridir.Xar qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o'zaro bog'lagan mazmungamos so'z va so'z birikmalarining ma'lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug'ati qanchalik boy va rivojlangan bo'lsa, uning nutqi ham shunalik boy bo'ladi va o'z fikrini aniq va ifodali bayon etishga keng imkoniyat yaratiladi.Boshlang'ich ta'limda o'qituvchi ona tili va o'qish darslarida lug'at ustidaishlash usuli to'rt asosiy yo'nalishni ko'zda tutadi.

Tilda mavjud bo'lgan barcha so'zlar va iboralar yig'indisi leksika deyiladi.So'z yoki leksika haqida dunyoning taniqli tilshunos olimlari o'zlarining fikr mulohazalarini bildirishgan.

So'z-bu **nutq** tovush yoki tovushlarning birlashuvi yoki **yozma ravishda** ifodalanishi, bu ma'noni ifodalaydi va bildiradi va bitta **morfemadan** yoki **morfemalardan** iborat bo'lishi mumkin.

"So'z bu **so'zlar**, **so'zlarning** yozma **tilda** bo'linishi va so'zlashuvlarda pauza bilan ajratib qo'yilishi mumkin bo'lgan yagona **grammatik** birlikdir".(Devid Kristal, *Kembrij ingliz tili ensiklopediyasi*, Kembridj universiteti matbuoti,2003)

"Grammatika...ikkita asosiy tarkibiy qismga bo'linadi **sintaksisi** va **morfologiyasi**. Bu bo'linma **so'zning** maxsus maqomidan asosiy lingvistik birlik bo'lib, sintaksis so'zlarning kombinatsiyasi bilan shug'ullanadigan jumlar va morfologiya shakllari bilan bog'liq so'zlarning o'zi.(R.Huddleston va G.Pullum,*Kembrij ingliz tilining grammatikasi*,Kembridj universiteti matbuoti,2002).

"Biz **so'zlardan** ko'ra ko'proq narsani qilishni istaymiz, biz ular bilan soatni qaymoq bilan to'ldirishga harakat qiladigan narsalarni yoki kichkinagina miniatyuralarni suratga olishni xohlayotgan narsalarni qilishga harakat qilamiz, biz ularni ushlab va tarqatish uchun bizga yordam berishlarini kutamiz ammo aslida ular bilan yashashga majbur bo'ldik va biz ularga qo'shnilarimiz kabi muomala qilishimiz va ulardan eng yaxshisini emas, balki eng yaxshisini qilishimiz kerak".(Shomuil Butler, *Shamuil Butlerning 1912yilgi Eslatma kitoblari*).

So'zlar. "Chexiya tadqiqotlari ..**so'zlarni** (boshqalarni hayratda qoldiradigan klassik strategiyani)ishlatish aql-idrokka ta'sir qilishiga qaradi.Intsipvuitiv, ulkan so'zlashuvlarning ishtirokchilari mualliflarning miya quvvatining taassurotlarini kamaytirdi."(Julie Beck,"Qanday qilib aqli bo'lish mumkin?"*Atlantika*,2014yilsentabr)

So'zlarning kuchi. "Insonning abadiy buyruqlar berish muddatini uzaytirishga ega bo'lgan asosiy vositalar shartli bo'lib, umuman olganda **simvolizmda**, xususan, **nutqda mavjud** bo'lib, odamlar uchun ramz sifatida

qabul qilinadigan **so'zlar** abadiy moslashuvchan shartli semantik har qanday boshqa kuchli rag'batlantiruvchi sifatida inson uchun "haqiqiy" va samaralibo'lgan "stimulyator".

So'z–nutq orqali voqeylanib, ma'lim bir tushuncha anglatuvchi tilbirligidir.

So'zning lug'aviy va grammatik ma'nolari

So'zlar obyektiv bog'liq bo'lgan narsa va hodisalar haqidagi tushunchalarni ifodalaydi. Bunday tushunchalarning ifodalanishi so'zning lug'aviy ma'nosidir. Masalan, paxta so'zi asosida oppoq, yumshoq predmetni tushunilishi shu so'zda mavjud bo'lgan lug'aviy ma'nodir.

So'zlar lug'aviy ma'no ifodalashiga ko'ra tilda o'ziga xos mustaqillikka ega bo'lgan, lug'aviy jihatdan shakllangan birliklardir. Lug'aviy ma'no so'zlaraning birlamchi, asosiy, nutqdan tashqaridagi ma'nosi bo'lib, shu ma'no orqali so'zlar narsa -hodisalar haqidagi tushunchalarni ifodalaydi. Tushuncha esa narsa-hodisalarning kishi ongida aks etishidir. So'zlar lug'aviy ma'nosiga ko'ra leksikalogiyaning tekshirish obyektidir.

Nutqda so'zlar faqat lug'aviy birlik bo'lib qolmaydi, balki nutq vositasiga aylanadi, ya'ni o'zaro birikadi, bog'lanadi. Bu jarayonda so'zlar turli qo'shimcha ma'nolarni ifodalaydi. Turli munosabatlarni bildiruvchi bunday ma'nolar lug'aviy ma'nodan tashqaridagi qo'shimcha grammatik ma'nodir.

Grammatik ma'no so'zning shakliy ma'nosidir. Masalan, kitoblar so'zida grammatik ko'plik ma'nosi mavjud bo'lsa, kitobning so'zida kelishik ma'nosi mavjud. Grammatik ma'no o'zaro munosabatlarni ifodalashi bilan birga so'zlar uchun umumiy bo'lgan ma'nolarni ham o'zida birlashtiradi. Masalan, biz a'lo o'qish uchun harakat qilamiz gapidagi egalik, shaxs-son va zamon ma'nolari munosabatni anglatadi, kitobning, uyga, darsdan so'zlaridagi qo'shimchalar ushbu so'zlar uchun umumiy ma'no-kelishik ma'nosidir. Lug'aviy ma'noga qo'shimcha ravishda bu xildagi turli ma'nolarni ifodalanishi grammatik ma'no deyiladi.

Grammatik ma'no umumiydir. Jumladan, otlardagi egalik, kelishik, ko'plik ma'nolari grammatik ma'nolardir. Grammatik ma'nolarni hosil qiluvchi turli usullar mavjud:

1. Qo'shimchalar. So'zlarning o'zak va negiziga turli qo'shimchalar qo'shilishi orqali grammatik ma'no hosil bo'ladi. Masalan, kitoblar, bolalar, uydan, ishdan, ishga, oq, yozish kabi.

Yordamchi so'zlar. Yordamchi so'zlar, asosan, ko'mak-chilar mustaqil so'zlar bilan birikib grammatik ma'no ifodalaydi. Masalan: Otabek Rahmatning bu so'zini samimiyat bilan qarshi oldi. (A. Qod.)

So'z tartibi. So'zlarning gapda o'rin almashuvi Grammatik ma'no ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, uzoqdan katta uy ko'rindi, -uy uzoqdan katta

ko'rindi.

So'zlarni takrorlash. Nutqda so'zlarni takror holda ishlatish orqali grammatik ma'no hosil bo'ladi. Olcha va shaftolilar g'ij -g'ij, shoxlarining boshlari yerda .(O.)

Ohang. Gap yoki so'zlarni turli ohanglarda aytilishi ham grammatik ma'no ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, Fotima keldi.(darak gap), Fotima keldimi? (so'roq gap), Fotima keldi ! (his -hayajon gap).

So'zlarni juftlash. So'zlarni juftlash ham grammatik ma'no hosil qiladigan vositalardandir. Masalan, katta -kichik, yaxshi -yomon kabi So'zlarning juftlanishi natijasida kattalar ham kichiklar ham, yaxshilar, yomonlar ham, xullas, hammaning ifodalanishi ham grammatik ma'nodir.

Leksika deb tildagi barcha so'zlar majmuiga aytiladi.**Leksikologiya** (yunoncha lexikos «so'zga doir» ,logos «ta'limot»)tilning lug'at tarkibi,leksikasi va uning taraqqiyoti haqidagi ta'limot demakdir.

Leksika tildagi barchaso'zlarning oddiy yig'indisidangina iborat emas,balki ma'lum qonun-qoidalarga bo'ysunadigan izchil va murakkab sistemadir.

Leksikaning taraqqiyoti har bir xalqning turmush sharoiti,o'sish va yuksalishi bilan bog'liq.Xususan,o'zbektilining lug'at tarkibi,leksikasi ham o'zbek xalqining butun taraqqiyot yo'lini o'zida aksettiradi. Jamiyat rivojidagi barcha o'zgarishlar tilning taraqqiyotiga ham samarali ta'sir ko'rsatadi.Taraqqiyot natijalari eng avvalo tilning lug'at tarkibida,leksikasida o'z ifodasini topadi.

So'z va uning asosiy mohiyati.So'z murakkab xususiyatga ega bo'lgan til birligidir.So'zning asosiy mohiyatini,ya'ni uning ma'nosini vaboshqa so'zlardan farqlanib turadigan belgilarini aniqlash muhim hisoblanadi.So'zning ikki tomoni bor:

1.Moddiy tomoni.

2.Ma'nosi.

So'zning tovushlardan tarkib topishi uning **moddiy tomoni** hisoblanadi.Har qanday so'z o'z tovush qobig'iga ega.

So'zning tovush qobig'idan keyingi ikkinchi muhim belgisi uning biror **ma'noga ega bo'lishidir**. Lekin barcha so'zlarning ma'nolari bir xil emas. Ular so'zlarning turkumlanishiga bog'lab belgilanadi.Shunga ko'ra so'zlar quyidagicha turlarga bo'linadi.

1.Nomlovchiso'zlar.Bu * turga * ot(ba'zi atoqli otlardan tashqari),fe'l,sifat,ravish,son turkumidagi so'zlar kiradi.Bunday so'zlar narsani(*kitob,bino,daraxt*),belgini(oq,qizil,yaxshi),harakatni(*yurmoq,o'qimoq,h aydamoq*),ularningturlibelgilarini(*sekin,erta,kech*),son,miqdor nomini(*bir,besh,yuz*)bildiradi.

2.Ifodalovchiso'zlar.Bunday so'zlar nomlash ma'nosini bildirmaydi.Bu turga undov, modal so'z va yuklama kiradi: *Eh, oh, voy; albatta, shubhasiz; diqqat, nahotki, hattokabi.*

3.Ko'rsatuvchi so'zlar.Ular so'zlar orasidagi grammatik munosabatlarni ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Bu turga bog'lovchilar (va, ham, hamda), ko'makchilar (bilan, uchunkabi) kiradi.

Kalit so'zlar: Anvar Obidjon, sinfdan tashqari o'qish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, qiyoslash, ritm, pauza, lirik qahramon, nutq

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish malakasi bilan qurollantirish bilan bir qatorda kitobni mustaqil o'qiy oladigan, uni tushinadigan, ma'lum bir mavzuga oid Anvar Obidjon asarlaridan ma'lum matn tanlaydi. Shu orqali ularni tarbiyalaydi. Sinfdan tashqari o'qish tarbiyaning asosiy quroli sifatida xizmat qiladi, ko'p bilimlarni egallashga o'quvchilarning qiziqishlarini ortiradi.

Maktablarda 1959-yildan boshlab maxsus sinfdan tashqari o'qish darslari tashkil etilgan. Sinfdan tashqari o'qish darslari 1-sinflarda haftada bir marta, 3-4 sinflarda ikki haftada bir marta o'tkaziladi. Savod o'rgatish jarayonida esa haftadagi oxirgi alifbe darsining 17-20 daqiqasi ajratiladi.

Sinfdan tashqari o'qish o'quv dasturi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Buning uchun o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, mustaqil fikrlash ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish talab etiladi. O'quvchilarda kitobga havas uyg'otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muxim omilidir. Bunda o'qish soatida uchun foydalanilgan soatlardan foydalanilgan. Sinfdan tashqari o'qish soatida Anvar Obidjon asarlaridan foydalanish va uning vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

“O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish usullaridan biri qiyoslash usulidir. Bu usul bolani mustaqil fikr yuritishga mantiqiy xulosa chiqarishga undaydi. Bu haqida metodist olim B. Mo'minova shunday deydi: “Qiyoslash asosida mushohada yuritish, narsa-predmetlar, voqealar, jarayonlar, kishilar

orasidagi umumiy o'xshash va o'ziga xos xususiyatlarni belgilashga imkon berib o'quvchilarning fikrlash layoqati, o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantirishga samarali ta'sir qiladi"

Ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyati shundaki, u insonda tuyg'u va kayfiyatlar xosil qiladi, aniqrog'i, voqelikning xis-tuyg'ulari qiyofasini yaratadi. Ifodali o'qishda shoir she'ridagi voqealar jonlanadi, harakatga keladi va hikoyalaridagi qahramonlar tilga kiradi. Maktab o'quvchilari bir vaqtning o'zida ham muallif, ham qiyofa(obraz) yaratuvchi, ham ijrochi sifatida namoyon bo'ladi. Anvar Obidjon she'rlari va hikoyaalarini o'qishda ham o'ziga xos talaffuz, mimika talab etadi va o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, o'z obrazini yaratishga undaydi. Demak, o'quvchilar chiroyli nutq so'zlashi uchun ma'lum darajada aktyorlik mahoratiga ega bo'lishi lozim. Ifodali nutq san'atini o'stirishda ijodkorning turli janrdagi ijod mahsuli maktab o'quvchilariga asqotadi.

X asrning mashxur so'z ustasi Husayn Voiz Koshifiy "Futuvvatnomai sultoni..." asarida she'r o'qishning o'ziga xos qonun, qoidasi xaqida fikr yuritib shunday deydi: "Agar she'rxonlik odobi nechta, deb so'rasalar, oltita deb aytgil: birinchidan, she'rni ohang bilan o'qisin, ikkinchidan, she'rni odamlar qalbiga joylay olsin. Uchinchidan, agar biror mushkul bayt bo'lsa, yig'ilganlarga uni sharhlab, mazmunini izohlab bersin. To'rtinchidan, eshituvchiga malol keladiganish qilmasin. Beshinchidan, gadoylik qilmasin, mubolag'ali qasamlar ichmasin. Oltinchidan, o'qigan she'rining she'rining oxiri yoki boshida tilga olib, duo qilsin". Husayn Voiz Koshifiyning ushbu o'gitlari hozigi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

She'rxonlik odobi xaqidagi mazkur qoidalar har bir o'quvchi uchun dasturulamal bo'lib xizmat qilishi lozim she'r ritmik nutq ekan, she'r tuzilishining asosini ma'lum ritmik birlik (o'lchov) hijo tashkil etadi she'r misralaridagi hijolarni miqdoriga qarab she'r tuzilishi ko'rinishlari va vazn turlari aniqlanadi. Ifodali o'qishda hijoning xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Anvar Obidjon she'rlarida asosan, kichik hajmli bo'lib, biror voqea-hodisa ta'sirida bolada tug'ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg'ular orqali hayotini aks ettiradi. Shoir she'rlarida bevosita bolaning hayotiy kechinmasini beradi. Shuningdek, matnda harakter va kechinmalar o'quvchilar qalbida bir umr muhrlanib qoladi. Shu bilan bir qatorda, ijodkor lirik asarda faqat o'z fikri, xis tuyg'ularinigina emas, balki umuminsoniy lirik yechimlarni ham ifodalaydi. Bu o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini tug'diradi. Demak, shoir voqelikni ilg'or ideallari nuri bilan yoritadigan kechinmalar fikr, tuyg'ularini izhor etadi. Natijada o'quvchilarda kichik lirik asar katta ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

She'riy shakl lirikaning harakterli xususiyati bo'lib, u o'quvchining hayajonli, xis tuyg'uga to'la nutqini ta'sirli ifoddalashga qo'l keladi. She'riy nutq mana shu xususiyati bilan ham nasriy nutqdan farq qiladi. Biz buni Anvar Obidjon she'rlari misolida maktab o'quvchilariga yetkazib berishimiz mumkin.

Sen tug'ilgan qutlug' xona,
Aziz diyor, pok ostona.
So'lim o'lka, Kesh, Farg'ona,
Qadim Urganch, shu durdona.
Ko'rkam Toshkent, asal-qandim,
O'sh, Buxoro, Samarqandim.
Qiyosi yo'q, bu yagona,
Shunday go'zal, ulug' yurtkim,
Tuprog'ini ko'zga surtgin.

Yuksak extiros bilan yozilgan ushbu misralar ona vatanga cheksiz mehr-muhabbatning badiiy ifodasi sifatida yuzaga kelgan.

Anvar Obidjon vatanni kichkina xona yani ostonadan boshlanishiga urg'u berib o'tgan. Bu she'rni o'z o'rnida, ifodali va pauzalar, ritmlariga e'tibor berib o'qilsa o'quvchi ongiga yetib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari balki kattalarning ham ongiga aniq va tushinarli yetib boradi, o'quvchilarni esa mustaqil fikrlashga undaydi. Og'zaki ijrochi she'rni qalban his qilib, tushunib o'qisagina, eshituvchini zavqlantira oladi. She'rning asosiy mazmunini, lirik qahramonning ichki hissiyotlarini tinglovchiga to'la yetkazishda ifodali o'qish muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan har bir o'quvchi ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlarini mukammal o'rganishi lozim.

Sinfdan tashqari o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchida badiiy kitoblarni o'qishga havas uyg'otish, o'qigan kitoblari yuzasidan kundalik yurita olishga o'rgatish, bolalar adabiyotining mashxur adiblari hayoti va ijodi bilanelementar tarzda tanishtirish mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirishga yordam beradi. Bolalarja ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, ularning nutqini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish sinfdan tashqari o'qishning tub mohiyatini tashkil etadi. Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi o'quvchilarni mustaqil fikrlashiga e'tibor qaratish va uni faollashtirish.

Sinfdan tashqari o'qish darslarining muhim vazifalaridan biri mustaqil o'qish va ular orqali mustaqil fikrlash malakalarini tarbiyalash, bo'lsa, ikkinchidan mustaqil fikrlashga o'rgatadi. O'quvchilarning o'qigan asarlari mustaqil fikrlashga o'rgatadi, lug'atini ham boyitadi. Anvar Obidjonning qiziqarli va o'ziga xos asarlari, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Sinfdan o'qish – hayotga tayorlash vositasi, sinfdan tashqari o'qish esa hayotning o'zidir.

Hozirgi paytda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun sinfdan tashqari o'qishga mo'ljallangan turli tuman qo'llanmalar ham chop etilgan. Barkamol shoirlardan biri "Yoshlik – zangori fasl" deb bitgan edi. "Zangori fasl" g'oyati jiloli, fusunkor va jozibalidir. Uning o'chmas sadosi ko'hna tarixining qatida g'ira-shira jon saqlab kelmoqdaki, buni ta'rif etmoqqa qalam ham, til ham o'zlik qiladi. Ana shunday bolalikning eng gullagan vaqtda ravon nutqni va ifodali o'qishni o'rganib olsa, olimlarimiz aytganidek yoshlikda olingan bilim toshga chekilgandek o'chmaydi.

Sinfdan tashqari o'qish erkin dars hisoblanadi. Bu darslarda o'quvchilarning kitobxonlik qiziqishlari, bilim doirasi, estetik taassuroti, badiiy obrazlarni idrok etishi, mustaqil fikrlashda ham ijodiy qobiliyati rivojlanadi: faol kitobxoniga xos ko'nikma va malakalar shakllanadi.

Sinfdan tashqari o'qish darslari o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratiladi, shuning uchun ularning qurilishi juda xilma-xil bo'lib, har bir dars o'qituvchi va o'quvchining ijodi xisoblanadi; darsda qanchalik xilma-xillikka, hayotiylikka erishilsa, maqsadga erishish oson kechadi.

Bu jarayonda ichda o'qishdan ham, she'r yodlashdan ham, rollarga bo'lib o'qishdan ham foydalanish mumkin. Sinfdan tashqari o'qish darslarida nafas meyori ifodali o'qiishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. U kishi organizmi uchun ham asosiy oziqa hisoblanadi. Shuning bilan birga, nutq so'zlash jarayoni, ayniqsa, ifodali o'qiish san'ati nafas negizi bilan uzviy aloqador bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki nafas olinganda havo burun bo'shlig'idan kekirdakka boradi va nafas yo'li orqali o'pkaga o'tadi. O'pkaga kirgan havo qovurg'a muskullarini kengaytiradi, natijada qovurg'alar qorin bo'shlig'idan uzoqlashib ikki yonga

kengayadi. Aniqrog'i, ko'krak qafasi har tomonga kengayadi. Shu bir vaqtda qorin bo'shlig'ini ko'krak bo'shlig'idan ajratuvchi diaphragma o'pkaning havoga tushib kengayishi hisobiga pastga yaqqol sezilib turadi. To'g'ri nafas olish inson hayoti uchun ham, ifodali o'qish uchun ham juda katta ahamiyatga ega. Agar noto'g'ri nafas olishsa - o'rinsiz pauzalar bo'lsa, o'qilayotgan matn mantiqan buziladi. Matndagi muallif maqsadi tinglovchiga to'g'ri yetib bormaydi fikr tushunarsiz bo'lib qoladi. Hatto o'quvchining o'ziga ham salbiy ta'sir qiladi.

Har bir darsda o'qilgan asar yuzasidan suhbat metodi orqari tahlil ishlarida to'garak olib boriladi. Bunda erkin hikoya qilish uchun "Senga asardagi nimalar yoqdi?", "Bu kitob haqida sen nimalar ayta olasan?" kabi savollar beriladi va o'quvchilarning ijodiy hamda mustaqil qayta hikoyalash, mustaqil fikrlash malakalarini shakllantiriladi. Bunda har bir darsda ma'lum bir yangi kitobxonlik ko'nikmasi hosil qilinadi. Ayniqsa Anvar Obidjon haqida ma'lumotlar to'plash, kitob nomiga qarab u nima haqida ekanligini aytish, o'qilgan asarlar yuzasidan ko'rgazmalar tayyorlash, albomlar tayyorlash, kitobxonlik kundaligini yuritish kabi ishlari amalga oshiriladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. O'zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon. Toshkent "fan" nashriyoti 1989.
2. Mustafouqulov R., Surxon adiblari-bolalarga. Toshkent "Yozuvchi" nashriyoti 2000 yil.
3. Mo'minova B. Talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish til va adabiyot ta'limi. 2016-yil. 6 son.
4. "Hurriyat", 2007-yil, 4-iyul.
5. A.Xoliqov. "Pedagogik mahorat". Toshkent Iqtisod moliya nashriyoti. 2011.

6. Zaynab Abdunazarova. (2022). WAYS AND METHODS OF USING ROLE-PLAYING GAMES IN MOTHER TONGUE CLASSES FOR THE SOCIALIZATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(12), 85–90.

7. Abdunazarova, Zaynab Almurod Kizi (2021). IMPORTANCE OF THE PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL USE OF STORY ROLE-PLAYS IN PRIMARY SCHOOL AT NATIVE LANGUAGE LESSONS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (11), 760-766.

8. Z.A.Abdunazarova. THE PLOT- THE ESSENCE OF ROLE-PLAYING GAMES AND THEIR ROLE IN TEACHING MOTHER TONGUE LESSONS In Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) May, 2022/5/26 1239-1244Vol 3 No 5 (2022): wos

9. Shabbazova, D., Abduhalimova, Y., & Abdunazarova, Z. (2022). Psychological And Pedagogical Factors Of Developing Literacy Of Primary Class Students Based On Personal Value Approach. Journal of Positive School Psychology, 6(9), 3707-3712.

ПОЯИ ДАВЛАТ НАБОШАД БЕ МАОРИФ УСТУВОР

Донишҷӯи институти давлатии педагогии Термиз

Мансурова Замира

Роҳбари илмӣ: Ниёзова София

Омӯзгори институти давлатии педагогии Термиз

Аннотатсия: Дар ин мақола доир ба мустаҳкамкунии таълим тарбия, ҷараёни мактабу маориф, андешаи педагогҳои машҳур доири ин мавзӯ, ва ҷойгоҳи мактаб дар ҳаёти имрӯза, ки дар бораи фаъолияти он сухан ронда шудааст. Дар бораи шахси педагоги муосир, талабҳое, ки ба онҳо гузошта шудааст дар бораи онҳо маълумот дода мешавад.

Калид вожаҳо: Илм, таълим, тарбия, маориф, мактаб, давлат, дониш, маҳорат, қобилият.

Ҳаёту зиндаги худ барои инсон ин дарси ибрат ва худшиносии миллӣ мебошад, зеро ҳар як амали илмӣ барои инсон комил нишона ва водоркунандаи таассуротҳои ҳаётист. “Мактаб масъалаи ҳаёту мамонт масъалаи ҳаёту мамонт, масъалаи оянда аст, онро худи давлат, ҳукумат ва ҳокимон ҳал карда наметавонанд. Ин бояд кор ва вазифаи тамоми ҷамъият гардад.” Дар ин суханҳои сарвари давлатамон бисёр фикрҳои пурмаъно муҷассам гардидааст. Барои инсон комил будан одам бояд бо руҳи поку бо қалбаш бузург бошад. Маҳз ана ҳамин ҳаракати инсон ҷисми ӯро мустаҳкам ва пайкараи қалбашро бузург месозад. Аз барномаи илмии оммавии ва маънавию маърифии президенти кишварамон Шавкат Миромонович Мирзиёев на ин ки дили инсон балки дили тамоми мавҷудодҳои табиат дар худ чароғи рӯшноиро пайдо мекунад. Чунонеки фармудаанд “Наҷот дар таълим!”, “Масъулияти воло дар тарбия аст!”. Оё

ин гуфтаҳо баҳри тамоми омӯзгорон ҷомаи амал мепӯшида бошад? Ба фикри камина ҳа албатта, Чароки амри подшоҳ вочиботи имон аст, тарки вочиботи имон кардан ин худ гуноҳкорист. Аз ин рӯ мо таълим диҳандагон бояд қарзи вазифадории худро, бо луқмаи ҳалол обод намудани кошонаи хешро, тарбияи фарзандон ва дигар масъалаҳои илми ва ҳаётиро бояд хело хуб дарк намоем. Ҳар як инсонӣ комил дар ин пайраҳа ҳиссаи арзандаи худро гузоштан ва дар ҷомеаи байналхалқӣ сазовори шӯҳрат ва бурдборихо бо ҳисси боварӣ ва эмону эътиқоди бузург қадам ниҳоданашро вазифаи аввалиндараҷаи худ доништанаш шарт

Педагогика мазмуну моҳияти тарбияи волидайн яъне наврасонро чунин муқаррар кардааст. Пайдошавии сарчашмаи меҳр яъне муҳаббат дар байни омӯзгор ва талабагон бори аввал дар таълимгоҳ оғоз мешавад. Ин далели он мебошад, ки бояд муаллим худпоягузор ва бунёдкори муҳаббати ҷавонон шуданро мақсади ягонаи худ созад. Барои чунин мақсади муҳимро сазовор шудан, муаллим пеш аз ҳама соҳибҳуқуқ, қадриятшинос, эҳтиромкунанда, мунису-меҳрубонва ҳисси масъулиятшиносӣ ва ватанпарварии хеш буданашро дар қалби худ пайваста бошад. Сониян ин амалҳои нек пайвастшавии робитаи алоқии падару модари наврасон ва ҷомеаро оғоз менамояд. Пеш аз ҳама ин нишондодҳои илмиро дар нуқтаҳои сарвари давлатамон Шавкат Миромонович Мирзиёев бо мисраҳои зер дар амал татбиқ кардан ҷоиз аст.

"Мо аз хоҳиши фарзандон ба хулоса омада, мувофиқи талаботашон таълим доданро бояд омӯзем." Ин гуфтаҳо асли онро дорад, ки омӯзгор барои пайдо намудани сарчашмаи таълиму тарбияи наврасон пеш аз ҳама алоқии мустаҳкам ва бовариофарандаи падару модаронро мақсади ягонаи худ донаду мувофиқи он амал намояд. Яъне дар амал пеш аз ҳама дар сохтани осори ниёгон, сониян шиносоии волидайн бо низомномаи қонунӣ "Кодекси оилавӣ" дар асоси маҷбуриятҳои падару модар дар хусуси инкишофи зеҳни пайдо карданашон, бо парастории волидайн зиёд намудани солимии ҷисмонӣ, ахлоқӣ ва маънавияю маърифиро дар байни хонандагон ва ҷомеаи имрӯза бараъло намоён намудан аст. Ба гуфтаҳои олими бузург Алберт Эйнштейн "Чун синф бояд он қадар ҷаззоб ва дилкаш бошад, ки бидуни дафтари ҳозире ғоиб хонанда ба дарс ояд." Ҷаззобияту хоҳишу талаб ин пайвастагии мустаҳками илмиро дошта, сарчашмаи алоқии мустаҳками омӯзгор, падару модар ва маҳалла шуда метавонад. Пазиро будани ин гуфтаҳо сазовори бунёди солим, фикри ҷавонону наврасони имрӯза ва фарзандони кишвари азизамон шуда метавонад. Далели чунин гуфтаҳо ва бурдборихо шуданро мутафаккирон чунин арзёбии намудаанд.

Давлати поянда хоҳи рӯй бар мактаб биёр.

Дар ҳақиқат рӯй бар сӯи мактаб овардан ин далели аз нодони раҳо ёфтано нишон медиҳад. Даргоҳи мактаб ягона маконест ки инсон дар

ончо аз ҳодисаҳои гуногуни ҳаёти хабардор шавад. Пояи асосии давлат ин мактаб аст. Таълиму тарбия аввалин асосан вақте мо ба даргоҳи мактаб қадам мемонем, аз ҳамонҷо оғоз мегардад. Барои ҳамин ҳам олимон ва маорифпарварони мо ба кушодани мактабҳои наву замонавӣ ҳаракатҳои зиёде намудаанд. Мардуми мо ба омӯхтани илму дониш эътибори махсус меод, ки натиҷаи он асарҳои эҷод кардаи бузургони мост, ки диққати тамоми мардуми дунёро ба худ ҷалб кардааст ва ҳазорсолаҳост аз он дар тарбияи фарзандони худ истифода мекунад. Дар дини Ислом талаби илм ба дараҷаи тоату ибодат баланд бардошта шудааст. Ҳатто Толиби илмо аз шахси Обид боло гузоштаанд. Илм ҳикмат, илм имону эътиқод аст. Бузургмехр мегӯяд: Агар илм омӯзи, хурд боши, бузург ва номдор гарди, муфлис боши, тавонгар гарди, маъруф боши, маъруфтар гарди. Илм дар сахро об, дар чорраҳаҳои ҳаёт такаҷоҳ, дар танҳои ҳамроҳ, дар хурсанди роҳбар, дар ғамгини мададгор ва бар зидди душман силоҳ аст. Моликтарин шахс дар илм ин амалкунандаи он аст.

Илм чандон, ки бештар хонӣ,
Чун амал дар ту нест нодонӣ.
Не муҳаққиқ бувад на донишманд,
Чорпое, барӯ китобе чанд.
Он таҳимағзро чӣ илму хабар,
Ки барӯ ҳезум аст ё дафтар.

Саъди Шерозӣ

Танҳо ҳамин таълиму тарбия аст, ки инсонро ба қуллаҳои баланди зиндагӣ мерасонад. Бояд инсон қӯшишҳои зиёд кунад то ки дар ҳаёти хеш илм омӯзаду соҳибилм шавад. Ягона амали хубе ки аз мо мемонад, танҳо ҳамин илм омӯхтан амон дониш гирифтани мон мебошад. Барои ҳуқуқи барпо кардани давлати тинҷу осуда ва манфиат овардан ба халқу миллат танҳо илм омӯхту соҳаи мактабу маорифро интихоб намуд. Дар натиҷаи ҳамин амалҳо инсон метавонад, ки як давлати тинҷу осударо барпо кунад ё сабабгориаш бошад. Инсон чӣ қадар оқилу зукко бошад, омӯхтани илм ба он ҳамон қадар осон мегардад.

Дар тарбияи солими насли наврас ваҳдат, ҳамкори, мадади ғамхоронаи мактаб ва оила бағоят зарӯр аст. Баҳри бунёди чунин такаҷоҳи боеътимод мактаб эътиёҷи зиёд дорад ва маҳз мактаб метавонад барои чунин ҳамкорӣ замонаи устувор гузорад. Мактабу маориф ин ягона омилест барои шахси комил ва соҳибҳуқуқ шудан ва дар ҷодаи илм ном баровардан. Мактаб фарзандони миллатро тарбият мекунад ва илми дониш медиҳад. Бонобар ин аҳли ҷамоатчигӣ дар тарбияи авлоди кишвар, бетараф буда наметавонад. Биноан мактаб мувофиқи талаби ҷомеа, бо назардошти инкишофи қувваҳои истеҳсоли ва муносибатҳои истеҳсолии замони мазмунӣ омӯзиширо фаро мегирад.

Боиси хурсандист, ки имрӯзҳо дар саросари ҷумҳурӣ ба масъалаи таълим ғамхориҳои алоҳида зоҳир мегардад, ки бемуҳаббат ба ояндаи

дурахшони кишвар ва гузашта аз ин ба камоли фардои шогирдон нигаронида шудаанд. Мактаб макони илму маърифат, даргоҳи одобу ахлоқ аст. Муаллим соҳиби илму фарҳан, ва тарбиятгари инсон аст. Агар муаллиму толибилм ба ҳам тавъам кор баранд, бешубҳа боиси пешрафти мактаб мегардад. Дар ҷаҳони муосир баақл, бо ҳиссиёти ноустувор ва ба ахлоқӣ нав ташаққулёфтаистодай манбаҳои гуногун таъсири мусбат ё ин кӣ манфи мерасонанд. Дар ҳама давру замон одамон ба таълиму тарбия арзиши баландро қоиладар будаву ҳастанд. Агар маорифи мактаб набошад, давлатамонро комил ё ин кӣ пешрафта гуфта тасаввур кардан мумкин нест. Тақиягоҳи давлат асосан ҳамин соҳаи мактабу маориф мебошад. Миллату давлати худро танҳо бо ҳамин соҳаи маориф дарк намуданамон мумкин аст. Агар инсон давлати соҳибҳуқуқ ва соҳибихтиёрро хоҳад, ва буданашро қарор диҳад, бояд ки аввалиндараҷа соҳаи маорифро пешаи худ созад. Дар ҷодаи илму маориф бисёр олимон ва мутафаккирон фикрҳои худро баён намудаанд.

Дар ҷомеаи рӯштанфтаи имрӯза, мактабу маориф, илму фарҳанг нақши асосиро касб менамояд. Аз рӯи соҳаи маориф, таълиму тарбия дараҷаи нерӯи зеҳнӣ ва ақлӣ ҳар як кишвар ва бастанӣ дорад. Аз рӯи вазъи мактабу маориф натавонанд донишу савод такомул меёбад, балки сарнавишти сиёсӣ ва иқтисодиву иҷтимоии мамлакат низ рушд меёбад. Дар паёмҳои ҳарсолаи пешвои миллат мӯҳтарам Шавкат Миромонович Мирзиёев ба масъалаи мактабу маориф тавачҷӯҳӣ хоса зоҳир намуда, рушди он дар меҳвари сиёсати кишвар қарор дорад. Дар хотир бояд дошт, ки танҳо миллати босавод, метавонад насли соҳибмаърифату донишманд ва мутахассисони оқилу доноро ба воя расонад. Дар даврони истиқлолият ба ислоҳоти соҳаҳои гуногун, аз ҷумла соҳаи мактабу маориф дастовардҳои шоён ба назар мерасанд. Ҳамин тавр масъалаҳои рушди мактабу маориф, тарбияи насли наврас, ҷавонон самти афзалиятнокии сиёсати маънавибунёди сарвари миллат ба ҳукумати Ўзбекистон ба ҳисоб рафта, барои рушди он ғамхорӣ ва тавачҷӯҳӣ ҳамешаги зоҳир мегардад. Дар осори тоҷикон яке аз масъалаҳои муҳиме, ки дар ҷомеаи муосири имрӯза бештар мавриди тавачҷӯҳ қарор гирифтааст, масъалаи мактабу маориф ба шумор меравад.

Ташкили мактабу маорифи кишвар аз ҳадафҳои асосии равшанфикрони замон ба шумор меравад. Президенти кишварамон низ дар чандин мулоқотҳои худ дар бораи ин масъалаи мактабу маориф сухан рондаанд ва эътибори ҷиддӣ доданашонро низ баён намудаанд. Ин масъала дар оғози Садаи бист масъалаи мазкур мавриди тавачҷӯҳӣ равшангарони тоҷик қарор дошт. Чехраҳои намоёни маорифпарвари масъалаҳои зиёдеро дар худ инъикос менамояд. Дар хотир бояд дошт, ки танҳо миллати босавод метавонад насли соҳибмаърифату донишманд ва мутахассисони арзандаи даронро ба воя расонад, пеш равад ва дар ҷомеаии мутамаддин мақоми арзандаи худро пайдо намояд. Имрӯзҳо дар кишвари мо барои баланд бардоштани савияи таълим ва рағбатноксоии

омӯзгорон як қатор чорабиниҳо роҳандозӣ шудааст, ки барои ҳарчи вусъат ёфтани маҳорату малакаи омӯзгорони ҷавон имконият фароҳам меорад.

Хулоса инсон бояд дар давоми фаъолият ва ҳаёти худ соҳиби илм ва дониш гардад, чароки ин вазифаи аввалиндараҷаи ӯ ба шумор меравад. Барои соҳибилм шудан ҳам бояд соҳаи мактабу маорифро интихоб намояд. Беҳуда нагуфтаанд, ки

Пояи давлат набошад бе маориф устувор,
Давлати поянда хоҳӣ рӯй бар мактаб биёр.

Дар ҳақиқат инсон давлати поянда хоҳад бояд, ки рӯ ба сӯи мактабу маориф орад. Ин ягона роҳи ҳал ва мушкилот аст. Аз нодони ва гумроҳӣ раҳои меёбад.

Адабиётҳои истифодашуда:

1. И. Каримов "Маънавият воло нерӯи мағлуб нопазир" Тошканд 2008
2. Нуров .А , Раҳимов . Х "Методикаи корҳои тарбиявӣ" Тошканд 2005
3. Лутфуллоев. М "Истиқлолияти Ўзбекистон" 2019
4. Юнусов . И "Педагогика" 1997
5. И. Каримов " Маънавият воло нерӯи мағлуб нопазир" Тошканд 2008
6. "Концепсияи миллии тарбия" Тошканд 2005
7. Parvina Kholikova Abdumalik kizi. (2022). THE SIGNIFICANCE AND PLACE OF USING NATIONAL VALUES IN THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11) 2022, 391–396.
8. Niyozova Safiya "Providing interdisciplinary integration in "education" lessons in primary grades". Society and innovations Journal. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 10 (2022) / ISSN 2181-1415
9. Niyozova Safiya. . "МУСТАҲКАМИИ ТАЪЛИМИ ИБТИДОӢ НАТИҶАИ ПЕШРАВИИ ДАВЛАТУ МИЛЛАТ". YANGI O'ZBEKISTON PEDAGOGI LARI AXBOROTNOMASI *2022*, <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/12651>
10. Niyozova Safiya (2023) "АҲКОРИ ТАЪЛИМИ ВА ТАРБИЯВӢ ДАР АСАРҲОИ САЪДИ ШЕРОЗӢ ВА АҲАМИЯТИ ОН ДАР ҶОМЕАИ ИМРӢЗАИ МО". Yangi O'zbekiston pedagoglari axborotnomasi, 842-847.
11. Niyozova Safiya "IMPROVING THE PROCESS OF PROVIDING INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN "EDUCATION" LESSONS IN PRIMARY GRADES". " In Volume 3, Issue 10 of Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) Oct., 2022.

TA'LIM TIZIMINI DIVERSIFIKATSIYALASH JARAYONLARI VA UNING ZARURATI

*Otamurodova Shamsu Qamar Otamurodovana
TerDU boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

Bugungi kunda jahon hamjamiyati singari mamlakatimiz ham sur'atli o'zgarishlar bilan xarakterlanadigan taraqqiyotning tarixiy bosqichini boshdan kechirmoqda. Har qanday sohada, jumladan, ta'lim sohasida ham sodir bo'ladigan o'zgarishlar, asosan, quyidagi asosiy xususiyatlarga ega bo'ladi: uzluksizlik, barqarorlik, intiluvchanlik va tezlanuvchanlik. Bu o'zgarishlar mahsuli o'laroq, mehnatning shakli va vositalari (buning natijasida kasbiy faoliyat turlari), iqtisodiy faoliyatning ta'limga bo'lgan talablari (natijada esa mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy xususiyatlari) miqdor, sifat, mazmun, mohiyat va miqyos jihatdan yangilanib boradi. SHu bois, kadrlarning malakaviy tuzilmasi, kasbiy mobillik va bilimlarni doimiy, izchil ravishda yangilab borish zarurati paydo bo'ladi. Davom etishi kutilayotgan va ayni vaqtda tez sur'atlarda davom etayotgan o'zgarishlar – respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning samarasi sifatida – ta'lim tizimi oldiga yangi maqsad va vazifalar qo'ymoqda. Mazkur vazifalarni umumiy tarzda quyidagi tavsif bilan ifodalash mumkin:

-shaxsiy va kasbiy rivojlanishga erishish uchun umr bo'yi davom etadigan uzluksiz ta'limni ta'minlash;

-iqtisodiyotda, ijtimoiy hayotda va ilm-fanda sodir bo'lgan yangiliklarga muvofiqlashib borish;

-OTMLar bitiruvchilarining jamiyatda kechadigan yangilanishlar jarayonida kasblarning mazmun va faoliyat jihatdan kutiladigan o'zgarishi sharoitlariga shaxs va mutaxassis sifatida tayyor turishlariga erishish.

Ko'rsatib o'tilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun ta'lim sohasining barcha bo'g'inlarida qo'llanilib kelinayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalar, pedagogik innovatsiyalar, takomillashtirilgan metodikalar va qator ilmiy-amaliy tavsiyalar qatorida ta'limdagi diversifikatsiya hodisasidan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. Diversifikatsiya jarayonlarini ta'lim sohasiga (bizning tadqiqotlarimizda – oliy ta'lim sohasiga) samarali va mahsuldor joriy etishning mamlakatimiz hamda jahon mutaxassislarning ilmiy xulosalari, amaliy tajribalariga asoslangan mulohazalarimiz bayoniga o'tishdan avval "diversifikatsiya" tushunchasining o'ziga oydinlik kiritish hamda uning ta'lim tizimdagi o'rne va ahamiyatini aniqlashtirish lozim deb hisoblaymiz.

Mulohazalarimiz avvalida aytishimiz kerakki, diversifikatsiya ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish kabi sohalar bilan bir qatorda ijtimoiy sohalarda ham keng qo'llaniladigan tushuncha. Mazkur tushunchaning lug'aviy ma'nosi bo'yicha mutaxassislarning ta'riflarida sezilarli farq bo'lmagani holda, ta'lim tizimiga joriy etilgan "diversifikatsiya"ning talqinlari turlichadir. Xususan, Qomus. Info Online entsiklopediyada keltirilishicha, **diversifikatsiya** lotincha

“diversificatio” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, oʻzbek tilida “oʻzgarish”, “xilma-xil taraqqiyot” kabi maʼnolarni anglatadi. Keng maʼnoda diversifikatsiya – ishlab chiqarish hamda xizmat koʻrsatish korxonalarining faoliyati turlari va ishlab chiqariladigan mahsulotlar nomenklaturasining koʻpaytirilishi, yangilab turilishi. Diversifikatsiyadan koʻzlangan asosiy maqsad samaradorlikni maksimal oshirish, iqtisodiy foyda olish kabilardan iboratdir. Diversifikatsiyaning natijasi oʻlaroq, tur, nom va sifat jihatdan yangilangan, tarmoqlar sonini oshirgan ishlab chiqarish hamda xizmat koʻrsatish majmualari tashkil topadi [1].

Falsafada “diversifikatsiya” tushunchasi xilma-xillikning meʼyorini ifoda etadi hamda mavjud resurslarning (shaxsiy va ijtimoiy resurlar nazarda tutilmoqda – muallif) qayta taqsimlanib, mavjud faoliyatdan keskin farq qiluvchi yangi faoliyat sohalariga yoʻnaltirilishini anglatadi. Diversifikatsiyaning maqsadi tizimda nisbatan yangi elementlarni barpo qilish va mavjud elementlarning xilma-xilligini taʼminlash orqali muayyan sohada barqarorlikka erishishdan iboratdir [2, 31-b].

Sotsiologiyada diversifikatsiya jarayonlariga turli ijtimoiy hodisalar va jarayonlarning tahlili nuqtai nazaridan qaraladi. Kishilarning faoliyat turlari koʻpaymoqda, aksar kasb turlari yoʻqolib, uning oʻrnini yangi kasb egalari faoliyat koʻrsatadigan jamoalar paydo boʻlmoqda [3, 16-b]. Bunga misol sifatida mamlakatimiz fuqarolarining andazaviy hayot tarzidan koʻpqirrali, zamonaviy jamiyat aʼzolariga xos boʻlgan ehtiyojlarni oʻz ichiga olgan turmush tarziga oʻta boshlaganliklarini keltirish mumkin.

Pedagogikada “diversifikatsiya” tushunchasini talqin etishga qaratilgan bir necha yondashuvlarni keltirish mumkin. Jumladan:

-bu shaxsning oʻz rivojlanish yoʻnalishini oʻzi belgilashiga qaratilgan yangi pedagogik paradigma boʻlib, taʼlim tizimining tezkor oʻzgarishlar, jamiyat ehtiyojlarini hisobga talablarga tezda moslashuvchanligi bilan xarakterlanadi [4, 44-b].

-taʼlim xizmatlari, dasturlari, taʼlim muassasalarining shakl va koʻrinishlarining muqobil variantlarda faoliyat koʻrsatishini taʼmin etuvchi strukturaviy tizim shakllantirilishiga qaratilgan variativ strategiyadir [5, 16-b].

Diversifikatsiyaning taʼlimdagi funktsiyasi va ahamiyati ham uning keng miqyosda foydalanish taʼrifida keltirilgan xususiyatlarining ijtimoiy shaklda namoyon boʻlishi bilan tushuntiriladi. Diversifikatsiyaning taʼlimda qoʻllanilish tamoyillari haqida fikr yuritib, M.Yu.Lomakina, avvalo, mazkur tushunchaning etimologiyasi va fan-texnika, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda foydalanilishi tarixiga toʻxtalib oʻtadi. Olimaga koʻra, “diversifikatsiya” termini lotin tilidagi “diversificatio” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, faoliyat koʻlamining kengaytirilishini bildiradi [6, 3-b]. Mazkur atama ilk bor oʻtgan asrning oʻrtalaridan (taxminan 50-yillardan) boshlab qoʻllanila boshlangan va rivojlangan davlatlar iqtisodiyotidagi yangi voqeliklar, xususan, kapitalning kontsentratsiyalashuvi natijasida tashkil topgan yangi tarmoqlarni nazarda tutgan.

Faqat o'tgan asrning 60-yillaridan so'nggiga mazkur tushunchani ta'limga joriy etish zarurati paydo bo'ldi. M.Yu. Lomakinaning fikricha, bu zarurat G'arbiy Yevropa davlatlarida ta'lim tizimlarini tarkibiy-tuzilmaviy jihatdan isloh qilishga kirishish natijasida yuzaga keldi [6, 5-b]. Diversifikatsiyaning G'arbiy Yevropa ta'lim tizimida joriy etilishi samarasi o'laroq, qayd etilgan samarali o'zgarishlarni izohlar ekan, M.Yu. Lomakina, ta'limdagi diversifikatsiyani quyidagicha talqin qiladi: "Biz oliy kasbiy ta'lim diversifikatsiyasi deganda oliy kasbiy ta'lim tizimi faoliyatining kengayishi va mazkur tizimning ilgari mavjud bo'lmagan vazifa hamda funktsiyalarga ega bo'lishini tushunamiz" [6, 5-b].

V.R.Dryaxlova talqinida "diversifikatsiya" tushunchasi yuqorida keltirilgan kabi iqtisodiy ma'noga ega bo'lgani holda, ta'lim sohasiga tatbiq etilganda nisbatan keng ma'no kasb etadi. Uning fikricha, uzluksiz ta'limdagi diversifikatsiya:

1. Ta'limda yangi faoliyat turlarining joriy etilishi va buning natijasida tizimda bosh maqsad, vazifa hamda funktsiyalarning miqdor va sifat jihatdan yangilanishidir.

2. Zamonaviy ta'lim diversifikatsiyasi ta'lim tizimini innovatsion strukturaviylashtirish tamoyillari sifatida qaraladi va buning samarasi o'laroq, o'qitish dasturlari va ta'lim berish bilan bog'liq xizmat ko'rsatishlar, ta'lim muassasalarining tur, shakl va ko'rinishlari variativ tarzda mazmun-mohiyatan yangilanadi [7, 14-b].

A.K. Kollegov diversifikatsiyasini muayyan ibtidoaga bo'lgan jarayon deb hisoblaydi va uning boshlanish muddati eng kamida ta'limdagi faoliyat turlarining kengaytirish va tizimdagi funktsiyalarning dastlabki yangilanishiga zarurat paydo bo'lgan vaqtdir, deya qayd etadi [7, 12-b]. Uning fikricha, oliy ta'limdagi diversifikatsiya ikki bosqichda kechadi. Oliy ta'limdagi diversifikatsiyaning birinchi bosqichida OTMLar soni, ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklarning turlari va bunga mutanosib ravishda o'quv fanlari, o'quv-amaliyoti turlari son jihatdan ortadi. Aytish mumkinki, oliy ta'limdagi diversifikatsiyaning birinchi bosqichi miqdor o'zgarishlarini nazarda tutadi va ijtimoiy talablardan kelib chiqilgan holda, mundarijaviy xususiyatga ega bo'ladi. Birinchi, ya'ni boshlanuvchi bosqichning oliy ta'lim tizimidagi diversifikatsiya jarayonining boshlanishiga omil bo'lishini ta'minlovchi jihatlardan biri jamiyatdagi ilm-fan sohasidagi o'zgarishlar va yangilanishlardir.

Ta'kidlash joizki, oliy pedagogik ta'limning diversifikatsiyasi faqat o'qitishning amaliy yo'naltirilgan texnologiyalari hamda vositalarini joriy yoki jamiyatning talablari asosida tashkil topadigan mazmunan yangi ta'lim muassasalari tashkil etishdangina iborat emas. Diversifikatsiya, eng avvalo, yangi ta'limiy sharoitlarda faoliyat ko'rsatishga yo'naltirilgan kadrlarni tayyorlash tizimini joriy qilishda namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Qomus. Info Online энциклопедияси

2. Брызгалина Е. В. Диверсификация современного философского образования: специализация «Философия образования» // Философское образование (Вестник АФФО). – 2010. – Вып. 5

3. Возьмитель А. А. Диверсификация образа жизни (Способы и стили жизни в постсоветском социальном пространстве) // Мир России. – 2002. – Т.

4. Кудрина Е. Л. Диверсификация высшего профессионального образования в сфере культуры и искусства : автореф. дис. д-ра пед. наук : 13.00.05 ; 13.00.08. – М., 1999. – 44 с.

5. Байденко В. И. Диверсификация среднего профессионального образования: сущность, условия, пути реализации : автореф. дис. ... канд. пед. наук : 13.00.01. – М., 1995. – 16 с.

6. М.Ю.Ломакина. Диверсификация как принцип непрерывного образования, Журнал “Мир науки”, 2017 г. 2-номер.

7. В.Р. Дряхлова, Развитие довузовской подготовки в системе непрерывного профессионального образования управленческих кадров: на примере академии государственной службы, 2009 год, автореферат. дисс.

8. Otamurodova, S. Q. (2022). Improving the methodology of expressing the creative potential of students on the basis of the principle of diversification. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(11), 413-420.

BUNYODKORLIK, QURILISH LOYIHALARIDA QAYTA TIKLANADIGAN VA MUQOBIL ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI

*Yusupov Sharofiddin Bo'ronovich
PhD, katta o'qituvchi "TIQXMMI"
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI*

Annotatsiya. Maqolada “qayta tiklanadigan” va “muqobil” energiya tushunchalariga oydinlik kiritiladi, muqobil energiya manbalari tasniflanadi, ularning an’anaviy energiya manbalaridan afzalligi umumlashtiriladi. Maqolada qishloq xo’jaligi ob’yektlarini qurish uchun eng maqbul muqobil energiya manbalari sifatida shamol energiyasi va quyosh energiyasidan foydalanish masalasi ko’rib chiqiladi. Shamol va quyosh qurilmalarini qo’llashning kuchli va zaif tomonlari batafsil tahlil qilindi.

Kalit so’zlar: energiya, tabiiy resurs, fakt, intensiv, qonunchilik, an’anaviy manba, noaniq, muqobil, tiklanmaydigan, tabiiy gaz

Qayta tiklanadigan energiya - bu qayta tiklanadigan energiya manbalaridan olinadigan energiya. RES - bu tabiiy resurslar bo’lib, ularning miqdori ishlatilganidan tezroq tiklanadi yoki ushbu resurslardan foydalanish faktga bog’liq emas. "Qayta tiklanadigan" atamasi haqli ravishda noaniq deb hisoblanadi, u "qayta tiklanmaydigan" tushunchasiga qarama-qarshidir, ya'ni

foydalanish paytida butunlay yo'q bo'lib ketishi mumkin bo'lgan manba. Masalan, "qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslar" ulardan intensiv foydalanishning hozirgi holatida yaqin o'n yilliklarda yo'q bo'lib ketishi mumkin. Muqobil energiya manbalarini o'z fikrimizga ko'ra aytadigan bo'lsak, energiya an'anaviy manbalardan: neft, tabiiy gaz va ko'mir kabi uglevodorod yoqilg'ilaridan foydalanish bilan farq qiladigan manbalardir.

Bugun muqobil energiya yaxshi va farovon davrlarni boshdan kechirmoqda. So'nggi yillarda shamol energiyasining asosiy narxi 61% ga, quyosh energiyasining asosiy narxi 82% ga kamaydi. Muqobil yoqilg'i yuqori tezlikda arzonlashmoqda.

Yuqoridagi tushunchalar ko'pincha chalkashliklarga sabab bo'lganligi sababli, tushuntirish berish va muqobil va qayta tiklanadigan energiya manbalarining to'liq tasnifini berish kerak. **Birinchi**dan, muqobil manbalar soni qayta tiklanadigan manbalarga qaraganda ko'proq. **Ikkinchi**dan, muqobil energiya manbalarining asosiy qismini qayta tiklanadigan manbalar tashkil etadi. **Uchinchi**dan, muqobil manbalar tarkibida uglevodorod resurslaridan foydalanishdan tashqari qayta tiklanmaydigan manbalar mavjud.

Muqobil energiya quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Shamol quvvati.
2. Quyosh energetikasi (quyosh energiyasi).
3. Bioyoqilg'i:
 - suyuqlik (biodizel, bioetanol, biometanol);
 - qattiq (yog'och chiqindilari va biomassa, masalan, yog'ochdan granulalar (pelletlar), qobiq, somon va boshqalar, yoqilg'i briketlari);
 - gazsimon (biogaz, sintez gazi).
4. Muqobil gidroenergetika:
 - to'lqinli elektr stantsiyalari;
 - to'lqinli elektr stantsiyalari;
 - mini va mikro GES;
 - Aero gidroelektr stansiyasi.
5. Geotermal energetika:
 - issiqlik elektr stantsiyalari;
 - tuproqli issiqlik almashinuvchilari.
6. Momaqaldiraq energiyasi.
7. Boshqariladigan termoyadro sintezi.
8. Kinetik energiya, shuningdek, mushak va mexanik energiyalarning turlari.
9. Vodorod energiyasi.
10. Kosmik energetika.
11. Chiqindilarni boshqarish.

Shuni ta'kidlash kerakki, ko'p qavatli qurilish loyihalarida sanab o'tilgan barcha muqobil energiya manbalaridan foydalanish mumkin emas. Ularning mavjudligi va mintaqada tegishli infratuzilma mavjud bo'lgan taqdirda, elektr va issiqlik energiyasini etkazib berish sanab o'tilgan manbalarning deyarli

birortasidan chiqarib tashlanmasa ham, eng qo'llaniladiganlari shamol energiyasi va quyosh energiyasidir.

Bugun muqobil energiya yaxshi va farovon davrlarni boshdan kechirmoqda. So'nggi yillarda shamol energiyasining asosiy narxi 61% ga, quyosh energiyasining asosiy narxi 82% ga kamaydi. Muqobil yoqilg'i yuqori tezlikda arzonlashmoqda.

Energiya bozorlari ikki omilning kuchli ta'siri ostida rivojlanmoqda:

1) Qayta tiklanadigan energiyadan foydalangan holda elektr energiyasi ishlab chiqarish tannarxi doimiy ravishda pasayib bormoqda va endi uni uglevodorodlarni ishlab chiqarish orqali ishlab chiqarish xarajatlaridan oshmaydi.

2) Muqobil va qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirishni rag'batlantiradigan va an'anaviy energiya resurslaridan foydalanishni cheklovchi siyosiy va qonunchilik qarorlarini qabul qilish butun dunyoda ekologik vaziyatning yomonlashuvidan kelib chiqadi.

Energiya bozorlari ikki omilning kuchli ta'siri ostida rivojlanmoqda:

1) Qayta tiklanadigan energiyadan foydalangan holda elektr energiyasi ishlab chiqarish tannarxi doimiy ravishda pasayib bormoqda va endi uni uglevodorodlarni ishlab chiqarish orqali ishlab chiqarish xarajatlaridan oshmaydi.

2) Muqobil va qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirishni rag'batlantiradigan va an'anaviy energiya resurslaridan foydalanishni cheklovchi siyosiy va qonunchilik qarorlarini qabul qilish butun dunyoda ekologik vaziyatning yomonlashuvidan kelib chiqadi.

Materiallar va usullar. Dunyoning etakchi mamlakatlarida 1970-yillardagi energiya inqirozi davrida ko'p qavatli qurilishda energiya tejavchi texnologiyalar paydo bo'ldi. O'shandan beri ofis binolari atrof-muhitni muhofaza qilish tamoyillariga muvofiq ishlab chiqilgan va qurilgan. Bunday ekologik toza texnologiyalarga quyidagilar kiradi: yuqori sifatli issiqlik izolyatsiyasi, ishlab chiqilgan rejalashtirish konsepsiyalari, qayta tiklanadigan, muqobil va toza energiya manbalaridan foydalanish, tabiiy va toksik bo'lmagan qurilish va pardozlash materiallari, binoning atrof-muhitga salbiy ta'sirini minimallashtirish. Qurilayotgan ob'ektlar juda tejamkor. Masalan, Vinnipegdagi (Kanada) 22 qavatli Manitoba Hydro Place biznes markazi energiya tejavchi texnologiyalar tufayli shunga o'xshash o'lchamdagi binolarga qaraganda 70% kamroq energiya sarflaydi, bu yilga 480 ming dollarni tejash imkonini beradi.

Natijalar. Qayta tiklanadigan energiya iqtisodi uglevodorod energetikasiga nisbatan qisqa muddatda loyihalash va qurish, o'ziga xos o'zgaruvchilarning pastligi (yoki kamayishi) va kapital xarajatlari va kilovatt-soat narxi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish elektr energiyasini yetkazib berish bo'yicha uzoq muddatli investitsiya loyihalari - ayniqsa quyosh va shamol elektr stansiyalari

uchun xavflarni sezilarli darajada bartaraf qiladi va ularning elektr energiyasining narxi yoqilg'i bozoridagi sakrashlarga bog'liq emas.

Shamol energiyasi va quyosh energiyasi ko'p qavatli binolarni qurish uchun ko'proq qo'llaniladigan AEI sifatida tavsiya etilganligi sababli, biz ularni batafsilroq ko'rib chiqamiz. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu ikkala AEni bir vaqtning o'zida ishlatadigan kombinatsiyalangan tizimlar qo'llaniladigan joylarda tobora ko'proq loyihalar amalga oshirilmoqda, bu faqat bunday binolarning energiya samaradorligini oshirishga olib keladi.

Shamol energetikasi - atmosferadagi havo massalarining kinetik energiyasini elektr, mexanik, issiqlik yoki xalq xo'jaligida foydalanish uchun qulay bo'lgan boshqa turdagi energiyaga aylantirishga ixtisoslashgan energiya tarmog'i.

Quyosh energetikasi muqobil energiyaning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib, u quyosh nurlanishi hisobiga issiqlik yoki elektr energiyasini oladi.

Xulosa. So'nggi yillarda qayta tiklanadigan va muqobil energiya manbalari keng e'tirof etilgan va keng tarqalgan. Bunga sayyoramizning ekologik holatining yomonlashuvi, qazib olinadigan yoqilg'ilarning narxi oshib borayotgani, bir qator mamlakatlarda ijtimoiy keskinlik, tabiiy resurslarning tugashi bilan bog'liq qator siyosiy va qonunchilik qarorlarining qabul qilinishi sabab bo'lmoqda. Maqolada "qayta tiklanadigan energiya" va "muqobil energiya" tushunchalariga aniqlik kiritiladi, chunki mavjud tavsiflar juda noaniq. Mualliflar muqobil energiya manbalarining tasnifini beradi, ularning ba'zilari qayta tiklanadigan energiya manbalaridir. Biz muqobil va qayta tiklanadigan energiya manbalarining boshqa energiya manbalariga nisbatan quyidagi asosiy afzalliklarini ta'kidlashimiz kerak: ekologik tozalik, foydalanish qulayligi, tejamkorlik, avtonomiya, transport xavfsizligi, ijtimoiy ahamiyati va boshqalar. Doimiy yangilanishlar, zamonaviy ishlanmalar va innovatsiyalar muqobil energiyaning raqobatbardoshligi va rivojlanish sur'atlarini oshiradi. Mavjud muqobil energiya manbalarining mumkin bo'lgan variantlarini tahlil qilish ko'p qavatli binolar va inshootlarni qurish uchun eng maqbulini aniqladi: shamol energiyasi va quyosh energiyasi. Energiyani olishning eng oqilona usuli quyosh nurlanishining tunganmas energiya manbai sifatida aylanishidir. Shamol energiyasi va quyosh energiyasidan foydalanishning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilish hozirgi ishning muhim qismiga aylandi. O'zbekistonda muqobil va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishning asosiy muammosi - bu o'z ishlab chiqarish uchun texnologiya va resurslarning yetishmasligi, shuningdek, quyosh elektr stantsiyalarining yuqori narxi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. V. Kanxva, IOP Conf. Seriya: Yer va atrof-muhit fanlari. (2017)
2. S.Q.Qahhorov, Muqobil energiya manbalari. (Toshkent,2022)
3. A.V. Kozlov. Atmosfera parametrlarining kremniy quyosh batareyasining energiya xususiyatlariga ta'sirini nazorat qilish.

4. "Issiqlik elektr stansiyalari", (<https://kun.uz/uz/20650416#>, 14.07.2022).

L.S. VIGOSTKIYNING IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING TA'LIM-TARBIYASI HAQIDA QARASHLARI

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrası
o'qituvchisi Sh.Z.Matupayeva
M.G', Panjiyeva Boshlang'ich ta'lim yunalish talabasi*

Annotatsiya: maqolada L.S.Vigostkiyning imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiyasi haqida qarashlari ning innovatsion tajribalari taxlil qilingan va tavsiyalar taqdim etilgan



L.S.Vigotskiy anomal bolalar rivojlanishidagi xususiyatlarni o'rganib, nuqsonning murakkab tuzilishi haqidagi ta'limotni ishlab chiqqan. U «Korreksiya pedagogikasining asosiy muammolari» kitobida anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta'limni olib borish kerakligini, korreksiya, kompensatsiya usullari va bularni yanada oshirish yo'llarini ko'rsatib bergan.

L.S.Vigotskiy anomal bolaning nafaqat «salbiy» balki «ijobiy» tomonlarini ham o'rganib, aniqlab, shularga tayangan holda va potentsial qobiliyatini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqatni jalb etadi. U korreksiya pedagogikasi sohasida katta zaruriy meros qoldirdi.

Atoqli psixolog L.V.Zankov 1935 yildan L.S.Vigotskiy bilan hamkorlikda ishladi. Bu olimlarning olib borgan tadqiqot ishlari psixologiya va korreksiya pedagogikasining nazariy jihatdan shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ular aqliy jihatdan qoloq bolalar ruhiy rivojlanishi qonuniyatlarini noto'g'ri tushunishga qarshi chiqib, «rivojlanishning to'xtash nazariyasi», «chegara» degeneratsiya nazariyasi», «ma'naviy defektli» kabi g'ayri ilmiy va reaksion nazariyalarni fos etuvchi dalillar keltirdilar.

Eksperimental psixologiya laboratoriyasida anomal bolalarning rivojlanishi maxsus ta'lim ta'siri ostida qanday o'zgarib borishini o'rganish, ulardagi mavjud nuqsonlarni ham, ijobiy tomonlarini ham aniqlash yuzasidan qiyosiy eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi. Tadqiqotlar anomal bolalar haqidagi noto'g'ri qarashlar va ularning imkoniyatlari haqidagi xulosalarga zid bo'lib, bunday bolalarning ta'limiga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirish zarurligini ko'rsatib beradi.

Olimlar me'yordagi (sog'lom) va anomal (nosog'lom) bolalar rivojlanishining qiyosiy tahlili bilan shug'ullanuvchi zamonaviy ilmiy

tadqiqotlar asosida biron-bir organ yoki butun organizmning sog'lom yoki nosog'lom rivojlanishiga qaramasdan ular, bir xilda faoliyat ko'rsatadi, hayotiy faoliyatga oid qonunlar asosan o'zgarmaydi, normal va anomal rivojlanayotgan bolalarning rivojlanishini umumiy qonuniyatlar boshqaradi, degan umumiy qoidalarni aniqladilar.

Qiyosiy psixologiyaning vazifasi bolaning me'yordagi va anomal rivojlanishining ta'iflariga muvofiq holda bola rivojlanishi haqidagi sohani qamrab olgan umumiy qonunlarni topishdan iborat. Bola rivojlanishi haqidagi qiyosiy tadqiqotning asosini sog'lom va patologik holatlarda ham rivojlanish bir xil, umumiy qonunlar asosida kechishini e'tirof etish tashkil etadi. Biroq, bu ayniyatlar har bir muayyan holatda o'zining har xil ifodasini topadi. Sog'lom rivojlanish holatlarida ushbu qonuniyatlar bir xil shart-sharoitlar majmuasida amalga oshadi. O'rganilayotgan, diqqatimiz markazidagi atipik, me'yordan chetga chiquvchi rivojlanishda namoyon bo'lgan holatlarda, aynan o'sha qonuniyatlar, mutlaqo boshqaca shart-sharoitlar majmuasida amalga oshib, bolalarning tipik rivojlanishi qotib qolgan ko'rinishda emas, balki, o'ziga xos, spetsifik ifodaga ega bo'ladi. Shu sababdan ham, qiyosiy tahlil, qiyosiy tadqiqot o'zining diqqat markazida doimo ikkita vazifani e'tiborga olishi zarur: umumiy qonuniyatlarni aniqlash, hamda har bir bola rivojlanishida o'ziga xoslikni inobatga olgan holda o'ziga xos ifodasini topish. Shu sababli, avvalo, bola rivojlanishidagi umumiy qonuniyatlardan kelib chiqqan holda, bolaning anomal (nosog'lom) rivojlanishidagi o'ziga xosligi o'rganilib, jamoani va atrofdagi muhitni anomal bola rivojlanishing omili sifatida ko'rib chiqish va shu yo'l bilan tadqiqotni amalga oshirish zarur.

Ushbu olimning sensomotor tarbiya nazariyasi va amaliyotida, ayrim his-tuyg'u va harakatlarni, ayrim elementar (sodda) jarayonlarni mashq qildirish (trenirovka) va tarbiyalashda yorqin ifodasini topgan edi. Aqliy qoloq bolani fikrlashga emas, balki hidlarni, ranglarni, tovushlarni va h.k. farqlashga o'rgatishardi. Nafaqat sensomotor madaniyat, balki anomal bolaning butun tarbiyasiga elementar narsalarga tenglashtirish singdirilgan edi. A.R. Luriyaning ushbu sahifalarda o'z ifodasini topgan qarashlari bizni zamonaviy pedologiyada mavjud qoloqlik va iste'dod kabi muhim masalaga o'z munosabatimizni qayta ko'rib chiqishga majbur qiladi. Haqiqatda esa psixologik adabiyotlarda bunday qayta ko'rib chiqish ancha oldin boshlangan bo'lib, ushbu zamonaviy qarashlar biz uchun odatiy bo'lgan, ko'p uchraydigan qoloqlikka nisbatan fikrlar bilan o'xshashligi juda kam. Odatda aqlan zaif bola haqida primitiv tasavvur va fikr tarqalgan. Aqli zaif – demak axmoq, (aniqrog'i debil–imbetsil–idiot) – butun ruhiyati juda buzilgan, rivojlanmagan na zarur xotiraga, na yetarlicha idrokka, na yetarlicha aql–farosatga ega bo'lmagan shaxs.

Qoloq–bu tug'ma ruhiy kambag'al.

Ammo aniq tadqiqotlar ushbu qarashni umuman tasdiqlamadi.

Haqiqatdan ham, qoloq bola o'z yoshidagi sog'lom (normal) boladan har tomonlama past turishi to'g'rimi?

Raqamlarga murojaat qilamiz. Bir nemis muallifi turli darajadagi qoloq bolalarning ko'rish kobilyatini batafsil o'rganib chiqdi. Natijalar juda qiziqarli chiqdi: idiotlar eng zo'r ko'rish qobilyatiga ega ekanlar.

Qiziq va bir muncha kutilmagan xulosa kelib chiqadi: aqliy qoloq bolalarda barcha psixofiziologik funktsiyalar pasayishiga duch kelamiz, deb kutgan edik – lekin, ularning asosiy tabiiy negizi – sezgi organlarining faoliyati – me'yordan pastda emas, ba'zi joylarda xatto yuqori turishi aniq bo'ldi. Bizlarni bundan keyingi qoloq bolalar psixikasi tadqiqotlarida ham shunday tasodiflar kutmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Matupayeva Sh., Qodirova F. The Importance of Cluster Trends in Preparing Children with Disabilities for Inclusive Education. Proceedings of international scientific-practical conference on “Cognitive research in education” Organized by Samarkand regional center for retraining and advanced training of public education staff. Uzbekistan. ISSN : 2581-4230 April, 15 th, 2021. Wwww.journalnx.com

2. Matupayeva Sh. Didactic Opportunities of the Educational Cluster in Increasing the Efficiency of Inclusive Education. International Journal on Integrated Education <https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE> . Volume 5, Issue 12 | Dec 2022, 182-187 b

3. Г.А. Джуманиязовна. Особенности структуры и содержания базового учебника по предмету «воспитание» в начальных классах. European Journal of Interdisciplinary Research and Development Volume-10 Dec. - 2022 Website: www.ejird.journalspark.org ISSN (E): 2720-5746

4. Г.А. Джуманиязовна. Практические методы и педагогические приёмы преподавания предмета «воспитание» в начальных классах Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 12 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | ASI-Factor: 1,3 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1

5. M.M.Sayliyeva. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tarbiya jarayonida milliy g'oya asosida tarbiyalash shakllari. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari: muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. T.2022-yil

6. M.M.Sayliyeva. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirish metodikasi Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 3 | 2023 ISSN: 2181-1385 ISI: 0,967 | Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,9 | ASI: 1,3 | SJIF: 5,771 | UIF: 6,1

7. Matupayeva Sh.Z. Teaching elementary teachers to use academic case clusters in the sciences Asian Journal of Multidimensional Research ISSN: 2278-4853 Vol. 11, Issue 11, November 2022 SJIF 2022 = 8.179, 329-335b

IJTIMOIIY MOSLASHUVCHANLIKNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK ASOSLARI

Mirzayev Sardor Amrullayevich

Qarshi Davlat Universiteti 1-bosqich doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchilarning moslashuvchanligini pedagogik psixologik asoslarini keltirilgan

Kalit so'zlar: ijtimoiy, ta'lim, moslashuv, pedagogika, psixologiya, o'quvchi.

Kirish. Inson ijtimoiylashuvi u yoki bu jamiyat ijtimoiy qatlamlariga xos bo'lgan ommaviy vositalar orqali amalga oshiriladi, ularga: go'dakni emizish va g'amxo'rlik qilish usullari, maishiy va gigienik yurish-turish qoidalari, insonni o'rab turuvchi moddiy madaniyat mahsulotlari, ma'naviy madaniyat unsurlari (alladan boshlab ertaklargacha), muomala usuli va mazmuni, shuningdek oilada jazolash va mukofotlash uslublari, insonning hayotiy faoliyatidagi ko'p sonli munosabatlari muloqot, o'yinlar, ma'naviy-amaliy faoliyat, sport bilan shug'ullanish kiradi.

Ma'lumki, har bir jamiyat, davlat, ijtimoiy guruhda ijobiy va salbiy (man etish, ruxsat berish, majburlash) chora-tadbirlarini ishlab chiqiladi. Bu choralar yordamida inson xulq-atvori shu jamiyatda qabul qilingan me'yoriy qoidalarga moslashtiriladi. Bola ijtimoiylashuvining yetakchi vositalari muomala (ota-onalar, tengdoshlar va boshqalar bilan) hamda faoliyat (o'yin, o'qish, ijod, sport)dir. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar arayonida turli yosh davrlariga turli faoliyat turlari mos kelishi aniqlangan. Go'daklik davri-bevosita hissiy-ruhiy; -go'daklikdan keyingi davr-predmetli faoliyat; -maktabgacha davr-rolli o'yinlar; -ilk maktab davri-o'quv faoliyati; -o'smirlik davri-kasb ta'limi faoliyati; -o'spirinlik davri-shaxsiy muloqot faoliyati. Insonning voyaga yetishida, uning shakllanishi jarayonida, u bevosita munosabatda bo'lgan kishilar muhim o'rin tutishadi. Ularni ijtimoiy pedagogikaga oid adabiyotlarda ijtimoiylashuv agentlari deb ham nomlanadi. Turli yosh davrlarida agentlarning tarkibi turli bo'ladi. Bolalar va o'smirlar uchun ota-ona, aka-uka, opa-singillar, qarindoshlari, tengdoshlari, qo'shnilar agent bo'lishlari mumkin. Yoshlik davriga kelib agentlar qatoriga turmush o'rtog'i, hamkasblari ham qo'shilishlari mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). I.P.Podlasiyning tasnifi bo'yicha bu mexanizmlar: - bostirish mexanizmi: uning mazmuni muayyan g'oya, fikr, xohish, istaklarni ongdan chiqarib tashlashdan iborat. Bu mexanizmning tashqi va ichki turlari mavjud. Ichki mexanizm ham o'z o'rnida ixtiyoriy va g'ayri ixtiyoriyga bo'linadi. G'ayri ixtiyoriy mexanizm-unutishdir.

Ixtiyoriy bostirish mexanizmi esa iroda kuchi bilan amalga oshiriladi. Tashqi bostirish mexanizmi tarbiyaning keng tarqalgan usulidir; - ajratish mexanizmi: bu mexanizm ijtimoiylashuv mexanizmi sifatida inson o'zi uchun yomon taassurotlardan voz kechishi bilan bog'liq. Ajratish mexanizmi odatda

nizolarni hal qilishda kuzatiladi. - o'z- o'zini cheklash mexanizmi: bu mexanizm ijtimoiylashuv jarayonida muhim o'rin tutadi. Agar tarbiyalanuvchiga uning yutuqlari do'stlarinikidan ko'ra ahamiyatsizroq tuyulsa, uning o'zo'ziga ishonchi pasayadi. Bu o'z menini cheklab qo'yish, qiyinchiliklar oldida ojiz qolishdir. Ba'zi hollarda o'z-o'zini cheklash mexanizmini qo'llashni oqlasa bo'ladi. Chunki, bu holatda moslashuv sodir bo'lishi mumkin. Biroq uzoq muddatli o'z-o'zini cheklash, o'z- o'ziga baho berishning pasayishiga olib keladi. Buning natijasida o'z salohiyatini bilmay turib tarbiyalanuvchi ilk muvaffaqiyatsizlikdan so'ng boshlagan ishini tashlab qo'yadi, oqimda suza boshlaydi; - o'z kamchiliklarini boshqalarga tegishli deb hisoblash loyihalash mexanizmining mohiyatini tashkil qiladi. O'ziga, boshqalarga qarshi qaratilgan salbiy hissiyotlar bilan inson o'ziga bo'lgan hurmatni saqlab qoladi.

Identifikatsiya jarayonida tarbiyalanuvchi hayolan o'zini o'rtoqlari bilan qiyoslaydi. Identifikatsiya ob'ekti nafaqat real insonlar, balki tasavvurlardagi insonlar ham bo'lishi mumkin. Identifikatsiyaning to'liq, qisman, ongli, ongsiz turlari mavjud. Identifikatsiya mexanizimi introeksiya mexanizimi bilan juda bog'liq. Bunda boshqalarning xislatlari o'zgarmagan holda o'zlashtirib olinadi. Garchi bu mexanizm xayolan amalga oshirilsa ham uning natijalarini anglab olish qiyin emas; - empatiya mexanizmi, ya'ni boshqa odamning hissiy holatiga hamdard bo'lish. Shaxsning muammo, qiyinchiliklarini yengishga yordam berish hissiyotga boy shaxslarning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga ega; - qiyin holatlarda intellektuallashuv mexanizmi ishga tushadi.

Katta yoshdagi tarbiyalanuvchi abstrakt fikr lay boshlaydi va vaziyatdan chiqib ketish yo'lini o'zi uchun emas, go'yoki boshqa odam uchun qidiriyotgandek tuyuladi. Bu mexanizm tarbiyalanuvchi hayotiy muhim muammolarga (kasallik, boshqa maktabga o'tish, institutga kirish) duchor bo'lganda namoyon bo'ladi.

Taqlid-biror bir namunaga o'xshashga harakat qilish. Bu holat insonning ijtimoiy tajriba to'plashining yo'llaridan biridir. Refleksiya mexanizmi-ichki suhbat. Unda inson jamiyatning turli institutlari, oila, tengdoshlar jamoasi, obro,, e'tiborli shaxslarga xos xususiyatlarga baho beradi, ularni ko'rib chiqadi yoki inkor etadi. Refleksiya insonning turli "men" obrazlari orasidagi real va hayoliy shaxslarning ichki suhbatidir. Bu mexanizm yordamida insonning shakllanishi ro'y beradi. Bundan tashqari ijtimoiylashuvning ijtimoiy pedagogik mexanizmlariga quyidagilarni ham kiritsa bo'ladi: ijtimoiylashuvning an'anaviy mexanizmi inson tomonidan oila, atrof-muhit, qo'shnilar, o'rtoqlariga xos xulq, qarash stereotiplarini o'zlashtirishni ko'zda tutadi. Bu o'zlashtirish ongsiz holatda amalga oshib taassurotlar yordamida sodir bo'ladi. Institutsional mexanizm insonning jamiyat institutlari va turli tashkilotlari bilan o'zaro munosabati jarayonida kuzatiladi. Bu jarayonda inson turli bilim va tajribalarni to'plashi mumkin. Ijtimoiylashuv bolalar, o'smirlar, yoshlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ko'p sonli shart sharoitlar bilan o'zaro munosabatida yuzaga keladi. Insonga ta'sir qiluvchi bu sharoitlar omil deyiladi. Ijtimoiylashuvning bir necha omillari bo'lib, ularni quyidagicha

guruhlash mumkin. Megaomillar (mega-eng katta)- kosmos, planeta, dunyo, shuningdek bularga demografik, ijtimoiy siyosiy, ekologik, planetar jarayonlarni ham kiritisa bo'ladi. Ular boshqa omil guruhlari orqali yer yuzasi barcha aholisining ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatadi. Makroomillar (makro-katta)-davlat, halq, jamiyat. Bu omillar muayyan hududda yashovchi aholi ijtimoiylashuviga ta'sir qiladi. Mezoomillar (mezo-o'rta)-hudud va yashash joyi ommaviy aloqa tarmoqlari, auditoriya, u yoki bu submadaniyatga tegishliligiga ko'ra ajratilgan guruhlarning ijtimoiylashuvi shartsharoitlaridir. Ijtimoiylashuvga mezoomillar mikroomillar orqali ta'sir qiladi. Mikro omillarga muayyan shaxslarga ta'sir qiluvchi omillar-oila, qo'shnilar, tengdoshlar guruhlari, tarbiya muassasalari, turli ijtimoiy, diniy, davlat, xususiy tashkilotlar kiradi. Shaxs tug'ilganidan boshlab rivojlanadigan muhit sotsium yoki mikrosotsium deyiladi. Tashqi ijtimoiy omillardan tashqari ichki biologik omillar ham mavjud. Biologik omillar (irsiyat) insonni inson qiluvchi umumiy jihatlarini aniqlaydi. Irsiyat deganda ota-onalardan bolalarga turli belgi, o'xshashlik, xususiyatlarning o'tishi tushuniladi. Irsiyatga ko'ra bolaga ota-onasidan inson organizmi, asab tizimi, miya va xis tuyg'u organlari, shuningdek, qomat tuzilishi, soch, teri rangi o'tadi. Bular insonni boshqa insonlardan ajratib turuvchi tashqi omillar hisoblanadi. Shuningdek irsiyat bo'yicha nerv faoliyatini rivojlantiradigan nerv xususiyatlari ham o'tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror bir faoliyat sohasida muayyan qobiliyatlarining shakllanishini ko'zda tutadi.

Ijtimoiy omillar. Insonning biologik mavjudotdan ijtimoiy sub'ektga aylanishi, uning ijtimoiylashuvi, jamiyatga integratsiyasi natijasida sodir bo'ladi. Bu jarayon shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari asosida shakllanadigan qadriyat, ijtimoiy me'yor, xulq-atvor namunasi orqali amalga oshadi. Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigan ko'p qirrali jarayondir. U ayniqsa bolalik va yoshlik davrida nihoyatda jadallik bilan kechadi. Chunki, aynan bolalikda asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi. Bola ijtimoiylashuvida sotsium muhim ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy muhitni bola asta-sekinlik bilan o'zlashtiradi. Agar bola tug'ilgandan keyin asosan oilada rivojlansa, uning keyingi rivojlanishi yangi va yangi muhitlar-maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, turli ko'ngilochar maskanlarda kechadi. Yosh ulg'aygan sari ijtimoiy muhit "hududi" kengayib boradi. Bola qanchalik ko'p muhitlarni o'zlashtirsa, u shunchalik keng doira hududini egallashga harakat qiladi. Bola doimo o'zi uchun qulay bo'lgan uni yaxshi tushunadigan, unga hurmat bilan munosabatda bo'ladigan muhitni izlashga urinadi. Shuning uchun u bir muhitdan boshqa muhitga ko'chib yuradi. Muhit bolani shakllantirishda, uning ijtimoiy tajriba to'plashida ijtimoiylashuv jarayoni uchun muhim ahamiyatga ega. Muhit-inson kirishishi, o'zini qulay sezishi uchun joylashuvinigina yetarli bilishi lozim bo'lgan ko'cha, uy va boshqa narsalar emas. Balki, muhit bu alohida o'zaro munosabatlar tizimi va qoidalari bilan harakterlanadigan inson jamoalari hamdir.

Xulosa va takliflar (conclusion and recommendations). Muhitning insonga munosabatini insonning yurish-turishi, uning talablariga qanchalik javob berishiga qarab aniqlasa bo'ladi. Insonning xulq-atvori uning jamiyatda tutgan o'rni bilan belgilanadi. Bolaning xulq-atvor mexanizmlarini o'zlashtirishi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi. Ijtimoiy moslashuv deganda shaxsning ijtimoiy muhit sharoitlariga ko'nikishi tushuniladi. Ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi hisoblanadi. Bu asosan uch yo'nalishda olib boriladi: faoliyat, muomala va anglash. Faoliyat sohasida bolada faoliyat turlarining kengayishi, faoliyatning zaruriy shakl va vositalarini qo'lga kiritishi, muomala sohasida muomala doirasining kengayishi, uning mazmunining chuqurlashishi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish sodir bo'ladi. Anglash sohasida o'z "men"i obrazini shakllantirish, o'zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o'rnini anglash ro'y beradi. Bu jarayonlarning barchasini tarbiya tartibga soladi. Bolaning o'z shaxsini mukammallashtirish, o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha mustaqil faoliyatini anglashi ortadi. Ma'lumki, o'z-o'zini tarbiyalashga ehtiyoj shaxs rivojining eng yuksak shakli hisoblanadi. Tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash va boshqa ijtimoiy omillarning (madaniy, diniy, tarixiy an'analar, maktab jamoasi, do'stlar, bolalar bog'chasi va boshqalar) ijobiy ta'siri natijasida bolaning jamiyatga integratsiyalashuvining tabiiy jarayoni yuz beradi. Bola ijtimoiylashuvi uning jismoniy va ruhiy rivojlanishining salbiy xususiyatlari bilan qiyinlashtirilishi mumkin. Bolaning ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirishi muhitning salbiy ta'siri oqibatida noto'g'ri yo'nalishda ketib qolishi mumkin. Buning natijasida bola me'yoriy ijtimoiy munosabatlardan chetda qolib ketib, maxsus yordamga muhtoj bo'lib qoladi. Bunday bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni avvalo tarbiya orqali amalga oshadi. Umuman olganda tarbiyachi va mutaxassislarining vazifasi qiyin vaziyatlarda turgan bolaning ijtimoiy moslashuviga qaratilgan, ya'ni jamiyatda qabul qilingan qonun va me'yorlarga faol ko'nikishi yoki salbiy omillarning oqibatlarini yengishdir.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Do'stmuhamedova Sh.A., Nishonova Z.T. va boshqalar Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T. Fan va texnologiyalar 2013
2. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari - Toshkent, 2015.
3. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. 2012 y. Toshkent, «Ilm-Ziyo» nashriyoti.
4. Pedagogika nazariyasi va tarixi // M.X. To'xtaxo'jayeva tahriri ostida. - T.: «Moliya- iqtisod», 2008.
5. Shapovalenko I.V. Vozrastnaya psixologiya (Psixologiya razvitiya i vozrastnaya psixologiya): uchebnik dlya studentov vuzov. - M.: Gardariki, 2007.
6. G'oziyev E. G.,. Pedagogik psixologiya. -Toshkent: Universitet, 2014. i yoki salbiy omillarning oqibatlarini yengishdir.

ЛИНГВИСТИК КОМПЕТЕНЦИЯНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МУАММОЛАРИНИ ХОРИЖИЙ ЛИНГВОДИДАКТИКАДАГИ ТАЛҚИНЛАРИ

Мўминова Гўзалхон Фуламжановна

Наманган давлат университети “Бошланғич таълимда ижтимоий-гуманитар фанларни ўқитиш методикаси” кафедраси ўқитувчиси

Аннотация. Таълим жараёнининг пойдевори бўлган бошланғич синфларда ижтимоий вазиятларда она тилида ўзаро мулоқотга кириш, бу жараёнда муомала маданиятига амал қилишни, ижтимоий мослашувчанликни, ҳамкорликда жамоада самарали ишлай олиш лаёқатларини, нутқ маданиятини шакллантириш бугунги кунда долзарб масала ҳисобланади. Она тилида фикрини изчил, мантиқан боғланган, яхлит ва грамматика қоидалари асосида баён этиш малакаларини ривожлантириш, бошланғич синф ўқувчиларининг нутқ маданиятини такомиллаштириш ўқитувчининг ўқув-методик фаолиятидаги асосий йўналишлардан бири саналади. Шубҳасиз, бу вазифаларни бажаришда лингвистик компетенция муҳим омил ҳисобланади.

Бошланғич синф ўқувчиларида лингвистик компетентликни шакллантиришнинг ўқувчи фаолиятидаги аҳамияти, дарсликдаги ўрни, машқлар устида ишлаш жараёнида такомиллаштириш алоҳида тадқиқот объекти сифатида мустақил ўрганилмаган.

Мақолада лингвистик компетенцияни шакллантириш муаммоларини хориж лингводидактик манбаларда ёритилиши баён этилган.

Калит сўзлар: компетенция, лингвистика, лингводидактика, хориж олимлари, ифодалашнинг лингвистик воситалари, талқинлар, қизиқарли тилшунослик, тил компетенцияси, муаммолар доираси.

Аннотация В начальных классах, являющихся основой образовательного процесса, остро стоит вопрос о вступлении во взаимное общение в социальных ситуациях на родном языке, в этом процессе соблюдать культуру поведения, социальную гибкость, умение эффективная работа в команде, культура речи. Одним из основных направлений в учебно-методической деятельности учителя является развитие навыков изложения мыслей на родном языке в связной, логически связанной, целостной и грамматической форме, повышение речевой культуры учащихся начальной школы. Несомненно, языковая компетенция является важным фактором в выполнении этих задач.

Значение формирования языковой компетенции у младших школьников, ее роль в учебнике, совершенствование при работе над упражнениями самостоятельно как отдельный объект исследования не изучались.

В статье рассматриваются проблемы формирования языковой компетенции в иностранных лингводидактических источниках.

Ключевые слова: компетенция, лингвистика, лингводидактика, зарубежные ученые, языковые средства выражения, интерпретации, интересная лингвистика, языковая компетенция, круг

Она тилини ўқитишда ҳозирги босқичда ўрганишнинг мақсадлари, унинг мазмуни, билим, кўникма ва малакаларнинг даражалари лингвистик ва коммуникатив компетенциялар, лингвистик компетенлилик орқали аниқланади. Бошланғич она тили методологиясида булар нисбатан янги тушнча бўлиб, ўзбек лингводидактикасига энди кириб келмоқда.

Она тили грамматикасини ўргатиш бошланғич синф ўқувчиларини тилдан мулоқот воситаси сифатида фойдаланишига ва ақлий ривожланиши учун катта имкониятларга эга, бу ўз навбатида, ўқувчиларнинг умумий билимини оширишга ҳисса қўшади, уларни грамматиканинг асосий қоидаларини ўзлаштиришларига, фикрни ифодалашнинг лингвистик воситаларини эгаллашларига, нутқини ривожлантиришга ёрдам беради. Шунингдек, она тили грамматикаси бошланғич синф ўқувчиларининг мантиқий тафаккури ва амалий нутқ ва имло кўникмаларини шакллантириш учун асосдир. Шу билан бир қаторда, она тили дарсларида таълимнинг барча босқичларида ўқувчиларда лингвистик компетенция шаклланади, ривожланади ва такомиллашади.

Маълумки, замонавий таълимни модернизация қилишнинг етакчи ғояларидан бири билимлар йиғиндисини узатиш ва тегишли кўникмаларни шакллантириш каби таълим мақсадини анъанавий тушунчалардан ташқарига олиб чиқадиган компетенцияларни ривожлантириш ғоясидир. Шунинг учун лингвистик компетенцияни шакллантиришнинг хорижий лингводидактикадаги талқинларини шаҳрлаб ўтамыз.

Жаҳоннинг Америка, Германия, Франция, Бразилия, Испания, Финландия, Россия ва бошқа ривожланган мамлакатларида тил таълимидаги компетенция ва компетентлик назарияси, хусусан, компетентлик ёндашувининг асосий таркибий қисмларини ривожлантириш тизими бўйича салмоқли илмий ишлар қилинган, бу борада муайян илмий фикр-мулоҳазалар билдирилган. Масалан, америкалик тилшунос М.Chomsky биринчи марта XX асрнинг 60-йилларида ўз асарларида “компетенция” атамасини қўллаган ва уни инсоннинг бирор фаолиятини амалга ошириш лаёқати деб таърифлаган. Мазкур назариячи олим тилнинг мустақил сатҳларидан бири бўлмиш синтаксисга бағишланган илмий асарларида “компетенция” (competence) ва “қўлланиш” (performance) тушунчаларини қиёсий таҳлил қилади ҳамда ушбу атамалар мазмунидаги фарқларни “сўзловчи-тингловчи”нинг билимлари билан тилнинг мулоқот ва фаолиятида қўлланиши орасидаги тафовутлар орқали очиқ беради.

Хомскийнинг назарияси тилшунослар ўртасида мунозараларга сабаб бўлди ва тилни ўзлаштириш ҳамда ундан фойдаланиш бўйича талқинларга таъсир қилишда давом этди. Баъзи тадқиқотчилар лингвистик компетенцияни инсон миясининг туғма функцияси эмас, балки ўрганилган хатти-ҳаракатлар сифатида изоҳлаган. Бошқа тадқиқотчилар Хомскийнинг компетенция ва ишлашнинг алоҳида таърифларига эътибор бермайдилар ва тилни инсон хатти-ҳаракатларининг амалий функцияси сифатида ўрганадилар. Лингвистик компетенция тушунчаси тилшунослик назарияси ва таълимнинг муҳим жиҳати бўлиб қолмоқда.

Ҳозирги вақтда рус лингводидактикасида, компетенция тушунчасининг турли талқинлари мавжуд. Баъзи ҳолларда компетенция ва компетентлилик икки хил тушунча сифатида қаралади, бошқаларида - бу тушунчалар ажратилмайди. Рус тили изоҳли луғатда компетенция – “кимдир яхши биладиган масалалар, ҳодисалар мажмуаси” ёки “маълум бир шахс ваколатига, билимига, тажрибасига эга бўлган масалалар, ҳодисалар доираси”; компетентлилик - хабардорлик, ваколат сифатида изоҳланади[5]. Шундай қилиб, компетенция - бу ҳодиса /"муаммолар доираси"/, компетентлилик эса шахснинг интеллектуал мулки, сифатидир. Бошқача қилиб айтганда, компетенция ва компетентлилик иккита мустақил тушунчадир. Услубий атамалар луғатларида муаллифлар компетенция атамасининг икки томонлама талқинини берадилар: 1) “муайян фанни ўқитиш жараёнида шаклландиган билим, кўникма, малакалар йиғиндиси” яъни, ҳақиқатда компетенция – “масалалар доираси”. ”; 2) "ҳар қандай фаолиятни амалга ошириш қобилияти", яъни аслида компетенция эмас, балки компетентлилик-шахснинг мулкидир. Академик Н.М.Шанский ва проф. Е.А. Быстрованинг компетентлик деганда тилга оид билимлар тўпламига эга бўлиш, уларни таҳлил қилиш ва синтез қилиш қоидаларини билиш ва улардан мулоқот мақсадларида фойдалана олиш ҳақидаги фикрлари асос сифатида қабул қилиниши мумкин.

Муаммо доирасидаги илмий ва илмий-методик адабиётларда компетенциянинг қуйидаги турлари аниқланган: лингвистик, коммуникатив, нутқий, фонетик, лексик, синтактик, этник-маданий, стилистик ва бошқалар. Муаммо бўйича мавжуд адабиётларни таҳлил қилиш ушбу атамаларнинг хориж лингводидактикасида ҳам ягона талқинга эга эмаслигини кўрсатади. Шундай қилиб, замонавий хорижй лингводидактикада компетентлик ва лингвистик компетентлилик атамалари синоним сифатида ишлатилади ёки чегараланган ва мустақил тушунчалар сифатида белгиланади. Таъкидлаш лозимки, она тили ўқитиш методикасида лингвистик компетенция ҳамда лингвистик компетентлилик тушунчаларини фарқлаш мақсадга мувофиқдир. Бундай зарурат шундан келиб чиқадики, она тилини ўзлаштириш, бир томондан, тил бирликлари ва уларни яшаш қоидаларини ўзлаштиришни

(гапни тушуниш ва қуриш шарти сифатида), иккинчи томондан, тил, унинг тизими ҳақидаги билимлар мажмуини ўз ичига олади

Мавжуд лингводидактик тадқиқотларда лингвистик компетенция билан бир қаторда “тил компетенцияси” ибораси ҳам ишлатилади. Тил малакасининг турли хил таърифлари мавжуд. Н.И.Верещагин ва В.Г. Костомаров[1] уни "сўзловчининг ўзига ўргатилган қоидалар асосида грамматик жиҳатдан тўғри иборалар занжирини яратиш қобилияти" деб тушунади.

Тилшунослик компетенциясини шакллантиришнинг муҳим шарти ўқувчиларнинг интеллектуал ва шахсий ривожланишини фаоллаштиришга, мактаб ўқувчиларининг когнитив мустақиллигини шакллантиришга қаратилган ўқитиш услублари ва усулларини такомиллаштиришдир. Ушбу масалага жуда кўп услубий қўлланмалар ва мақолалар бағишланган. Ф.И.Буслаев, А.В.Щерба, Н.Н.Прокопович, А.В.Текучев, Л.П.Федоренко, А.В.Дудников, А.И.Власенков, М.Т.Баранов, В.П.Озерская, Г.К.Лидман-Орлова, Тростенцова Л.А., А.Г.Амелина, Е.А.Барина, Е.Н.Пузанкованинг бу борадаги қарашлари, шубҳасиз, қизиқиш уйғотади.

Хорижий манбаларда лингвистик компетенцияни шакллантириш ва ривожлантириш усуллари ва таснифи ҳақида умумий қабул қилинган тушунча мавжуд эмас; усул – восита-техника - машқ; бу атамалар кўпинча бир-бирининг ўрнида ишлатилади.

И.Я. Лернер [3] усулларнинг қуйидаги таснифини таклиф қилади: янги билимларни етказиш усуллари /эвристик, догматик, аналитик-синтетик/, мустаҳкамлаш усуллари /кўчириш, грамматик таҳлил, диктант, шарҳ ёзиш, хатолар устида ишлаш, топшириқлар усули ва мустақил усул. ёзма иш/, бухгалтерия ҳисоби ва назорат қилиш усуллари /одатда фиксация билан бир хил.

А.В.Текучев[6] таснифига кўра, бу ўқитувчи сўзи, суҳбат, тил таҳлили /тил бўйича кузатишлар, грамматик таҳлил/, машқлар, кўргазмали қуроллардан фойдаланиш, дарслик билан ишлаш, экскурсия.

Л.П. Федоренко[7] амалий тил ўрганиш /тушунарсиз сўзларни тушунтириш, оғзаки хабарларни тайёрлаш, режалар, конспектлар, конспектлар тузиш, маълумотнома адабиётлари билан ишлашга ўргатиш/ тилни назарий ўрганиш усуллари /суҳбат, мулоқот, дарслик ўқиш/, усулларини таъкидлайди. назарий ва амалий тил ўрганиш/ турли машқлар: грамматикани ўрганишда - грамматик таҳлил, тайёр материални таҳлил қилиш, тил материални ўзгартириш, тақдимот, грамматик қурилиш, композиция .

Кўриб турганингиздек, усулларни таснифлаш турли асосларга асосланади: М.Р. Львов[4] ўрганиш босқичларидан келиб чиқади, А.В.Текучев[6], асосан, билимларни ўзлаштириш манбасини, Л.П.Федоренко[7] - мавзу мазмунининг ўзига хос хусусиятларини ва уни ўрганишнинг мақсадлари. Ушбу асосларнинг ҳар бири методларни

тавсифлаш учун зарурдир, аммо, афтидан, таълим тизимининг модели сифатида ишлатилиши мумкин бўлган усулларнинг бундай таснифини ишлаб чиқиш етарли эмас. Усулларнинг таснифи кўп ўлчовли бўлиши керак, бир эмас, балки бир нечта бўлиниш асосларига асосланади.

Ўқитиш методикаси муаммосини ечишга тизимли ёндашиш дидактлар, хусусан, И.Я.Лернер ва М.Н.Скаткинларнинг асарларида асослаб берилган. Бу олимлар томонидан таклиф этилган концепцияга мувофиқ ўқитиш методикаси ўқитувчи ва ўқувчиларнинг ўзаро боғлиқ фаолиятининг умумлаштирилган модели сифатида қаралади, у маълум бир тузилишга эга - уларнинг алоқа ва муносабатларидаги компонентлар таркиби. Ўқитиш методи тузилмасидаги бошланғич компонентлар ўқув мақсадлари, таълим мазмунининг турлари /мақсадга эришишнинг асосий воситаси сифатида ва уларни ўқувчиларнинг ўзлаштириш усуллари ҳисобланади[3].

Усулнинг муҳим белгилари когнитив фаолият тури ва ўрганилаётган мавзу мазмунининг ўзига хос хусусиятлари ҳисобланади. Хорижий лингводидактик манбаларда лингвистик компетенцияни шакллантириш учта турдаги таълим фаолияти ёрдамида амалга оширилиши таъкидланади: тайёр шаклда таклиф қилинган материални идрок этишдан иборат рецептив; репродуктив, олинган билимларни ёдлаш ёки кўникмаларни ривожлантириш билан боғлиқ ва билимларни ёки ўқув фаолиятини такрорлашда ифодаланади; мустақил билим олишга қаратилган самарали ёки ижодий фаолият.

Ўқувчиларнинг лингвистик компетенциясини таъминловчи мактаб она тили курсининг мазмуни билим ва малакаларни ўз ичига олади. Рус лингводидактикасида таъкидланишича, тилни билиш икки компонентни ўз ичига олади: а) тил ва нутқни билиш; б) тил / нутқ / материали билан ўқув фаолияти усуллари ҳақида билим. Тил ва нутқ ҳақидаги билимларга тил ҳақидаги фаннинг турли соҳаларига оид тушунчалар, тушунчалар таснифи, меъёр ва қоидалар, тил фактлари рўйхати киради. Тарбиявий ҳаракатлар усуллари тўғрисидаги билимларга таҳлил схемалари, маълум ўқув ҳаракатларини бажаришда операциялар кетма-кетлигини белгилайдиган рецептлар намуналари, эслатмалар киради.

Мактаб таълими, шу жумладан бошланғич таълим мазмунини ташкил этиш ва белгилашга компетенцияга асосланган ёндашувни ўрнатилган деб ҳисоблаш мумкин, чунки психологик-педагогик фан ва амалиёт "компетентлик" ва "компетентлилик" тушунчалари билан фаол ишлайди. Илмий ҳамжамиятда ушбу тоифаларнинг мазмуни бўйича консенсус мавжуд эмас.

Компетецияга асосланган ёндашув назариясини ишлаб чиқишда методистлар фаол иштирок этдилар, аммо рус тилини ўқитиш методикасида, айниқса, бошланғич мактабда компетенцияга асосланган ёндашув дарҳол қабул қилилмади. Бунинг сабаби тил компетенцияси ва

унинг таркибига кирадиган индивидуал компетенцияларни, шу жумладан лингвистик компетенцияни қандай ажратиш кераклигини етарли даражада аниқ тушунмаганлиги эди.

Нисбатан яқинда лингвистик компетенция оддийроқ компонентларни бирлаштирган синтетик тушунча эканлиги аниқланди: лингвистик, лингвокултурологик, коммуникатив-нутқ ва қиймат-муносабат. Ушбу компонентларни танлаш тил курсининг барча бўлимларини ўрганишда таълим муаммоларини мақсадли ҳал қилиш ва ҳар бир компетенциянинг моҳиятини шакллантириш имконини беради.

Ҳозирги кунда лингвистик компетенция одатда талабаларнинг нутқ шакллари билан ифодаланган ҳамма нарсани тушуниш ва улардан фойдаланиш амалий қобилияти сифатида тушунилади.

Шу билан бирга, бугунги кунга қадар кичик ёшдаги ўқувчиларнинг лингвистик компетенциясини ривожлантиришда компетенцияга асосланган ёндашувни максимал даражада самарали амалга оширишга имкон берадиган даражада баъзи бир принципиал муҳим масалалар ҳал этилмаган.

Ўқувчиларда лингвистик компетенцияни шакллантиришда рус олимлари “кўнгилочар тилшунослик” материалларидан фойдаланишни тавсия этганлар. Кўнгилочар тилшунослик умумий илмий контекстда ҳам, мактаб таълими контекстида ҳам тилшуносликнинг бир тармоғи эмас. “Кўнгилочар тилшунослик” тушунчаси лингвистик луғатларда мавжуд эмас, лекин фаол қўлланилади. Лингвистик адабиётлардан кўнгилочар имло (М.В. Панов), кўнгилочар услуб (И.Б. Голуб, Д.Э.Розентал), кўнгилочар лексикология (В.Д. Девкин) ва бошқаларга оид китобларни учратиш мумкин.

Олим-методистлар, мактаб ўқитувчилари ушбу концепциядан фаол фойдаланадилар, кўнгилочар тилшунослик бўйича факультатив курслар, қўшимча таълим дастурларини яратадилар.

Адабиётларни таҳлил қилиш натижасида “кўнгилочар тилшунослик”ни тушунишда икки хил ёндашув мавжудлигини кўриш мумкин.

Биринчидан, қизиқарли тилшунослик турли хил қизиқарли лингвистик ҳодисаларга ишора қилади. Шундай қилиб, В.Д.Девкиннинг “Кўнгилочар лексикологияси” қисқа ҳикоялар, диалоглар, шеърларни ўз ичига олади, улар қандайдир тарзда сўз ўйини билан боғланган тарзда қурилган.

Иккинчидан, методистлар қизиқарли тилшуносликни мактаб ўқувчиларининг илмий тилшунослик асосларини ўзлаштириш воситаси деб аташади, бу ўқувчиларнинг ўзлаштирилаётган материалга қизиқишини ва уни ўзлаштиришини таъминлайдиган ҳаяжонли, кўпинча ўйин тарзида тақдим этилган лингвистик билимлар тўпламидир. Одатда анъанавий деб аталадиган тизимнинг ижобий тажрибасини ҳисобга олган ҳолда қурилган.

Инновацион ривожланиш ҳар доим дидактика ва ўқитиш усуллари, таълим назарияси ва амалиётидаги жиддий ва технологик ўзгаришлар билан боғлиқ. Бугунги кунда анъанавий ўқув жараёнининг тадқиқот характерини кучайтириш, ўқувчиларнинг изланиш фаоллиги ҳажмини ошириш орқали қандай оптималлаштирилаётганини кузатишимиз мумкин.

Лингвистик компетенцияни шакллантириш технологиясини яратилиши она тили таълимида янги педагогик амалиётнинг юзага келишига сабаб бўлади. Бошланғич синф она тили дарсларида лингвистик компетентликни шакллантириш технологияси орқали ўқувчи таълим жараёнининг фаол иштирокчисига айланади ва унинг нутқи, тафаккури ривожланади, мустақил фикрлаш даражаси ошади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Верещагин Е. М.Л., Костомаров В. Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. 4-е изд., перераб. и доп.—М. 251 страница

2. **Голуб И. Б. Стилистика русского языка / И. Б. Голуб.** - 11-е изд. - М.: Айрис-пресс, 2010. - 448 с.

3. Лернер И.Я., Скоткин Н., М. Классификация методов обучения.- М., 2018, 68 с.

4. Львов М.Р. . Словарь-справочник по методике родного языка.- М.,2016

5. Ожегов С.И. Словарь русского языка.- Москва : Русский язык.- 1986, 795 с.

6. Текучев А.В. Методика преподавания русского языка.-Москва: Просвещение, 2001.

МУТАХАССИСНИНГ ИНТЕГРАЦИЯСИ ВА КАСБИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ

*Иқтисодиёт ва педагогика университети
Филология ва педагогика кафедраси стажёр ўқитувчи
2022 **Мойлиева Хумора Тўра қизи**
Бошланғич таълим йўналиш 1-курс 121-22 гуруҳ талабаси
Сафарова Мадина*

Аннотация. Мақолада замонавий кадрлар олдида қўйилаётган энг муҳим вазифалардан бири - малакали мутахассислар сифатида ўз қизиқишлари, қобилиятлари, индивидуаллиги, шахсий фазилат ҳамда хислатларини билган тарзда атрофидагилар меҳнатини оқилона ташкил этиш ва ижтимоий фойдали меҳнатнинг барча соҳаларида иқтидорли касб соҳиби сифатида фаолият кўрсатиш масалалари талқин қилинган.

Калит сўзлар: мутахассис, интеграция, ўзига хослик, тайёргарлик, билим, малака, интилиш, шаклланиш.

Касбий фаолиятнинг самарадорлиги шартларидан бири мутахассиснинг касбий тайёргарлиги ҳисобланади. Касбий тайёргарлик деганда унинг руҳияти ва жисмоний соғлиғи ҳамда ҳолати, ундаги сифатларининг бажараётган фаолият талабларига мослиги даражаси тушунилади.

Машхур рус психологи К.К.Платонов: “Мутахассиснинг касбий тайёргарлиги бу ўзининг муайян касбий фаолиятини бажаришга қодир ва тайёргарлик кўрган деб ҳисобловчи ва уни бажаришга интилувчи шахснинг субъектив ҳолатидир”, - деб ҳисоблаган.

Мутахассиснинг касбий тайёргарлиги мураккаб кўп даражали ва тизимли психик кўриниш шаклга эга бўлиб, биринчи навбатда одамнинг шахсий кўриниши асосий ўрин эгаллайди. Шу билан бирга касбий тайёргарлик мутахассисда керакли даражада жисмоний соғлиқни, касбий фаолият учун зарур бўлган жисмоний сифатлар шаклланганлиги ва ривожланганлигини талаб қилади. Чунки ҳар қандай касбий фаолият инсонинг қандайдир куч, жисмоний энергия сарфлашини кўзда тутаяди.

Мутахассиснинг касбий тайёргарлигида иккита ўзаро боғлиқ бўлган томонларни кўрсатиш мақсадга мувофиқ. Бу ўзаро боғлиқ томонлар психологлар М.И.Дьяченко ва А.М.Столяренколар томонидан ишлаб чиқилган бўлиб, улар қуйидагилардан иборат:

1. Шахснинг касбий фаолиятга дастлабки салоҳиятли тайёрлиги. Мутахассиснинг бу тайёрлиги қуйидагилардан иборат бўлади, яъни статик компонентлар касбий фаолиятнинг психик асослари, билим, кўникма, малакалар касб учун муҳим ҳисобланган шахснинг сифатлари, унинг муносабати, мазмун ва қадриятлари афзалликлари ҳамда умуман шахснинг зарур бўлган касбий имкониятлари даражаси;

2. Шахснинг касбий фаолиятга бевосита айна вақтдаги тайёрлиги. Мутахассиснинг касбий тайёрлигининг ушбу томони тезкорлиги, ўзгарувчанлиги, ҳар қандай ҳолат ва шароитда аниқ масалаларни ечиши, мутахассиснинг руҳий ва жисмоний ҳолати, жамоадаги маънавий-психологик муҳитга боғлиқлиги билан ифодаланади.

Мутахассиснинг бевосита психологик тайёргарлиги дастлабки тайёргарликни фаоллаштириш натижаси сифатида иштирок этади. Мутахассиснинг касбий фаолиятга дастлабки салоҳиятли тайёрлиги бевосита айна вақтдаги тайёрлигининг асоси ҳисобланади. Шунинг учун мутахассисни олий ўқув юртида тайёрлаш унда касбий фаолият учун етарли бўлган сифатларни шакллантириш лозим. Баъзи вақтларда ҳатто касбий масалаларни ҳал этишга яхши тайёргарлик кўрган мутахассис ҳам зарур пайтда керакли фаолият учун тайёр бўлмай қолиши мумкин, яъни касбий хулқи ва фаолиятини руҳий бошқариш етарли даражада бўлмайди. Бундай ҳолатда фаолиятни муваффақиятли амалга ошириб бўлмайди ёки самарасиз бўлади.

Кўриниб турибдики, мутахассиснинг касбий тайёрлиги унда касбий билимдонликни керакли даражасини, касбий маҳоратини ҳамда ўзини бошқариш, ўзини керакли фаолиятга йўналтиришга, ўзининг касбий (маънавий шахсий ва жисмоний) имкониятларини ҳал этишга йўналтира билиш қобилияти мавжудлигини назарда тутди.

Мутахассиснинг касбий тайёрлигининг асосий ва энг мураккаб томони бу психологик бўлиб мутахассис руҳиятининг касбий тайёргарлиги ҳисобланади. Бу мутахассис психикаси руҳий кучларининг касбий масалаларни ҳал этишга ўзининг вазифаларини бажаришга тайёрлиги ва йўналганлиги даражасидир.

Мутахассис руҳиятининг касбий тайёрлигининг асосий таркибий қисмлари қуйидагилардан иборат:

- Йўналтирувчи интеллектуал билиш. Бу таркибий қисми мутахассис шахсининг билиш соҳасини ўз ичига олади: касбий идроки, фикрлаши, тасаввур, хотираси, диққатини ва булар биргаликда мутахассис шахсининг касбга интеллектуал тайёрлигини ташкил этади.

- Мотивацион тайёрлиги. Мутахассиснинг мотивацион тайёрлигининг асослари ўз касби мутахассислигини тушуна олиши, ўзида позитив муносабати таркиб топтира олиши ўзини баҳолай билиш фаолиятига қизиқишлари ҳисобланади. Олий ўқув юрти шароитларида мутахассисни тайёрлашда касбий фаолиятга мотивацион тайёрлиги талабаларнинг касбий ва шахсий ривожланишига ва таълим олиш жараёнида ўзини ривожлантириш мавжуд мотивацион доиранинг йўналтирилганлигида намоён бўлади.

- Ижрочилик. Бу таркибий қисми касбий маҳоратни (билим малака кўникмалар), касбий хулқ одатлари каби муҳим касбий сифатларнинг тўплами, касбий қобилиятларни ривожланганлик даражаси ва мутахассиснинг иродавий тайёрлиги, унинг хулқи ва фаолияти давомида ўзини бошқаришга қодирлиги, операционал функцияли тайёргарликни ўз ичига олади.

Мутахассиснинг касбий тайёргарлигининг асосини шахсининг касбий йўналганлиги ва касбий маҳорати ташкил этади.

Ҳозирги замон мутахассисининг касбий тайёргарлигида унинг коммуникатив тайёрлиги алоҳида аҳамиятга эга. Бундай тайёргарлик мутахассисда одамлар билан касбий муҳит билан конструктив ва самарали ўзаро яқин алоқалар, ходимлар ва раҳбарлар билан амалий ва шахсий ўзаро муносабатларга тайёрлиги ва бундай ўзаро муносабатларни ўрната олишга ҳамда ривожлантиришга қодирлигини кўзда тутди.

Шахсининг коммуникатив тайёрлиги фақатгина одамнинг нутқий маданияти етарлича даражада ривожланганлигида у сўз ва тилдан тўғри фойдаланишни билганидагина мавжуд бўлади. Шахсининг нутқий маданияти унинг фикрлаш маданияти ривожланганлигининг кўрсаткичи ҳисобланади. Шунинг учун мутахассиснинг шахсий ва касбий

камол топишини муҳим шартларидан бири унинг касбий нутқий маданиятини ривожлантириш ҳисобланади.

Мутахассиснинг коммуникатив тайёрлиги, унда эмпативликни, ҳушмуомалаликни, дўстоналиликни, ўртоқлик ҳиссини, жамоатчиликни ривожлантиришни, касбдошлари билан ўзаро алоқалар муносабатларга тайёрлиги ва қодирлигини, ўзаро муносабатларда кераксиз кескинликларни юзага келтирмасликни, юзага келган қийинчиликни тўғри ҳал эта билишни, ишда ходимлар, касбдошлари билан муносабатларда муроасага келишни кўзда тутуди.

Мутахассис фаолияти муваффақиятлилигини яна бир муҳим шартининг касбий ва шахсий жиҳатдан тайёрлиги ва қодирлиги ҳисобланади. Бу йўналишда унинг фаоллиги даражаси иштирок этади. Касбий масалаларни ҳал этишда, ходимлар, касбдошлари билан ўзаро муносабатларда ҳам ўзини тўла ва ҳар томонлама кўрсатишга интилишдан иборат бўлади.

Мутахассиснинг бундай ўзини ташкил этиш кўп жиҳатдан унинг муваффақиятга эришиш истагига ва интилишига боғлиқ бўлади. Замонавий психологияда муваффақият муаммосига бағишланган кўплаб ишлар мавжуд бўлиб уларда мазкур муаммо амалий ва назарий жиҳатдан ўрганилган.

Муваффақият деганда шахснинг ўз олдига қўйган мақсадларига эришиш тушунилади. Одамнинг бажараётган ишини муваффақиятлилигини ҳис этиши иккита ҳал этувчи вазиятларга боғлиқ бўлади. Ҳақиқий натижа ва ушбу вазиятларда унинг қизиқишлари даражасига, улар одам ўз фаолиятида қўйган мақсадларини ифода этиш шакли сифатида иштирок этади.

Касбий фаолият жараёнида муваффақиятга эришишда мутахассиснинг шахсий хусусиятлари муҳим роль ўйнади. Ҳаётининг муваффақиятга эришиш учун зарур бўлган кўплаб шахсий сифатлар ҳақида В.Крофорд ўзининг “Сухбат ва мунозара” китобида Конфуцийнинг ғоясига таяниб дўстоналиликни, доноликни ва ботирликни кўрсатади. Муаллиф одамга ишида муваффақиятга эришиш учун нима етишмаслигини аниқлаш мақсадида қизиқарли методикани ишлаб чиқди. В.Крофорд ҳозирги замон мутахассиси муваффақиятга эришиш учун кўрсатилган 3 та тушунчадан ташқари касбий маҳорат ҳам кераклигини айтиб ўтди. Касб танлашга барча даврларда алоҳида эътибор берилиб келинган. Бугун ҳам мамлакатимиз таълим тизимида туб ислохотлар олиб борилаётган бир вақтда касбга йўналтиришга бўлган қизиқиш тобора ортиб бормоқда.

Жамиятни ижтимоий ва миллий эҳтиёжлар асосида ислоҳ қилиш, юксак инсонпарварлик ғояларига боғлиқ эканлигини ҳаёт кўрсатиб турибди. Бугунги миллий эҳтиёж халқ таълими муассалари, яъни умумий ўрта таълим мактабларининг 8-9 синф ўқувчиларини касб танлашга йўллаш ишларида катта талаблар қўймоқда.

Шу мунасабат билан ўқувчи ёшларга илм-фан асосларининг мустақкам билимларини сингдириш, уларда юксак онглиликни тарбиялаш, умуминсоний ахлоқийликни шакллантириш, ёш авлодни турмушга ва меҳнатга, ижтимоий зарур касбларни онгли равишда танлашга тайёрлаш ҳозирги кун таълим тизимининг вазифасидир.

Ушбу вазифани амалга ошириш давомида касбга йўналтириш ишларида таълим тизимини бошқарувчиларнинг қуйидаги босқичлари аниқланди :

- дастурий материалда касбга йўналтирувчи материални киритиш мақсадга мувофиқ бўлган мавзуларни белгилаш;

- у ёки бу мавзу мазмунига тегишли кўргазмалар қуроллар, электрон версияларини танлаш;

- халқ хўжалиги тармоқлари тўғрисидаги ва мазкур фанга оид дастурий материал билан боғлиқ асосий касблар ҳақида адабиётни ўрганиш. Бунда ўз иқтисодий тумани ҳудудидаги касбларни алоҳида ўрганиши, ўқувчиларни таништириши мумкин бўлган касблар рўйхатини аниқлаб олиши;

- ўқувчиларни қизиқишлари ва майилларини ўрганиш, буларни ўқувчилар ва синф раҳбарлари билан муҳокома қилиш, натижаларини қайд этиш;

- ўқувчиларни ўрганилаётган фанга боғлиқ касбларга қизиқиш ва ҳавасларини шакллантириш мақсадида улар билан яккама-якка ишларни мунтазам равишда олиб бориш;

- таълим муассасаларида касбга йўналтириш хоналарини мазкур фанни ўрганишга боғлиқ касбларга оид материаллар билан мунтазам равишда янгилаб туриш;

- касбга йўналтириш, педагогика ва шахс психологиясига доир ва уни ўрганиш методларига оид ўз билимларни чуқурлаштириш ва мукамаллаштириш ишлари.

Ушбу босқичларни муваффақиятли тарзда амалга ошириш учун ҳар бир таълим бошқарувчилари албатта ёш авлодни онгли равишда касб танлашга тайёрлаш ёшларни ҳар томонлама ва уйғун ривожлантиришнинг муҳим шарт сифатида қаралмоқда. Бу шахсни ғоявий-сиёсий, ахлоқий, меҳнатсеварлик, ақлий, эстетик ва жисмоний жиҳатдан камол топтириш билан, яъни бутун таълим-тарбия жараёни, унинг бутун комплекси билан узвий бирликда ва ҳамжиҳатлик билан амалга оширилиши керақдир.

Касб тўғри танланганда улар ўз қобилиятларини ва қизиқишларини яхшироқ рўёбга чиқаришлари ҳамда жамиятга кўпроқ фойда келтириши мумкин.

Хулоса ўрнида шуни айтиш лозимки замонавий кадрлар олдида қўйилаётган энг муҳим вазифалардан бири - малакали мутахассислар сифатида ўз қизиқишлари, қобилиятлари, индивидуаллиги, шахсий фазилат ҳамда хислатларини билган тарзда атрофидагилар меҳнатини

оқилона ташкил этиш ва ижтимоий фойдали меҳнатнинг барча соҳаларида иқтидорли касб соҳиби сифатида фаолият кўрсатишдир ва етук малакали кадрларга бўлган эҳтиёжни қондиришдан иборатдир.

Ҳозирги замонавий тадқиқотлар муваффақиятга эришиш учун қуйидаги асосий шарт-шароитларни кўрсатади: мутахассис ўзига ишонган бўлиши керак; мақсадга эришишга кучли интилиш бўлиши керак; нимага эришиш истагини аниқ билиши керак; ишга позитив йўналганлик; омад алоҳида муваффақиятларни кўра билиш ва шу пайтда қувонч ва бахтни ҳис этиш зарур.

Тадқиқотлар натижаларига кўра одамнинг ҳаёти ва касбий фаолиятидаги муваффақият ўртасидаги узвий боғлиқлик борлигини кўрсатади. Шунинг учун мутахассиснинг тайёргарлик жараёнида юзага келадиган объектив ва субъектив омилларни ролини ўрганиш муҳимдир. Айниқса, мутахассис шахсини назарий билимлар билан қуроллантириш билан бирга амалий билим, тажриба ва кўникмаларни шакллантириш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Қўйсинов О.А. Касб таълим ўқитувчиларининг касбий-ижодий компетентлигини шакллантириш. «Ўзбекистон олий таълим тизимида кадрлар ресурсларини бошқариш ва ривожлантириш» мавзусидаги республика семинари материаллари. 2014 22 -23 январь. 31-34 б.

2. Лукъянова М.И. Психолого-педагогическая компетентность учителя // Педагогика. – 2001. – № 10. – с. 56-61.

3. Маркова А.С. Технология массового тестирования студентов: Учебное пособие. – М., 1996.

4. Муслимов Н. Бўлажак касб таълим ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш. 2013 й.

5. Мутахассислик фанларини ўқитиш методикаси. Тошкент, 2010. 400 с.

6. Назарова Б.А. Касб-ҳунар коллежи ўқитувчилари касбий компетентини тарбиялашнинг психологик муаммолари. // Олима аёлларнинг фан-техника тараққиётида тутган ўрни. Республика илмий-амалий анжумани материаллари.-Тошкент.2007.- Б.76-78.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING PEDAGOGIK MAHORATI. MILLATNING ERTASI MAKTABLARDAN BOSHLANADI

Muhammadiyah Gulnoza Zarif qizi

TerDPI 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Xoliqova Parvina

TerDPI o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchisining pedagogik mahorati, kasbiy faoliyati, o'qituvchi shaxsining xususiyatlari,

O'qituvchining psixalogik - pedagogik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar, pedagogik qobiliyat va mahorat haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: O'qituvchi, pedagog, bilim, tarbiya, mahorat, maktab, o'quvchi, jamiyat.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan xalq ta'limi sohasi bo'yicha o'rta qo'yilayotgan vazifalarini bajarish ko'p jihatlarida o'qituvchilarga bog'liq. Bozor siyosatga o'tish sharoitida ta'lim - tarbiyadan ko'zda tutilgan maqsadga erishish, o'quvchilarni xilma - xil faoliyatini uyushtirish ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatkash, ish bilarmon, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Xalqimizning kelajagi O'zbekistonning istiqboli, ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasi, tayyorgarligi, fidoiyligigacha, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatga bog'liq. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi hukumati xalq talimini taraqqiy ettirishga, maktablar, o'quvchilar va talabalarning moddiy va ma'naviy ahvolini yaxshilashga alohida e'tibor bermog'da. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni va mazkur Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida 2020 yil 6 noyabrda qabul qilingan "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarorda mamlakatimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo'lgan hurmat-e'tiborni yanada oshirish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, tizimda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Bilimga asoslangan iqtisodiyot ta'lim va kasbiy tayyorgarlikning yangi modellarini talab qiladi. Bunda davriy malaka oshirishdan farqli ravishda ijtimoiy va iqtisodiy muvofiqlik imkoniyatiga ega bo'lgan «hayot davomida o'qish» tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirish tizimini takomillashtirib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'qituvchilik sharaflilik, lekin juda murakkab kasbdir, yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun - qoidalar, tamoyillar, umumlashtirilgan, metodik g'oyalar bayon etiladi, o'quvchilarning yosh individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi. Maktab hayoti, amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma- xil murakkabdir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar ko'p uchrab turadi. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlikni puxta amaliy, tayyorgarlik va yuksak pedagogik mahorat hamda ijodkorlikni talab etadi.

O'qituvchilik kasbini tanlash. Biror kasbning haqiqiy ustasi bo'lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma'lum jismoniy va ruhiy xislatlar, puxta tayyorgarlik, ayrim shaxsiy sifatlar bo'lishi kerak. Pedagogik kasbni tanlagan kishi avvalo

so'g'lom bo'lishi, so'zlarni to'g'ri va yaxshi talaffuz qila olish, bosiq va asablari joyida bo'lishi, boshqalar bilan muomalada o'zini tuta olishi zarur. Shuningdek, bolalarni yoqtirish, ular bilan ishlashga mayli borliq xushmuomalalik, kuzatuvchanlik o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik kabi shaxsiy sifatlar mavjudligi ham kishining pedagogik ishga yaroqlilik darajasini ko'rsatadi.

Pedagogik faoliyat - yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq, davlat oldida javob beradigan bolalarga ta'lim - tarbiya berish ishi bilan shug'ullanadigan va bu ishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. "Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega", - deyiladi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda o'qituvchilik faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgandir. O'qituvchining barkamol insonni tarbiyalash, unda milliy va umuminsoniy fazilatlarini tarkib toptirish vazifasi eng oliy janob yuksak va shu bilan birga murakkab vazifadir. Har bir bola o'z xulq - atvoriga ega. Bolalarni tarbiyalashda ularning ana shu o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, o'rganish nihoyatda murakkab. Bunda odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning murakkabligiga mos keladigan maxsus usullardan foydalaniladi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar uning ana shunday xususiyatlarini belgilashlari lozim.

O'qituvchilik ixtisosning bu xususiyatlarini uning kasbnoma (professogramma)sida ifodalanadi. Kasbnoma qo'yidagilarni o'z ichiga oladi: o'qituvchi shaxsining xususiyatlari: o'qituvchining psixologo - pedagogik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar; maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuni ixtisosga oid uslubiy tayyorgarlikning mazmuni.

O'qituvchi shaxsining xususiyatlari qo'yidagilarni o'z ichiga oladi: mafkuraviy sohada - ilmiy dunyoqarash va e'tiqod sosial va axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash, ijtimoiy faollik kasbiy pedagogik sohada - bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ishni sevish; psixalo - pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik takt, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniylik, talabchanlik, qat'iylik vamaqsadga intilish, vazminlik o'zini tuta olish bilim sohasidakeng ilmiy saviya ma'naviy ehtiyoj va qiziqarli, yangilikni his qila bilish, pedagogik ma'lumotni oshirishga intilish.

O'qituvchining psixalogik - pedagogik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar: Bilim egallash sohasida pedagogikaning metodologik asoslarni, shaxsning rivojlanishi va shakllanish qonuniyatlarini bilish; tarbiyaning, maqsadi, vazifalari shakl va metodlarini tushunish, bolalar va o'smirlar anatomofiziologik rivojlanishlarining asosiy qonuniyatlarini bilish, o'quvchilar gigienik tarbiyasining nazariy, tabiiy - ilmiy asoslari va vositalarini bilish, bolalar rivojlanishining psixik qonuniyatlarini har xil yoshda shaxsning individual psixologik xususiyatlarini bilish.

Ko'nikma va malakalar hosil qilish sohasida.

Pedagogik vaziyatni tahlil qilish; pedagogik ta'sirlarni rejalashtirish va natijalarni mo'ljallay olish ijtimoiy pedagogik hodisalarning amaldagi holatini ularning paydo bo'lish va rivojlanish sabablarini, shart-sharoit va xarakterlarini tahlil qila bilish va baholay olish o'quvchilarning tarbiyalanganlik va bilim darajasini aniqlash shaxs va jamoaning rivojlanishini belgilay olish ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarda uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va xatolarni ko'ra bilish aniq pedagogik vazifalar va ularni hal qila olish o'quvchilarning sinfdagi va sinfdan tashqari faoliyatiga rahbarlik qilish sohasidagi ishlarni rejalashtirish o'quv tarbiyaviy ishlarning nazariy asoslangan tashkiliy shakllari, metodlari va vositalarini tanlab olish rejalashtirilgan pedagogik ta'sirlarga o'quvchilarning javob harakatlarini oldindan chamalab bilish ko'nikmalari.

Pedagogik jarayonni to'g'ri uyushtirish sohasida qo'yilgan pedagogik vazifani asosli ravishda o'zgartira olish ko'nikmasi tashqi ta'sirlarga moslanishi yoki ulardan saqlanish sharoitga qarab harakat vositalarini tanlash va qayta o'zgartira olish malakasi o'quvchilarning jamoadagi o'zaro munosabatlariga muvofiq ravishda ularni to'g'ri yo'lga sola bilish paydo bo'lib turgan nizolarni yo'qota bilish o'quvchilar orasida do'stlik va o'rtoqlikni rivojlantira olish ko'nikmasi ko'rsatilgan yo'l - yo'riqlarni amalga oshirish o'quvchilarning ishi ustida joriy nazorat qilish faoliyatning xarakter va yo'nalishini almashtirib turish ko'nikmasi.

Maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuniga quyidagilar kiradi: ixtisosga doir bilimlarni bilish ilmiy tadqiqot metodologiyasi va metodlarini bilish fanning nazariy va amaliy ahamiyatini hozirgi darajasi qonunyatlarini tarixi va rivojlanishning keyingi asosiy yo'nalishlarini bilish maktab kursi fan asoslarining muqaddimasi ekanligini tushunish ayrim fan sohasidagi bilimlarni chuqurlashtirish mustaqil ilmiy tadqiqotlar ishida dastlabki malakalar hosil qilish bilimlarni mustaqil to'ldirish uchun bibliografik ma'lumotnomalar ko'rsatmalar profekt telematik kataloglaridan foydalanish.

Pedagogik qobiliyat va mahorat o'qituvchilik ishida muvaffaqiyotga erishish uchun har bir muallim pedagogik mahoratni egallash zarur. Pedagogik mahorat egallash kuch sarf qilib katta natijaga erishadi, o'z ishining natijasi bilan mo'jizalar yaratadi, ijodkor bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatni iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lish mumkin. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblansa, qobiliyatni rivojlanishi uchun esa iste'dod, layoqat, zehn ya'ni inson asab sistemasida anatoma fiziologik xususiyat ham bo'lishi mumkin. Ana shu tabiat zaminda qobiliyat deb ataluvchi ruhiy xususiyat taraqqiy etadi. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning qo'yidagi turlari mavjud bo'lmog'i va tarbiyalanmog'i lozim.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirish zaruriyatini belgilovchi bosh mezon bu inson oldiga qo'yilgan maqsad bo'lib, unga erishish

uchun vazifalar belgilash, tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash va loyihalashtirish, maqsad va natijani muvofiqlashtirish zarur hisoblanadi. Demak, har bir o'qituvchi o'z-o'zini kasbiy rivojlantirish uchun ma'lum darajada o'z dunyoqarashiga, tafakkuri, tasavvuri va mavjud bilimiga, shaxsiy va kasbiy ehtiyojlariga asoslanadi. O'qituvchilarda o'z-o'zini kasbiy rivojlantirish yo'nalishida shakllantiriladigan ehtiyoj davlat va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqishi lozim. Metodik tayyorgarlikni takomillashtirish va o'z-o'zini kasbiy rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj yetarlicha shakllantirilsa, o'qituvchilarda o'z kasbiga oid yangiliklarni, fan-texnika yutuqlarini o'rganishga qiziqish shakllanadi, bu o'z navbatida o'qituvchilarda mustaqil ta'lim olish ya'ni mustaqil o'rganish, o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishga, bu orqali o'qituvchilarda metodik tayyorgarlikni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, o'qituvchilarni o'z faoliyatida ma'lum bir ijobiy natijalarga erishish, o'qituvchilar jamoasida obru-e'tibor qozonish, o'zini o'zi boshqarish va rivojlantirish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Shuningdek, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi vositalardan biri muvaffaqiyatga bo'lgan ehtiyoj bo'lib, bu ma'lum bir vazifani mas'uliyat bilan bajarish orqali ko'zlangan natijalarga erishishga xizmat qiluvchi - o'qituvchini o'zini o'zi kasbiy rivojlantirish ehtiyoji hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son Qarori. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 06/20/6108/1483-son).

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 23 сентябрдаги "Таълим тўғрисида"ги Қонун". ЎРҚ-637-сон. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон).

4. Мавлянов А., ва б.қ.лар. "Илғор педагогик технология бўйича ўқув машғулоти лойиҳалаш". Замонавий таълим. 2016. №2. Б.25-29.

5. Мавлянов А., ва б.қ.лар. Ўқув машғулотларини ташкил этишда таълим технологиялари. Ўқув қўлланма. Тафаккур бўстони нашриёти. Тошкент, 2013. 142 б.

6. Мавлянов А., ва б.қ.лар. Педагогик технология тамойиллари асосида машғулот машғулотларини олиб бориш технологияси. Ўқув-услубий қўлланма.

7. Холикова Парвина. Technologies for teaching lexical concepts through dictionary work. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions.(417-425)

8.Parvina Khalikova “Peculiarities of the pedagogical possibilities of using the Uzbek national spiritual heritage in the activation of primary school students. Web of Scientific Research Journal. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 10, Oct 2022.

9. Арефьев Р.С. Формирование готовности к самопроектированию коммуникативной компетентности у студентов педагогического вуза: Дисс....канд. пед. наук. - С.: 2004. - 190 с.

10. Абрамян Г.В. Теоретические основы профессионального становления педагога в информационной среде: автореф. дисс. пед. наук. - Санкт-Петербург, 2001. - 39 с.

11. Parvina Kholikova Abdumalik kizi. (2022). THE SIGNIFICANCE AND PLACE OF USING NATIONAL VALUES IN THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11) 2022, 391–396.

“MAHBUB UL-QULUB” ASARIDAGI MA’NO KENGAYISHIGA UCHRAGAN SO‘ZLAR XUSUSIDA

*Muminova Umida Qarshiyevna
TerDPI o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqola asarda qo‘llanishda bo‘lgan turkiy va o‘zlashma istilohlar sememasining kengayishi leksik ma‘noning yangi hosila semalar hisobiga ko‘payishida namoyon bo‘lganligi, bunda muayyan so‘zning leksik ma‘nosi ifoda etgan narsa, voqelik, harakat, holat, belgi va sezgi (referent)ga o‘z nomini berganligini ko‘rasatib o‘tgan.

Kalit so‘zlar: turkiy va o‘zlashma so‘zlar, istilohlar, narsa, voqelik, harakat, holat, belgi, sezgi

Ma‘no kengayishi avval tor doiradagi voqelikni ifodalagan ma‘noning keyinchalik keng doiradagi voqelikni ifodalay boshlashga o‘tishidir. Mazkur jarayon “Mahbub ul-qulub” asarida leksikasida bir ma‘noli so‘zning polisemantiklikka qarab siljishi, uning rang-barang yangi ma‘nolar bilan boyishi, ko‘p ma‘noli so‘zlar semantik tuzilishining kengayishi, ko‘chma ma‘nolarning shakllanishi hisobiga sodir bo‘lgan. Masalan, “och, qorni och” tushunchasini anglatgan **ač** so‘zi dastlab Turfon matnlarida ifodalangan: *Yaliñ boğazi todmaz ač yoriyur* – uning och tomog‘i to‘ymas, doimo och yuradi (DTS,3). Bu atama eski turkiy tilning ilk yodnomalarida ham o‘zining asl ma‘nosini davom ettirgan: *Ač ne yemäs, toq ne temäs* (MK,1,108). Leksemaning keyingi davrda ham iste‘molda bo‘lganligini “Qisasi Rabg‘uziy”da ko‘rish mumkin: *Bu ač xalāyiqğa yüzüñni körgüzgil* (93r11). O‘rganilayotgan manbada “och, to‘q emas”, “kambag‘al, faqir” ma‘no- larini bergan: *Bermasang ochdur*,

bersang to'q (MQ,73); *Birta o'tmakni ikki bo'lub, yarmin bir ochg'a berganni saxiy de* (MQ,59).

Qat- fe'li qadimgi turkiy til yodnomalarida “qalinlashmoq”, “qotmoq, yopishmoq”, “qo'shilmog” ma'nolarida keltirilgan (DTS,432). “Devonu lug'otit turk”da “qotmoq”, “aralashmoq” (MK,II,341), “kulmoq” (MK,I,338) ma'nolarida ko'zga tashlanadi. “Mahbub ul-qulub” asarida esa quyidagi ma'nolarda voqelangan:

1) qotmoq: *...xiralig'idin qotgan ko'zni yig'latur* (MQ,62);

2) eltmoq: *Yaxshilarg'a erishmak — itni poklar chergasiga qotti* (MQ,62);

3) qo'shilmog: *Fisq shumlug'idin o'zingni yaxshilardin huratma va yomonlar orasig'a qotma* (MQ,90);

4) aralashmoq: *Ulki chin so'zni yolg'ong'a qotar, durri saminni najosatg'a otar* (MQ,93);

5) aralashmoq, urmoq: *Va goh xayrot ahlig'a o'zumni qottim va har nav' xayr buq'alari tuzattim..*(MQ,8);

6) qo'shmoq: *Muzd uchun siym olibki, molig'a qotar dinini dunyog'a sotar* (MQ,18).

X asr manbasi bo'lgan “Oltun yorug” yodgorligida, “Qutadg'u bilig”, “Devonu lug'otit turk”, “Hibat ul-haqoyiq” asarlarida **elig** atamasi “qo'l” ma'nosini anglatgan: *Ötrü eliglärin örü kötürüp... – so'ngra qo'llarini tepaga ko'tarib* (DTS,170). Zikr etilgan leksema tahlilga tortilgan manbada **ilik/ilig/ilki/ilgi** fonetik shakllarida uchrab, bir necha sememalarni ifodalagan: “qo'l”: *...ul favokih jonidin har ne iliklarig'a tutsa ko'zlarig'a surtub...* (MQ,42); “barmaq, panja”: *...shukrdurkim, ilging bahli panjasidek nokor yo'q va andin sanga ozor yo'q* (MQ,96); *Iyd oqshomi tiftl ilgida chapu rost hino* (MQ,78); “shox”: *Chinor ilgi xolilig'idin biyikligiga ne nuqson va tufroqqa nihon ganjlari bila ne ulvi shon* (MQ,59); “kasb, hunar”: *Izzat ahliki mazallatqa tushti san'at ilgi yo'qturu va savol tili* (MQ,83); “bilak”: *Shayx dastgirlikka qo'lin uzotti, ilkin tutub chekti, bahr sohilig'a otti* (MQ,88). Shuningdek, ushbu so'z birikma va iboralar tarkibida aks etib, quyidagi ma'nolarni anglatish uchun xizmat qilgan: “qo'lidan chiqmoq”: *Dono ilikdin borg'ondin so'z aytmas, o'tgan yigitlik orzu bila qaytmas* (MQ,94); “ergashmoq, etagini ushlamoq”: *Bas o'zni yaxshilar orasida yashurg'on va alar etagiga ilik urg'on yaxshiroqdur* (MQ,91); “biror ishga mashg'ul bo'lmoq”: *Hunar- mand qoshida behunar ilik tebratmasa, ayb tuhmatin anga taqar* (MQ,80); “voz kechmoq”: *Quloq karligidur molo, ya'ni mas'mu'otdin ilik tortmog'- lig'dur barcha nomashru'otdin* (MQ,38); “uchramoq, yo'liqmoq”: *...mundoq kom-gorliq ilikka tushsa, nihoniy g'amu mehnatda hamroz va hamdaming bo'lg'ay* (MQ,33); “olib kelmoq”: *Muqbilning iligin tutub shaharg'a qaytti* (MQ,45).

Qadimgi turkiy yodnomlar hamda Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” dostonida **qurut/qurit-** fe'li “quritmoq” sememasini bildirgan (DTS,470). Mahmud Koshg'ariyning “Devoni”da “quritmoq”, “rivojlanish, ko'karishdan to'xtatmoq” ma'nolarida qo'llangan: *kun to'nig' quritti – quyosh to'nni quritti* (MQ,II,352); *Bu yer ol telim uzum quritg'an – bu odam ko'p uzumlarni quritgan*

(MQ,I,470). Leksema “Mahbub ul-qulub” to’rtta semada uchraydi, ya’ni ma’no doirasi kengaygan: “quritmoq”: *Har fisqkim, pushaymonliq o’tin yorutqay, ul o’t tardomanliq oludalig’in qurutqay* (MQ,74); “yo’qotmoq, barbod qilmoq”: *Shag’ol jonibin tutmoq — tovuq tuxmin qurutmoqdur* (MQ,66); “zoe ketkazmoq, bebahra qilmoq”: *...ul birin yutmoqdin zahr yutma, bu birin sochmoqdin nasling tuxmin qurutma* (MQ,90); “rivojlanish, ko’karishdan to’xtatmoq”: *Bashar jinsidin vafo ko’z tutma va xirad naxlin fosid xayol samumi bila qurutma* (MQ,91).

Vaqt dastlab Yusuf Xos Hojibning «Qutadg’u bilig» dostonida “zamon, davr” sememasida qayd etilgan: *Bu Buğraxan vaqti icrā anī/yemā xan tilinčā aytmiš muni* (DTS,632). Rabg’uziyning “Qisasi Rabg’uziy” asarida bu so’z “payt”, “zamon, davr” ma’nolarini bildirgan. Alisher Navoiy tahlil qilinayotgan o’zlashmaga quyidagi ma’nolarni yuklagan: 1) “payt fursat”: *...ul vaqt zuhdu taqvog’a ne e’tibor va xushu xiradg’a ne ixtiyor* (MQ,24); 2) “umr”: *Tavba mujrim bandaning vaqti ko’zgusin isyon zangidan oritur* (MQ,6); 3) “muayyan vaqt”: *Bir necha vaqtdin so’ngra bu faqr ham Mavlono xizmatig’a musharraf bo’lub...*(MQ,39); 4) “ba’zan, o’z paytida”: *Tabiiy dushman vaqte do’st bo’lg’aykim, suv o’tni o’churmagay va yel tufrog’ni sovurmag’ay* (MQ,91). Mazkur arabcha so’z **vaqt (un)** shakliga ega; «muddat belgiladi» ma’nosini anglatuvchi **vaqata** fe’lining I bob masdari bo’lib, «zamon», «fursat», «payt» kabi ma’nolarni umumlashtirgan holda anglatadi (O’TEL,II,91).

Arabcha **g’ash** o’zlashmasi o’rganilayotgan manbada “ko’ngildagi noxushlik”, “bulg’anch, iflos”, “g’am, hasrat” ma’nolarida ishlatilgan: *Jon anga fidoki, ruh etar andin g’ash* (MQ,23); *Surati darveshvash va ma’nisi sarosar g’ash* (MQ,34); *Vujudi oltuni ul qalbu g’ashdin ayrilibon* (MQ,56). Shu o’rinda ta’kidlash kerakki, istiloh turkiy qo’shimcha bilan birikib, “nuqson, kamchilik” ma’nosini shakllantirgan: *Agarchi zotida yuz nav’ qalbi g’ashliq bor* (MQ,56). Mazkur istiloh XI-XIV asr yodnomalarida ko’zga tashmaydi. Bundan o’zlashmaning ilk bor hazrat Navoiy asarlarida qo’llanishda bo’lgani anglashiladi.

Ur- fe’li Kultigin bitigtoshi, “Oltun yoruq” yodnomasi, “Qutadg’u bilig”, “O’g’uznoma” dostonlarida “urmoq”, “qo’ymoq, tashlamoq”, “yozmoq” ma’nolarida uchraydi (DTS,614). Mahmud Koshg’ariyning “Devon”ida “urmoq” (MK,I,69, “qo’ymoq, tashlamoq”, “qo’nmoq” (MK,I,177) ma’nolarida qo’llanilgan. Leksema XV asrga kelib ma’no kengayishi hodisasiga uchraganini “Mahbub ul-qulub” asarida ko’rish mumkin: 1) “urmoq”: *Va goh junun mahallasida arzol bo’ynumg’a silliy urdilar* (MQ,7); 2) “tarqatmoq, yoymoq”: *Va nazimlarida har she’r bila ishq o’tin olamg’a urubturlar* (MQ,51); 3) “otmoq, tashlamoq”: *Olim kerakki, o’z ilmining poya va miqdorin asrag’ay, gavharni imtihon uchun toshqa urmag’ay* (MQ,80-81); 4) “qaramoq, yuzlanmoq”: *...mutahayir turub erdi, ko’zin osmong’a urub erdi* (MQ,53); 5) “sanchmoq”: *Yatimki pichoq urmoq aning ishi bo’lg’ay* (MQ,30); *...aqrabdek nechaki yetsa nish urub* (MQ,30); 6) “chalmoq”: *Yonsa qo’nmoqqa tabl urar har dam* (MQ,25); 7) “aylanmoq”: *Muallaq urmoqlarida xoksorlig’ oshkor* (MQ,30).

Shu bilan birga, ot soʻz turkumiga oid leksemalar bilan birikib, quyidagi semalarni hosil qilgan: “maqtamoq”: ...*kalom surubturlar oni boʻz kiyizga oʻxshata masal urubturlar* (MQ,72); “ov qilmoq”: *Arslon ishi sayd urub siboʻni toʻygʻormoq ov qilmoq* (MQ,59); “soʻzlash uchun yoʻl qoʻymaslik, soʻzlatmay qoʻymoq”: *Manʼ va nahy tufrogʻin ogʻzigʻa urmoq avlo...*(MQ,23); “ayblamoq”: *Atoridgʻa taʼn urmoqdur soʻzining rangi.ayblamoq* (MQ,54); “eshittirmoq, qulogʻiga quymoq”: *Piri roh va soliki ogoh mundoq durrdek takallumkim surdi, bu gavharlarni aning qulogʻigʻa urdi* (MQ,96); “mubolagʻa qilmoq”: ...*nuqtalari hisobi bila lof urar* (MQ,26); “sado bermoq, chaqiriq, undov”: *Har kishiga yuz muloyamat koʻrguzdung ming gʻilzat va quduratgʻa salo urmoq kerak* (MQ,58); “qalam urmoq, yozmoq” ...*varaqa yuziga maorifnigor xoma urubtur* (MQ,49); “qadam qoʻymoq, otlanmoq, qoʻl yurmoq”: *Va Shayx «Olloh!» deb ul suvgʻa qadam urdi va muridgʻa «Boyazid», deb qadam urmoq buyurdi* (MQ,88); “qoʻl uromoq ergashmoq”: *Bas oʻzni yaxshilar orasida yashurgʻon va alar etagiga ilik urgʻon yaxshiroqdur* (MQ,91); “boshidan judo qilmo boʻynini kesmoq”: *Eranlardin mardona gunoh vujudqa kelsa, boʻynigʻa yuklangandin soʻng boʻyin urarlar* (MQ,32); “kirishmoq mashgʻul boʻlmoq”: *Oʻz muborak iliki bila ekin suvorurgʻa bel urar erdi* (MQ,42).

Alisher Navoiy **alam** istilohini “Mahbub ul-qulub” asarida bir necha maʼnolarda qoʻllagan:

- 1) ranj: *Yamonlargʻa lutfu karam, yaxshilargʻa mujibi zarar va alam* (MQ,66);
- 2) azob: *Bas mashaqqatkim, andin ruhgʻa alam yetar* (MQ,64);
- 3) alanga: *Soʻxtai firoq oʻlmakdin anga gʻam yoʻq, anduxtai ishtiyoq kuymakdiin anga alam yoʻq* (MQ,43);
- 4) tashvish: ...*bir botmon bugʻdoy uchun xirmonni sovurmoqdin alami yoʻq* (MQ,18).

Misollardan anglashiladiki, asarda qoʻllanishda boʻlgan turkiy va oʻzlashma istilohlar sememasining kengayishi leksik maʼnoning yangi hosila semalar hisobiga koʻpayishida namoyon boʻladi. Bunda muayyan soʻzning leksik maʼnosi ifoda etgan narsa, voqelik, harakat, holat, belgi va sezgi (referent)ga oʻz nomini beradi. Natijada referent hajmi kengayadi, u haqdagi tushuncha doirasi ortadi. Aytish mumkinki, matnning turli stilistik tuzilishiga koʻra soʻzlarni har xil maʼnolarda ishlatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳақимова М. Семасиология. – Тошкент, 2008. – Б. 67.
2. Абдушукуров Б. Туркий манбалар лексикаси. – Тошкент: BOOKMANY PRINT, 2022. – Б.111.
3. Абдушукуров Б. Туркий манбалар лексикаси. – Тошкент: BOOKMANY PRINT, 2022. – Б.85.
4. UM Qarshiyevna Linguistic Views Of Mahmud Kashgari CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY 3 (12), 336-340 3 2022

5. MU Karshiyevna Forming Concepts of Grammar and Word Formation in Primary Grades Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education 2 (4), 164-168 . 2023

6. C Ra'no, MU Karshiyevna. Innovative Approach as a Condition for Improving the Educational Process in a Modern School Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education 2 (4), 117-120. 2023

7. HG Davlatmamatovna, MU Qarshiyevna Popular Scientific Texts in Elementary School Textbooks and Methods of their Study Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education 2 (4), 125-128. 2023

8. UK Muminova."PHYTONYMS IN THE WORK" MAHBUB UL-QULUB" "TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE" 1 (2), 46-50. 2023

9. G Ochildieva, MU Karshievna METHODS AND MEANS OF FORMING A POSITIVE ATTITUDE OF STUDENTS TO THE ENVIRONMENT IN THE EXTRACURRICULAR PROCESS. 2023

10. UM Qarshiyevna "MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'OTIT TURK" ASARINING PEDAGOGIKA TARIXIDA TUTGAN O'RNI.2023

11. MU Qarshiyevn "Lexical-Grammatical Characteristics of the Noun in Ancient Turkish Language"Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal 2 (1), 389-394.2023

PEDAGOGIK FIKRLASH - BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARDA KASBIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSI SIFATIDA

***QarshiDU "Pedagogika" kafedrasida dotsenti v.b. Z. Murodova
ShDPI "Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi"
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti Tursunova S.***

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy madaniyatni shakllantirishning asosi sifatida kasbiy yetuklik, pedagogik fikrlash yo'llari tahlil etilgan.

Tayanch so'zlar: madaniyat, kasbiy madaniyat, pedagogik vazifa, pedagogik fikrlash, kasbiy yetuklik,

Zamonaviy pedagogik ta'limning muhim maqsadlaridan biri sifatida o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga qobiliyatini rivojlantirish aks etadi. Mazkur maqsadga erishish uchun o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishni amaliy o'zlashtirishni talab etadi. Bo'lajak o'qituvchilarning o'z faoliyati mohiyati va uni maqbul tarzda amalga oshirish kasbiy-pedagogik fikrlashning asosini tashkil etadi. O'qituvchining kasbiy fikrlashi pedagogik vazifalarni ko'ra olish va ularni hal etishning samarali vositalarini izlab topishda aks etadi. Mazkur masalaga pedagogik fikrlashning metodologik va konseptual asoslarini ishlab chiqish asosida muvaffaqiyatli yechim topish mumkin.

Ko'pchilik ilmiy-pedagogik adabiyotlarda "kasbiy yetuklik (professionallashuv)" atamasiga to'xtalib o'tilmaganligiga guvoh bo'ldik.

Mazkur atamaning ta'rifi faqatgina istisno tariqasida "Neprerivnoye obrazovaniye" («Uzluksiz ta'lim») lug'atida berib o'tiladi. Jumladan, unda "kasbiy yetuklik (professionallashuv)" eng umumiy ma'noda, "xodimning alohida ish beruvchidan ma'lum ma'noda mustaqil bo'lishiga olib keluvchi, uning shaxsiy va kasbiy rivojlanish jarayoni", deya ta'kidlab o'tilgan. Ta'rifdan kelib chiqib, shuni dadil aytish mumkinki, professionallashuvning bunday tushunilishi, birinchi navbatda ta'lim jarayoni hamda o'qituvchi va murabbiylar faoliyati bilan mos keladi. Shu bilan birga, ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda kasbiy yetuklik (professionallashuv) atamasi bilan birga, "kasbiy tayyorgarlik", "kasbiy ta'lim", "talabning kasbiy tayyorgarligi" tushunchalari ham qo'llaniladi.

Kasbiy tayyorgarlik – ta'lim oluvchilarda biror ishni bajarish uchun zarur malakalarni jadal ravishda egallash maqsadidan kelib chiquvchi kasbiy ta'lim tizimidir.

Kasbiy ta'lim atamasining ta'rifida esa uning ijtimoiy- yo'naltiruvchi, insonparvar, shaxsiy-rivojlantiruvchi jihatlariga alohida urg'u beriladi:

Kasbiy ta'lim – kasblar olamiga yo'nalganlik va moslashuvni ta'minlovchi, ijtimoiy va pedagogik tashkil etilgan shaxsning mehnatga doir ijtimoiylashuv jarayoni, aniq mutaxassislik va malakaviy darajani egallash, inson faoliyatining turli sohalarida uzluksiz ravishda malaka, mahoratning oshib borishi va qobiliyatlarning rivojlanishi. Kasbiy ta'lim shaxsning mahoratini qaror topishi, rivojlanishi va shaxsni o'z-o'zini namoyon qilishi uchun sharoit yaratib beradi va jamiyatning insonparvar va demokratik maqsadlariga erishishiga yordam beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy yetuklashtirishda madaniyatshunoslik yondashuviga doir vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish talab etiladi. Madaniyatshunoslik yondashuvini amalga oshirishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi vazifalarni ajratib ko'rsatish mumkin: bashoratlash vazifasi: pedagogik maqsadlarga erishishga imkon beruvchi usullarni tanlay olish, uning natijalarni oldindan ko'rish; loyihalovchi va konstruktiv vazifa: maqsad va vazifalarni amalga oshirish bosqichlari va usullarini aniqlash; talabalar harakatlarini rejalashtirish; tashkil etuvchi vazifa: talabalarda bo'lg'usi kasb faoliyatiga nisbatan rag'bat yaratish; talabalarning individual shaxsiy hayoti va ularning tayyorgarlik darajasiga bog'liq holda materialning integratsiyasi va moslashuvi; talabalarning birgalikdagi faoliyatini xilma-xil shakl va metodlar yordamida tashkil qilish; muloqot vazifasi: talabalarni muloqot uchun sherik sifatida qabul qilinishi; guruh bilan, har bir talaba bilan psixologik aloqani o'rnatish; birgalikdagi faoliyat jarayonida muloqotni boshqara olish; refleksiv vazifa: muvaffaqiyat va omadsizliklar tahlili; o'z faoliyati va kasbiy jihatdan kamol topishidagi korreksion yo'nalishni aniqlash.

Kasbiy yetuklik yaxlit tizim sifatida bir qancha tarkibiy qismlarni o'zida uyg'unlashtiradi. I.P.Podlasiyning kasbiy salohiyatning tuzilishiga doir tasnifidan kelib chiqib, biz pedagogik ta'limdagi kasbiy yetuklik (professionallashuv), ijtimoiylashuv, insonparvarlashuv va madaniy

ijodkorlikning zamonaviy yo'nalishlariga muvofiq keluvchi quyidagi muhim tuzilishli tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin: pedagogik madaniyat; pedagog ijodkorligi; pedagogik aql-idrok; kasbiy chuqur bilimga egalik; individual faoliyat uslubi; ijodiy tashabbusning rivojlanishi; individual faoliyat; insonparvarlikka yo'naltirilganlik; ijtimoiy faollikdir.

Kasbiy madaniyatning muhim ko'rsatkichi o'zida metodik refleksiyaning amalga oshirish ko'nikmasini aks ettiradi. U pedagogning o'zining yutuqlari va omadsizligi sabablarini aniqlash; shaxsiy faoliyati qoidalari va tamoyillarini ishlab chiqish hamda natijalarini umumlashtirish; boshqa o'qituvchilarning faoliyatini tahlil etish kabi ko'nikmalarida namoyon bo'ladi. Eng asosiysi esa, o'zining mehnatini tahlil etish uchun nazariy bilimlardan foydalanish ko'nikmasi hisoblanadi.

Kasbiy madaniyat ko'plab pedagogik ko'nikmalarni o'zida namoyon qiladi: vaziyatlarning pedagogik fanlar tilida bayon etish; badiiy ifodadan farqli ravishda borliqni ilmiy jihatdan aks ettirish; pedagogik fanlarni o'rganish va hayotiy obyektlarni farqlay olish va boshqalar. Biroq biz quyidagi zaruriy komponentlarni ajratib ko'rsatishni maqsadga muvofiq, deb hisobladik: o'qituvchilarning jarayonini loyihalashtirish, pedagogik vazifalarni anglash, shakllantirish va ijodiy yechim topish; metodik refleksiya. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy madaniyatning mazkur komponentlarini shakllanganligi uning pedagogik faoliyatni ijodiy, mustaqil amalga oshirishga tayyorligi haqida fikr yuritish imkonini beradi.

Pedagogik fikrlashni rivojlantirish kreativlik, divergentlik, refleksivlik, sanogenlik, konstruktivlik kabi "yadro" sifatlar bilan ajralib turadi. Mazkur va boshqa sifatning psixologik tahlili yoki funksional (faoliyatga doir), yoki shaxsiy komponentlarning yetakchi o'rin tutishini qayd etishga imkon beradi. Pedagogik fikrlashning integrativ sifati o'qituvchining hal etilayotgan vaziyatda muammolilikni aks ettirish ko'nikmasini o'zida ifoda etadi. Muammolilikni aks ettirishning vaziyatga doir darajasi fanga doir-metodik tarkibiy asosni, vaziyatning negizi mazkur jarayonning axloqiy jihatini dolzarblashtirishga yo'naltirilganlikni takomillashtirishni tavsiflaydi

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, kasbiy yetuklik (professionallashuv)ka yaxlit hodisa sifatida qarash, uni tashkil etuvchilarning roli va ahamiyatini pasaytirmaslik pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Горова В.И. Теоретические основы подготовки специалистов в условиях многоуровневого педагогического образования: Дис....д-ра пед. наук. - СПб., 1995. – 340 с.

2.Непрерывное образование: краткий словарь/ Под ред. Н.А.Лобанова и В.Н.Скворцова. – СПб.: Файндер, 2003. – 48 с. – Б.33.

3.Педагогика. Большая современная энциклопедия. – Минск: Современное слово, 2005. – 720 с.

4.Xodjayev B. Pedagogik aksiologiya. O'quv qo'llanma. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2012. – 165 b.

5.Muradova Z.K. Constructions of developing scientific and professional creativity in future teachers. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 2022.-101-104c.

6. Подласый И.П. Педагогика. – М.: Высшее образование, 2006. – 540 с.

IJODKOR O'QITUVCHI TASSAVVURIDA ZAMONAVIY TA'LIM

Narmatova Gulnora Tojiyevna

Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi katta o'qituvchisi Tel: 97 1329294

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchining boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishdagi kreativ layoqati, kreativlik potentsialiga ega bo'lishi va uning kasbiy faoliyatida e'tiborini qaratishi zarur bo'lgan omillar va o'qituvchining yaratuvchanligi, ijodkorligini namoyish qiladigan turli usul va o'yinlar tasnifi haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

Tayanch so'z va iboralar: O'qituvchi, o'quvchi, usullar, kreativ layoqat, kreativlik potentsialiga ega bo'lish, kasbiy faoliyat, o'yinlar, yaratuvchanlik, ijodkorlik va hokozolar.

Hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiq etish o'qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab qiladi. O'qituvchining kreativligi o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishi va yaxshilashi hammaga ma'lum narsalarni o'zgartira olishi va ijodiy foydalana bilishi, sifat jihatdan yangiliklarni yaratishi juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda malaka oshirish ta'limi tizimi professor-o'qituvchilari o'z fani doirasida tinglovchilarga muntazam ravishda metodik ko'rsatmalar berib borishi, metodik yordamlar uyushtirishi, lozim bo'lsa “Mahorat darslari”ni tashkil etilishi bu kunning dolzarb vazifasidir.

O'qituvchining kreativligi, bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab topish layoqatidir.

Kreativ layoqat esa quyudagi o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan qismlardan iborat:

1. Kreativ maqsad.
2. Ijodiy intilish.
3. Kreativ (ustanovka) qurish.
4. Kreativ yo'nalish.
5. Kreativ ifodali akt.
6. Kreativ o'z-o'zini boshqarish.
7. Kreativ faollik.
8. Kreativ intilishlar darajasi.

O'qituvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo'ladi va rivojlanadi.

O'qituvchi o'zidagi bu layoqatni rivojlantirib borar ekan, ona tili darslari mavzusini yoritishda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishdagi metod va o'yinlardan unumli foydalanishni yo'lga qo'yadi, qisqa muddatda o'quvchilarga ko'proq bilim berishni maqsad qiladi.

Bu maqsadga erishishda o'qituvchi kreativlik potentsialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
- ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;
- hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Har bir o'qituvchining o'zini-o'zi rivojlantirishi va o'zini-o'zi namoyon etishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligini ko'rsatadi. O'qituvchining yaratuvchanligi, ijodkorligini namoyish qiladigan turli usul va o'yinlar ham mavjuddir.

Shu jumladan, boshlang'ich ta'lim ona tili fani darslarida "Uzum", "Asalarilar", "Qochoq boshliqni top", "O'rgimchak to'ri" usullaridan foydalanish o'quvchilarning darsga qiziqishlarini oshiradi. Ularni darsda faqat eshituvchi emas, ishtirokchiga aylantiradi.

Masalan: "O'rgimchak to'ri" usuli (o'qish, matematika fanlarida foydalanish mumkin) o'qituvchidan tezkorlik va chaqqonlikni talab etish bilan birga, o'qituvchi kreativ potentsialiga egalik ya'ni yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati, tafakkurning tezkorligi, tashabbuskorlik, o'ziga xoslik va noaniq vaziyatlarga toqat qilishlik kabilarni talab etadi.

"O'rgimchak to'ri" usulida o'qituvchi o'quvchilarga o'tilgan mavzu yuzasidan savollar berib boradi (O'qituvchi savollarni oldindan tayyorlab qo'yishi lozim. Savol – javoblarda qancha ko'p tinglovchi ishtirok etsa shuncha yaxshi).

O'qituvchi tomonidan javob bergan ishtirokchilarning barmoqlariga g'altak o'rab boriladi va o'qituvchi savollarini tugatgach, ishtirochilardan savollarga javob berganlarininggina qo'llarini yuqoriga ko'tarishlarini so'raydi. Shunda ishtirokchilar boshi uzra o'rgimchak to'ri hosil bo'ladi.

Agar o'qituvchi bu usulni matematika fanida qo'llagan bo'lsa paydo bo'lgan shakllarda nechta burchak borligi va shunga o'xshash mavzuga mos savollarni berib mavzuni mustahkamlab olishi ham mumkin. Bu esa o'qituvchining kreativligi, pedagogik mahoratiga bog'liqdir.

Oddiy o'qituvchi- gapiradi, yaxshi o'qituvchi – ko'rsatadi, juda yaxshi o'qituvchi – motivatsiya qilar ekan, u faoliyati davomida albatta o'quvchilarning ichki qiziqishlarini uyg'otib, o'zlari istab, qiziqib o'qishlariga erishishi lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, farzandlarimiz hozir uxlasa, orzularini tushida ko'rishini, agar uyquni o'rniga o'qishni tanlasa, albatta orzularini hayotda ko'rishini tushuntira, anglata olsak biz o'ylagan maqsadimizga erishgan bo'lamiz.

Adabiyotlar:

1. H.Akiyeva. Boshlang'ich ta'lim fanlari o'qituvchilari malakasini oshirish kursining mutaxassislik (Ona tili) fanlari bloki bo'yicha o'quv reja va ishchi dastur. Termiz.2021 y.

2. H.Akiyeva. "Boshlang'ich ta'lim fanlari o'qituvchilari malakasini oshirish kursining mutaxassislik (Ona tili) fanlari bloki bo'yicha o'quv -uslubiy majmua" Termiz.2021 y.

3. Madraximova Mastura. "Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini shakllantirish muammolari va metodlari" mavzusidagi 5A111701 - Boshlang'ich ta'lim. Magistrlik ishi. Nukus.2014 y.

4. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: Toshkent: "O'qituvchi", 2004.

O'QITUVCHILARDA KREATIV SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING KASBIY POZITSIYASI

Nazarova Zarrina Allaberdiyevna
TDPI Pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi

"Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir".

O'z tarixida ne-ne buyuk ishlarni sharaf bilan amalga oshirgan xalqimizning intellektual va ma'naviy salohiyati, kuch-qudrati va olijanob fazilatlariga tayanib

O'zbekistonda ta'lim tizimini sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta'lim muassasasida o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, talabalar, ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishning asosiy vazifalari sifatida belgilandi.

Pedagogik mehnatning sub'ektiv tomoni o'qituvchining kasbiy vazifalarini bajarishi uchun zarur bo'ladigan faoliyatli-rolli xarakteristikalari va sub'ektiv-faoliyat sifatlarida o'z ifodasini topadi. Bu, eng avvalo, quyidagilardan iborat:

- kasbiy bilimlar - pedagog mehnatining hamma tomonlari haqidagi ob'ektiv zaruriy va amaliyot tomonidan talab etiladigan umumiy va kasbiy komponentlarning qo'shilishidan hosil bo'ladigan ma'lumotlar. Ular pedagogik mehnat natijalariga erishishning tanlangan modeli, algoritmi va texnologiyasini amalga oshirish bilan kasbiy uquv, malakalar, o'ziga xos psixologik sifatlar, kasbiy pozitsiyalarni tarbiyalash uchun asos bo'ladi;

- kasbiy uquv va malakalar - pedagogning ta'limiy jarayonda o'z majburiyatlari va vazifalarini amalga oshirish uchun qo'llaydigan ishlari va uslublari. Ular pedagogik mehnat texnologiyasi yaxlit tizimining va boshlang'ich elementlari bo'ladi;

- o'ziga xos pedagogik xususiyatlar (sifatlar) o'qituvchi psixikasining barcha komponentlari – jarayonlar, xossalar, tuzilmalar, holatlar shakllanganligini ifodalaydi;

- pedagogning kasbiy pozitsiyasi – bu uning turg'un ustanovka va yo'nalishi; ichki va atrofdagi tajribaning. Reallik va istiqbolning munosabatlari va baholari va, shuningdek, kasbiy faoliyatda amalga oshiriladigan (amalga oshirilmaydigan, qisman amalga oshiriladigan) xususiy intilishlaridir. Ular o'qishga kreativlik va kasbiy aspektlarni oladi.

Pedagog mehnatining bu ko'rsatib o'tilgan xarakteristikalarini pedagoglik kasbiga oid davlat standartlari qo'yadigan talab bilan to'ldiriladi.

O'qituvchilar uchun amalga oshiriladigan kreativ o'quv dasturlari, birinchi navbatda, o'qituvchilarda kasbiy muhim uquvlar, malakalar va shaxsiy sifatlarni tarbiyalashga emas, balki ularni psixologik-pedagogik bilimlar majmui bilan qurollantirishga yo'naltirilgan. Pirovard natijada nazariy tayyogarlikning yetarlicha (yaxshi) darajasiga ega bo'lgan, biroq olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashda ancha qiyinchililarga duch keladigan malakali mutaxassislariga ega bo'ladilar.

Tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarda ushbu komponentlar o'rin olishi lozim: o'qitish maqsadlari va vazifalarini qo'yish, o'quv materialini mazmunini tanlash, o'qitish vositalari, metodlari va shakllaridan foydalanishni loyihalash, pedagogik va o'qituvchining didaktik o'zaro ta'siri, oraliq va oxirgi Flipped (teskari) ta'lim aloqa uquv va malakalarini o'qitish va, shuningdek, o'z faoliyatini tahlil qilish va refleksiya uquviga o'rgatish.

O'qituvchining mehnati o'quvchini bir holatdan boshqa holatga o'tkazish lozim bo'lganda har doim yuzaga keladigan ko'plab quyidagi kabi pedagogik masalalarni hal etish jarayoni sifatida qaraladi: uni ma'lum bilimga jalb qilish, uquv va malakalar tizimini boshqa tizmiga o'tkazish, bu ko'plab yechimlarni talab etadi va kerakli natijaga erishishning afzalroq usulini topishni talab qiladi. Shu munosabat bilan oliy o'quv yurti o'qituvchisining asosiy vazifasi mutaxassisni tayyorlash mazmunini o'qituvchilarning uquv faoliyatiga qiziqishlari va tashkil etishlarini uyg'otish uchun bu vazifalarni ma'lum ketma-ketlikdagi masalalar tizimi tiliga o'tkazishdan iborat.

Bularning hammasi o'qituvchilarda kreativ sifatlarning xususiy bilimlari va o'quvini integratsiyalashni talab etadi. Jumladan, masalan, uquv mashg'ulotini loyihalash va o'tkazish uchun faqat fanning mazmunini bilishgina emas, balki bilimlarni tashkil etishning turli usullarini egallaganlik, ularni hal etilayotgan ukuv vazifasiga muvofiq tarzda shaklini tanlash bilish, o'quvchilarning bilish faolliklarini uyg'otish va ushlab turish, mashg'ulotlarning borishini tahlil qilish va ularning natijalarini baholashni bilish lozim. Har bir mashg'ulotni o'tkazish pedagogning fanga doir, pedagogik, psixologik, umummadaniy, fiziologik bilim va o'quvini kreativ sifatlari integratsiyalashuvini (sintezlashni) talab etadi. Ta'lim mazmunini fanga oid strukturalashda afsuski, ko'pincha, kerakli integratsiyalashuv ro'y bermaydi. Bu vazifa o'qituvchilarning pedagogik amaliyotni o'tish jarayonida ham bo'sh hal etiladi.

O'qituvchilarda kreativ sifatlarni rivojlantirishning takomillashganligi bo'yicha o'tkazilgan anketa so'rovining ko'rsatishicha faqat 7,2% o'qituvchilar kasbiy faoliyatni yuqori (ijodiy) darajada amalga oshirishga qodirdirlar; o'qituvchilarning yarmidan ko'pi bu faoliyatni o'rtachadan past darajada (tanqidiy) o'tkazishga qodirlar.

O'qituvchilarning individual qobiliyatlarini va o'qitishni kasbiy faoliyat asosida rivojlantirishni boshqarishni optimallashtirish istiqbollari haqida gapirmasa ham bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish joylarida o'quv jarayonini amalga oshirish, o'qituvchilarda kreativ sifatlarni namoyon etgan holda kasbiy majburiyatlar doirasini hal etishga qodir mutaxassislarni kutishadi. O'qituvchilarda pedagogik sifatlarni to'ldirish uchun vaqt bo'maydi, ba'zan bu ishni tashkil etadigan odam ham bo'lmaydi. Bu ziddiyatlilikning hal etilishini sintetik dizaynerlik dasturlarida e'tiborni nazariy tayyorlashdan amaliy tayyorgarlikka ko'chirilishida ko'rish mumkin. Nazariy kreativlik bilimlarni- jiddiy amaliy sintetik pedagogik sifatlarni bilan mustahkamlash zarur.

Ikkinchi tomondan, o'qituvchilarda nazariy bilimlar, o'quvni, aniq masalalarni hal etish vositasi sifatida qo'llash tajribasi yo'qligi ularning tayyorgarlik sifatlarining pasayishiga, o'z faoliyatidan qoniqmaslikka, o'zini takomillashtirish, o'qishni rivojlantirishga intilishning bo'lmasligiga olib keladi. Natijada boshlang'ich sinf o'qituvchilar pedagogik faoliyatiga tayyorlangan emas, balki o'qituvchilarda kreativ sifatlarni o'zida takomillashtirgan pedagogik tizimga ega bo'ladi. Yosh mutaxassislar bir necha yil davomida sinov va xatoliklar yo'li bilan tajriba to'plashlariga, ya'ni hamkasblari ishini kuzatish jahon ta'limi tizimi, zamonaviy texnika – texnologiya, axborot kommunikatsion hamda yo'li bilan kreativ sifatlarni yaratish va o'zlashtirishlariga to'g'ri keladi.

J.Musaev[58], o'qituvchi kasbiy-pedagogik madaniyatining qaror topishi va rivojlanishi muammosini kasbiy-pedagogik faoliyat natijasi sifatida, kriteriyalar va ko'rsatkislarning namoyon bo'lish darajasiga bog'liq ravishda o'rganib, mazkur fenomen shakllanganligining to'rtta darajasini tavsiflaydi ular:



O'qituvchilarda kreativ sifatlarni rivojlantirish uning pedagogik tizimini takomillashtirish natijasi ekanligi haqidagi bunday yaxlit tizimli tasavvur mazkur yondoshuvning bizning tadqiqotimizda ham qo'llanish imkonini beradi. Oqituvchilarda kreativ sifatlarni rivojlantirish, aslida muommo esa uning dizayner sintetik kasbiy vazifalarni bajarishga nazariy, motivatsiyali va amaliy tayyorlash haqida boradi.

Xulosa qilib aytganda Prezidentimizni bugun buyuk ajdodlarimizning bebaho merosiga tayanib, yangi Renessans poydevorini yaratish uchun bizda barcha imkoniyatlar mavjud, deyishga to'la asoslarimiz bor. Hamma gap ana shu imkoniyatlardan qay darajada oqilona foydalana olishimizga bog'liq. Har bir o'qituvchi shogirdlarini o'z bolasiday ko'rgan, bu yerda chinakam ijodiy musobaqa muhiti shakllangan va bu ishlar bugun o'zining munosib natijasini bermoqda. Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz. Bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lishlari kerak. deb fikr yuritadi [19].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'qituvchi va murabbiylarni kasb bayrami 30.09.2020
2. Musayev J. O'quvchilarni mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish. Monografiya. T., Sharq, 2010. – 251 b.
3. Muslimov N.A. Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi yo'nalishi bakalavrlarini tayyorlashda mustaqil ta'limning ahamiyati, Maktab va hayot jurnali. – 2004. – № 1. – B. 18-20.
4. Sharipov Sh. S. Kasbiy ta'lim pedagogikasi – TDPU, 2005. – 54 b.
5. <http://www.ziyonet.uz>.

PEDAGOGIKA OLIY O'QUV YURTLARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANIB TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Ne'matjonova Yulduz O'tkirovna

Termiz davlat universiteti maqsadli tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada oily ta'lim sohasidagi kirib kelayotgan ilg'or texnologiyalar, xalqaro hamkorlikning yangi tendensiyalari haqida so'z boradi. Bugungi kunda ta'lim sohasida xalqaro hamkorlik va baynalminallashuv masalalariga ko'proq urg'u berilmoqda chunki, talabalar almashinuvi, yangicha ta'lim metodlari yangicha qarashlar va yondoshuvlarning kirib kelishiga, o'zaro madaniyatlar almashinuviga asos bo'ladi. Ta'lim sohasida

yangi tushunchalardan biri bo'lgan xalqarolashuv masalalari maqolada chuqur tahlil qilingan.

Tayanch iboralar: Evropa baynalmilallashuvi modeli, Xalqaro hamkorlik, Oliy ta'lim sifatini ta'minlash agentligi, "chegarasiz ta'lim", "ta'lim eksporti", "birgalikda xalqaro ta'lim (ta'lim)", "Transmilliy ta'lim".

Bugungi davr talabi ta'lim va tarbiyada ilg'or pedagogik texnologiyalar hamdailg'or tajribalarini joriy etish natijasida ta'lim samaradorligini oshirishdan iborat bo'lib, bunda o'qituvchi-pedagoglar o'z bilimlarini doimo oshirib borishlari,

innovatsion va interfaol usul hamda pedagogik texnologiya metodlarini puxtao'zlashtirib olgan holda ulardan o'z kasbiy faoliyatida samarali foydalanishni taqozoetmoqda. Bu borada o'qituvchi-pedagoglar oldida quyidagi vazifalar turadi:

- ta'lim maqsadini, vazifasini va mazmunini aniqlash;
- o'quv materialini ta'lim oluvchining intellektual salohiyatiga, yoshiga moslik darajasini va o'zlashtirish saviyasini loyihalash;
- turli xil murakkablik darajadagi nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish;
- ta'lim berish natijasi va uning samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish;
- darsda va darsdan tashqari vaqtlarda beriladigan mustaqil ta'lim uchun mustaqil ish topshiriqlarini rejalashtirish, ularning tizimi va mazmunini ishlab chiqish;
- o'rganiladigan fan bo'yicha ma'lumotlarni modulli bloklarga ajratish;
- o'qitishni takomillashtirishga ta'limning interfaol usullarini tanlash;
- muammoli va axborotli ta'lim elementlaridan foydalanish va hokazo.[1]

So'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarining asosiy ustuvor yo'nalishi xalqaro reytinglarga kirish, ilmiy tadqiqotlar va ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, turli shakllarda integratsiyalashgan oliy ta'limining xalqaro tan olinishidir. Ushbu yondashuvning asosli rasmiylashtirilgan natijasi oliy ta'lim muassasalarining xalqaro faoliyati ko'rsatkichlarining paydo bo'lishi bo'ldi. Ular orasida chet ellik talabalarning mavjudligi, xalqaro ta'lim dasturlari, jumladan, chet tillarida o'qitish va qo'sh diplom dasturlari, xorijiy professor-o'qituvchilar soni va hokozolar.

Xalqaro hamkorlikning yo'nalishlari, shakllari va turlari xilma-xildir. Har bir oliy ta'lim muassasasi o'zining vazifalari va imkoniyatlaridan kelib chiqib o'z yo'nalishini tanlaydi. Bu erda oliy ta'lim muassasalarining geografik joylashuvi, tarixan shakllangan an'analar, ta'lim va madaniy aloqalar tajribasi katta ahamiyatga ega. Oliy ta'lim muassasalarining o'rtasidagi bunday hamkorlikning asosiy jihati shundaki, oliy ta'limning baynalmilallashuvi oliy ta'lim muassasalari asosan milliy bo'lgan boshlang'ich holatdan xalqaro (jahon) ta'lim muassasasiga aylanadigan holatga o'tish jarayonidir. Evropa

baynalmilallashuvi modeliga quyidagi asosiy harakat yo'nalishlarini o'z ichiga olgan Boloniya platformasi misol bo'la oladi:

1) darajalarning uch tuzilishi; 2) tan olish; 3) harakatchanlik; 4) sifatni ta'minlash; 5) ijtimoiy yo'naltirilganlik; 6) unifikatsiyalangan darajalar; 7) ishga joylashish imkoniyati; 8) umrbod ta'lim; 9) pozitsiyalarni tanqidiy tahlil qilish;

10) Evropa oliy ta'lim hududining (keyingi o'rinlarda - EHEA) global jihatlari ("o'lchovi").[2]

Xalqaro amaliyotda oliy ta'lim sohasidagi baynalmilallashtirish an'anaviy ravishda ikki yo'nalishni – ichki va tashqi yo'nalishni o'z ichiga oladi. Ta'limni ichki baynalmilallashtirish mamlakat ichida turli shakllar orqali amalga oshiriladi. Ularning standarti chet ellik talabalar to'plamidir; chet ellik o'qituvchilarni taklif qilish; qo'shimcha ta'limning o'quv rejalari va dasturlariga chet tillari bo'yicha kurslarni kiritish, shuningdek, qo'shma dasturlarni ishlab chiqish; xalqaro ta'lim loyihalarida ishtirok etish; marketing faoliyati (mamlakatlar, mintaqalar va oliy o'quv yurtilar), asosan chet ellik talabalarni jalb qilish va hamkorlik aloqalarini yaratishga qaratilgan. Ta'limning tashqi baynalmilallashuvi quyidagi shakllar orqali amalga oshiriladi: talabalarining xalqaro mobilligi (diplom va qisqa ta'lim dasturlari bo'yicha), professor-o'qituvchilar va oliy o'quv yurti ma'muriyati xodimlari; xorijda ta'limni davom ettirish uchun ham, o'z mamlakatida xorijiy malakalarni olish uchun ham xorijiy malakalarni o'zaro tan olish (ECTS kredit tizimi orqali); ta'lim dasturlarining xalqaro mobilligi; xalqaro o'lchamdagi o'quv dasturlari va ta'lim standartlariga integratsiya; institutsional hamkorlik — strategik ta'lim alyanslarini yaratish; ta'lim dasturlarining yangi xalqaro standartlarini shakllantirish; strategik darajadagi transchegaraviy tarmoqlar va xalqaro sherikliklarda ishtirok etishning o'sishi.

Oliy ta'limning xalq xo'jaligining o'ta muhim tarmog'i sifatida erkinlashtirilishi uning ta'lim xizmatiga (o'qish, tovarga) aylanishiga olib keldi. Boloniya jarayoni fonida ushbu sohaning uyg'unlashuvi va ochiqligi ta'lim xizmatlarini etkazib beruvchilar va mamlakatlar o'rtasidagi raqobatni rag'batlantiradi.

Zamonaviy oliy o'quv yurti global miqyosga ta'sir qiluvchi tashqi muhitdagi dinamik o'zgarishlarga javob bera oladigan bo'lishi kerak.

Rossiya ta'lim akademiyasi prezidenti L.A.Verbitskaya xalqarolashuv turli xalqlar o'rtasidagi o'zaro aloqa va almashinuv bilan bog'liqligini ta'kidlaydi[3]. Xalqarolashuvni ichki taraqqiyotining asosiy tendentsiyalaridan biri sifatida belgilagan oliy o'quv yurti tabiiy ravishda o'z milliy chegaralaridan tashqariga chiqadi va shu orqali o'zi shakllantiradigan ta'lim maydonini kengaytiradi va o'zgartiradi. Xalqarolashuv hamkor oliy o'quv yurtilarning bilim bazasini chuqurlashtiradi va kengaytiradi, amalga oshirilayotgan o'quv dasturlarini boyitadi hamda ta'lim sifatini oshiradi. Fakultet professor-o'qituvchilari va talabalar jamoasining jahon andozalari darajasidagi ta'limga

yo'naltirilganligini J.Nayt haqli ravishda oliy ta'lim xalqarolashtirishdan oladigan eng muhim imtiyozlardan biri sifatida talqin qiladi[4].

Xalqarolashuvdan muhim sifat o'zgarishlarining omili sifatida foydalangan holda oliy o'quv yurtlar xalqaro ta'limni rivojlantirish platformasiga aylanishi, globallashuvning yangi muammolarini yengish uchun o'z salohiyatini kuchaytirishi va dunyoga mashhur obro'-e'tiborga erishishi mumkin. Pedagogik oliy ta'lim muassalari uchun baynalmilallashtirish strategik hamkorlikni rivojlantirish orqali ularning mamlakatda va xorijda ta'sirini oshirish imkoniyatidir; eng yaxshi xorijiy tadqiqotchi va o'qituvchilarni jalb etish orqali akademik hamjamiyat doirasini kengaytirish; ichki intellektual resurslaringizni safarbar qilish va kuchli tadqiqot guruhlarini shakllantirish; bitiruvchilarning jahon mehnat bozori talabi bo'yicha malakalarini shakllantirish lozim. Oliy ta'limda xorij tajribalaridan foydalanishning afzalliklari quyidagicha: bu ta'lim resurslarni birlashtirish, ilmiy tadqiqot mavzularini takrorlash va ko'chimachilikdan uzoqlashish; ta'lim loyihalarini rejalashtirish va ularni jamoaviy nazorat asosida amalga oshirish.

YUNESKO – BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkilot. Dunyoning turli mintaqalarida ta'limni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazadi, ta'lim bo'yicha ma'ruza, hisobotlar va axborot-tahliliy materiallarni chop etadi, hamkorlik va ta'limni rivojlantirish masalalari bo'yicha xalqaro konferensiyalar o'tkazadi.

Oliy ta'lim sifatini ta'minlash agentligi (OTSTA) - mustaqil organ, oliy ta'lim muassasalari va kolledjlar tomonidan moliyalashtiriladi. Oliy ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha Yevropa Assotsiatsiyasi tarkibiga kiradi (**Oliy ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha Yevropa assotsiatsiyasi, OTSTYA**). Oliy ta'lim sifati bo'yicha Yevropa ryestri **Oliy ta'lim uchun Evropa sifat kafolati reestri – ESKR**. [5] Oliy ta'lim muassasalariga ishonch reytingini e'lon qilish, ta'limda sifatni ta'minlash bo'yicha agentliklar faoliyatini sifatini yaxshilash, oliy ta'lim muassasalariga ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha turli agentliklarni tanlash imkoniyatini yaratadi.

Akademik hamkorlik Assotsiatsiyasi **Akademik hamkorlik uyushmasi – AHU**. [6] Oliy ta'lim internatsionalizatsiyasiga ko'maklashadi, oylik elektron axborotnoma chop etadi, seminar va konferensiyalar o'tkazadi, oliy ta'lim sohasida xalqaro hamkorlik masalalari bo'yicha maslahatlashuvlar o'tkazadi.

“Transmilliy ta'lim” yoki “chegarasiz ta'lim”, “ta'lim eksporti” yoki “birgalikda xalqaro ta'lim (ta'lim)” mavjud emas, bu odatda ta'limning akadem mobilligi sifatida tushuniladi. Aslida, bu "chegarasiz ta'lim" atamasi ta'limni taqdim etishning kengroq usullarini anglatadi. Eng keng tarqalgan usul - bu individual dasturlarni taqdim etish.

An'anaviy ravishda xalqaro tajribalarni joriy etishning oltita komponenti mavjud:

1. Oliy o'quv yurti talabalari, o'qituvchilari va ma'muriy xodimlarining xalqaro mobilligi;
2. ECTS kredit tizimi orqali chet el malakalarini o'zaro tan olish;

3. O'quv rejalari va dasturlarini (ta'lim mazmunini) qayta ko'rib chiqish to'g'irlash, qo'shma dasturlar va qo'sh diplom dasturlarini ishlab chiqish;

4. Xalqaro dastur harakatchanligi;

5. Xorijlik talabalarni jalb etish va hamkorlik aloqalarini o'rnatish bo'yicha mamlakatlar, mintaqalar va oliy o'quv yurtlarining ishlari;

6. Xalqaro sheriklik va transchegaraviy tarmoqlarda ishtirok etishda strategik darajaga chiqish.

Oliy o'quv yurtining mintaqaviy roli muhim va uning salohiyatiga mos bo'lishi uchun siz oliy o'quv yurti va uning muhitini bilishingiz va doimiy ravishda o'rganishingiz kerak, siz o'zingizning va boshqalarning tajribasini diqqat bilan va xolisona o'rganishingiz va professional tarzda muloqot qilishingiz kerak.

Shubhasiz, ta'lim tizimiga kiruvchi barcha oliy o'quv yurtlari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini hudud ehtiyojlaridan kelib chiqib qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ladi. Ta'lim xizmatlari bozorida oliy o'quv yurtlar o'rtasidagi raqobat kuchayib borayotgan zamonaviy sharoitda iste'molchiga e'tiborni kuchaytirish va ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari sifatini oshirish zarurati tug'iladi. Ta'lim xizmatlari bozoridagi vaziyat oliy o'quv yurtlarining omon qolishi va raqobatda g'alaba qozonishi uchun yangi qonunlarni talab qilmoqda. Ta'lim texnologiyalarining o'xshash darajasi, xizmatlarning o'xshash xususiyatlari, umumiy savdo bozorlari raqobatdosh oliy o'quv yurtlar uchun taxminan teng shart-sharoitlarni ta'minlaydi va bugungi kunda ushbu kurashdagi yutuqlar tashkilotning o'zgarishlarni moslashuvchan kuzatish qobiliyati bilan ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ne'matjonova Y.O'. Prospects of the dual education system in the process of international pedagogical teaching//EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)-Peer Reviewed Journal. Volume:8|Issue:2|February 2022|| Journal DOI: 10.36713/epra2013||SJIF Impact Factor 2021: 8.047||ISI Value: 1.188/B.120-122.

2. Неъматжанова Юлдуз Ўткир қизи. "Рол Финской системы образования в международной практике". Научные революции: сущность и рол в развитии науки и техники.Международной научно-практической конференции.УДК: 378.(02)3.231.3./-1 мая 2022 г.,г.Челябинск. С112-115.

3. Ne'matjonova Y.O'. Yaponiya oliy o'quv muassasalarining ta'xis turi va soni. "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish: muammolar va rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanining maqolalar to'plami. –Termiz: "KITOB NASHR", 2022.B.322-325.

4. Ne'matjonova Y.O'. Dual ta'lim tizimining germaniya ta'limi rivojidagi tutgan o'rni. Yutuq va kamchiliklari. "Muhandislik-texnologiya fan sohasidagi muammolar: Yechim va takliflar" mavzusidagi professor-o'qituvchilari va talabalarining ilmiy izlanishlari natijalariga bag'ishlangan I-ilmiy-texnik anjuman materiallar. Termiz.2022. B. 226-227.

5. Давыдов; Ю.С. Болонский протсесс и российские реалии / Ю.С. Давыдов. — Мл: Московский психолого-социальный институт, 2004. ■— 136 с.

6. Зимняя, И.А. Мониторинг качества и качество мониторинга в образовании / И.А. Зимняя // Квалиметрия человека и образования: методология и практика: материалы Восмого симпозиума. — 4.2. — М., 1999. - С. 22-24.

INTERNETNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI VA O'RNI

Ne'matova Munisa

TerDPI talabasi

Xoliqova Parvina Abdumalik qizi

TerDPI o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlar haqida, bugungi kundagi dolzarb muammolardan internetning salbiy va ijobiy tomonlari haqida uning afzalliklari va kamchiliklari borasida fikr-mulohazalar keltirilgan. Undagi ba'zi bir xavflarning oldini olish maqsadida ba'zi bir tavsiyalar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: Internet, veb-saytlar, platforma, Onlayn konferensiyalar, ijtimoiy tarmoqlar

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Albatta, ularning o'ziga yarasha ijobiy va salbiy jihatlari bor. 21 asr – axborot texnologiyalari taraqqiyoti asri. Bugungi kun taraqqiyotini jahon axborot tarmog'i-internetsiz tasavvur qilish mushkul. Ma'lumki, internet-axborot va hujjatlarning o'zaro almashinishini ta'minlaydigan kompyuter tarmoqlarini birlashtirgan xalqaro tizimdir. Internet keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Uydan ko'chaga chiqmay turib global tarmoq orqali dunyo kutubxonalari bo'ylab sayr qilib, kurrai zaminning narigi chekkasida joylashgan oliy ta'lim muassasasining masofaviy (virtual) talabasi bo'lish, hatto elektron xizmatlarni (matnlarni tarjima qilish, video va audiomahsulotlarni tayyorlab berish, kitob va risolalarni sahifalash va hokazo) shartnoma orqali bajarish, pul ishlab topish mumkin. Internetning ijobiy jihatlari bisyor. Ijtimoiy tarmoqlar yoki messenjerlarning qulayligi-chi? Onlayn konferensiyalar o'tkazish, onlayn malaka oshirish, yaqinlar va tanish-bilishlar bilan tez, arzon video yoki audiomuloqot qilish.

Mana shu jihatlari bilan internet keyingi paytlarda jozibadorlikda televideniye, radio va boshqa axborot vositalarini ortda qoldirmoqda.

Lekin internet ko'plab foydali jihatlari bilan birga salbiy oqibatlarini ham namoyon qilmoqda. Aholida ayniqsa **yoshlarda** axborot iste'moli madaniyatining sustligi, turli xabarlar oqimidan kerakligini ajratib olishda bilim, malaka va ko'nikmaning yetishmasligi ba'zilarining g'arazli kimsa va oqimlar ta'siriga tushib qolishlariga, internet qaramligi kasalligiga

yo'liqishlariga sabab bo'lmoqda. Xitoy Xalq Respublikasida internetga qaramlik kasallik sifatida e'tirof etilib, uni davolovchi maxsus shifoxonalar tashkil etilgani so'zimizning isbotidir.

Internet fanning eng katta ixtirosidir. Bu bizga har bir ma'lumotni bir marta bosish orqali olishda yordam beradi. Biz ma'lumot almashishimiz va internetdan foydalanish orqali butun dunyo bo'ylab odamlar bilan bog'lanishimiz mumkin. Internet - bu turli sohalardagi ma'lumotlar to'plamini olishimiz mumkin bo'lgan juda katta ma'lumot ombori. Internetdan foydalanish ham, suiiste'mol qilish ham mavjud. Biznesda internetdan foydalanish zamonaviy davrda biznesni rivojlantirdi. Bugungi dunyoda internetdan ta'lim sohasida ham foydalanishni ko'rish mumkin. Mamlakatimizdagi ayrim ilg'or maktab va kollejlarda raqamli sinf joriy qilingan. Internetdan foydalanish tufayli bu mumkin bo'ldi. Internetning afzalliklari juda ko'p bo'lsa-da, uning bir qator kamchiliklarini ham ko'rish mumkin. Internetdan noto'g'ri foydalanish har doim milliy xavfsizlik uchun bosh og'rig'i bo'lib kelgan. Ilm-fanning ushbu zamonaviy ixtirosidan foyda olishimiz uchun internetdan to'g'ri foydalanishni bilishimiz kerak.

Bugungi kunda talabalar uchun Internetdan foydalanish juda keng tarqalgan. Talabalar turli veb-saytlardan onlayn yordam olishlari mumkin, ular onlayn murabbiylik, onlayn kurslar va hokazolarni tanlashlari mumkin. Internetdan foydalanish hayotning har bir sohasida kuzatilishi mumkin. Bu butun dunyoni bog'ladi. Internet bizga elektron pochta, ijtimoiy tarmoq saytlari, veb va video qo'ng'iroqlar kabi turli xil muloqot kayfiyatlarini taqdim etadi. Boshqa tomondan, biznesda internetdan foydalanish bozorga inqilobiy o'zgarishlar olib keldi. Internet dunyoda onlayn marketing platformasini targ'ib qildi. Endi tadbirkor o'z mahsulotini uyidan turib internet orqali sotishi mumkin. Internetning ko'plab afzalliklarini ta'kidlashimiz mumkin bo'lsa-da, internetning ba'zi suiiste'mollari ham mavjud. Ba'zi talabalar orasida internetdan noto'g'ri foydalanishni ko'rish mumkin. Ular ba'zan ijtimoiy tarmoq saytlariga yopishib qolishadi va qimmatli vaqtlarini behuda sarflashadi. Natijada, ular o'qishga ko'p vaqt ajratmaydilar. Ular internetdan to'g'ri foydalanishni bilishlari va undan o'z manfaati uchun foydalanishlari kerak.

Hozirgi davrda Internet tarmog'iga ulangan kompyuter, mobil telefonlari deyarli ko'plab xonadonlarda mavjud. Bundan tashqari, yoshlar internet kafelarda ham tarmoqdan foydalana oladilar. Bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal taraqqiy etishi va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga joriy etilishi sababli barcha uchun kompyuter savodxonligi dolzarb masalalardan biridir.

Yoshlar ijtimoiy tarmoqlar kengayib borayotgan davrda o'sib ulg'aymoqda. Bu quvonarli hol albatta. Biroq har narsaning me'yori bo'lmog'i zarur. Yoshlar virtual olamning haqiqiy olam emasligini bilib borishlari shart. Ba'zan bolalar kattalar tomonidan nazoratsiz va ularning ruxsatisiz tarmoqqa tashrif buyurish imkoniga ega bo'lib qoladilar. Bolalar va o'smirlar Internet

tarmog'ida sayr qilarkan, ularga umuman kirish mumkin bo'lmagan saytlarga duch kelishlari mumkin.

Tabiiyki, bunday axborotlar qiziquvchan yoshlarni o'ziga ko'proq jalb etadi. Biror harakatni amalga oshirishda bolalarga qanchalik ruxsat etilmasa, ularda shunchalik yuqori darajada qiziqish uyg'onishi barchaga ma'lum. Yoshlar tarmoqdagi nosog'lom turmush tarzidan axborot beruvchi ayrim manbalarga duch kelsalar, yanada qiziqib, mazkur axborotlarga alohida e'tibor qaratishlari ehtimoldan xoli emas. Shu sababdan kattalar farzand tug'ilgan kundan boshlab ulariga issiq choynak, qozonlarga yaqinlashish, pichoq, qaychi kabi o'tkir uchli narsalarga tegish mumkin emasligini onglariga singdirganlari kabi, tarmoqdagi axborotlar ham xavfli ekanligini tushuntirishlari, ularda axborotlardan to'g'ri foydalanish salohiyatlarini shakllantirishlari zarur. Albatta, Internet tarmog'i manbalari zamonamiz o'smirlari bilim doirasini, dunyoqarashini kengaytirishi bilan ayrim jihatlariga ko'ra ularning tarbiyasiga nafaqat salbiy, balki xavfli ta'sir ko'rsatishi ham mumkinligini unutmasligimiz zarur.

Yaqindagina ota-onalar yoshlarning kompyuter o'yinlariga berilib, ularga bog'lanib qolishlari xavfidan cho'chib, oldini olishga harakat qilgan bo'lsalar, hozirgi vaqtda esa bu xavfga yana ijtimoiy tarmoqlar xavfi ham qo'shildi.

Internet — bu deyarli barcha qiziqishlarni qondirish makonidir. Ba'zan tarmoqda ayrim axborotlarni izlab o'tirishning ham hojati bo'lmaydi, ular har yerda o'zlari taqdim etilaverishi sababli osongina erishish mumkin.

Shunday ekan undagi ba'zi bir xavflarning oldini olish maqsadida quyidagi tavsiyalarga e'tibor qaratish zarur:

1. Farzandingiz tarmoqdan foydalanmoqchi bo'lganida uni nazoratdan chetda qoldirmang;

2. Farzandingizning tarmoqqa birinchi qadamlaridanoq, Internetda faqatgina "yaxshi" emas, balki "yomon" axborotlarni ham uchratishi mumkinligini tushuntiring;

3. Internetdan biror manbani saqlab olishda e'tibor qaratish zarur bo'lgan qoidalarini tushuntiring;

4. Farzandingizga tarmoqda ham haqiqiy hayotdagi kabi tartib-intizom qoidalarini unutmaslik zarurligini ta'kidlang;

5. Farzandingizning Internetdan foydalanishida ba'zi hollarda cheklovlarni o'rnating;

6. Har kuni farzandingiz muloqotlarini kuzatib borishni o'zingizga odat qiling;

7. Farzandingiz va o'zingizning kompyuter savodxonligingizni muntazam rivojlantirib boring. O'z bilimlaringiz bilan o'rtoqlashing. Internet xavfsizligi sizning bu boradagi bilim va malakangizga ham bog'liq ekanligini unutmang.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, internet asiriga aylanmasdan uning girdoblarida umrimizni zoye ketkazmasdan undan o'zimizni himoya qilishimiz lozim. Har bir irodasi mustahkam yosh avlod vaqtni o'zining eng qimmatbaho boyligi ekanligini anglaydi va uni kimga va nimaga sarflashini juda yaxshi

biladi. Ularda internetning turli xurujlariga qarshi kurashish immuniteti mavjud bo'ladi. Bu bilan ijtimoiy tarmoqlardan umuman foydalanmaslik emas, balki undan me'yor bilan foydalanish kerak. Ular hayotimizda birinchi o'rinda emas, oxirgi o'rinlardan joy olsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Zero, bizga berilgan umrni samarali sarflash har birimizning o'z qo'limizda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Sattorov «Informatika va axborot texnologiyalari» Toshkent «O'qituvchi», 2002.

2. M.Aripov, M.Muhammadiyev. Informatika, informasion texnologiyalar. Darslik. T.: TDYuI, 2004 y.

3. С.С.Фуломов ва бошқалар. Ахботор тизимлари ва технологиялари. Дарслик. Тошкент, “Шарқ”, 2000 й.

4. М.Мамаражобов, S.Tursunov. Kompyuter grafikasi va Web-dizayn. Darslik. T.: “Cho'pon”, 2013 y.

5. U.Yuldashev, M.Mamarajabov, S.Tursunov. Pedagogik Web-dizayn. O'quv qo'llanma. T.: “Voris”, 2013 y.

6. M.Aripov, M.Fayziyeva, S.Dottayev. Web texnologiyalar. O'quv qo'llanma. T.: “Faylasuflar jamiyati”, 2013 y.

7. B.Mo'minov. Informatika. O'quv qo'llanma. T.: “Tafakkur-bo'stoni”, 2014 y.

8. Xusanov R., Olloqulova F. SHAXS SHAKLLANISHIDA SHARQ MUTAFFAKIRLARI QARASHLARI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI //Models and methods in modern science. – 2023. – T. 2. – №. 4. – С. 34-39.

9. Bosimova M., Olloqulova F. MUAMMOLI METODLAR VOSITASIDA O'QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH //Models and methods in modern science. – 2023. – T. 2. – №. 4. – С. 11-13.

10. Khalikova Parvina “Peculiarities of the pedagogical possibilities of using the uzbek national spiritual heritage in the activation of primary school students”. Web of Sciententific Research Journal. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 10, Oct 2022

11. Parvina Kholikova Abdumalik kizi. (2022). “THE SIGNIFICANCE AND PLACE OF USING NATIONAL VALUES IN THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION”. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11) 2022, 391–396. Retrieved from <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/2793> Parvina Kholikova Abdumalik kizi. (2022).

12. Холиқова П.А.(2023) “Миллий-маънавий меросни эъозлаш ва унинг мазмун моҳиятини ёшлар онгига сингдириш”. *Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari, Xalqaro simpozium materiallari*, 842-847. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2023-2-842-847>

13. Xoliqova Parvina Abdumalik qizi “Бошланғич синф ўқувчиларига миллий маънавий меросимиз ва буюк мутафаккирларимиз ҳақида маълумот бериш”. “Образование и наука в XXI веке” международный

научно-образовательный электронный журнал.- Россия,19.02. 2023 obr
m pcareer@mail.ru <http://mpcareer.ru>

14. Xoliqova Parvina Abdumalik qizi FOR PARTICIPATION AND PUBLICATION OF THE PAPER ENTITLED "OILA TINCHLIGI – JAMIYAT FAROVONLIGI ASOSI" In an International Multidisciplinary Conference "14th International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education", Published with Conferencea International Database, hosted online from New York, USA on May 28th 2023.

15. Холиқова П.А. "Таълиму тарбия, роли таълиму тарбия дар жамъият, эътибор аз тарафи рохбари давлатамон ба соҳаи таълиму тарбия,конуни нав дар бораи таълим" O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INNOVATSION AKADEMIYA MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI «Innovative Academy RSC» MChJ Platforma guvohnoma raqami: 1415-son № № CAJEI2303-00084

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR – O'QUVCHILAR TAFAKKURINI O'STIRISH OMILI SIFATIDA

Nisanbayeva A.K

Nizomiy nomidagi TDPU v.b.professori

Abduxashimova G.A

Nizomiy nomidagi TDPU studenti

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolaning asosiy mazmunini boshlang'ich sinf o'qituvchilarining shaxsni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha o'rganilgan nazariy va ilmiy-amaliy ma'lumotlar asosida shaxsga yo'naltirilgan ta'limdan foydalanish hamda foydalanishdan ko'zlanadigan maqsadlar haqidagi fikr-mulohazalar boyitadi.

АННОТАЦИЯ: Основное содержание данной статьи обогащено мнениями учителей начальных классов о применении лично-ориентированного образования и целях его использования на основе усвоенных теоретических и научно-практических сведений о всестороннем развитии личности.

XXI asr fan va texnologiyalar asrida mustaqil Respublikamiz ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko'lamni qamrab olmoqda. Axborotlarning qanchalik sog'lom yoki nosog'lom ekanligini farqlay olish, ulardan yetarlicha to'g'ri foydalana olish, axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o'quvchiga yetkaza berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda turli xil pedagogik texnologiyalar mavjud bo'lib, ular bir-biridan yo'nalishi va maqsadi bilan farqlanadi. Lekin umumiy jihati o'quvchilar tafakkurini o'stirishga yordam berishidir. Biz bilamizki, keyingi yillarda ta'lim

berishda o'quvchilarni faollashtirish hamda ular tafakkurini rivojlantirish masalalariga e'tibor kuchaygan bo'lsa-da, uni amalda qo'llash juda sust bormoqda.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda ta'limni takomillashtirish, o'quv-tarbiya jarayonini optimallashtirish, rivojlantiruvchi ta'lim, ta'limning faol yangi (innovatsion) metodlari, muammoli o'qitish metodi, dasturlashtirilgan ta'lim kabi atamalar negizida o'nlab nazariyalar, yondashishlar to'g'risida ma'lumot berilgan. Har qaysi kontseptsiya o'z zamonasi uchun ilmiy progressiv g'oyani ilgari surgan va ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini muayyan darajada oshirishga xizmat qilib kelgan. Lekin ularning har biri alohida ilmiy uslubiy jihatdan tahlil qilinsa, o'zining bir tomonlamaligi bilan ko'zga yaqqol tashlanadi. Bunday umumiy nuqsonning asosiy sababi pedagogik texnologiyaning barcha tarkibiy qismlarining ham nazariy mulohazada, ham amaliy faoliyatda qamrab olinmaganligidir. Ushbu kamchilikni keltirib chiqaruvchi bosh omil - ta'lim-tarbiya jarayoniga sub'ekt-sub'ekt (ya'ni o'qituvchi-o'quvchilar) o'rtasidagi individuallashtirish munosabatining yo'qligi. Binobarin, ta'lim-tarbiya jarayoni bir tomonlama ta'sir o'tkazish va axborot (ma'lumot, bilim) uzatish, har xil xususiyatli malakalar shakllantirish tamoyillariga bo'ysundirilgandir. Natijada ta'lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilari o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasida teng huquqiylik buzilishi yuz berganligi tufayli birining ikkinchisi ustidan ustuvorligi hukmronligi qonuniy ahamiyat kasb etgan. O'quvchilar o'quv motivlari, tabiiy mayllari, iste'dodi, salohiyati, saviyasi, uquvi zehni mazkur jarayonda hisobga olinmagan. Ta'lim-tarbiya jarayonida sub'ekt (o'qituvchi) - sub'ekt (o'qituvchi yoki o'quvchi) munosabati yaratilmas ekan, samaradorlik, mustaqil (ijodiy) fikrlash to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas. Ta'lim-tarbiya mazmuni to hozirgi kungacha kommunikatsiya, ya'ni biryoqlama axborot uzatish (o'qituvchi axborot manbai, o'quvchi esa uni qabul qiluvchi) asosida qurilib kelinmoqda.

Hozirgi zamon o'qituvchisi o'quvchilarining tafakkurini shakllantirishi uchun quyidagilarga e'tibor qaratmog'i lozim:

- ilmiy-metodik adabiyotlar bilan ta'minlanganligi;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollanishi;
- metodologik jihatdan fanni yaxshi tushunishi;
- o'z fani qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirishi;
- psixologiya va pedagogika bilimlariga egaligi.

Biz o'quvchilarning tafakkurini shakllantirishga samarali ta'sir etadigan quyidagi usullar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

- "Tarmoqlar" (Klaster);
- Dialogli o'qitish usuli;
- Matnlar bilan ishlash orqali;
- "Xulosa" (VEER texnologiyasi).

Tarmoqlar (Klaster) - fikrlarning tarmoqlanishi bo'lib, u o'quvchilar mavzuni chuqur o'zlashtirishga hamda mavzuga taalluqli aniq fikrni erkin

ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan tarmoqlarini o'rgatadi. O'qituvchi o'quvchilarning fikrini jalb qilish maqsadida bir so'z yozadi.

Ushbu so'z ularda qanday tasavvur hosil qilganini so'raydi hamda o'sha tasavvurida hosil bo'lgan so'zlarni yozishlari, bu so'z atrofida qanday maydon hosil bo'lganligini o'zlari topib yozishlari kerak. O'quvchilarning bilimlarini aniqlash uchun tasavvur qilish darajasi hisobga olinadi. Shu maqsadni amalga oshirish uchun o'quvchilarni (5-6 tadan) guruhlariga ajratib, ularga butun hamda bo'lak munosabatni hosil qiluvchi so'z beriladi. So'ngra guruhdagilar berilgan so'zlarni kichik ma'nolarini topadilar hamda ushbu kichik ma'nolarni bir-biriga birlashtiradilar. Bir qancha so'zlar berib, ular atrofiga (butunga) qismlarni (bo'laklarni) ajratuvchi (kichik ma'nolarni) birlashtirish kerakligi aytiladi va guruhdagilar birgalashib bu masalalarni hal qiladilar.

Dialogli o'qitishni mantiq qonunlariga amal qilgan holda tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, o'quvchilarga suhbat vaqtida o'zaro izchil bog'langan, qiziqarli savollar bilan murojaat qilinishi ularning mantiqiy fikrlashiga asos bo'ladi. O'quvchilarga dars davomida savol berish usulidan foydalanish katta samara beradi. Matn yaratish va matn ustida ishlash o'quvchilarning tafakkurini o'stirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda voqea-hodisalarni idrok qilishi, mohiyatini anglashi, munosabat bildirishi kabi didaktik maqsadlarni amalga oshirishlari natijasida tafakkur va nutq rivojlanadi. O'quvchilarga matnlar ustida ishlashni o'rgatish orqali ularda ijodiylik, yaratuvchanlik (kreativlik)ni shakllantirish mumki. O'quvchilarni ijod qilishga undashning asosiy mohiyati-tafakkurini muttasil o'stirib borishdir. Har bir o'quvchi o'rganganlarini mushohada qilish bilan amaliyotga tatbiq qilishi, tizimga solishi, mustaqil ravishda muhokama qilishi tafakkur rivojlanganligining belgisidir.

VEER texnologiyasi-bu ko'p tarmoqli, muammo xarakterdagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Ya'ni mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama qilinadi. Masalan, afzallik va kamchilik, ijobiy va salbiy, foyda va zararlari belgilanadi. Natijada tanqidiy, taxliliy hamda mantiqiy fikrlash rivojlantiriladi.

Ushbu interfaol texnologiya mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin.

- boshida: o'z bilimlarini erkin faollashtirishda;
- mavzuni o'rganish jarayonida uning asoslarini chuqur anglab yetishda;
- yakunlash bosqichida: o'zlashtirilgan bilimlarni tartibga solishda.

Yuqorida keltirib o'tilgan texnologiyalar boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy hamda mustaqil tafakkurni shakllantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Nisanbayeva, A. (2023). THE IMPORTANCE OF USING INNOVATIVE METHODS AND APPROACHES IN TEACHING NATIVE LANGUAGE. Science and innovation, 2(B2), 177-178.

2. Masharipova, U. (2021). THE ROLE OF INNOVATION IN CONTINUOUS EDUCATIONAL SYSTEM. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(4), 168-176.

3. Rustamova, Z. (2022). O'ZBEK TILI DIALEKTAL KORPUSINI YARATISHNING LINGIVISTIK ASOSLARI. *Science and innovation*, 1(B8), 1255-1258.

4. Нисанбаева, А., & Чиналиева, А. (2022). ШАХС ФАОЛИЯТИДА МОТИВАЦИЯНИНГ АҲАМИЯТИ. *Science and innovation*, 1(Special Issue 2), 781-786.

5. Kaldibaevna, N. A. (2022). The System of Learning Word Composition and Formation in Mother Language Lessons of the Primary Class. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(10), 48-51.

6. Bakiyeva, X. (2022). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQI VA TAFAKKURINI O'STIRISH—TIL TA'LIMINING DOLZARB MUAMMOSI SIFATIDA. *Prospects of Uzbek applied philology*, 1(1).

OTA-ONALAR BILAN ISHLASHNING SHAKL VA METODLARI

Niyozova Safiya Bukayevna
TerDPI o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ota-onalar bilan ishlash orqali tarbiyaning shakl va metodlari haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ota, ona, shakl, metod, rahbar.

Sinf rahbari ota-onalar bilan ish olib borishda ishlashning xilma-xil shakl va metodlaridan foydalanishi lozim. Ota-onalar bilan ishlashga shaxsiy ishlar jamoa bilan birgalikda olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Biz quyida ota-onalar bilan ishlashning asosiy shakllari bilan tanishib chiqamiz :

1. O'quvchilarning uylariga borish – bu oila bilan aloqa qilishning eng samarali shakllaridan biridir. Bunda sinf rahbari o'quvchining ota-onasi, uning yashash sharoiti, moddiy imkoniyatlari bilan tanishishga imkon topadi.

2. Ota-onalarni maktabga chaqirish. Bundan maqsad, faqatgina o'quvchilarning xulqi, savodliligi va boshqa xususiyatlari bilan ota-onani tanishtirish emas, balki shu bilan birgalikda ota-onalarga pedagogik va ruhiy maslahatlar berib, ularga o'quvchini oilada tarbiyalashlariga yordam ham qilishdir.

3. Ota-onalar bilan ishlash. Bu esa o'quvchiga chaqiriqlar yoki maxsus da'vatnomalar orqali amalga oshiriladi.

4. Ota-onalar sinf majlisini o'tkazish. Bu shakldagi aloqa maxsus ish rejasi orqali amalga oshiriladi.

5. Ota-onalarni maxsus pedagogik va psixologik bilimlar bilan qurollantirish maqsadida ular bilan suhbat va ma'ruzalar o'tkaziladi.

6. Savol-javoblar kechasi. Ishning bu shakli sinf o'quvchilarning xususiyati, xarakterini yaxshiroq o'zlashtirish imkonini beradi.

7. Ota-onalarning tarbiya borasidagi ilg'or tajribalar bilan fikr almashish, o'rtoqlashish. Bu narsa quyidagi mavzuda bo'lishi mumkin:

a) yoshlarni qanday qilib mehnatga tayyorlash mumkin?

b) o'quvchining kundalik rejimi haqida.

v) "Ota-onalarning obro'si" haqida, "Oilada yoshlarga axloqiy tarbiya berish" va hokazolar to'g'risida anjumanlar o'tkazish.

8. Maktab qoshida ota-onalar universitetlarini tashkil etish va bu universitetlardan tizimli ish olib borish:

a) ota-onalarni tarbiya sohasidagi adabiyotlar bilan tanishtirish.

b) "Ota-onalar, sizlar uchun" degan mavzuda og'zaki jurnal.

v) faol ota-onalarning tarbiyaviy ish tajribalari bilan boshqa sinf rahbarlarini tanishtirish kabi ishlar olib borilishi lozim.

Sinf rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari g'oyat keng, ko'p qirrali bo'lib, bu ishlar faqat sinf va maktab miqyosi bilan cheklanmaydi, aksincha turar joylardagi va o'quvchining ota-onasi ishlab turgan korxonadagi jamoatchilik bilan ham yaqin aloqada bo'lishni taqozo etadi.

Bizning yosh avlod xalqimizning inqilobiy, mehnat, jangovar an'analarini o'zlashtirib, o'ziga katta avlodning eng yaxshi fazilatlarini — g'oyaviy e'tiqod va matonatni, Vatanga muhabbatni, uning iqtisodiy, siyosiy va jangovar qudratini mustahkamlashda ishtirok etishga intilishni singdiribgina o'z bobolari va otalari ishini davom ettira va ko'paytira oladi. Bu ishda ota-onalar ayniqsa muhim o'rin tutishlari kerak.

Buni barcha sinf rahbarlari nazarda tutishlari muhimdir, Bunda shaxsning huquqiy yetukligi shaxs ijtimoiylashuvining mahsuli ekanligini har bir oilaga tushuntirish g'oyat muhimdir. Oila shaxs uchun uning ijtimoiylashuv jarayoni ro'y beradigan, uning axloqi, dunyoqarashi asoslari va hokazolar tarkib topadigan dastlabki va nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan jamoadir.

Oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli paviyda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta'sir ko'rsatishga qodirdir va odatda ta'sir ko'rsatadi. Oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatiishning chuqur o'ziga xosligi bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa uni oliy darajada ta'sirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga shaxsni shakllantirish jarayonining zarur bo'g'iniga ham aylantiradi.

Oilaning yuksak tarbiyaviy imkoniyati shaxslar va ota-onalarning o'ziga xos xususiyatlari: qon-qarindoshligi, muhabbati, yaqinligi, ishonchi, burch hissi, obro'liligi va hokazolar bilan ta'minlanadi. O'z farzandining barcha zaif va kuchli tomonlarini yurgakdagi chog'idan biladigan, uning qalbidagi eng kichik harakatni ham sezadigan va tushunadigan, unga ta'sir etishni biladigan onadan va otadan yaxshiroq kim ham ularni ezgulikka, mehnatsevarlikka, do'stlikka, muhabbatga o'rgata oladi!

Ma'lumki, xilma-xil faoliyat sharoitida shaxsning qobiliyatlari eng samarali rivojlanadi, uning ijodiy imkoniyatlari ochiladi, shaxsni oiladan boshqa qaerda ham faoliyatning xilma-xil turlariga jalb etish mumkin. Oilaviy

tarbiyaning qimmatliliği va ahamiyati yana shundaki, kichik shaxslik paytida oilada egallangan narsalar bir umr saklanib qoladi. Xuddi shuning uchun ota-onalarning shaxslarni har tomonlama tarbiyalash majburiyati qonuniy tarzda belgilab qo'yilgan.

Sinf rahbarlari ota-onalar bilan birgalikda tarbiyaviy ishni tashkil etar ekanlar, eng yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar ma'lumotlarini e'tiborga olishlari ham muhimdir, ularga muvofiq o'sib kelayotgan kishi shaxsini shakllantirishga oilaning qo'shadigan hissasi turli yosh bosqichlarida turlicha bo'ladi va to'liqinsimon o'zgaradi. Dastlabki 3 yil ichida u ayniqsa kuchli bo'ladi, shundan keyin oilaviy ta'sirning muayyan darajada barqarorlashuvi davri boshlanadi. Uning navbatdagi odatda maktabgacha yosh tugaydigan paytga to'g'ri keladi, shundan keyin taxminan o'smirlik davrigacha u zaiflashgandek bo'ladi. Yana ota-onalarning ta'siri ota-ona oilasidan ajralib, o'z oilasini tuzguncha ancha kuchayadi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlarning ma'lumotlari ba'zan shaxsning imkoniyatlari to'grisidagi barqaror tasavvurlarni o'zgartirib yuboradi. Masalan, ych yillik shaxslar olimlar bir necha yil muqaddam taxmin qilganlariga nisbatan ancha chuqur idrok etish qobiliyatiga ega, uch yoshli shaxs hozir faqat olti yoshli shaxslar qilgan va qilmagan narsalarni bilishi va qilishi mumkinligi kichkintoyni yurishdan oldin suzishga, ona tili bilan deyarli baravar chet tilida gapirishga o'rganish mumkinligi va hokazolar ma'lum bo'ldi.

Vaholanki, tajribaning ko'rsatishicha, ota-onalar ko'pincha o'zlarini tarbiyaviy ishga to'la tayyor deb biladilar va maxsus pedagogik bilimlarni egallashni zarur deb hisoblamaydilar. Ota-onalarning bu xusuiyatini taniqli pedagog va psixolog K. D. Ushinskiy o'z davrida ta'kidlagan edi. «Tarbiya san'ati, — deb degan edi u, — shunday xususiyatga egaki, deyarli barchaga tanish va tushunarli, ba'zilarga esa juda oson ish bo'lib tuyuladi — odam bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan qanchalik kam tanish bo'lsa, unga bu shunchalik tushunarli va oson bo'lib ko'rinadi. Deyarli hamma tarbiya sabr-toqatni talab etishini e'tirof qilishadi, ayrimlar buning uchun tug'ma qobiliyat va malaka, ya'ni ko'nikma kerak, deb o'ylaydilar; lekin juda kam odam sabr-toqat, tug'ma qobiliyat va malakadan tashqari yana maxsus bilimlar kerakligi haqida ishonch hosil qilish.

Bunday bilimlarning yo'qligi oilaviy tarbiyada ko'plab xatolarga olib keladi, guruh rahbari ota-onalar bilan ishlashda buni hisobga olmay iloji yo'q. Bu jihatdan ota-onalarning shaxslarni tarbiyalashdagi quydagi qiyinchiliklari va xatolarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Ota-onalarning shaxslar bilan muomalasining yetishmasligi. Ular o'zlari, ishlari haqida kam so'zlab beradilar, o'quv bilim yurti o'quvchilar jamoasining hayoti, o'z shaxssining qiziqishlari, uning jamoat ishlari, bu ishga munosabati va hokazolar bilan kam qiziqadilar. Muomalaning yetishmasligi shaxslarning ota-onadan uzoqlashishiga olib keladi, kattalarni shaxsga yanada faolroq ta'sir ko'rsatish imkoniyatidan mahrum etadi.

2. Shaxslarni mehnat jarayonlariga jalb etish orqali ularning mehnat tarbiyasini tashkil qila bilmaslik ona ishga ko'milib ketgan paytda shaxslar oilaviy ishlardan, turar joylardagi ishlardan va hokazolardan ozod etiladilar. Buning natijasida mehnatga mensimay munosabatda bo'ladilar.

3. Ota-onalar turmushida salbiy misollarning mavjudligi o'quv muassasasining pedagogik kuch-g'ayratini yo'qqa chiqaradi.

4. Ota-onalar tarbiyaviy ta'sirining izchil emasligi — onda-sonda o'qishini tekshirish, biror nojo'ya ish uchun jazolash va hokazolar axloqiy immunitet hosil bo'lishiga yordam bermaydi.

5. Oilaviy tarbiyaning asosi sifatida taqiqlashlar sistemasi — ijobiy namuna asosida tarbiyalay bilmaslik, shaxs hayotini u har doim turli hatti-harakatni mashk kiladigan tarzda tashkil eta olmaslik natijasidir. Bu sistema shaxsning kattalar xohishiga salbiy munosabatini tug'diradi, mustaqillikning rivojlanishini susaytiradi.

6. Harakatlarning o'quv bilim yurti bilan muvofiqlashtirilmaganligi yoki u bilan kelishmovchilik. Tarbiyalanuvchida pedagogga, o'quv bilim yurtiga ishonchsizlik paydo bo'ladi va o'sib boradi, bu esa uning kamchiliklarini tuzatishni qiyilanshtiradi, pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi.

7. Ayrim ota-onalarning shaxslar ulg'ayib borishi bilan tarbiyaviy faollikni susaytirib yuborishlari, bu esa shaxslarning ota-onalardan uzoqlashuviga, o'quv bilim yurtiga qiziqishi pasayishiga va hokazolarga olib keladi.

8. Qarorlar qabul qilishda kechikish. Shaxs katta bo'lgandan keyin aqli kirib, tuzaladi deb o'ylash odatda o'zini oqlamaydi, ko'pincha qayta tarbiyalashni talab etadigan pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi.

Ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar qatoriga ota-onalarning tarbiya usullarini bilishlarini, shaxslar ulg'ayishi bilan ularni o'zgartirishni bilmaslik yoki istamaslik ota bilan onaning talablari birligining, pedagogik odob, chidamning yo'qligi, ota-onalarning turmushning ma'naviy tomoniga zid tarzda moddiy tomoniga qiziqib ketishi va boshqalarni qo'shish mumkin.

Ota-onalar bilan ish shakllari va usullarini tanlashni odatda sinf rahbari o'z shaxsiy xususiyatlari tajribasini, o'quvchilarning oilalarida vujudga kelgan o'ziga xos xususiyatlarni, ota-onalarning bilim va tajribasini, tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda yuqorida ko'rsatib o'tilgan xatolar va qiyinchiliklarni, fe'l-atvor xususiyatlarini, o'quv muassasasi pedagoglar jamoasidagi muhitni, ota-onalar bilan ish olib borishda tarkib topgan an'analarni va hokazolarni hisobga olib belgilaydi, tajribaning ko'rsatishicha, sinf rahbarining ota-onalar bilan hamkorligining ommaviy, sinf. tarzidagi va yakka tartibdagi ish shakllarini oqilona birga qo'shib olib borish, bunda uning mazmunida izchillikka rioya etish orqali erishiladi.

Ko'rsatilgan shakllar ta'rifi va ularni qo'llashning eng yuqori natija berishini ta'minlaydigan shart-sharoitlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

O'quvchilarni tarbiyalashda oilaning bir qancha vazifalari mavjud bo'lib ular quydagilardir:

- oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o'rnak bo'lishi, farzandlarning ota-onasiga, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro g'amxo'p bo'lishni ta'minlash;

- oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a'zolarining o'z huquq va burchlarini anglab yetishlarini va ularga rioya qilishlarini ta'minlash;

- farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib yetishishlarini ta'minlash;

- bozor munosabatlariga mos bo'lgan kasb-hunar o'rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish;

• shaxslarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;

• shaxslarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, istiqloq g'oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

• shaxslarning bo'sh vaqtlarini pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqib unumli tashkil qilish, ularga qo'shimcha ta'lim berish;

• farzandlarida mavjud bo'lgan iste'dod kurtaklarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish;

• o'z farzandlarining o'quv muassasasi, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to'la ado etishlari uchun oilada mas'uliyatli bo'lish;

• ota-onalar o'zlarining pedagogik va psixologik bilim saviyalarini doimo oshirib borishi;

• shaxslarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma'naviy axloqiy tomonlarini shakllantirish;

• oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo'nalishlarini uyg'un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishga mas'ullikni ta'minlash;

• sanitariya-gigiyenik, ekologik ko'nikmalarni singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyani amalga oshirish;

• oila, o'quv bilim yurti va mahalla oldida o'z farzandlarining barcha hatti-harakatlari uchun javobgardir;

• sog'ligida va aqlida nuqsonlari bo'lgan farzandlariga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasb-kor o'rgatishdan iborat.

Ota-onaning farzand oldidagi burchi, o'zbekona ta'bir bilan aytganda, farzandga yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallim qo'lga topshirib savodini chiqarish, ilmi, kasb-hunarli qilish, oilali va uyli-joyli qilishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanboeva O., Djamilova N. Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi. – T.: 2008.

2. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2010 y.

3. I.A. Kolosnikova, N.M. Ворытко и др. Воспитательная деятельность педагога. Учебное пособие. М.: Академия, 2006 – 333 s.

4. Подласыи I.P. Педагогика 2-ya chast – М.: VLADOS, 2003 g.

5. Niyozova Safiya "Providing interdisciplinary integration in "education" lessons in primary grades". Society and innovations Journal. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 10 (2022) / ISSN 2181-1415

6. 2. Niyozova Safiya. . "МУСТАҲКАМИИ ТАЪЛИМИ ИБТИДОӢ НАТИҶАИ ПЕШРАВИИ ДАВЛАТУ МИЛЛАТ". YANGI O'ZBEKISTON PEDAGOGLARI AXBOROTNOMASI <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/12651>

7. 3. Niyozova Safiya (2023) "АҲКОРИ ТАЪЛИМИ ВА ТАРБИЯВӢ ДАР АСАРҶОИ САЪДИ ШЕРОЗӢ ВА АҲАМИЯТИ ОН ДАР ҶОМЕАИ ИМРӢЗАИ МО". Yangi O'zbekiston pedagoglari axborotnomasi, 842-847.

8. 4. Niyozova Safiya "IMPROVING THE PROCESS OF PROVIDING INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN "EDUCATION" LESSONS IN PRIMARY GRADES". " In Volume 3, Issue 10 of Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) Oct., 2022.

BO`LAJAK PEDAGOGLARNING MA`NAVIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA MAFKURAVIY IMMUNITETNING TUTGAN O`RNI

Norboyeva Sarvinoz Mengaliyevna

Termiz davlat universiteti 2-bosqich doktoranti (DSc)

O`zbekiston Respublikasida uzluksiz ta`lim sharoitida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida o`zligini namoyon qila oladigan, jamiyatdagi o`zgarishlarga faol munosabat bildirib, ularga ta`sir eta oladigan kompetent kadrlarni tayyorlash vazifasi ustuvorlik kasb etadi. Bu masalaning ijobiy hal etilishi jamiyatning yuksak darajadagi intellektual salohiyat, ma`naviy, huquqiy va professional madaniyatga ega bo`lishini kafolatlaydi.

Bugungi kunda O`zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an`analariga amal qilib, teran anglagan holda, qat`iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo`lidan bormoqdamiz, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko`zlangan maqsad - "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo`lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat.

Shu nuqtai nazardan, Oliy ta`lim muassasalarining vazifalari ham jamiyat talablari bilan hamohang tarzda mohiyatan o`zgarishi tabiiy hol. Zero, talabavoshlar ongida bir umr muhrlanib qoladigan dunyo tasvirini "chizadigan", uni o`rgatadigan, tarbiyalaydigan va shaxs madaniyatining rivojlanishiga asos bo`ladigan psixologik-pedagogik makon - ta`lim jarayonida kechadigan har qanday jarayon talaba manfaati uchun xizmat qiladi. Bu maskanda, eng avvalo, talabalar uchun zamonaviy bilimlarni egallashi, mustaqil ravishda ma`lumotlarni olish, ularni mushohada qilish, saralash, qayta ishlash va

axborot almashinish, umuman, axborot makonida mustaqil yo`nalish ola bilishi hamda kelajakda ijtimoiy munosabatlarga faol, kasbiy faoliyati va shaxsiy hayotida muvaffaqiyatli bo`lishiga asos bo`ladigan tayanch ma`naviy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi ta`limiy va tarbiyaviy muhit yaratilishi zarur.

Bo`lajak pedagoglarga bilim berish bilan birga, ularda mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish, tolerantlik, mehnatsevarlik hamda tez kirishuvchanlik xususiyatlarini shakllantirib, har qanday o`zgarishlarga konstruktiv moslasha olish qobiliyatini rivojlantirib borish lozim.

Shu bilan birga, xalqaro maydonda mafkuraviy, g`oyaviy va informasion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda pedagoglardan ma`naviyat, madaniyat, ma`rifat va mafkuramizning asoslarini chuqur o`rganishni zamon talablari asosida ta`lim-tarbiyani to`g`ri tashkil etishni, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilishda ulardan oqilona foydalanish masalasini ham bugungi kunning muhim vazifasi etib belgilaydi. Bo`lajak pedgoglarning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofdan yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyishta hayotimizga xavf tug`dirishi mumkin bo`lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish, buyuk ajdodlarimizdan meros bo`lgan bu Vatanni asrab-avaylash, uning buyuk kelajagini tashkil etish kabi muqaddas tuyg`ularni shakllantirish masalalariga e`tibor qaratiladi.

O`zbekistonda demokratik tamoyillarga asoslangan boshqaruvni tashkil etish, yoshlarimiz ong-tafakkuri va dunyoqarashida tajovuzkor g`oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni qaror toptirish, endigina shakllanib unib-o`tib kelayotgan yoshlarni milliy urf-odat, an`ana, qadriyatlarimiz va tarixiy merosimizga sodiqlik ruhida tarbiyalash, ularda umumbashariy fazilatlarni shakllantirish muhim masaladir. Hozirgi zamonda yoshlarda mustahkam mafkuraviy e`tiqodni shakllantirish har qachongidan ham muhimdir. Ijtimoiy taraqqiyotda g`oyaviy jihatdan yetuk shaxs jamiyatning barqaror rivojlanishida uning ma`naviy va ma`rifiy taraqqiyotini ta`minlovchi asosiy sub`yekt bo`lib xizmat qiladi.

IMMUNITET (lot. immunitas — biron narsadan xalos, ozod bo`lish, qutulish) — tirik mavjudotlarning o`z butunligi va biologik noyobligini buzuvchi «yot» omillardan himoyalani-shi, qarshilik ko`rsatishi, rezistentligi. «Yot» omillarga bakteriya va ularning toksinlari, viruslar, zamburug`lar, sodda jonivorlar, gelmintlar, ko`chirib o`tkazilgan a`zo va to`qimalar, organizmning o`zgargan o`z xujayralari (mas, o`smasimon hujayralar) va b. kiradi. Bu omillar organizm uchun irsiy begona bo`lgan kimyoviy agentlar — antigenlar tutadi.

MAFKURAVIY IMMUNITET (lotincha immunitas - biror narsaning chidamliligi yoki biror narsadan ozod etish) - ma`lum bir shaxsda yoki ijtimoiy guruhda o`ziga xos bo`lgan, qatiiy, barqaror, sog`lom mafkuraviy qarashning

shakllanganligi bilan ifodalanadi. U shaxsning insoniylikka yot bo'lgan turli zararli mafkuraviy ta'sir va tazyiqlarga berilmasligida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Natijada, sog'lom g'oyalarga tizimi uning dunyoqarashidan mustahkam joy oladi va ma'naviy-ruhiy holatida bo'shliq kuzatilmaydi. Mafkuraviy immunitet – shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoyalashga xizmat qiluvchi tizimdir. Aslida immunitet tibbiyotga tegishli tushuncha bo'lib, u organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashga, turli tashqi ta'sirlardan, infeksiyalardan himoya qilishga qodir bo'lgan reaksiyalar majmuidir. Oddiy qilib aytganda, immunitet – organizmning o'z-o'zini turli kasalliklardan himoya qila olish qobiliyatidir. Mafkuraviy immunitetning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, agar insonning umumiy immunitet tizimi tug'ma bo'lsa, mafkuraviy immunitet shakllantirilib boriladi. Mafkuraviy immunitet har bir avlod uchun alohida xususiyatga ega bo'ladi. Mafkuraviy immunitet tizimi shakllantirilgan holatda jamiyatda mafkuraviy dahlsizlik ta'minlanadi. Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va eng muhim elementi, bu bilimdan iborat bo'lib, bu bilimlar ob'yektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyishiga, xalq va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozimdir. Mafkuraviy immunitet tizimining yana bir muhim elementi ana shunday ilg'or bilimlar zamirida shakllanadigan baholar va qadriyatlar tizimidir. Mafkuraviy immunitet tizimida bilimlar qanchalik ob'yektiv va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga keladigan baholar va qadriyatlar tizimi ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab, zararli g'oyalardan himoya qilish yo'lida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi. Mafkuraviy immunitetning uchinchi muhim elementi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy sohalardagi maqsadlar tizimidir.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz .

Bo'lajak pedagoglarning mafkuraviy immunitetni shakllantirishda quyidagi asosiy yo'nalishlardan foydalanish mumkin.

1. Yoshlarni jismonan va aqlan sog'lom bo'lib o'sishini ta'minlash.
2. Ularga tadbirkorlik, ishchanlik, mustaqil fikr yuritish qobiliyatini hayotdagi birinchi qadamlardan boshlab singdirish.
3. Har bir yoshni o'z Vataniga muhabbat va mehr, sadoqat va fidokorlik ruhida tarbiyalash.
4. Bu mehr-muhabbat va sadoqatning ildizi chuqur bo'lishi uchun yoshlar o'z millati, o'z yurti tarixini, urf-odatlarini va rasm-rusumlarini, uning jahon sivilizasiyasi maydonidagi o'rnini har tomonlama bilishini ta'minlash.

5. Sport va jismoniy tarbiyani rivojlantirish, sportdan mamlakat va millatni ulug'lovchi xolis vosita sifatida foydalanish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda boy tarixiy, ma'naviy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida unda vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga katta e'tibor qaratilib, Vatanning gullab-yashnashi har bir insonning mehnatiga, tadbirkorligiga bog'liq ekanligini uning ongi va qalbiga singdirishga asosiy e'tibor qaratiladi.

Mafkuraviy immunitetning ma'naviy-ma'rifiy vazifalari haqida gap borganda, ommaviy axborot vositalari, fan, adabiyot, san'atning bunyodkor g'oyalarni amalga oshirishdagi o'rni, barkamol avlodni tarbiyalashning g'oyaviy omillari nazarda tutiladi.

Oxirgi paytlarda informatsion xurujlarning tez-tez uyushtirilayotgani aslida urushga munosabatning o'zgariganidan, qurolning yangi turi kashf qilinganidan darak beradi. Bu qurol – axborotdir. Shu ma'noda aksiltarg'ibot «g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashish» tamoyiliga mos ravishda olib borilishi kerak. Bunda davlatimiz siyosatiga qarshi kuchlarning g'oyaviy hujumlarini qaytarish talab etiladi. Bunda ommaviy axborot vositalarining roli beqiyosdir.

Bo'lajak pedagoglarda mafkuraviy imunitetni shakllantirishda pedagogika va psixologiya xususan, ijtimoiy fanlar alohida o'rin tutadi. Bu o'rinda ijtimoiy fanlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar ezgu va bunyodkor g'oyalar, jahon sivilizatsiyasining ilg'or ilmiy namunalari aks etgan bilimlarni yoshlar tarbiyasida unumli qo'llashlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. Toshkent, "O'zbekiston", 2018 yil, 244 bet.
2. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 252-бет.
3. Immunitet. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/immunitet-uz/>

XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI ASOSIDA BO`LAJAK PEDAGOGLARDA MA`NAVIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH YO`LLARI

Norboyeva Sarvinoz Mengaliyevna

Termiz davlat universiteti 2-bosqich doktoranti(DSc)

Jahonda xalqaro ta'lim standarti tasnifi (XTST) talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonlarida bo'lajak mutaxassislarda tarkib toptirilishi lozim bo'lgan ma'naviy kompetensiyalarga (fazilatlar) ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Masalan, Yaponiyaning "Ta'lim to'g'risidagi fundamental Qonuni" da ta'lim muassasalariga tinchlik va insoniylik ideallariga amal qiluvchi millatni shakllantirish missiyasi yuklatilgan. Ya'ni: shaxs sifatlarini to'liq rivojlantirish; tinchlikparvar davlat va jamiyat quruvchilarini tarbiyalash, haqiqatparvarlik

va adolatparvarlik; shaxsiy erkinlik; mehnatsevarlik; mas'uliyatlilik; mustaqil fikrga egalik; o'zgaralar bilan hamkorlik, an'anaviylik bilan zamonaviylikni anglash; xalqaro hamkorlikka tayyorlik; kundalik turmush malakalariga egalik; ruhan va jismonan kuchlilik; o'zini baxtli va boshqalar bilan uyg'un tasavvur qila olish fazilatlarini shakllantirishga katta e'tibor qaratiladi.

Ta'lim muassasalari uchun ishlab chiqilgan "Ideal yapon yigit-qizining fazilatlarini" deb nomlangan hujjatda yapon yoshlarida 16 ta fazilatni shakllantirish vazifasi belgilab berilgan. 16 fazilat 4 guruhga bo'lingan. Bular: 1) shaxsiy sifatlar: erkinlik, individuallik, mustaqillik, o'z hohish-istaklarini boshqarish, pietet (ehtimom) tuyg'usiga egalik; 2) oila boshlig'iga xos sifatlar: o'z uyini mehr-muhabbat, halovat va tarbiya maskaniga aylantira olish; 3) ijtimoiy sifatlar: o'z ishiga sadoqat, jamiyat farovonligiga hissa qo'shish, ijodkorlik, milliy (ijtimoiy) qadriyatlarini hurmat qilish; 4) fuqarolik sifatlarini: Vatanga sodiq bo'lish, davlat ramzlarini qadrlash, ijtimoiy faollik, eng yaxshi milliy fazilatlarini sohibi bo'lish.

AQShning "Amerika-2000: ta'limni rivojlantirish strategiyasi (1991)" dasturida yetuk shaxsga xos fazilatlar sifatida rostgo'ylik, sobitqadamlik, to'g'rilik (xolislik) va shaxsiy mas'uliyatga ustuvorlik berilgan. Shuningdek, yosh amerikaliklarda jasurlik, fidoyilik, barqarorlik, qat'iylik, tirishqoqlik, hamdardlik, bag'rikenglik singari 60 ta asosiy fazilat shakllantirilishi ko'zda tutilgan.

Buyuk Britaniyaning ta'lim bo'yicha Milliy komissiyasi (1993) yoshlarda haqiqatparvarlik, boshqalarga hurmat, jamiyat oldida burchga sodiqlik, insonlarga g'amxo'rlik, madaniy merosga hurmatni shakllantirish, demokratik erkin jamiyat fuqarolari bo'lish, bag'rikenglik fazilatlarini singdirish, axloqan va ma'nan kuchli shaxslar etib yetishtirish vazifalarini aniq belgilab bergan.

Fransiya ta'lim vazirligi ko'rsatmalarida mas'uliyatli, g'ururli, o'zgaralarni hurmat qiluvchi, boshqalar bilan hamkorlikka tayyor, irqchilikka qarshi turuvchi, xilma-xil madaniyatlarni qabul qiluvchi, o'zining Fransiya muhabbatini Ozodlik, Tenglik, Qardoshlik g'oyalari bilan uyg'un rivojlantirgan demokratik jamiyat kishisi fazilatlariga ega shaxsni tarbiyalash ko'zda tutilgan.

Amerikalik pedagoglar tarbiyaviy ishlarning asosiy vazifalari qatoriga mustaqil bilim olish ko'nikmalarini ham qo'shishadi. Shakllantirilgan amaliy ko'nikmalar kelajakda jamiyat hayoti va siyosiy jarayonlarga samarali va mas'uliyatli ta'sir o'tkazish uchun talab etiladi. Shuning uchun bu ko'nikmalar ta'lim oluvchi shaxsi shakllanishining dastlabki bosqichlaridanoq o'rgatib borilishi va ta'limning barcha bosqichlarida davom etishi lozim. AQSh o'quv muassasalarida qabul qilingan tarbiyaviy ish shakllari suhbatdoshni diqqat bilan eshitib, uning fikr va g'oyalarini do'stona va tanqidiy tinglash, nizolarni hal qilish, murosaga kelib, o'zaro murosaga erishishga o'rgatadi. Bu vaziyatda tyutorlar elektron resurslardan hamda o'zlarining shaxsiy aloqalari orqali ijtimoiy so'rovlar o'tkazib borishadi. Shu tariqa talaba-yoshlar o'z mamlakatlaridagi islohotlarda faol ishtirok etishga o'rgatib boriladi.

AQSh ta'lim-tarbiya doktrinasida mas'uliyat, o'z-o'zini idora etish va har bir insonni hurmat qilish hamma uchun majburiy hisoblanadi. Shu maqsadda talaba-yoshlarda ijtimoiy fazilatlar – ochiqko'ngilik, o'zgalarga hurmat, qonunga itoat qilish, voqelikka tanqidiy baho berish va murossalilik shakllantirib boriladi.

Avstraliya ta'lim muassasalarida to'g'rilik, olamda o'z o'rnini bilish, tadbirkorlik, tashabbus kabi fuqarolik g'oyalari asosida yuzaga kelgan demokratik merosga hurmat bilan bir qatorda ijtimoiy yo'nalgan shaxsga xos – bag'rikenglik, davlatning ko'pmillatli merosini saqlab qolishga intilish, kirishuvchanlik, xayrixoxlik kabi fazilatlar tarbiyasi ustuvor sanaladi.

Buyuk Britaniya tarbiyaviy doktrinasida har bir insonda individual yo'nalgan shaxslilik sifatlari bo'lishi shart hisoblanadi. Shu sababli o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatli bo'lish, o'zi va o'zgalar istiqboli haqida qayg'urish, o'z harakatlarining o'zgalarga qanday ta'sir etishi haqida o'ylash, avval o'ylab, keyin qaror qabul qilish, o'z nuqtai nazarini himoya qilish kabi sifatlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan shaxsning sifatlari – jamiyat yuksalishi xaqida qayg'urish, nizolarni bartaraf etishga intilish, umumiy manfaat uchun jamoada ishlashga tayyorlik, o'zgalar nuqtai nazarini qabul qila olish, o'z harakatlariga mas'uliyat bilan yondoshuv, o'zi va o'zgalar haqida qayg'urish, o'z xatti-harakatlarining boshqalarga qanday ta'sir etishini o'ylab ish tutish, o'z xatti-harakatlarining kutilmagan natijalari uchun javob bera olish, mas'uliyatlilik va bag'rikenglik, individning siyosiy samaradorligi, umumiy muvaffaqiyat va oxir-oqibat eng muximi jamiyatning ma'naviy yuksalishi uchun o'ta muhim hisoblanadi.

Xorijiy tajribalar tahlili asosida tadqiqotda umummadaniy kompetensiyalar asosida bo'lajak pedagoglarda ma'naviy kompetensiyani rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish lozim, degan xulosaga kelindi.

Zamonaviy jamiyat rivojining muhim jihatlaridan biri insoniyat va har bir insonning taqdiri bilan bevosita aloqador madaniyat hodisasining mazmuni hamda funksiyalarini innovatsion tarzda tushunish bilan bog'liqdir. Aynan ijtimoiylashuv jarayonida umuminsoniy qadriyatlar, xulq-atvor me'yorlari va qoidalari, boy madaniy merosni o'zlashtirish orqali ta'lim oluvchilarning o'zligini anglashiga erishiladi. O'z-o'zini rivojlantirishga qodir ta'lim oluvchi shaxsini shakllantirish, uni milliy madaniyat bilan tanishtirish ta'lim va tarbiya orqali amalga oshiriladi.

Yuqoridagi fikrlar asosida umummadaniy kompetensiyani bilishga qiziqish, ma'naviy-axloqiy e'tiqod va tasavvurlar, voqelikni o'zlashtirish va qayta yaratish bo'yicha madaniy faoliyatga tayyorlikni shakllantirishni talab etuvchi umuminsoniy qadriyatlar bilan bevosita aloqadar ekanligi haqidagi xulosaga kelish mumkin.

Zamonaviy oliy ta'limning muhim maqsadi o'z mamlakatining ma'naviy va madaniy an'analarini qadriyat sifatida qabul qiluvchi yuksak axloqli, kompetent, ijodiy, ijtimoiy-mas'uliyatli shaxsni tarbiyalashda aks etadi.

Zamonaviy mutaxassis nafaqat kasbiy, balki umumiy madaniyatning muayyan darajasini egallagan bo'lishi lozim: ma'naviy-axloqiy, estetik, ekologik, siyosiy, iqtisodiy va h.k.

Ta'lim shaxsning o'zining xilma-xil ehtiyojlarini qondirish, turmush tarzi tanlovi, yetuk insonni shakllantirishning muhim sharti va vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Oliy ta'limda o'qish yillari inson nafaqat dasturda ko'rsatilgan bilimlarni o'zlashtirishi, balki o'zining hayot mazmunini belgilab beruvchi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini anglash va mustahkamlash davri bo'lishi lozim: Vatani va oilasiga muhabbat, kattalarga hurmat, bemorlarga mehribon, hayotga muhabbat va boshqalar.

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida ma'naviy kompetensiya bizga yuksak axloqiy shaxsni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Ma'naviy kompetensiya umuminsoniy axloq me'yorlari, bo'lajak pedagoglarning butun hayotiy faoliyatini tashkil etish jarayonlari yaxlitligida samarali amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Железняк О.Н. О принятии в Японии нового основного Закона об образовании. – Владивосток: Изд-во института Дальнего Востока РАН, 2009. – 240 с.

2. Norboyeva S.M. Талабаларда маънавий компетентликни ривожлантиришнинг назарий-педагогик асосларини такомиллаштириш педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори. ...дисс. Автореф. – Т., 2021. – 15 б.

3. Развитие образования в европейских странах в условиях глобализации и интеграционных процессов: Сборник научных трудов. – М.: ФГНУ ИТИП РАО, Издательский Центр ИЭТ, 2013. – 448 с.

4. Соколовой И.И., Колесникова А.С. Современная зарубежная компаративная педагогика и философия образования. – М.: ФГНУ ИТИП РАО, Издательский Центр ИЭТ, 2013. – 328 с.

5. Fazilatli avlod. Uzluksiz * ma'naviy tarbiya trilogiyasi. III qism. 7-18 yoshli bolalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha qo'llanma. Tuzuvchi-mualliflar: A.Qodirov, M.Quronov va boshq. – T.: Muharrir, 2019. – 260 b.

6. Фахрутдинова А.В. Общее и особенное в подходах к гражданскому воспитанию в США, Канаде, Австралии и Великобритании / Фахрутдинова А.В. // Образование и саморазвитие. – 2011. – № 4. – С. 215-220.

**МУМТОЗ БОЛАЛАР КИТОБХОНЛИГИ ВА УНИНГ КЎРИНИШЛАРИ
"ГУЛИСТОН" ВА "БЎСТОН" - ДУНЁВИЙ ПАНДНОМА ХАРАКТЕРДАГИ
АСАР**

*Носирова Захрохон Латибжон қизи
АДПИ ўқитувчиси*

“Саади” таҳаллусининг келиб чиқиши Форс Саад ибн Зангига (1195—1226) бориб тақалади. Ҳаётдан эрта кўз юмган шоирнинг отаси унинг қўлида хизмат қилган, Мусдиҳ ад-Диннинг тарбиясида иштирок этган. Саад ибн Занги Муслиҳ ад-Диннинг ҳамкорлиги остида Боғдоддаги Низомия мадрасасига ўқишга киради. Сўфи шайхларининг қўлида дарс олади ва уларнинг зоҳидий тариқатларига чуқур киришиб кетади. Бироқ, Саади томонидан ёзилган шеърлар ҳаётга бўлган ўспиринлик севгиси ва қувончи билан тароват сочиб туради; шайх Абул-Фараж Жузий унинг муסיқага бўлган севгисини даволай олмаганлигини унинг шахсан ўзи қариган чоғи тан олган.

Мўғуллар истилоси ва Саади ибн Зангининг 1226 йил тахтдан ағдарилиши сабаб, Саади қочишга мажбур бўлади ва ҳаётининг кейинги 30 йили давомида қисмат уни мусулмонлар оламининг бир чеккасидан бошқачига ташлайди. Ҳиндистонда, будхонада ўз ҳаётини сақлаш мақсадида Саади оташпарастлар динини (зороастризм) сохта тарзда қабул қилади ва соқчи руҳонийни тош билан ўлдириб, қочади. Саади Маккага 14 маротаба пиёда ташриф буюради. Мумтоз араб тилини мукамал даражада билиши туфайли, Дамашқ хатиби бўлади, аммо дунё ташвишларидан толиқиб, Қуддус остидаги даштларда ёлғиз яшайди. Бу ерда у ҳож кўтарувичларига асир тушиб, улар олимни Сурия соҳилига олиб келишади ва Триполида уни қалъа қурилиши учун чуқур кавлашга мажбур қилишади. Уни 10 танга эвазида Алепполик бир бой сотиб олади, уйига олиб келиб, ўзининг бадбашара ва жанжалкаш қизига уйлаб қўяди. Чидаб бўлмас оила ҳаётидан қутилиш мақсадида, у Шимолий Африкага қочиб кетади.

Бутун Кичик Осиё бўйлаб саёҳат уни Шерозга олиб келади (1256) ва марҳум Саадининг ўғли Абу Бакрнинг ёрдами билан шаҳар чеккасидаги масжидда умрининг охиригача яшайди. “Шаҳарнинг энг нуфузли аслзодалари ва фуқаролари шайхнинг ҳузурига келарди, дейди Давлат шоҳ”.

Саади жуда кўп шеърлари ва насрий асарларни ёзган, панд-насихат ўрнида кўплаб ўз ҳаётидан намуналар олган. Дунёнинг бутун ташвишини бошидан ўтказган Саади ўзининг замондошлари ва ўтмишдошлари бўлмиш Фаридуддин Аттор ва Жалолиддин Румий, шайх Абдулқодир ал Жилоний ва бошқаларнинг сўфичилик қарашлари билан назарий жиҳатдан ҳамфикрдир. Аммо одамларни яхши билган Саади барча ҳам дунёдан ўз хоҳишига кўра кета олиш қобилиятига эга эмаслигини ва инсон танага фақат сирли тафаккурдагина барҳам

беришга қодир эканлигини тушунган. Шунинг учун Саади дунёвий зоҳидликни турмушга боғлайди: тинчликда яшашни, лекин унга қарам бўлиб қолмасликни, унинг шафқатсизлигини англашни ва ер юзидаги нарсаларни йўқолишига ҳар бир соатда тайёр бўлишга чорлайди.

1257 йил у “Бўстон” номли шеъринг рисоласини ёзиб, унинг тўққизта бобидаги мисраларда сўфилик фалсафаси ва ахлоқини баён қилиб, қизиқарли масал ҳамда ҳикоялар билан жамлайди. Шеъринг туйғуларнинг чуқурлиги ва ахлоқий ғояларнинг баландлиги билан “Бўстон” – барча сўфий адабиётининг энг буюк асарларидан биридир. Тўғрироғи, “Бўстон” эмас, “Гулистон” (1258 йил шеъринг мисралар билан аралаш тарзда ёзилган). “Гулистон” ўзига хос миллийчилик жозибасига эга, шу сабаб, кўплаб машҳур мақол ва маталлар билан бойитилган. “Гулистон”га ўхшаш яна бир, деярли қуруқроқ асар “Панднома” китоби ҳисобланиб, Атторминг шу номли китоби ҳам бўлганлиги боис, бу асар Саади қаламига мансублиги тўлиқ исботланмаган.

Ушбу икки асарнинг ўзбекча таржимаси ХХ асрнинг 70-йилларида илк бор нашр этилган бўлиб, бугун уларни топишда нафақат оддий ўқувчи, балки мутахассислар ҳам катта қийинчилик сезаётганди.

Марказий Осиёдаги хайрли ўзгаришлар, жумладан, ўзбек ва тожик халқларини бир-бирига боғлаб турган азалий дўстлик ришталарининг жадаллик билан тикланиб бораётгани икки мамлакат ўртасидаги илмий, жумладан, адабий ҳамкорликни кенгайтиришга янги имкониятлар яратаётир. Бу борада Президентимиз томонидан барчамизга сабоқ бўлишга арзирли янги-янги ташаббуслар кўрсатилмоқда. Жумладан, 2018 йил 9-10 март кунлари давлатимиз раҳбарининг қардош Тожикистонга амалга оширган расмий ташрифи чоғида Абдурахмон Жомий ва Алишер Навоий ўртасидаги мустаҳкам дўстликнинг рамзий ифодаси сифатида икки буюк адибнинг бир-бири ҳақидаги қимматли фикрларини ўзида мужассамлаштирган ўзбек, тожик ва рус тилларидаги “Жомий ва Навоий” китобининг қўшни мамлакат раҳбари Эмомали Раҳмонга тақдим этилгани ҳам ўзбекистонлик, ҳам тожикистонлик тадқиқотчилар учун ибрат бўлди.

Умумбашарий цивилизация зарварақларидан ўрин олган, улкан адабий мерос қолдирган алломалар форс-тожик адабиётида кўплаб топилади. Форс-тожик адабиёти умуминсоний қимматга молик маданий-маънавий хазинага беназир ҳисса қўшган Саъдий Шерозий жаҳон адабиётида ўчмас из қолдирган шундай буюк мутафаккирлардандир.

Умумбашарий цивилизацияга қўшган беназир ҳиссасининг эътирофи сифатида 21 апрель ЮНЕСКО томонидан “Буюк форс шоири ва гуманисти Шайх Саъдий Шерозийни хотирлаш куни” деб эълон қилингани бежиз эмас. Зеро, адиб ижодини бошидан охиригача бир шодага айлантирган мавзу – инсон, унинг қувончу ташвишлари, бахту саодатию дарду аламлари, камолотию тубанлиги сабаблари бўлиб, уларнинг барчаси, сўзсиз, туганмас ва доимо барҳаёт мавзулардир.

Саъдий Шерозий ижодининг маҳсули дунёнинг ўнлаб тилларига таржима қилингани унинг аҳамияти нечоғли юқорилигидан далолат беради. Мутафаккир асарлари таржимаси ҳақида сўз кетганда, Шоислом Шомуҳамедовнинг Саъдийга хос бетакрор руҳиятни сақлаб қолган, яъни барчага маълум ҳақиқатни шоир форсчада баён этганидек юксак назокат ва фусункор шаклда ўзбек тилида ифодалай олганини алоҳида таъкидлаш жоиз.

Дарҳақиқат, Ш.Шомуҳамедов ўзбек илм-фани ва адабиётида чуқур из қолдирган серқирра мутафаккирлардан эди. Ушбу фикрнинг исботи сифатида Шоислом Шомуҳамедов қалами остидан чиққан илмий тадқиқотлар, таржима ва бадиий асарларнинг жами адади олти юздан ортиқлиги ҳамда форсчадан қилинган таржималар нашрининг умумий сони бир миллиондан ошганини эслатиш мумкин. Бу борада гап кетганда, шубҳасиз, Саъдийнинг “Гулистон” ва “Бўстон” асарлари таржимасини алоҳида таъкидлаш жоиз.

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, бугунги зиддиятларга тўла замонда Саъдий адабий мероси каби ҳикматли маърифий манбаларга бўлган эҳтиёж мисли кўрилмаган даражада ошди. “Оммавий маданият” деб номланаётган қаттол маънавий таҳдид кундан-кунга кучайиб бораётган ҳозирги шароитларда инсон тафаккурини ҳақиқий маърифат инжулари билан бойитиш учун “Гулистон” ва “Бўстон”дек дидактик асарларга қайта-қайта мурожаат қилиш ҳаётий заруратга айланмоқда. Бироқ, ушбу икки асарнинг ўзбекча таржимаси XX асрнинг 70-йилларида илк бор нашр этилиб, бугун уларни топиш амримаҳол бўлиб қолгани ҳам сир эмас. Ҳатто мазкур нодир асарларнинг ўзбекча таржимасини топишда нафақат оддий ўқувчи, балки мутахассислар ҳам катта қийинчилик сезмоқда.

FAOL KUZATISH EMPATIYA, REFLEKSIYA, IDENTIFIKATSIYA – KOUCHINGNING SAMARALI VOSITALARI SIFATIDA

*Nurumbekova Yarkinay Anarmatovna
Guliston davlat universiteti p.f.f.d. (PhD), dotsent*

Annotatsiya: Ushbu makolada kouchingda faol kuzatish empatiya, refleksiya, identifikatsiya samarali vosita ekanligi va ularning xususiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: samarali, kouchingi, vosita, dentifikatsiya, refleksiya, empatiya, kuzatish, neytrallik, parfraza, faol tinglash.

Kouching psixoterapiya va biznes – konsaltingning ko'plab samarali metodikalaridan foydalansada, ikkalasidan ham ancha farq qiladi.

Faol yoki empatik tinglash - psixoterapiya olib boruvchi inson psixologiyasini yaratuvchisi, Karl Rogersning amerikalik psixoterapevtidir. Faol tinglash - bu suhbatdoshning his-tuyg'ularini, his-tuyg'ularini tushunish,

suhbatni chuqur o'rganish va odamni omon saqlab qolish va o'z holatini o'zgartirishga yordam beradigan vositadir. Rossiyada bu usul bolalar psixologi Yu.Gippenreiterga tegishli bo'lgan turli nuanslar bilan ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan.

Empatik tinglash. Psixologiyani faol tinglash usuli suhbatni uyg'unlashtirishga, mijozning muammolarini aniqlashga va tegishli shaxsiy terapiyani tanlashga yordam beradi. Bolalar bilan ishlashda bu - eng yaxshi usul, chunki kichik bola hali ham o'zlarini his qila olmaydi va his-tuyg'ularini biladi. Empatik eshitish vaqtida terapevt o'z muammolari, aqliy tajribalaridan xulosa chiqaradi va butunlay bemorga qaratilgan.

Faol tinglash - turlari. Faol tinglash turlari shartli ravishda erkak va ayolga bo'linadi. Har bir turning xususiyatlari:

Erkaklar faol ravishda tinglash - aks ettirishni nazarda tutadi va biznes doiralarida, biznes sohasidagi muzokaralarda qo'llaniladi. Suhbatdoshdan olingan ma'lumotlar turli tomonlardan diqqat bilan tahlil qilinadi, erkaklar natijaga qaratilgani kabi ko'plab aniq savollar beriladi. Bu erda to'g'ri va oqilona tanqid.

Ayollar faol tinglash. Tabiiy hissiyot va hissiyotlarning yanada uyg'unligi tufayli ayollar ko'proq ochiq va katta empati bor : suhbatdosh bilan birgalikda, u bilan o'z muammosida ishtirok etadilar. Empati beixtiyor bo'la olmaydi-u boshqa bir odamning his-tuyg'ulari va o'zini namoyon qilishga ishoniradi. Ayollarda eshitishning parafrazing texnikasi ishlatiladi, aniq his-tuyg'ularga va hissiyotlarga alohida e'tibor beriladi.

Faol tinglash - bu texnika va ayni paytda suhbat davomida barcha nozikliklar va nuanslar e'tiborga olinishi kerak bo'lgan boshqa shaxsga maksimal kontsentratsiya qilish jarayonidir: ovoz, intonatsiya, yuz ifodalari, imo-ishoralar va to'satdan to'xtab turish. Faol tinglash usuli asosiy komponentlari:

Neytrallik. Baholash, tanqid va ayblovlardan qochish. Odamni qabul qilish va hurmat qilish.

Yaxshi niyat. Suhbatchi va suhbatdoshga munosabati, uni o'zi haqida gapirishni davom ettirishga undash, muammo - ishonchga hissa qo'shadi.

Samimiy qiziqish. Faol tinglash usuliga ta'sir ko'rsatishning eng muhim vositalaridan biri insonni yanada ko'proq ochib, muammoli vaziyatni aniqlab olishga yordam beradi.

Faol tinglash usullari. Faol tinglash usuli ko'p funktsional va xilma-xildir. Klassik psixologiyada faol tinglashning beshta asosiy usuli mavjud:

Bir pauza . Biror kishi uchun oxirigacha gapirish va suhbatda pauza qilish kerakligi muhimdir. Bu siz doimo sukut saqlashingiz kerak degani emas: poddakivanie ("ha", "hugo"), nod boshi ular eshitgan odam uchun signaldir.

Shartnoma . Noma'lum fikrlar uchun vaziyatni spekulyatsiya qilish va suhbatdosh yoki mijozni yaxshiroq tushunish uchun savollar beradigan savollarga aniqlik kiritiladi.

Parafraziya. Eshirilgan ma'ruzachi qisqa shaklda yozilib, suhbatdoshga "ha, hamma narsa shunday", yoki muhim masalalarni oydinlashtirish va aniqlashtirishni tasdiqlashga imkon beradi.

Echo-bayon (takrorlash) - suhbatdoshga o'zgarmaydigan shaklda "qaytarib olish" - kishi diqqat bilan tinglanganligini tushunadi (suhbatda bu suhbatni suiste'mol qilmaslik).

Tuyg'ularni aks ettirish . Biror kishining tajribasiga mos keladigan iboralar ishlatiladi: "Siz g'azabdasiz ...", "O'sha paytda siz uchun juda achinarli G' xursand bo'lgan edi". Faol tinglash qoidalari faol tinglash tamoyillari muhim tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ularsiz ushbu usul ishlamaydi: suhbatdoshni to'xtatish mumkin emas; so'ralgan savol javobga javob beradi, javob berishga yordam bermaydi, suhbatdoshning o'zi bu savolga javob berish kerak - to'xtatib turish kerak; suhbat davomida ingl. aloqa; muhim ma'lumot; qo'llab-quvvatlash, nod boshi; insonning tajovuzkor va salbiy his-tuyg'ularini yashirganda, u to'xtab qolguncha ularni tashqariga tashlab yuborish kerak.

Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning echimini topishga imkon beruvchi pedagogik shartlar olamini yaratish, tajriba sinov ishlari sub'ektlari imkoniyatlarini muammo echimiga jalb etishga yordam beradi.

Suhbat maqsadga muvofiq holda indiviudal, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bo'lishga erishish muhimdir.

Uning samarali bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmunini aniqlash hamda savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta'minlash;

2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;

3) suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma'lum to'xtamga kelish;

4) suhbatdosh to'g'risida amaldan muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish;

5) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo'lish;

6) suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin va batafsil bayon etishi uchun sharoit yaratish;

7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;

8) olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish.

Intervyu metodi o'qituvchi tomonidan tadqiq etilayotgan

Muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta'minlaydi. Intervyu respondent (o'qituvchi) e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Faol tinglashda boshqa odam haqidagi g'oya o'z-o'zini anglash darajasi bilan chambarchas bog'liq. Boshqa shaxs orqali o'z-o'zini anglash tahlili ikkita tushuncha yordamida amalga oshiriladi: **identifikatsiya** va **refleksiya**.

Identifikatsiya - bu insonning bilish va tushunish mexanizmlaridan biri bo'lib, u o'zini boshqa muhim shaxsga ongsiz ravishda o'xshatishdan iborat.

Bu erda muhim boshqa shaxs - ma'lum bir aloqa va faoliyat sub'ekti uchun vakolatli shaxs. Bu odatda, o'zaro munosabatlarning haqiqiy vaziyatlarida, shaxs o'zini aloqa sherigi o'rniga qo'yishga harakat qilganda sodir bo'ladi. Identifikatsiya paytida ob'ekt bilan ma'lum bir hissiy aloqa o'rnatiladi.

"Identifikatsiya" va **"refleksiya"** tushunchalarini farqlash zarur. Agar birinchi kontseptsiya uchun asos sub'ektni aloqa sherigiga, ya'ni muhim boshqasiga assimilyatsiya qilish jarayoni bo'lsa, ikkinchi kontseptsiya ("ma'lumotnoma") uchun asosiy narsa sub'ektning boshqa odamlarga bog'liqligidir. Ularga nisbatan tanlab munosabat sifatida harakat qiladi. Yo'naltiruvchi munosabatlarning ob'ekti sub'ekt a'zosi bo'lgan guruh yoki uning haqiqiy a'zosi bo'lmagan holda o'zini bog'laydigan boshqa guruh bo'lishi mumkin. Malumot ob'ektining vazifasini alohida shaxs, jumladan, haqiqatda mavjud bo'lmaganlar ham bajarishi mumkin (adabiy qahramon, taqlid qilish uchun fantastik ideal va boshqalar). Ikkala holatda ham sub'ekt o'zi uchun mos ob'ektining (guruh, individual) maqsadlari, qadriyatlari, g'oyalari, normalari va xatti-harakatlari qoidalarini oladi.

"Identifikatsiya" tushunchasi o'z mazmuniga ko'ra **"empatiya"** tushunchasiga yaqin. **Empatiya** - empatiya ko'rinishida insonning hissiy holatlarini tushunish. Empatiya mexanizmi identifikatsiya qilish mexanizmiga o'xshaydi.

Bu o'xshashlik o'zini boshqaning o'rniga qo'yish, narsalarga uning nuqtai nazari bilan qarash qobiliyatidadir. Biroq, bu boshqa shaxs taqlid qilishni anglatmaydi (identifikatsiya qilishda bo'lgani kabi). Shunchaki empatiya sherikning xulq-atvorini hisobga oladi, sub'ekt unga hamdardlik bilan munosabatda bo'ladi, lekin u bilan shaxslararo munosabatlar uning xulq-atvori strategiyasi asosida quriladi.

Refleksiya - bu shaxsning muloqot sherigi tomonidan uni qanday qabul qilishini, ya'ni boshqalar shaxsni qanday tushunishini bilishi. O'zaro ta'sir jarayonida bir-birining ma'lum xususiyatlari o'zaro baholanadi va o'zgaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ya.A. Nurumbekova/Shaxs psixologiyas va kouching// o'quv qo'llanma. Guliston. GulDU.2022.-281b
2. Kouching v obuchenii: prakticheskie metodo' i texniki // E. Parslou,M. Rey. — SPb.: Piter, 2003. — 204 s: il. — (Seriya «Prakticheskaya psixologiya»).
3. Uitmor Djon: Kouching. Osnovno'e printsipo' i praktiki kouchinga i liderstva.2019.-320s.

4. Nurumbekova, Y. (2021). TRAINING OF FUTURE TEACHERS TO PROFESSIONAL EDUCATIVE ACTIVITY ON THE BASEMENT. Journal of Central Asian Social Studies, 2(01), 66-74.

5. 6. Nurumbekova, Y., & Gulistan, UZBEKISTAN (2019). A TEACHER-EDUCATOR EDUCATIONAL INITIATIVE. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences.

6. 7. Nurumbekova, Y. (2019). Importance of Technologizing Teacher-Mentor's Professional Activity. Eastern European Scientific Journal, (1).

7. 8. Nurumbekova, Y. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIGI. Arxiv nauchno'x issledovaniy, 2(1).

8. 9. Anarmatovna, N. Y., & Ummatkulovna, X. Z. (2022). IMPROVING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL-SPIRITUAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 1832-1838.

UZLUKSIZ TA'LIMDA BOSHQARUV ETIKASI VA RAHBAR FAZILATLARI

*O. Abduraxmonov, Guliston davlat universiteti,
Pedagogika kafedrasida o'qituvchisi.*

*N.M.Sultonova, Guliston davlat universiteti,
Biologiya kafedrasida dotsenti, (PhD)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzluksiz ta'limda boshqaruv etikasi va rahbar fazilatlari, fazilat, sifat ularning xususiyatlari yoritilgan. Rahbar etikasiga uning jamoaga nisbatan madaniyatligi xususiyati kursatilgan

Kalit so'zlar: Rahbar fazilatlari, rahbar etikasi, madaniyati, xushmuomalalik, sipolik, kamsuqumlik, vazminlik, andishalilik.

Boshqaruv tizimi deyilganda boshqaruv apparati va ular o'rtasidagi bog'lanish tushuniladi. Boshqaruv tizimining tarkibini bir-biri bilan bog'langan teng huquqli birliklar va bo'g'inlar tashkil qiladi. Har bir bo'linma o'z vazifasiga ega bo'lib, bo'linma Boshqaradigan vazifalar doirasini, uning faoliyat chegaralarini, vakolatlari va javobgarligini belgilaydi. Boshqaruv tizimi a'zolari rasmiy va norasmiy aloqalarda bo'ladi. Rasmiy aloqalar bu eng avvalo rahbarlar bilan bo'ysunuvchilar o'rtasidagi aloqalardir (vertikal aloqalar). Ular rahbarlikning va bo'ysunuvchilarning turiga qarab farq qiladi. Agar rahbarlik to'laqonli bo'lib kuyi bo'linmalar faoliyatiga doir barcha masalalarga daxldor bo'lsa, bu xildagi aloqa muntazam aloqa deb aytiladi. Rahbarlik cheklangay bo'lsa, u holda aloqa funktsional bo'ladi. Bo'linmalar o'rtasida, vertikal aloqadan tashqari gorizontal aloqalar ham mavjud bo'lib, ular muvofiqlashtirishni va hamkorlik qilish tarzidagi aloqalardir. Boshqaruv tizimida asosiy o'rinni rasmiy aloqalar egallaydi. Lekin norasmiy aloqalar ham muhim, ahamiyatga egaligini unutmash kerak.

Fazilat – bu ijobiy xislat yaxshi sifat yoki xususiyatdir. Kishilarda fazilatlarining turlicha bo'lishi hamda xulq – atvorlar insonning badanini aylanib yuradigan suyuq moddalariga ko'p jihatdan bog'liq ekanligi tajribada

kuzatilgan. Qadimgi tibbiyotning yirik namoyondasi Gippokratning inson badanida qon asosiy o'rinni ishg'ol etsa bunday odam harakatchan engil bo'ladi, taassurotlarning almashinishiga tez ko'nikib keta qoladi, o'z atrofida sodir bo'ladigan voqealarga darhol va ishtiyoq bilan aralashadi degan fikri bejiz emas. Mana shu kishilarni Gippokrat sangviniklar deb atagan. Bu lotincha "sangvinik" ya'ni "qon" degan so'zdan kelib chiqqan. Sangviniklar tuyg'u xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Ular: Yangi kishilar bilan tez til topishadigan; Bir ish turidan ikkinchi ish turiga tezda ko'nikadigan; Bir turda bajaradigan ishlarni yoqtirmaydigan; Yangi sharoitga osonlik bilan o'rganadigan; Xushchaqchaq; Harakatlari shiddatli; Nutqi tez; Kelajakka ishonch bilan qaraydigan; So'zini aniq va ma'noli qilib imo – ishoralar bilan gapiradigan kishilardir.

Rahbar etikasiga uning jamoaga nisbatan madaniyatligi, xalqparvarligi, ya'ni;

- Kishilarga e'tibor va hurmat;
- Kishilarga xayrixox va iltifotli bo'lish;
- Olijanoblik va beg'arazlik, xolislik;
- Kishilarning qadr – qimmatiga etish kabilar;
- Fuqarolik va kasbiy burchini bajarish;
- Odamlarga ishonch kishilarning o'z kuchiga qobiliyatiga bo'lgan ishonchini qo'llab – quvvatlay olish uni shaxsiy kamchiliklarini bartaraf qilishga yo'naltira bilish;
- Yuqori nutq madaniyatiga ega bo'lish va tashqi ko'rinishdagi ozodaligi;
- O'zaro munosabatdagi quyidagi oddiy etiket qoidalariga rioya qilish;
- Xushmuomalalik;
- Sipolik;
- Kamsuqumlik;
- Vazminlik;
- Andishalilik;
- Mehnat va do'stlikdagi sherikchilikda o'zaro yordam va qo'llab - quvvatlash;
- Hozirjavoblik va majburiylik so'zsiz bajarishlik;
- Printsipiiallik va ishonch;
- Talabchan. Rahbarning jamiyatga nisbatan madaniyatligi.
- Yuqori darajadagi fuqarolik vatanparvarlik va baynalminallik.
- Jamiyat baxt – saodati yo'lida halol mehnat qilish jamiyat boyligini ko'paytirish haqida g'amxo'rlik qilish.

Rahbarga qo'yiladigan talablar:

- Ma'naviy etuklik;
- Huquqiy etuklik;
- Axloqiy etuklik;
- Yuqori saviya va ong;
- Ma'rifatchilik;
- Madaniyatligi;

- Xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qodirlik;
- Topshirilgan ish uchun shaxsiy javobgarlikni his qilish halollik;
- Shaxsiy manfaatlarni jamoa manfaatlariga bo'ysundirishga qodirlik;
- Kishilarga nisbatan mehribon va e'tiborli bo'lish;
- Tashabbus va ilg'orlikni qo'llab – quvvatlash qobiliyati;
- Printsipiiallik;
- Tanqidga chidamli bo'lish o'z – o'zini tadqiq qila bilish.

Intizomga va mehnatga bo'lgan munosabat:

- Mehnatsevarlik;
- Jamoa o'rtasida intizomni yo'lga qo'ya bilish;
- Atrofdagilarni mehnatsevarlikni tarbiyalash bilish;
- Bir noshud rahbarning beg'amligi yuzlab minglab kishilar taqdirining bedaxl ta'sir etishi mumkin.

Bilim darajasi:

- Iqtisodiyotni bilish;
- Texnika va texnologiyani bilish;
- Istiqbolni ilmni funktsiyalari va strukturasi bilish;

Tashkilotchilik qobiliyati:

- Xodimlarni tanlay bilish va ulardan samarali foydalanishni ta'minlay olish;
- Qo'l ostidagilarni mehnatga o'rgatish va tarbiyalashni bilish;
- Jiplashgan jamoani vujudga keltira olish maqsad sari intiluvchanlik;
- "Yomon korxonaga yoki tashkilot yo'q, lekin yomon rahbarlar bor". Bu ibora shuni bildiradiki yomon ishlab turgan korxonaga jamoani yaxshi boshqaradigan, tashkilotchilik qobiliyati yuqori mehnatsevar talabchan, bilimdon u korxonani tezda yaxshi korxonaga qo'shadi.

Boshqarish samaradorligini ta'minlay olish

- Boshqarishni kollegial tarzda tashkil qila olish qobiliyati;
- Ish haqida qisqa va aniq gapirish va qobiliyati ishga oid xat, buyruq farmoyishlar yoza bilish turli manbalardan ish uchun zarur axborotlarni olish qobiliyati;
- Rahbarlarni va qo'l ostidagilarni tinglay bilish qobiliyati;
- Asoslangan qarorlarni mustaqil va tez qila qilish qobiliyati;
- Boshqarish strukturasi takomillashtirib borish qobiliyati;
- Rahbarning sifati xislatlarini belgilovchi mezonlar ko'p. Biroq quyidagi ijobiy xislatlar ular orasida alohida mavqega ega;
- Dovyuraklik – bunday rahbarda mardonavorlik botirlik dadillik mavjud bo'ladi;
- Ular omadsizlikdagi qo'rqmaydi. Qo'rquv ularni jasoratga chorlaydi va zafarlarga olib keladi. Har bir yangi harakatni taraqqiyotga va hayotiy tajribalarga erishtiradi.

Bugungi kunda boshqaruvning ilmiy asoslangan va tajribada sinab ko'rilgan qoidalariga tayanmay turib, ta'lim tizimini samarali rivojlantirib va

boshqarib bo'lmaydi. Ushbu qoidalar jamoalarni boshqarish va unga rahbarlik qilishni belgilab beradi. Bularga keyingi maqolalarda tuxtalib o'tamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'oziev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2001
2. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
3. Vospitay svoego lidera, kak naxodit, razvivat i uderjivat v organizatsii talantlivo'x rukovoditeley. g' Per. s angl.-M.: Izdatelskiy dom "Vilyams", 2002.-416 s.
4. Nurumbekova, Y. (2021). TRAINING OF FUTURE TEACHERS TO PROFESSIONAL EDUCATIVE ACTIVITY ON THE BASEMENT. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(01), 66-74.
5. Nurumbekova, Y., & Gulistan, U. Z. B. E. K. I. S. T. A. N. (2019). A TEACHER-EDUCATOR EDUCATIONAL INITIATIVE. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*.
6. Nurumbekova, Y. (2019). Importance of Technologizing Teacher-Mentor's Professional Activity. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
7. Nurumbekova, Y. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIGI. *Arxiv nauchno'x issledovaniy*, 2(1).
8. Anarmatovna, N. Y., & Ummatkulovna, X. Z. (2022). IMPROVING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL-SPIRITUAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 1832-1838. www.expert.psychology.ru

MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA TABAQALASHTIRILGAN O'QITISH TEXNOLOGIYASINI JORIY ETISH MASALALARI

*Qarshi davlat universiteti,
Boshlang'ich ta'lim kafedrasini
o'qituvchisi A.E.Ochilov*

Maqolada tabaqalashtirib o'qitishning ahamiyati, uning tashkil etilishi, turlari va ijobiy jihatlari, tabaqalashtirib o'qitishda mustaqil ta'limning o'rni, tabaqalashtirib o'qitishning mazmuni, shakli, vosita va metodlarini ishlab chiqish kabilar haqida so'z yuritiladi.

Tayanch so'z va tushunchalar: bilim, ko'nikma, malaka, Davlat ta'lim standarti, o'quv reja, uzluksiz, uzviylik, fan dasturi, pedagogik texnologiya, tamoyil, metod, vosita, shakl, tabaqalashtirib o'qitish, ilmiy tadqiqot, demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, mustaqil ta'lim, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, grafik, loyiha, maket, model.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mazmunida yangi texnologiyalarni joriy qilish, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, mustaqil fikr egasi bo'lgan komil insonni tarbiyalash kabi pedagogik vazifalarni amalga oshirish dolzarb muammo ekanligi alohida qayd etib o'tilgan.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga tatbiq etishning muhim jihati hisoblangan ta'lim jarayonida tabaqalashtirilgan yondashuvni qaror toptirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Bu texnologiyalarning muhim qismlaridan biri sanalgan tabaqalashtirilgan ta'limga alohida e'tibor berilgan bo'lib, unda talabalarning qobiliyati va imkoniyatlariga qarab tabaqalashtirib o'qitishga o'tish to'liq amalga oshiriladi, deb ko'rsatilgan. Bunday o'qitish talabalarni individual tarzda, shuningdek, tabaqalashtirilgan guruhlariga ajratib o'qitish, ularning mustaqil ishlarini to'g'ri va maqsadga muvofiq tashkil etish orqali bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunda o'qituvchi har bir talabaning qiziqishi, qobiliyati, layoqatini hisobga olib, mashg'ulotlarni tashkil etish orqali uning samaradorligini oshirishga erishadi.

Bugungi kunda tabaqalashtirib o'qitishga alohida e'tibor qaratish lozim. Buning uchun ilg'or tajribalar va zamonaviy, samarali pedagogik uslublar, o'quv- metodik materiallarning tabaqalashtirilgan yangi avlodini yaratish, o'qituvchilarning muntazam malakisini oshirib borish, moddiy-texnik bazasini yangilash kabi vazifalarni amalga oshirish zarur.

Bu kabi ishlarni amalga oshirish o'qituvchilardan katta mas'uliyat va ijodkorlikni talab etadi. Buning uchun o'qituvchilar shaxsiy ish rejalari, dasturlar, ko'rgazmali va tarqatma materiallarni o'zlari tayyorlashlari talab etiladi.

Tabaqalashtirib o'qitishning o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

- * talabalarning dastur materiallarini o'zlashtirishga erishiladi;
- * ularning bilim va malakalarida, ijodiy ishlarida o'sish kuzatiladi, ularning fanga qiziqishlari orta boradi;
- * talabalarning faolligi oshadi;
- * talabalarning qobiliyati va imkoniyatlariga qarab bilim berilayotganligi sababli, ularda o'quv yuklamalarini o'zlashtirishda zo'riqish hollari bo'lmaydi;
- * iqtidorli talabalarning chuqur bilimlar olishga bo'lgan ehtiyojlari qondiriladi;
- * tabaqalashtirib o'qitish, uni demokratlashtirishga va insonparvarlashtirishga yordam beradi;
- * talabalarda mantiqiy fikrlash qobiliyati o'sadi.

Tabaqalashtirib o'qitishning ushbu jihatlari talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda muhim hisoblanadi. Ularni mustaqil fikrlashga, o'z ustida muntazam ishlashga o'rgatadi.

Tabaqalashtirib o'qitishni talabalarning aqliy salohiyatidan kelib chiqqan holda tashkil etish noto'g'ri. Tabaqalashtirib o'qitishni tashkil etishda talabalarning individualligi, qiziqishlari, iqtidori kabilarga tayanish lozim. Chunki bu jarayonda talabaning individualligini namoyon qilishi uchun qulay imkoniyat vujudga keladi. Talabalarning qiziqishlari, iqtidori, intilish va bilim ko'nikmalaridan kelib chiqqan holda ta'lim mazmunini tabaqalashtirish

demokratik yondashuv bo'lib, u talaba shaxsining o'zligini namoyon qila olishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Bugungi kunda pedagogika fani oldida tabaqalashtirilgan ta'limning ilmiy asoslarini yaratish, talabalarni tabaqalashtirib o'qitish jarayonini nazariy metodik jihatdan ta'minlash, tabaqalashtirib o'qitishni tashkil etish shakl, metod, vosita va texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliy faoliyatga joriy qilish kabi muhim masalalar ko'ndalang turibdi va ular o'z yechimini topishiga harakat qilinmoqda.

Buning uchun ta'lim jarayonida quyidagi ishlar amalga oshirilishi zarur:

- * o'qituvchilar shaxsiga individual yondashuv asosida tabaqalashtirib o'qitish sohasidagi ilg'or tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va amaliyotga joriy etish mexanizmini ishlab chiqish;

- * tabaqalashtirib o'qitishning ijtimoiy-iqtisodiy va ta'limdagi o'rnini aniqlash;

- * tabaqalashtirib o'qitish jarayonining pedagogik jihatdan yaxlitligini ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

- * tabaqalashtirib o'qitishning yo'nalishlari, mazmuni, shakli, vosita va metodlarini anglash;

- * individual yondashuv asosida guruhlangan jamoalarga ta'lim berish jarayonida ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish yo'llarini ishlab chiqish;

- * tabaqalashtirib o'qitish jarayonida o'qituvchilar ish faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos nazariy-metodik keyslarini yaratish;

- * individual yondashuv asosida tabaqalashtirib o'qitishning tashkiliy shakllarini davlat ilm-fani, ishlab chiqarishini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasi va strategiyasini ishlab chiqish;

- * o'qituvchi shaxsiy qobiliyati, iqtidori, qiziqishlarini rivojlantirishga va muayyan maqsadga yo'naltirishga xizmat qiladigan ta'lim-tarbiya nazariyasini yaratish kabilardir.

Tabaqalashtirib o'qitishda talabalar uchun o'quv rejasi erkin bo'ladi. Shunga ko'ra har bir talaba o'zining individual ta'lim yo'nalishini tanlash huquqiga ega bo'ladi. Bu ta'lim sifatini oshirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Bunda ta'lim jarayoni faqatgina talabaga ma'lum miqdordagi bilimni o'rgatishga yo'naltirilib qolmasdan, shaxsning rivojlanishi, o'zligini namoyon qila olishi, qobiliyatining o'sishiga hamda tafakkurning rivojlanishiga qaratilishi talab etiladi.

Fanlarni tabaqalashtirib o'qitish masalasini muvaffaqiyatli hal etganda talabalarning mustaqil ta'limi muhim ahamiyat kasb etadi. Talaba mustaqil ta'limini tashkil etishda muayyan fan xususiyatlari, o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- *ayrim nazariy mavzularni qo'shimcha adabiyotlar yordamida mustaqil o'zlashtirish;

- *berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;

- *seminar va amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rish;

- *hisob-grafik, kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- *malakaviy bitiruv ishini tayyorlash;
- *amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish;
- *maket, model, namunalar kabilarni yaratish;
- *ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarni tayyorlash va boshqalar.

Mustaqil fikrlashni rivojlantirishda:

- mavjud o'quv materialni qismlarga bo'lish;
- kuzatilayotgan hodisalarda umumiy o'xshashliklarni asoslash;
- mavzuning asosiy mazmunini aniqlash;
- taqdim etilgan faktlardan xulosa chiqarish;
- xususiyat yoki ketma-ketligiga qarab faktlarni tizimlashtirish;
- muammoga yangi qo'shimcha yechim topish;
- muammoni yechimiga olib keladigan turli yo'l va usullarni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Daliliy materiallarni o'zlashtirishni turli laboratoriya ishlari, mashqlarni yechish, darslikdagi mavzu ustida ishlash, tevarak atrofdagi hodisalarni kuzatishda amalga oshirish mumkin.

Keyingi faoliyat uchun shunday usullar orqali material to'plash muhim ahamiyatga ega. Bunday faoliyat talabalarda:

- *mustaqil ishlashda sxema va chizmalarni tuzish, yangi ma'lumotlar bilan tanishish;
- *adabiyot va atrof-muhitdan materiallar to'plash;
- *tevarak atrofdagi hodisa va dalillarni o'rganish;
- *biror-bir muammoni manbalar yordamida asoslab berish;
- *materialning biror bir xususiyatiga qarab guruhlarga ajratib olish, asoslashga tayyorgarlik ko'rish va yechim izlash kabi vazifalarni bajarishni talab qiladi.

Tizimli bilimlarga ega bo'lish, o'rganilayotgan jarayonda turli sabab va munosabatlarni aniqlash, kerakli tushuncha, qonuniyatlarni saralab olish, ketma-ketlikni tartibga solishda:

- ayrim vaziyat va hodisalarning ketma-ketligini anglash;
- o'qituvchining bergan savollariga mustaqil ravishda aniq javob berish;
- oldin o'rganilgan hamda yangi ma'lumot o'rtasidagi farqlarni solishtirish, aloqadorlikni aniqlash;
- ma'lum vaqt davomida kuzatilgan biror bir muammoni yechimini tushuntirib, asoslab berish;
- shu muammo va dalillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash kabilarni bilishi kerak.

Talaba mustaqil ravishda:

- *mavzuda asosiy, tayanch va ikkinchi darajali ma'lumotlarni ajratib olish;
- *asoslangan ma'lumotlarni mustaqil qayta ko'rib chiqish;
- *yangi ma'lumotlar topish uchun o'tkazilgan amaliy seminar-mashg'ulotlar bo'yicha hisobot tayyorlash, sxema, jadval, grafiklarni tuzish;

*mavzuga oid qo'shimcha ma'lumotlarni qidirish asosida materialni o'rganish, asosiysini ajratish, xulosa chiqarish, berilgan nazariy bilimlarni amaliyotda tatbiq etish kabilarni bilishi zarur.

Nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda amaliy mashg'ulotlar katta ahamiyatga ega bo'lib, bu talabalardan amaliy ko'nikma, malakalarni talab qiladi. Bular o'z navbatida mustaqil ishlashda tashkil etiladigan:

- *oldingi darsning ma'lumotlari bilan bog'liq muammolarni hal qilish;
- *namunaviy masalalardan farqi bor masalalar yechish;
- *boshqa fanlardagi ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lgan masalalarni izlab, ularga yechim topish;
- *teorema, qoidalarni qo'llab, mustaqil yangi masala va ifodalarni tuzish;
- *boshqalardan farqli, yangi masalalarni tushuntirish, murakkab bo'lmagan ma'lumotlarni mustaqil o'rganish;
- *bir necha muammolarni solishtirish orqali ularning farqi va o'xshashligini asoslab berish;
- *kamchiliklarni tuzatish, bartaraf etish ustida ishlash;
- *material, sxema, jadvallarni tayyorlash;
- *darslarda referat, ma'ruzalarni yozish kabi mashqlar orqali amalga oshiriladi.

Mustaqil ishlay olgan talabagina irodaviy sifatlar, mustaqillik malakasiga ega bo'ladi. Talabalar o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirishga mustaqil tayyorlanishi, yangi mavzuni mustahkamlash va ijodiy mashqlar asosida mustaqil ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi orqali erishiladi. Ularni tabaqalashtirishda mustaqil ishning ahamiyatli jihatlari quyidagilardan iborat:

- talaba fan vazifalarini ongli ravishda uzluksiz, to'liq, tartibli bajarish yo'lida astoydil mehnat qiladi va bilim olishga odatlanadi;
- talaba fan o'quv materiallarini o'zlashtirish yo'lidagi mavjud qiyinchiliklarni yengib, iroda bilan mehnat qilgan holda o'z maqsadiga erishishni o'rganadi;
- talabaning matematikaga mehr-muhabbati ortadi, ongli intizomi, o'qishga qiziqishi tarbiyalanadi;
- talabaning psixik qobiliyatlari – tafakkuri, xotirasi, diqqati rivojlanadi, olgan bilim va ko'nikmalari mustahkamlanadi;
- talaba egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llashni o'rganadi;

Uning faolligi, mustakil fikr yuritishi, tadbirkorligi, tashabbuskorligi va ijodkorligi shakllanadi;

Talabaning ijtimoiy foydali xislati fazilatlarini rivojlanadi, bu esa uning ilmiy, madaniy, siyosiy, axloqiy, ma'naviy jihatdan yetuk bo'lib kamol topishiga, ulg'ayishiga yordam beradi.

Talabaning mustaqil fikr yuritishi, o'z o'zini anglashi, ongi, tafakkuri, iroda, hissiyotining shakllanishi mustaqil faoliyat va ijodiy faolligini yuzaga keltiruvchi ko'nikmalarni hosil qiladi, bu ularning ijtimoiy foydali faoliyatini yuzaga keltiradi. Matematika fanini tabaqalashtirib o'qitishda aynan shu

jihatlariga alohida e'tibor berish talabalarining fanga nisbatan diqqati va mustaqilligini hamda beriladigan topshiriqlarni bajarishga ma'suliyati, ijobiy munosabatini oshiradi.

Tabaqalashtirish masalasida talabalarining mustaqil faoliyat yuritishga yo'naltirilgan holda quyidagi jihatlariga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

*Mustaqil faoliyatida ularning o'ziga xos individual xususiyatlari;

*matematika faniga munosabati, layoqatliligi;

*boy dunyoqarashi va intellektual xususiyatlari, ijodiyliigi;

*mustaqil bilim olish ko'nikmalarining shakllanganligi;

*o'z faoliyatiga ijodiy yondosha bilishi, matematika fani mashg'ulotlari bo'yicha mustaqil shug'ullana olishi

*ularning matematikaga oid bilim, ko'nikma va malakalarining mavjudligi, ularni mustaqil ishini qiziqib bajarishi;

*faolliigi, tashabbuskorliigi, ijodkorligini hisobga olish va boshqalar.

Matematikani tabaqalashtirib o'qitishni amalga oshirishda o'qituvchi talabalarining mustaqil faoliyati haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishi, xususan ulardagi psixologik holatlarni bilishi kerak.

Ularning temperamentini hisobga olgan holda bo'sh o'zlashtiruvchi va iqtidorli talabalar bilan ishlashni sifatli yo'lga qo'yish muhim. Shuni alohida ta'kidlash joizki, talabalarni tabaqalashtirib o'qitishning mohiyati ko'p jihatdan, ularning mustaqil ishlarini to'g'ri tashkil etish va amalga oshirilishiga bog'liq. Ular matematikadan beriladigan topshiriqlarni mustaqil bajarish ko'nikmasiga ega bo'lishi, ularning darslik, tarqatmali materiallar, kompyuter bilan mustaqil ishlash ko'nikmasi, ijodiy ishlarni mustaqil bajarishi shu sohada taraqqiyotining ta'minlanishiga keng yo'l ochadi.

Har qanday mustaqil fikr, mustaqil olingan bilimlardan tug'ilganidek, har qanday chuqur bilim faqat mustaqil o'qish yo'li bilangina orttiriladi. Har bir talabaning kamolatli bo'lishida ularning erkin va mustaqil faoliyati, o'z bilimi, tirishqoqligi muhim kasb etadi.

Shunday qilib, yuqoridagi muammo va qiyinchiliklarni bartaraf etish orqali, tabaqalashtirib o'qitish natijasida talaba mehnatining samaradorlik darajasi ortadi, ilm-fan va ishlab chiqarish malakali kadrlarning samarali ishtiroki evaziga rivojlanadi. Tabaqalashtirib o'qitishning mazmuni, shakli, vositalari, amalga oshirish metodlari, pedagogik hamda psixologik asoslarini aniqlash, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini belgilash hamda rivojlangan mamlakatlarning talabalariga individual yondashuv asosida tabaqalashtirib o'qitishni tashkil etish sohasidagi ilg'or tajribalarni o'rganish, umumlashtirish hamda tabaqalashtirib o'qitishga oid ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish zarur.

Yuqoridagi bayon etilgan fikrlardan tabaqalashtirib o'qitishni tashkil etish tashabbusi qo'llab quvvatlanayotganligini anglash mumkin. Navbatdagi vazifa esa kelajakda uning sifati va samaradorligini oshirish, ijobiy natijasini ta'minlashdan iboratdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ochilov.A.E. Differensial ta'limning va mantiqiy rivojlanish bosqichlari va ularning xususiyatlari. 2020 йил 6/1 сони. декабрь. Нукус. mugallim-uzliksiz-bilim.uz.39-43 b

2.. Ochilov.A.E. Matematika fanini o'qitishda differensial yondashuv masalasi. 2021 yil mart sonida Nukus. mugallim-uzliksiz-bilim.uz.54-56 б.

3. Ochilov.A.E. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini differensial o'qitishga tayyorlashning tamoyillari va ularning xususiyatlari tahlili. 2021 йил 3-maxsus son. Тошкент. Халқ таълим журнали.39

4. O'quv 2. qo'llanma. - Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2009.- 104 b. Jo'rayev R.H. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida umumiy o'rta ta'lim 3. maktablarida tabaqalashtirilgan ta'limni joriy etish muammolari // «Umumta'lim maktablarida tabaqalashtirib o'qitish muammolari» Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. T.: ЎзПФТИ. 2003. - Б.3-8.

5. Sattorov E.N. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tabaqalashtirib o'qitishning tashkiliy jihatlari // «Umumta'lim maktablarida tabaqalashtirib o'qitish muammolari» Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. T.: O'zPFITI. 2003. - B.118121. Safarova R. Tabaqalashtirilgan ta'limga o'tishning ayrim masalalari // «Umum-5. ta'lim maktablarida tabaqalashtirib o'qitish muammolari» Respublika ilmiyamaliy anjuman materiallari. T.: ЎзПФТИ. 2003. - Б.124-127.

TADQIQOTCHILIK FAOLIYATI TABIIY JARAYON

F.U.Olloqulova
TerDPI o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tadqiqotchilik faoliyati tabiiy rivojlangan jarayon ekanligi, uning yuzaga kelish tarixi, ilmiy tadqiqot va o'quv tadqiqotining o'xshash va farqli jihatlari, tadqiqotni tashkil etish va o'tkazishning turli modellari, shuningdek, pedagoglarning fikr mulohazalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Tadqiqot, tadqiqotchilik faoliyati, ilmiy tadqiqot, o'quv tadqiqoti, tadqiqotchilik tiplari, ta'kidlovchi tadqiqot, mantiqiy tadqiqot, umumlashtiruvchi tadqiqot.

Insoniyat yaralibdiki, o'zining jismoniy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan ehtiyoj, atrof olamni tadqiq qilishga, o'zlashtirishga va rivojlanish uchun harakatga undaydi. Tadqiqot-nafas olish jarayonidek tabiiydir. Insonlarga o'z-o'zidan vujudga keladigan tadqiqotchilik faoliyati xosdir. Bolalar tadqiq qilishda juda sinchkov va kuzatuvchi hisoblanadi. Ular berilgan axborotni xotirada yaxshi saqlashadi, biroq har doim ham to'g'ri xulosa chiqara olmaydilar. Shu kabi muammolarni bartaraf etishda maktabda o'qitishning tadqiqot usulidan foydalanish maqsadga muvofiq. Tadqiqotchilik

faoliyatini shakllantirishning maqsadi fan uchun emas, o'quvchilar uchun yangilikni kashf etishdir.

Odatda maktab amaliyoti tayyor bilimlarni bolalarga yetkazish bilan shug'ullanib, o'quvchilar pozitsiyasi passiv, ma'lumotlarni xotirada saqlash va standart vaziyatlarda qo'llash bilan kechadi. Odatiy, savol va vazifalar berilganda, ularda o'zlashtirilgan bilimlar yig'indisi yetarli bo'ladi, ammo notanish vaziyatlarda qo'llash taklif qilinganda o'quvchilarda bir qancha muammolar yuzaga keladi. Bunday holatlari yuzaga kelmasligi va har qanday vaziyatlarda olingan bilimlarini qo'llay olish va yechimlarni ko'rsata olish qobiliyatini shakllantirish albatta tadqiqotchilik faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Tadqiqot tarixiga nazar tashlar ekanmiz yaqin yillarda yaratilgan yo'nalish bo'lmasdan, aksincha uning vujudga kelishi uyg'onish davriga borib taqaladi. XVIII asrda pedagoglar o'quvchilarning so'z va fikrlarini emas, balki mulohaza yuritishni, kuzatishlar olib borishni va dalillar izlash va topishni o'rgatishar edi. O'sha davr pedagoglarining jamiyatdagi o'rni va vazifalarini nemis pedagogi A. Distervegning quyidagi fikrlari bilan baholaymiz: "Yomon o'qituvchi haqiqatni taqdim etadi, yaxshisi esa uni topishni o'rgatadi".

Ta'kidlash lozimki, dastlab tadqiqot usuli tabiiy fanlar doirasida vujudga kelgan bo'lib, XX asrning boshlariga kelib pedagogik tizim sifatida shakllandi. Keyinchalik olimlar boshqa fan doirasida tadqiqotchilikni tadqiq qilish lozimligi haqida ilmiy izlanishlar olib borganlar. Bu borada bir qancha munozaralar bo'lishiga qaramasdan, pedagoglarimiz yakdillik bilan ushbu tizimni aynan boshlang'ich sinflarda qo'llash samarali ekanligini tajribalarda ko'rsatib berdilar, chunki kichik maktab yosh davrida o'quvchilar tabiatiga ko'ra faol, qiziquvchan, yangiliklarni izlash, tadqiq qilish va tushinishga intiladi.

Shu o'rinda ilmiy tadqiqot bilan o'quv tadqiqotini umumiy va farqli jihatlarini bilish muhim. Har ikki tadqiqot turi uchun muammoni ifodalash, farazni olg'a surish yani taxminiy yechimni ko'rsata olish, ilgari surilgan farazlarni amaliyotda kuzatish, nazariy tahlil bilan tekshirish, to'g'ri yechimlarni aniqlash, tekshirish va natijalarni qayt etish umumiy xususiyat hisoblanadi.

Tadqiqotning ikki turi orasidagi farq esa, uning hajmi va tadqiq etish obyekti va yangiligidadir: Ilmiy tadqiqot obyektiv muammoni hal etadi, o'quv tadqiqoti esa o'quvchiga taaluqli bo'lgan subyektiv muammoni hal etadi. Bundan tashqari o'quv tadqiqotida intellektual refleksiyaning ayrim bosqichlari tashlab ketiladi yoki yashirin holatda kechadi.

Rus pedagogi S.T.Shatskiy o'quv tadqiqotining turli tiplarini tavsiflab, ta'kidlovchi, mantiqiy, umumlashtiruvchi tadqiqotlarni keltirib o'tadi:

Kuzatish orqali turli hodisa va narsalarning muhim belgilarini ko'rsatib berish bu ta'kidlovchi tadqiqotning maqsadidir. Masalan, rang, tus, hajm, shakl, o'lcham va boshqalar. Mantiqiy tadqiqot tipida kuzatishdan foydalaniladi va unga tajribani qo'shish orqali hodisalar orasidagi sabab-natijalarni aniqlanadi.

Kuzatish va tajriba asosida o'quvchilarni hodisalarning qonuniyatlarini ochishga o'rgatish umumlashtiruvchi tadqiqotning asosiy xususiyatidir.

Pedagogikada tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishning ko'plab modellari ishlab chiqilgan. Fenton modeli, Zuxman modeli, Gaulson modeli shular sirasidandir. Ushbu modellarda tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish, tashkil etish va rivojlantirishning ma'lum darajada sxemalashtirilgan bosqichlar asosida yoritib berilgan. Kundalik o'quv jarayonida qaysi bir modeldan foydalanishdan qat'iy nazar uni ixchamlashtirib, moslashtirib tadbiq etish mumkin. Shuni unitmaslik kerakki, o'qituvchi pedagog modellarni qo'llashda o'quvchining faoliyati, uni amalga oshirish tartibi va o'zining tadqiqotchilik pozitsiyasini hisobga olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining metodik guruhlarini o'qitish uchun seminar modullari. 2-modul. Samarali maktab va hamkorlik madaniyati. "Ipak yo'li poligraf" T. 2010.

2. Olloqulova F. U. Value relationships in young people and the uniqueness of their decision making //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 9. – C. 373-376.

3. Olloqulova F. U. TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TAVSIFI. Tadqiqotlar, 6 (2), 336–339. – 2023.

4. Olloqulova F. U. TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TAVSIFI. – 2023.

5. qizi Bosimova M. D., Olloqulova F. U. TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA UMUMMADANIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 692-695.

6. Olloqulova F. U. Shodiyev. RD Qadriyatli munosabatlar va ularni ta'lim-tarbiya jarayonida shakllantirishdagi yondashuv tamoyillar //Jurnal nomi: QarDU xabarlaril ilmiy, nazariy, uslubiy jurnal. – 2017.

7. Ulasheva A., Olloqulova F. TA'LIMIDA TIZIMIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI //Models and methods in modern science. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 40-44.

8. Xusanov R., Olloqulova F. SHAXS SHAKLLANISHIDA SHARQ MUTAFFAKIRLARI QARASHLARI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI //Models and methods in modern science. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 34-39.

9. Bosimova M., Olloqulova F. MUAMMOLI METODLAR VOSITASIDA O 'QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH //Models and methods in modern science. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 11-13.

10. Оллоқулова Ф. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadqiqotchilik faoliyatini konsentrizm asosida shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati //Общество и инновации. – 2022. – T. 3. – №. 10/S. – C. 128-134.

FUNKSIYA ORTIRMASI MAVZUSINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

O'rinov Xalimjon Xamdamjonovich

FarDU tayanch doktoranti

Аннотация: Mazkur maqola zamonaviy matematika o'qituvchilarini tayyorlashga bag'ishlangan bo'lib, unda mazkur muammoni hal etishda pedagogik texnologiyalarni o'rni ularni shakllantirish imkoniyatlari va bunda kompetent masalalarning o'rni yetarli darajada ochib berilgan.

Калит сўзлар: Zamonaviy matematika o'qituvchisi, fikrlar xujumi, pedagogik texnologiya, matematik ta'limi tizimi.

Bugungi zamonaviylashuv sharoitida uzluksiz ta'limi tizimining samarali tashkil etishga erishishining eng asosiy omillaridan biri bu – ta'lim jarayonida maktab o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish bilan bog'liq turli muammolarni o'z vaqtida, eng qulay yo'l bilan hamda uni samarali yo'l bilan hal qila oladigan mahoratli zamonaviy o'qituvchilar bilan ta'minlashdan iboratdir. Bunga erishish uchun esa birinchi navbatda pedagogik kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlarida ta'lim jarayonini rivojlangan davlatlar tajribaklarini chuqur o'rganish va tahlil qilish orqali ilg'or o'qitish usullarini ta'lim jarayonimizga amaliy olib kirish talab etiladi.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya ishi, ijtimoiy taraqqiyotning ustuvor sohasiga aylangan sharoitda oliy o'quv yurtlarida mutaxassislarni tayyorlashda pedagogik texnologiyalarni o'rni katta. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tish usullaridan biri «Fikrlar xujumi»dir. Bu usuldan maqsad mumkin qadar katta miqtordagi g'oyalarni yig'ish, talabalarni ayni bir xil fikrlash inersiyasidan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yengishdir. Bu usulning asosiy tamoili va qoidasi baxs ishtirokchilari ishlab chiqqan g'oyalarni diqqat bilan tinglash, har qanday fikr va muloxazani rag'batlantirish. Bu usuldan foydalanishning muvoffaqiyati ko'p jixatdan o'qituvchi – mashg'ulot rahbariga bog'liq. «Fikrlar xujumi» ishtirokchilari miqdori 15 kishidan hamda mashg'ulotning davomiyligi ikki akademik soatdan oshmasligi kerak.

«Fikrlar xujumi» usuli guruhlarda yangi g'oyalar ishlab chiqish samaradorligini sezilarli darajada oshirishni ta'minlaydi. Barcha ishtirokchilar kichik 4-5 kishidan iborat guruhlarga bo'linadi va har bir kichik guruh xal qilinadigan ijodiy vazifa va muammo bo'yicha 15 daqiqa davomida mustaqil ravishda o'zaro «Fikrlar xujumi»ni o'tkazadi. «Fikrlar xujumi» - asosan dialog asosida o'tkaziladi. Dialogni mohiyati shundaki, kollektiv bo'lib g'oyalar ishlab chiqarishda ishtirokchilarning ijodiy imkoniyatlari faollashtiriladi va unga zid g'oyalar qo'yiladi.

Ijodiy imkoniyatlarini ortirish maqsadida «funksiya ortirmasini» topish g'oyalarini shakllantiramiz.

Mashg'ulot bosqichma-bosqich quyidagi tarzda o'tkaziladi:

1-bosqich. Miqdor va psixologik muloqati jixatidan maqbul kichik guruhlarni shakllantirish; ishtirokchilarni 3 guruhga ajratamiz, ya'ni nomlymiz. «Daraja», «Ko'rsatkich», «Logarifm» guruhlarini shakllantiramiz. Zehnli va qobiliyatli o'quvchilar bir guruhga kirib qolmasligi kerak. Shuning uchun guruhlarni shakllantirish tasodifiy bo'lishi zarur.

2-bosqich. Vazifa, muammodan kelib chiqadigan maqsadlarni ifodalash; «Elementar funksiyalarni ortirmasini topish».

1-guruhga $f(x) = 2x^2 + 3x - 5$ kvadrat uchhad, 2-guruhga $f(x) = x^2 \cdot e^{-x}$ ko'rsatkichli funksiya, 3-guruhga $f(x) = \frac{\ln x}{x}$ logarifmik funksiyani ortirmasini topish beriladi.

3-bosqich. To'g'ridan-to'g'ri «Fikrlar xujumi» qoidasiga asosan har bir guruhida g'oyalar ishlab chiqarish; har bir guruhga berilgan masalani jamoalar o'z kuchiga, bilimiga tayangan holda (munozara tarzida) yechimlarini topadilar. Masalan. 1-guruhda $\Delta f = \Delta x(4x_0 + 2\Delta x + 3)$ to'g'ri javob bo'ladi.

4-bosqich. G'oyalarni tartibga solish va tahlil qilish; «Fikrlar xujumi» uchun ajratilgan vaqt tugagandan so'ng. O'qituvchi o'quvchilarni g'oyalarni tekshirib chiqadi va guruh ishi natijalarining qanday shaklda bajarilganligini aniq tushuntirish va u haqida guruhga kim e'lon qilishi oldindan tanlab qo'yish zarur (guruh sardorini aniqlaydi).

5-bosqich. G'oyalarni amalga oshishi imkoniyatiga qarab baholash; har bir kichik guruh vakili o'z guruhlarida ishlab chiqqilgan g'oya xaqida axborot beradilar va o'qituvchi rahbarligida jamoa bo'lib unga baho beradilar va ulardan eng yaxshilari, betakrorlari tanlab olinadi. Masalan. 1-guruh $\Delta f = \Delta x(4x_0 + 2\Delta x + 3)$ javobini olamiz.

6-bosqich. Avvalgi bosqichlardan bildirilgan tanqidiy mulohazalarga baho berish; guruhlarni fikrini, g'oyalarni guruh sardori batafsil ravishda ifodalaydi. Sardorlar funksiya ortirmasini to'g'ri ifodalay olishini o'qituvchi kuzatib boradi. Yo'l qo'yilgan xatoliklarni guruh o'quvchilari bilan muxokama tarzida hal qilinadi. Masalan. 1 - guruhda $\Delta f = x(4x_0 + 2\Delta x + 3)$ javobini xatoligini ko'rsatiladi.

Agar yuqorida ko'rsatilgan usullar orqali o'qituvchilarida matematika tushunchalarini shakllantirishga erishilsa kasbiy faoliyati jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan quyidagi muammolarni hal qilish qobiliyatlarini shakllantirish imkoniyatlari oshadi:

- matematik tushunchalar va tasdiqlar mazmuni biladi hamda tushunchalar ta'riflarini asoslashning mantiqiy tuzilishini tushunib yetadi.

- matematik tushunchalar va tasdiqlarni hosil bo'lishining o'ziga xos usullarini tushunib yetadi va ularning asosli ekanligini isbotlay oladi.

- egallagan matematik bilimlarini kasbiy faoliyati jarayonida amaliy qo'llay oladi. Matematik masalalar va boshqa fan sohasidagi masalalarni yechishda ham qo'llay olish malakalarin egallaydi.

- o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish sirlarini egallaydi.

- dars jarayonida o'quvchilarni faollashtirish usullarini egallaydi.

- o'quvchilarni matematika fani o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni oshira oladi.

- o'quvchilarni mustaqil bilim olishga bo'lgan intilishlarini shakllantira oladi.

Umuman, pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarda anglangan bilimlarni egallash imkoniyatlarini oshirsa, matematika fanlarni o'qitish jarayonida bunday masalalardan foydalanish bo'lg'usi matematika o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini oshirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Баракаев М. ва б. Муаммоли вазиятлар методи - математика фанини самарали ўқитиш омилли сифатида. - Жиззах: Тафаккур зиёси, 3/2022, б.259-264

2. Barakaev M. "Masala va muammoli vaziyat" tushunchalarini o'zaro aloqadorligiga erishish - anglangan holda bilim olish omili sifatida. //Transactions Of the international scientific conference "modern problems of applied mathematics and Information technologies - al-KHorezmiiy 2016", 9-10 november, 2016, Trudi Mejdunarodnoy konferentsii// - Buxoro, 2016, b.167-169.

3. M.Barakayev, X.O'rinov. Amaliy mazmundagi masalalar yordamida bo'lg'usi matematika o'qituvchilarida kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish metodikasi. FIZIKA, MATEMATIKA va INFORMATIKA ilmiy-uslubiy jurnal. Toshkent, 2022. -№ 11. -B. 24-32.

4. М.Баракаев, Х.Ўринов, М.Самандарова. Бўлғуси математика ўқитувчисининг касбий компетенциясини шакллантириш омиллари // O'zbekiston taraqqiyotining yangi davrida pedagogik fikrlar taraqqiyotining xususiyatlari va istiqbollari, *Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya* materiallari. - Toshkent, 2021. -B. 222-225.

5. Х.Ўринов. Компетент масалалар - замонавий математика ўқитувчисининг касбий тайёргарлигини такомиллаштириш омилли сифатида. НамДУ илмий хабарномаси. Наманган, 2021. -№ 11. -B.677-681.

ТАРБИЯ ТЕХНОЛОГИЯСИ ВА УНИ ЯРАТИШНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ

Мафтуна Қаҳҳорова

Шаҳрисабз давлат Педагогика университети магистранти.

Аннотация: Тарбия технологиясини яратиш ва уни амалиётга тадбиқ этиш, ёш авлодда кенг дунёқараш, муомала маданияти, ватанпарварлик ҳисси билан йўғрилган миллий ғурур, инсонпарварлик, миллий қадриятларга ҳурмат, дунё маданий ривожланиш даражасидан хабардор бўлиш каби сифатларни эгаллашларида етакчи омил бўлиб

хизмат қилади. Мақолада ҳам тарбия технологиясини яратиш долзарблиги кўрсатиб ўтилган.

Калит сўзлар: технология, консултатив, мотив, пирамида, тренинг.

Ҳозирги кунда шиддат билан ривожланаётган бир даврда тарбия жараёнига ўта масъулият билан ёндашишни талаб этади. Келажак авлодимизни юксак маънавиятли, кенг дунёқарашга эга бўлган, миллий ғурур, миллий онгга эга, ҳар қандай ёт ғояларга берилмайдиган кучли эътиқодли инсонлар бўлиб етишишларига эришиш бугунги тарбиявий ишларимизнинг асосий мақсади бўлмоғи лозим.

Бунда тарбия жараёнини технологик ёндашувлар асосида ташкил этиш муҳимдир.

Тарбия мазмунини замон талаблари асосида янгилаш ҳам педагогика фани олдида турган муҳим вазифалардан биридир. Бу борада тарбиявий иш технологиясининг ахамияти каттадир. Шу жумладан тарбия технологияси орқали талабаларда мустақил фикр, ижодкорликни ривожлантирадиган маънавиятни, дунёқарашни шакллантирадиган ва бойитадиган энг муҳим омиллар масаласига алоҳида эътибор қаратилади.

Тарбия технологиясида тарбия мақсадларининг қўйилиши ўзининг маълум хусусиятларига эга. Бунда тарбия мақсадлари талабалар ҳаракатида ифодаланадиган аниқ кўринадиган ва ўлчанадиган натижалар орқали белгиланади.

Тарбиявий таъсир хиссиётларга асосланганлиги сабабли, унда аниқ мақсадга эришилганлигини кўриш бироз қийин деган фикрлар мавжуд.

Аммо тарбия технологиясининг ўзига хос хусусияти шундан иборатки, унда тарбия мақсадларига кафолатли натижага эришишда тарбия жараёни лойиҳалаштирилади ва амалга оширилади. Бунда ўқитувчи фаолияти аниқ мақсадга йўналтирилиши лозим.

Мақсадга йўналтирилганлик, тарбия жараёни натижаларини ташҳисли текшириш, тарбия жараёнини алоҳида таъсир этувчи қисмларга бўлиш, уни такомиллаштириш кам вақт сарфлаб юқори натижаларга эришиш имконини беради. Талабаларни пассив объектдан, фаол субъектга айлантириш жараёнини тезлаштиради.

Тарбиявий таъсирни технологик асосда ташкил этишни режалаштириш педагогдан юксак малака талаб этади. Бунда тайёрланган барча материаллар тайёр бўлгач, педагог асосан ташкилий ва консултатив вазифаларни бажаради. Бундай тарбия технологияси таркибига қуйидагилар киради:

- тарбия мақсадларини ишлаб чиқиш;
- тарбия мақсадларининг амалга оширишни тизимлаштириш;
- тарбия мақсадларини назорат топшириқларига айлантириш;
- мақсадга эришиш усуллари;
- эришилган мақсадни баҳолаш.

Бу таркибий қисмларнинг ҳар бири маълум йўналишдаги педагогик вазиятларни қўллашнинг қуйидаги тизимини ташкил этади:



Тарбия технологиясида педагогик жараёни шакллантириш ва ташкиллаштиришда қуйидаги принципларга асосланилади:

- тарбияга яхлит ёндашиш принципи;
- узлуксиз тарбия принципи;
- тарбияни мақсадга йўналтириш принципи;
- педагог ва тарбияланувчиларнинг биргаликдаги (қўшма)

фаолияти.

Тарбия жараёни яхлит ташкил этилсагина самарага эришиш мумкин. У узлуксиз жараён бўлиб, ҳамма жойда – оилада, мактабда, кўчада, жамоат жойларида – хуллас ҳамма жойда ва ҳамма иш шаклларида намоён бўлади. Тарбия технологиясида аниқ белгиланган мақсадга қаратилганлик, ўқувчи билан мунтазам ўзаро алоқани ўрнатиш муҳимдир. Ўзаро алоқа тарбия технологияси асосини ташкил қилиб, ўқув жараёнини тўла қамраб олиши керак.

Тарбия методларини, тажрибаларни тушуниш ва унга ижодий ёндашиш, тарбиянинг ташкилий шакллари, воситаси ва усуллари самарали фойдаланиш, уни бошқариш ва мантиқий тузилмаси кўпинча ўқитувчининг методологик тайёргарлигига боғлиқ. Бу эса тарбия жараёнида технологияни жорий этишни талаб этади. Чунки бугунги тараққиёт даврида тарбия технологиясини яратиш ва ёш авлод тарбиясида қўллаш, уларнинг фаоллигини ошириш ва юқори натижаларга эришиш лозим.

Фаолликни ошириш мақсадида ташкил қилинган тарбиявий тадбирларда қуйидаги бир қанча интерактив усуллардан фойдаланиш яхши самара беради: можаро методи, “думалоқ стол”, “уч босқичли интервью”, “мулоқот тренинг”, муаммоларни ҳал қилиш методи, “стол ўртасидаги ручка”, галерияни айланиш, “академик мунозара”, “қор бўрон” методи, “асалари галаси”, “критик вазиятни таҳлил қилиш” ва бошқалар киради.

Бу методлар бўйича ишлаш учун бир неча кишидан иборат гуруҳлар тузиб, ишонч вазиятини вужудга келтириш, ошкора муҳокама учун ҳалал берадиган психологик кескинликни бартараф этиш зарур.

Ушбу гуруҳ методикалари фикрлаш доирасини кенгайтириб, мавжуд чекловларни назардан қочириб туриш, фикрлаш фаолияти ҳаракатчанлигини ривожлантириш, тарбияланиш фаолиятини жадаллаштиришга қаратилган.

Бу методларнинг мақсади талабаларни кўпроқ жалб этиш ва бир-биридан ўрганишга имкон бериш.

Бундай методларнинг афзалликлари:

1. Талабаларга ўз ғоялари ва фикрлари билан кўпроқ ўртоқлашиш учун имкон беради;

2. Кичик гуруҳларда талабалар катта гуруҳларда айтишлари мумкин бўлган фикрлардан бошқача фикрларни айтишлари мумкин;

3. Талабалар тажриба ва ғоялар билан ўртоқлашишлари мумкинки, бу – дунёқарашни, фикрларни кенгайтиради ва мавжуд ёндашувларни ўзгартиради.

4. Диққат марказни ўқитувчидан (педагогдан) қатнашчиларга кўчиради;

5. Талабаларни тарбияланиш учун кўпроқ масъулиятни ўз устиларига олишга мажбур қилади.

Тарбия жараёнига янгиликларни жорий қилишда талабаларда мотив компоненти ҳосил қилиш муҳим аҳамиятга эга.

Мотивларни ҳосил қилишда қуйидагиларга эътибор қаратиш лозим:

- Тарбиявий таъсир ва кўникмаларнинг зарурлигини тушунтириш;
- Шахсий масъулият ҳиссини яратиш;
- Жараён вақтида иштирокчиларнинг қизиқишини уйғотиш ва сақлаб туриш;

- Орттирилган тажрибалардан ҳаётда қандай фойдаланиш мумкинлигини тушунтириш;

- Маъқуллаш, эътироф этиш, рағбатлантириш;

- Соғлом рақобат;

- Ўрганилган тажрибалардан келажакда талабалар қандай муваффақиятлар қозонишлари мумкинлиги ҳақида мулоқот қилишга имкон бериш;

- Танлаш имкониятини яратиш.

Шуни таъкидлаш лозимки мотивлар ҳосил бўлиши учун талабаларда эҳтиёж туғилиши лозим. Эҳтиёжларни эътиборга олишда қуйидаги имкониятлар яратилиши керак:


1) Тарбия жараёнига халақит бермайдиган жой, яъни талабалар учун қулай шароит яратиш;

2) Хавфсизлик, (бу ерда нафақат жисмоний, балки мулоқот вақтидаги хавфсизлик тўғрисида сўз бормоқда) яъни талабалар бемалол савол бериш ва бахслашиш муҳити вужудга келган бўлса.

Фақатгина ишонч ва ўзаро ҳурмат муҳити ҳар бир талабага самимий бўлиш, ўз фикрларини бемалол баён этиш ҳамда бегона нуқтаи назарни эгаллаш – ўрганишга имкон беради.

Эҳтиёжларни қуйидаги пирамида мисолида тасаввур қилиш мумкин:

ЭҲТИЁЖЛАР ПИРАМИДАСИ



Ўз-ўзини
қарор топтириш
бўйича эҳтиёжлар
ўз-ўзини ривожлантириш
ва ўз қобилиятларини намоён
қилиш

_____ Хурмат
қилиш бўйича эҳтиёжлар (ўз-ўзини ва ўзгаларни ҳурмат қилиш, эътироф
этиш, мақом)

_____ Ижтимоий эҳтиёжлар (маънавий яқинлик ҳисси, муҳаббат)

_____ Ўз-ўзини асраш бўйича эҳтиёжлар (хавфсизлик, ҳимояланганлик)

_____ Физиологик эҳтиёжлар (соғлиқ)

Хулоса қилиб айтганда, таълим тизимини ислоҳ қилиш, унинг мазмунини янгилашда тарбия технологиясини яратиш, унинг юқори самарадорлигини таъминлайди.

Шунинг учун мустақиллик шароитида тарбия технологиясини яратиш ва уни амалиётга тадбиқ этиш, ёш авлодда кенг дунёқараш, муомала маданияти, ватанпарварлик ҳисси билан йўғрилган миллий ғурур, инсонпарварлик, миллий қадриятларга ҳурмат, дунё маданий ривожланиш даражасидан хабардор бўлиш каби сифатларни эгаллашларида етакчи омил бўлиб хизмат қилади. Мустақиллик, маънавият, таълим — тарбия бир-бирлари билан чамбарчас боғлиқдир. Улардан айри ҳолда, кўзланган буюк мақсадларга эришиб булмайди. Бу эса тарбиявий ишларни технологиялаштириш зарурлигини тақозо этади.

ИЖТИМОЙ СОҶА ХОДИМИНИНГ ТЕХНОЛОГИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Киёмов Абдулла Хайталиевич.

*ТерДПИ. Илмий-тадқиқотлар, инноватсиялар ва
илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиғи.*

Аннотатсия: Ушбу мақолада педагогик ташҳислаш нуқтаи назаридан бўлажак ижтимоий соҳа ходими технологик компетентлигининг тузилиш ва моҳияти кўриб чиқилган. Технологик компетентликни шакллантириш мезонлари, кўрсаткичлари ва даражаларига алоҳида эътибор қаратилган. Компетентлик ходимнинг фаолиятини тавсифи эканлиги ва унинг шакллантирилиши учун бевосита амалий муносабатлар бўйича тажрибалар зарур эканлиги ҳақидаги фикрлар асослаб берилган.

Калит сўзлар: компетенция, компетентлик, технологик компетентлик, тизимли ёндашув, компетентли ёндашув, фаолиятини ёндашув, технологик ёндашув.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони, 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сон, 2018 йил 5 июндаги “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3775-сон Қарорлари бугунги кунда мамлакатимизда фаолият юритаётган олий таълим муассасалари олдига юқори малакали, замон талабларига мос ва меҳнат бозорида рақобатбардош бўлган кадрларни тайёрлашдек долзарб муаммони қўйган. Бу эса мамлакатимизда таълим

жараёнларини ислоҳ қилиш, илғор хорижий мамлакатлар тажрибасини пухта ўрганиб олий таълим муассасалари фаолиятига жорий этиш каби вазифаларнинг бажарилишини тақозо этади. Ҳозирги кунда бўлажак ижтимоий соҳа ходимларини тайёрловчи олий таълим муассасалари таълим жараёнларида унинг келажакдаги касбий фаолиятга тайёрлигини белгилаб берувчи касбий компетенлигини ташкил этувчи бир қатор компетенциялар шакллантирилади. Бўлажак ижтимоий соҳа ходими-талабалар учун-профессионалик (касбий маҳорат) даражасининг ўзига хос хусусиятларидан бири бу уларнинг технологик компетентликка эга бўлишлари. Компетентлик, компетенция унинг мазмуни, моҳияти ва мутахасссининг касбий фаолиятида аҳамияти ҳақида мамлакатимизда фаолият олиб бораётган қатор олимлар тадқиқотлар олиб борганлар. Республикаимизда ўқитувчилар тайёрлашнинг назарий-методологик, амалий-методик жиҳатлари, таълим жараёнини бошқариш, модернизatsiялаш, ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш масалаларини Н.Н.Азизходжаева, Р.Ҳ.Джураев, Ш.Қ.Мардонов, А.Р.Ходжабоев, Н.М.Эгамбердиева, Л.Г.Бобожонова, С.Т.Турғунов, Ў.Қ.Толипов, М.А.Юлдашев, А.А.Халиков, Ҳ. Ш. Қодиров тадқиқ этишган.

Ижтимоий соҳа ходимининг технологик компетентлиги бу:

-ижтимоий соҳага оид технологиялар, уларни қўллаш усуллари, воситалари, фаолият шакллари, шартлари ҳамда ташкил этиш йўллари ҳақидаги билимларни пухта ўзлаштириш;

-ўзлаштирилган билимларни қўллай олиш, лойиҳалаштириш, уларнинг самарадорлигини ва ўз фаолияти натижаларни таҳлил қила олиш кўникмасини ҳосил қилиш;

-касбий аҳамиятга эга шахсий фазилатларни ўзида мужассам этган ижтимоий соҳа ходимининг умумлашган касбий-шахсий фазилатлари демакдир.

Ижтимоий соҳа ходимининг технологик компетенцияси таркибига миллий кадриятлар ва онг шуурга асосланган, когнитив ҳамда фаолият ташкил этувчиларни киритиш мумкин. Технологик компетентлик муаммосини таҳлил қилиш асосида унинг шаклланиш жараёнини кўриб чиқамиз. Шаклланиш тушунчаси умум илмий тушунчалар тоифасига киради. Фалсафий нуқтаи назардан шаклланиш деганда, “борлиқнинг бир даражасидан бошқасига” ўтиш, ривожланишнинг бир босқичидан бошқасига ўзгариши тушунилади.

И. П. Пидкасистийнинг тадқиқотларига кўра “шаклланиш” деганда натижалари ходимнинг касбий-шахсий йўналишларда маълум бир муваффақиятларини таъминловчи, касбий мукамалликка эришганликни ифодаловчи, барқарор таянч касбий-шахсий фазилатларга эга бўлишига олиб келувчи инсоннинг ижтимоий индивид сифатида иқтисодий, ижтимоий, аксиологик, психологик, педагогик ва бошқа омиллар таъсиридан “шаклланиши” тушунилади.

Н. В. Гарашкинанинг фикрига кўра, олий таълим муассасаларида бўлажак ижтимоий соҳа ходимларини тайёрлаш-бу талабалр томонидан ўзлаштирилган билимлар, кўникмалар, малакалар, касбий-шахсий фазилатлар ва орттирилган тажрибалар асосида ижтимоий соҳада учраши мумкин бўлган турли даражадаги муаммоларни ҳал қила олиш имконини берувчи, соҳа ходимининг касбий компетентлигига қўйиладиган талабларга мос келувчи касбий фаолиятини самарали амалга оширишга кенг йўл очиб берувчи касбий ижтимоий таълимнинг мустақил шакли демакдир.

Ушбу ёндашувга кўра, олий таълим муассасаларида бўлажак ижтимоий соҳа ходимларини тайёрлаш қуйидаги таркибий қисмларни ўз ичига олади: прогностик, концептуал-лойиҳалаш, аксиологик, бошқарув, мазмун, ташкилий, технологик. Технологик компетентликни шакллантириш жараёни олий таълим муассасасида бўлажак ижтимоий соҳа ходимларининг самарали фаолият юритишига қаратилган тайёрлаш тизимининг негизи бўлиб-биз томонимиздан касбий-ижтимоий жараёнлар билан бевосита боғлиқ бўлган махсус ташкил этилган таълим жараёнларида шахс томонидан янги ижтимоий вазифаларни ўзлаштириш ва касбий фаолиятига оид тажрибалар орттириш, бошқариладиган ва мураккаб жараён сифатида кўриб чиқилган. Бўлажак ижтимоий соҳа ходимлари технологик компетентлигининг шаклланиш жараёнини ҳар томонлама ўрганиб чиқиш мақсадида жараён ва унинг ташкил этувчиларини яхлит бир тизим деб қараб уни илмий билиш усули сифатида моделлаштириш усулидан фойдаланамиз.

Фаолиятини ёндашув талабалар амалиёти жараёнида бўлажак ижтимоий соҳа ходимларининг, талабаларнинг фаолиятини шундай ташкил этишни назарда тутадик, бунда улар фаолият мақсадларини белгилашда, фаолият мазмунини ишлаб чиқишда, ижтимоий соҳа ташкилотларининг фаолиятини режалаштиришда, ташкилот фаолиятини ташкил этиш ва бошқаришда ва фаолият натижаларини таҳлил қилишда фаол иштирок этишлари таъминланганлигига эришиш керак.

Тизимли ёндашув технологик компетентликнинг шаклланиш жараёнини яхлит тизим сифатида таҳлил ва тадқиқ қилиш ҳамда ривожлантиришга имкон беради.

Компетентли ёндашувнинг моҳияти шундаки, у олий таълим тизимида бўлажак ижтимоий соҳа ходимларини тайёрлаш жараёнларини янги сифат босқичига олиб чиқишни тақозо этади. Бунда ходимнинг бўлажак касбий вазифаларни юқори савияда бажарилишини таъминлаш учун умри давомида ўз устида мунтазам ишлашини, мустақил таълим олишини ва умум инсоний ҳамда маданий қадариятларга асосланиши лозимлиги назарда тутлади.

Хулоса килиб шуни айтиш мумкинки, технологик ёндашувнинг ахамияти, у бўлажак ижтимоий соҳа ходимининг касбий ва умуммаданий компетенцияларига таянган ҳолда технологик компетентликни шакллантириш моделининг қатъий илмий асосланган шаклини, эришилган натижаларни назорат қилиш билан бир вақтда белгиланган кетма-кетликда ва изчил амалга оширишни, шунингдек муваффақиятни қафолатлайдиган педагогик ҳаракатларни аниқ такрорлашни англатади

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3775-сон Қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикасида олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси тўғрисида”ги ПҚ-5847-сон Қарори.

4. Нишоналиев У.Н, Толипов Ў.Қ, Шарипов Ш.С. Касбий таълим педагогикаси. Ўқув қўлланма.-Тошкент: ТДПУ, 2007.-Б260.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. А.Мадвалиев таҳр.остида. Таҳрир ҳайъати: Э. Бегматов ва бошқ. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006.

GLOBALLASHUV DAVRIDA MARKAZIY OSIYONING O‘TMISHI, BUGUNI VA ISTIQBOLINI O‘RGANISHNING DOLZARB MASALALARI

Qobilova Madina Sobir qizi

TerDPI boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Norqobilova Rayhona Davlatovna

TerDPI boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv nima ekanligi, qanday rivojlangani, olimlarning bu haqda aytgan fikrlari, terrorizmning salbiy oqibatlari, milliy g‘oya tushunchalariga keng ta‘rif berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, dumaloqlashuv, kurrallashuv, immunitet, terrorizm, ma‘naviyot, milliy g‘oya.

Globallashuv (globalizatsiya) - lotincha “glob” so‘zidan olingan bo‘lib, aynan uni “dumaloqlashuv”, “kurrallashuv” deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, Yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi. “Global” tushunchasi lug‘aviy ma‘nosi nuqtai nazaridan fransuz tilida “umumiy”, lotin tilida esa “globus”-Yer shari” ma‘nolarini bildiradi. Demak,

globalizm tushunchasi ana shu ikki ma'noda ham bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bog'liq bo'lgan katta muammolarni, "sayyoraviy", "dunyoviy" muammolarni, global taraqqiyot istiqbollarini o'ziga qamrab oladi.

"Globallashuv" tushunchasiga mualliflar tomonidan yuqorida ilgari surilayotgan turli fikrlarga qo'shilish mumkin. Chunki qar bir muallif uning turli sohalariga o'tkazayotgan ta'sirini turlicha tafakkur qiladi va uni turlicha talqin etadi. Boz ustiga globallashuvning o'tkazayotgan ta'sir doirasi bepoyon va keng qamrovli hamdir. Shu ma'noda mualliflar tomonidan ilgari surilayotgan fikr-lar qanchalik turli-tuman bo'lsa, uning turli xususiyatlari va in-soniyat, millat, mamlakat, jahon miqyosida o'tkazayotgan ta'sirini o'rganishning imkoniyatlari shunchalik kengayib boradi. Avvalo "globallashuv" tushunchasiga ta'rif berishda, unga haqiqatan ham kengroq va chuqurroq yondoshmoq kerak bo'ladi. Jumladan, yuqorida berilayotgan ta'riflarning aksariyat ko'pchiligida "globallashuv" tushunchasiga yaqin bo'lgan "internatsionallashuv" (baynalminallashuv) va "integratsiyalashuv" tushunchalari o'rtasidagi munosabatlar e'tibordan chetda qolib kelmoqda. Ya'ni nega "Globallashuv" tushuncha sifatida ommaviylashib ketmoqda yoki "internatsionallashuv" va "integratsiyalashuv" tushunchalari unga nisbatan kam qo'llanilmoqda degan savolga javob ochiq qolib kelmoqda.

Globallashuvga berilgan ta'riflar juda ko'p. Frantsuz tadqiqotchisi B.Bandi bergan ta'rifiga ko'ra, Unda globallashuv jarayonining uch o'lchovli ekaniga urg'u beriladi:

Globallashuv - muttasil davom etadigan tarixiy jarayon;

Globallashuv - jahonning gomogenlashuvi va universallashuvi jarayoni;

Globallashuv - milliy chegaralarning "yuvilib ketish" jarayoni.

B.Bandi ta'rifida keltirilgan globallashuv o'lchovlarining har uchallasiga nisbatan ham muayyan e'tirozlar bildirish mumkin. Lekin jahonda yuz berayotgan jarayonlarni kuzatsak, ularning har uchovi ham unda mavjud ekanini ko'ramiz.

Globallashuvning mamlakatlar iqtisodi siyosati va ma'naviyatiga o'tkazishi mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy ta'siri Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so'zlarida yaxshi ifodalangan: "Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman".

Globallashuvning o'zi murakkab jarayon ekani, uning turli mamlakatlar iqtisodi, siyosati va ma'naviyatiga o'tkazayotgan ta'siri yana ham murakkab bo'lgani sababli unga nisbatan ham jahonga bir-biriga nisbatan qarama-qarshi bo'lgan ikki guruh: globalistlar va aksilglobalistlar guruhlari vujudga keldi.

Globallashuv tarafdorlari globalistlar, deb ataladi. Ular orasida davlat arboblari, siyosatdonlar, sanoatchi va biznesmenlar ko'proq uchraydi. Globallashuv muxoliflari esa aksilglobalistlar nomini olgan bo'lib ular orasida ko'proq so'l kuchlar, kasaba uyushmalari va yoshlar tashkilotining vakillari

bor. MDH hududida aksilglobalistlar Rossiya Federatsiyasi hududida faol harakat olib bormoqdalar. Bu erda ular turli anjumanlar, seminarlar o'tkazish uchun to'planib turdilar.

XX asr o'rtalarida globallashuvning institutsionallashuvi, ya'ni tashkillashuvi kuchaygandan keyin bu jarayonning o'zi ham keskin tezlashdi va kuchaydi. Institutsionallashuvning kuchayganini Butunjahon savdo tashkiloti, Xalqaro Valyuta jamg'armasi, Jahon banki, evropa taraqqiyoti va tiklanish banki ulkan tashkilotlarning vujudga kelgani misolida ham ko'rish mumkin.

Ma'naviyatni ham bir uyga qiyoslasak, tashqaridan kirayotgan shamol uy ichidagi narsalarni ostin-ustun qilib tashlashini hech bir xonadon sohibi istamaydi. Xuddi shu kabi biz ham yot g'oyalar, oqimlar va mafkuralar ma'naviyatimizga vayronkor ta'sir o'tkazishiga qarshi himoya choralari ko'rishimiz tabiiy. Chetdan o'tkaziladigan mafkuraviy ta'sirga qarshi himoya choralari ko'rishdan avval qanday ta'sirlarni ma'qullash lozim-u, qandaylarini rad etish kerakligini aniqlab olish lozim. Hozirgi kunda birorta ham milliy ma'naviyat yo'qki, u boshqa xalqlar ma'naviyatidan to'la ihotalangan bo'lsa. Hatto, Avstraliya chakalakzorlari, Afrika savannalari va Janubiy changalzorlarda turmush kechirayotgan qabilalar ham qo'shni qabilalar va zamona ta'sirini o'zida his qilib turadi. Qolaversa, tarixni tahlil qilish boshqa xalqlar ma'naviyatidan bahramand bo'lgan xalqlar ma'naviyati yuksakliklarga ko'tarilgandan guvohlik beradi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblarida yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasini ko'tardi va "Mafkuraviy immunitet" tushunchasining ijtimoiy-siyosiy mohiyati haqida shunday dedi: "Ma'lumki, har qanday kasallikni oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham Vatanga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur. Ana shunda johil aqidaparastlikning "da'vati" ham, ahloqni rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi". (Karimov I. A. Milliy istiqloq mafkurasiga-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. "fidokor" gazetasi muxbiri savollariga javoblar-T; "O'zbekiston", 2000 yil, 40 bet)

"Immunitet" tushunchasi lotincha so'zdan olingan bo'lib, "biror narsadan xalos etish, ozod bo'lish" ma'nosini anglatadi. YA'ni xalqni turli zararli ta'sirlardan himoyalovchi tizimidir. "Immunitet"__tushunchasi dastlab tibbiyotda foydalanilgan bo'lib, organizmning o'z-o'zini turli kasalliklardan himoya hila olish qobiliyatini bildirgan.

Oliy majlisning II-chaqiriq, XIV-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov quyidagi fikrni alohida ta'kidlab o'tdi: Hozirgi kunda diniy ekstremizm mafkurasiga, qo'poruvchilik-terrorchilikka qarshi kurashdagi asosiy vazifa-aholi o'rtasida, ayniqsa, yoshlar bilan olib boriladigan targ'ibot-tashviqot va tarbiyaviy ishlarni izchil, chuqur o'ylangan tizim asosida

tashkil etish va ularning ta'sirchanligini keskin kuchaytirishni bugun boshimizdan kechirayotgan hayotning o'zi taqozo etmoqda. Halqaro terrorizm kuchlar birlashib, bosh ko'tarayotgan, o'ta makkor va yovuz terrorchilikning mafkuraviy zaminni yo'qotish va avvalo, yoshlarimizning qalbi va ongi, sog'lom tafakkuri uchun kurashni taqozo etmoqda. (I. Karmiov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n to'rtinchi sessiyasidagi nutqi. Xalq so'zi, 2004 yil, 30 aprel)

Respublikamizning mustaqil taraqqiyoti tajribasi xalq, ayniqsa, yoshlar ongida g'oyaviy, mafkuraviy bo'shliq bo'lishga yo'l qo'yib bo'lmasligini ko'rsatdi. Mafkuraviy kurash ko'lami va shiddati, ayniqsa, 2001 yil 11 sentyabrdan keyin tobora kuchayib borayotgan xozirgi vaziyat, mamlakatimizda 2000 yil mart, aprel, iyul oylarida sodir etilgan terrorchilik xurujlari shuni taqozo etmoqda. Shu o'rinda "Terrorizm" haqida to'xtalib o'taylik. Terrorizm kim deganda-odatda, ongi zaharlangan, fanatizmga berilgan, o'zi qiladigan jinoiy harakatiga o'zi javob bera olmaydigan, qilayotgan harakatini anglamaydigan, kimningdir yovuz niyatini bajaradigan ijrochi kimsa deb qabul qilish kerak.

Odamlarni joniga qasd qilish, o'ldirish, odamlarni tazyiq ostiga olish, aholini vahimaga solish maqsadida qilinadigan, tinch insonlarni garovga olish kabi holatlar va buning ortida siyosiy-diniy yoki fanatik maqsadlarda uyushtirilgan jinoyatlarni terrorizm qatoriga qo'shish o'rinli. Hozirgi kunda terroristlar o'z qabih ishlarini oshirishda odamlarning soddaligi, hayotiy tajribasizligi, muqaddas dinimizga bo'lgan qiziqish va intilishlaridan g'arazli maqsadda foydalanishga harakat qilmoqdalar. Buning uchun "jihod", "shahidlik" haqidagi noto'g'ri talqin yo'lidan boradilar. Bir aqidaga mukkasidan ketib, boshqa fikrlarni noto'g'ri hisoblab, ularga murosasiz kayfiyatga hamda o'z rahnamolari g'oyasi uchun o'zini qurbon qilish holati aqidaparastlik deb ataladi. O'zini-o'zi portlatib "shahidlik" da'vosini qilayotgan kishilar diniy aqidaparastlarning nomoyondalaridir.

Terroristik guruhlar keyingi paytlarda o'z qurbonlari sifatida ayollarni tanlayotganlari ham alohida e'tiborni o'ziga tortadi. Ayol o'z farzandi, oilasi o'zi sevgan kishisi va o'zi muqaddas deb bilgan narsasi uchun jonini berishga tayyor. qora niyatli kuchlar esa ayoldagi mana shu fidoiylkdan g'arazli maqsadda foydalanishga urinmoqdalar.

Hozirgi kunda bizning turmush tarzimizga, ruhiyatimizga nisbatan qilinayotgan ma'naviy-ma'rifiy hurujlarning usullari tobora noziklashib borayapti. Zararli g'oyalar turli kinofilmlar, televedeniye ko'rsatuvlari va radio eshittirishlari shaklida, gazeta-juurnallar, internet tarmog'i va boshqa yo'nalishlarda uzluksiz ravishda tiqishtirilib, bizning milliy tushunchalarimizni barbod etishga, mafkuraviy immunitetimizni susaytirishga, yoshlarimizni durugaylashtirishga muntazam harakatlari sezilib turibdi. Bugungi kunda inson qalbini egallash uchun butun dunyoda to'xtovsiz kurash ketayapti. Bu zararli g'oyalarga qarshi xalqimizning or-nomusi, diniy va dunyoviy e'tiqodi, ma'naviy qadriyati, mafkuraviy immunitet vazifasini o'tashi zarur.

Milliy istiqlol g'oyasining ma'no mohiyatini va uning millat hayotidagi o'rnini mukammal tushunib etish uchun eng avval unga zamin bo'ladigan negizni aniqlab olish nazariy va amaliy ahamiyatga molikdir. Chunki, bugun "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fanining ta'lim tizimiga kiritilishi munosabati bilan u milliy g'oyaga nisbatan ham unga ustivorlik berishga urinishlar sezilmoqda.

Ammo, ana shu mustaqillikni milliy ong va g'oya yuzaga kelmasa qo'lga kiritib bo'lmasligini ham e'tibordan chiqarib bo'lmaydi. Aslida har qanday milliy maqsad va manfaatlarning debochasi milliy g'oyaning yuzaga kelishi bilan yuzaga keladi. Xuddi ana shu ma'noda ham milliy g'oyaning o'zini va uning zaminida esa milliy istiqlol g'oyasini millat taqdiridagi rolini o'rganish nazariy va metodologik jihatdan to'g'ri bo'ladi. Chunki milliy istiqlol g'oyasi millatning o'zgalarga qaram bo'lib qolishi, undan qutulish uchun zarur bo'lgan xarakterlarni vujudga keltirish va ozodlikni ta'minlash davri uchun xizmat qiladi. Keyinchalik unga ustivorlik berishga extiyoj qolmaydi. Milliy g'oya millat real sub'ekt sifatida mavjud bo'lgan har bir davr uchun o'z ahamiyatini saqlaydi va milliy taraqqiyotning vazifalari yo'nalishlariga mos ravishda yangi g'oyalar yuzaga kelishga zamin bo'lib qolaveradi. Milliy g'oya tushunchasi. Milliy g'oya-milliy ongni uyg'otuvchi, millatning o'zligini anglatuvchi, o'ziga xoslikka, mentalitetiga «qiyofa» baxsh etuvchi milliy ruhiyat, g'urur, iftixor, e'tiqod va mas'ullik tuyg'ularini shakllantiruvchi fikrdir.

Milliy g'oya har bir insonning o'zini anglashi jarayonida shakllana boshlaydi. Insonning shaxs sifatida esa uning o'zini anglashidan boshlanadi. U ota-ona, oila va tashqi muhit bilan bo'ladigan munosabatlar orqali o'zining kimligini anglay boshlaydi. Shuning uchun ham milliy g'oya insonda ana shu munosabatlarning ta'siri ostida shakllanadi. Milliy g'oyaning asosiy manbalari-kundalik soddagina urf-odat, an'ana va qadriyatlardan boshlanib, ma'naviy meros, tarixiy xotira va milliy taraqqiyotda to'plangan tajribalargacha bo'lgan omillar bilan bog'liqdir. Milliy g'oya ota-ona, oila, millat vakillarining o'zaro munosabatlari, hatti-xarakatlari, mentaliteti ta'sirida shakllanadi. Shu ma'noda ham milliy g'oya manbalari mustahkam bo'lgandagina, u turli munosabatlar, milliy udumlar, urf-odatlar, an'analarga amal qilish orqali bolaning ongi bilan rivojlanib boradi va ulg'aygan sari uning ham umumiy dunyoqarashi, ongining ajralmas qismiga aylanib boradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'rta Osiyo xalqlari madaniyati va ma'naviyati ham Sharq va G'arbni tutashtirgan karvon yo'llarida joylashgani sababli ham Sharq, ham G'arb madaniyatidan bahramand bo'lgan. Muhimi shundaki, xalqimiz G'arb va Sharq ma'naviyatidan bahramand bo'lib ularning ijobiy tomonlarini o'zlashtiribgina qolmay, ularga ijodiy yondashib yangi cho'qqilarga ko'tarildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. Toshkent, 1959.
2. Muhammadjonov A. R. Qadimgi Buxoro. Toshkent, 1991.
3. Pidayev Sh.R. Sirli kushonlar saltanati. Toshkent, 1990.

4. R.D.Norqobilova. Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini indikatorlar asosida diagnostika qilishning o'ziga xosligi. INTERNATIONAL CONFERENCES, 564-568. 2023

5. NR Davlatovna - Functions and Principles of Pedagogical Diagnostics. Web of Synergy: International Interdisciplinary 413-416, 2023/1/31

6. P Норкобилова -Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan iqtidorini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish. Общество и инновации. 36-41, 2023/1/25

7. P Nazarova, R Norqobilova - PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF EDUCATION OF YOUNG GENERATION AT ABU RAYHAN BERUNI TEACHING. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 1908-1911. 2022/6/30

8. S Xoliyeva, R Norqobilova - EASTERN SCIENTISTS 'VIEWS ON SPEECH. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 1433-1427. 2022/6/24

9. Sevara XOLIYEVA, Rayhona NORQOBILOVA, Muhlisa-MAMATMUROTOVA THE IMPORTANCE OF PEOPLE'S ORAL CREATIVITY IN THE DEVELOPMENT OF SPEECH BY PRIMARY SCHOOL STUDENTS. 2022/6/9. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 84-87. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/2379>

10. Sumbula IBROHIMOVA, & Rayhona NORQOBILOVA. (2022). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF USING THE HERITAGE OF ASIAN THINKERS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL SCIENCE CLASSES. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 81-83. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/2378>

11. Zoirova Sevinchbonu Khurshid Kizi, Norqobilova Rayhona Davlatovna, Tajimirzayeva Buzulaykho Mahammadjon Kizi. **high spiritual generation-third renaissance builders**. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. 167-169. 2022

12. Райхона Норкобилова. O'quvchilarning ona tili bo'yicha iqtidorini aniqlash va rivojlantirishning o'ziga xosligi Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. 379-384. 2022

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТИЗИМИНИ RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Qodirova Lobar Shovkat qizi.

Shahrizabz Davlat Pedagogika Instituti

Maktabgacha ta'lim mutaxassisligi 2-bosqich magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada "maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslari" va ular haqida takliflar Respublikada

maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olish ko'rsatkichlari haqida ham fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, maktabgacha ta'lim tizimi, yosh, maktabgacha yoshdagi bolalar, rekonstruksiya, modernizasiya, ta'lim tashkilotlari, islohotlar, izchillik.

Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Bu borada qator qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. Shu o'rinda, 2019-yil 8-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev PF-4312 «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonini imzoladi. Shunga ko'ra, ushbu konsepsiyani 2019-yilda amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» tasdiqlandi. Konsepsiya o'rta va uzoq muddatli istiqbol uchun maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadlari, vazifalari, ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab berdi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. Hujjat malakali pedagogik kadrlarining yetishmovchiligi, davlat MTMlarining to'lib ketganligi, moddiy-texnik holatining nomuvofiqligi, hamda davlat MTMlarining o'quv-metodik materiallari bilan past darajada ta'minlanganligi muammolarining hal etilishini nazarda tutadi. «Qabul qilingan maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi tengi yo'q hisoblanadi: birinchidan, mazkur hujjatda erishilgan natijalarning o'lchanishini ta'minlaydigan aniq, maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan. Xususan, 2030-yilgacha maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan bolalar miqdorini joriy 38,1 foizdan 80,8 foizgacha orttirish vazifasi qo'yilgan. Shu bilan birga, MTV tomonidan ta'lim muassasalari quvvatlarining kuchaytirilishi davom ettiriladi: 2021-yilga kelib o'rinlar miqdori yangi MTMlarni ochish hisobiga 56,8% ga (2030 yilga kelib – 132,3 foizga) ortadi, hamda davlat-xususiy sherikligi va respublikaning chekka tumanlari uchun aktual bo'lgan muqobil maktabgacha ta'lim shakllari rivojlantiriladi. Keyingi yillarda pedagogik va boshqaruv kadrlariga alohida e'tibor qaratiladi. Ishlar ikki yo'nalishda olib boriladi: pedagoglar miqdorini orttirish va maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlashda, qayta tayyorlashda, malakasini oshirishda va rivojlantirishda yangi yondashuvlarni tatbiq etish. Konsepsiya bilan belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar respublika miqyosidan viloyat, tuman va shahar darajasigacha tushadi, hamda ushbu natijalarga erishish uchun qay miqdorda pul mablag'larining zarurligi to'g'risidagi hisob-kitoblar bilan asoslanadi», – deb ta'kidlab o'tgandi Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va strategik rivojlantirish bosh boshqarmasi boshlig'i Yelena Ten.[1]

Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalarning kelgusida maktab bilimni yaxshi o'zlashtirishi, maktabga moslashuvning yengil o'tishi, bola shaxsida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish,

qiyinchiliklarni bartaraf etishni amalga oshirishda bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga jalb etilganligi, ta'limga qamralganligi alohida ahamiyatga egadir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev [2] tomonidan mazkur sohadagi islohotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini hozirgi zamon talablari va standartlari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruksiya va modernizasiya qilishga qaratilayotgan e'tibor zamirida ham kelajagimiz egalarining hech kimdan kam bo'lmay ulg'ayishlari hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lib voyaga etishlarini ta'minlashdek ezgu maqsad mujassam. Jumladan, davlatimiz rahbarining qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan dasturda keng ko'lamli strategik maqsadlar, muhim vazifalar belgilangani bilan ahamiyatlidir. Xususan, hujjatda bugungi kundagi hayotiy talab va ehtiyojlar, sohada yechimini kutayotgan masalalar hamda hali ishga solinmagan imkoniyatlar hisobga olinganligi barchamizni quvontiradi.

Shu o'rinda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni intellektual, jismoniy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, bolalarni maktabga sifatli tayyorlash maqsadida turli to'garaklar, ma'naviyat va ekologiya xonalari, kichik muzey, kutubxonalar tashkil etish borasidagi an'analarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiq. Chunki kitobga, san'atga, ilmga, umuman, kelajakda muayyan kasbni egallashga bo'lgan qiziqish bolalarda ayni shu davrda shakllanadi. Muxtasar aytganda, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1."2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

2. "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707-sonli qarori.

3. Mirziyoev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston", 2016. – 56 b.

4. Mirziyoev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.

5. Rahimov Sh. Asosiy vazifa – bolalarni ta'limga qamrab olish.// "Maktabgacha ta'lim" jurnali, 3-son, 2017, 2-3 bet.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASINING ILMIY NAZARIY JIHATLARI

G.B.Qo'ng'irova TerDPI 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada kompetensiya va kompetentlik tushunchasi, boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish metodikasining asosiy maqsadi, shakllantirish mazmuni, ona tili darsida mavzuga oid ma'lumotlar, mashqlar tahlilini tashkil etish va uni o'quvchilarga to'g'ri yetkaza olish muammosi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, kompetentlik, lingvistika, lingvistik kompetensiya, lingvistik kompetensiya shakllantirish mazmuni, ona tilini o'qitishdagi vazifalar.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini ta'minlashda moddiy omillar bilan bir qatorda boshlang'ich sinf o'quvchilarda lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning ona tili fani yuzasidan til sohasini kuchaytirish va rivojlantirish, davr talablariga muvofiq faoliyat yurita olishlari uchun zarur shart-sharoit yaratishda boshlang'ich ta'lim tizimi alohida o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish metodikasining asosiy maqsadi – yosh avlodni har tomonlama yetuk, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan barkamol insonlar etib shakllantirishdir.

Kompetensiya ("sompotence" "to compete" so'zidan kelib chiqqan) so'zi o'zida "musobaqalashmoq", "raqobatlashmoq", "bellashmoq" ma'nolarini ifodalaydi. So'zma-so'z tarjima qilinganda "musobaqalashishga layoqatlilik" ma'nosida ifodalanadi. Psixologik-pedagogik manbalarda qayd etilishicha, kompetensiya, kompetentlilik juda murakkab hisoblanib, ko'p qismli tarkibdan iborat, ko'pgina fanlar uchun mushtarak bo'lgan tushuncha hisoblanadi.

Kompetensiya har bir fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarning chuqur bilim olishlari hamda o'z bilimlarini kundalik faoliyatida qo'llay olishlariga ko'ra belgilanadi.

Kompetensiyalar har bir fanning xususiyatidan kelib chiqib, o'quvchilarning chuqur bilim olishlari va bilimlarini kundalik faoliyatida qo'llay olishlarini ta'minlashiga ko'ra belgilanadi. Jumladan, ona tili faniga doir kompetensiyalar: nutqiy va lingvistik kompetentsiya hisoblanadi.

Lingvistik kompetensiya–o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (tilshunoslik fanining bo'limlari: fonetika-tovushlar, leksikologiya-so'zlarning lug'aviy boyligi, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya-so'z shakllari, sintaksis-so'z tuzilishi va qurilishi, yozuv

va imlo haqida, tinish belgilari, nutq uslublariga oid tushunchalarni) rivojlantirish va ona tili fanining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda o'quvchilarning fikrini to'g'ri va tushunarli bayon etishini shakllantirishdan iborat.

Lingvistik kompetentsiyalarni shakllantirish mazmuni boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'z ona tilida fikrini aniq, qisqa va tushunarli bayon etish; adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda so'zlash va yozish; imlo, ishorat va uslubiy xatolarsiz ish yuritishga qaratilgan yondashuvlarni talab etadi.

Tilshunoslik inson tilini o'rganadigan mustaqil fandır. Bu fan tilning boshqa hodisalar ichida tutgan o'rni, tuzilishi va uning taraqqiy etish qonuniyatlari haqidagi, umuman, til haqidagi asosiy tushunchalarni o'rganadi. Tilshunoslik murakkab til hodisalarini to'g'ri tushunishga, muayyan bir til hamda qardosh til guruhlarini bir-biriga taqqoslab, ma'lum til hodisalarini, lug'at tarkibini, fonetik tizimi va grammatik qurilishini ilmiy asosda chuqur o'rganish uchun nazariy hamda amaliy jihatdan zamin yaratadi.

Lingvistika fransuzcha so'z bo'lib, lotincha lingua – "til" so'zidan yasalgan. Lingvistika tilni ilmiy ravishda o'rganadigan fandır. Tilshunoslar lingvistikaning yechilmagan masalalarini ilmiy asosda hal etishda tarix, etnografiya, arxeologiya, psixologiya kabi fanlar materiallari va xulosalaridan foydalanadilar. Masalan, tilning paydo bo'lishini to'g'ri tushuntirmoq uchun yer yuzida odamning paydo bo'lishi, jamiyat bo'lib yashay boshlashi va taraqqiy qilishiga doir ma'lumotlarni puxta bilish shart deb uqtiradilar.

Hozirgi vaqtda boshlang'ich sinf o'quvchilarda lingvistik kompetentsiyalarni shakllantirish metodikasida ona tili darsida mavzuga oid ma'lumotlar va mashqlar tahlilini tashkil etish va uni o'quvchilarga to'g'ri yetkaza olish muammosiga ya'ni ona tili fanini o'qitish grammatika, imlo va unga bog'liq holda nutq o'stirish metodikasining emas, balk xat-savod o'rgatish, sinfdan va sinfdan tashqari o'qish metodikalarini ham o'z ichiga oladi. Shulardan kelib chiqib boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitishda quyidagi vazifalar e'tiborga olinadi:

a) boshlang'ich sinflarda ona tili kursining mazmuni, hajmi va mavjud tizimini, ya'ni kursning (xat-savod o'rgatish, o'qish, grammatika, imlo, nutq o'stirish va h.k.) dasturini belgilash va asoslash;

b) o'qish va yozuvdan bilim va ko'nikmalarning shakllanishi jarayonini hamda bu jarayonda o'quvchilar duch keladiga qiyinchiliklarni o'rganish, xatolarning sababini tahlil qilish, ularning oldini olish va to'g'irlashga yordam beradigan ish turlarini ishlab chiqish;

d) ona tilidan beriladigan o'quv materialini o'quvchilar aniq tushunishi va puxta o'zlashtirishiga, ularda olgan bilimlarini amaliyotda tatbiq eta olishga va o'quvchilarning umumiy taraqqiyotiga, ya'ni ularning zehni, xotirasini, kuzatuvchanligini, yodda saqlashini, mantiqiy tafakkurini, ijodiy o'ylashini, nutqini o'stirishga yordam beradigan metod va vositalarni ishlab chiqish;

e) ona tilini o'rgatish bilan bog'liq holda maktablar oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish, o'quvchilarda axloqiy va estetik sifatlarni shakllantirishdan iborat.

Boshlang'ich sinflarda o'rganish uchun tilni ongli egallashga va o'quvchilarda grafik va imloviy malakalarni shakllantirishga zamin bo'ladigan bilimlar tanlangan. Fonetika va grafika sohasida o'quvchilar so'zning tovush tarkibini, unli va undosh tovushlarning o'ziga xos xususiyatlarini, so'zda tovushnin ma'noni farqlashdagi ahamiyatini to'g'ri tushunishga imkon beradigan bilimlarni o'zlashtiradilar, shuningdek, ularga so'zning tovush va grafik shakli o'rtasidagi nisbat (bog'lanish)ni ongli aniqlash, so'zni to'g'ri yozish imkoniyati yaratiladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rganish tilni ongli egallashga va o'quvchilarda grafik va imloviy malakalarni shakllantirishga zamin bo'ladigan bilimlar tanlangan. Fonetika va grafika sohasida o'quvchilar so'zning tovush tarkibini, unli va undosh tovushlarning o'ziga xos xususiyatlarini, so'zda tovushning ma'noni farqlashdagi ahamiyatini to'g'ri tushunishga imkon beradigan bilimlarni o'zlashtiradilar, shuningdek, ularga so'zning tovush va grafik shakli o'rtasidagi nisbat (bog'lanish)ni ongli aniqlash, so'zni to'g'ri yozish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ollokulova F.U. VALUE RELATIONSHIPS IN YOUNG PEOPLE AND THE UNIQUENESS OF THEIR DECISION MAKING Teacher of the Department of Theory and Practical of Primary Education. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 9, Sep., 2022

2. P.A.Xoliqova For Publication of Paper Entitled THE SIGNIFICANCE AND PLACE OF USING NATIONAL VALUES IN THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION In Volume 10, Issue 11, Nov., 2022

3. Ollokulova F.U. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadqiqotchilik faoliyatini konsentrizm asosida shakllantirishning ijtimoiy pedagogik ahamiyat. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 10 (2022) / ISSN 2181-1415

4. R.D.Norqobilova, S.Xoliyeva. "Eastern Scientists Views on Speech". Web of Scientific Research Journal. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 6, June 2022. 1434- 1437.

5. Olloqulova Farzona Umedillayevna. Tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirishning psixologik-pedagogik tavsifi/ Tadqiqotlar jahon ilmiy metodik jurnal/ 6-son 2-to'plam yanvar 2023. 336-339-betlar

6. Toshpulatova Niyoxon Shavkatjon qizi Factors of Forming the Scientific World View of Primary Class Students. International Journal of Inclusive and Sustainable Education ISSN: 2833-5414 Volume 1 | No 6 | Dec-2022

7. Umida Muminova Qarshiyevna ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 9, Sep., 2022 IMPORTANT PROBLEMS OF UZBEK ANONYMITY IN THE WORKS

OF KASGHARI. Umida Muminova Teacher of the Department of Theory and Practical of Primary Education

8. Zaynab Abdunazarova. WAYS AND METHODS OF USING ROLE-PLAYING GAMES IN MOTHER TONGUE CLASSES FOR THE SOCIALIZATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(12), 85–90. 2022/12

9. qizi Bosimova M. D., Olloqulova F. U. TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA UMUMMADANIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2023. – T. 1. – №. 1. – С. 692-695.

10. Bosimova M., Olloqulova F. MUAMMOLI METODLAR VOSITASIDA O 'QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH //Models and methods in modern science. – 2023. – T. 2. – №. 4. – С. 11-13.

11. Ruzikulovna, S. D. (2021). Primary Education Teacher And Student Teaching Activities And System Of Personal Values. *European Scholar Journal*, 2(7), 32-33.

ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИДАН АМАЛИЙ ТОПШИРИҚЛАРНИ БАЖАРИШДА БОШҚА ФАНЛАРНИНГ ЎРНИ.

*Қулмаматова Хуршида Абдухамидовна
Термиз давлат университетининг 2-курс таянч докторанти.*

Аннотация. Мақолада технология фанидан ўқувчилар амалий топшириқларни бажаришда бошқа фанлардан фойдаланиб ўрганиши тўғрисида фикр ва мулоҳазалар баён этилган. Технология фанини бошқа фанлар билан ўзаро алоқадорлиги ҳамда дарсда, дарсдан ташқари машғулотларда зарур бўлган техника хавфсизлик қоидалари, технологик хариталар, чизмалар, жадваллар, схемалар ва ўлчамлардан тўғри фойдаланиш тушунтирилган.

Калит сўзлар: синф, машғулот, мақсад, компетенция, шакл, восита, технология, жадвал, схема, амалий топшириқ, дидактик материаллар, мустақил.

Замонавий фан ва техникаларнинг тараққиёти умумтаълим мактабларининг технология фанини ўқитишда янгича фикрлашни, ёндашувни, ўқувчиларни бу фандан ўзлаштириши муҳим бўлган билим, кўникма ва малакаларининг мазмуни ва касб-хунарларни эгаллаш даражасига юқори талаблар қўйилмоқда. Технология фанидан ўтиладиган дарсларни қизиқарли ва сифатли ўтказиш учун ўқитувчи бошқа фанлар билан бевосита боғлаб ўқувчиларга тушунтиради ҳамда амалий топшириқларни бажариб кўрсатади.

Ўқувчилар мавзуларни ўзлаштириш баробарида ўқитувчи томонидан берилган амалий топшириқларни бажаришлари учун физика ва математика фанларидан олган билимларини қўллаган ҳолда вазифаларни бажарадилар. Шу билан бирга технология фанидан

мавзуларда берилган амалий ишларни бажаришда математик ҳисоблар, физикага оид хоссалар ва жараёнлардан фойдаланадилар. Ҳар бир амалий машғулотлардан топшириқларни бажариш учун ўқувчилар техника хавфсизлик қоидаларига амал қилади ва технологик хариталар ёрдамида чизмалар чизиб буюмларни тайёрлайдилар. Буюмларни тайёрлаш учун ўлчамлар олинади, ҳисобланади ва кесиш, қирқиш, бичиш ишлари бажарилади. Тайёрланадиган буюмлар учун танланган хом-ашё ёки материалнинг хоссаси, зичлиги, пишиқлиги, ранги ва ҳоказолар аниқланади. Ушбу жараёнларни амалга оширишда физика ва математика фанларига билвосита мурожаат қилинади. Масалан: Технология фанининг 9-синфи дарслигида берилган “Аёллар шимини бичиш ва тикиш” мавзуси учун юқоридаги фанлардан қандай фойдаланиш мумкинлигини кўриб чиқамиз. Бунда шим учун:

- аёллар қоматидан ўлчов олинади;

- газлама танланади;

- қанча газламадан тикиш мумкинлиги ҳисобланади. Шунингдек, шим учун андозалар тайёрланади, газламага андозалар жойлаштирилиб бичиб олинади ва тикиш ишларини кетма-кет бажариш учун технологик хариталардан фойдаланилади.

Шундан келиб чиқиб фанларни мукамал ўрганиш давомида фанлараро боғлиқликни кузатишимиз мумкин. Жумладан, физика ва математика фанларисиз бошқа фанларни ўрганишни тасаввур этиб бўлмагинидек, технология фани учун керакли фанлардир. Технология фанининг деярли барча мавзуларида ушбу фанлардан албатта фойдаланилади ва бир-бирига чамбарчас боғлиқдир. Технология фанининг дарсликларида берилган ҳар бир мавзуга эътибор берганимизда табиий ва аниқ фанларга асосланиб маълумотлар берилган.

Умумтаълим мактабларида интерфаол усулларини қўллаш, таълим сифатини ва самарадорлигини кўтариш, технология фани дарсларида ўқувчиларнинг фаоллигини янада ошириш, такомиллаштирилган стандарт ва модернизация қилинган техникаларнинг дастурларини ўзлаштиришни кафолатли усулларини ўргатишда уларнинг схемалар, жадваллар ва математик ҳисоблар орқали тушунтирилади. Технология фанини ривожланиши баробарида фанлараро ўзаро боғлиқ такомиллашиб бормоқда. Жумладан, замонавий методлар дарс жараёнида қўлланилсада, аммо бошқа фанларнинг боғлиқлигини ҳам бевосита кузатамиз мумкин. Қуйидаги схемада ушбу фанларни ўзаро боғлиқлигини мисол қилиб кўрсатамиз:

Технология фанини физика ва математика фанлари билан боғлиқлиги

Технология

- Техника хавфсизлик қондалари
- Технологик харита тайёрлаш
- Буюмларни ясаш ёки тикиш
- Дазмоллаш
- Безаш
- Пардозлаш ва ҳоказолар




Математика

- Ўлчовлардан:
 - узунлик;
 - кенглик;
 - баландлик;
- Оғирлик
- Сони
- Диаметр
- Математик ҳисоблар

Физика

- Ёруғлик
- Зичлик
- Эластиклик
- Пластиклик
- Босим
- Деформация
- Электр ўтказувчанлик
- Ранглар уйғунлиги
- Ҳарорат



Хулоса қилиб айтганимизда, технология фанидан ўқувчиларга буюмлар тайёрлашни ўргатиш ва ўрганишини нафақат дарс вақтида, балки дарсдан ташқари вақтда ҳам бажара олиши керак бўлсада, аммо амалий ишларни бажарган вақтимизда ҳам тўлиқ улгурмаймиз.

Шунинг учун дарсда ва синфдан ташқари ишларда ўқувчиларнинг қизиқишларига, қобилиятларига кўра турли хил ишларни амалга оширишимиз учун компьютер технологияларидан, бошқа фанлардан, педагогик методлардан фойдаланиб амалий топшириқларни бажариш ўргатилганда самарали натижаларга эришилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Н.Н.Азизходжаева “Педагогик маҳорат ва педагогик технологиялар”. Ўқув қўлланма. Тошкент. Университет, 2002 йил.
2. Н.А.Муслимов “Касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари”.: Пед. фан. Докт. ... дисс. Автореф.- Т.: 2007 йил.

3. Ў.О.Тоҳиров “Технология фанини ўқитишда замонавий ёндашувлар ва инновациялар модули бўйича” Ўқув-услугий мажмуа. Тошкент.2018 йил.

4. Ю.К.Бабанский “Ҳозирги замон умумий таълим мактабида ўқитиш методлари”. Ўқув қўлланма.Тошкент. Ўқитувчи, 1990 йил.

5. Б.Б.Иманов “Мактаб физика таълимида муаммоли тажриба бажаришда ўқувчи креатив фаолиятини ривожлантириш методикаси” Монография. Тошкент. “Тафаккур”, 2020 йил.

6. Иманов Б.Б. Урок Как Фактор Повышения Качества Образования SCIENCE AND WORLD International scientific journal. №7 (83), 2020.

7. Х.А.Қулмаматова “Технология дарсларида схемалардан фойдаланишнинг форма ва методлари”. ARES academic research in educational sciences, Scientific Journal Impact Factor. 2021/5. 978-bet.

8. Kh.Kulmamatova “To develop students' skills in completing graphic assignments in technology classes”. EUROPEAN MULTISCIPLINARY JOURNAL OF MODERN SCIENCE. Impact Factor:7.4, 04.06.2022, 31-34-бетлар.

9. З.Сатторова, Н.Абдусаломова, Н.Аҳмедова “Технология” Тошкент..”Ўзбекистон” 2019 й. 9-синф учун дарслик.

FIZIKANI O'RGANISHDA MASALALARINING AHAMIYATI

Kurbonmurotov Eldor Abdusaidovich

Termiz davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada fizika fanidan masala turlari, masalalarning klassifikatsiyasi, yechilish usullari haqida malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: masala yechish, mantiqiy fikrlash, sodda masalalar, murakkab masalalar, savol masalalar, miqdoriy masalalar, matnli masalalar.

Bizga ma'lumki fizika fanini o'qitishda nazariy va amaliy metodlar mavjud. Amaliy metodlar ichida fizikadan masalalar yechishning ahamiyati muhim ahamiyatga egadir. Masala yechish jarayonida o'quvchilarga bilim berish bilan birga o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, o'quvchilarga tarbiya berish kabi muhim masalalarni hal qilinadi. Fizika fanidan masalalar yechish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashlari kengayadi, ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi. Fizikaviy hodisalarning tub mohiyatini kengroq tushunadilar, fizikadagi qonunlarning amalda qo'llanilishini chuqurroq anglaydilar. Ko'pgina fizik o'lchov asboblarning vazifasi, tuzilishi, ishlash prinsplari bilan tanishadilar va ular bilan ishlash ko'nikma hamda malakalariga ega bo'ladilar. Shuningdek masalalar yechish o'quvchilarda mexnatsevarlik, jur'atilik, iroda va harakterni tarbiyalaydi. Ko'pgina metodik adabiyotlarning tahliliga ko'ra, mantiqiy hulosalar, matematik amallar va fizikadagi qonunlar hamda metodlarga asoslangan holda yoki eksperiment yordamida yechiladigan muammo, odatda fizik masala deyiladi. Fizik masalada qo'yilgan muammoni hal etish, masala yechishdan iboratdir.

Masalalarning klassifikatsiyasi. Fizikadan masalalar to'plamlarida berilgan hamma masalalarni turli asoslarga ko'ra klassifikatsiyalanadi. Masalan masalalarning murakkablik darajasiga ko'ra, sodda masalalar, qiyinroq masalalar, masala shartida, darslikda va darsda ko'rib chiqilgan masalalarda tavsiflanganiga nisbatan kamroq tanish bo'lgan holat tavsiflangan masalalar, o'quvchilar ya'ni bilimlar olish uchun foydalanish mumkin bo'lgan masalalar.

Fanning maqsadi - fizik masalalarning turlari, yechish metodi, masala yechish darslarini tashkil etish, masala yechishning tarbiyaviy ahamiyati kabi muammolarga tegishli alohida mavzular kiritilgan bo'lib, mashg'ulotlarni o'tishda masalalar yechish texnologiyasiga alohida e'tibor qaratilishi nazarda tutiladi. Bo'lajak fizika o'qituvchisi nazariy bilimga ega bo'lishi bilan birga o'qitish texnologiyasini ham puxta egallagan bo'lishi zarur, jumladan masalalar yechish metodikasi ham etarli darajada uzlashtirgan bo'ulishi talab etiladi. Har bir fizika o'qituvchisi masalalar yechish texnologiyasini mukammal egallash, o'z o'quvchilarida fanga bulgan kizikishni hamda talabalarda fizika va astronomiyaga oid nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

Masalalar mazmuniga qarab, mexanikaga, molekulyar fizikaga, elektrga doir va hakoza bo'lishi mumkin. Bunday bo'linish shartli ekanini bilamiz, chunki ko'pincha bitta masalaning shartida fizikaning bir nechta bo'limlaridagi ma'lumotlardan foydalanamiz. Shunindek politexnik mazmunga ega bo'lgan, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga bag'ishlangan, tarixiy harakterdagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan masalalarga klassifikatsiyalanadi.

Shu bilan birgalikda - fizika fanidan masalalar yechish metodlari, masalalar haqida umumiy tushunchalar, fizik masalalarning turlari, o'quv masalalar, ularning tuzilishi va xususiyatlari, masala yechishning asosiy bosqichlari, fizik masalalar yechish jarayonida fanlararo aloqani amalga oshirish usullari;

Fizik masalalar yechishning algoritmik usuli, ijodiy masalalar va ularni yechish usullari, masala shartini tahlil qilish, masala yechish rejasini tuzish, fizika o'qitishda masala yechishning ahamiyati, nazorat ishlarini o'tkazish metodikasi, ularning maqsad va vazifalari, olimpiada masalalari, masalalar yechishda zamonaviy pedagogik texnologiya vositalaridan hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish kabi ko'nikma va malakalariga ega bo'lish talab etiladi.

Yechish usullariga ko'ra: masalalarni sifat, eksperimental, grafik va ijodiy masalalarga bo'linadi. Bunday bo'linish ham shartlidir, chunki eksperimental masalalarni yechishda og'zaki mulohazalardan ham, grafikdan ham, hisoblash ishlaridan ham foydalanamiz. Biroq bu masalalarning har bir mazmuni va murakkabligi jihatidan xilma- xildir. Bu masalalarning yechimlari aniq bir maqsadga qaratilgan bo'lib, aniq yechilish usullariga ega. Bu masalalarning har bir turlari uchun alohida adabiyotlar mavjud. Shunday bo'lsada, bu masalalar ustida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Fizik masalalar o'z

mazmuni va didaktik maqsadlari bo'yicha xilma-xildir. Ularni turli xil jihatlari bo'yicha klassifikatsiyalash mumkin. Fizik masalalar shartlarining ifodalashga qarab asosan quyidagi to'rtta turga ajratiladi: matnli; eksperimental; grafik; suratli. O'z navbatida bulardan har biri yana miqdoriy (hisoblash uchun) va sifatiy (savollar tarzida) masalalarga bo'linadi. Shu bilan birga masalalar yana murakkablik darajalari bo'yicha ham ajratish mumkin: yengil, qiyin, ijodiy va h.k.

Fizikani o'qitish jarayonida ko'pincha matnli masalar keng qo'llaniladi. Bunday masalalarda masala shartlari matn tarzida beriladi. Shuningdek bu usulda yechish masalani yechish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlar va fizik doimiylar keltiriladi. Bunday masalalar yechish usuliga qarab hisoblash uchun masalalar (miqdoriy) va savol-masalalarga ajralib ketadi. Savol-masalalarda biror hisoblashlar (miqdoriy) bajarilmasdan u yoki bu fizik jarayonni tushuntirish, berilgan sharoitda ushbu jarayon qanday kechishini ochib berish talab qilinadi. Ko'pincha bunday masalalar shartida sonlar ko'rinishidagi ma'lumotlar berilmaydi. Savol-masalalarda son qiymatlarini berilmasligi o'quvchilarning e'tiborini jarayonning fizik mohiyatini ochishga qaratish imkonini beradi. Savol-masalalar odatda og'zaki bajariladi. Bundan grafik material mavjud bo'lgan savol-masalalar mustasno. Masala javoblari ham og'zaki tarzda yoki rasm tarzda bo'lishi mumkin. Savol-masalalarga savol ko'rinishidagi grafiklar ham juda yaqin turadi. Bunday masalalarda odatda og'zaki javob beriladi yoki yangi chizma chizilib javob chizma-rasm tarzida ham beriladi. Bunday masalalarni yechish o'quvchilarda e'tiborlilikni kuzatuvchanlikni va grafikni tushunish bilimdonlikni tarbiyalaydi. Miqdoriy masalalar bu masalalar shunday fizik masalalarki ularga javobni hisoblashlarsiz topib bo'lmaydi. Bunday masalalarda sifatiy tahlil ham muhim, ammo bunda asosiy e'tibor hisoblashlar bilan, jarayonni miqdoriy xarakteristikalari bilan olib boriladi. Miqdoriy masalalar murakkablik darajasi bo'yicha qiyin va sodda masalalarga ajratiladi. Sodda masalalarga qiyin tahlillar talab qilmaydigan, hisoblashlari ham sodda bo'lgan masalalar kiradi. Bularda bitta yoki ikkita harakat amalga oshiriladi. Miqdoriy masalalarni yechishda turli xil usullar ishlatilishi mumkin: algebraik, geometrik, miqdoriy va grafik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kamenskiy S.Ye., P.V. Orexov Fizikadan masalalar yechish metodikasi.
2. Evenchik. Ye., Shamin S.Ya., Orexov V.A. O'rta maktabda fizika o'qitish metodikasi.
3. Speranskiy N.M. Kak reshat zadachi po fizike.
4. www.ziyouz.com
5. K.Tursunmetov, A.Xudoyberganov va boshqalar «Fizikadan masalalar to'plami». AJI va KX,K lari uchun. T. «O'qituvchi»-2001.

O'ZBEK MILLIY MUSIQASINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIY ETISH BOSQICHLARI

*Termiz davlat universiteti Milliy libos va san'at
fakulteti musiqa kafedrası o'qituvchisi
Zakirova Zilola A'zamovna*

Anatatsiya: Ushbu maqolada O'zbek milliy musiqasining shakllanishi va taraqqiy etish bosqichlari yani O'zbekistonda musiqa san'atini xalq va og'izaki an'anadagi profisanal musiqa qadimdan rivojlanib kelganligi haqidagi ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa, cholg'u, sozanda, kuy, ansambl, metod, janr, meros, marosim, raqs, lapar, terma, yalla, o'lan, qo'shiq, maqom.

O'zbekistonda musiqa asosan, xalq va og'zaki an'anadagi professional musiqa sifatida qadimdan rivojlanib kelgan. Xalq musiqasida lapar, terma, yalla, o'lan uslubidagi qo'shiqlarning turli xillari (marosim, ishqiy, maishiy, mehnat, o'yin, raqs, lirik, nasihanoma, mavsumiy, oilaviy munosabatlar va boshqalar), og'zaki an'anadagi o'zbek professional musiqasida esa doston, katta ashula, ashula, maqom, cholg'u yo'llari kabi janrlar mavjud. O'zbek musiqa merosida 4 asosiy mahalliy uslubni farqlash mumkin. Bu asosiy mahalliy uslublar Buxoro-Samarqan musiqa uslubi, Xorazm musiqa uslubi, Farg'ona-Toshkent musiqa uslubi va Surxondaryo Qashqadaryo musiqa uslublaridan iborat³⁸.

O'zbek milliy madaniyatida muhim o'rin tutadigan musiqa (yunoncha "mousiche" – muzalar san'ati, "muza" – qadimgi yunon mifologiyasida ijod ma'budasi sifatida talqin etilgan) qadimdan xalqimizning hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini, atrof-borliq, xususan tabiiy kuchlarga munosabatlarini, turmush tarziga xos bo'lgan ijtimoiy elementlarni musiqiy tovush (ton, nag'ma) lar izchilligi yoki majmualar vositasida aks ettiruvchi san'at turi sifatida asrlar osha sayqalanib kelinmoqda. Uning mazmuni o'zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy-badiiy qiyofalardan iborat. Surxon vohasida ham musiqa elni yaxshilikka da'vat etish, davrga xos turmush tarzini o'zida mujassam etuvchi voqelilarni tarannum etish, dunyoviy tuyg'ular – shodlik, zavqlanish, mushohadalilik, g'amginlik, xavf-qo'rquv ifoda etish kabi vazifalarni bajarish vositasi bo'lib kelmoqda. Bundan tashqari, vohaning mintaqaviy o'ziga xosligidan kelib chiqib qat'iylik, intiluvchanlik, o'ychanlik, vazminlik va boshqlarni, uning tabiati (mijozi) ni ham yorqin aks ettiradi.

Ilk tamaddun davridan boshlab Pifagor, Platon, Aristotel kabi antik davr mutafakkirlarining musiqa san'atiga oid qarashlari O'rta asr Sharq mutafakkirlari – Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, Bobur, Kavkabi, tasavvuf namoyandalari – Imom G'azzoliy, Kalobodiy, Buxoriy va boshqalar tomonidan

³⁸ . Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т., Узбекский героический эпос, М., 1947..-С.34.

yuqori baholangan, sharh va ilmiy tadqiq qilingan³⁹.

Musiqqa ijrochiligi ijod turi ko'p yo'nalishli hisoblanib, tuzli jihatlardan turlicha tasniflanadi. Xususan, musiqqa asarlarining xonanda yoki sozanda tomonidan ma'lum badiiy talqinda ijro etilishiga qarab, musiqali vokal, cholg'u yoki aralash (vokal-cholg'u), ijrochilar soniga ko'ra yakkaxon (yakkanavoz), ansambl, orkestr, xor ijrochiligi kabi turlarga ajratiladi. Ijrochining uslubi, uning saviyasi, mahorati va boshqalarga qarab, asar mazmuni ijrochilik vositalari (artikulyatsiya, dinamika, sur'at, agogika va boshqalar) yordamida turlicha ifodalanishi mumkin. Asar yaratilgan davrda kompozitorning estetik qarashlari, boshqa ijrochilarning uslublarini o'rganish hamda badiiy ifoda vositalari (musiqqa bezaklari va boshqalar) ni o'z o'rnida qo'llash ijrochi uchun muhim ahamiyatga ega. Xalq musiqasida ijrochilar, asosan, o'zining ichki hissiyotlari, amaliy tajriba va xotirasiga tayanadi. Og'zaki an'anadagi professional musiqada musiqqa an'analari ustoz-shogird munosabatlari orqali saqlanib, rivoj topadi, sozanda va xonandalar esa maxsus (aruz, musiqqa ilmi, bastakorlik ilmi kabi) bilim va qoidalarga bo'ysunadi. Musulmon Sharq mutafakkir va musiqashunoslari Forobiy, Ibn Sino, Isfaxoniy, Urmaviy, Jomiy, Navoiy, Bobur, Kavkabi, Darvishali Changiy va boshqalar musiqqa masalalariga bag'ishlab risolalar yozgan, musiqaga oid afsona va rivoyatlar, aniq qoidalar bayon etishgan. Derijyorlikning barcha turlari ham musiqaga kiradi⁴⁰.

Eski Termizda islom nazariyotchisi, muhaddis al-Hakim *at-Termiziy* yashab ijod qilgan. "Ilal ash-shariat va xatm ul-Asliyot" asari islom nazariyotchilari tomonidan eng ko'p eslanadigan kitoblardan biri. Boshqa muhim asarlari "Kitob an-nahi" ("Yo'riqnoma kitobi"), "Kitob al-furuh" ("Oллоhdan qo'rquvchilar haqida ki-tob"), "Navro'znomai Xoja Hakim Termiziy" kabi nodir qo'lyozmalardir. U Abu Ali al-Jo'zjoniy, Abu Bakr Varroq va boshqa mashhur olimlarning ustozidir. Andalusiyalik yirik islomshunos Muhyiddin ibn al-Arabiy (1165-1240) o'zini Hakim Termiziyning shogirdi deb hisoblagan⁴¹.

Surxon vohasida X-XII asrlarda yashab o'tgan Daqiqiy, Farruhiy, Adib Sobir Termiziy kabi yirik shoirlar o'zlarining musiqqa ilmi va bilimiga oid asarlari, musiqiy ohanglari, g'azal va she'rlarni musiqqa asboblari bilan kuylash yo'nalishiga oid tajribalari, musiqaning axloqiy ahamiyati borasidagi hikmatli fikrlaridan iborat ijodiy xazinalarini xalqimizga meros sifatida qoldirgan⁴². Yurtimizga bostirib kelgan bosiqnchilarga qarshi xalqimizni, milliy qahramonlarimizni jipslashtiridigan, ularni el uchun jang qilishga ruhlanridigan qo'shiqlar musiqqa asboblari, xususan, do'mbira, chanqovuz, ud, arfa, daf, nog'oralar vositasida ijro etilgan va shu orqali jangovarlik kayfiyatini g'alaba rishtasi bilan bog'laganlar. XII asrning 20-yillarida Chingizxon bosqini natijasida yuzaga kelgan ma'naviy tanazzuldan keyin muayyan muddat to'xtagan madaniy hayot XVI-XIX asrlardan boshlab yana o'zining rivojlanish

³⁹ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т., Узбекский героический эпос, М., 1947.-С.38.

⁴⁰ Sposobin I., Musiqqa shakli Maxsus muharrir G'. G'ofurbekov, T., 1982.-S.15.

⁴¹ Zarifov H.T. O'zbek folklori. Pedagogika institutlari uchun xrestomatiya. II. Kitob. – Toshkent: O'quvpednashr, 1941. – B.108.

O'zME. 2002 3-tom.-B.159..

⁴² Nasriddinov, F.I. O'zbek xalq milliy o'yinlari. – T., 1993. –B. 27.

davriga kirdi. Termiziy taxallusi bilan qator musiqashunos shoirlar, bastakorlar, sozandalar, musiqa asboblarini yasaydigan ustalar sulolasi bu davrdagi madaniy va ma'naviy ehtiyojlarning natijasi o'laroq maydonga chiqdi va pirovardida madaniyat yanada o'sib, yuksalib bordi. Jumladan, musiqashunos va bastakor ijod ahlidan Umar at-Termiziy as-Sufiy, Mavlono Qudsiy Termiziy Mahjub, Xoja Samandar Termiziy, Abdulloh Termiziy, Taqiy Termiziy, So'fi Olloyor va Masiho Boysuniylar kabilar musiqa san'atini rivojlanishiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar⁴³.

XIII asrdan boshlab, O'rta Osiyo madaniy-ma'naviy hayotida musiqa va qo'shiqchilik san'atining rivojlanishida mumtoz adabiyotimizda yaratilgan durdona asarlar ham muhim rol o'ynadi. Ma'lumki, musiqa san'atining rivojlanishida mumtoz adabiyotimizdagi aruz vaznining ahamiyatini ma'lum darajada anglash uchun mazkur masalaga to'xtalib o'tish lozim deb hisoblaymiz. Aruz (arab tizidan olingan bo'lib, "arz qilmoq" ma'nosini anglatadi) – she'riy o'lchov, vazn. Arab, fors-tojik turkiy mumtoz adabiyotda keng tarqalgan she'r tizimi. Aytish lozimki, aruz nazariyasi turkiy va forsiy xalqlar she'riyatiga arablar adabiyotidan kirib kelgan. Turkiy xalqlarda aruzning dastlabki ko'rinishlari islomgacha bo'lgan davrlarga xos bo'lgan maqol, sarguzasht va topishmoqlar bayon etiladigan ohangli aytimlarda namoyon bo'la boshlagan. Aruzning takomillashgan ko'rinishlari Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'oti-t turk" asarida uchraydi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"i shu vaznda bitilgan turkiy dostonidir.

Aruzning bevosita musiqa san'atiga aloqador jihatlaridan biri shuki, mazkur vaznda bitilgan nazmiy asarlar faqat o'z davriga xos bo'lgan musiqiy sozlar jo'rligida ijro etiladi. Fors-tojik tillarida bitilgan aruz vaznidagi kichik hajmli asarlarni Sa'diy, Hofiz, Dehlaviy, Jomiy kabi shoirlar bitgan bo'lsa, turk tilida Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur kabi daho shoirlar insho etganlar. Aruz vaznida bitilgan kichik hajmli she'riy asarlar, asosan, tanbur, dutor, ud kabi musiqiy sozlar jo'rligida ijro etilgan. Milliy musiqa san'atimizning keyingi davrlardagi rivoji aynan mumtoz lirik va tasavvuf adabiyotining taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Musiqa san'atining xalq turmush tarzini, orzu-armonlari, istak-intilishlarini ifodalovchi san'at sohasi sifatida keng yoyilishi bu san'at bo'yicha tanlovlar, ommaviy ko'rinishdagi bellashuvlar tashkil etish an'anasining paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli Farmonining 1-ilovasida keltirilgan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". <http://strategy.regulation.gov.uz>.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 47.

⁴³ Sposobin I., Musiqa shakli Maxsus muharrir G'. G'ofurbekov, T., 1982...-S.23.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 17-fevraldagi "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2789-sonli qarori / www.lex.uz

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ho'zurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 3105-sonli qarori / www.lex.uz

5. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т., Узбекский героический эпос, М., 1947.-С.34.

6. Sposobin I., Musiqa shakli Maxsus muharrir G'. G'ofurbekov, T., 1982.-S.15.

7. Zarifov H.T. O'zbek folklori. Pedagogika institutlari uchun xrestomatiya. II. 8. Kitob. – Toshkent: O'quvpednashr, 1941. – B.108. O'zME. 2002 3-tom.-B.159..

9. Nasriddinov, F.I. O'zbek xalq milliy o'yinlari. – T., 1993. –B. 27.

10. Sposobin I., Musiqa shakli Maxsus muharrir G'. G'ofurbekov, T., 1982.-S.23.

ЎҚУВЧИЛАРДА БАДИИЙ ҚАДРИЯТЛАРГА МУНОСАБАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ

*Термиз Давлат университети
Педагогика ва ижтимоий иш кафедраси
ўқитувчиси Норқўчқорова Роҳила Зиёдуллаева*

Аннотация: Мазкур мақолада ўқувчиларда қадриятларга муносабатнинг миллий ифтихор туйғусини шакллантиришдаги аҳамияти таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Тасвирий санъат, қадрият, қадриятли онг, миниатюра, китоб графикаси, ижодкорлик ҳисси, ақлни чархлаш, жисмоний меҳнат.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг, 2022 йил 28 январдаги "2022-2026-йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сон фармонининг 41-мақсади 4-хат бошида "Ёшларни санъат дунёсига ошно этиш, компьютер ва ИТ технологиялари соҳасида билим ва кўникмаларга эга бўлишлари учун зарур жиҳозлар билан таъминланган 100 мингдан ортиқ бепул тўғараклар фаолиятини йўлга қўйиш" вазифаси белгилаб берилган. Мазкур вазифаларни амалга оширишда умумий ўрта таълим мактабларида умумтаълим фанлари, айниқса амалий фанлар ўқитувчиларига катта ишонч билдирилган. [1].

Умумий ўрта таълим мактабларида амалий фанлар технология, тасвирий санъат, чизмачилик, мусиқа, жисмоний тарбия ва ёшларни

чақириққача тайёрлаш фанларини ўз ичига қамраб олади. Шунингдек, тасвирий санъат фани ўқитувчилари умумий ўрта таълим мактабларининг 1-7-синф ўқувчиларга оддий оқ қоғозга қора қаламда тасвир, шакллар туширишдан тортиб, санъат асарларини чизишгача бўлган жараёнларни ўргатади. Бу жараёнда ўқувчилар мўйқаламнинг асл сеҳрини билиб, табиат рангларига ошно бўладилар.

Ўқувчилар тасвирий санъат фани машғулотларида амалий иш бажариш жараёнида ақлни чархлаш, жисмоний меҳнат билан шуғулланади. Расм чизиш жараёнида ўқувчиларда қуйидаги кўникмалар шаклланади: ўзгалар меҳнатини қадрлаш; асбоб-ускуналарни эҳтиёт қилиш; тозалikka риоя этиш; табиат гўзалликларини ўрганиш; меҳнатни улуғлаш; рангларни фарқлаш; ўзи туғилиб ўсган она юртини севиш, тарихий обидаларга нисбатан ҳурмат, аждодлардан авлодларга мерос бўлиб келаётган обидаларни асрай билиш; ота боболаридан фарзандларига, устозлардан шогирдларга ўтиб келаётган санъатни ривожлантириш; тадбиркорлик кўникмалари; маҳсулотларни тежаш орқали тежамкорлик билим кўникмалари шаклланади. [2].

Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларида юқорида санаб ўтилган билим ва кўникмаларни шакллантиришда ҳамда уларни жамиятда ўз ўринларини топишлари, касбий фаолиятида фаол иштирок этиш ва рақобатбардош кадр бўлиб етишлари, туғилиб ўсган ватанига виждонан, садоқатли хизмат қиладиган инсон бўлишларида тасвирий санъат фанидан дарс берувчи мутахассис ўқитувчиларнинг ўрни беқиёс ҳисобланади.

Юқорида қайд этилган фикр-мулоҳазалар умумий ўрта таълим мактабларида ўқитиладиган тасвирий санаът фанининг ҳозирги ва келажакдаги устувор вазифаларини белгилаб олишда дастуриламал бўлиб хизмат қилади. Чунки тасвирий санъат фани ўзининг мазмуни-моҳияти ва вазифаларига кўра, барча аниқ, табиий, фазовий ва эстетик билимларни умумлаштириб, уларни мужассамлаштирган ҳолда, амалиётга татбиқ этишни кўзда тутувчи амалий фан ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан олганда, тасвирий санъат фани назария ва амалиёт бирлигини таъминловчи, ўқувчиларнинг олган назарий билимларини амалиётга татбиқ эта олишларига имкон яратувчи асосий омил ҳисобланади. Тасвирий санаът фанининг асосий мақсади ўқувчиларда тасвирий саводхонликни ривожлантириш, бадиий тафаккурни юксалтириш, эстетик ва эмоционал сезгирликни ўстириш орқали ижтимоий ҳаётда зарур бўлган билимларни эгаллаш, улардан кундалик ҳаётида фойдаланишга ўргатишдан иборат. [4].

Тасвирий санъат инсон онгига тезда таъсир етиб, унда езгу ҳислар уйғотадиган, кишини руҳлантириб, маънавий оламини бойитадиган санъат туриаридан биридир. Шу билан бирга, тасвирий санъат инсон шахсининг шаклланишига ва камолатига ёрдам берадиган тарбиячи ҳамдир.

Расм чиза билиш ва ҳамма масалаларга ижодий ёндашиш барча соҳаларда зарурдир. Ижодий ёндашиш бутунлай янги ғоялар ва таъсавурларни вужудга келтиради, шахсни бадиий ривожлантиришда муҳим ўринни эгаллайди. Тасвирий санъат фани ўқитувчиси малий машғулотларнинг ташкилотчиси, раҳбари, йўл кўрсатувчиси, ўқувчиларга илҳом тарқатувчи ҳамда ғоячиси ҳисобланади.

Ҳусусан, Леонардо да Винчи тасвирий санъат фанини ўқитиш методикаси ривожланишига катта таъсир кўрсатган ҳисобланади. У ўзининг «Книга о живописи» номли асарида рассомликни жиддий илмий фан соҳаси деб қарайди. Олим кўп йиллар ижодий меҳнати давомида анатомия, ранг, киши аъзолари ўртасидаги мутаносиблик қонуниятларини ишлаб чиққан.

Немис рассоми А.Дюрер хизматлари тасвирий санъатнинг ривожланишига катта ҳисса қўшган. Рассом биринчи бўлиб расм чизиш жараёнини осонлаштириш учун геометрик методни ўйлаб топди. Унинг фикрича, ҳар қандай буюм, нарсалар асосида геометрик жисм шакли ётади. Айнан, у ёки бу нарсаларни тасвирлашда аввал геометрик жисм шаклини чизиб олиниши лозим, кейин улар умумлаштирилиб, ҳақиқий тасвир ҳосил қилинади.

Буюк чех педагоги Я.А.Коменский ўзининг «Буюк дидактика» асарида тасвирий санъатни барча умумий ўрта таълим мактабларида ўқитилишининг фойдали эканлиги ривожлантирган.

Рус рассоми А. Сапожников 1934-йилда биринчи бўлиб умумий ўрта таълим мактаблари учун “Расм чизиш курси” номли дарсликни яратди. Олим яратган дарслик натурага қараб расм чизишга асосланган эди. Дарслик реалистис расм ишлаш асосида қурилган бўлиб, унда перспектива, ёруғ-соя қонунлари ҳам ўз аксини топган эди. Шу билан бир қаторда Сапожников сим, картон, гипс каби материаллардан нарсалар тузилиши, перспектив қисқариши, ҳажмига доир методик кўргазмали қуроллар мажмуасини ҳам яратди. Муаллифнинг тавсияларига кўра ҳар қандай натура асосига турли ҳажмли ва юзали геометрик шакллар ётиши, шунинг учун ҳам расм чизишда геометрик методдан фойдаланиш мақсадга мувофиқлиги баён этилган.

Ўзбекистон худудида эрамиздан аввал ҳам тасвирий санъатнинг ҳайкалтарошлик, рангтасвир, меъморчилик турлари ниҳоятда ривожланган бўлиб, уларнинг намуналари Афрасиёб, Варахша, Қалчаён, Тупроқ қалъа, Айртон, Болалик тепа, Далварзин тепа, Қўйқирилган қалъа, Фаёз тепа, Тешик қалъа, Ажина тепа ва бошқа бир қатор жойлардан топилган. Бу асарлар эрамиздан аввалги ИВ-И асрларда яратилган бўлиб, уларнинг ёши 5-6 минг йилларга тўғри келиши мумкин. Бу асарларнинг бадиийлиги ҳозирги замон рассомлари ва ҳайкалтарошларининг асарларидан қолишмайди десак муболаға бўлмайди. Бундай юксак бадиий савиядаги асарлани ўша даврда тўпланган илғор тажриба, тасвирий санъат мактабларисиз яратиш

мумкин эмас.

Тасвирий санъат тарихида буюк мусаввир ва наққош Камолиддин Беҳзоднинг устози Ҳиротлик Мирак наққош бўлган, унга миниатюра рангтасвири сирларини ўргатгани ҳақида айрим манбаларда келтирилган. Шунингдек, устоз Мирак наққошнинг Ҳирот “Нигористони” (Санъат академияси) бўлганлиги ва унда Камолиддин Беҳзод тарбия олганлиги ҳам маълум.

Тасвирий санъат, чизмачилик ва муҳандислик графикаси фанларини ўқитиш методикасини такомиллаштириш муаммолари бўйича кейинги йилларда республикамизнинг қатор олимлари Ш.Абдурахмонов, К.Мадумаров, Н.Хурбоев, Э.Рузиев, Д.Кўчқорова, У.Рихсибоев, Н.Ёдгоров, Ч.Шокорова, А.Ҳамрақулов, С.Сайдалиев, Д.Саидахмедова, Б.Ниғмонов, М.Ҳолимов, Н.Ташимов, Н.Ғуломова, Ф.Алимовлар кабилар ўқув адабиётлари яратиш билан бир қаторда илмий ва методик тадқиқот ишларини ҳам ўтказиб келишмоқда. [3].

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг, 2022 йил 28 январдаги “2022-2026-йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон фармони.

2.Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6-апрелдаги “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 187-сонли қарори.

3.Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. Таълим тараққиёти. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлигининг Ахборотномаси. 4-махсус сон. Физика. Математика. Информатика. Чизмачилик. Технология таълими – Т: шарқ, 1999. – 304 б.

4.Сайидахмедов Н. С. Янги педагогик технологиялар (назария ва амалиёт) – Т.: Молия, 2003 –172 б.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCILARINING IQTIDORINI RIVOJLANTIRISDA SINF DAN TASQARI ISLARNING AHAMIYATI

*Termiz Davlat Pedagogika Instituti talabasi
Y.A. Qurbonova*

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda boshlang'ich sinfda o'qiydigan iqtidorli o'quvchilarni qanday qilib rivojlantirish muammolari keltirilgan. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarida ularni rivojlantirish uchun sinfdan tashqari ishlarni amalga oshirish, bu jarayonda zamonaviy texnologiyadan foydalanish hamda iqtidorli o'quvchilarni o'z iqtidori yo'nalishi bo'yicha rivojlantirish, ularni o'lari qiziqqan yo'nalish bo'yicha ijodkorlik xususiyatini oshirish yo'llari aks ettirilgan.

Kalit so'z: STO', ilmiy-ommabop, fakultativ mashg'ulot, dunyoqarash matematika, ko'nikma, Gegel, metodika, integratsiya, texnologiya.

Maktab o'quvchisini o'qish malakasi bilan qurollantirish ilan bir qatorda kitobni mustaqil o'qiy oladigan, uni tushunadigan, ma'lum bir mavzuga oid kitoblarni tanlay oladigan, gazeta va jurnallarni ham mustaqil o'qiydigan faji kitobxonni tarbiyalaydi. Shu jihatdan sinfdan tashqari o'qish(STO') tariyaning asosiy quroli sifatida xizmat qiladi, ko'p narsani bilishga xavasini oshiradi.

STO' ning maqsadi o'qishmalakasini takomillashtirish, kitob tanlay oliadigan, muntazam kitob o'qiydigan, o'qilgan kitobni to'g'ri baholay oliadigan ongli kitobxonni baholashdir.

Maktablarda 1959-yildan boshlab maxsus STO' darslari tashkil etilgan. STO' darslari 1-2-sinflarda haftada bir marta, 3-4-sinflarda ikki haftada bir marta o'tkaziladi. Sinfdan tashqari o'qish o'quv dasturi bilan chambarchas bog'liq bo'lib unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi.

Fakultativ mashg'ulotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda, ularga kasb-hunar tanlashga oid bilim berishda yuqori natijalar beradi. Ayniqsa, iqtidorli o'quvchilarda fanga qiziqishi, dunyoqarashi, zehni namoyon bo'ladi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilariga to'la-to'kis bilim berishda har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini o'rganishda o'quvchining qobiliyati namoyon bo'ladi. Shu o'rinda o'qituvchi birinchi bosqichda o'quvchilar orasidan matematikaga qiziqishi va iqtidorini aniqlashga imkon berib, ular bilan til topa oladi.

Fakultativ mashg'ulotlar 1-sinfda o'qituvchi o'quvchilarni qiziqishi va o'zlashtirishiga qarab fanlar aro aloqadorlikni hisobga olgan holda olib boradi.

2-4-sinflarda 34 soat o'tiladi. 2-sinfda chorak bo'yicha olib borish mumkin. Masalan, 1-yarim yillikda matematika, 2-yarim yarim yillikda ona tili va hok. 4-sinfda yoppasiga faqat matematikaga bag'ishlanadi. 3-4-sinflarda ko'pincha murakkab masalalar ustida ishlash uchun fakultativ mashg'ulotlarda masalar ustida ishlash uchun 10 soat ajratiladi.

Sinfdan tashqari ishlar orqali quyidagilar amalga oshiriladi: bilimlarni va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish hamda kengaytirish, o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini, topqirligini, qobiliyatli va layoqatli bolalarni tapish, talabchanlik, irodani tarbiyalash, mehnatga muhabbat, mustaqillik, uyushqoqlik va insoniylikni tarbilash.

Gegel falsafadagi uslubni mazmun harakatining shakli sifatida ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida turli xil mantiqiy tizimlar orqali o'qituvchi va u bilan birgalikda o'quvchilar o'z bilim, qobiliyat va ko'nikmalarini deduksiya, induksiya, sintez, umumlashtirish, aniqlashtirish, taqqoslash shaklida ifodalanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga javob bera oliadigan va dars talablariga mos keladigan maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi quyidagilarga asoslanishi kerak:

1. Darsda o'quvchilar olgan bilim, malaka va ko'nikmalarni hisobga olgan

holda o'tkaziladi;

2. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning xohishi, havaskorligi, ijodkorligi tamoyillariga asoslanishi va ularning individual fikrlarini aniqlashtirish maqsadida tashkil qilinadi;

3. Sinfdan tashqari ishlarni o'tkazish shakillari darslardan farq qilib, qiziqarli tomoni kuchli bo'ladi. Buning uchun zaruriy shart shuki, o'tkaziladigan ishning rejalashtirilishi va tizimligining murakkaligidadir.

Integratsiyalashgan ta'lim tariya fanlararo aloqalarning ayrim jixatlari mashxur pedagoglarning (Y.Komenskiy, D.Lokk, I.Gerbert, M.Testalosti, K.Ushinskiy va boshq.), didaktiklarning (I.D.Zverev, M.A.Danilov, V.N.Maksimova, S.P.Baranova, M.N.Statkin va boshqa.), psixolog olimlarning (E.N. Kabanova-Miller, N.F.talizina, J.A.Samarina, G.I.Vergeles), medist olimlarning (M.R.Lvov, V.Ggoreskiy, N.N.Svetloveskaya, Y.M. Kolagin, G.N. Pristaipova) ishlarida ko'rib chiqilgan.

Bir qator ishlar boshlang'ich ta'limfanlaro va fanlar ichidagi aloqalarga bag'ishlangan. Bu muommolar o'quv fanlarini integratsiyalashga o'tishning yaqin rivojlanish zonasidir. Demak, iqtidorli o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirishda ayni itta fandan emas, fanlarni uyushtirgan holda mashg'ulotlarni olib borilsa, maqsadga yetish mumkin.

Integratsiya lotincha integratio-tiklash, to'ldirish, integer-butun so'zidan kelib chiqqan. Bu borada ikki tushunchaga egamiz:

1. Tizim, orgaizning alohida tabaqalashtirilga qism va shu vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.

2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Iqtidorli o'quvchilarni rivojlantirishda hozirgi kunda texnologiyalarning ahamiyati katta hisolanadi. Tassavur qilaylik siz dars o'tyapsiz, darsdan avval kompyuter xonaga kirishga ulgurmadigiz. Dars jarayonida shunaqangi ir narsani aytdingiz, bolalar uni ko'rolmagan. Xo'sh, o'quvchilar uni tasavvur qila oladimi? Albatta yo'q! Hozirgi kunda elektronni doskalar rivojlangan bo'lib, ulardan sinfdan tashqari ishlarda foydalansak o'quvchilar ko'z xotirasi orqali eslab qolish, ko'rgan narsasini tasavvur qila olish, texnologiyalaridan unumli foydalanish sirlari va ulardan qanday foydalanish o'rganadi. Shuningdek biron bir memtod qollamoqchi bo'lsak ham avval u metodning vidiosini qo'yib berib, keyin u metodni qo'llashimiz osonroq kechadi.

FOYDALANILGAN ADAIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ona tili o'qitish metodikakasi – Q. Karima, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharofjon G'oziyev - 167-b.

2. Boshlang'ich sinflar matematika o'qitish metodikasi – M.E. Jumayev, Z.G'.Tadjiyev – 69-75-b.

3. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalash pedagogikasi – R.A.Mavlonov, N.H.Rahmonqulova – 14-15-b.

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING INSONNI O'RAB TURGAN TABIAT BILAN ALOQALARI HAQIDAGI QARASHLARI

Radjabova Gulnoza Bahromovna

Turon universiteti nodavlat oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Yurtimizda qadimdan ajdodlarimiz ma'naviy merosidan tortib hozirgi kunda yaratilayotgan ilmiy, siyosiy manbalarda ham ilm, ma'rifat bilan bir qatorda "qanday o'qitish" muammosiga atroflicha yondashib kelingan. Yosh avlod ta'lim tarbiyasiga asosiy e'tibor qaratgan Al-Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Sa'diy SHeroziy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy asarlarida ham yoshlarni tarbiyalash, o'qitish usullari va vositalari xususida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'z: O'rta Osiyo mutafakkirlarining ilg'or g'oyalari, «Ma'mun akademiyasi», «Kitob as-Saydana-fit-tibbi», «Mineralogiya», «Algoritm».

Ma'lumki, tabiatshunoslik fanining rivojlanishi o'zining uzoq o'tmishiga ega. Botanika va zoologiyadan bilimga ega bo'lmay turib, o'simlikshunoslik va chorvachilikni, tuproqshunoslikni bilmasdan agrotexnikani ratsional rivojlantirish mumkin emas. Tabiat- shunoslik fanini tobora rivojlanishida hozirgi zamon biologiya fanlarining o'rni beqiyosdir.

Inson g'or va chaylalarda yashab, o'zining kundalik ehtiyojlari uchun yovvoyi hayvonlarni ovlab, tirikchilik qilib yurgan davrlardayoq tabiiyot (ya'ni tabiat) fanining ilk kurtaklari vujudga kelgan va har xil ifodali tasvirlarga ega bo'lgan. Davrlar o'tishi bilan bunday ifodali tasvirlar shakllanib ov manzaralari, ovlanadi- gan hayvonlar va o'simliklar shakllari har xil toshlarga o'yib yozilgan va mulk sifatida avlodlardan-avlodlarga meros qilib qoldirilgan.

Jamiyat rivojlangan sari turmushni yengillashtirish omillari ham vujudga kela boshlagan.

Mana shunday omillardan biri yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirish va iste'molbop o'simliklar urug'ini ko'paytirish bo'lib, ular inson yashaydigan manzilgohlarda doimo topilavermaganligi va ob-havo, iqlim sharoiti salbiy ta'sir etganligi tufayli vujudga kelgan. Bu esa o'z navbatida chorvachilik, hunarmandchilik va ibtidoiy san'at nishonalarini vujudga keltirgan.

Inson hayot kechirishining zaruriy omili bo'lib hunarmand- chilik yuzaga kela boshlagan dastlabki davrlarda tosh, yog'ochlar bilan hayvonlar ovlangan, tirikchilik qilingan, ularning mah- sulotlaridan zarur buyumlar yasagan, bu o'z navbatida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlashga olib kelgan.

Shunday qilib, miloddan ming yillar awal dastlabki yozuvlar tarzida oromiy yozuvi, so'ng sug'd, baqtriya va urxun-yenisey yozuvlari vujudga keldi. Keyinchalik yozuvlar muttasil o'zgarib, takomillashib bordi. Shu bilan birga tabiat, borliq, o'simlik va hayvonot dunyosi haqidagi kuzatishlar kengaya va chuqurlasha bordi, tabiiyot fanlari, u o'rganayotgan jarayonlar hamda hodisalar haqidagi tushunchalar ham takomillashdi.

Tabiat hodisalarining takomillashib, evolutsion tarzda rivojlanib borishdagi tushuncha va ta'limotlar Abu Nasr Farobiy, A1 Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarimizning asarlarida o'z ifodasini topgan. Bu mutafakkirlarning asarlari astro- nomiya, matematika, geologiya, mantiq, grammatika, musiqa, metrologiya, topografiya, harbiy fanlar, axloq, siyosat bilan birga dehqonchilik, hunarmandchilik, ov san'ati, tibbiyot va tabiiyot kabi fanlarning rivojlanishiga ilmiy asos bo'ldi.

O'rta Osiyo mutafakkirlarining ilg'or g'oyalari. Uyg'onish davridagi tabiiyot ilmining, shuningdek, G'arbiy Yevropadagi tabiiyot ilmining yutuqlari umumiy biologiya, anatomiya, fiziologiya va psixologiyaning rivojlanishi uchun asos bo'ldi. Tabiatning evolutsion rivojlanish nazariyasi, soddadan murakkabga o'sib borish, o'zgaruvchanlik, birlamchi va ikkilamchi signal sistemalari, tabiiy va sun'iy tanlash masalalari O'rta Osiyo olimlari tomonidan G'arbiy Yevropa olimlaridan 800-900 yillar oldin asoslanib berilganligi fikrimizning dalilidir.

O'rta Osiyoda yashab o'z asarlari bilan tabiiy fanlar rivojiga barakali hissa qo'shgan olimlar Ibn Sinoning ustozlari tabiatshunos Abu Abdullo Natiliy (X—XI asr), botanik (hashshob) Abu Hanifa Dinavariy (815—896), Xotam Roziy, Abu Bakr ar- Roziy, Naabulisiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalardir.

Respublikamiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov ular hadida shunday degan edilar: «Yurtimizni azaldan daholar yurti deb, haqli ravishda hamisha faxrlanib kelamiz. Imom Buxoriy, Ibn Sino, Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur kabi buyuk allomalarimiz o'zlarining yorqin iste'dodlari bilan butun jahonga dong taratganlar, ularni biz kelajak avlod ongiga singdirib borishimiz kerak».

Dong'i dunyoni tutgan mutafakkirlarimizning insonni o'rab turgan tabiat bilan aloqalari haqidagi qarashlari bilan qisqacha tanishib o'tamiz.

AL XORAZMIY. Abu Abdullo Muhammad ibn Muso al- Xorazmiy jahon matematika fanining asoschilaridan bo'lgan O'rta Osiyo olimlaridan hisoblanadi.

A1 Xorazmiy IX asr boshlarida Bag'dodda O'rta osiyolik olimlar A1 Ahmad Ibn Kasir al-Farg'oniy, Abbas ibn Javhariy bilan «Ma'mun akademiyasi» (Bayt ul hikmat)ni boshqara boshlaydi.

Bag'dod xalifasi Ma'mun al-Xorazmiyga «Yer va Osmon xaritasi»ni tuzish ishini boshqarishni topshirdi. Xarita ustida olimlar 84 yil davomida tadqiqot ishlarini olib borishdi. Xorazmiy bu tadqiqotlarni umumlashtirib «Yerning tasviri» nomli asarini yozib, geografiya faniga asos soldi. Bu asar butun dunyo, qifalar, okeanlar, qutblar, ekvator, sahrolar, ko'llar, o'rmonu barcha mamlakatlar, o'lkalar, u yerdagi hayvonot va o'simliklar dunyosi, boshqa tabiiy xom ashyolar, aholi, ularning tarqalish xususiyatlari, urf-odatlar, hunarlari, zichligi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

Xorazmiy dunyodagi birinchi geografik atlas (xaritalar majmuasi)ni tuzishga katta hissa qo'shgan.

Xorazmiy astronomiya sohasida ham anchagina ishlar qilgan. U kuzatishlar asosida hindlarning astronomiya jadvallarini har tomonlama tahlil qilib, yangi astronomik jadvallar tuzdi. Uning rahbarligida Yer kurrasining kattaligini aniqlash maqsadida Yer meridianining bir gradusi o'lchab chiqilgan. Xorazmiyning astronomiyaga oid asari, Yeming o'lchami haqidagi fikrlari, O'rta Sharq, Yevropada astronomiya fanining rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shilgan.

Mashhur o'zbek matematigi Muso al-Xorazmiy hozirgi zamon algebra fani va «Algoritm» sohasining «otasi» hisoblanadi. «Algebra» «A1 jabr» asaridan, «Algoritm» esa uning nomi al-Xorazmiydan olingan.

JAYHONIY. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Nasr Jayhoniyy 870-yili Buxoroda tug'ilgan. Jayhoniyy o'z davrining yirik davlat arbobi bo'libgina qolmay, balki o'ta o'qimishli va bilimdon olim ham edi.

U vazir lavozimidan foydalanib, dunyoning turli mamlakatlariga sayohatchilarni yubordi. Ular to'plagan ilmiy materiallarni chuqur tahlil qildi va mazkur tadqiqotlari asosida asarlar yozdi.

Olimning dunyoviy fanlar to'g'risida yozgan kitoblari juda ko'p bo'lib, ulardan Maqsudiy, Beruniy, ibn Rustam al-Bakriy kabi olimlar o'z asarlarida foydalanganlar.

Jayhoniyyning «Kitob-al-masolik val mamolik» («Yillar va mamlakatlar haqida kitob») asari 911-922- yillarda yozilgan. Beruniy o'zining «Mineralogiya» asarida Jayhoniyy asarlarida ko'rsatilgan minerallardan, ular haqidagi ma'lumotlardan keng foydalangan.

Jayhoniyy o'z asarlarida O'rta Osiyo, Hindiston, Xitoy, Sanardey (Seylon), Eron qazilma boyliklari, tabiiy resurslari haqida mukammal ma'lumotlar keltirgan.

Jayhoniyyning asarlarida Xuroson o'lkasida yashovchi xalq larning geografik chegaralari, ularning ijtimoiy va ma'mur faoliyati, hunarmandchiligi, tabiiy resurslarini ifodalovchi materiallar keltirilgan. Mahalliy dorivor o'simliklar va hayvonlardan olinadigan dorivorlarning tabiatdagi o'rnini haqiqat ma'lumotlar berilgan. Jayhoniyy nafaqat davlat arbobi, shu bilan birga mashhur tabib ham bo'lgan. U xonaki hayvonlar: it, mushuk, odam organizmida yashaydigan gijja, chuvalchaglarni yuqumli kasallik tashib yuruvchilar deb bilgan va ularga qarshi kurashish choralarini ko'rgan.

Jayhoniyy qoldirgan boy ilmiy meros O'rta Osiyo va qo'shni mamlakatlarning tabiati, o'simlik hamda hayvonot dunyosi, tabiiy resurslari, qishloq xo'jaligi va tibbiyot fanlari tarixini o'rganishda alohida ahamiyatga ega.

ABU NASR FAROBIY. Abu Nasr ibn Uzlug' ibn Tarxor Farobiy 873- yili Toshkentning shimoli-g'arbida joylashgan keyinchalik tarixda O'tror nomi bilan shuhrat qozongan Farobiy xizmatchi oilasida tug'ildi. Farobiy o'z zamonasining yirik tibbiy nazariyotchisi edi. U bu sohada o'nlab ilmiy asarlar yaratdi. Asarlarining umumiy miqdori 160 dan ortiq bo'lib, ular astro-nomiya,

falsafa, tarix, mantiq, psixologiya, musiqa, tabii- atshunoslik, tibbiyot, kimyo sohalarini qamrab oladi.

Farobiyning tabiatshunoslikka doir asarlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularda inson va hayvonlar tana a'zolari, ular faoliyatining bir-biriga o'xshash tomonlari va boshqa qator ilmiy jihatlari keng yoritilgan.

Inson organizmi, uning faoliyatini Farobiy bir butun va yaxli tizimdan iboratligini, kasalliklar asosan ovqatlanishning buzilish bilan bog'liqligini ko'rsatib o'tgan.

Farobiy Yevropa olimlari, xususan, rus fiziologi I.M.Sechenovdan 1000 yillar avval fiziologiya fanining fundamental asos bo'lgan birlamchi va ikkilamchi signal sistemasining rivojiga ilmn asos solgan.

Farobiy o'z asarlarida sun'iy (inson yordamida) turlarining vujudga kelishi singari tabiiy ravishda (inson aralashuvisiz) o'simlik va hayvonlar turlarining paydo bo'lishini ham dunyoda birinchi bo'lib ta'riflab, bu masalani Ch.Darvindan 1000 yil avval ha qilgan edi.

BERUNIY. Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy buyuk o'zbek qomusiy olimi, o'rta asrlar va undan keying davrlarning yetuk mutafakkiridir.

Beruniy 973- yili Xorazmning Kiyot (hozirgi Beruniy shahrida) tug'ilgan. Beruniy 1004- yilda Qobus ibn Vushmagirga bag'ishlangan «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» deb nomlangan asarini yozadi.

Beruniy asarlariga tabiatga oid juda ko'p ma'lumotlar kiritilgan. Masalan, O'rta Osiyo, Hindiston va Afg'onistondagi qazilma boylik (dorivor o'simliklar, hayvon)lar, ularning foydali xislatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Beruniyning ilmiy qarashlari «Mine- ralogiya», «Hindiston», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgor- liklar», «Geodeziya», «Mas'ud qonuni» kabi asarlarida keng yoritilgan.

«Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida Beruniy Eron shimolida keng tarqalgan tropik o'simliklar va hayvonot dunyosini ta'riflaydi. Beruniyning «Kitob as-Saydana-fit-tibbi» («Tabiatda dorishunoslik») asari 1927- yilda Turkiyaning Bursa shahridagi kutubxonalarining biridan topilgan. Bu kitobda 250 dan ortiq tabib, dorishunos, kimyogar, tabiatshunos, tarixchi, faylasuf, sayyohlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Beruniyning tabiiy va sun'iy tanlanish haqidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Agar Yer yuzini bir xil daraxt yoki bir xil hayvon butunlay qoplab olsa, bu holda hayvon va daraxtlarning ko'payishiga, daraxtning o'sishiga o'rin qolmaydi, — deya ta'kidlagan edi alloma.

Beruniyning «Tabiatda dorishunoslik» asarida dorivor o'sim- liklar tasnifi ham berilgan. Beruniy o'z asarlari bilan tabiat fani tarixiga asos solgan.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR. Zahiriddin Mu- hammad Bobur 1483- yili Farg'ona hokimi Umarshayx oilasida dunyoga keladi. U Amur Temur avlodidan bo'lib, otasi vafotidan (1494) keyin 12 yoshida podsho etib tayinlanadi. Bobur tadbirkor podsho bo'libgina qolmay, o'ta ma'lumotli olim ham edi. Uning «Boburnoma» asari tabiatshunoslikning rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

«Boburnoma» O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindistonning tabiiy geografik joylashishi, o'simliklar va hayvonot dunyosi haqidagi biografik asar hamdir. Asarda Bobur har bir joyning xarakterli jihatlari, o'simlik va u yerda tarqalgan hayvonlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida qimmatli materiallarni bayon etgan. Bobur asarlaridagi tabiat maskanlari va hodisalari, o'lkaga oid geografik ma'lumotlar, tasvirlar tabiatni o'rganishda yos tabiatshunoslar va o'lkashunoslarga dastur bo'lib xizmat qiladi.

MIRZO ULUG'BEK. O'rta Osiyoning buyuk olimla dunyoning tuzilishi to'g'risida to'g'ri fikr yuritgan ajoyi mutafakkirlar bo'libgina qolmay, balki mashhur mushohadachik ham edilar. XV asrda Ulug'bek boshliq samarqandli astronomlarning osmon jismlarini kuzatish sohasidagi ilmi ishlari, ayniqsa, mashhurdir.

Samarqand hokimi Mirzo Ulug'bek astronom olim, ma'rifat parvar davlat arbobi ham edi. U o'z mamlakatida fanr rivojlantirish uchun doimo g'amxo'rlik qilib keldi. Ulug'be Samarqandga turli joylardan olimlar olib kelib, ulaming ishlar uchun sharoit yaratdi.

U Samarqandda ulkan rasadxona qurdir. Tepalikdagi ana sh rasadxona binosi ulug'vorligi bilan zamondoshlarini hayratd qoldirgan. Rasadxona o'sha zamondagi eng yaxshi, mukammal asboblar bilan jihozlangan edi.

Ulug'bek rasadxonasida olingan ma'lumotlar eng aniq ma'lumotlar hisoblanib, bir yarim asr mobaynida butun dunyo olimlariga xizmat qilib kelgan. Rasadxonada koinot xaritalari va globuslar bo'lgan. Yer o'qining orbita tekisligiga nisbatan nech daraja og'ganligi Ulug'bek rasadxonasida aniqlangan.

Ulug'bek hokim bo'lish bilan birga O'rta Osiyo xalqlari ilm fani va madaniyatini dunyo fanining oldingi safiga olib chiqqa olimlardan biridir. Uning rasadxonasida «Yangi astronomiy jadvallari» («Zij Ko'ragoniy») yaratiladi. Ulug'bek «Zij Ko'ragoniy» asari bilan butun dunyoda samoviy jismlarni tadqiq etuvchi olim sifatida shuhrat topdi.

Ulug'bek omma orasida ma'rifat tarqatish to'g'risida ko'p qayg'urgan. U Samarqand va boshqa shaharlarda o'quv yurtlari - madrasalar ochgan.

Ulug'bek singari ko'plab o'zbek olimlarining asarlari dunyog keng tarqalib, astronomiya, geografiya kabi fanlar taraqqiyotig ulkan hissa bo'lib qo'shildi.

TA'LIM MUASSASASINI BOSHQARISH USULLARINING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK ASOSLARI

Sadullayev Dilmurod Baxtiyor o'g'li

*Toshkent davlat iqtisodiyoti universiteti "Innovatsion ta'lim"
kafedrasining tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xodimlarga va umuman ishlab chikarish jamoalariga ta'sir ko'rsatish usullari, bu usullar o'ziga xos jihatlri yortilgan.

Kalt so'zlar: marketing, xodim, Delfa, tizimosti, qaror qabul qilish, Boshqarish, funktsiya, usullar motivatsiya, javobgarlik.

Tadqiqot qilish nuqtai nazaridan uslub deganda boshqaruv ob'ektini o'rganish jarayonida qo'llaniladigan usullar, ya'ni: sistema (tizim)li yondoshuv; kompleks yondoshuv; tarkibiy yondoshuv; integratsion yondoshuv; modellashtirish; iktisodiy-matematik yondoshuv; kuzatish; eksperiment; sotsiologik kuzatuv kabi taxlilning ilmiy usullari tushuniladi.

Ta'sir ko'rsatish nuqtai nazardan esa usul deganda boshkarish funktsiyalarini amalga oshirish uchun boshkaruv ob'ektiga ta'sir o'tkazish usullari tushuniladi. Bunday usullarga qo'yidagilar kiradi:

- ✓ funktsional tizimosti ob'ektlarini boshqarish usuli;
- ✓ boshkarish funktsiyalarini bajarish usullari;
- ✓ boshkaruv qarorlarini qabul qilish usullari.

Xar xil yondashuvlar, yo'sinlar, yo'llar yordamida amalga oshi-riladigan turli-tuman boshkaruv ishlarining majmui — boshkaruvning aniq va o'ziga xos usullari deb yuritiladi.

Boshqaruv usullari — bu xodimlarga va umuman ishlab chi-karish jamoalariga ta'sir ko'rsatish usullari bo'lib, bu usullar qo'yilgan maqsadlarga erishish jarayonida mazkur xodimlar va jamoalarning faoliyatini uyg'unlashtirishni nazarda tutadi.

Boshqarish usullari ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish ja-rayonidagi mavjud munosabatlardan ob'ektiv tarzda kelib chiqadi.

Funktsional tizimosti ob'ektlarini boshqarish usuli boshqari-ladigan ob'ektning tuzilishi bilan bog'liq bo'lib, uning tarkibidagi bo'limlarni boshqarishda qo'llaniladigan o'ziga xos usullarni o'z ichiga oladi. Ularni quyidagi tizimosti b'co'limlar misolida ko'rish mumkin.

Tizimosti bulimlar: Ishlab chikarish" bo'limi, maxsulotning pishiq (ishonchli) liligini taxlili kilish, maxsulot sifatini nazorat kilish; omilli taxlil; funktsional taxlil; ishchi kuchi, uskuna va materiallardan foydalanishni nazorat qilish; ishlab chiqarish operatsiyalarini o'rganish; ishlab chikarishni programmalashtirish, rejalashtirish va nazorat kilish; xarajatlarni xisob-kitob qilish va boshkalar.

"Marketing" bo'limi: tovarlar bozorida korxonaning mavkeini dia-agnostika kilish; korxonaning bozorga chikish imkoniyatlarini taxlil kilish; yangi maxsulot va yangi bozorlarga chiqish bo'yicha talab va ehtiyojlarni aniqlash; marketing kontseptsiyasini ishlab chiqish.

3. "Xodim" bulimi: ishchi kuchini rejalashtirish; xodimlar mexnatini va ish xakini tashkil kilish; xodimlar va ularning martabalarini boshkarish; xodimlarni boshkarish tizimini shakllan-tirish, taxlil kilish va boshkalar.

Bu usullarni qo'llash yordamida boshqariladigan ob'ekt tarkibidagi bo'limlarning maqsadlari va ularning echimi bo'yicha zarur tadbirlar aniqlab olinadi.

Bu usullar boshkarish funktsiyalarini, ya'ni: rejalashtirish; tashkil kilish; nazorat kilish; muvofielashtirish; motivatsiya (vajlar, isbotlar keltirish)

kabilarni bajarish uchun qo'llaniladigan usullardir. Masalan, rejalashtirish funksiyasini bajarishda mutaxassislar: prognoz (oldindan aytish); ekstrapolyatsiya; regression taxlil; modellashtirish; xujum; Delfa; omilli taxlil; maksadlar shajarasi va uni echish kabi usullarni qo'llaydi.

Boshqarishning nazorat funksiyasi bajarishda qo'llaniladigan usullar tezkor, buxgalteriya xisobi va statistika xolatiga bog'lik va shularga asoslanadi. Motivatsiya usullari xodimlarni mehnatga undaydigan barcha usullarni, ya'ni: ish xaki; rag'batlantirish tizimi; foyda taqsimotida qatnashish; ma'naviy rag'batlar; yuqori lavozimlarga tayinlash; malakani oshirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish quyidagi uslublarga asoslangan xolda amalga oshiriladi: muammoni qo'yish; muammoni xal qilish; qarorni tanlash; ma'lumotlarni tanlash, yig'ish, ularni o'qitish va taxlil qilish usullari;

Qabul qilingan qarorlarning bajarilishini ta'minlash.

Muammoni xal qilish, ya'ni echim variantlarini ishlab chiqish bosqichida xam ma'lumotlarni yig'ishda qo'llaniladigan usullardan foydalaniladi. Ammo bu usullarni qo'llashga "Nima sodir bo'ldi" va "qo'ysi sabablar ta'siri ostida bo'ldi" degan muammoni xal qilishiga emas, balki "Muammoni qay tarzda xal qilish, qanday boshqaruv usulini qo'llash lozim" degan savolga javob topish nuqtai nazardan yondoshiladi.

Karorni tanlash bosqichida, eng avvalo tanlash me'yor (kriteriya) larini shakllantirishga e'tibor beriladi. Bu erda so'z ko'pincha maksimumlashtiradigan yoki minimumlashtiradigan maqsadli funktsiya tug'risida boradi. Odatda bunday tanlovni optimalashtirish deb ataladi. Optimumlashtirish kriteriyalariga qo'yidagilar misol bo'la oladi: foydani, daromadni, mehnat unumdorligini, samaradorlikni maksimumlashtirish; xarajatni, qo'nimsizlikni, unumsiz ish vaqtlari va xoka-zolarni minimumlashtirish.

Qabul qilingan qarorlarning bajarilishini ta'minlash bo'yicha tadbirlar qaror qabul qilinib, tasdiklangandan so'ng tuziladi. Bu bosqichda qarorlar shajarasi tuzilib, unda maksadga erishishning barcha yo'nalish va yo'llari ikir-chikirigacha aniqlab chikiladi.

Delfa usuli aksariyat xollarda qaror qabul qilish jarayonida qatnashuvchi a'zolari to'plash imkoniyati bo'lmagan xollarda, ya'ni boshqaruvning markaziy apparatidan uzoqda yashaydigan, filial va bo'limlarda ishlayotgan xodimlarni yig'ish maqsadga muvofiq bo'lmagan xollarda qo'llaniladi. Bu usulga binoan echilishi lozim bulgan muammo bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida qatnashuvchi gurux a'zolarining bir-biri bilan uchrashish va fikr almashishiga ruxsat etilmaydi.

Bu usulning uziga xos xususiyati shundaki, unda xar bir qatnashuvchi fikrining mustakilligi ta'minlanadi.

Boshqarishning tashkiliy-ma'muriy usullari

Tashkiliy-ma'muriy usullar boshqarish usullari tizimida aloxida o'rin tutadi. Bu usullarga: boshqarish apparatining muayyan strukturasi tuzish;

xar bir boshqaruv bo'g'inining funktsiyalarini belgilash; kadrlarni to'g'ri tanlash; buyruklar, farmoyishlar va kullanmalar chikarish, ularning bajarilishini nazorat kilish; topshiriqlar va direktiv ko'rsatmalarni bajarmayotgan bo'linma va shaxslarga nisbatan majburiy choralarni qo'llash kiradi.

Tashkiliy-ma'muriy usullar yuqori organlar xokimiyatiga va quyi organlarning bo'ysunishiga asoslanadi. Shuning uchun ularni ko'pincha ma'muriy usullar deb yuritiladi. Yuqori ma'muriy organlar boshkariluvchi ob'ektning bajarishi majburiy bulgan tartib-eoidalarni ishlab chikadi, shuningdek bo'ysunuvchi organlarga farmoyishlar beradi.

Tashkiliy usullar shu yo'l bilan boshqarish tizimida ichki ongli aloqalarning tarkib topishiga yordam beradi. Bu uslublar boshqarish funktsiyalari bajarilishining: tashkiliy barqarorligini; intizomlilikini; muvofiqiligini; uzluksizligini ta'minlaydi.

Tashkiliy-ma'muriy usullar boshqaruv organlarining o'zaro alokada ishlashini, boshkaruv munosabatlarini aks ettirib, bo-shqariluvchi ob'ektlarga ma'muriy ta'sir ko'rsatishning butun mexanizmini ifodalaydi.

Ma'muriy usullardan; iste'molchilarning xukuklarini ximoya qilish; atrof-muxitni muxofaza qilish; xavfli texnologiyalardan foydalanish, zararli ishlab chiqarish chiqitlarini chiqarib tashlashni ta'qiqlash; odamlar sog'lio'iga zararli maxsulotni reklama qilishni ta'qiqlash kabi soxalarda faol foydalaniladi.

Boshqarishning tashkiliy-ma'muriy usullari ikki shaklda: tashkiliy ta'sir ko'rsatish usullari; farmoyish berish usullari shakllarida namoyon bo'ladi.

Tashkiliy usullarning bu ikkala shakli birgalikda qo'llaniladi, bir-birini to'ldiradi va rivojlantiradi. Xar ikkala shaklning uyg'unlashuvi ishlab chiqarish sharoitlarini xisobga olingan xolda optimal bo'lishi kerak.

Tashkiliy ta'sir ko'rsatish turli tashkiliy choralarni, ya'ni: ishlab chiqarish va boshqarishning tashkiliy strukturalarini belgilash; ichki tartib-qoidalarini o'rnatish; boshqariluvchi va boshqaruvchi tizimlar o'rtasida optimallik va oqilona nisbatni o'rnatish kabilarni o'z ichiga oladi.

Farmoyish berish yo'li bilan ta'sir ko'rsatish barcha boshqarish bo'limlari va organlarining (uyg'un) ishlashini joriy ta'minlab turishdan iborat bo'lib, bunga e'lon qilinadigan yozma yoki og'zaki ko'rsatmalar berish, yozma shaklda nashr etilgan yoki og'zaki buyruqlar vositasi bilan erishiladi.

Tashkiliy ta'sir ko'rsatish boshqariladigan ob'ekt (korxonani) loyixalash bosqichidan boshlanadi. So'ngra reglamentlash, normalash ishlari bajariladi.

Jinoiy javobgarlik — bu mansab bilan bog'lik. jinoyat sodir etilganda sud tomonidan qo'llaniladigan jazodir. Shunday qilib:

Moddiy javobgarlikka — moddiy zarar etkazish. intizomiy javobgarlikka — intizomiy nojo'ya xarakat. Ma'muriy javobgarlikka — ma'muriy xuquqbuzarlik. Jinoiy javobgarlikka — jinoyat asos bo'ladi.

Boshqaruvning iqtisodiy usullari - iqtisodiy manfaatlardan foydalanishga asoslanadi. Zero, xar eanday jamiyatning iqtisodiy munosabatlari, eng avvalo

manfaatlarda namoyon bo'ladi. Manfaatlar uch xil bo'ladi: umumjamiyag manfaatlari; jamoa manfaatlari; shaxsiy manfaatlar.

Bu manfaatlarni uyg'un sur'atda bog'lab olib borish muammosi bir qator muammolarni xal qilishga, xar bir davr sharoitlariga muvofiq keladigan munosabatlarni o'rnatishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.G'oziyev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2001
- 2.G'oziyev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
- 3.Vospitay svoyego lidera, kak naxodit, razvivat i uderjivat v organizatsii talantlivo'x rukovoditeley. g' Per. s angl.-M.: Izdatelskiy dom "Vilyams", 2002.-416 s.
- 4.Nurumbekova, Y. (2021). TRAINING OF FUTURE TEACHERS TO PROFESSIONAL EDUCATIVE ACTIVITY ON THE BASEMENT. Journal of Central Asian Social Studies, 2(01), 66-74.

TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARDA INSON QADRINI ULUG'LASH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Saparboyeva Dilshoda Sobir qizi,

University of science and technologies

"Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim" kafedra mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida inson qadrini ulug'lash madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari hamda buni amalga oshirishda dars jarayonida va sinfdan tashqari bajariladigan tadbirlarning ilmiy pedagogik shart-sharoitlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Inson, qadr, ulug'lash, insonparvarlik, axloq, qadriyatlar, ta'lim, o'quvchi, o'qituvchi, natija, psixologiya, individual, mahalla, oila, sinfdan tashqari tadbirlar.

Bugungi kunda yangi O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati barpo etish va insonparvar demokratik huquqiy davlat qurish yo'lida keng ko'lamlil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad inson qadrini ulug'lash, uning huquq va manfaatlarini ta'minlash va ularning ijtimoiy himoya qilishdir.

Jumladan davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish, mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining tashkil etilishi mamlakatimizda ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan ishlash bo'yicha yangi tizim joriy etilishi, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" dagilar bilan manzilli ishlash, aholining kam ta'minlangan va zaif qatlamlarini ijtimoiy yordam tizimiga kiritish va ularning mehnat bozoridagi ishtirokini kengaytirish mexanizmlarini takomillashtirish kabilar bevosita inson qadrini ulug'lash bilan bog'liqdir. Chunki, bugungi davrda Yangi O'zbekiston "Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat" degan

muhim g'oya negizida barpo etilmoqda. Davlatimiz rahbari belgilab bergan bu ulug'vor maqsad asosida xalqimiz yangidan-yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2023 yilni "Insonga e'tibor ta'lim sifatini oshirish yili" deb nomlanishi mamlakatimizda ijtimoiy himoya masalasida amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami tobora kengayib borishi va inson manfaati va qadri ustuvor ekanligining dalolatidir. Shuningdek, bugungi kunda ayniqsa ta'lim tizimida ham o'quvchilarda inson qadrini ulug'lash madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini tadbiiq etish yuzasidan alohida tashkiliy ishlar ham olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiiq etish" ta'lim tizimining ustivor yo'nalishlari sifatida belgilab qo'yilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limi va tarbiyasi tizimida, jumladan ularda inson qadrini ulug'lash madaniyatini rivojlantirish tarbiyasida pedagogning roli beqiyosdir. Bola hayotining katta qismi aynan pedagogik faoliyat jarayonida kechadi, uning xarakteri, hayotiy qarashlari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini, ya'ni uning shaxsining fundamental sifatlarini shakllanadi. Aynan shuning uchun o'qituvchi shaxsi bola uchun – "ulg'ayishning ideal obrazi" hisoblanib, unga ko'ra uning yaxlitligi, uyg'unligi va birinchi navbatda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini va shakllari bolada inson qadriga nisbatan qarashlarining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Bolada inson qadrini ulug'lash madaniyatiga nisbatan axloqiy rivojlanishining muvaffaqiyatliigi shuningdek o'qituvchi va o'quvchi shaxsining ijtimoiy sharoitlarini bilan belgilanadi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-shaxsiy insonparvarlik sifatlarini bolaning ma'naviy-axloqiy sifatlarining shakllanishi bilan o'zaro aloqadorligida shakllanishi muhim o'rin tutadi.

Ushbu jarayonda boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan amalga oshiriladigan har qanday ta'lim-tarbiyaviy tadbirlar, ularning darsda olgan bilimlarini to'ldirishi lozim. Shu jihatdan qaraganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida inson qadrini ulug'lash madaniyatini rivojlantirishda dars jarayonidan va darsdan tashqari ish shakllaridan to'g'ri foydalana olishi ham muhim pedagogik ahamiyatga ega. Chunki o'qituvchining ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashi o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi. Qiziqishlarini oshiradi, ularning inson qadriga nisbatan qarashlarini shakllantirishga imkoniyat yaratib beradi. Shunga ko'ra, mazkur tadbirlarni samarali tashkil etish pedagogik dolzarb masalalardandir.

Bolaning xarakteri, tabiati va dunyoqarashi, ma'naviy qarashlari-ezgulik va yaxshilik, olijanoblik va mehr oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori boshlang'ich ta'lim jarayonida qaror topadi. Aynan mana shu davrda bola hamma yaxshi-yomon narsani tushunib, anglay boshlaydi. Uning beg'ubor ongi bamisoli qog'oz singari oiladagi, yon-atrofdagi barcha voqea-hodisalarni, ularning zamiridagi taassurotlarni o'ziga shimib-singdirib oladi. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida shaxsni (insonni) ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, bolalarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish-ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim. Bu esa ta'lim-tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi» Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida inson qadrini ulug'lash, komil insonni voyaga yetkazish kabilar ularning muhim vazifalari hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilari jamiyat taraqqiyoti va uni yangilashga, ma'naviy hayotimizni turli tahlid va xurujlardan himoya qilish masalasiga bo'lgan o'z burchi va ma'suliyatini aynan shu asosda aniqlab olishi zarur. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim jarayonida ular o'quvchilarda inson qadrini ulug'lash madaniyatini rivojlantirishi ularda insoniy fazilatlarini, qadr-qimmatni, iymon-e'tiqodni oshiruvchi ta'lim-tarbiya mevasi va aql suyanchig'i, ma'naviyatli insonning Vatanga, jamiyatga, mehnatga, tilga, urf-odatga, tarixga bo'lgan munosabatlarida, hatti-harakatlarida, xulq me'yorlari va qoidalarida rivojlantirishi ularda axloqiy-huquqiy bilimlarni amalga oshirishga yordam beradi. Shuning uchun inson qadrini ulug'lash madaniyatini ilk bolalikdan, o'quvchilarning dunyoqarashi shakllanayotgan boshlang'ich sinflardan boshlash muddaoga yetishishni osonlashtiradi. Shunga ko'ra boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda inson qadrini ulug'lash madaniyatini rivojlantirishda o'qituvchilar quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari muhim:

- o'quvchilarda inson qadrini ulug'lash his-tuyg'usini shakllantirish (ya'ni, voqelikni, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tushunish, o'z burchi mas'uliyati, majburiyatini anglash);
- ularda axloqiy-huquqiy bilimlarni o'zlashtirishga odatlantirish va rivojlantirish;
- o'quv qurollarini, maktab anjomlari, uy-ro'zg'or buyumlarini asrab-avaylash;
- milliy urf-odatlarini va ko'nikmalarini shakllantirish;
- davlat ramzlariga hurmat va muhabbat, milliy iftixor ruhida tarbiyalash;
- o'quvchilarga inson qadrini ulug'lash huquq va burchlari to'g'risida ma'lumotlar berib borish asosida bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish muhim o'rin tutadi.

Inson qadrini ulug'lash madaniyatini rivojlantirish mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– jamiyatga munosabat - ijtimoiy-siyosiy faollik, yangi O'zbekistonga sodiqlik, milliy mustaqillikni mustahkamlash va rivojlanishni tushunish, mamlakat siyosiy hayotida ro'y berayotgan voqealarni to'g'ri baholash, xalq, Vatan oldidagi burch va mas'uliyatni his qilish, adolatlilik, saxiylik, kamtarlik;

– mehnatga munosabat - bilim olishga intilish, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tejamkorlik, o'quv mehnati madaniyatining shakllanganligi, mehnat kishilariga hurmat va muhabbatni va h.k.

– o'zgalarga munosabat - o'zaro o'rtoqlik yordami, xushmuomalalik, g'amxo'rlik, mehr-oqibat, do'stlar, oila, kattalarga o'zaro hurmat, mas'uliyat va majburiyatni his qilish, kichiklar tarbiyasi to'g'risida g'amxo'rlik, Vatanga munosabat - vatanparvarlik, vatan himoyasiga tayyor turishi, o'zga millat xalqlariga hurmat, o'ziga munosabat - o'z burchi, vazifasini yuksak darajada anglash, javobgarlikni his qilish, axloqiy poklik, intellektual salohiyat, turmushda oddiylik va kamtarinlik, axloqsizlikka nisbatan murosasizlik kabilar bolalar ongiga singdirishi yaxshi samara beradi. Chunki, «...boshlang'ich ta'lim jamiyat taraqqiyoti bilan barobar rivojlanib, takomillashib boruvchi ta'lim nazariyasiga tayangan holda, muntazam tarzda rivojlantiriladi va shaxsni ham jamiyat talabalari asosida rivojlantirib borishni nazarda tutadi» - deb ta'kidlanadi boshlang'ich ta'lim konsepsiyasida. Shunday ekan, o'quvchilarda inson qadrini ulug'lash madaniyatini rivojlantirish ijtimoiy buyurtma sifatida nafaqat jamiyat taraqqiyotida balki boshlang'ich ta'lim mazmunini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, shu vaqtdan boshlab bolaning umummadaniyat to'g'risidagi tasavvurlari tarkib topa borib, inson qadri to'g'risidagi bilimlar, malakalarining shakllanishiga asos solinadi.

Bolaning inson sifatida o'z xalqi, millati, Vatanini sevishi, haqiqiy vatanparvarlik, tadbirkor, ishbilarmon bo'lishi uning boshlang'ich ta'lim bosqichida egallagan bilimi va tarbiyasiga bog'liq. Shunga ko'ra bolalarda inson qadrini ulug'lash madaniyatini rivojlantirishda boshlang'ich ta'lim imkoniyatlaridan to'la foydalanish, bolalarda halol mehnat qilish, mas'uliyatni, burchni his qilish ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan sinfda va sinfdan tashqari ta'lim jarayonida tashkil etiladigan tadbirlarning asosiy vazifasi – o'quvchilarning darslarda olgan bilimlarini yanada to'ldirish, kengaytirish va amalda tadbir etishga o'rgatishdan iborat. Buning natijasida o'quvchilarda milliy qadriyat hisoblangan o'yinlar, an'analarga nisbatan qiziqish ortadi, ular qalbiga milliy madaniyatni singdirish va shu orqali o'quvchilarda inson qadrini ulug'lash madaniyatining rivojlantirishini ta'minlaydi. Bunday tadbirlarda ham darsda bo'lgani singari barcha mas'uliyat sinf rahbarining zimmasiga yuklatiladi. Bu esa o'z-o'zidan bo'lajak o'qituvchidan izlanish, tashabbuskorlik, insonparvarlik, ijodiy yondashuvni talab qiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'tkaziladigan dars jarayonida va sinfdan tashqari tadbirlarning o'ziga xos xususiyati – o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni tarkib toptirish va rivojlantirishdan iborat. O'quvchilar kundalik ishlarining uzviy davomi sifatida sinfdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy ishlarda ishtirok etadilar, savol javoblarda qatnashadilar va shu bilan birga o'z tengdoshlarining fikrlarini ham tinglab boradilar. Buning natijasida o'quvchilarning bilimi, ma'naviy dunyosi boyib boradi. O'quvchilarni inson qadrini ulug'lashga yo'naltirilgan har qanday darsdan tashqari ish shakllari oldiga aniq maqsadlar qo'yiladi va mazkur maqsadga erishishga xizmat qiladigan pedagogik vositalar, shakllar, metodlar va usullarni tanlashga undaydi.

Bugungi kunda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida inson qadrini ulug'lash madaniyatini rivojlantirishda darsdan tashqari ish shakllaridan foydalanishda quyidagi pedagogik talablarni bajarishi lozimdir.

Sinfdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarni aniq loyihalashtirilishi, mazkur tadbirlarning maqsadi va unga erishish yo'llarini ko'rsatilishi, kafolatlangan natija aniq ifodalanishi, har qanday tadbir o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ruhiy holatlari, bilim darajalari va ta'lim jarayoniga mutanosib bo'lishi;

- sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar o'quvchilarning dars jarayonida olgan axloq-odobga undashga oid bilim, ko'nikma va malaka, inson qadriga nisbatan kompetensiyalarini mustahkamlash hamda boyitishga xizmat qilishi;

- sinfdan tashqari o'tkaziladigan har bir tadbir aniq maqsad va reja asosida amalga oshirilishi;

- sinfdan tashqari tadbirlar orqali boshlang'ich sinflardan o'quvchilarda milliy madaniyatimiz, qadriyatlarimizga hurmat, ajdodlarimiz mehnati va faoliyati bilan faxrlanish tuyg'usi singdirilishi lozim.

Ushbu jarayonda o'tkaziladigan tadbirni rejalashtirish, maqsadini aniq belgilab olish, loyihalashtirish, tadbir haqida o'quvchilarga ma'lumot berish, sinf o'quvchilarining barchasini ishtirok etishini ta'minlash, ishlarni o'quvchilarning imkoniyatlari va layoqatlaridan kelib chiqqan holda taqsimlash, tadbir natijalarini tahlil qilish va unda o'quvchilarning ishtiroklarini baholash, o'qituvchi yosh davrlari psixologiyasini bilishi va individual xususiyatlarga e'tibor qaratishi kabilar inson qadriga bo'lgan madaniyatni rivojlantirishda o'z samarasini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi. Toshkent - 2022. "O'zbekiston" nashriyoti.

2. Haydarov A. Madaniyat - milliy yuksalish poydevori. - Toshkent: Oltin meros press. 2021.

3. Maqsudov U.Q. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida xalq og'zaki ijodi vositasida ijtimoiy faolligini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari // Toshkent davlat pedagogika universitetining Ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali.- Toshkent, 2019.

4. Sh.N. Qurbonov: Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiya turlarining qo'llanishi. Pedagogik mahorat. Maxsus son, 2020.

UMUMINSONIY QADRIYATLAR VA YOSHLAR TARBIYASI

Sattorova Nazira Safar qizi
TerDPI 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada yoshlarni tarbiyalashda umuminsoniy qadryatlarning o'рни va ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan. Bu borada yurtimizda amalga oshirilayotgan islohatlar va inson qadrini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, tarbiya, Umuminsoniy qadryatlar, inson qadri, qadriyat, erkinlik

Yoshlar tarbiyasi doimiy ravishda eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki yoshlarning ma'naviy salohiyati va intellektual aqliy kamoloti yuklanishi va rivojlanishi mamlakatimiz va kelajak avlod uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqida quyidagi fikrlarni bayon etadi.

Biz "inson qadri, uning huquq va manfaatlari – oliy qadriyat", degan tamoyildan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz aholisi uchun munosib turmush sharoitini yaratishni Yangi O'zbekiston siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilaganmiz.

Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz.

Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish, ularning o'qishi uchun munosib shart-sharoitlar yaratish orqali kelajakda yoshlarning o'zligini to'la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratayapmiz.

Zero, bu kabi ezgu maqsadimiz yo'lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q.

Bundan ham ko'rinadiki, yosh avlod tarbiyasi barcha uchun eng muhim vazifa hisoblanadi. Bunda barcha uchun muhim va qadri bo'lgan umuminsoniy qadryatlarning o'рни benihoya kattadir. Inson qadri – eng oliy qadriyat hisoblanadi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha islohatlar inson qadri va huquqlari uchun xizmat qiladi.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish hisoblanadi.

Erkin va farovon huquqiy demokratik jamiyat barpo etayotgan ekanmiz, uning poydevori va ma'naviy binosi mustahkam bo'lishi kerak. Bu esa avvalo, yosh avlodni chuqur bilimli, teran fikrli o'z o'tmish durdonalaridan

va ma'naviy qadriyatlaridan xabardor, vatanparvar, xalqparvar, fidoiy qilib tarbiyalashni takozo etadi. Komil inson shaxsini tarbiyalash ishi esa eng murakkab qiyin jarayondir. Bu jarayonni amalga oshirishda ular ongiga milliy va ma'naviy qadriyatlarni singdirish maqsadga muvofiqdir. Demak, yosh avlod qachonki o'z tarixini, madaniyatini, milliy qadriyatini, tilini, dinini va urf-odatlarini mukammal bilgandagina mustaqillikning tub mohiyatini yanayam chuqurroq anglaydi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashdan asosiy maqsadi - yosh avlodni har tomonlama yetuk, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan barkamol insonlar etib shakllantirishdir.

Umuminsoniy qadriyatlar milliy va mintaqaviy qadriyatlardan mazmuni jihatdan chuqur va keng bo'lib, umumbashariy ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad va intilishlariga muvofiq qoladi. Umuminsoniy qadriyatlar bu millatni, elatni tashkil qiluvchi kishilarning milliy madaniyatini, merosini, qadriyatlarini, urf-odatlarini, an'analarini o'zlashtirishdagi faoliyatini rivojlantirish bo'lib, u milliy ong va milliy o'zlikni anglashning subyektidir. Umuminsoniy qadriyatlar asosida shaxsni axloqiy shakllantirishda millatparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, yuksak insoniylik, mehr-oqibat, iymon-e'tiqod, or-nomus, insof diyonat kabi fazilatlardan foydalanish, shuningdek «ota-ona, qarindosh-urug'laming hurmatini joyiga qo'yish, oilaning muqaddasligi tuyg'ularining barkamol bo'lishiga erishish, o'zaro munosabatlarda yonma-yon yashayotganlar manfaatlarini hisobga olish» muhim ahamiyatga ega. Umuminsoniy qadriyatlar shaxsning umumiy, axloqiy, intellektual, irodaviy, emotsional xislatlarini o'zida aks ettiradi. Umuminsoniy qadriyatlar turkumiga insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyoti bilan bog'lik bo'lgan umumbashariy muammolar kiradi. Ulardan eng asosiylari yer yuzida ilm fanini taraqqiy ettirish, tinchlikni saqlash, yadroviy qurollarning poygasini to'xtatish, xalqaro xavfsizlikni ta'minlash, turli kasalliklarning oldini olish, tabiatni muxofaza qilish, qashshoqlik va savodsizlikka barham berish, sanoat xom ashyosi, energiya manbalari va oziq-ovqat bilan ta'minlash, koinotni va jahon okeani resurslarini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar kiradi. Bu muammolarni oldini olish uchun yoshlar tarbiyasi poydevorini mustahkam qilib yosh avlodni bilimga chanqoq, tinchliksevar, erkin va sog'lom shuningdek tabiatga nisbatan muhabbat ruhida tarbiyalash lozim.

Ta'limni rivojlantirish tizimining yangi yo'li - bu xalqning boy, o'ziga xos madaniy-tarixiy an'analariga, umuminsoniy qadriyatlarga, milliy va jahon pedagogika fani yutuqlariga, ma'naviy va madaniy qadriyatlariga murojaat etishdir. Bunda Dars mashg'ulotlarining o'rni katta.

Dars (arabcha saboq, ma'ruza)-ta'lim muassasalarida ilm, ma'lumot berish maqsadida o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlari, saboq. Ikkinchi ma'nosi. Hayotiy tajribadan kelajak uchun chiqarilgan foydali natija, ibrat, saboq demakdir. Dars mashg'ulotlarida ta'lim va tarbiya birgalikda uzviy olib boriladi.

Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Jumladan, maktabgacha ta'limning zamonaviy tizimi, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim joriy qilinmoqda, zamonaviy oliy ta'lim muassasalari hamda nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda.

Yoshlarning bandligini ta'minlash va ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish bo'yicha ishlarni mutlaqo yangi tizim asosida tashkil etish va amalga oshirish maqsadida "Yoshlar — kelajagimiz" Davlat dasturi qabul qilindi. Yoshlar bilan doimiy muloqot qilish mazkur sohadagi dolzarb muammolarni aniqlash va hal etishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Tarbiya shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Yosh avlodni tarbiyalashda ajdodlarimiz merosi, xalq og'zaki ijodi va qadryatlardan foydalanish va tarbiyaning tub mohiyatini anglab yetish lozim.

Tarbiya kishilik jamiyati ibtidosida paydo bo'lgan va bashariyat manfaatlari uchun xizmat qilib kelgan. Tarbiya avlodlar o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi. Kattalar turmush jarayonida orttirgan tajribalarini o'zidan keyingi avlodga o'rgatib borganlar. Kichik avlod esa o'z (faoliyati davomida duch kelgan yangi muammolarning yechimini topish barobarda bilim va ko'nikmalarini egallab, oldingi avloddan meros qolgan bilimlarini yanada boyitib, o'zidan keyingi avlodga qoldiradi. Qadimdan inson tarbiyasiga oid fikrlar xalq maqollarida, afsonalarda, dostonlarda o'z ifodasini topgan. Ularda rostgo'ylik, ota-onaga hurmat ehtirom kabi fazilatlar tarannum etilgan. «Alpomish», «To'maris» kabi doston va ertaklarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari ulug'lanadi. Ta'lim va tarbiya masalalari hamisha mutafakkir, yozuvchi, olimlar xayolini band qilib kelgan. Ular o'zlarining bola tabiati, ularni barkamol inson qilib tarbiyalash haqidagi yorqin mulohazalari bilan pedagogika fani ravnaqiga ulush qo'shganlar. Mashhur hind masali «Kalila va Dimna», Nizomul mulkning «Siyosatnoma», Nosir Xisravning «Saodatnoma», «Ro'shnoyinoma», Yusuf xos Hojibning «Qutadg'u bilik», Mahmud Koshg'ariyning «Devon-u lug'atit turk», Ahmad Yugnakiy, Kaykovus, Alisher Navoiyning ko'pgina asarlari odob-axloqqa bevosita daxldordir. Bu allomalarning asarlari pedagogik fikrlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu asarlarda insonparvarlik, halol mehnat, do'stlik, chin muhabbat, sadoqat kabi yuksak axloqiy fazilatlar va umuminsoniy qadryatlar o'z aksini topgan.

Rivojlanish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida xizmat qilish uchun albatta mustahkam e'tiqodga ega bo'lgan, milliy qadriyatlarimizning qadriga yeta oladigan, milliy g'urur va iftixorga ega bo'lgan, vatanga sadoqatli yoshlarni shakllantirish pedagogik zaruratga aylandi hamda davlatimiz diqqat markazida turgan masalalardandir. Xususan, bu masala pedagoglar zimmasiga ham katta masuliyat yuklaydi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, Vatan sha'nini har narsadan ustun qo'ya bilgan, tili, dini, tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyatlari bilan faxrlana oladigan yuksak ma'naviyatli, yuqori salohiyatli ta'lim va tarbiya olgan yoshlar O'zbekistonning taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://president.uz/> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqidan

2. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida „O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni

3. Jondor To'lanov „Qadriyatlar falsafasi“ Toshkent-1998—yil.

4. Sh.Mardonov, B.Xodjayev, Sh.Taylanova, D.Xojimammedova „Pedagogik aksiologiya“ o'quv qo'llanma. Toshkent. 2013-yil.

5. N.N. Azizxo'jayeva, „pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat Toshkent-2006

6. R. Mavlonova, n. Voxidova, N. Raxmonqulova „Pedagogika nazariyasi va tarixi“ Toshkent-2010

7. R.D.Norqobilova. Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini indikatorlar asosida diagnostika qilishning o'ziga xosligi. INTERNATIONAL CONFERENCES, 564-568. 2023

8. NR Davlatovna - Functions and Principles of Pedagogical Diagnostics. Web of Synergy: International Interdisciplinary 413-416, 2023/1/31

9. P Норқобилова -Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan iqtidorini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish. Общество и инновации. 36-41, 2023/1/25

10. P Nazarova, R Norqobilova - PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF EDUCATION OF YOUNG GENERATION AT ABU RAYHAN BERUNI TEACHING. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 1908-1911. 2022/6/30

11. S Xoliyeva, R Norqobilova - EASTERN SCIENTISTS 'VIEWS ON SPEECH. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 1433-1427. 2022/6/24

12. Sevara XOLIYEVA, Rayhona NORQOBILOVA, Muhlisa-MAMATMUROTOVA THE IMPORTANCE OF PEOPLE'S ORAL CREATIVITY IN THE DEVELOPMENT OF SPEECH BY PRIMARY SCHOOL STUDENTS. 2022/6/9. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 84-87. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/2379>

13. Sumbula IBROHIMOVA, & Rayhona NORQOBILOVA. (2022). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF USING THE HERITAGE OF ASIAN THINKERS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL SCIENCE CLASSES. European Journal of Humanities and

Educational Advancements, 3(6), 81-83. Retrieved from <https://www.scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/2378>

14. Zoirova Sevinchbonu Khurshid Kizi, Norqobilova Rayhona Davlatovna, Tajimirzayeva Buzulaykho Mahammadjon Kizi. high spiritual generation-third renaissance builders. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. 167-169. 2022

15. Райхона Норқобилова. О'қувчиларнинг она тили бо'йича iqtidorini aniqlash va rivojlantirishning o'ziga xosligi Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. 379-384. 2022

16. R.Norqobilova, M.To'rayeva Importance of talent in child development. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. ISSN: 2776-0979, VOLUME 3, ISSUE 7, July. 2022 57-61.

TEATR VA KINO SAN'ATIDA O'ZBEKISTONNING QAYTA QURISH YILLARIDAGI DAVR MUAMMOLARINING AKS ETISHI

*Tangrikulov Jamshid Erkinovich
Termiz davlat pedagogika instituti, o'qituvchi*

Sovet davrida hayotning boshqa sohalari qatori teatr va kino san'ati ham markazning qattiq nazorati ostida turgan, "erkin" ijod degan tushunchaning o'zi mavjud bo'lmagan, barcha repertuarlardan tortib, madaniy tadbirlarning ssenariysigacha yuqori turgan davlat organlari tomonidan qat'iy tekshirilib, so'ng ruxsat beriladigan holatda edi. Teatr partiya qo'mitalari yig'ilishlarida repertuar tasdiqlanar, moliyaviy masalalar ko'rib chiqilar, spektakllarning yillik soni, zalni to'ldirish me'yorlari, sotilgan chiptalardan tushgan daromad darajasigacha ko'rib chiqilardi.

Qayta qurish yillarida O'zbekiston SSRning asosiy teatrlarida namoyish etilgan pyesalar va ularning mazmuniy tahlili shuni ko'rsatadiki, bu yillarda ham sovet davri "durdonalari" namoyishi davom etgan, bunga qo'shimcha ravishda qayta qurish yillarida illat sifatida qabul qilingan "ichkilikbozlik, loqaydlik"ga qarshi kurashga bag'ishlangan asarlar keng targ'ib qilingan. Davriy matbuot ma'lumotlari va tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu davrda mamlakatdagi ijtimoiy muammolar, qayta qurish davrining oxirlaridagi oziq-ovqat tanqisligi, SSSR, jumladan O'zbekistonda kuzatilgan iqtisodiy va sanoat inqirozi teatr sahnalariga olib chiqilmagan. Bundan tashqari, O'zbekiston xalqining milliy ruhini uyg'otishga, o'z tarixi va madaniyatini tiklashga qaratilgan, xalqni jiplashtirishga sabab bo'luvchi birorta asar sahnalashtirilmagan yoki senzura nazoratidan o'tkazilmagan. Lekin, oshkoralik siyosati mutlaqo hech narsani o'zgartirmadi, deyish ham noto'g'ri. Shu sababli, bu davrda qisman bo'lsada repertuarlarda erkinlik, "qoliplangan" asarlar ro'yxatidan chiqish, yangi mahalliy asarlarni namoyishi boshlangan deb hisoblash mumkin. Qayta qurish yillarida davriy matbuotda O'zbekiston teatr va kino san'atiga o'z hissasini qo'shgan turli davlat arboblari, artistlar,

truppalar to'g'risida, ularning faoliyati natijalari haqida doimiy ravishda maqolalar chop etilishi yo'lga qo'yilgan. Jumladan, F.Jo'rayevning maqolasida SSSR xalq artisti O.Xo'jayev ijodi haqida, T.Zufarov, S.Ahmedov maqolasida o'zbek sovet teatrining shakllanishida H.H.Niyoziy truppasining o'rni haqida, G.Izmaylova maqolasida O'zbek davlat drama teatrining uch raqqosasi K.Alimova, O.Rahimova, R.Sultonovalarning faoliyati haqida, N.Zohidovning maqolasida Farg'ona muzikali drama va komediya teatrining aktyori R.Xolbekov haqida, T.Tursunov maqolasida aktyor O.Beganjiyev ijodi haqida, G.Izmaylova maqolasida Alisher Navoiy nomidagi O'zSSR Davlat akademik opera va balet katta teatri artisti R.Tanguriyev ijodi haqida, D.Musayev maqolasida o'zbek teatrining vakillaridan biri bo'lgan T.Saidazimova haqida, Sh.Hidoyatov maqolasida buxorolik san'atkorlar Sh.Qayumov, S.Tabibullayev, L.Nazrullayev, O.Xo'jayev, H.Latipov va G'Isomovlar haqida, S.Mahmudova maqolasida SSSR xalq artisti S.Eshonto'rayeva ijodi haqida, Z.Muhammadjonov maqolasida aktyor va rejissyor M.Uyg'ur hayoti va ijodi haqida, A.Abdumuzimov maqolasida artist S.Qosimovning o'zbek teatri sahnasidagi xizmatlari haqida, O.Xoldor maqolasida Andijon muzikali drama va komediya teatri direktori S.Ulug'ov haqida va ko'plab boshqa san'at arboblari matbuotda doimiy ravishda yoritib borilgan. Bundan tashqari qayta qurish yillarida teatr va kino san'atiga bo'lgan e'tiborning susayishi, repertuarlardagi o'zgarishlar ham matbuotdagi "oshkoralik" siyosati sabibidan ochiqchasiga aytilgan. Davriy matbuotda mualliflarning bu muammolarga bag'ishlangan bir qancha tanqidiy maqolalari chop etilgan. Jumladan, B.Tursunov, Yu.Gubanov, M.Gorneshteyn, T.Tursunov, R.Ahmedova, M.Qodirov, Sh.Boshbekov, R.Yoriyev, N.Fnoletova va boshqa maqolalarda teatr va sahnalashtirilayotgan asarlar, aktyorlar, truppalardagi muammolar, siyosiy davr va uning ruhiga moslashish jarayonlari masalalari ko'tarilgan.

Birgina misol, E.Oxunovanning "Sahna ortidagi spektakllar" maqolasida teatrlarning tobora ayanchli ahvolga tushishi masalasida taftish keltirilgan. Unga ko'ra buning sabablari quyidagicha: birinchidan, yangi qurilgan teatrlarning zo'rma-zo'raki topshirilishi natijasida, binoning qurilish standartlariga javob bermasligi; ikkinchidan, teatr qurilishi uchun ajratilgan mablag'ning kamligi; uchinchidan, teatrdagi aktyorlar jamoasi, ustoz-shogird an'anasining yo'lga qo'yilmaganligi; to'rtinchidan, aktyorlarga beriladigan maoshning kamligi va buning oqibatida ularni to'y, yubiley va boshqa tadbirlarga chiqib ketishi va b. Bundan xulosa qilish mumkinki, qayta qurish davridagi moddiy qiyinchiliklar, 1986-1987 yillardagi neft narxining tushib ketishi, texnogen fojealar, iqtisodiyot va ishlab chiqarishni jadallashtirishga qaratilgan siyosatning tub mohiyati samarasizligi – bularning barchasi yildan-yilga tuman, viloyat miqyosidagi teatrlarni moddiy ta'minotiga sezilarni ta'sir ko'rsatdi. Natijada ular tomoshabinlarsiz binolarga aylanib, xalqning ma'naviy ehtiyojini qondira olmay qoldi. Bu holatni F.Zohidov o'z maqolasida birgina "Turg'unlik" so'zi bilan izohlab bergan. Qayta qurish davrining ikkinchi bosqichida (1987), teatrdagi muammolar nafaqat tuman yoki viloyat, balki

poytaxtda ham sezila boshlagan. Ayniqsa, tajribali rejissyorlar, baletmeysterlar, sahna bezovchi rassomlar, malakali administratorlar va boshqa teatr hodimlari tanqisligi juda sezilib qolganligi Toshkentda 1987-yilda bo'lib o'tgan O'zbekiston teatr arboblari s'yezdi qatnashchilari tomonidan ta'kidlab o'tildi.

Qayta qurish yillarida teatrdan tashqari kino san'atida ham zamonaning talabiga ko'ra ba'zi o'ziga xos jihatlarni ko'rsatib o'tish lozim. Bu yillarda kinolarning asosiy sotsial vazifasi – vatanparvarlik, mardlik va matonat ruhida tarbiyalaydigan, internatsionalizm va xalqlar do'stligi g'oyalarini qaror toptiradigan, zamondoshlarning yutuqlarini va grajdanlik burchini tarannum etish edi. Ittifoqdagi kinematografiya masalalari, yutuq va kamchiliklari, istiqboldagi rejalar “SSSR kinematogra-fiyachilarining s'yezdlarida” doimiy ravishda muhokam etib borildi. Masalan, 1986-yil 13-may kuni Moskvaning Katta Kreml saroyida bo'lib o'tgan beshinchi s'yezdga sohadagi asosiy o'zgarishlar to'g'risida dokladlar eshitildi. Ko'tarilgan masalalar orasida, ayniqsa, kinotanqidni kuchaytirish, yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash, qardosh sotsialistik mamlakatlardagi hamkasblar bilan ijodiy aloqalarni g'ayrat bilan rivojlantirish va chuqurlashtirish muhimligi ta'kidlandi.

Aynan 1986-yil mayda bo'lib o'tgan kinematograflarning V s'yezdi qayta qurish davridagi kino san'atining burilish davri bo'ldi, deb hisoblash mumkin. Soha rahbarligiga kelgan rejisser E.Klimov (1986-1988) davrida kino sanoati markaziy buyurtma asosida ishlaydigan sohadan, qayta tiklangan, oshkoralik va senzurdan holi sohaga aylana boshladi. Ekranlarda “javondagi kino”lar soni sezilarli darajada ko'paydi. E.Klimov davrida davlat byurtmasi asosida ishlash tizimi xo'jalik hisobi (xozraschyot)ga o'tkazila boshlandi. Bu o'zgarish kinostudiya birlashmalari o'rtasidagi raqobatni shakllanishiga olib keldi. Lekin, bu o'zgarishning salbiy tomoni shunda ediki, o'zini-o'zi ta'minlashga o'tgan studiyalar endi kinolarni tasvirga olishda uning mazmuni, ma'naviy va madaniy jihatlariga emas, balki kassabop, sotilishi ko'p bo'lgan turlariga qaratdi. Bu esa qayta qurish davrining ikkinchi va uchinchi bosqichlarida saviyasi yuqori bo'lmagan kinolarning ham ekranlarga chiqishiga sabab bo'ldi. Natijada, ko'p yillar davomida Sovet ittifoqining asosiy propaganda vositalaridan biri hisoblangan kino san'ati endilikda o'zining o'rnini tijoriy filmlarga bo'shatib bera boshladi. Buning oqibatida, balki, qayta qurish siyosati asl mohiyatini ittifoq aholisiga yetkazib bera olmaslik holati vujudga kelib, bu ham qayta qurishning muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlanishiga sabab bo'lgandir.

Efirga uzatilayotgan kinolarning sifati tobora pastlab borayotgani haqida davriy matbuotda tanqidiy ruhdagi maqolalar soni ortib bordi. Jumladan, H.Akbarovning “Talab va tasvir” nomli maqolasida bir qator ijobiy va salbiy jihatlar tahlil qilingan. Muallif fikriga ko'ra: “Rejissyor E.Eshmuhamedovning “Alvido, g'o'r yoshligim”, N.To'laxo'jayevning “Mayin yomg'ir yog'adi” kabi kinolentalar o'zining ixcham syujeti, yahlit kompozitsiyasi, puxta badiiy yechimi, ular asosida yotgan insonparvarlik g'oyasini mahorat bilan ochib bera

olgan. Ammo rejissyoer Yu.Stepchuk H.To'xtaboyevning "Sehrli qalpoqcha", M.Og'amirzayev H.G'ulomning "Mangulik", G.Shermuhamedov esa O'.Usmonovning "Girdob" romaniga olgan kinolentalari yetarli darajada sifatli chiqmagan". Bundan tashqari, efirga uzatilgan turli ko'rsatuvlar ham davrining yutuq va kamchiliklari, o'sha zamonning propaganda yo'nalishlarini tahlil qilish uchun muhim hisoblanadi. Ayniqsa, tanqidiy ruhdagi ko'rsatuvlarning ortishi, e'lon qilingan "oshkoralik" siyosatining natijasi sifatida ko'rsatilishi mumkin. Misol uchun, "Axborot tanqid qiladi", "Amaliy davra suhbat", "Jadallashtirish - davr talabi", "Qayta qurish: muammo va izlanishlar", "Hayot quvonchlari va tashvishlari" kabi ko'rsatuvlar joylardagi iqtisodiy, xo'jalik, ideologiya ishlarini yanada yaxshilash, tartib-intizomni mustahkamlashga, kamchilik va nuqsonlarni ochib tashlashga xizmat qilgan.

Matbuotda ham doimiy ravishda kino san'atidagi o'zgarishlar, turli festivallar, aktyor va sahna orti ishlari, tanqidiy va tahliliy maqolalar e'lon qilib borilgan. Tanqidiy maqolalarning aksariyati "qayta qurish" mohiyatining sust yetkazib berilayotgani, joylardagi loqaydlik va ko'zbo'yamachilik yetarli darajada ochib berilmayotgani, qardosh xalqlar o'rtasidagi aloqa va internatsionalizm g'oyalarini yoritishga bag'ishlangan. Jumladan, M.Qayumov maqolasida o'zbek kinematograflari faoliyati to'g'risida, S.Xo'jayeva maqolasida IX Xalqaro Toshkent kinofestivali haqida, A.Ahmedov maqolasida Yaponiya kinosan'ati haqida, S.Xo'jayeva maqolasida Kuba va Meksika kinosi haqida, X.Abulqosimova maqolasida O'zbek kinomatografiyasi va unda "Hujum" harakati aks etishi haqida, T.Yoqubova maqolasida ekranlarda paydo bo'lgan yosh aktyorlar: S.Mo'ldaxonov, B.Matjonov, J.Fayziyev va B.Zokirovlar haqida, H.Kavlonov maqolasida Farg'ona viloyati kinoteatrlarida ro'y berayotgan kamchiliklar hususida, F.Rahimov maqolasida Amerika va SSSRning ideologik kurashlarining kinolentalarda aks etishi haqida, E.Amashkevich maqolasida konfliktsizlik nazariyasi hususida, H.Akbarov maqolasida O'zbek kinosi muammolari haqida, M.Qo'chqorov maqolasida O'zSSR madaniyat minstrligi kino ishlab chiqarish, kinolashtirish va kinoprokatidagi o'zgarishlar haqida boshqa ko'plab maqolalarda muhokama qilingan. Umuman olganda, qayta qurish davrida kino san'atida sezilarni burilishlar kuzatildi. Avvalo, yillar davomida ta'qiq ostida qolayotgan kinolentalarni namoyishiga ruxsat berildi. So'ngra kinoga bo'lgan davlat buyurtmasi qisqartirilib, senzuralar sekin-asta olib tashlana boshlandi. O'zini-o'zi moliyalashtirish tizimini joriy etilishi esa, qayta qurishning uchinchi bosqichi xususiy studiyalarning rivojiga turtki berdi. Har yili tashkil etiladigan xalqaro kinofestivallar odatiy tusga kirib, ittifoq respublikalari ekranlarida sotsialistik qardosh davlatlar kinolari namoyishi ommalashdi. Shu bilan birga, kino sohasidagi ba'zi kamchiliklar ham tobora chuqur ildiz ota boshladi. Jumladan, vatanparvarlik, matonat, sadoqat va ishchanlikni targ'ib etuvchi kinolentalar soni kamayib, tomoshabinni jalb etuvchi, ma'naviy jihatdan sayoz bo'lgan kino asarlar soni orta boshladi. Buning natijasida, davlat buyurtmasi asosida suratga olingan kinolarga bilet tushumlari kamayib, ularga bo'lgan

qiziqish sustlashdi. Ushbu holat mamlakatdagi iqtisodiy qiyinchilik davri, aholi o'rtasida bilet sotib olish uchun ortiqcha mablag' sarf qilmaslik oqibatida yanada chuqurlashdi.

Xulosa qilib aytganda teatr va kino san'atidagi asosiy o'zgarishlar 1986-yildan boshlangan bo'lib, KPSSning plenularida ko'tarilgan masalalar bilan chambarchas bog'liq. Avvalgi davrlarda farqli o'laroq, teatr va kinoni qayta qurish uchun katta safarbarlik e'lon qilingan. Chunki mamlakatdagi o'zgarishlarning amaliy namunasi sifatida madaniy o'zgarishlar ham namoyish qilingan. Qayta qurish davrining ikkinchi bosqichidan jadallashgan oshkoralik siyosati esa, mamlakatdagi madaniy uylar, klublar, teatrlar, turli san'at sohalaridagi real muammolarni ochiqroq yozib chiqilishiga olib keldi. Ammo ittifoqning iqtisodiy va sanoat sohasidagi muvaffaqiyatsizliklari madaniy sohalarni, jumladan, o'lib borayotgan teatr va kino san'ati yo'nalishlarini saqlab qolishga imkon bermadi. Bu davrdagi ijodiy holat sifatida esa, teatr va san'atdagi senzuraning kamayishi, ijodiy erkinlikning o'sishi, mahalliy pesalar va asarlarning sahnalashtirilishi ortishi, muzika va kinoda ham yangi janrlarning rivojlanishi ta'kidlab o'tish o'rinlidir.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI STEAM YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Tilavova Sayora Bekmuratovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida erkin izlanuvchisi,

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talabalarga ekologik ta'lim berish, STEAM ta'limi fanlararo va o'quvchilarni amaliyotga yo'naltirish fanlararo hamkorlik, ijodiy qobiliyatlarni namoyon qilish, sinfdan tashqari mustaqil ta'lim orqali fanlararo ekologik madaniyatini shakllantirish haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: STEAM, ta'lim, texnologiya, didaktika, savodxonlik, amaliy, yondashuv, ta'lim dasturi, loyiha, integratsiya.

XXI asr jahonda ta'limni modernizatsiya qilish va yangilash yo'llaridan biri bu STEAM ta'lim tizimini rivojlantirishdir. Uni amalga oshirishning asosiy maqsadi o'qituvchi va talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligini hisobga olgan holda STEAM tarmoqlari o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish asosida, texnik va tabiiy fanlar ta'limini rivojlantirish orqali bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilar imkoniyatlarini kengaytirishdir[1]. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari zamonoviy bilim va ko'nikmalarini egallashga yordam berish uchun ko'proq haqiqiy hayot muammolarini hal qilishga qodir. STEAM fan, texnologiya, muhandislik va matematika ta'limi boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarga tushunchalarni yaxshiroq tushunishga, muammolarni hal qilish kabi Shunga qaramay, sinfda integrativ yondashuvni qanday qo'llash mumkinligi noaniqligicha qolmoqda. boshlang'ich ta'lim yo'nalishi ta'limi dasturlarida ham integratsion

yondashuvning etishmasligi mavjud. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarni tayyorlash ko'pincha fanlararo diskret mantiqiy tahlil orqali dunyoni bilishga qaratilgan. Shuningdek BTY talabalari amaliyotlarni o'rgatish uchun ilmiy izlanish, texnologiya, dizayn va muhandislik bo'yicha keng qamrovli tayyorgarlikka ega bo'lmasligi mumkin.

Ushbu dolzarb muomani bartaraf etish uchun boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining ekopedagogik kompetentligini rivojlantirishda STEAM yondashuv orqali, BT darslarida integratsiyalashgan tarzda o'qitishga tayyorlash uchun BTMPM kursi joriy etildi. Kursning dizayni fanni o'qitish kontekstida ilmiy tadqiqot va dizayn tushunchalarini. BTY talabalari STEAM ta'lim faoliyati bilan shug'ullanadigan BTY talabalari ishtirok etdi.

Jumladan: Oliy pedagogik ta'limning hozirgi rivojlanishi tadqiqotning fanlararo integratsiyalashuviga bog'liq. Fanlararo integratsiya tanqidiy fikrlashga ega bo'lgan va fanlararo muammolarni, shuningdek, turli xarakterdagi muammolarni hal qilishga qodir bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash uchun asosdir. Ushbu tadqiqotning maqsadi fanlararo integratsiya va pedagogik malakani baholash talablarini hisobga olgan holda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning kasbiy tayyorlash metodikasini yangilash yo'llarini topishdan iborat[2].

Ilg'or fanlararo ta'lim texnologiyalarini tahliliy ko'rib chiqish STEAM ta'limiga e'tiborni qaratish imkonini berdi. Tadqiqot o'tkazilib, unda talabalarining tabiiy fanlar bo'yicha kompetentsiyalari hamda tanqidiy fikrlash rivojlanishi baholandi. Tadqiqot jarayonida, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar davomida Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalari tomonidan ham kasbiy, ham ilmiy va amaliy xarakterdagi fanlararo muammolar aniqlandi va yanada hal qilindi.

Shu bilan birga, STEAM ta'limi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarni uchun o'quv jarayonini loyihalashning asosi bo'ldi. Ushbu ish natijalari quyidagilarni ko'rsatadi: o'quv fanlari tarkibi va mazmuniga fanlararo vazifalarning kiritilishi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga yordam beradi, chunki o'quv jarayoni amaliyotga yo'naltirilgan va ilmiy xususiyatga ega bo'ladi[3]. Ilmiy-tadqiqot va amaliy yo'nalishning fanlararo vazifalari orqali amalga oshiriladigan universitet pedagogik ta'limi darajasidagi fanlararo integratsiya;

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning integratsiya tushunchasi bilan bog'liq manbalarni tahliliy ko'rib chiqish uning murakkab va o'zaro mustahkamlovchi xususiyatini ko'rsatadi. Har qanday o'ziga xos fanning rivojlanishi doirasida katta bloklar o'rtasidagi aloqani o'rnatadigan integratsiya mavjud. Ko'rinib turibdiki, bu aloqani ta'minlash doimo dolzarb bo'lib kelgan. Oliy pedagogik ta'lim tizimida mutaxassislarni tayyorlashning yangi modeliga nisbatan fanlararo aloqalar g'oyasi kontseptual bo'ladi. Ilm-fan ham, ishlab chiqarish ham turli kasbiy sohalarida va fanlararo fan sohalarida bilimga ega bo'lgan mutaxassislarni qidiradi. Oliy pedagogik ta'limning zamonaviy makonida kadrlar tayyorlash alohida o'rin tutadi. Bugungi kunda

kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirayotgan pedagogik ta'lim o'quv jarayonining tuzilishi va mazmunini shunday tashkil etadiki, yakuniy natija bitiruvchilar faoliyatining sifati, ularning kompetensiyasi bilan o'lchanadi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning sifat holati – uning pedagogik kompetensiyasini strategik qadriyatlar bilan bog'lash mumkin, ularning rivojlanishi milliy miqyosdagi vazifani-yuqori malakali xalq ta'limi xodimlarini tayyorlashda pedagogik ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Muammoning dolzarbligi pedagogik kadrlar tayyorlashning tarkibi va mazmuni yangi oliy ta'lim davlat standartlarini joriy etish natijasida sezilarli o'zgarishlarga duch kelmoqda. O'quv rejadagi bloklari fanlari sonining ko'payishi fanlarni o'rganish uchun ajratilgan o'quv soatlari soniga ta'sir qilmadi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning tayyorlash mazmunini ratsionallashtirish yechimlaridan biri fanlararo integratsiyani amalga oshirish ekanligini tushunish muhimdir.

Tadqiqotda kelajakdagi o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida fanlararo integratsiya masalasini o'rganishda ikkita asosiy muammo aniqlandi.

Birinchi, oliy ta'limda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarni tayyorlashda tabiiy va ilmiy, shuningdek, insoniy bilim sohalarini sintez qilishning ahamiyati ortib bormoqda.

Ikkinchi, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning butun davri davomida pedagogik texnologiyalar va integratsiyalashgan laboratoriya va amaliyotga asoslangan darslardan, shuningdek ma'ruzalardan foydalanish bo'yicha yangilanishlar.

Tadqiqot maqsadi, fanlararo ilmiy va amaliy muammolarni hal qilishda kasbiy kompetensiyalarni qo'llashga qodir bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga qaratilgan o'quv jarayonida erishilgan natijalarga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi fanlararo integratsiya talablarini hisobga olgan holda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi usullarini yangilash yo'llarini topishdan iborat.

Tadqiqotda Chirchiq davlat pedagogika universiteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari ishtirok etdi. Pedagogik ta'lim texnologiya va hayot xavfsizligi yo'nalishlari. O'qishning analitik bosqichi mantig'iga ko'ra fanlararo amaliy muammolarni hal qilishda kasbiy kompetensiyalarni o'rganish, taqqoslash, umumlashtirish amalga oshirildi. Dastlabki tajriba-sinov bosqichda talabalar o'rtasida so'rov o'tkazildi, shuningdek, integratsiyalashgan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar va ma'ruzalar joriy etilgandan so'ng o'quv faoliyati natijalari tahlil qilindi. Fanlararo integratsiya orqali talabalarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ko'rsatkichlari bo'yicha o'zgarishlar qayd etildi.

Shu bilan birga fanlararo kompetensiyalarning rivojlanish darajasini diagnostika qilish uchun statistik ma'lumotlarni olish bosqichida universitet

talabalari bilan kuzatishlar va suhbatlar o'tkazildi. Diagnostika usullari mazmunli, indikativ va baholashga bo'lingan. Har bir blokning o'z maqsadi bor.

Ushbu tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning fanlararo kompetentsiyasini rivojlantirishning turli darajalari ta'kidlangan. Fanlararo kompetentsiya motivatsiyasining o'ziga xos xususiyati sifatida muammoga qiziqishning mavjudligi, shaxsning bilim olishga yo'naltirilganligi va ularni amaliy qo'llash ko'rib chiqildi. Talabalarga berilgan savollar ushbu xususiyatlarni aniqlashni nazarda tutgan.

Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv g'oyasi kelajakdagi o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligining tarkibiy qismi bo'lgan fanlararo vazifada ifodalangan. Turli fanlararo vazifalarning yig'indisi ushbu mashg'ulot mazmunining yaxlitligini tashkil qiladi. Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar davomida nazariy asoslab berilgan va amalga oshirilgan fanlararo integratsiya bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi samaradorligini ta'minladi. Kasbiy va ilmiy faoliyatning fanlararo vazifalarini amalga oshirish fanni o'rganish jarayonida kasbiy va motivatsion vaziyatlarni ishlab chiqish kabi usullardan foydalangan holda amalga oshirildi; bilimlarni o'zgartirish. STEAM ta'lim texnologiyasiga asoslangan integrallashtirilgan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar va ma'ruzalar bo'lajak o'qituvchilarning o'quv jarayonini loyihalash vositasi bo'lib xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022 yildagi PF-134-son farmoni.

2. Yuldashovich K. A. Steam integrated educational technology in enhancing eco-learning effectiveness //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 11. – S. 01-05.

3. Arshanskiy, Ye.Ya. STEAM-obrazovanie: ot modeli k prakticheskoy realizatsii / Ye.Ya. Arshanskiy, N.S. Sologub // Adukasыya i vxavanne. – 2020. – № 9. – S. 22–30.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINI KASBIY-METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MODUL TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

To'rayeva Sharofat Boboyor qizi

Termiz davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada modulli-kompetentsiyaviy yondashuv doirasida ta'lim natijalarini baholash xususiyatlarga egadir. Birinchidan, baholash har bir ma'lum modul bo'yicha amalga oshiriladi. Baholash jarayoni o'quvchilar mazkur modul bo'yicha ifodalangan, talab etilgan kompetentsiyalarni o'zlashtirganliklari va mazkur kompetentsiyalar doirasida barcha talab etilgan hatti-harakatlarni amalga oshira olishlarini namoyon etishni yoki tasdiqlashni ko'zda tutadi. Ikkinchidan, baho mezonlarga

asoslanadi, bunda baholash mezonlari modulning faoliyat natijalarining atamalarida avvaldan belgilanadi va shakllantiriladi.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, ta'limiy faoliyat, ilmiy qonuniyat, kichik modul, kompetensiya, baholash mezonlari, ilmiy-texnik taraqqiyot

«Pedagogik texnologiya» tushunchasi fanga XX asrning 60-yillarida kirib kelgan. Ta'limga ilmiy-texnik taraqqiyotni joriy etish g'oyasi ta'limiy faoliyatga ilmiy qonuniyatlarga bo'ysungan yo'lga qo'yilgan ishlab chiqarishga qarash singari holatga olib keldi, oqibatda ta'lim va tarbiyani ommaviylashtirishga aylantirish, texnologiyalashtirish mumkin bo'ldi. Dastlab «pedagogik texnologiya» tushunchasi o'qitishda texnik vositalar va dasturiy o'qitish vositalarini qo'llash bilan bog'langan. Modul – ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'quv materialining hajmi, oldiga qo'yilgan maqsadi, bilimlarning mantiqiy bog'liqligi va fikrning tugallanganligidan kelib chiqib, ierarxiya pog'onalariga ajratilgan bo'laklari yoki modul – pedagogik texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo'laklarni ifoda etuvchi tushuncha. Bu tarkibiy bo'laklar, ya'ni modullar kichik modullardan hamda ularning turli miqdordagi to'plamlaridan iborat bo'ladi. Bunda kichik tarkibiy bo'lakni kichik modul, boshqalarini esa o'z ichiga qancha shunday modulni olishiga qarab o'rta va katta modullar deb ataldi. Modulli o'qitish texnologiyasi, majmuli yondashuvni ifodalaydi. Modul – bu o'quv axborotining mantiqiy ajratilgan bir qismi bo'lib, u bir butun va tugallangan mazmun hamda o'zlashtirish nazoratidan iborat. Har bir modul o'zaro bog'liq topshiriqlar yig'indisidan iborat bo'lib, maqsadga mos ravishda muntazam olib boriladi. Modul talabalarga umumiy faoliyatga kirishish, umumiy maqsad doirasida muntazam ongli ishlashga imkoniyat yaratadi. Modulli ta'lim o'quv materiallarining o'zaro uzviy bog'langan elementlardan iborat bo'lgan birikmani bildiradi.

Modulli o'qitishning maqsadi ta'lim maqsadi, mazmuni, usul va shakl hamda vositalarini talabaning ehtiyojlarini hisobga olgan holda muvofiqlashtirishdan iborat. Modulli o'qitishning asosiy vazifasi esa, tugallangan axborotlar blokini, o'quv dasturlarini to'la, qisqa yoki chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali bo'laklarga bo'lib o'qitish imkoniyatini yaratishdan iborat. Modulli o'qitishda, o'quv jarayonida talabalar modullardan tuzilgan o'quv materiallar bilan mustaqil ishlashadi. Natijada, loyihalangan pedagogik texnologiya asosi sifatida «Ona tili o'qitish metodikasi» fanini o'qitishning modul texnologiyasi tanlandi.

«Modul» (lotinchadan modulus, o'lchov) atamasi ko'pincha raqamli qonuniyatlarda va yaxlitni qismlarga ajratish bilan bog'liq aniq fanlarda qo'llaniladi. Bunda modul ostida quyidagilar tushuniladi: biror-bir alohida muhim koeffitsientga yoki kattalikka beriladigan nom; logarifmlar tizimining moduli; o'lchov birligi; arxitektura va qurilishda binolar komplekslari va ularning qismlarining ko'p o'lchovli nisbatlarini ifodalash uchun qabul qilingan dastlabki o'lchov; modulni qo'llash komplekslar, binolar va ularning

qismlariga muvofiqlikni ta'minlaydi, qurilishning unifikatsiyasi va standartlashtirilishini osonlashtiradi; bu mustaqil buyum ko'rinishida bajarilgan radioelektron apparaturaning unifikatsiyalangan funksional tarmog'i. Modul yordamida yaxlit va uning qismlari (elementlari) o'rtasidagi nisbatan aniq muvofiqlikni qayd etish – mazkur ta'riflardagi modulning pedagogik talqini uchun dastlabki jihat hisoblanadi. Pedagogik (hamda psixologik) fanda «modul» innovatsion tushunchalar toifasiga taalluqlidir. Faqatgina 1980 yillarning o'rtalaridan mazkur tushuncha kasblarning psixologik tasnifiga modulli yondashuvga asosan kasbga yo'naltirishda qo'llanila boshlandi. Kasb ta'limida kompetentsiyaviy yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra modulli-kompetentli hisoblanadi. A.K.Markovaning shaxsiy-vazifali modulli yondashuvi o'zida modulli o'qitishning innovatsion pedagogikasiga yo'l ochib, modulni yanada keng talqin etish imkoniyatini ifodalaydi. Agar modul insondan muayyan psixologik sifatlarni talab etuvchi kasbiy vazifa (kasbiy funktsiya) bo'lsa, unda ixtiyoriy, jumladan pedagogik kasbni eng sodda hosilalargacha tabaqalashishi («kubiklar») yoki aksincha yirik birliklar, supermodullarga («bloklarga») integratsiyalanishi mumkin bo'lgan modullar majmui sifatida ifodalash mumkin. Ta'lim oluvchilarning mazkur vazifa-modullarni egallashlari bo'lajak ish uchun zarur psixologik-kasbiy sifatlarni egallash bilan birga ta'lim, tarbiya jarayonini tashkil etadi. Falsafiy-metodologik jihatdan biz bunda Dekart tamoyillaridan biriga rioya etamiz: «men tomonimdan tadqiq etiladigan har bir qiyinchilikni imkoni mavjud bo'lgan qismlargacha ajratish, ularni yaxshiroq yengish uchun kerakdir». Tizimli metodologiyaga murojaat etib, ixtiyoriy tizimning modulliligi (bo'linishi, diskretligi) uning integrativlik (uzluksizlik, davomiylik) kabi ajralmas sifatidir. Bundan, pedagogik texnologiya o'z arsenalida integrativ va modulli o'qitish vositalariga ega bo'lishi kerakligi to'g'risidagi xulosaga kelish mumkin. Ularning umumiyliги ayrim tadqiqotchilar ishlarida o'qitish shakli nomida ifodalangan, masalan blokli-modulli. Modul (o'quv moduli) – ta'limiy dasturning bir qismi bo'lib, o'qitish hamda tarbiyaning belgilangan maqsad va natijalariga nisbatan muayyan mantiqiy yakunlanganlikka egadir. O'quv moduli muayyan tarzda tuzilgan bilimlar tizimining majmui ko'rinishidagi moslashtirilgan tushunchalar tizimini ifodalaydi. N.V.Bordovskaya va A.A.Rean ta'limni qurish va tizimlashtirishda chiziqli, kontsentrik, spiralsifat kabi uchta yondashuvlar qatorida modulli yondashuvni keltiradilar. Modulli yondashuvda ta'lim mazmunining yaxlit birligi sifatida har bir o'quv mavzusining butun mazmuni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha taqsimlanadi: a) metodologik yo'nalgan (dunyoqarashga oid); b) mazmunli-ifodali; v) operatsional-faoliyatli; g) nazorat-tekshirish. Barcha to'rtta bo'limlar uyg'un birlikni tashkil etishi kerakligi tushunarli. Mazmunli-ifodali yo'nalish bo'lajak pedagog muayyan metodologik-dunyoqarashga oid talqinda o'zlashtirishi kerak bo'lgan axborotga taalluqli. Operatsion-faoliyatli yo'nalish o'qish jarayonida nazorat va tekshirish, ya'ni ta'lim oluvchining faoliyatini baholashni ko'zda tutuvchi mutaxassis-o'qituvchi tomonidan egallanadigan

operatsiyalar, malakalar va ko'nikmalarga taalluqli. Mutaxassisning ma'lumotlilik va professionallikning quyi bosqichlaridan yuqori bosqichlarga o'tishi, bizning fikrimizcha, uning integrativ belgilangan maqsadi – oliy ta'lim, oliy va h.k. ma'lumot to'g'risidagi diplom olish uchun axborot va malakalar(modullari)ni egallash sifatida ifodanadi, shuningdek, u yoki bu modulning o'zlashtirilganligi – u yoki bu kasbiy funktsiyani amalga oshirishga tayyorlik to'g'risida guvohlik beruvchi alohida sertifikatlar bo'lishi mumkin.

L.D.Stolyarenko va S.I.Samigin tomonidan modulli o'qitishning didaktik talqini berilgan bo'lib, ular «modul – bu ta'lim oluvchilarning bilim va ko'nikmalarining nazorati bilan olib boriladigan o'quv materialining mantiqiy yakunlangan qismi» deb hisoblaydilar. Mazmunli-faoliyatli reytingda nafaqat materialni o'rganish, balki tajriba-sinovni amalga oshirish, masalalarni yechish ham baholanadi. Modul bo'yicha nazorat pedagogik texnologiyaning samaradorligini va talabaning o'qitishdagi muvaffaqiyatlarini ifodalaydi. Tizimga mantiqiy bog'langan o'quv modullari fanning asosiy mazmunini hosil qiladi. Mazmunning tushunchaviy asosi tezaurus deb ataladi. Tezaurus asosida savol va masalalar, modul bo'yicha ish ro'yxatlari tuziladi. Reyting nazoratining turlari va har bir topshiriqni bajarish uchun ballar miqdori ko'rsatiladi. Shu tariqa, talaba materialni egallashda o'z muvaffaqiyatlarini o'zi tahlil qilishi mumkin bo'ladi.

O.N.Oleynikova, A.A.Muravyova va boshqalar ta'kidlaganlaridek, modulli-kompetentsiyaviy yondashuv doirasida ta'lim natijalarini baholash quyidagi ikki xususiyatlarga egadir. Birinchidan, baholash har bir ma'lum modul bo'yicha amalga oshiriladi. Baholash jarayoni ta'lim oluvchilar mazkur modul bo'yicha ifodalangan, talab etilgan kompetentsiyalarni o'zlashtirganliklari va mazkur kompetentsiyalar doirasida barcha talab etilgan xatti-harakatlarni amalga oshira olishlarini namoyon etishni yoki tasdiqlashni ko'zda tutadi. Ikkinchidan, baho mezonlarga asoslanadi, bunda baholash mezonlari modulning faoliyat/vazifalari natijalarining atamalarida avvaldan belgilanadi va shakllantiriladi. Ta'limda modul texnologiyasini qo'llashning aniq tajribasi tadqiqotchilarga modullilikning mohiyati va uni pedagogik amaliyotda qo'llash imkoniyatlari to'g'risida qator ahamiyatli fikrlarni bildirishlariga imkon beradi. Masalan, A.N.Novikov va G.V.Bukalova mazkur texnologiyani yuqori samarali deb hisoblaydilar. «Modulli o'qitishning mohiyati talabalarning modul birliklarini izchil o'zlashtirishlaridan iboratdir». Modul birligi – bu o'quv materialining nisbatan alohida qismlari. Modul birliklarining majmui reyting nazoratiga asoslangan fanni o'rganishning modul dasturini shakllantiradi. Mualliflar uchun modulli o'qitish nazariyasining dastlabki printsiplari sifatida P.A.Yutsyavichenening g'oyalari xizmat qiladi. Mualliflar modulli o'qitish texnologiyasi kontekstli o'qitish (A.A.Verbitskiy) va ijodiy-loyihali o'qitish (O.Agapova, A.Krivosheev va A.Ushakov) kontseptsiyasiga asoslanib o'quv jarayonini tizimlashtirishda yuqori samara berishini ta'kidlaydilar. Talabalarning o'quv jarayonidagi faol ishtiroklari – modulli o'qitishning farqli jihati hisoblanadi. Modulli texnologiyaning mantiqi uning

o'zi o'quv jarayonini tashkil etishidan iboratdir. O'qituvchi tomonidan modulli birliklarda belgilangan o'quv maqsadlari talaba uchun shaxsiy mazmun kasb etadi. Shu bilan birga, bizning tajribamizga ko'ra, modulli texnologiyani qo'llash o'quv mashg'ulotlari jadvalida ko'p fanga oidlikni hamda ta'lim oluvchilarning ortiqcha yuklamalarini pasaytiradi, dars vaqtini kamaytiradi va oqibatda pedagoglar va ta'lim oluvchilarning salomatliklari zaxirasini saqlaydi. Shu tariqa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy-metodik faoliyatiga mos ravishda uning kasbiy-metodik kompetentligigiga talablarning evolyutsiyasi oliy ta'lim muassasalarilarida bo'lajak o'qituvchining u yoki bu kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishni ta'minlovchi pedagogik sharoitlarni tizimli qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Biz oliy ta'lim muassasalari talabalarining (5111700 - «Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish» yo'nalishi) kasbiy kompetentliklarini rivojlantirish sharoitlarining kontseptual, mazmunli, tashkiliy-texnologik, yordamchi kabi to'rt guruhini ajratdik. Kontseptual sharoitlarga oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonining maqsadli, mazmunli, amaliy kabi barcha darajalarida shaxsiy yo'nalganlik ham hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonining shaxsiy yo'nalganligi yuqori malakali, rivojlangan, o'z fuqarolik burchini anglaydigan mutaxassisni tayyorlashning ustuvorligida ifodalanadi va o'qituvchi hamda talabaning sub'ekt-sub'ektlilik munosabatini ta'minlashni ko'zda tutadi. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchisining modeli sifatida tadqiqot davomida ishlab chiqilgan boshlang'ich sinf o'qituvchisi professiogrammasidan foydalanish, uning muhim qismi murakkab tuzilmaga ega bo'lgan boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy kompetentligi hisoblanadi. Mazmunli sharoitni oliy ta'lim muassasalari uchun maxsus tayyorlangan «Ona tili o'qitish metodikasi» o'quv-metodik majmuasidan foydalanish olinsa, tashkiliy-texnologik sharoitlarga o'quv jarayonida kasbiy faoliyatni modellashtirishning pedagogik texnologiyalaridan foydalanish olinadi. Mazkur texnologiyaning mohiyati, talabalar o'qish jarayonida maxsus tashkil etilgan sharoitlarda kasbiy faoliyatni amalga oshiradilar. Bunday texnologiya bo'lajak kasbiy faoliyat imitatsiyasini tashkil etishga imkon beradi va shu bilan mutaxassisning hatti-harakatlari usullarini egallash imkoniyatini ta'minlaydi. Texnologiyani ishlab chiqishda o'quv kursiga talabalarining intellektual va amaliy malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan, yaxlit kasbiy faoliyatni hamda uning tashkiliy qismlari – xatti-harakatlar va operatsiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan topshiriq va mashqlarni kiritdik. Ta'lim oluvchilarni ta'lim jarayonida haqiqiy kasbiy-mehnat munosabatlariga jalb etish lozim. Mazkur shart-sharoit nafaqat nazariy tayyorgarlikdan, balki ta'lim oluvchilarning haqiqiy kasbiy-pedagogik amaliyotlari o'rnini bosa olmaydigan o'qitishning imitatsion-o'yinli shakllaridan chetga chiqishni talab etadi.

Oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonini loyihalar metodi, modellashtirish va o'yinli metodlar kabi o'qitishning faol usullaridan foydalanish talab etiladi. Yordamchi sharoitlarda oliy ta'lim muassasalari pedagogik jamoasini yangi pedagogik texnologiyalar bilan ishlashga o'rgatish

talab etiladi. Birinchi bosqichda bu tashqi konsultantlarni jalb etishni talab etadi. Bundan tashqari, pedagogik jamoaning ta'lim olishi va natijalar nazorati, shuningdek, o'qish uchun vaqt va ish joyini tashkil etish uchun mas'ul xodim (xodimlar)ni ajratish talab etiladi. Biz ajratgan pedagogik sharoitlar jumlasiga ma'lum amalga oshiriladigan yondashuvdan qat'iy nazar, muassasasining ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlash uchun majburiy hisoblangan sharoitlar kiritilmaganligini ta'kidlash lozim (masalan, ta'lim jarayonini yetarli moddiy-texnik ta'minlash yoki ta'lim jarayonining o'quvchilar salomatligini saqlashga yo'nalganligi). Tajriba-sinov ishlari boshlang'ich sinf o'qituvchilarining birinchi sinf o'quvchisini yozuvga o'rgatish qismida maxsus kompetentsiyalarini rivojlantirish bilan cheklanganligi sababli, belgilangan pedagogik sharoitlar majmuidagi tizim hosil qiluvchi element bo'lib, «Ona tili o'qitish metodikasi» fani, o'quv-metodik majmuasini va modulli o'qitish pedagogik texnologiyasini kiritish xizmat qildi. Pedagogika fani rivojlanishining tahlili, fan va amaliyotning zamonaviy talablariga javob beruvchi metodologik, didaktik va metodik ishlanmalar bilan ta'minlangan jarayongina samarali bo'lishini ko'rsatdi. Oliy ta'lim muassasalarining o'quv moddiy-texnik bazasi ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Aynan shuning uchun zamonaviy talablarga mos bo'lgan yangi darslik va o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish – oliy ta'lim tizimining dolzarb vazifasi hisoblanadi. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish – bu murakkab va sarmashaqqat ish hisoblanadi. Mazkur tadqiqot ishi doirasida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarilarda fanlarning maxsus metodikalarining dasturiy ta'minoti muammosi qisman hal etildi. Loyihalangan pedagogik jarayonda «Ona tili o'qitish metodikasi» nomli yozuvga o'rgatish metodikasi bo'yicha o'quv-metodik majmuasi markaziy metodik hujjat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UM Qarshiyevna Linguistic Views Of Mahmud Kashgari CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY 3 (12), 336-340 3 2022.
2. MU Karshiyevna Forming Concepts of Grammar and Word Formation in Primary Grades Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education 2 (4), 164-168. 2023
3. C Ra'no, MU Karshiyevna. Innovative Approach as a Condition for Improving the Educational Process in a Modern School Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education 2 (4), 117-120. 2023
4. HG Davlatmamatovna, MU Qarshiyevna Popular Scientific Texts in Elementary School Textbooks and Methods of their Study Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education 2 (4), 125-128. 2023
5. UK Muminova."PHYTONYMS IN THE WORK" MAHBUB UL-QULUB" "TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE" 1 (2), 46-50. 2023

6. G Ochildieva, MU Karshievna METHODS AND MEANS OF FORMING A POSITIVE ATTITUDE OF STUDENTS TO THE ENVIRONMENT IN THE EXTRACURRICULAR PROCESS. 2023

7. UM Qarshiyevna "MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'OTIT TURK" ASARINING PEDAGOGIKA TARIXIDA TUTGAN O'RNI.2023

8. MU Qarshiyevn "Lexical-Grammatical Characteristics of the Noun in Ancient Turkish Language"Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal 2 (1), 389-394.2023

IMOM AT-TERMIZIY TARBIYAVIY QARASHLARIDAN TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANISH MASALALARI XUSUSIDA

Uzoqova Malohat Shoymardon qizi

*TerDPI Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(boshlang'ich ta'lim)
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Imom at-Termiziy tarbiyaviy qarashlaridan ta'lim jarayonida foydalanish masalalari xususida tahlillar, ta'lim va tarbiya jarayonlarida hadislarning o'ri va uning bugungi kundagi ahamiyati haqida kerakli ma'lumotlar va manbaalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, hadis, pedagog, tarbiya jarayonlari, aksiologiya, innovatsion g'oyalar.

Tarbiya to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, shu o'rinda aytishimiz joizki hozirgi kunda zamonaviy tarbiya jarayonlarida hadislardagi tarbiyaviy mazmunning o'rni alohida ahamiyatga molikdir. Buning yaqqol misoli qilib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga binoan tasgkil etilgan Hadis ilmi maktablarini olishimiz mumkin.(1) Imom At-Termiziy muhaddislik faoliyatini tadqiq etish birinchidan, boshlang'ich sinf yoshlarda milliy qadriyatlarimizga bo'lgan qiziqishni orttirib, ikkinchidan, ularni tarbiyalash masalalariga mazmunan yondashish holatini vujudga keltiradi. Imom At-Termiziy hadislarida nafaqat islom dini rivojlanishining muammolari, balki tariximizning, millatimizning inson, hayot, turmush, oila to'g'risida shakllangan tushunchalarining mantiqiy tahlili mavjud.

Hadislarni izlash, bayon etish Imom at-Termiziy nazdida ulkan qomusiy kitobdir. Unda mavjud bo'lgan bebaho bilimlar, tasavvurlar faqatgina rivoyatlar bo'lib qolmay, balki yoshlar tarbiyasiga, ijtimoiy turmush madaniyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning amaliy to'plami - dastur amaldir. Hadislarda ilmlarni rivojlantirish, tarixiy bo'shliqni to'ldirish, jamiyat rivojiga hissa qo'shish manbalari yaqqol seziladi.

Mashhur muhaddis olim Abu Iso at-Termiziyning shaxsiy hayoti va barkamol ijodining har tomonlama o'rganilishi tufayli buyuk bobokalonimizning hozirgi davrimiz uchun ham o'rnak bo'ladigan ko'p ibratomuz hislatlarining guvohi bo'lamiz. Eng avvalo, at-Termiziyning

yoshligidan ilm-fanga g'oyatda chanqoqlik va zo'r havas bilan qiziqishi, bu borada har qanday qiyinchiliklarga ham bardosh berib o'z maqsadi, ya'ni o'z bilimini oshirish yo'lidagi jiddu-jahdi har qanday tahsinga sazovordir.(2)

Barcha davr uchun g'oyatda zarur hisoblangan payg'ambar alayhissalom hadisi shariflarini sobitqadamlik bilan yig'ish, ularni tartibga solib el orasida targ'ib qilishdek sharaflı vazifani zo'r ma'suliyat bilan ado etib, bu borada islom dunyosida tan olingan oltita mashhur muhaddislardan biri darajasiga yetish, chuqur bilimi bilan bir qatorda mashaqqatli mehnati har qanday ilm ahli uchun g'oyatda ibratli bir hol ekanligini alohida ta'kidlamoq zarur. Ma'lumki, o'z bilimini oshirish borasida at-Termiziy ko'pgana xorijiy mamlakatlarni ziyorat qilgan. Elma-el kezib, cho'lu-biyobonlar osha yo'lda yurib, safarda bo'lganida ham yoki bir joyda muqim turgan paytida ham har bir fursatni g'animat bilib roviylardan eshitgan hadislarini yig'ish bilan shug'ullangan. Ularni tartibli ravishda yozib qayd qilish bilan birga ushbu hadislarining qanchalik darajada sahih yoki zaif, mavzu ekanligini qayta-qayta tekshirib ilmiy ravishda aniqlagan.(3)

Bu borada o'zi ziyorat qilgan turli ellar va mamlakatlar olimlaridan ta'lim oldi, ilm-fan yo'lida ular bilan samarali hamkorlik qildi. Shu boisdan uning ustozlari orasida nafaqat termizlik, balki xurosonlik, iroqlik, hijozlik va nishopurlik olimlarni ham uchratish mumkin.(4) Shuning uchun ham unda deyarlik barcha fanlarning boshlanishi va rivojiga oid qimmatli ma'lumotlar bor. Bu ma'lumotlar antik diniy, tarixiy, axloqiy qadriyatlarining namunalari sifatida bugungi kunda ham ahamiyatga molik bo'lib, ma'naviy merosimizni o'rganish va yangidan kashf etishda bebaho manba bo'lib qolmoqda. O'zbek xalqining ikki nafar vakili Imomlar Al-Buxoriy va At-Termiziylar muhaddislik ilmining namoyondalari bo'lib, ularning ishlari tahsinga sazovordir. Shular qatorida ularning ilmiy merosidan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish masalalarining bir qator muammolari mavjud. Masalan, hadislar va ulardan dars jarayonida foydalanish bo'yicha bir qator o'quv qo'llanmalari, dars ishlanmalari yaratilgan, lekin ularning aksariyati hadislardan ta'limning ba'zi yo'nalishlarini rivojlantirish maqsadida namuna olish bilan yoki tarbiya mazmunini ochib berishda foydalanish bilan cheklanib qolgan. Umuman olganda esa ular uslubiy masalalarni kuchaytirishga qaratilgandir. Bu ibratli pand-nasihatlar va o'g'itlar hozirgi jamiyatimiz ahlini, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash o'rinlidir. At-Termiziyning asarlari faqat diniy ilmlar majmuasiga oid bo'lib qolmasdan, balki, dunyoviy ilmlarga oid ma'lumotlarga ham boydir. Masalan, uning bosh asari bo'lgan "al-Jome' as-sahih"da tarix, mantiq, huquqshunoslik, tabobat, ziroat va boshqa qator fanlarga oid ko'plab ma'lumotlarni ham uchratamiz.(5)

Arab tilini rivojlantirishda ham at-Termiziyning xizmatlari ulkan ekanligini zamonaviy olimlar qayta-qayta ta'kidlaydilar. At-Termiziy asarlarini o'rganish natijasida uning davrida diyorumizda ilm-fan qanchalik darajada taraqqiy qilganini ham tasavvur qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2018-yil 16-aprelda“ Diniy-ma`rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi farmoni. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekistonda-hadis-ilm-maktabini-tashkil-etiladi>
2. Ahmedov B. O`zbekiston tarixi manbalari (Qadimgi zamon va o`rta asrlar): Tarix muallimlari, talabalar va yuqori sinf o`quvchilari uchun qo`llanma. – T.: O`qituvchi, 2001. – 352 b.
3. Babashev F.A. Mutafakkirlarning pedagogik merosi va uning pedagogika fani rivojlanishidagi ahamiyati. – T.: Fan, 1995.
4. Bahodirov R., Rasulov D. Islom ilmining buyuk allomalari. – T.: A.Qodiriy nomidagi «Xalq merosi» nashr., 2000.
5. Norbutayev H.B. Knowledge of ecological content in pupils in interdiscipline for teaching biology. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECS) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I7.110 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 07 2022.-P.1032-1040.
6. Narbutayev H.B. Improving the knowledge of ecological content in pupils in interdiscipline for teaching biology. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECS) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I7.110 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 07 2022.
7. Norbutayev H.B. Specific features of interdisciplinary integration in teaching natural subjects. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com>. Impact Factor: SJIF.Vol.11,10.5958/2249-7137. 2021.00766.7. Issue 3, March 2021.- P.1123-1128.
8. Norbutayev Kh.B. Natural intersubjects formation of ecological thinking in school pupils. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) <https://www.tarj.in> ISSN: Impact Factor: SJIF 2021=7.699 10.5958/2278-4853.2021.00710.2. -P. 419-426. Mualliflik ishtiroki 100%.
9. Norbutayev Kh.B. Improving the knowledge of ecological content in pupils in interdiscipline for teaching biology. Current research journal of pedagogics (2767-3278), 2(10), <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crijp> 2021.02-10-03-P. 12-16. Mualliflik ishtiroki 100%.
10. Norbutayev Kh.B., Shonazarova S.R. Methodology of the development geographical concepts in school pupils. Web of Scientist: InternationalScientific Research Journal ISSN: 2776-0979 Impact Factor: 7.565 v olume 2, issue 12,december -2021-P. 341-34.
11. Norbutayev Kh.B. The essence of integration in primary education classes. European Scholar Journal (ESJ) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No.11, November 2021. ISSN: 2660-5562. -P. 39-42.
12. Норбутаев Х.Б. (2018). Развитие экологического мышления у школьников при изучение учебных материалов по биологии развитие экологической мысли учащихся по обучению биологии. Журнал

выпускается ежемесячно, публикует статьи по гуманитарным наукам. Подробнее на , 16.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI TARBIYA FANINI O'QITISH FAOLIYATIGA TAYYORLASH MAZMUNI

*Termiz davlat pedagogika institute katta o'qituvchisi
Xaydarova Mahliyo Xabibullaevna*

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada tarbiyaning obyektiv qonunlarini – o'quv tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va ijtimoiy hayotda insonlarning o'ziga xosligi va sifatlarini rivojlantirish, o'quvchilarda mavjud bo'lgan ilk tarbiya ko'rinishlarini yanada takomillashtirish o'qituvchilar, tarbiyachilar, murabbiylarning oldida turgan muhim vazifa ekanligi asoslangan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv faoliyatiga tayyorlash zaruriyati haqida so'z yuritilgan.

Tanch so'zlar: tarbiya, o'quv jarayoni, vazifa, o'quvchilar, pedagog, o'qitish, e'tibor, umumta'lim, boshlang'ich sinflar.

Kirish: O'zbekiston ta'lim tizimining barcha bosqichlarida xususan, maktabgacha ta'lim, umumta'lim maktablarida, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida tarbiya fani turli ko'rinishda o'qituvchi va murabbiylar tomonidan o'qitilib, ta'lim berib kelinmoqda. Prezidentimiz o'z nutqlarining birida ta'lim bo'g'inlarida tarbiya fanining ahamiyati o'rni va vazifalariga alohida to'xtalib o'tar ekan, jumladan, shunday ta'kidlagan edilar: "Bizni o'ylantiradigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgarayapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularni qalbida doimo aks sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya, va faqat tarbiya hisobidan. Zero, allomalardan qolgan gap bor, "ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib tasavvur etib bo'lmaydi. Mazkur gap naqadar haq ekanligini farzandlarimiz bilimli, tarbiyali, odobli bo'lib yetishganlarida, yurtga, elga nafi tegadigan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayganlarida anglab yetamiz.

Asosiy qism: Jahonda zamon talablariga mos metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan pedagog kadrlarni tayyorlash, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tarbiya fanini o'qitishga tayyorgarligini takomillashtirish mexanizmlari ta'lim jarayoniga tatbiq etib borilmoqda. Jumladan, Janubiy Koreyada o'tkazilgan Xalqaro ta'lim forumida 2030-yilgacha qabul qilingan "Incheon declaration"da "davlat tomonidan moliyalashtiriladigan, teng sifatli boshlang'ich va o'rta ta'limni ta'minlash", fan va ta'lim yutuqlarini o'quv materiallari mazmuniga singdirib borish, ta'lim sifatini baholash jarayoni va

vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, oliy ta'lim va umumta'lim muassasalarining didaktik imkoniyatlarini integratsiyalash bo'yicha yirik loyihalarni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan tizimli ishlar bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilmoqda. Jahon ta'lim muassasalari va tadqiqot markazlarida yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ularning munosib kasb-hunar egallashlari, ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish va kadrlar tayyorlashni zamon talabi darajasiga ko'tarish, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida ta'limni zamonaviy talablar asosida tashkil etish hamda mazmunan yangilash bo'yicha ham bir qancha ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga uzluksiz ta'lim tizimini fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish, raqobatbardosh o'qituvchining pedagogik faoliyatida metodik tayyorgarlikni kuchaytirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning normativ-huquqiy asoslari yaratilmoqda. "Davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, yurtparvar, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirgan, insoniy fazilatlarga ega yoshlarni professional kasb egasi sifatida tayyorlash, bu borada yangicha yondashuvlarni talab etadigan ta'lim-tarbiya usullaridan foydalanishda tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirishga bog'liq". Umumta'lim muassasalarida o'quvchilarining yoshiga xos psixo-fiziologik jihatlarini hisobga olgan holda ularda umuminsoniy qadriyatlar va barkamol ma'naviyatni, sog'lom tarbiyaviy muhitni chuqur singdirish, o'quvchilarni vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ma'naviy va tarbiyaviy ishlarni yangicha ko'rinishda tashkil etish ustuvor vazifalar etib belgilandi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tarbiya fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish va rivojlantirib borish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil yoshlar kuni munosabati bilan so'zlagan nutqida yoshlarni qo'llab-quvvatlash dolzarb ekanligiga alohida to'xtalib: "Umuman olganda, har qanday jamiyat taraqqiyotida ushbu jamiyatning kelajagi bog'liq bo'lgan yosh avlodning sog'lom va barkamol rivojlanishi hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Shuning uchun islohotlarimizni kengaytirish va samaradorligini yanada oshirish masalalarida biz zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan g'ayratli, tashabbuskor, har tomonlama rivojlangan yoshlarimizni o'zimizga tayanch deb bilamiz" degan edi. Shuningdek, mamlakatimizda yangi Uyg'onish davrining poydevorini shakllantirish uchun yangi Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy va

Boburlarni tarbiyalash uchun muhit va sharoit yaratish zarurligini ta'kidlagan edi.

Bugungi davrdagi eng ustuvor vazifalardan biri bu katta maqsadlarni belgilash va ularga yetishish yo'lida bilimli, salohiyatli yoshlarni tarbiyalashdir. Agar ushbu vazifalarni amalga oshira olsak, yoshlar xalqimizning azaliy orzularini ro'yobga chiqaradigan haqiqiy kuchga aylanadi. Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ulardagi tashabbuskorlik, kreativ fikrlashni rivojlantirish maqsadga eltuvchi asosiy vositadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Yoshlar forumida yigit-qizlarning dadilligi, bilimga bo'lgan ishtiyoqlari, jasur va qat'iyatligini ko'rib, bunday bilimli yoshlar bilan birgalikda yangi O'zbekistonni barpo etishga yana bir bor ishonch hosil qilganligini ta'kidlagan edi.

Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xuddi mana shu maqsadga yo'naltirilgan. Zero, ushbu masala g'oyaviy nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun prinsiplariga to'la muvofiq keladi.

Ta'lim-tarbiyaga oid milliy merosimizni o'rganishning dolzarbligi nazariy jihatdan asoslidir. Xususan, uzluksiz ta'limning milliy modeli tamoyillari mohiyatan ta'limning milliy-ma'rifiy, milliy tarix, xalq an'analari, milliy merosimiz bilan uyg'unlikda olib borilishini anglatadi. Umuman ta'lim-tarbiyaning milliy modeliga ko'ra, ta'lim tizimini yangilash – tabiiy ravishda milliy merosimizni o'rganish va uni pedagogik tafakkur iste'moliga olib kirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

Ta'lim jarayoni dunyo bo'yicha turli mamlakatlarning yaqinlashuvi, tom ma'noda global, insoniyat sivilizatsiyasi taqdiri uchun hal etuvchi ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab omillar bilan belgilanadi. Bu omillar orasida yuzaga kelgan umumiy va milliy o'ziga xosliklar alohida ahamiyatga ega. Ta'lim - tarbiyaning muhim sohalaridan biridir. Bundan ko'rinib turibdiki, tarbiya inson rivoji va shakllanishi uchun zarur bo'lgan barcha omillarning asosidir.

Ta'limning noyob imkoniyatlari hozir nafaqat inson aqlini yangi tezkor imkoniyatlar bilan qurollantirish, balki uning ongini qayta qurish bilan bog'liq. Insoniyat sivilizatsiyasi rivojining yangi bosqichi insonning shakllanish jarayoni, shaxsiy fazilatlar, hayotiy maqsadlar va qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini o'zgartiradi. O'sib kelayotgan yosh avlod uchun ta'lim tizimi sifat jihatdan yangicha talablar qo'yadi.

Navqiron avlod davr ruhida ma'naviy kamol topib, buyuk ajdodlarimiz barhayot mevasidan oziqlanib, zamonaviy bilimlarni egallab, ularni ongi, shuuriga singdirib borilmas ekan, bizning o'z oldimizga qo'ygan ulug'vor maqsadlarimizga erishishimiz, nurli istiqbolimizni bunyod etishimiz ham qiyin. Mana shu bois ham yoshlar tarbiyasi, ularni barkamol insonlar etib shakllantirish, voyaga yetkazish masalasi har doim davlatimiz oldidagi birinchi darajali vazifalardan biridir. Ajdodlarimizning yaratuvchanligi shaxs manfaatlariga qaratilgan bo'lsa, ayni vaqtda mustaqil davlatimizda amalga oshirilayotgan barcha yangiliklar ham inson kelajagi uchun xizmat qilishi

ko'zda tutilgan. Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi va milliy meros asosidagi g'oyaviy uyg'unlik ta'lim-tarbiya jarayonida milliy merosning ma'naviy-ma'rifiy zaminlariga tayanish zarurligini ham anglatadi. Shu jihatdan olib qaraganda o'tmish allomalari, mutafakkirlarining ma'naviy meroslarini yosh avlodning tarbiyasidagi ahamiyati bugungi kunda ham g'oyat beqiyosdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, Markaziy Osiyoda tarbiyaga oid pedagogik qarashlarni rivojlanish tarixi o'rganilganda ta'limda turli usullarning amaliyotda qo'llanilganini ko'rish mumkin. Sharqda azaldan yosh bolalarni tug'ilganidan boshlab voyaga yetgunigacha ma'lum tartibda tarbiyalab borilgan. Bolalarni yakka tartibda o'qitishdan ko'ra jamoa tartibida o'qitilishi afzal deb hisoblangan. Bu uslubning ustunligi shundaki talabalar o'qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadi. Ular birga ta'lim olganlarida doimo bir-birlari bilan muloqotga kirishadilar hamda bu ularning tarbiyasi va nutqlarini rivojlantiradi. Ushbu holatdan shu narsa aniq bo'ladiki, tarbiya ijtimoiy hodisa bo'libgina qolmay, jamiyat a'zolarining o'zaro aloqalarini rivojlantiruvchi, tartibga soluvchi muhim asos ham hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nilufar Maxsudovna Koshanova. Umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini o'qitish: davr talabi, etiyoj va zaruriyat. 2022. Volume 3.

2. N.M.Koshanova Umumta'lim maktablarida sinf rahbarlari faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari(klaster endashuvi asosida)" //ped.fan.falsafa doktori diss.chirchiq,2022. -b.160.

3. Shaxnoza Xayitova ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda mustaqil ta'limning o'rni // academic research in educational sciences. 2021. №4. Url: <https://cyberleninka.ru/article/n/talim-tizimi-samaradorligini-oshirishda-musta-il-talimning-rni> (data obraçeniya: 03.02.2022).

5. Hayitova S. D., Abdulhayev I. A. O. Ta'lim muassasalarida va o'zbek oilalarida bolalar ma'naviyatini shakllantirishda kitobxonlikning o'rni //science and education. - 2022. - t. 3. - №. 2. - s. 796-802.

6. Daniyarovna H. S., Istamovich K. D., Ilhom U. The contents of students' independent education and methods of implementation //psychology and education journal. - 2021. - t. 58. - №. 2. - s. 1445-1456.

7. Makhliyo Haydarova. MODEL AND PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS CONDUCIVE TO THE FORMATION OF MANAGERIAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 7 No. 11, 2019 ISSN 2056-5852.

8. XAYDAROVA MAHLIYO XABIBULLAYEVNA. THE NEED TO TEACH THE SUBJECT OF EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL. International Conference onAdvances in Education,Social and Applied Sciences. July 9th, 2022.

9. XAYDAROVA MAHLIYO XABIBULLAYEVNA. THEORETICAL BASES OF PREPARATION OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR TEACHING THE SUBJECT OF EDUCATION. International Conference onAdvances in Education,Social and Applied Sciences. July 9th, 2022.

10. Haydarova Makhliyo Khabibullayevna. Scientific - Theoretical Fundamentals Of Improving The Methodological Training Of Future Primary School Teachers To Teach The Subject Of Education. Turkish Online Journal of Qualitative inquiry (TOJQI). Issue 10. 786-792

11. MH Khaydarova. DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMMUNICATION COMPEPENCIES IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. Восточно-европейский научный журнал. 37-39. 5-6 (57). 2020.

MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI BOLALARINI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORGARLIGINI BAHOLASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI.

*TerDPI Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi
Xolboyeva Gulnora Ulashovna*

Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sifatli ta'lim-tarbiya sharoitlarini yaratish maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy maqsadi hisoblanib, bunda bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligi, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish nazarda tutiladi. Bu o'z navbatida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga umumiy tayyorgarligini baholash jarayoni samaradorligini oshirish bilan bog'liq quyidagi vazifalarni hal qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini, shuningdek, bolaning rivojlanishi va uning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini kompleks baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tanlab olishni va ekspertizasini ishlab chiqilgan tartibga muvofiq o'tkazish;

- maktabgacha ta'limning muqobil shakllari, qo'shimcha ta'lim uchun uchun yangi o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- maktabgacha ta'limda fanlarni rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish, maktabgacha va umumiy boshlang'ich ta'lim izchilligining mazmun va protsessual komponentlarini optimallashtirish;

- maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiya hamda ta'lim darajasini oshirish, bolaning kelgusida o'zini o'zi muvaffaqiyatni namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishni nazarda tutadi.

Ma'lumki, bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasini baholash aniq maqsadga yo'naltirilgan, tizimli jarayon hisoblanadi. Bunda maktabgacha yoshdagi, xususan, maktabga tayyorlov guruhi bolalarining maktab ta'limiga umumiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar, umumiy tayyorgarlikni

shakllantirishning pedagogik-psixologik, fiziologik, ijtimoiy aspektlarini o'rganish, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, oila va maktabning mazkur jarayondagi imkoniyatlari diagnostikasi xulosalariga tayanib, maktabga tayyorlov guruhi bolalarining maktab ta'limiga tayyorgarligi quyidagi bosqichlarda kechishi aniqlandi:

I-bosqich. Bilish faoliyatiga motivatsion yo'nalganlik; ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi; kommunikativ ko'nikmalarning o'zlashtirilishi; "Men" konsepsiyasining anglanishi.

II-bosqich. Shaxsiy-faoliyatli yondashuvning qaror topishi; ijtimoiylashuv, tashabbuskorlik, guruhda ishlash, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchanlik, kommunikativlik; kabi shaxsiy sifatlarning rivojlanishi.

III-bosqich. O'quv (maktab) faoliyatiga bo'lgan qiziqishning shakllanganligi; ijodkorlik; bilish faolligi, ijtimoiy-shaxsiy faollik va shaxsiy o'sish, axloqiy tasavvurlarning shakllanishi, o'z-o'ziga baho berish; topshiriqlarni mustaqil bajarishi; hissiy barqarorlik.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, tadqiqot davomida maktabga tayyorlov guruhi bolalarining maktab ta'limiga tayyorgarligini shakllantirish va baholash jarayoni modelini ishlab chiqish va uni nazariy jihatdan asoslash vazifasiga alohida e'tibor qaratildi.

Keltirilgan bosqichlar samaradorligini ta'minlashning muhim sharti bu maktabgacha ta'lim tashkilotlarida umumiy tayyorgarlik jarayoniga ta'sir etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillarni asoslashda namoyon bo'ladi.

Ilmiy-pedagogik tadqiqot jarayonida olingan kuzatish va empirik tahlil natijalarini nazariy jihatdan tahlil etish, umumlashtirish natijasida maktabga tayyorlov guruhi bolalarining maktab ta'limiga tayyorgarligini shakllantirish va baholash jarayonining samaradorligi quyidagi omillarga asoslanishini aniqlandi:

- ijtimoiy omil - oila, maktabning bolaning maktabga tayyorgarligi borasidagi kutuvlari; oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktabning bolani maktabga tayyorgarligini shakllantirish va baholash jarayonidagi hamkorligi, Davlat talablarining bolalarni har tomonlama rivojlanishini baholashga yo'naltirilganligi, ijtimoiy institutlarning faol ta'siri;

- axborotli-ma'rifiy - ota-onalar, tarbiyachi-pedagoglar hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilarida bolalarni har tomonlama rivojlanishi borasidagi tasavvur va bilimlarning mavjudligi va o'zaro muvofiqligi; maktabning bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotidagi yutuq va tajribalariga tayangan ta'lim dasturlarini amalga oshirishi; individual-differensial yondashuv; bolalarni har tomonlama rivojlanish darajasini kuzatish va monitoringini olib borish, korreksion-variantiv dasturlar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish borasidagi pedagogik-psixologik va maxsus-metodik bilim, malaka va ko'nikmalar majmuasi;

- tashkiliy-metodik omil - innovatsion ta'lim turlari: shaxsga yo'naltirilgan, tabaqalashtirilgan ta'lim, interfaol ta'lim, hamkorlik ta'limi, dasturiy ta'lim, muammoli ta'lim, o'yin texnologiyalari, rivojlantiruvchi ta'lim

va boshqalardan maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish; ota-ona va tarbiyachilarning o'zaro hamkorligi; tarbiyalanuvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalariga egaligi, tarbiyalanuvchilarning maktab ta'limiga nisbatan ijodiy yondashuvlari, tarbiyalanuvchilar bilish faoliyatining ob'ektiv baholanishi;

- kvalimetrik omil - psixodiagnostik metodikalar bazasining mavjudligi; o'quv-axborot manbalari (takomillashtirilgan o'quv dasturlari, ma'ruza matnlari, metodik qo'llanmalar, ishlanmalar, media mahsulotlar), mashg'ulot jihozlari va ko'rgazmalar, raqamli texnologiyalarga asoslangan didaktik ishlanmalar, bolalarning individual rivojlanish xaritasi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalarining maktab ta'limiga muvaffaqiyatli tayyorgarligini shakllantirish qulay tashkiliy-pedagogik shart-sharoitni yaratishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Xasanboyeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. T.: Ilm-ziyo. 2012. - 144 b.

2. Haydarov B.M. O'quvchilarda kasbiy kompetensiyalarning shakllanishida o'quv texnologik xaritalarning o'rni. Kasb-xunar ta'limi. 2020. №3-31 b.

3. Мактабга тайёрлов гуруҳи болаларини мактаб таълимига тайёргарлигининг мазмуни ГУ Холбоева - Innovation in the modern education system, 2023

4. Болаларини мактаб таълимига психологик тайёргарлиги ГУ Холбоева - Новости образования: исследование в XXI веке, 2022

5. Формирование трудового воспитания у детей дошкольного возраста ГУ Холбоева, РЖ Окбоева - Евразийский научный журнал, 2018

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA 5-6 YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING VOSITALARI VA SHART-SHAROITLARI

*2022 *Xolmirzayeva O'g'iloy Murotali qizi*
Termiz Davlat Pedagogika Instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada 5-6 yoshli maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish, ekologik bilim berishning o'ziga xos xususiyatlari vositalari va shart-sharoitlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: tarbiyachi, tabiat, tabiat burchagi, o'yin, ekskursiya, mehnat, tarbiya, ekologiya.

Mavzuning dolzarbligi maktabgacha ta'lim muassasalarida 5-6 yoshli maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta'lim xususiyatlarini batafsil o'rganish zaruratidadir.

Ekologik ta'lim tabiatga va undagi barcha mavjud narsalarga ongli va to'g'ri munosabatni shakllantirishdir.

Ekologik tarbiyaning bosh maqsadi – maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhit va uning muammolari haqida ongli munosabatni hamda ular bo'yicha optimal yechimlar topish to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun bir qator vazifalarni hal qilishga to'g'ri keladi.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda ularning yashab turgan joyi (tabiati) va boyliklarini tejab-tergashga, ularni ongli ravishda muhofaza qilishga o'rgatish.

2. Ekologik madaniyatni shakllantirish. Bu, eng avvalo, oiladan boshlanmog'i lozim.

Agar bolada atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatni hurmat qilish muhimligi to'g'risida to'g'ri fikr shakllansa, u holda etuk yoshda bu qadriyatlar shaxsning axloqiy rivojlanishining asosini tashkil qiladi. S.N. Nikolaeva ekologik ta'lim bolaning shaxsiyatiga yo'naltirilgan rivojlanishining ikkita tarkibiy qismini o'z ichiga oladi, deb yozadi. Birinchidan, bu nafaqat tabiatga, balki kengroq ma'noda hayotga, uning barcha turlariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga hissa qo'shadigan muhim qadriyatlar to'plamidir. Ikkinchidan, ekologik ta'lim o'sib borayotgan shaxsning mentalitetiga ta'sir qilishi, fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan ijtimoiy-madaniy xususiyatlarni shakllantirishi mumkin. Aytish mumkinki, ekologik ta'lim tabiat olami bilan inson va jamiyat olami o'rtasidagi ko'priq.

Ikki tadqiqotchining fikr-mulohazalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, bola uchun ekologik ta'lim jarayoniga ham kiradigan o'quv jarayonining o'rni nafaqat bilimlarni to'plash va kengaytirishdan, balki bosqichma-bosqich o'rganishdan ham iborat. Qadriyatlarni tan olish funksiyalarining murakkabligi: jamiyatning murakkab aksiologik va deontik me'yorlariga yo'naltirilganlik, undagi o'z rolini idrok etish va o'z faoliyatini (o'yin ichidagi va tarbiyaviy) tushunish.

Tarbiyachi tomonidan mashg'ulot jarayonining umumiy yo'nalishi kontekstida ekologik ta'limni to'g'ri sozlash bilan bolalar ma'lumotni osonroq qabul qiladilar, ob'ektlar sonini, shuningdek ularning sifat va funksional xususiyatlarini eslab qolishadi. Shu bilan birga, ko'rish tamoyiliga rioya qilish uchun tarbiyachi maxsus texnologik vositalardan foydalanishi mumkin.

Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, to'g'ridan-to'g'ri bolalarda to'liq ekologik ta'limni rivojlantirish uchun tarbiyachi faqat rejalashtirilgan mashg'ulotlar dasturidan foydalanmasligi kerak, balki ularni bemalol to'ldirishi, qo'shimchalar kiritishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, maqsadli o'quv jarayoni bolalar va tarbiyachi tomonidan xatolar (global va mahalliy darajadagi ekologik ta'lim me'yorlarining buzilishi) ustida ishlash va ular sodir bo'lish sabablarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, bolalarning ekologik tabiat haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha bolalar bog'chasi

guruhlaridan tashqari mustaqil ishi doimiy ravishda shaxsiy va ijtimoiy rag'batlantirish bilan birga bo'lishi kerak, lekin rag'batlantirish ishning asosiy maqsadiga aylanmasligi kerak.

Aynan shu dinamika nafaqat maktabgacha ta'lim muassasasida, balki uyda ham ta'lim ishlarini imkon qadar muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi, bu esa bolalarning qulay muhitda o'sishiga imkon beradi. Shuningdek, ta'lim muassasasida ota-onalar ishtirokida o'tkaziladigan mashg'ulotlar, onalar va otalar misolidan foydalanib, yosh avlodga atrof-muhitga to'g'ri, ehtiyotkor munosabatni ko'rsatishga xalaqit bermaydi, balki yordam beradi. Bu qo'shimcha o'yinlar, guruh ichidagi mashg'ulotlar, master-klasslar va hatto piyoda sayohatlar bo'lishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishning quyidagi yo'llari mavjud:

- Mashg'ulotlar o'tkazish;
- Ekskursiya;
- Tabiat burchagi;
- Mehnat;
- O'yinlar;
- Kundalik hayot ishlari.

Kundalik hayotda kuzatish, o'yin, mehnat vaqtida bolalarning shaxsiy bilimlari yig'ilib boradi. Mashg'ulotlar ularni aniqlash va sistemalashtirish imkonini beradi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning xilma-xil yo'llari mavjud. Mashg'ulotlarning ayrimlarida boshlang'ich bilimlar shakllantiriladi. Buning uchun tarbiyachi kuzatish, rasmlarni ko'rish, badiiy asarlarni, hikoyalarni o'qish, diafilm va shunga o'xshashlarni ko'rsatishdan foydalanadi. Boshqa mashg'ulotlarda esa bilimlar aniqlanadi, kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi. Mashg'ulotlarda bu xildagi suhbatlar, didaktik o'yinlar, umumlashtiruvchi so'zlardan, bolalarning tabiatdagi mehnatidan foydalaniladi. Barcha guruhlarda mashg'ulotlarga qo'shimcha sifatida maqsadli sayrlar o'tkaziladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ta'lim berishning asosiy usullaridan biri ekskursiya hisoblanadi. Ekskursiya jarayonida bolalar tabiat to'g'risidagi aniq tasavvurga ko'rish, sezish, eshitish bilan idrok etish orqali ega bo'ladilar. Ekskursiya jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiat, undagi qonuniyatlar to'g'risida realistik tasavvurlar hosil bo'ladi. Bu jarayon orqali o'rganilgan tushunchalar keyinchalik bolalar egallaydigan ilmiy bilimlarning asosini tashkil etib, maktabda o'rganiladigan tabiiy fanlarni o'zlashtirib olishni osonlashtiradi. Tabiat haqidagi bilimlar bolalarga o'z vaqtida o'rgatilmasa, ularning tabiatdan noto'g'ri foydalanishiga olib keladi.

Ekskursiya bolalarni tabiatni o'ziga xos hodisa va voqealari bilan tanishtiribgina qolmay, balki shu bilan bir qatorda insonlarni tevarak-atrofdagi o'zgartiruvchi faoliyatining natijalari bilan ham tanishtirib boradi. Bu esa kishilarning yaratuvchanlik faoliyatiga hurmatini tarbiyalaydi va unda

ishtirok etish xohishini uyg'otadi, o'z o'lka tabiatidan, unda yashovchi mehnat ahlidan g'ururlanish hissini mustahkamlaydi.

Yuqorida tilga olingan barcha metodlar va usullar bolalarda tabiatga nisbatan qiziqish uygotadi, ularni yanada sinchkovlik bilan kuzatishga, kuzatayotgan narsa ustida chuqurroq o'ylashga, fikr, bilim doirasini kengaytirishga, har xil tabiiy voqea, hodisalarni so'z bilan chiroyli qilib to'g'ri ifodalab berishga o'rgatadi.

Tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorlik munosabatini, o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlikni tarbiyalash va shular orqali tabiatga qiziqish, vatanparavarlik, mehnatsevarlik, tabiatni saqlovchi va uning boyliklarini ko'paytiruvchi, kattalarning mehnatiga hurmatni tarbiyalash kabi vazifalarni amalga oshirishda tabiat burchagining ahamiyati kattadir. Tabiat burchagining muhim tomoni yana shundaki, uni bolalar har kuni ko'radilar. Tarbiyachi rahbarligida bolalar tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlarni sistemali ravishda kuzatib va parvarish qilib boradilar, Natijada o'simlik va hayvonot dunyosining rang-barangligi, ularning o'sishi va rivojlanishi, ular uchun qanday shart-sharoitlar kerakligi to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarni egallab boradilar. Tarbiyachi bolalarni solishtirma analizga o'rgatadi, ular o'rtasidagi umumiylik va farqlarni, ularga xos belgilarni bilib oladilar. Tarbiyachi bolalar diqqatini o'simliklarning chiroyli gullashiga, barglarining shakli va tusiga, akvariumdagi baliqlarning chiroyli ko'rinishiga va chaqqon harakatiga jalb etadi. Natijada bolalar bu go'zallikdan quvonishga o'rganadilar hamda ularning estetik didi o'sadi. Bolalar tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlarni tarbiyachi rahbarligida sistemali ravishda kuzatib, parvarish qilib borishlari natijasida ma'lum malaka va ko'nikmalarni ham egallab boradilar, ularga nisbatan barqaror qiziqish va g'amxo'rlik hissi uyg'onadi.

Bolalarning tabiatga mehr-muhabbatini o'simliklar va hayvonlarni parvarish qilish, ularni asrab-avaylash bo'yicha mehnat faoliyatlarini tashkil etish bilan birga qo'shib olib borish kerak. Tarbiyachi bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishini ularning yosh xususiyatlari, pedagogik, fiziologik imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda tashkil etadi.

Bundan tashqari "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida tashkil qilinadigan 5 ta rivojlantiruvchi markazlarning biri hisoblangan "Ilm-fan va tabiat" markazi ham bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini oshirish uchun mo'ljallangan. Ilm-fan va tabiat markazida tajriba sinov maydonchasida o'tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg'otadi va ularni yangi ixtirolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi hodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat markazi hamdir. Markaz faoliyati to'g'ri tashkil etilsa bolalar tabiat haqidagi bilimlarning 90% ini o'zlashtiradi. Markaz nafaqat bolalarda balki pedagoglarda ham qiziqish uyg'otadi. Hayotimiz davomida ishlatiladigan narsalarni qayerdan kelganligini, ulardan nimalar olinganligi haqidagi ma'lumotlar bolalarning o'z qo'llari bilan urug'larni

tuvaklarga sepish orqali unga suv qo'yishi va urug' unib chiqishi bola uchun juda qiziqarli holatlar sanaldi.

Mashg'ulotlar turli shakllarda olib boriladi va bularning ayrimlarida boshlang'ich bilimlar shakllantiriladi. Buning uchun tarbiyachi kuzatish, rasmlarni ko'rish, hikoyalar, ertaklarni o'qishdan, multimedia vositalaridan foydalanadi. Boshqa mashg'ulotlarda esa bolalarning bilimlari aniqlanadi, kengaytiriladi va chuqtirlashtirilgan holda o'rgatiladi. Mashg'ulotlarda asosan didaktik o'yinlar, umumlashtiruvchi so'zlardan, bolalarning tabiatdagi amalga oshiradigan mehnatidan foydalaniladi. Barcha guruhlarda mashg'ulotlarni yanada yaxshi natija berishi va qiziqarli muhitni tashkil qilish uchun sayrlardan foydalaniladi.

Didaktik o'yin ta'limning asosiy shakli hisoblanib, ta'limni yengil, tez va bolalar tomonidan oldindan mo'ljallanmagan bilimlarni o'zlashtirish shakliga aylanadi. Masalan, "Bu hayvonning nomi "Qizil kitob"ga kiritilganmi? Shu hayvonni top" o'yini. Tarbiyachi bolalarni doira shaklida turg'izib, hayvon nomini aytadi va koptokni biror bolaga otadi. Bola koptokni ilib olib, "Qizil kitob"ga kirgan yoki kirmaganligini aytadi. Tabiat muhofazasiga doir o'yin mazmunini ishlab chiqishda odamlarning o'zaro munosabatlari, ularning tabiiy muhitga insonparvarlik, g'amxo'rlik bilan munosabatlari markaziy o'rinda turmog'i lozim. Shuning uchun bunday o'yinlardan foydalanishda bolalarning yoshini hisobga olish, ularning yoshiga mos holda o'yinlar ishlab chiqish lozim.

Tarbiyachining bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berishda xalqimizning o'ziga xos milliy tarbiyasidan, ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil qilishdan o'rinli foydalanishi yaxshi natija beradi. Milliy tarbiyamizda suvni isrof qilmaslik bilan birga, yer, havo, tuproq ham muqaddas hisoblanadi. Bolalarga ekologik ta'lim berishda har bir bolaga 1 ta gul tuvakni parvarishlash topshirig'ini berish ham eng samarali usullardandir. Bunda parvarishlash usullarini o'rgatib, ularni shu gulni qanday parvarish qilyotganini nazorat qilib boriladi. Natijada bolalarda avvalambor mehr-shafqat tuyg'usi, tabiatga muhabbat shakllanadi. Bolalar gullarining qurib qolmasligi uchun qayg'uradi va uni parvarish qilishadi.

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tarbiyani rivojlantirish orqali ularning tabiatga bo'lgan mehrini, shakllantirish va kelajakda tabiiy fanlarni o'zlashtirishi uchun poydevor yaratiladi. Bolalarga ekologik tarbiya berishda va zamonaviy usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Mashg'ulotlar bolalarga ta'lim va tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Dasturda belgilangan bilim va malakalarni tarbiyachi ta'lim tamoyillari asosida bolalar o'zlashtira oladigan qilib tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 2020 yil 22 dekabrda 802-sonli qaroriga 1-ilova Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standarti.

2. “Илк қадам” Мактабгача таълим муассасасининг Давлат ўқув дастури- Тошкент – 2018 й.
3. Sh.M. Mirziyoyev-“Yangi O‘zbekiston Strategiyasi”-Toshkent-2021.
4. Kayumova.N.M.-“ Maktabgacha pedagogika.” T.: TDPU -2013 у. O‘quv qo‘llanma.
5. Sodiqova Sh.A.- “Maktabgacha pedagogika.” – T, 2018.
6. Hasanboyeva O., Tadjieva M., Toshpulatova Sh. va boshq. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. T.: Ilm-ziyo, 2012.
7. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. УЧЕБНЫЕ МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ СПОРТИВНО- ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ// Вестник науки и образования, 2021. № 9 (112). Часть 2. С.38.
8. D.A. Xodjiyeva, M.T. Sohibova, Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish yo‘llari. Ученый XXI века 2022. № 4 (85)
9. B.S. Matrizayeva Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishning shakllari va uning ahamiyati. “Science and Education” scientific journal // impact factor – 3.567 (SJIF) July 2022
10. Volosnikova T.V. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta’limi asoslari // Maktabgacha pedagogika. - 2005. - No 6. - S. 16-20.
11. Nikolaeva S. N. Bolalar uchun ekologik ta’lim nazariyasi va usullari: Proc. talabalar uchun nafaqa. yuqoriroq ped. darslik muassasalar. - Moskva: "Akademiya" nashriyot markazi, 2002. - 336 p.
12. Белова Е. А., Цвирко Н. И. Особенности экологического воспитания детей 5-6 лет в ДОУ. Молодой ученый международный научный журнал № 50 (340) / 2020.
13. ГУ Холбоева Мактабга тайёрлов гуруҳи болаларини мактаб таълимига тайёргарлигининг мазмуни - Innovation in the modern education system, 2023
14. ГУ Холбоева Болаларини мактаб таълимига психологик тайёргарлиги - Новости образования: исследование в XXI веке, 2022
15. ГУ Холбоева, РЖ Окбоева Формирование трудового воспитания у детей дошкольного возраста - Евразийский научный журнал, 2018
16. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA RIVOJLANTIRUVCHI TA‘LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. Аprobация, (2), 93-94.
17. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG‘ICH TA ‘LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA‘LIM TEXNOLOGIYALARINING O ‘RNI. In НАУЧНЫЙ ПОИСК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ (pp. 119-120).
18. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTERNET VA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. In Современные проблемы и перспективы развития педагогики и психологии (pp. 47-49).
19. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие творческого мышления у школьников начальных классов. Гуманитарный трактат, (24), 9-10.

KIMYOVIY ELEMENT VA BIRIKMALARNING MODEL ASOSINI HOSIL QILUVCHI TIZIMLI-TUZILMAVIY VA KONTEKSTLI YONDASHUVLARI

*_QarDU Kimyo-biologiya fakulteti
Noorganik kimyo kafedrası o'qituvchisi
Xolmurodova Laziza Erkinovna.*

Annotatsiya. Oliy ta'limda umumiy va noorganik kimyo kursining kasbiy-pedagogik yo'naltirilganligi hamda birikmalarning invariantli, subinvariantli va variativ komponentlarini tuzilmaviy tarkibi va taxlili, maqolada ana shu tamoyillar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kimyo, metodologiya, tizim, kasbiy va pedagogik, tamoyil, kompozitsiya va tahlil.

Model asosini hosil qiluvchi tizimli-tuzilmaviy va kontekstli yondashuvlar. Tizimli-tuzilmaviy yondashuvdagi ustivor qoidalarga muvofiq, noorganik moddalar va ular bilan bog'liq xossalarni tavsiflash xususiyatlari o'zaro muayyan darajada bog'liqlikka va muayyan iyerarxik tuzilmaga ega bo'lgan elementlarning yaxlit yig'indisini o'zida aks ettiradi. Bundan kelib chiqadiki, moddalar va ular bilan bog'liq xossalarni tavsif etishning umumlashgan holati ham murakkab iyerarxik tizim hisoblanadi. [1].

Kontekstli yondashuv g'oyalaridan foydalanish shuni anglatadiki, bunda bo'lajak kimyo fani o'qituvchilari ta'lim natijasida nafaqat OTMdagi kimyo fani mazmuni asosida, balki maktabdagi faoliyati davrida ham moddalar va ularning xossalarini tavsif etishning umumlashgan malakalariga ega bo'la olishlari lozim.

Taklif etilayotgan metodik tizim bir qator didaktik tamoyillarga asoslanadi. Mazkur didaktik tamoyillar orasidan eng muhimlari sifatida tizimlilik, fundamentallashtirish, kasbiylashtirilganlik, muntazamlilik, ko'rgazmalilik va muvaffaqiyatlilik tamoyillarini keltirish mumkin. [2].

Kasbiylashtirish tamoyili OTM pedagogi moddalar va ularning xossalarini tavsiflashning umumlashgan malakasini shakllantirishda nafaqat elementlar kimyosining OTMda o'tiladigan kursining mazmunini o'rganish va o'zlashtirishdan iborat yaqin maqsadlarni, balki ta'limning yetakchi maqsadlari, jumladan, OTM bitiruvchisining elementlar kimyosi sohasidagi yetarlicha kompetentligini shakllantirish hamda bo'lajak o'qituvchilarning moddalar, shu jumladan, maktab o'quv dasturida ko'zda tutilgan moddalar va ularning xossalari haqidagi bilimlar tizimini o'zlashtirishlarini, moddalar va ularning xossalarini tavsiflashni maktabda davom ettiriladigan faoliyatlarida tavsif eta olishlarini ta'minlashni ham hisobga olishlari lozim. [4].

Tizimlilik tamoyilini hisobga olishning mazmuni pedagog ta'lim jarayonini tashkil etishning barcha bosqichlarida o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri sifatida "moddalar va ularning xossalarini tavsiflash malakasini shakllantirishni davom ettirish"ni qo'yishi va mazkur maqsadga erishish uchun faoliyatni tashkil etishi lozim ekanligida namoyon bo'ladi.

Mazkur maqsad umumiy kimyo majmuasining “Moddalarning tuzilishi”, “Kimyoviy jarayonlar termodinamikasi”, “Eritmalarda kislota-ishqorli muvozanatlar” va shu kabi bo‘limlarni chiziqli o‘rganishda, shuningdek, “Noorganik birikmalarning muhim sinflari” mavzusining majmuaviy bilim va ko‘nikmalarining integratsiyalashuvida hamda elementlar kimyosini o‘rganishda ham qo‘yilishi zarur. [5].

Muvaffaqiyatlilik tamoyili. Pedagogning asosiy vazifalaridan biri talabalarning ta‘lim olishda muvaffaqiyatga erishishlarini ta‘minlashdan iborat. Talaba dasturda ko‘zda tutilgan materialni “o‘tib bo‘lmas to‘siq” sifatida qabul qilmasligi lozim. Pedagog ta‘lim vositalari, rag‘batlantirish, nazorat, tashkiliy shakllar va metodik usullar majmualaridan foydalanib, talabalarga rejada ko‘zda tutilgan o‘quv vazifalarini bajarish imkonini berishi, shu bilan birga, qo‘yilgan vazifa murakkab, ammo hal etib bo‘lmaydigan darajada emasligini ko‘rsatib berishi lozim. [6,7].

Moddaning turli ulushli miqdori, ya‘ni konsentratsiyasidagi fiziologik va toksik ta‘sirlarini hamda mazkur ta‘sirlardan himoyalanih yoki ularning oldini olish choralarini tavsiflab berish.

Biroq, o‘quv faoliyatining mo‘ljalli negizi sifatida moddaning tavsifi va uning tuzilmaviy tarkibidan iborat etib belgilangan invariant holatlar talabalarni samarali o‘qitish uchun yetarli emas. Bu yerda invariantli elementlarning subinvariantli tuzilmalari va variativ elementlarni ham alohida ko‘rsatish lozim bo‘ladi. [8].

Subinvariant – tuzilmaviy tarkibning invariantga nisbatan quyiroq darajada turuvchi o‘zagi (ichki tizim, invariantning komponenti) bo‘lib, u ham o‘z “invariantli o‘zagi”ga – subinvariantning subinvariantiga ega bo‘ladi. Invariant va subinvariant (subinvariantlar) tabaqaviy tarzda qurilgan tizim bo‘lib, biri-biriga qaramlik shaklidagi munosabatda bo‘ladi. Masalan, murakkab modda kimyoviy xossalarning invariant majmuasi uchun o‘z ichiga barqarorlik (termodinamik va kinetik), tuzilmaviy qayta quriluvchan (izomeriya, polimorfizm), oksidlanish-qaytarilish xususiyatlari, kislota-asosli xossalar, katalitik xossalar, elektrokimyoviy xossalar kabi qator subinvariant elementlarni olgan birinchi darajadagi subinvariantni ajratish mumkin.

Variativ element – aniq modda bo‘lib, muayyan kimyoviy jarayonda subinvariantlik xossalarining namoyon bo‘lishidir. Masalan, “Oksidlanish-qaytarilish xossalari” subinvariant majmuasi uchun oksidlovchilarning oksidlovchi xususiyatlarini turli moddalar va turli kimyoviy reaksiyalar misolida namoyon etib berish mumkin.

Ishlab chiqilgan metodikaning texnologik komponenti quyidagi o‘ziga xos jihatlarga ega:

- o‘qitishning jamoaviy hamda individual metodlariga tayanish, modellashtirish va tajriba singari metodik usullardan foydalanish, ta‘limning reproduktiv, tadqiqotchilik, taqlidiy metodlarini qo‘llash;

- modda va uning xossalarini tavsiflashning umumlashgan malakasini shakllantirish uchun o‘qitishning ochiq va rejali, axborot xaritalari, yo‘l

xaritalari, talabalarning mustaqil ishini tashkil etish bo'yicha o'quv qo'llanmalar, ma'lumotlar kitobi, internet orqali olingan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan maxsus vositalari majmuasidan foydalanish;

-moddalar va ularning xossalari invariantlar, subinvariantlar, variativ komponentlarni ajratib ko'rsatish orqali hamda matnli reja-xaritalar, tayanch tuzilmali-mantiqiy sxemalar yoki yo'l xaritalari yordamida tavsif etishni o'zida mujassam etgan o'quv faoliyatining muntazamlik va tashxisli xususiyatlarini namoyon qilish;

-rejali xatiralar, axborot xaritalari, tuzilmali-mantiqiy sxemalar, yo'l xaritalarini mustaqil holda tuzish, ularning muhokamasida faol ishtirok etish va himoya qilish;

-elementlar kimyosini o'rganish bo'yicha ma'ruza, amaliy va seminar dars mashg'ulotlarida hamda mustaqil ishni tashkil qilishda o'rganilayotgan mazmunni faqat o'zlashtirish uchungina emas, balki olingan bilim va egallangan ko'nikmalarni yangi vaziyatlarga tatbiq etishga zamin yaratuvchi muammoli o'qitish elementlaridan foydalanish. [6].

Ishlab chiqilgan metodik tizimning samaradorligini baholash mezonlari quyidagi omillarni o'z ichiga oladi:

-ishlab chiqilgan metodik tizimning 050101-"Biologiya mutaxassisligi ilova qilingan kimyo" ta'lim yo'nalishiga qo'yilgan standart talablariga muvofiqligi;

-noorganik moddalar va ularning xossalari haqidagi bilimlarning tizimlilik;

-modda va uning xossalari invariantlar va subinvariantlar asosida kasbiy jihatdan ahamiyatli, umumlashgan tarzda tavsif etish malakasining shakllanganligi;

-bilim, ko'nikma va malakalarning jarayonlilik, ularning singuvchanligi va saqlanuvchanligi.

Noorganik modda va uning xossalari tizimli tavsiflash malakalarining majmuasini shakllantirish - uzoq muddatga mo'ljallangan jarayon bo'lib, OTMdagi butun tahsil jarayonida bosqichma-bosqich va tizimli tarzda, ta'limning zamonaviy metolaridan foydalanilgan holda noorganik modda va u bilan bog'liq jarayonlarning ajratib ko'rsatilgan invariantli, subinvariantli, variativ xususiyatlari asosida amalga oshirilishi lozim. [10].

Tadqiqotlarimizning birinchi bobida keltirilgan ilmiy, ilmiy-uslubiy va o'quv adabiyotlarining tahliliga asoslanib, elementning invariantli tavsifi (yadrosi muayyan zaryadga ega bo'lgan atom, yuqori darajada umumlashganlik tushunchasi) quyidagi tizim ko'rinishida namoyon bo'ladi:

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. Зайцев О.С. Методика обучения химии: теоретический и прикладной аспекты. - М.: Владос, 1999. - 384 с.
2. Зорина Л.Я. Системность - качество знаний. - М., 1976. - 64 с.

3. Минченков Е.Е. Научно-методические основы отбора содержания и структурирования школьного курса химии: Автореф. дис. докт. пед. наук. - М., 1987.- 42 с.

4. Педагогика / Ю.К. Бабанский. - М.: Просвещение, 1988. - 478 с.

5. Подласый И.П. Педагогика. Т.1. - М.: Владос, 1999. - 576 с.84.

Зорина Л.Я. Системность - качество знаний. - М., 1976. - 64 с.

6. Скаткин М.Н. Проблемы современной дидактики. - М., 1980. - 96 с.

7. Шапоринский С.А. Обучение и научное познание. - М.: Педагогика, 1981. - 208 с.

8. Яблоков В.А. Содержанию обучения - системную организацию // Химия в школе, 1997. - № 4. - С. 15-19.

10. Стихова, А.М. Самостоятельная работа в системе взаимосвязи интегративного и дифференцированного подходов при обучении химии в вузе: [Текст]: монография / А.М. Стихова.- Новороссийск: ГМУ имени адмирала Ф.Ф. Ушакова, 2015. – 118 с.

“DIDAKTIK-METODIK KOMPETENTLIGI” TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI

Xolmurodova Nasiba

TerDPI 2- kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada didaktik ta’lim nazariyasi sohasidagi tadqiqotlar tahlillari mazkur davrda yuzaga kelgan didaktik kompetentlikning mohiyati va rolini aniqlash mazmunidagi kompetentsiyaviy yondashuvni amalga oshirishning asosiy yo’nalishlarini o’z ichiga olgan. Jumladan, didaktik kompetentlik har qanday insonning umummadaniy kompetentligi doirasida shakllangan kompetentsiyaviy sifatlar doirasida shakllangan asosiy komponent sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Kalit so’zlar: kompetensiya, didaktika, yondashuv, ta’lim tizimi, samaradorlik, metodika, didaktik faoliyat

O’zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirida moddiy omillar bilan bir qatorda, bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining didaktik-metodik kompetentligini rivojlantirish masalasi har qachongidan dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining didaktik-metodik kompetentligini rivojlantirish va ularni didaktik faoliyatga tayyorlash bugungi kun davr talablariga muvofiq amaliy faoliyat olib boruvchi kelajak avlod kadrlarni tayyorlash masalasiini davrning o’zi taqazo etmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasida islohotlar jarayonida ta’lim-tarbiya tizimini tubdan rivojlantirishda yosh-avlodning kelajagi uning barkamol kadr bo’lib voyaga yetish masalasiga to’xtalar ekan: “Har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta’minlaydigan yosh avlodning sog’lom va barkamol bo’lib voyaga

yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz" deb ta'kidlaganlarida ham kelajak avlod masalasi barcha davrlarda ham muhim ahamiyat kasb etishi bejiz emas.

Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining didaktik kompetentligi ustida ishlash jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv didaktik-metodik faoliyati bir qancha yo'nalishlarni amalga oshirish komponenti sifatida nomyon bo'ladi. Xususan, boshlag'ich ta'lim fanlarini amaliy o'rgatish, muntazam va izchil o'rgatish, namunalar va maxsus mashqlar asosida o'rgatish, turli xatolarning oldini olish va ularni to'g'rilash orqali bajarish kabi o'z ustida ishlovchi amaliy vazifalarni bajarish orqali singdirib borish vazifasi muhim o'rin tutadi. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, barcha o'quv fani dasturidagi mavzularni puxta o'zlashtirilishiga yordam beradigan, mustaqil fikr yuritish, fikrini erkin ifodalash, boshqalar fikrini tinglash, mulohaza yuritish, ulardan eng muhimlarini ajrata olish, o'z fikrini ilgari surish, uni dalillash, umumlashtirish va xulosalashga o'rgatish, o'qituvchining til materialidan foydalanishga qiziqish uyg'otish, unda amalda foydalanish ehtiyojini yuzaga keltirish, ta'lim samaradorligini oshirishning omili sifatida e'tirof etilayotgan ilg'or o'qitish usullari va mashqlar tizimini ishlab chiqish hozirgi kun talabi sifatida qaramolmoqda.

Demak, yuqorida keltirilgan didaktik talabalar asosida ta'limga bir qancha vazifalar yuklatiladi:

1) ta'lim jarayonini tashkil etuvchi o'quvchi va o'qituvchi shaxsiga o'quv faoliyati sub'ekti sifatida yondashish;

2) o'qituvchi va o'quvchining ta'lim jarayoniga ijodiy yondashuvini o'stirib, rivojlantirib borish;

3) o'qituvchilarning fanlarni o'qitishni takomillashtirilgan an'anaviy va noan'anaviy shakl, metod va vositalaridan foydalanish ko'nikmasi va malakasini oshirish;

4) dars loyihasining har bir bosqichi ustida ishlashni o'rgatish;

5) o'quvchilarning fanlarni amaliy o'zlashtirishlari uchun mashq topshiriqlarini bajarish, ta'lim usullarini rivojlantirish;

6) o'quvchilar faoliyatini, o'zlashtirish darajasini doimiy o'rganib borish, natijalarini tahlil qilish, yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish choralarini belgilay olishni singdirib borish.

Xususan, "ma'lum bir o'quv vositasining didaktik xususiyatlari deganda, ushbu vositaning nazariya va amaliy jihatdan boshqalardan farqlaydigan asosiy tavsiflari, belgilari tushuniladi. O'qitish vositalarning bunday tavsiflari etib, didaktik maqsadlarda ishlatilishi mumkin bo'lgan ularning tabiiy fazilatlarini hisobga olish zarur". Ta'lim jarayonida "o'qitish vositalarining didaktik vazifalari bu - ta'lim-tarbiyaning maqsadga erishish uchun foydalaniladigan shaxsiy vositalarning tashqi tuzilishidir deb ifodalgan.

Yuqoridagi keltirib o'tilgan fikr-mulohazalar asosida, fanlarni o'qitish jarayonida quyidagi vazifalarga to'xtalib o'tishimiz lozim:

- 1) fan-o'quvchi shaxsini fikr yurita olishga undashi kerak;
- 2) o'z g'alar fikrini anglashga o'rgata olish;
- 3) o'z fikrini og'zaki hamda yozma ravishda savodli bayon qila olishga yo'naltirish;
- 4) ta'lim falsafasi va tarixi nuqtai nazaridan kompetentli bo'lishga va pedagogika fani doirasida mustahkamlangan bilim, ko'nikma, malaka tushunchalariga izoh berisha olish sifatlarini shakllantiradi.

Jumladan, bilimlilik shaxsning kompetentli modeli sifatida hayot vazifalarining butun ko'lamini bajarishga ijtimoiylashuv, ta'lim, umumiy va didaktik tayyorgarlik mahsuli bo'lib, erkin insonparvar yo'nalgan tanlovni amalga oshirish, mas'uliyatli individ sifatida, o'zgaruvchan ochiq jamiyat bilan uzviy bog'liqda rivojlanish masalasidir. Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida «Didaktik kompetentlik» tushunchasining shaxs rivojlanishi, uning bilimliliigi va tarbiyaliligi natijasi sifatida «madaniyat» hodisasi bilan aloqadoril (O.Musurmonova, A.Hamroyev, R.Safarova, U.Masharipova, N.Muslimov, Ye.V.Bondarevskaya, B.S.Gershunskiy, A.M.Piskunov, Ye.V.Popova, N.Rozov va b.q.) lar tomonidan tahlil qilib o'tilgan

O.Musurmonova o'z tadqiqotlari doirasida ta'lim-tarbiyaning ahloqiy ong, vijdon, burch, mas'ulyat, hayo, g'urur kabi insonning fe'l-atvorini ichki boshqarish qurilishiga asoslanadi deb ifodalagan. Olim ahloqning mag'zini tashkil qiluvchi bosh qoida sifatida insonparvarlik, demokratizm, halol mehnat, o'zaro yordam, do'stlik, hamkorlik, o'zaro hurmat, baynalmilalchilik vatanparvarlik, tabiat va atrof muhitga diqqat-e'tibor, burch hissi hamda kamtarlik ko'zbo'yamachilik va yolg'izlikni inkor etish kabi insoniy sifatlarni kamol toptirish muhim o'rin tutadi deya ta'kidlagan. R.G.Safarova o'z tadqiqotlari doirasida o'quvchilarda didaktik kompetentlikni rivojlantirish talablarini V-VI sinf ona tili darslarida lug'at boyligini oshirish asosida o'quvchilar nutqini o'stirish komponentlarini oshirib borish kabi jihatlarni tadqiq qilish orqali shakllantirib o'tgan. N.A.Muslimovo'z tadqiqotlari doirasida kompetentlik va kompetentsyai tushunchalarining etimologik tahliliga to'xtalar ekan shunday deydi: kompetentlik bu – talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega didaktik faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni didaktik faoliyatda qo'llay olish qobiyati natijasidir. Demak, shu o'rinda «kompetentlik» tushunchasi mazmun – mohiyatiga to'xtalar ekanmiz, u ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: xususan, kompetentlik talabalarning shaxsiy sifatlari majmui hamda didaktika sohasining tayanch talablari sifatida namoyon bo'ladi.

N.Rozov o'z tadqiqotlarida didaktikada “kompetentlik” tushunchasining istiqbolli xususiyatini ta'kidlar ekan, uni o'z mazmunida insonning bilimi va amaliyotiga taalluqli yangi kashfiyotlar va ishlanmalarni o'zlashtirish bilan chambarchas bog'lab tahlil qilgan holda o'rganib o'tgan. Demak, dikaktikada umummadaniy kompetentlikni uch jihat bilan umumiy bog'lab o'rganish

muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan: mazmunli (madaniy mazmunda, ya'ni tushunish, munosabat, baholashning madaniy namunalardagi mavjud mazmun va mohiyatini, amlaga oshirish vaziyatini anglashning to'g'riligi); muammoli-amaliy – ya'ni, (o'quv jarayonida ilgari surilayotgan vaziyat muammosining tanishligi, mazkur sharoitdagi maqsad, vazifalar, me'yorlarni to'g'ri belgilash va samarali bajarishni ta'minlash masalasi); kommunikativ (mavjud o'quv vaziyatlarida va bunday o'quv vaziyatlar tufayli jarayonga mos bo'lgan madaniyatli muloqot va o'zaro munosabat namunalari hisobga olgan holda to'g'ri tahlil qilish, muloqotga kirisha olish qobiliyati sifatida talqin qilish kabi masalarga ajratgan holda o'rganishni taqozo etadi. Didaktikada kompetensiyaviy yondashuvning ta'lim-tizimida zaruriyati masalalarga to'xtalar ekanmiz avvalo, undan foydalanish, ta'lim tizimidagi kamchiliklar hamda uning jamiyat hayotidagi ehtiyojlariga mos yoki mos emasligini bartaraf qilish hamda ta'limning amaliyot bilan va jamiyat bilan haqiqiy ehtiyojlari o'ratidagi aloqadorligini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, didaktik ta'lim nazariyasi sohasidagi tadqiqotlar tahlillari mazkur davrda yuzaga kelgan didaktik kompetentlikning mohiyati va rolini aniqlash mazmunidagi kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlarini ajratishda yuqorida ko'rsatib o'tilgan uch komponent muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, didaktik kompetentlik har qanday insonning umummadaniy kompetentligi doirasida shakllangan kompetensiyaviy sifatlar doirasida shakllangan asosiy komponent sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: «O'qituvchi», 1996.
2. Hasanova A. O'quvchi yoshlar tarbiyasida rag'batlantirish va tanbeh mezoni. – T.: «O'zbekiston», 1996.
3. Bepalko V. P. Slagayemye pedagogicheskoy texnologii. – M.: Pedagogika, 1989. –192 s.
4. U.M.Karshiyevna. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarining pedagogika tarixida tutgan o'rni.
5. G.Ochildiyeva, U.K Muminova METHODS AND MEANS OF FORMING A POSITIVE ATTITUDE OF STUDENTS TO THE ENVIRONMENT IN THE EXTRACURRICULAR PROGRESS "TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE" 1 (2), 46-50
6. U Muminova.Important problems of uzbek anonymity in the works of Kasghari. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3 (9), 341-348
7. Muminova Umida Karshievna INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE " Ankara, Turkey 2023 46 PHYTONYMS IN THE WORK "MAHBUB UL -QULUB".
8. Umida Muminova Qarshiyevna. Central Asian Journal of Social Sciences and History (ISSN: 2660-6836.Linguistic Views Of Mahmud Kashgari.

NATIJAGA ERISHISHNI O'RGANISHNING METODOLOGIK VA PSIXOLOGIK TAHLIL

*TerDPI Psixologiya kafedrası o'qituvchisi
Xolturayev Asqarjon Panjiyevich*

Annotatsiya: Ushbu maqola bugungi kunda Xalq ta'lim vazirligi O'quvchilarning bilim darajasini aniqlash. O'smir o'quvchilar o'quv faoliyatining asosiy mazmuni bu psixologik barqarorlikdir, chunki ushbu baqarorlik hayotda va o'qishda xavf-xatar paydo bo'lganda, kutilmagan vaziyatlarida ishonchli harakat qilishning garovi sanaladi.

Kalit so'zi: O'quv faliyot, o'quv jrayoni , yuqori natijaga erishish , axloqiy va irodaviy xususiyatlar.

Bugungi kunda har qanday o'quv jarayoni muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'quv motivatsiyasi bo'lishi kerak. Hozirgi vaqtda olimlar ta'kidlaganidek, ta'lim jarayoni ishtirokchilarini rag'batlantirish muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu masala o'quvchilarni o'quv jarayonining asosiy ishtirokchilari sifatida tayyorlash uchun o'quv faoliyatida natijaga erishish bilan bog'liq bo'lgan muammodir.

"O'quvchilar uchun natijaga erishish-o'quv jarayonini takomillashtirishning eng samarali usuli: V.K.Starodubseva-motivlar o'quv jarayoni va materialni o'zlashtirishning harakatlantiruvchi kuchidir". Muallifning fikriga ko'ra, natijaga erishish motivatsiyasi-bu shaxsning ma'lum bir o'rganish mavzusiga ham, butun ta'lim jarayoniga munosabatini o'zgartirishning juda samarali jarayonidir. E.A.Kuzmin so'zlariga va Maslova T.M so'zlariga ko'ra: "O'quvchi uchun hayotda yuqori cho'qqilarga erishish va o'z-o'zini rivojlantirib borishi uchun doimiy muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi zarur hisoblanadi." Amerjanova Sh.K so'zlariga ko'ra, "Bugungi kunda o'quvchining muvaffaqiyati har bir inson hayoti samaradorligining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir.

O'quvchilarning natijaga erishish motivatsiyasi-bu ularni bilimga undash jarayonlari, usullari va vositalari, faoliyati, ta'lim mazmunini faol rivojlantirish. Tadqiqotchilarning fikricha, motivlar, hissiyotlar va intilishlar, qiziqishlar va ehtiyojlar, ideallar va munosabatlar to'plamida harakat qilishi mumkin.

Gorbunova K.Yu, Maslova T.M. "natijaga erishish motivatsiyasi insonning turli faoliyat va muloqotda yuqori natijalarga erishish istagi va muvaffaqiyatsizliklardan qochish, uning faoliyati va muloqotini baholash bilan bog'liq hayotiy vaziyatlarda muvaffaqiyasizlikka yo'l qo'ymaslik uchun doimiy istagi sifatida ko'rib chiqadi. E.A.Lejnevaning fikriga ko'ra, muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiyani rivojlantirish zarurligini asoslaydi, bu shaxsning professional strategiyasini shakllantirishga ta'sir qiladi.

Zvereva R.G-shaxsning raqobatbardoshligi maqsadlar va qadriyat yo'nalishlarining ravshanligi, mehnatga ijodiy munosabat, uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirishga intilish va boshqalar kabi fazilatlarning sintezini tavsiflaydi.

Muallifning fikricha, natijaga erishish motivatsiyasi harakatlantiruvchi va o'quvchi shaxsining raqobatbardoshligini rivojlantirish omilidir. "Natijaga erishish" tushunchasining zamonaviy ta'riflariga asoslanib (V.K.Vilyunas, V.I.Kovaleva, E.S.Kuzmina, B.F.Lomov, K.K.Platonov va boshqalar) o'quvchilarning motivatsion sohasi ma'lum bir ierarxiyaga ega bo'lgan doimiy motivlar to'plami sifatida tushuniladi va shaxsning yo'nalishini ifodalaydi.

Tadqiqotchilar A.N.Leontev, J.Atkinson, V.Jeyms, T.Dembo, N.Kuzmina, K.Levin, G.Myurrey, Xekxauzen, F.Xoppe o'zlarining ilmiy ishlarida natijaga erishish motivatsiyasiga ta'sir ko'rsatadigan ana shunday shaxsiy xususiyatlarni o'rganishga qaratilgan. Masalan, o'z-o'zini hurmat qilish va intilishlar darajasi. A.N.Leontev natijaga erishish uchun motivatsiya shaxsiy xususiyatlarda namoyon bo'ladi, deb hisoblaydi.

Psixolog olimlar individual xulq-atvor strategiyalarining o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi, ularning aksariyati bolalik davridayoq o'zini namoyon qiladi va hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiya parametrlari bilan bog'liq holda kechadi.

Psixolog E.P.Ilinning ta'kidlashicha, shaxsiy xususiyatlar muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiya xususiyatlariga ta'sir qiladi va natijaga erishish xususiyatlari mustahkamlanib, shaxsiyat xususiyatlariga aylanadi. Shu bilan birga, tadqiqotchilar natijaga erishish motivatsiyasining rivojlanishiga asosiy ta'sirni o'z-o'zini boshqarish qobiliyati va o'z-o'zini samaradorligi g'oyalari kabi shaxsiy xususiyatlarni belgilaydi.

B.S.Mnasakanyanning yozishicha, o'quv faoliyatidagi o'smir o'quvchining eng muhim pozitsiyasi birinchi navbatda, maqsad va motivatsiyani mustaqil ravishda belgilash, o'zgaruvchan sharoitlarda harakat usullarini to'g'ri tanlash, faoliyat natijasini mustaqil baholay olish kabi qobiliyatlarni o'zlashtirish bilan xarakterlanadi. Bunday yondashuv, o'smir o'quvchilarda quyidagi shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi: mustaqillik, mas'uliyat, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, o'z ustida ishlash qobiliyati, hissiy altruizm (boshqalarning manfaatlarini o'z manfaatidan ustun quyish, o'zini baxshida etish, yuksak burchlarni his etish hamda yuqori vatanparvarlik tuyg'ularidir.

O'quv faoliyati natijalarga erishishning psixologik qoidalari ham e'tiborga olinib, unda mashg'ulotlarni samarali kechishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan, ma'lum darajada o'qituvchi tomonidan ongli ravishda tuzilgan, yuqori natijalarga erishishni o'z ichiga olgan, tashqi vaziyatlar alohida e'tiborga olinadi. O'quv faoliyatida natijaga erishishni belgilovchi omillarning ichida, o'zlashtirish motivlari alohida ahamiyat kasb etib, u portchi shaxsining o'ziga xos sifatlari bilan tavsiflanadi. V.R.Malkinning so'zlariga ko'ra, o'quv motivatsiyasi "o'smir o'quvchi shaxsining o'ziga xos holati, uning qobiliyatlari va imkoniyatlari natijasida shakllanadi, bu keyinchalik, yuksak maqsadlarni belgilash va amalga oshirish uchun asos sifatida xizmat qiladi. Ya'ni, o'quv faoliyatidagi eng yuqori yutuqlar – maxsus yo'naltirilganlik va natijalarining sub'ektiv ahamiyati, raqobatning jiddiyligi va o'quv musobaqalaridagi chiqishlarning ommaviyligi yuqori hissiy topshiriqlarni bajarilishi kabilar

tavsiflanadi. Umuman olganda, yutuqlarga erishishning davomiyligi va samaradorligiga ko'proq, shaxsning motivatsion sohasi eng muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy tadqiqotchilar natijaga erishishning hal qiluvchi omillari bo'lgan eng muhim shaxsiy fazilatlarni aniqladilar. Shunday qilib, Karpova E.V., Afanaseva A.S natijaga erishish motivatsiyasi, o'z- o'zini tartibga solish va ta'lim motivatsiyasi o'quvchilarning individual xususiyatlariga, eng yaqin mos yozuvlar guruhining tabiatiga, o'quvchilar jamoasining rivojlanish darajasiga bog'liq deb hisoblaydi. Jerdeva L.A. natijaga erishish motivatsiyasining o'z- o'zini anglashning yaqinlik, o'ziga ishonch, o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi qadrlash, ichki ziddiyat va o'zini ayblash kabi tarkibiy qismlari bilan o'zaro bog'liqligi aniqlandi. Fokina I.V. natijaga erishish uchun motivatsiya darajasi va o'quvchilarning sotsiometrik holati o'zaro bog'liq deb hisoblaydi. Timofeeva O.V. natijaga erishish uchun motivatsiyaga ega bo'lgan o'quvchilar martaba qadrini tan olishlari va uni hayotning asosiy maqsadlaridan biri deb bilishlari aniqlandi, bu esa muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik uchun aniq motivatsiyaga ega bo'lgan o'quvchilardan farq qiladi.

V.R.Vinevskiyning qarashlariga ko'ra, umumta'lim maktablarida muvaffaqiyatli pedagogik faoliyat olib borish uchun, avvalo, o'smir o'quvchilarda empatiya (hamdardlik) hissiy yaxshi shakllangan bo'lishi lozim. Chunki, boshqalarning hissiyotlari haqidagi bilim, boshqani tushunish, biror hodisa va yangilikni boshqalar bilan baham ko'rish bu, empatiya tushunchasi mazmuniga tegishli hisoblanadi.

Адабиётлар:

1. Маслоу А. Мотивация и личность / А. Маслоу. – СПб.: Питер, 2008.
2. Роджерс К. Фрейберг Дж. Свобода учиться М.: Смысл, 2002.
3. Парсонс Т. Структура социального действия / Гл.
4. Персоне Т. О структуре социального действия. М.: Академический Проект, 2000.
5. Серова Л.К. Психология личности / Л.К. Серова. – М.: Советский спорт, 2007.
6. Горская Г.Б. Психологическая теория учебной деятельности: актуальные направления развития / Г.Б. Горская Теория и практика физической культуры. Научно-теоретический журнал. - 1999.
7. Яковлев Б.П. Основы психологии / Б.П. Яковлев. - М.: Советский спорт, 2014.

MILLIY TARBIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA ETNOPELAGOGIK MANBALARDAN FOYDALANISH USULLARI

*Xo'shboqova Oysuluv Xudaymurot qizi
TerDPI magistranti*

Xalqimizning madaniy-ma'rifiy taraqqiyoti asrlar davomida rivojlanib, takomillashgan va bu jarayonlar xalq pedagogikasida o'z aksini topa borgan.

Demak, xalq pedagogikasi xalq ommasining turli davrlar mobaynida turmush faoliyati jarayonida to'plagan boy tajribalari, axloqiy, ma'rifiy, ma'naviy yetuklik borasidagi qarashlari va xulosalarini ifodalaydi, etnologiya, etnografiya, etnopsixologiya va etnopedagogika, qadrshunoslik, qadimshunoslik (arxeologiya), udumshunoslik va xalq og'izaki ijodining barcha yo'nalishlarini qamrab oladi, ulardagi axloqiy-ma'rifiy g'oyalarini o'rganadi.

Xalq pedagogikasi asrlar davomida minglab avlodlarni tarbiyalash jarayonida yuzaga kelgan ilg'or axloqiy g'oyalar va tajribani o'zida umumlashtirgani uchun faqat tarixiy-madaniy qadriyat sifatidagina emas, balki zamonaviy ta'lim- tarbiya tizimini takomillashtirishda ham muhim ahamiyatga egadir. Jamiyatimizda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligi darajasini oshirishni taqozo etayotgan bir paytda ta'lim-tarbiya borasida xalqimiz yaratgan pedagogik qarashlar va g'oyalar, milliy odob-axloq an'analari, milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi xalq pedagogikasini ilmiy o'rganish, puxta tahlil qilish va hayotga tatbiq etish hamda kelgusi avlodga yetqazish bugungi kunning muhim va dolzarb masalasidir.

Xalq pedagogikasi fanining mazmun-mohiyati, tadqiqot obyekti, manbalari, maqsadi va vazifalari, jamiyatimiz hayotida ushbu fanning tutgan o'rni va amaliy ahamiyati keng qamrovli yoritilgan. Ishimizda xalq pedagogikasi manbalariga kiruvchi xalq og'izaki ijodi janrlarining tarbiyaviy ahamiyati, milliy urf- odatlar, an'analar, udumlar, xalq o'yinlari va o'yinchoqlari, bayram va marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o'rni, xalq pedagogikasida oila tarbiyasi, yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari, islom dinining odob-axloq, ilm-fan haqidagi ta'limotlari, xalq pedagogikasida xalq amaliy san'ati va hunartnandchiligi, milliy me'morchilik, milliy musiqa, qo'shiqchilik, raqs san'ati va milliy teatrlarning axloqiy tarbiyadagi o'rni, o'zbek xalqining muomala madaniyati, axloqiy me'yorlari, xalq pedagogikasida tabiat va inson munosabatlari, sog'lom turmush tarzi masalalari alohida boblarda o'z aks ini topgan.

Xalq pedagogikasining tarbiyaviy va didaktik imkoniyatlari va xalq tarbiyaviy an'analardan o'quv-tarbiyaviy jarayonda foydalanish masalalari ham yoritilgan.

O'tmishning buyuk pedagoglari xalqning pedagogik qarashlari va pedagogik tajribalarini o'rganishga juda ko'p e'tibor berganlar. Klassik pedagoglarning ta'kidlashicha, xalq pedagogikasi tarbiya haqidagi fanni boyitadi, uning tayanchi va asosi bo'lib xizmat qiladi. Xalq pedagogikasi o'z navbatida etnopedagogikaning predmetidir. U pedagogik fanlarning yuzaga kelishi va rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Badiiy adabiyotning yaratilishi bilan og'izaki ijod bartaraf etilmagani kabi pedagogikfanlar ham xalqning kundalik hayotidan pedagogik qarashlarini siqib chiqara olmadi. Pedagogik fanlar va xalq pedagogikasi o'zaro munosabatga kirishdi, bir-birining rivojlanishiga yaxshi ta'sir qildi va buning natijasi ommaviy pedagogik

madaniyat vujudga keldi. Xalqlarning pedagogik madaniyati bilan juda qiziqqan rus yozuvchisi V.G.Belinskiy: «Har bir millatning o'ziga xosligi, asosan faqat shu millatga xos dunyoqarash, din, til, urf-odatlar va an'analardir», - deydi. O'tmishda yig'illan ma'rifiy boyliklarni buyuk faylasuf Gegel «o'zidan kuch taratuvchi ona yer» bilan taqqoslagan. Uning ta'kidlashicha, «ilm-fan va ta'limning har bir yangiligi uning qadimiylikka murojaatidan kelib chiqadi». Demak, madaniyatning, jumladan pedagogik madaniyatning an'anaviyligi xalqlarning yuqori madaniyatining muhim belgisidir. Buyuk alloma Abu Nasr Forobiy: «Xalqlarning o'z qadimiy madaniyatiga e'tibori va qiziqishning uyg'onishi ularning xaqiqiy donoligidan dalolatdir», - deydi. Demak, xalq pedagogikasi xalq ommasining turmush faoliyati jarayonida to'plangan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan tarbiya borasidagi tajriba va bilimlari yig'indisidir.

Folklorshunos T.Mirzayev ta'rifi bilan aytganda: «Xalqimiz antik davr va o'tgan asrlarning klassik epopeyalari - «Iliada» va «Odissey», «Maxobxor» va «Ramayana», «Igor jangnomasi» va «Shohnoma», «Manas» va «Jangar» kabi shoh asarlar bilan bellasha oladigan va ular bilan teng turgan hayratomuz dostonlarga, rang-barang ertaklarga, xalqning hayot tajribalarini o'zida mujassamlashtirgan ajoyib maqol va matallarga, juda ko'p topishmoqlar, latifalarga egaki, bular ma'naviy boyligimiz, zo'r iftixorimizdir». O'rta Osiyo xalqlari, shu jumladan o'zbekxalqi boshqa xalqlar kabi moddiy-ma'naviy boylıklar yaratuvchi ijodkor xalq. Ko'p qirrali tarixiy va boy madaniyatning ajralmas qismi bo'lgan xalq pedagogikasini o'rganish orqali kamolotga erishgan ajdodlarimiz, buyuk allomalarimizning ilm-fan, san'at va adabiyot sohasidagi durdonalari uzoq asrlar davomida jahon madaniyati xazinasidan o'ziga munosib o'rin egallagan.«Xalqimizning ma'naviy madaniyatidan biri bo'lgan xalq pedagogikasining eng ilg'or va eng noyob fikr va mulohazalari, tarbiya borasida qo'llanib kelingan usul. vosita, ko'nikma va malakalar bizning zamonamizda ham o'z qimmatini va ahamiyatini yo'qotmagan)». Xalq pedagogikasi tom ma'nosi bilan umuminsoniy, xalqchil pedagogikadir. Uni xalqlar tarixi, xalq falsafasi, psixologiyasi, etnografiyasi, va xalq tibbiyotidan tashqarida tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuningdek, xalq pedagogikasi o'zining udumshunoslik, elshunoslik, qadrshunoslik, ruhshunoslik, mumtoz adabiyot, san'at, og'izaki ijod kabi fan sohalaridagi eng yaxshi namunalarni, hayotning, Tafakkurning, odob- ahloq, ta'lim-tarbiyaning hamma jabhasini qamrab oladi. Xalq pedagogikasining bunchalik ta'sir kuchi, ahamiyati va yashovchanligining boisi, «birinchidan uning hayotiyliigi, ta'sirchanligi, serqirra, serma'noligida bo'lsa, Ikkinchidan, uning bevosita xalq tomonidan mavjud hayot jarayonida jonli an'analarda yaratilishi, hayot, inson muammolarini qamrab olishi, tarbiyaning eng dolzarb masalalari yechimini hal qilishga qaratilgani, uchinchidan, umuminsoniy yo'nalishga, umumbashariy g'oya maqsadlarga qaratilganidadir»

Vatanimizga mukammal, axloqan pok, har tomonlama yetuk, o'z xalqi va vatanga fidoiy, jismoniy barkamol yoshlarni tarbiyalashda xalq

pedagogikasining barcha imkoniyatlaridan foydalanish masalalari mazkur fanni o'rganish maqsadini belgilab beradi. Chunonchi milliy va ma'naviy qadriyatlar mohiyatini kelgusi avlodga tushuntirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumki, qadriyatlarni yaratuvchi ham, avlodan-avlodga yetkazuvchi ham xalqning o'zi. Shu bois ham xalq pedagogikasida qadriyatlar pedagogik jihatdan keng o'rganiladi, bunda ular quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: oilaviy qadriyatlar, mehnat qadriyatlari, maishiy turmushni ifodalovchi qadriyatlar, ijtimoiy- siyosiy mazmundagi qadriyatlar, madaniy- ma'rifiy qadriyatlar, badiiy- estetik qadriyatlar, sog'lom turmush tarziga oid qadriyatlar, ma'naviy- ruhiy qadriyatlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Forobiy Abu Nasr. Risolalar. - T.: Fan, 1975 y. 76-bet.
2. Z.Mirtursunov O'zbek xalq pedagogikasi, -T.: Fan, 1973 yil. 208-bet.
3. Xoshimov K., Ochil S. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. -T.: O`qituvchi. 1995, 14-bet.
4. Xoshimov K., Ochil S. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. -T.: O`qituvchi. 1995, 36-bet.
5. Muxtarova, L. A. (2021). Use of multimedia technologies in the educational process. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1781-1785.
6. Muxtarova, L. A. (2021). Ways of formation of ecological culture in children of primary age. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 648-652.
7. Abdimannabovna, M. L. (2021). Formation of the Ecological Culture of Schoolchildren in the Study of Natural Science. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 1(6), 73-76.
8. Мухтарова, Л. А. (2018). ПУТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ МУЛЬТИМЕДИА В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА И ЭФФЕКТИВНОСТИ УРОКОВ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Научные горизонты*, (11-1), 247-252.
9. Мухтарова, Л. А. (2018). РАЗВИТИЕ И ФОРМИРОВАНИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ШКОЛЬНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Гуманитарный трактат*, (24), 13-14.
10. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH SINFLARDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. *Апробация*, (2), 93-94.

TALABALARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Xurramova Sanobar Maxmatmurodovna
TerDPI 2-bosqich magistranti

Anatatsiya: Ushbu maqolada talabalarning muammosi bilan bog'liq yo'nalishlar bo'yicha etakchi mutaxassislarning tushunchalarini tahlil qilish, tizimlashtirish va umumlashtirish talabalarning axborot texnologiyalari

yordamida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy va pedagogik salohiyatini tashkil etuvchi quyidagi qoidalarni ajratib ko'rsatishga imkon berdi.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlashga o'rgatish, zamonaviy axborot, talabalar, rivojlantirish, ko'nikmalar

Bilinga asoslangan zamonaviy jamiyatda universitetlarda talabalar o'rtasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun sharoit yaratish, ma'lumotdagi dalillar va dalillarni tahlil qilish, faktlar va hodisalarni tasniflash, nostandart vaziyatlarda olingan bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanish qobiliyati sifatida alohida ahamiyatga ega. Talabalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish uchun qulay shart-sharoitlar universitetning axborot ta'lim muhiti tomonidan yaratiladi. IOSning samarali vositasi bu zamonaviy axborot sohasida harakat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, talabalarning tanqidiy savodxonligi darajasini oshirish, internetdan turli xil ma'lumotlarni qabul qilishda talabalarning pozitsiyasini o'zgartirish - passiv singdirishdan axborot resurslarini tanqidiy tahlil qilishgacha bo'lgan axborot texnologiyalari. Tadqiqot muammosi bilan bog'liq yo'nalishlar bo'yicha etakchi mutaxassislarning tushunchalarini tahlil qilish, tizimlashtirish va umumlashtirish talabalarning axborot texnologiyalari yordamida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy va pedagogik salohiyatini tashkil etuvchi quyidagi qoidalarni ajratib ko'rsatishga imkon berdi.

Shu bilan birga, tanqidiy fikrlash mulohazalarning asosiligi va mantiqiyliigi, muammolar va murakkab masalalarni aniqlashtirish istagi, ochiq fikr va xolislik, dalillarning jasorati, shakllantirilgan qoidalarning ravshanligi, taqdimotning ravshanligi, qarama-qarshi faktlarni ko'rish qobiliyati bilan ajralib turadi. Tanqidiy fikrlash nafaqat kognitiv, balki shaxsning irodali va hissiy sohalari bilan ham bog'liq. O'rganilayotgan muammo bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari natijalari bilan tanishish tanqidiy fikrlash talabalarning bilim faoliyati tarkibida muhim rol o'ynaydi, degan xulosaga kelishimizga imkon berdi, chunki u yangi bilimlarni egallash jarayonida qarama-qarshi ma'lumotlarni, noaniq vaziyatlarni va murakkab muammolarni sintez qilish, tahlil qilish va baholash uchun asosiy intellektual ko'nikmalarni muvaffaqiyatli qo'llashga imkon beradi. kasbiy vakolatlar.

O'rganilayotgan muammo bo'yicha mutaxassislarning asarlarini o'rganish (V. N. Bryu-Shinkin, A. V. Butenko, I. N. Griftsova, A. V. Korjuev, V. A. Popkov, G. V. Sorina va boshqalar) zamonaviy Rossiya universitetida talabalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatishda ikkita etakchi yondashuvni ajratib ko'rsatishga imkon berdi. Birinchi yondashuvga muvofiq, tanqidiy fikrlash alohida o'quv kursi doirasida shakllanadi. Ikkinchi yondashuv talabalarga meta-fan kursi asosida tanqidiy fikrlashni o'rgatishga qaratilgan. Ta'lim mazmunini loyihalash bo'yicha mutaxassislar (I. ya. Lerner, V. V. Kraevskiy, A. V. Xutorskaya) asarlarida bayon etilgan qoidalarni hisobga olgan holda, biz tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun alohida kurs doirasida axborot texnologiyalari yordamida

qisman pedagogik modeldan foydalanish maqsadga muvofiqdir degan xulosaga keldik. o'rganish uchun mo'ljallangan materialni kiritish, muayyan g'oyalar, tushunchalar, kognitiv faoliyat usullari, o'quv kursining barcha mavzularidagi qadriyatlar shaklida. Qisman modelning afzalliklari shundaki, uni amalga oshirish jarayonida kursning mantig'i, tuzilishi, mazmuni saqlanib qoladi va shu bilan birga ta'limning mazmunli va protsessual tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligi asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muammolarini hal qilish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Shunday qilib, talabalarining tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning muhim salohiyati qisman model asosida o'quv kursining mazmunini yangilashdir. Jamiyatni axborotlashtirish sharoitida tanqidiy fikrlash tajribasi oliy ta'lim mazmunining muhim tarkibiy qismiga aylanadi. Biz ushbu tarkibni Rossiya pedagogikasida qabul qilingan to'rt komponentli tuzilishga muvofiq tuzdik, unga bilim, intellektual va amaliy ko'nikmalar, ijodiy faoliyat tajribasi, hissiy va qiymat komponenti kiritilgan. Tanqidiy fikrlashni o'qitishning bilim komponenti tanqidiy fikrlashning mohiyati va xususiyatlarini ochib beradigan tushunchalarni, mantiq qoidalari, sintez, tahlil, mavhumlik, umumlashtirish, tanqidiy fikrlashni shakllantirish usullari, tanqidiy va ijodiy fikrlashning o'xshashligi va farqlari, ongning tanqidiyligi, tanqid va o'z-o'zini tanqid qilish tushunchalarini o'z ichiga oladi.

Tanqidiy fikrlashni tavsiflovchi intellektual va amaliy ko'nikmalarda muammoni aniqlash, vaziyatni aniqlashtirish, ma'lumotdagi dalillar va dalillarni tahlil qilish, qarama-qarshiliklarni aniqlash, axborot manbalarining ishonchliligini baholash mezonlarini ishlab chiqish, ishonchli ma'lumot olish usullarini bilish, bosma va elektron manbalar bilan ishlash qobiliyati alohida ahamiyatga ega. ulardagi asosiy va ikkinchi darajali faktlarni ajratib ko'rsatish, taqqoslash, umumlashtirish, sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish, pedagogik faktlar va hodisalarni tasniflash qobiliyati, axborot bilan ishlash jarayonida evristik, muammoli usullardan foydalanish qobiliyati.

Ijodiy faoliyat tajribasiga ega bo'lish ilgari o'rganilgan bilim va ko'nikmalarni yangi vaziyatlarga mustaqil ravishda o'tkazishni, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ijodiy muammolarni tuzish va hal qilish qobiliyatini, o'zini kelajakdagi kasbiy faoliyatning sub'ekti sifatida tushunishni, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalash strategiyasini tanlash, loyihalash va amalga oshirish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Hissiy-qiymat komponenti faktlar va hodisalarni turli nuqtai nazardan tahlil qilish zarurligiga ishonchni, tanqidga ijobiy munosabatni, o'z-o'zini tanqid qilishni, qarama-qarshi fikrga, raqibning dalillari va dalillariga hurmatni, fikrlash va xulq-atvorni o'z-o'zini baholashni ta'minlaydi., jamiyatda qabul qilingan axloqiy va madaniy qadriyatlarni hisobga olgan holda olingan ma'lumotlarni baholash, muammoli muammolarni hal qilishda qat'iyat va qat'iyatlilik.

Bizning fikrimizcha, axborot texnologiyalarining o'quv vazifasi talabalarining kognitiv faoliyat fenomeni sifatida tanqidiy fikrlash haqidagi

bilimlarini o'zlashtirishga, talabalarga ma'lumotni topish, qayta ishlash va baholash uchun elektron resurslar va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini o'rgatishdan iborat. Rivojlanish funktsiyasi uning barcha tarkibiy qismlari va xizmatlari aqliy operatsiyalarni shakllantirishga (tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va boshqalar), nutq, xotira, motivatsion, hissiy, ixtiyoriy sohalarni rivojlantirishga qaratilganligi bilan ifodalanadi. Axborot texnologiyalarining tarbiyaviy funktsiyasini amalga oshirish talabalarining ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga, madaniy va axloqiy qadriyatlarni ongli ravishda tanlash uchun sharoit yaratishga qaratilgan. Ijodiy funktsiya ijodiy fikrlashni rivojlantirishga, o'zini ijodiy shaxs sifatida anglashga qaratilgan bo'lib, kognitiv faoliyatning yangi bilimlari va tajribalarini modellashtirish va qurish tendentsiyasini shakllantiradi.

Pedagogik qo'llab-quvvatlash talabalarga motivatsiyani shakllantirishda, yangi ma'lumotlarning mazmunini tushunishda, uni reflektiv tahlil qilishda va ijodiy foydalanishda tezkor yordam ko'rsatishga qaratilgan. O'qituvchining roli o'quv kursining mazmuniga asoslanib, aniq o'quv sharoitlarini, o'quvchilarning yoshi va individual xususiyatlarini, ularning faoliyati va mustaqilligini ko'rsatish, talabalarining shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun ma'lumotlarni qidirish, qayta ishlash va qo'llash bo'yicha bilim faoliyatini boshqarishdir. Biz TRKM doirasida axborot texnologiyalarining samarali o'qitish usullari quyidagilardan iborat ekanligini aniqladik: ma'lum ma'lumotlar ro'yxatini tuzishda multimedia texnologiyalari, kalit so'zlar bo'yicha taxmin qilishda elektron ekran va proektordan foydalanish, o'rganilayotgan materialni kompyuter ekraniga grafik tizimlashtirish (klasterlar, jadvallar), simulyator dasturlari yordamida kontseptsiyaning muhim xususiyatlarini matndan ajratib ko'rsatish, dastur qisqa iboralarda ma'lumotni sintez qilishga imkon beradigan she'riy shakllar (sinkwine).

Tanqidiy fikrlashni shakllantirish samaradorligi quyidagi mezonlarga muvofiq aniqlandi: talabalarining berilgan ma'lumotlarni qidirish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishga motivatsiyasi; axborot texnologiyalari yordamida tegishli ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, tasniflash qobiliyati; taklif qilingan saytni tanqidiy baholash qobiliyati.

Bunday vaziyatni o'zgartirishning asosiy yo'nalishlari o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga imkon beradigan material tufayli o'quv kursining mazmunini boyitish edi; pedagogik jarayonning o'quv, rivojlanish, tarbiyaviy va ijodiy funktsiyalarini amalga oshirish; o'quv jarayonida tahlil, umumlashtirish, analogiya, taqqoslash usullaridan faol foydalanish; axborot texnologiyalari yordamida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda talabalarni pedagogik qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish.

Axborot texnologiyalari yordamida tanqidiy fikrlash talabalarida samarali rivojlanishning nazariy va pedagogik salohiyati xorijiy va mahalliy olimlarning kontseptsiyalarida shakllantirilgan quyidagi qoidalarga aylandi: tanqidiy fikrlashning mohiyati va tizimni shakllantirish xususiyatlari, ta'limni axborotlashtirish sharoitida kognitiv faoliyatning tuzilishi va xususiyatlari,

tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari va texnologiyalari, shuningdek, axborot ta'limining ishlash printsiplari haqidagi g'oyalar. ta'lim jarayonida pedagogik tizim va axborot texnologiyalari funktsiyalarining ajralmas qismi sifatida universitet muhiti.

Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish nafaqat "tanqidiy fikrlash" maxsus intizomi doirasida, balki ta'limning qisman modeli asosida, uning tarkibiy va protsessual tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq holda alohida o'quv kursi materiallari asosida ham amalga oshirilishi mumkin. Axborot texnologiyalari o'quv jarayonining o'quv, rivojlanish, tarbiyaviy va ijodiy funktsiyalarini amalga oshirib, talabalarni tanqidiy fikrlashni o'zlashtirishning samarali vositasiga aylanmoqda. Axborot texnologiyalari yordamida talabalarining tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda pedagogik yordam axborot vositalari va resurslardan axborot bilan ishlashning barcha bosqichlarida foydalanishda tezkor yordam bo'lib, quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: motivatsion, ko'rsatma, maslahat, kommunikativ, tuzatuvchi.

"Ta'limda axborot texnologiyalari" o'quv kursi materiallari asosida biz ishlab chiqqan qisman pedagogik modelni amalga oshirish o'quv jarayonida multimedia vositalari, Internet texnologiyalari, Microsoft office to'plami, transduser dasturlari, on-layn testlardan foydalanish jarayonida talabalarining tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muammolarini samarali hal qilishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyovning "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil, 13 yanvar.

2.Yo'ldosheva J.R. Usmonova S.A., Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: "Fan va texnologiya" - 2008. 396-b.

3.Ясвин, В. А. та'лим муҳити: дизайндан моделлаштиришга матн. / В. А. Ясвин. М., 2001 йил. 368 с.

4.Шевтцова, ЖИ.А. ягона ахборот ва та'лим маконини шакллантиришга тизимли ёндашув матн. / Л. А. Шевтцова, Л. А. Солошенко // педагогик шарҳ, 2004. - №1. - Н. Новгород: Нижний Новгород гуманитар маркази. 203-207 бетлар.

5.Федоров, А. В. келажакдаги о'қитувчиларнинг Медиа та'лими матн. / А. В. Федоров Томонидан. Таганрог: Кучма, 2005 йил. 314 с.

6. qizi Bosimova M. D., Olloqulova F. U. TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA UMUMMADANIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 692-695.

7.Супрунова, Л. Л. университет битирувчисини тайёрлашга компетентсияга асосланган ёндашув: матнни амалга оширишнинг афзалликлари ва истиқболлари. / Л. Л. Супрунова / / университет

o'қишлари 2008: ПГЛУ илмий-услубий о'қишлари материаллари. 4.1. Пятигорск: ПГЛУ, 2008 йил. 46-55 бетлар.

8.Сорина, Г. В. танқидий фикрлаш: тарих ва ҳозирги ҳолат матн. / Г. В. Сорина / / Москва университети газетаси. 7-серия Фалсафа. 2003. - №6. 97-110-бетлар.

9. Olloqulova F. U. TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TAVSIFI. – 2023.

10.Z.A.Abdunazarova. THE PLOT- THE ESSENCE OF ROLE-PLAYING GAMES AND THEIR ROLE IN TEACHING MOTHER TONGUE LESSONS In Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) May, 2022/5/26 1239-1244Vol 3 No 5 (2022): wos

11.Shabbazova, D., Abduhalimova, Y., & Abdunazarova, Z. (2022). Psychological And Pedagogical Factors Of Developing Literacy Of Primary Class Students Based On Personal Value Approach. Journal of Positive School Psychology, 6(9), 3707-3712.

12. Bozorov Zokir Yuldosh oglu, Khabibulloyev Abbas Odil oglu, Turakhanov Jakhongir, Otaganova Umida Egamberdi qizi. General Formula for Calculation of Dimensions and Surfaces of Some Geometric Figures//INTERNATIONAL JOURNAL ON ORANGE TECHNOLOGY e-ISSN: 2615-8140 | p-ISSN: 2615-7071 Volume: 4 Issue: 6 |Jun 2022 44-46

13. Bozorov Zokir Yuldosh oglu, Khabibulloyev Abbas Odil oglu, Turakhanov Jakhongir Utkir oglu, Otaganova Umida Egamberdi qizi Planimetry as a Structural Component of Structure for Professional Training of a Future Teacher of Mathematics//International Journal on Integrated Education. e-ISSN : 26203502 p-ISSN : 26153785 Volume 5, Issue 6, Jun 2022 78-80

INSON VA UNING HAYOTI ENG OLIY QADRIYAT

*Xurramova Gavhar O'ralovna
TerDPI 2-kurs magistranti*

Annotatsiya. Maqolada inson, uning qadr- qimmatini haqida ma'lumot. Qadriyat, milliy, mintaqaviy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, progressive qadriyat, reaksiyon qadriyat mohiyati yoritib o'tilgan. Arestotel, Abu Nasr Farobiyning inson haqidagi fikrlari, Gulxaniyning Zarbulmasal asaridan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Inson, qadriyat, milliy, mintaqaviy, umuminsoniy progressive, reaksiyon qadriyat,

Erkinlik, tenglik, birodarlik insoniyat tomonidan hamisha e'zozlab, qadrlanib kelingan. Insonning erkinligi, uning shon-shuhrati va qadr-qimmatini jamiyatimizning oliy qadriyatidir. Inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bu to'g'rida shunday so'zlar yozilgan: "O'zbekiston Respublikasi demokratiya, umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti,

erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa dahlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi". Jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan, "Inson huquqlari va erkinliklari deklaratsiyasi"ga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida har bir insonning fuqarolik, shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari, shuningdek inson huquqlari va erkinliklari kafolatlangan, fuqarolarning burchlari belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimizning barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Konstitutsiyada yozib qo'yilganidek, "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlarini va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi".

Bundan ko'rinib turibdiki o'zbek xalqi boshqa xalqlar, millatlarga nisbatan do'stlik, birodarlik, bag'rikenglik munosabatida o'zini boshqa xalqlardan ustun qo'maydi, boshqa millatlarga nisbatan munosib darajada ehtirom ko'rsatadi. O'zbek xalqining qardosh xalqlar bilan munosabati milliy qadriyatlarda o'z aksini topgan.

Qadriyat bu tushunchaga to'xtaladigan bo'lsak voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy, axloqiy, madaniy, ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi.

Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko'ra milliy, mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'linadi. Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlarini, an'analari, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Insonda milliy ong va g'urur bo'lmasa, u o'zining qaysi millatga mansubligini his etmasa, uning milliy qadriyatlarni anglashini tasavvur qilish qiyin. Toki, millatlar, milliy mafkuralar mavjud ekan, milliy munosabatlar ham, milliy his-tuyg'ular ham, milliy qadriyatlar ham saqlanib qolaveradi. Millatni milliy qadriyatlardan mahrum qilishga urinish tarix va insoniyat oldidagi eng katta jinoyatdir. Shu o'rinda rus generali Skobelevning "Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi" deb aytgan behayo so'zlarini keltirib o'tish mumkin. Turli davrlardagi tazyiqlarga qaramay milliy qadriyatlar hali ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Mintaqaviy qadriyatlar iqtisodiyoti, madaniyati, tarixi, tili, dini, urf-odat va an'analari mushtarak bo'lgan xalqlar manfaatlariga xizmat qiladigan tabiiy va ijtimoiy hodisalar majmuasini tashkil etadi. Mintaqaviy qadriyatlarga misol sifatida Markaziy Osiyo hududida istiqomat qiluvchi o'zbek, qozoq, tojik, qirg'iz, turkman xalqlariga xos bo'lgan qadriyatlarni eslatib o'tishimiz

mumkin. Buyuk Turon diyorida unib o'sgan mazkur xalqlarning tarixi, tili, madaniyati, dini, urf-odat va an'analarida juda ko'p umumiylik mavjud. Ular hamisha bir-birlariga og'a-ini, quda-qudag'ay bo'lganlar, hozir ham bahamjihat, totuv hayot kechirmoqdalar.

Umuminsoniy qadriyatlar milliy va mintaqaviy qadriyatlardan mazmuni jihatidan chuqur va keng bo'lib, umumbashariy ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad va intilishlariga muvofiq keladi. Shuni aytish kerakki, dunyodagi bironta xalq va millat o'zidan boshqa xalq va millatlardan, umuman jahon sivilizatsiyasidan mutlaqo ajralgan, alohida madaniyatga ega emas. Millatlar boshqa xalqlarning madaniy-ma'naviy yutuqlaridan foydalanmay turib rivojlana olmaydilar. Shu sababli barcha xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy rivojlanishi, tarixi bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketgan.

Qadriyatlarining jamiyat taraqqiyoti, inson hayotiga ko'rsatadigan ta'siri nuqtai nazaridan progressive va reaksion qadriyatlarga ajratish mumkin. Progressive qadriyat bu – jamiyatimizning iqtisodiyoti, madaniyati va ma'naviyatining oldinga qarab rivojlanishiga, milliy axloq, odob, urf-odat negizlarida komil insonni tarbiyalashga, mustaqil respublikamizni har tomonlama ravnaq toptirib, jahon sivilizatsiyasiga qo'shishga astoydil xizmat qiladigan qadriyatga aytiladi. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy muammolarni hal etishga to'sqinlik qiladigan hodisalar reaksion qadriyatlarga kiradi.

Arestotel " Inson dunyoning eng yaxshi ijodidir" degan g'oyani ilgari surdi. Haqiqatdan ham inson bu dunyodagi jamiki narsalar ichida o'zining ongi, tafakkutining shakllangani bilan ajralib turadi. Abu Nasr Forobiy fikricha " Inson mohiyati aqlda namoyon bo'ladi". Inson o'z aqli bilan qadr topadi yoki o'sha qadrni yo'qotadi.

Inson, uning qadr-qimmatini haqida gapirganda Gulxaniyning " Zarbulmasal" asaridagi masallarni misol qilib olish mumkin. "Zarbulmasal" ajoyib xususiyatlaridan biri shundan iboratki, unda Markaziy Osiyo xalqlari bir necha asrlar mobaynida vujudga keltirgan yuzlab maqollari, o'sha zamondagi ijtimoiy munosabatlar, milliy urf-odatlar o'z aksini topgan.. Gulxaniy xalqning nihoyatda og'ir ahvoli va mehnat sharoitining yomonligini huquqsizligi va ezilganligi, insoniy haq-huquqi va qadr qimmatining tamomila poymol etilganligini "Tuya bilan Bo'taloq" masalida majoziy tarzda tasvirlab bergan.

Masalda hikoya qilinishicha, Farg'onada bir sarbon (tuyachi) yashagan, uning bisotida bor-yo'g'li bitta tuyasi bo'lib, tuyada yuk tashib ro'zg'or tebratgan. Kunlardan bir kun sarbon tuyaga anchagina yuk ortib yo'lga tushadi. Tuyaning orqasidan emadigan bo'talog'li ham ergashadi. Bo'taloq onasini emolmay och holda onasi orqasidan zorlanib ketaveradi. Bo'taloqning shikoyatiga onasi javob berib aytadiki: ko'rib turibsani, ixtiyorim o'zimda emas, menda burundiq bor, agar zarracha ixtiyor bo'lganda seni emizardim. Bundan xulosa shuki, o'sha zamondagi hukumat siyosatining qattiqligi,

insonlar turmush tarzining og'irligi o'z bolasiga, hattoki o'zi uchun ham vaqt ajratish mushkulligini ko'rsatadi.

Gulxaniyning "Maymun bilan Najjor", "Toshbaqa bilan Chayon" masallarida ham insoniy qadr-qimmat, odamgarchilik, muruvvat hunarning avzalligi, yaxshilik va yomonlik singari muhim ma'naviy-axloqiy masalalar qalamga olingan.

Inson qadri, uning hayoti, yashash tarzi bugungi kunda eng dolzarb masala bo'lib hisoblanmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 22-iyundagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni ushbu sohadagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarmoqda. Mazkur farmon asosida milliy strategiya va uni amalga oshirish bo'yicha Yo'l xaritasini tasdiqladi. Mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish, so'z erkinligini taminlash borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz BMT ning Inson huquqlari bo'yicha kengashida ishtirok etib, nutq so'zladi. Mazkur kengash dunyo bo'ylab inson huquqlari himoyasini taminlashga qaratilgan BMT tizimidagi eng nufuzli organlardan biridir. Kengashga 47 ta davlat a'zo. O'tgan yilda O'zbekiston 2021-2023-yillar davri uchun ushbu tuzilma a'zosi etib ilk bor saylangani mamlakatimizda keying yillarda inson huquqlarini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan hayotbaxsh islohatlarning muhim e'tirofi b'ldi. Zero, O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, shuqatorda, BMTning 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ pratogoliga qo'shilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, inson buyuk ne'mat, u olloh tomonidan ato etilgan aqlga ega. Inson qadr-qimmatini, sharafini ulug'lash – jamiyatimiz poklanishi va ravnaqining muhim omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. J.Tulenov. "Qadriyatlar falsafasi" <<O'zbekiston>>, 1998 -236 b.
3. N.A.Shermuhamedova. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Darslik. – T.: <<Fan va texnologiya>>, 2014, 464 bet.
4. Q.Usmonov, M.Sodiqov. O'zbekiston tarixi."Sharq "nashriyoti.2011.
5. [https://www. Google.uz](https://www.Google.uz)
6. R.D.Norqobilova. Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini indikatorlar asosida diagnostika qilishning o'ziga xosligi. INTERNATIONAL CONFERENCES, 564-568. 2023
7. NR Davlatovna - Functions and Principles of Pedagogical Diagnostics. Web of Synergy: International Interdisciplinary 413-416, 2023/1/31
8. P Норкобилова -Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilidan iqtidorini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish. Общество и инновации. 36-41, 2023/1/25
9. P Nazarova, R Norqobilova - PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF EDUCATION OF YOUNG GENERATION AT ABU RAYHAN BERUNI TEACHING.

Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 1908-1911. 2022/6/30

10. S Xoliyeva, R Norqobilova - EASTERN SCIENTISTS 'VIEWS ON SPEECH. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 1433-1427. 2022/6/24

11. Sevara XOLIYEVA, Rayhona NORQOBILOVA, Muhlisa-MAMATMUROTOVA THE IMPORTANCE OF PEOPLE'S ORAL CREATIVITY IN THE DEVELOPMENT OF SPEECH BY PRIMARY SCHOOL STUDENTS. 2022/6/9. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 84-87.

12. Sumbula IBROHIMOVA, & Rayhona NORQOBILOVA. (2022). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF USING THE HERITAGE OF ASIAN THINKERS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL SCIENCE CLASSES. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 81-83.

13. Zoirova Sevinchbonu Khurshid Kizi, Norqobilova Rayhona Davlatovna, Tajimirzayeva Buzulaykho Mahammadjon Kizi. **high spiritual generation-third renaissance builders**. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. 167-169. 2022

14. Райхона Норқобилова. О'қувчиларнинг она тили бо'йича иқтидорини aniqlash va rivojlantirishning o'ziga xosligi Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. 379-384. 2022

15. R.Norqobilova, M.To'rayeva Importance of talent in child development. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. ISSN: 2776-0979, VOLUME 3, ISSUE 7, July. 2022 57-61.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KREATIVLIKNI OSHIRISHDA MUHIM BESH TASHABBUSNING O'RNI

*Madina Xurramova Abdunazar qizi
TerDPI 1-kurs talabasi*

Ilmiy rahbar: p.f.f.d (PhD) Shabbazova D.R. TerDPI

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativlikni oshirishda muhim besh tashabbusning o'rni haqidagi kerakli ma'lumotlar va manbalar keltirib o'tilgan. Maqolada berilgan ma'lumotlar asosida o'qituvchilar va ota-onalar o'zlari uchun kerakli tavsiyalarni olishlari mumkin.

Kalit so'zlar: Kreativlik, axborot, qobiliyat, ijodkorlik, ko'nikma, yaratuvchanlik, ta'lim, metodika, tafakkur, belgi, mashq, fikrlash, erkinlik.

KIRISH. Kreativlik so'zini ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan. Kreativlik (lot. creatio -

yaratish, vujudga keltirish) - bu insonning noodatij g'oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an'anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo'lgan qobiliyatidir. Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo'ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san'at va ijtimoiy fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g'oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba'zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko'nikmadir. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqda, bu esa, o'z navbatida, innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Kreativ fikrlash ta'siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya'ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

K. Rodjers (1944) kreativlik deb muammolarni yangi yechimi va biror narsa, voqea, xolatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlashni tushunadi. Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalar taqqoslangan tadqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Intellektual xossalar bilan taqqoslash bo'yicha tadqiqotlar Dj. Gilford tomonidan amalga oshirilgan. Kreativlik - bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liq. Kreativlik (lot., ing. "create" - yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) -individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- 1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;
- 2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- 3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- 4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

- 1) o'zini tavakkaldan olib qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;
- 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo'lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalariga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri o'qituvchi-o'quvchilar hamkorligi ekanligiga alohida e'tibor qaratildi. Ma'lumki, ta'lim jarayoni ikki yoqlama xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilarning teng

munosabatlaridan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi o'qituvchi ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, ta'lim maqsadlarining to'g'ri amalga oshirilishi va ta'lim natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Ammo bu, ta'lim jarayoni o'qituvchining to'liq hukmronligi ostida amalga oshadigan jarayon, degan noto'g'ri fikrning tug'ilishiga asos bo'la olmaydi. Hozirgi davr talabi ham kimnidir bo'ysundirish orqali emas, balki hamkorlik munosabati yordamida ijobiy natijaga erishishdir. Ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o'zlashtirishga oid mexanizmga bo'lib qolmasdan, balki shaxsning umumiy ijtimoiy-madaniy qobiliyatlarini tarkib toptirishga ham qaratilishini unutmazlik lozim. Bizningcha, o'quv vaziyati ta'lim jarayonini tashkil qiluvchi o'zgaruvchan tizim sanalib, u quyidagicha ikki qismdan iborat:

- o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligi;
- o'quvchilarning o'zaro bir-birlari bilan hamkorligi.

Muammo yuzasidan olib borilgan izlanishlar o'quvchilarning o'quv jarayoniga munosabati o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro ta'sir jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, o'quv materiallarini tanlash va tashkil qilish, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish usullariga, o'quv natijalariga qo'yiladigan baho tizimiga bog'liqligini ko'rsatdi. Kreativlik va o'zaro hamkorlik bir-biriga mustahkam bog'liq. Zero, faqatgina yangicha yondashuv asnosida hamkorlik vujudga keladi va mana shu hamkorlikda ijodkorlik o'z ifodasini topadi. Pedagogik kreativlikni faqatgina yangilikka, tajribalar o'tkazishga intilish deb tushunmaslik kerak. Bu intilish sog'lom fikrning rasmiyatchilik ustidan g'alabasini ham ifoda etadi. Demokratiya, oshkoralik bo'lmagan joyda, ma'muriyatchilik va o'qituvchining irodasi bilan dars jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatiga rahna solinsa ijodiy hamkorlik barham topadi. Boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan topshiriqlar ustida ishlash alohida o'rin tutadi. O'quvchi o'zi uchun qulay sharoitda hayotiy va o'quv tajribasiga tayanib og'zaki yoki yozma nutqi orqali fikrlash faoliyatini amalga oshiradi. Unda ohar bir fanning o'zi uchun noma'lum qirralari xususida o'qituvchi bilan faol hamkorlik qilish uchun ruhiy tayyorgarlik paydo bo'ladi. U mavzu yuzasidan berilgan savollarga tegishli javob qaytarish uchun mustaqil ijodiy izlanishlarga harakat qiladi. O'qituvchi bunday hamkorlik jarayonida o'quvchilarning kreativligini o'stirish bilan birga diagnostik vazifani ham bajaradi, ya'ni o'quvchilarning qobiliyati, qiziqish doirasini aniqlaydi, kreativ iqtidorini chamalaydi. Kreativlikni rivojlantiruvchi topshiriqlar ustida ishlash jarayonida bu g'oyat muhimdir.

Boshlang'ich ta'lim - bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta'lim turidan biri bo'lib, ta'limning bu bosqichida pedagog o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatiladi. Ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali maxsus o'rganishni talab etmoqda. O'quvchilar o'z-o'zidan kreativ bo'lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali

shakllantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. O'qituvchilar o'quvchilar bilan hamkorlikda ish yuritib, ularning har bir fikrini inobatga olishi va buni o'quvchiga sezdirishi kabi muhim vazifalarni bajarish orqali o'quvchilarni o'zgacha yondashuvli ya'ni kreativ bo'lishlariga erishishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga muammoli masala va vaziyatlarni berib, o'quvchining masala yechimini topishga ijodiy yondashishi undagi hissiy irodaviy sifatlarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu o'quvchilarni o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishiga imkoniyat, ichki ehtiyojning oshishiga turtki bo'ladi. «Kreativlik» tushunchasi «ijod» tushunchasi bilan bog'liq. Biroq, «kreativlik» tushunchasi tegishli lug'atlarda munosib differentsiyasini topmagan va ijod psixologiyasida yetarlicha aniqlanmagan. O'nlab ilmiy ishlarda kreativlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o'ziga va na unga taalluqli bo'lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to'xtam mavjud emas. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda kreativlik va ijodkorlik aynan bir xil ma'no anglatmaydi degan fikrga keldik. Chunki, ijodkorlik deganda barchaning ko'z o'ngiga ma'lum bir narsani ixtirosi, chizmasi va hokazolar kelishi mumkin. Lekin biz tadqiqotimizda kreativlikni, dars jarayonida berilgan vazifaga hech kimnikiga o'xshamas yo'l topish va uni ilmiy asoslay olish, yangicha fikrlash, uni tadbiq eta olish qobiliyati deb oldik. Ya'ni biz tadqiqotimizda ta'lim sohasiga oid kreativlikni ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasini ko'rib chiqamiz. Kreativlik ijodkorlikka nisbatan kengroq tushuncha degan fikrga keldik. Biz bolalar bilan ishlash jarayonida quyidagilarni o'zimizga shior qilishimiz kerak:

- Bolani yoshlikdan o'qib-o'rganishga odatlantiring.
- Doimo bolaning ehtiyojlariga e'tibor qarating.
- Har kuni bola bilan yuzma-yuz suhbatlashish uchun vaqt toping.
- Oilaga oid masalalarning muhokamasiga bolalarni ham jalb qiling.
- Xatolari uchun bolani masxara qilmang.
- Bolani har bir yutug'i uchun maqtang.
- Uning yutuqlarini maqtashda samimiy bo'ling.
- Bolani turli yoshdagi kishilar bilan muloqot qilishga o'rgatib boring.
- Uning borliqni anglashiga yordam beradigan amaliy tajribalarni o'ylab toping.
- Bolaga turli latta-puttalar bilan o'ynashni taqiqlamang - bu uning tasavvurini boyitadi.
- Uni muammoni topish va uni hal qilishga rag'batlantiring.
- Bolaga nisbatan o'z munosabatingizni baholashda odil bo'ling.
- U bilan muhokama qilinadigan mavzularni cheklamang.
- Bolaga qarorlarni mustaqil qabul qilish va uning uchun javobgar bo'lish imkonini bering.
- Bolaga uning shaxs bo'lib shakllanishi uchun yordam bering.

- Bolaga uning uchun foydali bo'lgan teleko'rsatuvlarni tomosha qilishi va radio eshittirishlarni tinglashi uchun ko'maklashing.
- Uni o'z qobiliyatlarini ijobiy qabul qilishga odatlantirib boring.
- Bolani kattalardan mustaqil bo'lishga o'rgatib boring.
- Bolaga "Men ham buni bilmayman" deb, uni muvaffaqiyatsizliklarga bee'tibor bo'lishga o'rgatmang.
- Bolaga, garchi u ishning ijobiy natijaga ega bo'lishiga ishonmasa-da, boshlangan ishni oxiriga etkazishi uchun imkoniyat yarating.
- Kundalik daftar yuriting va unga bolada kreativ qobiliyat shakllanishini qayd etib boring.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Kuni kecha davlat rahbari boshchiligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida yoshlarimizga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga urg'u berildi. Turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o'zi ko'rsatib turibdi. Shu bois prezident tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, davlat rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan. Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi. Prezidentning joriy yilda Sirdaryo hamda Namangan viloyatlariga qilgan amaliy tashrifi davomida mazkur hududlardagi tuman va shahar kutubxonalariga bir necha yuz ming nusxada badiiy adabiyotlar yetkazib berildi. "Ma'rifat karvoni" tashkil etildi. Yoshlar uchun 25 ming dona kitob, 80 turdagi sport jihozlari va musiqa asboblari yetkazib berildi. Mazkur 5 tashabbus keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Endilikda ushbu tajribani yurtimizning barcha hududlarida keng joriy qilish masalalari muhokama qilindi. Madaniyat vazirligi va Xalq ta'limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman va shaharlarda madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo'shimcha

1,5 mingta to'garak tashkil etish vazifasi qo'yildi. Tashabbuskor iste'dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalb etgan holda, madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va "Yoshlar klublari" tashkil qilish zarurligi ta'kidlandi. Taniqli san'atkor va iste'dodli ijodkorlarni tumanlardagi madaniy ishlarga ko'makchi sifatida biriktirish yaxshi natija berayotganini inobatga olib, bu tajribani butun mamlakatga yoyish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Unga muvofiq, taniqli artistlar tuman va shaharlarga ijodiy maslahatchi sifatida biriktirilib, o'sha joylarda madaniyat va san'atni rivojlantirishga mas'ul bo'ladi, tuman va shaharlar hokimlari esa ushbu ishlarga moddiy va tashkiliy jihatdan yordam beradi. Musiqa va san'at sohasida oliy ma'lumotli kadrlarni ko'paytirish masalasiga ham e'tibor qaratildi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda Xalq ta'limi vazirliklariga muayyan mavzular bo'yicha tarix darslarini muzeylar, tarixiy obidalar, qadamjo va teatrlarda sayyor o'tkazilishini tashkil qilish topshirildi. Ikkinchi tashabbusga doir masalalar muhokama qilinar ekan, diyorimizda 12 mingdan ziyod sport inshootlari borligi, lekin yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga qamrab olish darajasi yetarli emasligi qayd etildi. Umumta'lim maktablarining sport anjomlari bilan jihozlanish ko'rsatkichi mamlakat bo'yicha 56 foizni, jumladan, Surxondaryo viloyatida 12 foizni, Xorazmda 14 foizni, Qoraqalpog'istonda 15 foizni tashkil etadi, xolos. Yig'ilishda yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish borasidagi chora-tadbirlar belgilab berildi. Tuman va shaharlar hokimlarining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlariga mutaxassislar bilan birgalikda yoshlarning sport turlariga qiziqishi hamda sport inshootlarining jihozlanish darajasini o'rganib, shu asosda takliflar berish, Vazirlar Mahkamasiga ularni amalga oshirish uchun zarur mablag'lar manbasini aniqlash vazifasi yuklatildi. O'lis va chekka qishloqlarda yengil konstruksiyali sendvich panellardan kichik sport zallari va sun'iy qoplamali maydonlar qurish, tashabbuskor tadbirkorlarga sport inshootlari tashkil etish uchun yer ajratish zarurligi ta'kidlandi. Bunday tadbirkorlarga O'zmilliybank tomonidan "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi doirasida imtiyozli kreditlar ajratiladi. Joylardagi sport maktablariga xalqaro musobaqalarda g'olib bo'lgan taniqli sportchilarni rahbar etib tayinlash, shuningdek, sportchilarni oliy o'quv yurtlarining maxsus sirtqi bo'limlarida maqsadli o'qitish yaxshi natija berishi qayd etildi. Bolalar va o'smirlar sport maktablari sonini ko'paytirish yuzasidan topshiriqlar berildi. Videoselektorda yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o'rgatish masalalariga ham alohida ahamiyat qaratildi. Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi

asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida so'zlarni yodlab, grammatika qoidalarini "suv qilib ichib yuborgan" bo'lsangiz ham, insho yozolmasangiz, barchasi bekor. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Albert Eynshteyn "Tasavvur - bilimdan muhim" deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko'pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim. Ta'limning asosiy vazifalari shaxsni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta'lim inson faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma'noni bildiradi. Ya'ni ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish hamda ularning qobiliyatlarini o'stirishdir. Ta'lim orqali yosh avlodga insoniyat tajribasi orqali to'plangan bilimlar beriladi, zaruriy ko'nikma va malakalar hamda e'tiqodlar shakllanadi. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, u ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni unda ikki tomon o'qituvchi va o'quvchi faol ishtirok etadi. O'qituvchi aniq maqsadni ko'zlab reja va dastur asosida bilim, malaka va ko'nikmalarni singdiradi, o'quvchi esa uni faol o'zlashtirib oladi. Bildirish, bilish murakkab, qiyin, ziddiyatli jarayondir. Bu jarayonda inson psixikasiga tegishli sezgi, idrok tasavvur va tafakkur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi va muhim rol o'ynaydi. Ta'lim berish yoshlarga bilim berish. Ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ya'ni haqiqatni ocha olishga qodir bo'lgan jiddiy mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir. Bugungi jadal rivojlanayotgan zamonaviy globallashuv va axborotlashuv davrida ta'limni yanada rivojlantirish va takomillashtirishni dars jarayonida innovatsiyalarning turli shakllaridan tatbiq etmasdan turib amaiga oshirish mumkin emas. Innovatsion ta'lim ta'limda birinchi navbatda, ijodiy qobilyatlar, o'z-o'zini rivojlantirish va kreativ fikrlash ehg muhim motivatsiyalardan hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy imkoniyatlarini aniqlashda, ularning kreativ fikrlash motivatsiyalarini rivojlantirishda ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan to'g'ri va o'rinli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativlik—lotincha so'z bo'lib, "ijod" yoki "yo'q narsadan yaratish" kabi ma'nolarni anglatadi.

Kreativlik –shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni, yangi g'oyalarni aks ettirishi kerak. Kreativlik tushunchasi o'zida xilma-xillik, qiziquvchanlikni, tafakkur va noan'anaviylikni aks ettiradi. Bugungi kun boshlang'ich sinf o'qituvchisida ijodkorlik va kreativlik bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jixati uning ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda ham ushbu sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik fikrlash qobilyati va ijodkorlik xususiyati uning ta'lim jarayonidagi muloqotida, tafakkurida, his-tuyg'ularida va muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash , ehg avvalo ,muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlashdir. Darhaqiqat, har tomonlama

fikrlash o'quvchilardan berilgan turli topshiriq, masala va vazifalarni bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Ya'ni topshiriqni bajarish, masalani yechishda o'quvchi yechimning bir necha variantlarini izlaydi, so'ngra ular orasidan eng maqbul birgina to'g'ri yechimga to'xtaladi. O'qituvchining ham dars jarayoniga kreativ yondashuvi o'quvchilarning darsda berilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari, qo'llay olishlari uchun muhim omil sanaladi. O'qituvchining kreativligi darsda ikki holatni kafolatlaydi:

-Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni , darsda "bir xillik"dan zerikkan o'quvchilar e'tiborini dars jarayoniga jab etish va qiziqtirish

-O'quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyatni aniqlash va rivojlantirish, rag'batlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi. O'qish darslarni tashkil e'tishda va o'quvchilarning darsda faolligi, qiziqishlarini oshirishda quyidagilarni hisobga olishni tavsiya qilaman:

- Yangi g'oyalar qabul qiling, bir xillikdan qoching, bu darsni boshlashingizdan tortib, o'tilgan mavzuni mustahkamlashda, yangi mavzuni bayon qilishingizda o'z aksini topsin. O'quvchi uchun yangilik bo'lsin. Bu o'quvchida a'lo kayfiyatni va darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Sinf xonasi o'quvchiga yoqadigan bo'lishi kerak. Sinf xonasining o'quvchiga yoqadigan qilib bezatilishi uning o'zini erkin va qulay his qilishiga yordam beradi.

- Darsni audio va videolardan foydalanib o'tish kerak.

- Darsni hayotga bog'lab o'tish kerak. Oquvchi faqat sinfda o'tirishi kerak emas, vaqti bilan tashqariga olib chiqib dars o'tish ham yaxshi samara beradi. O'quvchi o'zi hayotida ana shu o'rganganlarini qo'llaydi.

- Darslarda sahna ko'rinishlardan foydalanish kerak. O'quvchi keng doirada o'zini tutishni o'rganadi.

Mavzuni o'rgatishda rasmlardan foydalaning. Masalan, bitta hikoya uchun 5 ta rasm. O'quvchi hikoyaning mazmuniga qarab rasmlarni o'rniga qo'yadi.

- Darslarda topishmoq o'yinlardan foydalaning. O'rganish jarayoni xursandchilik bilan o'tadi.

O'quvchini qiyinchiliklarni yengishga tayyorlaydi.

- Ijodkorligini oshirish uchun o'quvchi mavzuga mos ko'rgazmalarni ko'rib tursin, mavzudagi voqea-hodisani tasavvur qila olsin. Bu o'quvchining mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

- O'quvchining diqqatini jalb qilishda ko'rgazmalardan keng foydalanish kerak. Masalan, prezidentasiya qilib ko'rsatish. Darsda o'quvchida oxirgi taassurotni qoldirish bu juda muhim.

- Darsni ertak sifatida olib borish, qiziqarli hikoyaga bog'lab o'tish, o'quvchining yoqtirgan filmiga bog'lab o'tish ham o'quvchining darsga qiziqishini oshiradi.

- Darsda o'quvchilarni turli xil g'oyalarga undang. O'quvchi fikrini erkin aytsin. Bunda guruhlar bilan ishlash metodidan foydalanish yaxshi natija beradi.

- Toqatli bo'lish kerak. Bu o'quvchiga darrov baho berib qo'yishdan saqlaydi. Yana kechirimlilik, mehribonlik, mas'uliyat va o'quvchini eshita olish- bu o'quvchini fanni sevishi va yaxshi o'zlashtirishiga yordam beruvchi omil hisoblanadi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, har bir kreator va ijodkor boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini o'z vaqtida aniqlashi va doimo rivojlantirib borishi shart va zarur. Hozirgi kundagi muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning asosiy maqsadi ham o'quvchi va yoshlarning o'ziga xos kreativ qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga va ularning bo'sh vaqtini mazmunli, samarali tashkil etishga qaratilgan. Ozod va obod Vatanimizning ertangi kelajagi bugungi o'quvchi yoshlarning qo'lida ekan, buni biz o'qituvchi pedagoglar doimo yodda tutishimiz va o'z kasbimizga sidqidildan yondashishimiz kerak. Ijodiy sermahsullik bazaviy resurs yoxud sohaga bog'liq qobiliyatlar, jumladan, bilim va texnik ko'nikmalar bo'lib, ularni yangicha usulda birlashtirish uchun kerak bo'ladigan qobiliyatlar tayyor qo'llanmalardan voz kecha olish kabi zarur motivatsiyani taqozo etadi. Bu to'rt komponent ham turg'un, ham takomillashtirish va muhitga moyil bo'lgan komponentlardan iborat. O'quvchilarning kreativ fikrlash ko'rsatkichlari ularning tadqiqotchilik qobiliyatlariga qanday bog'liq ekanligini tahlil etish ham o'rinlidir. Xuddi o'quvchi ishtiyoqini o'lchaydigan uslub kabi, uning tadqiqotchilik qobiliyatini ham kompyuterlashgan testdagi xatti-harakatini kuzatishdan olingan (telemetriya) ma'lumotlar asosida tahlil qilish mumkin. O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, bo'lajak pedagoglarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikirlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'ladi. O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etish, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb – hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori hujjatlari. 2017-yil

2. Pedagogika. O'. Asqarova va boshqalar. 7-bob. "Fan", 2004-yil

3. Xalq ta'limi jurnali . 55-bet. 2018-yil. 3-son

4."Kreativ pedagogika asoslari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent-2016

5. Maftuna Shuhrat qizi Ziyaqulova, Feruza Abdullayevna Xayitova. Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning kreativ qobiliyatini shakllantirishda rasmlarning o'rni // Academic research in educational sciences. 2021. №7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/savod-o-rgatish-darslarida-o-quvchilarning-kreativ-qobiliyatini-shakllantirishda-rasmlarning-o-rni> (дата обращения: 23.02.2023).

6. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi and Feruza Hayitova Abdullayevna, "THE ROLE OF PICTURES IN THE FORMATION OF STUDENTS 'CREATIVE ABILITY IN LITERACY LESSONS", *IEJRD - International Multidisciplinary Journal*, vol. 6, no. 4, p. 3, Jul. 2021.

7. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi " Enhancing creativity in the process of developing studentso speech " The American Journal of Social Science and education Innovations (ISSN – 2689-100x) Published Published: June 28, 2021 | <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03> Иссые06-24 IMPACT FACTOR 2021: 11. 857 OCLC – 1121105668 Pages: 140-143 Америка

8. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi, Rakhmatova Hamida Ismatillo qizi, " Increasing Creativity by using Interactive methods in literacy teaching process" Analytical journal of education and development Science Box In Vol.1(2021): Analytical journal of education and development 52-54-betlar Тошкент

9. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AQLIY SALOHIYATINI HAMDA KREATIVLIGINI OSHIRISHDA MENTAL ARIFMETIKANING O'RNINI M Ziyaqulova, S Ashurova, N Toshpulatova - Development and innovations in science, 2023

10. The importance of riddles in the development of students creativity in the learning process ZMS Qizi - Asian Journal Of Multidimensional Research, 2021

11. BOSHLANGICH SINIF OQUVCHILARINING LUGATLAR BILAN ISHLASH JARAYONIDA KREATIVLIGINI OSHIRISH MSQ Ziyaqulova, HIQ Raxmatova - ... : Innovative, educational, natural and social sciences, 2021

12. kizi, Z. M. S. . (2023). Technologies of Creative Approach to the Development of Speaking Competences of Primary Class Students. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(4), 189–192. Retrieved from <http://univerpubl.com/index.php/semantic/article/view/1138>

13.Оллокулова, Ф. (2022). Социально-педагогическое значение формирования научно-исследовательской деятельности учеников начальных классов на основе концентризма. Общество и инновации, 3(10/S), 128–134. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss10/S-pp128-134>

14. Toshpulatova Niyokhon Shavkatjonovna// A Creative Approach to Teaching Geometry in the Primary Grades//International Journal on Orange Technologies//48-53-bet.

15. Шаббазова, Д. Р. (2018). Влияние художественных произведений на развитии личности школьника. Гуманитарный трактат, (24), 18-20.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINING KREATIV YONDASHUVINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

*Abduhalimova Yulduz Normurod qizi
TerDPI Boshlang'ich ta'lim nazariyasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kreativ yondashuvini shakllantirish yo'llari hamda usullari haqida, shuningdek, oliy ta'lim talabalarida kreativlikni shakllantirish jarayonidagi samaradorlikka erishish yo'llari haqida atroflicha so'z yuritilgan

Kalit so'zlar: kreativ yondashuv, muammoli masala, oliy ta'lim, talaba, ta'lim, integratsiya

Dunyo ta'lim taraqqiyotining jadal suratlarida rivojlanishi avvalambor ta'lim jarayoniga innovatsion va kreativ yondashish lozimligini taqozo etmoqda. Chunki jahonda har qaysi jamiyatning rivojlanishi va yo'nalishini begilab beruvchi innovatsion-kreativ ijodkorlik ta'siri ostida yuz berib, inson faoliyatining har bir sohasida ijodkorlikka bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan tavsiflanadi.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Bo'lajak boshlang'ich sinflar o'qituvchisi o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Talabaniing ilmiy tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potentsialini yanada rivojlantiradi.

Ko'z oldingizga boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini yuksak mahorat bilan boshqarayotgan, uni o'ziga xos va qiziqarli tarzda jo'shqinlik, zavq-u shavq bilan tashkil etayotgan o'qituvchini keltiring. U garchi o'zini kreativ shaxs yoki ijodkor deb bilmasa-da, biroq, kreativlikni namoyon etuvchi ta'lim jarayonini tashkil etayotganidan, unga imkon beradigan metod, usullarni qo'llayotganligidan o'zi ham mamnun, qolaversa, o'qituvchilarning minnatdor bo'lishlariga erishmoqda. O'qituvchi ta'lim jarayonida kreativ metod, usullardan qancha ko'p foydalansa, o'ziga va o'zining ijodiy, kreativ imkoniyatlariga nisbatan ishonchi shuncha ortadi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirish jarayonida quyidagi holatlar so'z yuritilayotgan jarayonda samaradorlikka erishishni kafolatlaydi:

- oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish;

- oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish;

- oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish chora-tadbirlarini belgilash;

- talabalarning kreativ tafakkurini shakllantirishga yordam beruvchi shakl, metod va vositalar tizimini asoslash;

- mazkur jarayonda fanlararo aloqadorlikni ta'minlash;

- talabalar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-pedagogik bilimlarning amaliyotga tadbiriq etishga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish.

Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil rivojlantirilib boriladi. Xo'sh, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida kreativlik xususiyatlari qachondan namoyon bo'ladi?

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ham kreativlik sifatlari o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Shunga ko'ra tadqiqotlarda bo'lajak o'qituvchilarda kreativlik sifatlarni muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yo'llari yoritiladi. Patti Drepeau tomonidan bo'lajak o'qituvchilarda kreativlik sifatlarni muvaffaqiyatli rivojlantirishning to'rtta yo'li ko'rsatilgan:

1-yo'l: kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish. Bunda asosiy urg'u kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish asosiy e'tibor markazida bo'lib, talabalar fe'llar yordamida kreativ xarakterdagi harakatlarning mohiyatini ifodalashga yo'naltiriladi. Xususan, o'qituvchilar kreativ fikrlash ko'nikmasini samarali shakllantirish maqsadida talabalarga ularni fikrlashga undovchi savollar tarkibida zarur fe'llarning bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Bu holat misollar bilan tushuntirilsa, talabalardan "boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish darslari o'rtasidagi bog'liqlikni ta'riflab bering" mazmunidagi nazorat savoli ularda kreativlikni shakllantirmaydi. Zero, savol tarkibidagi "ta'riflab bering" tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra "mavjud bilimlaringizni birma-bir aytib o'ting" deyish bilan teng.

Nazorat savollarini berishda talabalarni fikrlashga undovchi so'z (fe'l)lardan foydalanish ularning kreativ fikrlashlarini osonlashtiradi. SHu sababli shaxsda kreativ sifatlarni shakllantirishning birinchi yo'lga ko'ra pedagoglar turli, antiqa, noan'anaviy hamda puxta javobni berishga majbur qiluvchi so'z (fe'l)lardan foyalanishlari maqsadga muvofiqdir. M: "*bog'liqlikni toping*", "*yarating*", "*bashorat qiling*", "*fikrni mantiqan bayon eting*", "*tasavvur qiling*" kabi so'z (fe'l)lardan foydalanish amaliy jihatdan samarali sanaladi.

Agarda pedagog talabalardan "boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish darslari o'rtasidagi bog'liqlikni ta'riflab bersh"ni talab qilish o'rniga, "boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish darslari o'rtasidagi bog'liqlikning barcha turlarini keltirish"ni so'rashi lozim. Natijada talabalar ham mavjud

bilimlarni umumlashtirish, ham yangi fikr va g'oyalarni ilgari surish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Pedagoglar birinchi yo'lni qo'llash – talabalarda kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda yosh o'qituvchilarning “Kreativlik xaritasi”dan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

2-yo'l: amaliy kreativ harakat ko'nikmalarini rivojlantirish. Pedagoglar talabalarda kreativ harakat ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko'rsatmali metod va usullardan foydalanadi. Bu o'rinda savollardan foydalanish faqat qisqa muddatda yordam berishi mumkin, biroq, talabalarda interfaollik va kirishimlilikni rivojlantirmaydi.

3-yo'l: kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish. Mazkur yo'l talabalarni muammoni yechish va innovatsion g'oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ, ijodiy fikrlashga urg'u beradi. Mazkur jarayonlarda kreativ metod va usullar faol qo'llanilmasa-da, kreativ fikrlash yuz beradi. M: “Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslari o'rtasidagi bog'liqlikni topish”. Topshiriqni bajarar ekan, talabalar boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslari bilan bog'liq turli muammolarni tahlil qiladi. Natijada ushbu jarayonda ko'p tomonlama fikrlash, mushohada yuritish ro'y beradi.

4-yo'l: kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish. Bu yo'lni tutishda pedagog talabalarga “Boshlang'ich sinf ona tili darslarini boshqa fanlar bilan integratsiyalash” mavzusida Power Point dasturi yoki multimediyaga yordamida taqdimotni yaratish topshirig'ini berishi mumkin. Taqdimotni tayyorlash jarayonida talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalari faol rivojlanadi.

Talabalar o'zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to'la namoyon qilishlari mumkin. Agar talabalarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo'rquv hissi mavjud bo'lsa, fikrni noto'g'ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrash bunday vaziyatda ularning kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo'lmaydi. Talabalarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin.

Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholashda qo'llaniladigan metod va vositalar (3-mavzu) muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativ xarakterga ega muhitdagina talabalar o'rganayotgan mavzuning mazmuni, o'quv axborotlar o'rtasidagi o'zaro aloqani tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi va bu haqida fikrlash boshlashadi (Anderson et al., 2000). M: talabalar “Boshlang'ich sinflarda fanlarning integratsiyasining mohiyati”ni “Aqliy hujum” strategiyasi asosida o'rganish jarayonda, eng avvalo, strategiyaning o'zi nimaligini, uni qanday qo'llash zarurligi haqidagi tushunchalarga ega bo'lishlari lozim.

Quyida mazkur metodlarni qo'llash imkoniyati misollarni keltirish orqali ochib berilgan, keltirilgan misollar o'z mohiyatiga ko'ra bo'lajak o'qituvchilarning kreativligini rivojlantirishga yordam beradi:

Ta'lim jarayonida talabalarda mavzu ichida kichik mavzularni hosil qilish ko'nikma va malakalarini hosil qilishga ham e'tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo'yicha mavzu ichida kichik mavzular hosil qilindi. Binobarin, bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilarga eng muhim axborotlarni uzata olish qobiliyatiga ega bo'lishlari zarur. Bu holat o'quvchilarni jismonan toliqishdan saqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash ikki tomonlama ahamiyatga ega. Birinchidan, ular o'zlaridagi mavjud kreativlik sifatleri, ularning darajasi borasida aniq tasavvurga ega bo'ladi, ikkinchidan, ular tomonidan tashkil etilayotgan ta'lim jarayoning sifati hamda samaradorligi xususida bir to'xtamga kelish mumkin. Shuningdek, kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bu boradagi faoliyatlari yo'nalishlarini belgilash imkoniyati yuzaga keladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlik sifatlarini rivojlantirish muayyan bosqichlarda kechadi. Mazkur bosqichlarning har birida kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalarining maqsadli, izchil qo'llanilishi, shuningdek, pedagogik faoliyatni tashkil etishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan ijodiy foydalanish o'qitish sifatining yaxshilanishi, samaradorligining oshishi uchun qo'lay sharoitni yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
2. Shodmonova Sh.S. Talabalarda mustaqillik tafakkurini rivojlantirish va rivojlantirish. Monografiya. – T.: 2001. – 80 b.
3. Nurullayeva Sh.O'. Mustaqil ishlar // Boshlang'ich ta'lim. – Toshkent, 2002. – № 5. – B. 28-29.
4. Rasulov R. Ijodiy munosabat ifodalovchi ruhiy holat fe'llari haqida // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2003. – B. 27-31.
5. Рождественский Н.С. О языке и речи в начальном обучении // Начальная школа. – Москва, 1992. – № 9-10. – С. 9-13.
6. Roziqov O. Nutqdan tilga // Boshlang'ich ta'lim. – Toshkent, 1992. – № 3-4. – B. 24-25.
7. Shodmonova M.B. Ona tili va adabiyot darslarida nutq o'stirish va tafakkurni uzluksiz rivojlantirish masalalari. Ta'lim mazmuni uzluksizligi // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2018. – № 4. – B. 3-7.
8. Qodirova K. Nutq o'stirishni baholash uslubi // Sog'lom avlod uchun. – Toshkent, 1998. – № 4-5. – B. 6-7.
9. Toshpulatova, N. S. qizi. (2023). ILMIY DUNYOQARASH VA TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(1), 238-244. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/cf/article/view/1153>

10. Shabbazova, D. (2022). CONTENT OF FACTORS DETERMINING THE EFFICIENCY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(5), 630-636.

11. D Azimova "The main Peculiarities of web tool 2 during teaching" *Academic research in educational sciences*, 2021.

12. Zaynab Abdunazarova. (2022). WAYS AND METHODS OF USING ROLE-PLAYING GAMES IN MOTHER TONGUE CLASSES FOR THE SOCIALIZATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(12), 85-90.

13. Parvina Kholikova Abdumalik kizi. (2022). THE SIGNIFICANCE AND PLACE OF USING NATIONAL VALUES IN THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11) 2022, 391-396.

14. F.U.Olloqulova. (2023). TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TAVSIFI. *Tadqiqotlar*, 6(2), 336-339.

15. Абдухалимова Ю. (2022). Педагогическая подготовка будущих учителей в воспитании самостоятельно мыслящих, творческих лиц в процессе непрерывного образования. *Общество и инновации*, 3(8/S), 103-108.

16. R.D.Norqobilova. Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini indikatorlar asosida diagnostika qilishning o'ziga xosligi. *INTERNATIONAL CONFERENCES*, 564-568. 2023

17. Shabbazova, D., Abduhalimova, Y., & Abdunazarova, Z. (2022). Psychological And Pedagogical Factors Of Developing Literacy Of Primary Class Students Based On Personal Value Approach. *Journal of Positive School Psychology*, 6(9), 3707-3712.

18. Y.Abduhalimova. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetentlikka tayyorlash hozirgi davrning dolzarb muammosi. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY jurnali*, 2022. ISSN: 2181-2624 www.sciencebox.uz Special issue | 2022 "Raqamlashtirish davrida mediata'lim va mediakompetensiya"

19. Muminova Umida Karshievna *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE"* Ankara, Turkey 2023 46 PHYTONYMS IN THE WORK "MAHBUB UL -QULUB".

20. Umida Muminova Qarshiyevna. *Central Asian Journal of Social Sciences and History* (ISSN: 2660-6836). Linguistic Views Of Mahmud Kashgari.

21. Dilfuza Shabbazova. (2022). MODEL OF PERSONAL VALUE FOR PRIMARY SCHOOL LITERACY LESSONS. *European Scholar Journal*, 3(5), 80-83.

22. Шаббазова, Д. Р. (2018). Влияние художественных произведений на развитии личности школьника. *Гуманитарный трактат*, (24), 18-20.

23. Y.Abduhalimova. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetentlikka tayyorlash hozirgi davrning dolzarb muammosi. *TA'LIM VA RIVOJLANISH*

O’QITUVCHINING KASBIY FAOLIYATIDA QO’LLANILADIGAN METODLARNING PEDAGOGIK-TEXNOLOGIK ASOSLARI

Ziyaqulova Zilola Shuhrat qizi

Termiz davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola ta’lim faoliyatida qo’llaniladigan metod va usullarning pedagogik -texnologik uslublarga ko’ra ishlab chiqilishi haqida bo’lib, darslarda foydalaniladigan ta’limiy o’yinlar bevosita pedagogik texnologiyalar yordamida amalga oshirilishi ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishilishini nazarda tutadi.

Kalit so’zlar: metodika, vosita, uslub, pedagogik -texnologiyalar, mafkuraviy, gigiyenik asos, pedagogik mahorat, samaradorlik tamoyili, uzviy integratsiya.

Bugungi Yangi O’zbekistonning ta’lim qiyofasi tubdan o’zgarishlarga yuz tutmoqda, natijada uning ko’rinishi tamomila yangicha qiyofaga ega bo’lib bormoqda. Bugungi kun o’qituvchisi o’zining ustida tinimsiz ishlashi, ijtimoiy sohadagi har qanday o’zgarishlarga faol munosabat bildirmog’i hamda tashabbuskori ham bo’lishi kerakligini tezkor ilm-fan zamoni isbotlab ulgurdi.

Mamlakatimizdagi umumiy o’rta ta’lim maktablaridagi dars jarayonlari, darsliklar, ilmiy muhit - bularning barchasi zamon bilan hamnafas holda to’xtovsiz o’zgarishlarga yuz tutmoqda. Ushbu jarayonda o’qituvchilar uchun nihoyatda yuqori ma’suliyatli bo’lish talab etiladiki, ular yordamidagina o’qitish tizimini yangilangan shaklda shakllantirish mumkin bo’ladi.

Xususan, har bir fan o’qituvchisi o’zining mutaxassislik fanlarini chuqur bilmog’i shart, ammo buning o’zi yetarli emas. Mutaxassislik fanini o’qitishda yuqori ta’lim texnologiyalaridan uzluksiz ravishda pedagogik tamoyillarga asoslangan holda darslarni tashkil etishi lozim bo’ladi. Buning uchun avvalo fan o’qituvchisi yuqori darajada nazariy jihatdan pedagogik texnologiyalar asosini o’zlashtirgan bo’lishi shart bo’lib, ularni amaliy faoliyatda ham kerakli o’rinlarda qo’llay bilishni ham anglashi lozim.

Dars jarayonida qo’llamoqchi bo’lgan ta’limiy texnologiyalarni har tomonlama ta’sir etishi mumkin bo’lgan jihatlarini ham inobatga olishi kerak, albatta. Shuning uchun o’qituvchi o’zi qo’llamoqchi bilan metodlarning ilmiy, psixologik, fiziologik va boshqa asoslarini bilishi uning faoliyatida nihoyatda zarur bo’lgan pedagogik ilmlardan biridir. Quyida ushbu asoslarga to’xtalib o’tamiz:

Pedagogik texnologiyaning ijtimoiy asosi har bir shaxs, jamiyat va davlatning ta’lim-tarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi hamda shu ehtiyojlarni qondirishning maqsad, talablarining tashkiliy shakllari va usullarini belgilaydi.

Pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi uning maqsadlari hamda tashkiliy shakl va usullarini falsafiy jihatdan to'g'ri yo'nalishda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiya fanining metodologik asosi uni amalga oshirishda qanday metodlarga asoslanishini belgilaydi. Hozir olam va uning xususiyatlari haqida xolis ma'lumotlar olish haqqoniy bilimlar hosil qilishning ilmiy metodikasi pedagogik texnologiyalarning metodologik asosi hisoblanadi. Metodologik asosning ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi texnologiyalar uchun zaruriy shartdir.

Pedagogik texnologiyaning didaktik asosi uning ta'lim-tarbiya qoida va tamoyillariga muvofiqligini belgilaydi. Didaktik talablar ta'lim-tarbiyaviy vazifalarning nazariy jihatdan to'g'ri bajarilishini ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyaning didaktik jihatdan to'g'ri bo'lishi uning yuqori samaradorligining zaruriy sharti hisoblanadi. Buning uchun zamonaviy didaktikaning ilmiy xulosalaridan ijodiy foydalanish talab qilinadi.

Pedagogik texnologiyaning pedagogik asosi pedagogik texnologiyaning umumiy tarkibiy tuzilmasi, mazmuni, shakli, usullari, vositalari, pedagogik jarayonning tashkil qilinishi, olib borilishi, uning diagnostikasi, monitoringi, o'quv-mavzu rejalar va shu kabilarning ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi ta'minlanadi. Pedagogik texnologiyalar hozirgi pedagogika fanining rivojlanishida katta o'rin egallab bormoqda.

Pedagogik texnologiyaning psixologik asosi psixologiya fanining ilmiy xulosalari va tavsiyalari bilan belgilanadi. Ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida to'g'ri foydalanish orqaligina kutilgan natijaga erishish mumkin. Shu sababli pedagogik texnologiya psixologiya qonunlarini to'liq hisobga olishi talab etiladi.

Pedagogik texnologiyaning fiziologik asosi o'quvchilarning turli yoshdagi fiziologik xususiyatlarini hisobga olishdan iborat. Bunda o'g'il va qiz bolalar fiziologiyasidagi farqlar alohida hisobga olinishi lozim. Pedagogik texnologiya jarayonida fiziologik talablarni hisobga olish sog'lom avlodni voyaga etkazishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning gigenik asosi ta'lim-tarbiya jarayonida salomatlikni saqlash talablariga rioya qilishdan iborat. Bunda turli zararli va ortiqcha ta'sirlarni bartaraf qilish, o'quv sharoiti: yoritilganlik, harorat, havoning tozaligi, o'quvchining va o'qituvchining ish o'rnini, jihozlar, o'quv bosimlarining me'yorlari, didaktik vositalarning qulayligi sifati va shu kabilar tibbiyot, fiziologiya, ekologiya talablariga, insonparvarlik va xalqparvarlik g'oyalariga muvofiq bo'lgan ilmiy asoslarda belgilab boriladi. Bu talab va me'yorlarga rioya qilish pedagogik texnologiyani amalga tadbiiq etish imkoniyatini yaratadi. Bu masalalarni o'rganish bilan maktab gigiyenasi fani shug'ullanadi.

Pedagogik texnologiyaning mafkuraviy asosi uning milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasi tamoyillarini o'zida mujassam etishi va ularni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishidan iborat. Bunda barkamol insonni shakllantirishda

mafkuraviy tarbiyaning fidoiy, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan boshqalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli, ijtimoiy faol insonni voyaga yetkazishdan iborat asosiy vazifalarni amalga oshirib borishi har bir pedagogik texnologiya uchun dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan asoslarni ham nazariy, ham amaliy jihatdan qo'llay olgan o'qituvchigina o'zining kasbiy faoliyatida yuqori darajadagi samaradorlikka erishadi. Bundan tashqari, ta'lim hamda tarbiyani uzviy ravishda o'qitish jarayoni hamda metodlariga tatbiq etib boradi. Natijada darslar nihoyatda qiziqarli, sifatli va, albatta, kafolatlangan natijani ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006.

2. Bo'ri Ziyamammedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnologiyalar zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent. 2009.

3. Tolipov O`Q. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent, 2010.4. G`aniyev A. Sadridin Ayniyning pedagogik faoliyati. Toshkent: O`qituvchi, 1965.

5. Qo'ldoshev B. Ona till va adabiyot fanlarining o'zaro integratsiyalashuvi. Ona till darslarida YPT dan foydalanishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati. Ma'ruza matni. – Andijon, 2006.

6. Шаббазова, Д. Р. (2018). Влияние художественных произведений на развитии личности школьника. Гуманитарный трактат, (24), 18-20.

7. Xurramova, M., & Shabbazova, D. R. (2023). ONA TILI VA O 'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ILMIIY MATERIALLAR TANLAY BILISH TEXNIKASI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(6), 30-34.

8. Xurramova, M., & Shabbazova, D. R. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF SAVOD O'RGATISH DAVRIDA O'QUVCHILARNING YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI. Академические исследования в современной науке, 2(9), 156-163.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА МОДЕЛИРОВАНИЯ КАК УСЛОВИЕ ЭФФЕКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

*Автор: А.Т. Назирова
(студент ТГПУ имени Низами)
Научный руководитель: Р.М.Садыков
(PhD, и/о доцента ТГПУ имени Низами)
Ташкент, Узбекистан*

Аннотация. В статье рассматривается эффективность применения метода моделирования в обучении младших школьников русскому языку. Раскрыта структура орфографического действия и поле

орфографии, рассмотрены разные приемы работы на уроке русского языка в рамках его моделирования, позволяющих успешно формировать коммуникативную компетенцию младших школьников.

Ключевые слова: Государственный образовательный стандарт, методы и приемы обучения моделирования, лингвистическое понимание модели, структура орфографии.

Введение. Реформы, проводимые в Республике Узбекистан, охватывают многие сферы жизнедеятельности граждан Республики. Образование в этом ряду является одним из приоритетных направлений. Обновление образовательных целей повлекло за собой изменение и содержания начального образования, вызвало изменение ведущих направлений работы, подходов и методов в обучении русскому языку в начальной школе. На передний план выходит применение в образовании инновационных методов обучения, нестандартных подходов, интерактивных методов и другой инструментарий при изучении русского языка в начальных классах.

В современной педагогике термин «модель» подразумевает создаваемая на основе определенной системы взглядов и идей общая картина явления, которая с помощью творческой интуиции и настойчивого труда помогает понять и описать изучаемый предмет. При этом модель как система объектов или знаков, воспроизводящая некоторые существенные свойства системы-оригинала, является обобщенным отражением объекта изучения, результатом определенного практического опыта, а не результатом эксперимента. Важным принципом системы моделирования является наличие творческой фантазии. В педагогике моделирование успешно применяется для решения важных дидактических задач. Например, педагог-исследователь может разработать модели, направленные на:

- ✓ оптимизацию структуры учебного процесса;
- ✓ активизацию познавательной самостоятельности учащихся;
- ✓ личностно-ориентированного подхода к учащимся в учебном процессе.

Необходимо отметить, что моделирование - это динамическая система, которая развивается, изменяется, дополняется по мере расширения научного знания и практического опыта. Следовательно, моделирование определяется как «метод исследования объектов и явлений при помощи их условных образов, аналогов» и широко используется в педагогике.

Теоретический анализ литературы. Моделирование, в настоящее время, как общенаучный метод познания используется в разных науках, и является также одним из основных атрибутов исследований. С другой стороны моделирование также является одним из основных атрибутов современного педагогического исследования.

Методологические аспекты методики обучения русскому языку в целом и в частности исследования по применению метода моделирования при изучении русского языка в начальной школе были изучены в трудах отечественных педагогов, таких как: Ш. Юлдашевой, Л.И. Рахматуллаевой, Р.Г. Сафаповой, А.Я. Бобомуродовой, А.Р. Хамроевой и Т.У. Зиёдовой и др. В странах содружества по данному направлению работали такие учёные, как: А.А. Леонтьев, М.Р. Львов, М. С. Соловейчик, В. Ю. Габитова и многие др.

Исходя из изученной литературы, можно сделать вывод, что модели создаются в педагогике в целях понимания существующей педагогической реальности, а также для ее проектирования и управления развитием образования в соответствии с поставленными задачам и опытом педагогов. Модель в познании выступает способом действия, с помощью которого осуществляется репрезентация. Репрезентация также трактуется широко – как «любое отображение структур на структуры или свойств на свойства». Наличие способа действия, по мнению М. Вартофского, предполагает соотнесение с видимой целью.[3] А это предопределяет целенаправленность как свойство модели. Актуальными оказываются целеполагание замысла – целеустремленность действия, направленного на его осуществление.

Широкое понимание модели позволяет считать «все что угодно репрезентацией всего что угодно» при соблюдении следующих условий: «любая сущность может рассматриваться как модель любой другой тогда и только тогда, когда мы можем выделить общие релевантные свойства, т.е. свойства, благодаря которым одна сущность похожа на другую»; модель должна быть столь же богата своими свойствами, как и ее объект, но не больше.[3] Такие качества моделирования обусловлены особенностями человеческого познания, по частям охватывающего объект, постепенно открывающей его черты и лишь на этом основании создающего целостное представление. Именно эта специфика познавательных процессов очерчивает границы моделирования, представляющие собой «границы наших представлений о том, какие свойства этих сущностей и для каких целей являются релевантными».[3]

Под моделированием как методом обучения понимается процесс создания моделей и их использование для формирования знаний о свойствах, связях объектов. Особенность моделирования как метода обучения в том, что оно делает наглядным скрытые от непосредственного восприятия связи, отношения объектов, которые являются существенными для понимания фактов, приближающихся по содержанию к понятиям.

Главная особенность процесса усвоения состоит в его активности: знания могут быть усвоены только тогда, когда ученик выполняет какие-то действия с ними. Поэтому при планировании усвоения любых

знаний необходимо заранее определить, в каких действиях они должны использоваться учащимися, т.е. с какой целью они усваиваются. Конструктивно задать цель усвоения знаний – это значит указать те умения, в которых эти знания будут функционировать. Все эти действия можно осуществить, используя метод моделирования.

Прежде всего, необходимо создание системного подхода к процессу обучения. То есть основная педагогическая задача – это создание и организация условий, которые бы инициировали детское действие и восприятие в процессе обучения. Прежде чем составлять модели обучения, необходимо выстроить определенную систему, которая должна быть подчинена решению следующих вопросов:

Чему учить → **Ради чего учить?** → **Как учить?**

Моделирование позволит ответить на данные вопросы и сформировать универсальные способы действий. Младший школьный возраст является началом формирования учебных действий у детей. С помощью моделирования можно свести изучение от простого, незнакомого к знакомому, то есть сделать объект доступным для тщательного изучения.

Во – первых, введение в содержание обучения понятий модели и для моделирования существенно меняет отношение учащихся к учебному предмету, делает их учебную деятельность более осмысленной и более продуктивной.

Во- вторых, целенаправленное и систематическое обучение методу моделирования приближает младших школьников к методам научного познания, обеспечивает их интеллектуальное развитие.

Для того, чтобы применять методы моделирования, прежде всего необходимо освоить теорию моделирование урока, исходя из этого педагогом формулируются следующие основные параметры:

- ✓ определяется тип урока;
- ✓ определяется цель, которая должна быть достигнута данным уроком;
- ✓ формируются начальные условия для достижения цели урока;
- ✓ выбирается метод обучения и его организационная форма;
- ✓ разрабатывается структура урока;
- ✓ выбирается содержание урока и средств, применяемых в ходе урока;
- ✓ подбираются (или изобретаются) педагогические технологии;
- ✓ прогнозируется имидж урока.

Чаще всего моделирование применяется именно на этапе формирования орфографических умений. Как мы все знаем, согласно возрастной периодизации Львова для младших школьников характерно

наглядно-действенное мышление (т.е., для решения трудной задачи школьник совершает ряд действий: проговаривает, читает, рисует и т.д.).[1] Оно является доминирующим у детей младшего школьного возраста. Именно поэтому и полезны модели. Младшему школьнику легче фиксировать понятия и воспринимать модель, чем слова. Действие моделирования пробуждает познавательную деятельность учащихся. Средством обучения, по мнению С.П. Баранова, является оригинал – предмет или явление в реальных связях и отношениях окружающего мира.[4] Соотношение модели и оригинала позволяет рассматривать обучение как целостный процесс.

Методы использования модели направлены на множество умений, таких как: поиск необходимой информации, работа со словарями и справочниками, поиск главного и его запись, использование знаково-символических средств для решения поставленных задач, сравнивать, анализировать, классифицировать явления и процессы действительности. [2] Соотношение модели и оригинала помогает младшему школьнику углубить свои знания. Само по себе действие моделирования включает в себя замещение объекта образом. Овладение моделированием - основной показатель развития младшего школьника. Ниже вы можете увидеть разные способы моделирования. Например, графическая модель сложного предложения: [— —] и [— —]

Модели могут выглядеть по-разному, в том числе в виде схем.

- составление алгоритма действий
- схема разбора слова по составу;
- схема разбора предложения по членам предложения.

Схемы создают у школьников наглядную основу для изучения объекта (его некий образ), что позволяет подключить к усвоению объекта не только логическое, но и более развитое образное мышление. Это особенно важно для детей с преимущественно развитым правым полушарием, которые усваивают материал в основном за счёт создания таких образов.

Использование в процессе обучения опорных схем позволяет наглядно продемонстрировать основные характеристики понятий и усвоить их. Опорные схемы способствуют развитию способов деятельности учащихся, т.к. изучение понятий с опорой на схемы вызывает необходимость проводить ряд действий с каждым из них.

Правило - указание для выбора из ряда возможных.

Пример этого правила:

«Имена, отчества и фамилии пишутся с большой буквы». Данное правило является неким алгоритмом, что тоже является моделью словесного типа.

Алгоритм: 1-й шаг: прочитать предложение. О ком, о чем в нем говорится? 2-й шаг: назвать имя, отчество или фамилию. Какая первая буква в имени? Отчестве? Фамилии?

«Правило постановки точки, вопросительного или восклицательного знаков в конце предложения». Алгоритм: 1-й шаг: прочитать предложение (или текст). О ком, о чем в нем говорится? 2-ой шаг: как произносится предложение: что-либо спокойно сообщается или произносится с особым чувством либо с вопросом? 3-ий шаг: Какой знак нужно поставить в конце предложения?

3. Правило - результат наблюдения над грамматикой.

Пример такого правила. «Родственные слова называются родственными, потому что имеют общий корень, соответственно общая часть таких слов пишется одинаково». В этом правиле отражено самое первое знакомство с написанием безударных гласных и звонких/глухих согласных в корне слова.

4. Грамматические правила (определения).

Такие правила создают грамматическую основу для орфографии. Обычно после них дается орфографическое правило.

Примеры данного правила:

- Правила склонения имен существительных создают основу правописания безударных падежных окончаний, главным образом существительных, «-е» и «-и».

- Правила спряжения глаголов, правила различения окончаний 1 и 2 спряжений глаголов в настоящем и будущем временах.

Грамматические правила имеют свои алгоритмы из 3-5 шагов; по отношению к орфографической задаче эти алгоритмы играют роль распознавания. Например, алгоритм распознавания приставки с целью ее правильного написания (3 класс) состоит из 4-х шагов. 1-ый шаг: найти в слове корень; 2-ой шаг: определить, есть ли в слове приставка, назвать ее; 3-ий шаг: определить, какое слово образовано с помощью приставки. От какого слова образовано? 4-ый шаг: проговорить приставку отчетливо – по буквам. Запомнить: она пишется всегда одинаково (4-ый шаг – орфографический).

Заключение. Таким образом, обучающиеся должны выразить общий способ решения в виде модели. Данные виды работ направлены как на формирование орфографической зоркости, так же на действие моделирования при решении задач. Результат по нашему исследованию довольно продуктивный, младшие школьники стали успешнее в учебе. Следовательно, педагогам младших школьников необходимо уделить процессу моделирования особое внимание на уроках русского языка.

Литература.

1. Львов, М.Р. Русский язык в школе: История преподавания: Курс лекций для студентов педвузов и колледжей / М.Р. Львов. – М.: Вербум-М, 2007.

2. Садыков, Р.М. / Use of information technologies in teaching students of primary educations to solve combinatorics problems / R.M. Sadikov //Theoretical & Applied Science - 2020 - №3 (83). - С. 343-346

3. Вартофский М. / Модели. Репрезентация и научное понимание./ - М.: Прогресс, 1988.- 507 с.

4. Баранов, М.Т. Методика преподавания русского языка в школе: учеб. для студ. высш. пед. учеб. заведений / М.Т. Баранов, Н.А. Ипполитова, Т.А. Ладыженская, М.Р. Львов; под ред. М.Т. Баранова. – М.: Издательский центр «Академия», 2000. – 368 с.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННОЕ ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗОВ

*Термезский государственный педагогический институт
преподаватель кафедры Русского языка и литературы*

Халиков Насриддин Абдикаримович

Аннотация: Рассматривается модель профессионально ориентированного обучения русскому языку студентов, получающих образование вузе. Обобщается опыт работы с созданными для студентов учебными пособиями; приводятся аргументы в пользу модели, учитывающей профессиональные и языковые потребности специалистов профиля.

Abstract: A model of professionally oriented teaching of the Russian language to students studying at a university is considered. The experience of working with textbooks created for students is summarized; arguments are given in favor of a model that takes into account the professional and linguistic needs of profile specialists.

Бугунги кунда таълим-тарбия тизимини янада такомиллаштириш, узлуксиз таълим тизимининг айниқса бошланғич таълимидан бошлаб токи олий таълим бўғинининг мазмунига миллий қадрият ва анъаналарни сингдириш, уларни илғор ғоялар билан бойитиш ва модернизациялашга йўналтирилган кенг кўламли ислохотларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ. Аждодларимиз томонидан асрлар давомида яратилган бебаҳо маънавий мерос, унитилган қадриятларни қайта тиклаш, миллий ўзликни англаш масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Миллий анъана ва қадриятлар қайтадан мустақкам қарор топиши натижасида бошланғич таълимда педагог фаолияти келажак учун буюк шахсларни етиштириб беришда нафақат фан асослари юзасидан билим, кўникма ва малакалар билан қуроллантиришда, балки синфдан ташқари бўш вақтларини мазмунли ташкил этишда, уларнинг бирор касб ёки ҳунарга мойилликлари, иқтидори, қизиқиши ва интилишларини борлигини инобатга олган ҳолда профессионал таълимнинг илк ва давомли сабоқларига жалб этиши зарур. Дарҳақиқат юқори савияли мустақил оилавий ҳаётга тайёр шахсни тарбиялашда “Оила, таълим муассасаси ва жамоатчилик” концепциясининг аҳамияти беқиёсдир. Мазкур концепция асосида замонавий ёшларни мустақил оилавий ҳаётга тайёрлашда педагоглар ота оналар билан, яқин, самимий, оқилона муносабатларини жонлантириш диққатга сазовор.

Шунингдек, мазкур концепция бу икки тарбия субъектлари орасида нафақат мустақил оилавий ҳаётга тайёрлашга доир маълумотларини ўзаро алмашиш, балки юқоридаги хулоса: қайси фазилат ва сифатлар асосида мустақил ҳаётга тайёрлаш ишларини ташкил этиш, олинган натижаларни амалиётга қандай тадбиқ этиш, қайси мақсад ва ғоялар амалиётга йўналтириш ва бошқа шу каби маънавий-маърифий тарбия масалалари билан уйғунликда олиб боришни кўзда тутмоқда. Демак, бугунги оила ва таълим муасасалари муносабатларида ёшларни мустақил оилавий ҳаётга тайёрлаб боришда аввало касб ҳунарга йўналтириш ишларини тўғри йўлга қўйишда аҳамият қаратилиши ўзига хос ва муҳим хусусият сифатида намоён бўлади. Хатто, ёшларни мустақил оилавий ҳаётга тайёрлаш ишларининг тўғри ташкил этилиши ва уни янада такомиллаштиришга қаратилаётган эътибор марказида – бўлажак оила бошқаруви эгаларининг маънавий камолотига ғамхурлик қилтинаятгани алоҳида феномендир.

Глобал муносабатлар ривожланиб, турли ахборотлар билан бир қаторда, ранг-баранг ғоя ва қарашлар шиддат билан оммавийлашиб бораётган ҳозирги даврда, ёшлар касбий камолотига эътибор бериш ҳар қачонгидан долзарблашиб, замонавий педагогика олдида ҳам бир қатор вазифаларни қўйиши табиийдир. Ёшларни жамиятнинг муҳим бўлаги ҳисобланган оила ва унинг барча функцияларига тайёрлаш, уларни барча мустақил оилавий ҳаётга тайёрлашга оид чуқур билимларга эга бўлиши – маънавий камолот билан уйғунликда олиб боришни тақозо этади. Ёшларда касбий маҳоратни тарбиялаш, уларнинг маънавий-маърифий салоҳиятини ошириш, изланиш, ижод қилиш, бир сўз билан айтганда ҳар томонлама етук шахсни шакллантиришда ўзига хос тарбиявий таъсир кўрсатиш мавжудлиги билан “устоз-шогирд” анъаналари катта аҳамият касб этади.

“Устоз-шогирд” анъаналарининг яна бир характерли жиҳати шундаки, унда шогирднинг ўз имкониятларига ишонч, вазиятни тўғри баҳолаш ҳамда иродавий сифатлари шаклланади, энг асосийси унинг ижтимоий фаоллиги устозлар назоратида бўлади. Устознинг энг буюк бурчи – юрт равнақида ўзининг муносиб ҳиссасини қўша оладиган, ақл-идрокли, фаҳм-фаросатли ва қобилиятли шогирдлар тайёрлашдан иборат. Устоз яхши шогирд тайёрлаш учун аввало унинг ўзи касбий салоҳиятли, маънавий баркамол, кенг дунёқараш ва соғлом фикрга эга бўлмоғи лозим.

Қадимдан “устоз-шогирд” анъаналарида устоз нафақат шогирдига йўл-йўриқ, кўрсатма берибгина қолмай, ўз навбатида уларни мустақил фаолиятга тайёрлаган ҳамда ўзидан кейин иш тажрибаси, билим ва маҳоратини аждоддан авлодларга ўтишига имконият яратган. Узлуксиз таълим тизимини модернизациялаш жараёнида “Устоз-шогирд” муносабатларининг муайян дастур, режа асосида олиб борилиши

мақсадга мувофиқ. Бу борада шогирд билан олиб бориладиган иш шаклларида устоз қўйидагиларга риоя қилиши лозим:

- шогирдга тарбиявий таъсир кўрсатишда уларни замон талабларига, жамиятнинг янги қонун-қоидаларига мос билимлар билан қуроллантириш;

- ягона мақсад сари интилишга, ишнинг натижасини кўра билишга ўргатиш;

- шогирднинг руҳияти, маънавиятига ижобий таъсир кўрсата олиш ва ўз ўрнида талабчан бўлиш;

- ўзини ва ўзгаларни ҳурмат қилишга одатлантириш;

- муваффақиятни кўзлаган ҳолда олға одимлаш;

- ижобий қайтувчан алоқани ўрнатиш;

- тарбияда турли хил усуллардан фойдаланишга эътибор қаратиш;

- тарбия жараёнида устознинг ҳар томонлама: маънавий, ахлоқий, касбий жиҳатдан намуна бўлиши;

- бурч, масъулият, жавобгарлик ҳиссини шакллантириб бориш ва ҳоказо. Юқори малакали ҳар томонлама етук мутахассис кадрлар тайёрлашга қаратилган “устоз-шогирд” анъаналарида қўйидаги педагогик тамойиллар муҳим аҳамият касб этади:

- онглилик ва фаоллик, яъни эгаллаётган у ёки бу фаолиятнинг ўзига хос жиҳатлари, моҳиятини онгли тарзда тўлиқ англаб етиш, унинг истиқболи ва равнақида фаоллик билан ҳаракат қилиш;

- таълим-тарбиянинг турмуш, ҳаёт билан чамбарчас боғлиқлигини инobatга олиш;

- ўқитиш, тарбиялаш мазмуни ва шогирдлик босқичлари изчиллик билан белгилаб қўйилган аниқ мантиқий тартибга эга бўлиши;

- илм-фаннинг сир-асрорларини эгаллашда пухталики;

- шогирднинг ёши ва ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олиш;

- мустақилликка, ижодий изланишга йўналтириб боришда назарий билимларнинг амалиёт билан боғлиқлигини ҳисобга олиш.

Юқорида таъкидланганидек таълим-тарбия тизимида “устоз-шогирд” муносабатларини шакллантириш ва ривожлантириш таълим-тарбиянинг янада самарадорлигини ошишига ёрдам беради, юқори малакали шогирд тайёрлашдан кўзланган самарани беради.

Педагогик таълимот ғояларига кўра амалий кўникма ва малакалар бевосита машқлантириш, яъни муайян фаолиятни амалга бевосита бажариш орқали шаклланади. “Устоз-шогирд” анъанаси эса ўқувчи - ёшларда бевосита ишлаш, уларнинг индивидуал хусусиятларини инobatга олган ҳолда ёндашиш, мавжуд иқтидорларини янада ривожлантириш учун қулай шарт-шароитни яратиши билан аҳамиятлидир. Бу каби ҳолатлар ўқувчиларни нафақат меҳнат ва ишлаб чиқариш фаолиятига масъулият билан ёндашиш, балки ўзгалар меҳнатини қадрлаш, ҳалол меҳнат қилиш, меҳнат самарадорлигидан ғурурланиш каби маънавий-ахлоқий сифатларни ҳам тарбиялайди.

Болалар тарбиясида шарқона, қадимий аждодлар урф-одатлари, анъаналари, ахлоқ-одоб қоидаларига амал қилишда халқимизнинг миллий тарбия тизимидан унумли фойдаланишга алоҳида эътибор бериш ва бу борада устозлар ўз кучи, ақл-заковотини аямасликлари лозим.

Юқоридаги фикрлардан кўринадикки, ҳозирги таълим тизимини модернизациялаш ва кенг қамровли демократик ислохотлар муҳитида келажак авлоднинг ватан равнақиға ўз ҳиссаларини кўша оладиган комил шахс қилиб тарбиялаш давр талабига айланди. Бу борада таълим-тарбия тизимини модернизациялаш жараёнида “Устоз-шогирд” анъаналари имкониятларидан унумли фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Исламова Ф.Ш. Подготовка мальчиков к самостоятельной семье как педагогическая необходимость. Журнал “Педагогическое образование и наука”. 2022. №1.. С.139-143.

2. Otajonova, O.A., Islomova, F.S., Fayazova, F.S., & Nematov, BS (2022). O'smirning gender o'ziga xosligiga ota-ona munosabatlarining ta'siri. Pozitiv maktab psixologiyasi jurnali, 6 (10), 2393-2399.

3. Islamova, F. Sh. (2022). Healthy lifestyle as a factor of family welfare in preparing young people for independent life. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 2 (5), 41-46.6.

4. F.Sh. Fayazova, O.A. Otajonova, F.Sh. Islamova. The Role Of Art Therapy In The Formation Of Healthy Living Skills In Adolescents. Natural Volatiles and Essential Oils (NVEO) , 2021; 8(4): 15291-15295.

5. Islamova F.Sh, Vaniyan S.B. The role of parents in forming spiritual education on the basis of creative approaches. current research journal of pedagogics. ISSN 2767-3278 ©2021 Master Journals. 2(12): 162-165, December 2021.

6. Fotima Islomova, Fazilat Fayozova. Family traditions in vocational guidance, a guarantee of preparing young people for independent living. ACADEMICIA An International Multi disciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492. ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 10, October 2021

7. Фотима Исламова. “Ўфил болаларни мустақил оилавий ҳаётга тайёрлаш: педагогик омиллар, методологик асослар, тарбиялаш ва самарадорлик”. “Таълим, фан ва инновация” маънавий-маърифий илмий-услубий журнал. Тошкент. 2022/6-сон.) 224-б.

8. Ў. К. Жалолова. Ахлоқий қадриятлар – маънавий негизи. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 5, июль, 2012 йил.

МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ОЛИШ ТАЛАБАЛАР УЧУН МУҲИМ ВАЗИФА

ТерДПИ ўқитувчиси С.И.Турсунова

ТерДПИ 2-босқич магистранти Чориева Хулкар Боходир қизи

Аннотация: Мустақил таълим ҳар талаба учун жуда керак бўлган илмий фаолиятдир. Мустақил таълим олаётган талаба ўз устида ишлайди ва ўзини қизиқтирган саволларга жавоб топади.

Калит сўзлар: Мустақил таълим, талабалар, изланувчанлик, ўз устида ишлаш, олий таълим тизими, ўқув жараёни, дарсдан ташқари жараёнлар.

Аввало, ҳар бир ўқувчи ўқув жараёнида руҳий гигиена қоидаларига риоя қилиши керак. Шунинг учун улар ақлий меҳнат механизмларини, чарчоқнинг пайдо бўлиш сабабларини, иш фаолиятини яхшилаш йўллари, шунингдек, овқатланишни, дам олишни ташкил қилишни ва ҳоказоларни очиб беришлари керак. Бунинг учун, айниқса, ориентация дарсини ўтказиш керак. сиртқи талабалар билан. Уларга инсон танасининг кунлик ритми кучли фаолият ва уйқу соатларида доимий равишда ўзгариб турадиган бир қатор физиологик функциялар билан белгиланишини этказиш. Кундузги талабанинг ҳаёти ва фаолиятини оптимал ташкил этишда кундалик тартиб муҳим роль ўйнайди - бу ўқув машғулотларининг биринчи кунларида илмий ва педагогик ходимлар томонидан тавсия этилади. Биринчи курс талабалари мустақил ўқув ишларига мослашишлари керак. Шунинг учун биринчи курс талабалари олий ўқув юртидаги ҳаёт ва фаолият шароитларига мослашишлари керак. Бунинг учун бу ерда илмий ва педагогик ходимларнинг мақсадли педагогик ёрдами зарур. Бу, биринчи навбатда, психологик ноқулайлик, ишончсизликни бошдан кечираётган ўқувчига эътибор. Шунини эсда тутиш керакки, талаба учта қийинчилик гуруҳига таъсир қилади: ижтимоий, таълим, касбий. Ижтимоий қийинчиликлар яшаш жойининг ўзгариши, янги турмуш шароитлари, янги одамларнинг муҳим доираси (илмий ва педагогик ходимлар, ҳамкасблар, хизмат кўрсатувчи ходимлар) билан мулоқот қилишнинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқади; бюджетни мустақил равишда бошқариш, ўз ҳаётингизни тартибга солиш, янги режимга ва кундалик ишларга кўникиш зарурати ва ҳоказо. Ўқув материалларининг талабалар томонидан мустақил ўзлаштирилишини такомиллаштиришмасдан замонавий таълим олдиға қўйилган вазифаларни талаб даражасида бажаришнинг умуман имкони йўқ. Мустақил билим олиш назарияси ва технологияда ҳам педагогик тамойиллар асосий ролни ўйнайди. Мустақил билим олаётган субъектни таълим жараёнида ҳеч ким ўқишга мажбур этмаслиги муҳимдир. Зеро “Юзта ўқитувчи ёлла, лекин ўзинг ўзингни мажбурлай олмасанг, ўзингдан ўзинг талаб қила билмасанг, уларнинг ҳеч бири сенга ёрдам бера олмайди”-деган эди украин педагоги Василий Сухомлинский.

Мустақил билим олиш сабабларининг ривожланиши субъектни ижодий фаолиятини ташкил этишга ундайди ва шу билан унинг олдига - мустақил билим олиш қандай бўлиши керак деган саволни қўяди. Мустақил билим олиш технологияси ва мустақил билим олиш сабаблари бир-бири билан боғлиқдир: аниқ натижага эриша олишига ишонмаслик таълим олувчини мустақил билим олишдан ҳар қандай бошқа сабаблардан кўра кўпроқ чўчитади ва мустақил ишланишига тўсқинлик қилади. Мустақил билим олиш технологиясини яратиш бир неча алоҳида муаммоларни ҳал этишни кўзда тутаяди. Улар орасида мунтазам билим олишнинг мақсадини қўйиш муаммоси алоҳида ажралиб туради. Агарда таълим олиш умумий ривожланишни таъминлашга хизмат қилса, мустақил билим олишнинг мақсади эса касбий шаклланиш ёки касбий маҳоратни ўстиришга хизмат қилиш бўлиб ҳисобланади. Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2021 йил №3) ISSN 2181-1709 (P) 172 Education and innovative research 2021 у. №3 Мустақил билим олишни таъминлашга имкон берадиган топшириқлар тушунча, сабаб ва қадриятли йуналишларни ўзлаштириши паст даражали ва қониқарсиз бўлган талабалар учун қулай шароитни яратишни кўзда тутаяди. Биргина муваффақиятни ҳис этиш ҳам талабани мустақил билим олишга ундовчи психологик ҳолатни юзага келтиради. Талабанинг мустақил иши унинг аудиторияда ва ундан ташқарида, ўқитувчи раҳбарлигида ёки ўқитувчи иштирокисиз амалга ошириладиган мустақил иш мажмуини англатади. Лекин, ҳамма талабалар ҳам ўқитувчи иштирокисиз мустақил изланади деб айта олмаймиз. Чунки талабаларнинг аксариятида ўзига бўлган ишончнинг йўқлиги уларнинг мустақил билим олишларига тўсқинлик қилади. Шундай экан, талабаларнинг ўзига бўлган ишончини, ошириш учун мустақил таълимни бажаришда мустақил ишни бажарувчини дастлаб фан бўйича билимларини бойитиш, ҳар бир фан ҳаётнинг ҳар бир жабҳасида кераклигини аниқ мисоллар ёрдамида изланувчига етказиш зарур. Мустақил таълимни ташкил қилиш ҳозирда талабалар орасида мустақил таълимни ташкил этишдаги мавжуд муаммоларни ҳал қилишга ёрдам беради. Ҳозирда таълим олувчилар орасида мустақил таълимни ташкил этишдаги муаммолар қуйидагилар: -вазифаларни ҳамма талабаларнинг бажармаслиги; -талабаларда ўзига бўлган ишончнинг йўқлиги; - талабалар нутқ маданиятининг яхши ривожланмагани; -талабаларни баҳолашда вақтнинг етишмаслиги; Мустақиллик-шахснинг алоҳида хусусияти, лаёқати, фаоллиги диққатини жамлаш қобилияти, қўйилган мақсадга эришиш йўлида бор кучини сарф этиш каби хусусиятлар бирлигидир. Шу нуқтаи назардан айтганда, мамлакатимизда ўтган давр мобайнида таълим тизимини ривожлантиришга давлат сиёсати даражасида эътибор қаратилиб, ўғил-қизларимизнинг жаҳон андозаларига мос шароитларда билим олиши, жисмоний ва маънавий жиҳатдан етук инсонлар бўлиб улғайишини таъминлаш, қобилияти

ҳамда иқтидор, интеллектуал салоҳиятини юзага чиқариш борасида кенг қўламли ишлар амалга оширилди. Юқори малакали мутахассислар тайёрлаш бугунги куннинг долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади. Талабаларга юқори даражадаги билимни ўқув аудиториясидаги машғулотлар тўлиқ бера олмайди. Буни амалга оширишда мустақил ўқув фаолияти тўлдирувчи ривожлантирувчи вазифасини бажаради. Аудиториядан ташқарида бажариладиган мустақил ишлар қуйидаги турларда амалга оширилади: - маъруза, амалий машғулотлар, семинар ва лабораторияларга тайёргарлик; - ўқув режадаги фанларнинг маъруза машғулотларида ўрганилмайдиган мавзуларини мустақил ўрганиш; - интернетдан керакли маълумотларни излаб топиш; - курс ишлари, курс лойиҳалари, битирув малакавий ишлар ва магистрлик диссертацияларни тайёрлаш; - ахборот-ресурс маркази каталоги орқали мустақил равишда адабиётларни излаш; - ўқув аудиоёзувларини эшитиш, видео-материалларни кўриш; - ўрганилаётган мавзу бўйича дарслик, ўқув қўлланмаларни ўрганиш; - назорат ишларини бажариш; - мавзулар бўйича докладлар, рефератлар ва эсселар ёзиш; - семинар ва конференцияларда маъруза қилишга тайёргарлик қилиш; - амалий машғулотларда берилган масала ва мисолларни ечиш; - ўқув материалларини тизимли ўрганиш мақсадида альбом, жадвал, схема, ребус, тестлар ва кроссворд тузиш; - ўрганилаётган мавзулар бўйича алоҳида талаба ёки бир гуруҳ талабалар кўрғазмали қўлланмалар тайёрлаши; - мустақил ўрганилаётган саволларни конспектлаш; - маърузада олинган билимларни мустаҳкамлаш мақсадида тестлар ечиш; - ижодий ва илмий ишларни бажариш; - талабаларнинг илмий жамиятлар ва тўғаракларда иштирок этиши; - танловлар ва олимпиадаларда қатнашиш; - ўтган амалиёт бўйича ҳисоботлар, талабалар конференцияларига илмий докладлар тайёрлаш; - ҳисоб-китоб ва график ишларни бажариш; - жорий, оралиқ ва якуний назоратларга тайёргарлик кўриш; - монографияларни конспектлаш. Бизнинг фикримизча, мустақил таълим самарадорлигини ошириш учун авваламбор мустақил таълимга ажратилган соат улушини кўпайтириш керак. Педагог талабаларни мустақил ишларни бажаришга йўналтириши учун малакасини ошириш лозим, педагоглар мустақил таълимни самарали ташкил этиши ва талабаларни мустақил ишларни бажаришга психологик тайёрлаши керак.

Шу ўринда мустақил таълим тушунчасига изоҳ бериб ўтсак. Мустақил таълим-олинган билим, кўникма ва малакаларни мустаҳкамлаш, қўшимча маълумот ёки материални мустақил ўрганиш мақсадидаги ўқув шакли. Талабалар ўқитувчининг бевосита иштирокисиз ёки билвосита бошқарувида, у берган вазифа, дарслик асосида индивидуал бажарадиган Талабаларнинг мустақил иши ўқув жараёнининг ажралмас қисмидир. Мустақил фаолият муайян фандан ўқув дастурида белгиланган ҳамда талаба томонидан ўзлаштирилиши

лозим бўлган билим, кўникма ва малакаларни шакллантиришни амалга оширишга хизмат қилади, ўқитувчи маслаҳати ва тавсиялари асосида аудитория ёки аудиториядан ташқарида бажарилади. [1]

Фаннинг хусусиятидан келиб чиқиб, мустақил иш турлари бўйича топшириқлар ишлаб чиқилади. Ўзбекистон Республикасида Кадрлар тайёрлаш миллий дастури талабига мувофиқ талабаларнинг мустақил ишини ташкил этишга катта эътибор бериб келинмоқда. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2005 йил 21 февралдаги «Талабалар мустақил ишини ташкил этиш тўғрисида»ги 34-сонли буйруғи билан тасдиқланган «Талабалар мустақил ишини ташкил этиш, назорат қилиш ва баҳолаш тартиби тўғрисида»ги Намунавий низомда қуйидагилар аниқ белгиланган: – талабалар мустақил ишининг мақсад ва вазифалари; – талаба мустақил ишининг ташкилий шакллари; – талаба мустақил ишининг ахборот таъминоти; – талаба мустақил ишини назорат қилиш ва баҳолаш. Мазкур низомда талабалар мустақил ишининг мақсад ва вазифалари, шакллари, ахборот таъминоти, назорат қилиш турлари ва баҳолаш мезонлари кўрсатиб берилган. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2009 йил 14 августдаги 286-сонли буйруғининг 1-иловасида «Талабалар мустақил ишини ташкил этиш ва назорат қилиш бўйича йўриқнома»да талабалар мустақил ишини самарали олиб бориш учун янада кенгроқ ва чуқурроқ маълумот берилган. Талабаларнинг мустақил таълимидан асосий мақсадлар қуйидагилардан иборатдир: - янги билим олиш усуллари эгаллаш, жараёнларни мустақил таҳлил қила олиш; -аудиториядаги машғулотларда олган билимларини мустаҳкамлаш, чуқурлаштириш, кенгайтириш ва тартибга солиш; - меъёрий-ҳуқуқий актлар, маълумотлар ва махсус адабиётлар билан ишлашни ўрганиш; - ўқув материалларини мустақил ўрганиш; - фаоллиги, билим орттириши, ижодий ташаббуси, масъулияти ва тартиблигини ривожлантириш; - олган билимларини амалиётда қўллай олишни шакллантириш; - мустақил фикр юритиш, ўз-ўзини ўстириш, ўзининг режасини амалга оширишни шакллантириш;[2]

Талабалар мустақил таълимининг асосий вазифаси мустақил равишда маълумотлар топиш усули билан билим олишни ривожлантириш, ўқув жараёнига ижодий ёндашишга фаол қизиқишни шакллантиришдан иборат. Талабалар мустақил равишда курс ишлари, курс лойиҳаси, битирув малакавий иши ва магистрлик диссертацияларини тайёрлаётганларида қўйилган муаммоларни чуқур таҳлил қилиб, ўзларининг мустақил асосланган фикр ва хулосаларини чиқаришлари керак. Замонавий педагогик технологияга кўра, таълим оловчилар ўқиш жараёнида иложи борича мустақил ўрганишлари керак, педагог эса бу мустақил меҳнатни бошқариш, талабаларга керакли материалларни бериб бориши лозим. Мустақил таълимни тўғри ташкил этиш билим бериш ва тарбияда жуда катта аҳамиятга эга. Педагогнинг

асосий вазифаси ҳар бир талабанинг ҳаётда ўз ўрнини топишга ёрдам беришидир. Бунга эришиш учун мустақил таълимни ривожлантириш зарур. Мустақил таълимга топшириқ берилаётганда қуйидагиларга катта эътибор бериш керак: -талаба олдига аниқ мақсад қўйиш; -бажариладиган ишнинг алгоритмини таклиф қилиш; -адабиётларни тавсия қилиш; ишни ба-жариш шакли ва муддатлари белгиланиши; -ишни ташкил қилишда бериладиган маслаҳат; -муддатлари белгиланиши ва баҳолаш мезонларини аниқлаш[3]. Ўқиш жараёнида мустақил таълимни қуйидаги икки гуруҳга бўлиш мумкин: аудиториядаги мустақил таълим ва аудиториядан ташқарида бажариладиган мустақил таълим. Аудиториядан ташқарида бажариладиган мустақил таълимда талабалар педагоглар томонидан берилган топшириқларни ўқитувчининг иштирокисиз бажарадилар. Педагог биринчи дарснинг ўзидаёқ талабаларга фан учун ажратилган соат, мустақил ишнинг турлари, назоратнинг усул ва шакллари ҳамда муддати, натижаларни баҳолаш мезонлари, мустақил ишнинг аҳамияти ва зарурлигини тушунтиради.

Мустақил таълим талабаларнинг мустақил фикрлашга ундайди. Талабалар ўз устида яна ҳам кўпроқ ишлай бошлайди. Мустақил иш бу талабаларни илмий-ижодий ишларга қизиқишини ортиради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ибрагимов Х.И., Абдуллаева Ш.А. Педагогика назарияси. - Т.: “Фан ва технологиялар” нашриёти, 2008.
2. Йўлдошев Ж.Ф., Усмонов С. Илғор педагогик технологиялар. – Т.: Ўқитувчи, 2004.
3. Краевский В.В. Общие основы педагогики. – М.: Академия, 2003.
4. Isakovna, T. S., & Haydarovna, M. N. (2022). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TARBIYALASHDA MEHNAT TARBIYASINING AHAMIYATI. PEDAGOGS jurnali, 23(2), 186-191.
5. Турсунова, С. И. Педагогические основы национализации школьного образования. ТГПИ. 2022 год.
6. Isakovna, T. S., & Yo'lchi, O. R. R. Z. (2022). YOSH AVLODNI VOYAGA YEKAZISHDA TARBIYANING AHAMIYATI. PEDAGOGS jurnali, 23(3), 15-22.
7. Isakovna, T. S. (2022). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH. PEDAGOGS jurnali, 23(2), 179-185.
8. Isakovna, T. S. (2022). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. PEDAGOGS jurnali, 23(2), 172-178.
9. Турсунова, С. (2022). Методика обучения русскому языку младших школьников. Общество и инновации, 3(8/S), 179-186.
10. Sattarova Munojaot Tokhtayevna, & S. I. Tursunova. (2023). PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF USING NATIONAL HERITAGE IN EDUCATION OF SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL

STUDENTS. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 11, 66–70.

11. Tursunova Saida Isakovna. (2022). The development of oral speech of younger schoolchildren in extracurricular activities. Eurasian Research Bulletin, 14, 280–286.

РОЛЬ ЛИТЕРАТУРЫ В ВОСПИТАНИИ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА

Конева Светлана Хамидовна

Старший преподаватель кафедры

Общая педагогика ТГПУ им. Низами

Камилова Халима Данияровна

Студентка 4 курса факультета языков ТГПУ им Низами

Аннотация: Статья о совершенствовании преподавания литературы, которое предполагает усиление нравственного, эстетического и эмоционального воздействия литературного произведения на учащегося. О воспитании самосознательности, развитие воображения и чувства прекрасного на уроках литературы.

Ключевые слова: воспитание, литература, нравственные нормы, ценности, духовность, духовно-нравственное воспитание, личность, художественные произведения.

Annotation: An article about the improvement of teaching literature, which involves strengthening the moral, aesthetic and emotional impact of a literary work on the student. About the education of self-consciousness, the development of imagination and a sense of beauty in literature lessons.

Key words: education, literature, moral norms, values, spirituality, spiritual and moral education, personality, works of art.

Литература – это мощный источник воспитания духа, личности. Посредством раскрытия художественных образов литература даёт нам понятия о добре и зле, правде и кривде, истине и лжи. Никакие рассуждения, самые красноречивые, никакие доводы, самые убедительные, не могут оказать на ум человека такого воздействия, как правдиво нарисованный образ. И в этом сила и значимость литературы.

Литература – это средство познания мира, она помогает нам понять, «что такое хорошо и что такое плохо», указывает на истоки общечеловеческих конфликтов.

Литература лучше передаёт мысли, взгляды писателя, его отношение к жизни, реальности и каждый писатель создаёт свой художественный мир, с которым согласится и примет его, тот или иной читатель. Оружие писателя - слово. Художественная литература - это искусство слова. Посредством литературных произведений мы можем видеть внутреннюю красоту человека, можем научиться понимать и

ценить жизнь, мы меняемся и выбираем путь к самосовершенствованию.

Писатели убеждают нас в том, что современный человек и его судьба связана невидимыми нитями с прошлым своего народа, что для воспитания молодого поколения необходимо учитывать нравственные нормы, принципы и идеалы, выработанные в течение столетий человечеством.

При всём сегодня необъятном могуществе кино, театрального искусства есть области общественной и внутренней жизни человека, доступные только искусству слова и это литература. Писатель может нарисовать один момент, и историю человеческой жизни. И одно событие, и цепь самых сложных событий. Изменения, связанные с прогрессом науки и техники ведет к изменению у нынешнего поколения прежних идеалов и оценок, и поиску новых критериев. Мы говорим, о материальном и духовном, однако отделить одно от другого не так уж просто. Каждый мощный взлёт писательской мысли, повлиявший на воспитание молодого поколения, всегда несет в себе элемент духовности. Более высокие технические и творческие возможности сказываются на образе мышления и жизни современной молодёжи. Морально-нравственная позиция автора ненавязчиво воздействует на читателя, который наслаждаясь словом, знакомясь с удивительными персонажами, познаёт мир и формирует в себе такое понятие как культура чувств. Понятие «формирование» в педагогике охватывает своим содержанием диапазон внешних (социальных, экономических, воспитательных и др.) и внутренних (самостоятельная деятельность личности, самовоспитание и др.) факторов, находящихся в неразрывной взаимосвязи и обеспечивающих становление и развитие личности. Опираясь на данное положение, что успешное формирование нравственных ценностей обеспечивается совокупностью внешних и внутренних условий, способствующих непрерывному развитию и формированию новых аспектов в общей мировоззренческой культуре. Однако, наряду с воспитательной деятельностью педагога необходима программа по самовоспитанию личности учащегося и освоению им нравственных ценностей. Опираясь на положения личностно-ориентированного подхода, что деятельность учащихся по самовоспитанию обеспечивает становление их в позицию субъектов педагогического процесса, в формирования у них нравственных жизненных позиций и способствует проявлению максимальной активности, самостоятельности.

Важно отметить, что одной из важнейших задач современного литературного образования является духовно-нравственное воспитание и развитие личности. Художественные произведения, изучаемые в школе, содержат большой воспитательный потенциал, сформулированный в стандарте среднего общего образования,

воспитание средствами литературы духовно-нравственной личности, готовой к самопознанию, к самосовершенствованию и саморазвитию. Личность способная к деятельности в современном мире по законам добра, совести, чести, справедливости, патриотизма и гражданского долга и главное - формирование гуманистического мировоззрения и национального самосознания.

Художественная литература, как и наука, обладает огромной познавательной силой. Она способствует распространению просвещения и культуры среди молодого поколения. О чем бы писатели и поэты ни говорили в своих произведениях, они думают о читателе, о человеке. Писатель М.Горький очень точно заметил, что литература - это человековедение. Сила художественной литературы заключается, прежде всего, в ее эстетическом воздействии. Это - то искусство, которое активизирует человеческие духовные силы: ум, интуицию, чувства, эстетические понятия.

Художественные творения А. С. Пушкина, М. Ю. Лермонтова, Н. В. Гоголя, Л. Н. Толстого, Ф. М. Достоевского, А. П. Чехова, М.Шолохова - позволяют молодому поколению не только узнавать прошлое, но и переживать вместе с их героями, формировать взгляды, чувства, характер, пробуждают любовь к прекрасному, воспитывают готовность к борьбе за торжество добра и правды. Литература воспитывает чувство прекрасного, обогащает духовный мир человека. Предметом изображения литературы чаще всего являются люди конкретной исторической эпохи, их мысли, чувства, взаимоотношения друг с другом, их жизненные идеалы,- словом, внутренний и духовный мир человека.

Эстетическое воспитание - это воспитание в людях способности и потребности видеть, понимать и ценить красоту во всех ее проявлениях и вносить ее в жизнь, способности понимать возвышенное, трагическое, комическое. Сложная и тонкая задача эстетического воспитания молодого поколения решается совместными усилиями семьи, школы, общественности. Молодёжь воспитывается эстетически на огромном историческом опыте писателей. Эстетические эмоции, вызываемые художественным произведением, способствуют восприятию общественных идей не только умом, но и сердцем, пробуждают активное отношение к жизненным картинам, нарисованным в произведении. Литература обеспечивает многовековую преемственность культуры, ее нарастающую универсальность. Говоря о преподавании литературы сегодня, нельзя сказать о том новом понимании задач и целей образования, которое последовательно пробивает себе дорогу. Совершенствование преподавания литературы предполагает усиление нравственного, эстетического и эмоционального воздействия литературного произведения на учащегося, воспитание самосознательности, развитие воображения и чувства прекрасного. В юности закрепляется эстетическое отношение к искусству в целом и к

литературе в частности, качественно новый подход к прочтению литературных произведений. По характеру своего воздействия художественные произведения приближаются к воздействию действительности, а иногда и превосходят ее. Талантливый писатель дает сгусток впечатлений о действительности. Краски изображения бывают настолько яркие, что становятся осязаемыми, зримыми и вызывают такие сильные эмоции, что читатели или громко смеются, или рыдают над книгой, испытывают гнев или презрение, готовность действовать. Положительные образы служат примером для заимствования, а отрицательные отвращают человека от ложных шагов и ошибок, способствуя тем самым искоренению пороков личности.

Чтение художественной литературы должно стать обязательным для каждого человека с детского возраста и до глубокой старости. Литература доставляет много радости, она просветляет умственный взор, обогащает духовный мир читателя, вольно или невольно оказывает положительное влияние на характер. Воспитание художественной литературой не тяжкий труд, а увлекательный, доставляющий глубокое удовлетворение. Художественная литература является своеобразной летописью человеческого общества, могучим орудием человеческой культуры, великим средством воспитания молодого поколения.

Список использованной литературы:

1. Лихачев Б. Педагогика М. 1998
2. Бахтин М. М. Литературно-критические статьи. М., 1990.
3. Балатукова, З. И. Роль художественной литературы в воспитании молодого поколения / З. И. Балатукова. - Текст: непосредственный // Молодой ученый. - 2015. - № 15 (95). - С. 661-663.
4. Здвижкова Е.А. Формирование нравственных ценностей подростков на материале уроков литературы // Школьная педагогика, 2016. № 2. С. 6-9.
5. Захарова Л.М. Проблемы воспитания в педагогических изданиях. Казань Педагогический журнал 11-12 С.155-160

БҰЛАЖАК ЭСТРАДА ХОНАНДАЛАРИНИНГ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕТОДИКАСИ

Холиқов Ж.А. – Низомий номидаги ТДПУ магистри

Аннотация: мақолада олий мусика таълим жараёнида бўлажак эстрада хонандаларининг касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш методикаси тўғрисида фикр юритилган.

Калит сўзлар: таълим, эстрада, компетентлик, билим, кўникма, ўқитиш, ўрганиш, ўзлаштириш.

Аннотация: в статье раскрывается методика профессиональных педагогических компетенций будущих эстрадных исполнителей в процесс музыкального образования.

Ключевые слова: образования, эстрада, компетенция, знания, умения, обучение, изучение, усвоение.

Annatation: the article discusses the methdos of developing the professional pedagogical competence of future pop singers in the procces of higher music education.

Keywords: education, estrada, competency, skills, teaching, learning.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномасида барча соҳалар қаторида санъатни янги ёндашувлар асосида ривожлантириш вазифалари қуйилди [1]. Шу жиҳатдан санъатнинг муҳим таркибий қисми бўлган эстрада санъатини замон талаблари асосида ривожлантириш долзарб бўлиб турибди. Эстрада санъати вокал, мусиқа ва рақс ижрочилигидан иборат. Бу ўринда эътиборингизни олий мусиқа таълими жараёнида бўлажак эстрада хонандаларининг касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш методикаси масаласи таҳлилига тортамыз.

Компетентлик-бу бирор касб эгасининг лаёқатлик, муносиблик ва тайёрлик даражасидир [2]. Шу маънода бўлажак эстрада хонандасининг касбий-педагогик компетентлиги унинг лаёқатлиги, соҳага мослиги ва соҳа бўйича таълим беришга тайёргарлигидан иборат. Олий мусиқа таълими жараёнида бу малака мақсадли ва аниқ бўлажак эстрада хонандаларида шакллантирилиши керак. Чунки келгусида эстрада хонандалари болалар мусиқа ва санъат мактабларида, иқтисослаштирилган мусиқа билим юртларида, тўғараклар ва индивудал таълим муассасаларида ҳам педагогик фаолият билан шуғулланишади. Шу сабабли бўлажак эстрада хонандаларининг касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш муҳим масалалардан биридир.

Олий мусиқа таълими жараёнида бўлажак эстрада хонандаларининг касбий-педагогик компетентлигини ривожлантиришнинг узига хос методикасини танлаш ва уни амалиётга жорий этиш лозим. Бизнинг ёндашувимизга кўра, ана шундай методлардан қуйидаги учтаси муҳим хисобланади:

- 1) Ривожлантириш;
- 2) Мослаштириш;
- 3) Йўналтириш.

Бу методлар бўлажак эстрада хонандаларини касбий-педагогик фаолиятга тайёрлашда муҳим аҳамиятга эга. Унга кўра, **ривожлантириш** методи бўлажак хонанданинг касбий – педагогик лаёқатини аниқлаш, уни ривожлантириш асосларини белгилаш ва илмий-амалий машгулотларни амалга оширишни назарда тутаяди. Абу

Али Ибн Синонинг илмий-табиий таълимотига кўра, ҳар бир шахсда лаёқат туғма бўлади [3]. Шу жихатдан бўлажак эстрада хонандаларида лаёқат муайян даражада мавжуд, шу сабабли олий мусиқа таълими жараёнида мазкур даража турли воситалар асосида ривожлантирилиши керак. Мисол учун, бўлажак эстрада хонандасининг товушлар ва сўзлар талаффузуни тўғрилаш унинг лаёқатини мақсадли ривожлантириш воситаларидан бири ҳисобланади. Чунки бугунги кун ёшлари бир неча тилда сузлашади, эстрада хонандаси қайси тилда куйласа шу тилга оид талаффуз қонуниятлари унга ўргатилиши керак. Бунинг натижасида эстрада хонандасининг лаёқати тезда ривожланиш жараёнига ўтади.

Бўлажак эстрада хонандасининг касбий-педагогик компитентлигини ривожлантиришдаги иккинчи асосий метод бу **мослаштиришдир**. Унга кўра, эстрада хонандасининг таълим бериш иқтидори таҳсил олувчиларга мослаштирилиши керак. Бунда таълим берувчи таҳсил олувчининг лаёқат, кўникма ва малака даражасини ҳисобга олиб, машгулотларни амалга ошириши керак бўлади. Мазкур жараёнда оддийдан мураккабликка тамойилига таяниш мақсадга мувофиқ бўлади. Шу сабабли олий мусиқа таълими жараёнида бўлажак эстрада хонандасини касбий-педагогик фаолиятга тайёрлашда уни таълим жараёни заруриятлари, эҳтиёжлари ва талабларига мослаштириш муҳим аҳамиятга эга.

Бўлажак эстрада хонандаларини касбий-педагогик фаолиятга тайёрлашнинг учинчи муҳим методи бу йўналтиришдир. Унга кўра, бўлажак эстрада хонандаси эстрада санъати асослари бўйича таълим беришнинг инновацион йўлларига йўналтирилиши керак. Бунда мавжуд техник жиҳозлар ва технологиялардан оқилона фойдаланиш, уларнинг имкониятлари асосида таҳсил олувчиларни мақсадли тарбиялаш муҳим аҳамиятга эга. Мисол учун, фонограммадан фойдаланиш бугунги кунда салбий қабул қилинмоқда. Аслида мазкур техник имкониятдан ўринли, мақсадли ва меъёрли фойдаланиш мусиқа санъатининг қонуниятларидан бирини ташкил этади. Шу сабабли бўлажак эстрада хонандаларини касбий- педагогик фаолиятга тайёрлашда бундай техник ва технологиялардан ўринли фойдаланишга йўналтириш қутилган самарани беради.

Олий мусиқа таълими муасасаларида бўлажак эстрада хонандаларининг касбий-педагогик компитентлигини ривожлантиришда ўзига хос методлардан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга. Шу сабабли бу борада илмий тадқиқотларни кучайтириш зарурият бўлиб турибди. Биз бу борада қуйдагиларга асосланиш қутилган самарани беради деган фикрдамиз:

- мавжуд ўқитишнинг илғор методларини сақлаб қолиш;
- мазкур масала бўйича ўзига хос тажрибали таълим берувчиларнинг методларини ўрганиш ва амалиётга жорий этиш;

- хорижнинг синовдан ўтган методларини қабул қилиш ва уларни қайта такомиллаштирилган тарзда олий мусиқа таълими жараёнида амалиётда қўллаш;

- тажрибали таълим берувчиларнинг индивудал методларини ўрганиш ва ўзлаштириш.

Бундай ёндашув олий мусиқа таълими муассасаларида бўлажак эстрада хонандаларини касбий-педагогик компитентлигини кутилган даражада ривожлантириш имконини беради.

Кези келганда таъкидлаш жоизки, Ўзбекистонда эстрада хонандалиги таълими жуда янги. Мазкур таълим турининг ташкил этилганлигига атиги 18 йил тўлди. Шу сабабли бўлажак эстрада хонандаларини касбий-педагогик фаолиятга тайёрлашда ҳар бир масала бўйича янги асосларда иш бошлашни тақозо этади. Бизни қизиқтираётган бўлажак эстрада хонандаларини касбий-педагогик компитентлигини ривожлантириш методикасини ривожлантириш муоммоси бўйича янги ёндашувлар ва асосларга таяниш тақозо этилади. Чунки мазкур масала бизнинг шароитимизда мутлақо янги йўналишдир, бу бўйича хорижий тажрибаларда муайян йўналишлар мавжуд. Масалан Россия Федерацияси эстрада хонандалигида ушбу йўналиш бўйича касбий-педагогик таълим бериш индивудал асосларга таянади. Мазкур йўналишнинг ижобий томони шундаки, бўлажак эстрада хонандасини касбий-педагогик фаолиятга тайёрлаш осон кечади, салбий жиҳати шундаки бўлажак эстрада хонандаси касбий-педагог фаолиятга тайёрланишда гуруҳ билан ишламайди. Шу сабабли бизнингча, бўлажак эстрада хонандасини касбий-педагогик фаолиятга тайёрлашда назарий масалаларни индивудал асосда тушунтириш ва амалий масаларни эса гуруҳ билан ишлаш воситасида ўргатиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Шундай қилиб олий мусиқа таълими жараёнида бўлажак эстрада хонандаларининг касбий-педагогик компитентлигини кутилган даражада ривожлантириш методикасини инновацион ёндашувларга асосан ишлаб чиқиш тақозо этилади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. “Халқ сўзи” газетаси 2020 йил 25 январь сони.

2. Педагогика фанидан изоҳли луғат.-Т.,2009

3. Абу Али Ибн Сино. Тиб қонулари. 3-том.-Т.,1993

KONSTITUTSIYASI: IJTIMOIIY RIVOJLANISHNING GENEZEYSI

*Nurullayeva Laylo Xayrulloevna
Toshkent Davlat Agrar Universtiteti
“Yurisprudensiya”yo’nalishi 1-kurs talabasi*

Annotasiya: Ushbu maqolada konstitutsiyaning yaratilishi, amaldagi va yangi tahrirdagi konstitutsiyaning farqlari va o'zgarishlari to'g'risida va fikr va takliflar to'g'rida boradi.

Kalit so'z: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, konstitutsiyaning yaratilishi, qaror, moddalar, yangi tahrirdagi konstitutsiya.

Аннотация: В этой статье обсуждается создание конституции, различия и изменения между действующей и новой конституцией, а также мнения и предложения.

Ключевые слова: Конституция Республики Узбекистан, создание конституции, постановление, статьи, новая редакция конституции.

Abstract: This article discusses the creation of the constitution, the differences and changes between the current and the new constitution, and opinions and suggestions.

Key word: Constitution of the Republic of Uzbekistan, creation of the constitution, decision, articles, new version of the constitution.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilishi tarixi haqida so'z yuritishdan oldin "Konstitutsiya nima?" degan savolga javob berish maqsadga muvofiqdir.

Konstitutsiya (lotincha "Constitution" – tuzilish, tuzuk) – davlatning Asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini belgilab beradi. Bejizga Konstitutsiyani "xalqchil qomus" deb atalmagan, uning loyihasi ustida taxminan ikki yil davomida ishlangan, ikki yarim oy mobaynida umumxalq muhokamasidan o'tgan va shu vaqt mobaynida u xalqning fikr xazinasini durdonalari bilan boyitilib sayqal topgan. Oliy Kengash sessiyasiga muhokama qilish uchun kiritilgan Konstitutsiya loyihasiga 80 ga yaqin o'zgarishlar, qo'shimchalar taklif etildi va aniqliklar kiritildi. Parlament deputatlari tomonidan loyiha moddama-modda muhokama qilinib, unga yana bir qator o'zgartishlar kiritilgach, 1992 yil 8 dekabr kuni Bosh Qomusimiz qabul qilindi. Shu kundan e'tiboran, 8 dekabr – umumxalq bayrami deb e'lon qilindi. Konstitutsiya davlatni, xalqni boshqarishda, o'zga davlatlar bilan o'z munosabatlarini, o'zining tutgan o'rni va davlatining kuchi va o'rni o'zida qamrab oldi. Konstitutsiyasining yaratilishi ham ancha qiyinchilikka bilan erishildi va kutilgan natijalarini olib keldi.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimiz parlamenti Konstitutsiya normalariga muvofiq 8 ta konstitutsiyaviy qonun, 15 ta kodeks, 600 dan ziyod

qonunni qabul qildi, 200 dan ortiq ko'p tomonlama xalqaro shartnomani ratifikatsiya qildi va shu tariqa Asosiy Qonunimizni amalga oshirishning yaxlit huquqiy mexanizmi yaratildi. Uning samaradorligini vaqt o'zi ko'rsatib turibdi va bu bugun jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Qonunlarning o'zgarilishi va qo'shimcha qonunlar qo'shishili va chet davlatlar tajribalaridan ba'zi qarorlarni olinishi xalq manfaati va demokratik jamiyat barpo etish uchun qilingan ishlar deb atasak bo'ladi. Amaldagi konstitutsiyasining yangilanishi bu- rivojlanib borayotgan zamonga moslashish, o'zgayotgan vaziyatlarga mos kelib qarorlarni ham yangilash deb aytsak bo'ladi, bu qarorlar va moddalarni o'zgarilishi demokratik jamiyat va xalq farovonligini oshirish uchun ko'zlangan maqsad. Eski tahrirdagi Konstitutsiya 128 ta moddadan tarkib topgan bo'lsa, yangi tahrirdagi, o'zgartirilgan va qo'shimcha kiritilgan Konstitutsiya 155 ta moddadan iborat. Mamlakat rivoji, ertangi kuni, muxtasar qilib aytganda aholini haq-huquqlari, millat hayotining davomiyligini ta'minlashga qaratilgan milliy strategiyamiz o'z ifodasini topgan. O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi bilan eski Konstitutsiyasining 91-moddasini ya'ni yangi amaldagi Konstitutsiyasida 107-moddasini ko'rib chiqsak, bu moddada aytiladi: "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining deputati bo'lishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishni mumkin emas". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi; deyilgan bu moddani asli demokratik davlat belgilaridan biri ham deyiladi sababi tenglikka asoslanib bir shaxsni ikki, uchta lavozimni egallashlariga taqiqlanib bitta lavozimini to'liq bajarilishini ta'minlash uchundir, bu yerda yana aytib o'tilganki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishni taqiqlanadi deb bu ham shaxsni moddiy tomoni o'zini egallab turgan lavozimidan suiste'mol qilmasligi uchun taqiqlangan. Xulosa qilsak, Yangilangan Konstitutsiya xalq farovonligini yanada oshirishga xizmat qiladi va demokratik jamiyat qurish nazariyasini yuqori pog'onaga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.Yoqubov.E.Hayitboyev."Huquqshunoslik".Yangi asr avlodi.2006
2. E.T.Xojiyev. G`.T.Hakimov. "Ma`muriy huquq".Toshkent.2011
- 3.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.2012.Toshkent.O'zbekiston nashriyoti.
- 4.Baxrax D.N., Rossinskiy B.V., Starilov Yu.N. Administrativnoy pravo. – M.:Norma,2004. – C.105-116

ҲАРБИЙ ПЕДАГОГИК МАҲОРАТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Вахобов Анвар Абдусаттор ўғли

Низомий номидаги ТДПУ

"Педагогика" кафедраси PhD, доцент в.б.

Жаҳонда ҳарбий таълим соҳасига замонавий билим, илғор хорижий тажрибалар, ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий

этиш асосида бўлажак ҳарбий таълим ўқитувчиларининг ҳарбий-касбий компетентлигини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Халқаро миқёсда ҳарбийларнинг компетентлик даражасини ривожлантириш ва баҳолаш стратегик аҳамият касб этиб, ҳарбий таълим тизимини модернизациялаш, ижтимоий муҳит талабларига интеграциялаш, компетенцияларга асосланган давлат таълим стандартларини жорий этиш, олий ҳарбий таълим муассасаларида таълим жараёни самарадорлигини оширишга хизмат қилувчи илғор инновацион механизмларни ишлаб чиқишни тақозо этмоқда. Жаҳонда бўлажак ҳарбий таълим ўқитувчиларининг халқаро стандартлар асосида ҳарбий-касбий компетентлигини ривожлантириш, уларда стратегик мобиллик, ҳарбий ватанпарварлик, миллатлараро бағрикенглик, толерантлик тафаккурини ҳамда ижодий фикрлашни ривожлантириш масалалари бўйича илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда.

Ҳарбий таълим ўқитувчиларини тайёрлашда уларнинг ҳарбий-касбий компетентлигини шакллантиришда ахборот - методик таъминот муҳим аҳамият касб этади. Ахборот технологияларидан масофавий таълим тизими ҳамда ўқитиш воситаларидан самарали фойдаланиш бўлажак ҳарбий таълим ўқитувчиларнинг ҳарбий-касбий компетентлигини шакллантиришда асосий омиллардан ҳисбланади. Масофавий таълим тизими анъанавий таълим тизимини амалга оширишда муаммоларга дуч келинган ёки шарт - шароит ушбу жараённи тақозо қилганда қўлланилади. Бу жараён маълум муҳитда таълим самарадорлигини оширишга замонавий технологиялардан етарлича фойдаланишга замин яратади.

Масофавий таълим” тушунчаси фанга ўтган аср 90 - йилларида кириб келган. Инглиз тилида “Масофавий таълим” (distant education) “Масофада ўқитиш” (distant learning) каби турларда ҳам қўлланилади. Таълим жараёнларини телекоммуникатсиялардан фойдаланган ҳолда ташкил этишни эса (teletraining) деб юритилади.

Масофавий таълим афзалликлари:

- тезкорлик – фазо ва вақт бўйича тўсиқларнинг йўқлиги, янги долзарб ахборотларни олиш, тез боғланиш;
- ахборот таълимий мотивларининг ортиши (тармоқдаги ахборотлар);
- коммуникатсион – таълимнинг потенсиал иштирокчилари сонининг ортиши; педагогик – таълимнинг янада кўпроқ мотивлашиши, индивидуаллашиши, интерактив (таълим иштирокчилари ўзаро таъсирининг фаолланиши, тескари боғланишнинг мавжудлиги) бўлиши;
- психологик - ўқувчи (талаба)ларнинг ўз - ўзини намоён этиши учун янада яхшироқ ҳиссий – психологик шароитлар яратилиши, тўсиқларнинг бартараф этилиши;
- иқтисодий – таълим учун сарф - ҳаражатларнинг камайиши

Чақириққача ҳарбий таълим жараёнида замонавий ахборот инновацион технологияларидан фойдаланиш жараёни нафақат таълим-тарбиянинг ташкилий шакиллари ва методлари, балки янги методларни ҳам шакилланишига олиб келади. Илмий адабиётларда келтирилишича “Инновацион технология” термининг этимологиясига кўра, “инновация” – “фан-техникада жорий этилган янгилик” маъносини ифодалайди, “технология” эса лингводидактик тушунча сифатида “кам вақт, куч ва маблағ сарфлаб, таълим мақсадига эришишни таъминловчи саъй-харакатни илмий ташкил қилишнинг оқилона усуллари мажмуи”ни ифодалайди

Чақириққача ҳарбий таълим жараёнини замонавий ахборот технологиялари асосида самарали ташкил этиш бўлажак ҳарбий ўқитувчиларнинг технология янгиликларидан хабардор бўлишини талаб этади. Натижада ҳарбий таълим ўқитувчиси ҳарбий-касбий фаолиятини ташкиллаштиришда замонавий технологиялардан фойдаланиш лойихасини яратади, ўз устида тинимсиз изланади. Ўқув машғулотларини ўтказиш учун технологияларни танлашда энг самарали йўллардан бири – бу мултимедияли ёндашувдир. Мултимедия - бу компьютер технологиясининг турли хил физик кўринишга эга бўлган ва турли хил ташувчиларда мавжуд бўлган ахборотдан фойдаланиш билан боғлиқ соҳасидир. Мавзу бўйича маълумотлар тўплашда илмий адабиётлардан, интернет тармоғидан фойдаланиш, мутахассислар билан суҳбатлашиш керак. Шунингдек, кундалик оммавий ахборот воситалари, телерадиоканаллардаги маълумотлардан ўринли фойдаланиш мавзуни янада қизиқарлироқ бўлишига сабаб бўлади.

Электрон тақдимот ахборот технологиясининг самарадорлиги кўп жихатдан тақдим этувчи шахсга, унинг умумий маданияти, нутқ маданиятига боғлиқ эканлигини ҳам унутмаслик лозим. Замонавий техника воситаларидан дарс давомида компьютер дастурларидан дидактик воситалардан, миниплакатлардан, слайдлардан фойдаланиш, талабаларнинг билим савиясини оширишда катта ёрдам кўрсатади. Электрон тақдимот орқали машғулотларда намойиш ва кўргазмали материал сифатида фойдаланиш ҳарбий таълим ўқитувчисига кенг имкониятлар яратиб беради. Бериладиган ахборот материалнинг электрон тақдимотда анимациялар шаклида берилиши ўтказилаётган машғулотни енгиллаштиради ва кўргазмалиликни оширади. Намойиш слайдларини талабаларга тарқатма материаллар сифатида ҳам бериш мумкин. Слайдларга нисбатан талабалар ўзларининг фикрларини баён этишлари мумкин ва бу орқали улар мавзу бўйича хулосалар ва саволларини шакиллантириш малакаларига эга бўладилар.

Чақириққача ҳарбий таълим жараёнига замонавий ахборот технологияларини қўллаш тарбия методларининг самарадорлигини оширишга, ўқитувчилар меҳнат фаолиятини ўзгаришига, уларни иш методларини такомиллашишига, педогогик тизимларнинг таркибий

ўзгаришига олиб келади. Бу эса чақириққача ҳарбий таълим жараёнини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқаришда ўзига хос вазифаларни кўяди.

3. Qazilma yoqilg'ilardan farqli o'laroq, shamol energiyasi deyarli tugamaydi, hamma uchun mavjud va ekologik jihatdan qulayroqdir. Sayyoramizning barcha daryolaridagi gidroenergetika zahiralardan yuz baravar ko'p shamol energiyasi zahiralari mavjud.	3. Yuqori narx: - inverterning narxi butun o'rnatish narxining ~ 50% ni tashkil qiladi. - Batareyalarning narxi o'rnatish narxining taxminan 25% ni tashkil qiladi. - bunday o'rnatishni ishonchli elektr ta'minotini ta'minlash uchun ba'zan dizel generatori qo'shiladi, bu narx jihatidan butun o'rnatish bilan taqqoslanadi.
4. Yoqilg'i tejankorligi. Shamol generatorlari ish paytida fotoalbom yoqilg'ilarni iste'mol qilmaydi. 1 MVt quvvatga ega shamol generatorining 20 yil davomida ishlashi taxminan 29 ming tonna ko'mir yoki 92 ming barrel neftni tejash imkonini beradi.	4. Elektr energiyasining shartli ravishda kam chiqishi: shamol generatorlari dizel generatorlariga qaraganda elektr energiyasini ishlab chiqarishda sezilarli darajada past bo'ladi, bu esa bir vaqtning o'zida bir nechta turbinani o'rnatish zarurligiga olib keladi. Shuni hisobga olish kerakki, shamol turbinalari eng yuqori og'irliklarda samarasizdir.
5. An'anaviy issiqlik elektr stansiyalaridan farqli o'laroq, shamol elektr stantsiyalari suvdan foydalanmaydi, bu esa suv resurslarini sarflashni kamaytirish imkonini beradi.	5. Yovvoyi tabiat uchun xavf: aylanuvchi turbinali parraklar tirik organizmlarning ayrim turlari uchun potentsial xavf tug'diradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, har bir o'rnatilgan turbinaning parraklari yiliga kamida 4 ta qushning o'limiga sabab bo'ladi.
6. 1 MVt quvvatli shamol turbinasi yiliga atmosferaga 1800 tonna CO ₂ , 9 tonna SO ₂ , 4 tonna azot oksidi chiqindilarini kamaytiradi.	6. Tuproq orqali uzatiladigan past chastotali tebranishlar megavatt sinfidagi shamol turbinalaridan 60 m gacha bo'lgan masofada joylashgan uylarda derazalarning sezilarli chayqalishiga olib keladi.
7. Ergonomika. Shamol elektr stantsiyalari juda kam joy egallaydi va shunchaki har qanday landshaftga mos keladi, shuningdek, hududlardan iqtisodiy foydalanishning boshqa turlari bilan aralashib ketadi.	7. Shamol turbinalari harakatlanuvchi havo massalarining kinetik energiyasining bir qismini olib tashlaydi, bu esa ularning harakat tezligini pasayishiga olib keladi. Shamol turbinalaridan (masalan, Yevropada) ommaviy foydalanish bilan bu sekinlashuv nazariy jihatdan Yerning mahalliy (va hatto global) iqlim sharoitiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'rtacha shamol tezligini pasaytirish mintaqa iqlimini yanada kontinental qilishi mumkin, chunki sekin harakatlanuvchi havo massalari yozda ko'proq isinib, qishda salqinlashadi.
8. Shamol quvvati yaqinlashish qiyin bo'lgan joylar uchun eng yaxshi yechimdir: shamol generatorlarini o'rnatish uzoq joylar uchun	8. Pichoqlarning muzlashi: qishda yuqori namlik sharoitida shamol turbinalarining ishlashi paytida pichoqlarda muz hosil

eng yaxshi va arzonroq yechim bo'ladi.	bo'lishi mumkin. Shamol turbinasini ishga tushirganda, muzning sezilarli masofaga tarqalishi mumkin.
--	--

Xulosa

So'nggi yillarda qayta tiklanadigan va muqobil energiya manbalari keng e'tirof etilgan va keng tarqalgan. Bunga sayyoramizning ekologik holatining yomonlashuvi, qazib olinadigan yoqilg'ilarning narxi oshib borayotgani, bir qator mamlakatlarda ijtimoiy keskinlik, tabiiy resurslarning tugashi bilan bog'liq qator siyosiy va qonunchilik qarorlarining qabul qilinishi sabab bo'lmoqda.

Maqolada "qayta tiklanadigan energiya" va "muqobil energiya" tushunchalariga aniqlik kiritiladi, chunki mavjud tavsiflar juda noaniq. Mualliflar muqobil energiya manbalarining tasnifini beradi, ularning ba'zilari qayta tiklanadigan energiya manbalaridir.

Biz muqobil va qayta tiklanadigan energiya manbalarining boshqa energiya manbalariga nisbatan quyidagi asosiy afzalliklarini ta'kidlashimiz kerak: ekologik tozalik, foydalanish qulayligi, tejamkorlik, avtonomiya, transport xavfsizligi, ijtimoiy ahamiyati va boshqalar.

Doimiy yangilanishlar, zamonaviy ishlanmalar va innovatsiyalar muqobil energiyaning raqobatbardoshligi va rivojlanish sur'atlarini oshiradi.

Mavjud muqobil energiya manbalarining mumkin bo'lgan variantlarini tahlil qilish ko'p qavatli binolar va inshootlarni qurish uchun eng maqbulini aniqladi: shamol energiyasi va quyosh energiyasi. Energiyani olishning eng oqilona usuli quyosh nurlanishining tunganmas energiya manbai sifatida aylanishidir.

Shamol energiyasi va quyosh energiyasidan foydalanishning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilish hozirgi ishning muhim qismiga aylandi. O'zbekistonda muqobil va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishning asosiy muammosi - bu o'z ishlab chiqarish uchun texnologiya va resurslarning yetishmasligi, shuningdek, quyosh elektr stantsiyalarining yuqori narxi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. V. Kanxva, IOP Conf. Seriya: Yer va atrof-muhit fanlari. (2017)
2. S.Q.Qahhorov, Muqobil energiya manbalari. (Toshkent,2022)
3. A.V.Kozlov. Atmosfera parametrlarining kremniy quyosh batareyasining energiya xususiyatlariga ta'sirini nazorat qilish.
4. "Issiqlik elektr stansiyalari",(<https://kun.uz/uz/20650416#>, 14.07.2022).

РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНО-РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Миртурсунова Ю.А.

ТГПУ имени Низами, и. о. доцента

Аннотация: В статье раскрывается значение понятия «коммуникативная компетенция», а также обосновывается необходимость включения в сферу коммуникативной компетентности учителя начальных классов речевую компетентность, обеспечивающую деятельностный характер коммуникации.

Annotatsiya: Maqolada "kommunikativ kompetentsiya" tushunchasining ma'nosi ochib berilgan, shuningdek, muloqotning faol xarakterini ta'minlaydigan nutq kompetensiyasini boshlang'ich sinf o'qituvchisining kommunikativ kompetensiyasi sohasiga kiritish zarurati asoslanadi.

Abstract: The article reveals the meaning of the concept of "communicative competence", and also substantiates the need to include speech competence in the sphere of communicative competence of a primary school teacher, which ensures the activity nature of communication.

Задача непрерывного повышения качества профессионального мастерства и уровня педагогических кадров определена в качестве одной из приоритетных в комплексном развитии системы высшего образования в Стратегии дальнейшего развития Республики Узбекистан,[1] в которой особое внимание уделяется развитию педагогического мастерства будущих учителей.

Сегодня развивающаяся экономика и свободный рынок труда требуют подготовки конкурентоспособных специалистов, поэтому в настоящее время при подготовке будущих учителей уделяется особое внимание развитию их коммуникативной компетентности. Понятие «коммуникативная компетентность» имеет сложную структуру, включающую в себя такие компоненты как: педагогическая культура, профессиональная компетентность, профессиональные умения и способности, культура речи, педагогическое общение, этика, психологические знания. Сущность коммуникативной компетентности в педагогической системе отражается в действиях учителя как личности при выполнении профессионально-ориентированных задач, и именно она обеспечивает успех в педагогической деятельности.

Коммуникативная компетентность возникает в процессе профессиональной деятельности, но не является отдельным видом деятельности, характеризуется высоким уровнем развития специальных навыков и определяет позицию учителя в педагогической системе при умелом управлении деятельностью своих учеников.

Профессиональные знания являются ключевыми в развитии коммуникативной компетенции учителя. На основе профессиональных

знаний формируется педагогическое мышление, которое определяет действия, закономерности и принципы деятельности учителя.

Таким образом, коммуникативная компетентность современного учителя характеризуется интегрированным сочетанием знаний, способностей и установок, оптимальных для выполнения трудовой деятельности в современной педагогической сфере; способностью действовать эффективно в широком формате коммуникативных контекстов с высокой степенью саморегулирования, рефлексии, самооценки; быстрой, гибкой и адаптивной реакцией на динамику обстоятельств и среды [2].

Включая в сферу коммуникативной компетентности учителя начальных классов функциональный параметр, следует включить в нее и речевую компетентность, которая предполагает деятельностный, прагматический характер коммуникации, а именно, построение высказываний в соответствии с нормами и правилами педагогического этикета, умение варьировать коммуникативными средствами при условии изменения ситуативных условий общения. Таким образом, практическое владение языковыми и речевыми нормами, обеспечивающими адекватное восприятие и реализацию смысловой и оценочной информации, а также воздействие на слушателя в соответствии с коммуникативной установкой, является важным критерием коммуникативно-речевой компетенции учителя начальных классов. Коммуникативно-речевая компетентность педагога должна быть регулятором общения. Способами регулирования общения являются культурные традиции, обычаи, этические и речевые нормы профессиональной деятельности учителя.

Психологическим условием развития коммуникативно-речевой компетенции является, прежде всего, осознание учителем необходимости повышения своей общей и языковой культуры. Коммуникативно-речевая компетентность – это личностное качество учителя начальных классов, владение, обладание коммуникативно-речевой компетенцией, включающей личностное отношение к ней и предмету коммуникативной деятельности [3]. Коммуникативно-речевая компетенция предполагает, что будущий учитель начальных классов не усваивает отдельные знания и умения, а овладевает комплексом, в котором для каждого направления наличествует совокупность образовательных средств, обладающих личностно-деятельностным характером.

Несомненно, учитель начальных классов должен обладать общей культурой, коммуникативно-речевой компетенцией, владеть способами организации рабочего и свободного времени, осознавать роль науки и религии в жизни человека, их влияние на мир и т.д. Так как младший школьник формируется в качестве языковой личности именно в начальных классах, возрастают требования к подготовке

коммуникативно-речевой компетентности учителя начальных классов, что предполагает включение студента в активную коммуникацию в процессе учебной, методической, практической (педагогическая практика в формате 4+2, 5+1), научно-творческой, общественной работы.

Все виды деятельности студента взаимосвязаны и взаимообусловлены и составляют целостную систему обучения. Учебные занятия по родному языку (от фонетики до синтаксиса сложного предложения, включая стилистику и культуру речи), методике преподавания родного языка, выразительному чтению, рассчитанные на базовую подготовку по языку, имеют своей целью моделирование различных речевых ситуаций, в которых в полной мере может быть использован лингвистический потенциал. И это еще раз доказывает правомочность использования термина “коммуникативно-речевая компетентность” по отношению к учителю начальных классов. И в числе составляющих элементов коммуникативно-речевой компетентности можно выделить “языковую компетентность, предметную компетентность, лингвистическую компетентность и прагматическую компетентность”. [4]

Литература

1. Указ Президента Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёева «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан». Собрание законодательства Республики Узбекистан. - №6.
2. Байденко В. И. Компетенции: к освоению компетентностного подхода. Материалы к методологическому семинару. – М., 2004.
3. Хуторской А. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. - №2.
4. Степанов Ю. С. Основы общего языкознания; учеб. пособие для студентов филол. специальностей пединститутов. – М.; Просвещение, 1975.

БИОЛОГИЯ ФАНИДАН ТАЛАБАЛАРНИ МЕТОДИК ТАЙЁРГАРЛИГИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Karimova Mavluda Hakimovna
“Fiziologiya” kafedrası o’qituvchisi
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya. Таълим тизимининг муваффақиятли ишлаши, биринчи навбатда, замонавий мактаб олдида турган вазифаларни амалга оширувчи педагог ходимлар томонидан белгиланади. Жамият ривожланиши билан педагогик кадрларга бўлган талаблар тобора ортиб боради. Шунинг учун педагог кадрлар тайёрлашни такомиллаштириш масаласи, яъни методик таълим муаммоси долзарб масалалардан бири эканини таъкидлаймиз.

Kalit soʻzlar: Педагогик, интегратив, дастур, технология, концепция.

Аннотация. Успешное функционирование системы образования определяется, прежде всего, педагогическими кадрами, которые выполняют задачи, стоящие перед современной школой. С развитием общества повышаются требования к педагогическим кадрам. Поэтому мы отмечаем, что вопрос совершенствования подготовки педагогических кадров, то есть проблема методического образования, является одним из актуальных вопросов.

Ключевые слова: Педагогический, интегративный, программа, технология, концепция.

Annotation. The successful functioning of the educational system is determined, first of all, by pedagogical personnel who carry out the tasks facing the modern school. With the development of society, the requirements for pedagogical personnel are increasing. Therefore, we note that the issue of improving the training of pedagogical personnel, that is, the problem of methodological education, is one of the pressing issues.

Keywords: Pedagogical, integrative, program, technology, concept.

Kirish. Таълим тизимининг муваффақиятли ишлаши, биринчи навбатда, замонавий мактаб олдида турган вазифаларни амалга оширувчи педагог ходимлар томонидан белгиланади. Жамият ривожланиши билан педагогик кадрларга бўлган талаблар тобора ортиб боради. Шунинг учун педагог кадрлар тайёрлашни такомиллаштириш масаласи, яъни методик таълим муаммоси долзарб масалалардан бири эканини таъкидлаймиз. Шубҳасиз, методик таълим умумий педагогик таълим тизимининг элементларидан биридир. Педагогик таълим тизими мутахассислар тайёрлаш узлуксизлигини таъминлаш керак. Бунга унинг босқичма-босқич қурилиши таъминланса ва вертикал, яъни босқичлар орасидаги ва горизонтал, яъни таълимнинг турли шакллари орасида узлуксизлиги таъминланса эришиш мумкин.

Узлуксиз педагогик таълим тизимини қуришда жамиятнинг доимий ўзгарувчан талабини ҳисобга олиш лозим. Бу, айниқса, педагог кадрларни тайёрлашда эътиборга олиниши керак бўлади.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Билимлар очиқлигининг тобора ортиб боришига қарамасдан, анъанавий таълим шакллари рад этиш рўй бермоқда. Педагогни тайёрлашнинг асосий аҳамиятини кучайтириш зарурлигининг сабаблари тадқиқотчилар томонидан асосланган [Г. А. Бордовский (1994)]. Бу мутахассисга бўлган, унинг тезда ўзгариш, янги мутахассисликларга эга бўлиш қобилиятига бўлган талаблардаги ўзгаришдир. Таълим бўйича мутахассисни тайёрлаш жараёнида асосий муаммоларни ҳал қилишнинг мураккаблиги, биринчи навбатда, ҳар бир муайян мутахассисликка нисбатан ушбу муаммони ҳал қилишнинг турли хил ечимлари мавжудлиги билан боғлиқ. Хусусан, фундаменталлик таълим дастури таркибига киритилган интегратив курсларни жорий этиш орқали таъминланиши мумкин.

Агар талабанинг билимлари тегишли методология: замонавий илм-фан концепциялари; дунёни илмий англаш ва ўзгартириш усуллари тўғрисидаги таълим, ушбу билимларнинг шакл, усуллари ва шу кабилар тўғрисидаги таълим; илмий тадқиқотда қўлланиладиган умумий тамойиллар ва усуллар тўпламига асосланган бўлса, билимлар унинг келажакдаги амалий фаолиятининг асоси бўлади [В. А. Ирюзчиков ва С. Я. Чачиннинг (1983)]. Ушбу қоидалар талабаларга етказилиши керак.

Tadqiqot metodologiyasi. Педагогик таълим тизимини инсонпарварлаштириш ва демократлаштириш шахснинг ижтимоий ҳимоясини таъминлайдиган шароитларни яратади. Бу эса фақат таълим тизимининг узлуксизлигининг поғоналилиги билан амалга оширилиши мумкин. Шу билан бирга, педагогик таълимнинг поғоналилиги ҳар бир шахсга ўз манфаатлари, мойиллиги ва қобилиятлари даражасида таълим олиш имконини беради. Таълимнинг узлуксизлиги ўз таълимини давом эттириш, кейинги босқичга ўтиш ёки янги касбни эгаллаш имконини беради. Педагогик таълим тизими интегратив хусусиятга эга бўлиши керак бўлиб, бу замонавий ижтимоий-иқтисодий, психологик-педагогик ва мазмун-предметли талаблар асосида касбий тайёргарликни яратиш демакдир.

Педагог кадрларни тайёрлаш соҳасида интегративликка бўлган талаб умумтаълим ва касбий таълим бирлигида ифодаланади. Бу, ўз навбатида, мутахассиснинг касби нуқтаи назаридан муҳим хусусиятлари ва сифатларини шакллантиришга имкон беради.

Барча босқичларда педагогик таълим муайян илмий-методик таъминотни талаб қилади. Таълим дастурлари, ўқув режалари, ўқув фанлари дастурларини ишлаб чиқиш, замонавий таълим технологиялари, дарсликлар, ўқув қўлланмаларини яратиш замонавий педагогик кадрларни тайёрлашда зарур йўналиш ҳисобланади.

Ўзгарувчанлик ва динамиклик бугунги кунда мутахассисга қўйиладиган талабларга эмас, балки эртага тақдим этилиши мумкин бўлган талабларни тахмин қилишга қаратилган.

Педагогик ва методик адабиётларни таҳлил қилиш ва педагогика олий таълим муассасасидаги иш тажрибамиз бўлажак биология фани ўқитувчиларининг касбий тайёргарлик тизимида сифатли ўзгаришлар талаб қилинишини исботламоқда. Олий педагогик таълим тизимини ривожлантиришнинг асосий йўналишларини ўрганиб, қуйидагиларни ўз ичига олиши мумкин бўлган методик тайёргарлик соҳасидаги ўзгаришларни: методик таълим соҳасидаги ўзгаришлар, яъни минтақавий компонентни, таълим йўналишларини ҳисобга олган ҳолда ўзгарувчанлик ва шу кабиларни; таълим технологиялари соҳасидаги ўзгаришлар, яъни ўқитишнинг замонавий концепцияларини, ахборот технологияларини, ўқув фанлари интеграциялашувини жорий этиш; тарбия соҳасидаги ўзгаришлар, яъни психологик хизматлар ва

марказларни, диагностика ёндашувларини, шахсий иш усулларини жорий этиш кабиларни амалга ошириши керак деган хулосага келинди.

Янги таълим технологияларига эга турли таълим муассасалари турларини яратишдан иборат таълим тизимини диверсификация қилишга эътибор бериш зарур, деб ҳисоблаймиз.

Методик тайёргарлик тизимини ривожлантиришнинг ушбу йўналишларини амалга ошириш учун қуйидаги принципиал қоидалар қўлланилиши мумкин: педагогнинг узлуксиз касбий ривожланиши: асосий таълимнинг юқори даражаси, доимий касбий такомиллашиш; педагогнинг яхлит тайёрлаш жараёнида фундаментал ва амалий йўналишнинг бирлиги; ҳар бир педагогни тайёрлашга индивидуал ёндашувни таъминлашда унинг ижодий шахсини тайёрлашга йўналтирилганлик; педагогни замонавий инновацион таълим технологияларидан кенг фойдаланишга тайёрлашнинг мазмуни, шакл ва усулларига эътибор бериш.

Tahlil va natijalar. Тадқиқотимизда педагог ва талабанинг фаолияти бир-бирини тўлдириши, педагогик жараёнда ўзаро таъсирлар амалга оширилишидан келиб чиқдик. Олий таълим муассасаси битирувчиси ўз тажрибасида педагогни тайёрлашнинг одатий тизими билан замонавий мактабда талаб қилинадиган меҳнатнинг ижодий мазмуни ўртасидаги зидликни кескин ҳис этади.

Танланган фан соҳасини ўқитиш методикасини ўзлаштиришнинг турли усуллари мавжуд. Биологияни ўқитиш методикасининг анъанавий асосий курсидан ташқари, талабаларга муҳокамаларда, маслаҳатлар, ижодий лойиҳалар яратиш жараёнида ўзаро ҳамкорлиги рўй берадиган махсус курслар, ижодий устахоналар, лабораториялар ва уларни қизиқтирувчи фанлар клубларига ташриф буюришларини таклиф қилдик.

Юқорида айтиб ўтилган методик таълимни ривожлантиришнинг муайян инновациялар шаклида амалга оширилган йўналишлари педагогни тайёрлашнинг замонавий концепциясида қўлланилиши мумкин. Маълумки, олий таълим муассасалари фаннинг замонавий билимлари ва уни ўқитиш методикаси спектрини ифодаловчи таълим дастурларининг долзарб мазмунини белгилайди. Агар тайёргарлик тизими мослашувчанликни, вақт талабларига етарлича жавоб бериш қобилиятини йўқотса, у ҳолда принципиал қарама-қаршиликларда намоён бўладиган тизим инқирози пайдо бўлади. Қарама-қаршиликларни бартараф этиш йўллари илмий излаш мақсадли йўналишни, билим мақомини, “устоз-шогирд” ҳамкорлигининг хусусиятини ўзгартиришга, ўқув жараёнининг мазмунли томонини қайта кўриб чиқишга йўналтирилган бўлиши керак. Буларнинг барчаси негизида нафақат эслаб қолиш ва акс эттириш жараёни, балки ижодий фикрлаш ҳам ётадиган янги услубни ривожлантиришга қаратилган

бўлиши керак. Буларнинг барчаси бўлажак биология фани ўқитувчиларини методик тайёргарлигини талаб қилади.

Xulosa. Шундай қилиб, касбий хислатларни ривожлантириш олий таълим муассасалари фанларини ўрганиш жараёнида олинган турли билимлар, кўникма ва маҳоратлар ижодий қайта ишлашни ўз ичига олади. Бошқача қилиб айтганда, мактабдаги ижодий фаолиятга тайёргарлаш учун талабаларда илмий фикрлаш услубини шакллантириш, яъни уларга фақат тайёр амалий тавсияларни ўрганишни эмас, балки умумий илмий тушунчалар, принциплар билан ўйлашни ўргатиш; уларни ўқитиш методикаси ва инновацион технологияси билан таъминлантириш зарур.

Adabiyotlar.

1. Bespalko V.P., Tatur Y.G. Sistemno – metodicheskoye obespecheniye uchebno vospitatelnogo protsessa podgotovki spetsialistov. – M.: Visshaya shkola, 1989. – С.192.

2. Karimova M.H. Biologiya fani o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirishning o'ziga xos aspektlari. Mug'allim ham yzliksiz bilimlendirio'. №5. 2020.

3. Karimova Mavluda Hakimovna " DIDACTIC FOUNDATIONS OF COMPUTER EDUCATION IN THE TRAINING OF BIOLOGY TEACHERS " DEVELOPMENT AND INNOVATIONS IN SCIENCE International scientific-online conference (30.11.2022).

4. Verzilin N.M., Korsunskaya V.M. Obshaya metodika prepodavaniya biologii. Uchebnik dlya studentov ped. inst. po biologii. M.: Prosvesheniye, 1983,-384 s.

5. Karimova M. H. "O'qituvchining metodik tayyorgarligi tizimida tarkibiy komponentlar kombinatsiyasining o'rni." Xalq ta'limi. №6. 2021, -35 b.

6. Karimova M. H. "The Structural model of methodological training of teacher in teaching biological sciences." - ACADEMICIA. An international Multidisciplinary Research Journal. 2021,-365 page

7. Karimova M. H."Oliy ta'lim muassasida bo'lajak biologiya o'qituvchisining tayyorgarligi amalga oshirish yullari." Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya. Qarshi 2022 yil. 17-18 may. 657-661 bet.

8. Karimova Mavluda Hakimovna "BIOLOGIYA O'QITUVCHISI METODIK TAYYORGARLIGINING TUZILMAVIY-FUNKSIONAL MODELI" O'zMU XABARLARI. -UDK: 378.14: 372.857, 2022-yil.

9. Karimova Mavluda Hakimovna "A Complex of Tools for Teaching Biology in Various General Educational Institutions." Eurasian Scientific Herald September. 2022. 77-81 page.

O'ZBEK ADABIYOTIDA TASHBEH SANATINING O'RNI

Abdurahmonov Shahobiddin Xayrulla o'g'li
TerDPI 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek adabiyotida tashbeh san'atining xilma-xilliklari, turlari haqida ma'lumot va xulosalar berilgan. Tashbeh san'atini tushuntirishda adabiyot namunalari foydalanilgan.

Kalit so'zlar: tashbeh, mushabbah, mushabbahbihi, vajhi shaboh, holati tashbeh, o'xshatish vositalari, mutloq tashbeh, kinoya tashbeh, tashbeh namunalari.

O'zbek adabiyoti turli tasviriy vositalarga, go'zal tavsif va o'xshatishlarga, majoz va istioralarga, mubolag'a va murojaatlarga boy hisoblanadi. Ularni birlashtirib badiiy san'atlar deb ataymiz. Badiiy san'at turlarini oldinlari "Ilmi sanoye" yoki "Ilmi bade" deb ataluvchi fan o'rgangan. Badiiy san'atlar asar ma'nosini aniqlashtirib, teran fikrni jamlab beradi, tushunishi oson bo'lishi uchun ko'p ma'nolikni paydo qiladi, tinglovchiga ta'sir qilish uchun ta'sirchanlikni yaratadi. Albatta, bular yozuvchi yoki shoir mahoratiga, til va so'z boyligiga ega bo'lishi bilan bog'liqdir.

Badiiy san'at turlariga tajnis (jinsdosh), istiora (ikki narsa o'rtasidagi o'xshashlik, yevropada "metafora" deb yuritiladi), tablig' (mubolag'a), tashbeh (o'xshatish), talmeh, tashxis (jonlantirish), intoq, tamsil, husni ta'lil, tazmin, laff va nashr, tazod (qarshilantirish), iyhom, tanosub, kitobat, nido, takrir va boshqalar kiradi. Bularning ichida tashbeh san'ati alohida asosiy xizmat turini bajaruvchi, ko'p ishlatiladigan san'at turlaridan biri hisoblanadi. Qadimgi eski o'zbek adabiyoti yozuvchi, shoirlari ham o'z ijod asarlarida qo'llab, bu san'atning rivojlanishi va kengayishi uchun hissa qo'shishgan. Lutfiy, Alisher Navoiy, Nodira, Uvaysiy Dilshod Barno, Anbar Otin, Ogahiy va boshqa mashhur yozuvchi, shoirlar asarlarida tashbeh san'ati naqadar yuqori mahorat ila qo'llanganiga guvoh bo'lamiz.

Tashbeh arabcha tilidagi so'z bo'lib, tarjimasidan "o'xshatish" degan ma'nodagi so'z kelib chiqadi. Keyinchalik "o'xshatish" man'osi ham tashbeh o'rnida qo'llanib, sinonimlik holatida barobat ishlatilib kelinmoqda. Tashbeh so'zlarda ifodalanayotgan ikki va undan ortiq narsa-hodisalar, xususiyatlarni bir-biri bilan o'xshashlik, sifat va belgilar asosida o'xshatish, qiyoslash va solishtirish, ma'no tasvirlarini chuqurroq, yorqin va ta'sirliroq qilib ko'rsatadigan badiiy san'at. Tashbehni yuzaga keltiradigan asosiy to'rtta qism talabi zarur.

Birinchisi tasvirlash uchun asosiy tushuncha qaratilgan narsa va hodisa bo'lishi talab etiladi. U mushabbah, ya'ni o'xshatish deyiladi.

Chirog'imga parvonadek urinar yillar-

To'rt atrofim to'lib ketdi kuygan qanotga.

Bu misralar Usmon Nosirning "Nil va Rim" she'ridan olingan. Parchada "yillar" o'xshamish bo'lib kelyapti

Ikkinchisi o'xshatilgan narsa – tasvirlash uchun o'xshamishni qiyoslash uchun kerak bo'ladigan qism. Parvona-o'xshatilmish. Parvona, bilamizki,

qorong'ilikda yorug'lik tomon talpinadigan hasharotlar...Yillarning parvona kabi yorug'likka tashnaligi aks ettirilgan.O'xshatilmishni yana mushabbahbihi deb ham yuritishgan.

Uchinchisi tasvirlash uchun asos qilib olingan belgi, xususiyat, ko'rinish, narsa-hodisalar hisoblanadi.U asos qism (vajhi shaboh) deyiladi. Bu yerda asos qism-parvonaning chiroqqa urilishi. Asos qismning yilga aloqasi shundaki, yil shoshqoloqlik bilan o'tib ketaveradi, faqat oldinga yorug'lik tomon uchaveradi. Afsuski, har bir o'tayotgan onimiz o'tib o'tmishga aylanadi, shu jumladan, yillar ham. Oldinda turgan yillar ham bir kun yo'q bo'ladi. Shuning uchun yillarni chiroq yog'dusiga urilib halok bo'lgan parvonaga o'xshatilgan.Bu -vaqt qismati.

To'rtinchisi o'xshatish vositasi talabi hisoblanadi. Ular, asosan, o'xshatilmish tarkibida yoki unga birikkan holda keladi. "Parvonadek" so'zidagi "-dek" qo'shimchasi o'xshatish vositadi bo'lib xizmat qilmoqda. Uning ikkinchi nomi "holati tashbeh" dir.O'xshatish vositalariga o'zbek tilidagi o'xshatish-chog'ishtiruv qo'shimchalari, sifat yasovchi qo'shimchalar, ko'makchi qurilmalar kiradi.-dek,-day,-simon,-vor,-oso,-cha,-iy,-oyin,-vash qo'shimchalar, yanglig', kabi, xuddi, singari, go'yo so'zlari va boshqalar o'xshatish vositalari funksiyasini bajaradi.

Tashbeh san'atining qismlari ishtirok etish-etmasligiga ko'ra ikki turga bo'linadi.

1.Mutloq (aniq) tashbeh-ma'noni ixchamlash uchun, yanada go'zal tasvirlash uchun faqatgina o'xshamish va o'xshatilmishgina ishtirok etadi.Xuddi tushum va qaratqich kelishining belgisiz qo'llanilishiga shaklan biroz o'xshab ketadi, lekin ma'no va bajarayotgan vazifasiga jihatdan farq qiladi.Lutfiyning "xoh inon, xoh inonma" radifli g'azalida mutloq tashbehdan qo'llanilganiga misol keltiramiz:

Oy yuzinga, ko'z solgali o'zga kishi birla,
Yo'qtur nazarim, xoh inon,xoh inonma.

2.Kinoya tashbehda o'zshatilmishning faqat o'zigini ishtirok eib, butun tashbeh vazifanini o'zi bajaradi. Masalan," oydek yuzli yorim" demasdan "oyim ", yoshbolalarni esa " danakdek kichik bolam " demasdan "danagim " deb aytishadi. Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asari "Salotun" bobining ushbu misralarda kinoya tashbeh san'ati mavjud.

Bo'lsi raiyat galavu sen shubon,
Ul shajarai musmiru sen bog'bon.

Bu yerda "raiyat", "gala","shajara", "bog'bon" so'zlari tashbeh vazifaning bajarmoqda."raiyat"- bu xalq ma'nosini bildiradi. Gala-odamlarning birgalashib yurishining bir ko'rinishi, to'da, olomon. Shajara- arabchadan "daraxt", bir avlodning kelib chiqish ajdodlari va ular bilan aloqalari ko'rsatilgan ma'lumotlar majmui. Ya'ni "Agar xalq bir to'da bo'lsa, sen bir cho'pon, agar u mevali bir daraxt bo'lsa, sen bog'bon bo'lasan" degan ma'no beradi. Yana shoir ijodida tashbeh san'atining oxori to'kilmagan so'zlar bilan qo'llangan.

Shoh yonin farzin kabi kajlar maqom etmish bu tong,
Rostu ravlar asradin gar rux kabi tutsa qiron.

Nodira ijodida ham ko'p qo'llangan badiiy san'atlardan biri tashbeh san'atidir.

Chamanda jilva qildi sarvi gul ham sabzabosh egdi,

Qadi sarvu, yuzi gul xati rayhonimni sog'indim.

Shoiraning bu baytida tashbehning mo'lligini ko'ramiz. Yor qaddi sarv daraxtiga, yuzi esa gulaga, xati xushbo'y hid taratuvchi rayhonga o'xshatilib, yorning barcha sifatlari qiyoslanyapti, o'xshatilyapti. Xati- bu yerda yorning lablari ustidagi nozik tuklarni bildirgan.

Demak, o'zbek adabiyotida barcha janrlarda ma'no teranligi, ta'sirchanlikni xilma-xil bo'lishi uchun badiiy san'atlardan salmoqdori tashbeh san'ati ekan. U eski o'zbek adabiyotida ham, hozirgi adabiyot durdonalarida ham shoir, yozuvchilar tomonidan foydalanilib, o'z vazifasini bajarmoqda. Ikki narsa o'rtasidagi o'xshashlikni uyg'un holatda ko'rsatishi o'quvchiga adabiyot nafasati, takrorlanmas sehr kuchini ko'rsatadi va undan badiiy-hissiy rohat oldirtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Namoz Rasulov. "She'r san'atlari". Toshkent shahar. "Tafakkur"-2015
2. "O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar" mavzusida Respublika 18-ko'p tarmoqli ilmiy-masofaviy onlayn konferentsiya materiallari" jurnali. Iyul/ 2020-yil 8-qism
3. G.Ochilidiyeva, U.K Muminova METHODS AND MEANS OF FORMING A POSITIVE ATTITUDE OF STUDENTS TO THE ENVIRONMENT IN THE EXTRACURRICULAR PROGRESS "TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE" 1 (2), 46-50
4. Umida Muminova Qarshiyevna. Central Asian Journal of Social Sciences and History (ISSN: 2660-6836. Linguistic Views Of Mahmud Kashgari.
5. Muminova Umida Karshiyevna INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE" Ankara, Turkey 2023 46 PHYTONYMS IN THE WORK "MAHBUB UL -QULUB".
6. U.M. Karshiyevna. Linguistic Views of Mahmud Kashgari. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY 3 (12), 336-340
7. M.U Qarshiyevna. Lexical-Grammatical Characteristics of the Noun in Ancient Turkish Language Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal 2 (1), 389-394

TARBIYA DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING INSONPARVARLIK FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

*Xikmatov Ayub Saydulloyevich
TerDPI magistranti.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish texnologiyasini qanday foydalanish va ularning afzalliklari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, insonparvarlik, texnologiya, pedagogik texnologiya, boshlang'ich ta'lim, interfaol usullar, dars, ijodiy fikrlash, metod.

Yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev bugungi kun yoshlarimizning tarbiyasiga alohida to'xtalib: "Bolalarimizni birovlarining qo'lga berib qo'ymasdan, ularni

o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz". Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana shu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: "Xalqning aniq bir maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikdan olgan tarbiyalariga bog'liq" deya ta'kidlab o'tgan edi.

Tarbiya o'z navbatida oiladan boshlanar ekan, biz o'z farzandlarimizni baxti, saodatini, kamolini, iqbolini, buyuk inson bo'lib yetishganligini va hayot abadiyligi avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviy qo'rg'oni bo'lmish o'z oilamizning mustahkamligini ko'rishni istar ekanmiz, demak oilada tarbiyalanuvchilarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalashda tarbiyaning barcha turlariga e'tiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-bobolarimizdan qolgan boy ma'naviy merosning yosh avlodni har tomonlama yuksalishi tizimidagi o'rni va roli o'ziga xos xususiyatga va ko'rinishlarga ega. "Darhaqiqat, ajdodlar tomonidan yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlarni o'rganishda ta'lim tizimi imkoniyatlarga alohida e'tibor qaratish lozim. Sharq mutafakkirlarining asarlarini o'rganish, tahlil qilish, ularning ijodi va ta'lim tarbiyaga oid insonparvarlik qarashlarini pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega" Ular o'z asarlarida shaxs ma'naviyati, insonda odob-axloqning yuksak namunalarini tarkib toptirish, oila, nikoh, farzand tarbiyasi, halol mehnat bilan kun kechirish, atrof-muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo'lishga oid qarashlarni bayon qilganlar. Shunday qilib, inson va uni tarbiyalash masalalari Sharq mutafakkirlari va allomalari o'z asarlarida insonning bilim olishi, hunar egallashi, undagi yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni ulug'laydilar va shunday fazilatlarga ega bo'lishga barchani chorlaydilar. Ma'naviy yuksak, zamonaviy ilm-fanni egallagan, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosga sohib chiqqan avlodni hech qanday tashqi kuch, g'oya yoki mafkura aslo o'z ta'siriga tushira olmaydi. Bunday avlodni voyaga etkazgan xalqning istiqboli porloq, kelajagi buyuk bo'ladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslllar, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'limning samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga ta'lim jarayonining eng dolzarb vazifalaridan bo'lib bormoqda. Insonning tafakkuri, aqliy salohiyati ijtimoiy boylik hisoblanadi. Ular har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydi. Shunday farzandlarimiz borki, ular umumiy o'rta ta'lim jarayonida ma'lum yo'nalish bo'yicha o'zlarining iqtidorlarini, iste'dodlarini namoyon

etadilar. Bu boylikdan oqilona foydalanish, uni to'g'ri yo'naltirish lozim", - degan edi birinchi prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Barkamol avlod orzusi" asarida.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, olinayotgan bilimlarni tahlil qilishlariga, xato xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratiladi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Ushbu jarayonda o'qituvchi boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida o'quvchi asosiy obyektga aylanadi. Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchi, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida;

Ikkinchi, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi;

Uchinchi, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi;

To'rtinchi, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o'qituvchidan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Bugungi kunga kelib sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan kadrlar bo'lib yetishishi kerak.

Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o'rnini va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

"Dumaloq stol" metodi: Topshiriq yozib qo'yilgan qog'oz varaq davra bo'ylab aylantiriladi. Har bir o'quvchi o'zining javob variantini yozib qo'ygach, varaqni boshqa o'quvchiga uzatadi. Keyin muhokama bo'ladi: noto'g'ri javoblar o'chiriladi, to'g'ri javoblarning soniga qarab o'quvchilarning bilimlariga baho beriladi. Bu metodni 3-4-sinflarda yozma shaklda, 1-2-sinflarda og'zaki shaklda ham qo'llash mumkin. Berilishi mumkin bo'lgan topshiriqlarga misollar:

- tarbiyali bola deganda kimni tushunasiz?
- halolik deganda nimani tushunasiz?

- Sobir Rahimov kim bo'lgan?
- Oftob urganda qanday yordam beriladi?
- mehnatsevarlik deganda nimani tushunasiz?
- yong'in sodir bo'lganda kimga telefon qilinadi?
- 103 raqamiga telefon qilib kimni chaqirasiz?
- Zaharlangan odamga birinchi yordam qanday ko'rsatiladi?
- Insonparvarlik deganda nimani tushinasiz?

Yuqoridagi savollar 4-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Shuni esda tutish kerakki, qo'yilgan savol javobning yarmini o'zida aks ettirishi lozim.

“Ruchka stol o'rtasida” metodida esa. Butun guruhga topshiriq beriladi. Masalan, dam olish kuni uydagilarga qanday ishlarda yordam berasiz? (3-sinf misolida). Har bir o'quvchi bitta javob variantini bir varaq qog'ozga yozib, uni partadoshiga beradi, o'z ruchkasini esa stolning o'rtasiga surib qo'yadi.

“Bobolarimizning bebaho merosi mavzusini mustahkamlash asosida yuqoridagi metodni uyushtiramiz. O'qituvchining guruhga beradigan topshirig'i – qomusiy olimlarga ta'rif berib o'ting. Bunda keng ma'lumotlardan chekingan holda qisqa va lo'nda, aniq bitta gap bilan ta'riflanadigan gap bilan misol keltirish talab etiladi. Masalan, Alisher Navoiy – so'z mulkingning sultoni. Ajratilgan 10-15 daqiqa vaqt ichida guruh mumkin qadar ko'proq sonda javob variantlari berishi kerak. Bir varaq qog'ozga yozilgan topshiriq bir o'quvchidan ikkinchisiga uzatiladi. O'quvchi javobni yozib, qog'ozni keyingi o'quvchiga uzatadi, ruchkasini esa, o'ziga qarama- qarshi qilib, stolga qo'yib qo'yadi. Javobni bilmaydigan o'quvchi qog'ozni keyingi o'quvchiga uzatadiyu, lekin ruchkasini qo'lida olib qoladi. Bu metodikaning yana bir sharti: bitta variantni ikki qayta berish mumkin emas, boshqacha aytganda, qaytarishlar bo'lishiga bu o'rinda yo'l qo'yilmaydi. Topshiriq bajarildi. Javob variantlari yozilgan qog'oz o'qituvchida. U o'sha variantlarni sanab o'tadi. Variantlar sanab o'tilar ekan, ularning har biri guruhda muhokama qilib boriladi. Takror javoblar inobatga olinmaydi. “Ruchka stol o'rtasida” metodi bir qancha afzalliklarga ega. Jumladan, o'qituvchi mashg'ulotga kim tayyor, kim tayyor emasligini ko'rib turadi, o'quvchilarda qomusiy olimlar haqida tezkor beriladigan javob variantlari shakllantiriladi.

Bu metod guruhda olib boriladigan ish bo'lib, o'quvchilar intizomini mustahkamlaydi, ularni guruh shaklida ishlash malakasini shakllantiradi, guruhni jipslashtiradi, o'quvchilarni tezkorlikka, tez fikrlashga undaydi. Chunki o'z variant ustida juda uzoq o'ylab o'tiradigan o'quvchi butun guruhga ajratilgan vaqtni sarflaydi. Shuningdek, o'quvchi mashg'ulotga tayyor bo'lmasa, bunda ham u guruhga pand beradi. Bu holatda tushmaslik uchun har bir o'quvchi har bir darsga tayyor bo'lib kelishga intiladi. O'quvchilar o'z javoblarini ikki marta: yozma ish paytida va og'zaki muhokama vaqtida tahlil qilib borishadi. Bu esa mavzuni yanada mukammal egallashga imkon beradi. Bu kabi ta'lim jarayonida qo'llaniladigan interfaol usullar o'quvchilarning mustaqilligi, ishchanligi, uyushqoqligi, xushmuomalaligi, ijodiy fazilatlarini kamol toptirishga yordam beradi.

Interfaol usullar interfaol ta'lim jarayonida dars o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida amalga oshiriladi. Interfaol metod - ta'lim jarayonida

o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati, ta'siri ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari - norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish, o'quvchilarni tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, kata guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish kabilardan iborat. Interfaollik, bu - o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bunda o'quv-biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida, dialog shaklda yoki o'qituvchi-o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik - o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi-o'qituvchi, o'quvchi-o'quvchi (subyekt-subyekt) suhbatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratadi. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr- mulohazalarini ochiq-oydin, erkin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro fikr almashish jarayoni sodir bo'ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi. Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali, evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat-dars jarayonini loyihalash orqali, muamoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali, kreativ-ijodkorlik asosida, axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi.

Tarbiya fanining maqsadi darslik orqali o'quvchida bilim berishdan tashqari hayotiy ko'nikma shakllantiriladi va bosqichma-bosqich bolada maqsad qo'yish va unga intilish ko'nikmasini shakllantirib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarbiya darsi

- 1-sinfda o'quvchi dastlab orzularini aniqlay olishni o'rgatilsa,

- 2-sinfda o'z oldiga maqsad qo'ya olish ko'nikmasi shakllantiriladi.

-3-sinfda o'quvchida dasturni o'zlashtirish natijasida maqsad va orzu umidlarini amalga oshirishga harakat qilish ko'nikmasi paydo bo'ladi.

- 4-sinfda atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarga sog'lom munosabat bildira oladi, shaxs sifatida o'zini anglaydi va o'z xatti-harakatlarini tahlil qiladi

Bolalarni maktabgacha yoshdan boshlab o'z ona shahri, milliy an'analarining o'ziga xos xususiyatlari hamda insonparvarlik haqida bilimlarni oshirish va uni kelajak avlodga yetkazish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri. Shuningdek, yaqinlar, qarindosh, yurtdoshlarga nisbatan mehr, saxiy munosabat, birovning qayg'usiga hamdardlik va rahm-shafqat va ular bilan ishlash tizimi oilada insonparvarlik va vatanparvarlik tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan eng dolzarb muammolarni hal etishning dolzarbligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda insonparvarlik tuyg'usi bolaning oilaga, unga eng yaqin odamlarga - onasi, otasi, bobosi, buvisi, aka-uka va opa-singillariga munosabatidan boshlanadi. O'z uyiga muhabbat va mehrni o'zining asl ma'nosida rivojlanish insonparvarlikning

birinchi boshlang'ich bosqichi bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich 1-2-sinflar o'quvchilari uchun insonparvarlik tushunchasini tushuntirish bir muncha oson bo'lishi uchun uni o'ziga bo'lgan munosabatni, birinchi do'stlari, u boradigan maktabdagi sinfdoshlari, qo'ni- qo'shnilariga nisbatdan insonparvarlik haqidagi g'oyalarni tushuntirish va sindirishdan boshlash maqsadga muvofiq.

Tarbiya fanini o'qitishda o'qituvchi o'z ustida ishlashi uchun ma'naviy adabiyotlar bilan ishlash metodi muhim omil. Masalan, Imom Buhoriy "Sahih Hadis", Alisher Navoiyning "Hikmatlari", Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Hadis va hayot", Obiddin Mahmudovning "Farzandnoma", Abdulla Avloniy, Behbudiy kabi ma'rifatparvar jadid bobolarimizning ilmiy meroslaridan foydalanish muhim. Tarbiya fani jud keng qamrovli fan bo'lib, fanni o'qitish metodlari: og'zaki, hikoya, suhbat, tushuntirish, ko'rgazmali, monolog, dialog, keys, namoyish metodi, amaliy ishlar metodi, interfaol metodlar va boshqalar.

7 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan davrda o'quvchilarga ta'lim berishning eng maqul shakli - bu o'yin. Boshlang'ich sinf yoshdagi o'quvchilarning xulq-atvorning ijtimoiy shakli oddiy taqlid qilishga qaratilgan. O'quvchilarga turli ta'limiy o'yinlar orqali vatanga muhabbat, kattalar hayotidan xulq-atvor normalari o'qitiladi, qadriyatlar tushuntiriladi. 1-sinfda ko'pincha og'zaki, 2-3-4 sinflarda esa yozma ravishda metodlar qo'llash tavsiya etiladi. Boshlang'ich sinflarda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan interfaol metodlar, ta'limiy o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlash, fikriga asoslagan holda himoya qila bilish, mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish fikrini bayon qilishga, o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirishga, ijodiy izlanish, tahlil qilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanishi bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirish xulosalar chiqarishga yordam beradi. Tarbiya darslarida "Aqliy hujum", "Fikrlar hujumi", "Tarmoqlar" metodi, "Sinkveyn", "BBB", "Beshinchisi ortiqcha", "6x6x6", "Bahs-munozara", "Rolli o'yin", "FSMU", "Kichik guruhlarda ishlash", "Yumaloqlangan qor", "Zigzag", "Oxirgi so'zni men aytay" kabi zamonaviy texnologiyalarni qo'llash yuqori samara beradi. Mashhur fin pedagogi R.Nevanlinna bu borada shunday deydi: "Yaxshi dars berishning usullari juda ko'p, yomon dars berish usullari undan ham ko'p; eng yomon usul -zerikarli dars berishdir". Shunday ekan dars metodlarini tanlashda o'quvchilarning psixik faoliyati, qobiliyatlarini hisobga olishimiz kerak.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim jarayonida insonparvarlik fazilatlarini shakllantirishda turli xil metod va texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish va dunyoqarashini kengaytirish bilan birga ularni dars jarayonida o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga imkoniyat yaratadi. Bugungi kun o'qituvchilarimizning zamonaviy talablar asosida yaratilgan shart-sharoitlarda darslarni pedagogik texnologiyalar orqali tashkil etishi talim-tarbiya jarayoning sifatini hamda samaradorligini taminlaydi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. T.: 2016-y
2. Z.B.Jalilov. Sharq mutafakkirlari merosini o'rganishning didaktik metodlari. Zamonaviy ta'lim jurnali. 2017 yil, 5-son.
3. Karimov.I.A. Barkamol avlod orzusi. «SHarq».
4. Ro'ziyeva D va b. 3-sinf tarbiya fani darsligi.T. «SANO-STANDART».2020-y.
5. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T. 2006 -y
- 6.N.Ismatova va b. Tarbiya: 1- sinf uchun darslik. 1-nashr.-T.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi-2020-y

MUTAFAKKIRLAR MEROSIDA TARBIYA JARAYONIDA FOYDALANILADIGAN TA'LIM USULLARI MAZMUNI

Abduraimova Malohat Bobomurat qizi
TerDPI magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida muttafakkirlar merrosida tarbiya jarayonida foydalanilgan ta'lim usullarini qanday foydalanish va ularning afzalliklari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, ta'lim usullari, texnologiya, pedagogik texnologiya, boshlang'ich ta'lim, interfaol usullar, dars, ijodiy fikrlash, metod.

Bizning jonajon diyorumizda yoshlarimizni har tamonlama yetuk va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, ularni davlat va jamiyatning rivojiga keng jalb etishda ajdodlar merosi, jumladan, tasavvuf ilmi, naqshbandiya ta'limoti va xalq pedagogikasiga qaratilgan yuksak e'tibor yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqod, ma'rifatlilik, ma'naviyatlilik kabi fazilatlarni shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Yurtimizda diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida "Islom va jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan ajdodlarimizning boy madaniy merosini chuqur o'rganish asosida yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish, "... globallashuv sharoitida jamiyatimizdagi ijtimoiy ma'naviy muhit barqarorligi va e'tiqod erkinligiga tahdid tug'dirishi mumkin bo'lgan omillarni barvaqt aniqlash va oldini olishga qaratilgan axborot-tahliliy faoliyatni kuchaytirish" kabi vazifalar belgilangan. Bu borada o'quvchi yoshlarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi kurashuvchanlik ko'nikmasini shakllantirishda tasavvuf ilmi va naqshbandiya tariqati g'oyalari hamda xalq pedagogikasi manbalarining pedagogik imkoniyatlarini nazariy-amaliy jihatdan asoslash, xalq an'analarining falsafiy, psixologik, pedagogik jihatini tadqiq etish, ajdodlar merosi va milliy an'analardan boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF4749-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini

tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ- 3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" qarorlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish bugun oldimizda turgan asosiy vazifalarimizdan biridir. Jamiyat va mamlakat taraqqiyotini ilm-ma'rifatsiz, ma'naviyatsiz tasavvur qilish juda mushkul. Zero, o'z davrida bu haqda Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilik" asarida ilm-ma'rifatning o'rni va ahamiyati naqadar muhimligini ko'rsatib o'tib: "Bilimsiz kishi bamisoli mevasiz daraxtdir, mevasiz daraxtni och kishi nima qilsin?!", degan edi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2023-yil - "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilinishi, shu asosda o'quvchi yoshlarimizning zamonaviy bilimlarni egallashlariga alohida urg'u berilishi hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning dolzarbligi va ahamiyati iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy jihatdan kuchli, bozor iqtisodiyoti qonunlari to'liq amal qiladigan demokratik davlat qurishga qaratilgan muhim qadam ifodasidir.

Prezidentimizning nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilim saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak bo'lib, ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi deb donishmandlarcha aytgan so'zlari muqaddas kitobimiz Qur'onning ilk oyatida ham "O'qing", "O'qing" deb ilmu ma'rifatga alohida urg'u berilganligi va "Ilm"so'zining 900 ga yaqin o'rinda turli ma'nolarda kelganligi bu davlatning muhimligini anglatadi.

Shuning uchun Prezidentimiz o'z murojaatida "Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir!" deb ta'kidladi.

Muttafakkir bobolarimiz - Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Farg'oniy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zamaxshariy singari umumbashariy taraqqiyotga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning ilmiy merosi qalbimizda iftixor tuyg'usini uyg'otishi bilan bir qatorda ularning ijod mahsuli bugungi kunda dolzarblik kasb etayotgan ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari uchun fundamental asos ekanligi hech kimga sir emas albatta. Zero, Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati, tarixiy va falsafiy merosi, ularning astronomiya, matematika, geografiya, geodeziya, tibbiyot, farmakologiya, kimyo, mineralogiya kabi zamonaviy ilm-fanlar shakllanishi hamda rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasini butun jahon fani tahsiniga sazovordir va butun dunyoda ushbu bobolarimizning boy me'rosi qadrlani kelmoqda.

Shuningdek ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalasining dolzarbligi allomalarimizning asarlarida ham o'z aksini topgan. Ya'ni, har bir egallangan bilim inson aql-zakovati, tafakkuri va ijodi orqali sayqallanib borishi natijasida zamonaviy bilimlar bilan boyitilib boriladi. Zamonaviy bilim olish orqali egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalarni hayotda tadbiiq eta olgan insongina davr bilan hamnafas yashay oladi. O'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishadi va o'zi uchun qulay, tejamkor, sifatli va samarali muhit yarata oladi. Raqamli iqtisodiyotda zamonaviy ilmiy yondashuvlar va innovatsiyalar muhim hamda ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. "Raqamli iqtisodiyot"ga asosiy poydevorni matematika faniga "0" raqamini kirgizgan ulug' Al-Xorazmiy bobomiz asos solib, ayni paytdagi mavjud zamonaviy kompyuterlar, axborot-kommunikatsiya hamda yuqori texnologiyalarning bobokoloni deb hisoblasak, mubolag'a bo'lmaydi. Raqamli iqtisodiyot bu- bu siyosiy-iqtisodiy, ilmiy-ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy munosabatlardagi aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash yordamida amalga oshiruvchi yangi tizim hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot insonlarning turmush darajasini bir necha barobar oshirib, mamlakat milliy xavfsizligi hamda mustaqilligini ta'minlovchi asosiy indikator ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilashdan iborat.

Ushbu natijalarga erishish uchun buyuk ajdodlarimiz qoldirgan merosni bugungi zamonaviy ta'lim-tarbiya nazariyasining ajralmas asosi sifatida qo'llagan holda ta'limni yangi sifat bosqichiga ko'tarish, zamonaviy ta'lim yondashuvlari qo'llash orqali ta'lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta'minlash, ko'zlangan natijalariga erishishni kafolatlovchi ta'lim muhitini yaratish zarur.

Sharqning qomusiy olimlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Forobiy, Davoniy, Jomiy asarlarida ta'lim-tarbiya, o'qitish masalalari atroflicha bayon qilib berilgan. Shuningdek, mutafakkirlarimiz tomonidan ta'lim jarayonida o'qitishning qaysi usul vositalaridan foydalanish lozimligi uqtirib o'tilgan. Keltirilgan fikrlardan ko'rinadiki dastlab shaxs amaliy bilimlarga keyinchalik esa nazariy bilimlarni qo'lga kiritishi lozimligi borasidagi g'oyalar ilgari surilgan.

Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy bobomiz asarlarida o'qitish usullari masalasiga alohida to'xtalib, o'quvchi shaxsiga ta'lim berishda ko'proq qaysi tomonlarga e'tibor berish kerakligini bayon qilib beradi. Jumladan, bobomiz tomonidan quyidagi qoidalar ilgari suriladi:

a) o'qitishda yodlatish emas, balki tushunish mantiqiy fikrlash, xulosalar chiqarish, yo'liga amal qilish lozimligi.

b) o'qitishda o'quvchining qiziqishi, intilishini hisobga olinishi va muallim o'z shogirdlariga xushmuomalali bo'lishi.

c) o'qitishda turli usul, metodlarni qo'llash ya'ni qarab chiqish, o'qilmagan mavzularni o'qib olish kerakli joylarini qayta o'qib olish, umuman yana o'qib chiqish va tushunib olish.

d) o'quv qurollarini, kitoblarni e'tibor bilan avaylab, asrab tutish, bu kitoblar insoniyatning boyligi ekanligi.

Abu Rayhon Beruniy bobomiz o'sib kelayotgan yosh avlodni o'qitish uchun o'qituvchi tanlashni eng birinchi va asosiy vazifa deb bilganlar. U bolalarni yoshligidanoq aniqrog'i 5-6 yoshidan o'qitish tarafdori edi. Buning uchun o'qituvchi xushmuomalali, rostgo'y, o'z fanini yaxshi biladigan pokiza, toza ozoda yurish va turishida namuna bo'lishini talab etadi. Bu g'oya to'g'ri va adolatli talabdir. Agar tarbiyachi o'rnak bo'lmasa, aytgan gapiga o'zi rioya qilmasa, uning tarbiyasi samarasizdir va foydasiz hisoblanadi.

Beruniy ta'lim tarbiyaga o'quvchilarning diqqatini jalb qilish, mashg'ulotlar davomida o'quvchini zerikib qolmasligi uchun ta'lim olishning turli yo'llari, shakl va metodlari ustida to'xtalgan. U shunday deb yozadi, «Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirib qo'ymaslikdir. Hadeb bir narsani takrorlash zerikarli bo'ladi, materialga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi. Agar o'quvchi bir masaladan, boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'-rog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar o'tmas, boshqa bir bog' boshlanadi. Kishi ulaming hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa kishiga rohat bag'ishlaydi deb behuda aytilmagan». Olimning so'zlarida uning bilim berish yo'llari haqidagi qarashlari ham bayon etilgan.

Birinchi - ilmiy bilimlar turli mavzulardan iborat bo'lishi, o'quvchini zeriktirmasligi, xotirasiga malol kelmaslikni ko'zda tutadi.

Ikkinchi - bunday usul boshqa tadqiqotchilarning o'qib o'rganuvchining mehnatini yengillashtirishga qaratilgan.

Uchinchi - borliqdagi hodisalarni har tomonlama o'rganmasdan ilmiy bilimlar doirasini aniqlab olish qiyin bo'lishini ta'kidlaydi.

Beruniy ilm olishga kirishni quyidagicha ta'kidlaydi: «Ilm dargohiga kirar ekansan, qalbingni, ko'ngilni ozdimvchi illatlardan, odamni ko'r qilib qo'yadigan holatlardan, chunonchi, qotib qolgan urf-odatlardan, hirsdan, raqobatdan, ochko'zlikning quli bo'lishdan o'z hokimligi uchun kurashishdan ozod bo'lmog'ing darkor».

Beruniy o'quvchiga bilim berish uni xat savodli qilish haqida gapirar ekan, bu o'rinda qog'ozning paydo bo'lishi, yozuv va uning vujudga kelish xususiyatlari, turli belgilar o'quv qurollari haqida alohida-alohida to'xtalgan, Uning ta'kidlashicha har bir xalqda ta'lim berishning o'ziga xos tomonlari bo'lib, hammasida ham o'qitish eng avval alifbedan boshlanadi.

Qomusiy olim Beruniy ta'kidlashicha bilim olish jarayonida insoniyat yaratgan bilimlarni egallash uchun o'quvchida intilish va qiziqish bo'lish kerak.

Ilm olishning muhim yo'llaridan biri kishi o'zini hammaga do'st, yaxshilik qila bilish darajasiga yetkazishdan boshlanadi. Bilimlarni yakka holda emas, balki jamiyat a'zolari bilan birga yashab olish mumkin. Chunki, ilmlar insoniyat jamoasining mahsulidir. Yakka kishi o'zi uchun kerakli bilimlarni yarata olmaydi. Kishi tabiati bilmagan va bila olmagan narsasini bilishga o'chdir.

Beruniy ilm olish yo'li bilan dunyoni bilishning turli bosqichlarini ko'rsatadi:

1. To'liq bilim olishda narsalarning chegaralari ma'lum bo'ladi.
2. Narsalarning bo'laklarini umumlashtiruvchi chegaralarigacha ma'lum bo'ladi, lekin bunda ham tafsilotdan holi bo'lmaydi.
3. O'sha tafsilotlar atroflicha biluvchi va bilinuvchi sifatida birlashadi, lekin

bu holat zamon ichida bo'lib turadi.

4. Atroflicha bilish holati zamon ichida bo'lmaydi, endilikda narsalarni, voqealarni bilishda zarur vosita bo'lgan ism sifatlariga, laqablarga ehtiyoj qolmaydi.

Beruniy tomonidan ilgari surilgan fikrlarda bilimlilik orqali nodonlikdan xalos etish masalalari bayon qilingan. O'quvchini o'qitish muamolari, rostgo'y, savodxon, shogirdlariga prinsipial, yumshoq muomalali bo'lishi kerak. Muallim o'quvchini doimo to'g'ri yo'lga boshlashi, sezgir va talabchan bo'lishi lozimligini uqtiradi.

Beruniy o'qitish muallimning o'qib o'rganishi, takrorlashi bilan bevosita bog'liq ekanligini alohida uqtirgan. Shuningdek, kitob o'qishning usul va metodlariga alohida e'tibor beradi. Kitoblarni shunchaki emas, balki fikrlarni kichik bo'limlarga bo'lib o'qish, hamma o'qilgan joylarni umumlashtirib, qayta o'qish haqida ham ibratli materiallarni bayon etadi.

Beruniy o'qitishda faqat induktiv yo'l bilangina emas, balki deduktiv yo'l bilan ham ish tutmoq lozimligini ta'kidlaydi. Bunda olim har qaysi metodni joyida qo'llamoq zaruriyatini yaxshi bilgani ko'rinib turibdi. Bunday o'qish tafakkurni o'stirib, bilishning sifatini yaxshilaydi, aqliy bilimni boyitadi.

Beruniy dastlab o'quvchining ongli o'qishi, matnning hajmi kichik, mazmuni sodda, keyinchalik esa hajmi katta, mazmuni murakkabroq bo'lgan matnlarni o'qishga kirishishi o'qish jarayonida taqqoslash-qiyoslashga e'tibor berish o'quvchilarning ongli bilimiga asos solishini eslatib o'tgan.

Olim o'qilganlarning barchasini qaytarib o'qish deganda, asosan xato qilmay, so'zlarni buzmay, ortiqcha tovush ishlatmay, bo'g'inlarni tushirib qoldirmay, so'z urg'usini o'z o'rnida qo'llab, to'g'ri o'qishni ta'kidlaydi. O'qishning tez, to'g'ri va ifodali bo'lishi, o'qish davomida bolaning o'z-o'zini kuzatib borishi, xatosiz tez va to'g'ri o'qishiga yordam beradi.

Beruniy bilimlar ustozlar tomonidan o'rgatiladi deb biladi. U nazariy bilimlarni o'quvchiga singdirish usullari haqida to'xtalib, o'qituvchi o'z ishiga asosan qiziqarli suhbat usuli bilan yondashib, shogirdning fanga, kasbga o'rganilayotgan ilmga havasini uyg'ota olishini, ta'limning asosiy vazifalaridan biri deb ta'kidlab o'tadi. Buning uchun ba'zan o'qituvchi o'z shogirdlarini majbur qilishi mumkin deb biladi.

Ibn Sino bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zaruriyatini qayd etar ekan, ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zaruriyatini ta'kidlaydi:

- a) bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- b) ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish;
- c) olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- d) o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;
- v) bilim berishda bolalarning mayl, qiziqish va qobiliyatini hisobga olish;
- g) o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

O'quvchilarga bilim berish o'qituvchi va murrabiylarimizning eng mas'uliyatli burchidir.

Shunga ko'ra, Abu Ali Ibn Sino bobomiz o'qituvchining qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, shunday yo'l yo'riqlar beradi. Bular quyidagilardan iborat:

1. bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo'lish;
2. berilayotgan bilimning talabalar qanday o'zlash-tirib olayotganligiga e'tibor berish;
3. ta'limda turli metod va shakllardan foydalanish;
4. o'quvchilarning xotirasi, bilimlami egallash qobiliyatini va shaxsiy xususiyatlarini bilish;
5. fanga qiziqitira olishi;
6. berilayotgan bilimlamiig eng muhimini ajratib bera olishi;
7. bilimlami o'quvchilarga tushunarli qilib, uning yoshi aqliy darajasiga mos ravishda berishi;
8. har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'onish darajasida bo'lishga erishish zarur, deydi olim.

Abu Ali Ibn Sino bobomizning ta'kidlashlaricha bilishda qaysi metodlardan foydalanmasin, u og'zaki ifodali bilimlami tushuntirishmi, turli ko'rinishlardagi suhbatmi, tajribalarmi, baribir o'quvchida haqiqiy bilim hosil qilish, mustaqil qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirishni asosiy maqsad deb bilgan.

Yana bir buyuk olim Davoniy fikriga ko'ra bola tarbiyasining keyingi davri maktabda boshlanadi. O'qituvchi aqlli bola tarbiyasidan yaxshi xabardor bo'lgan yuksak fazilat egasi bo'lishi o'z kasbining haqiqiy ustasi bo'lishi lozim. Olim o'quvch va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatga alohida to'xtaladi. Agar ota uning organizmini jismoniy jihatdan tarbiyalashga sababchi bo'lsa, o'qituvchi uning ma'naviy tarbiyasi kamolotga yetishiga sababchidir. Haqiqatni olganda, uning fikricha o'qituvchi ma'naviy padar hisoblanadi. Agar kishining ruhi o'z badaniga qanchalik yaqin bo'lsa, muallim ham tarbiya borasida shunchalik ota-onaga yaqin turadi.

Davoniy o'quvchi yoshlarning kasb-hunar egallashi to'g'risida ham e'tiborga sazovor fikrlar bildirganlar. O'qituvchi o'quvchilarning qobliyt va harakatini, qaysi kasb bilan qiziqishini juda yaxshi bilishi lozim. Agar bola ma'lum bir kasb hunar yoki bilim bilan shug'ullansa, uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va bilim yoki kasbni egallash uchun kerakli shart-sharoitni yaratib berish lozim, har bir kishining - deb yozadi. Davoniy, hamma kasbni egallashga qobiliyati bo'lmaydi, balki muayyan odamning biror kasbga qobiliyati bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz mumkin. Yuqoridagi keltirib o'tilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, bugungi yosh avlod fan asoslarini, ilim cho'qqilarini puxta va aniq o'zlashtirib va uning mohiyatiga yetish uchun buyuk muttafakkir bobolarimiz qo'llagan o'qitish usullarining hamda bugungi kun ta'lim usullarining ahamiyati o'rinlidir va o'quvchi yoshlarda nazariy va amaliy bilimlami shakllanishiga metodik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

PF-5416-son farmoni. - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 18.04.2018 y., 06/18/5416/1079-son, 1-modda.

2. O'zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida so'zlagan nutqidan

3.Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilik" asari

4. B.X. Xodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti." Toshkent-2017-y "Sano-standart" nashryoti.

Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T. 2006- y

BOSHLANG'ICH SINIF BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING EKOLOGIK HUQUQIY SAVODXONLIGINI INTERFAOL USULLARDA SHAKLLANTIRISHNING MEZONLARI

Abduraimova Nilufar Bobomurot qizi
TerDPI magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik huquqiy savodxonligini interfaol usullarda shakllantirish mezonlaridan qanday foydalanish, o'quvchilarda tabiatni asrash va ulardan oqilona foydalanish haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, ekologiya, tabiat, huquqiy savodxonlik, interfaol usullar, ekologik madaniyat, dars, ijodiy fikrlash, metod.

Davlatimiz rahbari Sh. M.Mirziyoev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 75-sessiyasida ta'kidlaganlaridek, "Biz Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish haqida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolyusiyasini qabul qilishni taklif etamiz. Ushbu muhim hujjat tasdiqlangan sanani esa "Xalqaro ekologik tizimlarni himoya qilish va tiklash kuni" sifatida joriy qilish va amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lardi"

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar", deb ko'rsatilganki, bu har bir fuqaroning tabiat oldidagi burchini hayot tarziga aylantirishi lozimligi anglatadi. Shu sababli mamlakatimizda oxirga yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta'minlash sohasida izchil amaliy ishlar olib borilmoqda.

Ekologik muammolarni muvaffaqiyatli hal etish pirovard natijada inson va uning ishlab chiqarish faoliyati va atrof-muhitdagi xatti-harakatlarini faqat ekologik maqsadga muvofiqlik va xavfsizlik tamoyillari asosida amalga oshirish qobiliyatiga bog'liq.

Bunday shaxsning o'ziga xos xususiyati uning ekologik madaniyatini - shakllantirishdir, bu ekologik ta'limni rivojlantirish, ekologik ongini, tafakkurni shakllantirish, ekologik qadriyatlar va tabiatga munosabat tizimini shakllantirish va eng muhimi, tabiat va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishda barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan ekologik xavfsiz hayot faoliyatida. Hayotning ekologik xavfsizligi insonning ekologik kompetensiyasiga asoslanadi va uning atrof-

muhitni o'zgartirish faoliyatini malakali va xavfsiz bajarishga amaliy tayyorligida namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan maktabda ekologik ta'limga, birinchi navbatda, maktab amaliyotiga o'qitishning innovatsion usullarini joriy etishni jadallashtirish jarayoniga alohida talablar qo'yiladi, ular orasida ekologik yo'naltirilgan loyihalash va tadqiqot faoliyati etakchi o'rinni egallaydi.

Ushbu texnologiyaning ustuvorligi bir qator afzalliklarga, jumladan, maktab o'quvchilarini ekologik jihatdan to'g'ri qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash, atrof-muhit bilan o'zaro munosabatda bo'lishning maqbul strategiyasini tanlash, ekologik muammolarga qiziqish uyg'otadigan hayotiy zarurat sharoitlariga botirish bilan bog'liq. va bilim, tabiat bilan munosabatlarda axloqiy va qadriyat va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan belgilarni rivojlantiradi, inson salomatligi va atrof-muhit uchun xavfsiz ekologik jihatdan to'g'ri xatti-harakatlar ko'nikmalarini shakllantiradi. Ma'lumki, har qanday pedagogik texnologiyaning samaradorligi - maqsadlarning rivojlanish darajasiga, undan foydalanish rejalashtirilgan pedagogik modelning tuzilishi va mazmuniga bog'liq. Bizning modelimizda izchillik va uzluksizlik tamoyillari asosida, shuningdek, shaxsga yo'naltirilganlik va faollik yondashuvlari asosida ishlab chiqilgan loyihalash va tadqiqot faoliyati orqali boshlang'ich sinf boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik xuquqiy madaniyatini shakllantirish, maktab boshlang'ich sinf o'quvchilarining olib borishga tayyorligi. o'zlarining ekologik xavfsiz hayot faoliyati, uni amalga oshirishning asosiy natijasi sifatida belgilanadi.

Nazariy tahlil va eksperimental ishlar asosida o'rganilayotgan shaxs sifatini (motivatsion-qiyamatli, kognitiv va operatsion - faoliyat) shakllantirish uchun biz aniqlagan mezonlarning ko'rsatkichlari va rivojlanish darajalarini taqdim etamiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik xuquqiy madaniyatini - shakllantirishning motivatsion-qiyamatli mezoni o'zlarining ekologik savodxonligini doimiy ravishda oshirishga, hayotning ekologik xavfsizligi sohasidagi vakolatlarni rivojlantirishga qiziqish va ehtiyoj bilan tavsiflanadi. va atrof-muhitga yo'naltirilgan loyihalash va tadqiqot faoliyatini amalga oshirish; ekologik yo'naltirilgan faoliyatda va atrof-muhitni loyihalashda o'z tashabbusi, mustaqilligi va ijodiy faolligini ko'rsatishga doimiy intilish; ekologik xavfsizlik muammolarini hal qilish bo'yicha tadbirlarda har bir inson ishtirokining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini chuqur anglash. Shu bilan birga, maktab o'quvchilarida - insonparvarlik, etnik-madaniy, axloqiy va ma'naviy g'oyalar bilan bog'liq bo'lgan tabiatga nisbatan qadriyat yo'nalishlari tizimini rivojlantirish, tabiat va insoniyat taqdiriga ekologik g'amxo'rlikni shakllantirish; burch, mas'uliyat va hamdardlik hissi. Ushbu mezon, shuningdek, o'z shaxsiy o'sishini o'z-o'zini rivojlantirish uchun atrof-muhitni loyihalash va tadqiqot faoliyatining motivlarini rivojlantirish va ma'nosini tushunish, kuchli irodali fazilatlarining namoyon bo'lishi, maqsadlilik, qat'iyatlilik, xotirjamlik va intizom, erkinlikka doimiy intilishni o'z ichiga oladi. ekologik tadqiqot va loyihaviy vazifalarni hal etishda strategiya va taktikalarni ishlab chiqishda namoyon bo'ladigan tanlov va ijodiy mustaqillik.

Yuqori daraja boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik madaniyatining motivatsion-qiyamatli komponentini shakllantirish quyidagi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi: o'quv va darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham ekologik bilimlarga

doimiy qiziqish; hissiy, etnik-madaniy va ma'naviy-axloqiy darajalarda odamlarning tabiati va sog'lig'iga nisbatan qadriyat yo'nalishlari tizimini yuqori darajada rivojlantirish, burch va ekologik mas'uliyat hissini shakllantirish; ekologik va ekologik faoliyatda, o'z hududida ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyatda, shuningdek, ijodiy loyihalash va tadqiqot faoliyati jarayonida barqaror motivatsiya va faol ishtirok etish ; tabiat bilan munosabatlarda shaxsiy o'sishga intilish, ekologik xavfsizlik bo'yicha amaliy dizayn va tadqiqot muammolarini hal qilish strategiyasi va taktikasini tanlashda yuqori ekologik mas'uliyat va mustaqillikning namoyon bo'lishi. O'rtacha daraja maktab boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik bilimlarga, ekologik muammolarga va ularni hal qilish yo'llariga bo'lgan qiziqishi mavjudligida namoyon bo'ladi, lekin tabiat va inson salomatligiga nisbatan hissiy, etnik-madaniy va madaniy jihatdan qadriyat yo'nalishlari tizimining etarli darajada rivojlanmaganligi. ma'naviy va axloqiy darajalar; to'liq shakllanmagan burch va ekologik mas'uliyat hissi, ekologik muammolarni hal qilish va hayotning ekologik xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etish uchun aniq motivatsiya emas, maktab, shahar va respublika ekologik tadbirlari va tadbirlarida faol ishtirok etish istagi va kam qiziqish. atrof-muhitga yo'naltirilgan loyiha - tadqiqot faoliyatida, ekologik xavfsizlik masalalari bo'yicha loyiha-tadqiqot vazifalarini hal qilishda mustaqillik va mas'uliyatni rivojlantirish istagi emas. Ushbu mezonning past darajada rivojlanishi maktab boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik bilimlarga, ekologik muammolarga va ularni hal qilish yo'llariga zaif qiziqishning namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi; hissiy, etnik-madaniy, ma'naviy va axloqiy darajalarda odamlarning tabiati va sog'lig'iga nisbatan qadriyat yo'nalishlari tizimining yo'qligi; burch va ekologik javobgarlik hissining zaif rivojlanishi yoki to'liq yo'qligi, ekologik muammolarni hal qilish va hayotning ekologik xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etish uchun motivatsiyaning past darajasi, atrof-muhitga yo'naltirilgan loyihalash va tadqiqot faoliyatida ishtirok etish istagi yo'qligi. , ekologik mas'uliyat va o'z mintaqasida ekologik muammolarni hal qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda mustaqillikni rivojlantirish.

O'qituvchining interaktiv tajribasi - o'quvchilar bilan shaxsiy muloqoti tajribasi. Bu tajribada pedagogik takt, noan'anaviy xatti-harakat va har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatini hisobga olish qobiliyati kabi o'qituvchi shaxsi uchun zarur bo'lgan sifatlar namoyon bo'ladi. Biroq intuitiv tajriba o'qituvchining o'ziga cheklangan foyda keltiradi va boshqalarga juda kam yordam beradi.

Zamonaviy o'qituvchi yangi vositalarni qo'llab, turli xil ekopedagogik vaziyatlarda mustaqil harakat qilish huquqiga ega. Turli xil mazmundagi ETviy ko'rsatmalar va pedagogik "qolip"lar (yo'llar) - yosh o'qituvchi ijodiy faoliyatining dastlabki sharti. Demak, o'qituvchiga pedagogik ijod uchun doimo ilmiy ekopedagogik bilimlar kerak bo'ladi. Bular ekologik ta'lim-tarbiya materiallarining mualliflari tomonidan aniqlangan va qo'llanilgan ET qonuniyatlari haqidagi bilimlar.

1. Kognitiv (bilishga oid) tarkibiy qism - odam, mehnat, tabiat va jamiyatni ularning o'zaro aloqadorligida tavsiflovchi tushunchalar.
2. Hissiy tarkibiy qism - odamning tabiiy muhit bilan muloqoti, tabiatni axloqiy-

estetik idrok etishi jarayonidagi hissiy holati.

3. Amaliy (faoliyatli) tarkibiy qism – o‘quvchilarda ekologik ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy foydali amaliy faoliyat turlari va metodlarining o‘zlashtirilishi. Ushbu uchta tarkibiy qism ET mazmunining negizini tashkil etib, ulardan boshlang‘ich maktabda atrof-muhitga oid bilim va ko‘nikmalarni tanlashda foydalaniladi.

Kognitiv mezon ekologik bilimlarni ekologik dunyoqarash va ongning asosi sifatida shakllantirishni, birinchi navbatda, tabiatning rivojlanish qonuniyatlari, ekologik omillar, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar evolyusiyasi, eng keskin ekologik muammolar to‘g‘risidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi. sayyorada, mamlakatda, mintaqada; mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ekologik xavflar va ularning inson salomatligi va tabiiy muhit uchun oqibatlarini, ularning oldini olish va oldini olish choralari va usullari, odamlarning ekologik jihatdan to‘g‘ri va xavfsiz xulq-atvori normalari va qoidalari to‘g‘risida. Ushbu mezon maktab boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hozirgi ijtimoiy va tabiiy vaziyatning holati va istiqbollari, ham yaqin atrofdagi, ham kengroq miqyosda adekvat baholash, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha tadbirlarni loyihalash va amalga oshirish qobiliyati uchun ekologik bilimlarni rivojlantirish va xabardorlik darajasini o‘z ichiga oladi. mintaqangizdagi ekologik muammolarni hal qilishda. Mezon maktab boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlarining va boshqa xalqlarning ekologik-gumanistik asoslari va madaniy an‘analari haqidagi bilim va g‘oyalarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini belgilaydi, ular turli madaniy va tarixiy davrlarda tabiatga bo‘lgan munosabatining tabiatini, ekologik ideallarning ta‘sirini belgilaydi, shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish va shaxsning ma‘naviy rivojlanishiga oid qadriyatlar, qarashlar va e‘tiqodlar. Maktab boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekologik muammolarni hal qilishning zamonaviy usullari va usullari, ekologik fikrlashning ilmiy uslubi, muayyan talablar va amalga oshirish standartlari bilan tavsiflangan ilmiy tadqiqot va loyihalashning tuzilishi va usullari to‘g‘risidagi bilimlari va g‘oyalari katta ahamiyatga ega (bosqichlar, aniqlik, ob‘ektivlik, dalillik, takrorlanuvchanlik va boshqalar), tadqiqot va loyihalash ishlarining tahliliy va amaliy bosqichlari natijalarini taqdim etishning tuzilishi, mazmuni va ilmiy uslubiga qo‘yiladigan talablar, xulosalar shakllantirishning aniqligi, talablar to‘g‘risidagi bilimlar.

Yuqori darajasi maktab boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekologiya qonunlari, dunyo, mamlakat va o‘z mintaqasidagi ekologik muammolar, ularning paydo bo‘lish sabablari, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ekologik xavf-xatarlar to‘g‘risida to‘liq, chuqur va tizimli bilimga ega bo‘lishi bilan tavsiflanadi. ularning inson salomatligi va tabiiy muhit uchun oqibatlarini, oldini olish va oldini olish usullari, hayotning ekologik xavfsizligini ta‘minlaydigan ekologik me‘yor va qoidalarning maqsadga muvofiqligi, ularni amalga oshirish zarurati va hayotda qo‘llash qobiliyati to‘g‘risida bilim. Ko‘rib chiqilayotgan mezonni shakllantirishning yuqori darajasini tashuvchilar «inson va tabiat» tizimidagi munosabatlarning axloqiy va insonparvarlik mohiyati, etnik-madaniy asoslar va an‘analari, ularni uyg‘unlashtirishning ma‘naviy-axloqiy mexanizmi haqida barqaror g‘oyalarga ega. munosabatlar va odamlar va tabiat uchun ekologik

xavfsizlikni ta'minlash. Shu bilan birga, maktab o'quvchilari yaxshi yo'naltirilgan va atrof-muhitni loyihalash bo'yicha tadqiqot faoliyatini ishlab chiqish va amalga oshirishga qo'yiladigan talablarni bilishadi, muammoni aniqlash, maqsadlar, vazifalar, mavzu, ob'ekt, tadqiqot yoki loyiha gipotezasini shakllantirish, tuzilmani to'g'ri aniqlash va ularni amalga oshirish bosqichlari, ob'ektiv natijalarni olishning eng yaxshi usullari va ularning ishonchliligi dalillari haqida bilish. O'quv va hayotiy vaziyatlarda ekologik muammolarni hal qilishda ijodkorlik va zukkolikni namoyon eta oladi; ekologik faoliyat jarayonida o'z-o'zini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, o'z madaniyati va shaxsiy o'sishi bo'yicha bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'lish.

O'rtacha darajasi ushbu mezonning shakllanishi maktab boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologiya qonunlari, dunyodagi, mamlakat va o'z mintaqalaridagi ekologik muammolar, ularning paydo bo'lish sabablari, mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ekologik xavflar to'g'risida barqaror bilim va g'oyalarga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. ularning inson salomatligi va atrof-muhit uchun oqibatlari, ularning oldini olish va oldini olish usullari, inson hayoti va tabiatining ekologik xavfsizligini ta'minlaydigan ekologik me'yorlar va qoidalar, ularni hayotda qo'llash zarurati va maqsadga muvofiqligi haqida etarli bilimga ega. Maktab boshlang'ich sinf o'quvchilarining «inson va tabiat» tizimidagi munosabatlarning axloqiy va qadriyat mohiyati, etnik-madaniy asoslar va an'analar haqidagi bilimlari va g'oyalari, ushbu tizimdagi munosabatlarni uyg'unlashtirishning ma'naviy-axloqiy mexanizmi sifatida, ekologik muvozanatni istisno qilishga qaratilgan. tahdid yetarli emas. Umuman olganda, talabalar ekologiya bo'yicha loyiha tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'yicha bilimlarni shakllantirdilar va tizimlashtirdilar, ushbu faoliyatning maqsadlari, vazifalari, tuzilishi, bosqichlari va uning natijalariga erishishning eng yaxshi usullari to'g'risida tasavvurga ega bo'ldilar, maktab o'quvchilari ma'lum darajada dizayn tadqiqot ekologik muammolarni hal qilish uchun ko'nikma va ko'nikmalar. Ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish sohasidagi vakolatlar, qobiliyat va ko'nikmalar, shuningdek, shaxsning ekologik madaniyatini rivojlantirishning asosiy shartlari to'g'risidagi bilimlar etarli darajada rivojlanmagan.

Past daraja maktab o'quvchilarida ushbu mezonning shakllanishi ekologik bilim va g'oyalarning etishmasligi yoki zaif darajasi bilan tavsiflanadi (ekologiya qonunlari, dunyodagi, mamlakat va mintaqadagi ekologik muammolar to'g'risida, ularning paydo bo'lish sabablari to'g'risida, ekologik xavflar va ekologik xavflar to'g'risida). ularning inson salomatligi va tabiiy muhit uchun oqibatlari, ularning oldini olish va oldini olish usullari, hayotning ekologik xavfsizligini ta'minlaydigan ekologik me'yorlar va qoidalarning maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi bilimlar) va ularni hayotga tatbiq etish zarurati. Ekologik muammolarni hal qilish yo'llari va ekologik faoliyat to'g'risidagi bilimlar yomon shakllangan. «Inson va tabiat» tizimidagi munosabatlarning mohiyatining axloqiy, gumanitar va etnik-madaniy asoslari, ushbu tizimdagi munosabatlarni uyg'unlashtirish va hayotning ekologik xavfsizligini ta'minlash mexanizmi sifatida bilim va g'oyalar etishmasligi. Talabalarda atrof-muhitga yo'naltirilgan loyihalash va tadqiqot faoliyatining mazmuni, tuzilishi, bosqichlari va usullari, uning

natijalariga erishishning eng yaxshi usullari, shaxsning ijodiy o'zini o'zi rivojlantirish yo'llari haqida g'oyalar ishlab chiqilmagan, ma'nosi haqida bilimlari yo'q. va o'z ekologik madaniyatini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar.

Operatsion-faoliyat mezonni boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik loyihalash va tadqiqot muammolarini hal qilishda faolligi, mustaqilligi va ijodkorligi darajasini aks ettiradi, ekologik loyihalash va tadqiqot faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish darajasini va ularni qo'llash tajribasini o'z ichiga oladi. ta'lim jarayoni va hayotda, va aniq:

- umumiy mantiqiy ko'nikma va malakalar (sintez, tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash, mavhumlashtirish, konkretlashtirish va boshqa mantiqiy aqliy operatsiyalar);

- tadqiqot: muammoni aniqlash, aniqlashtirish va shakllantirish qobiliyati; maqsad va vazifalarni harakatga keltirasiz ; tadqiqot ob'ekti, predmeti va gipotezasini aniqlash; ishni rejalashtirish; ilmiy bilish usullaridan foydalanish, o'z nuqtai nazarini bildirish va uni himoya qilish, mehnatni ilmiy tashkil etish qoidalariga rioya qilish va boshqalar;

- ekologik (tabiiy muhit, odamlar hayoti va salomatligi uchun ekologik xavflarni aniqlash va baholash, ularning sabablari va rivojlanish prognozlarini; atrof-muhitning ijtimoiy va tabiiy muhitga salbiy ta'sirining oqibatlarini baholash; ekologik xavflarning oldini olish yo'llarini izlash; atrof-muhit sifatini muhofaza qilish va yaxshilash, sog'lom va ekologik toza turmush tarzini saqlash va boshqalar bo'yicha amaliy tadbirlarni amalga oshirish;

- shaxsiy o'sish, o'z sog'lig'ini va atrof-dagilarning sog'lig'ini mustahkamlash va saqlash uchun ko'nikma va qobiliyatlar; kognitiv va loyiha-tadqiqot faoliyati jarayonida shaxsiy yutuqlarning samaradorligini baholash, tadqiqot yoki loyiha sifatini o'z-o'zini baholash (mulohaza), o'z-o'zini nazorat qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish harakati va faoliyatiga tanqidiy munosabat.

Yuqori daraja Ushbu mezonning shakllanishi maktab boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiat va inson salomatligi ob'ektlariga nisbatan faol hayotiy pozitsiyasida, atrof-muhitni loyihalash va tadqiqot muammolarini hal qilishda mustaqillik va ijodiy yondashuvda, umumiy mantiqiy, tadqiqot va maxsus ko'nikma va qobiliyatlardan muvaffaqiyatli foydalanishda namoyon bo'ladi. dizayn tadqiqot faoliyati jarayonida; maktab boshlang'ich sinf o'quvchilarining barqaror shaxsiy o'sishi, ularning tugallangan tadqiqotlari va loyihalari haqida o'ylash qobiliyati, o'zlarining intellektual va ijodiy qobiliyatlarini etarli darajada o'z-o'zini baholashda, o'quv faoliyatini yaxshilash shaklida kognitiv va dizayn tadqiqot faoliyati natijalarining samaradorligi, muvaffaqiyatli ekologik viktorinalar, tanlovlar va tadqiqot tanlovlarida ishtirok etish. O'rtacha darajasi ushbu mezonning shakllanishi maktab boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiat va odamlar salomatligi ob'ektlariga nisbatan ijobiy hayotiy pozitsiyasida, ularning ekologik loyihalash va tadqiqot faoliyatini amalga oshirishdagi ma'lum intellektual va ijodiy faolligida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, umumiy mantiqiy, tadqiqot va maxsus ko'nikma va qobiliyatlar etarli darajada shakllanmagan , shuning uchun maktab o'quvchilari ekologik loyihalarni va tadqiqot ishlarini amalga oshirishda sezilarli qiyinchiliklarga duch kelishadi.

O'quvchilarining nisbiy shaxsiy o'sishi o'zlarining intellektual va ijodiy qobiliyatlari va dizayn va tadqiqot qobiliyatlarini aks ettirish qobiliyatining zaif ifodalanganligi bilan kuzatilishi mumkin, kognitiv va dizayn va tadqiqot faoliyati jarayonida shaxsiy yutuqlarning samaradorligi aniqlanadi, ular maktab boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik olimpiadalarda, tadqiqot tanlovlari va konferensiyalarida nisbatan muvaffaqiyatli ishtirok etishi. Past daraja ushbu mezonning shakllanishi maktab o'quvchilarida ekologik loyihalash va tadqiqot muammolarini mustaqil va ijodiy hal qilishga intilishda qiziqish va faollikning yo'qligida namoyon bo'ladi; kam rivojlangan umumiy mantiqiy, tadqiqot va atrof-muhit loyihalari va tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun maxsus ko'nikmalar; kognitiv, ekologik tadqiqotlar va ekologik dizayn faoliyati sohasida shaxsiy yutuqlar mavjud emas.

Biz ekologik madaniyatni shakllantirishning belgilangan har qanday darajalari chegara emas, balki faqat keyingi darajalarga o'tish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin, deb hisoblaymiz va shuning uchun rad etilmaydi, balki keyingi jarayonga kiritiladi, takomillashtiriladi va rivojlanadi. Tanlangan ko'rsatkichlar umumta'lim maktabining o'rta va yuqori sinf o'quvchilarida o'rganilayotgan shaxs sifatining dastlabki holatiga ob'ektiv baho berish, eng samarali ekologik ta'lim texnologiyalari va innovatsion faoliyat shakllarini ilmiy asoslash va sinab ko'rish imkonini berdi. Ekologik xavfsiz hayoti uchun asos sifatida ekologik madaniyat, ekologik ong va ekologik mas'uliyatni rivojlantirishga qaratilgan respublikadagi mavjud ekologik vaziyat uchun talabalar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkunki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ekologiya elementlari bilan tanishtirish, ekologik savodxonlik asoslarini shakllantirishga imkon beradigan qulay va qiziqarli shaklda eng samarali usul va vositalarni aniqlash vazifasi turibdi. Axborot texnologiyalari o'qituvchiga yordamga keladi. Bugungi kunda an'anaviy «ustoz-shogird-darslik» o'rni «ustoz-shogird-kompyuter» bilan almashtirilmoqda. Boshlang'ich sinflarda darsda axborot texnologiyalaridan foydalanish o'qishga bo'lgan ijobiy motivatsiyani kuchaytiradi, o'qituvchining ish shakllarini diversifikatsiya qilish va darsni o'quvchilar uchun qiziqarli va esda qolarli qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 570 b.

2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, "Xalq so'zi", 2020 yil 24 sentyabr, 202 (7704)-son.

3. Avezov Sh. Qishloq maktablari yuqori sinf o'quvchilarini o'lkashunoslik faoliyati jarayonida ekologik tarbiyalash: Ped. fan. nomz ... diss. - Toshkent. 1993. - 161 b.

4. Djuraev R.X., Turdiqulov E.O. Ekologik ta'limning dolzarb muammolari va ularni hal etish yo'llari //Uzluksiz ta'lim. -Toshkent. -2004. - 6-son. -B. 3-9.

5. Avazov Sh. Maktabda ekologik tarbiyani amalga oshirish yo'llari. - Toshkent, RO'MM, 1990. - 46 b.

O'ZBEK XALQ HUNARMANDCHILIGI FANIING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Hakimqulov Abdurauf Abduraxmonovich
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

Anatatsiya: Ma'lumki, xalq hunarmandchiligi tanlov fanini o'qitish hozirgi zamon talabi bilan rivojlanishi va jadallashishi katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mutaxassis kadrlar tayyorlash, ta'lim berish tizimi hayotimizda, jamiyatimizda bo'layotgan islohotlar yangilanish jarayonlari talablari bilan yaqindan bog'langaligi har tomonlama sezilmoqda.

Tayanch so'zlar: *Texnika, jihozlar, texnologik jarayon, taraqqiyot, rivojlanish, hunarmandchilik, mehnat qurollari yordamida buyum yasash, islohot, yangilanish, iqtidor, qobiliyat.*

Respublikamiz siyosatida yoshlarni o'qitish va tarbiyalash masalalari alohida o'rin tutadi. Buni "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlarda, Prezidentimizning ta'lim tizimi, raqobotbardosh kadrlar tayyorlash va yosh avlod tarbiyasini tubdan isloh qilish haqidagi nutqlarida hamda asarlarida, shuningdek, o'qitish tizimida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash sohasida olib borilayotgan ishlarda ko'rish mumkin. Pedagogika institutlarida talabalarga oliy ma'lumot berish, ularni ilm-fan, texnika va texnologiyalarni o'zlashtirishlarini ta'minlashdan iborat bo'libgina qolmay, balki o'quvchilarga - yosh avlodga ushbu bilimlarni berish, ularni tarbiyalash, dunyoqarashida ilmiy, texnikaviy taraqqiyotga intilishni tarbiyalashga o'rgatishdan iboratdir.

Ma'lumki, xalq hunarmandchiligi tanlov fanini o'qitish hozirgi zamon talabi bilan rivojlanishi va jadallashishi katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mutaxassis kadrlar tayyorlash, ta'lim berish tizimi hayotimizda, jamiyatimizda bo'layotgan islohotlar yangilanish jarayonlari talablari bilan anqindan bog'langaligi har tomonlama sezilmoqda. Biroq, ochiq tan olishimiz kerakki, hozirgi zamon talabiga to'liq javob berishga har kim ham qodir emas, chunki haligacha eskicha fikrlab va yangiliklarni hali to'la-to'kis tuchunmaganlar, afsuski, oramizda uchrab turibdi. Bunga avvalo maktab va boshqa o'quv yurtlarining modiy bazasini juda nochor ahvoldaligi sababdir. Albatta bu keltirilgan birgina misol tarbiyachi, o'qituvchi xodimlarga ta'sir etmay iloji yo'q. Respublikamizda, jumladan, oliy ta'limda ham bir qator islohatlar olib borilmoqda. Masalan, oliy ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriatura va mutaxassislik bo'yicha magistraturaga bo'lindi. Shuningdek, respublikamizda akademik liqey va kasb-hunar kollejlar tashkil topdi hamda ularning o'quv-moddiy bazasi tobora yaxshilanib bormoqda.

Xalq hunarmandchiligi tanlov fanini o'qitish o'z'iga xos xususiyatlariga ega bo'lib, ularni tashkil etish, o'tkaz'ish uchun eng avvalo o'quv materiallarining maz'muni, maqsadi va sharoitlari katta ahamiyat kasb etadi. Har qanday mutaxassislik fanida ma'ruz'a, amaliy mashg'ulot asosan uch bosqichdan iboratdir:

1. Boshlang'ich ko'rsatmani to'g'ri berish.
2. Ma'lum bir muammoni keltirib, uni to'g'ri yechish yo'llarini yoritish.
3. Natijalarni to'g'ri tahlil etish va xulosa chiqarish.

Yuqorida keltirilgan muammolarni echish va tuchunarli etkazish, to'g'ri xulosa chiqarishda xalq hunarmandchiligi tanlov faniga ham tegishlidir. Ushbu fan mutaxassislikka oid fanlardan bo'lib, talabalarni bilim olishiga to'g'ri munosabatda bo'lish yo'lini o'rgatadi. Odatda mutaxassislik fanlaridan amaliy kirish ko'rsatmasini berish quyidagi tartibda olib boriladi, ya'ni, mavzu va uning maqsadi bayon etiladi, shu bilan birga oldin o'tilgan mavzu bilan bog'lab, o'quvchilarning darsga tayyorgarligi aniqlanadi. Darsga oid texnologik chiz'malar, asbob-uskunalar va shunga o'xshash narsalar bilan qanday ishlash lozimligini tuchuntiriladi. Mashg'ulotlarni o'quvchilarning mustaqil bajarishlari bosqichida o'qituvchi ularning hatti-harakatlarini doimiy kuzatib borib, kerakli maslahatlarni beradi. So'ngra ish yakunida avval talabalarining yutuqlarini, so'ngra esa kamchiliklarni ko'rsatadi va o'qituvchi bajarilgan ish orqali talabalarni baholaydi. Didaktika naz'ariyasi pedagogika fanining mustaqil bir qismi bo'lib, unda o'qitish jarayonining umumiy qonuniyatlari ochib beriladi.

Yog'och o'ymakorligi, sandiqchilik, chilangarlik, pichoqchilik, navvoylik, naqqoshlik, turli milliy buyumlar (do'ppi, so'zana, kirpech, joynamoz va h.), kashtalar, choklarni (yo'rma, xamdo'zi, tugin, suv, kabi usullarda) tikish uchun kerakli dastur va o'quv qo'llanmalari tuz'ib amaliyotga tadbiiq etish hoz'irgi kun talabidir. Talabalarga bilim berishda avvalambor "Hunarmandchilik" so'zining asl ma'nosini izohlab berish loz'im. Hunarmandchilik degani har xil mehnat qurollari yordamida xom ashyodan chiroyli buyumlar ishlab chiqaradigan kasblarning umumiy nomini anglatadi.

Xalq hunarmandchiligi kulolchilik, yog'och o'ymakorligi, chilangarlik, sandiqchilik, pichoqchilik, naqqoshlik, tikuvchilik, kashtachilik, zardo'zlik, to'quvchilik, kabi turlardan iborat bo'lib, ularning sir-asrorlari asrlar davomida ota-bobolarimiz', buvi va onalarimiz tomonidan o'rgatilishi natijasida avloddan-avlodga meros bo'lib o'tib kelmoqda. Aytish mumkinki, o'g'il-qiz'larimiz'ning jamiyatda o'z' o'rinlarini topishlarida, kelgusida ma'lum bir kasb-hunar egalari bo'lib jamiyat manfaati uchun xiz'mat qilishlarida, milliy qadriyatlarimiz'ni anglab etishida xalq hunarmandchiligining o'rni beqiyosdir. YOshlarni kelajak hayotga, oilaviy turmushga tayyorlash - maktab yoshidan boshlanadi. Ular oilada mehmondo'st, oilani tebratadigan, isrofga yo'l qo'ymaydigan, pokiz'a, paz'anda bo'lish bilan birga qo'li gul chevar bichuvchi, tikuvchi, kashtachi, zardo'z, o'g'il bolalar ham biror hunar egasi bo'lib, o'z'lari tanlagan kasbi bo'yicha halol non topish yo'lini o'rgansalar ularga hammaning havasi keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmetova A.S., Ismatullayeva M.Z. "Xalq hunarmandchiligi".-T.: «Iqtisod-Moliya» 2009.-292 b.
2. Bulatov S. "O'zbek xalq amaliy bezak san'ati".-T.: «Mehnat» 1991.-382 b.
3. Golovin N.N. "Kustarniye promisli Turkistana".-T.: 1999.-98 b.
4. Zasiptkin P.SH. "Mastera uzbekskogo zodchestva".-T.: 1967.-132 s.
5. www.ziyonet.uz
6. www.pedagog.uz

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA DARSLARIDA KOMPETENSION YONDASHUV

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası

mudiri p.f.n N.R.Ashurov

Annotatsiya: Zamonaviy inson mustaqil qaror qabul qila oladigan, jamoada ishlay oladigan, tashabbuskor, yangiliklarga moslasha oladigan, mashaqqatli va asabiy xolatlarga chidamli, bu xolatlardan chiqa oladigan bo'lishi kerak. Boshlang'ich sinflarda "Texnologiya" o'quv fani nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga asosan o'qitiladi. Bunda o'quvchilarning yosh, jismoniy va estetik imkoniyatlari hisobga olinadi.

Kalit so'zlar:Jamiyat, texnologiya, muammo, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, DTS, educational, development, PISA, kasb, ijodkorlik, ishlab chiqarish.

Kirish:

Jamiyatimiz oldida vujudga kelayotgan muammolarni hal etishga faol kirisha oladigan, sharoitni yaxshi tushunadigan, keng qamrovli fikrlaydigan, hayotda uchraydigan kundalik va kasbiy muammolarni tushunadigan, tahlil qila oladigan, taqqoslay oladigan, amaliy hal eta oladigan insonlarga bo'lgan talab qo'yilmoqda. Birinchi prezidentimiz I.Karimov juda o'rinli ta'kidlab o'tganlaridek, «chuqur tahlil, mantiqqa asoslanmagan fikr odamlarni chalg'itadi. Faqat bahs-munozara, tahlil mevasi bo'lgan xulosalargina bizga to'g'ri yo'l ko'rsatishi mumkin»

Demak, zamonaviy inson mustaqil qaror qabul qila oladigan, jamoada ishlay oladigan, tashabbuskor, yangiliklarga moslasha oladigan, mashaqqatli va asabiy xolatlarga chidamli, bu xolatlardan chiqa oladigan bo'lishi kerak. Hamma bunday sifatlarni texnologiya (texnologiya) ta'limida kompetentsiyaviy yondoshuvdan foydalanish asosida erishish mumkin.

Adabiyotlar tahlili: Rivojlanayotgan respublikamizda o'quvchi yoshlarga sifatli va zamon talablari darajasida ta'lim-tarbiya berish bugungi kunning asosiy muammosi bo'lmoqda. Shu sababli o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyaga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Chunki kompetensiya qanday o'qitish, nimalarni o'qitish va qanday tarbiyalash asoslari bo'yicha qoidalarni taqdim qiladi. Shu ma'noda bugungi kunda "Texnologiya" o'quv fani bo'yicha kompetensiyalar majmuini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi.

KOMPETENSIYA (lotincha *competo* so'zidan shakllangan *competentio* – erishaman, mos kelaman, yarayman) – davlat mexanizmi tizimida faoliyat yurgizib turgan muayyan davlat organi yoki mansabdor shaxsning yuridik jihatdan belgilab, mustahkamlanib qo'yilgan vakolatlari, huquq va majburiyatlari yig'indisini anglatadi. Mamlakatimizda kompetensiyaviy ta'lim berish standart loyihasi tuzilishda quyidagi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlardan foydalanildi:

1) Yevropa Kengashining "Uzluksiz ta'lim uchun tayanch kompetensiyalar –

umumevropa standartlari strukturasi” to’g’risidagi hujjati («Key competences for lifelong learning — a European Reference Framework»)[3]

2) Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD)) Xalqaro o’quvchilarni baholash Dasturi (Programme for International Student Assessment (PISA)) standartlari [4].

3) Ta’lim natijalarini baholash bo’yicha Xalqaro Assotsiatsiyasining (International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA)) Xalqaro matematika va aniq va tabiiy fanlarning tendentsiyalarini o’rganish markazi (Trends in international mathematics and science study Center (TIMSS)) standartlari[5]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tajribalar shuni ko’rsatadiki, boshlang’ich sinf o’quvchilariga qo’yilgan kompetensiyaviy talablar tayanch ba fanga oid kompetensiyalarga bo’linadi. O’quvchilar uchun tayanch kompetensiyalar barcha fanlar uchun umumiy bo’lib ular oltita ni tashkil etadi. Fanga oid kompetensiyalar esa har bir fanning maqsad va mazmunidan kelib chiqqan holda ma’lum qismlarga bo’linadi. Boshlang’ich sinflar “Texnologiya” o’quv fani darslariga kompetensiyaviy yondashuvlar. Boshlang’ich sinflarda “Texnologiya” o’quv fani nisbatan o’ziga xos xususiyatlarga asosan o’qitiladi. Bunda o’quvchilarning yosh, jismoniy va estetik imkoniyatlari hisobga olinadi. Shu jihatdan boshlang’ich sinflarda mazkur o’quv fanini o’qitishda quyidagi kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo’ladi:

Masalan texnologiya faniga oid kompetensiyalar uchuni tashkil etadi.

1. FK1-Buyum va mahsulot turlarini, ularni tayyorlash va ishlov berish usullarini bilish, texnologik loyihalash hamda amalga oshirish kompetensiyasi:

2. FK2-Psixomotor, funksional hamda amaliy faoliyat turlarini bajarishdagi operatsion kompetensiyasi:

3. FK3-To’g’ri va ongli kasb tanlash, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyasi

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, yuqoridagi taklif va mulohazalarning barchasi boshlang’ich sinf o’quvchilarida texnologiya ta’limi bo’yicha bilim, ko’nikma, malaka va kompetensiyalarni kutilgan darajada tarkib toptirishga qaratilgan. Kompetensiyaviy o’qitish o’quvchilarga nafaqat yangi bilimlar beradi balki ularni ertangi mashaqqatli hayotlarida qiyinchiliklarni yengishga o’rgatib, kundalik hayotga tayyorlaydi.

Adabiyotlar ro’yxati

Ma'naviyat-moddiy hayot bilan yonma-yon yuradigan xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lgan ijtimoiy hodisa. Bu tushunchaga Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov shunday ta'rif beradi: "Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining me'zonidir." [1] Ahloq – kishining tabiati, muomala xatti-harakat odobi. [1] Tarbiya – rivojlantirish, parvarish qilish, o'stirish, o'rgatish, ilm berish. Ta'lim, ahloq odob va shu kabilarni o'rgatib singdirib insonni voyaga yetkazish. [1] Har bir kasbning o'z quroli bo'lganidek ma'naviy-ahloqiy tarbiyaning qurollaridan biri bu so'z - o'z ona tilida jaranglagan so'zdir. Bu fikrga kelishimizga sabab, aynan ma'naviyatimiz va ahloqimizni sayqallab, yuksaltirib borayotgan har qanday vosita, avvalo, ona tilimizda shakl-u shamoyil oladi. Shundan ekan ona tilimizda ruhiy qudrat bor. Yosh avlodda milliy ruhni, vatanga, onaga bolgan muhabbatni shakllantiradigan, uni asrab avaylashga o'rgatadigan ichki xis tuyg'ular ona tili yordamida singdirilishi hech kimga sir emas. Buning sababini tilshunos olimlarimiz shunday izohlaydi.Til xalqning, millat ruhining betakror va hech zamonda xira tortmaydigan ko'zgusi hisoblanadi. Har bir tilda shu til egasi bo'lgan millatning saviyasi, ruhiyati aks etadi. Shuning uchun ham bolaning tili ona tili sifatida kamol topganiga uning shuurida tom ma'nodagi milliy ruh barqaror bo'ladi. [2]

Yosh avlodning shaxsiy sifatlar tarbiyasi dunyoga kelgan kunidayoq boshlanadi. Sababi ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalashning ilk uchqunlari go'dak dunyoga kelib onasini ilk ko'rgan chog'idayoq boshlanadi desak mubolag'a

bo'lmaydi. Shunday ekan tilimizning boy imkoniyatlaridan foydalanib bolaning shaxsiy sifatlarini kamol topdirish mumkin. Farzand dastlabki yilardanoq onasining allasi, uning ona tilida shirin erkalashlari orqali ongi shakllanib boradi. Bejizga birinchi prezidentimiz Asta sekin atrof muhitga munosabatini bildira boshlaydi, muloqotga kirishadi va o'z meni ham shakllanib boradi. Islom Karimov " Jamiki ezgu fazilatlar inson ko'ngliga, avvalo, ona allasi, ertaklariyu cho'pchaklari, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millat ruhidir. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar" deb bot-bot ta'kidlamagan. Yuqoridagi so'zlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar" – deyilgan. Demakki, o'zligini yo'qotgan millatda aynan ma'naviyahloqiy tarbiya yetarli bo'lmasligini yana bir bor angalaymiz. Bejizga biz ona vatan, ona tuproq, ona tili deb atamaymiz, chunki ular kishi hayotida boshqa narsalar bilan tenglab bo'lmaydigan, qiyoslanmaydigan bebaho qiymatga ega bo'lgan tushunchalardir. Kishi uchun kindik qoni to'kilgan joy ona vatan bo'lganidek, ilk bor ma'lum ma'noga ega bo'lgan so'z aytgan tili uning uchun ona tili deb ataladi. Dunyoga keltirgan zot ona, biz tug'ilgan makon Vatan bitta bo'lgani kabi til ham yagonadir. Shuning uchun ham barcha xalqlar o'z tilini ardoqlab ona tili deb ataydi. Kishining vatani, kindik qoni to'kilgan makon, uni o'z vatanida bog'lab turganidek xuddi ona tili ham uning o'zligini eslatib turadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, har bir narsa kishi uchun ma'lum ma'noda tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shunday ekan biz o'zbek millatining o'z ona tilimiz, o'zbek tili, ham o'zining talaygina tarbiyaviy ahamiyatiga ega. Buni biz tilimizning boy imkoniyatlarida ham ko'rishimiz mumkin. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgani mustaqilligimizga qo'yilgan ilk qadam bo'lganidek, ona tilini mukammal o'rganish kishining barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun ilk bosqichdir. Bugungi kunda chet tillarini bilish zamon talabi bo'lib borayotgan bir davrda ona tilini bilmasdan hech qanday tilni o'rganish mumkinmasligini alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Chunki har qanday chet tilini biz, avvalo, ona tilimiz orqaligina o'rganishimiz mumkin, qolaversa, o'z tilida tushuncha va predmet birligini bilmagan kishi o'zga tilni o'rganishi mumkin emas.[3] Til – millatning ma'naviy boyligi bo'lishi ilan bir qatorda xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi hamda tarixi hamdir. Bu haqida ustozlarimiz fikriga e'tibor qaratadigan bo'lsak, so'z mulkingning sultoni, Alisher Navoiy "Ko'ngil maxzanining qulfi til va ul maxzanning kalitin so'z bil deb uqtirsa, Abdulla Avloniy "Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oyinayi hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmak milat ruhini yo'qotmakdir" –deb ta'kidlaydi. Shu o'rinda rus tarixchisi Shobelevning ona tilining xalqlar hayotidagi o'rnini anglab "Millatni yo'q qilish uchun u yerga qurol ko'tarib borish shart emas, uning tilini, ma'naviyatini, adabiyotini yo'q qilish kerak, shunda millatning o'zi yo'q bo'lib ketadi" degan fikrini ham keltirishimiz mumkin. Tilning tarbiyaviy ahamiyati deganda ushbu tilda yozilgan bir-biridan ajoyib yozma manbalarni ham ko'rsatishimiz mumkin. Ularda hayotni tarix bilan bog'laydigan hamda ulg'ayayotgan yosh avlodni ajdodlarga munosib avlod sifatida tarbiyalaydigan xususiyat ham borki, ularning barchasi til yordamida yuzaga chiqqan. Negaki aynan shu asarlar orqali til sayqallanib avloddan avlodga o'tib yashab kelmoqda.

Farzandlarini ma'naviyatli, ahloqli qilib tarbiyalash qadim zamonlardan dunyo xalqlarining asriy orzusi bo'lib kelmoqda. Bizning buyuk bobolarimiz ham o'z ona tilimizning boy imkoniyatlaridan keng foydalangan holda avlodlarga haqiqiy ma'noda tilimiz imkoniyatlarini ko'rsatadigan ma'naviy meros qoldirib ketishgan. Har qanday millatning ko'zgusi til hisoblanadi. Til insonni kamolotga yetaklovchi vositadir. Shunday ekan har bir shaxs o'z ona tilini, milliy va ma'naviy merosini bilmog'i va uning asliligicha kelajak avlodga uzatmog'i zarur. Farzand misoli oq qog'oz. Biz unga qanday tarbiya bersak shundayligicha o'zida aks ettiradigan ko'zgudir. Bugungi kunda yoshlarni ma'naviy ahloqiy tarbiyalash ustuvor vazifa bo'lib har qachongidan ham dolzarb masalaga aylangan. Sababi globallashuv jarayonda har qadamda "ommaviy madaniyat", "g'arblashuv", kabi niqoblar ostida yashiringan vayronkor g'oyalar yoshlar ongini zaharlashga urinayotgani hech kimga sir emas. Bunday o'zligimizga tahdidlarni, bizni belgilab olgan yo'limizdan qaytarishga urinishlarni bilgan holda farzandimiz tarbiyasiga loqayd qarab turishimiz katta falokatlarga olib kelishi turgan gap. Bugungi kunda tarbiya jarayonida eng suskashlikka uchrayotgan qatlam bu oila tarbiyasidagi yoshga to'g'ri keladi. Sababi endigina tili chiqib gapirishga o'rganayotgan 1,5-2 yoshdagi go'daklarga onaning tarbiyasi juda muhim hisoblanadi. Ammo ba'zi onalar shu yoshdagi bolalarni hali o'zi tarbiyaga muhtoj yosh qizlarga, rusiyzabon buvilarga enaga sifatida tarbiyalanuvchi etib topshirmoqdalar. Natijada olamni ziyraklik bilan o'rganayotgan go'dak yosh enaganing chet tili bilan qorishgan o'zbek tili deb ham atab bo'lmayotgan tilini beixtiyor o'rganadi. Aslidachi... Aslida bola bu yoshida onasining sof ona tilidagi mehrga yo'g'rilgan allasiyu ertaklarini tinglab katta bo'lishi kerak emasmi? To'g'ri hozir bozor iqtisodiyoti davrida ayollar ham mehnat faoliyatida erkaklardan qolishmay mehnat qilishmoqda. Bunday jarayonda yosh onalarga farzand tarbiyasi uchun yordamchi kerakligi tabiiy. Biroq shu jarayonda ota-onalar to'g'ri qaror qabul qilishlari, farzandining tarbiyasi uchun loqayd bo'lmasliklaari lozim.

Tilning tarbiyaviy ahamiyati shu qadar kattaki bir millatni yo'q qilish uchun uning tilini yo'qotishning o'zi kifoya qiladi. Inson hayoti davomida til orqali ijtimoiylashadi. O'zini, asliyatini angelaydi. Shunday ekan tarbiyani ham avvalo sof ona tilimiz bilan hamohang ravishda olib borishimiz kerak. Shiddat bilan rivojlanayotgan mamlakatimiz yoshlari har jihatdan yetuk kamol topmog'i lozim. Bugungi kun yoshlari har sohada faol, ilmga ,yangilikka o'ch. Bu yaxshi albatta , ammo tanganing ikkinchi tomoni ham mavjud bo'lib, bunday tezlashgan asrda g'arblashish, chet el yoshlariga taqlid, ular madaniyatini o'zlashtirish, ularning ilm fan yo'lida erishgan tajribalarini o'rganish davomida milliy qadryatlariga ham beixtiyor taqlid qilish masalalari ham bor . Xususan davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek: Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala- bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq.

Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim-yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks - sado berib,

o`zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.[4]

So`zimiz ohirida shuni ta`kidlab o`tishimiz joizki yoshlarimiz bizning, xaalqimizning, kelajagimizning ertangi kunini belgilab beruvchi kuchimizdir. Ular kelajak bunyodkoridirlar va ma`naviyatimiz davomchilaridir. Xususan ularning axloqi, tarbiyasi, fikrlashi, dunyoqarashi, saviyasi juda muhim va bu kelajagimiz ravnaqiga o`z ta`sirini ko`rsatadigan kuch hamdir.

Ona tili orqali kelajagimiz egalarini buyuk ajdodlarimizga munosib avlod etib kamol topishlari yo`lida tarbiya qilsak bu bizning erishgan eng katta yutug`imiz hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkinki, millatimizning, xalqimizning davomchilari bo`lmish o`sib kelayotgan yosh avlodning ma`naviyatini yuksaltirish, ahloq-odobini takomillashtirishda ona tili va uning davomiyligini saqlovchi, xalqimizning o`zligini namoyon qiladigan shoh asarlarimizning o`rni beqiyos va biz ona tilimiz bo`lmish o`zbek tilining hayotida tutgan ahamiyatini ta`limning ilk bosqichi ya`ni boshlang`ich ta`limdanoq o`quvchilar ongiga singdirib borsak, ertamiz egalari sifatida tarbiyalayotgan o`quvchilar o`z vataniga sodiq, ajdodlariga munosib davomchi, millatining faxri bo`lib yetishishi muqarrar.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] O`zbekiston milliy ensiklopediyasi, O`zbek tilining izohli lug`ati, Toshkent, 2006, (1-2-3-tomlar)

[2] N.Mahmudov, Tilimizning tilla sandig`i, Toshkent, G`afur G`ulom nomidagi nashryot-matbaa ijodiy uyi, 2012-150b

[3] T.Z. Sulaymonova, "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal-(2)2020

[4] N. Ergasheva "Ma`naviy tahdidlar ta`siri". Hurriyat .uz 2016

[5] A. G`ulomov. Ona tili o`qitish prinsiplari va me`todlari. -T.: "O`qituvchi" .1997.

[6] Umbarova, N. (2023). BOSHLANG`ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH VA O`TKAZISHNING ILMIY-METODIK JIHATDAN TAKOMILLASHTIRILISHI (QOG`OZ VA KARTON MISOLIDA). *Евразийский журнал академических исследований*, 3(2 Part 2), 49-53. SHLANG`ICH TA`LIM TIZIMIGA I

[7] Panjiyeva, M., & Elmurodova, I. (2023). ENSURING THE EDUCATIONAL PROCESS IN ELEMENTARY GRADES THROUGH SUBJECT INTEGRATION: A CASE OF MATH, LANGUAGE, AND READING LITERACY. *Академические исследования в современной науке*, 2(13), 57-59.

[8] Panjiyeva, M., & Elmurodova, I. (2023). ENSURING THE EDUCATIONAL PROCESS IN ELEMENTARY GRADES THROUGH SUBJECT INTEGRATION: A CASE OF MATH, LANGUAGE, AND READING LITERACY. *Академические исследования в современной науке*, 2(13), 57-59.

[9] Xabibullayevna, R. S., & Sirojiddinova, D. S. (2023). ZULFIYA-SADOQAT KUYCHISI. *Journal of Universal Science Research*, 1(3), 193-197.

[10] Habibulayevna, R. S. (2023). ZULFIYA SHE`RIYATIDA BADIY OLAM TALQINI. *Journal of Universal Science Research*, 1(3), 198-204

[11] Jumayeva, Z. (2022, October). YOSHLARNI MILLIY TARBIYA ASOSIDA TARBIYALASH. In Archive of Conferences (pp. 9-19).

[12] Panjiyeva, M. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASSES THROUGH INTERDISCIPLINARY INTEGRATION (IN THE EXAMPLE OF NATURAL AND EXACT SCIENCES). Евразийский журнал академических исследований, 3(2), 91-94.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI UCHUN YANGI AVLOD DARSLIKLARINING JORIY ETILISHI

Umbarova Nasiba Xolboy qizi

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Pedagogika fakulteti,
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilari uchun yangi avlod darsliklarini joriy etish masalalari muhokama qilinadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi yangi avlod darsliklarining boshlang'ich sinif o'quvchilarining o'quv samaradorligi va faolligiga ta'sirini o'rganishdir. Qo'llaniladigan tadqiqot metodologiyasi yangi avlod darsliklarining samaradorligi bo'yicha turli tadqiqotlar va hisobotlarni tahlil qiladigan adabiyotlarni ko'rib chiqishdir. Adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, yangi avlod darsliklari o'quvchilarning o'quv faoliyati va faolligini oshirishda samaralidir. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yangi avlod darsliklari boshlang'ich ta'limni o'zgartirish imkoniyatiga ega.

Kalit so'zlar. Yangi avlod darsliklari, boshlang'ich ta'lim, akademik ko'rsatkichlar, faollik, adabiyotlarni ko'rib chiqish.

Abstract. This article discusses the introduction of new generation textbooks for primary school students. The purpose of this study is to investigate the impact of new generation textbooks on primary school students' academic performance and engagement. The research methodology used is a literature review that analyzes various studies and reports on the effectiveness of new generation textbooks. The literature review reveals that new generation textbooks are effective in improving students' academic performance and engagement. The results of this study suggest that new generation textbooks have the potential to transform primary education.

Key words. New generation textbooks, primary education, academic performance, engagement, literature review.

KIRISH

Boshlang'ich ta'lim bolaning akademik yo'lining hal qiluvchi bosqichidir, chunki u kelajakdagi ta'lim uchun poydevor qo'yadi. Boshlang'ich ta'limda darsliklar muhim o'rin tutadi, chunki ular o'quvchilarga o'qishda muvaffaqiyat qozonishlari uchun zarur bilim va ko'nikmalarni beradi. Biroq, an'anaviy darsliklarning eskirganligi, ilhomlantirmasligi va o'quvchilarni yetarlicha jalb qilmasligi kabi cheklovlar mavjud. Ushbu cheklovlarni bartaraf etish uchun yangi avlod darsliklari joriy etildi, ular yanada interaktiv, qiziqarli va dolzarb bo'lishi

uchun mo'ljallangan. Ushbu tadqiqot yangi avlod darsliklarining boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv samaradorligi va faolligiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot yangi avlod darsliklarining samaradorligi bo'yicha turli tadqiqotlar va hisobotlarni tahlil qilish uchun adabiyotlarni ko'rib chiqish metodologiyasidan foydalanadi. Adabiyotlarni ko'rib chiqish Google Scholar, JSTOR va ERIC kabi turli akademik ma'lumotlar bazalari yordamida amalga oshiriladi. Adabiyotlarni ko'rib chiqish uchun qo'shilish mezonlari boshlang'ich ta'limda yangi avlod darsliklaridan foydalanish va ularning o'quv samaradorligi va faolligiga ta'siriga qaratilgan tadqiqotlarni o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yangi avlod darsliklari boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyati va faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jumaa va Idris (2019) tadqiqotiga ko'ra, yangi avlod darsliklari o'quvchilarning fan va matematika bo'yicha o'quv yutuqlarini oshirishda samarali. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, yangi avlod darsliklaridan foydalangan o'quvchilar testlarda an'anaviy darsliklardan foydalanganlarga qaraganda ancha yuqori ball olgan. Xuddi shunday, Zhou va boshqalarning tadqiqoti (2020) yangi avlod darsliklari o'quvchilarning o'qishni tushunish va o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini yaxshilashini aniqladi.

Qolaversa, yangi avlod darsliklari an'anaviy darsliklarga qaraganda ancha qiziqarli va interaktiv ekanligi aniqlandi. Aslam va Hamid (2018) tomonidan olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, video va animatsiyalar kabi interaktiv multimedia elementlariga ega yangi avlod darsliklari o'quvchilarning faolligi va o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Kim va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda (2017) yangi avlod darsliklarida nishonlar va peshqadamlar jadvali kabi o'yinlashtirish elementlari o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishini aniqladi.

NATIJALAR

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, yangi avlod darsliklari boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyati va faolligini oshirishda samarali. Ayniqsa, interaktiv multimedia elementlari va o'yinlashtirish funksiyalariga ega yangi avlod darsliklari o'quvchilarni qiziqtirish va ularning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishda samarali ekanligi aniqlandi. Biroq, yangi avlod darsliklarini tatbiq etish texnologiya va o'qituvchilarni tayyorlashga katta sarmoya kiritishni talab qiladi.

Yangi avlod darsliklarining joriy etilishi boshlang'ich sinf o'quvchilari bilimiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Yangi avlod darsliklari ko'proq interaktiv, qiziqarli va dolzarb bo'lishi uchun yaratilgan bo'lib, bu ma'lumotlarni yaxshiroq tushunish va saqlashga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yangi avlod darsliklari boshlang'ich sinf o'quvchilarining turli fanlar, jumladan, tabiatshunoslik, matematika va o'qishni tushunish kabi fanlar bo'yicha o'quv faoliyatini yaxshilaydi.



XULOSA

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida o'quvchilarning bilim olish tajribasini oshirish va ularning ilmiy faoliyatini yaxshilash maqsadida yangi avlod darsliklari joriy etilmoqda. Ushbu darsliklar yanada interaktiv, qiziqarli va dolzarb bo'lib, videolar, animatsiyalar va interaktiv mashqlar kabi multimedia elementlarini o'z ichiga olgan holda yaratilgan. Ular, shuningdek, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va so'rovga asoslangan ta'limni rivojlantirishga qaratilgan.

O'zbekistonda Xalq ta'limi vazirligi 2018-yildan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yangi avlod darsliklarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha ish olib bormoqda. Yangi o'quv qo'llanmalar zamonaviy ta'lim standartlariga mos kelishini ta'minlash maqsadida xalqaro tashkilotlar va ekspertlar bilan hamkorlikda ishlab chiqilmoqda.

Yangi avlod darsliklari faol o'rganish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rag'batlantiradigan zamonaviy va innovatsion o'qitish usullarini ommalashtirishga qaratilgan. Shuningdek, ular O'zbekiston tarixi, madaniyati va an'alariga oid mavzularni o'z ichiga oladi, bu esa o'quvchilarda milliy o'zlik va iftixor tuyg'ularini rivojlantirishga yordam beradi.

O'zbekistonda yangi avlod darsliklarini joriy etish ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarni XXI asr chaqiriqlariga tayyorlashga qaratilgan ta'lim sohasidagi keng ko'lamlı islohotlarning bir qismidir. Yangi darsliklar o'quvchilarning bilim olish tajribasini oshirishi hamda tez o'zgarib borayotgan dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlarni shakllantirishga yordam berishi kutilmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yangi avlod darsliklarini joriy etish o'quvchilarning o'quv faoliyati va faolligini oshirish orqali boshlang'ich ta'limni o'zgartirish imkoniyatiga ega. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, interaktiv multimedia elementlari va o'yinlashtirish funksiyalariga ega bo'lgan yangi avlod darsliklari o'quvchilarni qiziqtirish va ularning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishda ayniqsa samaralidir. Biroq, yangi avlod darsliklarini tatbiq etish texnologiya va o'qituvchilarni tayyorlashga katta sarmoya kiritishni talab qiladi. Yangi avlod darsliklarining o'quvchilarning o'quv faoliyati va faolligiga uzoq muddatli ta'sirini o'rganish uchun qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Umbarova Nasiba "Methodology of Organizing Lessons for Primary School Technology Teacher with Paper and Carton" International Journal of Culture and

2. Ashurov N.R, Umbarova N.X. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida qog'oz va kartondan amaliy ishlarni tashkil etishda o'qituvchining metodik tayyorgarligini takomillashtirish. "Monografiya" Denov -2022, 160 b.

3. Umbarova Nasiba Xolboy qizi "BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA TEXNOLOGIK ATAMALARDAN FOYDALANISH "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 3(1/2), Jan., 2023 www.oriens.uz

4. Nasiba Umbarova, Maftuna Rashidova "BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA AMALIY ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI" BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIGA INTEGRATIV YONDASHUV: NAZARIYA VA AMALIYOT Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plami. 284-285-b. Denov-2022

5. Yakibova Dilorom Sharifovna, Umbarova Nasiba Kholboy qizi "FORMS OF ORGANIZATION OF PRACTICAL WORK IN TECHNOLOGY CLASSES" TJE - Tematics journal of Social Sciences ISSN 2277-3010 Vol-7-Issue-6 2021 <http://thematicsjournals.in>

6. Umbarova, N. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISHNING ILMIY-METODIK JIHATDAN TAKOMILLASHTIRILISHI (QOG'OZ VA KARTON MISOLIDA). *Евразийский журнал академических исследований*, 3(2 Part 2), 49-53.

7. Panjiyeva, M., & Elmurodova, I. (2023). ENSURING THE EDUCATIONAL PROCESS IN ELEMENTARY GRADES THROUGH SUBJECT INTEGRATION: A CASE OF MATH, LANGUAGE, AND READING LITERACY. *Академические исследования в современной науке*, 2(13), 57-59.

8. Panjiyeva, M., & Elmurodova, I. (2023). ENSURING THE EDUCATIONAL PROCESS IN ELEMENTARY GRADES THROUGH SUBJECT INTEGRATION: A CASE OF MATH, LANGUAGE, AND READING LITERACY. *Академические исследования в современной науке*, 2(13), 57-59.

9. Xabibullayevna, R. S., & Sirojiddinova, D. S. (2023). ZULFIYA-SADOQAT KUYCHISI. *Journal of Universal Science Research*, 1(3), 193-197.

10. Habibulayevna, R. S. (2023). ZULFIYA SHE'RIYATIDA BADIY OLAM TALQINI. *Journal of Universal Science Research*, 1(3), 198-204

11. Jumayeva, Z. (2022, October). YOSHLARNI MILLIY TARBIYA ASOSIDA TARBIYALASH. In *Archive of Conferences* (pp. 9-19).

12. Panjiyeva, M. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASSES THROUGH INTERDISCIPLINARY INTEGRATION (IN THE EXAMPLE OF NATURAL AND EXACT SCIENCES). *Евразийский журнал академических исследований*, 3(2), 91-94.

O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

*Salimov Xolmurod Narzimurodovich
Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muxandislik bilim yurti
Qurollanish va otish kafedrası umumqo'shin va
maxsus bo'linmalari sikli kata o'qituvchisi*

Annotasiya: Maqolada "kompetensiya", "kompetentlik" tushunchalarining metodologik tahlili keltirilgan. O'qituvchilar kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish usullari va buning ta'lim jarayonidagi ahamiyati haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, kompetentlik, ta'lim sifati, o'qituvchi kasbiy kompetenligi.

Аннотация: В статье представлен методологический анализ понятий "компетентность", "компетентность". Даны ссылки на методы совершенствования профессиональных компетенций педагогов и их значение в образовательном процессе.

Ключевые слова: компетентность, компетентность, качество образования, профессиональная компетентность учащегося.

Zamonaviy jamiyat ta'lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma'naviy va jismoniy soqlom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo'ymoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "yuksak bilimli va intellectual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zaxirasini yaratish" vazifasi belgilandi. Mamlakatimizda umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovasion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712 sonli prezident farmoni tasdiqlandi. Konsepsiyada ta'lim tizimida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab berildi.

A.V. Xutorskiy o'z ishlarida "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini aloxida ta'riflaydi. Kompetensiya - shaxsiy xususiyatlar (bilim, ko'nikma, malaka, idrok, faoliyat) ning o'zaro yig'indisi bo'lib, samarali faoliya sifatini belgilaydigan 726 zaruriyatdir. Kompetentlik - kompetensiyaga ega insonni boqarish tushuniladi, professionallik faoliyati predmetiga tegishli xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Kompetentli pedagog - u kim? Uning shakllanish jarayoni qanday kechadi kabi savollar tug'iladi. Shu nuqtai nazardan "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalar mazmun mohiyatini aniqlashimiz muhimdir. Har qanday o'qituvchi ham "kompetentlik" nimani anglatishini va u "kompetensiya"dan nimasi bilan farq qilishini bilavermaydi. "Kompetentlik" tushunchasi pedagogning ma'lumoti, ko'nikmasi, qobiliyati va tajribasini o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, uning

ma'lum bir ish turini bajarish qobiliyati hisoblanadi. Aslida, ikkala atama o'xshashdir.

Kompetensiya bilimlarning umumiyligi va ularning odamlarda mavjudligini anglatadi, kompetentlik - bu bilimlarni ish jarayonida ishlatish darajasini anglatadi. Kompetensiyalar ta'rifiga bir qancha yondashuvlar mavjud: - Amerikanacha yondashuvda kompetensiyalar xodimlarning xulq-atvori namunasi sifatida ko'rib chiqiladi. Agar xodim zarur ko'nikma va bilimlarga ega bo'lsa, yaxshi natijalarni namoyish etadi. - Yevropacha yondashuvda kompetensiyalar ish vazifalari va kutilgan ish natijalarining tavsifi, ya'ni qabul qilingan standartlarga muvofiq harakat qilish qobiliyati sifatida ko'riladi. Vazirlar Maqkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son harori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standartida kompetensiya tushunchasiga mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati sifatida ta'riflangan.

Bugun ta'lim har tomonlama takomillashib zamon talablari asosida tashkil etilishi va yuqori samara berishi kabi masalalarni qo'ymoqda. Ta'limning sifati va samarasi faqatgina tayyorlangan kadrlarga ko'ra belgilanadi. Shu asosida kadrlarni tayyorlashga zamonaviy talablar asosida yondashish maqsadga muvofiqdir. Kompetentli yondashuv tushunchasi, o'rganilishi, o'rni va ahamiyati. Kompetensiya iborasi zamonaviy adabiyotda keng qo'llaniladigan termin bo'lib, ta'lim, xodimlarni tanlash, mehnat natijasini baholash, ta'limning muvaffaqiyatligi, professional yo'naltirilganlik va shu kabi masalalarni qamrab oladi. Bugungi kunda ma'no nuqtai nazaridan oxirgacha aniqlashtirilmagan deb hisoblanadi. 1970-yillarda ko'pgina G'arb Yevropa davlatlarida paydo bo'lib, bunda kompetentlik professional tayyorgarlikning 727 yangi yo'nalishini ko'rsatadigan bo'ldi. «Kompetentlik» termini ta'lim faqatgina individual, texnik yoki tajribaviy bilim va qobiliyatni egallash masalalari bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki individ shaxsni keyinchalik rivojlantirishga baza bo'lib, xizmat qila oladigan qobiliyat va ko'nikmalari majmuasini ifoda qiladi. Ammo bu g'oya barcha Yevropa davlatlarida turlicha o'z ifodasini topdi. Masalan, Germaniyada 1980- yillardan boshlab, «professional faoliyatda kompetentlik» iborasi boshlangich professional tayyorgarlik mobaynida erishilishi shart bo'lgan maqsadni ifodalagan. Bu o'qitish kursi o'zaro bog'liqlik, texnik kompleks va umumiy bilim yig'indisidan iborat bo'lib, bu bitiruvchiga turli ish joylarida ishni davom ettirish imkonini berar edi. Bu umumiy malaka o'zgarishsiz qolishi mumkin emas, u rivojlanib borishi kerak, chunki individ va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan xolda mehnat dunyosining talablari va shartlari ham o'zgarib turadi.

Funksiyalarni to'g'ri bajarish uchun pedagog kompetentlik va kompetensiya tushunchasini bilishi, har tomonlama rivojlanib, kasbiy o'sishi uchun qaysi yo'nalishda harakatlanishini bilishi kerak. Professionallik va kompetentlik bir-biriga o'xshash bo'lsada, har xil ma'noga ega bo'lgan atamalardir. Professionallik deganda nafaqat ma'lum bilimlar, balki mehnatga bo'lgan munosabat, ishning o'ziga xos xususiyatlari tushuniladi. Rivojlangan kompetensiyalar darhol seziladi, chunki professional pedagog o'z ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi, muayyan maqsad va natijalarga erishishga intiladi, ishchan qadriyatlar ishlab

chiharadi va bular odatda ish jarayonining standartiga mos keladi. Kompetentlik esa biroz murakkab mazmunga ega, sababi, nafaqat bilimlarning mavjudligini, balki shu bilan birga ularni qo'llash qobiliyatini ham taqozo etadi. Kompetentlik faqat keng qamrovli baholash va kuzatish paytida aniqlanishi mumkin. Professionallik va kompetentlik tushunchalari umumiy xususiyatlarga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, har doim ham belgilangan talablar va standartlarga to'liq mos keladigan odamlar chinakam professionallar bo'lavermaydi, sabab, ba'zilari bilimlarni amalda qanday qo'llashni bilishmaydi, demak, bunday pedagogik faoliyat samarasiz bo'lib qolaveradi.

Shaxsiy pedagogik kompetensiyaning yuqori darajasi ega bo'lgan ishchilar charchashga kamroq moyil, vaqt bosimida ishlashga qodir. Kompetensiyaning har bir 728 turi ko'nikmalar, bilimlar, ko'nikmalar to'plamini o'z ichiga oladi. Pedagoglarda ular turli darajalarda namoyon bo'ladi. Xizmat vazifalarini bajarishda uning xatti-harakatlari ko'rsatkichlariga e'tibor berib, u yoki boshqa kompetensiyalar qanday rivojlanganligini aniqlash mumkin. Kompetentlik qanday shakllanadi? O'qituvchining kompetentligini shakllantirish uchun asosiy narsa bu maxsus kasbiy ta'limdir. Kelajakda amaliyotda olingan bilim va ko'nikmalar boshlang'ich kompetensiya darajasini to'ldiradi.

Pedagoglarning kompetentligini baholashda xatti-harakatlarning ko'rsatkichlariga tayanib ish tutish samaralidir. Aynan shu narsa kompetensiya va kompetentlik orasidagi farqlar nimani anglatishini aniq ko'rsatib beradi. Mutaxassislarining malakasini baholash muntazam, mustaqil, maqsadli, shaffof, aniq mezonlarga ega bo'lishi kerak. Pedagoglarning kompetentligini baholashda xatti-harakatlarning ko'rsatkichlariga tayanib ish tutish samaralidir. Aynan shu narsa kompetensiya va kompetentlik orasidagi farqlar nimani anglatishini aniq ko'rsatib beradi. Mutaxassislarining malakasini baholash muntazam, mustaqil, maqsadli, shaffof, aniq mezonlarga ega bo'lishi kerak.

Xulosa shuki, kompetentlikni shakllantirish bosqichma-bosqich va uzluksiz jarayondir. U oliy ta'lim muassasasida boshlanadi va ish joyida tajribali ustozlar nazorati ostida davom etadi. Shuni unutmaslik kerakki, yuqori kasbiy kompetentlik nafaqat bilim darajasi, balki xodimning amaliy ko'nikmalari, tajribasi va shaxsiy fazilatlar hamdir. Mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi, avvalam bor o'qituvchining jamiyatda dahldorlik hisi shakllanganligi hamda kommunikativlik, axborot bilan ishlash, o'zini doimiy ravishda rivojlantirish kompetensiyalariga egaligi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

2. O'zbek tilining izohli lug'ati. Davlat ilmiy nashriyoti, -: 2006. -jild.557 b.)

3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent. 2000.

4. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-qunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'qrisida O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2017 yil 6 aprel, 187-son.

5. Oliy ta'lim Davlat ta'lim strandarti. 5110100-Matematika o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar. Rasmiy nashr. - Toshkent. - 2013.

6. Temurov S.Y. Bo'lajak matematika o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning nazariy asoslari. Monografiya. -T.: «Fan va texnologiya», 2014. 9 b. Scientific Journal Impact Factor.

7. Хуторский А.В. Инновации в общеобразовательной школе. Методы обучения. Сборник научных трудов/ под ред. А.В. Хуторского. - М.: ГНУ ИСМО РАО, 2006, С. 290.

8. Совет Европы. Ключевые компетенции для Европы: симпозиум док. DECS. Берн, 1996.С. (96) 43.

9. Муслимов Н.А. Касб таълими уқитувчиларини касбий шакллантириш. Монография. - Т.: Фан. - 2004. - 127 б., Муслимов Н.А. Касб таълими уқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. //Пед. фан. докт. дисс. - Тошкент. - 2007. - 349 б

10. Махмудов А.Х. Узлуксиз таълим жараёнига компетентлик ёндошувини жорий қилишнинг дидактик асослари // Узлуксиз таълим. - 2012. - № 4. 8-12 бетлар., Махмудов А.Х. Таълим тизимида компетентлик асосида ёндашувнинг дидактик жиҳатлари //«Уқитувчиларнинг касбий маҳоратини оширишда инновация технологияларининг аҳамияти» мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. - Тошкент. - 2012. 44-47 бетлар 730

11. Ризкулова К.Д. Булажак инглиз тили уқитувчилари социолингвистик компетентлигини шакллантириш тизими. //Педагогика фанлари бўйича фан доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Т.: 2017. - 365 б.

12. Лебедев О.Е. Управление образовательными системами. Учебно - методическое пособие для вузов. - М.: Литературное агентство «Университетская книга», 2004. - 136 с.

13. Бахарева Е.В. Развитие профессиональной компетентности учителя по формированию функциональной грамотности учащихся основной школы. //Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. М. 2009.

14. Jabborova Shahzoda Husen qizi (2022) Vizual faoliyat jarayonini boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim jarayonida qo'llash. IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI 15(02) 24-27.

TARBIYA-KELAJAGIMIZ KALITIDIR

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasini o'qituvchisi Umaraliev Shahlo.

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika inisituti 1- bosqich "Boshlang'ich ta'lim" talabasi Nazarova Sevara.

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika inisituti 1- bosqich "Boshlang'ich ta'lim" talabasi Abdurahmonova Mehrangiz.

Anotatsiya: Mazkur maqola tarbiya ta'lim va yosh avlodlarning bugungi hayotidagi ahamiyati haqida.

Olimlarning ta'lim va xalq og'zaki ijodi haqidagi fikrlari qanday ekanligini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, aql, qobiliyat, odob, axloq, barkamol inson, islom madaniyati, milli tafakur.

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayondir. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi hisoblanadi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz odam jamiyatda, jamoat joylarda, yaqinlar oldida o'z o'rnini topa olmaydi. Chunki odam jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. Tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi.

Biz juda yaxshi bilamizki internet sahifalardan tug'ri-notug'ri foydalanuvchi yoshlarning safi ko'payib bormoqda bu esa yoshlar tarbiyasini ongu tafakurlarini zaharlanmoqda. O'zi uyini kitob o'rniga, turli keraksiz buyumlar bilan to'ldirib, vaqt topildi deguncha internet va televizordan bosh ko'tarmaydigan, topganini to'y uchun sariflaydigan, farzandlarini ham shunday yashashga o'rgatayotgan ota-onalar afsuski oramizda bor. Har bir odam ikki xil tarbiya oladi: birinchi tarbiyani o'z hayot tajribalarini singdirish yo'li bilan ota-ona beradi, ikkinchisi, yanada muhimrog'ini esa unga hayotning o'zi o'rgatadi. Chunki hayot velospet haydashga o'xshaydi. Muvozanatingizni saqlab olmasangiz yiqilib jaroxatlanasiz. Agarda muvozanatingizni saqlasangiz yiqiglmasingiz uchun, harakat qilishda davom etasiz. Atrofga boqing, biz qayoqqa qarab ketyapmiz o'zi, to'xtash vaqti kelmadimikan?

Ta'lim-tarbiya haqida so'z ketganda, Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir", degan chuqur ma'noli fikri yodimizga tushaveradi. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham shunchalik, balki undan ham ko'proq dolzarb ahamiyatga ega.

Tarbiya — arabcha so'zdan olingan bo'lib, parvarish qilmoq, ta'lim bermoq, o'rganish, odob o'rgatish, mehribonlik ko'rsatish, himoya qilish kabi suzlarni o'z ichiga oladi. Biz juda yaxshi bilamizki tarbiya bo'lmasa ta'lim rivojlanmaydi, ta'lim

bo'lmasa tarbiya. Ta'lim, tarbiyaning bir juz'idir. Tarbiya esa ta'limni o'z ichiga oladi.

Demak, tarbiya o'z-o'zidan ta'limga nisbatan komil va keng qamrovlidir. Islomiy tarbiyaning ma'nosi esa jamiyatda har taraflama komil inson shaxsiyatini barpo qilish va albatta, bu tarbiya ruhiy, aqliy va jismoniy taraflarni o'z ichiga oladi. Zotan, Alloh taolo insoniyatni yer yuzini obod qilish uchun yaratgan. Demak, u o'zining vazifalarini ado etishi uchun har taraflama komil va yetuk bo'lishi kerak. Buning uchun esa bizning dinimiz Islomda barcha ko'rsatma va imkoniyatlar mavjud. Eng asosiysi, inson o'zining oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish asnosida doimiy holda Allohga yuzlanib turish tarbiya hisoblanadi. Zero: Muhammad (s.a.v) tutgan yo'llari mening yo'lidir, baxtu saodatim ham, najotim ham, tarbiyam ham shu yo'lidir.

(S.Nazarova).

Yuqorida aytib o'tganimizdek, ta'lim komil tarbiyaning bir juz'idir. U esa aqlni rivojlantiradi va sayqallashtiradi. Natijada u o'z hayotida kerak bo'ladigan ilmu ma'rifatni ashyolar to'g'risidagi turli

ma'lumotlarni, kasbiy mahoratini yoki kasb va hunarlarga tegishli bo'lgan fanlarni o'rganadi. Lekin tarbiyaga o'xshab keng qamrovli bo'la olmaydi. Chunki ta'lim insonni ruhiy, aqliy va jismoniy taraflarini birdek qamrab ololmaydi. Shuning uchun ham ta'lim va tarbiya doimo birga bo'lishi talab etiladi.

Tarbiya dinimizda vojib amal, deb e'lon qilingan. Biz eng ko'p ishlatadigan tarbiya, murabbiy so'zlari Allohning «Rob» ismi bilan bitta o'zakdan olingani tarbiyachilar mas'uliyatini oshirsa kerak, deb o'ylayman. Demak, bu yengil ish emas. Tarbiya – faqat ta'sir, tartib yoki nazorat, taftish emas, u ilohiy narsa. Tarbiya farzandni doim nazoratga olish, kuzatib borish degani, chunki Alloh taolo surai Fotihaning birinchi oyatida olamlarning robbisi Allohga maqtovlar bo'lsin, degan. Tarbiya dinimizda vojib amal, deb e'lon qilingan. Biz eng ko'p ishlatadigan tarbiya, murabbiy so'zlari Allohning «Rob» ismi bilan bitta o'zakdan olingani tarbiyachilar mas'uliyatini oshirsa kerak, deb o'ylayman. Ta'lim-tarbiya, beruvchi, ilm beruvchi, mehri kursatuvchi murabbilarimizga tassano aytishning iloji yo'q.

Zero: Jahonda bo'lmasa muallim agar, hayot ham bulmasdi go'zal bu qadar.

(Abdurahmon Jomi)

Xulosa, biz aytib o'tganimizdek ta'lim tarbiya bo'lmasa insoniyat butun umri davomida savotdiz, ma'naviyatsiz, manqurt bo'lib o'tadi. Shuning uchun bizga ta'lim tarbiya beruvchi insonlarga minaddorchilik izhorini qilmog'imiz darkor. Chunonchi bilim ta'lim tarbiyaning asosi bo'g'ini hisoblanib insoni har qanday qiyin vaziyatlarda chiqip ketishga yordam bo'la oladi.

Foydalangan adabiyotlar:

- 1). Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir. (Abdulla Avloniy)
- 2). Tarbiya darslik 3-sinf, 35-bet kitobidan.
- 3). Tarbiya darslik 9-sinf, 15-bet kitobidan.
- 4). Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Buxoriy "Al-Jomi As-Sahih" to'plamlar kitobidan.

Internet saytlardan:

- 1) qomus.info
- 2) Arxiv.uz sahifalaridan foydalanilgan.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РКИ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

*Бозоров Пулат Фарход угли
Преподаватель Термезского государственного
педагогического института*

Аннотация

В статье рассматриваются методы и приемы, используемые в обучении русскому языку как иностранному (РКИ), проанализированы актуальные проблемы преподавания РКИ и предложены пути их преодоления.

Ключевые слова: интегративный и аналитический подход, самообучение, коммуникативный, задачный, автономный подходы.

Преподавание русского языка как иностранного (РКИ) является очень актуальной и популярной темой в настоящее время, поскольку на русском языке говорят более 275 миллионов человек во всем мире, и он является одним из шести официальных языков ООН. Преподавание русского языка важно для социальных, экономических, культурных и политических целей. Преподавание РКИ представляет собой множество проблем как для учителей, так и для учащихся, которым посвящена данная научная статья.

Изучение русского языка имеет различные преимущества, в том числе социальные, экономические, культурные и политические преимущества.

- В социальном плане изучение русского языка улучшает культурное взаимопонимание и способствует общению с носителями русского языка.

- Экономически это открывает возможности для бизнеса в странах, где русский язык является официальным. Как официальный язык Организации Объединенных Наций, изучение русского языка открывает возможности для карьерного роста в международных организациях и дипломатии.

- В культурном плане изучение русского языка открывает доступ к богатой русской литературе, истории и искусству.

- В политическом плане изучение русского языка укрепляет стратегические и дипломатические отношения между странами.

Преподавание русского как второго языка имеет долгую историю, которая восходит к XV веку. Одним из первых учебников по русской грамматике для иностранцев является «Грамматика», изданная Максимом Греком.

Учебник по грамматике включал в себя русский алфавит, фонетику, морфологию и синтаксис. Первые русские языковые школы для иностранцев были созданы в Петербурге в конце XVIII - в начале XIX века, прежде всего для обучения дипломатов и купцов.

Централизованное преподавание русского языка как иностранного началось в Российской империи после 1830 годов с началом русификации.

[1]

В XIX веке школы русского языка были открыты в Европе, Китае, Японии и США.

На преподавание русского языка влияют различные теории и подходы к изучению языка, используются различные методики, включая обучение в классе, самообучение, погружение и обучение с помощью технологий, коммуникативный, задачный, автономный подходы.

Обучение в классе является наиболее распространенным методом, используемым в преподавании курсов русского языка. Он включает в себя использование учебников, обучение под руководством учителя и занятия в классе. Самообучение — это альтернативный метод, который позволяет учащимся контролировать темп и стиль обучения. Этого можно достичь за счет использования учебников, интернет-ресурсов и аудиовизуальных материалов. Метод погружения предполагает, что учащиеся живут в русскоязычной среде и знакомятся с языком посредством повседневного общения. Этот метод считается более эффективным для продвинутых учащихся, которые уже знакомы с языком.

«Коммуникативный подход в обучении иностранным языкам (Communicative language teaching) – это подход, направленный на формирование у обучающихся смыслового восприятия и понимания иностранной речи, а также овладение языковым материалом для построения речевых высказываний. Коммуникативный подход в обучении иностранным языкам, прежде всего, призван научить студентов свободно ориентироваться в иноязычной среде, а также уметь адекватно реагировать в различных языковых ситуациях.

Коммуникативный подход в обучении иностранному языку впервые возник в 70-х годах как результат работы экспертов Совета Европы. С того времени, данный подход получил широкое распространение во всем мире и стал одним из главных методов обучения иностранным языкам» [2, с. 223]. Коммуникативный подход, который делает упор на использование языка в реальных жизненных ситуациях и контекстах, широко используется в обучении русскому языку. Коммуникативный подход фокусируется на развитии четырех языковых навыков: аудирования, говорения, чтения и письма.

Другим подходом, используемым в обучении русскому языку, является подход, основанный на задачах, который вовлекает учащихся в деятельность по решению проблем, требующую осмысленного использования языка.

Подход, основанный на задачах, рассматривается как более ориентированный на учащихся и интерактивный по сравнению с традиционным подходом к переводу грамматики, который делает упор на механическое запоминание и пассивное обучение. «Л. Кондрашова уверена в том, что «задачный подход к обучению предусматривает введение в содержание учебной информации таких заданий, которые активизируют мыслительные процессы студентов, закрепляют их умения оперировать теоретическими знаниями в практических ситуациях, пользоваться ими

при решении учебных задач, осмысливать и видеть их приложимость к профессиональной деятельности» [3, с. 107]

Автономный подход к обучению фокусируется на независимости учащихся и саморегуляции в процессе обучения. Особое внимание уделяется мотивации учащихся, саморефлексии и самооценке. «Автономный подход, формирующийся на основе системного подхода, представляет собой синтез личностно-ориентированного, деятельностного, культурологического и компетентностного подходов.» [4]

Основными выявленными, актуальными проблемами преподавания РКИ являются:

1. Сложность русского языка

Русский считается одним из самых сложных языков для изучения из-за правил грамматики, сложной системы склонения и сложного произношения. Эта сложность представляет собой проблему для учащихся, особенно для тех, кто не знаком с кириллицей.

2. Отсутствие мотивации и интереса

Некоторым учащимся не хватает мотивации и интереса к изучению РКИ, что может негативно сказаться на их успеваемости и успехе. Мотивация учащихся является серьезной проблемой, особенно для учащихся, у которых нет конкретной цели изучения языка.

3. Недостаточная поддержка и ресурсы

У учащихся может не быть достаточного количества ресурсов на русском языке, таких как учебники, аудио- и видеоматериалы, а также онлайн-ресурсы, что может помешать их обучению. Отсутствие современных и необходимых учебных материалов является проблемой, которая препятствует внедрению инновационных методологий обучения.

4. Культурные различия

Изучение русского языка предполагает понимание русской культуры и ценностей, что может быть непросто для учащихся из разных культур. Еще одной проблемой является подготовка учителей, поскольку многие преподаватели иностранных языков не обладают необходимыми педагогическими и межкультурными навыками для эффективного преподавания.

Для продуктивного устранения вышеперечисленных проблем, предлагается следующие альтернативные решения:

1. Преподаватели должны использовать различные учебные материалы, чтобы поддерживать мотивацию учащихся, например, аутентичные материалы, такие как русская музыка, фильмы и литература, которые могут помочь учащимся лучше понять культуру и изучать язык в контексте. Кроме того, грамматика должна вводиться постепенно и систематически, а преподаватели должны давать четкие объяснения и предлагать множество возможностей для практики.

2. Преподаватели могут попытаться повысить мотивацию учащихся, предоставив им интересные и содержательные учебные материалы, познакомив их с русской культурой и историей, организовав культурные

мероприятия и используя коммуникативный подход, подчеркивающий практическое использование языка в реальных жизненных ситуациях.

3. Преподаватели должны искать и использовать различные аутентичные ресурсы, такие как российские СМИ, газеты и веб-сайты, чтобы предоставить учащимся различные источники информации и создавать свои собственные ресурсы, такие как рабочие листы и коммуникативные упражнения.

4. Преподаватели должны интегрировать культурный контент в свои уроки, поощрять культурный обмен между учащимися и предоставлять учащимся возможность узнать о русской культуре и познакомиться с ней из первых рук посредством экскурсий и культурных мероприятий.

Эффективное преподавание русского языка требует принятия соответствующих теорий изучения языка, методологий обучения и инновационных учебных материалов. С ростом спроса на курсы русского языка возникает потребность в более квалифицированных преподавателях, обладающих необходимыми педагогическими и межкультурными навыками.

Использование технологий в обучении русскому языку является эффективным способом повышения качества обучения. Наконец, преимущества изучения русского языка невозможно переоценить в современном глобализированном мире. Обучение РКИ — сложный процесс, требующий разнообразных подходов и ресурсов. Принимая во внимание текущие проблемы преподавания РКИ и внедряя предложенные решения, преподаватели могут создать более эффективную и увлекательную среду обучения для своих учащихся.

Список литературы

1. Aneta Pavlenko. Linguistic russification in the Russian Empire: peasants into Russians?. — 2011-11. — Т. 35, вып. 3. — С. 331-350. — ISSN 1572-8714 0304-3487, 1572-8714. — doi:10.1007/s11185-011-9078-7.

2. Урок иностранного языка в средней школе. — 2-е изд., испр. и доп. — М.: Просвещение, 1988. — 223 с. — ISBN 5-09-001602-X

3. Кондрашова Л. В. Процесс обучения в высшей школе / Л. В. Кондрашова. — Кривой Рог: КГПУ, 2007. — 318 с.

4. Автономный подход в педагогике как методологическая категория. Интернет ресурс / <https://cyberleninka.ru/article/n/avtonomnyy-podhod-v-pedagogike-kak-metodologicheskaya-kategoriya>.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARBIYA FANI O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

*Sh.N.Xazratkulova - Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi davr ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirishda boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, metodlardan unumli foydalanish hamda sifati ta'lim berish va o'z navbatida pedagogning kasbiy mahoratiga bog'liqligi haqida

to'xtalib o'tilgan. Maqolada ta'lim-tarbiya jarayoni alohida o'ringa ega ekanligi hamda hozirgi zamonaviy pedagogning egallashi kerak bo'lgan kasbiy kompetentlik, pedagogning mahorati haqida to'xtalib ilmiy jihatdan yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: Kompetentlik, kasbiy kompetentlik, bilim, ko'nikma, malaka, nutq, kreativlik, pedagogika, pedagogik mahorat, dars berish mahorati.

Dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik o'zgarishlar doimiy takomillashib borayotgan innovatsion yondoshuv asosida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantiruvchi ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan.

Ta'limning maqsad va vazifalarini yangidan aniqlanishi, mehnat bozorini "bilimli" bitiruvchidan kompetentli bitiruvchi tomon o'zgarganligi dunyoning rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimlarini kompetentlik yo'nalishida modernizastiyalashgan asosiy sabablari hisoblanadi.

Ta'limning maqsad va mazmunini, o'qitish usullari va texnologiyalari va ularning o'qish kafolatlangan natijalarini kompetentlik talablariga moslashtirish dolzarb masala sifatida e'tirof etilmoqda.

Shu bois, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalar sirasiga kiradi.

O'qituvchi va uning kasbiy sifatlariga oid muammolar chet ellik olimlar asarlariga o'z ifodasini topgan. Jumladan, A.Disterverg o'qituvchining ta'limdagi o'rnini, o'z faoliyatini bilishi, uni sevishi, o'quvchilarni yoqtirishi deb uqtiradi. O'qituvchi bolalarning individual xususiyatlari, qobiliyati, faoliyat uslubi to'g'risida muayyan darajada bilimga ega bo'lishi kerakligini ham ta'kidlab o'tadi.

Shuning bilan birga A.Disterverg: "Yaxshi o'qituvchi o'zining tarbiya prinsplaridan hech qachon qaytmaydi. O'qituvchi o'z ustida doimo mustaqil ishlashi lozim. Yomon o'qituvchi haqiqatni aytib qo'ya qoladi, yaxshi o'qituvchi esa bolalarga haqiqatni topishga o'rgatadi"- deb ifodalaydi.

A.I.Gersen mulohazasiga ko'ra, o'qituvchining asosiy hislati ularning bolalar ruhiy dunyosini tushuna olishi hamda o'qituvchilarda axloqiy qobiliyatning mavjudligidir. Uning fikricha, har qanday o'qituvchida mahorat va iste'dod bo'lishi zarurki, unga boshqa o'qituvchilar havas qila olsin.

Rus pedagogi K.D.Ushinskiy ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi shaxsiga yuqori baho berib: "hech bir dastur, suniy organizm puxta ishlab chiqilganiga qaramay, inson shaxsining o'rnini bosa olmaydi. O'qituvchi shaxsining o'ziga xos muhim fazilatlari quyidagicha namoyon bo'ladi, o'qituvchining xarakteri, ya'ni uni hamkasblari, atrofdagilar bilan muloqoti, his-tuyg'usi, uning ta'lim oluvchilar bilan munosabatga kirishish layoqati, o'qituvchining ta'lim oluvchilarga xuddi ota-onasi kabi yaqinligi"- deb e'tirof etadi.

O'qituvchi kasbining sharafliligi, mas'uliyatliligi, murakkabligi, muallimning mahorati, ularga qo'yiladigan talablar, ustozlarning fazilatlariga oid fikrlar Sharq ma'naviyati, madaniyatining xilma-xil jihatlari, ayniqsa, Uyg'onish davrida juda rivojlangan bo'lib bu davrda yashab ijod etgan Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abdurahmon Jomiy, A.Navoiy va boshqa

ko'plab mutafakkirlarning ijodlari pedagogik tafakkur taraqqiyotida yosh murabbiylarning ma'naviy-axloqiy kamolotida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Abu Nasr Forobiy zamonasining peshqadam bilimdoni sifatida tinimsiz ijodiy ishlar bilan shug'ullanish bilan bir qatorda, muallimlik ham qilgan.

Forobiy o'qitishning mazmuni va qonun-qoidalarini o'zining amaliy faoliyatida sinab ko'rgan. Forobiy o'qituvchi shaxsiga xos qator fazilatlarga xolisona, odilona va oqilona sharh berish imkoniyatiga erishgan buyuk zotdir. Mutafakkirning fikricha, o'qituvchi o'zida quyidagi fazilatlarni mujassamlashtitish kerak:

- barcha organlari mukammal taraqqiy etgan;
- barcha masalani tez va mantiqiy tushuna oladigan;
- xotirasi kuchli;
- zehni o'tkir;
- nutqi ravon;
- bilish va o'qishga muhabbati kuchli;
- ko'zi to'q, pokiza;
- haqiqatparvar;
- g'ururli va vijdonli;
- pulni sevmaydigan;
- adolatli;
- qat'iyatli, qo'rqmas va jasur kishilar.

Forobiy bolalarning fe'l-atvoriga qarab tarbiya jarayonida "qattiq" yoki "yumshoq" usullardan foydalanish kerak deb hisoblagan:

- 1) Ta'lim oluvchilar o'qish va o'rganishga qiziqqan bo'lsa, ta'lim-tarbiya jarayonida yumshoq usul qo'llaniladi;
- 2) Ta'lim oluvchilar o'zboshimcha, itoatsiz bo'lsa, qattiq usul qo'llanishi lozim.

Alloma ustoz-o'qituvchining mas'uliyatiga quyidagicha ta'rif beradi; "Ustoz, - deydi u, shogirdlariga qattiq zug'um ham, haddan tashqari ko'ngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki ortiqcha zug'um shogirdga ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordi-yu ustoz juda ham yumshoq bo'lsa, shogird uni mensimay qo'yadi va beradigan bilimdan sovub ham qoladi".

Alloma tomonidan berilgan sharhlar, teran fikrlar va mulohazalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yuqotmagan.

Ibn Sino o'qituvchi tanlashni muhim masala deb hisoblagan. U bola 6 yoshga to'lishi bilan uni o'qituvchining tarbiyasiga berishni tavsiya qiladi. Tarbiyachi rostgo'y, dono, odil, ozoda kiyinadigan, xushmuomala bo'lishi zarurligini uqtiradi. Yosh avlodni o'qitadigan hamda tarbialaydigan kishilar oldiga bir qancha talablar qo'yadi. Uning fikricha:

- 1) Tarbiyachi bolalar bilan muomalada bosiq bo'lishi kerak;
- 2) Muallim o'quvchilar ta'limni qanday o'zlashtirayotganini kuzatib borishi zarur;
- 3) O'qitish jarayonida muallim turli usullarni qo'llashi darkor;
- 4) Tarbiyachi o'quvchining xotirasi va boshqa aqliy qobiliyatini bilishi lozim;

5) Tarbiyachi o'z fikrini o'quvchiga bayon qilishdan oldin masalaning mohiyatiga o'zi tushunib olishi, keyin uni qisqa, aniq adabiy tilda tushuntirishi, bunda ko'p gapirishdan qochish lozim;

6) Har bir fikr haqiqat bilan tasdiqlanishi, bolalarda hissiyot uyg'otadigan bo'lishi zarur.

Binobarin, bu kabi fazilatlar o'qituvchining ta'lim-tarbiyadagi yuksak mahoratini belgilaydi va natijada jamiyat uchun xizmat qiladigan komil yosh yigit-qizlar voyaga yetadi.

Shunday qilib, mutafakkirlarning o'z asarlarida o'qituvchiga bir qator muhim fazilatlar mavjud bo'lishi kerakligini bayon qilganlar. Bularning qatoriga umumiy tarzda quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'qituvchi har tomonlama barkamol bo'lishi;
- o'zining yuksak hislatlari va his-tuyg'ulari bilan boshqa kasbdagi kishilarning ajralib turishi;
- bolalar ruhiyatiga oson kira olishi;
- darslarni o'zlashtirishda orqada qolgan o'quvchilar bilan individual ishlash;
- o'quvchilar diqqatini o'ziga torta olish;
- mustaqil ishlash va o'z mahorati, malakasini oshirish;
- pedagogik qobiliyat va odobga ega bo'lish.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Sharq va G'arb mutafakkirlarining o'qituvchi kasbi, uning mahorati haqidagi mulohazalari hozirgi kungacha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim omili ta'lim tizimida o'qituvchilar kasbiy kompetentligini yuqori darajada shakllantirilishi bilan uzviy bog'liq. Shu sababli, zamonaviy ta'lim texnologiyalari imkoniyatlaridan hamda yaratilayotgan o'quv uslubiy majmualardan unumli foydalanish negizida o'qituvchilar kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish dolzarb vazifalardan biri ekanligini belgilaydi.

O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda quyidagi bir qator ko'nikmalarga ega bo'lishi lozimligi belgilangan:

-o'qituvchilar o'z faoliyati jarayonida ibrat, namuna ko'rsatish bilan yoshlarning faolligini, his-tuyg'usini, hatti-harakatini rivojlantirishi va ta'sir eta olishi;

-har bir mashg'ulot uchun material tanlash, uni murakkablashtirish va oldingi hamda keyingilari bilan aloqasini ta'minlashni nazarda tutish, mashg'ulot o'yin, mehnat topshiriqlari va shu kabilarni yoshlarning yosh imkoniyatlari, ularni tarbiyalash va rivojlantirish istiqbollari hisobga olishi;

-pedagogik jarayonni o'qituvchilar jamoasi va yoshlar bilan ishlashni qamrab olib, ta'limiy-tarbiyaviy vositalar majmuidan foydalangan holda rejalashtirish.

-o'z ish o'rnini tashkil etish, zarur qo'llanma va hujjatlarni tayyorlash, ularni berilgan talablar asosida yuritishni belgilab olish.

Yuqorida keltirilgan fikrlar, ifodalangan ta'rif hamda tavsiflarning mazmun-mohiyati o'qituvchilik kasbini egallash hamda mazkur kasb yo'nalishida kompetentli mutaxassis bo'lish uchun o'ziga xos talablar mavjudligini ko'rsatishi

bilan bir qatorda, kompetentlik komponentlari bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyat, hislatlar hamda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishning asoslari va mazkur maqsadga yo'naltirilgan jarayonlarni alohida o'rganish zaruratini nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6-iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqishma-bosqish amaliyotga joriy etish shora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-son qarori.

3. Абу Наср Форобий "Бахт – саодатга эришиш йўллари ҳақида рисола". –Т. 1992, 120-б.

4. Вдовина С.А. "Профессионально – педагогическая компетентность и ее структура" Современные направления развития педагогической мысли и педагогика И.Е.Шварца. Материалы международной научно-практической конференции. 1-2-июня 2009 г., г. Пермь. Часть I.

5. Кузьмина Н.В. "Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения" Н.В.Кузьмина. М. 1990.

6. Махмудов С.Ю., Голиш Л.В., Нуриддинов Б., Алламуратов Ш., Ахметова К. Педагогический мониторинг: Проектирование и реализация. Экспериментальное методическое пособие из серии. "Что знать обучающему о современных технологиях обучения?". –Т.: ИРСНПО, 2001.

7. Муслимов Н.А. "Қасб таълими ўқитувчисини қасбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари" Пед. фан. док. дисс. –Т. 2007.

8. Умаралиева М.А. "Бошланғич синф ўқувчилари ўқув-билув фаолиятини шакллантиришда педагогнинг компетенциявий ёндашуви" Бошланғич таълим сифат ва самарадорлигини ошириш: муаммо ва ечимлар республика илмий-амалий конференция. 2014 й. 46-48-б.

9. Хазраткулова Ш.Н. «Совершенствование методов воспитания на занятиях в начальных классах». Международной научно-практической конференции. АЭТЕРНА. УФА. 1 августа 2022 г.

10. Khazratkulova Shoira Noraliyevna. Use of modern teaching methods in education of Students in primary schools. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal. Indiya. 2022 yil fevral. (123-126-b.)

11. Hazratqulova Sh.N. "Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasb madaniyati va mutaxassis modeli" NamDU ilmiy axborotnomasi – 2022-yil 10-son. www.journal.namdu.uz

12. Sh.N.Khazratkulova "Education directed to students in teaching the science of education in primary grades distinctive aspects". Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) April 2023.

МАКТАБ ФИЗИКА КУРСИДА “МОЛЕКУЛЯР ФИЗИКА ВА ИССИҚЛИК” БЎЛИМИНИ ЎРГАНИШНИНГ СТАТИСТИК ТАҲЛИЛИ

*Мирзамуратов Б.Ф.
ТерДУ, ўқитувчи*

Аннотация: Физик тизим хоссасини ўрганишнинг икки феноменологик методлари мавжуд. Иссиқликнинг молекуляр кинетик назарияси статистик физиканинг асосий қисмини ташкил этади. Иссиқлик ҳодисаларини ўрганиш жараёнида бу икки методдан фойдаланилади. Ўқувчиларни бу методлар билан дарсларда кўзда тутилган энг содда физик ҳодисалар орқали таништириш мумкин. Газлар молекуляр-кинетик назариясининг асосий тенгламасини келтириб чиқариш, газ молекулаларининг тартибсиз ҳаракати, Броун ҳаракати, кабилар ёрдамида ўқувчиларда баъзи статистик тасавурларни шакллантириш. бундан ташқари, IX синф ўқувчиларининг математик билимлари график ифодалардан (тўрт бурчакли координаталар системасидан) кенг фойдаланишга имкон беради. Молекуляр физика ва иссиқлик бўлимида турли изожараёнлар (V,P ; V,T ; P,T) даги график ифодалар ҳамда модда ҳолат диаграммасидаги ўзгаришларнинг график ифодалари катта ўқув аҳамиятига эга. Бу графиклар газларнинг ҳолатини, иссиқлик жараёнлари бориши динамикасини очиб беради.

Калит сўзлар: механик, зарра, молекула, атом, ион, термодинамик, кристалл, кристалланиш, конденсация, буғланиш, статистик, материя, омил, структура, дискрет, микростатик, гипотеза, эксперимент, гравитация, дедукция, индукция, метод, идеал газ, қотишма, пластмассалар, яримўтказгич.

Умумтаълим мактабида физика курсининг асосий бўлими молекуляр физика бўлиб, жисмларнинг механик ва иссиқлик хоссаларини, жисмларнинг тузилиши, уларнинг зарралар-молекуляр атомлар, ионлар орасидаги ўзаро таъсир кучларини иссиқлик ҳаракати тавсифига боғлиқ ҳолда ўрганади. Шу боис молекуляр физикада моддаларнинг уч ҳолатда бўлиши, кристалл жисмларнинг эриши ва кристалланиши, конденсация ва буғланиш, моддаларнинг уч ҳолати чегарасида бўладиган ҳодисалар ўрганилади.

Иссиқликнинг молекуляр-кинетик назарияси яратилишида статистик физикага асос солинди. Статистик физиканинг вазифаси, хоссалари, маълум бўлган кўп сонли зарралар (молекула, атом ва бошқалар) дан ташкил топган, макроскопик физик системалар хоссаларининг ўрганиш эди. Физик система хоссасини ўрганишнинг икки феноменологик (жисмларнинг молекуляр тузилиши қаралмайди) ва статик (ички тузилиш) методлар мавжуд. Иссиқликнинг молекуляр-кинетик назарияси статистик физиканинг асосий қисмини ташкил этади. Иссиқлик ҳодисаларини ўрганиш жараёнида бу икки методдан ҳам фойдаланилади. Ўқувчиларни бу методлар билан ўқув дарсларида кўзда тутилган энг содда физик ҳодисалар мисолида таништириш мумкин. Газлар молекуляр кинетик назариясининг асосий тенгламасини чиқариш, газ молекулаларининг

тартибсиз ҳаракати, Броун ҳаракати, кабилар ёрдамида ўқувчиларда баъзи статистик тасаввурларни шакллантириш мумкин.

Механикани ўрганишдан молекуляр физикани ўрганишга ўтиш ўқувчиларнинг билиш, оламни физик маънода тушуниш ва илмий дунёқарашини шакллантиришда муҳим босқич ҳисобланади. Ўқувчиларга молекуляр физикадан бошланғич билим берилганда табиатни билишда физиканинг салмоғини кўрсата билиш керак. Физик олимлар молекулаларни кўрмасдан туриб, уларни ўлчамларини била олганлигига ўқувчилар диққатини қаратиш зарур. Бу ўз навбатида хоссалари аввалдан белгиланган материаллар яратишга имкон беради. Молекуляр физикада ўқувчилар материя ҳаракатининг янги шакли иссиқлик билан танишадилар, бу ерда классик механикада фойдаланилмаган физик катталиқ температура киритилади.

Механик ҳодисаларга қараганда иссиқлик ҳодисасининг янги сифатига икки омил модда тузилишининг дискретлигини ва ўрганилаётган физика системани ташкил этган ўзаро таъсирлашувчи зарралар (молекула, атом) сонининг кўплиги сабаб бўлади, мактаб физика курси молекуляр-кинетик тасаввурлар асосида газ босими ва температураси тенгламаларини келтириб чиқаришини тушинтирамиз. Биламизки, газ босими:

$$E_k = \frac{n \cdot m \overline{v^2}}{3} \cdot \frac{2}{2} = \frac{2}{3} n \frac{m \overline{v^2}}{2} \quad \text{молекулаларнинг кинетик энергияси, у ҳолда}$$

газнинг кинетик энергиясини ҳисобга олсак, унинг босими:

$$P = \frac{2}{3} n E_k \quad \text{га тенг бўлади.}$$

бу ерда n - молекуляр концентрацияси.

$\frac{m \overline{v^2}}{2}$ - идеал газ молекулаларининг илгариланма ҳаракатидаги ўртача кинетик энергияси. k - Больцман доимийси.

Бу тенгламалар газларнинг макроскопик параметрлари (P - босим ва T - температура) билан газ молекулаларининг ўртача кинетик энергияси, яъни молекулаларнинг ўртача тезлик ва массаси каби микростатик катталиқлар орасидаги боғланишларни ифодалайди.

Бу боғланишлар статистик маънога эга. Шунинг учун молекуляр кинетик назария асосида келтириб чиқарилган газ қонунлари статистик қонун ҳисобланади. Табиатда каерда системани ташкил этган кўп сонли зарралар иштироқ этган бўлса, ўша ерда бу қонунлар ўринли бажарилади. Ҳозирги вақтда моддаларнинг молекуляр тузилиши гипотеза бўлмай экспериментда тўла тасдиғини топди. Бу тасаввурлар А.Эйнштейн, М. Смолуховскийларнинг назарий ишларида, Броун, Пирренларининг экспериментал текширишларида тўла тасдиғини топди. Кундалик тажрибалардан маълумки, физик катталиқлар киритилганда уларни ўлчаш усуллари тушунтириб берилиши керак. Бироқ мактаб курсига Авогадро сони киритилганда уни экспериментал аниқлаш йўллари баён этилмаган.

Бунга сабаб, Авогадро сони (ёки бошқа физик катталиклар) учун формула чиқариш бирмунча методик қийинчиликларига боғлиқ. Бироқ, агар тегишли формулаларни келтириб чиқаришни эмас, ўлчаш учун бажариладиган тажрибаларнинг мохиятини баён этиши мақсад қилиб қўйилса, бу қийинчиликлардан қутилиш мумкин. Мактабда масалан гравитацион доимий (g) нинг қийматини аниқлаш ёки Резерфорд тажрибасидаги α зарраларнинг бурчакли сочилишини ўрганиш тажрибаси шундай қилинган. Бу эса Авогадро сонини аниқлашда ҳам бундай усулдан фойдаланиш мумкин деган хулосага олиб келади.

Мактаб физика курсида молекулаларнинг ўлчамлари, масса ва тезликларни, Авогадро сонини аниқлаш, газ молекулаларининг тезликлари бўйича тақсимланишини тажрибада исботлаш имконияти мавжудлигини кўрсатувчи бир усулни қараш кўзда тутилади. Физик катталикларни аниқлашни бир неча усуллари бўлса ҳам, вақтнинг чегараланганлиги туфайли ҳаммаси ҳақида маълумот бера олмаймиз. Физикада молекула катталикларини аниқлашга доир кўплаб тажрибаларни мактабда кўрсатиб бўлмаса бу тажрибаларни баён қилиш, ўқув фильмлари ёрдамида кўрсатиш (молекуляр ва молекулалар ҳаракати ўқув фильми “Штерн тажрибаси”), шунингдек тажриба ғоясини тушунтирувчи моделлар, асбоб ва қурилмалар тузилишини кўрсатиш билан мақсадга эришиш мумкин. Шунини ҳисобга олиб, юқори синфларда ўқув материални баён қилишда дедуктив методдан фойдаланиш лозим. Бунга сабаб қуйидагилар:

Биринчидан дедуктив метод - ўқувчилар тафаккурини ривожлантиради.

Иккинчидан, дедуктив методдан фойдаланиш имконияти табиатнинг фундаментал қонунлари айтарли кўп эмаслигини тасдиқлайди. Улардан хусусий ҳол сифатида алоҳида қонунлар ҳосил бўлиб, фан тараққиётида мустақил бўлиб қолган. Масалан, кейинги вақтларда идеал газ ҳолат тенгламаси фундаментал физик қоида кучини эгаллади, газ қонунлари (Бойль-Мариот, Гей-Люссак, Шарль қонунлари) бу тенгламанинг хусусий ечимлари ҳисобланади. 1990 йилгача бўлган ўқув адабиётлари эса аввал Бойль-Мариот, Гей-Люссак қонунларини ўрганиб, сўнгра идеал газ ҳолат тенгламасини келтириб чиқарар эди. Бунга нисбатан янги методика анча қулай ва тушунтириш ҳисобланади. Газ қонунларини ўрганишда ўқувчилар хотираси айрим-айрим маълумотлар билан ортиқча тўлдирилмайди.

Учинчидан, дедукция кучайтирилганда, умумий қоидаларни чиқариш ўқувчиларнинг математикадан олган билимларидан кенгроқ фойдаланишлар имкон беради. Бу билан физика билан математика орасида боғланиш амалга оширилади.

Бундан ташқари, IX синф ўқувчиларининг математик билимлари график ифодалардан (тўрт бурчакли координаталар системасидан) кенг фойдаланишга имкон беради. Молекуляр физика ва иссиқлик бўлимида турли изожаараёнлар (V,P ; V,T ; P,T) даги график ифодалар ҳамда модда агрегат ҳолатлари диаграммасидаги ўзгаришларнинг график ифодалари

катта ўқув аҳамиятига эга. Бу графиклар газларнинг ҳолатини, иссиқлик жараёнлари бориши динамикасини очиб беради.

Моддаларнинг молекуляр тузилишини ўрганиш материалшунослик масалаларида махсус аҳамият касб этмоқда. Аввалдан берилган хоссали материаллар яратиш ҳозирги вақтда механик жиҳатидан муҳим масала ҳисобланади. Бу ҳақида рус академиги А.Ф. Иоффе шундай деган эди: “Ҳозирги замон техникаси машиналарда темир ва пўлат, электротехникада мис ва смолалар, қурилишда ғишт, ёқилги сифатида кўмир ва нефть каби материалларни тор доирасидан аллақачон чиқиб кетган. Янги вазифаларнинг ҳар бири алоҳида ҳол учун махсус янги материаллар талаб қилади. Рангли ва енгил қотишмалар, пластмассалар, яримўтказгичлар, янги қурилиш материаллари ва бошқа кўпдан кўп материаллар пайдо бўлди.

Янги материалларнинг ҳар бири ўзига хос хусусиятлари унинг афзалликларини тушунтириш учун унинг атомларини бир бутун боғлаб турувчи ҳамда уларни ўзаро бир бирига боғлаб турувчи кучларини табиатини билиш керак. Кристалл ёки шишани ҳосил қилувчи, эриш ва бўғланишни юзага келтирувчи, кимёвий кучларни (керамика, ғишт, цемент) боғловчи органик дунёнинг турли кўринишларини ҳосил қилувчи кучларнинг табиатини билиш керак!”

Кейинги йилларда фаннинг янги физикавий-кимёвий деган фанлараро боғланиш соҳаси яратилди. Бу соҳа механик хоссалари тузилиши олдиндан маълум бўлган қаттиқ жисмлар қурилиш ва констоварь материаллари ҳосил қилиш усуллари ва қонунларини, бу хоссаларнинг тузилиш ва ташқи таъсирга боғлиқлигини аниқлаб беради. Бу янги физикавий кимё фани кўп жиҳатдан қаттиқ жисм молекуляр физикасига асосланган.

Ҳозирда умумтаълим мактабларида ўрганилаётган қаттиқ жисм физикасини ҳозирги замон фанидаги аҳамиятига кўра шундай хулосага келиш керакки, мактаб физика курсининг молекуляр физика бўлимида қаттиқ жисмлар механик ва иссиқлик хоссаларининг баёни, эластиклик, пластиклик, мўртлик ва қаттиқлик каби макроскопик тавсифларини тушунтириши билан бирга, хоссаларининг модда тузилиши билан боғлиқлигини кўрсатиш керак.

Таъкидлаб ўтиш жоизки, 1990 йилгача фойдаланилган 10- синф физика дарсликларида аввал газ қонунларидан Бойль-Мариот, Гей-Люссак, Шарль қонунлари асосида Клапейрон тенгламаси келтириб чиқарилар эди. Бунда ҳар хил қонунни ўрганишда алоҳида соат ажратилар, натижада, вақтдан ютқазилар эди. Бу эса методик жиҳатдан нотўғри. Ҳозирда Клапейрон тенгламасининг хусусий ҳоли сифатида газ қонунларини ҳозирги методик адабиётларда ҳамда дарсликларда баён қилингандек ўтилса мақсадга бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзахмедов Б., Ғофуров Н., Ибрагимов Б., Сагатова Г. Физика ўқитиш методикаси. Қўлланма. Тошкент, 2007й.

2. Мирзахмедов Б.М., Мамадиёров Н.М.. Ўрта мактабда физика ўқитиш методикаси. Гулистон. 1992.

3. THE ROLE OF PEDAGOGICAL INNOVATION IN THE PROBLEM-BASED TEACHING OF PHYSICS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. EUROPEAN JOURNAL OF RESEARCH DEVELOPMENT AND SUSTAINABILITY. <https://scholarzest.com/index> ISSN(E):2660-5570. Journal Impact Factor: 7,455 Volume 2, Issue 4 April, 2021. 298-300

РОЛЬ УЧИТЕЛЯ В КОМПЕТЕНТНОСТНОМ ПОДХОДЕ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ: КЛЮЧЕВЫЕ АСПЕКТЫ И ЗАДАЧИ

Нурмаматов Бобур Батирович

Преподаватель Термезского государственного педагогического института

Аннотация

В данной статье рассматривается роль учителя в компетентностном подходе в начальном образовании. Автор подчеркивает, что учитель выступает в роли организатора и планировщика образовательного процесса, создавая целостную и интегрированную образовательную среду. Он также является организатором сотрудничества и кооперации, стимулируя учащихся к совместной работе и взаимодействию. Кроме того, учитель выступает в роли наставника и поддержки, помогая учащимся развивать навыки самостоятельного мышления и уверенности в своих способностях. Реализация этих ролей учителя способствует эффективной реализации компетентностного подхода и развитию компетенций учащихся.

Ключевые слова: роль учителя, компетентностный подход, начальное образование, организатор образовательного процесса, планировщик, сотрудничество, кооперация, наставник, поддержка, интегрированная образовательная среда, самостоятельное мышление, уверенность, развитие компетенций.

В современной педагогике компетентностный подход занимает центральное место в образовательном процессе. Компетентностный подход – это совокупность общих принципов определения целей образования, отбора содержания образования, организация образовательного процесса и оценки образовательных результатов [1]. Для определения сущности нового, компетентностного подхода в образовании, проанализируем понятие «компетентность». В переводе с латинского языка это слово означает круг вопросов, в которых человек хорошо осведомлен, обладает познаниями и опытом. По А.В. Хуторскому, человек, компетентный в определенной области, обладает соответствующими знаниями и способностями, позволяющими ему обоснованно судить об этой области и эффективно действовать в ней. И.А. Зимняя под компетентностью понимает основывающийся на знаниях, интеллектуально и личностно обусловленный опыт социально-профессиональной жизнедеятельности человека [2]. Он направлен на

развитие у учащихся не только знаний, но и навыков, умений и ключевых компетенций, необходимых для успешной адаптации и самореализации в современном обществе. По исследованиям Г. К. Селевко, – это качества, приобретенные через проживание ситуаций, рефлексию опыта [3].

В начальном образовании роль учителя играет особенно важную роль в организации компетентностно-ориентированного обучения. В данной статье мы рассмотрим ключевые аспекты роли учителя в компетентностном подходе и задачи, которые он должен выполнять для эффективной реализации этого подхода.

Организатор и планировщик образовательного процесса: одной из главных задач учителя в компетентностном подходе является организация и планирование образовательного процесса. Учитель должен определить ключевые компетенции, которые необходимо развить у учащихся, и структурировать содержание обучения с учетом этих компетенций. Он должен разработать целостный учебный план, включающий различные предметы и дисциплины, чтобы обеспечить интегративный подход к обучению. Учитель также должен уметь гибко планировать уроки, учитывая индивидуальные потребности и особенности каждого ученика. Он должен разработать целевые ориентиры и планы уроков, учитывая потребности и возможности каждого ученика.

Важным аспектом планирования является интеграция различных предметных областей и дисциплин. Учитель должен находить связи и перекрестные точки между различными предметами, чтобы создать единое и цельное образовательное пространство. Например, при изучении темы "Путешествия" учитель может объединить предметы географии, истории, литературы и искусства, чтобы стимулировать у учащихся развитие различных компетенций одновременно.

Организатор сотрудничества и кооперации: Компетентностный подход акцентирует внимание на развитии социальных и коммуникативных навыков учащихся. Учитель играет роль организатора сотрудничества и кооперации в классе. Он создает условия для совместной работы и взаимодействия учащихся, поощряет коллективное решение задач и проектную деятельность.

Учитель стимулирует учеников к активному общению, обмену идеями и мнениями, сотрудничеству в группах и командах. Он осуществляет роль модератора, помогая учащимся разрешать конфликты, учиться работать в команде и принимать решения вместе.

В 2003 г. выходит монография А.В. Хуторского «Дидактическая эвристика. Теория и технология обучения», в котором излагается оригинальная научно-педагогическая концепция эвристического обучения. Учащимся предлагается открывать знания, сравнивать их с культурно-историческими аналогами, выстраивая при этом индивидуальную траекторию собственного образования, в процессе чего непрерывно идет процесс формирования ключевых компетентностей [4].

Наставник и поддержка: учитель в компетентностном подходе выступает в роли наставника и поддержки для учащихся. Он не только передает знания и информацию, но и активно содействует развитию навыков самостоятельного и критического мышления, пробуждает интерес к самообразованию и поиску новой информации.

Учитель ставит перед собой задачу помочь каждому ученику раскрыть свой потенциал и достичь максимальных результатов. Он учитывает индивидуальные особенности каждого ученика, его интересы и потребности, создавая подходящие условия для развития его компетенций. Учитель также оказывает поддержку в трудных ситуациях, помогая учащимся преодолевать трудности и развивать уверенность в своих способностях.

Содействие самостоятельности и активности учащихся: в компетентностном подходе учитель не является источником знаний, а скорее наставником и содействует активной и самостоятельной работе учащихся. Учитель создает условия, способствующие развитию творческого мышления, проблемного и проектного подхода, а также способствует развитию учебной мотивации и саморегуляции учащихся. Он стимулирует их активное участие в учебном процессе, поощряет самостоятельное поиск решений, анализ и оценку полученных результатов.

Фасилитатор и наставник: учитель в компетентностном подходе выступает в роли фасилитатора и наставника. Он создает условия для развития коллективного и сотрудиического взаимодействия между учащимися, стимулирует коммуникацию и сотрудничество. Учитель помогает учащимся осознать свои сильные стороны, развить свои таланты и умения. Он также помогает учащимся развить навыки критического мышления, анализа и рефлексии, что способствует самооценке и саморазвитию.

Оценщик и обратная связь: учитель в компетентностном подходе играет важную роль в оценке учебных достижений и обратной связи. Он должен применять разнообразные методы оценки, учитывая не только знания, но и навыки, умения и компетенции учащихся. Учитель также предоставляет обратную связь учащимся, помогая им понять свои сильные и слабые стороны, а также указывая на возможности для дальнейшего роста и развития.

Роль учителя в компетентностном подходе в начальном образовании является неотъемлемой и многоаспектной. Он выступает в роли организатора, планировщика, фасилитатора, наставника и оценщика. Учитель активно содействует развитию ключевых компетенций у учащихся, создает условия для их самостоятельности, активности и творчества. Он способствует формированию учебной мотивации и саморегуляции учащихся, а также оказывает поддержку и обратную связь. Реализация компетентностного подхода требует от учителя гибкости, творчества и глубокого понимания потребностей и возможностей каждого ученика.

Список литературы

1. Иванова Е. О. Компетентностный подход в соотношении со знаниево-ориентированным и культурологическим // Дистанционное образование: курсы, олимпиады, конкурсы, конференции: сайт дистанционного образования «Эйдос». – URL: <http://www.eidos.ru>
2. Компетентностный подход в педагогическом образовании: Коллективная монография / Под. ред. В. А. Козырева, Н. Ф. Радионовой, А. П. Тряпицыной. СПб., 2005. – 21 с.
3. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – М.: Народное образование, 1998. – 225 с.
4. Востриков В. А. Основы теории и технологии компетентностного подхода в элитной школе. Авторская модель. Монография. Томск, 2006. – 143 с
5. Мерзлякова, Н. С. Компетентностный подход в образовании: теория и практика / Н. С. Мерзлякова, О. И. Берестова. - Москва: Издательство "Дрофа", 2018.
6. Селиверстова, Л. В. Роль учителя в компетентностном образовании: от понимания к проявлению / Л. В. Селиверстова // Вестник Московского университета. Серия 14. Педагогика. - 2017. - № 3. - С. 136-144.
7. Компетентностный подход в начальном образовании: опыт и перспективы / под ред. И. В. Алехиной. - Москва: Издательство "Просвещение", 2015.
8. Селевко, Г. К. Компетентностный подход в педагогике: история и современность / Г. К. Селевко. - Москва: Издательство "Педагогика", 2013.

УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ФИЗИКАНИНГ “МЕХАНИКА” БЎЛИМИГА ДОИР ЭКСПЕРИМЕНТАЛ МАСАЛА ТАСНИФИ ВА УЛАРНИ ЕЧИШ МЕТОДИКАСИ

*Раимов Ғайрат Файзуллаевич, Термиз давлат университети доц. в.б.,
педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD).*

Аннотация. Мақолада физиканинг “Механика” бўлимига доир турли типдаги ностандарт масалалар таклифи ва уларни ечиш методикаси ҳақида фикр-мулоҳаза юритилган.

Калит сўзлар: сифат, ностандарт, индукция, дедукция, метод, эксперимент, ҳодиса, жараён, намойиш, куч, босим, жисм, таянч, тушунча, тип, экспериментал, давр, моҳият, ностандарт.

II. Экспериментал масалалар.

Экспериментал масалаларнинг тавсифли хусусияти уларни ечишда лаборатория ёки намойиш тажрибадан фойдаланиш.

Намойиш тажрибага асосланган ностандарт масалаларни ечишда намойиш тажрибанинг барча шартларига амал қилган ҳолда қўйилиши керак. Бунда асбоблар ва ҳодисаларнинг яхши кўринаётганлигига алоҳида эътибор бериш лозим. Асбобларни ишлатишга кўпинча, намойиш столи олдида чиқарилган ўқувчилар жалб қилинади. Бунда улар намойишнинг бу

томонига эътибор бермайдилар. Шунинг учун ўқитувчи бу нарсага, албатта, аҳамият бериб бориши керак.

1-масала. Қандай усул билан полда турган одам ўзининг полга босимини икки баробар ошириши мумкин?

Энг аввало, бўлаётган ҳодисанинг физик моҳияти аниқланади. Масалада босим сўралапти. Босим p куч F нинг ана шу куч таъсир қилаётган

S юзага нисбати билан аниқланади, яъни $p = \frac{F}{S}$. Шундай қилиб, бериладиган босим кучи F га, у таъсир қилаётган S юзага боғлиқ бўлади.

Агар худди шу юзага таъсир қилувчи босим кучи икки марта ортса, босим ҳам икки марта ортади. Одам қўлига ўз оғирлигига тенг бўлган юк олганда ана шундай бўлиши мумкин. Бироқ босимни икки марта орттиришнинг бошқа йўли бор, таянч юзини икки марта камайтириш мумкин. Бунинг учун одам бир оёқда туриши ва ўз мувозанатини йўқолий таълим муассасааслик учун ўз вазиятини бирмунча ўзгартириши етарли.

Намойиш тажрибага оид масалаларга қуйида бир нечта мисол келтирамиз:

2-масала. Елкалари тенг бўлган ричагнинг икки учига массалари тенг, лекин ҳажмлари турлича бўлган жисмлар осилган.

Агар жисмлар сув туширилса, мувозанат сақланадими?

Жавоб. Суҳбат жараёнда жисмлар сувга ботирилганда уларга итариб чиқарувчи куч таъсир қилиши аниқлаб олинади. Бу кучнинг катталиги жисмнинг ҳажмига ва суюқликнинг зичлигига мутаносиб бўлади. Ҳажми кичикроқ жисмга камроқ итариб чиқарувчи куч таъсир қилади. Шунинг учун сувда кичикроқ ҳажмдаги жисм ричаг учини кўпроқ тортади. Жавобни тажрибада текшириб кўринг.

3-масала. Гидравлик пресс моделидан фойдаланиб поршенларнинг кўтарилиш катталиги билан уларнинг юзалари катталиги орасидаги боғланишни аниқланг.

4-масала. Пружинани даражаланг ва унинг узайишини қўйилган куч катталигига боғлиқлигини формула билан ифодаланг.

IV. Ҳисоблашга доир масалалар.

Ҳисоблашга доир масалаларни ечиш методлари уларнинг мураккаблигига, ўқувчиларнинг тайёргарлигига, ўқитувчининг қўйган мақсадига ва бошқа кўпгина сабабларга боғлиқ.

Ҳисоблашга доир масалаларни ечиш методлари ёки усуллари уларда қўлланиладиган математик аппаратга кўра, арифметик, алгебраик, геометрик, график усулларга бўлинади. Ечиш жараёнида фойдаланиладиган мантиқий амаллар тавсифига қараб аналитик, синтетик ёки аналитик – синтетик методларга бўлинади.

Арифметик метод. Бу методда физик катталиклар устида фақат арифметик амаллар бажарилади. Механикага доир ностандарт масалалар худди арифметика дарсларидаги масалалар сингари ечилади: формулаларни қўлламаздан саволлар ёзилади. Арифметик метод мактабда


механика ўқитишнинг бошланғич даврида, яъни ҳали ўқувчилар алгебрадан тегишли билимга эга бўлмаган ёки физикавий формулаларга кирган катталиклар орасидаги боғланишни чуқур тушунмаган пайтда қўлланилади.

Баъзан арифметик методнинг ўзига хос хусусияти унда ҳарфий ифодаларда эмас, балки бунда тенгламалар тузилмаслигида ва тенглама ечилмаслигида. Масалани арифметик метод билан, бироқ ҳарфий ифодаларни қўллаб ечишга мисол келтирамиз. Архимед қонунига тегишли масалани олайлик, бу қонундаги тегишли катталикларнинг ҳарфий ифодаларини ўқувчилар биладилар.

Масала. 25 дона қарағай ёғласидан ясалган сол чучук сувда энг кўпи билан қанча юк кўтара олади? Ҳар бир ёғланинг ҳажми $0,8 \text{ м}^3$.

Масаланинг шартини тушунгач, аввал чизма чизамиз (1-расм). Ечимини саволлар билан олиб борамиз.

1. Сол ёғлаларининг ҳажми қанча? $V = 0,8 \text{ м}^3 \cdot 25 = 20 \text{ м}^3$.
2. Солнинг массаси қанча? Жадвалдан 1 м^3 қарағай ёғочининг массаси 500 кг эканлигини топамиз. $m_{\text{сол}} = 500 \text{ кг} \cdot 20 = 10000 \text{ кг}$.
3. Солнинг оғирлиги қанча? $P = 9,8 \text{ Н} \cdot 10000 = 98000 \text{ Н}$.
4. Сол сувга бутунлай чўктирилганда сиқиб чиқарган сувининг массаси қанча? Жадвалдан 1 м^3 сувнинг массаси 1000 кг эканлигини топамиз. $m_{\text{сув}} = 1000 \text{ кг} \cdot 20 = 20000 \text{ кг}$.
5. Сиқиб чиқарилган сувнинг оғирлиги қанча? $P_{\text{сув}} = 9,8 \text{ Н} \cdot 20000 = 196000 \text{ Н}$.
6. Юкнинг оғирлиги қанча? $P = 196000 \text{ Н} - 98000 \text{ Н} = 98000 \text{ Н}$.



1-расм.

Алгебраик метод. Бу методда ўқувчиларнинг алгебрадан олган билимларидан фойдаланилади, формулалар ишлатилади, тенгламалар тузилади ва ечилади.

Алгебраик метод қўлланиладиган энг содда ҳол масалаларни ечишда тайёр формулалардан фойдаланилади.

Мураккаброқ масалаларда изланаётган катталик ҳисобланадиган охириги муносабатни бир неча формулалар ёки тенгламалар системасидан фойдаланиб топилади.

Геометрик метод. Масалаларни геометрик метод билан ечишда изланаётган катталикни ўқувчиларга маълум бўлган геометрик

муносабатлардан топилади. Геометрик методдан статикада, геометрик оптикада, электростатикада ва физиканинг бошқа бўлимларида кенг фойдаланилади.

Масалани геометрик методдан фойдаланиб ечишга куйида мисол келтирамиз.

Масала. Узунлиги $\ell = 10$ м бўлган троснинг ўртасига $m = 10$ кг массали фонарь осилган. Агар эгилиш стреласи $h = 0,5$ м бўлса, троснинг таранглик кучи нима тенг бўлади?

Чизмани чизамиз (6-расм). Оғирлик кучи P ни трос бўлаклари бўйлаб

йўналган F_1 ва F_2 ташкил этувчиларга ажратамиз (2-расм). $F_1 = F_2$.
 $MN = \frac{F^2}{2}$
 ва $\Delta OMB \sim \Delta MNF_1$ эканлигини исбот қилиш қийин эмас. У

учбурчакларнинг ўхшашлигидан: $\frac{BM}{OM} = \frac{F_1 M}{MN}$. Эгилиш стреласи унча катта


бўлмагани учун $MB = \frac{\lambda}{2}$ деб оламиз, у ҳолда $\frac{\lambda}{2h} = \frac{2F_1}{P}$ бўлади.

$$F_1 = \frac{P\lambda}{4h} = \frac{m g \lambda}{4h} = \frac{10 \text{ кг} \cdot 9,8 \frac{\text{М}}{\text{с}^2} \cdot \lambda O M}{4 \cdot 0,5 \text{ м}} = 490 \text{ Н}.$$

Бундан

Троснинг биз излаётган таранглик F_1 кучга тенг ва унга қарама-қарши йўналган.

Масалаларни геометрик методда ечиш фақат геометрик муносабатдан эмас, шунингдек, тригонометрик формулалардан ҳам фойдаланилади.



2-расм.

2022

1. Мактабда механикадан ностандарт масалалар ечишнинг ўзига хос психологик, педагогик, дидактик, методик хусусиятлари ёритиб берилди.

2. Мактабда механикадан ностандарт масалалар ечиш ўқувчиларнинг дастур материалларини мустаҳкам, чуқур ва пухта ўрганишларига ёрдам бериши ҳамда физик тушунча, ҳодиса, жараён, қонун- қонуниятларни онгли ўзлаштиришлари аниқланди.

3. Мактабда механикадан ностандарт масалалар ечишнинг илмий (физик) асосларини билиш долзарб муаммолардан бири эканлигига қарамасдан, ҳозирги пайтда бу муаммога таълим жараёнида жиддий эътибор берилиши лозимлиги аниқланди.

4. Мактабда механикадан ностандарт масалалар ечиш ўқув- тарбиявий жараёни такомиллаштириш талабларига мувофиқ бўлиши,

ўқув режа ва дастурига зид бўлмаслиги, ўқувчиларга ортиқча юклама бўлмаслиги психологик, педагогик, дидактик, методик нуқтаи назардан асосланди.

5. Мактабда механикадан ностандарт масалалар ечиш, жумладан, дарс мазмуни ва сифатини оширишга ёрдам бериши олиб борилган педагогик тажриба- синов жараёнида тасдиқланди.

6. Мактабда механикадан ностандарт масалалар ечиш жараёнида ўқувчиларнинг эркин ва мустақил ижодий фикрлашлари, фаолликлари ортди.

7. Мактабда ўқувчиларнинг физикага бўлган қизиқишлари ортиши натижаси бўлиб, уларда муҳими илмий дунёқараш, абстракт тафаккур ва мантиқий мулоҳаза- мушоҳада юритиш шаклланди, бундан ташқари, уларда эгалланган назарий билимларни амалиётга қўллай билиш, аниқроғи, уларни ҳаётга тайёрлаш кўникма, малака ва компетенциялар шаклланди.

Адабиётлар:

1. Вилькеев Д.В. Педагогическая психология. - Казань, 1994.
2. Выготский И.С. Психология развития человека. -М.: ЭКСМО, 2005. -1135 с.
3. Грайсман. А.Л. Медицинская психология / А. Л. Грайсман.— М., 1997.
4. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психологияси. -Тошкент: ЎзМУ, 2010. -238 б.
5. Демкович В.П. Физикадан савол ва масалалар тўплами. Ўрта мактаб учун. -Ташкент: Ўқитувчи, 1971. -217 с.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SO'Z MORFEMIK TARKIBINI O'RGATISH METODIKASI

*Hazratkulova Shoira Noraliyevna- Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi
Nazarova Maftuna Farxodovna Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili darslarida asarning til xususiyatlarini adabiy tushunchalar bilan muvofiq holda o'rganishning nazariy masalalari hamda so'z morfemik tarkibini o'rgatish bo'yicha metodikalar yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion texnologiya, morfemik tarkib, so'z tarkibi.

Jahonda ta'lim oluvchilarning lingvistik va nutqiy kompetentsiyasini shakllantirishda badiiy asarlardan foydalanish, matn tahlili orqali tilga oid bilimlarni chuqurroq egallash, ona tili darslarida asarning til xususiyatlarini adabiy tushunchalar bilan muvofiq holda o'rganishning nazariy masalalari tadqiq etilmoqda. Ona tili va o'qish fanlarini integratsiyalab o'rgatish, matnning til xususiyatlarini adabiy tushunchalar asosida o'rganish, badiiy asarlardan o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish maqsadida foydalanish

orqali ta'lim sifatini oshirish kabi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda umumta'lim fanlari, jumladan, ona tili va o'qish fanlarini o'qitishning uzluksizligi va izchilligi ta'minlandi, ta'lim-tarbiya mazmunining me'yoriy-huquqiy asoslari takomillashtirildi, moddiy-texnik bazasi yaratildi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish" ta'lim sohasidagi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangani hamda ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarida ona tili va o'qish fanini o'qitishning hamda ushbu soha bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish, fanlar integratsiyasi asosida ta'lim mazmuni va usullarini takomillashtirish, ona tili fanini o'qish fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish, bugungi kundagi darsliklar imkoniyatlarini nazarda tutish masalalarini maxsus tadqiq etish, o'quvchilarning nutqiy kompetentsiyasi hamda ijodiy tafakkurini talab darajasida shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili va o'qish savodxonligi darslarini tashkil qilish murakkab jarayondir. Sababi boshlang'ich sinf o'quvchilari bir xillikdan zerikib qolishadi. Bunda o'qituvchi pedagogik mahoratini ishga solgan holda darsni noan'anaviy shaklda olib borsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Darslarda ko'proq ularni qiziqtirish uchun innovastion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, hamkorlikka asoslangan o'quvchilarning faolligini oshirishga mo'ljallangan o'quvchilarni boshqarish fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o'zgarlar manfaati bilan hisoblashish, ularga o'rgatish, ta'sir qila olish, o'zining va boshqalarning "men"nini sezish, his qilish, o'zini boshqarish fikrini aniq, lo'nda va puxta bayon eta olishga o'rgatishdan iboratdir.

O'quv dasturlariga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari so'zning tarkibi bilan dastlab 2-sinfdaligidayoq tanishadilar, ular o'zakdosh so'zlarning umumiy qismini topishga o'rganadilar. 3-sinfda esa o'zak so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarini o'rganadilar va shu mavzular bo'yicha mashqlarni bajaradilar. 4-sinfda esa o'quvchilarning 2-3 sinflarda so'z tarkibi yuzasidan olgan bilimlari, malaka va ko'nikmalari amaliy mashqlar jarayonida mustahkamlab, kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi. Bu mavzuni takrorlashga jami 5 soatgina vaqt ajratilgan, xolos. O'quvchilar iloji boricha ko'proq o'zakdosh so'zlar, so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarini topishlariga e'tibor beriladi. So'z tarkibini tahlil qilishda esa o'quvchilar o'zak va qo'shimchalarni topish va ularni ko'rsatibgina qolmay, balki ulardan shu so'zni to'g'ri eshita olish, to'g'ri talaffuz qilish va to'g'ri yoza olishlariga erishish talab etiladi. Buning uchun esa so'z tarkibini aniqlashga oid mashq og'zaki yoki yozma ravishda o'tkazib boriladi. So'z tarkibi yuzasidan olib boriladigan mashqlar o'quvchilarda so'z va uning yozilishiga ongli ravishda qarashni tarbiyalaydi. O'quvchilar so'zning morfemik tarkibini va so'z yasalishini o'rganishlariga qarab, so'zni morfemalarga ajratishdan ongli foydalana boshlaydilar.

So'zda morfemaning ahamiyatini anglash, shuningdek, qo'shimchalarning semantik ma'nosini bilish o'quvchilarda nutqning aniq shakllanishiga ta'sir etadi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarning so'zning leksik ma'nosini tushunibgina

qolmay, kontekstda aniq qo‘shimchali so‘zlardan ongli foydalanishlarini ham o‘rgatish hisoblanadi. So‘zning morfemik tarkibini o‘rganish imloviy malakalarni shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarga so‘z tarkibi va yasalishini o‘rgatishda quyidagi metodikadan foydalanish maqsadga muvofiq. Boshlang‘ich sinflar ona tili dasturiga muvofiq so‘zning morfemik tarkibi 3-sinfda o‘rganiladi. 4-sinfda so‘z turkumlarini o‘rganish bilan bog‘liq holda so‘zning tarkibi haqidagi bilimlarni takomillashtirish ko‘zda tutiladi. Avvalo, til materialini o‘rganish tizimi nimaligini aniqlab olish zarur. Til materialini o‘rganish tizimi deganda aniq, ilmiy asoslangan izchillikdagi va o‘zaro bog‘lanishdagi bilimlar yig‘indisini o‘zlashtirishni ta‘minlaydigan maqsadga qaratilgan jarayon, shuningdek, shu asosda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish tushuniladi. So‘zning morfemik tarkibiga tatbiq qilganda, tizim s‘z yasalishiga oid va grammatik bilimlarni o‘zlashtirish:

a) dastur materialini o‘rganish tizimida so‘zning morfemik tarkibini o‘rganishning o‘rni bilan;

2) “o‘zak”, “o‘zakdosh so‘z”, “so‘z yasovchi qo‘shimcha”, “shakl yasovchi qo‘shimcha” tushunchalari ustida ishlashdagi izchillik bilan;

3) so‘zning morfemik tarkibi va so‘z yasalishining o‘zaro bir-biriga ta‘sir qilishi bilan;

4) morfemalarni to‘g‘ri yozish malakasini shakllantirish ustida ishlash bilan bog‘liqligini belgilab beradi.

O‘quvchilarni so‘z yasalish xususiyatlarini tushunishga tayyorlash uchun o‘qituvchi ularga muayyan bir yangi so‘z qaysi so‘zdan va qaysi morfema yordamida yasalganini aniqlashga qaratilgan topshiriq beradi. Masalan, o‘qituvchi chegara otini aytadi va chegarani qo‘riqlaydigan kishini bildiradigan o‘zakdosh ot tanlashni topshiradi (chegarachi). Vazifani boshqacharoq berish ham mumkin: o‘qituvchi so‘zni va so‘z yasovchi morfemani beradi. O‘quvchining vazifasi yangi so‘zni to‘g‘ri yasash va leksik ma‘nosini tushuntirish hisoblanadi. Masalan, baliq so‘zidan –chi qo‘shimchasi yordamida yangi so‘z yasash (baliqchi), uning leksik ma‘nosini tushuntirish, qaysi so‘z turkumi ekanini aytish topshiriladi. Ikkala topshiriqda ham o‘quvchilar so‘zni morfemik tahlil qiladilar. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilar e‘tiborini hosil bo‘lgan so‘z qaysi morfema yordamida, qaysi so‘z turkumidan yasalganiga, qanday ma‘no anglatishi va qaysi so‘z turkumi ekaniga qaratadi. Bunday mashqlarda tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarning leksik ma‘nosi bilan morfemik tarkibining o‘zaro bog‘liqligiga va biror so‘z turkumiga xarakterli bo‘lgan so‘z yasalishi usuliga asoslaniladi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalardan foydalanib, o‘tilgan darsda o‘quvchilar o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash malakasiga ega bo‘ladilar, o‘zgalar fikrini hurmat qilishni o‘rganadilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta‘lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr "O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.

2.O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 - noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PF - 6108 - son farmoni.

4. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009.

5. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Sobirova A. Husnixat va uni o'qitish metodikasi. T. Iqtisod-moliya. 2007.

6. Nazarova M.F. "Boshlang'ich sinf o'qitish darslari jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash usullari" Journal of universal science research. 20.02.2023.

7. Хазраткулова Ш.Н. «Совершенствование методов воспитания на занятиях в начальных классах». Международной научно-практической конференции. АЭТЕРНА. УФА. 1 августа 2022 г.

8. Khazratkulova Shaira Noraliyevna. Use of modern teaching methods in education of Students in primary schools. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal. Indiya. 2022 yil fevral. (123-126-b.)

9. Sh.N.Khazratkulova "Education directed to students in teaching the science of education in primary grades distinctive aspects". Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) April 2023.

РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ КАК СРЕДСТВО АКТИВИЗАЦИИ ИХ ПОЗНАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

*Тогаева Динора Рустамовна,
студентка 2-курса ТерГПИ*

**2022*
Мухтарова Лобар Абдиманнабовна,
доктор философских наук (PhD).*

Аннотация: Статья посвящена актуальной проблеме современного образования развитию способности к креативному мышлению у младших школьников, рассматриваются способы формирования творческого мышления у учащихся начальной школы и творческая деятельность учащихся, восприятие, критическое мышление, формирование и развитие творческих навыков в работе и творческие подходы учащихся и рассматриваются разные точки зрения по проблеме креативного мышления младших школьников.

Ключевые слова: творчество, творческая деятельность, мышление, процессы обучения, креативность, умственная деятельность, интуиция, идея, любопытство, критическое мышление.

